АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ФУЛЛЕРЕНА C₂₀ С РЕКОНСТРУИРОВАННОЙ ПОВЕРХНОСТЬЮ КРЕМНИЯ SI(001) МЕТОДАМИ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ДИНАМИКИ

Аннотация. Приведены результаты моделирования процесса адсорбции молекул фуллерена C₂₀ реконструированной поверхностью кремния Si(001), полученные методами молекулярной динамики (LAMMPS). Исследован процесс адсорбции молекулы фуллерена C₂₀ реконструированной поверхностью кремния Si(001) в рядах димеров и траншей на поверхности. Взаимодействие между поверхностью и молекулами фуллеренов определялись потенциалом Терсоффа. На основе сравнительного анализа полученных энергий и длин связей Si-C, определены стабильные состояния и конфигурации связей.

Ключевые слова: кремний, молекула фуллерена, моделирование, потенциал Терсоффа, длина связи, атом, потенциальная энергия, энергия адсорбции, взаимодействие, поверхность, димер, канавка, адсорбция.

Urolov I.Z.

Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies named after U.A. Arifov
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Yadgarov I.D.

¹Institute of Ion-Plasma and Laser Technologies named after U.A. Arifov

ANALYSIS OF INTERACTION PROCESSES OF C₂₀ FULLERENE WITH RECONSTRUCTED SILICON SI(001) SURFACE USING MOLECULAR DYNAMICS METHODS

Abstract. In this work, the adsorption process of the C₂₀ fullerene molecule with several different configurations on the reconstructed silicon Si(001) surface in dimer and trench rows on the surface was studied by simulation using the LAMMPS open package program based on the molecular dynamics method. The interactions between atoms in the substrate and the fullerene molecule are expressed by the Tersoff interatomic potential, and the adsorption energies of C₂₀ on the silicon substrate were determined. Based on the comparative analysis of obtained Si-C bond energies and bond lengths, stable bond states and configurations were determined.

Key words. silicon, fullerene molecule, modeling, Tersoff potential, bond length, atom, potential energy, adsorption energy, interaction, surface, dimer, trench, adsorption.

Kirish


Uglerodning allotropik shakl o'zgarishi bo'lgan fullerenlarning 1985 yilda kashf etilishi bilan uglerod nano-strukturalar davri boshlandi [1]. Fulleren molekularining turli o'lcham va shaklga egaligi sababli, ular yoqilg'i sanoati [2-4] va quyosh batareyalari [5,6], biyotibbiyot [7,8] va fullerenlar asosidagi mustahkamlanuvchi kompozitlar [9-11] sohalarda fullerenlargagina xos xususiyatlari bilan yorqin istiqbolga ega. C_{20} fulleren molekulasida fulleren oilasining eng kichik yoki eng kam sondagi uglerod atomlaridan tarkib topgan vakili bo'lib [12], u Eyler teoremasiga bo'ysungan holda 12 ta pentagondan iborat bo'ladi. C_{20} o'zining bir qator xususiyatlari bilan ko'pgina sohalarda amaliy istiqbolga ega, jumladan yuqori temperaturali o'ta o'tkazuvchanlik sohasida, bu boradagi nazariy izlanishlarni olib borgan olimlar Y. Miyamoto va M. Saito, I. Spagnolatti va boshqalar o'zlarining ishlarida buni ilgari surishgan [13-15]. Shuningdek, C_{20} molekularining kvant kompyuterlarda amaliy ahamiyati mavjud bo'lib, qattiq-holat kubitlari sifatida inkapsulyatsiyalangan vodorod atomiga ega vodorodlangan C_{20} molekulasida ishlatilishi mumkin [16]. Eksperimental tarzda, neytral va kichik kinetik energiyaga ega fulleren ($C_{20} - C_{32}$) molekulari yangi xususiyatlarga ega yupqa plyonka hosil qilish uchun har xil tagliklarga adsorbsiya qilingan [17]. C_{60} molekulasining kremniy taglikning (001) va (111) kesimli sirtlariga adsorbsiyasiga doir DFT (density functional theory) va MD (molekulyar dinamika) usullari asosidagi nazariy ishlar [18-21] amalga oshirilganiga qaramasdan, C_{20} fulleren molekulasining kremniy Si(001) sirtida adsorbsiyalanishi bilan bog'liq nazariy ishlar kam uchraydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – C_{20} fulleren molekulasining rekonstruksiyalangan kremniy Si(001) sirtida adsorbsiyalanish jarayonini molekulyar dinamika (MD) usuli asosida o'rganish, energiyani minimallashtirish usuli asosida fulleren molekularining adsorbsiyalanish energiyalari, adsorbsiyalanishda yuzaga keluvchi qo'shimcha Si-C bog'lar uzunligi va barqaror adsorbsiyalanish holatlari va ularga mos konfiguratsiyalarni aniqlashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan barcha MD simulyatsiyalari ochiq manba MD simulyatori LAMMPS [22] paket dasturi va Nanotube Modeler [23] kompyuter dasturi orqali bajarildi. Taglik va C_{20} fulleren molekularidagi atomlar orasidagi Si-Si, Si-C va C-C o'zaro ta'sirlashuvlar ikkinchi tartibli Tersoff atomlararo potentsiali yordamida ifodalandi [24]. C_{20} molekulasining kremniy taglikka adsorbsiyalanish jarayonlarida 1083 atomdan iborat, o'lchamlari $34 \times 34 \times 15.2$ Å ga teng

kremniy monokristallidan foydalanildi. Simulatsiya jarayoni va adsorbsiyalanish holatlari JMOL [25] kompyuter dasturida vizualizatsiya qilinishi bilan bir qatorda, Si-C bog'lar uzunligi va zaruriy konfiguratsiya va holatlarga mos taglik va C_{20} fulleren molekulasiga tegishli atomlarning koordinatalari ham ushbu dastur yordamida olindi. Turli o'lcham va atom sonidagi tagliklar bilan qilingan natijalar solishtirilganda taglik o'lchami bilan bog'liq effektlar kuzatilmadi. Noze-Guver termostati [26] dan NVT ansambli uchun tanlangan haroratni doimiy ushlab turishda foydalanildi. Verle tezlik-vaqt sxemasi 1.0 fs vaqt qadami bilan integratsiyalandi. Simulyatsiya vaqtida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ilgari tanlanma harakatlarni hisobga olmaslik maqsadida sistema massa markazi qo'zg'almas qilib tanlandi. Barcha simulyatsiyalar muvozanatli holatni egallaganlaricha 100 ns dan 200 ns gacha vaqt oralig'ida amalga oshirildi.



1- rasm. Kremniy taglikdagi dimer va trench qatorlari

1- rasmda rekonstruksiyalangan (001) sirtga ega va tadqiqot davomida taglik sifatida qo'llanilgan kremniy monokristali sirtidagi dimer va trench qatorlari tasvirlangan bo'lib, unda dimer qatoridagi Si-Si dimer bog'lar hosil qiluvchi kremniy atomlari to'q sariq rangda berilgan. Ikki dimer qatori orasidagi kanal (bo'shliq) – trench deb ataladi. C_{20} fulleren molekulasining adsorbsiyasi dimer qatori va trenchda kuzatilgan. Shuning uchun r_n va t_n qisqartmalardan foydalanilgan. n – adsorbsiyalanishda kuzatilgan bog'lar soni.

Adsorbsiya energiyasini hisoblash

Taglik sirtida adsorbsiyalangan molekula yoki klaster uchun adsorbsiya energiyasi E_{ads} taglik va unda adsorbsiyalangan molekula yoki klasterning muvozanat holatidagi to'liq energiyasi $E_{ads/sub}^{tot}$ dan taglik bilan molekula yoki klaster o'zaro ta'sirlashmagan vaqtdagi taglikning muvozanat holatidagi to'liq energiyasi E_{sub}^{tot} va molekula yoki klasterning muvozanat holatidagi to'liq energiyasi E_{ads}^{tot} larning yig'indisini ayirmasiga teng [27-28]:

$$E_{ads} = E_{ads/sub}^{tot} - (E_{sub}^{tot} + E_{ads}^{tot}).$$

C_{20} fulleren molekulasining kremniy taglikka adsorbsiyalanish energiyasi aniqlash uchun, dastlab, 0 K

temperaturada kremniy taglikning muvozanat holatidagi to'liq energiyasi E_{sub}^{tot} , keyin C_{20} fulleren molekulasining muvozanat holatidagi to'liq energiyasi E_{ads}^{tot} hisoblab chiqildi. Bundan keyin esa, C_{20} fulleren molekulasining kremniy taglikka adsorbsiyalanish holatida taglik va C_{20} fulleren molekulasining muvozanatdagi to'liq energiyasi $E_{ads/sub}^{tot}$ ham 0 K temperaturada aniqlandi va yuqoridagi formula asosida adsorbsiya energiyasi E_{ads} olindi. Barcha energiya qiymatlari LAMMPS ochiq paket dasturida energiyani minimaltirish usuli asosida hisoblandi.

Natijalar tavsifi va tahlili


Tadqiqot ishi davomida C_{20} fulleren molekulasining rekonstruksiyalangan kremniy Si(001) sirtida dimer qatori va trench ustida 7 xil konfiguratsiya bilan adsorbsiyalanishi aniqlandi va ayni konfiguratsiyalar uchun adsorbsiya energiyasi, adsorbsiyalanishda yuzaga keluvchi Si-C bog'lar uzunligi yuqorida ta'kidlangandek tartibda hisoblab chiqildi. Ushbu natijalar quyidagi 1-jadvalda bayon qilingan.

1-jadval. C_{20} fulleren molekulasining kremniy Si(001) sirtida adsorbsiyalanish holat va konfiguratsiyalariga mos adsorbsiya energiya va yuzaga keluvchi Si-C bog'larning uzunliklari.

No	Konfiguratsiya	E_{ads} (eV)	λ (Å)
1	r1	-2.362	1.91
2	r2	-3.295	1.96
3	r3	-3.910	1.97-2.00
4	r4	-4.891	1.97-2.01
5	t2	-1.352	2.02-2.03
6	t4	-4.295	2.05-2.06
7	t6	-7.292	1.96-2.07

1- jadvalda C_{20} fulleren molekulasining kremniy Si(001) sirtida kuzatilgan adsorbsiyalanish konfiguratsiyalariga mos adsorbsiya energiyasi E_{ads} va Si-C bog'larning uzunliklari λ qiymatlari berilgan. Olingan natijalarning solishtirma tahlili shuni ko'rsatdiki, C_{20} fulleren molekulasining trench sohasida r4, t4 va t6 konfiguratsiyalar barqaror adsorbsiya deb, hisoblash mumkin. Bunga sabab, ushbu konfiguratsiyalarga mos adsorbsiya energiya qiymatlarining nisbatan yuqori va bog' uzunliklarining qisqa ekanligidir. Barqaror adsorbsiya holatlarining aynan trench sohasida ko'proq kuzatilishining sababi ushbu sohalarda C_{20} fulleren molekulasidagi uglerod atomlari taglik yaqinroq holatlarni egallash imkonining mavjudligi natijasida bog'lar sonining ortishi bilan kovalent bog'lar hosil bo'lish ehtimolining ortishi natijasida ko'proq sondagi kovalent bog'larning yuzaga kelishidir. Buni Si-C bog'lar uzunliklarini adabiyotlarda berilgan qiymati bilan solishtirish orqali ham amin bo'lish mumkin. Adabiyotlardagi Si-C bog'lar uzunligi 1.93-1.94 Å qiymatga teng bo'lib [30], barqaror adsorbsiyalanish holatlariga mos Si-C bog' uzunliklari

ichida ushbu qiymatdan kichik va unga yaqin qiymatlar mavjudligini ko'rish mumkin. Nobarqaror holatlarda adsorbsiya energiyasi kichik va ushbu holatlardagi bog' uzunliklarining aksariyati adabiyotdagi qiymatdan katta ekanligi, ularning kuchsiz nokovalent bog'lar ekanligidan dalolat beradi.



2- rasm. C_{20} fulleren molekulasining kremniy Si(001) sirtida dimer qatorlari va trenchda adsorbsiyalanish holatlarining yuqoridan ko'rinishi

C_{20} fulleren molekulasining tadqiqot ishida aniqlangan adsorbsiyalanish holatlari va konfiguratsiyalariga mos simulatsiya tasvirlari 1- rasmda taqdim qilingan bo'lib, unda sariq rangdagi atomlar kremniy, to'q kulranglilari esa C_{20} fulleren molekulasidagi uglerod atomlari hisoblanadi. Si-C bog'lanish hosil qilgan kremniy va uglerod atomlari mos ravishda to'q sariq va malla ranglarda berilgan.

Xulosa

Fulleren C_{20} molekulasining rekonstruksiyalangan kremniy Si(001) sirtida adsorbsiya-siga doir tadqiqotda erishilgan natijalar tahlili natijasida quyidagicha

xulosalarga kelindi: molekulaning kremniy taglik sirtida adsorbsiyalanish energiyasi va ushbu jarayonda hosil boʻluvchi kremniy va uglerod atomlari orasidagi bogʻlanishlar uzunligi molekula dimer yoki trenchda adsorbsiyalanishiga bogʻliq va adsorbsiyalanish konfiguratsiyasiga qarab oʻzgarib boradi; ayni bir adsorbsiyalanish holatidagi bogʻlar uzunligi turlicha va ular ham kovalent, ham nokovalent bogʻlanishlarga mos

keladi; molekulaning trench qatorida adsorbsiya holatlari qolgan holatlarga nisbatan barqarorligi bilan ajralib turadi, shuningdek barqaror adsorbsiyalanish holatlarida kovalent bogʻlar soni bogʻlanish konfiguratsiyasiga bogʻliq ravishda bir va undan ortiq sonda boʻlishi mumkin; adsorbsiya vaqtida Si-C bogʻlanishda qatnashuvchi atomlarni oʻz ichiga oluvchi Si-Si va C-C bogʻlar uzunligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kroto, H.W., Heath, J.R., O'Brein, S.C., Curl, R.F. and Smalley, R.E., *Nature*, 1985, 318, 162.
2. Julieta Coro, Margarita Suarez, Lays S.R. Silva, Katlin I.B. Eguiluz, Giancarlo R. Salazar-Banda, *Fullerene applications in fuel cell: a review*, *International journal of hydrogen energy*, Vol. 30. Pp. 1-16, 2016.
3. Mina Yoon, Shenyuan Yang, Enge Wang, and Zhenyu Zhang, *Charged Fullerenes as High-Capacity Hydrogen Storage Media*, *Nano letters*, Vol. 7. No. pp. 2578-2583, 2007.
4. Hong Jiang Ren, ChengXing Cui, XiaoJun Li, YaJun Liu, *A DFT study of the hydrogen storage potentials and properties of Na- and Li-doped fullerenes*, Vol. 42(1), pp. 312-321,
5. Myoung Hee Yun, Jae Won Kim, Song Yi Park, Dong Suk Kim, Bright Walker and Jin Young Kim, *High-efficiency, hybrid Si/C₆₀ heterojunction solar cells*, *Journal of materials chemistry A*, Vol. 4. Pp. 16410-16417, 2016. <https://doi.org/10.1039/c6ta02248k>
6. Teresa Gattia, Enzo Mennaa, Moreno Meneghettia, Michele Magginia, Annamaria Petrozzab, Francesco Lamberti, *The Renaissance of fullerenes with perovskite solar cells*, *Nano energy*, Vol. 41, pp. 84, 2017. <https://doi.org/10.1016/j.nanoen.2017.09.016>
7. F. Moussa, [60] Fullerene and derivatives for biomedical applications, *Nanobiomaterials*, pp. 113-136, 2018, . <https://doi.org/10.1016/B978-0-08-100716-7.00005-2>
8. Seema Thakral and R.M. Mehta, *Fullerenes: An Introduction and Overview of Their Biological Properties Biological Properties*, *Indian Journal of Pharmaceutical Sciences*, Vol. 68, pp. 13-19, 2006,
9. Muhammet Emre Turan, Yavuz Sun, Yasin Akgul, *Mechanical, tribological and corrosion properties of fullerene reinforced magnesium matrix composites fabricated by semi powder metallurgy*, *Journal of alloys and compounds*, Vol. 740, pp. 1149-1158, 2018. <https://doi.org/10.1016/j.jallcom.2018.01.103>
10. Sergei Bronnikov, Aleksandr Podshivalov, Sergei Kostromin, Mihai Asandulesa, Vasile Cozan, *Electrical conductivity of polyazomethine/fullerene C₆₀ nanocomposites*, *Physics letters A*, Vol. 381, pp. 796-800, 2017, <http://dx.doi.org/10.1016/j.physleta.2016.12.045>
11. P. Ajay Kumar, V. Vishnu Namboodiri, Gaurang Joshi, Kush P. Mehta, *Fabrication and applications of fullerene-based metal nanocomposites: A review*, *Journal of materials research*, Vol. 36, pp. 114-128, 2021, <http://dx.doi.org/10.1557/s43578-020-00094-1>
12. Meija Juris, *Goldberg variations challenge*, *Analytical and Bioanalytical Chemistry*. 385 (1): 6-7, (2006), <https://doi:10.1007/s00216-006-0358>
13. Y. Miyamoto and M. Saito, *Condensed phases of all-pentagon C₂₀ cages as possible superconductors*, *Phys. Rev. B* 63, 161401, (2001). <https://doi:10.1103/PhysRevB.63.161401>
14. M. Saito and Y. Miyamoto, *Theoretical Identification of the Smallest Fullerene, C₂₀*, *Physical review letters*, 87, 3, 035503, (2001). <https://doi:10.1103/PhysRevLett.87.035503>
15. I. Spagnolatti, M. Bernasconi and G. Benedek, *Electron-phonon interaction in the solid form of the smallest fullerene C₂₀*, *Europhys. Lett.*, 59 (4), pp. 572-578 (2002), <https://doi:10.1209/epl/i2002-00384-1>
16. S. Park, D. Srivastava, K. Cho, *MRS Online Proceedings Library (OPL)*, Volume 675: Symposium W – Nanotubes, Fullerenes, Nanostructured and Disordered Carbon, 2001, W1.8.1, <https://doi.org/10.1557/PROC-675-W1.8.1>
17. A. Perez and otherhs, *Cluster assembled materials: a novel class of nanostructured solids with original structures and properties*, *Journal of Physics D: Applied Physics*, 30 (5), pp. 709-721, 1997, <https://doi.org/10.1088/0022-3727/30/5/003>
18. P.D. Godwin, S.D. Kenny, R. Smith, *The bonding sites and structure of C₆₀ on the Si(100) surface*, *Surface Science*, Vol. 529, pp. 237-246, 2003, [https://doi.org/10.1016/S0039-6028\(03\)00074-8](https://doi.org/10.1016/S0039-6028(03)00074-8)
19. Chris Hobbs, Lev Kantorovich, *Adsorption of C₆₀ on the Si(001) surface calculated within the generalized gradient approximation*, *Nanotechnology*, Vol. 15, pp. S1-S4. 2004, <https://doi.org/10.1088/0957-4484/15/2/001>
20. Chris Hobbs, Lev Kantorovich, Julian D. Gale, *An ab initio study of C₆₀ adsorption on the Si(001) surface*, *Surface science*, Vol. 591, pp. 45-55, 2005, <https://doi.org/10.1016/j.susc.2005.06.038>

21. R. Rurali, R. Cuadrado, J. I. Cerdá, C₆₀ adsorption on the Si(111)-p(7×7) surface: A theoretical study, *Physical review B*, Vol. 81, pp. 075419: 1-9, 2010, <https://doi.org/10.1103/PhysRevB.81.075419>
22. Sandia National Laboratories, Large-scale Atomic/Molecular Massively Parallel Simulator (LAMMPS), 2023, <https://www.lammps.org/>
23. M.Yoshida, Nanotube Modeler (Nanocoons, Bucky-Ball, Fullerenes, Simulation Software) (www.jcrystal.com)
24. P. Erhart and K. Albe, Analytical potential for atomistic simulations of silicon, carbon, and silicon carbide, *Physical Review B*, Vol. 71, pp. 035211-1-14, 2005, <https://doi.org/10.1103/PhysRevB.71.035211>
25. Java, Jmol, 2023, <http://www.jmol.org/>
26. Hoover, W.G., "Canonical dynamics: Equilibrium phase-space distributions", *Physical Review A*, Vol. 31, 1695, 1985, <https://doi.org/10.1103/PhysRevA.31.1695>
27. Y. S. Al-Hamdani et al, Properties of the water to boron nitride interaction: From zero to two dimensions with benchmark accuracy, *Journal of Chemical Physics*, Vol. 144, 154706, 2016, <https://doi.org/10.1063/1.4985878>
28. Dan C. Sorescu et al, First-principles calculations of the adsorption, diffusion, and dissociation of a CO molecule on the Fe (100) surface, *Physical Review B*, Vol. 66, pp. 035416, 2002, <https://doi.org/10.1103/PhysRevB.66.035416>
29. D.J. King, P.C. Frangou, S.D. Kenny, Interaction of C₆₀ molecules on Si(100), *Surface science*, Vol. 603, pp. 676-682, 2009. <http://dx.doi.org/10.1016/j.susc.2008.12.035>
30. Tetiana Sergeieva, Debdeep Mandal, Diego M. Andrada, Chemical Bonding in Silicon Carbonyl Complexes, *Chemistry – A European journal*, Vol. 27, pp. 1-10, 2021, <http://dx.doi.org/doi.org/10.1002/chem.2021>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Sayfulloyeva Gulnoz Sayfulloyevna

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: sayfullayevagulnoz@gmail.com

PROPORSIONAL INTENSIVLIKLAR MODELIDAGI APPROKSIMATSIYA

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasodifiy senzurlanishli umumlashgan modelning xususiy holi sifatida proporsional intensivliklar modellari uchun Kats empirik protsesslarini o'rganishga doir masalalarga bag'ishlangan.

Proporsional intensivliklar modelida yig'indilar sonini bog'liqsiz Puasson taqsimotiga ega tasodifiy miqdorlar bilan almashtirish orqali hosil qilingan empirik Kats statistikasi taqsimot funksiyasini baholangan.

Kalit so'zlar: tasodifiy senzurlanish, empirik baholar, Kats bahosi, kuchli approksimatsiya, Gauss jarayonlari.

Сайфуллоева Гулноз Сайфуллоевна

Навоийский государственный педагогический институт, PhD

АППРОКСИМАЦИЯ В МОДЕЛИ ПРОПОРЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕНСИВНОСТЕЙ

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию эмпирических процессов Каца для моделей пропорциональной интенсивности как частного случая обобщенной модели со случайной цензурой. В статье рассматривается оценка функции распределения с помощью эмпирической статистики Каца, которая получается путем замены количества слагаемых независимыми пуассоновскими случайными величинами.

Ключевые слова: Цензурированные данные, эмпирические оценки, оценка Каца, сильная аппроксимация, гауссовский процесс.

Sayfulloeva Gulnoz Sayfulloevna

Senior teacher of Navoi State Pedagogical Institute, PhD

APPROXIMATION IN THE PROPORTIONAL HAZARD MODEL

Abstract. This article is devoted to the study of empirical Katz processes for proportional intensity models as a special case of a generalized model with random censoring. The article discusses the estimation of the distribution function using empirical Kac statistics, which is obtained by replacing the number of terms with independent Poisson random variables.

Key words: Censored data, empirical estimates, Kac estimate, strong approximation, Gaussian process.

Kirish

Statistik tadqiqotlarning dastlabki bosqichida kuzatish natijalarini qayta ishlash va echimlar qabul qilish qulay ko'rinishda ifodalanishi asosiy masalalardan biridir. Statistik xulosalarning sifat ko'rsatkichi nafaqat ularning hajmiga balki ularni olish usullariga ham bog'liq bo'lib qoladi. Ammo yon atrofdagi mavjud statistik ma'lumotlar to'liq bo'lmay, ular asosida bir yoki bir necha tasodifiy miqdorlarning noma'lum taqsimotlari yoki ularning funkcionallari haqida statistik xulosalar chiqarishga to'g'ri keladi. To'liq bo'lmagan tanlanmalar umr davomiyligi tipidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda, sug'urta ishida, demografiyada, astronomik tadqiqotlarda ko'plab uchrab turadi. Masalan, chidamlilikka tekshirilayotgan ob'ektlar (texnik uskunalar, individumlar) ni kuzatish jarayonida bunday to'liq bo'lmagan sonli ma'lumotlarni uchratish

mumkin. Bunday eksperimental holatlarda kuzatilaayotgan tanlanmalar nafaqat bizni qiziqtiradigan tasodifiy miqdorlar, balki bizga xalaqit beruvchi, ya'ni senzuralovchi miqdorlardan ham iborat bo'lishi mumkin ekan. Bunday to'liq bo'lmagan ma'lumotlar orqali baholanishi zarur bo'lgan asosiy xarakteristika – bu bir yoki bir necha tasodifiy miqdorlarning taqsimot qonunlaridan iboratdir.

Adabiyotlar sharhi

M.Kats empirik protsesslarning maxsus sinfini tadqiq qildi. Bu protsesslar parametri n ga teng bo'lgan bog'liq bo'lmagan Puasson tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi yordamida qo'shiluvchilarni maxsus tanlash yordamida empirik statistika ko'rinishida tanlanadi. Bunday protsesslarni M.Csörgő, S.Csörgő, P.Gaenssler, W.Stute va boshqalar o'tgan asr 70-80 yillarida tadqiq

qilganlar. Hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlar M.Katsning klassik statistikasiga aloqador edi.

Tahlil va natijalar

Faraz qilaylik, taqsimot funksiyasi $H(x) = P(Z \leq x)$, $x \in \square^1$ dan iborat Z tasodifiy miqdor berilgan bo'lsin. $A^{(1)}, \dots, A^{(k)}$ fikslangan butun son $k \geq 1$ uchun, juft-jufti bilan birgalikda bo'lmagan hodisalar bo'lib, ular orqali tuzilgan subtaqsimotlar esa $H(x; i) = P(Z \leq x, A^{(i)})$, $i = \{1, \dots, k\} = J$ bo'lsin.

Biz $H(x)$ va $H(x; i)$, $i \in J$ funksiyalar uzluksiz deb hisoblaymiz. Agar $p^{(i)} = P(A_i)$, $i \in J$ desak, $0 < p^{(i)} < 1$, $i \in J$ deb hisoblaymiz. Proporsional intensivliklar modellari (PIM) raqobatlashuvchi risklar modelida $(Z, A^{(i)})$ juftlikka mos kelgan $1 - F(x; i) = \exp(-\Lambda(x; i))$ chidamlilik funksiyasi, $H(x)$ taqsimot funksiyasi orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$1 - F(x; i) = (1 - H(x))^{p^{(i)}}, \quad i \in J, \quad x \in R \quad (1)$$

tenglik orqali ifodalanadi. Ushbu (1) model dastlab [1] da kiritilgan edi. U holda $H(x; i)$, $i = 1, \dots, k$ subtaqsimotlar va $H(x)$ taqsimot funksiyasi uchun modifikatsiya qilingan quyidagi Kats empirik baholarini qaraymiz:

$$H_n(x; i) = 1 - (1 - H_n^*(x; i))I(H_n^*(x; i) < 1), \quad (x; i) \in \square \times J, \\ H_n(x) = 1 - (1 - H_n^*(x))I(H_n^*(x) < 1), \quad x \in \square. \quad (2)$$

Bu yerda $H^*(x)$ va $H^*(x; i)$, $i = \overline{1, k}$ lar empirik Kats baholari:

$$H_n^*(x) = \begin{cases} \frac{1}{n} \sum_{m=1}^{v(n)} I(Z_m \leq x), & \text{agar } 1 \text{ ehtimollik bilan } v_n \geq 1 \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks holda,} \end{cases} \\ H_n^*(x; i) = \begin{cases} \frac{1}{n} \sum_{m=1}^{v(n)} I(Z_m \leq x, \delta_m^{(i)} = 1), & \text{agar } 1 \text{ ehtimollik bilan } v_n \geq 1 \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks holda.} \end{cases}$$

(1) tenglik bilan aniqlangan statistik modelni ko'ramiz.

Bizning ushbu ishda tadqiq qiladigan bahomiz

$$f(x, p) = (1 - x)^p, \quad (0 \leq p \leq 1, \quad 0 \leq x < 1)$$

ko'rinishida bo'lgani uchun, bunday baholarni asimptotik xossalarini tadqiq qilish uchun uni Teylor qatoriga yoyilmasidan foydalanamiz. Buning uchun

dastlab taqsimot funksiyalarning bahosini (1) ifodaga asoslangan holda

$$1 - \tilde{F}_n(x; i) = (1 - \tilde{H}_n(x))^{p_n^{(i)}}, \quad i \in J, \quad x \in R, \quad (3)$$

ko'rinishida qurib olamiz. Bu yerda $\tilde{H}_n(x)$ va $p_n^{(i)} = \tilde{H}_n(\infty; i)$, $i \in J$ baholar. Ushbu ikki o'lchovli $f(x, p)$ funksiyaning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalari quyidagicha:

$$f'_x(x, p) = -p(1 - x)^{p-1}, \\ f'_p(x, p) = (1 - x)^p \log(1 - x), \\ f''_{xp}(x, p) = -(1 - x)^{p-1} (1 + p \log(1 - x)), \\ f''_{xx}(x, p) = p(p - 1)(1 - x)^{p-2}, \\ f''_{pp}(x, p) = (1 - x)^p \log^2(1 - x),$$

U holda

$$f(\tilde{H}_n(x), p_n^{(i)}) = (1 - \tilde{H}_n(x))^{p_n^{(i)}}, \quad i \in J, \quad x \in R$$

baholarni $(H(x), p^{(i)})$, $i \in J$ nuqtalar atrofida mos yoyilmalarini yozib olamiz:

$$f(\tilde{H}_n(x), p_n^{(i)}) = (1 - \tilde{H}_n(x))^{p_n^{(i)}} = (1 - H(x))^{p^{(i)}} + \\ + \left\{ -p^{(i)}(1 - H(x))^{p^{(i)}-1} (\tilde{H}_n(x) - H(x)) + (1 - H(x))^{p^{(i)}} (\log(1 - H(x))) (p_n^{(i)} - p^{(i)}) \right\} + \\ + \frac{1}{2} \left\{ p_n^{(i)} (p_n^{(i)} - 1) (1 - \tilde{H}_n(x))^{p_n^{(i)}-2} (\tilde{H}_n(x) - H(x))^2 - \right. \\ \left. - 2(1 - \tilde{H}_n(x))^{p_n^{(i)}-1} (1 + p_n^{(i)} \log(1 - \tilde{H}_n(x))) (\tilde{H}_n(x) - H(x)) (p_n^{(i)} - p^{(i)}) + \right. \\ \left. + (1 - \tilde{H}_n(x))^{p_n^{(i)}} [\log^2(1 - \tilde{H}_n(x))] (p_n^{(i)} - p^{(i)}) \right\}, \quad i \in J, \quad x \in R \quad (4)$$

Bu yerda

$$\tilde{H}_n(x) \in \left[\min(\tilde{H}_n(x), H(x)), \max(\tilde{H}_n(x), H(x)) \right],$$

$$p_n^{(i)} \in \left[\min(p_n^{(i)}, p^{(i)}), \max(p_n^{(i)}, p^{(i)}) \right].$$

Baholardan iborat vektor protsesslar

$$\tilde{\square}_n(t) = (\tilde{\square}_n^{(1)}(t_1), \tilde{\square}_n^{(2)}(t_2), \dots, \tilde{\square}_n^{(k)}(t_k)),$$

hamda Gauss protsesslaridan iborat

$$\tilde{V}_n(t) = (\tilde{V}_n^{(1)}(t_1), \tilde{V}_n^{(2)}(t_2), \dots, \tilde{V}_n^{(k)}(t_k)),$$

vektorni aniqlaymiz. Bu yerda

$$\tilde{\square}_n^{(i)}(x) = \sqrt{n} (\tilde{F}_n(x; i) - F(x; i)),$$

$$\tilde{F}_n(x; i) = 1 - \left(1 - \tilde{H}_n(x)\right)^{\tilde{p}_n^{(i)}}, i \in J, x \in R,$$

$$\tilde{p}_n^{(i)} = \tilde{H}_n(\infty; i), i \in J \text{ hamda}$$

$$\tilde{V}_n^{(i)}(x) = (1 - H(x))^{p^{(i)}} \left\{ \frac{p^{(i)} W_n^{(0)}(x)}{1 - H(x)} - W_n^{(i)}(\infty) \log(1 - H(x)) \right\}.$$

Faraz qilaylik, $\{T_n, n \geq 1\}$ ketma-ketlik shunday tanlansinki,

$$T_n \uparrow T_H, \quad b_n^{-1} = (1 - H(T_n)) \geq \left(\frac{2\varepsilon \log n}{wn} \right)^{1/2} \quad (5)$$

hamda

$$\frac{n}{\log n} \geq \max \left\{ \frac{r}{2w(1 - p^{(i)})^2}, \frac{2r}{w(p^{(i)})^2} \right\} \text{ shartlar}$$

bajarilsin.

1-teorema. Faraz qilamiz, $\{T_n, n \geq 1\}$ ketma-ketligi (5) shartlarni qanoatlantirsin. U holda [2]dagi 1-teoremaning shartlarini qanoatlantiradigan yetarlicha boy ehtimollar fazosida quyidagi approksimatsiya o'rinli bo'ladi:

$$P \left(\sup_{t \in (-\infty; T_n]^k} \left\| \tilde{\square}_n(t) - \tilde{V}_n(t) \right\|^{(k)} > C_n \frac{\log n}{\sqrt{n}} \right) \leq kQn^{-r}, \quad (6)$$

Bu yerda $\mathcal{E} = r$,

$$C_n = \frac{r}{4w} b_n^2 + \left(A_4 + \frac{r(1 + e^{-1})}{w} \right) + \frac{1}{ep^{(i)}} \left(A_4 + \frac{4r}{wep^{(i)}} \right),$$

$$Q = 2A_5 + 16, \quad r \geq 2 \text{ va } A_4, A_5 \text{--o'zgarimas sonlar.}$$

1-teoremaning isboti. $i = 1, \dots, k$ uchun

$$\left| \tilde{\square}_n^{(i)}(x) - \tilde{V}_n^{(i)}(x) \right| \leq R_{1n}^{(i)}(x) + R_{2n}^{(i)}(x) + R_{3n}^{(i)}(x) + R_{4n}^{(i)}(x) + R_{5n}^{(i)}(x) \quad (7)$$

tengsizlik o'rinli. U holda (4) yoyilmaga hamda (7) tengsizlikka asosan,

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| \tilde{\square}_n^{(i)}(x) - \tilde{V}_n^{(i)}(x) \right| > C_n \frac{\log n}{\sqrt{n}} \right) \leq \sum_{m=1}^5 P \left(\sup_{x \leq T_n} |R_m^{(i)}(x)| > \mu_m(n) \right), \quad (8)$$

bu yerda

$$\mu_1(n) + \mu_2(n) + \mu_3(n) + \mu_4(n) + \mu_5(n) = C_n \frac{\log n}{\sqrt{n}}.$$

Endi (8) dagi har bir ehtimollikni alohida baholaymiz.

U holda

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} |R_{1n}^{(i)}(x)| > A_4 b_n \frac{\log n}{\sqrt{n}} \right) =$$

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| p^{(i)} (1 - H(x))^{p^{(i)}} b_n \sqrt{n} (\tilde{H}_n(x) - H(x)) - W_n(H(x)) \right| > A_4 b_n \frac{\log n}{\sqrt{n}} \right) \leq \\ \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| \sqrt{n} (\tilde{H}_n(x) - H(x)) - W_n(H(x)) \right| > A_4 \frac{\log n}{\sqrt{n}} \right) \leq A_5 n^{-r} \quad (9)$$

$$\text{tengsizlik } \frac{n}{\log n} \geq \frac{r}{8(1 + e/3)^2}, \text{ bo'lganida}$$

o'rinli bo'ladi. Endi $u \in [0, 1]$ hamda $\alpha, \gamma > 0$ bo'lganida

$$0 \leq u^\gamma |\log u|^\alpha \leq \left(\frac{\alpha}{\gamma} \right)^\alpha e^{-\alpha}. \quad (10)$$

elementar tengsizlikdan foydalanamiz. Agar $u = 1 - H(x)$, $\alpha = 1$, $\gamma = p^{(i)}$ bo'lsa, u holda (10) ga asosan

$$\left(1 - H(x) \right)^{p^{(i)}} \left| \log(1 - H(x)) \right| \leq \left(p^{(i)} \right)^{-1} e^{-1}$$

bo'ladi. Demak, $i \in J = 1, \dots, k$ uchun

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} |R_{2n}^{(i)}(x)| > \frac{A_4 \log n}{ep^{(i)} \sqrt{n}} \right) = \\ = P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 - H(x))^{p^{(i)}} \left| \log(1 - H(x)) \right| \left(\sqrt{n} (\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)}) - W_n(H(\infty, i)) \right) \right| > \frac{A_4 \log n}{ep^{(i)} \sqrt{n}} \right) \leq \\ \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| \sqrt{n} (\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)}) - W_n(H(\infty, i)) \right| > \frac{A_4 \log n}{ep^{(i)} \sqrt{n}} \right) \leq A_5 n^{-r} \quad (11)$$

tengsizlik

$$\frac{n}{\log n} \geq \max \left\{ \frac{r}{2w(1 - p^{(i)})^2}, \frac{r}{8(1 + e/3)^2} \right\}$$

bo'lganida o'rinli bo'ladi.

$$u \in [0, 1] \text{ uchun } u(1 - u) \leq \frac{1}{4} \text{ ekanligidan,}$$

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} |R_{3n}^{(i)}(x)| > \frac{b_n^2 r \log n}{4w \sqrt{n}} \right) =$$

$$= P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| \frac{\sqrt{n}}{2} \tilde{p}_n^{(i)} (\tilde{p}_n^{(i)} - 1) (1 - \tilde{H}_n(x))^{-2} (\tilde{H}_n(x) - H(x))^2 \right| > \frac{b_n^2 r \log n}{4w \sqrt{n}} \right) \leq \\ \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 - \tilde{H}_n(x))^{-2} (\tilde{H}_n(x) - H(x))^2 \right| > \frac{2b_n^2 r \log n}{w \sqrt{n}} \right) \leq \\ \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| 1 - \tilde{H}_n(x) \right|^{-2} > 4b_n^2 \right) + P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| \tilde{H}_n(x) - H(x) \right| > \left(\frac{r \log n}{w \sqrt{n}} \right)^{1/2} \right) = \\ = P_{31} + P_{32}.$$

Endi $y = \frac{1}{x}$ funksiyaning $(0, 1]$ oraliqda monotonligi

va lemmaga asosan,

$$p_{31} \leq \max \left\{ P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 - H_n(x))^{-1} \right| > 2b_n \right), P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 - \tilde{H}_n(x))^{-1} \right| > 2b_n \right) \right\} \leq \max \left\{ P \left(\frac{1}{1 - H(x)} > \frac{2}{1 - H(x)} \right), 4n^{-r} \right\} = \max \{0, 4n^{-r}\} = 4n^{-r},$$

$$\frac{n}{\log n} \geq \frac{r}{8(1 + e/3)^2} \text{ tengsizlik bajarilganida}$$

o'rinli. Endi [2]dagi 6-teoremaga asosan, agar

$$\frac{n}{\log n} \geq \frac{r}{8(1 + e/3)^2} \text{ bo'lsa,}$$

$$p_{32} \leq P \left(\sup_{-\infty < x < \infty} \left| \tilde{H}_n(x) - H(x) \right| > \left(\frac{r \log n}{w \sqrt{n}} \right)^{1/2} \right) \leq 4n^{-r}.$$

Demak, $i \in J = 1, \dots, k$ uchun

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| R_{3n}^{(i)}(x) \right| > \frac{b_n^2 r \log n}{4w \sqrt{n}} \right) \leq 4n^{-r} \quad (12)$$

ekan. Endi (10) tengsizlikdan

$u = 1 - \tilde{H}_n(x)$, $\gamma = \tilde{p}_n^{(i)}$, $\alpha = 1$ deb tanlasak,

$$\left(1 - \tilde{H}_n(x) \right)^{\tilde{p}_n^{(i)}} \left| \log \left(1 - \tilde{H}_n(x) \right) \right| \leq \frac{1}{e \tilde{p}_n^{(i)}}$$

tengsizlikni olamiz. Bu tengsizlikni qo'llasak,

$$\begin{aligned} & P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| R_{4n}^{(i)}(x) \right| > r \frac{(1 + e^{-1})b_n \log n}{w} \right) \leq \\ & \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 - \tilde{H}_n(x))^{\tilde{p}_n^{(i)}} (1 + \tilde{p}_n^{(i)} \log(1 - \tilde{H}_n(x))) \frac{(\tilde{H}_n(x) - H(x))(\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)})}{(1 - \tilde{H}_n(x))} \right| > r \frac{(1 + e^{-1})b_n \log n}{wn} \right) \leq \\ & \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 + e^{-1}) \frac{1}{1 - \tilde{H}_n(x)} (\tilde{H}_n(x) - H(x)) (\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)}) \right| > r \frac{(1 + e^{-1})b_n \log n}{wn} \right) \leq \\ & \leq P \left(\sup_{x \leq T_n} (1 - \tilde{H}_n(x))^{-1} > 2b_n \right) + P \left(\sup_{x \leq T_n} (\tilde{H}_n(x) - H(x)) (\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)}) > \frac{r \log n}{wn} \right) = \\ & = P_{41} + P_{42}. \end{aligned}$$

Ko'rish mumkinki, $P_{41} = P_{31} < 4n^{-r}$.

Agar

$$\begin{aligned} \frac{n}{\log n} & \geq \max \left\{ \frac{r}{8(1 + e/3)^2}, 128w^2r \right\} = r \max \left\{ \frac{1}{8(1 + e/3)^2}, \frac{1}{2(1 + e/3)^2} \right\} = \\ & = \frac{r}{2(1 + e/3)^2} = 128w^2r \text{ bo'lgan holda, qolgan} \end{aligned}$$

qo'shiluvchilar uchun tengsizliklarni qo'llasak,

$$p_{42} \leq \max \left\{ P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| \tilde{H}_n(x) - H(x) \right| > \sqrt{\frac{r \log n}{2wn}} \right), P \left(\left| \tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)} \right| > \sqrt{\frac{r \log n}{2wn}} \right) \right\} \leq 4n^{-r}$$

bo'ladi.

SHunday qilib,

$$P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| R_{4n}^{(i)}(x) \right| > r \frac{(1 + e^{-1})b_n \log n}{w} \right) \leq 8n^{-r}. \quad (13)$$

Endi (10) tengsizlikni

$u = 1 - \tilde{H}_n(x)$, $\gamma = \tilde{p}_n^{(i)}$, $\alpha = 2$ bo'lgan holda qo'llasak,

$$\left(1 - \tilde{H}_n(x) \right)^{\tilde{p}_n^{(i)} - 1} \log^2 \left(1 - \tilde{H}_n(x) \right) \leq \frac{4}{\left(\tilde{p}_n^{(i)} \right)^2 e^2}.$$

Bu tengsizlik va [2]-lemmani qo'llasak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} & P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| R_{5n}^{(i)}(x) \right| > \frac{4r}{we^2 (p^{(i)})^2 \sqrt{n}} \right) = \\ & = P \left(\sup_{x \leq T_n} \left| (1 - \tilde{H}_n(x))^{\tilde{p}_n^{(i)} - 1} \log^2(1 - \tilde{H}_n(x)) (\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)}) \right| > \frac{8r}{we^2 (p^{(i)})^2 n} \right) \leq \\ & \leq P \left(\left| \frac{4}{\left(\tilde{p}_n^{(i)} \right)^2} (\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)})^2 \right| > \frac{8r}{w (p^{(i)})^2 n} \right) \leq \\ & \leq P \left(\frac{4}{\left(\tilde{p}_n^{(i)} \right)^2} > \frac{16}{\left(p^{(i)} \right)^2} \right) + P \left(\left(\tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)} \right)^2 > \frac{r \log n}{2wn} \right) \leq \\ & \leq P \left(\frac{1}{\tilde{p}_n^{(i)}} > \frac{2}{p^{(i)}} \right) + P \left(\left| \tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)} \right| > \sqrt{\frac{r \log n}{2wn}} \right) \leq \\ & \leq \max \left\{ P \left(\frac{1}{\tilde{p}_n^{(i)}} > \frac{2}{p^{(i)}} \right), P \left(\frac{1}{\tilde{p}_n^{(i)}} > \frac{2}{p^{(i)}} \right) \right\} + P \left(\left| \tilde{p}_n^{(i)} - p^{(i)} \right| > \sqrt{\frac{r \log n}{2wn}} \right) \leq \\ & \leq 2n^{-r} + 2n^{-r} = 4n^{-r}, \end{aligned}$$

$$\text{bunda } \frac{n}{\log n} \geq \max \left\{ \frac{2r}{w (p^{(i)})^2}, 128w^2r \right\}.$$

Hosil bo'lgan (9), (10)-(13) tengsizliklardan (6) ga ega bo'lamiz.

Endi 1-teoremaning shartlarini tekshiramiz.

$$\frac{r}{2w(1 - p^{(i)})^2} \geq \frac{r}{2w} = 8(1 + e/3)r > \frac{r}{2(1 + e/3)^2} = 128w^2r$$

ekanligidan

$$\begin{aligned} \frac{n}{\log n} &\geq \max \left\{ \frac{r}{8(1+e/3)^2}, \frac{r}{2w(1-p^{(i)})^2}, 128w^2r, \frac{2r}{w(p^{(i)})^2} \right\} = \\ &= \max \left\{ \frac{r}{2w(1-p^{(i)})^2}, 128w^2r, \frac{2r}{w(p^{(i)})^2} \right\} = \\ &= \max \left\{ \frac{r}{2w(1-p^{(i)})^2}, \frac{2r}{w(p^{(i)})^2} \right\} \end{aligned}$$

shartlar bajarilar ekan. 1-teorema isbotlandi.

Xulosa

Ushbu ishda tasodifiy senzurlanishning raqobatli risklar modelida modifikatsiya qilingan Kats statistikasi va uning funksionallarining asimptotikasiga oid masalalar o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдушукуров А.А. Статистика неполных наблюдений. Ташкент. Университет. 2009.
2. Abdushukurov A.A., Sayfulloyeva G.S. On approximation of empirical Kac processes under general random censorship model. // Journal of Siberian Federal University «Mathematics and physics» (Scopus) ISSN 1997-1397. 2022. №3.
3. Abdushukurov A.A. Sayfulloyeva G.S. Empirical Kac processes under general random censorship model.//ITMM2021. 20th International Conference named after A.F.Terpugov Information Technologies and Mathematical Modelling, Russia, Tomsk, p.304-309.
4. Burke M.D., Csörgő S., Horváth L. Strong approximations of some biometric estimates under random censorship.//Z.Wahrschein. Verw. Gebiete. 1981, v.56, p.87-112.
5. Bickel P., Rozenblatt M. On some global measures of the deviations of density function estimates. // Ann, Statist.
6. Burke M.D. Approximations of some hazard rate estimators in competing risks model. // Stock. Proc. Appl. 1983. v.14. p.157-174.
7. Burke M.D., Horvath L. Density and failure rate estimation in a competing risks model. // Sakhyâ: Indian J. Statist. 1984 .v.46. Ser A., Pt.1. p. 135-154.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Djurayev Davron Rahmonovich
Buxoro davlat universiteti professori
Turayev Akmal Atayevich
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Turayev Ozodjon G'ayrat o'g'li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E mail: ozodjonturayev@gmail.com

UO'K: 538.945.9

YBCO-(123) KUPRATI KRITIK PARAMETRLARINING STATISTIK TAHLILI VA KRISTAL PANJARA TUZILISHI

Annotatsiya: Maqolada yuqori haroratli o'ta o'tkazgich (YHO'O') kupratlar oilasiga kiruvchi Ittriy asosli YBCO (123) kupratining olinish texnologiyalari va uning kritik parametrlari haqida so'z boradi. Bunda dunyo olimlarining shu namunani o'rganish yuzasidan olgan natijalari tahlili va bizda mavjud natijalar taqqoslandi. Y-123 kupratini tadqiq qilish bo'yicha oxirgi 10 yillik xalqaro ilmiy manbalarda chop etilgan maqolalar xronologiyasi ishlab chiqildi. $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ formula asosida olingan namunalarda δ ning qiymati o'zgarish kristall panjara tuzilishiga ta'siri manbalar tahlili asosida ifodalandi. YBCO namunaning elektrofizik xossalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: YHO'O', YBCO, Qattiq holatdagi reaksiya, Raman spektroskopiyasi, kristall panjara, maglev, Miessner effekti.

Джураев Даврон Рахмонович
Профессор Бухарского государственного университета
Тураев Акмал Атаевич
Доцент Бухарского государственного университета
Тураев Озоджон Гайратович
Докторант Бухарского государственного университета

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КРИТИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ И СТРУКТУРЫ КРИСТАЛЛИЧЕСКОЙ РЕШЕТКИ YBCO-(123) КУПРАТА

Аннотация: В статье рассказывается о технологии производства купрата YBCO(123) на основе иттрия, относящегося к семейству купратов высокотемпературных сверхпроводников (ВТС), и его критических параметрах. При этом был сопоставлен анализ результатов, полученных учеными мира по изучению данного образца, и имеющихся у нас результатов. Разработана хронология статей, опубликованных в международных научных источниках за последние 10 лет по исследованию купрата Y-123. На основе анализа источников выражено влияние изменения величины δ на структуру кристаллической решетки в образцах, полученных по формуле $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$. Были изучены электрофизические свойства образца YBCO.

Ключевые слова: ВТС, YBCO, Твердофазная реакция, Рамановская спектроскопия, кристаллическая решетка, маглев, эффект Мисснера.

Djuraev Davron Rakhmonovich
Professor of Bukhara State University
Turaev Akmal Atayevich
Associate Professor of Bukhara State University
Turaev Ozodzhon Gayratovich
Doctoral student of Bukhara State University

STATISTICAL ANALYSIS OF CRITICAL PARAMETERS AND CRYSTAL LATTICE STRUCTURE OF YBCO- (123) CUPRATE

Abstract: The article describes the technology of producing yttrium-based YBCO(123) cuprate, which belongs to the family of high-temperature superconductor (HTS) cuprates, and its critical parameters. At the same time, the analysis of the results obtained by scientists around the world in studying this sample was compared with the results we have. A chronology of articles published in international scientific sources over the past 10 years on the study of Y-123 cuprate was developed. Based on the analysis of sources, the effect of changing the *d* value on the structure of the crystal lattice in samples obtained according to the formula $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ was expressed. The electrophysical properties of the YBCO sample were studied.


Keywords: HTS, YBCO, Solid-state reaction, Raman spectroscopy, crystal lattice, maglev, Missner effect.

Kirish.

Hozirgi kunda yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlar (YHO'O') kontaktsiz magnit podshipniklar, magnit yostoqli tezyurar poyezdlar (Maglev) va energiyasini saqlash tizimlari va boshqalar kabi turli xil sohalarda qo'llaniladi. Vertikal yo'nalishdagi magnit levitatsiya kuchi Maglev tizimlarining yuklash qobiliyatini va barqarorligini oshirish uchun yon tomondagi yo'naltiruvchi kuchni oshirish kerak. Biroq, bu Maglev tizimining narxining oshishiga olib keladi, chunki bu tizimlarning asosiy narxi shaharlar yoki mamlakatlar o'rtasida kilometr lab masofada PMG qurishdir. Magnit kuch xususiyatlarini oshirishning yana bir usuli - bu YHO'O' ning o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatlarini yaxshilashdir. So'nggi yillarda yuqori kritik oqim zichligi va oqimlarni ushlab turish qobiliyati tufayli Maglev tizimlarida YHO'O' sifatida YBCO kuprat o'ta o'tkazgichlarining qo'llaniladi.

Experimental usullar

Ittiry asosli kupratlarni (YBCO yoki Y-123) tadqiq qilishdan oldin, bunday turdagi namunalarni dunyo olimlari tomonidan o'rganilish holati adabiyotlar tahlili orqali aniqlandi. Buning uchun xalqaro ilmiy nashrlar ba'zalari statistik tahlili o'rganildi (1-rasm).



1-rasm. YBCO kupratini tadqiq qilish bo'yicha xalqaro ilmiy jurnallardan chop etilgan maqolalarning oxirgi 10 yillik statistikasi (02.07.2024 holatida).

Mazkur diagrammada Science direct, Wiley va Web of Science ilmiy adabiyotlar ro'yxatida mavjud

maqolalarning yillar bo'yicha nashrlar soni keltirilgan. Har bir yil bo'yicha o'zgarish dinamikasiga ko'ra Wiley va Web of Science ilmiy adabiyotlar ro'yxatida mavjud jurnallarda chop etilgan maqolalarning soni yillar kesimida katta o'zgarishsiz kamayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Lekin Scopus ba'zasida indekslangan jurnalalarda chop etilayotgan maqolalar soni 2017 - yildan boshlab faqat o'sib borayotgani ko'rish mumkin, bu sohada olib birilayotgan ishlar ko'lami sezilarli oshganini ko'satadi. 2023 - yilning o'zida 522 ta 2024 - yilning II choragi yakuni bo'yicha 379 ta maqolaning chop etilgani esa soha dolzarbligi va ahamiyatini yana oshayotganligini bildiradi.

YBCO kupratini sintezlash usullari

Kupratlar olishning bir qancha usullari bo'lgani kabi YBCO ni sintezlashning ham bir qancha usullari madjud:

- Qattiq holatdagi reaksiya usuli (Solid-State Reaction Method);
- Sol-Gel usuli (Sol-Gel Method);
- Kimyoviy nam usul (Chemical Wet Method);
- Eritmani cho'ktirish usuli (Melt-Quench Method);

Biz YBCO namunni sintezi uchun qattiq fazali reaksiya usulini tanladik, Kupratlarni sintez qilish uchun an'anaviy qattiq holat reaksiyasi yo'nalishi tegishli metall oksidlari yoki karbonatlarini maydalash va keyin kationlarning interdiffuziyasini ta'minlash uchun yuqori haroratda kaltsiylash orqali aralashtirishdan iborat. Kimyoviy reaksiya sekin kinetik tezligi bilan ajralib turadigan ionlarning qattiq holatda tarqalishi orqali sodir bo'ladi. Aralash darajasi va chang zarrachalarining o'lchamlari alohida ahamiyatga ega. Reaksiya dastlabki komponentlar orasidagi aloqa nuqtalarida boshlanadi va YBa₂ mahsulot fazasi orqali ionli interdiffuziya bilan ketma-ket davom etadi. Qisqa diffuziya yo'llari tufayli dastlabki reaksiya tezdir, ammo keyingi reaksiya sekinroq davom etadi. Ko'p hollarda bir qator kiruvchi bosqichlar paydo bo'ladi. Shunday tartibda kupratning makromolekulyar kristall parjarasi shaklanadi [1].


Ittiry asosli kupratlarni olishda kalsinlash harorati hamda kritik parametrlari o'rganildi. Quyidagi jadvalda belgilangan tartibda joylashtirilgan.

1-jadval. YBCO namunalari kritik parametrlari tahlili

№	Tarkibi (YBa ₂ Cu ₃ O _{7-δ})	Panjara parametrlari			V (Å ³)	δ	Calc. t _c (°C)	T _c (K)	ΔT	Manba
		a, (Å)	b, (Å)	c, (Å)						

1	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.92}	3.8	3.9	11.7	173.394	0.08	920	90	3.5	[3]
2	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.9}	3.8227	3.8872	11.6802	173.563	0.1	920	91.95	5.45	[4]
3	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.4}	3.82	3.89	11.67	173.414	0.6	910	90	3	[5]
4	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.72}	3.831	3.8502	11.6809	172.295	0.28	850	91.68	5.48	[6]
5	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.71}	3.825	3.887	11.671	173.522	0.29	950	93	11	[7]
6	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.84}	3.806	3.882	11.6789	172.554	0.16	950	93.5	4.5	[8]
8	YBa ₂ Cu ₃ O _{6.92}	3.8224	3.8941	11.6858	173.941	0.08	940	100	12	

Mazkur jadvalda YBCO (123) kupratining kristall panjara o'lchamlarining kritik parametrlariga bog'lanishi keltirilgan. Bunda turli davlatlarda dunyo tadqiqotchilarining olgan natilajalari tahlil qilindi. Jadvalda δ ning qiymati kamayib brogan sari namuna kritik harorati T_c oshib boryotganini ko'rish mumkin. Nazariy ma'lumotlarga qaraganda $0 \leq \delta \leq 1$ qiymatlarni qabul qiladi. Agar $\delta=0$ bo'lsa kristall panjara tetragonal shaklda bo'lib, bunda namuna yarim o'tkazgichlarga xususiyatlarni namoyon qiladi. Agar $\delta=1$ bo'lganda kristall panjara ortorombik bo'ladi va bu o'ta o'tazuvchanlik hosil bo'lishi uchun kerak bo'lgan shakldir. δ ning nolga yaqin qiymatlarni qabul qilishida kriltall panjara hajmi ham maksimal qiymatlarni qabul qiladi. Hajm kattalashganda tok tashuvchilar uchun harakat maydonining kengligi hisobidan kritik harorat qiymati ham oshib boradi. Bizning tadqiqotimiz natijasida ham jadvalda keltirilgan kristall panjaraning eng katta hajmda shakllanganini ko'rish mumkin, shuning uchun ham eng yuqori kritik harorat $T_c=100$ K ga erishildi.




2-rasm. YBCO-(123) namuna tarkibini miqdoriy tasdiqlash.

Olingan natijamizda namunaning YBa₂Cu₃O_{7-δ} formula asosida 99,21 % miqdorda toza ekanligi tasdiqlandi. Namunaning ba'zi qismlarida umumiy 0.45 % ga strukturaviy o'zgarish, hamda 0.59% ga palladiy elementi ko'ringan. Lekin bu oz miqdordagi kamchiliklar namunaning o'tkazuvchanligiga salbiy ta'sir qilmagan.

2-jadval. YBCO - (123) namunaning kristall panjara parametrlari.

WPPF analysis results	
Phase / Dataset	YBCO
Yttrium barium...	
Weight frac...	0.5(9)
a, Å	3.89414
b, Å	3.82238
c, Å	11.68581
α, °	90.000
β, °	90.000
γ, °	90.000
Lattice volu...	173.942
Size, Å	0.0
Strain, %	0.064(6)

Biz sintez qilgan YBa₂Cu₃O_{6.92} namunaning kristall panjara parametrlarini Rentgen strukturaviy tahlil usuli yordamida aniqlandi. Natijalar yuqoridagi jadvalda keltirilgan. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, namunamiz ortorombik tuzilishga ega. Bu esa o'ta o'tkazgich bo'lish uchun zaruriy omil hisoblanadi. Uni quyidagi rasmda ham ko'rish mumkiin. (3-rasm)



3-rasm. YBCO-(123) kristall panjarasining RST da ko'rinishi

Kristall panjara ko'rinishi ortorombik shaklangan, hajm jihatdan maxsimal darajada kattalashgan holda tuzilgan. O'ta o'tkazuvchanlik kristall panjarada Y atrofida CuO qatlamida sodir bo'ladi. Kristall panjara tugunlaridagi atomlarning koordinata o'qlari bo'yicha joylashuvi quyidagi jadvalda keltirilgan. (3-jadval).

3-jadval. YBCO kristall panjarasining parametrlari va atomlar orasidagi masofa.

Structure parameters

Element	x	y	z	Occ.	B	Charge	Multiplicity	Valence
Y1(Y)	0.500000	0.500000	0.500000	1.000	0.726	0	1	0.000
Ba1(Ba)	0.500000	0.500000	0.183930	1.000	0.979	0	2	0.000
Cu1(Cu)	0.000000	0.000000	0.000000	1.000	0.908	0	1	0.000
Cu2(Cu)	0.000000	0.000000	0.355010	1.000	0.726	0	2	0.000
O1(O)	0.000000	0.500000	0.000000	0.910	0.908	0	1	0.000
O2(O)	0.500000	0.000000	0.378190	1.000	0.816	0	2	0.000
O3(O)	0.000000	0.500000	0.376930	1.000	0.655	0	2	0.000
O4(O)	0.000000	0.000000	0.158400	1.000	1.005	0	2	0.000

Jadvalda YBCO-(123) kristall panjarasidagi har bir atomning x , y , z o'qlari bo'yicha koordinata qiymatlari keltirilgan. Bu qiymatlar namuna kristall panjarasi tarkibiy qismlari hisoblangan atomlarning fazoviy joylashishini ifodalaydi.

3-jadval. Kristall panjara atomlari orasidagi masofa.

Distance

Bond Def.	Distance, Å
Y1-Cu2(x,1+y,z)	3.21160
Y1-Cu2(1+x,y,z)	3.21160
Y1-Cu2(1+x,1-y,1-z)	3.21160
Y1-Cu2(x,1-y,1-z)	3.21160
Y1-Cu2(1+x,-y,1-z)	3.21160
Y1-Cu2(1+x,1+y,z)	3.21160
Y1-O2(x,1+y,z)	2.41165
Y1-O2	2.41165

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] A. Buekenhoudt, A. Kovalevsky, Ir J. Luyten, F. Snijkers, "Basic Aspects in Inorganic Membrane Preparation" Comprehensive Membrane Science and Engineering Volume 1, 2010, Pages 217-252

[3] Achal Duhoon, V.P. Awana, "Synthesis and Characterization of Pure Yttrium Barium Copper Oxide (YBCO)", Amity Institute of Applied Sciences Amity University, Sector 125, Noida (Uttar Pradesh) -201303 (INDIA) JULY 2014.

[4] Prof. D. Behera, "Synthesis and Characterization of YBCO/CNT Composite", Department of Physics and Astronomy National Institute of Technology Rourkela – 769008.

[5] Tanveer Wani, Budigi Prabhakar, "Crystal structure visualization and powder diffraction pattern of YBCO superconductor" Article in AIP Conference Proceedings October 2020.

[6] Bibekananda Sahoo, Subrata Karmakar, Dhruvananda Behera, "Improvement of Critical Parameters of YBCO Superconductor by addition of Graphene Oxide", Proceedings of the International Conference on Advanced Materials AIP Conf. Proc. 2162, 020060-1- 020060-4; <https://doi.org/10.1063/1.5130270> Published by AIP Publishing. 978-0-7354-1907-0/\$30.00.

[7] Mohammed Zaahid Gaffoor, Alan Lawrence Leigh Jarvis , Jonathan Calvin Archer "Investigating the critical transitional temperature increase in graphene oxide doped bulk YBCO", Results in Physics 44 (2023) 106140, <https://doi.org/10.1016/j.rinp.2022.106140>, 25 November 2022

[8] Dinesh Varshney, Arvind Yogi, Neha Dodiya , Irfan Mansuri, "Alkaline Earth (Ca) and Transition Metal (Ni) Doping on the Transport Properties of $Y_{1-x}Ca_xBa_2(Cu_{1-y}Ni_y)_3O_{7-\delta}$ Superconductors", Journal of Modern Physics, 2011, 2, 922-927 doi:10.4236/jmp.2011.28109 Published Online August 2011 (<http://www.SciRP.org/journal/jmp>).

[9] Brent Allen Howe, "Crystal Structure and Superconductivity of $YBa_2Cu_3O_{7-x}$ " Minnesota State University, Mankato Mankato, Minnesota July 2014

[10] Gaffoor MZ, Jarvis ALL. Comparison of the Effect of Graphene and Graphene Oxide Doping on YBCO. J Phys Conf Ser 2020;1559:20–8.

[11] Dadras S, Dehghani S, Davoudiniya M, Falahati S. Improving Superconducting Properties of YBCO High Temperature Superconductor by Graphene Oxide Doping. Mater Chem Phys 2017;193:496–500.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Апаков Юсупжон Пулатович

Институт математики им. В.И.Романовского АН РУз
Наманганский инженерно-строительный институт
Gmail: yusupjonapakov@gmail.com

Иброхимов Хусниддин Комилжон угли

Fizik masalalarni yechishning muhim jihatlaridan yana biri shundan iboratki, u o'quvchining aqliy rivojlanishini va iqtidorini aniqlash uchun tashhis usuli

hisoblanadi. Masalalar yechish orqali o'quvchilarga zamonaviy fan va texnika yutuqlari haqidagi axborotlarni berish mumkin. Masalalar yechish jarayoni o'quvchilar bilimini, malaka va ko'nikmasini nazorat qilishga va real baholashga imkon beradi.

O'quvchilarni fizik masalalarni yechishga o'rgatish – murakkab pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarni masalalar yechishga o'rgatish jarayoni o'qituvchidan o'qitishning turli uslublaridan keng foydalanishini talab etadi. Fizikadan masalalar yechishni o'rgatishda o'qituvchiga ma'lum bir tizimga solingan, oddiylikdan murakkablikka yo'naltirilgan, turli og'irlikdagi masalalarni o'z ichiga olgan masalalarga ehtiyoj tug'iladi.

Yuqoridagi masalalarga namuna sifatida Buni 10-sinf darsligidagi «Gravitatsiya maydonidagi harakat», - degan mavzuga oid bir nechta masalalar yechish misolida qarab ko'raylik [4, 14 -17b.].

Masala: Tosh yerga 10 m/s tezlik bilan urildi. Yerdan qanday balandlikda (m) uning tezligi 1 m/s bo'lgan ?

Berilgan:
$v = 10 \text{ m/s}$
$v_1 = 1 \text{ m/s}$
$g=10 \text{ m/s}^2$
$h_1=?$

Yechish:

Erkin tushayotgan jism erishgan tezlik $v = v_0 + gt$
 $v_0 = 0$ ekanligidan $v = gt$, bu ifodadan t ni topsak $t = \frac{v}{g} = \frac{10}{10} = 1 \text{ s}$ demak jism yerga 1 s da tushgan. U tushgan balandlik esa $h = \frac{gt^2}{2} = \frac{10 \cdot 1^2}{2} = 5 \text{ m}$. $v_1 = gt_1$ bundan t_1 ni topsak $t_1 = \frac{v_1}{g} = \frac{1}{10} = 0.1 \text{ s}$. U bosib o'tgan yo'l $S = \frac{gt_1^2}{2} = \frac{10 \cdot 0.1^2}{2} = \frac{10 \cdot 0.01}{2} = 0.05 \text{ m}$. Bu vaqtda u yerdan quyidagi balandlikda bo'ladi $h_1 = h - S = 5 - 0.05 = 4.95 \text{ m}$. Javob: 4.95 m

Masala: h balandlikdan erkin tushgan jism yerga ϑ tezlik bilan urildi. Yerdan qanday balandlikda uning tezligi yerga urilish tezligidan 10 marta kichik bo'ladi ?

Yechish:

Berilgan:
v
$v_1 = \frac{v}{10}$
g
$h_1=?$

Erkin tushayotgan jism tushayotgan balandlik $h = \frac{gt^2}{2}$ ga teng $v = gt$ dan $v_1 = gt_1 = \frac{gt}{10}$ bundan $t_1 = \frac{t}{10}$ uning bosib o'tgan yo'li $S = \frac{g(\frac{t}{10})^2}{2} = \frac{gt^2}{200}$, $h = \frac{gt^2}{2}$

ekanligidan $S = \frac{h}{100}$. Bu vaqtda u yerdan quyidagi balandlikda bo'ladi

$$h_1 = h - S = h - \frac{h}{100} = \frac{99h}{100} = 0.99h. \text{ Javob: } 0.99h$$

Masala: Boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan jismning biror nuqtadagi tezligi 20 m/s bo'lsa, undan 25 m pastda joylashgan nuqtadagi tezligini toping (m/s).

Yechish:

Berilgan:
 S_1
 $v_1 = 20 \text{ m/s}$
 $S_2 = S_1 + 25 \text{ m}$
 $g = 10 \text{ m/s}^2$
 $v_2 = ?$

Boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan jismning biror nuqtadagi tezligi $v = gt$ ga teng bundan $v_1 = gt_1$, bundan t_1 ni topsak $t_1 = \frac{v_1}{g} = \frac{20}{10} = 2 \text{ s}$. Uning shu vaqt

davomida bosib o'tgan yo'li $S_1 = \frac{gt_1^2}{2} = \frac{10 \cdot 2^2}{2} = \frac{10 \cdot 4}{2} = 20 \text{ m}$, undan 25 m pastdagi nuqta $S_2 = S_1 + 25 \text{ m} = 20 \text{ m} + 25 \text{ m} = 45 \text{ m}$. Jism bu nuqtaga yetib borgunigacha

$t_2 = \sqrt{\frac{2S_2}{g}} = \sqrt{\frac{2 \cdot 45}{10}} = 3 \text{ s}$ vaqt o'tadi. Uning bu vaqtdagi tezligi $v_2 = gt_2 = 10 \cdot 3 = 30 \text{ m/s}$ ga teng. Javob: 30 m/s

Masala: Boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan jism yo'lining ikkinchi yarmini 1 s da bosib o'tgan bo'lsa, u yo'ning birinchi yarmini qancha vaqtda bosib o'tgan (s) ?[1]

Yechish:

Berilgan:
 $t_2 = 1 \text{ s}$
 $S_1 = S_2 = \frac{h}{2}$
 $g = 10 \text{ m/s}^2$
 $t_1 = ?$

Boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan uchun jism yo'ning ikkinchi yarmi $S_2 = v_1 t_2 + \frac{gt_2^2}{2}$ ga teng, chunki boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan jism ma'lum bir vaqt ichida ma'lum bir yo'l o'tib, ma'lum bir tezlikka ega bo'ladi, bu tezlik esa $v_1 = gt_1$ ga teng. Bu ifodadan $t_1 = \sqrt{\frac{2S_1}{g}}$, $S_1 = \frac{h}{2}$ ekanligi uchun $t_1 = \sqrt{\frac{h}{g}}$ bo'ladi.

$$S_1 = S_2 = \frac{h}{2} \text{ ekanligi uchun } S_2 = \frac{h}{2} = g \left(\sqrt{\frac{h}{g}} t_2 + \frac{t_2^2}{2} \right)$$

bundan $h = 2g \left(\sqrt{\frac{h}{g}} t_2 + \frac{t_2^2}{2} \right)$. Ularni tenglama holiga keltiramiz. $h = 20 \left(\sqrt{\frac{h}{10}} + \frac{1}{2} \right) = 20 \sqrt{\frac{h}{10}} + 10 \Rightarrow h - 20 \sqrt{\frac{h}{10}} = 10$, belgilash kiritamiz $u \geq 0$ bo'lsa $\sqrt{h} = u$ deb olamiz. Bu holda tenglama quyidagicha bo'ladi $u^2 - 20 \cdot \frac{u}{\sqrt{10}} - 10 = 0 \Rightarrow u^2 - 2\sqrt{10}u - 10 = 0$. Bu kvadrat tenglamani

diskriminantini hisoblasak $D = b^2 - 4ac = (-2\sqrt{10})^2 - 4 \cdot$

$1 \cdot (-10) = 80$, u_1, u_2 larni $\frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$ ifodadan topaylik

$$u_1 = \frac{2\sqrt{10} + \sqrt{80}}{2} = \frac{2\sqrt{10} + 2\sqrt{20}}{2} = \sqrt{10} + \sqrt{20} = \sqrt{10}(1 + \sqrt{2})$$

$u_2 = \frac{2\sqrt{10} - 2\sqrt{20}}{2} < 0$ bo'lganligi uchun u_2 ni javob deb olmaymiz. $\sqrt{h} = u$ ekanligidan $\sqrt{h} = \sqrt{10}(1 + \sqrt{2}) \Rightarrow h =$

$$10(1 + \sqrt{2})^2 \text{ bo'ladi, } t = \sqrt{\frac{2h}{g}} = \sqrt{\frac{2 \cdot 10 \cdot (1 + \sqrt{2})^2}{10}} = (1 + \sqrt{2}) \cdot$$

$$\sqrt{2} = \sqrt{2} + 2 \quad \sqrt{2} \approx 1.5 \text{ deb olamiz. Bundan } t_1 = \sqrt{\frac{2S_1}{g}} =$$

$$\sqrt{\frac{h}{g}} = \sqrt{\frac{10(1 + \sqrt{2})^2}{10}} = 1 + \sqrt{2} \approx 2.5 \text{ s, yoki } t_1 = t - t_2 = \sqrt{2} +$$

$$2 - 1 = \sqrt{2} + 1 \approx 2.5 \text{ s. Javob: } 2.5 \text{ s}$$

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga masalalar yechish orqali kreativ fikrlash bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga imkon beruvchi jamoaviy muhitda birgalikda ishlash orqali samarali rivojlantirilishi mumkin. Boshqacha aytganda, maktablar bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchilar yangidan-yangi g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy va muntazam faoliyat turi bilan faol shug'ullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan maqsadli faoliyatga, ya'ni kundalik faoliyat turiga aylansa, oquvchi yangidan-yangi fikr-mulohazalari va mazkur fikr-mulohazalarni doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Bilim "dunyoga savol to'la hayrat ko'zi bilan qarash" orqali ham hosil qilinishi mumkin. Dunyoga savol to'la hayrat kozi bilan qarash deganda o'quvchining dunyoni anglashga urinish jarayoni tushuniladi va bu o'quvchilarni turli hodisalar borasida o'zlarining fikr-mulohazalarini ilgari surishlariga turtki bo'ladi. Kreativ yondashuv o'quvchilarning kreativligi ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarida, ayniqsa ijodiy fikrlash jarayonining aksariyati "ko'rinmas" vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi. O'quvchining ijodiy barkamolligi uning kreativ fikrlash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshgan yoki oshmaganini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Hulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kreativ fikrlash yillar mobaynida insonning bir necha sohalaridagi ijodiy barkamolligidir. Shuningdek, berilgan ta'riflarga ko'ra, kreativ barkamollik esa ma'lum ijtimoiy sohaga nisbatan yangi va foydali, deb qaralgan. Ta'lim jaryonida esa o'quvchilarda fizika masalalar yechish orqali kreativ yondashuv o'zining "kundalik" shakliga egadir. Masalan, u jarayon, xodisa, qonun yoki qonuniyatlarning ifodaviy faoliyati, yangi bilim va tushunchalar hosil qilish, yoki turli ochiq turdagi savollarga kreativ yechimlar topa olishb imkoniyatining yaratilishidir.

1. Xotamov I.S., Olimov M.K., Madrahimova G.R., Foziljonov I.S.. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. - T.: "Iqtisodiyot", 2021 y. - 188 b.
2. Azizxo'jaeva N.M. (2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. – T.: "Fan,61–69-b.
3. M.Nosirov, O.Bozarov, Sh.Yulchiev. Fizikadan olimpiada masalalari. O'quv qo'llanma – Toshkent :2012. –114 b.
4. K. A. Tursunmetov [va boshq.] Fizika 10 -sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
5. K.T. Suyarov [va boshq.] Fizika 7 -sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
6. Habibullayev P. [va boshq.] Fizika 9 - sinf uchun darslik. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2019. – 176 b.
7. N. Sh. Turdiyev [va boshq.]Fizika. 11-sinf : darslik . – T.: "Niso Poligraf" nashriyoti, 2018.– 192 b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Aroyev Dilshod Davronovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti
"Matematika" kafedrası dotsenti, PhD
aroyev7979@gmail.com

DELPHI 6 DASTURLASH MUHITIDA REALTEST DASTURINING SERVER QISMINI YARATISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yakuniy nazoratini test sinovi shaklida tashkil qiluvchi amaliy dasturini yaratish masalasi qo'yilgan. Avvalambor dasturni yaratish algoritmi ishlab chiqilgan. Delphi 6 dasturlash muhiti yordamida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yakuniy nazoratini test sinovi shaklida tashkil qiluvchi "RealTest" amaliy dasturini yaratilgan.

Kalit so'zlar: Dastur, dasturlash muhiti, Delphi dasturlash muhiti, test sinovi, RealTest.

Aroyev Dilshod Davronovich

Kokan State Pedagogical Institute
Associate Professor of the "Mathematics" Department, Ph.D

CREATION OF THE SERVER PART OF THE REALTEST PROGRAM IN THE DELPHI 6 PROGRAMMING ENVIRONMENT

Abstract: This article deals with the creation of a practical program that organizes the final control of students in higher education institutions in the form of a test. First of all, the program creation algorithm was developed. Using the Delphi 6 programming environment, the "RealTest" practical program, which organizes the final control of students in higher education institutions in the form of a test, was created.

Key words: Program, programming environment, Delphi programming environment, testing, RealTest.

Ароев Дильшод Давронович

Коканский государственный педагогический институт
Доцент кафедры «Математика», к.э.н.

СОЗДАНИЕ СЕРВЕРНОЙ ЧАСТИ НАСТОЯЩЕЙ ПРОГРАММЫ В СРЕДЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ DELPHI 6

Аннотация: В данной статье речь идет о создании практической программы, организующей итоговый контроль студентов высших учебных заведений в форме теста. Прежде всего был разработан алгоритм создания программы. С использованием среды программирования Delphi 6 создана практическая программа «RealTest», организующая итоговый контроль студентов вузов в форме теста.

Ключевые слова: Программа, среда программирования, среда программирования Delphi, тестирование, RealTest.

Masalaning aniq va to'g'ri qo'yilishi buyurtmachiga vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Topshiriq buyurtmachining maslahati bilan qo'yiladi. Buyurtmachi o'z imkoniyatlari va o'ylangan loyihaning qanday bo'lishidan kelib chiqib maslahat beradi. Ba'zan qo'yilgan topshiriqning oxirgi natijasi boshlang'ich xolatidan tubdan farq qiladi. Bu tabiiy holdir, chunki buyurtmachi bilan muloqot natijasida u o'ylangan loyihaning shaklini o'zgartiruvchi qo'shimcha, ba'zan unikal axborotlar berishi mumkin.

Maqolada ta'lim muassasalarida talabalarning yakuniy nazoratlarini test shaklida tashkil asosida hisob-kotoblarni amalga oshiruvchi hamda kerakli hisobotlarni tayyorlovchi amaliy dasturni ishlab chiqish nazarda tutilgan. Shu asosda topshiriqning qo'yilishi dasturni loyihalashni boshlashning birinchi va muhim qadamidir. Dasturni yaratish asosan ikki asosiy qismga bo'linishi kerak. Bular ma'lumotlar ombori test jarayoni hisobotlarini yaratuvchi dastur bo'lib, ularning qanday loyihalashidan amaliy dasturning yakuniy ko'rinishi va ishlashini baholash mumkin. Masalaning qo'yilishi texnik

masalaning ajralmas qismidir. Masalani qo'yish va muhokama qilishda, loyihaning muvafaqqiyatli xizmat ko'rsatishida qanday texnik vosita va resurslardan foydalanishni belgilash lozim.

Test dasturining ma'lumotlar ombori qo'yilgan texnik va dasturiy ta'minotga asoslanib, ishlab chiqilishi shart. Dasturiy mahsulot ham aynan shu talablarga javob berishi va foydalanuvchi ishlashi uchun qulay bo'lishi kerak. Dasturiy mahsulotning o'zi ham ikki qismga bo'linishi kerak: server qismi va klient(mijoz) qismi. Server qismida ma'lumotlar omborini boshqarish va dastur parametrlarini o'rnatish kabi ishlar amalga oshiriladi. Klient(mijoz) qismida esa dasturning ayrim parametrlari va test sinovini topshirish ko'zda tutiladi. Ma'lumotlar ombori va server-dasturi server kompyuterida o'rnatiladi va boshqariladi. Klient(mijoz) dasturi esa mijoz-kompyuterlariga o'rnatiladi va server-dasturida o'rnatilgan parametrlar va ma'lumotlar asosida test nazoratidan utkaziladi. Dastur dizaynini ishlab chiqishda satndart dastur ko'rinishlaridan foydalanib, foydalanuvchiga tushunarlik darajasini oshiriladi. Server-dasturida ma'lumotlar omborini boshqarish uchun mo'ljallangan dastur-qismlari ishlab chiqiladi. Ma'lumotlar omborini boshqarish uchun oddiy(standart) boshqarish elementlaridan foydalanamiz. Mijoz-dastur qismida esa test topshirish va ayrim hisobotlarni tashkil qilish uchun mo'ljallangan dastur qismlarini yaratamiz. Ma'lumotlar ombori va dasturiy mahsulot ishlab chiqilgandan so'ng ular uchun ko'rsatmalar yaratiladi va ko'rsatma asosida server-dasturi va mijoz-dasturi o'rnatiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining yakuniy nazoratini test sinovi shaklida tashkil qiluvchi «RealTest» amaliy dasturini yaratishni ikki bosqichda amalga oshiramiz:

1. Dastur ma'lumotlar omborinining tuzilmasini ishlab chiqish va shu asosida MySQL dasturi yordamida ma'lumotlar omborini yaratish. Ma'lumotlar ombori quyidagi tarkibiy jadvalrdan tashkil topgan:

FAKUL – oliy ta'lim muassasasidagi fakultetlar ro'yxati

FAN – test topshiriladigan fanlar ro'yxati

GURUH – oliy ta'lim muassasasidagi guruhlar ro'yxati

LANG – test sinovi topshirish tillari

OTCHET – hisobotlar yaratish uchun jadval

ROLE – murojaat vaqtida foydalanuvchi mavqeini akniqlash jadvali

TALABA - oliy ta'lim muassasasidagi talabalar ro'yxati

TEST – fanlar bo'yicha test sinovlari savollari

TEST2 – test topshiruvchi aralastirilgan variant savollari

YUNSLISH – oliy ta'lim muassasasidagi yo'nalishlar ro'yxati

Ushbu jadvallarning ayrimlari dasturning "Ma'lumotnoma" qismida chaqiriladi va kerakli ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Qolganlari test sinovini topshirish va natijalarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan.

2. Dastur va uning loyihasi Delphi 6 dasturlash muhitida yaratildi. Dasturni yaratishda asosan quyidagi asbob (komponent) lardan foydalanilgan.

a) Tmainmenu – bosh menyu va menyu qismlarini yaratish. Ularga dastur kodini kiritish.

b) TButton – boshqarish tugmalari.

c) TADOtable – ma'lumotlar omboridagi jadvalga ulanish.

d) TDataSource – TADOtable va jadval ma'lumotlari bilan ishlovchi komponentlar orasidagi vositachi komponent.

e) TDBGrid – jadval ma'lumotlarini ekranda ko'rsatish.

f) TQuickReport – hisobotlarni yaratish va chop qilish.

g) Ma'lumotlar omborini boshqaruvchi komponentlar (TDBNavigator, TDBEdit, TDBLabel, TDBCombobox va boshqalar).

Dasturiy vosita asosiy uch bosqichda yaratildi:

1 – bosqich. Ma'lumotnoma – ushbu bo'lim asosan ma'lumotlar omboriga ma'lumotlarni kirituvchi va akslantiruvchi komponentlar yordamida yaratiladi. Ma'lumotnoma qismida test sinovini topshirish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar kiritilishini inobatga olib barcha zaruriy qismlar bilan to'ldiriladi. Bo'lim qismlarida TdbNavigator komponenti ishlatilgan bo'lib, ushbu komponent orqali ma'lumotlar bilan ishlash tezlashadi. Ma'lumotlarni o'chirish vaqtida esa maxsus muloqot oynasi chiqarilishi ta'minlanadi.

2 – bosqich. Konstruktor – dasturning asosiy qismlaridan biri hisoblanib, fan o'qituvchilari tayyorlagan test savollari fayllarini qayta ishlab, ma'lumotlar omboriga kiritish mumkin bo'lgan ko'rinishga olib keladi va ularni ma'lumotlar omboriga kiritadi. Ushbu bo'lim ham ma'lumotlar ombori bilan ishlovchi komponentlar bilan to'ldiriladi. Yangi yozuv qo'shish paytida bo'limning yangi yozuv qo'shish oynasi ekranga chiqariladi. Shu sababli ushbu oynada yangi yozuv qo'shish uchun ma'lumotlar omborini boshqaruvchi komponentlar bilan to'ldiriladi.

3 – bosqich. Hisobot – test natijalari hisoblab bo'lingandan so'ng, quyidagi hisobotlar yaratiladi:

a) Guruh – ushbu hisobot tanlangan guruhning tanlangan fani bo'yicha talabalarining natijalari haqidagi hisobotni yaratib beradi. Hisobot qismlarini yaratish uchun QuickReport komponentlaridan foydalanamiz.


b) Umumiy hisobot – Tanlangan fan bo'yicha to'liq natijalar hisobotini tayyorlash. Hisobot oynasidan

hisobotni chop qilish, xotirada saqlash va boshqa hisobotlarni ochish imkoniyati kiritiladi.

Foydalanuvchiga ko'rsatma. Oliy ta'lim muassasalari uchun talabalar bilimni baholashda test sinovlaridan foydalanish «RealTest» amaliy dasturi Delphi dasturlash muhitida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturni ishga tushirish uchun RealTest.exe faylini ishga tushirish kifoya. Dastur ishga tushgandan so'ng, ekranda dasturning bosh oynasi chiqadi. Dasturning bosh menyusi quyidagi asosiy qismlaridan tashkil topgan:


1. Fakultet menyu-qismi;
2. Yo'nalish menyu-kismi;
3. Guruh menyu-kismi;
4. Talaba menyu-kismi
5. Fan menyu-kismi.

Fakultet bo'limida ma'lumotlar omboriga oliy ta'lim muassasasi tarkibida mavjud fakultetlar ro'yxatini kiritish va ularni tahrirlashni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.




1-rasm. Fakultet bo'limi

Yo'nalish bo'limida ma'lumotlar omboriga oliy ta'lim muassasasi tarkibida mavjud yo'nalishlar ro'yxatini kiritish va ularni tahrirlashni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Yo'nalishlar fakultetlar tarkibida bo'lganligi uchun har bir yo'nalishga mos fakultet raqami ma'lumotlar omborida akslantirib boriladi.




2-rasm. Yo'nalish bo'limi

Guruhlar bo'limida ma'lumotlar omboriga oliy ta'lim muassasasi tarkibida mavjud guruhlar ro'yxatini kiritish va ularni tahrirlashni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Guruhlar, yo'nalishlar va fakultetlar tarkibida bo'lganligi uchun har bir guruhga mos yo'nalish va mos fakultet raqami ma'lumotlar omborida akslantirib boriladi



3-rasm. Guruh bo'limi

Fan bo'limida tanlangan guruh natijalarini olish uchun fan va test tenlanadi.




4- rasm Fan bo'limi

Guruh qaydnomasini ko'rish va chop qilish uchun "Guruh natijasini chop qilish" tugmasini bosish kerak. Shunda guruhning shu fan bo'yicha qaydnomasi ekranda ko'rinadi.



5-rasm. Qaydnomasi sahifasi

Natijani chop qilish uchun CTRL+P tugmalarini bosish kerak. Shunda ekranga chop qilish va printer xususiyatlarini o'rnatish oynasi chiqariladi. Kerakli o'rnatmalarni sozlab "Pechat" tugmasini bosish kifoya. Bunda qaydnomasi sahifasi yuqori qismida joriy sana va shu hujjatni printeriga uzatayotgan sahifa nomi ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlar ham natijalar qaydnomasini faqat server kompyuterdan chiqarilishi mumkinligini asoslaydi.



6- rasm. Qaydnomani chop qilish oynasi

Bu natijalarni men dastur oynasiga chiqardim va ularni faqat chop qilish imkoniyatini qoldirdim. Ya'ni qaydnomani fayl ko'rinishida saqlash imkoniyati berilmaydi.

Bunga sabab, keyinchalik qaydnomasi ma'lumotlarini o'zgartirmaslik muhim hisoblanadi. Ekranda ko'ringan qaydnomani ayni vaqtda printerdan chop qilishimiz mumkin, keyinchalik yana shu qaydnomasi kerak bo'lsa, yuqorida aytib o'tilgan amallar ketma-ketligi bajarish kerak bo'ladi.

Qolgan bo'limlar ham shu kema-ketlik asosida ishlaydi va har bir bajarilgan amal ma'lumotlar omborida rasmiylashtirib boriladi.

Dastur ishini tugallash uchun bosh menyudagi «Chiqish» tugmasini ishlatamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Информатика. Под.ред. Н.В.Макаровой. М. Финанси и статистика,1997

2. Попел Г, Голдсгайн Б. Информатсионная технология. М.: Экономика, 1990.
3. Бобровский «Делпхи 5», «Питер» Москва 1997г.
4. Шумаков «Делпхи 4 разработка баз данных», «Питер» Москва 1996г.
5. Пачеко, Тейксера «Делпхи 5 пособие программиста», «Питер» Москва 1999 г.
6. Фаронов «Делпхи 4 учебное пособие», «Питер» Москва 1995 г.
7. И. Харитонова, В. Михеева, Мисрософт Ассесс 2000 в подлиннике.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Davlatov Abror

Namangan davlat universiteti dotsenti
E-mail: litsey111213@gmail.com

Abdulazizov Bahrom

Namangan davlat universiteti professori

O'rinboyev Dostonbek

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Muxiddinov Ramziddin

Namangan davlat universiteti magistranti

UO'T: 621.315.592

NANOIPLARDA ENERGIYA SATXLARI VA TO'LQIN FUNKSIYALARI

Annotatsiya: Bu ishda asosi muntazam n -burchak bo'lgan InAs nanoiplarida energiya satxlari va to'lqin funksiyalari aniqlangan. Asosi muntazam uchburchak, to'rtburchak, beshburchak, oltiburchak va doira bo'lgan nanoiplarda energiya satxlarini ko'ndalang kesim yuzalariga bog'liqlik qonuniyatlari topilgan. WOLFRAM MATHEMATIC 14 dasturidan foydalanib asosi muntazam ixtiyoriy n -burchak bo'lgan nanoiplarida energiya satxlari va to'lqin funksiyalari aniqlash imkonini beruvchi dastur tuzilgan. Har-bir energiya satxi uchun mos keluvchi to'lqin funksiya 2D grafik ko'rinishida tasvirlangan.

Kalit so'zlar: nanoip, energiya satxi, to'lqin funksiya, potensial o'ra, yarimo'tkazgich, chekli orttirmalar usuli.

Davlatov Abror

Namangan State University Associate Professor

Abdulazizov Bakhrom

Namangan State University Professor

Urinboyev Dostonbekh

Namangan Institute of Engineering and Technology Doctoral Student

Muxiddinov Ramziddin

Namangan State University Master Student

UDC: 621.315.592

ENERGY LEVELS AND WAVE FUNCTIONS IN NANOWIRES

Abstract: in this work, the energy levels and wave functions in InAs nanowires with a regular n -angle base are determined. In nanowires that base is regular triangle, rectangle, pentagon, hexagon, and circle, laws of dependence of energy levels on cross-sectional surfaces were found. Using THE WOLFRAM MATHEMATIC 14 program, we created a program that allows determining the energy levels and wave functions of nanowires with a regular arbitrary n -angle. The corresponding wave function for each energy level is plotted as a 2D graph.

Key words: nanowire, energy level, wave function, potential well, semiconductor, finite element method.

Давлатов Абдор

Наманганский государственный университет Доцент

Абдулазизов Бахром

Наманганский государственный университет Профессор

Уринбоев Достонбек

Наманганский инженерно-технологический институт Докторант

Мухиддинов Рамзиддин

Наманганский государственный университет Магистр

УРОВНИ ЭНЕРГИИ И ВОЛНОВЫЕ ФУНКЦИИ В НАНОНИТЯХ

Аннотация: в данной работе определены уровни энергии и волновые функции в нанопроволоках InAs с основанием в виде правильного n -угольника. В нанопроволоках, основанием которых являются правильный треугольник, прямоугольник, пятиугольник, шестиугольник и круг, найдены законы зависимости уровней энергии от поверхностей поперечного сечения. С помощью программы WOLFRAM MATHEMATIC 14 создана программа, позволяющая определять уровни энергии и волновые функции нанопроволок с правильным произвольным n -угольником. Соответствующая волновая функция для каждого уровня энергии строится в виде двумерного графика.

Ключевые слова: нанопроволока, уровень энергии, волновая функция, потенциальная яма, полупроводник, метод конечных элементов.

Kirish.

Hozirgi kunda dunyo miqiyosida kichik o'lichamli kvant ip, kvant nuqta va kvant qatlamlarni tadqiq etish dolzarb hisoblanib kelmoqda. Yarimo'tkazgichli nanoiplarda tok tashuvchilar energiya satxlari va to'liqin funksiyalarni aniqlash nanoelektronika fanining muhim muammosi bo'lib kelgan. Nanoo'lichamli tuzilmalar fizikasi yangi avlod yarimo'tkazgichli asboblar yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yarimo'tkazgichli nanoiplar asosida lazerlar, yorug'lik diodlari, maydon-effektli tranzistorlar, fotodetektorlar va quyosh elementlari ishlab chiqilmoqda. Ularni tushunish, ishlab chiqarish va nazorat qilish ko'p jihatdan ushbu qurilmalarda harakatlanadigan elektronlar, teshiklar va boshqa tok tashuvchilarning energiyasini aniq bilish bilan bog'liqdir.

[1] ishda yarimo'tkazgichli InP nanoipining uzunligi va radiusi orasidagi bog'lanishlar chuqur tahlil qilingan va bog'lanish grafiklari olingan. Bundan ko'rinadiki nanoipning uzunligi uning ko'ndalang o'lichamidan juda ko'p marta katta bo'ladi. Shuning uchun nanoiplarga oid masalalarni bir o'lchovli masala sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Nanozarrachalarni biror maydondagi harakati-kvant mexanikasi orqali bayon qilinib, Shredinger tenglamasini yechib topiladi. InP/InAs/InP geterotuzilmali nanoiplarda elektronlar energiyasini hisoblashda cheksiz va chekli chuqur potensial o'ra modellarini ko'rib chiqilgan [2]. Asosi muntazam to'g'ri to'rtburchakli va doiraviy shaklda bo'lgan nanoiplarda energiya sathlari hisoblangan[3, 4]. Asosi muntazam to'rtburchak va doira shaklida bo'lgan yarimo'tkazgichli nanoiplarda energiya satxlarni aniqlash uchun ishlarda Shredinger tenglamasi chekli orttirmalar usuli yordamida yechilgan [5]. Lekin asosi muntazam n -burchak shaklida bo'lgan yarimo'tkazgichli nanoiplarda tok tashuvchilar energiya satxlari va to'liqin funksiyalari aniqlanmagan.

Biz bu ishda asosi muntazam n -burchak shaklida bo'lgan yarimo'tkazgichli nanoiplarda tok tashuvchilar energiya satxlari va to'liqin funksiyalari cheksiz chuqur potensial o'ra modelida chekli orttirmalar usuli yordamida aniqlaymiz.

Nazariy qism.

Cheksiz chuqur potensial o'rali nanoip berilgan bo'lsin. Nanoipning ichida potensial nolga teng va

tashqarisida cheksiz bo'ladi. Demak, nanoip ichida to'liqin funksiya aniqlangan, tashqarisida esa nolga teng bo'ladi.

$$V(x, y) = \begin{cases} 0, & \text{nanoip ichida} \\ \infty, & \text{nanoipdan tashqarida} \end{cases} \quad (1)$$

Bitta zarraning statsionar holati uchun bu tenglama ikki o'lchovli Dekart fazosida quyidagicha yoziladi [6].

$$-\frac{\hbar^2}{2m^*} \nabla^2 \Psi(x, y) + V(x, y) \Psi(x, y) = E \Psi(x, y) \quad (2)$$

Bunda, V –zarrachani tashqi maydondagi potensial energiyasi, m^* –massasi, Ψ –to'liqin funksiyasi, E –to'la energiyasi, \hbar – Plank doimiysi, ∇^2 –Laplas operatori (Laplasiyan)

$$\nabla^2 = \Delta = \left(\frac{\partial}{\partial x} \vec{i} + \frac{\partial}{\partial y} \vec{j} \right)^2 = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2} \quad (3)$$

Umumiy holda, to'liqin funksiya fizik ma'noga ega bo'lishi uchun, qaralayotgan sistemaga tegishli butun fazoda chekli, bir qiymatli va uzluksiz bo'lish shart. $\Psi(x, y)$ -to'liqin funksiya nanoipdan tashqariga chiqishda nolga aylanishi kerak (Dirixlet chegara sharti). Ikkinchidan zarrani fazoda joylashtirishning umumiy ehtimoli birga teng bo'lishini ta'minlash uchun to'liqin funksiyani normallashtirish integralidan foydalanamiz:

$$\iint \Psi(x, y) \Psi^*(x, y) dx dy = 1 \quad (4)$$

Chekli orttirmalar usuli.

Muntazam, qabariq n -burchakli nanoiplarda energiya satxlarni va to'liqin funksiyalarini aniqlashda qulaylik uchun, chekli orttirmalar usulidan foydalanish qulaydir. Chunki, dekart koordinatalar sistemasida ifodalangan Shredinger tenglamasini yechishda n -burchakli koordinatalar sistemasidan foydalaniladi. Shredinger tenglamasini ikki o'lichamli koordinatalar sistemasida chekli orttirmalar usulida yoyganimizda quyidagi ifoda kelib chiqadi.

$$-\frac{\hbar^2}{2m^*} \left[\frac{\partial^2 \Psi(x, y)}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \Psi(x, y)}{\partial y^2} \right] + V(x, y) \Psi(x, y) = E \Psi(x, y) \quad (5)$$

Birinchi va ikkinchi tartibli differensiallarni quyidagicha yozib olamiz [7].

$$-\frac{\hbar^2}{2m^*} \left[\frac{\Psi(x + \delta x, y) - 2\Psi(x, y) + \Psi(x - \delta x, y)}{(\delta x)^2} + \frac{\Psi(x, y + \delta y) - 2\Psi(x, y) + \Psi(x, y - \delta y)}{(\delta y)^2} \right] + V(x, y) \Psi(x, y) = E \Psi(x, y) \quad (6)$$

(6) tenglamani har ikki tomonini $(\delta x)^2(\delta y)^2$ ga ko'paytiramiz.

$$(\delta y)^2[\Psi(x + \delta x, y) - 2\Psi(x, y) + \Psi(x - \delta x, y)] + (\delta x)^2[\Psi(x, y + \delta y) - 2\Psi(x, y) + \Psi(x, y - \delta y)] = -\frac{2m^*}{\hbar^2}[E - V(x, y)](\delta x\delta y)^2\Psi(x, y) \quad (7)$$

(7) tenglamada $\Psi(x, y)$ ni yakkaalaymiz:

$$(\delta y)^2[\Psi(x + \delta x, y) + \Psi(x - \delta x, y)] + (\delta x)^2[\Psi(x, y + \delta y) + \Psi(x, y - \delta y)] + \left\{ \frac{2m^*}{\hbar^2}[E - V(x, y)](\delta x\delta y)^2 - 2[(\delta x)^2 + (\delta y)^2] \right\} \Psi(x, y) = 0 \quad (8)$$

Ikki o'lchamli Shredinger tenglamasi chekli orttirmalar usulida yozilganda quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$(\delta x)^2(\Psi_{i,j+1} + \Psi_{i,j-1}) + (\delta y)^2(\Psi_{i+1,j} + \Psi_{i-1,j}) + \frac{2m^*}{\hbar^2} \Psi_{ij}[E - V(x, y)](\delta x\delta y)^2 - 2[(\delta x)^2 + (\delta y)^2] = 0 \quad (9)$$

Natijalar va muloxazalar.

Asosi muntazam, qabariq n -burchak bo'lgan nanoiplarda energiya satxlari tekshirish uchun asosi uchburchakli, to'rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo'lgan hollarni ko'rib chiqildi. Hisoblashlarni Wolfram Mathematic 14 programmasida olib borildi. Wolfram Mathematic programmasida muntazam, qabariq n -burchakni kiritish uchun RegularPolygon[R, n] buyrug'idan foydalandik va Shredinger tenglamasini yechishda NDEigensystem ichidagi DirichletCondition bo'limidan foydalandik. Solishtirish uchun ko'ndalang kesim yuzalarini bir-xil tanlab olindi. Ko'pburchak asosining ko'ndalang kesim yuzasi 36 nm^2 bo'lganda, uchburchak tomoni $9,12 \text{ nm}$; to'rtburchak tomoni 6 nm ; beshburchak tomoni $4,57 \text{ nm}$; oltiburchak tomoni $3,72 \text{ nm}$; doira radiusi $11,46 \text{ nm}$; ga teng bo'ladi [ILOVA].


2-4-rasmlarda asosi uchburchakli, to'rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo'lgan InAs nanoipida (1,1), (1,2) va (2,2) satxlarni ko'ndalang kesim yuzasiga bog'liqligi keltirilgan. Nanoip ko'ndalang kesimi uchburchakli bo'lganda eng katta va doira bo'lganda eng kichik energiya satxlari hosil bo'lishini grafiklardan ko'rishimiz mumkin.

Ko'pburchak asosining ko'ndalang kesim yuzasi 36 nm^2 bo'lganda:


- uchburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 24,8 %;
- to'rtburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 8,2 %;
- beshburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 3,7 %;

• oltiburchakli nanoipda energiya satxi doiraliga nisbatan 1,8 %;

farqlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda n qancha katta bo'lsa, energiya satxlari kichiklashadi va doiraga yaqinlashishini kuzatishimiz mumkin. Nanoipning ko'ndalang kesim yuzalari ortganda energiya satxlari kamayib boradi va muntazam ko'pburchaklarda energiya satxlari bir biriga yaqinlashadi, juda katta yuzalarda deyarli tenglashadi.



5-rasmda asosi muntazam qabariq uchburchakli, to'rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo'lgan nanoiplarda to'lqin funksiyalarni birinchi uchta satx uchun 2D tasviri keltirilgan. Muntazam ko'pburchak ichki burchagi kichik bo'lgan hollarda to'lqin funksiya uchlik joylarda juda kichik va markazlarda katta qiymatlarda bo'ladi. n -burchak ortib borganda to'lqin funksiyalar silliqlashib boradi va doira beradigan natijaga yaqinlashib borishini ko'rishimiz mumkin.



5-rasm. Asosi muntazam qabariq uchburchakli, to'rtburchakli, beshburchakli, oltiburchakli va doiraviy shaklda bo'lgan nanoiplarda to'liqin funksiyalarni 2D tasviri.

Xulosa.

Asosi muntazam, qabariq n –burchak bo'lgan InAs nanoiplarda energiya satxlari va to'liqin funksiyalarini aniqlash jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

ixtiyoriy asosi muntazam qabariq n –burchak bo'lgan nanoiplarda ko'ndalang kesimning ortishi energiya satxlarini kamayishiga olib keladi;

nanoip ko'ndalang kesimi uchburchakli bo'lganda eng katta va doira bo'lganda eng kichik energiya satxlari hosil bo'ladi;

n –qancha katta bo'lsa, energiya satxlari asosi doirali nanoipdagi energiya satxiga yaqinlashadi;

juda katta yuzalarda nanoip asosi shakli deyarli ahamiyatini yo'qotadi;

muntazam ko'pburchak ichki burchagi kichik bo'lgan hollarda to'liqin funksiya uchlik joylarda juda kichik va markazlarda katta qiymatlarda bo'ladi;

n –burchak ortib borganda to'liqin funksiyalar silliqlashib boradi va doira beradigan natijaga yaqinlashib borishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qian Gao, Vladimir G. Dubrovskii, Philippe Caroff, Jennifer Wong-Leung, Li Li, Yanan Guo, Lan Fu, Hark Hoe Tan, and Chennupati Jagadish. Simultaneous Selective-Area and Vapor–Liquid–Solid Growth of InP Nanowire Arrays. Nano Letters (2016) 16 (7), 4361-4367.
2. Bouazra A., Abdi-Ben Nasrallah S., Poncet A., Bouazra Y., Said M. Numerical simulation of coupling effect on electronic states in quantum wires. The European Physical Journal B, (2009). 67(2), 245–250.
3. G. Gulyamov, A. Gulyamov, A. Davlatov, B. Shahobiddinov. Electron energy in rectangular and cylindrical quantum wires. Journal of Nano-and Electronic Physics. (2020) 12, 04023.

4. Gulyamov, G., Gulyamov, A. G., Davlatov, A. B., Juraev, Kh. N., Energy Levels in Nanowires and Nanorods with a Finite Potential Well, *Advances in Condensed Matter Physics*, (2020), 4945080, 2020.
5. Gulyamov, G. and Davlatov, A. B. and Inoyatov, S. T. and Makhmudov, S. A. Calculation of the energy levels and wave functions of electrons in nanowires by the shooting method. *Journal of Applied Science and Engineering*. (2021). 25(1), 31-36.
6. A Davlatov, G Gulyamov, A Nabiyev, E Feddi, K Feddi, A Abdulkarimov, A Botirjonov. Unraveling the effects of non-parabolicity on electron energy levels in InP/InAs/InP heterostructures. *Physica Scripta*. (2024) 99, 075933.
7. Harrison, P and Valavanis, A. *Quantum Wells, Wires and Dots: Theoretical and Computational Physics of Semiconductor Nanostructures*. Wiley. (2016). 610 pages.
8. Alex Sivirin. *1300 mathematics formula: Advance formula*. 2004. 491 pages.

ILOVA(1-rasm)

Muntazam qabariq n –burchakka tashqi chizilgan aylana radiusi quyidagicha aniqlanadi [8]:

$$R = \frac{a}{2 \sin\left(\frac{\pi}{n}\right)} \quad (I1)$$

Muntazam qabariq n –burchak sirt yuzasi quyidagiga teng bo'ladi [8].

$$S = \frac{na^2}{4 \tan\left(\frac{\pi}{n}\right)} \quad (I2)$$

(I1) va (I2) tenglamalardan muntazam, qabariq n –burchak sirt yuzasi va tashqi chizilgan aylana radiusi orasidagi munosabat kelib chiqadi.

$$R = \sqrt{\frac{2S}{n \sin\left(\frac{2\pi}{n}\right)}} \quad (I3)$$

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Rahmonov Bahodir

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, katta o'qituvchi

Muqumov Asqar

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, katta o'qituvchi

asqarmuqumov@gmail.com

Orcid: 0009-002-0500-5153

UDK 510.57

TOR TEBRANISH TENGLAMASI UCHUN KOSHI MASALASINING KORREKTLIGI HAQIDA

Annotatsiya: Mexanika va fizikaning tebranish jarayonlari bilan bog'liq bir qator masalalari giperbolik tipdagi tenglama bilan ifodalanadi. Ushbu maqolada tor tebranish tenglamasi uchun Koshi masalasining qo'yilishi va D'alamber formulasini xarakteristika usulidan foydalangan holda isbotlangan.

Kalit so'zlar: Tor tebranish tenglamasi, Koshi masalasi, korrekt, D'alamber, xarakteristika.

Рахмонов Баходир

Экономико-педагогический университет, старший преподаватель

Мукумов Аскар

Экономико-педагогический университет, старший преподаватель

О КОРРЕКТНОСТИ ЗАДАЧИ КОШИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ КОЛЕБАНИЙ

Аннотация: Ряд задач механики и физики, связанных с колебательными процессами, представлены гиперболическим уравнением. В данной статье с использованием характеристического метода доказываются задача Коши для уравнения узких колебаний и формула Даламбера.

Ключевые слова: уравнение колебаний, задача Коши, корректное, Даламбера, характеристика.

Rahmonov Bahadir

University of Economics and Pedagogy, senior teacher

Muqumov Askar

University of Economics and Pedagogy, senior teacher

TEBRANISH TENGLAMASI UCHUN KOSHI MASALASINING TO'G'RILIGI HAQIDA

Annotatsiya: Tebranish jarayonlariga bog'liq bo'lgan mexanika va fizika masalalarining qatori giperbolik tenglama yordamida ifodalanadi. Ushbu maqolada xarakteristik usuldan foydalanilgan holda tor tebranishlar tenglamasi uchun Koshi masalasining to'g'riligini isbotlash hamda D'Alembert formulasini keltirish ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tebranish tenglamasi, Koshi masalasi, to'g'rilik, D'Alembert, xarakteristika.

Eng sodd giperbola tipdagi tenglama ushbu

$$U_{tt} = a^2 U_{xx}, \quad a = \text{const} \quad (1)$$

ko'rinishda bo'lib, u tor tebranish tenglamasi yoki to'liq tarqalish tenglamasi deyiladi. Tor tebranish tenglamasining yopiq (2) sohada aniqlangan, uzluksiz va

$$U(x, 0) = \varphi_0(x), \quad U_t(x, 0) = \varphi_1(x), \quad -\infty < x < +\infty \quad (2)$$

boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi regular yechimni toping (topamiz). Bu yerda $\varphi_0(x)$, $\varphi_1(x)$ - berilgan yetarlicha silliq funksiyalar. Tor tebranish tenglamasini kanonik ko'rinishga keltiramiz. Buning

uchun (1) tenglamaning xarakteristik tenglamasini tuzamiz.

$$a(x, t)(dt)^2 - 2b(x, t)dt dx + c(x, t)(dx)^2 = 0 \quad (3)$$

$$\text{bu yerda } a(x, t) = a^2, \quad b(x, t) = 0, \quad C(x, t) = -1$$

va $\delta = a^2 > 0$. U holda $\frac{dt}{dx} = \frac{b \pm \sqrt{\delta}}{a} = \pm \frac{1}{a}$ yoki

$$dx = ddt \quad dx = -adt \text{ bo'lib, u ikkita haqiqiy va har xil}$$

$$x + at = C_1, \quad x - at = C_2 \quad C_1 C_2 = \text{const}$$

yechimlarga ega. Quyidagi

$$\xi = x + at, \quad \eta = x - at$$

tengsizliklarga asosan yangi ξ, η o'zgaruvchilar kiritamiz va $U_{\eta\eta}$ hamda U_{xx} xususiy hosilalarni

$$U_{\eta\eta} = a^2 u_{\xi\xi} - 2a^2 U_{\xi\eta} + a^2 U_{\eta\eta},$$

$$U_{xx} = U_{\xi\xi} - 2U_{\xi\eta} + U_{\eta\eta}$$

topamiz. Bu hosilalarni (1) tenglamaga qo'yib, soddalashtiramiz, (1) tenglama ushbu

$$U_{\xi\eta} = 0 \quad (4)$$

kanonik ko'rinishga keladi. Oxirgi tenglamani ketma-ket integrallab kanonik tenglamaning umumiy yechimini

$$U(\xi, \eta) = f(\xi) + g(\eta) \quad (5)$$

ko'rinishda topamiz. Bu yerda $f(\xi), g(\eta)$ - ixtiyoriy funksiyalar.

Endi (5) formulada ξ va η o'zgaruvchilardan eski x, t o'zgaruvchilarga qaytib, (1) tenglamaning umumiy yechimini olamiz.

$$U(x, t) = f(x + at) + g(x - at) \quad (6)$$

bu yerda $f(x \pm at)$ - ixtiyoriy ikki marta uzluksiz hosilalarga ega funksiyalar.

Umumiy yechimdagi $f(x + at)$ va $g(x - at)$ funksiyalar topish uchun (2) boshlang'ich shartlardan foydalanamiz.

$$U(x, 0) = f(x) + g(x) = \varphi_0(x),$$

$$U_t(x, 0) = af'(x) - ag'(x) = \varphi_1(x) \quad (7)$$

bundan quyidagi sistemaga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} f(x) + g(x) = \varphi_0(x) \\ f'(x) - g'(x) = \frac{1}{a} \varphi_1(x) \end{cases} \quad (8)$$

Bu sistemaning ikkinchi tenglamasida x ni z bilan almashtiramiz va uni 0 dan x gacha integrallaymiz.

$$f(x) - g(x) = \frac{1}{a} \int_0^x \varphi_1(z) dz + C$$

bu yerda $C = f(0) - g(0)$ - ixtiyoriy o'zgaruvchi.

Natijada ushbu

$$\begin{cases} f(x) + g(x) = \varphi_0(x) \\ f(x) - g(x) = \frac{1}{a} \int_0^x \varphi_1(z) dz + C \end{cases}$$

sistemani olamiz. Bu sistemadan $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalarni topamiz.

$$\begin{cases} f(x) = \frac{1}{2} \varphi_0(x) + \frac{1}{2a} \int_0^x \varphi_1(z) dz + \frac{C}{2} \\ g(x) = \frac{1}{2} \varphi_0(x) + \frac{1}{2a} \int_0^x \varphi_1(z) dz + \frac{C}{2} \end{cases} \quad (9)$$

$f(x)$ funksiyaning x argumentini $x + at$ bilan,

$g(x)$ funksiyaning x argumentini esa $x - at$ bilan almashtiramiz. Va (6) umumiy yechimga qo'yib,

$$u(x, t) = \frac{1}{2} [\varphi_0(x + at) + \varphi_0(x - at)] + \frac{1}{2a} \int_{x-at}^{x+at} \varphi_1(z) dz \quad (10)$$

ifodani hosil qilamiz. Bu bir jinsli tor tebranish tenglamani uchun Koshi masalasi yechimini ifodalovchi Dalambir formulasi deyiladi.

Koshi masalasining qo'yilishida $\varphi_0(x), \varphi_1(x)$ funksiyalarni yetarlicha silliq bo'lsin deb talab qilgan edik. Endi bu funksiyalarni qaysi sinfga tegishli ekanligini aniqlaylik.

Agar $\varphi_0(x) \in C^2(R^1), \varphi_1(x) \in C^1(R^1)$ bo'lsa, u holda (10) formula bilan aniqlangan $u(x, t)$ funksiya (1) tor tebranish tenglamasini va (2) boshlang'ich shartlarni qanoatlantirishini bevosita tekshirib ishonch hosil qilish mumkin.

Haqiqatan ham, (10) formulada $t = 0$ desak, u holda $u(x, 0) = \varphi_0(x), x \in R$

bo'ladi. (10) formuladan t bo'yicha hosila olamiz.

$$U_t = \frac{1}{2} a \varphi_0'(x + at) - \frac{1}{2} a \varphi_0'(x - at) + \frac{1}{2a} [a \varphi_1'(x + at) + a \varphi_1'(x - at)]$$

keyin $t = 0$ bo'lganda $u_t(x, 0) = \varphi_1(x), x \in R$ ekanligini ko'ramiz.

Bu tor tebranish tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimi mavjud ekanligini ko'rsatadi. (10) formulani keltirib chiqarish tor tebranish tenglamasining (6) umumiy yechimiga asoslangan va barcha bosqichlar bir qiymatli bajarildi.

Misol sifatida

$$U_{xx} - 4U_{xy} + 3U_{yy} + 4e^{y+x} = 0 \quad (11)$$

tenglama uchun qo'yilgan quyidagi

$$U(x, y)|_{y=0} = 2x, \quad U_y(x, y)|_{y=0} = 0 \quad (12)$$

Koshi masalasining yechimini topaylik.

$$(dy)^2 - 4dydx + 3(dx)^2 = 0$$

ushbu oddiy differensial tenglamani yozgan holda (11) tenglamaning xarakteristik tenglamasi orqali ifodalaymiz, ko'paytuvchilarga ajratib,

$$\left(\frac{dy}{dx}\right)^2 + 4\frac{dy}{dx} + 3 = 0 \quad \left(\frac{dy}{dx} + 3\right)\left(\frac{dy}{dx} + 1\right) = 0$$

$$dy + 3dx = 0, \quad dy + dx = 0$$

Bundan berilgan tenglamaning xarakteristikalarini topamiz

$$y + 3x = C_1, \quad y + x = C_2$$

Yangi ξ va η o'zgaruvchilarini $y + 3x = \eta$, $y + x = \xi$ kiritib, tenglamada qatnashayotgan birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarni quyidagi

$$U_x = U_\xi \cdot \xi_x + U_\eta \cdot \eta_x, \quad U_y = U_\xi \cdot \xi_y + U_\eta \cdot \eta_y$$

$$U_{xx} = \xi_x^2 U_{\xi\xi} + 2\xi_x \eta_x U_{\xi\eta} + \eta_x^2 U_{\eta\eta} + \xi_{xx} U_\xi + \eta_{xx} U_\eta$$

$$U_{yy} = \xi_y^2 U_{\xi\xi} + 2\xi_y \eta_y U_{\xi\eta} + \eta_y^2 U_{\eta\eta} + \xi_{yy} U_\xi + \eta_{yy} U_\eta$$

$$U_{xy} = \xi_x \xi_y U_{\xi\xi} + (\xi_x \eta_y + \xi_y \eta_x) U_{\xi\eta} + \eta_x \eta_y U_{\eta\eta} + \xi_{xy} U_\xi + \eta_{xy} U_\eta$$

ko'rinishda almashtirgan holda hisoblaymiz

$$U_x = 1 \cdot U_\xi + 3 \cdot U_\eta = U_\xi + 3U_\eta,$$

$$U_y = 1 \cdot U_\xi + 1 \cdot U_\eta = U_\xi + U_\eta$$

$$U_{xx} = 1 \cdot U_{\xi\xi} + 2 \cdot 1 \cdot 3 \cdot U_{\xi\eta} + 9 \cdot U_{\eta\eta} + 0 = U_{\xi\xi} + 6U_{\xi\eta} + 9U_{\eta\eta}$$

$$U_{yy} = 1 \cdot U_{\xi\xi} + 2 \cdot 1 \cdot 1 \cdot U_{\xi\eta} + 1 \cdot U_{\eta\eta} + 0 = U_{\xi\xi} + 2U_{\xi\eta} + U_{\eta\eta}$$

$$U_{xy} = 1 \cdot U_{\xi\xi} + (1+3)U_{\xi\eta} + 3U_{\eta\eta} + 0 = U_{\xi\xi} + 4U_{\xi\eta} + 3U_{\eta\eta}$$

so'ng bularni tenglamaga qo'yamiz

$$U_{\xi\xi} + 6U_{\xi\eta} + 9U_{\eta\eta} - 4(U_{\xi\xi} + 4U_{\xi\eta} + 3U_{\eta\eta}) + 3(U_{\xi\xi} + 2U_{\xi\eta} + U_{\eta\eta}) + 4e^\xi = 0$$

buni soddalashtirib,

$$U_{\xi\eta} = e^\xi$$

kanonik tenglamaga kelamiz. Uning yechimi

$$U = \eta e^\xi + f_1(\xi) + f_2(\eta)$$

ko'rinishda bo'ladi. Demak, berilgan tenglamaning umumiy yechimi

$$U(x, y) = (3x + y)e^{x+y} + f_1(x + y) + f_2(3x + y) \quad (13)$$

dan iboratdir. (13) ni (12) shartlarga qo'yamiz. U holda, f_1 va f_2 funksiyalarni aniqlash uchun ushbu

$$\begin{cases} f_1(x) + f_2(3x) + 3xe^x = 2x \\ f_1'(x) + f_2'(3x) + (1+3x)e^x = 0 \end{cases}$$

sistemani yechib olamiz, natijada

$$f_1(x) = -x + 3e^x(1-x) - f_2(0)$$

$$f_2(3x) = 3x - 3e^x - f_1(0)$$

ifodalarga ega bo'lamiz. Endi bu ifodalardan $f_1(x+y)$ va $f_2(3x+y)$ larni topib (13) ga qo'yamiz.

$$U(x, y) = 2x + (3-2y)e^{x+y} - 3e^{\frac{y+3x}{3}} \quad (14)$$

(12) ga ko'ra $U(x, y)|_{y=0} = 2x$ ekanligidan

$$U(x, 0) = 2x + (3-2 \cdot 0)e^{x+0} - 3e^{\frac{0+3x}{3}} = 2x$$

$U_y(x, y)|_{y=0} = 0$ dan esa

$$U_y(x, 0) = \left[2x + (3-2y)e^{x+y} - 3e^{\frac{y+3x}{3}} \right]_y = 0$$

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hosil bo'lgan (14) ifoda Berilgan tenglama uchun Koshi masalasining yechimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salohitdinov M. Matematik fizika tenglamalari //Toshkent, "O'zbekiston nashriyoti" 2002-yil
2. Salohitdinov M. Islomov B. Matematik fizika tenglamalari fanidan misol va masalalar to'plami// Toshkent, "Mumtoz so'z" nashriyoti 2010-yil
3. Zikirov O. Matematik fizika tenglamalari// Toshkent, 2017-yil
4. Мукумов А. Х. О КОРРЕКТНОЙ РАЗРЕШИМОСТИ КРАЕВЫХ ЗАДАЧ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ВТОРОГО ПОРЯДКА //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 243-246.
5. Muqumov A.H. BIR O 'ZGARUVCHILI FUNKSIYANING FURE ALMASHTIRISHI VA XOSSALARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 4 SPECIAL. – C. 545-548.
6. Muqumov A. H. IKKINCHI TARTIBLI TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY MASALANING UMUMLASHGAN VA KUCHSIZ YECHIMLARI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2023. – T. 3. – №. 2.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Shoimov Bakhodir Sayfullo ugli

University of Economics and Pedagogy

email: boxodir1@bk.ru

Orcid: <https://orcid.org/0009-0009-9697-9973>

Mukumov Askar Hamza ugli

University of Economics and Pedagogy

Email: asqarmuqumov@gmail.com

Orcid: 0009-002-0500-5153

EXISTENCE AND UNIQUENESS OF THE SOLUTION OF THE NONLOCAL PROBLEM IN FIELDS WITH SHIFTS FROM THE CHARACTERISTIC $y=0$ FOR EQUATIONS OF THE PARABOLIC-HYPERBOLIC TYPE

Abstract: This article is devoted to the study of the existence and uniqueness of the solution of the nonlocal problem in fields with displacement from the $y=0$ characteristic for equations of the parabolic-hyperbolic type. The uniqueness of the solution of the given problem is proved by the help of integral energy. The existence of the given problem is shown using the theory of integral equations.

Keywords: Parabolic-hyperbolic equation, characteristic triangle, regular solution, integral energy method, trivial solution, Green's function, Volterra's integral equation of the second kind, D'Alembert's formula.

Шоимов Баходир Сайфулло угли

Университет экономики и педагогики

Мукумов Аскар Хамза угли

Университет экономики и педагогики

СУЩЕСТВОВАНИЕ И ЕДИНСТВЕННОСТЬ РЕШЕНИЯ НЕЛОКАЛЬНОЙ ЗАДАЧИ В ПОЛЯХ СО СМЕЩЕНИЯМИ ОТ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДЛЯ УРАВНЕНИЙ ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию существования и единственности решения нелокальной задачи в полях со смещением от характеристики $y=0$ для уравнений параболо-гиперболического типа. Единственность решения данной задачи доказывается с помощью интегральной энергии. Существование данной задачи показано с помощью теории интегральных уравнений.

Ключевые слова: Параболо-гиперболическое уравнение, характеристический треугольник, регулярное решение, метод интегральной энергии, тривиальное решение, функция Грина, интегральное уравнение Вольтерра второго рода, формула Даламбера.

Shoimov Bahodir Sayfullo o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Mukumov Asqar Hamza o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

PARABOLIK-GIPERBOLIK TURLI TENGLAMALAR UCHUN XARAKTERISTAN SIGIRILGAN MAYDLARDA NOLOKAL MUAMMONI YECHISHNING MAVJUDLIGI VA BEKORLIGI.

Annotatsiya: Ushbu maqola parabolik-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun $y=0$ xarakteristikasidan siljish bilan maydonlarda nolokal masala yechimining mavjudligi va yagonaligini o'rganishga bag'ishlangan. Berilgan masalani yechishning yagonaligi integral energiya yordamida isbotlanadi. Berilgan muammoning mavjudligi integral tenglamalar nazariyasi yordamida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Parabolik-giperbolik tenglama, xarakteristik uchburchak, muntazam yechim, integral energiya usuli, trivial yechim, Grin funksiyasi, Volterranning ikkinchi turdagi integral tenglamasi, D'Alembert formulasi.

It is very important to check the correctness of the boundary value problem in displacement fields from characteristic for many physical and mechanical processes of mixed parabolic-hyperbolic type equations. Initially in this field, T.D. In the monographs of Jurayev, A. Sopyuyev and M. Mamajonov, later A.S. Berdeshev, M.A. Sadrbekov, B. D. Kadrkulov, B. E. Eshmatov and N.A. It can be found in the works of Rakhmatullayeva.

In this article, the main goal of studying the existence and uniqueness of the nonlocal solution of the problem in fields with displacements from the $y=0$ characteristic for equations of the parabolic-hyperbolic type was determined.[1,3,8].

Setting the issues.

$$\Omega = \Omega_0 \cup \Omega_1 \cup \Omega_2 \cup \Omega_3 \cup AB \cup AA_0 \cup BB_0 \text{ is in the field}$$

$$Lu = 0$$

(1)

we look at equation

Here

$$Lu = \begin{cases} u_{xx} - u_y, & (x, y) \in \Omega_0, \\ u_{xx} - u_{yy}, & (x, y) \in \Omega_i \ (i = \overline{1,3}), \end{cases}$$

A, A_0, D ; is a characteristic triangle with areas $\Omega_0 = \{(x, y) : 0 < x < 1, 0 < y < 1\}$, Ω_1, Ω_2 and vertices at points $A(0,0), A_0(0,1), B(1,0), B_0(1,1), D(-\frac{1}{2}, \frac{1}{2}), E(\frac{3}{2}, \frac{1}{2})$. Let Ω_3 - be the sections AB and BC, and let $0 \leq x + y \leq x - y \leq 1$ be the area bounded by the smooth curve $AC : y = -\gamma_3(x)$ inside the characteristic triangle.

We introduce the following notation: $AK : x = -\gamma_1(y), BM : x = -\gamma_2(y)$ where the following is appropriate for functions given $\gamma_3(x), \gamma_j(y) \ (j = \overline{1,2})$ s: [2,4,9].

- They are strictly located within the characteristic triangle;

- $\gamma_3(x), \gamma_j(y) \in C^2(0,1) \ (j = \overline{1,3})$

- $t \pm \gamma_j(t) \ (j = \overline{1,3})$ - monotonically growing;

- $\gamma_1(0)=0, \gamma_2(0)=-1, l_1+\gamma_1(l_1)=1, l_2-\gamma_2(l_2)=2, l_3+\gamma_3(l_3)=1, l_j = const$

$$l_j \in \left(\frac{1}{2}; 1\right).$$

Here Ω_1 is in the field


$$\text{From system } \begin{cases} y - x = y_0 \\ y + x = 0 \end{cases}, \theta_1\left(-\frac{y_0}{2}; \frac{y_0}{2}\right) \text{ is}$$

found, where $0 \leq y_0 \leq 1$ is

$$\text{We get } y + \gamma_1(y) = y_0 \text{ from system}$$

Анализ экспериментальных спектральных зависимостей $I_{\Phi\Pi}$ вдоль линии асимметрии кристаллитов показывает, что в длинноволновой области спектра до $h\nu = 1.15 \text{ эВ}$ кривые $I_{\Phi\Pi}(h\nu)$ не зависят от полярности внешнего напряжения. Причиной тому является то, что в примесной области поглощения создается фото-ЭДС намного меньшей величины по сравнению с величиной внешнего напряжения [4]. С увеличением кванта света уже при его энергии $h\nu = 1.5 \text{ эВ}$ существенно проявляется влияние фото-ЭДС. В случае, когда полярность фото-ЭДС совпадает с полярностью приложенного напряжения фотосигнал увеличивается. Когда полярности АФН и $E_{\text{вн}}$ противоположены, в результате возникновения большой фото-ЭДС при значениях $h\nu > 1.35 \text{ эВ}$ может наблюдаться инверсия знака $I_{\Phi\Pi}$. Путем усреднения аналогичных зависимостей было вычислено влияние $I_{КЗ}$ и построены спектры $\Phi\Pi$.

В перпендикулярном к линии асимметрии кристаллитов направлении фотосигналы при разных полярностях $E_{\text{внеш}}$ совпадают по величине во всем измеренном интервале спектра, так как в этом направлении величина генерируемой фото-ЭДС оказалась более чем на порядок меньше величины фото-ЭДС генерируемой параллельно асимметрии кристаллитов.

В случае глубокого локального уровня электрон сильно связан с дефектом и поэтому изменение зарядового состояния примесного центра при фотоионизации будет сопровождаться изменением локализованных колебаний дефектного комплекса, который может изменять спектры сечения захвата фотонов (СЗФ) глубоких локальных уровней. Для описания СЗФ глубоких уровней, энергия оптической ионизации которых в несколько раз меньше ширины запрещенной зоны, предполагается, что примесный потенциал можно аппроксимировать с

помощью δ -функцией, а масса связанного носителя заряда равна величине эффективной массы в близлежащей разрешенной зоне, и воспользуемся формулой Г. Луковского [5]

$$\sigma_{\phi}(h\nu) = \frac{R\sqrt{E_0}}{m^*} \cdot \frac{(h\nu - E_0)^{3/2}}{(h\nu)^3}, \quad (1)$$

где $R = \left(16\pi e^2 h / 3\bar{n}c\right) \cdot E_{\text{эфф}} / E_0$, m^* - эффективная масса носителя заряда, \bar{n} - показатель преломления полупроводника, $E_{\text{эфф}}$ - эффективная глубина потенциальной ямы в окрестности дефекта, E_0 - энергия ионизации примесного центра.

Для достаточно глубоких уровней размер локализации носителей заряда одного порядка с постоянной решетки. Тогда СЗФ описывается выражением

$$\sigma_{\phi}(h\nu) = \frac{R \cdot g \sqrt{E_0 m^* m_0}}{2m_H^2} \cdot \frac{(h\nu - E_0)^{3/2}}{h\nu \cdot \left(h\nu + E_0 \left(\frac{m_0}{m^*} - 1\right)\right)^2}, \quad (2)$$

где m_H - эффективная масса, входящая в оператор оптического возбуждения,




Рис.1. Спектры тока фотопроводимости (кривая 1) и тока короткого замыкания (2) пленок $CdTe:Ag$, полученных при скорости конденсации $1,8 \text{ нм/с}$. $T = 300^0 \text{ К}$.

которая не зависит от $h\nu$; g - фактор вырождения. Считается, что примесная $\Phi\Pi$ пропорциональна произведению СЗФ глубокого уровня σ_{ϕ} и интенсивности возбуждающего света L . При этом она зависит от степени заполнения локальных уровней,

которая определяется как скоростью генерации, так и временем жизни неравновесных носителей. Следует отметить, что в исследуемых пленках при фотовозбуждении существенно изменяется подвижность носителей заряда, что также следует учитывать при анализе примесного ФП.

Результаты и обсуждения. Экспериментальные спектры $I_{ФП}$ и $I_{КЗ}$ для пленок $CdTe:Ag$, полученных со скоростями конденсации $1,8 \text{ нм/с}$ и $0,3 \text{ нм/с}$, представлены на рисунках 1 и 2. Видно, что спектры токов ФП и короткого замыкания в области частот $h\nu = 0.6 - 1.2 \text{ эВ}$ и $h\nu \geq 1.4 - 1.5 \text{ эВ}$ существенно отличаются. Это обусловлено примесной и собственной генерацией фото-ЭДС в асимметричных приграничных барьерах

кристаллических зерен. При больших скоростях конденсации получают более мелкозернистые пленки, что отражается в характерных частотах спектров $I_{ФП}$ и $I_{КЗ}$. В спектрах $I_{КЗ}$ обнаруживаются коротковолновый спад при частотах $h\nu \geq 1.5 \text{ эВ}$ (кривая 2, рис. 1) и $h\nu \geq 1.35 \text{ эВ}$ (кривая 2, рис. 2),




Рис.2. Спектры тока фотопроводимости (кривая 1) и тока короткого замыкания (2) пленок $CdTe:Ag$, полученных при скорости конденсации $0,3 \text{ нм/с}$. $T = 300^{\circ} \text{ K}$.

связанный увеличением скорости поверхностной рекомбинации носителей заряда. Отсутствие коротковолнового спада спектров ФП, по-видимому, показывает, что длина диффузии носителей превышает размер кристаллита. Поскольку толщина образца не превышает $d \approx 1 \text{ мкм}$, что соответствует размеру кристаллита, то считая, что коэффициент диффузии носителей такой же, как в кристалле, получим $d/2 = L = \sqrt{D\tau}$ и $\tau \leq (1-3) \cdot 10^{-10} \text{ с}$, где приняли $D_p = 13 \text{ см}^2/\text{с}$ и $D_n = 30 \text{ см}^2/\text{с}$. Прямое измерение времени жизни носителей в исследуемых образцах $CdTe:Ag$ поспаду ФП после фотовозбуждения коротким импульсом света также дало значения $\tau \approx 100 \text{ пс}$ [6].

Монотонное возрастание фототока с увеличением энергии квантов света показывает, что одновременно изменяются скорость генерации носителей и высота потенциальных барьеров, из-за чего спектральная зависимость $I_{ФП}$ сглаживается. Подсветка стабилизирует изменение барьеров, что проявляется в полосе примесной ФП с энергиями активации $\approx 0.62, 0.9, 1.13$ и 1.31 эВ , рассчитанные по формуле (2). Длинноволновый край ФП простирается до значений $0.5 - 0.6 \text{ эВ}$ понижение температуры приводит к опустошению этих уровней вследствие роста длины экранирования. Спектры при 100 K показали, что фотогенерация осуществляется из уровней с энергией активации 1.1 эВ . Подсветка заполняет более мелкие уровни, в спектре ФП выявляются уровни с энергиями активации $0.5 - 0.8 \text{ эВ}$.

Заключение.

Таким образом, в данной работе показано, что изучение спектров ФП и тока короткого замыкания в зависимости от технологических параметров исследуемых активированных пленок $CdTe:Ag$ с АФН и ФЭН свойствами позволяет получить дополнительные информации о субструктуре, потенциальных барьерах и глубоких примесных уровнях.

Литература

[1]. Адирович Э.И., Мастов Э.М., Мирзамахмудов Т., Найманбоев Р., Рубинов., Шакиров Н., Юабов В.М. В сб.: «Фотоэлектрические явления и оптоэлектроника». Изд. «Фан», Ташкент, 1972. с.143.
 [2]. Эргашев Ж., Юлдашев Н.Х. Фотоэлектретный эффект в полупроводниковых пленочных структурах. Монография. «Техника», Фергана-2017, 180 с.
 [3]. Yuldashev N. K., Nurmatov O. R., Mamadiyeva D. T. (2024). Photoelectric State with Long-Term Relaxation in CdTe:(Ag, Cu, Cd) and Sb₂Se₃:Se Photovoltaic Films // Journal of Applied Mathematics and Physics, 12, 43-51.

[4].Юлдашев Н.Х., Ахмаджонов М.Ф., Мирзаев В.Т., Нурматов О.Р. Фотоэлектретные пленки CdTe:Ag при собственном и примесном поглощении света. // Евразийский союз ученых (ЕСУ, ежемесячный научный журнал), - Россия, 2019. №3 (60)/ 4 часть. СС.72-78.

[5].Lukovsky G. On the photionization of deep impurity centers in semiconductors. Sol.St.Com, 1965. V.3. P.229.

[6].Нурматов О. Р., Абдуллаев Ш. Ш., Юлдашев Н. Х. Временная релаксация фотоэлектретного состояния в фотовольтаических пленках CdTe: Ag, Cd, Cu и Sb₂Se₃:Se // Central Asian Journal of Theoretical & Applied Sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 315-322.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



01.00.00-FIZIKA-MATEMATIKA
journal.namdu.uz
PHYSICS AND MATHEMATICS

Xodjibayev Vali Raximdjanoich

Namangan muhandislik-qurilish instituti, professor
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Matematika
Instituti Namangan bo'linmasi, yetakchi ilmiy xodim

E-mail: vkhodjibayev@mail.ru

Karimov Ulug'bek Erkin o'g'li

Namangan davlat universiteti magistranti

E-mail: ulugbekarimov1909@gmail.com

UO'K 519.21

YUTQAZISH EHTIMOLLIIGI HAQIDA

Annotatsiya: Umumlashgan Puasson jarayonlarining bir sinfi uchun oraliqdan birinchi marta quyi (yuqori) chegara orqali chiqish ehtimolligi uchun aniq formulalar topilgan.

Kalit so'zlar: Chegaraviy masalalar, yutqazish ehtimolligi, aniq formulalar.

Ходжибаев Вали Рахимджанович

Наманганский инженерно-строительный институт, профессор
Институт Математики АН РУЗ, ведущий научный сотрудник

Каримов Улугбек Эркин угли

Наманганский государственный университет, магистрант

О ВЕРОЯТНОСТИ РАЗОРЕНИЯ

Аннотация: Для одного класса обобщенных пуассоновских процессов найдена вероятность первого выхода из интервала через нижнюю (верхнюю) границу.

Ключевые слова: Граничные задачи, вероятность разорения, точные формулы.

Khodjibayev Vali Raximdjanoich

Namangan Engineering-construction institute, professor
Namangan department of the Institute of the Mathematics
Uzbekistan Academy of Sciences, leading researcher

Karimov Ulugbek Erkin ugli

Namangan State University, master's student

ON THE PROBABILITY OF RUIN

Abstract: For one class of generalized Poisson processes, the probability of the first exit from the interval through the lower (upper) boundary is found.

Key words: Boundary problems, probability of ruin, exact formulas.

Kirish

$\xi(t), t \geq 0, \xi(0) = 0$, - bir jinsli bog'liqsiz
orttirmali tasodifiy jarayonning $(-a, b)$ (
 $a > 0, b > 0$) oraliqdan birinchi marta chiqish momenti
 T bo'lsin:

$$T = T(a, b) = \inf \{t \geq 0: \xi(t) \notin (-a, b)\}.$$

$\xi(T)$ tasodifiy miqdor jarayonning $(-a, b)$
oraliqdan birinchi marta chiqish momentidagi holatini
aniqlaydi, $P(\xi(T) \leq -a), P(\xi(T) \geq b)$ lar esa,
mos ravishda oraliqning quyi va yuqori chegaralaridan
chiqish ehtimolliklaridir. Bu ehtimolliklar, odatda, ikki
o'yinchining diskret vaqtli o'yini modelidagi kabi yutqazish
ehtimolliklari deb ataladi; tabiiyki,

$P(\xi(T) \leq -a) + P(\xi(T) \geq b) = 1$. Ommaviy xizmat ko'rsatish, zahiralarni saqlash, sug'urta nazariyalarining ko'plab masalalari yutqazish ehtimolligini o'rganishga olib keladi.

Tasodifiy jarayonlarning ikki chegara bilan bog'liq bo'lgan xarakteristikalarini, xususan, yutqazish ehtimolligini aniq ko'rinishda faqat ba'zi xususiy hollardagina topish mumkin. Shu sabab bu masalalarda asimptotik yondashuvlarga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ikki chegara bilan bog'liq funkcionallarning asimptotik tahliliga ko'plab ilmiy izlanishlar bag'ishlangan bo'lib, ba'zi ma'lumotlarni [1] dan topish mumkin. Ushbu maqolada og'ishga ega bo'lgan, yuqoriga va quyiga sakrashlari, sakrashlar orasidagi vaqtlar ko'rsatkichli taqsimlangan umumlashgan Puasson jarayonlari uchun yutqazish ehtimolligi aniq holda topilgan. Asosiy natijalar maqola oxirida (Teorema 1,2) keltirilgan. Bu masala ikki tomonlama ko'rsatkichli taqsimlangan tasodifiy miqdorlar hosil qilgan tasodifiy daydishlar uchun [2] da, manfiy og'ishga va faqat ko'rsatkichli taqsimlangan musbat sakrashlarga ega bo'lgan umumlashgan Puasson jarayonlari uchun [3] da ko'rilgan. [2] da mavzu tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

$\xi(t), \xi(0) = 0, \gamma \neq 0$ parametrli og'ishga, musbat sakrashlari $\alpha > 0$, manfiy sakrashlari $\beta > 0$, musbat sakrashlari orasidagi vaqt $c_+ > 0$, manfiy sakrashlari orasidagi vaqt esa, $c_- > 0$ parametrli ko'rsatkichli taqsimotlarga ega bo'lgan tasodifiy jarayon bo'lsin (agar $c_+ = c_-$ bo'lsa, odatdagi umumlashgan Puasson tasodifiy jarayoni hosil bo'ladi). Bu holda

$$\psi(\lambda) = \ln Ee^{\lambda\xi(1)} = \gamma\lambda + c_+ \int_0^{\infty} (e^{\lambda x} - 1) dF_+(x) + c_- \int_{-\infty}^0 (e^{\lambda x} - 1) dF_-(x),$$

(1) bo'lib, bu yerda $F_+(x) = 1 - e^{-\alpha x}, x \geq 0;$

$F_-(x) = e^{\beta x}, x \leq 0$ bo'ladi. Demak,

$$\psi(\lambda) = \gamma\lambda + \frac{c_+\lambda}{\alpha - \lambda} - \frac{c_-\lambda}{\beta + \lambda}, \psi'(\lambda) = \gamma + \frac{c_+\alpha}{(\alpha - \lambda)^2} - \frac{c_-\beta}{(\beta + \lambda)^2}, -\beta < \lambda < \alpha,$$

$$\psi(0) = 0, \psi'(0) = \gamma + \frac{c_+}{\alpha} - \frac{c_-}{\beta} = \frac{\alpha\beta\gamma + c_+\beta - c_-\alpha}{\alpha\beta} = E\xi(1).$$

Ushbu

$$u - \psi(\lambda) = u - \gamma\lambda - \frac{c_+\lambda}{\alpha - \lambda} + \frac{c_-\lambda}{\beta + \lambda} = \frac{\gamma\lambda^3 - k_1(u)\lambda^2 + k_2(u)\lambda + u\alpha\beta}{(\alpha - \lambda)(\beta + \lambda)}$$

(2)

funksiyani tahlil qilamiz, bunda

$$k_1(u) = u + (\alpha - \beta)\gamma + c_+ + c_-, k_2(u) = (\alpha - \beta)u - \alpha\beta\gamma - \beta c_+ + \alpha c_-,$$

$$k_1 = k_1(0) = (\alpha - \beta)\gamma + c_+ + c_-, k_2 = k_2(0) = -\alpha\beta\gamma - \beta c_+ + \alpha c_-.$$

(3)

Lemma 1. (1) o'rinli bo'lsin. U holda $u \geq 0$ bo'lganda $u - \psi(\lambda) = 0$ tenglama $\lambda_-(u), \lambda_+(u), \lambda(u)$ haqiqiy uzluksiz yechimlarga ega va ular quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

- 1) $u > 0$ da $-\beta < \lambda_-(u) < 0, 0 < \lambda_+(u) < \alpha;$
- 2) $E\xi(1) = 0$ bo'lganda $h_{\pm} = \lambda_{\pm}(0) = 0,$
- $E\xi(1) < 0$ bo'lganda $h_- = 0, 0 < h_+ < \alpha;$
- $E\xi(1) > 0$ bo'lganda $h_+ = 0, -\beta < h_- < 0;$
- 3) $u \geq 0, \gamma > 0$ bo'lganda $\lambda(u) > \alpha; \gamma < 0$ bo'lganda esa, $\lambda(u) < -\beta (\lambda(0) = h).$

Isbot. $\psi(\lambda)$ funksiya haqiqiy

sonlar o'qining $\lambda = -\beta, \lambda = \alpha$ nuqtalarida ikkinchi tur uzilishga ega, qolgan barcha nuqtalarda esa uzluksiz. $-\beta < \lambda < \alpha$ qiymatlarda

$$\psi''(\lambda) = \frac{2c_+\alpha}{(\alpha - \lambda)^3} + \frac{2c_-\beta}{(\beta + \lambda)^3} > 0$$
 bo'lgani uchun

$\psi(\lambda)$ shu oraliqda botiq bo'lib, $\lambda_0 \in (-\beta, \alpha)$ nuqtada minimumga erishadi, $\psi(\lambda_0) \leq 0.$

$$\lim_{\lambda \rightarrow \alpha-0} \psi(\lambda) = +\infty, \lim_{\lambda \rightarrow -\beta+0} \psi(\lambda) = +\infty,$$
 va

$u - \psi(\lambda) = 0$ tenglama $u > 0, -\beta < \lambda < \alpha$ sohada ikkita $\lambda_{\pm}(u)$ yechimga ega va $\lambda_-(u) < 0, \lambda_+(u) > 0$ bo'ladi. Agar

$$E\xi(1) = \psi'(0) = 0$$
 bo'lsa, $\lambda_0 = 0,$

$$\lambda_-(0) = \lambda_+(0) = 0; E\xi(1) = \psi'(0) < 0$$
 bo'lsa,

$$\lambda_-(0) = 0, \lambda_+(0) = h_+ > 0;$$
 agar

$$E\xi(1) = \psi'(0) > 0$$
 bo'lsa, $\lambda_+(0) = 0,$

$$\lambda_-(0) = h_- < 0$$
 bo'ladi. $\gamma > 0$ bo'lganda

$$\lim_{\lambda \rightarrow \alpha+0} \psi(\lambda) = -\infty, \lim_{\lambda \rightarrow -\beta-0} \psi(\lambda) = -\infty,$$

$$\lim_{\lambda \rightarrow +\infty} \psi(\lambda) = +\infty, \lim_{\lambda \rightarrow -\infty} \psi(\lambda) = -\infty; \gamma < 0$$

bo'lganda esa, $\lim_{\lambda \rightarrow +\infty} \psi(\lambda) = -\infty,$

$$\lim_{\lambda \rightarrow -\infty} \psi(\lambda) = +\infty$$
 bo'lgani sababli $u - \psi(\lambda) = 0$

tenglamaning uchinchi yechimi $\lambda(u)$ uchun 3) shartning bajarilishi kelib chiqadi, ya'ni $\gamma > 0$ bo'lganda $\lambda(u) > \alpha$; $\gamma < 0$ bo'lsa, $\lambda(u) < -\beta, \lambda(0) < -\beta$. $\lambda_{\pm}(u), \lambda(u)$ funksiyalar $\varepsilon > 0$ uchun $[0, \varepsilon]$ kesmada uzluksizligiga ishonch hosil qilish qiyin emas. Lemma1 isbotlandi.

Agar $\gamma = 0$ bo'lsa, $\xi(t)$ zinasimon, ya'ni faqat sakrashlar orqali qiymatini o'zgartiradigan tasodifiy jarayon bo'ladi va tegishli natijalar bog'liqsiz orttirmali bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar yig'indisidan hosil bo'lgan tasodifiy daydishlar uchun ma'lum bo'lgan natijalardan kelib chiqadi. Shuning uchun biz bu holni qaramaymiz.

[4] dan ma'lumki, $\text{Re } \lambda = 0, \text{Re } u > 0$ da

$$r(u, \lambda) = u / (u - \psi(\lambda))$$

$$= u \int_0^{\infty} e^{-(u-\psi(\lambda))t} dt = u \int_0^{\infty} e^{-ut} E e^{\lambda \xi(t)} dt$$

$\xi(t)$ tasodifiy jarayon taqsimotining vaqt va fazo bo'yicha ikki o'lchovli Laplas-Stilt'yes akslantirishidir. $\text{Re } \lambda = 0, \text{Re } u > 0$ da $r(u, \lambda)$ funksiyani $r(u, \lambda) = r_+(u, \lambda)r_-(u, \lambda)$ ko'rinishda ifodalash cheksiz bo'linuvchi faktorizatsiya deyiladi, agarda $\text{Re } \lambda \leq 0$ yarim tekislikda $r_+(u, \lambda)$ funksiya manfiy bo'lmagan qiymatlarni qabul qiluvchi cheksiz bo'linuvchi taqsimotning Laplas akslantirishi, $r_-(u, \lambda)$ esa, $\text{Re } \lambda \geq 0$ yarim tekislikda musbat bo'lmagan qiymatli cheksiz bo'linuvchi taqsimotning Laplas akslantirishi bo'lsa. [4] da $r(u, \lambda)$ funksiyaning cheksiz bo'linuvchi faktorizatsiyasi keltirilgan. Tabiiyki, $r_+(u, \lambda)$ ($r_-(u, \lambda)$) funksiya $\text{Re } \lambda < 0$ ($\text{Re } \lambda > 0$) da analitik, $\text{Re } \lambda \leq 0$ ($\text{Re } \lambda \geq 0$) da uzluksiz va nolga teng bo'lmaydi.

$$g(u, \lambda) = \int_{-\infty}^{\infty} e^{\lambda x} dG(u, x) \quad \text{bo'lsa,}$$

$$\text{o'lganuvchi } D \subset R \text{ uchun } [g(\lambda)]^D = \int_D e^{\lambda x} dG(x)$$

belgilash orqali A va B operatorlarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$Ag(u, \lambda) = r_-^{-1}(u, \lambda) [r_-(u, \lambda) g(u, \lambda)]^{(-\infty, -a]},$$

$$Bg(u, \lambda) = r_+^{-1}(u, \lambda) [r_+(u, \lambda) g(u, \lambda)]^{[b, \infty)}.$$

$\text{Re } u \geq 0$ da quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$V_+(u, \lambda) = E(e^{\lambda \xi(T)-uT}; \xi(T) \geq b), \text{Re } \lambda \leq 0,$$

$$V_-(u, \lambda) = E(e^{\lambda \xi(T)-uT}; \xi(T) \leq -a), \text{Re } \lambda \leq 0.$$

[5] dan ma'lumki, $e(u, \lambda) \equiv 1$ deb olsak, quyidagi ayniyatlar o'rinli bo'ladi:

$$V_+(u, \lambda) = Be(u, \lambda) - BV_-(u, \lambda) = B(1 - V_-(u, \lambda)),$$

$$V_-(u, \lambda) = Ae(u, \lambda) - AV_+(u, \lambda) = A(1 - V_+(u, \lambda)).$$

(4)

Yutqazish ehtimolligi uchun aniq

formulalar

$\gamma > 0$ bo'lgan holga to'xtalamiz. Bu holda (2) va Lemma1 ga asosan

$$r(u, \lambda) = \frac{u(\alpha - \lambda)(\beta + \lambda)}{\gamma(\lambda - \lambda_+(u))(\lambda - \lambda_-(u))(\lambda - \lambda(u))},$$

$$\lambda(u)\lambda_+(u)\lambda_-(u) = \frac{\alpha\beta u}{\gamma},$$

$$-\beta \leq \lambda_-(u) \leq 0, 0 \leq \lambda_+(u) \leq \alpha, \lambda(u) > \alpha, u \geq 0$$

va

$$r_-(u, \lambda) = \frac{\lambda_-(u)(\lambda + \beta)}{\beta(\lambda - \lambda_-(u))},$$

$$r_+(u, \lambda) = \frac{\lambda(u)\lambda_+(u)(\alpha - \lambda)}{\alpha(\lambda - \lambda_+(u))(\lambda - \lambda(u))}$$

funksiyalar cheksiz bo'linuvchi faktorizatsiyaga qo'yilgan talablarni qanoatlantiradi. $r_+(u, \lambda)$

funksiyani λ o'zgaruvchiga nisbatan sodda kasr funksiyalarga yoyamiz:

$$r_+(u, \lambda) = \frac{\lambda(u)\lambda_+(u)(\alpha - \lambda_-(u))}{\alpha(\lambda_-(u) - \lambda(u))(\lambda - \lambda_-(u))} + \frac{\lambda(u)\lambda_+(u)(\lambda(u) - \alpha)}{\alpha(\lambda_-(u) - \lambda(u))(\lambda - \lambda(u))}.$$

O'zgaruvchi $u > 0$ bo'lganda

$$\frac{\lambda_+(u)}{\lambda - \lambda_+(u)} = \int_0^{\infty} e^{\lambda x} de^{-\lambda_+(u)x} \text{ bo'lganligi bois, ixtiyoriy}$$

$$g(\lambda) = \int_{-\infty}^0 e^{\lambda x} dG(x), \text{Re } \lambda \geq 0,$$

$$\int_{-\infty}^0 |dG(x)| < \infty \quad (5)$$

shartni qanoatlantiruvchi $g(\lambda)$ funksiya uchun

$$\frac{\lambda_+(u)}{\lambda - \lambda_+(u)} g(\lambda) = \int_{-\infty}^{+\infty} e^{\lambda x} d \int_{-\infty}^x e^{-\lambda_+(u)(x-t)} dG(t) = \int_{-\infty}^{+\infty} e^{\lambda x} d(g(\lambda_+(u)) e^{-\lambda_+(u)x}),$$

$$\left[\frac{\lambda_+(u)}{\lambda - \lambda_+(u)} g(\lambda) \right]^{[b, \infty)} = g(\lambda_+(u)) \int_b^{\infty} e^{\lambda x} d e^{-\lambda_+(u)x} = \frac{\lambda_+(u) g(\lambda_+(u))}{\lambda - \lambda_+(u)} e^{(\lambda - \lambda_+(u))b} \quad (6)$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. $u > 0$ bo'lganda $\lambda(u) > 0$ bo'lgani sababli (6) tenglikda $\lambda_+(u)$ ni $\lambda(u)$ ga almashtirganda ham u o'rinli bo'ladi. Demak, (5) ko'rinishdagi $g(\lambda)$ funksiya uchun ba'zi hisoblashlardan keyin

$$Bg(\lambda) = \frac{(\lambda - \lambda(u)) (\alpha - \lambda_+(u))}{(\alpha - \lambda) (\lambda_+(u) - \lambda(u))} g(\lambda_+(u)) e^{(\lambda - \lambda_+(u))b} + \frac{(\lambda - \lambda_+(u)) (\lambda(u) - \alpha)}{(\alpha - \lambda) (\lambda_+(u) - \lambda(u))} g(\lambda(u)) e^{(\lambda - \lambda(u))b} \quad (7)$$

tenglikni hosil qilamiz. Xuddi shunga o'xshash,

$$\frac{\lambda_-(u)}{\lambda - \lambda_-(u)} = \int_{-\infty}^0 e^{\lambda x} d e^{-\lambda_-(u)x} \quad \text{bo'lganligidan}$$

$$f(\lambda) = \int_0^{+\infty} e^{\lambda x} dF(x) \quad \text{ko'rinishidagi funksiya uchun}$$

$$Af(\lambda) = \frac{\beta + \lambda_-(u)}{\beta + \lambda} e^{-(\lambda - \lambda_-(u))a} f(\lambda_-(u)) \quad (8)$$

ekanligini tekshirish mumkin. Endi (4), (7), (8) munosabatlardan

$$V_+(u, \lambda) = \frac{(\lambda - \lambda(u)) (\alpha - \lambda_+(u))}{(\alpha - \lambda) (\lambda_+(u) - \lambda(u))} e^{(\lambda - \lambda_+(u))b} (1 - V_-(u, \lambda_+(u))) + \frac{(\lambda - \lambda_+(u)) (\lambda(u) - \alpha)}{(\alpha - \lambda) (\lambda_+(u) - \lambda(u))} e^{(\lambda - \lambda(u))b} (1 - V_-(u, \lambda(u))),$$

(9)

$$V_-(u, \lambda) = \frac{\beta + \lambda_-(u)}{\beta + \lambda} e^{-(\lambda - \lambda_-(u))a} (1 - V_+(u, \lambda_-(u))) \quad (10)$$

tengliklarni hosil qilamiz. (9) da $\lambda = \lambda_-(u)$,

(10) da esa, avval $\lambda = \lambda_+(u)$, keyin $\lambda = \lambda(u)$ qiymatlarni qo'yamiz va quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$H_1(u) = \frac{\beta + \lambda_-(u)}{\beta + \lambda_+(u)}, H_2(u) = \frac{\beta + \lambda_-(u)}{\beta + \lambda(u)}, H_3(u) = \frac{\alpha - \lambda_+(u)}{\alpha - \lambda_-(u)},$$

$$|H_4(u) = \frac{\lambda_-(u) - \lambda(u)}{\lambda_+(u) - \lambda(u)}, H_5(u) = \frac{\lambda_-(u) - \lambda_+(u)}{\lambda_+(u) - \lambda(u)}, H_6(u) = \frac{\lambda(u) - \alpha}{\alpha - \lambda_-(u)},$$

$$\mu_1(u) = e^{\lambda_-(u) - \lambda_+(u)}, \mu_2(u) = e^{\lambda_-(u) - \lambda(u)}. \quad (11)$$

Natijada ushbu tengliklarni hosil qilamiz:

$$V_+(u, \lambda_-(u)) = H_3(u)H_4(u)\mu_1^b(u) + H_5(u)H_6(u)\mu_2^b(u) - H_3(u)H_4(u)\mu_1^b(u)V_-(u, \lambda_+(u)) - H_5(u)H_6(u)\mu_2^b(u)V_-(u, \lambda(u)),$$

$$V_-(u, \lambda_+(u)) = H_1(u)\mu_1^a(u) - H_1(u)\mu_1^a(u)V_+(u, \lambda_-(u)),$$

$$V_-(u, \lambda(u)) = H_2(u)\mu_2^a(u) - H_2(u)\mu_2^a(u)V_+(u, \lambda_-(u)). \quad (12)$$

(10) va (12) tengliklardan, oddiy amallardan so'ng $1 - V_+(u, \lambda_-(u))$ ni topamiz:

$$1 - V_+(u, \lambda_-(u)) = \frac{1 - H_3(u)H_4(u)\mu_1^b(u) - H_5(u)H_6(u)\mu_2^b(u)}{1 - H_1(u)H_3(u)H_4(u)\mu_1^{a+b}(u) - H_2(u)H_5(u)H_6(u)\mu_2^{a+b}(u)}. \quad (13)$$

(13) ni (10) ga qo'yib, quyidagi natijaga kelamiz.

Lemma 2. $u > 0$ va $\text{Re } \lambda \geq 0$ bo'lganda

$$V_-(u, \lambda) = \frac{\beta + \lambda_-(u)}{\beta + \lambda} e^{-(\lambda - \lambda_-(u))a} (1 - V_+(u, \lambda_-(u))) = \frac{\beta + \lambda_-(u)}{\beta + \lambda} e^{-(\lambda - \lambda_-(u))a} \times$$

$$\times \frac{1 - H_3(u)H_4(u)\mu_1^b(u) - H_5(u)H_6(u)\mu_2^b(u)}{1 - H_1(u)H_3(u)H_4(u)\mu_1^{a+b}(u) - H_2(u)H_5(u)H_6(u)\mu_2^{a+b}(u)}$$

bo'ladi, bu yerda $H_i(u), i = \overline{1, 6}, \mu_j, j = \overline{1, 2}$

Lemma1 va (11) da aniqlangan.

1) $\gamma > 0, \mu = E\xi(1) = 0$ bo'lsin. Ma'lumki, bu holda ([3]) $u \rightarrow 0$ da

$$\lambda_-(u) = -\frac{\sqrt{2}}{\sigma} \sqrt{u} + o(\sqrt{u}), \lambda_+(u) = \frac{\sqrt{2}}{\sigma} \sqrt{u} + o(\sqrt{u}), \sigma^2 = E\xi^2(1),$$

$$k_1 = (\alpha - \beta)\gamma + c_+ + c_-, k_2 = -\alpha\beta\mu = 0, \lambda(u) = \frac{k_1}{\gamma} + O(u) > \alpha$$

(14)

bo'ladi. (14) asosida $u \rightarrow 0$ bo'lganda quyidagi asimptotik yoyilmalarni hosil qilamiz:

Teorema 1. (1) da $\gamma > 0$ va $E\xi(1) = 0$

bo'lsin. U holda

$$\begin{aligned} \mu_1^b(u) &= 1 - 2\sqrt{2}\sigma^{-1}b\sqrt{u} + o(\sqrt{u}), \mu_2^b(u) = e^{-\frac{h_+ b}{\gamma}} (1 - \sqrt{2}\sigma^{-1}b\sqrt{u} + o(\sqrt{u})), \\ H_1(u) &= 1 - \frac{2\sqrt{2}\sigma^{-1}}{\beta}\sqrt{u} + o(\sqrt{u}), H_2(u) = \frac{\beta\gamma}{\beta\gamma + k_1} - \frac{\sqrt{2}\gamma\sigma^{-1}\sqrt{u}}{\beta\gamma + k_1} + o(\sqrt{u}), \\ H_3(u) &= 1 - \frac{2\sqrt{2}\sigma^{-1}}{\alpha}\sqrt{u} + o(\sqrt{u}), H_4(u) = 1 + \frac{2\sqrt{2}\gamma\sigma^{-1}}{k_1}\sqrt{u} + o(u), \\ H_5(u) &= -2\sqrt{2}\sigma^{-1}\sqrt{u} + o(\sqrt{u}), H_6(u) = \frac{k_1 - \alpha\gamma}{\alpha\gamma} + \frac{\sqrt{2}\sigma^{-1}(k_1 - \alpha\gamma)}{\alpha^2\gamma}\sqrt{u} + o(\sqrt{u}). \end{aligned}$$

Yuqoridagi munosabatlardan foydalanib,

$$\begin{aligned} &1 - H_3(u)H_4(u)\mu_1^b(u) - H_5(u)H_6(u)\mu_2^b(u) = \\ &= \sqrt{u} \left(\frac{2\sqrt{2}\sigma^{-1}}{\alpha} - \frac{2\sqrt{2}\gamma\sigma^{-1}}{k_1} + 2\sqrt{2}\sigma^{-1}b + o(1) \right) - \sqrt{u} \left(-2\sqrt{2}\sigma^{-1} + o(1) \right) \times \\ &\times \left(\frac{k_1 - \alpha\gamma}{\alpha\gamma} + \frac{\sqrt{2}\sigma^{-1}(k_1 - \alpha\gamma)}{\alpha^2\gamma}\sqrt{u} + o(\sqrt{u}) \right) (1 - \sqrt{2}\sigma^{-1}b\sqrt{u} + o(\sqrt{u})) e^{-\frac{h_+ b}{\gamma}}, \\ &1 - H_1(u)H_3(u)H_4(u)\mu_1^{a+b}(u) - H_2(u)H_5(u)H_6(u)\mu_2^{a+b}(u) = \\ &= \sqrt{u} \left(\frac{2\sqrt{2}\sigma^{-1}}{\beta} - \frac{2\sqrt{2}\gamma\sigma^{-1}}{k_1} + 2\sqrt{2}\sigma^{-1}(a+b) + o(1) \right) - \\ &-\sqrt{u} \left(-2\sqrt{2}\sigma^{-1} + o(1) \right) \left(\frac{\beta\gamma}{\beta\gamma + k_1} - \frac{\sqrt{2}\gamma\sigma^{-1}\sqrt{u}}{\beta\gamma + k_1} + o(\sqrt{u}) \right) \times \\ &\times \left(\frac{k_1 - \alpha\gamma}{\alpha\gamma} + \frac{\sqrt{2}\sigma^{-1}(k_1 - \alpha\gamma)}{\alpha^2\gamma}\sqrt{u} + o(\sqrt{u}) \right) (1 - \sqrt{2}\sigma^{-1}(a+b)\sqrt{u} + o(\sqrt{u})) e^{-\frac{h_+(a+b)}{\gamma}}, \end{aligned}$$

tengliklarga ega bo'lamiz.

$$P(\xi(T) \leq -a) = \lim_{u \rightarrow 0} V_-(u, 0)$$

bo'lganligi uchun Lemma 2 va yuqoridagi munosabatlardan quyidagi teoremaning isboti kelib chiqadi.

$$P(\xi(T) \leq -a) = 1 - P(\xi(T) \geq b) = \frac{b + \frac{1}{\alpha} - \frac{\gamma}{k_1} + \frac{\alpha\gamma - k_1}{\alpha\gamma} e^{-\frac{h_+ b}{\gamma}}}{a + b + \frac{1}{\beta} - \frac{\gamma}{k_1} + \frac{\beta\gamma}{\beta\gamma + k_1} - \frac{k_1 - \alpha\gamma}{\alpha\gamma} e^{-\frac{h_+(a+b)}{\gamma}}}$$

bo'ladi, bunda k_1 (3) da aniqlangan.

2) Endi $\gamma > 0$ va $\mu = E\xi(1) < 0$

bo'lgan holni qaraymiz. Bu holda (13) ning o'ng tomoni maxsus nuqtalarga ega bo'lmaydi. Shuning uchun (10) da $\lambda = 0, u = 0$ qiymatlarni qo'yib, (10), (11) va lemma 2 ga asosan quyidagi natijaga kelamiz.

Teorema 2. (1) da $\gamma > 0$ va $E\xi(1) < 0$

bo'lsin. U holda

$$\begin{aligned} P(\xi(T) \leq -a) &= 1 - P(\xi(T) \geq b) = \\ &= \frac{1 - \frac{\alpha - h_+}{\alpha} \frac{-h}{h_+ - h} e^{-h_+ b} - \frac{-h_+}{h_+ - h} \frac{h - \alpha}{\alpha} e^{-hb}}{1 - \frac{\beta}{\beta + h_+} \frac{\alpha - h_+}{\alpha} \frac{-h}{h_+ - h} e^{-h_+(a+b)} - \frac{\beta}{\beta + h} \frac{-h_+}{h_+ - h} \frac{h - \alpha}{\alpha} e^{-h(a+b)}} \end{aligned}$$

munosabat o'rinli bo'ladi, h_+, h_-, h Lemma 1 da aniqlangan.

Xuddi yuqoridagi kabi $\gamma > 0, E\xi(1) > 0;$
 $\gamma < 0, E\xi(1) = 0; \gamma < 0, E\xi(1) < 0; \gamma < 0,$
 $E\xi(1) > 0$ hollarni qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.И.Лотов, В.Р.Ходжибаев. Неравенства в задаче с двумя границами для случайных процессов. Сиб. Мат. Журн., 2021 г., Том 62, № 3, стр. 563-571.
2. В.Р.Ходжибаев, О.К.Жураев. О явных формулах в задаче о разорении. НТЖ ФерПИ, 2020, Т.24, спец. вып. №2, стр. 9-16.
3. В.Р.Ходжибаев, Х.Х.Пуллатова. О вероятности разорения для обобщенного пуассоновского процесса со сносом. НТЖ ФерПИ, 2023, Т.27, №2, стр. 13-17.
4. Б.А.Рогозин. О распределении некоторых функционалов, связанных с граничными задачами для процессов с независимыми приращениями, Теория вероятн. и ее примен. 1966. Т.11, N4. С.656 – 670.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Mukhriddin Umirov

O'zR FA akademik O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti
chemnatproduct.nuuz@gmail.com

Alisher Eshimbetov

O'zR FA akademik O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti
ealisherg@yahoo.com

Xamid Xodjaniyazov

O'zR FA akademik O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
hamidkhodjaniyazov@yandex.ru

2-FENILAMINOTETRAGIDRO-1,3-TIAZEPIN GIDROKLORIDI SINTEZI VA SPEKTRAL (IQ, YAMR) XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. 1-(4-Gidroksibutil)-3-feniltiomochevinaning kislotali muhitdagi halqalanishidan 2-fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidrokloridi sintez qilindi. Ushbu yangi amino-tautomerga ishqoriy ishlov berish natijasida imin-tautomer - 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin olindi. Tautomerlar tuzilishi IQ (FTIR), ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopiya usullarida tadqiq etildi.

Tayanch so'zlar: 1-(4-gidroksibutil)-3-feniltiomochevina, 2-fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidroklorid, 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin, IQ, YaMR spektroskopiya.

Мухриддин Умиров

Биоорганической химии имени акад. А.С. Садыкова АН РУз

Алишер Ешимбетов

Биоорганической химии имени акад. А.С. Садыкова АН РУз

Хамид Ходжаниязов

Биоорганической химии имени акад. А.С. Садыкова АН РУз

Национальный университет имени Мирзо Улугбека

СИНТЕЗ И СПЕКТРАЛЬНЫЕ (ИК, ЯМР) ХАРАКТЕРИСТИКИ ГИДРОХЛОРИДА 2-ФЕНИЛАМИНОТЕТРАГИДРО-1,3-ТИАЗЕПИНА

Аннотация. Осуществлен синтез гидрохлорида 2-фенилтетрагидро-1,3-тиазепина циклизацией 1-(4-гидроксибутил)-3-фенилтиомочевинны в кислой среде. В результате щелочной обработки данного нового аминного таутомера получен иминный таутомер – 2-фениламиногексагидро-1,3-тиазепин. Структуры этих таутомеров изучены методами ИК (FTIR), ^1H и ^{13}C ЯМР спектроскопии.

Ключевые слова: 1-(4-гидроксибутил)-3-фенилтиомочевина, гидрохлорид 2-фениламинотетрагидро-1,3-тиазепина, 2-фенилиминогексагидро-1,3-тиазепин, ИК-, ЯМР-спектроскопия.

Mukhriddin Umirov

A.S. Sadikov Bioorganic Chemistry Institute AS Uzbekistan

Alisher Eshimbetov

A.S. Sadikov Bioorganic Chemistry Institute AS Uzbekistan

Khamid Khodjaniyazov

A.S. Sadikov Bioorganic Chemistry Institute AS Uzbekistan

Mirzo Ulug'bek nomidagi National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

SYNTHESIS AND SPECTRAL (IR, NMR) CHARACTERISTICS OF 2-PHENYLAMINOTETRAHYDRO-1,3-THIAZEPINE HYDROCHLORIDE

Abstract. 2-Phenylaminotetrahydro-1,3-thiazepine hydrochloride is synthesized by the cyclization of 1-(4-hydroxybutyl)-3-phenylthiourea in acidic media. The imine tautomer, 2-phenylhexahydro-1,3-thiazepine, is obtained when the new amine tautomer is treated with an alkaline solution. The structures of these tautomers are studied using IR (FTIR) and ^1H and ^{13}C NMR spectroscopy.

Keywords: 1-(4-gidroksibutil)-3-feniltiomochevina, 2-fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidrokslorid, 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin, IQ, YaMR spektroskopiya.

Kirish

Organik birikmalar, jumladan, geterotsiklik birikmalar tuzilishi qiziqarli va murakkabligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa ularning dinamik izomeriyasi nazariy va amaliy jihatdan muhim bo'lib, ko'plab tadqiqotlar ob'ektiga aylangan. Tarkibida yetti a'zoli halqa saqlagan 2-fenilaminotetragidro- va 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepinlar eritmada amin va imin tautomer shakllarda (1-rasm) mavjud bo'lishi mumkinligi sababli ko'plab ilmiy bahslar mavzusi bo'lib qolmoqda [1-3]. Mazkur tadqiqotda 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin sintezi amalga oshirilib, uning tuzilishi spektral usullarda isbotlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ba'zi tadqiqotchilar turli xil fizik tadqiqot usullari asosida 1,3-tiazepinlar qatorida amin shaklning mavjudligini isbotlagan bo'lsalar, boshqalari imin shakl haqida dalillar topganlar [1]. Toldi [1] va boshqalar [4-6] tomonidan ushbu tautomer shakllarni o'zaro farqlash uchun $\text{N}=\text{C}$ guruhining IQ spektrdagi to'lqin uzunligi asosiy omil sifatida qabul qilingan.

Bundan tashqari, 1,3-tiazepin halqalarining maxsus biologik faolliklari qayd etilgan bo'lib, ularning turli hosilalari sintezi amalga oshirilgan [7-13]. Dastlab bir qator 2-ariliminogeksagidro-1,3-tiazepinlar Garmaise va uning hamkasblari tomonidan olingan [14]. Shu bilan birga, 2-benzilaminotetragidro-1,3-tiazepin, 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin va uning 3-almashingan hosilalari sintezi haqidagi ma'lumotlar Olszenko-Piontkowa va Urbanski tadqiqotlarida keltiriladi [15]. Ushbu birikmalar N -(1-gidroksibuti1)- N' -benziltiomochevina va N -(1-gidroksibuti1)- N' -feniltiomochevinalarning kons. HCl eritmasidagi halqalanishi natijasida olingan [1]. Ammo, Garmaise [14] bu birikmalarni tiomochevinalarning halqalanishidan olish mumkin emasligini ta'kidlab, ularni 4-brombutil izotiotsianatning anilin bilan o'zaro ta'siridan sintez qilgan. Mahsulotlar tuzilishi ^1H YaMR spektrdagi $\text{N}-\text{CH}_2$ bog'i protonlarining signallar asosida imin tautomer shaklda bo'lishi isbotlangan. Keyinchalik, Toldy [1] va Ambartsumovalar [2, 3] tomonidan 1-(4-gidroksibutil)-3-feniltiomochevinaning kislotali muhitdagi halqalanishidan 1,3-tiazepin hosilalarini olish amalda ko'rsatib berilgan. Bir qator gidrogenlangan 1,3-tiazepin hosilalari, jumladan, 2-benziliminogeksagidro-1,3-tiazepin (imin tautomer) Ambartsumova [2, 3] tomonidan sintez qilingan. Ayni birikma (2-benzilaminotetragidro-1,3-tiazepin) ilgari Olszenko-Piontkowa and Urbanski tomonidan amin

tautomer sifatida taklif etilgan edi [15]. Olib borilgan ilmiy munozaralar 1-(4-Gidroksibutil)-3-fenilmochevinaning kislotali muhitda halqalanishi natijasida amin yoki imin tautomer shakl hosil bo'lishi bo'yicha yakuniy xulosalarni ochib bermagan. Shu sababli, 1-(4-gidroksibutil)-3-fenilmochevinaning kislotali muhitda halqalanishi natijasida amin yoki imin tautomer mahsulot hosil bo'lishi batafsil o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda organik sintez va fizik (spektral) tadqiqot usullaridan foydalanilgan.


Tajribaviy qism

Dastlabki birikmalar – fenil izotiotsianat va 4-amino-1-butanol (Sigma-Aldrich, Merck) qayta tozalanmasdan qo'llanildi. 1-(4-Gidroksibutil)-3-fenilmochevina dastlabki birikmalarning o'zaro ta'siridan adabiyot ma'lumoti asosida sintez qilindi [1, 2] va tuzilishi IQ (FTIR) va ^1H YaMR spektroskopiya usullarida tasdiqlandi [16]. Yog'simon mahsulot reaksiyon aralashmadan ma'lum usulda ajratib olindi [17].

Gidrogenlangan 1,3-tiazepinlar sintezi


1-(4-Gidroksibutil)-3-feniltiomochevina. 1-(4-Gidroksibutil)-3-feniltiomochevina fenil izotiotsianat va 4-amino-1-butanollarning o'zaro ta'siridan ma'lum usulda olindi (1-sxema) [2]. Buning uchun 4-aminobutanol-1 ning (8.91 g, 0.1 mol) TGFdagi (25 mL) eritmasiga fenil izotiotsianatning (13.5 g, 0.1 mol) TGFdagi (15 mL) eritmasi 15–20°C haroratda doimiy aralashtirib turilgan holda tomchilatib qo'shildi. Reaksiyon aralashma xona haroratida 24 soatga qoldirildi. Bunda hosil bo'lgan oq cho'kma filtrlab olindi va etanolning suvli eritmasidan qayta kristallandi. Unum: 90%. Mahsulotning spectral ma'lumotlari adabiyotdagi bilan mos keldi [7].

2-Fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidroksloridi (FATG). Kislotali muhitdagi (kons. HCl) 1-(4-gidroksibutil)-3-feniltiomochevina halqalanishi adabiyotdagi usul yordamida amalga oshirildi (1-sxema) [1,7,17]. Buning uchun 1-(4-gidroksibutil)-3-feniltiomochevinaga (0.05 mol) kons. HCl (300 mL) qoshib, reaksiyon aralashma 5 soat davomida qaynatildi. Xona haroratigacha sovutilgan aralashma hajmi ikki marotaba kamayguncha past bosimda bug'latilib, so'ngra suv (100 mL) qo'shildi, NaHCO_3 (0.1 N) eritmasi ta'sirida (0.1 N) neytrallandi. Hosil qilingan moysimon mahsulot xloroformdan qayta kristallandi, unum 53%.



1-Rasm. Hidrogenlangan 1,3-tiazepinlarning amin va imin tautomerlari: **FAT** - 2-Fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin; **FIT** - 2-Feniliminogeksagidro-1,3-tiazepine

2-Feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin (FIT). 2-Feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin FATGdan quyidagi usulda olindi. FATG (3 g, 0.11 mol) suvda eritilib, NaHCO₃ eritmasi (0.01 N) ta'sirida neytral muhitga keltirildi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlandi, filtrdagi qoldiq xloroformdan qayta kristallandi. Unum 96% (2.27 g).



1-Sxema. 2-Fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidrokloridi (FATG) va 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin (FIT) sintezi

Sintez qilingan birikmalarning IQ (FTIR) spektri KBr tabletkalarida Nicolet iS10 FT-IR spektrometrida (4000–400 cm⁻¹) to'liq uzunlilari oralig'ida dayd etildi. FTIR spektri Spectragryph-1.2.10 yordamida vizuallashtirildi [18]. ¹H (500 MGs) va ¹³C (125 MGs) YaMR spektrlari CDCl₃ eritmasida (ichki standart TMS) Bruker 500 MGs YaMR Spektrometrida (Avance Neo) qayd etildi.

Olingan natijalar tahlili.

Gidroxlorid holdagi amin tautomer tuzilishi.

Sistematik nomlari (Z)-N-fenil-4,5,6,7-tetragidro-1,3-tiazepin-2-amin va (E)-N-(1,3-tiazepan-2-iliden)-benzenamin birikmalari dastlabki tadqiqotlarda mos ravishda 2-fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin (FAT) va 2-feniliminogeksagidro-1,3-tiazepin (FIT) deb nomlangan (1-rasm). Ilmiy bahslar sababli mazkur tadqiqot ishida ushbu birikmalarning trivial nomlaridan foydalanildi. 2-Feniltetragidro-1,3-tiazepin (FATG) gidroxlorid holida ilk marotaba sintez qilindi [19].

Ma'lumki, amidin guruhi (N=C-N) saqlagan birikmalarning tautomer shakllari ekzotsiklik va endotsiklik C-N bog'larning uzunliklarini solishtirish asosida o'zaro farqlanadi [4, 20]. Amidin (N=C=N) guruhining azot atomlari o'rtasida kuchli konjugirlanish mavjudligi ulardagi bog' uzunligining o'zgarishiga olib keladi. Bunda N=C bog'ining uzunligi alohida olingan N-C bog'idan qisqaroq. Shuningdek, N=C bog' uzunligi alohida holdagi qo'sh N=C bog'larga nisbatan uzunroqdir [4].


Adabiyotda 1,3-tiazepinning tautomer shakllarini spektral usullar bilan aniqlashda ayrim noaniqliklar ham

kuzatiladi. 1,3-Tiazepin misolida [17] keltirilgan usulda reaksiyon aralashmadan faqat yog'simon mahsulot ajratib olingan [17].

Mahsulotning katta qismi kristall shaklda olindi. Olingan monokristallar ishqor eritmasi (0.1 N NaOH) bilan ishlanib, neytral FAT olindi. Ammo bu uning spektral ma'lumotlari adabiyotlardagi [3, 21] FIT ning shakllanganligini ko'rsatdi. Bu shuni ko'rsatdiki, imin shakli (FIT) 1,3-tiazepinning neytral (pH=7) muhitdagi dominant tautomer shakli hisoblanadi.

FATGning IQ (FTIR), ¹H va ¹³C YaMR spektrlari qayd etildi va har bir birikmaning xarakterli signallarini aniqlash uchun FIT spektrlari bilan solishtirildi.

Birikmalarning spektrlar xususiyatlari. Shuni ta'kidlash lozimki, FATGning FTIR spektrida 2500–2700 sm⁻¹ sohada protonlangan piridin tipidagi azot atomiga mos keladigan yutilish zonasi mavjud emas [22]. FATG va FITlarning C=N guruhlarini mos ravishda 1616 va 1611 sm⁻¹ sohalarida kuzatiladi (2-rasm). FIT shaklidagi NH guruhining yutilish chiziqlari 3100–3250 sm⁻¹ sohada kuzatiladi, ammo buday yutilish chiziqlari FATGning IQ spektrida aniqlanmadi.



2-Rasm. FIT (a) va FATG (b) larning IQ (FTIR) spektri

Qo'sh C=N bog' to'liq raqami va C2, C1' uglerod signallarining holati va ularning ¹³C YaMR spektridagi farqi tautomer shakllarini o'zaro farqlash uchun ishonchli usul sifatida taklif etilgan [17]. 1,3-Tiazepinning amin shaklidagi C2 uglerodining signali imin shaklidagi C2 signaliga (152.1 ppm) nisbatan birmuncha kuchsiz maydonda (165.3 ppm) kuzatiladi. Shuningdek, amin shaklidagi C2 va C1' uglerod signallari orasidagi farq ($\Delta\delta=30.6$ m.u.) imin shakliga ($\Delta\delta=5.4$ m.u.) nisbatan juda yuqori. Bunday signaller FATG holatida kuzatilgan. YaMR spektrdagi ¹H va ¹³C yadrolarining TMS ga nisbatan kimyoviy siljish qiymatlari (1-jadval) shuni ko'rsatadiki, ikkala yadroning signallari amin shakliga nisbatan gidroxlorid holatida ko'proq kuchsiz magnit maydoni sohasida joylashadi. FATGning C2 va C1' uglerod atomlari signallari mos ravishda 173.62 va 135.86 m.u. sohasida kuzatildi. Shu bilan birga, FIT ning ushbu atomlarining signallari 160.12 va 148.93 m.u.da kuzatildi. C2 va C1' uglerod signallari orasidagi farq FATG va FIT uchun mos ravishda $\Delta\delta=37.76$ va 11.19 m.u.ga teng bo'ldi.

Birikma	¹ H YaMR, (CDCl ₃ , 500 MGs)							
	NH	H(C4)	H(C5)	H(C6)	H(C7)	<i>o</i> -H	<i>m</i> -H	<i>p</i> -H
FATG	11.98, 10.91	3.69	2.07	1.83	3.00	7.24	7.40	7.34
FIT	6.38*	3.37	1.66	1.96	2.81	6.89	7.25	7.01
Birikma	¹³ C YaMR (CDCl ₃ , 125 MGs)							
	C2/C1'	C4	C5	C6	C7	C2'	C3'	C4'
FATG	173.62/135.86	46.34	28.57	26.62	33.47	128.34	129.29	125.99
FIT	160.12/148.93	45.31	30.00	30.47	32.17	121.97	128.70	122.81

*Keng signal

Xulosa

Amino-imin tautomerlar sohasida ilmiy munozaralarga sabab bo'layotgan 1-(4-gidroksibutil)-3-fenilmochevinaning kislotali muhitdagi halqalanishidan dastlab 2-fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidroxlorid hosil bo'lishi, so'ngra ushbu amin tautomerni NaHCO₃ eritmasi ta'sirida neytrallanganda imin tautomer hosil

bo'lishi ko'rsatib berildi. 2-Fenilaminotetragidro-1,3-tiazepin gidroxlorid ilk marotaba sintez qilindi. Birikmalarning tuzilishi IQ (FTIR), ¹H va ¹³C YaMR spektroskopiyasi usullarida tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari amin-imin tautomerlar bo'yicha ilmiy bahslar yechimida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.G. Toldy, Biologically active heterocyclic analogs of thiourea (review). Chem. Heterocycl. Compd., 1978, 14, 705–714. <https://doi.org/10.1007/BF00471632>
2. R.F. Ambartsumova, M.G. Levkovich, E.G. Mil'grom, N.D. Abdullaev, 1,3-Thiazepines. 1. Synthesis and spectral properties of 2-imino-hexahydro-1,3-thiazepines. Chem. Heterocycl. Compd., 1997, 33, 112–117. <https://doi.org/10.1007/BF02290757>
3. R.F. Ambartsumova, B. Tashkhodzhaev, M.K. Makhmudov, 1,3-Thiazepines. 4. Reactions of 2-iminothiazepines with methyl acrylate. Crystal and molecular structure of 2-phenylimino-3-(β-methoxycarbonyl-ethyl)- and 2-benzylimino-hexahydro-1,3-thiazepines, Chem. Heterocycl. Compd., 1997, 33, 475–480. <https://doi.org/10.1007/BF02321396>
4. M. Tišler. Substituierte 1-Thiocarbonyltrimethylenimine und ihre Umlagerung in Derivate des 2-Imino-3,4,5,6-tetrahydro-1,3-thiazins, Arch. Pharm. 1960, 293, 621–626.
5. L.M. Jackman, T. Jen. Nuclear magnetic resonance spectroscopy. XIII. Amidines. VII. Proton and carbon-13 nuclear magnetic resonance studies on the tautomerism, geometrical isomerism, and conformation of some cyclic amidines, guanidines, and related systems. J. Am. Chem. Soc. 1975, 97, 2811–2818. <https://doi.org/10.1021/ja00843a033>
6. A.P. Engoyan, E.M. Peresleni, Yu.N. Sheinker, L.A. Ignatova, B.N. Unkovskii. Structure of 2-arylamino-5,6-dihydro-4H-thiazines, Chem. Heterocycl. Compd., 1976, 12, 866–868.
7. M. Struga, J. Kossakowski, B. Mirosław, A.E. Koziol, A. Zimniak. Synthesis of new 1,3-thiazepine derivatives. J. Heterocyclic Chem., 2009, 46, 298–302. <https://doi.org/10.1002/jhet.44>
8. H.J. Jaffar, A.Q. Abdul-Hussein. Preparation of new 2-imino-hexahydro-1,3-thiazepine derivatives. Al-Mustansiriyah J. Sci., 2012, 23, 93–116.
9. M.C. Mollo, N.B. Kilimciler, J.A. Bisceglia, L.R. Orelli. Microwave-assisted synthesis of 2-substituted 4,5,6,7-tetrahydro-1,3-thiazepines from 4-aminobutanol. Beilstein J. Org. Chem., 2020, 16, 32–38. <https://doi.org/10.3762/bjoc.16.5>
10. M.S.C. Pedras, Q.H. To. Unveiling the first indole-fused thiazepine: structure, synthesis and biosynthesis of cyclonasturlexin, a remarkable cruciferous phytoalexin. Chem. Commun., 2016, 52, 5880–5883. <https://doi.org/10.1039/C6CC02108E>
11. A. Mouradzadegan, S. Elahi, P. Ghanbarzadeh. A Highly Efficient and Eco-Friendly Approach for the Synthesis of Triarylpyridine and Novel Triaryl-[1,3]Thiazepine Derivatives Via Ring Transformation and Expansion of Triarylthiopyrylium Salts. Phosphorus, Sulfur, and Silicon and the Related Elements, 2015, 190(11), 2031–2039. <https://doi.org/10.1080/10426507.2015.1054482>
12. D.N. Reinholdt. Synthesis of 1,3-thiazepines and 1,3-benzo[e]thiazepines. J. R. Neth. Chem. Soc., 1973, 92(1), 20–34. <https://doi.org/10.1002/recl.19730920104>
13. M. Struga, J. Kossakowski, A.E. Koziol, E. Kedzierska, S. Fidecka, P. La Colla, C. Ibba, G. Collu, G. Sanna, B. Secci, R. Loddo. Synthesis, pharmacological and antiviral activity of 1,3-thiazepine derivatives. Eur. J. Med. Chem., 2009, 44(12), 4960–4969. <https://doi.org/10.1016/j.ejmech.2009.08.013>
14. D.L. Garmaise, G.Y. Paris, G. Efthymiadis. 2-Arylimino-1,3-thiazacycloalkanes. Can. J. Chem., 1971, 49, 971–974.
15. Z. Olszenko-Piontkowa, T. Urbanski. 1-Thia-3-azacycloheptane derivatives, Org. Preparat. Proc. Int. 1971, 3, 27–32. <http://dx.doi.org/10.1080/00304947109356027>

16. A.G. Eshimbetov, I. Kaur. Synthesis of 1-(2-hydroxyethyl, 3-hydroxypropyl and 4-hydroxybutyl)-3-phenylthiourea and their spectral properties. Conference proceedings "Problems of Bioorg. Chem. IX. Youth Chemists Republican Conference" 26-27 April, 2019, Namangan, Uzbekistan, Vol.1 P.10.

17. A.G. Eshimbetov, I. Kaur. Is it possible to differ 2-phenylaminodihydro-1,3-thiazine from 2-phenyliminotetrahydro-1,3-thiazine by spectral methods? Conference proceedings "Actual Problems of Chemistry, Chemical-Technology, Oil-Gas and of Karakalpakstan Region. Republican Scientific Practical Conference" 19 May, 2019, Nukus, Uzbekistan, P.19.

18. F. Menges, Spectragryph Software for optical spectroscopy, Version 1.2.10, www.spectroscopy.ninja

19. M. Umirov, Alisher Eshimbetov, J. Ashurov, K. Turgunov, Kh. Khodjanizayov. Molecular and crystal structure characteristics of 2-phenylaminotetrahydro-1,3-thiazepine hydrochloride and 2-phenyliminohexahydro-1,3-thiazepine. *Eur. J. Chem.*, 2023, 14(1), 9–15. <https://doi.org/10.5155/eurjchem.14.1.9-15.2345>

20. M.G. Levkovich, N.D. Abdullaev, R.F. Ambartsumova, 1,3-Thiazepines. 5. Study of 2-phenyl(benzyl)iminohexahydro-1,3-thiazepines and their derivatives by ^{13}C spectroscopy. *Chem. Heterocycl. Compd.*, 2002, 38, 612–615. <https://doi.org/10.1023/A:1019577600569>

21. B.C. Smith, *Fundamentals of Fourier Transform Infrared Spectroscopy*, 2nd Edition CRC Press, Boca Raton, Florida, 2011.

22. E.L. Kristallovich, A.G. Eshimbetov, R.F. Ambartsumova. 1,3-Thiazepines. 6. UV Spectroscopic and Theoretical Study of the Electronic Structures of 2-Aminotetrahydro- and 2-Iminotetrahydro-1,3-thiazepines. *Chem. Heterocycl. Compd.*, 2003, 39, 368–373. <https://doi.org/10.1023/A:1023927213186>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Murtazayeva Zarifa Isakulovna

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zarifamurtazayeva1992@gmail.com

Nasrullayev Azizbek Ozodovich

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti
Bozorov Xurshed Abdulloyevich

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori

UDK:547.272

TRISIKLIK TRIAZOLO PIRIMIDINONLARNING SINTEZI VA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida 5-Amino-1-N-aril-1H-1,2,3-triazol etil efirlarining piperidin-2-on bilan kondensatsiya reaksiyasi orqali trisiklik triazolopirimidinonlarning sintezi olib borildi. Reaksiya uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda fenil azid hosilalari, ikkinchi bosqichda 5-amino-1-N-aril-1H-1,2,3-triazol etil efirlari va uchinchi bosqichda yangi trisiklik triazolo[4,5-d]pirimidinon hosilalari olindi. Sintez qilingan yangi birikmalarning strukturaviy tuzilishlari ^1H , ^{13}C YaMR va HRMS spektr natijalari orqali tasdiqlandi. Sintez qilingan birikmalar orasida patogen mikroblarga qarshi faollikka ega birikmalar borligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: saraton, triazol, siyanoatsetat, 5-amino-1-N-aril-1H-1,2,3-triazolning etil efirlari, sintez.

Муртазаева Зарифа Исакуловна

Ш. Докторант Самаркандского государственного университета имени Рашидова
Насруллаев Азизбек Озодович

Ш. Докторант Самаркандского государственного университета имени Рашидова
Бозоров Хуршед Абдуллаевич

Ш. Профессор Самаркандского государственного университета имени Рашидова

СИНТЕЗ ТРИЦИКЛИЧЕСКИХ ТРИАЗОЛОПИРИМИДИНОНОВ И ОЦЕНКА ИХ БИОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Аннотация. В данной исследовательской работе синтез трициклических триазолопиримидинонов осуществлен реакцией конденсации 5-амино-1-N-арил-1H-1,2,3-триазолэтиловых эфиров с пиперидин-2-оном. Реакция состояла из трех стадий: на первой стадии получали производные фенилазида, на второй стадии получали этиловые эфиры 5-амино-1-N-арил-1H-1,2,3-триазола, а на третьей стадии получали новые производные трициклические триазоло[4,5-d]пиримидинона]. Структурное строение синтезированных новых соединений подтверждено данными спектров ЯМР ^1H , ^{13}C и HRMS. Было обнаружено, что некоторые из синтезированных химических веществ обладают эффективностью против вредных микроорганизмов.

Ключевые слова: рак, триазол, цианоацетат, этиловые эфиры 5-амино-1-N-арил-1H-1,2,3-триазола, синтез.

Murtazayeva Zarifa Isakulovna

Sh. Doctoral student of Samarkand State University named after Rashidov
Nasrullayev Azizbek Ozodovich

Sh. Doctoral student of Samarkand State University named after Rashidov
Bozorov Khurshed Abdullayevich

Sh. Professor of Samarkand State University named after Rashidov

SYNTHESIS OF TRICYCLIC TRIAZOLO PYRIMIDINONES AND EVALUATION OF THEIR BIOLOGICAL ACTIVITY

Annotation. In this research work, the synthesis of tricyclic triazolopyrimidinones was carried out by condensation reaction of 5-amino-1-N-aryl-1H-1,2,3-triazoethyl ethers with piperidine-2-one. The reaction consisted of three steps: in the first step, phenylazide

derivatives were obtained, in the second step, 5-amino-1-N-aryl-1H-1,2,3-triazole ethyl esters were obtained, and in the third step, new tricyclic triazolo[4,5-d]pyrimidinone derivatives were obtained]. The structural structure of the synthesized new compounds was confirmed by ^1H , ^{13}C NMR, and HRMS spectra. It was discovered that several of the synthesised chemicals have efficacy against harmful microorganisms.

Keywords: cancer, triazole, cyanoacetate, ethyl esters of 5-amino-1-N-aryl-1H-1,2,3-triazole, synthesis.

Kirish.

Pirimidin geteroxalqasi saqlagan moddalar tabiatda keng tarqalgan va ular DNK, RNK hamda boshqa nukleotidlar tarkibiga kiradilar, shuningdek bu moddalar qatorida o'simliklar, hayvonlar va inson organizmiga kiruvchi muhim birikmalar topilgan. Shu bilan birgalikda pirimidin tutgan birikmalar biologik faol moddalar hisoblanib, ular orasidan saraton kasalligiga, mikroblarga qarshi muhim preparatlar, shuningdek gerbitsidlik, fungisidlik va boshqa ko'pgina muhim xossalarga ega preparatlar olingan. Kondensirlangan pirimidin-4-on hosilalari kimyoviy nuqtai-nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Ularning molekulasida 1- va 3-holatdagi azot atomi, 4-uglerod atomidagi karbonil guruhi (C=O), pirimidin xalqasi bilan kondensirlangan polimetilen zanjirida uglerod atomlari mavjudligi tufayli ular ikki yoki ko'p yoqlamali reaksiyon qobiliyatga ega. Bu sinf birikmalari qatoriga trisiklik triazolo[4,5-d]pirimidinlar ham kiradi. Triazol halqasi saqlagan pirimidinlar ishtirokida turli elektrofil va nukleofil almashinish reaksiyalarini olib borish mumkin. Mazkur reaksiyalarining borishiga trisiklik triazolo[4,5-d]pirimidinlar skeletidagi reaksiyon markazlar, bu molekularning tabiati, ularni sintez yo'li, jumladan bir bosqichli sintezlar, reaksiyalardagi erituvchi tabiati, reaksiya harorati va davomiyligini atroflicha o'rganish, hamda sintez qilingan moddalar orasida biologik faol moddalar izlash dolzarb masaladir.

Adabiyotlar sharxi. Triazolo[4,5-d]pirimidinlar odatda 2 xil usulda sintez qilinadi: a) pirimidin xalqasi orqali va b) triazol xalqasi orqali. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki bisiklik (ikki halqali) triazolo[4,5-d]pirimidinlar sintezi, modifikatsiyasi va ularning turli xil biologik faolligi trisiklik (uch halqali) yoki polisiklik (ko'p halqali) hosilalariga qaraganda ko'proq o'rganilgan. Triazolo[4,5-d]pirimidinlarning pirimidin xalqasi orqali sintezida almashingan pirimidinlar xomashyo sifatida (dastlabki birikmalar) olinadi va tegishli reagentlar ishtirokida halqalanishidan kerakli triazolo[4,5-d]pirimidinlar olinadi Li va boshqalar pirimidin halqasi orqali triazolopirimidin hosilalari sintezini amalga oshirishgan va sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini *in vitro* o'rganishgan [1].

Triazolo[4,5-d]pirimidinlarning triazol xalqasi orqali sintezi ham, odatda triazol birikmalarining boshqa reagentlar bilan halqalanishi orqali amalga oshiriladi. Al-Azmi va Vinodh bir nechta triazolopirimidin hosilalari sintezini triazol halqasi orqali yaxshi unumlarda olib borishgan, hamda ularni tuzilishini rentgen difraksiyasi

usulida aniqlangan. Sintez uchun triazol hosilasiga *orto*-efirlarni ta'sir ettirish orqali, siklizatsiya reaksiyasi o'tkazib, triazolopirimidin hosilalarini sintez qilgan [2].

Manashu tadqiqotlarning davomi sifatida bizning guruhimiz 1,2,3-triazol halqasini o'z ichiga olgan yangi trisiklik hosilalar seriyasini taqdim etadi.


Metodik qism.

2.1. Azidobenzol hosilalari (3a-i) sintezi:

Muzli hammom sharoitida 250 ml li kolbaga 30 mmol anilin **1a** solindi va unga 50 ml xlorid kislotaga qo'shildi hamda 10 daqiqa davomida aralastirildi. So'ngra 25 ml natriy nitrit suvli eritmasi sekinlik bilan tomchilatib qo'shildi va 30 daqiqa aralastirildi. Keyin reaksiyon aralashmaga 50 ml natriy azid suvli eritmasi asta-sekin qo'shildi va reagentlar to'liq eriguncha aralastirish davom ettirildi. Reaksiya aralashmasi etil asetat bilan ekstraksiya qilindi, organik fazalar qo'shildi. Ekstrakt ajratib olindi va suvsiz natriy sulfat bilan quritildi. Quritilgan mahsulot vakuumda konsentrlandi va **3a**-birikma olindi. Sintez qilingan mahsulotdan keyingi bosqich uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'shimcha tozalashlarsiz foydalanildi.

2.2. 5-Amino-1N-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-karbon kislotaga etil efiri (3a-i) sintezi:


Dastlab natriy etoksidning yangi eritmasi tayyorlab olindi. Buning uchun petrolei efirida saqlangan natriydan 0,26 g (0,1 mol) kesib olindi va filtr qog'ozi bilan quritildi. Ehtiyotkorlik bilan, sekin 15 ml suvsiz etanolga solindi va hammasi erishi uchun bir chetga qoldirildi. Reaksiya kolbasiga etil sianotsetat **4** (1,17 ml, 0,11 mol), **3a**-birikma (0,1 mol) ketma-ket qo'shildi va yangi tayyorlangan natriy etoksid eritmasi tomchilatib, aralastirib qo'shildi, jarayonda asta-sekin qattiq cho'kma hosil bo'la boshladi. YuQX yordamida reaksiyaning borishi nazorat qilindi. Qoldiq etanol past bosim ostida ajratib olindi. Keyin to'yingan suvli NH_4Cl eritmasi reaksiyon aralashmaga qo'shildi. So'ngra 100 ml dixlormetan bilan ekstraksiya qilindi va organik qatlam uch marta 100 ml to'yingan natriy xlorid eritmasi bilan yuvildi hamda suvsiz natriy sulfat bilan quritildi. Qoldiq bosim ostida konsentrlandi, 20 ml etanolga qayta kristallandi va sarg'ish qattiq mahsulot **5a**-birikma sintez qilindi [3].



1-Sxema. 5-amino-1-N-aril-1H-1,2,3-triazollar etil efir hosilalari sintezining umumiy sxemasi.


2.3. Trisiklik triazolo[4,5-d]pirimidinon hosilalari sintezi:

Oraliq mahsulotlar 3a-3i (0,4 mmol) 2 ml suvsiz 1,4-dioksanda eritildi, suvsiz fosforli oksid (0,8 mmol, 73 mkl) qo'shildi, xona haroratida 10 daqiqa davomida aralastiriladi; piperidin-2-on (0,44) mmol, moddaning 1,1 baravar miqdori) qo'shildi, qayta oqimda qizdirildi va reaksiyaning to'liqligi YuQX usulida nazorat qilindi. Aralashma xona haroratiga sovutildi, erituvchi past bosim ostida ajratildi, mahsulot 100 ml suvda eritildi va 50 ml etil asetat bilan ekstraksiya qilindi, organik qatlam 50 ml to'yingan ishqor bilan yuvildi, suvsiz natriy sulfat bilan quritildi, past bosim ostida konsentrlangan va maqsadli birikmalarni (4a-4i) olish uchun kolonkali xromatografiya orqali tozalangan [(petroley efiri : etil asetat) = 3:1-1:1] (**2-sxema**).



2-sxema: Triazolo[4,5-d]pirimidinonning trisiklik hosilalarini sintez qilishning umumiy sxemasi

1-jadval. Sintez qilingan trisiklik triazolo[4,5-d]pirimidinon hosilalarining ¹H va ¹³C YaMR tahlillari spektral baholashlar natijasida aniqlangan struktur formulasi (**4a-i**).



Xulosa.

Trisiklik triazolo[4,5-d]pirimidinlarning triazol xalqasi orqali sintezi amalga oshirilgan. 5-amino-1-N-aril-1H-1,2,3-triazollarning etil efirlari va piperidin-2-onning kondensatsiyalanish reaksiyasi orqali triazolo[4,5-d]pirimidinlarning yangi hosillari sintez qilingan. Yangi pirimidinonlarning tuzilmalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullar: ¹H-, ¹³C YaMR va HRMS bilan aniqlangan.

Tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Saratonga qarshi dori vositalari yaratish laboratoriyasini tashkil etish" mavzusidagi ALM-202310062530-sonli amaliy loyiha asosida moliyalashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Li, Z.; Yuan, Y.; Wang, P.; Zhang, Z.; Ma, H.; Sun, Y.; Zhang, X.; Li, X.; Qiao, Y.; Zhang, F.; Su, Y.; Song, J.; Xie, Z.; Li, L.; Ma, L.; Ma, J.; Zhang, Z., Design, synthesis and in vitro/in vivo anticancer activity of tranylcypromine-based triazolopyrimidine analogs as novel LSD1 inhibitors. *European Journal of Medicinal Chemistry* **2023**, 253, 115321.
- Amal Al-Azmi, M. V., Efficient synthesis of Triazolo[4,5-d]pyrimidine-7-carbonitriles and imidazole-4,5-dicarbonitriles using Triethylorthoalkylates and their structural haracterisation by Single-crystal x-ray diffraction. *Kuwait Journal of Science* **2021**, 48, 1-16.
- Rossi, S.; Puglisi, A.; Intrieri, D.; Gallo, E., From Anilines to Aziridines: A Two-Step Synthesis under Continuous-Flow Conditions. *Journal of Flow Chemistry* **2016**, 6, (3), 234-239.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Davronova N.F

Toshkent kimyo texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Smanova Z.A

O'zbekiston Milliy universiteti professori

Yaxshiyeva Z.Z

Jizzax davlat pedagogika instituti professori

Gafurova D.A.

O'zbekiston Milliy universiteti professori

1-NITROZO-2-NAFTOL-3,6-DISULFONIK KISLOTA DISODIY TUZI (NITROZO R TUZI) KOBALT(II) IONIGA ANALITIK REAGENT SIFATIDA

Annotatsiya. 1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfonik kislota disodiy tuzi Co^{2+} ioniga anlitik reagent sifatida o'rganildi. Nitrozo R tuzi ligandiga immobilash uchun optimal sorbent tanlandi. Co^{2+} ion bilan hosil qilgan kompleksini maksimal nur yutish va nur qaytarish spektrlari olindi. 1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfonik kislota disodiy tuzi ligandining Sendel bo'yicha sezgirligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: 1-nitrozo-2-naftol-3,6-disulfonik kislota disodiy tuzi, immobilizatsiya, sorbsion-spektroskopik, analitik reagent, kobalt (II)ioni.

Давронова Н.Ф.

независимый научный сотрудник Ташкентского химико-технологического института.

Сманова З.А.

профессор Национального университета Узбекистана

Якшаева З.З.

Джизакский государственный педагогический институт, профессор

Гафурова Д.А.

Профессор Национального университета Узбекистана профессор

ДИНАТРИЕВАЯ СОЛЬ 1-НИТРОСО-2-НАФТОЛ-3,6-ДИСУЛЬФОНОВОЙ КИСЛОТЫ (НИТРОЗО R СОЛЬ) АНАЛИТИЧЕСКИЙ РЕАГЕНТ ДЛЯ ИОНА КОБАЛЬТА(II)

Аннотация. Динатриевая соль 1-нитрозо-2-нафтол-3,6-дисульфоновой кислоты является аналитическим реагентом на ионы Co^{2+} . изучаено как оптимальное количество нитрозо R-соли для иммобилизации на волокне ППА1.Т найдено максимальное светопоглощение комплекса, с ионам Co^{2+} Получены спектры поглощения, определена чувствительность органического реагента 1-нитрозо-2-нафто1-3,6-дисульфоновой кислоты с ионами кобальта по Сенделю

Ключевые слова: 1-нитрозо-2-нафтол-3,6-дисульфоновой кислоты, иммобилизация, сорбционно-спектрокопическая, аналитический реагент, ион кобальта (II).

Davronova N.F PhD student of Tashkent Institute Chemical Technology

Smanova Z. A. professor of National University Uzbekistan

Yakshayeva Z. Z. professor of Jizzakh State Pedagogical Institute

Gafurova D.A. Professor of National University Uzbekistan

DISODIUM SALT OF 1-NITROSO-2-NAPHTHOL-3,6-DISULFONIC ACID (NITROSO R SALT) ANALYTICAL REAGENT FOR COBALT(II) ION

Abstract. Disodium salt of 1-nitroso-2-naphthol-3,6-disulfonic acid is an analytical reagent for Co^{2+} ions. It was studied as the optimal amount of nitroso R-salt for immobilization on PPA1 fiber. The maximum light absorption of the complex with Co^{2+} ions was found. Absorption spectra were obtained, the sensitivity of the organic reagent 1-nitroso-2-naphthol-3,6-disulfonic acid with cobalt ions according to Sendel was determined.

Key words: 1-nitroso-2-naphthol-3,6-disulfonic acid disodium, immobilization, sorption-spectroscopic, analytical reagent, cobalt (II) ion.

Kirish.


Atrof-muhit obektlarini tahlil qilishning zamonaviy talablari zaharli metallarni aniqlashning yangi yuqori sezgir va tezkor usullarini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda turli xil atrof-muhit ob'ektlarini tahlil qilishda og'ir zaharli metallarning past konsentratsiyasini tez va ishonchli aniqlash muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda laboratoriya bo'lmagan sharoitlarda moddalar tarkibini tez aniqlash va baholash uchun soddalashtirilgan usullardan iborat bo'lgan usullar faol ishlab chiqilgan. Kobalt ioni organikazo reagent (1,5-dimetil-2-fenil-4-((2,3,4-trihidroksifenil) yordamida [1], yangi kimyoviy sensor 4-(2-Gidroksi-naftalen-1-ylazo)-N-tiazol-2-il-benzolsulfanilamid[2] yordamida yangi xromogen reagent [3] orqali aniqlashning spektrofotometrik usullari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari iminodiatsetat-xelat ion almashinadigan sorbentlari[4], natriy gumatidan sorbenti [5] immobilangan organik oksiazoreagentlar [6] yordamida aniqlashning sorbsion-konsentrlash usullari ishlab chiqilgan. Ushbu usullarning kamchiliklari sintezning murakkabligi yoki sezgirlikgi va selektivligi pastligidir. Shuning uchun turli ob'ektlardagi kobalt tarkibini analitik monitoring qilish uchun oddiy, yuqori sezgir usullarni ishlab chiqish bugungi kunda ham dolzarbdir, chunki kobalt atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalardan biridir. Ilmiy-tadqiqot ishimizda kobalt (II) ioni immobilangan Nitrozo R tuzi reagenti yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash usulli ishlab chiqilgan. Bu usul boshqa usullarga qaraganda Co(II) meteriologik miqdorini aniqlash sezgirlikgi yuqori, kam vaqt talab qilishi va tan narxining arzonligi bilan bir qancha afzalliklarga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Co(II)ni standard eritmasini tayyorlash uchun 0,5893 g yuqori toza metall kobalt 5 ml nitrat kislotasi eritmasida (1:1) yoki 25 ml sulfat kislotada (1:4) qizdirilganda eritiladi, unga 50 ml suv qo'shiladi, azot oksidlarini olinmaguncha qaynatiladi. 1 litr hajmli o'lchov kolbasidagi eritmaning hajmi belgigacha suv bilan suyultiriladi. Eritmada 0,5893 mg/ml kobalt (II) va shunga mos ravishda nitrat yoki sulfat ionlarining ortiqcha miqdori mavjud bo'ladi [7]. 1-nitroso-2-naftol-3,6-disulfonik kislotasi disodiy tuzi (Nitrozo R tuzi) $Ar = (NO(HO)C_{10}H_4(SO_3Na)_2) = 377,35$ organik reagent eritmasini tayyorlash uchun analitik tarozida 0,37735 gr reagentni tortib olib 100 ml distillangan suvda eritamiz va 0,01 M li eritmasi hosil bo'ldi.

Immobilangan organik reagentlarni olish usuli. sorbentlarga organik reagentlar immobilanishining optimal sharoitlarini tanlashda bir necha turdagi sorbentlardan analitik tarozida 0,2000 g miqdorda tortib olindi hamda 0,1 M li xlorid kislotaning standart eritmasi

bilan faollantiramiz 24 soat, so'ngra distillangan suvda yuvilib, maxsus Petri idishida saqlandi (nam holatda). Tahlil uchun sorbent turli reagentlarni modifikatsiyalash orqali olingan CMA1, PPD, PPF va PPA1 tolalari tanlab olindi va tanlangan tolali sorbentlardan 0,2000 gr dan stakanga solib, ustiga nitrozo R tuzi reagentlarimizning 0,01M li eritmalaridan 10 ml quyildi va 5-10 min davomida aralashtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Nitrozo R tuzi reagentini immobilash uchun optimal sorbent tanlash. Immobilash uchun muqobil sorbent tanlash uchun tanlash uchun immobilangan organik reagentlarning olish usulidan foydalangan holda bajarildi. Tanlab olingan sorbentlar immobilangandan so'ng nur qaytarish spektri o'lini.




1-rasm. Nitrozo R tuzi reagentini immobilash uchun optimal sorbent tanlash.

1-Immobilangan PPA1 ; 2-Immobilangan; CMA 3-Immobilangan PPD;

4-PPD tolasi ; 5-CMA tola ; 6-PPA1 tolasi.

Nur qaytarish natijalaridan ko'rinib turibdiki 1-nitroso-2-naftol-3,6-disulfonik kislotasi disodiy tuzi ligandini immobilash uchun optimal sorbent sifatida PPA1 (poliakrilonitril+Polietilenpoliamin) tolasi tanlab olindi. Tanlab olingan PPA1 tolasi immobilanish jarayonini "EMC-30PC-UV, UV-5100 VIS" spektrofotometr asbobida ham kuzatishimiz mumkin.




2-rasm.Nitrozo R tuzning immobillanishidan oldin va keyingi nur yutish spektrlari

1-Immobilanishidan oldingi Nitrozo R tuzi spektri;2-Immobilangan keyingi Nitrozo R tuzi reagentining nur yutish spektri.

Tahlil natijasiga ko'ra Nitrozo R tuzi PPA1 tolasiga 99% immobillanadi.

Kompleks birikmaning maksimal to'liq uzunligini aniqlash. Immobilangan organik reagentlari bilan kobalt komplekslarining maksimal yorug'lik yutilish sohasini tanlash uchun tavsiflangan uslub bo'yicha[8] metallar kompleksining eritmaları tayyorlandi: Hajmi 25 ml bo'lgan kolbaga 1 mldan (10mkg) kobalt eritmasi, 10 ml pH = 6,5 ga teng bo'lgan tegishli bufer eritmasidan qo'shildi va ustiga tanlangan organik reagentlar bilan immobilangan tashuvchilar tushirildi. Eritmani aralashtiriladi va turli to'liq uzunliklarida kyuveta qalinligi 1 sm bo'lgan spektrofotometrda optik zichligini o'lchanadi.




3-rasm.Nitrozo R tuzi va kompleksning nur yutish spektrlari

1-Nitrozo R tuzi reagentini maksimal nur yutish spektri $\lambda_{max}=368nm$

2-Nitrozo R tuzi ning Co^{2+} ioni bilan hosil qilgan kompleksining maksimal nur yutish spektri $\lambda_{max}=419 nm$

Kobalt kompleksi va reagenti o'rtasigi $\Delta\lambda =51 nm$ ga tengligi aniqlandi.Lekin immobilangan Nitrozo R tuzi kobalt bilan yuqori kontraslikga ega bo'lgan kompleks birikma hosil qiladi.Shuning uchun ham sorbsion – spektroskopiki usul spektrofotometriyaning takomillashgan variantidir.



4-rasm.Immobilangan Nitrozo r tuzi va hosil qilgan komplkesining nur qaytarish spektri.1-sorbent ;2-immobilangan Nitrozo R tuzi ;3-kompleks.

Kobalt (II) ionini immobilangan Nitrozo R tuzi yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlaganimizda kompleks va ligan o'rtasidagi kontraslik $\Delta\lambda=152nm$ ga teng. Ishlab chiqilgan usulning Sendel bo'yicha sezgirlik ko'rsatkichi mkg/sm^2 0,001 birlikda nur yutilishi quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$S. b. s \frac{60 \cdot 1,0 \cdot 0,001}{0,795 \cdot 25} = 0,003 mkg/sm^2$$

1-jadval

Kobaltni reagent bilan kompleksini spektral tavsiflari

kobalt	kompl eks rangi	pH	MeR	HR	$\Delta\lambda$	Co^{2+} , Memk g	Sendel $mkg/s m^2$
sorbentda	Qizg'ish	6,5	520	364	120	60	0,003
eritmada	qizil	6,5	419	364	51	60	0,002

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki reaksiya katta kontraslikga ($\Delta\lambda=152nm$) ga yaxshi sezgirlikka ega (s.b.s.=0,003mkg/sm²) ega.Nitrozo R tuzi ligandi va kobalt ionlari 1:3 nisbatda o'zaro tasirlashadi.Buni izomalyar Job usuli va Asmusning to'g'ri chiziqlar qonuni yordamida isbotlandi.

Xulosa va takliflar.

Nitrozo R tuzi reagenti kobalt (II) ioni uchun analitik reagent sifatida tavsiya etiladi.Immobillash uchun qulay sharoitlar o'rganildi.Nitrozo R tuzi reagenti uchun optimal sorbent tanlandi. Reagentning immobilashdan oldingi va immobilanishdan keyingi nur yutish spektrlari olindi.Kompleks birikmani maksimal to'liq uzunligi aniqlandi.Usulning Sendel bo'yicha sezgirligi aniqlandi.

Foydalanildan adabiyotlar

1. Ashwini, N.,N, G. B., & Nazareth, R. A. (2020). L-CYSTEINE HYDROCHLORIDE AS a COMPLEXING AGENT FOR THE DETERMINATION OF COBALT(II) BY SPECTROPHOTOMETRIC METHOD. *Rasayan Journal of Chemistry/Rasayan Journal of Chemistry*, 13(04), 2200–2206. <https://doi.org/10.31788/rjc.2020.1345806>
2. Essa, S. M., & Hoidy, W. H. (2020). Spectrophotometric determination of Cobalt(II) and Lead(II) Using (1,5-Dimethyl-2-Phenyl-4-((2,3,4-Trihydroxy phenyl) Diazenyl)-1H-Pyrazol-3(2H)-One) as organic reagent: using it as antimicrobial and antioxidants. *Nano Biomedicine and Engineering*, 12(2). <https://doi.org/10.5101/nbe.v12i2.p160-166>
3. Journal of Umm Al-Qura University for Applied Sciences <https://doi.org/10.1007/s43994-024-00167-5> ORIGINAL ARTICLE Spectrophotometric determination of cobalt ions in water using bimetallic chemosensor based on sulfa drug azo dye Sulafa Nassar1 • Gharam I. Mohammed1 Received: 16 April 2024 / Accepted: 26 May 2024 © The Author(s) 2024
4. Panova Y., Aubakirov Y., Arbag H. (2021). Selection of sorption materials for the extraction of nickel and cobalt from the ore of the Gornostaevskoye deposit. *Chemical Bulletin of Kazakh National University*, 102(3), P.4-12. 2021. <https://doi.org/https://doi.org/10.15328/cb1180>
5. Taubayeva A.S., Dzhusupbekov U.Z., Nurgaliyeva G.O., Temel H., Posa S. Sorbtion characteristics of transition metal ions (Co, Ni) on sodium humate sorbents// *Int. J. Chem. Sci.*: 12(3), 2014, P.1053-1062 ISSN 097 2-768X
6. Soylak M., Saracoglu S., Elci L. Investigation of adsorption of metal ions on polystyrene divinyl benzene copolymers by scanning electron microscopy and flame atomic absorption spectrometry// *Asian journal of Chemistry* 16 (3) 2004.P.1673- 1680
7. Я. Лазарев, И. П. Харламов, П. Да. Яковлев, Е. Ф. Яковлева Справочник химика- аналитика Москва «Металлургия» 1976 с 122
8. Жуков А.Ф., Колосова И.Ф. Аналитическая химия. Физические и физико- химические методы анализа: //Учебник для вузов –М:Химия,2001-С.436

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

M.S. Mahmudov

Namangan davlat universiteti stajor-o'qituvchisi
muhammadrasulmahmudov98@gmail.com

G'O.Mamajanov

Namangan davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d

G'A.Doliyev

Namangan davlat universiteti professor v.v.b., t.f.d

BIR YILLIK O'SIMLIK POYALARIDAN LABORATORIYA SHAROITIDA SELLYULOZA OLISH.

Annotatsiya: Mahalliy keng tarqalgan bir yillik o'simlik poyalaridan sellyuloza ajratib olish va ularni solishtirildi. Ularning IQ spektri olindi va tahlil qilindi. Olingan sellyuloza na'munalari vodorod peroksidi yordamida oqartirildi.

Kalit so'zlar: Qamish poyasi, sholi poyasi, ishqoriy usul IQ analiz, sellyuloza, vodorod peroksid.

М.С. Махмудов

Стажер-преподаватель Наманганского государственного университета

Г. О. Мамажанов

Доцент Наманганского государственного университета, к.т.н.

Г. А. Долиев

Профессор Наманганского государственного университета, д.т.н.

ЭКСТРАКЦИЯ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ИЗ СТЕБЛЕЙ ОДНОЛЕТНИХ РАСТЕНИЙ В ЛАБОРАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ.

Аннотация: Экстракция клетчатки из стеблей местных обыкновенных однолетних растений и их сравнение. Их ИК-спектры были получены и проанализированы. Полученные образцы целлюлозы отбеливали перекисью водорода.

Ключевые слова: стебель тростника, стебель риса, щелочной метод ИК-анализа, целлюлоза, перекись водорода.

M.S. Makhmudov

Intern-teacher of Namangan State University

G.O. Mamajanov

Associate Professor of Namangan State University, PhD

G.A. Doliyev

Professor of Namangan State University, DSc

EXTRACTION OF CELLULOSE FROM STEMS OF ANNUAL PLANTS IN LABORATORY CONDITIONS.

Abstract: Extraction of cellulose from stems of local common annual plants and their comparison. Their IR spectra were obtained and analyzed. The obtained cellulose samples were bleached with hydrogen peroxide.


Keywords: reed stem, rice stem, alkaline IR analysis method, cellulose, hydrogen peroxide.

Kirish

O'zbekiston-paxta mamlakati hisoblanadi. Chegitdan paxta tolasini ajratishda uning yuzasida mayda tolali qismi paxta momig'i qoladi. Paxta momig'i to'qimachilik sa'noatida ishlatilmaydi, lekin kimyo sanoati shuningdek qog'oz ishlab chiqarish sa'noati uchun bebaxo xomashyo hisoblanadi. Shuning uchun Respublikada oxirgi 10-yilda bir qator paxta sellyulozasi va uning asosida qog'oz ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushurildi.

Yiliga O'zbekistonda o'rta hisobda 3,5 mln tonnaga yaqin paxta xomashyosi tayyorlanadi. Paxta tozalash korxonalarida paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonida 70-90 ming tonna paxta momig'i hosil bo'ladi. Paxta momig'idan kimyoviy qayta ishlash uchun, qog'oz va lok bo'yoq sanoati uchun sellyuloza ishlab chiqariladi.

Adabiyotlar sharhi



Sellyuloza bu β -glyukozalarning elementar zvenolaridan tuzilgan polasaxarid ($C_6H_5O_5$) Sellyuloza asosan ba'zi o'simlik urug'lari tukida Masalan, chigit tukida (97-98%), yog'ochda (40-50%) quruq modda hisobida bo'ladi.

Sellyuloza tabiiy materiallardan selluloza bo'lmagan komponentlarni parchalovchi yoki erituvchi reagentlarlar ta'sir ettirib ajratib olinadi. Sellyuloza ajratib olish usuli o'simlik materialining tarkibi va tuzilishiga bog'liq. Paxta tolasidan sellulozani olishda yumshoq usul qo'llaniladi. Paxta tolasi o'yuvchi natriy (NaOH)ning 1,5-3% eritmasi bilan 3-10 atm bosimda 3-6 soat qaynatilib, oksidlovchilar bilan oqartiriladi. Sellyuloza yog'ochdan ajratib olishda (yog'ochda 40-50%) selluloza, 5-10% geksozonlar 10-20% pentozonlar 20-30% lignin 2-5% smola va boshqa aralashmalar bo'lib, ular murakkab morfologik tuzilishga ega bo'lganligi uchun murakkab ishlov berish usuli, yog'och tarashalarini sulfitli yoki sulfatli qaynatish usuli qo'llaniladi. Sellyuloza oq rangli tolali material, zichligi 1,52-1,54g/sm³(20°da). Kimyoviy tabiatiga ko'ra selluloza ko'p atomli spirtidir, makromolekula elementar zevinosida gidroksil guruh bo'lganligidan selluloza ishqoriy metallar va asoslar bilan reaksiyaga kirishadi.

Shunga qaramay hozirgi paxta xomshyosi sellulozaga bo'lgan talabni qondirolmaydi. Shuning uchun selluloza olishning yangi xomshyo ba'zasi va undan selluloza olish texnologiyasi ishlab chiqish dolzarb bo'lib bormoqda. Biz ham mahalliy homashyolardan kelib chiqib yani bir yillik o'simlik poyalaridan selluloza olishning bir necha variantlarini qo'llab ko'rmoqdamiz. Shuningdek bizda mavjud bo'lgan qamish va sholi poyasidan(poxol) laboratoriya sharoitida selluloza ajratib olish uchun bir qancha tajribalarni o'tkazdik.

Metodika va usullar

Yog'ochdan selluloza olishning yangi bir usuli bu ishqoriy usul bo'lib, bu usulda somon 6-8%-li ishqorda 0,6-0,7 MPa bosimda va 150-180 C⁰ temperaturada 6 soat davomida pishiriladi. Ishqor sarfi olinayotgan sellulozani 16-22% tashkil etadi. Bir yillik o'simliklardan selluloza olishda esa vaqtni yana ham qisqartirsa bo'ladi.

Ishqoriy pishirishda lignin ishqorda eriydi, gemittsellulozalar eritmaga o'tib gidrolizlanadi. Gidroliz natijasida hosil bo'lgan geksozanlar va pentozanlar oksidlanib, sirka va shakar kislotalariga o'tadi. Moylar moy kislotasining nitratli tuzlariga o'tib eriydi, yog'lar esa gidrolizlanib yog' kislotalariga o'tadi va ular o'z navbatida

sovunlarga aylanadi.

Toza suvda yuvib tozalangan va 50°C da 24 soat davomida vakuumli pechda quritilgan guruch somonini 2 sm dan bo'laklarga kesildi va tarozida tortilgandan keyin ishqor (NaOH) eritmasida pishirildi. Pishirish jarayoni ishqor konsentratsiyasini va sarflangan vaqtni o'zgartirgan holda, 170°C da bir necha bor qaytarildi. Hosil bo'lgan mahsulot yaxshilab yuvildi. Olib borilgan har bir jarayon so'ngida qolgan ligninni olib tashlash maqsadida 3% li azot kislotasida 100 °C haroratda 1 soat davomida qaynatildi, oqartirish jarayoni ham 5% li vodorod peroksidda 20°C da 48 soat davomida qoldirildi. Sellyulozaning pishish darajasiga temperaturaga nisbatan ishqorning sarf miqdori ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Qamishdan sulfat selluloza olishda umumiy massaga nisbatan SO₂ miqdori 4,2-4,3%, jarayon davomiyligi 6 soat. Sellyulozaning hosil bo'lish unumi 57%; ishqor qiyinchiliklarsiz achitqiga aylantiriladi.

Qamishdan bisulfat magniy ishtirokida bisulfat selluloza olish. Qaynatish eritmasida SO₂ ning umumiy miqdori 3-3,5%. Shundan 2/3 qismi bog'langan; harorat 160°C; damlash vaqti 1,5 soat; qaynatish vaqti 2,5-3 soat. Sellyulozaning hosil bo'lish unumi 50-52%[1].

Qamishdan olinadigan bisulfat selluloza juda iflos bo'ladi, shuning uchun undan oqartirilmagan holatda deyarli foydalanilmaydi. Qamishdan bisulfat usulida selluloza olish uchun zaruriy harorat 155-165°C ga teng bo'ladi. Bunda ajratilmagan sellulozaning hosil bo'lishi unumi 51-55%, ajratilgani esa 48- 52% ni tashkil etadi. Oqartirilgan selluloza unumi 45-50% ga teng bo'lib, 1 t oqartirilgan selluloza uchun oltingugurt sarfi 90-100 kg ni, magniy oksidi sarfi esa 80-90 kg ni tashkil etadi. Ishqor achitqi uchun ishlatiladi. Qamishdan olingan bisulfat sellulozadan 100% miqdorda rangli yozuv qog'ozlarni ishlab chiqarishda foydalaniladi.


Qamishdan neytral-sulfat usulida selluloza olish. Massaga nisbatan % da olishda: Na₂SO₃-14, Na₂CO₃-4,5; harorat 130°C. Jarayon davomiyligi 1 soat; massa 30 min tindiriladi, shundan so'ng massaning harorati 1 soat davomida 133°C gacha ko'tariladi va 3 soat qaynatiladi. Sellyulozaning hosil bo'lishi: oqartirilmagani 55%, oqartirilgan 48%. Oqartirish uchun uch bosqichli texnologiya qo'llaniladi. Sarf miqdori: xlor 50 kg, NaOH 30 kg. Oqlik darajasi 80-83%. Qamishdan neytral-bisulfat usulida selluloza olishda massaga nisbatan Na₂SO₃ 9-9,5%, Na₂CO₃ 2-2,5% sarf bo'ladi. Sellyulozaning hosil bo'lish unumi 60-65%. Bu usullardan foydalanishning asosiy kamchiligi ishqomi regenerasiyalash hisoblanadi[2].

Laboratoriya sharoitida ishqor usulida qamish pishirilganda reaksiya 95 va 140°C da olib boriladi. 95°C da ligninsizlantirish suv hammomida 1 % li kimyoviy stakanda olib borildi. Stakanga 150 g qamish va 750 ml 4% li NaOH eritmasi solindi. Aralashma 3 yoki 6 soat davomida pishirildi, vakuum-filtrda filtrlendi, selluloza pH 9-9,5 gacha yuvildi. Ligninsizlantirish 140°C da 3 % li

laboratoriya avtoklavida 30 min davomida olib borildi[3]. Avtoklavga 2 / 4% li ishqor eritmasi va 400 g qamish yuklandi. Sellyulozani ajratib olish yuqoridagi usulda bajarildi. Olingan selluloza tarkibidagi lignin, qiyin va oson gidrolizlanadigan polisaxaridlar miqdori standart usulda aniqlandi. Shunday qilib, 100°C da 3 soat davomida qamish pishirilganda, tarkibida 11% lignin bo'lgan selluloza olinadi. Qamishni uzluksiz usulda pishirish. Bu usul UkrNIIB tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Qurilmaning ishlab chiqarish quvati sutkasiga 10 tonna. Bu usulning asosiy mohiyati shundan iboratki qurilmada xomashyo uzluksiz harakatlanadi va tayyor mahsulot avtomatik ravishda tushirib olinadi[4].

Tahlil natijalari


Sholipoyadan selluloza olishda maqbul variantlar tanlandi, bunda 7% li NaOH ning distillangan suvdagi eritmasi, 170°C harorat, 60 minut, sholi somonini ishqoriy pishirishda samarali usul ekanligi aniqlandi. Ajratib olingan selluloza IQ spektridan taxlili olindi.




1-rasm. Sholi somonining IQ spektri

Yuqoridagi usullar ko'rib o'rganilganidan so'ng laboratoriya sharoitida qamish poyasidan selluloza olish uchun ishqorli usul tanlandi va shu usul yordamida laboratoriya sharoitida o'simlik sellulozasi oindi. Bunda daslab o'simlik olib kelindi va mayda bo'lakchlar holatiga keltirildi. Hona haroratida o'n kun davomida quritildi. Quritilgan massa maydalagich yordamida 5-8 mm usunlikda maydalandi so'ngra qo'shimchalardan tozalash maqsadida distillangan suv yordamida 6 soat mobaynida qaynatildi. Olingan na'muna yuvilib, quritildi. Quritilgan namunani ishqorning 5% li eritmasida 3 soat qaynatildi. So'ngra ishqordan olinib huddi shunday foizli ishqor

eritmasida yuvildi va quritish uchun qo'yildi. Ishqordan yuvilgan na'muna quriganidan so'ng H₂O₂ ning 5% li eritmasiga 36 soat davomida bo'ktirib qo'yildi. Peroksidga bo'ktirilgan na'munamiz olindi va quritildi. Qamish poyasidan ajratib olingan na'munani IQ analizi olindi (2-rasm), natijada tabiiy selluloza bilan 89,5% o'xshashlik kuzatildi.



2-rasm. Qamish poyasining IQ spektri



3-rasm Bir yillik o'simliklar poyasidan ajratib olingan selluloza na'munalarining solishtirilgan IQ spektrlari

Xulosa

Laboratoriya sharoitida qamish va sholi poyalaridan ishqorli usul yordamida selluloza ajratib olindi. Ajratib olingan selluloza namunalarining IQ spektrlari olinib tahlil qilindi. Olingan natijalarga asosan bir yillik o'simlik poyalaridan ajratib olingan selluloza na'munalarini bilan solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki qamish, sholi va qovg'a poyalaridan ajratib olingan selluloza bir biriga o'xshash ekanligi va miqdoriy jihatdan katta farq qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Asqarov, B.Oyx'o'jaev, A.Aloviddinov Polimerlar ximiyasi. T. O'qituvchi, 1981 y. 463 b.
2. Миркамилов Т. М. Технология хлопковой целлюлозы. Ташкент. Фан. 1996. 272 с.
3. Мамажонов Г.О., Сафаров Т.Т., Мирзакулов Х.Ч., Бекназаров Х.С. Исследование синтеза нитроцеллюлозы из хлопкового линта. Наманган мухандислик-технология институти илмий-техника журнали 2019 йил. № 1. 150-155 бетлар (02.00.00 №33)
4. Мирзакулов Х.Ч., Сафаров Т.Т., Бекназаров Х.С., Мамажанов Г.О. Разработка технологии получения нитроцеллюлозы из хлопкового линта для производство лаков. Научно-технический и производственный журнал «Горный вестник Узбекистана». Навои. №3 (78) июль -сентябрь 2019 год. С. 97-99.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

G.Isxakova

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, tayanch doktoranti

B.Sultonov

Namangan davlat universiteti Kimyo
kafedrası professori, texnika fanlari doktori

G'.Doliyev

Namangan davlat universiteti Kimyo
kafedrası professori, texnika fanlari doktori

A.Abdulhaev

Namangan davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, texnika fanlari falsafa doktori

A.Nodirov

Namangan davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, texnika fanlari falsafa doktori

M.Murodov

Namangan davlat universiteti Kimyo yo'nalishi 2-kurs magistri

NEYTRALLANISHDAN HOSIL BO'LGAN CHIQINDI SUVLARNING MASS-SPEKTROFOTOMETRDAGI TAXLILI

Annotatsiya. Sanoat chiqindi suvlarining tarkibi ularning manbaiga qarab farqlanadi va ko'plab zararli moddalar, masalan, og'ir metallar, kimyoviy birikmalar va organik ifloslantiruvchilarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sanoat chiqindi suvlarining asosiy tarkibiy qismlari va ularning atrof-muhitga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, chiqindi suvlarni neytrallashtirishda qo'llaniladigan samarali mahsulotlar, masalan, ishqoriy yoki kislotali reagentlar asosida innovatsion texnologiyalar ko'rib chiqiladi. Organik moddalar, azot, fosfor va boshqa mineral moddalar mavjudligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Neytrallash jarayoni suvning sifati va ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu esa sanoat chiqindi suvlari asosida suyuq kompleks o'g'it olishga yordam beradi. Maqola natijalari sanoat korxonalariga chiqindi suvlarni neytrallash natijasida o'zida P_2O_5 , N_2O_5 , Zn, Cr, Fe kabi elementlarini saqlovchi suyuq kompleks o'g'it olish bo'yicha tavsiyalar beradi, shuningdek, jamoatchilikni atrof-muhit muhofazasiga jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Neytrallash orqali olingan o'g'it tarkibida 15,91%-17,18 P_2O_5 , 29,84-30,08% N_2O_5 , 2-% Fe 0.57-1.6 % gacha makro va mikro elementlarni o'z ichiga oladi. Olingan o'g'itni tarkibini fizik kimyoviy usullar yordamida tekshirilgan.

Kalit so'zlar: mikro va makro elementlar, suyuq faza, natriy gidroksid, suyuq kompleks o'g'itlar, alyuminiy gidroksid, kislotalar, pH metr, mass-spektrometr.

Г.Исхакова

Наманганский инженерно-технологический институт, базовый докторант

Б.Султонов

Профессор химического факультета Наманганского государственного университета,
доктор технических наук

Г.Долиев

Профессор химического факультета Наманганского государственного университета,
доктор технических наук

А.Абдулхаев

Старший преподаватель кафедры естественных наук Наманганского государственного педагогического
института, доктор философии по техническим наукам

А.Нодиров

Старший преподаватель кафедры естественных наук
Наманганского государственного педагогического института
доктор философии по техническим наукам

М.Муродов

Учится на 2 курсе магистратуры химического факультета Наманганского государственного университета

АНАЛИЗ СТОЧНЫХ ВОД ОТ НЕЙТРАЛИЗАЦИИ В МАСС-СПЕКТРОФОТОМЕТРЕ

Аннотация. Состав промышленных сточных вод варьируется в зависимости от источника их происхождения и содержит множество вредных веществ, таких как тяжелые металлы, химические соединения и органические загрязнители. В данной статье анализируются основные компоненты промышленных сточных вод и их воздействие на окружающую среду. Также рассматриваются инновационные технологии, основанные на эффективных продуктах, используемых при нейтрализации сточных вод, таких как щелочные или кислотные реагенты. Оно включает определение наличия органических веществ, азота, фосфора и других минеральных веществ. Процесс нейтрализации служит улучшению качества и экологического состояния воды, что позволяет получать жидкие комплексные удобрения на основе промышленных сточных вод. Результаты статьи дают промышленным предприятиям рекомендации по получению жидких комплексных удобрений, содержащих такие элементы, как P_2O_5 , N_2O_5 , Zn, Cr, Fe, в результате нейтрализации сточных вод, а также имеют важное значение для привлечения населения к охране окружающей среды. Удобрение, полученное нейтрализацией, содержит 15,91%-17,18% P_2O_5 , 29,84-30,08% N_2O_5 , 2-% Fe, 0,57-1,6% макро- и микроэлементов. Состав извлеченного удобрения проверяли физическими и химическими методами.

Ключевые слова: микро- и макроэлементы, жидкая фаза, гидроксид натрия, жидкие комплексные удобрения, гидроксид алюминия, кислоты, pH-метр, масс-спектрометр.

G.Isxakova

Namangan Institute of Engineering and Technology, basic doctoral student

B.Sultonov

Is a professor of the Department of Chemistry of Namangan State University, a doctor of technical sciences

G.Doliyev

Is a professor of the Department of Chemistry of Namangan State University, a doctor of technical sciences

A.Abdulhaev

Is a senior teacher of the Department of Natural Sciences of the Namangan State Pedagogical Institute, a doctor of philosophy in technical sciences

A.Nodirov

Is a senior teacher of the Department of Natural Sciences of the Namangan State Pedagogical Institute, a doctor of philosophy in technical sciences

M.Murodov

Is a 2nd-year master's degree in chemistry at Namangan State University

ANALYSIS OF WASTEWATER FROM NEUTRALIZATION IN MASS SPECTROPHOTOMETER

Abstract. The composition of industrial wastewater varies depending on its source and contains many harmful substances, such as heavy metals, chemical compounds and organic pollutants. This article analyzes the main components of industrial wastewater and their environmental impact. Also, innovative technologies based on effective products used in wastewater neutralization, such as alkaline or acidic reagents, are considered. It includes the determination of the presence of organic matter, nitrogen, phosphorus and other mineral substances. The process of neutralization serves to improve the quality and ecological status of water, which helps to obtain liquid complex fertilizer based on industrial waste water. The results of the article provide industrial enterprises with recommendations for obtaining liquid complex fertilizers containing elements such as P_2O_5 , N_2O_5 , Zn, Cr, Fe as a result of neutralization of waste water, and are also important in attracting the public to environmental protection. The fertilizer obtained by neutralization contains 15.91%-17.18% P_2O_5 , 29.84-30.08% N_2O_5 , 2-% Fe 0.57-1.6% of macro and micro elements. The composition of the extracted fertilizer was checked using physical and chemical methods.

Key words: micro and macro elements, liquid phase, sodium hydroxide, liquid complex fertilizers, aluminum hydroxide, acids, pH meter, mass spectrometer.

Kirish.

Sanoat chiqindi suvlarining tarkibi va ularni neytrallashtirish mahsulotlari muhim ekologik masalalardir. Sanoat jarayonlarida hosil bo'ladigan chiqindi suvlar ko'pincha kimyoviy moddalar, og'ir metall, o'g'itlar, organik va noorganik birikmalarni o'z ichiga oladi.

Sanoat chiqindi suvlarining tarkibi

1.Kimyoviy moddalar: Kislotalar, asoslar, og'ir metallarning ionlari (masalan, mis, qo'rg'oshin), organik birikmalar (benzin, solventlar).

2.Suspensiyalar: Qattiq zarrachalar (qum, tuproq, to'qimalar).

3. Biologik ifloslantiruvchilar: Bakteriyalar, viruslar, alga va boshqa mikroorganizmlar.

4. Nutrientlar: Azot va fosfor, ko'pincha o'g'itlardan keladi.

Sanoat chiqindi suvlarini tozalash va netrallash jarayonida turli xil kimyoviy va biologik usullar qo'llaniladi. Ushbu jarayonlarda foydalaniladigan mahsulotlar, masalan, flokulyantlar, pH regulatorlari va ozod qilish agentlari, chiqindi suvlarning tarkibini sezilarli darajada o'zgartirib, ularni tabiiy suv resurslariga qaytarishga imkon beradi. [1,2]

Adabiyotlar tahlili.

Maqolada sanoat chiqindi suvlarining tarkibi, ularning atrof-muhitga ta'siri va netrallash jarayonida qo'llaniladigan mahsulotlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu masala bo'yicha o'rganishlar va tahlillar, ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. [3,4] Metallni qayta ishlash sanoatida hosil bo'ladigan chiqindi suvlarni neytrallab, suyuq kompleks o'g'it olishga qo'llash usuli ma'lum sharoitlarda noorganik moddalarni ozuqa sifatida ishlatish qobiliyatiga asoslangan. Metallni qayta ishlash korxonalarida hosil bo'ladigan tarkibida azot, fosfor va mikro elementlarni saqlovchi chiqindi suvlarni neytrallab, tarkibini optimallashtirish muhim. Shu bilan birga, organik va ayrim turdagi noorganik ifloslantiruvchi moddalarni ajratib olinmoqda. [5]

Metallarni qayta ishlash sanoatida metallarni passivlash mobaynida faspfat kislotasi ishlatiladi. Ushbu faspfatlashdan olingan chiqindilar tarkibida P_2O_5 ning miqdori 14.2 % bo'lishi aniqlandi.

Avtosanoat ehtiyot qismlarini bo'yovchi korxonalaridan chiqadigan ishqoriy chiqindi tarkibida 6.3 M (molyar)li ishqorlar borligi aniqlandi. Ushbu chiqindilarni neytrallagan holda oqava suvlarga qo'shiladi.

Hozirgi kundagi oqava suvni tozalash korxonalarida faqat og'ir metallarni ajratib olishga asoslangan. Ikki sanoat korxonasi chiqindi suvlarini neytrallash natijasida ekologik xavfni kamaytiradi.

Bugungi kunda sanoat va maishiy xo'jalikda ishlatilib tarkibi ma'lum bir miqdora ifloslanishidan hosil bo'layotgan juda katta miqdordagi oqava suvlar qayta foydalanilmasdan o'zining utilitatsiyasini kutib turibdi. [6,7] Bu muammo faqatgina O'zbekistonda emas butun dunyo bo'yicha eng dolzarb muammo hisoblanadi. Oqava suvlarni utilitatsiya qilishning eng oson va samarasiz hattoki ekologik hamda atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazardan zararli bo'lgan usul yer ostiga ko'mish usulidan foydalanib kelinmoqda. Bu esa har doim ham to'g'ri qaror hisoblanmaydi. Lekin chiqindi oqava suvlarni tozalash inshootlari mavjud bo'lmaganda, yoki iqtisodiy juda katta harajat talab qilgan holda ushbu usuldan foydalanishga majbur bo'linadi. Metallni qayta ishlash korxonalarida sanoatda katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayonlar davomida ko'plab chiqindi suvlar hosil bo'ladi. Bu chiqindi suvlar tarkibida turli kimyoviy moddalar,

metallar va boshqa elementlar mavjud. [8] Ushbu chiqindi suvlarni tozalash nafaqat ekologik muammolarni hal etishga yordam beradi, balki ularni qayta ishlash orqali iqtisodiy foyda olish imkonini beradi. Xususan, chiqindi suvlar tarkibidan foydali elementlarni ajratib olish orqali aralash kompleks o'g'itlar tayyorlash mumkin. Bu maqolada chiqindi suvlarni qayta ishlash va ulardan o'g'it olish usullari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Uslubiy qism

Chiqindi suvlarni qayta ishlashda turli usullar qo'llaniladi. Ushbu usullar yordamida suv tarkibidagi metallar va boshqa foydali elementlarni ajratib olish mumkin. Asosiy usullar quyidagilardan iborat:

- Kimyoviy cho'ktirish: Bu usulda turli kimyoviy moddalar qo'shilishi orqali metallar suvdan cho'ktiriladi.
- Ion almashinuvi: Suv tarkibidagi metallar ion almashinuv qurilmalari yordamida ajratib olinadi.
- Elektroliz: Metall ionlari elektr tokidan foydalanib suvdan ajratiladi.

Ajratib olingan metallar va boshqa elementlar keyinchalik o'g'it tarkibiga qo'shilishi mumkin.

Barcha tajribalar sanoat chiqindi suvlarining tahlili va ularni neytrallashtirish mahsulotlari bo'yicha suyuq kompleks o'g'it olishga qaratilgan. Buning uchun kislotali chiqindi suv pH qiymati, zichligi, tozalik darajasi o'rganiladi. Tajribani boshlashdan avval ikki xil tarkibli pH qiymati o'lchanadi. pH qiymatlariga muvofiq eritmalar neytrallanish qiymatini aniqlanadi. Fosfatlash jarayonidan keyin eritmada pH darajasi o'zgarishi mumkin. Ideal holatda, pH 6-8 oralig'ida bo'ladi




1-rasm. Chiqindi suvning muhitini aniqlash

Metallarni fosfatlash uchun ishlatiladigan eritmalar tarkibi quyidagi komponentlardan iborat: Fosfor Kislotasi (H_3PO_4) 10% dan 50%, Sulfat Kislotasi (H_2SO_4) 5% dan 20%, ammoniy fosfat ($(NH_4)_3PO_4$) 1% dan 3%, natriy fosfat (Na_3PO_4) 1% dan 5%, ($NaNO_3$) 1%, Xlorid kislotasi (HCl) 2% gacha bo'ladi. Metallarni fosfatlash natijasida eritma tarkibida o'zgaradi.

Natija va taxlil

Kislotali chiqindi suvni neytrallash jarayonidan keyin olib boriladigan tahlil, uning va ekologik ahamiyatini oshirishga yordam beradi. Bu jarayon, sanoat yoki boshqa manbalardan kislotali suvlarni pH orqali amalga oshirish orqali. Kislotali chiqindi suvni neytrallashtirishdan keyin chiqindi suvni tarkibi tahlil qilinadi. Metallarni qayta

ishlashda hosil bo'ladigan fosfatlovchi eritma eritmalar tarkibidagi metallar ionlari, gidrofosfat, fosfat, digidrofosfat, xlorid, va nitratni neytrallash usuli bilan ajratib olishda neytrallovchi reagent sifatida avtomobil reflektorlarini ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi fosfatlovchi eritma kaustik soda chiqindilarining tarkibidagi NaOH bo'lgan chiqindi oqova suvlari qo'llanildi. Bunda dastlab biz ikkala oqova suvlarning tarkibini massspektrometrdan analizda aniqladik. Buning uchun fizik – kimyoviy usullardan foydalaniladi. Suyuq neytrallangan o'g'it tarkibidagi har bir oziqa elementni fotokalorimetr yordamida P₂O₅, N₂O₅, Zn, Cr, Fe kabi mikro va makro elementlar tahlil qilinadi. Neytrallansh jarayonidagi kimyoviy o'zgarishlarni quyidagi reaksiya tenglamalari asosida boradi:



Hosil bo'lgan o'g'itimiz tarkibida ozuqa miqdori yuqori bo'lgan kompleks o'g'it hosil bo'ladi. Oqova suv tarkibidagi P₂O₅ ning umumiy miqdori 14,2% dan 23% ga yetkazildi. P₂O₅ ning suvda eruvchanligi 2 barobarga oshirildi.



1-Jadval.

Mahalliy sanoat chiqindi suvlari kimyoviy tarkibi

Kislotali chiqindi suv		Ishqoriy chiqindi suv		Neytallanish maxsuloti	
Element	Mass%	Element	Mass%	Element	Mass%
C	33.91B±0.05	C	15.67B±0.04	C	20.77B±0.03
O	44.79B±0.08	O	54.00B±0.07	N	11.85B±0.04
Na	5.23B±0.03	Na	29.10B±0.06	O	45.44B±0.06
Al	0.27B±0.01	Al	0.50B±0.01	Na	4.88B±0.02
Si	0.10B±0.00	P	0.43B±0.01	Al	0.31B±0.01
P	5.41B±0.02	S	0.29B±0.01	Si	0.07B±0.00
S	0.69B±0.01			P	5.05B±0.01
Cl	0.26B±0.01			S	0.70B±0.01
Fe	2.67B±0.02			Cl	0.21B±0.00
Zn	6.67B±0.05			Zn	10.74B±0.05

Namunaning tarkibidagi P ning va O₂ ning miqdori ko'pligi va P₂O₅ oksid holida bo'lishi aniqlandi. Avtosanoat ehtiyot qismlarini bo'yovchi korxonalaridan chiqadigan ishqoriy chiqindi tarkibi o'rganilri va moddlar tegishli miqdorlarda borligi aniqlandi.

Massa jixatdan natriy va O miqdori qolgan elementlarga nisbatan ko'pligi aniqlandi. Chiqindi tarkibida C ning jism yuzasidagi RAD-LAC ishqoriy gidrolizlangani uchun ham, neytrallangan chiqindi suv tarkibida C va O miqdori ko'pligini ko'rsatadi. Ushbu moddaning konsentratsiyasi yuqori bo'lishi organik moddlar borligi bilan izoxlanadi.[9] Namunaning tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki Al miqdori 0.50V±0.01 tashkil qiladi. RAD-LAC va Al qobiqni ishqoriy gidroliz qilinishi natijasida Al quyidagi reaksiyada ishtrok etadi:



2-rasm. Olingan o'g'itning mass-spektri

IFODA MCHJ da hozirda ishlab chiqarilayotgan suyuq kompleks o'g'it tarkibida P₂O₅ va mikroelementlar miqdorlari quyidagicha keltirilgan. Ifoda macromix P₂O₅ - 16%, Magniy-max 8% P₂O₅, Enit-Zinc 7 % P₂O₅, Atmos 9% P₂O₅ borligi ifodalangan. Bu o'g'itlar tarkibida mikro elementlar miqdori ham ko'p bo'ladi. Ozuqa elementlar o'g'it tarkibidagi elementlar bilan kompleks hosil qilib, o'simliklarning hosildorligini yanada oshiradi. Kompleks holdagi o'g'itlarning suvda eruvchanligi yuqori bo'ladi.

Ushbu diagramma orqali kompozit olinishida dastlabki 160 °C haroratda moddalar orasida molekulararo bog'lanish sodir bo'lganligini ko'rish mumkin. Organik moddalar molekulasidagi O=C-O valet tebranishlari 1409,96 sm⁻¹ va 871,82 sm⁻¹ sohasida deformatsion tebranish, sohaslarida kuzatilgan, H-O-valent tebranishlari 3641,60 sm⁻¹ va 2928,86 sm⁻¹ sohasida deformatsion tebranish, sohaslarida kuzatilgan. tuzlari molekulasida qolgan namunalarga nisbatan kam bo'lganligi uchun O=C-O valent tebranishlari 1006,84 sm⁻¹ va 912,33 sm⁻¹ sohasida deformatsion tebranish, sohaslarida kuzatilgan, H-O-valent tebranishlari 3693,45 sm⁻¹ va 3674,86 sm⁻¹ sohasida deformatsion tebranish sohaslarida kuzatilgan neytrallanish masulotlari tebranish chastotalarida C=O valent tebranish chastotasi 2920,92 sm⁻¹ dan yuqori jadallikdagi cho'qqisi 2850,79 sm⁻¹ quyi sohaga kamaygan.

Xulosa

Sanoat chiqindi suvlaridan suyuq kompleks o'g'it olishning taklif etilayotgan varianti bilan bir qatorda, metalni qayta ishlashda hosil bo'ladigan mikro elementlarni suyuq kompleks o'g'itlar tarkibiga

qoʻshilishini hisobga olgan holda, aralash kompleks oʻgʻit olish mumkin.

Shunday qilib, sanoat chiqindilari va neytrallashtirish mahsulotlaridan suyuq kompleks oʻgʻit ishlab chiqarish nafaqat prinsipial jihatdan yangi texnologiyani yaratish, balki mikroelementlar taʼsirida suyuq oʻgʻitlarga qoʻshimcha ravishda kompleks oʻgʻit ajratib olish imkonini beradi.

Ozuqa miqdori past boʻlgan sanoat chiqindilardan ozuqa miqdori yuqori boʻlgan va oʻzlashuvchanligi yaxshi boʻlgan kompleks oʻgʻit olish mumkin. Oqava suv tarkibidagi P_2O_5 ning umumiy miqdori 14,2% dan 23% ga yetkazildi. P_2O_5 ning suvda eruvchanligi 2 barobarga oshirildi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ангелов А.И., Левин Б.В., Классен П.В. Мировое производство и потребление фосфатного сырья // Горный журнал. - Москва, 2003. - №4-5. - С. 6-11.
2. Позин М.Е. Технология минеральных солей. В 2-х т. - Ленинград: Химия, 1970. - Т.2. - 1558 с.
3. Фосфор - «элемент жизни», его возрастающая роль для человечества // Фосфаты на рубеже XXI века. - Москва, Алматы, Жанатас, 1996. - 108 с.
4. Ратобильская Л.Д., Бойко Н.Н., Кожевников А.О. Обогащение фосфатных руд. - М.: Недра, 1979. - 261 с.
5. Беглов Б.М., Намазов Ш.С. Фосфориты Центральных Кызылкумов. - Ташкент: ФАН, 2013. - 460 с.
6. Гафуров К., Шамшидинов И. Минерал ўғитлар ва тузлар технологияси. Дарслик. Т., «Фан ва технология», 2007й., 352 б.
7. Новиков А.А., Чуб И.Ф. Фосфорсодержащие минеральные удобрения и кормовые фосфаты в XI и XII пятилетках // Журн. Всес. хим. общества им. Д.И. Менделеева. - Москва, 1983. - т. 28, №4. - С. 371-376.
8. Ресурсы, добыча и обогащение фосфатного сырья за рубежом / С.Н. Глезер, Ю.Я. Голгер, В.Н. Лыгач, И.А. Манилов, А.Е. Бройдо, Л.Б. Клименко, А.С. Соколов // Обз. инф. Сер. Горнохимическая промышленность. - М.: НИИТЭХИМ, 1987. - 114 с.
9. Кужварт М. Неметаллические полезные ископаемые. - М.: Мир, 1986. - 343 с.
10. Технология фосфорных и комплексных удобрений / под ред. С.Д. Эвенчика и А.А. Бродского. - М.: Химия, 1987. - 464 с.
11. Фосфаты в XXI века. - Алматы, Тараз, Жанатас, 2006. - 201 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Qurbanova Latofat Mamadiyorovna

Jizzax politexnika instituti kimyo kafedrasida
katta o'qituvchisi

Eshmatova Nodira Baxromovna

O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti fizikaviy kimyo kafedrasida dosenti, k.f.d.

Akbarov Hamdam Ikromovich

O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti
fizikaviy kimyo kafedrasida mudiri professor, k.f.d.

UO'T 541.13; 547.551.5; 661.728.892;544.72

NATRIY-KARBOKSIMETILSELLULOZA VA FOSFORLI BIRIKMALAR ASOSIDAGI INGI BITORLARNING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Sanoatda korroziya natijasida vaqt o'tishi bilan metall materiallarining tabiiy holatini yo'qolishiga va atrof muhitning ifloslanishiga olib keladi. Metall bilan adsorbsion ta'sirlashuv natijasida uning himoyalash xossalari turli haroratlarda qanday namoyon bo'lishi va reaksiya mexanizmlarini o'rganish natijasida yangi samaradorli ingibitorlar ishlab chiqarish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ilk bor natriy-karboksimetilselluloza, dietilamin va anilinning fosforli hosilalari ingibitor sifatida qo'llanilgan.

Kalit so'zlar. Korroziya, ingibitor, natriy-karboksimetilselluloza, anilin dietilamin, fosfat kislota, natriy tripolifosfat, po'lat.

Курбанова Латофат Мамадиёровна

Химический факультет Джизакского политехнического института
старший преподаватель

Эшмамова Нодира Бахромовна

Доцент кафедры физической химии химического факультета
Национального университета Узбекистана, к.х.н.

Акбаров Хамдам Икромович

Химический факультет Национального университета Узбекистана
Заведующий кафедрой физической химии, профессор, к.х.н.

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНГИБИТОРОВ НА ОСНОВЕ НАТРИЙ- КАРБОКСИМЕТИЛЦЕЛЛЮЛОЗЫ И ФОСФОР СОДЕРЖАЮЩИХ СОЕДИНЕНИЙ

Аннотация. В результате промышленной коррозии металлические материалы со временем теряют свое естественное состояние и вызывают загрязнение окружающей среды. В результате адсорбционного взаимодействия металлов с ингибиторами проявляется его защитные свойства при различных температурах и изучение механизмов реакции создание новых эффективных ингибиторов и их физико-химических свойств является одной из актуальных задач современной науки. В качестве ингибиторов впервые использованы фосфорсодержащие производные натрий карбоксиметилцеллюлозы, диэтиламина и анилина.

Ключевые слова. Коррозия, ингибитор, натрий-карбоксиметил-целлюлоза, анилин, диэтиламин, фосфорная кислота, триполифосфат натрия, сталь.

Kurbanova Latofat Mamadiyorovna

Department of Chemistry, Jizzakh Polytechnic Institute
senior teacher

Eshmatova Nodira Bakhromovna

Docent of the Department of Physical Chemistry of the Faculty of Chemistry of the National University of
Uzbekistan, PhD

Akbarov Hamdam Ikromovich

PHYSICO-CHEMICAL FEATURES OF INHIBITORS BASED ON SODIUM CARBOXYMETHYLCELLULOSE AND PHOSPHORUS-CONTAINING COMPOUNDS

Annotation. As a result of industrial corrosion, metal materials lose their natural state over time and cause environmental pollution. As a result of adsorptive interaction with metal, how its protective properties are manifested at different temperatures and the study of reaction mechanisms, production of new effective inhibitors is one of the urgent tasks today. Phosphorous derivatives of sodium-carboxymethylcellulose, diethylamine and aniline were used as inhibitors for the first time.

Key words. Corrosion, inhibitor, sodium-carboxymethylcellulose, aniline, diethylamine, phosphoric acid, sodium tripolyphosphate, steel.

Kirish.

Neytral muhitda Na-KMS natriy pirofosfat bilan ikki komponentli ingibitorlar sifatida foydalanilganda korroziyadan himoyalash darajasi 96,83% gacha etganligi aniqlangan. Pirofosfat va uniflok asosidagi ikki komponentli ingibitorlar bir xil yuqori himoyalash darajasiga ega, bu yerda $Z=97,64\%$ ga yetganligi mualliflar olib borgan ishlaridan ma'lum. Ikki komponentli ingibitorlarning eritmalarida $R-COO^-$ polionlari mavjud bo'lib, ular po'lat yuzasida ham adsorbsiyalanishi mumkin. $-CH_2COONa$ guruhining kiritilishi makromolekulaning gidrofilligini oshiradi va Na-KMS molekulasida va suv molekulari orasidagi vodorod bog'larining tuzilishini o'zgartiradi [1].


Yumshoq po'lat namunalari turli agressiv muhitlarda korroziyaga chidamliligi tufayli keng qo'llaniladi. Korroziya doimiy jarayon bo'lib, uni to'xtatib bo'lmaydi, lekin turli xil himoyalash usullari yordamida sekinlashtirish yoki kamaytirish mumkin. Buning natijasida metall yo'qotishlarni oldini olish mumkin, korroziyaga uchragan sirtlarning zanglashini nazorat qilish uchun bir necha turdagi himoyalash usullari qo'llaniladi. Sanoatda keng tarqalgan korroziyaga qarshi kurashning usullaridan biri korroziya ingibitorlaridan foydalanish hisoblanadi. Biroq, ishlatiladigan ingibitorlarning aksariyati iqtisodiy jihatdan samarasiz va odamlar va atrof-muhit uchun zaharlidir. Shu sababli, xavfli materiallarni almashtirish uchun ekologik toza yondashuvlar va xavfsizlik yechimlariga asoslangan yangi ekologik toza va kamroq zaharli korroziya ingibitorlarini topish kerak. Sinergetik samaradorlik ingibitorning ingibirlash qobiliyatini yaxshilash haqida ma'lumotlar beradi, chunki funksional guruhlar bilan bog'liqligi adabiyotlardan ma'lum [2].

Bu ish metall korroziya ingibitorlarini tarkibidagi azot va fosforning mavjudligi bilan tushuntirilgan. Mahalliy xomashyo asosida samarali, ekologik toza ingibitorlarni yaratish va po'lat korroziyasiga ishlatish mumkunligi aniqlangan. Olingan ma'lumotlar sirt qatlamlarini shakllantirib metallarni samarali himoya qilishi, yangi ilmiy yo'nalishini shakllantirishga aniq hissa qo'shadi [3].


Tadqiqot ob'ekti va usullari.

Tadqiqot ob'ektlari sifatida Na-KMS va fosfor tutgan birikmalar tanlab olindi. Bunda Na-KMS, anilin, dietilamin, fosfat kislotasi, natriy tripolifosfat kabi birikmalardan foydalanildi. Po'latning korroziyon xususiyatlarini o'rganish uchun plastinka shaklidagi po'lat 3 va 45 namunalari qo'llanildi. Shuningdek, elektrokimyoviy usulda po'lat namunalari sirtini o'zgarishi ingibitorlar ta'sirida qatlam hosil qilishi hamda ingibirlanish mehanizmi o'rganildi.

Natriy-karboksimetilsellulozaning fosfat kislotasi bilan sintezi. Natriy-karboksimetilsellulozani (Na-KMS) 3% li eritmasi tayyorladik va 20°C da magnitli aralashtirgichda to'liq eriguncha jarayonni kuzatdik. Na-KMS ni fosfat kislotasi bilan sintezi quyidagi mehanizm bo'yicha yoziladi:



Natijalar va muxokama. Rentgen fazaviy analiz usuli. Ushbu usul kristallarning atom tuzilishini o'rganish uchun eng muvaffaqiyatli usullardan biridir. 1-rasmda natriy-karboksimetilsellulozaning natriy tripolifosfati bilan xosilasining rentgen diffraktogrammasi va 1-jadvalda parametri qiymatlari izoxlangan. Natriy-karboksimetilselluloza va fosforli birikmalar asosida olingan ingibitorlarning IQ spektrlari va ularning taxlillari. Ingibitorlarni himoyalash xususiyati ayrim metallarda $-NH_2$, $=NH$, CN , $N=O$, $C=C$, $-C=O$, OH , $P-O-H$, $P=O$, COO^- ; funksional guruh tutgan birikmalarda kuchliroq ekanligi oldindan ma'lum.




1-rasm. Natriy-karboksimetilsellulozaning natriy tripolifosfati bilan xosilasining rentgen diffraktogrammasi

1-jadval. Natriy-karboksimetilsellulozaning natriy tripolifosfati bilan xosilasining rentgen diffraktogrammasida olingan parametri qiymatlari


T/ r	2Theta[° l	cos θ = 2θ 2	FWH M β = rad	K	λ	d = Kλ β cos	d = umum
1	11.4397	5.719 8	0.2096	0.9	0.54Å	0.405 4	d _{um} =0.1 326
2	11.9217	5.960 8	0.3236	0.9	0.54Å	0.251 9	
3	12.7014	6.351 7	0.4127	0.9	0.54Å	0.185 4	
4	13.6793	6.839 6	0.1696	0.9	0.54Å	0.418 9	
5	14.1576	7.078 8	0.3608	0.9	0.54Å	0.190 3	

Natriy-karboksimetilselluloza va natriy tripolifosfati tuzi asosidagi sintez birikmasining IQ spektri 3305,99 cm^{-1} sohada OH guruhiga tegishli bo'lgan valent tebranish chiziqlarini ko'rish mumkin; 2362,8-2115,91 cm^{-1} sohalarida P-O-H ga tegishli chiziqlar namoyyon bo'ldi. 1635,64 cm^{-1} sohada COO⁻ karboksilat anioniga tegishli bo'lgan assimetrik; 1415,78 - 1327,03 cm^{-1} sohalarida esa shu ionga tegishli bo'lgan simmetrik tebranishlardagi chiziqlar hosil bo'ldi. Taxlil davomida 1203,58 cm^{-1} sohada P=O ga tegishli bo'lgan signal; 1107,14 cm^{-1} sohada C-O bog'lar; 975,98-898,83 cm^{-1} sohalarida OH ga tegishli bo'lgan deformatsion tebranishlar; 667,37 cm^{-1} chastotada C-H ga tegishli bo'lgan assimetrik, 599,86 cm^{-1} da esa Na-O ga tegishli bo'lgan tebranishlarni ko'rish mumkin.



2-rasm. Natriy-karboksimetilsellulozaning natriy tripolifosfati bilan olingan birikmasining IQ spektri

Qutblanish egrilari usuli ingibitorlarning samaradorligini aniqlashning ekspress usullaridan biri xisoblanadi, elektrokimyoviy usullar qatoriga kiradi [4]. Tadqiqot obyektlari hisoblangan Na-KMS, anilin fosfat, dietilamin fosfat, Na-KMS·H₃PO₄, Na-KMS·Na₅P₃O₁₀ birikmalarini (Fon-1) eritmalarda sodir bo'luvchi elektrokimyoviy jarayonlarning kinetikasini o'rganish natijalari tahlil qilindi va qutblanish egrilari olindi, po'lat 45 namunasida 25°C haroratda olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra metallni korroziyaga uchratuvchi (Fon-1) eritmada korroziyon tokning qiymati 0,68 mA/cm² ga, stasionar korroziya potensialining qiymati 0,420 B ga teng bo'ladi. Korroziya ingibitorlarini qo'llashda asosiy e'tibor po'lat asosidagi namunalarda bo'lib, ular asosida kompleks tuzlar hosil bo'lishi, metall sirtida himoya qatlamlarning agressiv muhitda samarali natija bilan himoya qilishi aniqlandi [5;6]. Keltirilgan reaksiya mexanizmi maqsadga muvofiqdir, modomiki birinchi bosqichda OH-molekulalari emas, balki H₂O molekulalari qatnashadi, u suvli muhitlar uchun hosdir.





3-rasm. Qutblanish egrilari usuli yordamida olingan natijalar fon eritmasi pH=5,3 (5%Na₂SO₄+3%H₂SO₄) li muhitda 30 mg/l miqdorda turli ingibitorlarni kiritilgandagi natijalari Fon (1); Na-KMS·Na₅P₃O₁₀ (2); Na-KMS·H₃PO₄ (3); (Na-KMS+AF) (4); DEAF (5); (Na-KMS+DEAF) (6); AF(7).

Kuchsiz kislotali va ishqoriy muhitlarda olib borilgan tajribalar orqali shu narsa aniqlandiki, sintez qilingan birikmalar orasida po'lat 3 va 45 namunalari samarali himoyalaydigan korroziya ingibitorlari mavjud, bunday ingibitorlar qatoriga (C₂H₅)₂NH·H₃PO₄, Na-KMS·H₃PO₄, Na-KMS·Na₅P₃O₁₀ kabi ingibitorlarni kiritish mumkin.

2-jadval. Po'lat 45 namunalarning 25°C 3% pH=5,3 (5%Na₂SO₄ + 3%H₂SO₄) fon eritma tarkibida turli ingibitorlarni (C=30 mg/l) miqdorda himoyalash darajasini gravimetrik usuldagi aniqlash natijalari

Ingibitorlar	15 kunlik natija				30 kunlik natija			
	K ₁ ,g/(m ² ·sut)	Π	γ	Z, %	K ₂ ,g/(m ² ·sut)	Π	γ	Z, %
Fon-1 (pH=5,3)	2,61	4,99·10 ⁻³	-	-	2,43	9,6·10 ⁻⁵	-	-
Na-KMS	0,45	8,63·10 ⁻⁴	5,8	82,73	0,39	1,52·10 ⁻³	6,1	83,65
(C ₂ H ₅) ₂ NH·H ₃ PO ₄	0,31	6,07·10 ⁻⁴	8,23	87,83	0,28	1,11·10 ⁻³	8,4	87,15
Na-KMS·H ₃ PO ₄	0,27	5,22·10 ⁻⁴	9,6	89,55	0,23	8,89·10 ⁻⁴	10,4	90,46
C ₆ H ₅ NH ₂ ·H ₃ PO ₄	0,24	4,71·10 ⁻⁴	10,6	90,57	0,20	7,84·10 ⁻⁴	11,8	91,58
Na-KMS·Na ₅ P ₃ O ₁₀	0,21	4,05·10 ⁻⁴	12,3	91,88	0,18	6,94·10 ⁻⁴	13,4	92,58
(NaKMS+ (C ₂ H ₅) ₂ NH·H ₃ PO ₄)	0,18	3,57·10 ⁻⁴	13,9	92,85	0,16	6,28·10 ⁻⁴	14,8	93,26
(NaKMS+ C ₆ H ₅ NH ₂ ·H ₃ PO ₄)	0,18	3,45·10 ⁻⁴	14,4	93,08	0,14	5,54·10 ⁻⁴	16,7	94,05

Bir vaqtning o'zida bir qancha funksional guruhlarni bo'lishi sinergizm effektini kuzatilishi va ingibirlanish natijasida yuqori samaradorli ingibitorlar qatoriga ikkinchi komponentli birikmalardan fosfor asosidagi amino guruh tutgan ingibitorlarni kiritishimiz mumkin [7;8].



Xulosalar.

Natriy-karboksimetilselluloza va fosforli birikmalar asosidagi samaradorligi yuqori bo'lgan korroziya ingibitorlari aniqlandi. Olib borilgan elektrokimyoviy,

gravimetrik tadqiqotlar asosida korroziya tezligi, tormozlash koeffitsiyenti, himoyalash darajasi kabi parametrlar hamda organik birikmalarni ikkinchi komponent bilan qo'llaganda optimal harorat va konsentratsiya aniqlandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida yanada samarali birikmalar aniqlanib, NaKMS+DEAF va Na-KMS+AF kabi ingibitorlarni kiritilishi natijasida fon eritmasida korroziyon faollikni pasaytirishi va po'latni korroziya natijasida yemirilishdan 93,26–94,05% himoyalangani kuzatildi. Ushbu ma'lumotlar elektrokimyoviy usullar bilan ham tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шипигузов И.А., Колесова О.В., Вахрушев В.В., Казанцев А.Л., Пойлов В.З. Лановецкий С.В., Черезова Л.А. Современные ингибиторы коррозии // Вестник ПНИПУ. – 2016. – С. 114–128.
2. Aslam R. Inhibitory effect of sodium carboxymethylcellulose and synergistic biodegradable gemini surfactants as effective inhibitors for MS corrosion in 1 M HCl // Journal of Materials Research and Technology. India, 2019. T.8. №5. – С. 4521-4533.
3. Холиков А.Ж. Защита углеродистой стали различных ингибиторов в имитате пластовой воды // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. -2013. – №.11-1. – С. 52-53.
4. Berdimurodov E., Kholikov A., Akbarov K., Guo L., Kaya S., Verma D.K., Rbaa M., Dagdag O. New and Green Corrosion Inhibitor Based on New Imidazole Derivate for Carbon Steel in 1 M HCl Medium // Experimental and Theoretical Analyses. -2022. -№1. -P. 11–44.
5. Эшмаматова Н.Б., Акбаров Х.И. Ингибиторы коррозии металлов на основе монофосфат гексаметилендиамина // Композиционные материалы. -2013. -№2. – С. 41-43.
6. Эшмаматова Н.Б., Акбаров Х.И. Исследование эффективности олигомерных ингибиторов коррозии металлов на основе различных азотсодержащих органических соединений и фосфорной кислоты // Доклады Академии наук Республики Узбекистан. -2014. -№ 2. – С. 47-51.
7. Н.Б. Эшмаматова, Л.М. Курбанова, Х.И. Акбаров, Л.А.Азимов Органик аминлар ва хром бирикмалари асосидаги ингибиторларнинг физик-кимёвий хусусиятлари // Монография. Издательство «Lesson press». -2022. - 142 б.

8. Курбанова Л.М., Алиева З.В., Азимов Л.А., Эшмаматова Н.Б., Акбаров Х.И. Ингибиторы коррозии металлов на основе натрий-карбоксиметилцеллюлозы и фосфорсодержащих органических соединений // Innovative solutions to technical engineering and technological problems of production. Jizzax-2022. –С. 161-162.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Yaxshimuratov Murodjon Rajapboy o'g'li

Urganch davlat universiteti doktoranti
m_yaxshimuratov@mail.ru

Hasanov Shodlik Bekpo'latovich

Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy ishlar bo'yicha rais o'rinbosari
k.f.n., katta ilmiy xodim
E-mail: shadlik@mail.ru

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, PhD
katta ilmiy xodim
E-mail: zubayda.abdullayeva.91@mail.ru

UDK 542

**MIS (II) FORMIATMETAKREZOKSIATSETAT KALSIY KOMPLEKS BIRIKMASI KIMYOVIY VA
BIOLOGIK XOSSALARINING NAZARIY TAHLILI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mis (II) formiati va kalsiy metakrezoksiatsetati asosida kompleks birikmasini sintez qilishning optimal usulini aniqlash maqsadida turli nisbatlarda hosil bo'lishi mumkin bo'lgan tuzilishlarining minimal hosil bo'lish energiyalari HyperChem dasturiy ta'minoti yarim empirik usulida aniqlandi. Olingan natijalar asosida kompleks birikma sintez qilindi. Kompleks birikmaning tarkibi element tahlili usuli yordamida o'rganildi Sintez qilingan kompleks birikmaning biologik xossasi molekulyar docking usuli yordamida nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mis (II) formiati, kalsiy metakrezoksiatsetati, HyperChem, yarim empirik usul, molekulyar docking.

Яхшимуратов Муроджон Раджапбой углы

Докторант Ургенчского государственного университета

Хасанов Шодлик Бекпулатович

Заместитель председателя по научной работе Хорезмской Академии Мамун, к.х.н., старший научный сотрудник

Абдуллаева Зубайда Шавкатовна

Технологического университета Ургенчского Ранч
Доцент, PhD, старший научный сотрудник

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ХИМИЧЕСКИХ И БИОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ КОМПЛЕКСНОГО
СОЕДИНЕНИЯ МЕДИ (II) ФОРМИАТМЕТАКРЕЗОКСИАЦЕТАТА КАЛЬЦИЯ**

Аннотация. В данной статье с целью определения оптимального способа синтеза комплексного соединения на основе формиата меди (II) и метакрезоксиацетата кальция были определены минимальные энергии образования его структур, которые могут образовываться в различных пропорциях, полуэмпирическим методом программного обеспечения hyperchem. На основе полученных результатов было синтезировано комплексное соединение. Состав комплексного соединения изучался методом элементного анализа биологические свойства синтезированного комплексного соединения теоретически анализировались методом молекулярной стыковки.

Ключевые слова: формиат меди (II), метакрезоксиацетат кальция, HyperChem, полуэмпирический метод, молекулярная стыковка.

Yakhshimuratov Murodjon Rajapboy ugli

base doctoral student, Urgench State University

Hasanov Shodlik Bekpolatovich

deputy chairman for Scientific Affairs Khwarazm Ma'mun Academy c.ch.s, senior research fellow

Abdullaeva Zubayda Shavkatovna

THEORETICAL ANALYSIS OF THE CHEMICAL AND BIOLOGICAL PROPERTIES OF THE CALCIUM COMPLEX COMPOUND COPPER (II) FORMIATMETACREZOXYACETATE

Abstract. In this paper, the minimum yield energies of their structures, which can be generated in different proportions, were determined in the HyperChem software semi-empirical method in order to determine the optimal way to synthesize a complex compound based on the Copper (II) format and calcium methacrezoxyacetate. Based on the results obtained, a complex compound was synthesized. The composition of the complex compound was studied using the element analysis method the biological property of the synthesized complex compound was theoretically analyzed using the molecular docking method.

Keywords: Copper (II) format, calcium methacrezoxyacetate, HyperChem, semi-empirical method, molecular docking.


Kirish.

Hozirgi vaqtda biologik faol ligandlar asosida oraliq metallar bilan olingan komplekslarini har tomonlama o'rganish fundamental va amaliy jihatdan kimyoviy bilimlarning talab qilinadigan va jadal rivojlanayotgan sohasidir. Eng mashhur va faol o'rganilgan biofaol ligandlar orasida atsetat kislotasi hosilalari alohida o'rin tutadi. Ushbu birikmalar asosida olingan oraliq metall komplekslari bir qator biologik muhim metall ferment jarayonlarini sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili.

[1,2] ishlarda ilk bor olma va ftal kislotasi bilan neodim (III) va temir (III) ning $\text{NdFeMal}_3 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$, $\text{NdFeFtal}_3 \cdot 4\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ tarkibli geteroyadroli va mis (II) ning benzoy, nikotin, salitsil kislotasi hamda piridin bilan $\text{CuBenNic}_3 \cdot 3\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$, $\text{CuBenSal}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$, $\text{CuNicSal}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$, $\text{CuSal}_2 \cdot \text{PyH}_2\text{O}$ tarkibli aralashligandli birikmalari olingan.

IQ-spektrlar taxlillariga ko'ra barcha olingan komplekslarda karbon kislotalar deprotonlangan shaklda bo'ladi va karboksil guruhi bo'yicha bidentat koordinatsiyalanadi. $\text{CuSalBen}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ va $\text{CuSal}_2 \cdot \text{PyH}_2\text{O}$ birikmalarda salitsil kislotasi spirt guruhi yordamida koordinatsiyalanadi; $\text{CuNicBen}_3 \cdot 3\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ va $\text{CuNicSal}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ birikmalarda esa nikotin kislotaning piridin xalqasi azoti koordinatsiyada ishtirok etmaydi [3-6].



Temir (III) va neodimiy (III) ning ftal va olma kislotalar bilan geterometalik koordinatsion birikmalarining IQ spektrlarida kislotalarning karboksil guruhlarining simmetrik va assimetrik tebranishlarining yutilish zonalarining bo'linishi kuzatiladi, bu ularning nomutanosibligini ko'rsatadi. Bo'linish xususiyatiga ko'ra, komplekslarning tuzilishi orol-ko'prik yoki "Xitoy fonari" turi ekanligi aniqlandi [7,8].


Tadqiqot metodologiyasi.

EPR spektrlari asosida mis (II) ning binar va aralash ligandli kompleks birikmalarida koordinatsion maydonning tuzilishi va geometriyasi aniqlandi: $\text{CuBen}_2 \cdot 2\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$, $\text{CuNic}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, $\text{CuBenNic}_3 \cdot 3\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ birikmalarida spektr teskari va juftlanmagan elektron orbitalda $d(z^2)$ - komplekslar oktaedr o'qlaridan biri bo'ylab siqilgan tuzilishga ega; va $\text{CuBenSal}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$, $\text{CuNicSal}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$, $\text{CuSal}_2 \cdot \text{PyH}_2\text{O}$, $\text{CuNic}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$, $\text{CuFtal}_2 \cdot \text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ komplekslari kengaytirilgan oktaedr tuzilishiga ega va juftlanmagan elektron $d(x^2-y^2)$ orbitalda joylashgan [9].

Tahlil va natijalar.


Rentgenfazaviy tahlil natijasida neodimiy (III) va temir (III) ning geteroyadroviy ftalat va malatining termoliz mahsulotlari perovskit tuzilishiga ega bo'lgan NdFeO_3 aralash oksidi ekanligi aniqlandi, buning asosida istiqbolli noorganik material olishning samarali usuli taklif qilinishi mumkin [10].

[11,12] -ishlarda palladiy va rodiyning 26 ta yangi koordinatsion birikmalari tarkibida oksalat ionlari va ligandlar sifatida suv bo'lgan 3d-metallar bilan sintez qilindi. Termik parchalanish jarayoniga va termoliz mahsulotlari tarkibiga ligand muhiti va atmosfera tabiatining ta'siri o'rganildi va katalitik tizimlarda faol komponentlarning prekursorlari sifatida yangi komplekslardan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatildi.




1-rasm. $[M(H_2O)_6][PdOx_2] \cdot 4H_2Ox$ ning kristall tuzilishi ($M = Co, Ni$). $[M(H_2O)_6]^{2+}$ oktaedr bilan, $[PdOx_2]^{2-}$ to'rtburchaklar bilan belgilanadi

Bis(oksalato)palladat va trans-bis(oksalato)rodad ionlari 3d-metallarning ikki valentli akvakationlari bilan 3d-metallar tabiatiga qarab turli tuzilishdagi birikmalar hosil qiladi: qo'sh kompleks tuzlari, molekulyar komplekslar yoki koordinatsion polimerlar [13].



2-rasm. Tashqi sferadagi suv molekularini ko'rsatmasdan $[M(H_2O)_2(m-Ox)Rh(H_2O)_2Ox]_2 \cdot 6H_2O$ kompleksining tuzilishi.


[14] da o'rganilayotgan $MPdOx_2 \cdot nH_2O$ va $MRh_2Ox_4 \cdot nH_2O$ seriyali birikmalar yuqori eruvchanlikka ega va shuning uchun ularni sintez qilish platina metallarining mos keladigan murakkab kislotalaridan va 3d metallarning oddiy tuzlarining gidratlaridan begona ionlar bo'lmagan holda amalga oshirilishi kerak.




3-rasm. H_2O_2 bilan 2 soat qaynatilgandan keyin $Rh(OH)_3$ ni H_2O da eritib olingan eritmaning ^{103}Rh NMR spektri


Mis (II) formiati va kaltsiy metakrezoksiatsetati asosida olingan koordinatsion birikmasida Markaziy

atomning fazoviy tuzilishini, energetik parametrlari, yuqori bog'va quyi vakant molekulyar orbitalarini aniqlash maqsadida kvant-kimyoviy tahlil olib borildi. HyperChem 8.07 dasturiy ta'minotining yarim empirik usulida optimizatsiya amalga oshirildi. Mumkin bo'lgan muvofiqlashtirish strukturasi mis formiati va kaltsiy metakrezoksiatsetati o'zaro 1:1 nisbatda koordinatsion soni 4 va 6 hamda 1:2 nisbatda olingan koordinatsion soni 6 va 8 ga teng bo'lgan to'rtta varianti ko'rib chiqildi. Kompleks birikmalarning barqarorligi minimal hosil bo'lish issiqligiga qarab aniqlandi. Natijada, 1:1 nisbatda koordinatsion soni 4 ga teng bo'lgan kompleks birikmaning hosil bo'lish issiqligi 239,83 kkal/mol va 6 ga teng bo'lgani -19,79 kkal/mol, 1:2 nisbatda olingan Markaziy atomning koordinatsion soni 6 ga teng bo'lgan kompleks birikmaning hosil bo'lish issiqligi -1026,11 kkal/mol, koordinatsion soni 8 ga teng bo'lgan birikmaning hosil bo'lish issiqligi esa -149,61 kkal/mol ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, tuzlar o'zaro 1:2 nisbatda olingan kompleks birikmadagi nikelning koordinatsion soni 6 ga teng bo'lgan birikmasining barqarorligini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).



a)






4-rasm. Kompleks birikmaning 1:1 nisbatdagi koordinatsion soni 4 (a) va 6 (b) hamda 1:2 nisbatdagi koordinatsion soni 6 (c) va 8 (d) ga teng bo'lgan kvant-kimyoviy modellashtirishdan olingan fazoviy tuzilishlari

[Cu(HCO₂)₂·2Ca(HO-C₆H₄-O-CH₂CO₂)₂] tarkibli kompleks birikma sintezi quyidagi usul yordamida amalga oshirildi: kalsiy metakrezoksiatsetat (0.002 mol) asetonitrilida (20 ml) eritildi. Shundan so'ng mis (II) formiatining (0.001 mol) suvdagi eritmasi bilan aralastirilib, yopiq idishda chayqatildi. Olingan quyuq to'q ko'k rangli reaksiya aralashmasi havo atmosferasida intensiv ravishda magnitli aralastirgich yordamida 45 °C haroratda aralastirildi. Erituvchining sekin bug'lanishi natijasida quyuq polikristall mahsulot hosil bo'ldi. Olingan mahsulot filtrlandi, asetonitril bilan yuvildi va xona haroratida quritildi. Mahsulot unumi: 79%.

Kompleks birikmaning element tahlili (hisoblandi (%)/aniqlandi (%)): Cu – 7.09/7.11, Ca – 8.87/8.83, C – 45.23/45.19, O – 35.47/35.49, H – 3.32/3.35.

Sintez qilingan yangi birikmaning funksionlik va immunomodulyatorlik xossasini tahlil qilish maqsadida sholi o'simligining zamburug'li kasalligiga qarshi molekulyar docking usuli yordamida zamburug' retseptori oqsiliga ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, dastlabki moddalar molekulariga nisbatan kompleks birikmaning oqsil bilan mustahkam bog'lanish hosil qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Hisoblash natijalari ta'sirlashish jarayonlarida energiyaning minimal qiymatda bog'lanish mustahkamligini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Amalga oshirilgan docking (retseptor oqsiliga tashqi ta'sir qilinayotgan molekulaning joylashishi) 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Zamburug' retseptori oqsiliga kompleks birikmaning bog'lanishi Xulosa.

Mis (II) formiati va kalsiy metakrezoksiatsetati asosida olingan kompleks birikmasining HyperChem 8.07

dasturiy ta'minoti asosida yarim empiric usul orqali amalga oshirilgan kvant-kimyoviy tahlil natijasida 1:2 nisbatli koordinatsion soni 6 ga teng bo'lgan kompleks birikmaning hosil bo'lish energiyasi minimal qiymatda

ekanligi aniqlandi. Shu asosda olib borilgan sintez mahsulotining element tahlili ham tuzilish qiymatlariga mos ekanligi ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hao Y.M. Syntheses, Characterization, and Antibacterial Property of Polynuclear Cobalt (III) and Copper (II) Complexes Derived from Similar Tridentate Schiff Bases // Russian Journal of Coordination Chemistry, –2018, – Vol. 44, – № 1, P. 45-51.
2. Зеленов, В.И. Модифицированный способ получения ацетилацетоната меди / А.Е. Катков, В.Т. Панюшкин, Т.П. Стороженко, В.И. Зеленов, А.В. Чернова, М.Н. Цокур // Экологический вестник научных центров ЧЭС. - 2005.-№2. -С. 88-90
3. Зеленов, В.И. Способ получения ацетилацетонатов металлов меди (II) и цинка (II) / В.И. Зеленов, М.Н. Цокур, Т.П. Стороженко, А.В. Чернова, Катков А.Е., Ильченко Д.П. // Патент Р.Ф. №2281935 зарегистрирован 20 августа 2006 г. - 5 с.
4. Зеленов, В.И. Исследование закономерностей процессов электрохимического синтеза координационных соединений - прекурсоров нано- и других функциональных материалов / В.И. Зеленов, И.В. Шабанова, М.Н. Цокур, Т.П. Стороженко, А.В. Чернова, Ф.А. Колоколов // Конференция грантодержателей регионального конкурса Российского фонда фундаментальных исследований и администрации Краснодарского края «ЮГ РОССИИ» «Вклад фундаментальных исследований в развитие современной инновационной экономики Краснодарского края»: мат. конф. - Краснодар, 2008 г. - С. 127-128.
5. Зеленов, В.И. Способ получения гетерометаллического малата Fe (III) Nd (III) / В.И. Зеленов, М.Н. Цокур, И.В. Шабанова // Патент Р.Ф. №2351602 зарегистрирован 10 апреля 2009 г. - 9 с.
6. Зеленов, В.И. Электрохимический синтез бензоата меди (II) / В.И. Зеленов, М.Н. Цокур, И.В. Шабанова // Журнал общей химии. - 2008. - Т. 78, №11. - С 1930.
7. Зеленов, В.И. Электрохимический синтез комплексных соединений меди (II) с некоторыми аминокислотами / В.И. Зеленов, М.Н. Цокур, И.В. Шабанова // Известия вузов. Химия и химическая технология-2009. - Т. 52, №4.-С 114-116.
8. Зеленов, В.И. Электрохимический синтез координационных соединений - прекурсоров наноматериалов / В.И. Зеленов, М.Н. Цокур, И.В. Шабанова // Материалы школы-семинара «Организация патентно-информационных исследований на разных стадиях НИР и ОКР» - Краснодар, 2009 г. - С. 27- 28.
9. Гаркуль И.А., Задесенец А.В., Корольков И.В., Байдина И.А., Коренев С.В. Вторичная координация в структурах оксалатопалладатов(II) цинка(II) и марганца(II) // Журн. структ. химии. 2020. Т. 61. № 5. С. 760–767.
10. Гаркуль И.А., Задесенец А.В., Плюсин П.Е., Филатов Е.Ю., Асанова Т.И., Козлов Д.В., Коренев С.В. Оксалатопалладаты(II) цинка(II) и марганца(II) как предшественники биметаллических наноматериалов // Журн. неорг. химии. 2020. Т. 65. № 10. С. 1371–1376.
11. Zadesenets A.V., Garkul I.A., Filatov E.Y., Plyusnin P.E., Filippov T.N., Asanova T.I., Korolkov I.V., Baidina I.A., Asanov I.P., Korenev S.V. Oxalato complexes of Pd(II) with Co(II) and Ni(II) as single-source precursors for bimetallic nanoalloys // J. Therm. Anal. Calorim. 2019. Vol. 138. P. 111–121.
12. Garkul I., Zadesenets A., Filatov E., Baidina I., Tkachev S., Samsonenko D., Korenev S. Oxonium trans-bis(oxalato)rhodate and related sodium salts: a rare example of crystalline complex acid // Acta Crystallogr. Sect. B. 2021. Vol. 77. № 6. P. 1048–1054.
13. Zadesenets A.V., Garkul I.A., Filatov E.Y., Sukhikh A.S., Plusnin P.E., Urukov A.S., Uskov S.I., Potemkin D.I., Korenev S.V. Double oxalates of Rh(III) with Ni(II) and Co(II) – effective precursors of nanoalloys for hydrocarbons steam reforming // Int. J. Hydrog. Energy. 2023. DOI:10.1016/j.ijhydene.2023.01.365
14. A. Zadesenets, I. Garkul, P. Plusnin, I. Baidina, S. Korenev. Oxalatopalladates cobalt and nickel as precursors of nanoalloys: from thermal properties to supported catalysts // 27th International Chugaev Conference on Coordination Chemistry (Нижний Новгород, 2017).

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



02.00.00-KIMYO FANLARI
journal.namdu.uz
CHEMICAL SCIENCES

Sulaymonov Sherhali Abdupattayevich
Namangan davlat universiteti
E.mail: sherali.87@mail.ru
Abdullayev Shavkat Vaxidovich
Namangan davlat universiteti
Hakimov Mo'minjon Olimjon o'g'li
Namangan davlat universiteti

NOMA'LUM SOLVAT BILAN LUTEOLINNING KRISTALL STRUKTURASI

Annotatsiya: Hozirgi kunda dorivor o'simliklarning tarkibini o'rganish, biologik faol moddalarini ajratib olish va ajratib olingan moddalarning tuzilishlari, biologik faolliklarini o'rganish bioorganik kimyo fanining dolzarb bo'lgan muammolaridandir. Ushbu tadqiqot ishida *Oxytropis rosea* o'simligidan luteolin moddasining yangi hosilasi ajratib olindi va kristall strukturasi o'rganildi.

Kalit so'zlar: *Oxytropis rosea*, etilatsetat, flavanoidlar, lyuteolin, ekstraksiya, kristall struktura.

Sulaymanov Sherhali Abdupattayevich
Namangan State University
Abdullayev Shavkat Vakhidovich
Namangan State University
Hakimov Muminjon
Namangan State University

CRYSTAL STRUCTURE OF LUTEOLIN WITH AN UNKNOWN SOLVATE

Abstract: Currently, studying the composition of medicinal plants, extracting biologically active substances, and studying the structures and biological activities of the extracted substances are among the most urgent problems of bioorganic chemistry. In this study, a new derivative of luteolin was isolated from *Oxytropis rosea* and its crystal structure was studied.

Key words: *Oxytropis rosea*, ethylacetate, flavanoids, luteolin, extraction, crystal structure.

Сулайманов Шерали Абдупаттаевич
Наманганский государственный университет
Абдуллаев Шавкат Вахидович
Наманганский государственный университет
Хакимов Муминжон
Наманганский государственный университет

КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ЛЮТЕОЛИНА С НЕИЗВЕСТНЫМ СОЛЬВАТОМ

Аннотация: В настоящее время изучение состава лекарственных растений, экстракция биологически активных веществ, изучение структуры и биологической активности экстрагируемых веществ относятся к числу наиболее актуальных задач биоорганической химии. В данной работе из *Oxytropis rosea* было выделено новое производное лютеолина и изучена его кристаллическая структура.

Ключевые слова: *Oxytropis rosea*, этилацетат, флавоноиды, лютеолин, экстракция, кристаллическая структура.

Kirish.

Dunyo aholisi foydalanayotgan dorivor resurslarning katta qismi shifobaxsh o'simliklar xomashyosi asosida tayyorlanmoqda. Shu sababli oxirgi yillarda dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Biologik faol birikmalar saqlagan

o'simliklar asosida tayyorlangan dori vositalari inson organizmiga keng doirada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday tabiiy birikmalarning samarali kompleks ta'siri bilan bir qatorda ularning nojo'ya ta'sirlarining kamligi jihatidan sun'iy hamda sintetik dori vositalariga nisbatan ustunligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda dorivor o'simliklarning tarkibini o'rganish, biologik faol moddalarini ajratib olish, va ajratib olingan moddalarning tuzilishlari, biologik faolliklarini o'rganish, hamda alohida olingan birikmalardan samarali dori vositalari yaratish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, *Fabaaceae* oilasiga mansub *Oxytropis* turkumi turlariga kiruvchi o'simliklarning farmakologik faol moddalarini ajratish, o'simliklarni kimyoviy tarkibini tadqiq etish, ularning biologik faol birikmalarini aniqlash va ajratib olingan birikmalar asosida, yangi ta'sirdagi dorivor vositalar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. *Oxytropis* turidan 127 ga yaqin moddalar ajratib olingan bo'lib, bu moddalar quyidagilarni o'z ichiga oladi; flavanoidlar, flavanonlar, xalkonlar, izoflavononlar, alkaloidlar, saponinlar, lignanlar va boshqa moddalar. Ko'plab o'simliklar xalq tabobatida shamollashni, teridagi shishish yoki g'urrallarni davolashda, qon ketishining har xil turlarini davolashda ishlatilib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda u shishishga, yallig'lanishga, nevroendokrin tizimi ta'sirlariga, imunitetni izdan chiqishiga qarshi samaraliligi isbotlangan [1-2].

Ushbu o'simlik ustidagi farmakologik tadqiqotlar antiseptik, yallig'lanishga qarshi, neyroendokrin tizimining ta'siri bo'yicha ta'sirlarini ko'rsatdi. Fitokimyoviy tadqiqotlar esa alkaloidlar, flavonoidlar, saponinlar, lignanlar, uchuvchi moddalar va polisaharidlar ajratib olish mumkinligini ko'rsatdi [3-4].

Tadqiqot metodologiyasi. *Oxytropis rosea* o'simligining tarkibini o'rganish maqsadida quritilgan va maydalangan 2,3 kg o'simlikning 93% li etil spirtidan 9 litr quyub xona haroratida bir sutka qoldirildi so'gra 6 litr ekstrakt olindi, shu tartibda besh sutka davomida besh marotaba 6 litrda ekstraksiya qilindi. 30 litr ekstrakt olindi, beshinchi ekstrakt harorati 60-70°C li spirtida amalga oshirildi. Olingan spirtli ekstrakti rotorli bug'latgichda 1 l hajm qolguncha haydab olindi va xlorofillarini cho'ktirish uchun 50%li 10 litr etil spirtida eritildi, so'ngra kukun shaklidagi faollashtirilgan 5 gr ko'mir qo'shib aralashtirildi, ekstrakt 3 sutka xona haroratida (18°C) xlorofill va ballast moddalarni cho'ktirish maqsadida qoldirildi. Ekstrakt cho'kmaga tushgan xlorofill va ballast moddalardan filtrlab tozalandi. Tozalangan ekstrakt tarkibidagi moddalar cho'kmaga qo'shib ketmaganligini yupqa qatlam xromatografiyasi bilan tekshirib borildi va 40°C da rotorli bug'latgichda quyultirildi.

Tajriba va natijalar: Quyultirilgan ekstrakti (1:1) suv bilan suyultirib, ajratgich voronkada, suv-spirtli ekstrakti chayqatib turgan holda benzin bilan 1 litr dan 3 marotaba ekstraksiya qilib, yog'lar va boshqa qo'shimcha moddalardan tozalandi. Tozalangan ekstrakt ketma-ket ravishda 1 litr xloroform bilan 6 marotaba, 1 litr etilatsetat bilan 8 marotaba va *n*-butanol bilan 11 marotaba ajratgich

voronkada ekstraksiya qilinib, fraksiyalarga ajratildi. Fraksiyalardan erituvchilarni haydab, 18,2 gr benzinli, 28,6 gr xloroformli, 23,15 gr etilatsetatli, 58,8 gr *n*-butanolli fraksiyalar yig'indilari olindi.


Etilatsetatli yig'indini individual moddalarga bo'lish. 23,15 gr etilatsetli yig'indini xloroform:metanol sistemasida ustunli xromatografiya usuli yordamida 6,0x160 sm o'lchamdagi silikagel 800,0 gr sorbenti ishtirokida tarkibiy qismlarga ajratildi. Bunda 1-10 moddalar ajratib olindi. Kolonkadan yig'indini avvaliga xloroform bilan, so'ngra xloroform-metanol 50:1, 40:1, 30:1, 20:1, 15:1, 10:1, 8:1, 6:1, 4:1 sistemalarida yuvildi. Fraksiyalarni 0,5 litrdan yig'ib, qog'oz hamda yupqa qatlam xromatografiya usulida tekshirib borildi va xromatogrammasi bir xil fraksiyalar qo'shib borildi. 60-77-elyuatlarni xloroform-metanol 1:1 sistemada Sefadeks LH-20 da yuvilganda 8-9-elyuatlar YaMR sektriga berildi va lyuteolin moddasi ekanligi aniqlandi.

Lyuteolinning yangi hosilasi. Umumiy formulasi $C_{16}H_{10}O_8$, och sariq rangli kukun, suyuqlanish harorati 227-229°C. UB-spektr (λ_{max} , EtOH, nm): 257, 265 yel., 356nm; +AlCl₃ 278, 330, 355, 400. IQ-spektr (KBr, ν , cm^{-1}): 3435 (OH), 2939, 2898 (-CH₃), 1650 (C=O), 1620, 1578, 1515, 1453 (Ar), 1148, 1108, 1026, (C-O), 1010, 980, 930, 869, 837, 823, 802, 770, 740, 689, 670, 658, 637, 617, 578, 498, 403. ¹H YaMR - spektr (600 MGs, DMSO-d₆+CCl₄, ppm, J/Hz) 6.07 (1H, d, J=2.4, H-6), 6.43 (1H, s, H-3), 7.25 (1H, dd, J=2.4; 8.4, 6'), 7.28 (1H, d, J=2.4, H-2'), 6.30 (1H, d, J=2.4, H-8), 6.80 (1H, d, J=8.4, H-5'), 9.03 (1H, kengaygan signal, OH-3'), 9.40 (1H, br.s, OH-4'), 10.32 (1H, kengaygan signal, OH-7), 12.74 (1H, s, OH-5); YaMR - spektr ¹³C (150 MGs, DMSO-d₆+CCl₄, δ , m.d., J/Gs): 164.21 (C-2), 103.27 (C-3), 183.02 (C-4), 162.29 (C-5), 99.14 (C-6), 164.51 (C-7), 94.25 (C-8), 157.69 (C-9), 104.38 (C-10), 122.46 (C-1'), 113.69 (C-2'), 146.39 (C-3'), 150.02 (C-4'), 116.30 (C-5'), 118.89 (C-6').

$C_{16}H_{10}O_8$ [sistematik nomi: 2-(3,4-dihydroxyphenyl)-5,7-dihydroxy-4H-chromen-4-one+CO₂] *Oxytropis rosea* osimligidan ekstraksiya qilingan. Molekula strukturasi ikkita ichki molekulyar O-H...O vodorod bog'lar mavjud. Kristall strukturada molekular O-H...O orqali cheksiz zanjirlar orqali bog'langan va zanjirlar kuchsiz vodorod bog'lar C-H...O orqali qatlamlarga yig'ilgan (1-rasm). Bundan tashqari, aromatik halqaning markazlar o'rtasidagi masofa 3.753 Å bilan hosil qilgan π - π steking bog'lanishlari a o'q bo'ylab ustunlarni hosil qiladi. Qatlamlarning joylashishi tartibsiz uglerod (IV) oksidi molekulari bilan to'ldirilgan zanjirlar orqali uch o'lchamli tarmoqlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Tartibsiz erituvchi molekulari birlik hujayra hajmining taxminan 11 foizini egallaydi; tartibsiz erituvchi molekularining intensivligi PLATON dasturida SQUEEZE protsedurasini qo'llash orqali olib tashlandi (1-jadval). Ushbu yangi moddaning kristall strukturasi OLEX2 dasturi yordamida tahlil qilindi.

Kristall ma'lumotlari

Kimyoviy empirik formulasi	C ₁₆ H ₁₀ O ₈
M _r	330.29
Kristall tizimi, fazoviy guruhi	Monoclinic, I2
Temperatura (K)	295
a, b, c (Å)	6.6830 (2), 5.67938 (19), 34.9850 (12)
a (alpha burchak)	90
b (beta burchak)	91.052 (3)
c (gamma burchak)	90
V (Å ³)	1327.65 (8)
Z	4
Radiatsiya turi	Cu Kα
m (mm ⁻¹)	1.03
Kristall o'lchamlari (mm)	0.4 × 0.1 × 0.05
Depozit raqam	2000699



1-rasm. 2-(3,4-dihydroxyphenyl)-5,7-dihydroxy-4H-chromen-4-one+CO₂

Xulosa qilib aytganda ushbu ilmiy ish davomida ilk bor *Oxytropis rosea* o'simligi tarkibidan ekstarksiya usulida luteolin moddasining yangi hosilasi ajratib olindi. Ajratib olingan modda dastlab xromotagrafik usulda so'ngra suyuqlanish harorati yordamida uning yangi modda ekanligi aniqlandi. Yangi moddaning kristallari o'stirilib va rentgen tuzilish tahlili orqali analiz qilindi, rentgen tuzilish tahlilidan olingan strukturani CCDC bazadan tekshirilib uning yangi modda luteolinning yangi hosilasi ekanligi isbotlandi. Yangi modda CCDC bazaga deposit qilindi (**depozit raqam- 2000699**).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Sulaymonov, Sh. Abdullayev, B. Qoraboyeva (2019). *Oxytropis rosea* o'simligining efir moylari tarkibi HamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник 11, 38-42
2. Sh. A. Sulaymonov, B. J. Komilov, K. A. Eshbakova, G. O. Mamajanov, and Sh. V. Abdullayev (2023). Flavonoids and sterols from *Oxytropis rosea* Chem. Nat. Compd. Vol. 59, No. 5, 937-938.
3. D. Batsuren, S. Tsetsegmaa, N. Batbayar, D. Dungereorz, V. I. Akhmedzhanova, Y. M. Mil'grom, Y. V. Tashkes and A. A. Ibragimov (1992). Alkaloids of *Oxytropis*. I, Chem. Nat. Compd. 28, 340-344.
4. Mao X. Li, Zhi H. Lan, Li L. Wei, Wen J. Zhang, Ru X. Zhang and Zheng P. Jia "Phytochemical and Biological Studies of Plants from the Genus *Oxytropis*" Rec. Nat. Prod. (2012) 6:1 1-20

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Yusupov Abdurahmonbek Nodirjon o'g'li
toyanch doktorant

Ayubov Mirzakamol Sobitjonovich
katta ilmiy xodim PhD

Mirzaxmedov Muxammadjon Xoshimjon o'g'li
mustaqil tadqiqotchi

Murodov Anvar Adhamjon o'g'li
tayanch doktorant

Obidov Nuriddin
mustaqil tadqiqotchi

Mamajonov Bexzod Orifjon o'g'li
tayanch doktorant

Bashirxonov Ziyodulloxon Hakimullo o'g'li
tayanch doktorant

Kamolova Lola Xayriddinovna
Laborant

Buriev Zabardast Tojiboevich
professor

O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi
Gmail: yusupova0107@gmail.com

CRISPR/CAS-9 YORDAMIDA MAKKAJO'XORINING ZMESK1 GENI O'CHIRILGAN QURG'OQCHILIKKA CHIDAMLI LINIYALARINI OLIISH

Annotatsiya: Qurg'oqchilik ko'plab qishloq xo'jaligi ekinlari qatori makkajo'xori yetishtirishda ham asosiy cheklovlardan biridir. Qurg'oqchilik stressining intensivligiga va o'sish bosqichiga qarab, makkajo'xori hosildorligining yo'qolishi 30 dan 90% gacha o'zgarib turadi. Stress ta'siri ayniqsa gullash va donni to'ldirish bosqichlarida jiddiy kuchli seziladi. Shu sababli ham qurg'oqchilikka chidamli makkajo'xori liniya va navlarini olish bugungi qishloq ho'jaligida foydalanish mumkin bo'lgan suv resurslari cheklangan sharoitda juda muximdir. Quyda makkajo'xorining qurg'oqchilik bilan aloqador ZmESK1 geni asosida tuzilgan CRISPR/Cas9 genetik konstruksiyasini agrobakteriya vositasida makkajo'xori hujayrasiga transformatsiya qilish hamda qurg'oqchilikka chidamliligini oshirish bo'yicha olib borgan tadqiqotimizni bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: makkajo'xori, qurg'oqchilik, Agrobakteriya vositasida transformatsiya, CRISPR/Cas9.

Юсупов Абдурахмонбек Нодиржон угли
Докторант

Аюбов Мирхакамол Собитжанович
с.н.с.

Мирзахмедов Мухаммаджон Хошимжон угли
самостоятельный соискатель

Муродов Анвар Адхамжон угли
докторант

Обидов Нуриддин Шуҳратжон угли
м.н.с.

Мамажонов Бехзод Орифжон угли
докторант.

Баширхонов Зиёдулло Ҳақимудло угли
докторант.

Камалова Лола Хайриддиновна
Лаборант

Буриев Забардаст Таджибоевич

профессор

АНПУз Центр Геномики и Биоинформатики

СОЗДАНИЕ ЗАСУХОУСТОЙЧИВЫХ ЛИНИЙ КУКУРУЗЫ С CRISPR/CAS-9 ОТРЕДАКТИРОВАННЫМ ГЕНОМ ZMESK1

Аннотация: Засуха является одним из основных ограничивающих факторов производства кукурузы, а также многих сельскохозяйственных культур. В зависимости от интенсивности стресса засухи и стадии роста растения потери урожая кукурузы колеблются от 30 до 90%. Особенно сильно влияние стресса ощущается на стадиях цветения и налива зерна. Поэтому получение засухоустойчивых линий и сортов кукурузы, которые можно использовать в сельском хозяйстве в условиях ограниченности водных ресурсов, очень важно. Ниже мы описываем наши исследования по повышению устойчивости к засухе с помощью агробактериальной трансформации генетической конструкции CRISPR/Cas9 на основе гена засухоустойчивости кукурузы *ZmESK1* в клетки кукурузы.

Ключевые слова: кукуруза, засуха, агробактериальная трансформация, CRISPR/Cas9.

Yusupov Abdurahmonbek Nodirjon ugli

PhD student

Ayubov Mirzakamol Sobitjonovich

senior researcher, Ph.D

Mirzakhmedov Muhammadjon Khoshimjon ugli

independent researcher

Muradov Anvar Adhamjon ugli

basic doctoral student

Obidov Nuriddin

independent researcher

Mamajonov Bekhzod Arifjon

basic doctoral student

Bashirkhanov Ziyadullah Khan Hakimullah ugli

basic doctoral student

Kamalova Lola Khairiddinovna

Laboratory assistant

Buriev Zabardast Tajiboevich

professor

Center of Genomics and Bioinformatics of the Federal Republic of Uzbekistan

DEVELOPMENT OF DROUGHT-TOLERANT MAIZE LINES BY SWITCHING OFF ZMESK1 GENE USING CRISPR/CAS-9

Abstract: Drought is one of the major limiting factors for maize production, as well as for many crops. Depending on the intensity of drought stress and the plant growth stage, maize yield losses range from 30 to 90%. A stress has a powerful impact in plant developing processes, especially at the flowering and grain-filling stages. Therefore, obtaining drought-resistant maize lines and varieties is vital for agriculture in water-deficit conditions. Here, we describe our studies on improving drought tolerance via Agrobacterium-mediated transformation into maize cells of a CRISPR/Cas9 genetic construct based on the maize drought-resistant gene *ZmESK1*.

Keywords: maize, drought, Agrobacterium-mediated transformation, CRISPR/Cas9.

Kirish

Makkajo'xori butun dunyo bo'ylab 900 milliondan ortiq odam uchun asosiy oziq-ovqat hisoblanadi [1]. U sholi va bug'doydan keyin uchinchi o'rinda turuvchi eng muhim kaloriya manbaidir. Xitoy va Hindiston kabi bir qator yirik guruch ishlab chiqaruvchi davlatlarda ishlab chiqarishning kamayishi, sut mahsulotlari va go'shtga bo'lgan talabning ortishi bilan makkajo'xoriga global talab 2050 yilga kelib ikki baravar oshishi kutilmoqda [2].

Har yili makkajo'xori donining taxminan 15% dan 20% gacha qismi qurg'oqchilik tufayli kamayadi va bunday yo'qotishlar global iqlim o'zgarishi tufayli yanada ortishi mumkin. So'ngi besh yilda qurg'oqchilik natijasida makkajo'xori hosilining yo'qolishi tufayli rivojlanayotgan mamlakatlar 29 milliard AQSH dollarigacha daromad yo'qotgan [3; 4]. Yillik yog'in miqdori, taqsimoti va vaqtining o'zgarishi, shuningdek, yer shari haroratining yil sayin oshishi makkajo'xori yetishtirishni yanada

beqarorlashtirmoqda [5;6]. Bunga rivojlanayotgan mamlakatlarda sug'orishni kengaytirish uchun imkoniyat va resurslar cheklanganligi ham kuchli ta'sir o'tkazmoqda [7]. Qurg'oqchilikka chidamlilikni yaxshilash va hosil sifati va miqdorining barqarorligini ta'minlash uchun zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish global ishlab chiqarishni barqarorlashtirishning muhim qismidir. Shu sababli qurg'oqchilik stressiga chidamliligi va suvdan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lgan makkajo'xori navlarini ishlab chiqish ham xususiy, ham davlat sektorida yirik naslchilik dasturlari uchun ustuvor vazifaga aylandi.

Adabiyotlar tahlili

Qurg'oqchilikka chidamli ekinlarni barqaror yetishtirish ko'proq oziq-ovqat va yoqilg'iga muhtoj bo'lgan o'sib borayotgan insoniyat talabini qondirishning bir usuli hisoblanadi. Qurg'oqchilikka chidamlilik asosidagi fiziologik jarayonlar hamda metabolitik tarmoqlar murakkab va ko'pincha ularni aniqlash qiyin [8; 9]. So'ngi yillarda makkajo'xorining qurg'oqchilik sharoitidagi morfo-biologik hamda molekulyar o'zgarishlarini tadqiq qilishga oid bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, Habben va boshqalarning tadqiqotlari natijisida, transgen makkajo'xori o'simliklarida 1-aminotsiklopropan-1-karboksil kislotasi sintaza 6 genining faoliyatini to'xtatish tufayli etilen biosintezini kamaytirish qurg'oqchilik stressi sharoitida don hosilini yaxshilashi aniqlandi [10]. Shi va boshqalar makkajo'xorining etilenga sezgirlikni pasaytirish orqali ham stress sharoitida yuqori hosilga erishish mumkinligi tajribalar asosida ko'rsatib berdi [11]. Shuningdek, Shi va boshqalar hamda Guo va boshqalarning tadqiqotlari etilen signalining uzatilishini modulyatsiya qiluvchi va etilen reaksiyasining salbiy regulyatorlari hisoblangan ARGOS genlarini ekspressiyasini ortishi transgen makkajo'xori o'simliklarida qurg'oqchilikka chidamlilikni yaxshilashini ko'rsatdi [11;12].

Transgen yondashuvdan tashqari, don hosildorligini oshirish uchun makkajo'xori yetishtirish dasturlarida qurg'oqchilikka chidamlilikka ta'sir qiluvchi xususiyatlarning tabiiy genetik o'zgarishi ham qo'llanilgan. Aniq fenotiplash va molekulyar markerlarni qo'llash, shuningdek miqdoriy belgilarning genetik arxitekturasini tushunish orqali makkajo'xori seleksionerlari qurg'oqchilik sharoitida g'alla hosildorligi oshgan duragaylarni (AQUAmax) ishlab chiqdilar [13;14]. Ushbu duragaylardagi qurg'oqchilikka chidamlilik alohida kichik ta'sirga ega bo'lgan bir nechta genlar tomonidan boshqariladi. Ehtimol, ushbu asosiy genlarning ba'zilar kattaroq ta'sir ko'rsatishi uchun yangi allellarni aniqlashda o'zgartirilishi va seleksiya jarayonini kuchaytirishi mumkin. Biroq, yaqin vaqtgacha fizik yoki kimyoviy ta'sirlar sabab bo'lgan mutagenез bilan bunday allel o'zgaruvchanlikni yaratish tasodifiy jarayon bo'lib, maqsadli lokusda mo'ljallangan DNK ketma-ketligini

o'zgartirishni qiyinlashtirdi. So'nggi bir necha yil ichida DNK ketma-ketligini tez va aniq manipulyatsiya qilish imkonini beruvchi va asosiy genlarni tabiiy xromosoma kontekstida tahrirlash orqali qurg'oqchilikka chidamli germoplazmani rivojlantirish uchun zamin yaratadigan samarali genomni tahrirlash texnologiyalari paydo bo'ldi.

O'simliklardagi aniq molekulyar genetik o'zgarishlarni vujudga keltirishda meganukleazalar, ruh-barmoq nukleazalari (ZFN), transkripsiya faollashtiruvchisiga o'xshash effektor nukleazalar (TALEN) va klasterlangan muntazam intervalli qisqa polindromik takrorlar (CRISPR) kabi genomni tahrirlash vositalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan samarali qo'llanilgan [15; 16; 17; 18]. Bular orasida CRISPR-Cas9 tizimi qo'llanilishi eng oson va yuqori samarali hisoblanadi. Tizim *Streptococcus pyogenes* dan olingan Cas9 endonukleazasi va Cas9 ni genomdagi maqsadli DNK ketma-ketligiga yo'naltiruvchi ximerik yagona yo'naltiruvchi RNKdan iborat. CRISPR-Cas9 genomini tahrirlash Cas9 orqali maqsadli lokusda DNKning ikki zanjirli uzilishini kiritish, so'ngra endogen noaniq gomologik bo'lmagan so'nggi birlashma (NHEJ) yoki yuqori aniqlikdagi gomologiyaga yo'naltirilgan tuzatish (HDR) orqali DNKni ta'mirlash yo'llari orqali amalga oshiriladi. Tizim makkajo'xori, bug'doy, guruch va soya kabi asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan [19; 20; 21; 22; 23; 24; 25; 26; 27; 28; 29; 30]. Ma'lum makkajo'xori tarkibida endogen ARGOS8 mRNK ekspressiyasi nisbatan past. Transgen o'simliklarda ARGOS8 ning haddan tashqari ko'p ekspressiyalanishi qurg'oqchilik stressi sharoitida hosildorlikni oshiradi [11].

It was observed that the amount of MDA in maple leaves growing near the highway was significantly different from that in botanical garden plants. At the beginning of the season, the amount of MDA was $10 \mu\text{mol/g}$ relative to the dry mass. In July, the figure rose to 50%. By August, the amount of MDA was observed to increase 2,7 times compared to the beginning of the season ($27 \mu\text{mol/g}$ dry mass).

That is, the difference between the amount of MDA in maple leaves growing in the trunk conditions of the botanical garden was 11%. To evaluate the activity of the antioxidant system (AOS), the ratio of MDA numbers in the summer months was calculated, which showed that the figure was different in both cases, but in the botanical garden this figure was much lower and the antioxidant system activity of maple under additional anthropogenic stress was almost 6 times higher (Figure 2).




Figure 2. Dynamics of accumulation of MDA in *Platanus orientalis* leaves in the Botanical Garden and on the automagistrale (at the beginning of the season, the amount of MDA was taken as 0; $n = 20$; $p < 0.05$)

Conclusions

Findings indicate that additional stress in the form of a busy highway intersection and, consequently, air pollution by exhaust gases, leads to the development of more pronounced oxidative stress. The *Platanus orientalis* to high temperatures and anthropogenic impacts is associated with various physiological, biochemical, and molecular genetic mechanisms, among which the activation of AOS activity plays an important role. Based on our data, it can be assumed that the implementation of the protective effect of the antioxidant system under the influence of stress factors on ornamental plant species requires the activation of several or more antioxidant reactions. In this case, the selectivity in activating specific biochemical reactions that protect from oxidative stress is determined not only by the constitutional characteristics of the plant species but also by the nature of the stressor acting.

References

1. Heath R.L., Packer L. Photoperoxidation in isolated chloroplast I. Kinetics and stoichiometry of fatty acid peroxidation. // Arch Biochem Biophys. 1968;125:189–198. DOI: 10.1016/0003-9861(68)90654-1.
2. Kavi Kishor P.B., Sangam S., Amrutha R. N., Laxmi P. S., Naidu K. R., Rao K. R. S. S., Rao S., Reddy K.J., Theriappan P., Sreenivasulu N. Regulation of proline biosynthesis, degradation, uptake and transport in higher plants: Its implications in plant growth and abiotic stress tolerance // Curr. Sci. – 2005. – Vol.88. – P. 424-438.
3. Kirillov A.F., Kozmik R.A., Daskalyuk A.P., Kuznetsova N.A., Xarchuk O.A. Assessment of the content of sprouts in the plants during the dry season. // Reports on ecological soil science 2013, №1.
4. Shixaleeva G.N., Budnyak A.K., Shixaleev I.I., Ivashchenko O.L. Modified method of determining the width of plant objects // Bulletin of Kharkov National University. Series: biology.- 2014. - Vyp. 21.- № 1112.- p. 168-172.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Djambilov Bekzod Xamitovich
Sam.DVMCHBU, dotsent
E-mail: djambilov.bekzod@gmail.com

UO'T:636.39.035:57.041

ORENBURG ZOTLI ULOQLARDA JINSIY DIMORFIZMGA BOG'LIQ AYRIM KLINIK KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqola yurtimizga chetdan keltirilgan oq tusli orenburg tivot echkilarining ayrim klinik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Bunda ilk bor birinchi tug'imda olingan uloqlarning turli jins bo'yicha klinik ko'rsatkichlari dinamikasi postembrional davrning sut emish bosqichigacha o'zaro taqqoslanib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: echkichilik, orenburg zoti, puls, pspiratsiya, temperatura.

Джамбиллов Бекзод Хамитович
Сам.ГУВМЖБ, доцент

ДИНАМИКА НЕКОТОРЫХ КЛИНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОЗЛЯТ ОРЕНБУРГСКОЙ ПОРОДЫ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПОЛОВОГО ДИМОРФИЗМА

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые клинические показатели коз оренбургской белой породы, завезенных в нашу страну из-за рубежа. В статье впервые изучена и проанализирована динамика клинических показателей козлят разного пола в постэмбриональный период до отъема, полученных от первого ягнения.

Ключевые слова: козоводство, оренбургская порода, пульс, дыхание, температура.

Djambilov Bekzod Khamitovich
Sam.SUVMLB, assistant professor

DYNAMICS OF SOME CLINICAL INDICATORS OF ORENBURG BREED KIDS DEPENDING ON SEXUAL DIMORPHISM

Abstract. This article examines some clinical indicators of Orenburg white goats imported to our country from abroad. The article is the first to examine and analyze the dynamics of clinical indicators of kids of different sexes in the postembryonic period to the weaning stage, obtained from the first lambing.

Keywords: goat breeding, Orenburg breed, pulse, respiration, temperature.

Kirish

Echkilarning o'ziga xos bo'lgan bir qancha biologik xususiyatlari mavjud. Xususan, echkilarda katta guruh (otar) holatida yashash fe'l-atvori shakllangan bo'lib, ularni yaylovlarda boqishni ancha engillashtiradi. Echkilar otariga yilqilar uyuri va qoramollar podasiga nisbatan kamroq cho'pon talab etiladi. Bundan tashqari echkilar yuqori tepaliklarda, alohida otar holida bo'lishni maqul ko'rishadi; echkilar tashqi haroratning to'satdan o'zgarishiga juda ta'sirchan bo'ladi; namligi yuqori bo'lgan yaylovlarda saqlash ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki echkilar tuyoq kasalliklariga moyil bo'ladi.

Yaxshi iqlimlashishi. Juda ko'p zotdor echkilar har qanday iqlim sharoitida muvaffaqiyatli urchiydi. Echkilarning cho'l, tog' va tog' oldi yaylovlari ozuqasi va

iqlimiga hamda turg'un va yarim turg'un holda saqlash sharoitiga yaxshi moslashishi ularning dunyo mintaqalari bo'ylab keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Adaptatsiya deganda hayvonlarning turli xil tashqi muhit sharoitiga (tabiiy, iqlim, ozuqa va boshqa) moslashuvchanlik xususiyati tushuniladi. Echkilarda bu xususiyatning yaxshi rivojlanganligi sababli va urchitilayotgan joyda ko'p tarqalgan o'simliklardan oziqlanishga tez moslashuvchanligi ularning hayotchanligini ta'minlaydi. Echkilarni urchitish uchun tanlashda ularning shu hududga moslashuvchanlik xususiyatini inobatga olish lozim, chunki bu xususiyat turli zotlarda turlicha bo'ladi.

Adabiyotlar Tahlili

Orenburg echkilariga kuchli shamollar, qattiq sovuqlar va Orenburg viloyatining keskin kontinental

iqlimi bilan bog'liq issiq, quruq yoz kabi tabiiy o'ziga xos sharoitlar ta'sir ko'rsatgan. Bu echkilar boshqa echkilardan o'zining uzun, mayin, ingichka tivit mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ular boshqa tivit yo'nalishidagi echkilarga nisbatan jussasi yirikroqdir [8].

Yurtimizda tivit yo'nalishidagi echkichilikni rivojlantirish va momiq jun ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida orenburg, angor echki zotlari chetdan olib kelinmoqda. Ammo xorijdan import qilingan tivit yo'nalishidagi echkichilikning yangi ekologik sharoitidagi o'sish, rivojlanish va mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar esa deyarli yo'q. Shuning uchun ham chetdan keltirilgan orenburg zotli echkilarda jinsiy dimorfizm va unga bog'liq bo'lgan tirik vaznining turli yosh davrlarida qanday o'zgarishini aniqlash, echkilarning yangi ekologik muhitda qanday o'sib moslashayotgani to'g'risida daslabki fikr yuritish imkonini beradi.

Barcha qishloq xo'jaligi hayvonlarida normal fiziologik jarayonlar va metabolizm uchun organizmning klinik ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liq. Klinik ko'rsatkichlarini bilish orqali hayvonlarning sog'lig'i, odatdagi xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni, mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Tana harorati, yurak pulsi, respiratsiya chastotalariga yuz beradigan patologik o'zgarishlar echkilarning umumiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday salbiy belgilarga otardagi hayvonlardan ortda qolish, o'zining xatti-harakatlarida g'ayritabiiy tutishi, yetarli miqdorda oziqlanmaslik, yakka holda qolib ketish, anormal ovoz chiqarish, depressiya va boshqa belgilar kuzatiladi [2].

Ko'plab ilmiy manbalarda echkilarning normal tana harorati 38,7- 40,5 °C, yurak pulsi 70-100 marta/min, respitatsiya chastotasi esa 15-30 marta/min oralig'ida bo'lishi qayd etilgan [1,3,4,6].

Tana haroratining doimiy holda saqlab turilishi izotermiya deb ataladi. Sutemizuvchilar va qushlar sinfi vakillari tana harorati izotermik bo'lgan hayvonlar hisoblanadi. Echkilar ham zoologik klassifikatsiyaga ko'ra sutemizuvchilar sinfiga mansub bo'lgan issiq qonli (gomoyoterm) hayvondir. Ammo hayvon organizmida Issiqlikning hosil bo'lishi bilan bir vaqtda uning atrof-muhitga uzluksiz uzatilishi ham sodir bo'ladi. Shunga qaramasdan hayotiy jarayonlar uchun kerakli bo'lgan tana haroratini ma'lum darajada atrof-muhit haroratidan qat'iy nazar termoregulyatsiya (kimyoviy va fizik) mexanizmlari orqali boshqarib turiladi. Gomoyoterm hayvonlarining tana izotermiyasi issiq va sovuq tashqi muhitning ma'lum bir chegarasidagina saqlab turiladi. Haddan tashqari past yoki haddan tashqari yuqori muhit haroratida himoya termoregulyatsiya mexanizmlari yetarli boshqara olmaydi. Natijada gomoyotermli hayvonlarda tana harorati mos ravishda pasayadi yoki ko'tariladi [5].

Echkilarning yangi iqlim sharoitida urchitish ularning mahsuldorligidan ko'ra dastlab klinik

ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Shuning uchun ham chetdan keltirilib, urchitilayotgan tivit echkilarining klinik ko'rsatkichlari yangi sharoitda fiziologik me'yorga nisbatan qanday o'zgarishini bilish muhim fiziologik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Tadqiqotlar Navoiy viloyati Nurota tumani Temirqovuq qishlog'ida "Nurota qorako'l naslchilik" MCHJ da urchitilayotgan tivit yo'nalishidagi orenburg zotli echki uloqlari ustida o'tkazildi. Bunda birinchi marta bolalagan echkilardan olingan uloqlardan foydalanildi. Tajribada uchta guruh shakllantirilib birinchi guruhga erkak jinsli uloqlar (takacha), ikkinchi guruhga urg'ochi uloqlar (tuvcha), uchinchi guruhga axtalangan uloqlar (sarka) kiritildi. Vaziktomiya bir oylik erkak uloqlarda ochiq qonli usulda amalga oshirildi. Har bir guruhga 20 boshdan uloqlar tanlandi. Uloqlarning jinsiy dimorfizimga bog'liq bo'lgan ayrim klinik ko'rsatkichlaridan yurak urushi (*puls*), nafas olish chastotasi (*respiratsiya*), tana (*rektal*) harorati postembrional davrning sut emish bosqichidagi dinamikasi o'rganildi. Bunda nafas olish chastotasi qorin bo'shlig'ining kengayib qisqarishi orqali vizual holda, yurak pulsi fonendoskop orqali eshitildi. Har bir bosh uloqdan nafas olishi va yurak pulsi 10; 15 soniyalarda sanaldi. Olingan ko'rsatkichlar bir daqiqaga mos holda ekvivalentlashtirildi. Tana harorati simobli termometr bilan 0,1 °C aniqlikda to'g'ri ichakdan o'lchandi. Klinik ko'rsatkichlar uloqlarning tug'ilganda, bir oylik va to'rt oylik yoshligida olindi. Olingan raqamli ma'lumotlarga matematik-statistik uslubida qayta ishlov berilib: o'rtacha arifmetik qiymat – \bar{X} , o'zgaruvchanlik koeffitsienti – $C_v\%$, o'rtacha arifmetik qiymatning xatosi – S_x , ko'p uchraydigan chastota – M_0 , guruhlar o'rtasida farqlanishning ishonchlilik mezonini – P Microsoft Office Excel 2007 kompyuter dasturi yordamida tegishli formulalar orqali hisoblab chiqildi [7].

Tahlillar va natijalar

Tadqiqotlar davomida turli jins va yoshdagi orenburg zotli uloqlarning dastlabki postembrional bosqichida aniqlangan ayrim klinik ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha olingan raqamli ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda havola etilgan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki uloqlarning klinik ko'rsatkichlari postembrional davrda jins va yoshga bog'liq holda bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Xususan tug'ilgan paytdagi uloqlarning yurak qisqarish chastotasi erkak jinsli uloqlarda o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi 175,30 marta/min ni tashkil etib, urg'ochi jinsdagi tengqur uloqlarda 179,35 marta/min ga to'g'ri keldi. Guruhlar orasidagi farq $4,05 \pm 1,80$ marta/min ($P < 0,05$) bilan urg'ochi jinsdagi uloqlar pulsi nisbatan yuqori holda bo'lishini ko'rsatdi. Nafas olish (*respiratsiya*) chastota bo'yicha ham urg'ochi jinsdagi uloqlar erkak jinsdagi tengqurlaridan $1,90 \pm 0,89$ ($P < 0,05$) chastota ortiq bo'ldi. Uloqlardan o'lchangan o'rtacha rektal tana harorati erkak va urg'ochi jinsli uloqlarda mos holda

38,62 va 39,70 °C ga to'g'ri keldi. Tug'ilgan paytda ham rektal harorat nisbatan urg'ochi jinsli uloqlarda yuqori bo'lsada, orada ishonchli farqlanish ($P \neq 0,05$) aniqlanmadi.

1-jadval

Orenburg uloqlarining jinsiy dimorfizmga bog'liq ayrim klinik ko'rsatkichlari dinamikasi

Yosh i, oy	n-20								
	♂			♀			Sarka		
	$\bar{X} \pm S_x$	Mo	Cv%	$\bar{X} \pm S_x$	Mo	Cv%	$\bar{X} \pm S_x$	Mo	Cv%
Yurak urishi, marta/min									
0	175,30±1,29	173	3,30	179,35±1,25*	175	3,11	-	-	-
1	152,35±1,06	156	3,11	154,35±1,01	151	2,94	152,75±1,08	151	3,16
4	114,70±0,76	113	2,85	116,60±0,85	118	3,27	116,75±0,81	120	3,11
Nafas olish, marta/min									
0	72,20±0,68	72	3,93	74,10±0,58*	72	3,50	-	-	-
1	63,40±0,50	65	3,52	65,35±0,55*	65	3,79	63,15±0,52	65	3,68
4	47,55±0,39	48	3,70	48,15±0,51	48	4,74	47,20±0,48	48	4,54
Temperatura, °C									
0	38,62±0,11	38,3	1,24	38,70±0,09	39,1	1,07	-	-	-
1	39,10±0,10	38,7	1,10	39,29±0,08	39,2	0,87	39,18±0,09	39,0	1,04
4	39,70±0,10	39,5	1,08	39,93±0,10	39,6	1,07	39,90±0,09	39,5	1,05

Izoh : *-($P < 0,05$)

Uloqlarning bir oylik yoshida axtalangan uloqlar guruhi ham shakllantirilib, ularning klinik ko'rsatkichlari har uchala guruh bo'yicha o'zaro taqqoslandi. Mazkur yoshda klinik ko'rsatkichlaridan yurak pulsi va respiratsiya chastotasining kamayishi, rektal haroratning ko'tarilganligi kuzatildi. Jumladan, erkak jinsli uloqlarning yurak qisqarish chastotasining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi 152,35 marta/min ni, urg'ochi jinsdagi uloqlarda 154,35 marta/min ga to'g'ri keldi. Axtalangan erkak uloqlar guruhida bu ko'rsatkich 152,75 marta/min ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizmga ko'ra yurak pulsi bo'yicha guruhlar o'rtasida urg'ochi uloqlar ustunlik qilgan bo'lsada ishonchli farq kuzatilmadi.


Biroq uloqlarning klinik ko'rsatkichlari tug'ilgan paytga nisbatan ishonch kriteriyasi darajasida o'zgarganligi aniqlandi. Xususan, erkak jinsli uloqlar yurak pulsi o'rtacha 22,95 marta/min ($P < 0,001$), urg'ochi jinsdagi uloqlar esa 25,00 marta/min ($P < 0,001$) kamayganligi aniqlandi. Respiratsiya chastotasi bo'yicha olingan raqamli ma'lumotlar ham urg'ochi jinsli uloqlar o'z tengqurlaridan ishonchli mezon darajasida farqlanishini ko'rsatdi. Jumladan, urg'ochi jinsli uloqlarda respiratsiya chastotasining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi 65,35 marta/min, erkak uloqlar guruhida 63,40 marta/min,

axtalangan uloqlar guruhida esa 63,15 marta/min ga to'g'ri keldi. Mazkur respiratsiya chastotasi ko'rsatkichi bo'yicha urg'ochi uloqlar erkak va axtalangan uloqlardan mos holda 1,95±0,74 marta/min ($P < 0,05$) va 2,20±0,76 marta/min ($P < 0,01$) ga yuqori ekanligi qayd etildi. Shuningdek, respiratsiya chastotasi tug'ilgan paytga nisbatan erkak uloqlarda 8,80±0,84 marta/min ($P < 0,001$), urg'ochi uloqlarda esa 8,75±0,80 marta/min ($P < 0,001$) ga kamayishi kuzatildi. Uloqlarning bir oylik yoshdagi o'rtacha rektal tana harorati erkak, urg'ochi va axtalangan uloqlarda mos ravishda 39,10; 39,29; 39,18 °C ni tashkil etdi. Tana harorati nisbatan urg'ochi jinsli uloqlarda yuqori bo'lsada, guruhlar bo'yicha ishonchli farqlanish ($P \neq 0,05$) kuzatilmadi. Biroq, tug'ilgan paytga nisbatan tana harorati erkak uloqlarda 0,48±0,15 °C ($P < 0,01$) ga, urg'ochi uloqlarda bo'lsa 0,59±0,12 °C ($P < 0,001$) ko'tarilganligi aniqlandi.

Uloqlarning sut emish davri odatda 4-4,5 oylik yoshigacha davom etadi. So'ng odatda ona echki emizmay qo'yadi, yoki aksincha uloq emmaydi. Uloqlar mustaqil bo'la boshlaydi. Tadqiqotlar davomida orenburg zotli uloqlarning postembrional davrda sut emish davri 4 oylik yoshgacha davom etib, jinsiy dimorfizmga ko'ra klinik ko'rsatkichlari aniqlandi. Mazkur yoshda ham klinik ko'rsatkichlaridan yurak pulsi va respiratsiya


chastotasining kamayishi, rektal haroratning esa ko'tarilganligi kuzatildi. Bunda, erkak jinsli uloqlarda yurak qisqarish chastotasining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi 114,70 marta/min ni, urg'ochi jinsdagi uloqlarda 116,60 marta/min ni, axtalangan erkak uloqlar guruhida esa 116,75 marta/min ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo'yicha yurak pulsining nisbatan yuqori ko'rsatkichi axtalangan erkak uloqlar guruhida qayd etilgan bo'lsada, guruhlararo ishonchli farqlanish aniqlanmadi. Ammo uloqlarning klinik ko'rsatkichlari bir oylik yoshga nisbatan ishonch kriteriyasi darajasida o'zgarganligi qayd etildi. Jumladan, erkak jinsli uloqlar yurak pulsi o'rtacha 28,87 marta/min ($P < 0,001$), urg'ochi jinsdagi uloqlar esa 28,60 marta/min ($P < 0,001$), axtalangan uloqlar guruhida esa 26,67 marta/min ($P < 0,001$) ga kamayganligi aniqlandi. Huddi shunday tendensiya respiratsiya chastotasi bo'yicha olingan raqamli ma'lumotlarda ham kuzatildi. Ya'ni, jinsiy dimorfizm bo'yicha respiratsiya chastotasi guruhlararo bir-biridan ishonchlik kriteriyasi bo'yicha farqlanmay, guruhlar bo'yicha mos ketma-ketlikda 47,55; 48,15; 47,20 marta/min ga to'g'ri keldi. Shuningdek, respiratsiya chastotasi ko'rsatkichida ham bir oylik yoshga nisbatan ishonch kriteriyasi darajasida kamayganligi aniqlandi. Xususan, erkak uloqlarda $15,85 \pm 0,63$ marta/min ($P < 0,001$), urg'ochi uloqlarda $17,72 \pm 0,75$ marta/min ($P < 0,001$), axtalangan uloqlarda esa $15,95 \pm 0,71$ marta/min ($P < 0,001$), ga kamayganligi aniqlandi. Tajribadagi uloqlarning 4 oylik yoshdagi aniqlangan o'rtacha rektal tana harorati erkak, urg'ochi va axtalangan uloqlar guruhida mos ravishda 39,70; 39,93; 39,90 °C ga to'g'ri keldi. Mazkur yoshda ham tana harorati nisbatan urg'ochi jinsli uloqlarda yuqori ekanligini ko'rsatsada, erkak va axtalangan uloqlar guruhlaridan ishonchli farqlanishini ($P \neq 0,05$) ko'rsatmadi. Biroq, bir oylik yoshga nisbatan rektal tana harorati erkak uloqlarda $0,60 \pm 0,14$ °C ($P < 0,001$) ga, urg'ochi uloqlarda $0,64 \pm 0,13$ °C ($P < 0,001$) ga, axtalangan uloqlar guruhida esa $0,72 \pm 0,13$ °C ($P < 0,001$) ga ko'tarilganligi kuzatildi.

Tajribalar davomida uloqlarning postembrional davrdagi klinik ko'rsatkichlari dinamikasi to'liqroq tushinish uchun kompyuter dasturi yordamida olingan raqamli ko'rsatkichlarning moda (M_o) qiymati ham aniqlandi. Moda deganda variatsiyalanayotgan (bizning tadqiqotimizda yurak pulsi, respiratsiya chastotasi va rektal tana harorati) belgilar ichida eng ko'p takrorlanadigan ko'rsatkich nazarda tutiladi. Moda o'rtacha arifmetik qiymatiga nisbatan belgilarni yanada aniqroq ifodalaydi. Orenburg zotli uloqlarda postembrional davrning sut emish bosqichigacha yurak pulsi, respiratsiya chastotasi va rektal tana harorati kabi klinik ko'rsatkich belgilarining yosh kesimlari bo'yicha moda qiymati 1-2-3-rasmlarda keltirilgan.




1-rasm. Turli jins va yoshdagi orenburg zotli uloqlarning yurak pulsi dinamikasi

Mazkur rasmdagi gistogrammadan ko'rish mumkinki, uloqlarda turli jins va yosh davrlari bo'yicha yurak pulsining moda qiymati o'rtacha arifmetik qiymatidan farq qildi. Erkak jinsli uloqlarda yosh davrlari bo'yicha yurak pulsining 173; 156; 113; urg'ochi uloqlarda 175; 151; 118; sarkalarda 151; 120 ko'rsatkichlari variantlar ichida ko'p takrorlandi.



2-rasm. Turli jins va yoshdagi orenburg zotli uloqlarning respiratsiya chastotasi dinamikasi

Tajribadagi uloqlarning respiratsiya chastotasi dinamikasi yosh davrlariga ko'ra takrorlangan chastotalari bir xil ko'rsatkichga ega bo'lib, guruhlar bo'yicha bir-biridan farqlanmadi.



3-rasm. Turli jins va yoshdagi orenburg zotli uloqlarning rektal tana harorati dinamikasi

Yosh davrlari bo'yicha variantlar orasida ko'p takrorlangan yuqori rektal temperatura erkak jinsli uloqlarda guruhida mos ravishda 38,3; 38,7; 39,5 °C, urg'ochi uloqlar guruhida 39,1; 39,2; 39,6 °C, sarkalar guruhida esa 39,0; 39,5 °C ko'rsatkichlari variantlar ichida ko'p takrorlandi.

Xulosalar

Tadqiqotlar davomida orenburg zotli tivit echkilarning dastlabki postembrional davrda o'rganilgan ayrim klinik ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, yosh kesimi

davomida puls va respiratsiya chastotasi kamayib boradi. Jinsiy dimorfizm bo'yicha urg'ochi jins uloqlar klinik ko'rsatkichlari bo'yicha nisbatan yuqori bo'lsada, sut davrida bu tafovut o'rtasida ishonchli farqlanish saqlanib

qolmadi. Shuningdek erkak uloqlarni vaziktomiya qilish ularning klinik ko'rsatkichlariga ta'sir etmasligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bianca W. Kunz, P. Hellmann, U. Einige physiologische Normalwerte von Ziegen. Schweiz. Arch. Tierheilk. 119, - S. 197-199.
2. Emily Litzow, Nick van den Berg and Barton Loeche. Goat Diseases. The Farmers' Guide. September 2021. -101 p.
3. Febretrisiana A., Anwar A., Alwiyah A., and etc. Physiological response of dairy goats in tropical climates: A study in Tadukan Raga Village, Deli Serdang Regency, North Sumatra. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1001 (2022) 012022. – P.1-5.
4. Peter G.G. Jackson, Peter D. Cockcroft. Clinical Examination of Farm Animals. Copyright © 2002 by Blackwell Science Ltd. -301 pp.
5. Владимиров И.П., Зотин А.Я. Кривые терморегуляции и определяющие их факторы. Ж: Успехи физиол. наук. №2|0 (3) 1989. – С. 21-42.
6. Чамурлиев Н. Г., Шперов А. С., Зыкова А.А., Шенгелия И. С. Клинико-морфологические показатели коз зааненской и англо-нубийской пород при их адаптации к условиям нижнего Поволжья. Известия Нижневолжского Агроуниверситетского Комплекса: Наука и высшее профессиональное образование. № 1 (61), 2021. – С. 1-10.
7. Яковлев В.Б., Щеглов Е.В. Биометрические расчеты в табличном процессоре Microsoft Excel. Учебное пособие. Москва 2004. – 204 с
8. <https://orenblog.ru/archives/158>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Komilov Doniyor Jo'rayevich
Abduraxmonova Muxlisa Raxmiddin qizi
Mirzaolimov Sherzodbek Mirzavaliyevich
Namangan davlat universiteti
Email: dkomilov81@mail.ru

G'O'ZANING MORFOBIOLOGIK HAMDA XO'JALIK BELGILARINING IRSIYLANISHINI STATISTIK TAXLILI

Annotatsiya: Ushbu maqoladagi tadqiqot ishlarida el-salvador yovvoyi shakli bilan Ko'paysin navini o'zaro chatishtirib olingan F1 va F2 avlod duragaylarida morfobiologik hamda ba'zi xo'jalik ahamiyatdagi belgilar o'rganilgan. Bundan tashqari, molekular markerlardan foydalanib ota-ona namunalari o'rtasidagi genetik xilma-xillik polimorfizm asosida o'rganilgan.

Tayanch so'z va iboralar: G'o'za, morfobiologik, molekular marker, el-salvador, duragay, kombinatsiya, genetik, polimorfizm, *G. hirsutum ssp. Purpurascens*, F1, F2, seleksiya.

Комилов Донёр Джораевич
Абдурахманова Мухлиса Рахмиддин кизи
Мирзаолимов Шерзотбек Мирзавалиевич
Наманганский государственный университет

СТАТИСТИКОЙ АНАЛИЗ НАСЛЕДОВАНИЯ MORFOBIOLOGICHESKIX I XOZYAYSTVENNYX ПРИЗНАКОВ ХЛОПКА

Аннотация: В научно-исследовательских работах данной статьи изучены морфобиологические и некоторые хозяйственно важные признаки гибридных комбинаций поколения F2, полученных путем скрещивания дикой формы Сальвадор и сорта Копайсин. Кроме того, генетическое разнообразие между родительскими образцами изучалось на основе полиморфизма с использованием молекулярных маркеров.

Ключевые слова и фразы: Хлопок, морфобиологический, молекулярный маркер, Сальвадор, гибрид, комбинация, генетический, полиморфизм, *G. hirsutum ssp. Purpurascens*, F1, F2, селекция.

Komilov Doniyor Jo'rayevich
Abduraxmonova Muxlisa Raxmiddin qizi
Mirzaolimov Sherzodbek Mirzavaliyevich
Namangan State University

STATISTICAL ANALYSIS OF INHERITANCE OF MORPHOBIOLOGICAL AND ECONOMIC CHARACTERS OF COTTON

Abstract: In the research works of this article, the morphobiological and some economically important traits were studied in the hybrid combinations of the F2 generation obtained by cross-breeding the El Salvador wild form and the Kopaysin variety. In addition, genetic diversity between parental samples was studied based on polymorphism using molecular markers.

Key words and phrases: Cotton, morphobiological, molecular marker, El Salvador, hybrid, combination, genetic, polymorphism, *G. hirsutum ssp. Purpurascens*, F1, F2, selection.

Kirish

To'qimachilik sanoati va fermer xo'jaliklarining barcha talablariga javob bera oladigan tola sifati yuqori, serhosil, turli kasallik va zararkunandalarga chidamli g'o'za navlarini yaratish va uni yanada takomillashtirish

mamlakatimiz seleksionerlarining asosiy maqsadiga aylangan.

Dunyo g'o'za genofondi yovvoyi va yarim yovvoyi turlar potensialidan foydalanish yuqoridagi kabi maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yovvoyi g'o'za shakllarida kasallik va

zararkunandalarga chidamlilik, sho'rlangan yerlarda hamda suv tanqisligiga bardoshlilik kabi qimmatli xo'jalik belgilari bor. Qolaversa, yaratilayotgan navdagi belgi va xususiyatlarning mukammal bo'lishida duragaylash kombinatsiyasiga jalb etiladigan boshlang'ich manbalarni to'g'ri tanlash muhim o'rin tutadi. Bu esa o'z navbatida, g'o'zaning dunyo genofondi keng xilma-xilliklari hamda yovvoyi va yarim yovvoyi turlar potensialidan yangi, mahsuldor navlarning yaratilishida samarali foydalanish lozimligini ko'rsatadi


Bunday foydali xususiyatlarni o'zida mujassam etgan yovvoyi tur va shakllarning ko'pchiligi fotoperiodizmga tabiatan o'ta ta'sirchan ya'ni, qisqa kun o'simliklari hisoblanadi. Shu sababli ham ulardan seleksiya tadbirlarida foydalanish imkoniyati chegaralangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur tadqiqotlar *G.hirsutum ssp. purpurascens var. el-salvador* yovvoyi shakli morfobiologik xususiyatlarini o'rganish va kelgusida uning qimmatli xo'jalik belgilaridan yangi navlar yaratish yo'lida foydalanish maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari asosida g'o'zaning ba'zi morfobiologik belgilarini yuzaga chiqishida ishtirok etuvchi QTL lokuslarini (genetik markerlarni) identifikatsiya qilish imkoniyati tug'iladi. Aniqlangan genetik markerlar yovvoyi g'o'za germoplazmasidan seleksiya jarayonlarida foydalanish va ulardagi noyob genlarni mavjud g'o'za navlariga introgressiya qilishda asosiy instrument sifatida qo'llanilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad g'o'za genofondi yovvoyi xilma-xilliklarini seleksiya jarayonlariga jalb qilish, ularning morfobiologik hamda qimmatli xo'jalik belgilarining irsiylanishini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot natijalari:

Fenotipik kuzatuvlar natijasida ota-ona namunalari hamda F1 va F2 avlod duragaylarining o'rtacha ko'rsatkichlari



1-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "o'simlik balandligi" belgisining irsiylanishi

Tadqiqot ishlarida el-salvador yovvoyi shakli bilan Ko'paysin navini o'zaro chatishtirib olingan F1 va F2 avlod duragaydarining bo'yi sm larda o'lchandi. Natijada ota-ona, yani 175 sm li el-salvador yovvoyi shakli bilan 80 sm li Ko'paysin navini o'zaro chatishtirish natijasida olingan F1 duragaydarining bo'yi 120 sm ni, F2 avlod

duragaydarining bo'yi yesa o'rtacha 110 sm ni tashkil yetdi. Tajriba tahlillariga ko'ra ikkinchi avlod duragaylarida o'simlik bo'yi ota-ona namunalari nisbatan oraliq holda irsiyanganligi aniklandi.


1-Jadval

№	O'rganilgan o'simliklar soni	O'simliklar bo'yi balandligi, sm				
		$\bar{X} \pm S \bar{X}$	Limit	S	V %	hp
«Ko'paysin» navi						
1	6	80,0±1,64	75,0 -	4,0	5,0	-
var. El-salvador						
2	6	175,0±2,42	165,0 - 182,0	5,9	3,3	-
F1 («Ko'paysin» x El-salvador) duragaylari						
3	7	120,0 ± 8,18	90 - 150	21,6	18,0	-0,16

F1 avlod duragaylarida "o'simlik balandligi" o'rtacha - 120,0 sm bo'lib, uning standart og'ish ko'rsatkichi - 21,6, hamda variatsiya koeffitsiyenti - 18,0% ni tashkil qildi. Belgining dominantlik koeffitsiyenti $h_p = -0,16$ bo'lib, to'liqsiz dominant, ya'ni oraliq holatda irsiyanganligi kuzatildi.[1,3,4]

Ikkinchi avlod duragaylarida esa "o'simlik balandligi" o'rtacha - 109,0 sm ga teng bo'ldi. Mazkur kombinatsiyada o'rganilgan 136 ta duragayda o'simlik bo'yi 40,0-170,0 sm oralig'ida bo'lganligi aniqlanib, keng transgressiv o'zgaruvchanlik kuzatildi. Bunda, 16 ta o'simlik 40-72 sm, 42 ta individ 73-105 sm, 57 ta o'simlikda 106,0 sm dan 138,0 sm gacha hamda 21 ta o'simliklarda 139,0-170,0 sm ko'rsatkichlar qayd etildi. F2 o'simliklarida belgining standart og'ish ko'rsatkichi - 27,2, variatsiya koeffitsiyenti esa - 24,9% bo'lganligi aniqlandi. Belgining nasldan-naslga o'tish koeffitsiyenti $h^2 = 0,74$ ni tashkil etib, 74 % genotip, 26 % tashqi muhit ta'siri ostida irsiyanganligi aniqlandi.


2-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "o'simlik Monopodial shoxlar soni" belgisining irsiylanishi.



Xususan, tajriba davomida fenotipik kuzatuvlar asosida monopodial (vegetativ) shoxlar soni, el-salvador yovvoyi shakli bilan Ko'paysin navini o'zaro chatishtirib olingan F1 va F2 avlod duragaylarida kandy o'zgarishi kuzatildi. Tajriba tahlillariga ko'ra F1 avlod duragaylarida monopodial (vegetativ) shoxlar soni 5 ta, F2 avlod duragaylarida yesa 4 tani tashkil yetdi. Kuzatuv natijalariga ko'ra 147 ta o'simlikdan 54 tasida (37%)

monopodial shoxlar rivojlanmagan bo'lib, 93 ta (63%) o'simlikda monopodial shoxlar soni 1-14 tagacha kuzatildi. Olingan natijalar tahlili monopodia bo'yicha el-salvador yovvoyi shakli ustunlik qilganligidan dalolat beradi.

3-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "simpodial (hosil) shoxlar soni" belgisining irsiylanishi



Shunday kilib tajriba davomida birinchi va ikkinchi avlod duragaylarida simpodial shoxlar sonining o'zgarishini ham kuzatildi. Bu kuzatishlar natijrsida F1 avlod duragaylarida simpodial shoxlar soni 5 tani, F2 avlod duragaylarida yesa 17 tani tashkil yetdi.


2- Jadval

№	O'rganilgan o'simliklar soni	Симподиал hosil shoxlar soni (dona)				
		$\bar{x} \pm S$ \bar{x}	limit	S	V %	hp
«Ko'paysin» navi						
1	6	15,0 ± 0,58	13 - 17	1,41	9,4	-
var. El-salvador						
2	6	5,0 ± 0,63	3 - 7	1,41	28,2	-
F1 («Ko'paysin» x El-salvador) duragaylari						
3	7	5,0 ± 0,82	3 - 7	2,16	36,0	-1,00

Hosildorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiluvchi belgilardan biri bo'lgan "simpodial (hosil) shoxlar soni" belgisi «Ko'paysin» navida = 15,0, El-salvador yovvoyi shaklida esa = 5,0, ularning standart og'ishi har ikkisida 1,41 va o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti mos ravishda 9,4-28,2% ni tashkil etdi.

Hosil shoxlar soni F1 duragay o'simliklarida o'rtacha 5 tani tashkil etib, uning standart og'ishi 2,16, hamda variatsiya koeffitsiyenti 36,0% ni ko'rsatdi. Belgining dominantlik koeffitsiyenti hp=-1,00 ga teng bo'lib, to'liqsiz dominant, ya'ni oraliq holatda irsiyanganligi kuzatildi[2].

4-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "bo'g'inlar soni" belgisining irsiylanishi.




3- Jadval

№	O'rganilgan o'simliklar soni	Bo'g'inlar soni (dona)				
		$\bar{x} \pm S$ \bar{x}	Limit	S	V %	hp
«Ko'paysin» navi						
1	6	18,0 ± 0,58	16 - 20	1,41	7,8	-
var. El-salvador						
2	6	26,0 ± 0,86	23 - 28	2,1	41,9	-
F1 («Ko'paysin» x El-salvador) duragaylari						
3	7	21,0 ± 0,62	3 - 7	1,6	27,2	-0,25

Bo'g'inlar soni o'simlik balandligini belgilovchi morfologik belgilaridan biri hisoblanadi. Mazkur belgi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich El-salvador yovvoyi shaklida kuzatilib, unda bo'g'inlar soni o'rtacha 26,0 tani tashkil etdi. Belgi bo'yicha standart og'ish 2,1 va o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 41,9% ekanligi aniqlandi. «Ko'paysin» navida esa bo'g'inlar soni 18,0 ta ekanligi qayd etilib, standart og'ishi 1,41 hamda o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 7,8% ni tashkil qildi.

Bo'g'inlar soni F1 duragaylarida o'rtacha -21 ta, belgining standart og'ish ko'rsatkichi 1,6 hamda variatsiya koeffitsiyenti 27,2%, dominantlik koeffitsiyenti esa 0,25 (hp=0,25) ekanligi aniqlandi. Bu o'z navbatida belgining to'liqsiz dominantlik (oraliq) holatida irsiyanganligidan dalolat beradi.

5-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "ko'saklar soni" belgisining irsiylanishi.



Tadqiqot ishlarida el-salvador yovvoyi shakli bilan Ko'paysin navini o'zaro chatishtirib olingan F2 avlod duragay kombinatsiyalarida morfobiologik hamda ba'zi xo'jalik ahamiyatdagi belgilar o'rganildi. Xususan, fenotipik kuzatuvlar asosida bo'g'inlar soni, umumiy va ochilgan ko'saklar soni kabi qimmatli xo'jalik belgilari va xususiyatlarining irsiylanishi genetik jihatdan baholandi.

4- Jadval


№	O'rganilgan	Sinf n = 4	$\bar{x} \pm S$ \bar{x}	S	V %	h ²
---	-------------	------------	------------------------------	---	-----	----------------

	o'simliklar soni va foizi%	1 - 10	11 - 20	21 - 30	31 - 40				
1	136	47	53	28	8	15,0 ± 0,76	8,91	59,4	0,97
2	100	34,5	39,0	20,5	6,0				

Kuzatuvlar natijasida kombinatsiyaning birinchi avlod duragaylarida ko'saklar soni o'rtacha 13 taga teng ekanligi, belgi bo'yicha standart og'ish ko'rsatkichi 2,16 hamda variatsiya koeffitsiyenti 36,0% ni tashkil qilganligi aniqlandi. Dominantlik koeffitsiyenti $h_p=0,73$ ni namoyon etib, to'liqsiz dominant, ya'ni oraliq holatda irsiylanganligi kuzatildi.


F2 o'simliklarida esa birinchi avlod duragaylaridan farqli o'laroq, ko'saklar soni 15 tani tashkil etib, 47 tasida 1 tadan 10 tagacha, 53 tasida 11 tadan 20 tagacha, 28 ta namunada 21 tadan 30 tagacha hamda 8 tasida 31 tadan 40 tagacha ko'sak tugilganligi aniqlandi Bu ham keng transgressiv o'zgaruvchanlikdan dalolat demakdir. Belgining standart og'ishi F2 o'simliklarida 8,91 ga, variatsiya koeffitsiyenti 59,4% ga hamda belgining irsiylanish koeffitsiyenti 0,97 ga ($h^2= 0,97$) teng ekanligi aniqlandi. Bu esa ushbu avlodda belgining 3 % tashqi muhit ta'siri ostida irsiylanganligidan dalolat beradi.

6-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "Birinchi xosil shoxi (hs)" belgisining irsiylanishi.



Tajriba davomida hs belgisining irsiylanishida quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi: 147 ta o'simlikdan 64 tasi (43,5%) Ko'paysin naviga o'xshash, 18 tasi (12,2%) el-salvador yovvoyi shakliga o'xshash, 65 tasi (44,2%) esa oraliq xolatda irsiylangan. Kuzatuv natijalariga ko'ra birinchi hosil shoxining irsiylanishida qisman Ko'paysin navi dominantlik qilganligi aniqlandi.

7-rasm Ota-ona shakllari va F1 va F2 duragaylarida "ko'saklar soni" belgisining irsiylanishi.



5-jadval

№	O'rganilgan o'simliklar soni	Ko'saklar soni, dona				
		$\bar{x} \pm S_{\bar{x}}$	Limit	S	V %	H _p
«Ko'paysin» navi						
1	6	15,0 ± 0,58	13 – 17	1,41	9,4	-
var. El-salvador						
2	6	0	0	0	0	-
F1 («Ko'paysin» x El-salvador) duragaylari						
3	7	13,0 ± 0,82	10 – 16	2,16	36,0	0,73

Kuzatuvlar natijasida kombinatsiyaning birinchi avlod duragaylarida ko'saklar soni o'rtacha 13 taga teng ekanligi, belgi bo'yicha standart og'ish ko'rsatkichi 2,16 hamda variatsiya koeffitsiyenti 36,0% ni tashkil qilganligi aniqlandi. Dominantlik koeffitsiyenti $h_p=0,73$ ni namoyon etib, to'liqsiz dominant, ya'ni oraliq holatda irsiylanganligi kuzatildi.

F2 o'simliklarida esa birinchi avlod duragaylaridan farqli o'laroq, ko'saklar soni 15 tani tashkil etib, 47 tasida 1 tadan 10 tagacha, 53 tasida 11 tadan 20 tagacha, 28 ta namunada 21 tadan 30 tagacha hamda 8 tasida 31 tadan 40 tagacha ko'sak tugilganligi aniqlandi Bu ham keng transgressiv o'zgaruvchanlikdan dalolat demakdir.

6-jadval Fenotipik kuzatuvlar natijasida ota-ona namunalari hamda F1 va F2 avlod duragaylarining o'rtacha ko'rsatkichlari.

№	Belgilar	«Ko'paysin» navi	el-salvador Yovvoyi shakli	F1 avlod duragaylari	F2 avlod duragaylari
1.	Ko'sak shakli	Tuxumsi mon	Tuxumsi mon	Tuxumsi mon	Konussimon-23, Sharsimon-1, Tuxumsi mon-112
2.	Shoxlani shi	Cheklan magan	Cheklan magan	Cheklan magan	Cheklan magan
3.	Shoxlani sh tipi	1-tip	2-3 tip	2-3	1-3
4.	Anotatsion dog'	Kuchli	O'rtacha	O'rtacha	Oraliq
5.	Poyanin g tuklanishi	Kuchli	Siyrak	O'rtacha	Kuchli – 13%, O'rtacha – 40%, Siyrak(kam) – 47%
6.	Tup shakli	G'uj	Tarqoq	Tarqoq	G'uj – 12,3%, Tarqoq – 87,7%

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, birinchi va ikkinchi avlod duragaylarida ko'sak soni, ko'sakdagi chanoq soni belgilari bo'yicha «Ko'paysin» navi dominantlik qilgan. Simpodial shoxlar soni, antotsian dog', shoxlanish tipi va tup shakli belgilari bo'yicha birinchi avlod duragaylarida El-salvador yovvoyi shakli dominantlik qilgan. Simpodial shoxlar soni o'rtacha

ko'rsatkichi ikkinchi avlod duragaylarida ota-ona va birinchi avlod duragaylaridan yuqori bo'lgan o'simliklar ulushi ko'pligini kuzatish mumkin. Bu esa ikkinchi avlod duragaylarida simpodial shoxlar soni yuqori bo'lgan rekombinant o'simliklarni tanlab olish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurakhmonov I.Y., Kushanov F.N., Djaniqulov F., Buriev Z.T., Pepper A.E., Fayzieva N., Mavlonov G.T., Saha S., Jenkins J.N., Abdukarimov A. The role of induced mutation in conversion of photoperiod dependence in cotton // J. Hered. – Oxford, 2007. – №98 (3) – P. 258-266.
2. Mariko Sawa, Steve A Kay, and Takato Imaizumi. Photoperiodic flowering occurs under internal and external coincidence. *Plant Signal Behav.* 3, April 2008 г., T. 4, -С. 269-271.
3. Abdurakhmonov I.Y., Kohel R.J., Yu J.Z., Pepper A.E., Abdullaev A.A., Kushanov F.N., Salakhutdinov I.B., Buriev Z.T., Saha S., Scheffler B.E., Jenkins J.N., Abdukarimov A. // Molecular diversity and association mapping of fiber quality traits in exotic *G. hirsutum* L. germplasm // *Genomics*, 2008. doi:10.1016/j.ygeno.2008.07.013
4. Quail P.H., Boylan M.T., Parks B.M., Short T.W., Xu Y. and Wagner D. Phytochromes: photosensory perception and signal transduction // *Science*. – Washington, 1995. – No 286. – P. 675-680.
5. Джаникулов Ф. Связь между радиочувствительностью и мутабельностью диких и культурно-тропических форм хлопчатника // Доклады Российской академии сельскохозяйственных наук. – Москва, 2002. – №2. – С. 19-22.
6. Джаникулов Ф. Связь между радиочувствительностью и мутабельностью диких и культурно-тропических форм хлопчатника // Доклады Российской академии сельскохозяйственных наук. – Москва, 2002. – №2. – С. 19-22.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Бабакулов Шароф Хамракулович
Доцент Ташкентского государственного
стоматологического института

Email: Drsharof@gmail.ru

Абдукаримов Дильшод Исакович
Самостоятельный исследователь Ташкентского
государственного стоматологического института

Email: dilshod2791178@gmail.com

Бабакулова Шахло Хамидуллаевна
Ассистент Ташкентского государственного
стоматологического института

Email: Drsharof@gmail.ru

ИЗМЕНЕНИЯ В СОСТАВЕ СЛЮНЫ МОРСКИХ СВИНОК ПРИ ДИСБАЛАНСЕ МИКРОБИОТЫ

Аннотация: В данной статье исследуются биохимические характеристики слюны морских свинок в условиях дисбактериоза. Дисбактериоз, представляющий собой нарушение нормальной микрофлоры, может оказывать значительное влияние на здоровье животных и их физиологические процессы. В ходе эксперимента были проанализированы основные компоненты слюны, включая белки, углеводы и электролиты, с целью выявления изменений, связанных с дисбалансом микробиоты. Результаты исследования показали значительные отклонения в биохимическом составе слюны морских свинок, что указывает на возможные механизмы влияния дисбактериоза на пищеварение и иммунный ответ. Данные выводы подчеркивают важность мониторинга состояния микрофлоры и биохимических показателей слюны для поддержания здоровья морских свинок.

Ключевые слова: дисбактериоз, морские свинки, слюна, биохимические характеристики, микрофлора, здоровье животных, физиологические процессы.

Babaqulov Sharof Hamraqulovich

Toshkent davlat Stomatologiya instituti dotsenti

Abdukarimov Dilshod Isakovich

Toshkent davlat Stomatologiya instituti mustaqil izlanuvchisi

Babaqulova Shahlo Hamidullayevna

Toshkent davlat Stomatologiya instituti assistenti

Dengiz cho'chqachasi so'lak tarkibining mikrobiont muvozanati o'zgarishi

DENGIZ CHO'CHQACHASI SO'LAK TARKIBINING MIKROBIONT MUVOZANATI O'ZGARISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dengiz cho'chqalari so'lagining biokimyoviy xususiyatlari disbakterioz sharoitida o'rganilgan. Disbakterioz, normal mikrofloraning buzilishi, hayvonlarning salomatligiga va ularning fiziologik jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tajriba davomida so'lakning asosiy komponentlari, jumladan, oqsillar, uglevodlar va elektrolitlar tahlil qilingan bo'lib, mikrobiota muvozanatsizligi bilan bog'liq o'zgarishlarni aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari dengiz cho'chqalari so'lagi biokimyoviy tarkibida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi, bu esa disbakteriozning hazm qilish va immun javobga ta'sir qilish mumkin bo'lgan mexanizmlarini ko'rsatadi. Ushbu xulosalar mikrofloraning holatini va so'lakning biokimyoviy ko'rsatkichlarini monitoring qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi, bu dengiz cho'chqalarining salomatligini saqlash uchun muhimdir.

Kalit so'zlar : disbakterioz, dengiz cho'chqalari, so'lak, biokimyoviy xususiyatlar, mikroflora, hayvonlarning salomatligi, fiziologik jarayonlar.

Babakulov Sharof Hamrakulovich

Associate Professor at Tashkent State dental institute

Abdukarimov Dilshod Isakovich

Independent researcher of Tashkent
State Dental Institute
Babakulova Shakhlo Khamidullaevna
Assistant Tashkent State dental institute

CHANGES IN THE COMPOSITION OF THE SALIVA OF GUINEA PIGS IN THE CONTEXT OF MICROBIOTA IMBALANCE.

Abstract: This article investigates the biochemical characteristics of guinea pig saliva under conditions of dysbiosis. Dysbiosis, which represents a disruption of normal microbiota, can significantly impact the health of animals and their physiological processes. In the course of the experiment, key components of saliva, including proteins, carbohydrates, and electrolytes, were analyzed to identify changes associated with microbiota imbalance. The results showed significant deviations in the biochemical composition of guinea pig saliva, indicating potential mechanisms by which dysbiosis affects digestion and immune response. These findings emphasize the importance of monitoring microbiota status and biochemical indicators of saliva for maintaining the health of guinea pigs.

Key words: dysbiosis, guinea pigs, saliva, biochemical characteristics, microbiota, animal health, physiological processes.

Введение

Дисбактериоз представляет собой состояние, характеризующееся нарушением нормального баланса микробиоты в организме. Это явление может происходить под воздействием различных факторов, таких как неправильное питание, стресс, инфекционные болезни или применение антибиотиков. У морских свинок, как и у других животных, дисбактериоз может приводить к серьезным нарушениям в пищеварительной системе и ослаблению иммунной защиты. Слюна играет ключевую роль в процессе пищеварения, а также в защите слизистых оболочек ротовой полости. Она содержит множество биохимических компонентов, включая ферменты, белки и антитела, которые помогают поддерживать здоровье организма. Изучение изменений в биохимическом составе слюны при дисбактериозе может дать ценную информацию о состоянии здоровья морских свинок и механизмах, способствующих развитию заболеваний.

Цель исследования

Цель данного исследования — проанализировать биохимические характеристики слюны морских свинок в условиях дисбактериоза, выявить основные изменения и их потенциальное влияние на здоровье животных.

Материалы и методы

В исследовании участвовали 30 морских свинок, возрастом 8-12 недель. Животные были разделены на две группы: контрольную группу (15 морских свинок, без признаков дисбактериоза) и экспериментальную группу (15 морских свинок, у которых были установлены признаки дисбактериоза). Морские свинки содержались в стандартных условиях, обеспечивающих доступ к чистой воде и сбалансированному корму. Все животные были вакцинированы и клинически обследованы перед началом эксперимента. Слюна собиралась путем

стимулирования животных к жеванию мягкой пищи в течение 15 минут. Собранный материал помещался в стерильные контейнеры и хранился при температуре -20°C до анализа. Анализ биохимических характеристик слюны проводился с использованием следующих методов:

• **Определение уровня белков:** Метод биуретового теста.

• **Измерение содержания углеводов:** Метод фенольного теста.

• **Анализ электролитов:** Ионная хроматография.

• **Измерение активности лизоцима:** Колориметрический метод.

Полученные данные обрабатывались с использованием статистического пакета программ. Различия между группами анализировались с помощью t-теста, с уровнем значимости $p < 0.05$.

Результаты и обсуждение

В результате исследования были выявлены значительные изменения в биохимическом составе слюны морских свинок в условиях дисбактериоза, что указывает на его влияние на физиологические процессы и здоровье животных.

1. Уровень белков

В экспериментальной группе уровень белков в слюне составил в среднем 2.5 г/дл, что значительно выше, чем в контрольной группе (1.8 г/дл) ($p < 0.05$). Это увеличение может свидетельствовать о ряде патофизиологических процессов. Белки в слюне, включая иммуноглобулины и ферменты, могут увеличиваться в ответ на воспалительные реакции, которые часто наблюдаются при дисбактериозе.

Дисбактериоз может приводить к повышенной проницаемости кишечной стенки, что позволяет эндотоксинам и другим провоспалительным молекулам попадать в системный кровоток. В ответ на

это организм может активировать иммунный ответ, включая увеличение синтеза специфических белков.

Важно отметить, что увеличенный уровень белков также может быть связан с изменением активности микробиоты, которая может синтезировать собственные белки, влияющие на слюну. Например, некоторые патогенные бактерии могут производить токсины, которые повреждают эпителий, вызывая локальные воспалительные реакции.

2. Содержание углеводов

Содержание углеводов в слюне морских свинок с дисбактериозом увеличилось до 0.6 г/дл, по сравнению с 0.4 г/дл в контрольной группе ($p < 0.05$). Это изменение может указывать на нарушения в метаболизме углеводов, вызванные изменениями в кишечной микрофлоре.

Дисбактериоз может приводить к уменьшению количества полезных бактерий, которые участвуют в расщеплении сложных углеводов. В результате этого, сложные углеводы могут оставаться недоразложенными и превращаться в более простые сахара, которые могут впоследствии попадать в слюну. Увеличение уровня углеводов может также сигнализировать о нарушениях в процессе переваривания и усвоения питательных веществ, что может привести к другим метаболическим расстройствам и недостаточности важных макроэлементов.

Предыдущие исследования показывают, что изменения в микробиоте могут приводить к различным расстройствам углеводного обмена, включая инсулинорезистентность и метаболический синдром. Поэтому важно учитывать, как увеличение содержания углеводов в слюне может коррелировать с более широкими метаболическими изменениями в организме животных.

3. Концентрация электролитов

Уровни натрия и калия в слюне также показали значительные различия: натрий составил 140 мМ/л в экспериментальной группе против 120 мМ/л в контрольной ($p < 0.01$), в то время как уровень калия увеличился с 4.0 мМ/л до 5.2 мМ/л ($p < 0.05$). Эти изменения могут указывать на нарушение водно-электролитного баланса, что критически важно для поддержания клеточного гомеостаза и нормального функционирования органов. Нарушения в уровне натрия и калия могут приводить к серьезным последствиям для здоровья животных. Например, высокие уровни натрия могут свидетельствовать о задержке жидкости и повышенном артериальном давлении, в то время как изменения уровня калия могут влиять на сердечную деятельность. Эти данные подчеркивают необходимость дальнейшего изучения механизма, через который дисбактериоз влияет на электролитный баланс. Возможно, что изменения в

микробиоте влияют на всасывание электролитов в кишечнике, что требует дальнейших экспериментов для подтверждения этой гипотезы.

4. Активность лизоцима

Активность лизоцима в слюне морских свинок с дисбактериозом составила 0.25 мкг/мл, что ниже, чем в контрольной группе, где этот показатель равнялся 0.35 мкг/мл ($p < 0.05$). Снижение активности лизоцима может указывать на нарушение защитных механизмов организма, поскольку лизоцим является важным компонентом иммунной системы, отвечающим за разрушение клеток патогенов. Эти данные согласуются с предыдущими исследованиями, показывающими, что дисбактериоз может снижать иммунный ответ и повышать риск инфекционных заболеваний. Снижение активности лизоцима может привести к увеличению восприимчивости к инфекциям и воспалительным процессам, что является серьезной проблемой для здоровья морских свинок.

Важно учитывать, что лизоцим также играет роль в поддержании баланса микробиоты, и его снижение может усугубить состояние дисбактериоза, создавая порочный круг. Полученные данные подчеркивают важность мониторинга состояния микрофлоры и биохимических показателей слюны для раннего выявления дисбактериоза и других заболеваний. Это может помочь в разработке эффективных стратегий профилактики и лечения, направленных на поддержание здоровья морских свинок.

Выводы

1. Подтверждение влияния дисбактериоза: Исследование подтвердило, что дисбактериоз оказывает значительное влияние на биохимический состав слюны морских свинок. Все изученные параметры — уровень белков, содержание углеводов, концентрация электролитов и активность лизоцима — продемонстрировали статистически значимые изменения, что подчеркивает важность мониторинга состояния микробиоты для оценки здоровья животных.

2. Изменения в уровне белков: Увеличение уровня белков в слюне у морских свинок с дисбактериозом может свидетельствовать о воспалительных процессах и адапционных реакциях организма. Эти изменения указывают на необходимость дальнейших исследований, направленных на выяснение, какие конкретные белки изменяются и как это связано с иммунным ответом.

3. Нарушения углеводного обмена: Повышение содержания углеводов в слюне указывает на возможные нарушения в метаболизме и переваривании, что может иметь долгосрочные последствия для общего состояния животных. Это

открывает новые горизонты для изучения взаимосвязи между микробиотой и метаболизмом углеводов.

4. **Водно-электролитный баланс:** Изменения в концентрации натрия и калия указывают на возможные нарушения водно-электролитного баланса, которые могут влиять на физиологические функции

морских свинок. Это подчеркивает необходимость контроля за состоянием гидратации и электролитного баланса у животных, особенно в условиях дисбактериоза.

Список литературы:

1. Чекарова И.А. Сравнительная морфология околоушной слюнной железы самок самцов-кастратов свиньи //И.А. Чекарова ский вестник сельскохозяйственной науки-2007-№1.- С. 68-71. //Сибир-
2. Чекарова Ирина Александровна Морфология больших слюнных желез млекопитающих с разным типом питания. Автореферат Улан-Удэ - 2011.
3. Ступин Алексей Викторович Морфология околоушной , нижнечелюстной, подъязычных и скуловой слюнных желез у домашней собаки и пушных зверей клеточного содержания. Автореферат. Омск – 2010.
4. Семенова Марина Анатольевна .Морфометрические особенности постнатального развития околоушной слюнной железы крыс в условиях питания диспергированной пищей .Автореферат . Оренбург -2011.
5. Колипова Юлия Александровна. Сравнительная морфология слюнно железистого аппарата домашних и диких животных (домашняя свинья , дикий кабан , бурый медведь).Автореферат. Саранск-2018.
6. Фролов Евгений Вячеславович Морфология околоушной слюнной железы пятнистого оленя . Актуальные вопросы ветеринарной биологии № 2 (14), 2012
7. Гончаров А.Г. Корреляционный и сравнительный анализ некоторых структурно-функциональных единиц больших слюнных желез у различных представителей класса млекопитающих. Биологические науки .2014.
8. Гистология, цитология и эмбриология / [Афанасьев Ю. И., Юрина Н. А., Котовский Е. Ф. и др.] ; под ред. Ю. И. Афанасьева, Н. А. Юриной. – [5-е изд., перераб. и доп.]. – М. : Медицина. – 2001. – С. 529-538, 597-616.
9. Гистология органов полости рта - С. Л. Кузнецов, В. И. Торбек, В. Г. Деревянко. - 2012. - 136 с.
10. Иванова В.В., Мильто И.В., Суходоло И.В., Дзюман А .Н., Моделирование гипертрофии больших слюнных желез у неполовозрелых крыс: морфометрическая и гистохимическая характеристика эпителиоцитов . Бюллетень сибирской медицины. 2017; 16 (3): 61–69.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Yuldashev Nasirdjan Muxamedjanovich

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti kafedra mudiri,
E-mail: y_nosir@rambler.ru

Mamazulunov Nurmuxammad Xusanboy o'g'li
Andijon Davlat Universiteti tayanch doktoranti
E-mail: biochemistry715@gmail.com

Xolmirzayeva Madinaxon Akramjonovna
Andijon Davlat Universiteti kafedra mudiri
E-mail: hushruydilmurodova@gmail.com

Xabibullaev Sanjarbek Murodilla o'g'li
Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti tayanch doktoranti
E-mail: sanjarbekxabibullayev@gmail.com

JIGARNING MONOOKSIGENAZA TIZIMI FAOLLIKI BO'YICHA TURLI FENOTIPLI KALAMUSHLARNING BA'ZI FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARI

Annotasiya: *Ishning maqsadi jigar monoooksigenaza tizimi faolligi bo'yicha turli fenotipli kalamushlarning ba'zi fiziologik ko'rsatkichlaridagi o'ziga xosliklarni baholashdir. Tadqiqotlar 100 bosh oq erkak kalamushlarda o'tkazildi. Ular nembutal uyqusi davomiyligi asosida tez, o'rta va sekin metabollovchi guruhlariga ajratilib, oziq va suv iste'moli hamda diurez o'rganildi. Natijalar tez, o'rta va sekin metabollovchi kalamushlar umumiy populyasiyada 1:1,5:2,5 nisbatda tarqalganligini, tez metabollovchi kalamushlar vaznining absolyut kattaligi o'rta va sekin metabollovchilarnikiga qaraganda kamroq, suv iste'moli va diurezning absolyut kattaligi esa o'rta va sekin metabollovchilarnikiga qaraganda yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *nembutal uyqusi, tez metabollovchilar, o'rta metabollovchilar, sekin metabollovchilar, vazn, oziq iste'moli, suv iste'moli, diurez.*

Юлдашев Насирджан Мухамеджанович

заведующий кафедрой Ташкентского Педиатрического Медицинского Института
Мамазулов Нурмухаммад Хусанбой ўғли

Базовый докторант Андижанского Государственного Университета
Холмирзаева Мадинахон Акрамжоновна

заведующий кафедрой Андижанского Государственного Университета
Хабибуллаев Санжарбек Муродилла ўғли

Базовый докторант Ташкентского Педиатрического Медицинского Института

НЕКОТОРЫЕ ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРЫС С РАЗНЫМ ФЕНОТИПОМ ПО АКТИВНОСТИ МОНООКСИГЕНАЗНОЙ СИСТЕМЫ ПЕЧЕНИ

Аннотация: *Целью работы явилась оценка особенностей некоторых физиологических показателей крыс с разным фенотипом по активности монооксигеназной системы печени. Опыты проведены на 100 белых крысах самцах. Они на основе нембуталового сна были разделены на быстрых, средних и медленных метаболлизёров и изучался потребление пищи и воды, а также диуреза. Результаты показали, что распределение в общей популяции быстрых, средних и медленных метаболлизёров в соотношении 1:1,5:2,5, а также что у крыс быстрых метаболлизёров абсолютный показатель веса ниже, чем у средних и медленных метаболлизёров, а абсолютные показатели потребления воды и диуреза, выше.*

Ключевые слова: *нембуталовый сон, быстрые метаболлизёры, средние метаболлизёры, медленные метаболлизёры, вес, потребление пищи, потребление воды, диурез.*

Yuldashev Nasirjan Mukhamedjanovich

Head of Department, Tashkent Pediatric Medical Institute
Mamazulov Nurmukhammad Khusanboy ugli

Basic doctoral student, Andijan State University
Kholmirezayeva Madinaxon Akramjonovna
 Head of Department, Andijan State University
Khabibullaev Sanjarbek Murodilla ugli
 Basic doctoral student, Tashkent Pediatric Medical Institute

SOME PHYSIOLOGICAL INDICATORS OF RATS WITH DIFFERENT PHENOTYPES BY THE ACTIVITY OF THE LIVER MONOOXYGENASE SYSTEM

Abstract: The aim of the work was to evaluate the features of some physiological indicators of rats with different phenotypes by the activity of the liver monooxygenase system. The experiments were conducted on 100 white male rats. They were divided into fast, medium and slow metabolizers based on nembutal sleep and food and water consumption, as well as diuresis, were studied. The results showed that the distribution in the general population of fast, intermediate and slow metabolizers was in the ratio of 1:1.5:2.5, and that the absolute weight of fast metabolizer rats was lower than that of intermediate and slow metabolizers, and the absolute water consumption and diuresis were higher.

Key words: Nembutal sleep, fast metabolizers, intermediate metabolizers, slow metabolizers, weight, food intake, water intake, diuresis.

Kirish

Ma'lumki, jigarning detoksikatsion funksiyasining faolligi individual bo'lib [1], bu gepatositlar endoplazmatik retikulumidagi mikrosomal monooksigenaz tizimi funksional faolligining individualligi oqibatidir [2]. Sitoxrom P-450 ga bog'liq mikrosomal monooksigenaza tizimi nafaqat ksenobiotiklarni metabolizmga uchratadi, balki unda organizmda metabolizm jarayonida paydo bo'luvchi qator endobiotiklar ham o'zgarishga uchraydilar [3, 4]. Odatda metabolik jarayonlarning faolligi, fiziologik reaksiyalarda o'z aksini topadi va bu xolat organizmning individual-metabolik statusini belgilaydi. Aynan shu asosda jigarning detoksikatsion funksiyasining funksional faolligiga bog'liq ravishda organizmning ba'zi fiziologik ko'rsatkichlari holati ham qiziqish uyg'otadi.

Adabiyotlar tahlili

Xozirda, fenotipning ko'rinishi asosida insonlarda genotiplarni «keng tarqalgan» (faol) metabolizatorlar, «sekin» metabolizatorlar, «o'tafaol» yoki «tez» metabolizatorlarga ajratishadi [5]. «Sekin» metabolizmli odamlarda funksional allellar bo'lmaydi, «keng tarqalgan» metabolizmli odamlarda 1-2 funksional allel, «tez» metabolizmli odamlarda 2 dan ortiq allel uchraydi. Inson genotipini noinvaziv, in vivo sharoitida aniqlash imkonini beruvchi turli farmakogenetik testlar mavjud. Bugungi kunda insonlarda tashqi omillar (turli kimyoviy moddalar, dori-darmonlar, noodatiy oziq-ovqatlar) ta'sirida *modifikatsion (fenotipik) o'zgaruvchanlik yuzaga kelmoqda. Depressiya xolatidagi 900 bemorni davolashda modifikatsion o'zgaruvchanlik baholangan keng qamrovli tadqiqot* H.P. Sheldon va *hamm. tomonidan o'tkazilgan* [6]. Bunda tadqiqotni boshida bemorlar genotipi bo'yicha 3,9 %i «sekin», 96,1 %i esa «tez» va «o'ta tez» metabolizatorlarga ajratilgan bo'lsa, davolashdan so'ng fenotip bo'yicha 27 % bemorlar «sekin», 67 % bemorlar esa

«tez» va «o'ta tez» metabolizatorlarga ajratildi, ya'ni 23 % genotip bo'yicha «tez» va «o'ta tez» metabolizatorlarda fenotip bo'yicha «sekin» metabolizatorlik kuzatildi. Insonlardan farqli hayvonlarda genotip va fenotip orasidagi farqlar ancha kamroq bo'ladi. Organizmni individual xolati moddalar almashinuviga ta'siri A.Yu. Abramova va *hamm. tadqiqotida keltirilgan* [7]. Mualliflar «ochiq maydon» testi yordamida kalamushlarni faol va nofaol guruhlarga ajratib, ularda emosional yuklamalar o'tkazishdi. Natijalar faol kalamushlarda normada glyukoza miqdori nofaol kalamushlardan pastroqligini ko'rsatdi. Stressor yuklamalarda faol kalamushlarda giperglikemiya birinchi yuklamadayoq rivojlangan bo'lsa, nofaol kalamushlarda bu xolat surunkali stressning 3-kuni kuzatildi. Keltirilgan adabiyot ma'lumotlari bir tur doirasida ham, genetik asoslangan metabolizm faolligining darajasi, organizmning fiziologik ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini o'tkazishi va funksional xilma-hillikka olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotlar 100 erkak oq kalamushlarda, «Guide for the Care and Use of Laboratory Animals: Eighth Edition National Research Council» qo'llanmasi asosida olib borildi [8]. Tajribalar protokoli O'zR SSV Etika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan. Kalamushlar vivariyda tabiiy yoritilganlik hamda oziq va suvga erkin yaqinlashuv imkoniga ega bo'lganlik holatida, 22±3 °C xona xarorati va 30-70 % nisbiy namlik sharoitida saqlandilar.

Jigarning sitoxrom P-450 ga bog'liq monooksigenaza ferment tizimining metabolik faolligini aniqlashning asosiy usuli in vivo sharoitida fenotiplash hisoblanadi [9]. Hayvonlarini fenotiplash uchun nembutal testini o'tkazdik (40 mg/kg dozada qorin ortiga yuborildi). Bunda nembutal uyquasi davomiyligi daqiqalarda hisoblandi. Natijalar


asosida umumiy populyasiyasi tez, o'rtacha va sekin metabollovchilarga ajratildi.

Kalamushlar vazni (g) HERMES high technology (Germaniya) avtomatik tarozisi (maksimal og'irlik 1200 g) yordamida o'lchandi. Hayvonlarga berilgan ozuqa va suv miqdori CAS SWN porsion tarozisida (AQSh) qafasga kalamush qo'yilmasdan avval hamda 24 s so'ng o'lchandi. Ozuqa va suv og'irliklari orasidagi farq 100 g og'irlikka hisoblanib, kalamushni 1 s davomidagi ozuqa va suv iste'moli hisoblandi. Natijalar mg*s/100 g va mkl*s/100 g larda ifodalandi. Diurezni o'lchash uchun hayvonlar oshqozoniga ular og'irlikining 2 %iga teng miqdorda suv (ml) zond yordamida kiritildi. So'ng ular metabolik qafaslarda 4 s davomida saqlanib, idishlarga siydik yig'ildi va miqdori o'lchandi. Natijalar 100 g og'irlikka hisoblanib, ml*4 s/100 g da ifodalandi.

Olingan raqamli natijalar Exsel dasturidagi statistik tahlil uchun amaliy dasturlar paketini qo'llagan holda personal kompyuterda statistik qayta ishlendi.


Tahlil va natijalar

Natijalar kalamushlarning umumiy populyasiyasida nembatal uyquasi davomiyligi o'rtacha 216,36±16,67 daqiqaga tengligini ko'rsatdi. Bunda uyqu davomiyligi 76 dan 418 daqiqagacha o'zgardi. Nembatal uyquasi natijalari bo'yicha olingan gistogramma (1a-rasm), umumiy populyasiyani tez (davomiylig - 76 dan 98 daqiqagacha, o'rtacha - 91,11±2,35 daq.), o'rtacha (davomiylig - 110 dan 150 daqiqagacha, o'rtacha - 130,29±3,80 daq.) va sekin metabollovchilarga (davomiylig - 183 dan 418 daqiqagacha, o'rtacha - 313,54±15,10 daq.) (1b-rasm) ajratish imkonini berdi. Guruhlar orasidagi farqlar statistik ishonchli bo'ldi (R < 0,001) (2-rasm). Umumiy populyasiyaning 19 %i tez, 30 %i o'rtacha va 51 %i sekin metabollovchi bo'lib chiqdi.



1-rasm. Tajribaga olingan kalamushlarning umumiy populyasiyasidagi nembatal uyquasi davomiyligi (daqikalarda) gistogrammasi (a) va individual guruhlariga ajralishi (b).

Ordinata o'qi - nembatal uyquasi davomiyligi, daqiqa;





2-rasm. Tajriba hayvonlari umumiy populyasiyasini nembatal uyquasi davomiyligi bo'yicha individual guruhlarini statistikasi (mo'ylabli quti).

Ordinata o'qi - nembatal uyquasi davomiyligi, daqiqa; ko'k quti - umumiy populyasiya; jigar rang quti - tez metabollovchilar; kul rang quti - o'rtacha metabollovchilar; sariq rang quti - sekin metabollovchilar;

bu erda va statistikani qo'rsatuvchi boshqa rasmlarda: quti mo'ylablari - yuqori va pastki chegaralar, qutining yuqori va pastki chegaralari - yuqori va pastki koartillar, quti ichidagi chiziq - mediana, x - o'rtacha miqdor, • - umumiy guruhdan farqlanuvchi ko'rsatkichlar.

Turli guruhlariga kiruvchi kalamushlarning tana vazni o'rganilganida, ular orasida statistik a'lochli farq kuzatilmagani holida (3a-rasm), tez metabollovchi hayvonlar vaznidan (217±7,98 g) sekin metabollovchilar vazniga qarab (232,2±9,36 g) yaqqol ortish tendensiyasi kuzatildi (jadval, 3b-rasm). Bu o'sish, tez metabollovchi hayvonlar organizmida metabolizm tezligining yuqori bo'lishi natijasi bo'lishi mumkin.





3-rasm. Turli fenotipli kalamush vaznlari statistikasi (a) va vazni guruhlar bo'yicha o'zgarishi (b)

Ordinata o'qi – hayvonlar vazni, g; ko'k quti – umumiy populyasiya; jigar rang quti – tez metabollovchilar (1); kul rang quti – o'rta metabollovchilar (2); sariq rang quti – sekin metabollovchilar (3); Punktir chiziq – trend chizig'i.


Ozuqa iste'moli bo'yicha guruhlar orasida hech qanday farq kuzatilmadi (jadval, 4a- va 5-rasmlar).

Jadval.

Jigarning metabollovchi funksiyasi tezligiga asosan kalamushlar organizmining ba'zi fiziologik ko'rsatkichlari


Ko'rsatkichlar	Umumiy populyasiya	Metabollovchi fenotip		
		Tez	O'rta	Sekin
Uyqu davomiy-ligi, daqiqa.	216,36±16,67	91,11±2,35*	130,29±3,80 ^a	313,54±15,10 ^{a,b}
Vazn, g	223,86±5,57	217±7,98	221,7±12,35	232,2±9,36
Ozuqa iste'moli, mg*s/100 g	333,69±10,96	331,09±21,84	336,97±20,55	332,75±20,06
Suv iste'moli, mkl*s/100 g	443,43±23,78	454,10±51,34	438,62±42,25	438,64±42,23
Diurez, ml*4 soat/100 g	1,23±0,07	1,28±0,17	1,20±0,09	1,21±0,09

Izoh: * - $R < 0,05$ umumiy populyasiya ko'rsatkichiga nisbatan, a - $R < 0,05$ tez metabollovchilarga nisbatan, b - $R < 0,05$ o'rta metabollovchilarga nisbatan.



4-rasm. Turli fenotipli kalamushlarning ozuqa (a) va suv iste'moli (b) bo'yicha statistikasi

Ordinata o'qi – (a) ozuqa iste'moli, mg*s/100 g; (b) suv iste'moli, mkl*s/100 g; ko'k quti – umumiy populyasiya; jigar rang quti – tez metabollovchilar; kul rang quti – o'rta metabollovchilar; sariq rang quti – sekin metabollovchilar;



5-rasm. Jigar detoksikatsion funksiyasi faolligi turlicha bo'lgan kalamushlar tomonidan ozuqa (oq ustunlar) va suv (kul rang ustunlar) iste'moli bo'yicha o'zgarishi

1 – tez metabollovchilar, 2 – o'rta metabollovchilar, 3 – sekin metabollovchilar.


Ordinata o'qi – mg(mkl)*s/100 g. Punktir chiziqlar – trend chizig'i.

Suv iste'moli bo'yicha esa, ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farq bo'lmagani holda (4b-rasm), natijalarni tez metabollovchilar ko'rsatkichlaridan (454,10±51,34 mkl*s/100 g) sekin metabollovchilar ko'rsatkichlari tomon (438,64±42,23 mkl*s/100 g) yaqqol pasayishi kuzatildi (jadval, 5-rasm).

Bu natijalar tez metabollovchi kalamushlar vaznini boshqa guruh kalamushlar vazniga nisbatan pastroq bo'lganligi bilan mos keladi, ya'ni metabolizmni tez

bo'lishi suv almashinuvi intensivligini ham tezlashtiradi va bu suv iste'molini nisbiy ortishiga olib keladi.

Tajriba hayvonlarida diurezni o'rganish, ko'rsatkichlar orasida statistik farq mavjud bo'lmagani holda (6a-rasm), tez metabollovchi kalamushlarda uning absolyut qiymati o'rta va sekin metabollovchi kalamushlar ko'rsatkichidan kattaligini ko'rsatdi (jadval, 6b-rasm).



6-rasm. Turli fenotipli kalamushlarning diurez bo'yicha statistikasi (a) va diurez ko'rsatkichining o'zgarishi (b).

Ordinata o'qi – diurez ko'rsatkichi, ml*4 s/100 g; ko'k quti – umumiy populyasiya; jigari rang quti – tez metabollovchilar (1); kul rang quti – o'rta metabollovchilar (2); sariq rang quti – sekin metabollovchilar (3); Punktir chiziq – trend chizig'i.

Xulosa

Shunday qilib, olingan natijalar kalamushlar organizmining ba'zi fiziologik ko'rsatkichlarida ularning jigari detoksikatsion funksiyasi intensivligiga bog'liq ravishda ma'lum farqlar mavjudligi haqida dalolat bermoqda. Natijalar tez, o'rta va sekin metabollovchi kalamushlar umumiy populyasiyada 1:1,5:2,5 nisbatda tarqalganligini, tez metabollovchi kalamushlar vaznining absolyut kattaligi o'rta va sekin metabollovchilarnikiga qaraganda kamroq, suv iste'moli va diurezning absolyut kattaligi esa o'rta va sekin metabollovchilarnikiga qaraganda yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wu, J.; Guan, X.; Dai, Z.; He, R.; Ding, X.; Yang, L.; Ge, G. Molecular Probes for Human Cytochrome P450 Enzymes: Recent Progress and Future Perspectives. *Coord. Chem. Rev.* 2021, 427, 213600.
2. Manikandan, P.; Nagini, S. Cytochrome P450 Structure, Function and Clinical Significance: A Review. *Curr. Drug Targets* 2018, 19.
3. Omura, T. Future Perception in P450 Research. *J. Inorg. Biochem.* 2018, 186, 264–266.
4. Esteves F, Rueff J, Kranendonk M. The Central Role of Cytochrome P450 in Xenobiotic Metabolism – A Brief Review on a Fascinating Enzyme Family. *Journal of Xenobiotics.* 2021; 11(3):94-114.
5. Abdrashitov R.X., Gildeeva G.N., Ramenskaya G.V., Smirnov V.V. Obzor sushestvuyushix metodik osenki aktivnosti CYP2D6 s primeneniem ekzogenix i endogenix markerov // *Farmakokin. i farmakodin.* – 2015. – № 1. – S. 4-11.
6. Sheldon H.P. et al. Cytochrome P450 2D6 Phenoconversion Is Common in Patients Being Treated for Depression: Implications for Personalized Medicine. // *J.Clin. Psychiatry.* – 2013. – № 74(6). – P. 614-621.
7. Abramova A.Yu., Koplík E.V., Alekseeva I.V., Persov S.S. Uroven glyukozi v krovi kris s raznoy povedencheskoy aktivnostyu v dinamike mnogokratnix stressornix vozdeystviy // *Rossiyskiy mediko-biologicheskiy vestnik im. akad. I.P. Pavlova.* 2019. T. 27, №1. S. 10-19.
8. Janet C. Garber, «Guide for the Care and Use of Laboratory Animals: Eighth Edition National Research Council», 2011. – 246 r.
9. Barkovskiy E.V. Sovremennye problemi bioximii. Metodi issledovaniy: uchebnoe posobie / pod red. A.A. Chirkina. – Minsk: Vis. shk., 2013. – 491 s.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Norova Dilfuza Xolmatovna

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
akademik litseyi biologiya fani o'qituvchisi

QORA BALIQ (SCHIZOTHORAX INTERMEDIUS) NING UCHRAYDIGAN SUV HAVZALARI, UNING SISTEMATIK O'RNI VA TASHQI ANATOMIK BELGILARI

Annotatsiya. Maqolada qora baliq (*schizothorax intermedius*)ning qaysi suv havzalarida uchrashi, umurtqali hayvonlar orasida tutgan sistematik o'rni, sistematik jihatdan unga o'zaro yaqin bo'lgan baliq turlari va qora baliqning o'z turkumidagi boshqa baliq turlaridan farqlanuvchi tashqi anatomik belgilari yoritiladi.

Kalit so'zlar: ixtiofauna, zoogidrobiomassa, xordalilar, bosh skeletlilar, karpsimonlar, suzgich qanotlar, tangachalar, jabra qopqoqlari, yon chiziq.

Норова Дильфуза Холматовна

Докторант Навоийского государственного педагогического института
Навоийский государственный горно-технологический университет
учитель биологии академического лицея

ВОДОЕМЫ ЧЕРНОЙ РЫБЫ (SCHIZOTORAX INTERMEDIUS), ЕГО СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ И ВНЕШНИЕ АНАТОМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. В статье, в водоемах которой обнаружена черная рыба (*schizothorax intermedius*), рассмотрены ее систематическое место среди позвоночных, систематически близкие к ней виды рыб, а также внешние анатомические особенности черной рыбы, отличающиеся от других видов рыб ее семейства. быть освещенным.

Ключевые слова: ихтиофауна, зоогидrobiomassa, хордовые, головоногие моллюски, карп, плавники, плавники, жаберные крышки, боковая линия.

Norova Dilfuza Kholmatovna

Doctoral student of Navoi State Pedagogical Institute
Navoi State University of Mining and Technology
biology teacher of academic lyceum

WATER POOLS OF BLACK FISH (SCHIZOTHORAX INTERMEDIUS), ITS SYSTEMATIC LOCATION AND EXTERNAL ANATOMICAL CHARACTERS

Abstract. In the article, in which reservoirs black fish (*schizothorax intermedius*) is found, its systematic place among vertebrates, fish species that are systematically close to it, and external anatomical features of black fish that differ from other fish species in its family will be lit.

Key words: ichthyofauna, zoohydrobiomass, chordates, cephalopods, carp, fins, fins, gill covers, lateral line.

Kirish.

Biosferaning biotik tarkibiy qismi tirik organizmlardan tashkil topganligi barchamizga ma'lum. Xususan gidrobiomassaning asosiy tarkibiy qismi zoomassa hisoblanadi. Suvdagi tiriklikning 94% dan ortig'ini tashkil qilgan faunaning asosiy qismini baliqlar tashkil etadi. Chunki baliqlar suv muhitiga juda qulay adaptatsiyalangan umurtqali hayvon hisoblanadi. Jumladan maqolada yoritmoqchi bo'lgan qora baliq

(*schizothorax intermedius*) turimiz ham sovuq suv muhitiga juda yaxshi moslashgan tur hisoblanadi. U mansub bo'lgan turkumning boshqa turlari singari uning ham tashqi tuzulishi va suzgichlari suv muhitiga qulay va tez harakatlanishiga imkon beradi.

O'zbekiston suv havzalari boy baliqlar xilma-xilligiga ega bo'lib, ularning bir necha turi "O'zbekiston qizil kitobi"ga kiritilgan. Biz o'rganayotgan qora baliq(marinka) garcha bu qatordan o'rin egallasada, u

o'zining cheklangan muhit sharoitiga moslashganligi ya'ni faqat toza suvli tabiiy chuchuk suv muhitida uchrashi bilan bizni hushyorlikka chorlaydi. Ehtiyojdan ortiqcha tarzda ovlanishi bu baliq turining ham populyatsiya dinamikasining muvozanatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ovlanadigan baliqlarni tabiiy sharoitda saqlash va ularning sonini ko'paytirish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish re'jalashtirilgan, hamda ularning bir qanchasi amalga oshirib kelinmoqda. Bularga quyidagilar kiradi:

- Baliqlarning ko'payish joylarini himoya qilish;
- Suv havzalarini ortiqcha chiqindi va suv o'simliklaridan tozalab turish;
- Daryo, ko'l va hovuzlarni sanoat korxonalaridan chiqqan zaharli oqava suvlardan va neft quyilishdan himoya qilish;
- Qimmatbaho baliqlarni iqlimlashtirish;
- Turlari va sonlari kamayib ketayotgan hamda O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan baliq turlarini muhofaza qilish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hayvonlar sistemikasiga muvofiq hayvonlarni ikki katta guruhga ajratamiz.

- Umurtqasizlar
- Umurqalilar.

Umurqali hayvonlarni bitta tipi ya'ni xordalilar(chordata) tipi mavjud bo'lib, baliqlar katta sinfi (pisces) bu tipning vakili hisoblanadi.

Qora baliq shu katta sinfning suyakli baliqlar(osteichthyes) sinfi vakili hisoblanadi.

Suyakli baliqlar sinfi bir necha turkumlardan tashkil topgan bo'liq, jumladan qora baliq mansub bo'lgan karpsimonlar(cyrriniformes) turkumi ham shu sinfga mansub.

Karpsimonlar turkumi o'z ichiga olgan karplar oilasi vakillari turli xil suv muhitiga yashashga moslashgan baliq turlari hisoblanib, Orol dengizi, Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo havzalarining daryo va ko'llarida uchraydigan qora baliq ham shu oilaning vakili hisoblanadi.

Tip: Xordalilar(Chordata)

Kenja tip: Umurtqalilar (Vertebrata) yoki bosh skeletlilar(Craniata)

Katta sinf: Baliqlar(Pisces)

Sinf: Suyakli baliqlar(Osteichthyes)

Katta turkum: Suyakdor baliqlar(Teleostei)

Turkum: Karpsimonlar(Cypriniformes)

Oila: Karplar(Cyprinidae)

Vakil: Qora baliq(Schizothorax intermedius)

Qora baliqning boshqa baliq turlari singari suv muhitiga anotomik moslashish belgilari mavjud bo'lib, jumladan deyarli barcha umurtqali hayvonlarda uchraydigan yurish oyoqlari o'mida ularda suzgich qanotlari mavjud. Bu ularning suv muhitiga tez va qulay suzishi imkonini yaratadi. Aksari baliq turlarida

uchraydigan suyak tangachalar esa bir-birini ustiga joylashib, tana qoplamasini hosil qiladi. Tangachalar yupqa plastinkalardan iborat bo'lib, ancha yengil va baliqning suzishini qulaylashtiradi. Baliqning yoshi oshgan sari tangachalar ko'paymaydi, balki ularning hajmi kattalashib boradi. Sovuq tushgach tangachalar o'sishdan to'xtaydi. Ularning terisi shilimshiq modda va pigmentli hujayralar ishlab chiquvchi bezlarga boy bo'ladi. Bu esa baliq ta'nasining suvda ishqalanishini kamaytirish bilan bir qatorda uni har xil bakteriyalardan himoya qiladi. Odatda bu baliq o'rtacha kattalikkacha o'sadi. Voyaga yetgan davrida 20-30 santimetrga yetadi, ammo 60 santimetrli vakillari ham tez-tez uchrab turadi. Qora baliq oqayotgan suvga samarali suzish imkonini beruvchi tana shakliga ega. Barcha karplar singari qora baliq tanasi ham to'liq tangacha bilan qoplangan holda, tanasida ikkita juft suzgich

- *Gavdaning ikki yon tomonida, jabra yoriqlaridan keyinda ko'krak suzgichi;*

- *Gavda bo'limining qorin qismi o'rtasida qorin suzgichi joylashgan.*

Tanasidagi toq suzgichlar soni esa uchta bo'lib

- *Gavdasining deyarli o'rtasida joylashgan orqa suzgichi;*

- *Anal teshigi yonida joylashgan anal suzgichi;*

- *Tanasining yakuniy qismi hisoblangan dum suzgichi;*

Suzgichlari yoy va pardadan iborat bo'lib, kamar orqali umurtqa pog'onaga birikmagan.

Baliq tanasidagi har bir suzgich ma'lum bir funksiyani bajaradi. Masalan juft suzgichlari baliq muvozanatini saqlab, burulishni qulaylashtiradi. Toq suzgichlaridan eng muhim vazifa dum suzgichiga tegishli, ya'ni baliq harakatlanayotganda dum muskullari kuchli va tez qisqarib, dum suzgichlari baliq tanasini oldinga itaradi

Undan tashqari tanasida faqat baliqlar sinfi uchun xos bo'lgan boshidan to dum suzgichigacha o'tgan yon chizig'i mavjud. Bu organ tangachalarni teshib o'tgan qator qora teshiklardan hosil bo'lgan. Teshiklarning oxirgi uchi nerv uchlari bilan yon chizig'i joylashgan maxsus kanalga ochiladi. Yon chizig'i suv sharoitidagi o'zgarishlarni qabul qiladi. Ya'ni suvning oqimi va bosimini aniqlaydi. Og'zi boshining uchki qismida joylashgan bo'lib, og'zi yonida ikki juft mo'ylovi bor Yumaloq ko'zlarida esa qovoqlar mavjud emas. Qovoqsiz ko'zlarining oldida bir juft burun teshigi mavjud.

Boshining ikki yon tomonida jabralarini yopib turadigan suyak tarkibli jabra qopqoqlari bor. Sezgi organlari bilan boy ta'minlangan boshi tanasiga harakatsiz va chegarasiz qo'shilgan. Shunday qilib qora baliq tanasida tashqi tomondan ko'rinib turadigan quyigagi sezgi organlar mavjud:

- Boshining ikki yon tomonida yaqin masofadan ko'rishga kuchli ixtisoslashgan, qovoqlar bilan ta'minlanmagan qizg'ishtop bir juft ko'zlari;

- Ko'zlaridan oldinda joylashgan bir juft burun xaltachalariga ochiladigan, og'iz teshigi bilan tutashmagan juft burun teshiklari;

- Og'iz oldida joylashgan, karplarning deyarli barcha vakillarida uchraydigan mo'ylovlardan ikki juft;

- Butun gavdasi bo'ylab davom etgan, hatto ko'rish sezgisidan ayrilgan baliq uchun ham ko'z o'rnini bosa oladigan, suv muhitida yashashga moslashning xususiy sezgi organi hisoblangan yon chiziqlar.

Bundan tashqari suvning tovush o'tkazuvchanligi juda kuchli bo'lganligi sababli, baliqlar uzuq- yuluq tovushlar orqali o'zaro aloqa o'rnatadi. Ya'ni ularda tovush signalizatsiyasi kuchli rivojlangan. Bu ma'lumot bizga ularda eshitish sezgisi ham mavjud degan xulosani beradi, ammo baliqlarda eshitish sezgisi faqat bir qismdan iborat bo'lgan miya quttisi suyagi ichida joylashgan ichki quloq hisoblanadi. Shu sababli baliqning tashqi ko'rinishidan uning eshitish sezgisi ko'zimizga tashlanmaydi.

Tadqiqot metadalogiyasi. Bu baliq turi uchun tiniq tosh yoki shag'alli substratga ega suv muhiti ideal yashash joyi hisoblanganligi sababli, asosan O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonning bir qismini o'z ichiga olgan Farg'ona vodiysi va Sirdaryo viloyatining daryo hamda tiniq oqadigan suvlarida uchraydi. Bundan tashqari Navoiy viloyati Nurota tumanidagi chashmaning hovuzida va toza suvli ariqlarida ham ular bemalol ko'payib, nasl qoldiradi.

Ular xalq tilida "Shirmohi", "Shoh baliq", "Xon baliq", "Gul mohi" deb yuritiladi. Bu baliqni chashmaning betakror mo'jizasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu baliq turlari mayda tosh shag'allar orasidan chiqadigan mnerallar va kislorotga nisbatan o'ta sezuvchan bo'lib, qayerdan suv va kislorod chiqsa, o'sha joyga yopiriladi, hamda qum va shag'allarni tumshuqlari bilan itarib yangi suv ko'zlarini ochishadi. Bu jarayon esa chashma suvi ko'payishiga sabab bo'ladi. Ular asosan tosh kovakli suv havzalarini xush ko'rishiga sabab, bahorda kechadigan ko'payish mavsumida ular tuxumlarini asosan shu tosh kovaklarga, suv o'tlar orasiga qo'yishadi. Ularning eshitish organlari kuchli rivojlangan bo'lib, ultra tovushlarni ham yaxshi eshitadi va hatto yer qimirlashini seza oladi. Ko'z o'tkirligi ham yaxshi rivojlangan bo'lib, 12 metr gacha bo'lgan masofani ko'rish imkonini beradi.

Bu baliq turi suvda mavjud bo'lgan kaliy, kalsiy, xlor, nitrat, sulfat, magniy, kremniy, kobalt, ruh kabi 20 dan ziyod mnerallarni o'zlashtira oladi. O'z isbotini topgan ma'lumotlarga asoslanib, baliqlarni suvdagi mnerallarga bo'lgan munosabatiga qarab uch guruhga bo'la olamiz.

- Butun umrini sho'r suvlarda o'tkazuvchi dengiz baliqlari. Masalan: kambala, seld, tereska

- Butun umri daryo, ko'l va hovuzlarda o'tadigan chuchuk suv baliqlari. Bunga misol sifatida laqqabaliq, gulmoy yoki forel

- O'tkinchi baliqlar, bular dengizda yashasa, ko'payish uchun daryoga chiqadi (losos), daryoda yashasa, ko'payish uchun dengizga chiqadi (ilonbaliq)

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek mnerallarga boy suvni xush ko'rish bilan qora baliq (marinka) ikkinchi guruhga mansub baliq turi hisoblanadi.

Ekologik guruhlari va sistemetik holatidan qat'iy nazar, baliqlarning hayoti bir-biri bilan almashinib turadigan biologik sharoitning yil fasllariga qarab o'zgarib turishiga bog'liq. Ya'ni barcha tuban xordalilar singari bu baliqning ham tana harorati tashqi muhit harorati o'zgarishiga bevosita bog'liq bo'lib, havo haroratining pasayishi, ularning ham tana haroratining pasayib, harakat jadalligini susayishiga sabab bo'ladi

Tahlil va natija. Suv havzalarining sayoz joylari ularda oqimning sekinligi, kunduzgi soatlarda suvning ma'lum darajada isishi va suv havzalarining suv o'simliklariga boyligi qora baliq chavaqlarining avj olib ko'payishi uchun qu'lay sharoit hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, qora baliqning uvildiriq tashlab, chavaqlarining rivojlanishi uchun yilning eng qulay mavsumi bu: bahor va erta yoz faslidir. Shu bilan bir qatorda voyaga yetgan qora baliq kuchli oqimlarga qarshi suzishga qodir,

Uning xususiyatlarini har tomonlama o'rganish orqali biz bu baliqning ekologik roli haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin. Hech birimizga sir emaski, hozirgi vaqtda insoniyatning oqsilga bo'lgan ehtiyojini qondirishda baliq mahsuloti chorva mahsulotidan kam foiz eggallamaydi. Ular asosan sevib iste'mol qilinadigan oziq mahsulotidan tashqari, vitamin olish maqsadida, chorvachilik va parrandachilikda foydalaniladigan baliq uni tayyorlash maqsadida ko'plab ovlanmoqda.

Qora baliq chuchuk suv ekotizimlarining ekologik muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning tarqalishi, yashash joylariga va ekologiyaga o'zaro ta'sirini o'rganish orqali tadqiqotchilar va tabiatni muhofaza qilish mutaxassislari ushbu turni saqlab qolish hamda umumiy biologik xilma-xilligini asrash uchun samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari mumkin.

Qora baliqlar ozuqa aylanishida ishtirok etish, yirtqich turlarining populyatsiyasini nazorat qilish va yirik yirtqichlar uchun oziq-ovqat manbai bo'lib xizmat qilish orqali chuchuk suv ekotizimlarining ishlashiga hissa qo'shadi. Ushbu bilim va ko'nikmalar ekotizimlarning umumiy dinamikasi va barqarorligini tushunish uchun zarurdir.

Bu sayi harakatlar yashash joylarini aniqlash, populyatsiya holatini baholash va qora baliq hamda boshqa turlarning uzoq muddatli omon qolishini ta'minlash uchun tegishli muhofaza qilish choralarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Xulosa va taklif.

Uning cheklangan tarqalishini hisobga olgan holda,

ushbu turning populyatsiyasi holati va saqlash talablarini baholash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurati tug'iladi.

Ushbu tur uchun asosiy tahdidlarga yashash joylarini yo'q qilish, ortiqcha baliq ovlash va ifloslanish kiradi.

Hozirgi zamonning global muammolaridan hisoblangan iqlim o'zgarishi butun dunyodagi suv ekotizimlari, jumladan qora baliq tarqalgan suv havzalari uchun ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli qora baliq va boshqa chuchuk suv baliq turlariga ekologiyaning salbiy ta'sirini yumshatish uchun

qator chora-tadbirlar ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda.

Chuchuk suv havzalarida tarqalgan qora baliqlarning xususiyatlarini o'rganish bioxilma-xillikni saqlash, tabiatni muhofaza qilishni rejalashtirish va boshqarish, barqaror baliqchilik va iqlim o'zgarishi ta'sirini tushunish uchun muhim hisoblanadi. Bunday tadqiqot natijalari samaradorligi baland qarorlar qabul qilishga hissa qo'shadi va qora baliqlar populyatsiyasining ham kengroq suv ekotizimlarini egallashi hamda uzoq muddatli hayotiyiligini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saydulla Dadayev, Qalandar Saparov. Zoologiya (Xordalilar 2-qism). Cho'lpon nomidagi nashriyot. Toshkent-2011.
2. Saydulla Dadayev, Ochil Mavlonov. Zoologiya. Toshkent-2008.
3. B.S.Salimov, A.S.Daminov. Zoologiya. Toshkent-2008.
4. Xolboyev F, Azimov D, Shernazarov E. Zoogeografiya. Toshkent -2018.
5. Mavlyanov O. M, Toshmanov N. J, Sanayeva L.Sh. Zoologiya. Toshkent -2013.
6. S.P.Naumov. Umurtqali hayvonlar zoologiyasi. Toshkent-1995.
7. M.N.Ibodova. Zoologiya .Nodirabegim nashriyoti Toshkent-2021y
8. G.Utenova, G. Asenov. Omirtqalilar zoologiyasi. Toshkent-2023.
9. Abduqaxxorova Chamanoy Shavkatjon qizi. Farg'ona davlat universiteti talabasi. Qora baliqning xususiyatlari nomli ilmiy maqolasi.
10. Buvrayeva N.R. Jabborova A. R. Biologiya fakulteti Samarqand davlat universiteti. Qora baliqning (schizothorax intermedius) oziqlanishi nomidagi ilmiy maqolasi.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Po'latova Aziza Ramazon qizi
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
Maxkamov Trobjon Xusanboyevich
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, b.f.n.

LALLEMANTIA ROYLEANA (BENTH.) BENTH NING URUG' UNUVCHANLIGIGA SAQLASH MUDDATLARINING VA GIBBERELLINING TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth ning urug' unuvchanligiga saqlash muddatlarining va gibberellinning ta'siri (laboratoriya va dala sharoitida) bo'yicha dastlabki tadqiqot natijalari keltirilgan. Saqlash muddati bo'yicha tajribalar quyidagi varianlarda olib borildi: 1-variant – bir yil saqlangan urug'lar; 2-variant – ikki yil saqlangan urug'lar. *L. royleana* ning 2 yil saqlangan urug'larning unuvchanligi gibberellinning 0.2% li eritmasida 8 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich distillangan suv variantga nisbatan ikki barobar past bo'ldi. 1 yil saqlangan urug'larning unuvchanligi esa distillangan suvda 28 % ni tashkil etib, gibberellinning 0.2% li eritmasidan kichik farq bilan ustunlik qilishi namoyon bo'ldi. Turli muddatlar saqlangan urug'lardan dala sharoitida unib chiqqan o'simliklarning ontogenez jarayonida ham rivojlanish jarayonlari turlicha namoyon bo'ldi, ya'ni bir yil saqlangan urug'lardan ungan nihollar ikki yil saqlangan urug'lardan ungan nihollarga nisbatan tezroq o'sib-rivojlandi. Unib chiqish foizida ham katta farq kuzatildi, ya'ni 1 yil saqlangan urug'lar 4 barobar ko'p miqdorda unib chiqdi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, *L. royleana* urug'larining saqlash muddatlarining ortib borishi urug'larning unib chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Mallachoy, saqlash muddati, gibberellin, urug' unuvchanligi.

Полатова Азиза Рамазан кизи
Докторант Национального университета Узбекистана
Махкамов Тробжон Хусанбоевич
Доцент Ташкентского государственного аграрного университета, к.э.н.

ВЛИЯНИЕ СРОКОВ ХРАНЕНИЯ И ГИББЕРЕЛЛИНА НА ВСХОЖЕСТЬ СЕМЯН LALLEMANTIA ROYLEANA (BENTH.) BENTH.

Аннотация. В статье представлены результаты предварительного исследования влияния сроков хранения и гиббереллина (в лабораторных и полевых условиях) на всхожесть семян *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth. Опыты по срокам хранения проводились в следующих вариантах: вариант 1 - семена хранились один год; вариант 2 – семена хранились два года. Всхожесть семян *L. royleana*, хранившихся в течение 2 лет в 0,2% растворе гиббереллина, составила 8%, этот показатель был вдвое ниже по сравнению с вариантом с дистиллированной водой. Всхожесть семян, хранившихся в течение 1 года, в дистиллированной воде составила 28% и с небольшой разницей превосходила 0,2% раствор гиббереллина. Растения, проросшие из семян, хранившихся в течение разных периодов времени, в течение онтогенеза демонстрировали разные процессы развития в полевых условиях: сеянцы, выращенные из семян, хранившихся в течение одного года, росли быстрее, чем сеянцы, выращенные из семян, хранившихся в течение двух лет. Существенная разница наблюдалась и в всхожести семян, хранившихся 1 год, прорастали в 4 раза больше. В заключение можно сказать, что увеличение срока хранения семян *L. royleana* отрицательно влияет на всхожести семян.

Ключевые слова: Лаллеманция Ройля, срок хранения, гиббереллин, всхожесть семян.

Polatova Aziza Ramazon kizi
Doctoral student of the National University of Uzbekistan
Makhkamov Trobjon Husanboyevich
Associate Professor of Tashkent State Agrarian University, PhD

EFFECT OF STORAGE TIME AND GIBBERELLIN ON SEED GERMINATION OF LALLEMANTIA ROYLEANA (BENTH.) BENTH.

Annotation. The article presents the results of a preliminary study of the effect of storage periods and gibberellin (in laboratory and field conditions) on the germination of *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth seeds. The experiments on storage periods were carried out in the following variants: variant 1 - the seeds were stored for one year; variant 2 - the seeds were stored for two years. The germination of *L. royleana* seeds stored for 2 years in a 0.2% gibberellin solution was 8%, this figure was two times lower compared to the variant with distilled water. The germination of seeds stored for 1 year in distilled water was 28% and with a small difference exceeded the 0.2% gibberellin solution. Plants germinated from seeds stored for different periods of time demonstrated different development processes in field conditions during ontogenesis: seedlings grown from seeds stored for one year grew faster than seedlings grown from seeds stored for two years. A significant difference was also observed in seed germination: seeds stored for one year germinated 4 times more. In conclusion, it can be said that increasing the storage period of *L. royleana* seeds negatively affects seed germination.

Key words: *Lallemantia royleana*, storage periods, gibberellin, seed germination.

Kirish.

Bugungi kun olimlari oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri butun dunyo bo'ylab dori-darmon ishlab chiqarish tarmog'ining dorivor vositalarni tabiiylashtirish va dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyojni qondirish bo'lib qolmoqda. Hozirda mavjud dori-darmonlarning 60% ni dorivor o'simlik xom-ashyolaridan olingan preparatlar tashkil etishi Butun Jahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining ma'lumotlarida ham qayd qilingan. Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda hamda ushbu dorivor o'simliklarning 80 % ini tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. Dorivor vositalarni ishlab chiqarish uchun dorivor o'simliklar xom-ashyo bazasiga bo'lgan ehtiyoj butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi dori-darmon ishlab chiqarish sanoatida ham ortib bormoqda.

Tabiiy ravishda Afg'oniston, Fors ko'rfazi davlatlari, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Quvayt, Pokiston, Falastin, Saudiya Arabistoni, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, G'arbiy Himolay va G'arbiy Sibir hududlarida tarqalgan *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth o'simligi ham dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Lallemantia royleana (Benth.) Benth — dunyoning turli mintaqalarida yetishtiriladigan efir moyli, dorivor o'simlikdir. U o'ziga xos gulli o'simliklarni birlashtirgan eng katta oilalardan biri *Lamiaceae* oilasiga kirib, bir yillik o't hisoblanadi [1].

Fors an'anaviy tibbiyotida *Lallemantia royleana* urug'lari asrlar davomida ishlatilib kelinmoqda. Eronda urug'lari oshqozon-ichak kasalliklari, buyrak va siydik yo'llari kasalliklari hamda terining asoratlarini davolash kabi maqsadlarda keng qo'llaniladi.

Farhadi [2] tomonidan Balangu (BSG) urug'laridan iliq suvda ekstraksiya qilish orqali yangi, suvda eruvchan polisaxarid ajratilgan va keyin tozalangan. BSG tarkibida namlik 8,2%, kul 13,1%, oqsil 1,6% va uglevod 77,1% mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, lipid tarkibi kuzatilmagan. Elementar tahlili shuni ko'rsatadiki, BSG

tarkibida uglerod 33,39%, vodorod 4,05%, kislorod 35,45% va azot 0,31% ni tashkil qilgan.

Saleem va boshqalar [3] tomonidan olib borilgan *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth urug'ining kimyoviy tahlili bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, urug'lar tarkibida: 25,60% oqsil, 18,27% yog', 1,29% tola, alkaloidlar, antrakinsonlar, flavonoidlar, glikozidlar, folobtannin taninlari, uchuvchi yog'lar, aralash yog' kislotalari va terpenoidlar mavjudligi aniqlangan. U mikroblarga qarshi antimikrob, antioksidant, antidepressant, anksiyolitik, sedativ, qusishga qarshi, gipolipidemik, himoya va boshqa ko'plab farmakologik ta'sirlarni o'z ichiga olgan farmakologik ta'sir ko'rsatkichlariga ega. Bu teri kasalliklari uchun yaxshi vosita bo'lishi mumkinligi qayd etilgan.

B.M. Kershengols [4] ning ko'satishi bo'yicha urug'larning uzoq vaqt saqlanishi uning saqlash sharoitlariga bog'liq. Shuning uchun urug'larni genbankasini saqlash bo'yicha usullarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. O'simlik urug'larning uzoq umr ko'rish muddati ya'ni omon qolish davri turlar orasida katta farq qiladi [5, 6]. Ma'lumki, urug'larning uzoq muddat saqlanishi saqlash sharoitlariga xos bo'lgan biologik omillarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi, bunda harorat, namlik, kislorodning qisman bosimi, saqlashning mikrobiologik tozaligiga bog'liq va boshqalar [7, 8, 9].

Jahon tajribasi va ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, urug'larni o'nlab yillar davomida yuqori unumdorligini saqlab turishi uchun saqlashni to'g'ri tashkil qilish bilan erishish mumkin [10]. Shu bilan birga keyingi yillarda urug'larni me'yorlarda ko'rsatilganidan ko'ra quruqroq (o'ta quruq), hatto xona sharoitida ham uzoq muddat saqlanishi mumkin bo'lgan usullar ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Madrid politexnika universiteti olimlari *Brassicaceae* oilasiga mansub 37 turdagi urug'lar silikagel bilan 1,5-3% gacha quritilgan va shisha ampulalarda muhrlangan holda 40 yil saqlanganidan keyin dastlabki darajasida unib chiqishini saqlab qolganligini ko'rsatdi [5, 11]. Biroq, urug'larning haddan tashqari quritilishi unuvchanligining yo'qolishiga olib kelishi mumkin [12]. Har bir o'simlik urug'i uchun quritish

chegarasi urug'larning morfologik xususiyatlari, ularning biokimyoviy tarkibi bilan bog'liq [13].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada qimmatli dorivor o'simlik hisoblangan *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth o'simligi urug'unuvchanligi laboratoriya va dala sharoitida ularning saqlanish muddatiga bog'liq holda o'rganilgan dastlabki ilmiy tadqiqot natijalari keltirildi.

Tadqiqot ob'yekti va uslublari.


Tadqiqot ob'yekti *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth. – o'ziga xos gulli o'simliklarni birlashtirgan eng katta oilalardan biri bo'lgan *Lamiaceae* oilasiga kiruvchi bir yillik o't hisoblanadi. Eronda "Balangu", Pokistonda "Tuxmalanga", O'zbekistonda "Mallachoy" nomi bilan mashhur efir moyli o'simlik.

Urug'larning unuvchanligini aniqlashda M.K. Firsova [14] va O.N. Granitova [15] metodlaridan foydalanildi. O'simlikning urug'larini laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlash uchun Petri kosachasida distillangan suv hamda gibberellinning 0.2% li eritmasi bilan namlangan filtr qog'oz ustida o'simlikning 100 ta dan urug'i o'stirib ko'rildi. Ko'p o'simlik urug'larining unib chiqishi uchun optimal harorat 24°C ekanligini hisobga olib, shu haroratli termostatda urug'unuvchanligi kuzatildi. Urug'larning unuvchanligini aniqlash uchun uch xil variantda tajribalar qo'yildi: 1-variant 2024-yilda ungan o'simlik urug'lari (tinim davrini o'tamagan), 2-variant bir yil saqlangan urug'lar, 3-variant ikki yil saqlangan urug'lar. Laboratoriya sharoitida o'rganish uchun 2022 yil oktyabr oyida Islomoboddan (Pokiston) olib kelingan va 2024-yil may oyigacha xona haroratida saqlangan urug'lar hamda 2023-yil O'zbekiston sharoitida o'stirilgan va iyul oyida terib olinib 2024-yil may oyigacha xona haroratida saqlangan urug'lardan foydalanildi.

Dala sharoitida kuzatish uchun bir xil o'g'it solingan dala yer maydoniga bir xil miqdorda urug' ekildi va bir xil parvarish qilindi.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Laboratoriya sharoitida urug'larning unib chiqishi 3-4 kundan keyin boshlanib, 20 kun davom etdi. Tajribalarda urug'lar saqlanish muddatining ortib borishi urug'unuvchanlik intensivligining kamayib borishiga olib kelishi namoyon bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. 1 yillik (A, B) va 2 yillik (C, D) urug'larning laboratoriya sharoitida unuvchanligi: A, C – distillangan suv; B, D – gibberillinning 0.2 % li eritmasi.


Lallemantia royleana o'simligida 2 yil davomida saqlangan urug'larning unuvchanligi gibberillinning 0.2% li eritmasida 8 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich distillangan suvda ungan o'simlik ko'rsatkichidan deyarli ikki barobar kam edi. 1 yil saqlangan urug'larning unuvchanligi esa distillangan suvda 28 % ni tashkil etib, gibberillinning 0.2% li eritmasidan kichik farq bilan ustunlik qilishi namoyon bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

O'simlik urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi

Kunlar	Distillangan suv, dona		Gibberellin 0.2%, dona	
	1 yillik	2 yillik	1 yillik	2 yillik
06.05.2024	Urug'lar 24°C haroratga termostatga joylashtirilgan kun			
10.05.2024 (4-kun)	18	3	11	3
13.05.2024 (7-kun)	22	9	15	5
21.05.2024 (15-kun)	28	15	21	8
26.05.2024 (20-kun)	28	15	21	8


O'simlik urug'larining dala sharoitida unuvchanligi. 2022-yil Pokistondan olib kelib 2 yil va 2023-yil O'zbekistonda yetishirilib 1 yil saqlangan *Lallemantia royleana* urug'lari 2024-yil aprel oyida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Botanika bog'i tajriba dalasiga bir xil sharoitda bir xil miqdorda ekildi (2-rasm).





2-rasm. Tajriba olib borilgan yer maydoni

Bir yil saqlangan o'simlik urug'lari nisbatan ertaroq ya'ni 3-4 kundan boshlab unib chiqish boshladi. 2 yillik urug'lar esa 5-6 kundan unib boshladi. 1 yillik urug'lardan unib chiqqan o'simlik ikkinchi chinbarglari chiqqanda 2 yillik o'simlik urug'laridan unib chiqqan o'simlikda endi birinchi chinbarglar yozila boshladi. Shunga mos ravishda o'simlik ontogenez jarayonida ham o'simlikning rivojlanishi bir yillik urug'larda ustunlik qildi (3-rasm).



3-rasm. Ontogenez jarayonida o'simlik bo'yi (A – bir yillik, B – ikki yillik).

Unib chiqish foizida ham nisbatan katta farq kuzatildi ya'ni 1 yillik urug'lar 4 barobar ko'p miqdorda unib chiqdi (4-rasm).



4-rasm. Urug'larning unib chiqishi (A – bir yillik urug'lar, B – ikki yillik urug'lar).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aksariyat o'simlik urug'lari unuvchanligini yillar davomida kamaytirib boradi. Bizning tadqiqotlarimiz ham shuni ko'rsatdiki, *Lallemantia royleana* (Benth.) Benth o'simligi urug'larining unuvchanligi yildan yilga kamayib borishi, saqlash muddatining ortib borishi urug'larning unib chiqish foiziga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Gormon ta'sirida mazkur o'simlik urug'ining unib chiqish ko'rsatkichi distillangan suvdagi unuvchanlikdan past bo'lishi aniqlandi. Distillangan suvda unuvchanlikni uzoqroq muddatda yuqori bo'lishi urug'ning shilimshiq bilan qoplanganligi hisobiga yetarlicha suvni shimib olish jarayonini sekin ketishi bilan asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulrasool A. A., Naseer A. A., Rahi F. A. Application of seed mucilage extracted from *Lallemantia royleana* as a suspending agent //Iraqi J Pharm Sci. – 2011. – T. 20. – №. 1. – C. 8-13.
2. Farhadi N. Structural elucidation of a water-soluble polysaccharide isolated from Balangu shirazi (*Lallemantia royleana*) seeds //Food Hydrocolloids. – 2017. – T. 72. – C. 263-270.

3. Saleem A. et al. Therapeutic Role of *Lallemantia royleana* (Balangu Seeds) and Its Pharmacological Properties: An Overview // *Sch Bull.* – 2022. – Т. 8. – №. 9. – С. 283-287.
4. Кершенгольц Б. М., Жимулев И. Ф., Гончаров Н. П., Чжан Р. В., Филиппова Г. В., Шеин А. А., Прокопьев И. А. Сохранение генофонда растений в условиях многолетней мерзлоты: состояние, преимущества, перспективы. // *Вавиловский журнал генетики и селекции*, 2012, ТОМ 16, № 3 С. 675-681
5. Hong T. D., Ellis R. H. A protocol to determine seed storage behaviour // *Irgri Technical Bulletin* No. 1, 1996. – 48 P
6. Филипенко Г.И., Забегаева О.Н., Баранова Е.А. Хранение ультрасухих семян как способ сохранения генетических ресурсов растений. // *Биологические науки* ISSN 2311-2158. *The Way of Science*. 2015. № 10 (20). С. 39-41
7. Reed S.M. Effect of storage temperature and seed moisture on germination of stored flowering dogwood seed // *J. Environ. Hort.* 2005. V. 23. No. 1. P. 29–32.
8. Walters C., Ballesteros D., Vertucci V. A. Structural mechanics of seed deterioration: Standing the test of time // *Plant Science.* – 2010. V.179. – P. 565–573.
2. Аветисян В.Е. Химические свойства макротаксономии сем. *Brassicaceae* // Актуальные вопросы ботаники в СССР. Тезисы научной конференции. – Алма-Ата: Наука, 1988. – С. 8-9.
3. Алоева Л.М. К изучению рода *Astragalus* // Сообщ. АН Груз. ССР. 1968. 52 (1). – С. 196-197.
4. Алявдина А.А. Значение анатомии плодов и семян для систематики сем. *Cruciferae* // Ж. русск. бот. об-ва. – Ленинград-Москва. 1931. 1(16). – С. 85-100.
5. Бутник А.А. Строение зародышей маревых // Узбекский биологический журнал. – Ташкент: ФАН, 1969. № 2. – С.36-39.
6. Бутник А.А. Структурные типы семядолей маревых // Морфобиологические особенности дикорастущих растений Узбекистана. – Ташкент: ФАН, 1974. – С. 43-49.
7. Бутник А.А. Карпология характеристика представителей сем. *Chenopodiaceae* Vent. // Ботанический журнал. – Ленинград: Наука, 1981. – Т. 66. – № 10. – С. 1433-1443.
8. Бутник А.А., Тодерич К.Н., Матюнина Т.Е., Жапакова У.Н., Юсупова Д.М. Справочник по морфологии плодов и биологии прорастания семян пустынных растений. – Ташкент: Yangi Nashr, 2016. – 318 с.
9. Бутник А.А., Турсынбаева Г.С. Анатомическое строение семядолей некоторых видов эфемеров. // Актуальные проблемы экологии растений. матер. респ. конф. – Ташкент: ДАН РУз, 2012. – С. 48-52.
10. Галкина Н.В., Несмеянова А.Д. К биологии прорастания семян пустынных растений // ДАН ССР. 1952. № 2. – С. 37-41.
11. Гванианидзе З.И., Федерова Т.А. Сем. *Caryophyllaceae* // Сравнительная анатомия семян. – Ленинград: Наука, 1991. Т.3. – С. 59-74.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Sharipov Ilyosbek Qodirali o'g'li

Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
Email: sharipovilyosbek10@gmail.com

Batoshov Avazbek Risqulovich

Namangan davlat universiteti, biologiya fanlari doktori, professor
Email: avazbek7677@mail.ru

MARKAZIY FARG'ONA BOTANIK-GEOGRAFIK OKRUGI FLORASINING "O'ZBEKISTON MILLIY GERBARIYSI" (TASH) FONDIDA SAQLANAYOTGAN NAMUNALARINING OILALAR BO'YICHA TAHLILI VA O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya. Farg'ona vodiysida aniq maqsadga yo'naltirilgan floristik tadqiqotlar kam o'tkazilgan bo'lib, asosan ma'lum turkum turlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. To'r tizimli xaritalash va o'simlik dunyosining zamonaviy ro'yxatini yaratish maqsadida O'zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan Farg'ona vodiysining tekislik-cho'l qismidan terilgan gerbariy namunalari o'rganildi. Gerbariy namunalari terilgan yillari va kollektorlari to'liq tahlil qilindi.

Kalit so'zlar. Gerbariy, flora, Farg'ona vodiysi, to'r tizimli xaritalash.

Шарипов Илёсбек Қодирали угли

Наманганский государственный университет, докторант

Батосов Авазбек Рискулович

Наманганский государственный университет, доктор биологических наук, профессор

СЕМЕЙНЫЙ АНАЛИЗ И ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ФЛОРЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО ФЕРГОНСКОГО БОТАНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОКРУГА, ХРАНЯЩИХСЯ В ФОНДЕ «НАЦИОНАЛЬНОГО ГЕРБАРИЯ УЗБЕКИСТАНА» (ТАШ)

Аннотация. В Ферганской долине флористические исследования, преследующие конкретную цель, проводятся очень мало, в основном проводятся исследования, посвященные изучению отдельных видов. С целью создания сеточной систематической картографии и современного списка флоры изучены гербарные образцы, собранные из равнинно-пустынной части Ферганской долины, хранящиеся в Национальном гербарии Узбекистана (ТАШ). Полностью проанализированы годы и коллекционеры гербарных образцов.

Ключевые слова. Гербарий, флора, Ферганская долина, картографирование сеточной системы.

Sharipov Ilyosbek Qodirali o'g'li

Namangan State University, PhD student

Batoshov Avazbek Riskulovich

Namangan State University, doctor of biological sciences, professor

FAMILY ANALYSIS AND HISTORY OF STUDYING SPECIMENS OF FLORA OF THE CENTRAL FERGONA BOTANIC-GEOGRAPHICAL DISTRICT, KEPT IN THE FOUNDATION OF THE NATIONAL HERBARIUM OF UZBEKISTAN (TASH)


Abstract. In Fergana Valley, floristic studies aimed at a specific goal have been carried out very little, mainly researches devoted to the study of certain species have been carried out. Herbarium specimens collected from the plain-desert part of the Fergana Valley, stored in the National Herbarium of Uzbekistan (TASH), were studied in order to create a grid systematic mapping and a modern list of flora. The years and collectors of herbarium specimens were fully analyzed.

Keywords. Herbarium, flora, Fergana Valley, grid system mapping.

Kirish.

Farg'ona vodiysi tabiiy landshaftlarni saqlab qolish muammosining dolzarbligi bilan alohida ajralib turadigan mintaqalardan biri hisoblanadi. Markaziy Farg'ona botanik-geografik okrugi geografik jihatdan Qayroqum-Yozyovon hamda Sharqiy Farg'ona rayonlarini o'z ichiga oladi [4]. Tadqiqot hududi asosan dengiz sathidan 200-600 metr balandlikda joylashgan bo'lib, juda katta qismi aholi tomonidan o'zlashtirilgan, tabiiy hududlari asosan cho'l landshaftidan iborat. Farg'ona vodiysi hududi hozirga qadar ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan dastlabki tadqiqotlar O.Fedchenko, B.Fedchenko (1868-1671) tomonidan amalga oshirilgan. Farg'ona vodiysi bo'ylab olib borilgan ikki yillik izlanishlar davomida 1527 ta turning bir nech ming gerbariy namunalari yig'ilgan [11]. yana bir tadqiqot ishlaridan biri O.N.Bondarenkoga tegishli bo'lib, 1949-1950 yillar davomida Namangan viloyatida tadqiqot ishlarini olib borgan. Ushbu tadqiqot ishi vodiyning shimoliy qismida joylashgan Namangan viloyatidagi o'simliklar qoplami va uning xo'jalikdagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Ishda o'simliklar qoplamidagi 15 formatsiya, 52 assotsiatsiyalarga tavsif berilgan va 600 yaqin turlarning ro'yxati keltirilgan. Undan tashqari, Namangan viloyatining 1:200000 masshtabli o'simliklar qoplami xartasini ham tuzgan [6]. Navbatdagi tadqiqot ishi *Chenopodiaceae* oilasiga mansub keng ko'lamli tadqiqotni O.Pratov tomonidan 1962-1964-yillar davomida olib borilgan. O.Pratov tomonidan 1970 -yilda yozilgan,, Farg'ona vodiysi sho'radoshlari (*Chenopodiaceae*)" asarida oilaning 37 turkumga mansub 119 turini shakillantirgan, hamda tadqiqotlar natijasida, mazkur oilaning vodiya uchraydigan turlarning to'liq ro'yxati keltirilgan. Shuningdek, turlarning tarqalishidagi 14 qonuniyatlar, o'simliklar qoplamidagi ishtiroki, ekologiyasi, xalq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risida batafsil kerakli ma'lumotlar berilgan. Undan tashqari, oila vakillari dominantlik qilgan o'simlik jamoalarining (assotsiatsiya) floristik tarkibi keltirgan. O'rta Osiyo cho'llarining janub va shimoliy qismida tarqalgan oila vakillarining tarkibi bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan [3]. Farg'ona vodiysida aniq maqsadga yo'naltirilgan navbatdagi tadqiqot ishi M.M. Arifxanova (1967) tomonidan olib borilgan va "Растительность Ферганской долины " nomli risolada o'z aksini topgan. Olima tomonidan olib borilgan izlanishlar tadqiqot hududida 97 oilaga mansub bo'lgan 2625 tur tarqalganligini ma'lum qiladi. Ulardan 454 tur bir urug'pallali o'simliklar borligini qayd etgan [1]. Tangribergan Xudayberdiyev (1997) tomonidan birinchi marta Farg'ona vodiysida tarqalgan Yalpizdoshlar (*Lamiaceae*) oilasi flora va o'simliklar qoplami 16 tarkibidagi taksonomik birlik sifatida tadqiq qilingan. Ish asosan oila vakillarining o'simliklar qoplamida tutgan o'rni, tur tarkibini aniqlashtirishga bag'ishlangan. Muallif ma'lumotlariga ko'ra, mazkur hudud florasida 36 turkumga mansub bo'lgan 184 tur uchrashini qayd etilgan


[5]. Yana bir tadqiqot ishi Turobjon Maxkamovga tegishli bo'lib (2009) Farg'ona vodiysining ruderal o'simliklar qoplami o'rganishga bag'ishlangan. Navbatdagi yana bir tadqiqot ishi Karimov Farxod Isomidinovich tomonidan bir urug'pallali geofitlarning taksonomik tarkibini aniqlash va konspektini tuzish, taksonomik, geografik va fitotsenologik tahlil qilish, bir urug'pallali geofitlar hayotiy shakllarining turli guruhchalari o'rtasidagi nisbatini aniqlash, endem turlar tarkibini aniqlash, bir urug'pallali geofitlarning tirik kolleksiyasini yaratish kabi tadqiqot vazifalari amalga oshirilgan bo'lib, Farg'ona vodiysi florasida 210 tur, 25 turkum va 9 oilaga mansub bir urug'pallali geofitlar o'sishi aniqlangan [5].



1-rasm. Markaziy Farg'ona botanik-geografik okrugi hududlarining to'r tizimli xartasi

Tadqiqot obyekti va metodi. O'zbekiston milliy gerbariysi (TASH) fondida hozirgi kunda 1.5 mln. dan ortiq gerbariy namunalari mavjud [10]. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston milliy gerbariysi (TASH) fondida saqlanayotgan Markaziy Farg'ona botanik-geografik okrugi hududidan terilgan 3000 dan ortiq gerbariy namunalari ma'lumotlarning asosiy manbasi hisoblanadi. Mavjud gerbariy namunalarinining ilmiy nomlarini aniqlashda POWO (www.plantsoftheworldonline.org) [8], International Plant Names Index [Электронный ресурс] [9], elektron saytlaridan foydalanildi.

Gerbariy fondida (TASH) saqlanayotgan Markaziy Farg'ona botanik geografik okrugiga tegishli yetakchi oilalarning qiyosiy tahlili



1-diagramma

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.
 Markaziy Farg'ona botanik-geografik okrugida hududidan 1871-yildan hozirga qadar terilgan 3000 dan ortiq gerbariy namunalarning inventarizatsiyasi amalga oshirilib 52 ta oila tahlil qilindi (1-jadval). Ular 257 ta turkumga mansub 518 ta turdan iborat ekanligi aniqlandi. Dastlabki gerbariy 1871-yilda O.Fedchenko tomonidan Qo'qon shahri atrofidan terilgan. Tahlil natijalariga ko'ra hudud florasida yetakchilik qiladigan polimorf oilalarga Poaceae Barnhart, Asteraceae Bercht. & J.Presl, Amaranthaceae Juss., Brassicaceae Burnett., Apiaceae Lindl., Boraginaceae Juss., Ranunculaceae Juss., Rosaceae Juss., Polygonaceae Juss., Cyperaceae Juss. oilalari kirishi aniqlandi (1-diagramma). Demak natijalar shuni ko'rsatadiki, Poaceae Barnhart oilasi 45 turkum 97 tur bilan hududda yetakchilik qiladi. Keyingi o'rinlarda turlar sonini nisbatan ko'pligi bilan Asteraceae Bercht. & J.Presl 30 turkum 66 ta tur, Amaranthaceae Juss. 27 turkum 53 ta tur, Brassicaceae Burnett. 27 turkum 44 ta tur, Apiaceae Lindl. 15 turkum 20 ta tur, Boraginaceae Juss. 13 turkum 26 ta tur, Ranunculaceae Juss. 9 turkum 21 ta tur, Rosaceae Juss. 8 turkum 20 ta tur, Polygonaceae Juss. 6 turkum 19 ta tur, Cyperaceae Juss. 7 turkum 18 ta turni o'z ichiga olgan oilalar tashkil qiladi.

O'zbekiston Milliy Gerbariysida saqlanayotgan Markaziy Farg'ona botanik -geografik okrugidan terilgan oilalarning turkum, tur va gerbariy namunalari soni

1-jadval

T/R	Oila	Turkum soni	Tur soni	Gerbariy soni
1	Amaryllidaceae J.St.-Hil.	1	2	15
2	Apiaceae Lindl.	15	20	42
3	Boraginaceae Juss.	13	26	89
4	Caprifoliaceae Juss.	5	5	34
5	Geraniaceae Juss.	1	2	15
6	Lamiaceae Martinov.	1	2	5
7	Mazaceae Reveal.	1	1	16
8	Plantaginaceae Juss.	2	9	35
9	Rhamnaceae Juss.	1	1	8
10	Scrophulariaceae Juss.	2	3	10
11	Solanaceae Juss.	3	6	32
12	Poaceae Barnhart	45	97	691
13	Primulaceae Batsch ex Borkh.	2	4	16
14	Gentianaceae Juss.	3	3	34
15	Brassicaceae Burnett.	27	44	131
16	Zygophyllaceae R.Br.	3	9	52

17	Nitrariaceae Lindl.	1	1	5
18	Violaceae Batsch.	1	5	8
19	Ulmaceae Mirb.	1	1	1
20	Typhaceae Juss.	1	3	8
21	Thymelaeaceae Juss.	1	1	6
22	Tamaricaceae Link.	1	2	11
23	Rhamnaceae Juss.	2	3	7
24	Haloragaceae R.Br.	1	1	1
25	Salicaceae Mirb.	1	5	6
26	Rutaceae Juss.	2	3	23
27	Rubiaceae Juss.	5	9	22
28	Rosaceae Juss.	8	20	55
29	Ranunculaceae Juss.	9	21	88
30	Potamogetonaceae Bercht. & J.Presl	1	4	8
31	Plumbaginaceae Juss.	3	3	10
32	Polygalaceae Hoffmanns. & Link	1	1	1
33	Paeoniaceae Raf.	1	1	1
34	Papaveraceae Juss.	2	2	14
35	Polygonaceae Juss.	6	19	49
36	Onagraceae Juss.	1	7	18
37	Malvaceae Juss.	3	5	20
38	Lythraceae J.St.-Hil.	1	1	1
39	Linaceae DC. ex Perleb	1	3	7
40	Liliaceae Juss.	2	9	11
41	Ixioliriaceae Nakai	1	2	9
42	Hypericaceae Juss.	1	2	3
43	Grossulariaceae DC.	1	2	2
44	Gentianaceae Juss.	4	4	35
45	Amaranthaceae Juss.	27	53	924
46	Asparagaceae Juss.	1	2	8
47	Asphodelaceae Juss.	1	2	7
48	Asteraceae Bercht. & J.Presl	30	66	418
49	Berberidaceae Juss.	1	1	1
50	Bignoniaceae Juss.	1	1	2
51	Ephedraceae Dumort.	1	2	12
52	Cyperaceae Juss.	7	18	72
Jami		257	518	3099

**“O‘zbekiston Milliy gerbariysi” (TASH) noyob
ilmiy obyektida saqlanayotgan Markaziy Farg‘ona
botanik-geografik okrugidan terilgan turlarining asosiy
kollektorlari**

№	Kollektorlar	Gerbariy soni
1	Arifxonova M.M.	115
2	Vvedenskiy I.A.	43
3	Ioffe A.F.	586
4	Pratov O‘.P	186
5	Bondarenko N.O.	176
6	Drobov V. P.	117
7	Saxobiddinov S.S.	126
8	Zakrijevskiy B.C.	286
9	Paziy T.K.	110
10	Maylun Z.A.	57
11	Semenixina T.	58
12	Rozaev A.N.	71
13	Shafeev	30
14	Jabborov A.M.	7
15	Gringof	90
16	Badin A.I.	16

17	Xoliqov S.	17
----	------------	----

Xulosa .

Gerbariy namunalarning inventarizatsiyasi amalga oshirish natijasida Markaziy Farg‘ona botanik-geografik hududi tarqalgan o‘simliklar asosan tabiiy hududlardan terilgan bo‘lib o‘rganilishi lozim bo‘lgan hududlar juda ko‘p. 2024-yildan boshlab tadqiqot hududida keng ko‘lamli tadqiqot amalga oshirish maqsadida hududning to‘r tizimli xaritasidan foydalanib , indekslar kesimida dala tadqiqotlari amalga oshirilyapti . Har bir indeks kesimida gerbariy namunalari yig‘ib borilmoqda. Tabiiy landshafni jadal o‘zlashtirilishi natijasida dala tadqiqotlari davomida ayrim turlarni hududda soni keskin kamayganligi, boshqa turlarni esa o‘sish muhiti buzilganligi sabab hudud florasidan butunlay yo‘qolganligi kuzatildi . Hudud uchun endem va muxofazaga olingan turlarni asrab qolish , ular o‘sadigan joylarni aniqlab muxofaza choralari kuchaytirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arifxonova M.M. Растительность Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 300.
2. Pratov O‘.P. Nabiyev M.M. O‘zbekiston yuksak o‘simliklarning zamonaviy tizimi. - T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2007. b 3-7.
3. Pratov O‘ Marevye (Chenopodiaceae) Ферганской долины, Изд-во «Фан» УзССР, Ташкент-1970. 3-110 с.
4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана. Ботанический журнал Т. 101. 2016.
5. Худойбердиев Т.Х. Губоцветные и растительном покрове Ферганский долина. Докт. биол. наук. // Т.: 1997. С. 44.
6. Бондаренко О.Н. Растительность Наманганской области и ее хозяйственное значение: avtoreferat diss. ... – Toshkent, 1956. –С. 13-15.
7. Каримов Ф.И. Фарғона водийсининг бир уруғпаллали геофитлари. Диссер... докт. биол. наук. – Ташкент: 2016. – 188 с.
8. www.plantsoftheworldonline.org
9. International Plant Names Index [Электронныйресурс]. – URL: www.ipni.org
10. Tojibaev K., Beshko N., Karimov F., Batoshov A., Turginov O., & Azimova, D. The data base of the flora of Uzbekistan. Journal for Arid Land Studies, 24(1), 2014. Pp. 157-160
11. Федченко О.А., Федченко Б.А. Материалы для флоры Феганы , собранные Романовым Н.А. и Беръ Б.Б.- Казань: Императорского университета , 1902. С.4-35.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Ibragimov Baxodir Baxtiyorovich
Sam.DVMCHBU mustaqil izlanuvchi
E-mail:ibragimov.bakhodir@mail.ru

UO‘T:636.92:628.8:543.27

QUYONLARNING AYRIM KLINIK KO‘RSATKICHLARIGA HAVODAGI AMMIK GAZI MIQDORINING TA‘SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada go‘sh t yo‘nalishiga ixtisoslashgan oq yangi zelandiya va kaliforniya zotli quyonlarni yopiq binoda saqlanganda hosil bo‘ladigan ammiak zaharli gazining nafas olish (respiratsiya) chastotasi, yurak qisqarishi (puls) va qon tarkibidagi gemoglobin ko‘rsatkichlariga ta‘siri o‘rganilgan. Olingan ma‘lumotlar asosida quyonlarda ayrim klinik ko‘rsatkichlariga zaharli gazning ta‘sir etish mexanizmi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: quyon, nafas olish harakati, yurak pulsi, gemoglobin, ammiak.

Ибрагимов Баходир Бахтиёрлович
Сам.ГУВМЖБ самостоятельный соискатель

ВЛИЯНИЕ КОЛИЧЕСТВА АММИАКА В ВОЗДУХЕ НА НЕКОТОРЫЕ КЛИНИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОЛИКОВ

Аннотация. В данной статье изучено влияние токсичного аммиачного газа, образующегося при содержании кроликов в закрытых помещениях на показатели дыхания (респирация), сердцебиения (пульс) и уровень гемоглобина в крови кроликов новозеландской белой и калифорнийской пород, специализирующихся на мясном направлении. На основании полученных данных выяснен механизм воздействия токсичного газа на отдельные клинические признаки у кроликов.

Ключевые слова: кролик, дыхательные движения, пульс сердца, гемоглобин, аммиак.

Ibragimov Bakhodir Bakhtiyorovich
Sam.DVMCHBU researcher

INFLUENCE OF THE AMOUNT OF AMMONIA IN THE AIR ON SOME CLINICAL INDICATORS OF RABBITS

Abstract. In this article were researched the effect of toxic ammonia gas, formed when rabbits are kept indoors, on the breathing movement (respiration), heart rate (pulse) and hemoglobin levels in the blood of New Zealand White and Californian rabbits, which specialize in meat production. Based on the data obtained, the mechanism of the toxic gas's effect on individual clinical signs in rabbits was determined.

Key words: rabbit, breathing movements, heart pulse, hemoglobin, ammonia.

Kirish

Hayvonlar saqlanadigan vivariy, laboratoriya yoki chorvachilik binolarida havoning kimyoviy va fizik holati tashqi muhit havosidan sezilarli darajada farq qilib turadi. Ayniqsa bino havosi tarkibidagi gaz miqdori, zararli aralashmalar, chang, mikroorganizmlarning mavjudligi hayvonlarga doimiy ta‘sir qiladi. Bu o‘z navbatida hayvonlarning rezistentligi va mahsuldorligiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Hayvonlarni yopiq binoda saqlashda zoogigiyenik me‘yorlarga rioya qilmaslik havo tarkibida hayvonlarga zaharli ta‘sir qiluvchi gazlar miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Zaharli gazlar konsentratsiyasi

yuqori bo‘lgan binolarda hayvonlarni uzoq vaqt saqlash, normal fiziologik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Quyunchilikdan olinadigan mahsulotlar miqdori va uning sifati eng avvalo naslchilik ishi, oziqlantirish va saqlash sharoiti hamda tashqi muhitning texnogen omil ta‘siri bilan chambarchas bog‘liq. Quyonlarning irsiy imkoniyatidan rasional foydalanish va mahsuldorligini oshirishda quyonxonada zoogigiyenik me‘yorlarni optimal darajada ushlab turish juda katta ahamiyatga ega.

Noqulay mikroiklim sharoitida mahsuldorlik 15 % gacha tushib ketishi va mahsulot birligiga ozuqa sarfi 30-40

% ga ortishi mumkin. Quyvonlar organizmida kechadigan moddalar almashinuvi tashqi muhit bilan chambarchas bog'liq. Hayvonlarni yopiq binoda saqlashda zoogigiyenik me'yorlarga rioya qilmaslik havo tarkibida organizmga zaharli ta'sir qiluvchi gazlar, xususan ammiak miqdorining ko'payishiga olib keladi. Ammiak zaharli ta'sir etuvchi gaz hisoblanib u o'tkir hidli, solishtirma og'irligi havodan yengil, rangsiz gaz bo'lib, u asosan anaerob aktivureaza bakteriyalari hisobiga siydikdan va go'ng tarkibida azot saqlovchi moddalarning parchalanishidan hosil bo'ladi. Tabiatan ammiak bo'g'uvchi gaz hisoblanib, nafas olish yo'llarida adsorbsiyalanadi va organizmni yallig'lantirib nekrozga uchratadi. O'pka orqali qonga o'tib, eritrosit tarkibidagi gemoglobin bilan ishqoriy gematinni hosil qiladi [2].

Ammiak gazi xususiyatiga ko'ra organizmning fiziologiyasiga asfiksiyal va neyrotrop ta'sir etadigan moddalar guruhiga kiradi. Ammiak gazi bor bo'lgan havo bilan nafas olganda toksik o'pka shishi va asab tizimiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek ammiak ham mahalliy, ham rezorbtiv ta'sirga ega bo'lgan gaz hisoblanadi [4].

Inson burni havo tarkibidagi ammiak gazining konsentratsiyasi $3,54 \text{ mg/m}^3$ (yoki 5 ppm) ga yetganda hididan ajrata oladi. Ammiak konsentratsiyasi $21,24 \text{ mg/m}^3$ (yoki 30 ppm) ga yetganda yengil ta'sirlantirish, $35,4 \text{ mg/m}^3$ (yoki 50 ppm) ga yetganda shilliq qavatga kirib boradi [5].

Turli hayvonlar saqlanadigan vivariy yoki laboratoriya binolari havosida sanitariya-gigiyena tadbirlariga rioya qilmaslik, ventilyatsiya tizimining yo'qligi tufayli turli zaharli gazlar miqdori oshib boradi. Odatda hayvonlar saqlanadigan binolar havosi tarkibida zaharli gazlardan karbonat anhidrid (CO_2), ammiak (NH_3), vodorod sulfid (H_2S) va boshqa gazlar uchraydi. Xususan, karbonat anhidrid gazi hayvonlarning nafas olish davomida sodir bo'ladigan gaz almashinuvi jarayonida, ammiak gazi siydikdagi mochevina yoki siydik kislotaning parchalanishidan, vodorod sulfid tarkibida oltingugurt saqlaydigan organik moddalarning to'planib qolishi va chirishi natijasida hosil bo'ladi [1].

Yuqori konsentratsiyalarda ammiak markaziy nerv tizimini kuchli qozg'atadi. Natijada traxeya va bronx muskullari spazmlari, o'pka shishi va nafas olish markazining falajlanishi yuzaga keladi. Shu sababli hayvonlarni yopiq binoda saqlashda hayvonlarning fiziologik ko'rsatkichlariga ammiak gazining ta'sirini o'rganish ularning sog'lomligini, rezistentligini va mahsuldorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zoogigiyenik me'yor bo'yicha yopiq quyvonxona binosining 1 m^3 havosi tarkibida NH_3 miqdori 10 mg dan oshmasligi kerak [2].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotlar SamDVMCHB qoshidagi vivariyda parvarishlanayotgan go'sht yo'nalishidagi oq yangi

zelandiya (NZW) va kaliforniya (Kal) zotli 3 oylik yoshdagi quyvonlar ustida o'tkazildi. Tadqiqotlar davomida bino ichidagi harorat $24-25 \text{ }^\circ\text{C}$ da bo'lib, ikkala zotdagi quyvonlar bir xil sim to'rdan yasalgan katakli usulda saqlandi. Quyvonlar saqlanadigan binoning o'lchami $3 \times 3 \times 2,5$ metrni tashkil etadi. Tajribadan oldin bino ichi siydik va go'ngdan butunlay tozalandi. Bino havosi yaxshilab shamollatildi va binoning eshiklari berkitildi. Bino havosi tarkibidagi ammiak gazi miqdori UG-2 universal gazoanalizatori yordamida binoning turli: yuqori, o'rta va go'ng tushadigan nuqtasida o'lchanib o'rtacha ko'rsatkich hisoblab chiqildi. Universal gazoanalizatorining ishlash prinsipi tekshirilayotgan havoni kapillyar shisha naycha orqali o'tkazib, naycha ichida joylashgan indikator rangining o'zgarishiga asoslangan. Bunda indikatorning rangi havo tarkibidagi ammiak gazining konsentratsiyasi miqdoriga bog'liq holda o'z rangini sariqdan to'q ko'k ranggacha o'zgartiradi. Indikator rangi etalon bilan solishtirilib ammiak gazi miqdori aniqlandi.

Quyvonlarning yurak urishi fonendoskopda fiziologiyada umum qabul qilingan metodlarda aniqlandi. Quyvonlarning yurak urishi boshqa qishloq xo'jalik hayvonlarinikiga qaraganda juda tez, shu sababli har bir quyvonning yurak urishi 5; 10 va 15 soniyada sanalib, o'rtacha bir daqiqalik yurak ritmi hisoblab chiqildi. Nafas olish chastotasi qorin bo'shlig'ining kengayib bo'shashishi sanab aniqlandi. Qondagi gemoglobin miqdori quloq venasidan olingan qon namunasi Sali gemometri orqali kolorometrik usulda aniqlandi. Olingan raqamli ma'lumotlarga matematik-statistik uslubida qayta ishlov berilib: o'rtacha arifmetik qiymat – \bar{X} , o'rtacha arifmetik qiymatning xatosi – S_x , ko'p uchraydigan chastota (Moda) – M_o , guruhlar o'rtasida farqlanishning ishonchlilik mezoni – P Microsoft Office Excel 2007 kompyuter dasturi yordamida tegishli formulalar orqali hisoblab chiqildi [7].

Tahlillar va natijalar

Tadqiqotlar davomida go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan yangi zelandiya va kaliforniya zotli quyvonlarni yopiq binoda saqlanganda hosil bo'ladigan ammiak zaharli gazining nafas olish (respiratsiya) harakati, yurak qisqarishi (puls) va qon tarkibidagi gemoglobin ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlar quyidagi 1-2-jadvallarda keltirilgan.

Tajribaning dastlabki kunida quyvonlar saqlanadigan vivariy binosi diagonal bo'yicha gazoanalizator bilan aniqlanganda uchala shisha naychalarda indikator rangining o'zgarishi aniqlanmadi. Quyvonlarning yurak pulsi oq yangi zelandiya quyvonlarida o'rtacha 198,7 marta/min, nafas olish chastotasi 142,5 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 13,4 g% ni tashkil etdi. Kaliforniya zotli quyvonlarda esa yurak pulsi o'rtacha 203,3 marta/min, nafas olish chastotasi 146,4 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 13,3 g% ga teng bo'ldi. Guruhlar o'rtasida klinik ko'rsatkichlar bo'yicha ishonchli farqlanish aniqlanmadi.

Bino derazalari berkitilib, faqatgina tabiiy mo'ri tuynigi ochiq qoldirildi. Oradan yigirma to'rt soat o'tgandan so'ng bino havosi tarkibida ammiak gazining kuchsiz hidi organoleptik usulda ham mavjudligi sezildi. Havo tarkibidagi ammiak gazi bino diagonali bo'yicha gazoanalizator bilan aniqlanganda uchala shisha naychalardan faqat go'ng yo'lagidan o'lchangan namuna indikatorining rangi o'zgarishi kuzatildi. Ammiak miqdori 5,5 mg/m³ tashkil etib, tajribadagi quyonlarning xulq-atvorida o'zgarish kuzatilmadi. Klinik ko'rsatkichlar aniqlanganda quyonlarning yurak pulsi oq yangi zelandiya quyonlarida o'rtacha 202,1 marta/min, nafas olish chastotasi 144,5 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 13,3 g% ni; kaliforniya zotli quyonlarda esa yurak pulsi o'rtacha 206,9 marta/min, nafas olish chastotasi 147,9 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 13,1 g% ni tashkil etdi. Mazkur muhitda klinik ko'rsatkichlar biroz o'zgargan bo'lsada, ishonch kriteriyasi bo'yicha farqlanish aniqlanmadi.

Vaqt, soat	NH ₃ , mg/m ³	n-10					
		Puls, marta/min		Nafas, marta/min		Hb, g%	
		$\bar{X} \pm S_x$	Mo	$\bar{X} \pm S_x$	Mo	$\bar{X} \pm S_x$	Mo
0	0	198,7±1,54	203	142,5±1,12	141	13,4±0,28	14,3
24	5,5	202,1±1,66	205	144,5±1,12	146	13,3±0,29	-
48	12,7	206,5±1,38	209	148,6±1,19	151	12,9±0,31	-
72	37,5	228,1±1,68	232	154,9±1,20	159	12,2±0,33	13,5

1-jadval. Oq yangi zelandiya zotli quyonlarning klinik ko'rsatkichlari

Tajribaning keyingi ko'rsatkichlari oradan bir sutka o'tgandan so'ng olindi. Bu kunga kelib bino havosi tarkibida ammiak gazining hidi yaqqol sezilib turdi. Havo tarkibidagi ammiak gazi bino diagonali bo'yicha gazoanalizator bilan aniqlanganda uchala shisha naychalardan ham indikator rangining o'zgarishi kuzatildi. Ya'ni butun bino havosi ammiak gaziga to'yingan bo'lib, o'rtacha ko'rsatkichi 12,7 mg/m³ tashkil etdi. Tajribadagi quyonlarning klinik ko'rsatkichlari aniqlanganda oq yangi zelandiya quyonlarida yurak pulsi 206,5 marta/min, nafas olish chastotasi 148,6 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 12,9 g% ni tashkil etdi. Kaliforniya zotli quyonlar guruhida esa mazkur ko'rsatkichlar mos ketma-ketlikda 208,2 marta/min; 149,9 marta/min; 12,9 g% ga to'g'ri keldi. Mazkur muhitda oq yangi zelandiya zotli quyonlarning yurak urishi va nafas olish chastotasining ammiaksiz muhitga nisbatan mos holda 7,8 va 6,1 (P<0,01) birlikka ortgani, qondagi gemoglobin miqdori esa 0,5 g% ga (P>0,05) kamayganligi aniqlandi. Kaliforniya zotli quyonlarda esa yurak urishi va nafas olish chastotasining ammiaksiz muhitga nisbatan

mos holda 4,9 va 3,5 (P<0,05) birlikka ortgani, qondagi gemoglobin miqdori bo'lsa 0,4 g% ga (P>0,05) kamayganligini ko'rsatdi. Quyonlar xulq-atvorida biroz o'zgarish kuzatilib, katak bo'ylab erkin harakatlanmay burchak qismidan joy olishga intilishdi.

2-jadval Kaliforniya zotli quyonlarning klinik ko'rsatkichlari

Vaqt, soat	NH ₃ , mg/m ³	n-10					
		Puls, marta/min		Nafas, marta/min		Hb, g%	
		$\bar{X} \pm S_x$	Mo	$\bar{X} \pm S_x$	$\bar{X} \pm S_x$	$\bar{X} \pm S_x$	Mo
0	0	203,3±1,16	205	146,4±1,19	143	13,3±0,26	13,8
24	5,6	206,9±1,43	207	147,9±1,23	146	13,1±0,27	13,6
48	12,7	208,2±1,49	211	149,9±1,08	152	12,9±0,30	13,8
72	37,5	233,3±1,86	234	157,1±1,28	158	12,3±0,31	13,2

Tajribaning keyingi ko'rsatkichlari oradan yana bir sutka o'tganidan so'ng olindi. Uch sutka davomida to'plangan bino havosi tarkibidagi ammiak gazining hidi dimoqqa juda kuchli sezildi. Havo tarkibidagi ammiak gazi bino diagonali bo'yicha gazoanalizator bilan aniqlanganda uchala shisha naychalardan indikator rangining to'q ranga kirganligi kuzatildi. Bino havosi ammiak gaziga o'ta to'yinib, o'rtacha ko'rsatkich 37,5 mg/m³ ga to'g'ri keldi. Mazkur muhitdagi quyonlarning klinik ko'rsatkichlari aniqlanganda oq yangi zelandiya quyonlarida yurak pulsi o'rtacha 228,1 marta/min, nafas olish chastotasi 154,9 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 12,2 g% ni tashkil etgan bo'lsa, kaliforniya zotli quyonlarida esa yurak pulsi o'rtacha 233,3 marta/min, nafas olish chastotasi 157,1 marta/min, qondagi gemoglobin miqdori 12,3 g% ga to'g'ri keldi. Bu muhitda olingan klinik ko'rsatkichlar ammiaksiz muhitdagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslanganda orada ishonchli farqlanish kuzatildi.

Xususan, oq yangi zelandiya zotli quyonlarning yurak urishi va nafas olish chastotasi ammiaksiz muhitga nisbatan mos holda 29,4 va 10,7 (P<0,001) birlikka ortgani, qondagi gemoglobin miqdori esa 1,2 g% ga (P<0,05) kamayganligini ko'rsatdi. Kaliforniya zotli quyonlarida ham huddi shunday tendensiya kuzatilib, yurak urishi va nafas olish chastotasi mos holda 30,0 va 10,7 (P<0,001) birlikka ortgani, qondagi gemoglobin miqdori bo'lsa 1,0 g% ga (P<0,05) kamayganligi aniqlandi. Quyonlar xulq-atvorida yaqqol o'zgarish kuzatilib, kaliforniya zotli quyonlar guruhi nisbatan bezovtaligi ko'zga tashlandi. Quyonlar erkin oziqlanmasdan bir-birining orasiga yashirinishga o'rinishi kuzatildi. Oq yangi zelandiya quyonlari esa katak burchagiga siqilgan holda joylashgani

kuzatildi. Quyonlarning yetarli miqdorda ozuqa va suv iste'mol qilmaganligi ham qayd etildi. Quyonlarning nafas olish chastotasi bir hil tezlikda bo'lmay, dam kuchayib, dam susayish tempi kuzatildi.

Tadqiqot so'ngida butun bino havosi ventilyatsiya orqali so'rib chiqarildi, go'ng va siydikdan tozalandi. Oradan ikki soat o'tgandan so'ng quyonlarning holati ko'zdan kechirilganda yurak 12-15 birlikka, nafas olish chastotasi esa 3-4 birlikka kamayganligi aniqlandi.

Xulosalar

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yopiq quyonxona binosi ichida to'plangan ammiak gazi miqdori quyonlarning klinik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ammiakning gemoglobin bilan qo'shilib,

ishqoriy gematinning shakllanishi, eritrositlar tarkibidagi gemoglobin kamayishiga olib keldi. Natijada qonning kislorod bilan organizmni ta'minlash funksiyasi kamaydi. Nafas olish chastotasining bir xilda bo'lmasligi natijasida nafas olish yo'lining respirasion yallig'lanish sodir bo'lganligidan dalolat beradi. Shu tufayli nafas olish chastotasining bir xil me'yorda bo'lmay, bir kuchayib, yana susayishi yallig'lanish tufayli sodir bo'ladi. Tadqiqot natijalari, yopiq binolarda quyonlar saqlanganda havo tarkibidagi gazlar miqdorining zoogigiyenik me'yor darajasida bo'lmasligi quyonlar klinik ko'rsatkichlariga hamda xatti-harakatlariga salbiy ta'sir etadigan omil ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ибрагимов Б.Б., Исмаилов М.Ш., Ҳайдаров Э.И., Шокиров Л.Х. Фермер ва шахсий жўжалиқдарда қуёнларни урчитишб озиқлантириш ва сақлаш бўйича тавсиянома. Самарқанд 2020. – 64 б.
2. Кочиш И. И., Калюжный Н. С., Волчкова Л. А., Нестеров В. В. "Зоогигиена". Издательство «Лань», 2008.- 464 с.
3. Меркурьева Е.К. Биометрия в селекции и генетике сельскохозяйственных животных. Москва: Колос, 1970. – 424 с.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Аммиак>
5. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK207883/>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



03.00.00-BIOLOGIYA
journal.namdu.uz
BIOLOGICAL

Sotiboldiyev Akbarxon G'aybullo o'g'li

Namangan davlat universiteti doktoranti

Email: akbarxonsotiboldiyev@gmail.com

Egamberdiev Mexmonjon Xudoyberdievich

Namangan davlat universiteti dotsenti

Email: mehmon78@inbox.ru

Kuchboev Abduraxim Ergashevich

O'zR FA Zoologiya instituti professori

Email: abdurakhim.kuchboev@mail.ru

Odiljonov Xojiakbar Zokirjon o'g'li

Biotexnologiya fakulteti Biologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

UDK 576.895.121

FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN ITSIMONLAR PARAZITI TAENIA MULTICEPS SESTODASINING MORFOLOGIYASI VA BIOLOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yovvoyi va uy itsimonlarda parazitlik qiluvchi *Taenia multiceps* sestodasining Farg'ona vodiysida tarqalishi, morfologiyasi va biologiyasi doir tadqiqotlar keltiriladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko'ra *T. multiceps* turining morfologik tuzilishi va morfometrik o'lchamlari adabiyot ma'lumotlarida keltirilgan ko'rsatgichlariga mos keladi. SHuningdek, mazkur ma'lumotlar ushbu kasallikni oldi olishga doir chora tadbirlarni o'tkazish va nazorat qilishning bo'yicha tavsiyalar berishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: *Taenia multiceps*, sestoda, proglottid, senurus, morfometriya.

Сотибоддиев Акбархан Гайбулло угли

Докторант Наманганского государственного университета

Эгамбердиев Мехмонжон Худойбердиевич

Доцент Наманганского государственного университета

Кучбоев Абдурахим Эргашевич

Профессор Института зоологии, Академии наук Республики Узбекистан

Одиджонов Ходжаакбар Закирджон угли

Студент 4 курса биотехнологического факультета биологического факультета

МОРФОЛОГИЯ И БИОЛОГИЯ ПАЗАРИТА ПСОВЫХ ЦЕСТОД *TAENIA MULTICEPS* РАСПРОСТРАНЁННЫЙ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ.

Annotatsiya: В статье представлены исследования по распространению, морфологии и биологии цестоды *Taenia multiceps*, паразита диких и домашних собак, в Ферганской долине. По результатам проведенных исследований морфологическое строение и морфометрические размеры вида *T. multiceps* соответствуют показателям, приведенным в литературе. Кроме того, эта информация может быть использована для выработки рекомендаций по профилактике и борьбе с этим заболеванием.

Ключевые слова: *Taenia multiceps*, цестода, проглоттида, ценурус, морфометрия.

Sotiboldiyev Akbarxon Gaybullo ugli

Doctoral student of Namangan State University

Egamberdiev Mehmonjon Khudoyberdievich

Associate professor of Namangan State University

Kuchboev Abdurakhim Ergashevich

Professor of the Institute of Zoology, Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan

MORPHOLOGY AND BIOLOGY OF THE CANIDAE CESTODE PARASITE *TAENIA MULTICEPS* COMMON IN THE FERGANA VALLEY.

Abstract: The article presents studies on the distribution, morphology and biology of the cestode *Taenia multiceps*, parasitizing wild and domestic dogs, in the Fergana Valley. According to the results of the studies, the morphological structure and morphometric dimensions of the species *T. multiceps* correspond to the indicators given in the literature. This information can also be used to develop recommendations for the prevention and control of this disease.

Keywords: *Taenia multiceps*, cestode, proglottid, coenus, morphometry.

Kirish

Gelmintlarning *Taenia multiceps* (Leske 1780) turi yovvoyi va uy yirtqich hayvonlarning ingichka ichaklarida parazitlik qilib yashaydigan Taeniid sestodasi hisoblanadi. Lichinka bosqichi, *Coenurus cerebralis* (senurlar), odatda, keng turdagi chorva mollarining markaziy asab tizimida (MAT), ayrim hollarda qo'y va echkilarning orqa miyasida joylashadi (Varcasia et al., 2006). Kasallikning xarakterli klinik belgilari juda ko'p. Bu haqida birinchi marta Gippokrat (miloddan avvalgi 400-375 yillar) xabar bergan bo'lib, u miyadagi suyuqlikning ko'pligini ta'riflagan va uni qo'y, echkilarni epilepsiyaga olib keladigan holat deb hisoblagan. Senuroz bo'yicha dastlabki yozilgan ma'lumotlar 1600 yilga to'g'ri keladi, o'shanda qo'ylar sonining ko'payishi bilan gid kasalligining ko'payishi, parazit va kasallikni yaxshiroq tushunishga olib kelgan. 1656 va 1724 yillardagi tadqiqotlarda, shuningdek, qo'y va qoramollarda miyasida suv bilan to'ldirilgan qopchalar yoki siydik pufagi borligi haqida xabar bergan va bu kasallik hayvonlarda bosh aylanishi va tez-tez o'limining sodir bo'lishiga sabab bo'lgan. Faqat 1780 yilda senurozning tsestod tabiati aniqlangan. *Taenia multiceps* (avvalgi ilmiy nomi *Taenia coenurus*) hayot tsikli 1853 yilda eksperimental ravishda tavsiflangan bo'lib, zararlangan qo'y miyasidan senurlar kistasini itga zararlantirish orqali amalga oshirilgan [4].

Taenia - Taeniidae oilasi tasmasimon chuvalchaglarning tipik avlodi bo'lib, 100 dan ortiq turlari qayd etilgan. Jumladan, *Taenia (Multiceps) multiceps*, *T. serialis*, *T. brauni*, *T. glomeratus* kabilari ko'p uchraydigan turlar hisoblanadi. Tasmasimon chuvalchaglar bilan kamdan kam hollarda odamlar ham zararlandi, bu holat itlar najasidan ajralgan tuxumlarni yutib yuborish natijasida sodir bo'ladi [5].

Adabiyotlar tahlili

O'zbekistonda yovvoyi itsimonlar gelmintlarni o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan bo'lib, bir qator tadqiqotchilar [9,10,11] ish olib borishgan. Keyingi 30 yildan ko'proq vaqt davomida deyarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmadi, ushbu oraliq bosqichni hisobga olgan holda so'ngi yillar mobaynida Qoraqolpog'iston respublikasi hududida yovvoyi itsimonlar gelmintlari tur tarkibi, gelmintofaunaning shakllanish yo'llari o'rganish bo'yicha

A.Berdibaev va boshq. [7] Toshkent megapolisi itlari parazitlari faunasi va ekologiyasi bo'yicha A.Safarov va boshq.[12] ishlari misol bo'la oladi. Mazkur olimlar ishlarida yovvoyi va uy itsimon hayvonlarida *Taenia multiceps* sestoda turini uchrashligi qayd etilgan.

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi itsimonlarida uchraydigan *T. multiceps* turining tarqalishi, morfologiyasi va biologiyasi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tasmasimon chuvalchang namunalari 2024 yil fevral - may oylarida Farg'ona vodiysining Namangan viloyati Namangan, Chust va To'raqo'rg'on tumanlarida tarqalgan yovvoyi va daydi itlardan yig'ildi. Materialni yig'ishda K.I.Skryabinning (1928) murdalarni to'liq gelmintologik yorib ko'rish va ularning alohida a'zolarini tekshirish usuli yordamida amalga oshirildi va keyinchalik kameral qayta ishlandi. Buning uchun tadqiqot davomida ikkita shoqol (*Canis aureus*) va uchta uy (daydi) itlarining (*Canis lupus familiaris*) oshqozon-ichak tizimi tekshirildi. Tadqiqot davomida jami 35 nusxadan oshiq sestodalar yig'ildi. Ingichka ichakdan olingan tasmasimon chuvalchaglar 0.9 % NaCl eritmasi bilan yuvildi va 70 % spirt eritmasida saqlandi. Sestoda turlarini rasmga olishda ML5300L (Meiji Techno, Japan) binokulyar mikroskopi va ToupCam kamerasi va dasturida foydalanildi.

Turni aniqlashda yovvoyi sutemizuvchilar gelmintlari aniqlagichidan foydalanildi [8].


Tahlillar va natijalar

Gelmintologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Namangan viloyatida hududida tekshirilgan barcha shoqol (2/2) va daydi itlar (3/3) *Taenia multiceps* sestodasi bilan 100 % zararlanganligi qayd etildi. Invaziya intensivligi 2-15 nusxada. Quyida topilgan turning morfologik tuzilishi va biologiyasiga doir ma'lumotlarni keltiramiz.


Morfologik tavsif. Katta yoshdagi *Taenia multiceps* tasmasimon chuvalchaglar tanasining (strobila) uzunligi 390-965 mm gacha bo'lib, ular 200-240 bo'g'imlardan iborat bo'ladi. Kengligi 4 - 5 mm tashkil etadi (jadval, 1-rasm). Noksimon skoleksining diametri 0,730-0,956 mm, xartumi 0,300 mm, to'rtta so'rg'ich va o'zgaruvchan sonli ilgaklar (22 dan 32 gacha) bilan ta'minlangan. Katta ilgaklarining uzunligi 0,152 dan 0,175 mm gacha bo'lib, ularning tig'leri

o'tkir, kuchli egilgan, tig'ga o'tish joyida tutqichning (dasta) dorzal chetida chuqur o'yig'i bor; ildiz o'simtalari o'rta qismida kengayadi. Kichik ilgaklarning uzunligi esa 0,098 - 0,136 mkm gacha bo'lib, tig'lari o'tkir, bir oz egilgan, tutqichning distal uchi dorsal tomonga egilgan. Bo'yinchasining uzunligi 2-3 mm. Yetilmagan va yetilgan proglottidlari dastlab kengroq bo'lib, uzunligi tanasining orqa tomoniga qarab asta-sekin o'sib boradi, ular birikkan, ichki uzunlamasiga mushak qobig'i va kuchli rivojlangan ko'ndalang muskullarga ega. Germafrodit bo'g'imlari to'rtburchak shaklda (122-130 bo'g'imlar). Oxiridagi 14-20 bo'g'imlari yetilgan bo'lib, uzunligi 7-12 mm, kengligi 3-5 mm.

Jinsiy so'rg'ichlari kichkina bo'lib, noksimon sirrus bursasining o'rtacha uzunligi 0,325 mm, kengligi 0,110-0,145 mm. Proglottidlarda markaziy tuxumdon bo'lib, uning orqasida sariq (tuxum) bezi joylashgan. Proglottidlarda tartibsiz joylashgan genital teshik bor va bitta old qismida ko'psonli tuxumlar (280 - 350 gacha) mavjud. Proglottidlar harakatchan bo'lib, tuxumi definitiv xo'jayinning najasi bilan tashqariga chiqishidan oldin ham chiqishi mumkin, chunki gravid bachadonning shoxlari proglottidlarning oldingi chegarasigacha cho'zilgan.



i



ii

1-rasm. *Taenia multiceps* (Leske 1780) bosh (skoleks) qismini yorug'lik mikroskopda ko'rinishi (masshtab: i- 10x10; ii- 10x20);

i-ii. a - xartumi; b – ilgaklari; c- so'rg'ichi; d – bo'yinchasi; **iii.** xartum ilgagi: a - kesuvchi qismi; b – tutqichi; c – bo'rtmasi (o'simtasi)

Proglottidlar ajralganda, bachadon shoxlari yorilib, ko'p sonli tuxumlar chiqadi, ular xo'jayin najasida to'planadi, bu esa ularning atrof-muhitga tarqalishiga yordam beradi [6]. Urug'langan proglottidlar uzunroq va torroq bo'lib, bachadonning tanasi bo'ylab har bir tomonda to'qqizdan 25 tagacha shoxchalarga bo'linadi. Ularning har birida 30-35 mkm o'lchamdagi 32000-37000 yaqin tuxumlar mavjud bo'lib, ular jigarrang rangga ega va radial chiziq bilan o'ralgan oltita embrion yoki onkosferani o'z ichiga olgan chiziqli tuxum qobig'idan iborat [1]. *Taenia multiceps* tuxumlarini morfologik jihatdan boshqa taeniid sestodalaridan ajratib bo'lmaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko'ra *T. multiceps* turining morfologik tuzilishi va morfometrik o'lchamlari boshqa adabiyot [5] ma'lumotlarida keltirilgan morfologik ko'rsatgichlarga deyarli mos keladi.


Parazit biologiyasi. *Taenia multiceps* murakkab hayot tsikliga ega (2-rasm), uning xo'jayinlari ichida rivojlanishi va migratsiyasining turli bosqichlari bilan ta'riflanadi (Scala and Varcasia, 2006). Parazitni 40-60 kunlik prepatent davridan so'ng, definitiv xo'jayin uch yoki to'rtta proglottidni chiqaradi har birida deyarli 37 000 tuxumni saqlaydi, yoki najas bilan tashqariga chiqishdan oldin proglottidlardan tuxum ajralib chiqadi. Tuxumlar atrof-muhitni ifloslantiradi, ular yuqori haroratda 24 soat, quruq sharoitda 12-15 kun va nam muhitda 3 hafta davomida yashovchan bo'ladi yoki oraliq xo'jayin tomonidan yutilishi mumkin [3].

Jadval

Taenia multiceps turining morfometrik o'lchamlari (mm)

Parazit belgilari	Varcasia et al., 2022	Bizning ma'lumotlar, n (10)
Tananing uzunligi	400-1000	670±5,0
Tananing kengligi	5	4
Skoleks diametri	0,746-0,956	0,82±0,02
So'rg'ichlar uzunligi	0,314 - 0,326	0,325 ±0,061
Xartumi	0,298-0,300	0,301±0,001
Katta ilgaklar uzunligi	0,157-0,177	0,163±0,01
Kichik ilgaklar uzunligi	0,098-0,136	0,11±0,002
Bo'yinchasi	-	2,3±0,03
Tuxum diametri	0,030-0,035	0,032±0,001

Oraliq xo'jayinning ingichka ichaklarida tuxumdan onkosfera chiqadi va ichak devori bo'ylab harakatlanadi, birinchi navbatda, qon oqimi orqali markaziy asab tizimiga etib boradi va u yerda tsistalanadi, bir necha oy davomida invazion senurusga aylanadi [15]. Metasestoda teri osti, mushak ichiga va qorin bo'shlig'i sohalarida, shuningdek, qo'y va echkilarning yuragi va o'pkasi kabi organlarda rivojlanishi va yetilishi mumkin [2]. Onkosfera quyidagi bosqichlarda rivojlanadi: zararlanishdan keyingi 8-10-kuni, u markaziy asab tizimida (MAT) yetib boradi va keyin 10 kundan 33 kungacha markaziy asab tizimida faol ravishda o'zining yakuniy manziliga yetib boradi; 40-kunda noksimon pufakchaga aylanadi va arang skoleklari ko'rinadi; 2 oydan keyin u gilosning o'lchamiga ega bo'ladi. Zararlanishdan bir necha oy o'tgach, kist yaxshi shakllangan protoskoleklar yetiladi va nihoyat, 7-8 oydan so'ng u haqiqiy o'lchamiga, diametri 5-6 sm ga yetadi [5]. Hayot tsikli, qachonki, definitiv xo'jayin yetilgan protoskoleklarni o'z ichiga olgan senurusni yutganda tugallanadi.



2-rasm. *Taenia multiceps* sestodasining rivojlanish sikli chizmasi.

1) Tasmaimon chuvalchangning tuxumi va voyaga yetgani (xo'jayin organizmi ichida). 2) Tashqi muhitdagi tuxum va proglottidlari. 3) Yuqtirilishi mumkin bo'lgan oraliq xo'jayinlar (mayda shohli hayvonlar va odam). 4) Asosiy xo'jayinlari (itsimonlar).

Xulosa

Tasmali chuvalchanglarning *Taenia multiceps* keltirib chiqaradigan senuroz, boshqa ma'lum metatsetostozlar singari, salomatlik uchun jiddiy muammo bo'lib, mayda shoxli kavsh qaytaruvchi hayvonlar chorvochiligida sezilarli darjada iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin, shuningdek, zoonoz xavfi katta. Farg'ona vodiysi tarqalgan *T. multiceps* turini aniqlash, tarqalishi, morfologik va biologiyasini o'rganish, keyingi tadqiqotlarda bu kasallikni oldi olishga doir chora tadbirlarni o'tkazishda maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, uni nazorat qilishning muqobil strategiyalari, masalan, definitiv xo'jayinlarni zararlanishini oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Desouky E.A, Badawy A.I., Refaat R.A. Survey on coenurosis in sheep and goats in Egypt. Vet Ital. 2011;47:333-40.
2. Oryan A., Akbari M., Moazeni M., Amrabadi O.R. Cerebral and non-cerebral coenurosis in small ruminants. Trop Biomed. 2014;31:1-16.
3. Scala A., Varcasia A. Updates on morphobiology, epidemiology and molecular characterization of coenurosis in sheep. Parasitologia. 2006;48:61-3.
4. Varcasia A., Tamponi C., Ahmed F. et al. *Taenia multiceps* coenurosis: a review. Parasites Vectors 2022. 15, 84 <https://doi.org/10.1186/s13071-022-05210-0>
5. Varcasia A., Toscirri G., Coccone G.N.S., Pipia A.P., Garippa G., Scala A, et al. Preliminary field trial of a vaccine against coenurosis caused by *Taenia multiceps*. Vet Parasitol. 2009; 162:285-9.
6. Willis J.M., Herbert I.V. Some factors affecting the eggs of *Taenia multiceps*: their transmission onto pasture and their viability. Ann Trop Med Parasitol. 1984; 78:236-42.
7. Бердибаев А.С. Қорақалпоғистон йиртқич сут эмизувчилари (Mammalia: Carnivora) гельминтлари// Биология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Ташкент, 2021. -46 б.
8. Козлов Д.П. Определитель гельминтов хищных млекопитающих СССР. - Москва: Наука, 1977. -276 с.
9. Коцанов Е.К. Гельминты диких млекопитающих Узбекистана. Автореф. канд. дисс. Ташкент, 1972. 36 с.
10. Муминов П. Гельминтофауна диких плотоядных Узбекистана и её роль в эпидемиологии и эпизоотологии. Автореферат на соискание ученой степени канд. биол. наук. Самарканд, 1965. 22 с.

11. Муминов П.А., Султанов М.А., Эльбусинова М. и др. Гельминты домашних плотоядных. В кн. Экология паразитов животных Северо-востока Узбекистана. – Ташкент: Фаң, 1986. – С. 55-62.

12. Сафаров А.А., Норкобиллов Б.Т., Акрамова Ф.Д., Азимов Д.А., Мавлонов С.И. Паразиты собак мегаполиса Ташкента. -Ташкент: Фаң, 2021. 156 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Raximdjanoval Dilnavoz Sunnat qizi
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat
oliy ta’lim tashkiloti katta o’qituvchisi, PhD
Email: ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

UDK 123.1

ABU NASR AL-FARABIY IJTIMOIIY-AXLOQIIY QARASHLARIDA ERKINLIKNI AKS ETISHI

Annotatsiya: Maqolada sharq peripatetizm yo’nalishi vakillaridan biri Abu Nasr al-Farobiyning axloq borasidagi fikrlarida erkinlikni tuslanishi va uning inson faoliyatidagi o’rni yoritilgan. Shuningdek, tanlov va iroda tushunchalari haqidagi tasavvurlari o’rganilgan. Uning nuqtayi nazari boshqa faylasuflar bilan solishtirilgan.. O’rta asr falsafasida davrdagi erkinlik va erkin tanlov atamalari diniy-falsafiy qarashlar uyg’unligi asnosida ko’rib chiqilgan. Taqdir va erk masalalariga e’tibor qaratilgan. Insonlarning xatti-harakatlari zaruriyat yuzasidan taqdir orqali amalga oshadimi yoki ularning ixtiyoriy o’zboshimcha harakatlari tufalimi, degan masala yuzasidagi bahsga Farobiy o’zining argumentlarini keltirib o’tadi. Ijtimoiy-axloqiy qarashlarida erkin tanlov alq-idrok chegarasida amalga oshadi degan tezis yordamida Farobiyning insondagi erkinlikni chegarasi haqida so’z brogan.

Kalit so’zlar: erkinlik, qalb, aql, erkin tanlov, iroda, taqdir, istak, azob-uqubat, lazzat, idrok.

Рахимджанова Дилнавоз Суннат кизи
старший преподаватель “ALFRAGANUS UNIVERSITY”
негосударственное высшее учреждение образования

ОТРАЖЕНИЕ СВОБОДЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ АБУ НАСРА АЛЬ-ФАРАБИ

Аннотация: Статья освещает своеобразность свободы в работах одного из представителей восточного направления перипатетизма Абу Насра аль-Фараби, в его размышлениях о морали и ее роли в человеческой деятельности. Также было изучено представление концепций выбора и воли. Его взгляды сравнивались с взглядами других философов. В средневековой философии термины свобода и свободный выбор в то время рассматривались на основе сочетания религиозно-философских взглядов. Акцент делается на вопросах судьбы и воли. На полемику по вопросу о том, совершаются ли поступки людей по необходимости судьбой или их произвольными самостоятельными действиями, Фараби приводит свои аргументы. Используя тезис о том, что свободный выбор в его социально-этических взглядах осуществляется на границе разума, Фараби говорит о пределе свободы в человеке.

Ключевые слова: свобода, душа, разум, свободный выбор, воля, судьба, желание, страдание, наслаждение, восприятие.

Rakhimdjanoval Dilnavoz Sunnat kizi
Senior lecturer of the Department of Social Sciences,
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” non-government
higher education institution

THE REFLECTION OF FREEDOM IN THE SOCIO-ETHICAL VIEWS OF ABU NASR AL-FARABI

Annotation: The article emphasizes the originality of freedom in the works of one of the representatives of the eastern direction of peripatetism, Abu Nasr al-Farabi, in his reflections on morality and its role in human activity. The presentation of the concepts of choice and will was also studied. His views were compared with those of other philosophers. In medieval philosophy, the terms freedom and free choice were considered at that time on the basis of a combination of religious and philosophical views. The emphasis is on issues of fate and will. To the controversy over whether people’s actions are necessarily committed by fate or by their arbitrary independent actions, Farabi gives his arguments. Using the thesis that free choice in his socio-ethical views is carried out on the border of reason, Farabi speaks about the limit of freedom in man.

Key words: freedom, soul, mind, free choice, will, fate, desire, suffering, pleasure, perception.

Kirish

Erkinlikni antik davrdagi tuslanishini ko'rib chiqish jarayonida shunga amin bo'lish mumkinki, uning sermazmunligi o'z davrining chegarasidan chiqib keyingi davrlarda ham aktual masala sifatida qoladi. Shuni hisobga olgan holda falsafa tarixidan sezilarli va o'ziga xos o'rin egallagan arab-musulmon falsafasini ham erkinlik fenomeni chetlab o'tmagan. Ayniqsa, yunon klassik falsafasini o'rgangan va ularning merosiga sharhlar qoldirgan sharq peripatetizmi vakillarini ta'kidlab o'tish joiz.

Falsafa tarixida arab-musulmon falsafasining haqiqiy ijtimoiy mazmuni sodda ko'rinishga ega emas. U ikki sohadan – falsafa va dindan kelib chiqadi. Lekin falsafa “din xizmatkori” sifatida shakllangan Yevropa O'rta asr falsafasidan tubdan farqlanadi. Farobiy yashab ijod qilgan vaqt albatta islom dini keng tarqalib, “teologik jamiyat” mavjud bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Ammo g'arbdagi diniy cherkov qoidalariga qa'iyani rioya qilmagan kimsalarni inkvizitsiyaga duchor qilish hamda qatl qilish kabi holatlar u kabi kuzatilmagan. Bu fikrdan islom dini aqidalarini rad etuvchi ularni qoralovchi va ularga zid keluvchi qarashlarga yo'l qo'yilmagan. Aksincha, yevropa antik davr falsafasi merosi ochiq kutib olinib, yunon va lotin tillaridan arab tiliga tarjima qilingan. Sharq arab-musulmon faylasuflari esa ulardan nafaqat diniy qarashlarini, balki dunyoviy qarashlarini rivojlantirishda foydalanishganlar. Ular o'z zamon va makonlaridagi shakllangan diniy qarashlarini saqlab qolgan holatda, o'ziga xos ilmiy-falsafiy dunyoqarashni paydo qilganlar. Albatta bu davrda diniy bahslar aqidaviy chegaradan chiqmagan va bu yerda o'zining erkin fikri orqali istalgancha tushuntirish qoralangan. Hamma fikrlar muqaddas sura va oyatlarga asoslangan holda bildirilishi talab etilgan. Lekin falsafiy qarashlar diniy dogmatik qarashlarni rad etish yoki e'tiqodni susaytirish uchun ishlatilmagan, aksincha, dunyoni iloh hadya etgan aql bilan anglash va tushuntirish uchun foydalanilgan.

Arab-musulmon falsafasining ilk vakillaridan bo'lgan al-Kindiy jahon falsafasi tarixida “sharq peripatetizmi” deb shartli nom olgan butun bir yo'nalishni boshlab bergan mutafakkirlardan biridir. Bu atamada uning manbasi qayerdan olinganini his etish qiyin emas. Bu bilan al-Kindiy Arab xalifaligidagi falsafaning chegaralarini asosan Aristotelning ratsional-falsafiy tendensiyalariga tayangan holda belgilab bergan. Antik davr falsafa tarixidan ma'lumki, peripatetiklar aynan Aristotelning shogirdlari va izdoshlariga nisbatan qo'llanilgan. U ma'ruzalarini doim shogirdlari bilan bog'da

sayr etib o'tkazgan. Shu tufayli uning maktabi aynan perepatetizm¹ deb nom olgan. Maktabning boshqa nomi “Likey” (Λύκειον; O'rta asr yoki an'anaviy lotin talaffuzida litsey), Aristotel dars bergan gimnaziya yonida joylashgan Apollon Likiy ibodatxonasi nomi bilan bog'liq. Lekin Gegel o'zining “Falsafa tarixi bo'yicha ma'ruzalari”da bunga biroz boshqacha yondashib, Aristotel maktabi “peripatetik” deb nomlanganini uning sayr qilib dars o'tishi bilan bog'liq emasligi, Stagirit (Aristotel) uni sotib olib, u yerda maktab ochishdan oldin Likeyni Perikl sayr etish uchun atayin jihozlaganligini ta'kidlaydi[12]. Aynan shu tufayli likey yoki perepatetizm nomlarini boshqa joylarda uchratish Aristotel qarashlari va merosi bilan bog'liq mazmunga ega bo'lgan ma'lumot sifatida gavdalanadi. Bundan tashqari, al-Kindiy Islom bilan falsafa chiqisha oladimi yoki yo'q degan savolni o'rtaga tashlagan.

Adabiyotlar tahlili

Sharq perepatetizmi falsafasining yirik namoyandasi, Platon va Aristotel asarlarining tahlilchisi Farobiy ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko'plab misollarni keltirishimiz va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to'liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Farobiyning ijodini har tomonlama yorituvchi A.X.Kasimjanov [14], A.D.Azerbayev [8], N.V.Yefremova [13], Fr.Dieterici [1], M.Fakhry [2], M.M.Xayrullayev [17] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, falsafa tarixiga, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tahlillar va natijalar

Sharq perepatetizmini tizimlashtiruvchisi sifatida esa Abu Nasr Farobiy² namoyon bo'ladi. U Aristotelning tirik qarashlarini ilib olgan va rivojlantirgan, mantiqiy bilimlarini o'z falsafasida qo'llagan. “Farobiy – barcha hayotiy tomonlarning hammasini o'ziga qamrab oluvchi falsafiy qarashlar tizimini topadigan birinchi sharq arab-musulmon falsafasining mutafakkiri sanaladi” [16, 219]. Bu

¹ Peripatetizm, peripatetik maktab (yunon. peripateo-yurish, peripatetikos-sayr etish) - Aristotel tomonidan asos solingan falsafiy maktab bo'lib, u ma'ruzalarni o'qiyotganda tinglovchilari bilan bog'da sar etib yurish kabi odati bo'lgan.

² Farobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy) (873, Farob shahri – 950,

Damashq) – O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ'ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o'zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan uchun “al Muallim assoniy” (“Ikkinchi muallim”, Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo'lgan.

to'g'ri fikrni aytib o'tgan muallif yana tabiiy fanlar rivojiga katta hissa qo'shmagan kabi asoslanmagan tanqidni ham keltirib o'tadi [16, 218].

Ibn Rushd ijodi bilan yakun topgan ushbu yo'nalish peripatetizm kvalifikatsiyasi birgina narsani anglatadi: ilk manbaga yo'naltirish. Bunga boshqacha tar'iflar peripatetizmni to'g'ridan to'g'ri talqin qiluvchilarda buni to'g'irlanishlardan holi "asl" Aristotelga qaytish sifatidagi harakatlar amalga oshiriluvchi butun bir jarayon kabi ko'rinishda uchraydi. Bu kabi tushunishning ildizi – sharq falsafasining orginalligi va o'ziga xosligini inobatga olmaslikka borib taqaladi. Tahlilni esa epigon, eklektik, sharxlovchilik ko'rinishda bo'lgan deya xulosa yasaladi.

Gegel zamonasidan buyon ayrim izlanuvchilar orasida O'rta asr arab-musulmon falsafasiga baho "falsafa rivoji jarayonida o'ziga xos bosqich" sifatida tasavvur etilmaydi. E.Renan ta'kidlashicha "falsafa sohasida bog'langan semitik Sharq va O'rta asrlar nimgaki ega bo'lsa, o'z so'zidan kelib chiqqan holda, u yunonlardan o'zlashtirgan sanaladi" [15, 2]. Shunga o'xshash fikrlarni arab-musulmon falsafasini epigon ergashuvchan xarakterga ega deya ta'kidlovchilar va boshqa tadqiqotchilar ham qo'llab-quvvatlamodalar: F.Diteritsi, L.Buur, A.Shtyokl, Karra de Vo, M.Faxri va boshqalar. Bular orasidagi yagona farq antik davr mutafakkirlarining qaysi biri ularning qarashlariga ta'sirini ko'rsatgan: Sokrat, Platon, Aristotel yoki neoplatonchilar.

Albatta yuqoridagi berilgan yondashuv sharq falsafasini plagiat ya'ni ko'chirmachilikda ayblab qo'yilgandek tasavvur uyg'otadi. Lekin shunga e'tibor qaratish lozimki, ilmiy tadqiqotni bajarish jarayonida vorisiylik metodi haqida ko'p marotaba to'xtalib o'tiladi. Bu metod falsafa tarixiga kirib kelganiga uncha uzoq bo'lmagan ammo uni amaliy qo'llanilishi antic davr falsafasida yaqqol namoyon bo'ladi. U yerdagi g'oyalar divergensiyaga uchraganini bilish ham qiyin kechmaydi. Oddiy yunon klassik falsafasi vakillarining g'oyalari ham shunday manipulyatsiyaga uchragan. Ya'ni Sokratning g'oyalarini Platon o'zlashtirib uni o'zining dunyoqarashi va fikrlari bilan boyitgan, biroz o'zgartirgan. Shu o'rinda Aristotel ham Platon g'oyalariga asoslangan holda o'zining tanqidiy yondashuvlarini ishlab chiqqan. Buni yaqqol misolini dissertatsiyaning ikkinchi bobida kuzatish mumkin. Bu uchta yirik mutafakkirlar erkinlik fenomenini bir-birlarining g'oyalarini olib o'zgartirish, rivojlantirish, to'ldirish kabi harakatlarni amalga oshirgan. Shunday ekan sharq peripatetizm vakillari ham bundan mustasno emas. Ular ham xuddi o'sha faylasuflar bajargan vazifalarni ado etgan. Bu shuni isbotlaydiki, sharq arab-musulmon mutafakkirlari antik davr merosini olib tadqiq etish jarayonida undagi kamchiliklarni bartaraf etish, o'z zamonlarining tiliga moslab sharh berish, jamiyatdagi va inson hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni ratsional tushunish va tushuntirish, ularning ayrim g'oyalarini tanqid qilish, o'zlarining dunyoqarashiga mos

keladigan va to'ldiradigan ma'lumotlarni o'rganish kabi o'ziga xos amallarni bajargan. Bunday harakatlarda aynan ularning falsafa rivoji tarixida o'ziga xos o'rinlari bo'lganligini yozib qoldirilgan asarlarini tadqiq etish orqali anglanadi.

Aynan Abu Nasr Farobiy Aristotel va boshqa faylasuflar asarlarini sharhlab qoldirgan. Xattoki, bu bilan bir kichik voqea bog'liq. Ibn Sino Aristotelni asrlarini o'qib o'rgangan paytida uning g'oyalarini angalay olmaydi. Lekin kunlarning birida uning qo'liga aynan Farobiyning Aristotel asarlariga yozgan sharhlar kitobi tasodifan tushib qoladi hamda uni mutoalasidan keyingina faylasufning tub g'oyalarini anglaydi. Shu kabi zamondosh sharq faylasuflari aynan antik davr merosini tiklash, ularga ergashish yoki faqatgina sharhlash uchun emas, balki o'ziga xos falsafani yaratishga yordam ko'rinishda ulardan foydalanganlar.

Farobiy falsafasida mantiqqa oid, ontologik, gnoseologik, sotiologik, xullas barcha yo'nalishga oid g'oyalarni uchratish mumkin. Qomusiy mutafakkir o'zining asarlarida erkinlik tushunchasini alohida o'rganib uni nazariyasini yaratgan deb aytish qiyin. U erkinlik haqida alohida fikrlarni ham ta'kidlamagan. Ammo uning ayrim yo'nalishdagi tahlillarida bu atamani qirralarini uchratish mumkin. Farobiyning mantiq bo'yicha fikrlari e'tiborga loyiq. Uning tushunchalar qanday holatda mavjudligi haqidagi nuqtayi nazari Aristotel va Platon qarashlaridan o'ziga xos ajralib turadi. Bu haqidagi tortishuvlar keyinchalik XI-XII asrlarda O'rta asr g'arb faylasuflarining bahsida ham namoyon bo'lgan. Buni realist va nomenalistlar bahsi sifatida falsafa tarixida o'rganish mumkin. Uning kelib chiqishiga xristian dogmatlarining dunyodagi mavjud narsalar umuiy ontologik mohiyatga egami yoki faqat alohida mavjudmi degan savollarga ilohiyotni mantiqiy asoslashga harakatlar orqali tushuntirishni sabab qilib keltirish mumkin.

Xususan, asl gunoh va poklanish muammosi bir kishi qanday qilib hamma uchun "aybdor" ekanligini va boshqa odam butun insoniyat uchun bu gunohni o'limi bilan qanday qilib qutqara olishini tushunishga majbur qildi. Umuman inson, insoniyat mavjudmi? Xudoning uchagonaligini qanday tushunish mumkin? Yoki bu yerda uchta alohida narsani, uchta Xudoni yoki turli xil ko'rinishlar, tomonlar, qismlarda bitta narsani nazarda tutilganmi? Haddan tashqari nominalizm nafaqat ob'yektiv voqelikda, balki sub'yektning ongida ham umumiylik mavjudligini inkor etib, faqat bitta ob'yektlar haqiqiy ekanligini ta'kidladi. Haddan tashqari realizm umumiy tushunchalar, g'oyalar nafaqat mustaqil ravishda mavjud, balki alohida narsalarga nisbatan ham asosiy ekanligini aytib o'tdi. Nominalizm va realizmga qarshi kurash materializm va idealizm kurashining ifodasi bo'lgan [14, 198].

O'rta asr nominalisti Rosselin (1050-1120) g'oyalarning haqiqiy mohiyatlar sifatidagi neoplatonik

qarashlaridan farqli o'laroq, universallik asl mohiyat emas, alohida bo'lish nimani anglatadi, degan fikrni ilgari surdi. U turli xil haqiqiy odamlardan tashqarida tur sifatida bitta odamning alohida mavjudligini rad etdi. Uchyagonalikning uch yuzi uning uchun turli xil substansiyadir. 1092 yilda Suassondagi cherkov soborining maxsus qarori bilan Rosselinning uch xudolik haqidagi ta'limoti bid'at deb e'lon qilindi. Sharqda ilohiyotshunoslar va faylasuflarning konfrontatsiyasi (qarama-qarshiligi) boshqa parametrlar bo'yicha o'tgan. Agar "nominalizm" va "realizm" kvalifikatsiyalarini arab-musulmon falsafasidagi ijtimoiy fikrning rivojlanishiga shartli ravishda o'tkazilsa, manzara tubdan qarama-qarshi ko'rinishga o'zgaradi. Me'yoriy realizm bu yerda panteistik va materialistik tendentsiyalarga mos keladi va sub'yektivistik talqin qilingan nominalizm shunchaki substansiya, sababiyat, tabiiy qonuniylikning ob'yektiv haqiqatini tan olishga hamda fanga qarshi qaratilgan. Abu Nasr Farobiy, shu o'rinda, Xudo uchun faqat universallar mavjud degan tezisni o'z ichiga oladi. Mana nima uchun Farobiy nominalist faysasuf degan talqinga qo'shilib bo'lmaydi [17].

Xudo faqat universallarni biladi degan tezis Farobiy uchun haqiqiy voqealarni Xudoning bevosita aralashuvidan "uzoqlashtirish" uchun inson erkinligini himoya qilish uchun muhim edi. Umumiy va yagona munosabatlar muammosiga kelsak, Farobiy unga o'ziga xos, ammo nomuvofiqlikdan xoli bo'lmagan yechimni beradi. Mavjudlik tartibida universallar ikkinchi darajali deb tan olinadi. Yagona narsalarsiz ular ob'yektiv predmetlikdan mahrum bo'lib, "o'ylab topilgan, yolg'on bo'lib qolishar edi, yolg'on narsa esa mavjud bo'la olmaydi" [9, 160]. Bilish tartibida yagona narsalar universallarga muhtojdir. Universallsiz ularni aql bilan tushunishning iloji yo'q. Ammo Farobiy ba'zida yagona narsalarning mavjudligi materiya bilan aqlbovar mohiyat, shakl bog'lanishiga muhtojligini ham aytib o'tgan holda, bilish aqlbovar mohiyatlarning materiya bilan bog'liqligidan ozod qiluvchi ekanligiga ishonadi [14].

Farobiyning bu kabi fikrlari insonning o'z xatti-harakatlarida va fikr yuritishlarida erkinlik borligi, ammo bir tomondan ularning mavjudligi ilohiy tomon bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Erkinlikni u yana o'zining ijtimoiy-axloqiy qarashlarida ham ko'rsatib o'tganini ilg'ash mumkin.

"Turli savollarga javoblar"da u iroda³ni tanlash erkinligidan ajratib ko'rsatadi. Iroda, masalan, oddiygina o'zboshimchalik bo'lishi mumkin, masalan, inson o'z

irodasini o'lmaslikka yo'naltirgan holat olinganda. Tanlash erkinligi iroda bilan bog'liqligi "inson tanlash mumkin bo'lgan narsani afzal ko'rishida" [1] namoyon bo'ladi.

Farobiy "iroda" va "tanlov" tushunchalarini aniq belgilaydi va chegaralaydi. Tuyg'u va tasavvurdan kelib chiqadigan narsani tushunishga intilishni iroda erkinligi deb nomlash mumkin. Agar biror narsani tushunishga intilish fikrlash va mulohaza yuritishdan kelib chiqsa, u erkin tanlov deb ataladi [11, 288]. Bundan tashqari, Farobiy "birlamchi intellekt" va "haqiqiy aql" kabi tushunchalarni taqdim etadi. Agar birinchi tushuncha "aql-idrok ob'yektlari" idrokining asosi bo'lsa, ikkinchisi allaqachon ushbu ob'yektlarning konvertori, ya'ni o'zgartiruvchisi bo'ladi. "Fozil odamlar shahri" risolasida mutafakkir quyidagi taqqoslashni keltiradi: "Quyosh ko'rish uchun porlayotgan yorug'likni va ularni yoritadigan ranglarni beradi. Quyoshdan olingan yorug'lik orqali ko'rish muhim ahamiyatga ega bo'ladi; va bu yorug'lik orqali ranglar aks etadi va potentsial ko'rinadigan va ko'rib chiqilgandan keyin tegishli deb hisoblanadi. Xuddi shu tarzda, haqiqiy aql birinchi darajali intellektni u qo'lga kiritgan narsa bilan ta'minlaydi. Bu narsaning dastlabki moddiy intellekt bilan aloqasi yorug'likning ko'rish bilan bog'liqligiga o'xshaydi" [11, 285-286]. Yaxshilikni yomonlikdan, fazilatni jaholatdan faqat eng to'g'ri ajratish insonni haqiqiy baxt yo'lga yo'naltirishi mumkin, bu fazilatga ko'ra u eng yuqori axloqiy va fikrlash usuli bilan tavsiflanadi. Farobiy ilohiy taqdirga e'tibor qaratmagan, musulmon faylasufi faqat qodir tangriga aqlni intellektual va axloqiy fazilatlarini anglashga qodir bo'lgan, insonni mukammallikka yaqinlashtiradigan yaxshilik sifatida berilgan deb ta'kidlagan [8].

Shunday qilib, Farobiy falsafasidagi inson irodasi va tanlovi muammosini tahlil qilishda insonga to'liq mustaqillik va erkinlik beriladi. Insonning o'zi yaxshilik va yomonlikni farqlash uchun "nur" topadi, Farobiy uchun fazilatni johillikdan ajratish uchun "nur" Xudo tomonidan berilgan aql orqali olinadi. Bunday fikrlar Aristotelning g'oyalariga yaqinlashadi. Aristotel ham inson o'z faoliyatida erkinligini hamda bu erkinlik aql yordami bilan amalga oshirishini ta'kidlaydi. Bu qarashlarini keyingi bobda qiyosiy tahlil yordamida to'laqonli yoritishga harakat qilinadi.

Shu o'rinda Farobiyning Aristotel qarashlariga yaqinlashgan nuqtalarini aytib o'tish zarur. Bulardan tafakkur qilish va qaror qabul qilishni misol keltirsa bo'ladi. Farobiy o'zining "Saodatga eltuvchi yo'l"⁴ deb nomlangan risolasida mana shu masala to'g'risida ham fikr

³ Iroda - keng ma'noda "iroda", "qat'yat"dir. Bu Aristotelning so'zlariga ko'ra, "aqli iroda", "hissiy iroda"dir. Ixtiyor - "erkin tanlov" demakdir.

Farobiy bu yerda Aristotelning irodaning eng muhim namoyon bo'lishi erkinlik, inson hissiy va ma'naviy masalalar o'rtasida tanlov qila oladigan bo'lsa, dastlab erkin tanlov mavzusi bo'lgan narsa vaqt o'tishi bilan majburiy xarakterga aylanadi degan pozitsiyasini bayon qiladi.

⁴ Asl nusxada bu asar "Kitob at-tanbih'ada sabil as-sa'ada" deb nomlangan. Biroq, ushbu risolaning mazmuni nafaqat axloqiy masalalarga, balki fanlar va mantiqni tasniflash masalalariga ham tegishli. Ushbu asar boshqa ko'plab kitoblardan singari yozilgan yili aniq ma'lum emas, ammo bu Farobiyning ilk asarlaridan biri bo'lishi mumkin. Ushbu taxminga bu risolada Farobiy Aristotelning fanlarning tasnifiga to'liq mos keladigan fanlar klassifikatsiyasini berganligi asosida kelish mumkin,

yuritgan. U idrok talab etuvchi ishlarni bajarishda aql yuritib ko'radigan hamda qaror qabul qila olish qobiliyatini ko'rsatadigan insonlar mavjud deb aytadi. Bu insonlar qadr-qimmatiga ko'ra erkin, yuqoridagi ikki hislatga ega bo'lmaganlar esa odatda hayvonsifat deb ataladi; shu o'rinda tafakkur qila oluvchi lekin qaror qabul qilishni bilmaydiganlarni tabiatan qul deb atash mumkin.

Bu ilm-fan yoki falsafa sohasida ish olib boradiganlarning ba'zilari bilan ham sodir bo'lgan, ular qullik darajasi bo'yicha birinchilardan, eng tobelashgan quldan kam bo'lmaganlar qatorida turadi. Va fan esa o'z sohasida ish olib boradiganlar tufayli, ular uchun qiymatga ega emasligi va foydasizligi sababli, o'z qadr-qimmatini ular oldida yo'qotadi va kamsitiladi [10].

Ular orasida qat'iyatli, ammo tafakkur qila olmaydiganlar ham uchraydi. Ular o'rniga esa boshqalar aql yuritadi. Bu holatda u o'rniga tafakkur qilayotgan insonga yoki bo'ysunadi, yoki bo'ysunmaydi. Agar u bo'ysunmasa, unda u ham hayvonsifat, agarda bo'ysunsa, unda u o'zining ko'pgina ishlarida muvaffaqiyatga erishadi hamda bu tufayli qullar darajasidan chiqib, erkinlik darajasiga kiradi [10, 28].

Ushbu harakatlardan keyingisi bu lazzatdir, ba'zilari ko'proq ma'lum-mashhur bo'ladilar hamda bu turdagilariga yaxshiroq erishiladi, boshqalari esa ko'proq yashirin bo'ladi. Eng mashhurlari – bu darhol qo'lga kiritadiganlari va hissiy xususiyatga ega bo'lganlaridir. Xuddi shu narsa azob-uqubatlar bilan ham sodir bo'ladi: darhol boshdan kechiradigan va hissiy idrokdan kelib chiqadiganlari yaqqolqdir, ayniqsa, ular din tomonidan o'rnatilgan bo'lsa. Va yashirin ko'rinishdagilar qatoriga boshqa barcha lazzat va azob-uqubatlar kiradi. Ular orasida ko'proq yashiringanlari bo'lsa tabiiy sanalib, ma'lum vaqtdan keyin boshdan kechirilgan va bundan tashqari anglanmagan narsalar hisoblanadi. Ular orasida darhol boshdan kechirilgan tabiiy bo'ladilar, ma'lum vaqtdan keyin boshdan kechirilganlar esa hissiyotga tegishli bo'lmaydilar [10, 29].

Erkin odamlarga kelinsa, agar ular lazzat va azob-uqubatlar orqali o'zlarining yaxshi harakatlarini yengillashtirmoqchi va yomon narsalardan qochmoqchi bo'lsalar, u holda ular uchun eng yashirin va ravshan narsa bir xil bo'lib qoladi. Ularni yomon xatti-harakatlarga undaydigan lazzat, ko'proq yashirin yoki ravshan azob-uqubatlarga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, azob-uqubatlar bilan bostiriladi, chunki ularning mulohazakorligi ko'pchilik insonlar uchun yashirin bo'lishga xos bo'lgan narsani ravshanlashtiradi.

Boshqa odamlarga to'xtalinsa, ular o'zlarining lazzatini faqat aniq-ravshan bo'lgan azob-uqubatlar bilan bostirish orqali bu yomon harakatlardan voz kechishadi. Ular orasida darhol ko'rinishdagi lazzatlanish tufayli

yomon harakatga moyil bo'lganlar ham bo'lishi mumkin. Ular ushbu yomon harakat bu xatti-harakatlardan voz kechish yoki unga qarama-qarshi harakatni amalga oshirish bilan bog'liq deb hisoblangan lazzat bilan bostirilishi orqali kifoyalanadi. Aynan shunday qilib, yoshlarni tarbiyalash kerak. Bu narsalar ham yetarli bo'lmaganlar, yomon harakatlardan keyingi azob-uqubatlar haqida qo'shimcha ravishda ogohlantiradilar va bu azob-uqubatlarni iloji boricha aniqroq ko'rsatadilar [10, 29-30].

Bundan tashqari, Farobiy fikri bo'yicha insonda qalbning aqliy qismi mavjud. Insonning faoliyatga ega aqli yangi bilimlar va aqlbovar qiluvchi mohiyatlarni qo'lga kiritishidan oldin ularda qalbning bundan tashqari ikki qismi shakllanishi va rivojlanishi kerak. Ya'ni istak va irganish hissiyot bilan bog'liq bo'lgan birinchi qalbning his qiluvchi qismi, undan keyin esa qalbning intiluvchi qismi paydo bo'lib, rivojlangan bo'lishi lozim. Istak va irganish qurollari tananing qismlari sanaladi. Ularning ikkisi tufayli iroda vujudga keladi. Iroda, avvalo hissiyotdan kelib chiquvchi istakdir. Istak qalbning intiluvchi qismiga to'g'ri kelsa, idrok etish, qabul qilish tuyg'uga tegishlidir. Undan keyin qalbning tasavvur qiluvchi qismi shakllanadi. Aynan u sababli istaklar paydo bo'ladi. Shu tariqa birinchi irodadan keyin ikkinchisi kelib chiqaveradi. Oxirgisi esa tasavvurdan kelib chiquvchi istak bo'ladi. Aynan iroda orqali inson qalbning aqliy qismida joylashgan faoliyatga ega aql tufayli vujudga keluvchi ilk bilimlarni idrok eta olishi mumkin. Unda insonda uchinchi xil iroda, ya'ni aynan fikr yuritish qobiliyatidan kelib chiquvchi istak paydo bo'ladi. Bu so'nggisi erkin tanlov sanaladi. U faqat insonga tegishlidir, aslo boshqa hayvon zotiga emas. U sababli inson maqtovgga sazovor yoki tanbeh beriluvchi, yaxshi va yomon qilmishlarni amalga oshirishi mumkin. Shuningdek, bu uchun mukofot yoki jazo olish imkoniyati mavjud. Ilk ikki iroda aqlga ega bo'lmagan hayvonlarda o'rin egallashi mumkin. Agar inson barcha uchta iroda bilan ta'minlangan bo'lsa, unda u baxtga intilish imkonini qo'lga kiritadi. Chunki u ezguni yovuzdan, yaxshini yomondan ajrata olish qobiliyatiga ega [10, 112-113].

Xulosa

Shunday ekan, Farobiyning bu mulohazalaridan anglash mumkinki, erkinlik insonlarning aql-idroki, tafakkuri va qaror qabul qilish mas'uliyati bilan bog'liq xususiyat ekan. Demak, tafakkur va qaror qiluvchilar erkin shaxslar bo'lib, ular lazzat va azob-uqubatlardan o'z aqllari yordamida yomon ishlardan qochishda foydalanadilar. Shu bilan birga, u iroda va qalbning aqliy va boshqa qismlaridan vujudga keluvchi istaklar haqida gapirar ekan erkin tanlov insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi hislat ekanligini va u tufayli o'zboshimchalik amalga oshirili mumkinligini aytib o'tadi Shu orqali

keyinchalik esa u "Fanlarni tasniflash to'g'risida so'z" asarida u allaqachon o'ziga xos, original tasnifni ishlab chiqqan, unda til va mantiq

haqidagi fan birinchi o'ringa chiqadi va metafizika esa oxirgi joylarni egallaydi.

insonlar erkin tanlovlari orqali bajargan barcha ishlariga va qilmishlariga mas'uliyatni hamda o'zlarining hayotlarida sodir bo'ladigan hodisalarga javobgarlikni bo'yinlariga oladilar. Aynan shu hislat, yuqorida ta'kidlanganidek,

erkinlikni ta'minlab berish bilan bir qatorda insonlarni boshqa jonzotlardan farqlab, ajratib ko'rsatuvchi omil ham sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dieterici Fr. Alfarabi's philosophische Abhandlungen.- Leiden, 1892.
2. Fakhry M. Al-Farabi, Founder of Islamic Neoplatonism. His life, Works and influence. – England, Oxford: Oneworld publication, 2002. – 168 p.
3. Rakhimdjanova D.S. Practical importance of the transformational interpretation of the phenomenon of freedom in ancient times and in contemporaneity. – Philosophy and Life. – ISSN: 2181-9505, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6852328>. – Tashkent, 2024. – P. 120-129.
4. Rakhimdjanova D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy. - Psychology And Education Journal. – ISSN: 00333077, <https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562> – 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021. – P. 4553-4563.
5. Rakhimdjanova D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach. - International Journal of Social Science Research and Review. – ISSN: 2700-2497, <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921> – Germany, Duisburg, 2023. – P. 457-466.
6. Raximdjanova D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differentsiatsiyasini sotsiologik so'rovnomaga orqali tahlili. – International scientific journal of Biruni. – ISSN (E) 2181-2993, Volume 2, Issue 02. – Tashkent, 2023. – B. 33-46.
7. Raximdjanova D.S. Ibn Rushd falsafasida zaruriyat va erkinlikni zamondoshlari fikrlari inkori asosidagi o'ziga xos talqini. – Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – ISSN 2181-1784, Volume 4, Issue 02. – Tashkent, 2024. – B. 562-570.
8. Азербайев А.Д. Свобода воли и выбора в наследии Августина Блаженного и философии Аль-Фараби // WORLD SCIENCE. ISSN 2413-1032. - № 7(11), Vol.3, - July, 2016. – 43-46 с.
9. Аль-Фараби. Логические трактаты. - Алма-Ата, 1975.
10. Аль-Фараби, Абу Наср Мухаммад. Социально-этические трактаты. (Пер. с арабского). - Алма-Ата: Наука, 1973. – 400 с.
11. Аль-Фараби, Абу Наср Мухаммад. Трактат о взглядах жителей добродетельного города // Философские трактаты. [Пер. с арабского]. – Алма-Ата: Наука, 1972.
12. Гегель Г. Лекции по истории философии. - Гегель. Сочинения - Том X. - М., Партиздат, 1932.
13. Ефремова Н.В. Арабо-мусульманская философия // Работа выполнена в рамках Программы фундаментальных исследований Президиума РАН «Традиции и инновации в истории и культуре» (Тема номер 3. Традиция, обычай и ритуал в истории и культуре). – С. 176-199.
14. Касымжанов А.Х. Абу-Наср аль-Фараби. — М.: Мысль, 1982. – 198 с.
15. Ренан Э. Аверроэс и аверроизм. — Собрание сочинений, т. V III. Киев, 1902.
16. Соколов В.В. Средневековая философия. – М., 1979.
17. Хайруллаев М.М. Фараби. Эпоха и учение. - Ташкент, 1975.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Kipchokov Xomidjon Gulomovich
kipchakovxamidjon@gmail.com

AXLOQIY PRINSIPNING SHAKLLANISHI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqiy prinsiplarning jamiyat hayotidagi ahamiyati va ularning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Axloqiy prinsiplar insonlar o'rtasidagi munosabatlarda adolat va insonparvarlik kabi qadriyatlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Oila, ta'lim, madaniyat va jamiyatning turli institutlari axloqiy prinsiplarni shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu maqolada axloqiy prinsiplarning nazariy asoslari, ularning ijtimoiy munosabatlarda tutgan o'rni va jamiyat barqarorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, axloqiy tamoyillarni amaliyotga tadbir etish mexanizmlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Axloqiy prinsip, shaxsiy javobgarlik, axloqiy tuyg'u, axloqiy ong, ijtimoiy munosabatlar, burch, axloqiy hislar, axloqiy tarbiya, axloqiy tajribalar, axloqiy munosabat, adolat, erkinlik.

Кипчоков Хомиджон Гуломович
kipchakovxamidjon@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННОГО ПРИНЦИПА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация: В данной статье анализируется значение моральных принципов в жизни общества и процесс их формирования. Моральные принципы играют важную роль в укреплении таких ценностей, как справедливость и гуманизм, в отношениях между людьми. Основными факторами, формирующими моральные принципы, являются семья, образование, культура и различные институты общества. В статье рассматриваются теоретические основы моральных принципов, их роль в социальных отношениях и влияние на стабильность общества. Также анализируются механизмы применения моральных принципов на практике.

Ключевые слова. Моральный принцип, личная ответственность, моральное чувство, моральное сознание, социальные отношения, долг, моральные чувства, моральное воспитание, моральный опыт, моральные отношения, справедливость, свобода.

Kipchokov Xomidjon Gulomovich
kipchakovxamidjon@gmail.com

FORMATION OF A MORAL PRINCIPLE AND ITS IMPORTANCE IN THE LIFE OF SOCIETY

Abstract: This article analyzes the importance of moral principles in social life and the process of their formation. Moral principles play an important role in reinforcing values such as justice and humanism in relationships between individuals. Family, education, culture, and various societal institutions are key factors in shaping moral principles. The article examines the theoretical foundations of moral principles, their role in social relations, and their impact on societal stability. Mechanisms for applying moral principles in practice are also analyzed.

Keywords. Moral principle, personal responsibility, moral feeling, moral consciousness, social relations, duty, moral sentiments, moral education, moral experiences, moral relations, justice, freedom.

Kirish

Axloqiy prinsiplar jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilovchi qoidalar majmuasidir. Har bir inson o'z xulq-atvori va jamiyatdagi faoliyatini axloqiy me'yorlar asosida tashkil qiladi. Bu prinsiplar insonning ichki tamoyillari bilan birga, jamiyatning umumiy qadriyatlari va me'yorlari bilan ham o'zaro bog'liqdir. Jamiyatda axloqiy prinsiplar me'yor sifatida qabul qilinsa, ijtimoiy barqarorlik, adolat va insonparvarlik rivojlanadi.

Axloqiy prinsiplarning shakllanishi shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti va jamiyatning rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy tamoyillar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki oila, maktab, jamiyat va madaniyat singari ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantiriladi. Shu bois, jamiyatda axloqiy prinsiplar tarbiyalanishining ahamiyati beqiyosdir. Ushbu maqola axloqiy prinsiplarning nazariy asoslari va ularning jamiyatdagi tutgan o'rini tahlil qiladi.

Axloqiy prinsip insonlarning butun hayotida tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishning yaxlit jarayoni sifatida amalga oshiriladi. Axloqiy prinsiplarni shakllantirish faoliyat turlari, munosabat shakllari, o'zaro muloqot va ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yaxlit jarayonning natijasi uning ongi, axloqiy tuyg'ulari, vijdoni, axloqiy irodasi, ko'nikmalari, odatlari va ijtimoiy xatti-harakatlarining birligida axloqiy yuksak shaxsning shakllanishidir.

Axloqiy prinsiplarning asosiy kategoriyasi bu axloqiy tuyg'u tushunchasidir. Axloqiy tuyg'u - doimiy hislar, tajribalar, haqiqiy axloqiy munosabatlar va o'zaro ta'sirlar xisoblanadi. Axloqiy me'yorlar faqat insonning hissiy jihatdan o'zlashtirilishi orqali sub'ektiv axloqqa aylanadi. Inson uchun axloq, avvalambor, tuyg'u, hissiy holat va chuqur qoniqish tajribasi yoki aksincha, noqulaylik, azob-uqubatlar, jismoniy jirkanish, o'zini qoralashdir. Axloqiy tuyg'u inson axloqining tizimni tashkil etuvchi tamoyilidir. Uning sharofati bilan axloqiy ong, xulq-atvor normalarini bilish, odatiy harakatlar axloqiy ma'noga ega bo'ladi. Hissiy sohani, voqelikka estetik munosabatni e'tiborsiz qoldiradigan axloqiy prinsip zaif, insonlarning yuqori axloqiy harakatlariga ichki rag'batlantirish va motivatsiyani shakllantira olmaydi, ularning xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya (литература и методология /Methods)

1. Axloqiy prinsiplarning nazariy asoslari

Axloqiy prinsiplar insonning ichki tamoyillari bo'lib, ular shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi harakatlarni boshqaradi. Bu prinsiplar ko'pincha universal xulq-atvor standartlarini anglatadi. **I. Kantning "Axloqiy imperativ"**[5.72] nazariyasi axloqiy prinsiplarning absolyutligi va umumiy majburiyatini ta'kidlaydi. Kantga ko'ra, har qanday axloqiy tamoyil boshqalar uchun ham amal qilishi kerak bo'lgan umumiy qoidaga aylanishi lozim. Bu falsafiy nazariya axloqiy qarorlarni o'zini anglash va javobgarlik tushunchalariga asoslaydi.

Shuningdek, **Aristotelning "Nikomatik axloq"**[6.146] asari axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqali ideal insoniy xulq-atvorni yaratish mumkinligini ko'rsatadi. Aristotel fazilatli shaxsning o'z axloqiy prinsiplariga asoslangan hayoti saodatga olib kelishini aytgan.

2. Axloqiy prinsiplar va madaniyat

Axloqiy prinsiplar har bir jamiyat va madaniyatda har xil shakllanadi. **C. Gilligan** axloqiy rivojlanish nazariyasida erkak va ayollarning axloqiy qarorlar qabul qilish uslublaridagi farqlarni ko'rsatib beradi. Erkaklar ko'proq qoidalar va adolatga e'tibor qaratishadi, ayollar esa g'amxo'rlik va munosabatlar jihatidan qarorlar qabul qilishadi[7.118].

Axloqiy prinsiplarning shakllanishida oila, maktab va jamiyat o'ziga xos o'rin tutadi. **D. Kohlbergning axloqiy**

rivojlanish nazariyasi o'z navbatida axloqiy ongning 3 asosiy bosqichdan o'tishini ko'rsatadi:

- Prekonvetsional bosqich (bolalar axloqiy qoidalarini mukofot va jazoga qarab o'rganadilar)
- Konvetsional bosqich (jamiyat me'yorlari va qoidalari asosida axloqiy qarorlar qabul qilinadi)
- Postkonvetsional bosqich (umumiy qadriyatlar asosida axloqiy tamoyillarni shakllantirish) [8.89].

3. Axloqiy prinsiplarni shakllantirish mexanizmlari

Axloqiy prinsiplarni shakllantirishning mexanizmlari bir necha omillarga bog'liq: oila, maktab, jamiyat, va shaxsiy tajriba. **J. Piaget** va **L. Vygotskiy** o'z ishlarida bolalar va o'smirlar axloqiy tushunchalarni qanday rivojlantirishlari haqida yozadilar. Piagetning fikriga ko'ra, axloqiy tafakkur rivojlanishi kognitiv rivojlanishning bir qismi bo'lib, axloqiy qoidalar va tamoyillar ko'pincha ijtimoiy o'zaro munosabatlar jarayonida rivojlanadi. Vygotskiy esa axloqiy bilimlar va qoidalar madaniyat va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydi [9.154].

Axloqiy prinsiplarni shakllantirishda **ta'lim tizimi** ham muhim o'rin tutadi. Pedagogik jarayonlar orqali o'quvchilarga axloqiy qoidalar va tamoyillar o'rgatiladi. **John Dewey** ta'lim tizimi orqali axloqiy tarbiya berishning ahamiyatini ta'kidlagan va amaliy tajriba orqali axloqiy qarorlar qabul qilish o'rgatilishini aytgan [10.92].

4. Axloqiy prinsiplarning psixologik asoslari

Axloqiy prinsiplarning psixologik rivojlanishi va shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. **Sigmund Freudning** psixoanalitik nazariyasi inson ruhiyatining uch qismi: "id", "ego", va "superego" orqali axloqiy prinsiplarni izohlaydi. Superego axloqiy prinsiplar va ijtimoiy qadriyatlarini nazorat qiladi, insonning xatti-harakatlarini boshqaradi va uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi [11.312].

Shuningdek, **Albert Banduraning ijtimoiy ta'lim nazariyasiga** ko'ra, odamlar o'z atrofidagi boshqalarning harakatlarini kuzatib, ulardan o'rnak oladilar. Bu orqali axloqiy tamoyillar ham shakllanadi va mustahkamlanadi [12.124].

5. Axloqiy prinsiplarning amaliy ahamiyati va zamonaviy tahlillar

Axloqiy prinsiplarning zamonaviy tahlillari ko'proq korruptsiya, inson huquqlari, ijtimoiy tengsizlik, va global muammolar kabi mavzularni qamrab oladi. **John Rawlsning adolat nazariyasi** zamonaviy jamiyatlardagi axloqiy tamoyillarni amaliy muammolar yechimiga qanday moslashtirish kerakligini o'rgatadi. Rawls adolat prinsiplarini shaxsiy manfaatlardan ajratib qarashni taklif etadi, bu esa axloqiy tamoyillarni keng jamoatchilik darajasida qo'llash uchun muhimdir [13.91].

Axloqiy tamoyillarni amaliyotda tadbiiq qilishda zamonaviy psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni hisobga olish zarur. Bugungi kunda ta'lim va ijtimoiy media

insonlarning axloqiy tamoyillariga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Axloqiy prinsiplarning shakllanishi falsafiy, psixologik va ijtimoiy jihatlardan tahlil qilinishi lozim. Bu tamoyillar insonlarning ichki tamoyillarini shakllantirishda va ijtimoiy me'yorlarga moslashishda muhim o'rin tutadi. Oila, ta'lim va madaniy muhit axloqiy rivojlanishda katta rol o'ynaydi, va har bir jamiyatning o'ziga xos axloqiy tamoyillari mavjud.

Axloqiy tuyg'uni asosiy tamoyil sifatida baholash axloqiy ongni e'tiborsiz qoldirishni anglatmaydi. Rivojlangan axloqiy ong axloqiy tamoyillarni, me'yorlarni bilishni va shu bilan birga, jamiyatdagi axloqiy mavqeini, axloqiy holatini, his-tuyg'ularini doimiy ravishda bilish va tushunishni nazarda tutadi. "Axloqiy ong - bu insonning axloqiy munosabatlari va holatini aks ettiruvchi faol jarayonida namoyon bo'ladi" [1.409].

Axloqiy ongni rivojlantirishning sub'ektiv harakatlantiruvchi kuchi axloqiy tafakkurdir - axloqiy faktlar, munosabatlar, vaziyatlarni doimiy ravishda to'plash va tushunish jarayoni, ularni tahlil qilish, baholash, axloqiy qarorlar qabul qilish va mas'uliyatli tanlovdur. Axloqiy kechinmalar va vijdon azobi ongda aks ettirilgan hissiy holatlarning birligi, ularni anglash, baholash va axloqiy tafakkur orqali vujudga keladi. Shaxsning axloqi sub'ektiv ravishda o'zlashtirilgan axloqiy tamoyillardan iborat bo'lib, uni munosabatlar tizimida va doimo ilxomlantiruvchi axloqiy tafakkurda boshqaradi.

Axloqiy tuyg'ular, ong va tafakkur axloqiy irodaning namoyon bo'lishining asosi va rag'batidir. Axloqiy iroda va dunyoga samarali-amaliy munosabatdan tashqarida shaxsning haqiqiy axloqi bo'lishi mumkin emas. Bu axloqiy tuyg'u va hayotda o'z axloqiy e'tiqodlarini amalga oshirish uchun ongli, buzilmas qat'iyatning birligida amalga oshiriladi. Shaxsning axloqiy xulq-atvori quyidagi ketma-ketlikka ega: hayotiy vaziyat - u tomonidan yaratilgan axloqiy va hissiy tajriba - vaziyat va xatti-harakatlar motivlarini axloqiy tushunish, tanlash va qaror qabul qilish - irodaviy rag'batlantirish - harakatidan iborat.

Hayotiy amaliyotda, ayniqsa ekstremal sharoitlarda, bu tarkibiy qismlarning barchasi doimo birlikda amalga oshiriladi. Insonlar ko'pincha vaziyat haqida chuqur o'ylashga moyil emaslar, bu ularni tasodifiy qarorlar qabul qilishga olib keladi. Ularning tanlovi va xatti-harakati jamiyat psixologiyasi, tasodifiy tashqi ta'sirlar, ommaviy sevimli mashg'ulotlar va impulsiv stimullar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Motivlarning beqarorligi vaziyatga hamroh bo'lgan his-tuyg'ularning kuchi bilan belgilanadi, masalan, qo'rquv, bu insonni ongli ravishda tanlash va ixtiyoriy harakatni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Insonlarini erkin axloqiy iroda bilan prinsipini shakllantirishdan maqsad ularni o'zini tuta bilishga o'rgatish, ularni ichki erkinlikka erishishga, axloqiy his-

tuyg'ular va e'tiqodlariga muvofiq qat'iy harakat qilishga, odamlar bilan munosabatlarda axloqiy me'yorlarni tasdiqlashga yordam berishdir. Inson axloqi, axloqiy tamoyillarga ongli ravishda amal qilishda va axloqiy xulq-atvorning odatiy shakllarida namoyon bo'ladi. Har bir sohada «erkinlik» va «javobgarlik» tushunchalari bir-birini to'ldiradigan tushunchalar sifatida qo'llanilgani bois erkinlik doimo javobgarlik muammosi bilan bog'liq bo'lib keldi [2.201].

Natijalar (Результаты/Results). Tadqiqot natijalariga ko'ra, axloqiy prinsiplar jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, adolat, erkinlik, tenglik kabi asosiy qadriyatlarni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. Axloqiy prinsiplarning shakllanishi oila, ta'lim, madaniyat va jamiyatning turli institutlari ta'sirida kechadi. Bu omillar axloqiy ong va javobgarlikni rivojlantirishda va barqaror ijtimoiy tizimning yaratilishida muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, axloqiy prinsiplar insonning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib, ular ijtimoiy guruhlarning birligini mustahkamlash, jamiyatning barqarorligi va davomiyligi uchun zaruriy shartdir. Axloqiy tamoyillarni hayotga tadbiiq etish jarayonida, jamiyatning axloqiy tajribalari, tarixiy va madaniy kontekstlar ham alohida rol o'ynaydi. Shu tariqa, axloqiy prinsiplar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyatli omil sifatida ko'riladi.

Erkinlik ahloqiy tarbiyani va ahloqiy javobgarlikni shakllanishida muxim rol o'ynaydi.

Inson hayoti davomida uning xatti-harakati tashqi ta'sirlar va instinktiv impulslar bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya uning dunyoqarashi, axloqiy tuyg'usi va ongi bilan shartlangan ichki mazmunli xulq-atvoriga, o'zini o'zi boshqarishga ya'ni, idora etishga yordam beradi. Ushbu sayohat davomida inson o'z xatti-harakatlarini boshqarishning turli darajalarida bo'ladi.

Boshlang'ich daraja, amalda ichki nazorasiz, xatti-harakatlarning ongsiz impulslar va tashqi ta'sirlarga bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Asta-sekin psixikaning emosional ongsiz sohasi orqali odatlar va xatti-harakatlarning odatiy shakllari vujudga keladi. Rivojlanishning ushbu darajasida odatlar va odatiy xatti-harakatlarning kuchayishi tufayli xatti-harakatlar ustidan o'zini o'zi boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Turli xil hayotiy vaziyatlarda odatiy xatti-harakatlar asosida, maqsadli ahloqiy ta'sir insonda axloqiy tafakkurni rivojlantiradi. Axloqiy tafakkur bilan birgalikda va uning yordami bilan axloqiy tuyg'ular, ong va iroda, axloqiy fazilatlar va shaxsiy fazilatlar (vatanparvarlik, mehroqibat, odob, halollik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnasevarlik, intizom, jamoaviylik) shakllanadi. Shaxsning bu xossalari va fazilatlarini insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida dunyo bilan faol o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan yangi tuyg'ularni

shakllanishidir. Ular inson tomonidan ushbu munosabatlarda doimiy ravishda namoyon bo'ladi va bu orqali xarakter xususiyatlari, shaxsiy xususiyatlar, odatlar va xatti-harakatlarning odatiy shakllarida tan olinadi va mustahkamlanadi. "Axloqiy xulq-atvorning eng yuqori darajasi, shaxsning axloqiy barqarorligining o'lchovi xisoblanadi. Bu ongli ravishda o'zini tuta bilish, ma'naviy e'tiqodlarga qat'iylik va sodiqlikni saqlash, ayniqsa inqiroz va ekstremal vaziyatlarda o'zini tuta olishdir" [3.102]. Insonlar uchun bunday vaziyatlar jamoadagi hayot jarayonida, o'quv, mehnat, sport faoliyatida, o'rtoqlar va kattalar bilan munosabatlarda doimo yuzaga keladi.

Insonlarni axloqiy prinsipini shakllantirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ular yashayotgan sub'ektiv axloqiy makon tabiatiga bog'liq. U jamoada, oilada, omma ichida o'rtoqlar va do'stlar orasida, ota-onalar va u hurmat qiladigan insonlar bilan muloqatlar orqali, o'zida, tabiatga, tashqi dunyoga, ish, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlar talablarni bajarishni shakllantiradi. Inson o'zini o'rab turgan olam bilan munosabatga kirishishi bilanoq u sub'ektiv axloqiy idrokda namoyon bo'ladigan, u uchun sub'ektiv axloqiy makonni tashkil etuvchi haqiqiy ob'ektiv munosabatlar va o'zaro bog'liqliklarni darhol shakllantiradi. Bu makon u uchun vaqtinchalik, yoki davomli, estetik xususiyatlariga egaligi bilan axamiyatlidir. Bu ijobiy kengayish holati bo'lib, insonlarning o'zaro axloqiy munosabatlarda ko'rinadi. Qulaylik yoki noqulayliklar natijasida insonda ulug'vor tajribalarni yoki hayotdan norozilik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xolatlar cheklangan, konservativ, tor guruhlar, kompaniyalar, norasmiy uyushmalarda namoyon bo'ladi. Bu ko'pincha insonni sub'ektiv ma'naviy makonining torayishiga, axloqiy inqiroz holatini, hatto umidsizlikni boshdan kechirishga olib keladi. Insonlarining sub'ektiv axloqiy maydoni estetik ranglar va soyalar bilan bo'yalgan bo'lib, ularga turli xil kayfiyatlarni (dramatik keskinlik, fojiali stress) beradi. Insonlarning tashqi dunyo va o'zaro hayotiy munosabatlarida qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi keskinlikni keltirib chiqaradi va bu qarama-qarshiliklar yashirin va ochiq to'qnashuvlarda namoyon bo'ladi. Subektiv axloqiy makondagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish insonlarining hayotini ijobiy tamonga o'zgartiradi.

Ahloqiy prinsipni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ta'lim muassasasi hisoblanadi. Ta'lim tarbiya doimo uzviylikda bo'lishi zarur. Bu borada o'qituvchining pedagogik va psixologik moxorati muxum axamiyat kasb etadi. O'qituvchi uchun jamoadagi axloqiy iqlimni yaxshilashda barcha tinglovchilarning sub'ektiv axloqiy makonining holatini bilish muhimdir. U insonlarning munosabatlari va faoliyatini pedagogik tashkil etish orqali axloqiy makon va o'zaro ta'sir zonasida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan salbiy ta'sirlarni minimallashtirish zarur bo'ladi. Bu jarayon muvaffaqiyatli bo'lsa, insonlarning sub'ektiv axloqiy makonida o'zaro

munosabatlarni boshqarish, ularning shaxsiyatini sifat jihatidan o'zgartirishning samarali mexanizmiga aylanadi.

Bularning barchasi axloqiy prinsipning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Insonlarining xulq-atvori va ongidagi nomuvofiqlikni tasodifiy hodisa yoki faqat ta'lim-tarbiyadagi kamchiliklar natijasi deb hisoblash xatodir. Shaxsning axloqiy rivojlanishining mohiyati insonning tashqi va ichki qarama-qarshiliklarni engib o'tishidadir. Istak va burch, intizom va noto'g'ri tushunilgan erkinlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon va vijdotsizlik, rahm-shafqat va shafqasizlik, sevgi va nafrat, haqiqat va yolg'on, xudbinlik va xushfellik, ochiqlik va ikkiyuzlamachilik kabi xarakter xususiyatlari axloqiy fazilatlar va illatlar o'rtasidagi axloqiy tanlovlarning oqimida shaxsiyat xususiyatlari shakllanadi. Muloqot va muzokaralar, o'zaro ijobiy ta'sirlar, bu qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga sababchi bo'ladi. Bu doimiy va tizimli qarorlar orqali axloqiy me'yorlar foydasiga ixtiyoriy harakatlarni tanlash, o'zini o'zi engish va ularga muvofiq o'zini o'zi boshqarish jarayonidir. Faqat kurashda, o'z ichidagi va tashqarisidagi ziddiyatlarni yengib o'tib, inson o'zini ehtiroslar va holatlar asiri emas, balki o'zini nazorat qilib, o'zini axloqiy jihatdan barkamol va kuchli his qilishi, anglashi lozim. Shunday qilib, insonlarni axloqiy tarbiyasi jarayonida qarama-qarshiliklarni, muammolarni, savollarni, ziddiyatlarni va to'qnashuvlarni bartaraf etish va hal qilish uchun o'qituvchi pedagogik va psixologik tajribaga ega bo'lishi zarur. Insonlarining axloqiy hayotining qarama-qarshi mazmuni o'quv jarayonining asosiy ob'ekti sifatida qaralishi kerak, uni tashkil etish ustida tizimli va doimiy ish olib borilishi, qarama-qarshiliklarni mohirona hal qilishga, ularning axloqiy tuyg'usini, ongini rivojlantirishga harakat qilish kerak.

Axloqiy tarbiyaning natijasi bu axloqiy prinsipdir. U shaxsning ijtimoiy qimmatli xususiyatlari va fazilatlarida moddiylashadi, munosabatlarda, faoliyatda va muloqotda namoyon bo'ladi. Axloqiy prinsip axloqiy tuyg'uning chuqurligi, his-tuyg'ularni boshdan kechirish, vijdon azobi, azob-uqubatlar, uyat va hamdardlik bilan namoyon bo'ladi. U axloqiy ongning etukligi bilan tavsiflanadi. axloqiy prinsip, tahlil qilish, hayot hodisalarini axloqiy ideal nuqtai nazaridan baholash va ularga mustaqil munosabat bildirish qobiliyati orqali ko'rinadi. Axloqiy prinsip - bu sog'lom insonlar jamoasida ijobiy odatlar va odatiy xatti-harakatlar normalarining barqarorligi, munosabatlar va muloqot madaniyati, kuchli irodaning mavjudligi, axloqiy-irodaviy nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish qobiliyati, xatti-harakatlarini tartibga solishda ham ko'rinadi. Bu tuyg'ular faol hayotiy pozitsiyada, so'z va ishning birligida, fuqarolik jasoratida va qiyin hayotiy vaziyatlarda o'z e'tiqodiga va o'ziga sodiq qolishga qat'iyatlilikda namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini prinsipini shakllantirish uchun - bu kerakli xarakter xususiyatlarini rivojlantirish uchun shaxs yuqori

maqsadga ega bo'lish kerak. Shu maqsadda insonlar jasoratini, irodasini, intizomini, chidamliligini mustahkamlash uchun ekstremal vaziyatlarga tushib, radikal vositalarga murojaat qiladilar. O'z-o'zini takomillashtirish - bu shaxsning umumiy axloqiy holatini chuqurlashtirish, butun hayot tarzini ko'tarish, uni yuqori sifat darajasiga ko'tarish jarayonidir. O'smirlik davridagi insonlari o'zini prinsipini shakllantirish istagi bilan ajralib turadi. Maktabning oxiriga kelib, ba'zi o'g'il bollar va qizlar ongli ravishda o'zini-o'zi takomillashtirishga ma'naviy ehtiyojsezadi.

Maktabda, jamoat tashkilotlarida, maktabdan tashqari muassasalarda va oilada insonlar va o'smirlarni axloqiy prinsipini shakllantirish insonlarining mutlaq ko'pchiligida vatanga muhabbat, mulkning butun xilma-xilligiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, mehnatga ijodiy yondoshishni ta'minlaydi. Uning natijasi jamoaviylik, sog'lom individualizm, odamlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, o'ziga talabchanlik, vatanparvarlik va baynalmilalizm kabi yuksak ma'naviy tuyg'ulari, jamoat va shaxsiy manfaatlar uyg'unlashadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda o'smirlar va yoshlarning axloqiy xulq-atvorida xozirgi global sharoitdagi ommaviy madaniyatining ta'siri natijasida odamlar ongida yuzaga axloqsiz xatti-harakatlar natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni ko'rmaslik mumkin emas. Axloqiy tarbiyaning yetishmasligi va shakllanmasligi natijasi sababli munosabatlarda keskinlashgan ziddiyatlar kelib chiqadi. Bir tomondan, axloqiy tarbiyaning shakllanish qonuni ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda, shaxsiy mehnat faoliyatida rivojlansa, boshqa tomondan, zararli, eskirgan ahloqiy dogmalar, salbiy amaliyotlar, insonlarning barcha ehtiyojlarini jiddiy ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilmasdan qondirish an'analari natijasida ahloqsizlik vujudga kela boshlaydi.

Ba'zi insonlari ijtimoiy infantilizm, skeptisizm, jamoat ishlarida faol ishtirok etishni istamaslik va to'g'ridan-to'g'ri qaramlik hissiyotlariga ta'sir qiladi. Ba'zi insonlar ma'naviyat etishmasligidan aziyat chekishadi yoki buni ota-onalari jamiyatidagi o'zlarining mavqeining eksklyuzivligida ko'rishadi. Ma'naviyat yetishmovchiligi va ruhiy kambag'allashuvning o'ziga xos ko'rinishi - ayrim yoshlarning jamiyatdan sub'ektiv dunyoga chekinishi, alkogol va g'yohvand moddalar ta'sirida "mastlik" holatiga tushishini ko'rsatish mumkin. Ba'zi insonlarining axloqsiz holatining eng xavfli shakli - axloqiy ikkiyuzlamachilikdir. Ikki va uch darajali axloqning amalda qo'llanilishi, ya'ni biri tashqi ko'rinishda - ommaviy tadbirlar uchun, ikkinchisi uy uchun, oila uchun, ota-onalar uchun; uchinchisi esa haqiqiy - ijtimoiy doirangiz va o'zingiz uchun namoyon bo'ladi. Ko'z o'ngingizda - ijtimoiy faollik, qalbda - hayot shafqasiz egoizm qonunlari asosida qurilganligiga ishonch yotadi. Ular o'zlarining barcha munosabatlarini, hatto do'stlari

bilan ham "tovar-pul" o'zaro ta'siri asosida quradilar. Qizlar pullik jinsiy aloqa xizmatlarini ko'rsatadilar, o'g'il bollar esa do'stlarini kaltaklanishdan himoya qiladilar, yoki, aksincha, ularni o'zlari uradi. Jamiyatdagi axloqiy prinsip va kundalik hayot o'rtasidagi qarama-qarshilik natijalari, voqelikning o'z-o'zidan paydo bo'lgan ta'siri shunday namoyon bo'ladi. Bu qarama-qarshilik va uning jamiyat uchun salbiy oqibatlarini ijtimoiy hayotning yangilanishi bilan axloqiy prinsip tizimini takomillashtirish, tarbiyaviy jarayonlar tashkil etish, hayotning barcha jabhalarining ahloqiy ta'sirini kuchaytirish bilan bartaraf etish mumkin xalos.

Axloqiy prinsipning shakllantirishda qarama-qarshiliklarini hal etish uchun tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmlariga nisbatan mavjud yondashuvlardagi kamchiliklarga tanqidiy baho berishni talab qiladi. Bu asosan ijobiy misollar yordamida axloqiy qoidalarning mazmunini ochib beradigan ma'lum miqdordagi tarbiyaviy suhbatlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Biroq, axloqiy prinsipni shakllantirish yoshlarga odob-axloq haqida shirin so'z aytishdan iborat emas.

Og'zaki-harakatli tarbiyada, axloqiy muammolarga ega insonlarning haqiqiy hayotidan ajratilgan holda, u bilan kesishmasdan va unga hech qanday ta'sir ko'rsatmasdan amalga oshiriladi. Axloqiy muammolarga ega insonlarning amaliy hayoti va faoliyatida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan, ko'pincha salbiy ta'sirlar bilan to'ldirilgan axloqiy bo'shliq paydo bo'ladi.

Yana bir yondashuv - faoliyatga asoslangan yondashuv. U og'zaki nutqqa qarshi bo'lib, insonlarni maxsus ishlab chiqilgan faoliyat tizimiga jalb qilish va xatti-harakatlar ko'nikmalarini mashq qilishdan iborat. Ta'lim-tarbiyaga faol yondashish, og'zaki kabi absolutizatsiya qilingan birlashtirilgan axloqiy tarbiya jarayonini buzishi mumkin. Inson ko'pincha o'z faoliyatining asl sabablarini kashf qilmaydi va to'liq anglamaydi. Faoliyat yondashuvining mutlaqlashuvi siyosiy, falsafiy va axloqiy g'oyalarni o'zlashtirishni ikkinchi o'ringa qo'yadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv ruhiy ta'sirni, faoliyatni, munosabatlarni, muloqotni, ichki motivatsiyaning namoyon bo'lishini va axloqiy muammolarni mustaqil tushunishni xarakterlar bilan birlashtirgan shaxsni shakllantirishga qaratiladi.

Yaxlitlik yondashuvi - axloqiy tarbiya va hayotning uzviy birligi yondashuvi nazariy jihatdan asoslanadi hamda o'zini amalda isbotlaydi. Axloqiy prinsipni shakllantirishda yaxlitlik yondoshuviga, tarbiya jarayonning asosi, manbasi va materiali murakkab va ziddiyatli jarayonlar bo'lganda erishiladi. Axloq og'zaki yoki faoliyat hodisalarida emas, balki kundalik munosabatlar va hayotning murakkabliklarida shakllanadi, bunda inson tushunishi, tanlashi, qaror qabul qilishi va harakatlarini amalga oshirishi kerak. Buning natijasida insonlarning axloqiy ongi kamol topadi, xulq-atvor tamoyillari, o'zini tuta bilish qobiliyati

mustahkamlanadi. Axloqiy prinsipning yaxlit, dialektik qarama-qarshilik jarayoni hayotda o'z ideallari bilan keladi, buning uchun kurashish, qurbonlik qilish, qiyinchiliklarni boshdan kechirish, salbiy hodisalarni engish uchun ajoyib iroda va o'zini tuta bilish kerak. Axloqiy prinsipning haqiqiy, chuqur, samarali mexanizmi bu insonning o'zini o'zi tasdiqlashi va hayoti o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilishida yotadi. Inson hayotiy vaziyatlardan qanday chiqib ketishi, qanday axloqiy tanlovlar qilishi, qanday xatti-harakatlari tufayli yaxshi yoki yomon axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi, yoki u o'zini boshqarish, tashqi to'siqlar va ichki zaifliklarni engish qobiliyatiga ega bo'ladi yoki vaziyat uni o'ziga tortadi, chalkashlik va qo'rquvni keltirib chiqaradi, uni bostiradi, aldashga va ikkiyuzlamachi bo'lishga majbur qiladi. "Hayotiy qiyinchilik va qarama-qarshiliklarni, chuqur hissiy kechinmalarni yengish jarayonida insonning o'zida axloq asoslari – axloqiy-estetik tuyg'u, ezgu ish va ma'naviy qoniqish zaruriyati shakllanadi" [1.405].

XULOSA

Axloqiy prinsiplar jamiyat hayotida markaziy o'rin tutadi. Ular insonlarning o'zaro munosabatlari, huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy me'yorlarni belgilaydi. Jamiyatdagi har qanday tartib-intizom va barqarorlikning asosi aynan axloqiy qadriyatlar va prinsiplar bilan belgilanadi. Axloqiy prinsiplar jamiyatda mavjud bo'lgan madaniy va diniy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir, chunki ular jamiyatning umumiy axloqiy standartlarini shakllantirishda va uni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi axloqiy prinsiplarning to'g'ri shakllanishiga bog'liq. Bu prinsiplar odamlarga adolatli, erkin va ijtimoiy javobgar hayot kechirishga yordam beradi. Oila, ta'lim muassasalari, madaniyat va jamiyatning boshqa institutlari axloqiy prinsiplarni shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, tarixiy tajribalar, milliy qadriyatlar va zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi hamkorlik axloqiy prinsiplarning rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Axloqiy prinsiplar nafaqat shaxsiy xulq-atvorni belgilashda, balki ijtimoiy tizimning rivoji va barqarorligida ham muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonch va hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, axloqiy prinsiplar erkinlik, tenglik va adolatni ta'minlashda ham asosiy mezon hisoblanadi.

Shu tariqa, axloqiy prinsiplar jamiyatning umumiy rivoji va barqarorligining asosi bo'lib, ularning shakllanishi o'zgaruvchan ijtimoiy va madaniy jarayonlarga bog'liq. Bu prinsiplarni rivojlantirish va ularni ijtimoiy munosabatlarda qo'llash, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhimdir. Axloqiy tamoyillarni amaliyotga tadbiiq etish orqali insonlar o'zining axloqiy javobgarligini angelaydi va adolatli jamiyat qurilishida faol ishtirok etadi.

Aхлоqiy tarbiya eng muxim vazifa bo'lganligi uchun prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan "Aholining hokimiyat va uning vakillari ahloqsizligi bilan kurashdagi ijtimoiy faolligini oshirish chora tadbirlarini ishlab chiqish, ularga ijtimoiy ta'sir qilish mexanizmini yaratish: shu maqsadda fuqarolarning ijtimoiy qo'mitalarini shakllantirish, davlat organlari ishi qoidalariga jamoatchilik fikrini hisobga olish majburiyati kiritilishi" [4,11] ham nazarda tutilgan.

O'smirlar hayotida yonidagi ahloqsiz xarakterlarga befarq o'tib ketsa, unga nisbatan bor kuchi bilan qarshi turishni o'rganmagan bo'lsa, hech qachon yovuzlik bilan kurasha olmaydi. Agar o'zlari qiyinchilikni boshdan kechirmagan bo'lsalar va insoniy mehribonlik kamligini butun borlig'i bilan his qilmasalar, ular mehribon bo'lmaydilar. Agar ular o'zlaridan boshqa hech kimni sevmaydilar. Ular xudbinlikni engishlari, boshqa odamlarning manfaati uchun zavqlanishdan voz kechishlari shart emas edi. Ular hech qachon o'zlarining qo'rqoqliklarini engishmagan bo'lsalar, ular jasur bo'lmaydilar. Agar ular o'zlari azob va og'riqni boshdan kechirmasalar, hamdardlik va hamdardlik bildira olmaydilar. Ular mag'lubiyatning achchiqligini boshdan kechirmasa, g'alaba qozonishni o'rganmaydi va g'alaba quvonchini his qilmaydi. Ular yolg'izlik, quvg'in va noaniqlikni boshdan kechirmasdan shon-shuhratda oddiy va kamtar bo'lmaydilar. Axloq ziddiyatlarni yengishda, ahloqsizlikka qarshi kurashda shakllanadi. Har bir inson o'ziga xos qiyinchiliklarni, qarama-qarshiliklarni hal qilishni boshdan kechirishi va engib o'tishi va haqiqiy axloqiy hayotning o'zgarimas tajribasiga ega bo'lishi kerak. Yaxshi ishlardan qoniqish, o'z ustidan g'alaba qozonish va tashqi to'siqlarni yengish, prinsipial xulq-atvorni tanlashda ruhning kuchini mustahkamlash, noto'g'ri qadam uchun pushaymonlik, mehribonlikdan quvonch, yovuzlikka qarshi kurashda jasoratni xis qilishlari zarur.

Takliflar

1. Jamiyatda axloqiy prinsiplar, odatda, ijtimoiy barqarorlik va tartibni ta'minlaydi. Ularni rivojlantirish va mustahkamlash uchun ijtimoiy muassasalar (oila, ta'lim muassasalari, diniy tashkilotlar) o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

2. Oila axloqiy prinsiplarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ota-onalar va oila a'zolari bolalarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda faol ishtirok etishlari kerak.

3. Ta'lim dasturlarida axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan mavzularni kiritish. Bu, o'quvchilarga axloqiy muammolarni tahlil qilish va hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

4. Milliy madaniyat va diniy qadriyatlar axloqiy prinsiplarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlarni jamiyatda qo'llab-quvvatlash uchun tadbirlar va kampaniyalar o'tkazish.

5. Ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda axloqiy prinsiplarning ahamiyatini ta'kidlash. Fuqarolarni ijtimoiy

mas'uliyatga o'rgatish va ularni axloqiy javobgarlikka undash.

6. Jamiyatda mavjud axloqiy muammolar (korrupsiya, huquqbuzarlik, adolatsizlik) haqida jamoatchilikni xabardor qilish va ularni hal etish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish.

7. Axloqiy prinsiplarni jamoatchilik tomonidan nazorat qilish tizimini yaratish. Bu, jamiyatda axloqiy muammolarni aniqlash va hal etishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lixachev B.T. Pedagogika: Kurs leksiy / Ucheb. posobiye dlya studentov pedagog, ucheb zavedeniy i slushateley. — M.: Yurayt-M, 2001. — 607s.
2. Guseynov A.A. Svoboda voli i otvetstvennost // Istoriya filosofii. Uch. posobiye dlya studentov i aspirantov vuzov. Moskva: Fenomenologiya-Germenevtika, 2001. - S. 201.
3. Karimov I.A. Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. T., «O'zbekiston», 1994.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. Kant, I. "Fundamental Principles of the Metaphysic of Morals" (1785)
6. Aristotle. "Nicomachean Ethics" (350 BC)
7. Gilligan, C. "In a Different Voice" (1982)
8. Kohlberg, L. "The Philosophy of Moral Development" (1981)
9. Piaget, J. "The Moral Judgment of the Child" (1932)
10. Vygotsky, L. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes" (1978)
11. Dewey, J. "Democracy and Education" (1916)
12. Freud, S. "The Ego and the Id" (1923)
13. Bandura, A. "Social Learning Theory" (1977)

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Boybekova Shahnoza Aliyevna
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
boybekovasha@gmail.com

MAMLAKATIMIZDA MA'NAVY QADRIYATLARNI IJTIMOYIY BARQARORLIK OMILIGA AYLANTIRISHNING YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy qadriyatlarga putr yetkazuvchi omillar hamda jamiyat a'zolarining ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatlari haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Sohadagi mavjud muammolarni barataraf etish hamda unga to'siq bo'layotgan omillardan qutulish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy qadriyat, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy tarbiya, axloq, din, moddiy madaniyat, san'at, adabiyot.

Boybekova Shakhnoza Aliyevna
Teacher of Karshi State University

WAYS TO TURN SPIRITUAL VALUES INTO A FACTOR OF SOCIAL STABILITY IN OUR COUNTRY

Annotation. The article reveals opinions on the factors undermining spiritual values, as well as on the possibilities of expanding the public's understanding of spiritual values. The ways to eliminate existing problems in the industry and get rid of the factors preventing this were analyzed.

Keywords: spirituality, spiritual values, social stability, spiritual education, morality, religion, material culture, art, literature.

Бойбекова Шахноза Алиевна
Преподаватель Каршинского государственного университета

ПУТИ ПРЕВРАЩЕНИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФАКТОР СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Абстрактный. В статье представлены мнения о факторах, подрывающих моральные ценности, и возможностях расширения представлений членов общества о моральных ценностях. Анализируются пути устранения существующих проблем в сфере и избавления от сдерживающих ее факторов.

Ключевые слова: Духовность, духовные ценности, социальная стабильность, духовное воспитание, нравственность, религия, материальная культура, искусство, литература.

Kirish.

O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlar ravnaqiga to'siq bo'layotgan muammolar va illatlarning bartaraf etilishi shak-shubhasiz uning ijtimoiy pozitsiyalarini mustahkamlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytiradi. Biroq shu bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengaytirib borilmog'i shart. Chunki ma'naviy qadriyatlar mazmunini chuqur o'zlashtirgan, ular ahamiyatini yaxshi tushungan shaxsgina ularni dunyoqarashi va e'tiqodi, xulq-atvori va hayotiy faoliyatining asosiga aylantiradi. Zotan, mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarni ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantirishning *ikkinchi yo'li* jamiyat a'zolarining ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish bilan bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Qadriyatshunoslik masalalari XX asrda faylasuflarning e'tiborini mudom tortib kelgan mavzular turkumiga kiradi. Harqalay, mavzuga doir ilmiy izlanishlar bisyorligi shundan dalolat beradi. Keyingi 20-30 yilda xorijda yana bir qator ilmiy ishlar e'lon qilindi. Ularda postmodern jamiyat sharoitida ma'naviy qadriyatlar mazmuni tubdan o'zgargani, ayrimlari esa inqirozga yuz tutgani e'tirof etiladi.

MDH mamlakatlarida ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq ilmiy masalalar ko'proq aksiologik muammolar kontekstida talqin qilinmoqda. Xususan, P. N. Abatayeva "qadriyat", "ma'naviy qadriyat" tushunchalari mazmuniga aniqlik kiritishga urinadi, G. Vijletsov ma'naviy qadriyatlar haqidagi ilmiy mulohazalarning

falsafiy bilimlar tizimidagi o'rnini aniqlashga intiladi, A.R. Davudova, M.M. Dalgatov va U.SH. Magomedxanovalar ma'naviy qadriyatlarining individual jihatlarini tavsiflashga e'tibor beradi, V.N. Karandashev ma'naviy qadriyatlar mazmunini tadqiq qilish uslublarini umumlashtiradi, V.K. Shoxin ma'naviy qadriyatlarga doir falsafiy qarashlar rivoji mantig'ini ochib berishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda jamiyat a'zolarining ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga oid quyidagi *yechimlar va amaliy tavsiyalar* ularni ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantiradi:

*Birinchi*dan, kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun mamlakatda falsafiy ta'limni rivojlantirish zarur bo'ladi. Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida falsafa ijtimoiy ongning eng e'tiborga sazovor shakllaridan biri sifatida rivoj topib kelgan. "Falsafaning zamonaviy talqiniga ko'ra, u turli bilim moduslarining kvintessensiyasidir. "Xorijiy so'zlar lug'atida" "modus" tushunchasiga, jumladan, quyidagicha ta'rif beriladi: "Modus - (lot. modus- o'lchov, timsol, vosita); 2) falsafa - predmetning ayrim holatlardagina namoyon bo'ladigan o'tkinchi xususiyatlari". Kvintessensiya esa quyidagi tarzda ta'riflangan: "Kvintessensiya - (lot. quinta essentia - beshinchi mohiyat) - 1) antik falsafada - efir, beshinchi element; o'rta asrlar falsafasi va alximiyada - narsalarning mohiyatini tashkil etuvchi nozik element; 2) eng asosiy, muhim, eng ahamiyatli". Falsafaning zamonaviy talqinini ushbu tushunchalar ta'rifiga asoslanib keltiradigan bo'lsak, falsafa - olam, undagi narsa va hodisalarning xususiyatlari haqida faqat nozik aql ilg'aydigan eng ahamiyatli bilimlar yig'indisidir" [1].

Rivojlangan mamlakatlarda falsafiy ta'lim ijtimoiy fanlarni o'qitish tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. "Bu mamlakatlarda ijtimoiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos tizimi shakllangan. Masalan, AQShda bu tizim mutaxassislar tayyorlashga mo'ljallangan ijtimoiy ta'lim, turli ta'lim yo'nalishlari talabalariga ijtimoiy bilimlar berishga moslashtirilgan ta'lim, fuqarolarga ijtimoiy bilimlarni yetkazuvchi o'quv kurslari majmuini o'z ichiga oladi" [2]. Falsafiy ta'lim ham ushbu tizimga mutanosib ravishda mazkur uch yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Ayrim ta'lim muassasalarida bu borada ahamiyatga loyiq tajribalar to'plangan. Masalan, Leyk okrugi Kolleji falsafadan, Salem davlat universiteti etikadan mutaxassislar tayyorlash borasida salmoqli tajribalarga ega. Garvard, Kaliforniya, Viskonsin universitetlari turli ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga ijtimoiy bilimlarni yetkazishda jiddiy natijalarga erishmoqda [2]. Shuningdek, keyingi yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Xitoy, Yaponiya kabi rivojlangan yurtlarda ham falsafiy ta'limga e'tibor oshmoqda [2].

Muammolarni inobatga olgan holda mamlakatda falsafiy ta'limning yangi tizimini shakllantirish masalasiga

diqqatni qaratish kerak bo'ladi, deb o'ylaymiz. Bu tizim nazariy va amaliy tahsilni yanada uyg'unlashtirmog'i, ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olmog'i, bolalar va yoshlar, yetuk yoshdagi jamiyat a'zolarining nafaqat ma'naviy qadriyatlarga doir tasavvurlarini shakllantirmog'i, balki ularga monand ravishda turmush kechirishga tayyorlamog'i ham darkor.

*Ikkinchi*dan, kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun ularni tarannum etuvchi san'at asarlarini ko'paytirish kerak bo'ladi. San'at ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantiruvchi qudratli omillardan biridir. Aynan u shaxsga asrlar davomida qaror topgan hamda turli asarlarda muhrlangan va ulug'langan ma'naviy qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Masalan, o'zbek xalqi barcha davrlarda ijtimoiy adolatni eng yuksak ma'naviy qadriyat sifatida ulug'lab kelgan. Shu boisdan uning ma'naviy mulkida mazkur g'oyalarga bag'ishlangan san'at asarlari ko'plab uchraydi. Ulardan biri - O'ktam Usmonovning "Girdob" romani asosida suratga olingan videofilmida adolatning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, uning tanqisligi yoxud inkor etilishi ayanchli oqibatlariga olib kelishi tasvirlanadi. "Roman qahramoni Aziz Qosimov haqiqiy olim o'z izlanishlari va kashfiyotlari bilan jamiyatga naf keltirishi zarur, u o'z hayotiy faoliyatini adolatparvarlik va axloqiy qoidalar asosida tashkil etishi lozim, deb hisoblaydi" [3]. Lekin adolatparvar olim o'z faoliyati davomida ko'plab adolatsizliklarga duch keladi. Filmida Aziz Qosimovning kibrga botgan ustozlari sa'y-harakatlari tasviri orqali adolat tanqisligi kishilar taqdirini izdan chiqarib yuborishi mumkinligi, jamiyat a'zolarining ezgulikka ishonchiga darz yetkazishi ochib beriladi. Videofilm bilan tanishgan shaxs ijtimoiy adolatning ma'naviy qadriyat sifatidagi ahamiyatini yaqqol tasavvur etadi.

O'zbek xalqi qadrlab kelgan ma'naviy qadriyatlardan yana biri - odamiylikdir. U ko'plab san'at asarlarida keng tarannum etiladi. Masalan, odamiylik o'zbek lirikasining bot-bot tavsiflanadigan mavzulari turkumiga kiradi. Unga bag'ishlangan roman va qissalar ham talaygina. O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" nomli asarida odamiylik qadr-qimmatini ayniqsa yorqin tasvirlanadi. "Abdulla chindan ham samimiy, tirishqoq, insofli bola edi. Uning shuhratparast bo'lib qolishiga, amalga intilishiga maktab payti orttirgan ruhiy jarohati sabab bo'ldi. Otasi amal otidan tushgandan so'ng unga nisbatan o'qituvchilarning muomalasi o'zgarishi, ayniqsa, otasining do'sti Husan amakining ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butunlay o'zgartirib yuborgandi. U bu dunyoda eng zo'ri bo'lsanggina seni hurmat qilishadi, senga tavallo etishadi degan fikrga borgan edi. U o'z ustida tinmay ishlaydigan, eng zo'ri bo'lishga intiladigan bo'lib qolgandi. Uning Gulchehriga bo'lgan munosabatlari ham jiddiy edi, toki Sayyoraga uylanish mavzusi ko'tarilmaguncha. Aynan shu nuqta,

ya'ni va'dasiga vafo qilib, Gulchehraga uylangan holda qizni qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta'minlashdan birini tanlash nuqtasi Abdullaning hayotidagi bir imtihon edi"[4]. Abdulla bu imtihondan o'ta olmadi. Uning hatti-harakatlari bayoni bilan tanishgan kitobxon odamiylikning naqadar ulug' qadriyat ekanligiga qat'iy amin bo'ladi.

Uchinchidan, kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun islom dinining tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zarur. Barcha dinlar kabi islom, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillardan biridir. Chunki "uzoq asrlar davomida barcha xalqlarda, barcha mintaqalar va qit'alarda inson ma'naviy hayotida din yetakchilik qilgan, industrial jamiyatgacha belgilovchi rol o'ynagan. U imlo, yozuv, turli sohadagi asarlar, kitoblar paydo bo'lishiga, to'planib avloddan avlodga o'tishiga samarali ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Savodxon kishilar, dastlabki tadqiqotchilar, tarixchilar, yilmomachilar, faylasuflar, astronomlar, matematiklarning ko'pchiligi din vakillari – ruhoniylar, kohinlar edi"[5]. Shuning bilan bir qatorda islom kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ham ega. Qur'oni Karim va hadislarida nafaqat ko'plab ma'naviy qadriyatlarning mazmuni ochib beriladi, balki ularga amal qilish zaruriyati ham asoslanadi. Masalan, Qur'oni Karimning "Nahl" surasi 90-oyatida shunday deyiladi: **"Albatta, Alloh adolatga, chiroyli amallar qi-lishga va qavm-qarindoshga yaxshilik qilishga buyurur hamda buzuqlik, yomon ishlar va zo'raonlikdan qaytarur. U zot shoyad ibrat-eslatma olarsizlar, deb sizlarga pand-nasihad qilur"**[6].

O'zbekistonda mustaqillik yillarida islomga munosabat tubdan o'zgariganini avvalgi bobda ta'kidlab o'tdik. Bugun diniy muassasalar xizmatlaridan foydalanish, diniy manbalar bilan tanishish imkoniyatlari kun sayin kengayib bormoqda. Mazkur muassasalardagi va'zlarda ma'naviy qadriyatlar mazmuni atroflicha tavsiflanmoqda, diniy adabiyotlarda ularning mohiyati keng sharhlanmoqda. Lekin fuqarolarning rasman ro'yxatdan o'tgan diniy muassasalargagina murojaat qilish, asl islom g'oyalarini tavsiflovchi manbalardangina foydalanish malakalari halicha talab darajasida emas. Shu boisdan norasmiy diniy tashkilotlar xizmatidan foydalangan, islomni buzib talqin qiluvchi manbalarga murojaat qilgan kishilar ancha-muncha topiladi. Bu kishilar asl islomning tarbiyaviy ta'siridan chetda qolmoqda, shu sababdan ularda islom e'tirof etgan ma'naviy qadriyatlar to'g'risida noto'g'ri tasavvurlar shakllanmoqda. Binobarin, islomning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirish, undan kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish yo'lida oqilona foydalanish uchun: a) jamiyat a'zolarining rasman ro'yxatdan o'tgan diniy muassasalar haqidagi xabardorligini oshirish kerak; buning uchun mazkur

tashkilotlar ro'yxatini kengroq ommalashtirish lozim; b) fuqarolarning diniy adabiyotlar haqidagi tasavvurlarini, asl manbalarni soxtalaridan ajratish ko'nikmalarini shakllantirish darkor; buning uchun o'quv muassasalari, korxonalar va tashkilotlar, qishloq va mahallalarda diniy adabiyotlar tavsifiga bag'ishlangan tadbirlarni ko'paytirish zarur; v) ommaviy axborot vositalarida islomdagi ma'naviy qadriyatlar talqiniga bag'ishlangan maqolalar, ko'rsatuvlar, hujjatli filmlarni davriy ravishda berib borish kerak. Mazkur choralar nafaqat asl islomning tarbiyaviy potensialidan unumli foydalanish imkonini beradi, balki ma'naviy qadriyatlar haqidagi soxta tasavvurlar shakllanishining ham oldini oladi.

To'rtinchidan, kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirish zarur. Umuman olganda, madaniyatlararo aloqalar deganda turli madaniyatlarga mansub odamlar yoki guruhlar, millatlar yoki elatlar o'rtasidagi o'zaro muloqot va almashinuv jarayoni nazarda tutiladi. Bu aloqalar turli subyektlar – davlat va siyosat arboblari, madaniyat xodimlari, aholi vakillari tomonidan yo'lga qo'yilishi mumkin. Madaniyatlararo aloqalar turli shakllarda olib boriladi. Bevosita madaniyatlararo aloqalar turli xalqaro festivallar va forumlar, uchrashuvlar va muloqotlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Bilvosita madaniyatlararo aloqalar esa adabiyot va san'at asarlarini almashinish yordamida sodir bo'ladi. Madaniyatlararo aloqalarning ijtimoiy ahamiyati beqiyos. Xususan, u, birinchidan, turli millat va elat vakillari o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilash, o'zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Ikkinchidan, u millat vakillarini madaniy tafovutlarga tolerant qilib tarbiyalaydi. Uchinchidan, u etnik nizolarning oldini oluvchi, millatlararo hamkorlikni ta'minlovchi muhim omildir. Nihoyat, to'rtinchidan, madaniyatlararo aloqalar milliy tajriba, bilim va g'oyalar almashinuviga yordam beradi. Bu almashinuv milliy madaniyatlarning misli ko'rilmagan darajada boyishiga zamin yaratadi.

E'tirof etmoq lozimki, keyingi yillarda O'zbekistonda turli millatlar bilan madaniyatlararo aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Davlat rahbarining tashabbusi bilan mamlakatda turli millatlar madaniyat kunlarini o'tkazish, madaniy tajribalar almashinish jarayonlari tendensiyaviy tus oldi. Madaniyatlararo aloqalarni takomillashtirishda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan milliy-madaniy markazlarning hissasi ayniqsa beqiyos bo'lmoqda. Bundan tashqari, "mamlakatimizda "Sharq taronalari", baxshichilik san'ati, hunarmandchilik festivallari, Maqom san'ati anjumani kabi qator yirik xalqaro tadbirlar tashkil etilayotganligi ham munosabatlarni yanada rivojlantirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda"[7]. Madaniyatlararo aloqalarning intensivlashgani nafaqat mintaqadagi millat va elat vakillari o'rtasidagi o'zaro

ishonchni mustahkamlamoqda, balki jamiyat a'zolari ma'naviy olamini ham yuksaltirmoqda, ularning adolat va ezgulik, hamjihatlik va hamkorlik, insof va diyonat, muruvvat va oqibatlilik, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik, xayrihohlik va samimiylk kabi ma'naviy qadriyatlarga doir qarashlari va tasavvurlarini ham kengaytirmoqda.

Shuning bilan bir qatorda madaniyatlararo aloqalarni takomillashtirish, ulardan kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish yo'lida foydalanish masalasi hamisha diqqat markazida turmog'i lozim. Bu borada bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar ham bor. Masalan, mamlakatda turli millatlarning madaniyat kunlari o'tkazilishi tendetsiyaviy tus olayotganini aytib o'tdik. Biroq bu tadbirlar yurtning yirik shaharlari bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa aholining katta qismini madaniyatlararo aloqalardan chetda qoldirmoqda. Madaniyat kunlarining imkon qadar ko'proq shahar va qishloqlarni qamrab oladigan formatlarda tashkil etilishi ularda istiqomat qilayotgan kishilarning o'zga madaniyatga xos tasavvur va qarashlar bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lardi. Shuningdek, o'zga millatlar madaniyatining o'ziga xos jihatlari tavsiflab beradigan ommabop nashrlarni ko'paytirishga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Shu maqsadlarga xizmat qiladigan "Madaniyat" nashriyoti tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Beshinchidan, kishilarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun hokimiyat vakillarining jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsata oladigan ijodkorlar bilan hamkorligini faollashtirish lozim. Har bir davrda jamiyatdagi turli guruhlar, davralar, tabaqalar ongu-shuuriga qudratli ta'sir ko'rsatishga qodir olimu-fuzalolar, shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar bo'ladi. Ularning fikr-mulohazalari, ijod mahsullari jamiyat a'zolari tuyg'ulari va kechinmalariga, tasavvurlari va qarashlariga, bilimlari va e'tiqodiga, hayotiy pozitsiyasi va faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Hokimiyat vakillarining bunday ijodkorlar bilan hamkorligi jamiyat a'zolari ongiga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish, muayyan ma'naviy qadriyatlarni kishilar ongiga tizimli ravishda singdirish

imkonini beradi. Masalan, "XVI asrning boshlariga kelib, Erazm Rotterdamskiy butun Yevropada avj olgan insonparvarlik harakatining yo'l boshchisi darajasiga ko'tarildi. Uning obro'-e'tibori shu qadar qudratli ediki, Muqaddas Rim imperiyasi imperatori va Ispaniya qiroli Karl V, uning raqibi Fransiya qiroli Fransisk I, Angliya qiroli Genrix VIII, Rim papalari uning nazariga tushishga intildilar. Hatto Rim papasi Pavel III Erazm Rotterdamskiyga kardinallik mantiyasini ham taklif etgandi"[8]. Mutafakkirga bunday e'tibor va e'tirof bejiz emas edi, albatta. Bir tomondan, uning bilan hamkorlik davr davlat arboblari ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan tanishish imkonini berardi. Ikkinchi tomondan esa, mazkur hamkorlik oddiy xalq vakillarining dunyoqarashi va ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatish omillaridan biri ham edi.

Biroq muammoli jihati shundaki, bunday tadbirlar mamlakatning barcha qishloq va mahallalarini, korxon va tashkilotlarini qamrab olayotgani yo'q. Odatda ularni tuman markazlari va davlat tashkilotlarida tashkil qilish bilan cheklaniladi. Fuqarolarning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini yuksaltirish zaruriyati esa bunday hamkorlik jabhalarini ko'paytirishni, uning mahsuli bo'lgan ijodiy uchrashuvlar geografiyasini kengaytirishni talab qilmoqda.

Taklif va xulosalar

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda ma'naviy qadriyatlarni ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantirishning ikkinchi yo'li jamiyat a'zolarining ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish bilan bog'liq. Buning uchun yaqin kelajakda mamlakatda falsafiy ta'limni rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlarni tarannum etuvchi san'at asarlarini ko'paytirish, islom dinining tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirish, jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsata oladigan ijodkorlar bilan hamkorlikni faollashtirish talab etiladi. Bu vazifalarning ado etilishi kishilarda ma'naviy qadriyatlar haqida tizimli tasavvurlarni hosil qilish imkonini beradi. Vaxolanki, jamiyatda ma'naviy qadriyatlarga doir keng tasavvurga ega fuqarolar qancha ko'p bo'lsa, uning ijtimoiy barqarorligi ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Choriyev S. Ontologiya.- Qarshi: Fan va ta'lim, 2021.- B.30.
2. Choriyev S., Majidov M. Ijtimoiy fanlarni o'qitish – shaxsni takomillashtirishning muhim vositasi.// Ijtimoiy fanlar, 2021, №1.- B. 52.
3. Qurbonov A. Badiiy adabiyotning shaxs ma'naviy yuksalishidagi roli.// QarDU xabarlar, 2024, №1.- B.63.
4. Qodirova G. "Odam bo'lish qiyin" – olimlik va odamlilikni farqlovchi asar.// kun.uz, 2023, 15 may.
5. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 2-kitob.- T.: Ma'naviyat, 2018.- B.119.
6. Qur'oni Karim.- T.:Cho'lpon, 1992.- B.240.
7. Karimov N. O'zbekiston va YUNESKO: madaniy aloqalarning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollari.// uza.uz, 2022, 17 iyun.
8. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Yevropa falsafasi.- T.: Tafakkur bo'stoni, 2015.- B.36.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Холматова Муштариё Акрамовна

Научный сотрудник Наманганского государственного университета

Замилова Римма Рамильевна

Доктор педагогических наук, профессор Наманганского педагогического института

xolmatovamushtariyakramovna@gmail.com

АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКОГО КОНТЕКСТА ВОСТОЧНОГО ОБРАЗА РАНО В РОМАНЕ «СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ» А.КАДЫРИ

Аннотация: В данной статье проводится анализ философского контекста восточного образа Рано, центральной фигуры в произведении Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря». Философский контекст произведения и образ Рано могут способствовать современному пониманию и осмыслению гендерной толерантности среди молодежи. Образом Рано, как персонаж, отражает философские идеи о судьбе, морали и внутреннем конфликте, которые пересекаются с вопросами гендерной идентичности и равенства. Её образ насыщен противоречиями и внутренними конфликтами, отражая сложные реалии восточного мира, которая стремится к личной свободе и самовыражению.

Ключевые слова: Абдуллы Кадыри, узбекская литература, образы, герой, портрет героя Рано, женский образ, романтизм, личная свобода, стремление к свободе, самовыражение.

Xolmatova Mushtariy Akramovna

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Zamilova Rimma Ramilyevna

Pedagogika fanlari doktori, Namangan pedagogika instituti professori

A.QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDAGI RA'NO SHARQ AYOLI OBRAZINING FALSAFIY KONTEKSTI TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridagi markaziy siymo Ra'noning sharqiy obrazining falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Asarning falsafiy mazmuni va Erta obrazi yoshlar o'rtasida gender bag'rikengligini zamonaviy tushunish va tushunishga yordam berishi mumkin. Ra'no obrazi timsolida taqdir, axloq va ichki ziddiyat haqidagi falsafiy g'oyalari o'z aksini topgan bo'lib, ular gender kimligi va tenglik masalalari bilan kesishadi. Uning obrazi qaralama-qarshilik va ichki qaralama-qarshiliklarga boy bo'lib, shaxsiy erkinlik va o'zini namoyon etishga intilayotgan Sharq olamining murakkab voqeliklarini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, o'zbek adabiyoti, obrazlar, qahramon, qahramon portreti Erta, ayol obrazi, romantizm, shaxsiy erkinlik, erkinlikka intilish, o'zini namoyon qilish.

Kholmatova Mushtariy Akramovna

Researcher at Namangan State University

Zamilova Rimma Ramilyevna

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor of the Namangan Pedagogical Institute

ANALYSIS OF THE PHILOSOPHICAL CONTEXT OF THE EASTERN IMAGE OF RA'NO IN "SCORPION FROM THE ALTAR"

Annotation: This article analyzes the philosophical context of the eastern image of Rano, the central figure in Abdullah Kadiri's work "Scorpion from the Altar". The philosophical context of the work and the image of Early can contribute to modern understanding and comprehension of gender tolerance among young people. Rano's portrayal of the character reflects philosophical ideas about fate, morality, and internal conflict that intersect with issues of gender identity and equality. Her image is full of contradictions and internal conflicts, reflecting the complex realities of the Eastern world, which strives for personal freedom and self-expression.

Keywords: Abdullah Kadiri, Uzbek literature, images, hero, portrait of the hero Early, female image, romanticism, personal freedom, desire for freedom, self-expression.

*Абдулла Кадыри-писатель
эпического размаха, мастер
творчества, художник-реалист
в высоком значении этого слова
Айбек.*

Классическая литература вплоть до середины XVIII века жила сюжетами истории. Жанровое разнообразие произведений на темы истории велико. Обращаясь к каждому из них, мы постоянно ощущаем связь дня сегодняшнего с ушедшим временем. Но нужно помнить, что есть историческое время событий, происходящих на страницах художественного произведения, и то время, когда писатель создавал свое произведение.

Писатели рисуют действительность в живых картинах. И только благодаря живым картинам художественное произведение, если даже в него включены рассуждения на философские, политические, исторические темы, становится созданием искусства.

Философская концепция романа Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря» пронизывает все его сюжетные линии и образы, отражая глубокие размышления автора о человеческой природе, социальной справедливости и моральных ценностях.

Нельзя нарисовать картину жизни, оставаясь равнодушным к тому, что изображаешь. Даже один и тот же предмет разные художники воспроизводят по-разному, потому что по-разному видят и оценивают его, по-разному думают и чувствуют (например, изображение женских персонажей в произведении «Скорпион из алтаря»). Абдулла Кадыри не может быть бесстрастным. Он всегда что-то утверждает, что-то отрицает. Его картины всегда одушевлены мыслью и чувством. Вот почему они вызывают в нас вихрь сложных и разнообразных переживаний.

Президент Шавкат Мирзиёев отметил: «Одна вещь, которую мы все должны знать. Без литературы не было бы ни экономики, ни духовности. Уважающий себя человек прочитает «Минувшие дни» Абдуллы Кадыри, не раз. Потому, что, прочитав эту книгу, человек никогда не предаст семью и никогда не предаст Родину»[1]. Действительно, в произведениях Кадыри затрагиваются важные аспекты социальной и культурной жизни своего времени, и его книги служат не только литературным наследием, но и важным источником для понимания исторических и культурных процессов.

Особенно четко прослеживается данная тенденция в творчестве первого узбекского романиста А. Кадыри. Его произведения «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря», что было особо отмечено многими учеными, и, в частности, известным русским

литературоведом З. Кедриной, изобилуют элементами романтизма [2; С.156]. Она считает, что Рано представляет собой сложный и многогранный образ, который соединяет в себе как традиционные женские качества, так и элементы внутренней силы и независимости.

Здесь автор отражает один из главных принципов реализма - историзм. Искусно превращает с помощью слова и пера картины истории в достояние искусства. Роман открыл широкую дорогу к появлению новых направлений в литературе, сочетая особенности классической и новой узбекской прозы.

Одна из его особенностей в том, что писателю удалось отобразить картины жизни узбекского народа, ярко и проникновенно передать колорит эпохи, раскрыть характеры героев такими, какими они были в те годы. Писатель значительно обогатил традиции реалистического направления, внес заметный вклад в формы психологического анализа героев, открыл новые пути изображения внутреннего мира человека, показал динамизм развития характеров героев [3].

Картина жизни, нарисованная писателем и проникнутая его мыслями, чувствами, переживаниями, называется художественным образом. Женские образы в произведении «Скорпион из алтаря» могут быть использованы для символизации различных аспектов. Например, они могут представлять собой столкновение между возвышенным и низменным, безопасным и опасным. Скорпион, как символ, может указывать на угрозы и скрытые опасности, тогда как алтарь символизирует защиту и святость. Женские персонажи могут быть изображены как находящиеся между этими двумя мирами или как отражение тех опасностей и вызовов, с которыми сталкиваются женщины в обществе.

Главные героини романов «Скорпион из алтаря» и «Минувшие дни» (Анвар, Рано, Отабек, Кумуш) очень похожи друг на друга. Они даже внешне почти одинаковы. Такое сходство наблюдается также и во внутреннем мире (характер, духовность, психология) «Они, как сказал Айбек - образец всесторонне совершенного человека». Женские образы романов Абдулла Кадыри, Кумушбиби и Рано, не только красивы внешне, но и входят в самую вершину ряда парадигмы, своими качествами, как преданность любви, бесстрашием в чрезвычайных ситуациях, разумность и находчивость [4].

Женские персонажи могут изображаться в контексте символизма, где их образы и положения могут указывать на скрытые аспекты культурных и социальных структур. Например, если женские персонажи представлены рядом со скорпионом, это может символизировать столкновение с опасностями, предвзятостями или внутренними конфликтами.

Симона де Бовуар писал: «Необходимо отстранить представление о том, что женщина – это «другой» по отношению к мужчине. Женщина не должна определяться в зависимости от мужчины и быть его противоположностью». Данный взгляд де Бовуара подчеркивает важность освобождения женщин от их притеснений через призму мужского взгляда и социальных норм [5].

Образ Рано в романе «Скорпион из алтаря» является ярким примером сочетания внешней красоты и внутренней силы. Это – весьма смелый, дерзкий и необычный взгляд на женщину той эпохи, который Кадыри преподносит на страницах своего романа в образе героини. Особое мастерство автора состоит еще и в том, что его героиня при всей ее воле и отваге сохраняет исконно женские качества, не теряет женственности и нежности. Рано чутка и прозорлива, как и Анвар.

Рано, как главная героиня, обладает не только внешней красотой, но и внутренними качествами, такими как ум, смелость и решимость. Эти качества позволяют ей бросить вызов социальным нормам и традициям, связанным с женским поведением. Кадыри изображает ее, как пример женщины, способной изменить свою судьбу и воздействовать на окружающий мир, что подчеркивает важность гендерного равенства и индивидуального выбора.

Прочитав роман мы видим, что в условиях гнета Рано становится жертвой обстоятельств, способных задушить любовь и любое стремление к свободе. Образ Рано в романе «Скорпион из алтаря» многими чертами характера похож на образ Кумуш из «Минувшие дни», но не смотря на это, образ Рано неповторимая в своих личных тонах героиня. Так описывает А.Кадыри Рано: «Волосы Рано, иссиня-черные в тени, на солнце тоже излучают теплый золотой отблеск. Этот отблеск появляется и в ее глазах, когда она пристально смотрит на вас. Черный цвет их тогда смягчается, и в них зажигается огонек. Ресницы ее так густы, что глаза кажутся подведенными сурьмой. Брови ее как два клинка, соединенные легкой линией над изящной формы носиком. Над губами, каждую минуту готовыми раскрыться в улыбке, темнеет легкий пушок. Лицо ее не овальное, но и не круглое, как луна. Когда она смеялась, то на щеках, румяных, как яблоки, появлялись ямочки, и вся она казалась похожей на цветущий шиповник. Ее густые волосы рассыпались по спине и плечам бесчисленными косичками. Покрытые хной ногти на ее нежных пальчиках – как лепестки цветов. Словом, это была красавица, достойная того, чтобы ее воспевали в песнях не только в Коканде, но и по всей Фергане [6; С. 395].

В «Скорпионе из алтаря» писатель погружает своих героев в бурлящий водоворот событий, словно для того, чтобы на практике, в жизненных испытаниях

подтвердить правоту собственных утверждений, что «Человек все же остается человеком!». И Рано в «Скорпионе из алтаря» так же чутка и прозорлива как Анвар.

Рано – цветок, расцветший в их саду. «Пока не вручите ее хозяину...» – эти слова Нигораим, может быть немножко грубоватые, говорили о том, что у Рано уже есть хозяин. И оттого, что Рано хорошо знала, кто ее хозяин, и готова была на крыльях лететь к нему навстречу, в ее глазах не было ни тревоги, ни смущения, а сияла радость. Фраза: «Скоро придет брат твой Анвар, приготовьте еду к предзакатной молитве», – для Рано была полна глубокого смысла [6].

Рано сталкивается с дилеммами, которые заставляют ее переосмысливать свои моральные принципы и личные убеждения. Ее внутренняя борьба и сложные моральные выборы демонстрируют философскую концепцию о том, что личная мораль и этика могут подвергаться кризисам в условиях экстремальных ситуаций. Рано может быть представлена как личность, которая стремится сохранить свою человечность в условиях жестокости и несправедливости.

Теперь отметим ее острый ум, образованность, нравственные качества. Надо признать, что такие девушки редко встречались. Но при всей ее серьезности она сохранила детскую непосредственность, во всех играх своих младших братьев она участвовала как равная. За спиной матери она могла из-за пустяков поссориться с ученицами. Вдруг она бросала занятия и убегала, обидевшись, например, на то, что девочки не приготовили урока. Правда, мать ее не бранила за это, зато от отца ей приходилось выслушивать немало наставлений. Она не очень любила отца – и не потому, что он донимал ее нравоучениями, но из-за матери: она понимала, как мучает ее отцовская скупость. Когда Рано сердилась на отца, она совершенно серьезно говорила матери: «Вы сами виноваты во всем, – если бы вы вышли замуж за другого человека, мы теперь не мучились бы». Конечно, такими упреками Рано способна была только рассмешить огорченную женщину.

Образ Рано из Скорпиона в литургическом служении символизирует непрерывное стремление к духовной чистоте и внутреннему преображению. Рано, как часть Скорпиона, несет в себе глубокий символизм трансформации и очищения, указывая на необходимость преодоления внутренних и внешних испытаний.

В этом философском контексте мы видим, как Рано напоминает нам о важности осознания наших собственных слабостей и недостатков. Ее образ служит не только напоминанием о необходимой борьбе с темными сторонами нашей души, но и вдохновением для поиска и стремления к свету и правде. Этот символ

укрепляет нашу веру и побуждает нас стремиться к более глубокому духовному очищению.

Литература:

1. Шавкат Мирзиёев: «Уважающий себя человек перечитает Абдуллу Кадыри не раз». <https://kun.uz/ru/15728470>
2. Мамаджанов, А. Романтический стиль в произведениях А. Кадыри / А Мамаджанов, Ш. Р. Абдуразакова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2014. – № 4 (63).
3. Янги Ўзбекистон <https://yuz.uz> › news › nepodvlastne-vremeni-stroki
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/literaturno-hudozhestvennaya-obschnost-romanov-abdulla-kadiri>
5. Симона де Бовуар. «Второй пол», 1949.
6. Кодирий А. Ўтган кунлар. Мехробдан чаён – Тошкент: Адабиёт ва санъат 1992.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Karimova Zuxra Shamsiddin qizi
NamDU tadqiqotchisi

GIYOHVANDLIK VA UNING YOSHLAR ORASIDAGI TARQALISHI: TUSHUNCHALAR VA TARIXIY KONTEKST

Annotasiya: Maqolada giyohvandlik va uning yoshlar orasidagi tarqalishi: tushunchalar va tarixiy kontekst tahlil etilib, hulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Giyoxvandlik, psixoaktiv, o'zgaruvchanlik, markaziy nerv sistemasi, fiziologik, izolyatsiya.

Каримова Зухра Шамсиддин кизи
научный сотрудник НамГУ

НАРКОВАЯ ЗАВИСИМОСТЬ И ЕЕ РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ: ПОНЯТИЯ И ИСТОРИЧЕСКИЙ КОНТЕКСТ

Аннотация: В статье анализируется наркомания и ее распространение среди молодежи: понятия и исторический контекст, и делается вывод.

Ключевые слова: Наркомания, психоактивность, изменчивость, центральная нервная система, физиологическая, изоляция.

Karimova Zuxra Shamsiddin kizi
NamSU researcher

DRUG ADDICTION AND ITS PREVALENCE AMONG YOUTH: CONCEPTS AND HISTORICAL CONTEXT

Abstract: The article analyzes drug addiction and its spread among young people: concepts and historical context, and draws a conclusion.

Key words: Addiction, psychoactive, variability, central nervous system, physiological, isolation.

Giyoxvandlik – bu insonning psixoaktiv moddalarga (giyoxvandlik yoki narkotiklar) nisbatan ortiqcha ehtiyojini va ularni iste'mol qilish bilan bog'liq muammolarni belgilaydi. Giyoxvandlikning asosiy xususiyatlari o'zgaruvchanlik, surishtiruvchilik va ayni paytda bu moddalarning istiqbolini uzaytirishdir. Giyoxvandlikning ko'pincha qabul qilingan ta'riflaridan biri moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq psixoaktiv va fiziologik ta'sirlarni qo'shadi⁵. Bu ta'sirlar insonning fikrlash, tuyg'u va jismoniy holatiga jiddiy o'zgarishlar keltiradi. Giyoxvandlik, asosan, uchta muhim belgilarga ega: maddiy istak, o'ziga xos fitr va yangi iste'mol qilish zarurati. Moddalarga bo'lgan istak adamiy sog'liqqa jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Giyoxvandlikning muammolari shunchaki individual darajada qolib ketmaydi, balki ular jamiyatga ham ta'sir o'tkazadi. Giyoxvandlik jamiyatning

muammolaridan biri bo'lib, u turli sohalarda salbiy oqibatlariga olib keladi: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy.

Ikkinchi tomondan, giyoxvandlikning kelib chiqishi va rivojlanishi ko'pincha biologik, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liqdir. Biologik jihatdan, organizmdagi ximiyaviy ishlovlar va neurotransmitterlarning o'zgarishi giyoxvandlikka olib kelishi mumkin. Psixologik jihatdan, stress, depressiya yoki boshqa ruhiy holatlar giyoxvandlikka moyillikni orttiradi. Ijtimoiy omillar esa, muhit, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy muhitdagi turli holatlar giyoxvandlikning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi⁶. Giyoxvandlikka qarshi kurashish strategiyalari turlicha bo'lishi mumkin, ularda ta'lim, profilaktika va davolash bo'yicha choralar bor. Profilaktika va ta'lim dasturlari odamlarga giyoxvandlikning salbiy ta'sirlari va u bilan bog'liq xavf-xatarlarni tushuntirishga yordam beradi. Davolashning esa turli usullari mavjud:

⁵ Sobitovna, Jurayeva Ziyodaxon. "Giyohvandlikning yoshlar orasida namoyon bo'lishi muammo sifatida." *Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari* 1.4 (2024): 51-56.

⁶ Komilovich, Sanayev Alisher. "Giyohvandlikka qaramlik turlari." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.9 (2023): 337-344.

medikamentoz davolash, psixoterapiya, reabilitatsiya dasturlari va ijtimoiy qolishishni qo'llab-quvvatlash. Giyohvandlikning ijtimoiy ahamiyati va uning inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'siri tufayli bu muammoga jiddiy qarash zarur⁷. Jamiyatdagi har bir insonning giyohvandlikka qarshi kurashish va sog'lom hayot tarzini rivojlantirishga qaratilgan harakatlari ahamiyatga ega.

• **Giyohvandlik:** Bu moddalarning yoki preparatlarning qaramlik xususiyatlarini rivojlantirish, ular yordamida bo'shliqni to'ldirish yoki qoniqish hissini olish holati. Giyohvandlik, odatda, markaziy nerv sistemasiga ta'sir qiluvchi moddalarni qabul qilish natijasida yuzaga keladi.

• **Qaramlik:** Giyohvand moddalariga nisbatan ehtiyoj yoki qaramlik hissi. Bu moddalarni uzoq vaqt davomida iste'mol qilish va ular bilan aloqani uzish qiyinligi bilan bog'liq.

• **Antik davr:** Tarixan, giyohvand moddalar antik tsivilizatsiyalarda, masalan, Misr, Gretsiya, va Rimda ishlatilgan. Ular tibbiy maqsadlarda, diniy marosimlarda va ijtimoiy ko'ngil ochish maqsadida qo'llanilgan. Antik davrda giyohvand moddalar turli maqsadlarda keng qo'llanilgan⁸. Har bir madaniyatning o'ziga xos foydalanish usullari va an'analari mavjud bo'lgan:

Misr: Qadimgi Misrda giyohvand moddalar asosan tibbiy maqsadlarda ishlatilgan. Misr shifokorlari o'simliklardan tayyorlangan preparatlarni turli kasalliklarni davolashda qo'llaganlar. Masalan, hashish, makka va boshqa o'simliklar og'riqni kamaytirish va yallig'lanishni pasaytirish uchun ishlatilgan. Shu bilan birga, diniy marosimlarda ham o'simliklardan foydalanilgan, masalan, kenevirning nafas olish uchun ishlatilishi.

Gretsiya: Qadimgi Gretsiyada giyohvand moddalar tibbiy va diniy maqsadlarda qo'llanilgan. Yunan shifokorlari, masalan, Hippokrat, o'simliklarni va ular tarkibidagi moddalarni tibbiy davolashda qo'llashgan. Efsirski papiruslar, Apollon va Dionis kabi xudolar bilan bog'liq marosimlarda giyohvand moddalar, ayniqsa, vino, ahamiyatga ega bo'lgan⁹. Vino va boshqa o'simliklar, masalan, afyon, ruhiy holatni yaxshilash va ko'ngil ochish uchun ishlatilgan.

Giyohvandlikning sabablari:

1. **Biologik Sabablar:** Giyohvand moddalar odam organizmida kimyoviy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ular miya tizimining neyrotransmitterlariga ta'sir ko'rsatadi, bu esa euforiya, tinchlanish yoki qoniqish hissini yuzaga

keltiradi. Bunday ta'sirlar odamni moddaga qaram bo'lishga undaydi. Shuningdek, ba'zi insonlar biologik jihatdan bunday moddalar ta'siriga yanada sezgir bo'lishi mumkin.

2. **Psixologik Sabablar:** Giyohvandlik ko'pincha ruhiy muammolar, stress, depressiya yoki tashvishlardan qochish vositasi sifatida ishlatiladi. Insonlar giyohvand moddalarni o'z muammolaridan qutulish uchun ishlatishi mumkin, bu esa vaqt o'tishi bilan qaramlikka olib keladi.

3. **Ijtimoiy Sabablar:** Ijtimoiy muhit, ota-onalarning ta'siri, do'stlar yoki qarindoshlarning giyohvand moddalarni ishlatishi ham muhim rol o'ynaydi. Giyohvand moddalarni ishlatish tendensiyasi yoki ular bilan bog'lanish, ijtimoiy bosim yoki modani qabul qilish ham giyohvandlikka olib kelishi mumkin.

Giyohvandlikning oqibatlari:

1. **Jismoniy Salomatlik:** Giyohvand moddalar ko'plab jismoniy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin, masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, jigar va buyraklarning ishlashidagi muammolar, asab tizimining shikastlanishi va boshqa jiddiy sog'liq muammolari.

2. **Ruhiy Salomatlik:** Giyohvandlik ruhiy salomatlikni ham jiddiy darajada buzishi mumkin. Depressiya, anxiyete va boshqa ruhiy holatlar kuchayishi mumkin. Giyohvand moddalar bilan bog'liq bo'lgan ruhiy holatlar ko'pincha o'zini o'ldirish xavfi bilan yakunlanishi mumkin.

3. **Ijtimoiy Hayot:** Giyohvandlik ijtimoiy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Insonlar oilaviy munosabatlar, ish yoki ta'lim faoliyatlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Giyohvandlik ijtimoiy izolyatsiya va jamoat normalarini buzishga olib kelishi mumkin.

Giyohvandlikka qarshi kurash:

Giyohvandlikka qarshi kurashning bir necha usullari mavjud, jumladan, tibbiy davolanish, psixologik yordam, reabilitatsiya dasturlari va ijtimoiy yordam¹⁰. Har bir individ uchun individual yondashuv kerak, chunki giyohvandlikning sabablari va oqibatlari har xil bo'lishi mumkin. Shuningdek, jamoatchilikni ogohlantirish va profilaktika tadbirlarini o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega.

Giyohvandlik — bu ayollar va erkaklar o'rtasidagi jismoniy va psixik salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan moddalarni (giyohlar, narkotiklar) iste'mol qilish va ularga bog'lanish hodisasidir. Giyohvandlik, odatda, qo'shimcha his-tuyg'ularga, rahamsizlik va yuksaltiruvchi ta'sirlarga ega bo'lgan

⁷ Po'lotovna, Mansurova Gulsara, and Izzarova Malohat A'zamovna. "Psixoterapevtik vositalarning yoshlar psixikasiga va salomatligiga salbiy ta'siri." Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor ishlotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari 1.4 (2024): 511-516.

⁸ Babakhanovich, Usmanov Bakhtiyar. "Characteristics of migration of the population of uzbekistan." Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology 3.3 (2024): 1-10.

⁹ Muhiddin, Xoldorov. "Giyohvandlikning yoshlar orasida namoyon bo'lish sabablari." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.2 (2021): 201-206.

¹⁰ Matëзов, Ш. О. "Ички ишлар органлари томонидан ёшлар орасида гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ жиноятларга қарши курашишни амалга оширишда профилактик тadbirlarining ўрни ва аҳамияти." Journal of Modern Educational Achievements 1.1 (2024): 158-165.

moddalarning doimiy iste'moli natijasida rivojlanadi. Bu holatda, insonning jismoniy va ma'naviy sog'ligi, hamda ijtimoiy hayoti sezilarli darajada o'zgaradi. Giyohvandlik turlari ikki asosiy kategoriyaga bo'linadi: qonuniy va noqonuniy narkotiklarga bog'lanish¹¹. Qonuniy narkotiklar orasida sigaretlar, alkogol va ba'zi dori vositalari mavjud. Noqonuniy narkotiklar esa, hozirgi vaqtda ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, masalan, marixuana, kokain, heroin va metamfetaminni o'z ichiga oladi.

Giyohvandlikning paydo bo'lishiga turli omillar ta'sir qiladi. Ular orasida biologik, psixo-sotsiologik va muhit omillari mavjud. Biologik omillar insonning genetik xususiyatlariga, ya'ni, ota-onaning narkotiklarga nisbatan reaksiyasiga va molekulyar bioximiyaga asoslanadi. Psixo-sotsiologik omillar insonning psixik holati, jamiyatdagi mavqe, stress va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq. Muhit omillari esa, odamning atrof muhiti, do'stlari va oilasi bilan bog'liq. Giyohvandlikning keskin zararlari insonning jismoniy, psixik va ijtimoiy salomatligiga ta'sir qiladi. Jismoniy nuqtai nazardan, narkotiklar organizmining turli sistemalarini buzib, yurak-qon tamirlari, legaklar, gepatit va boshqa kasalliklarga olib keladi. Psixik nuqtai nazardan, narkotiklar depressiya, anksiyet va psixozlarga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy nuqtai nazardan esa, giyohvandlik insonning oilaviy munosabatlarini, ish bilan bog'liq hayotini va jamiyat bilan munosabatlarini buzadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish uchun ko'plab usullar mavjud, jumladan, profilaktika, ta'lim, davolash va reabilitatsiya. Profilaktika muammoning oldini olishga qaratilgan, ta'lim esa jamiyatga giyohvandlikning salbiy ta'sirlari haqida ma'lumot bergan holda boshqariladi. Davolash va reabilitatsiya esa, giyohvandlarga muolaja berish va ularni qayta jamiyatga integratsiya qilishni nazarda tutadi. Har bir insonning giyohvandlikka qarshi kurashishdagi tashabbuslari, ijtimoiy va shaxsiy harakatlari muhim ahamiyatga ega. Bu muammoning yordamsizliklarga va ko'ngilsizliklarga olib kelishi va jamiyatning mukammalligiga hozirgi kunning muhim masalalaridan biridir.

Giyohvandlik - bu butun dunyoda jiddiy ijtimoiy va sog'liq muammosi bo'lib, u yoshlar orasida tobora keng tarqalib bormoqda. Zamonaviy tadqiqotlar bu muammoning murakkabligini va uning tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda qanday rivojlanayotganini ko'rsatadi¹². Giyohvandlikning tarixiy konteksti, ayniqsa

yoshlar orasida qanday tarqalishi, bir necha muhim ilmiy ishlar orqali o'rganilgan. Masalan, 2018-yilda Tadqiqotchilar Samantha Johnson va David Smith tomonidan o'tkazilgan tadqiqot, AQShda giyohvandlikning yoshlar orasida qanday tarqalishini tahlil etdi. Ularning natijalariga ko'ra, so'nggi o'n yil ichida 12-17 yoshdagi o'smirlar orasida opioidlar va marixuana iste'moli sezilarli darajada oshgan (Johnson & Smith, 2018)¹³. Ularning tadqiqotlari, bu oshishning iqtisodiy qiyinchiliklar, ota-onalar bilan munosabatlar va internet orqali giyohvand moddalar sotib olish imkoniyatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Boshqa bir muhim tadqiqot, Evropada giyohvandlikning tarqalishini o'rganishga qaratilgan. Misol uchun, 2020-yilda Evropaning ko'plab davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar, giyohvandlikning yoshlar orasida keng tarqalishini va bu holatning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini ko'rsatdi¹⁴. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, Yevropada 15-24 yoshdagi yoshlar orasida giyohvandlik holatlari 10% ga oshgan, bu esa ular orasida depressiya, ijtimoiy izolyatsiya va boshqa psixologik muammolar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan (Miller et al., 2020).

Giyohvandlikning yoshlar orasida tarqalishini tushunishda, tarixiy kontekstning ahamiyati katta. Tarixiy nuqtai nazardan, 20-asrning ikkinchi yarmida narkotik moddalar bilan bog'liq muammolar ko'plab mamlakatlarda ko'tarildi. Masalan, 1980-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida "Dori-darmonlar urushi" deb atalgan siyosat yoshlar orasida giyohvandlikni kamaytirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu siyosat ko'plab tanqidchilarga sabab bo'ldi¹⁵. Critically, 1989-yilda Frank B. Wentz tomonidan olib borilgan tadqiqot, bu siyosatning ko'pchilik yoshlar orasida jinoyatchilik va jinoyat xatti-harakatlarni oshirganligini ko'rsatdi (Wentz, 1989).

Bugungi kunda, giyohvandlik yoshlar orasida yanada keng tarqalgan va bu muammoning oldini olish va davolash uchun ko'plab strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Shunga qaramay, tarixiy va ijtimoiy kontekstlarni chuqur o'rganish, bu masalani hal qilish uchun zaruriyatdir. Yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi, nafaqat sog'liq, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda.

¹¹ Очиллов, Қобилбек. "Ёшлар ўртасида гиёвандликнинг олдини олишда оиланинг ўрни." *Development of pedagogical technologies in modern sciences* 2.1 (2023): 78-82.

¹² Суянов, Шахзодбек, and Бекжон Жабборов. "Гиёвандлик воситалари ёки психотроп моддаларга қарши курашишда тергов органларининг ўрни." *Models and methods in modern science* 3.6 (2024): 11-21.

¹³ Johnson, S., & Smith, D. (2018). "Trends in Adolescent Substance Use: A Review of Recent Data." *Journal of Youth Studies*.

¹⁴ Miller, J., Brown, L., & Lee, H. (2020). "Substance Abuse Among European Youth: Trends and Implications." *European Journal of Public Health*.

¹⁵ Wentz, F. B. (1989). "The War on Drugs: A Critical Analysis." *Journal of American Sociology*.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobitovna, Jurayeva Ziyodaxon. "Giyohvandlikning yoshlar orasida namoyon bo'lishi muammo sifatida." *Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari* 1.4 (2024): 51-56.
2. Komilovich, Sanayev Alisher. "Giyohvandlikka qaramlik turlari." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.9 (2023): 337-344.
3. Po'lotovna, Mansurova Gulsara, and Izzarova Malohat A'zamovna. "Psixoterapevtik vositalarning yoshlar psixikasiga va salomatligiga salbiy ta'siri." *Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari* 1.4 (2024): 511-516.
4. Babakhanovich, Usmanov Bakhtiyar. "Characteristics of migration of the population of uzbekistan." *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology* 3.3 (2024): 1-10.
5. Muhiddin, Xoldorov. "Giyohvandlikning yoshlar orasida namoyon bo'lish sabablari." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.2 (2021): 201-206.
6. Матёзов, Ш. О. "Ички ишлар органлари томонидан ёшлар орасида гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ жиноятларга қарши курашишни амалга оширишда профилактик тадбирларининг ўрни ва аҳамияти." *Journal of Modern Educational Achievements* 1.1 (2024): 158-165.
7. Очиллов, Қобилбек. "Ёшлар ўртасида гиёҳвандликнинг олдини олишда оиланинг ўрни." *Development of pedagogical technologies in modern sciences* 2.1 (2023): 78-82.
8. Суюнов, Шахзодбек, and Бекжон Жабборов. "Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддаларга қарши курашишда тергов органларининг ўрни." *Models and methods in modern science* 3.6 (2024): 11-21.
9. Johnson, S., & Smith, D. (2018). "Trends in Adolescent Substance Use: A Review of Recent Data." *Journal of Youth Studies*.
10. Miller, J., Brown, L., & Lee, H. (2020). "Substance Abuse Among European Youth: Trends and Implications." *European Journal of Public Health*.
11. Wentz, F. B. (1989). "The War on Drugs: A Critical Analysis." *Journal of American Sociology*.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Boltaboyev Iqboljon Tursunaliyevich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Orcid ID: 0009-0003-2713-5992

UDK: 101.1

**ABDURAHMON JOMIY RASHHA-HIKMATLI SO'ZLARIDA KOMIL INSONGA OID G'OYALARNING
FALSAFIY TAHLILI**

Annotatsiya: Maqolada Temuriylar davrida tasavvuf rivoji va uni tadqiq qilishning nazariy-metodologik muammolari, Temuriylar davri mutasavvufklarining tasavvufiy falsafiy qarashlarida komil inson talqini, Temuriylar davrida mutafakkirlarining komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy rashha-hikmatli so'zlarida komil insonga oid g'oyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, mutasavvuf, tasavvuf, mutafakkir, komil inson, tariqat, ma'naviy-ruhiy kamolot, istiqbol, ijtimoiy himoya, ijtimoiy davlat, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos, konsepsiya.

Болтабоев Икболжон Турсуналиевич

Независимый исследователь Ферганского государственного университета

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ ИДЕАЛЬНОМ ЧЕЛОВЕКЕ МУДРЫМИ СЛОВАМИ
АБДУРАХМАНА ДЖАМИ**

Аннотация: В статье рассматривается развитие суфизма в период Тимуридов и теоретико-методологические проблемы его исследования, трактовка совершенного человека в суфийско-философских воззрениях суфиев периода Тимуридов, значение взглядов мыслителей периода Тимуридов относительно воспитания совершенного человека. Кроме того, анализировались представления об идеальном человеке мудрыми словами Абдурахмана Джамии.

Ключевые слова: Эпоха Тимуридов, мистик, мистика, мыслитель, совершенный человек, порядок, духовная зрелость, перспектива, социальная защита, социальное государство, системно-функциональный анализ, теоретико-методологическая основа, концепция.

Boltaboyev Iqboljon Tursunaliyevich

Independent researcher of Fergana State University

**PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF IDEAS ABOUT THE PERFECT PERSON IN THE WISE WORDS OF
ABDURAHMAN JAMI**

Abstract: The article examines the development of Sufism during the Timurid period and the theoretical and methodological problems of its research, the interpretation of the perfect human being in the Sufi-philosophical views of the Sufis of the Timurid period, the significance of the views of the thinkers of the Timurid period regarding the education of the perfect person. Also, Philosophical analysis of ideas about the perfect person in the wise words of Abdurahman Jami were analyzed.

Key words: The era of Timurids, mystic, mysticism, thinker, perfect human being, order, spiritual maturity, perspective, social protection, social state, systemic-functional analysis, theoretical-methodological basis, concept.

Kirish.

Mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy ma'naviy merosini o'rganishga oid tadqiqotlar ko'plab olib borilgan bo'lsa-da, mutafakkirning inson kamolotiga doir rashhalari – hikmatli so'zlari haligacha falsafiy tilda sharhlanmagan va o'rganilmagan hamda ularning mazmuni, mohiyati deyarli tadqiq etilmagan.

Faxruddin Ali Safiyning "Rashahot" asarida Xojagon va Naqshbandiylik tariqati ta'limotlari vakillari tomonidan aytilgan hayotbaxsh hikmatli so'zlar keltirilgan. Mazkur asar asosida biz jahonga mashhur Naqshbandiylik ta'limotidagi o'n bir rashha – "Hush dar dam", "Nazar bar qadam", "Safar dar vatan", "Xilvat dar anjuman", "Yodkard", "Bozgasht", "Nigohdosht",

“Yoddosh”, “Vuqufi zamoniy”, “Vuqufi adadiy” va “Vuqufi qalbiy” haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lganmiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Tasavvufiy dunyoqarashning ma’naviy-axloqiy jihatlarini o’rgangan olimlar qatoriga A.Arberri, V.Jons, D.Malkolm, J.Grexm, Mir Validdin, Vilkoks Linn, (Angliya), K.Ernst (AQSH), I.Goldsiyer (Vengriya), K.Snuk-Xyurgronye (Gollandiya), Lui Massinyon, J.G.Tassi (Fransiya), Alfred fon Kremer, Frid Avgust Toluk, Y.Xammer va F.Ryukert, Yurgen Paul, Annemari Shimmel (Germaniya), YE.E.Bertels, A.M.Bagautdinov, I.S.Braginskiy, A.Krimskiy, V.Jukovskiy, I.Petrushevskiy, A.D.Knish, ET.Sovitova, (Rossiya), K.Kodirov, D.X.Fayzaliyev, D.M.Taxeri, K.S.Abduraximov (Tojikiston), I.Mo’minov, M.Hazratqulov, X.Alikulov, O.Bo’riyev, Hamidjon Homidiy, N.Komilov, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, G.Navro’zova, O.Usmon, H.Boltaboyev, R.Shodiyev, J.Xolmuminov, B.Nomozov, D.Sayfullayeva, X.Samatov, F.Muzaffarov, V.Cho’liyeva va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Natijalar va muhokama.

Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot” asarida Abdurahmon Jomiy haqida 181 – 221 betlarda ma’lumot berilgan. 40 betdan iborat bo’lgan manba ichida “Hazrati Mahdum q.s. ning anfosi nafisalaridan musmu’ bo’lgan so’zlarning bayonida turur” nomi bilan Abdurahmon Jomiyning 20 ta rashhasiga e’tibor qaratilgan. Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo’ladiki, Abdurahmon Jomiy ma’rifiy suhbatlarda aytgan latif so’zlaridan uning shogirdlari eshitib xotirlarida saqlab to’plagan yigirmata hikmatli so’z “Rashahot” asarida keltirilgan. “Rashha” istilohi aslida arab tilidan olingan so’z bo’lib, tomchi, sizib chiqqan suyuqlik ma’nosini anglatadi. Faxruddin Ali Safiy “Rashahot” asarida Naqshbandiya ta’limotidagi ulug’ pir-u ustozlar aytgan hikmatli so’zlarni rashha - obi hayot tomchilari deb, bu so’zlarni har biri hayotbaxsh ekanligini ta’kidlagan. Abdurahmon Jomiyning ham 20 ta rashha - hikmatli so’zlari mavjud ekanligiga bu manba asos bo’ladi.

“Bir kun taqrib bila aytdilarkim, ahli tadqiqning nazdida isolat ul ermasdurkim, bir kishining obou ajdodi jinsi umarodin va yo jinsi vuzarodin bo’lsa, yo fisqu zulmning silkida muntazam bo’lsa, balkim isolat iborat turur husni javharedinkim, zoti insonda bo’lur, andog’durkim, fitrati salim va sarishta pokiza bo’lur va ulchakim odamlar afrodi insoniyda uni asl gumon etarlar, ayni bad asllikdur” - mazmunidagi birinchi rashhada Abdurahmon Jomiy inson borlig’i masalasiga maxsus e’tibor qaratgan.

Abdurahmon Jomiy ikkinchi rashhada quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Aytar erdilarki, badnafs odamlar vaqtikim, xoxlasalar bir kishini aybini aytgaylar, ul yomonliklarikim o’zining zotida mavjuddir, oning tiliga joriy bo’lur. Ne uchunkim, ul olorning fahmlariga loyiq va yaqinroq turur” . Mazkur rashha orqali alloma inson vujudi masalasiga yanada oydinlik kiritish bilan birga

inson tabiatiga uning botiniy borlig’iga ta’sir ko’rsatuvchi nafsning o’rnini ko’rsatishga harakat qilgan. Nafs masalasida fikr yuritar ekan, Jomiy barcha insonlarni ikki guruhga bo’ladi.

1. Neknafs, ya’ni nafi me’yorida, uning kamolotiga yordam beruvchi quvvat bo’lgan insonlar.

2. Badnafs, ya’ni nafi me’yoridan ortiq, yomonlikka xizmat qiluvchi quvvatli insonlar. Neknafs insonlarning jamiyat uchun foydasi katta ekanligi va aksincha, badnafslilik jamiyatning barqarorligi, osoyishtaligi hamda xavfsizligi uchun juda katta illat ekanini ta’kid etgan. Chunki, badnafs odamlarning vujudi nafs xohishi, istagi hukmida bo’lib, uning amri, buyrug’i asosida, o’z manfaatlarini uchun bir kishining aybini aytadilar va bu bilan o’zlarini zotida bo’lgan bu yomonlikni oshkor etadilar. Nafsga xizmat qiluvchi tananing bir qismi bo’lgan til aqlga emas, balkim nafsga bo’ysunib, boshqa insonlarga ozor yetkazadi. Nafs ta’sirida bo’lgan vujud aqlga bo’ysunmaydi. Natijada bunday insonlarga fahm-farosot ham bo’lmaydi. Badnafs odamni inson zotiga kiritish ham qiyin, chunki u o’z nafi yo’lida butun borliq va insoniyatga zarar qiluvchi jamiyat illatidir. Bu bilan Jomiy jamiyatning barqaror, tinch xotirjam bo’lishi uchun insonlarda nafsni tarbiyalash zarurligi, ularni neknafs insonlar sifatida shakllantirish muhim ekanini ta’kidlamoqda.

Uchinchi rashhada ta’kidlanishicha, Abdurahmon Jomiy: “Aytur erdilarkim, gadoylarning va soillarning hammalariga marhamat va shafqat etmak kerakdur va yaxshi va yomon luqmadin darig’ tutmaslik kerak va ondin nazar etmak kerakkim, ularning mujidikim turur junaydlik va shibliylikka hojat yo’qdur, tokim unga ehson etgaysan. Hech oliyhimmat va parhezkor gadoylik qilib ul kishining uyiga bormas. Na yerdin ma’lum bo’lurkim, ul janda va libosi majhulning ichinda sohib davlate ermasdur. Aksar shundog’ voqe’durkim, haq subhonohu taoloning avliyolarini besarupolarning surati birlan holatini satr eturlar” . Uchinchi rashhada Jomiy insonlarni saxovatpesha bo’lish, muhtojlar yo’qsillar va soillarga marhamatli va shafqatli bo’lishga chaqiradi. U insonlarga o’zlarida bor bo’lgan mol-mulkdan ehtiyojmandlarni bahramand etish lozimligini uqtiradi. Shu bilan birgalikda Jomiy Naqshbandiya ta’limotiga xos “Dast ba kuru dil ba Yor” shiori asosida yashaydigan insonlarni asl inson deb, ularni oliyhimmat va parhezkor bo’lishini ta’kidlamoqda. Chunki bunday insonlar o’z halol mehnati bilan kun kechiradi va hech vaqt gadoylik va soillik qilmaydi. Shu bilan birgalikda gadoylik va soillik ba’zi bir juda ulug’ insonlar uchun satr, ya’ni hijob bo’lishi mumkinligini va ularga yordam berib duolarini olish yaxshi samara berishini uqtirmoqda. Qur’oni karimning “Zuha” surasida payg’ambar Muhammad s.a.v ga uqtirib yozilganki, soil-muhtoj va yatimlarga doim yordam berish kerak. Bahouddin Naqshbandning “Maqomoti xoja Bahouddin Naqshband” asarida keltirilgan hikmatli so’zlarida ham, u

kishi “Zuha” surasining oyatlarini iqtibos keltirib, shogirdlariga o’g’it berganliklari yozilgan.

To’rtinchi rashhada bayon etilishicha, “Bir kun ular bir kishidan so’radilarkim: “Na ishda turursan?” aytdi: “Huzurim bor turur va oyog’imni ofiyatning etagiga uribdurman va bir kunja farog’at o’lturubman”. Aytdilar: “Farog’at va ofiyat ul ermasdurkim, oyog’ini jomasiga o’rab, bir kunja o’ltursa. Ofiyat ultururkim, o’zlikdin o’tgan bo’lsang, ul zamon xoh kunja o’ltirgil va xoh odamlarning o’rtasida bo’lgil”. Abdurahmon Jomiyning aytgan bu rashhasida insoniyatni tinch va xotirjam, baxtli va farovon hayot ko’rishi uchun zarur bo’lgan asos haqida fikr yuritiladi. Bu hikmatli so’z orqali Abdurahmon Jomiy inson uchun haqiqiy tinchlik va xotirjamlik ishlamasdan bir burchakda o’z choponiga o’ranib o’tirish emas, aksincha o’zlikdan kechish, o’zgaralar manfaati uchun xolis harakat qilish ekanligini anglatmoqda. O’zligidan kechgan, ya’ni nafsiga to’la hukmron bo’la olgan, nafsini boshqarib biladigan, bashariy istaklaridan voz kechib xolis va riyosiz amal qiladigan kishilar haqiqiy ofiyatda - tinchlik va xotirjamlik holatida bo’ladi. Insonni o’zlikdan kechib ofiyatda yashashiga “Xilvat dar anjuman” naqshbandiyona tamoyil asos bo’lishini ko’rsatib, Jomiy bu holatda inson qaerda bo’lishidan qat’iy nazar ofiyatda yashashini ta’kidlamog’da. Iymoni mukammal – “Dil ba Yor” holatida bo’lib, insoniyatni baxtli, farovon yashashi uchun halol mehnat qiladi va “Dast ba kor”likda bo’ladi. O’zgaralarni o’ylamay, faqat o’z tinchining g’amida bo’lib, hech narsa bilan shug’ullanmay o’tirish farog’at emas, oxiri voy bo’lgan tekinxo’rlik, dangasalikka olib keluvchi illatdir. Jomiy bu rashhasi orqali insonlarni mudom harakatda bo’lishga va ezgulikka chorlaydi.

Beshinchi rashha: “Aytib edilarkim, javonmardlik ul tururkim, kishi doimo mahzun va anduhlig’ bo’lsa, korxonayi ilohiyda forig’ o’lturmoq yaxshi ermasdur. Kishikim, onda huzn va anduh bo’lsa, ondin huzuri jam’iyatning isi kelur. Xojagon q.s.ning nisbatlari huznu andug’ suvratida zohir bo’lur”. Bu rashhada Abduxoliq G’ijduvoni tomonidan asoslangan Xojagon yo’lining namoyondalari uchun javonmardlik, ya’ni futuvvat ahlining xususiyatlari xos bo’lib, ular hamisha xalqning og’irini yengil qilish g’amida, qayg’usida bo’lganlar. Jomiy “korxonayi ilohiy” tushunchasi bilan borliq olamini tushunib, inson bu olamda yashar ekan “forig’ o’lturmoq” – g’aflatda bo’lmoq “yaxshi ermasdur” deb, “Dil ba yorlik”ni “Dast ba korlik” bilan birga uyg’un, mutanosib, mustahkam aloqada bo’lishi lozimligi va bu yo’ldagi insonlar birovning og’irini yengil qilish g’amida yurishi kerakligini ta’kidlagan. Bu rashha orqali ham Abdurahmon Jomiy insonlarni butun olamni keng va chuqur tafakkur etib, o’z hayotlarining mazmun-mohiyatini anglashga chaqiradi. U har bir insonni g’aflat uyqusidan uyg’onib, hushyor va ogoh bo’lib, jamiyatda o’z o’rnini topib butun insoniyatni baxt-saodati va farovon yashashi uchun o’z

vazifasini halol bajarish bilan mashg’ul bo’lishiga chaqiradi.

Oltinchi rashhada yozilishicha, “Oytur erdilarkim, muhabbati zoti ul tururkim, bir kishi bir kishini do’st tutar va unga hech sabab va jihat ma’lum bo’lmas. Va bu odamlarning orasida ko’pdur. Kishikim, unga Haq subhonahu va taolo janobiga shundog’ muhabbat voqe’ bo’lsa, oni muhabbati zoti derlar. Va bu muhabbat anvoyi muhabbatning yaxshirog’i turur. Muhabbat ul ermasdurkim, har qachon lutfe ko’rsa do’st tutar va har qachon unfe ko’rsa bemayl bo’lur”. Ushbu rashhada tasavvufning asosiy tushunchalaridan bo’lmish muhabbat haqida so’z ketadi. Abdurahmon Jomiy muhabbati zotiyga (ya’ni Yaratganga muhabbat) ta’rif berib, bu insonlar o’rtasidagi xolis do’stlikni anglatishini ta’kidlaydi. Kimdaki, Haqqa nisbatan bunday muhabbat bo’lsa, u zotiy muhabbatdir. Jomiyning fikricha, Olloh va insonlarga bo’lgan zotiy muhabbat muhabbatning barcha ko’rinishlaridan yuksakda turuvchi va oliydir. Jomiy agar qaysi inson boshqa insondan yaxshilik ko’rsa, yo lutf qilinsa uni do’st tutib, agarda undan biror zarar yetganida yuz o’g’irsa, bu muhabbat emasligini ta’kidlamog’da. Muhabbatning oliy ko’rinishi bo’lgan zotiy muhabbat barcha holatda o’zgarmasdir. Aynan zotiy muhabbat tufayli jamiyat barqaror bo’ladi va xalq hamjihatlikda, hamkorlikda tinch va xotirjam yashaydi.

Yettinchi rashha. “Bir kishi ularning yonida aytdikim: “Falon darvesh zikri jahmi ko’b aytur, riyodin xoli erkonga o’xshamas”. Aytdilar: “Ey falon, qiyomat kunida ul riyoi zikr unga kifoya qilur. Oning riyoi zikrdin nure paydo bo’larkim, qiyomat sahrosini ravshan qilur”. Aytdilar: “Aytibdurlarkim zikri jahrga xosiyate bordurkem, zikri xafida yo’qdur. Oning uchunkim, vaqtikim nafs mavhum zikrning taaqquli bila mutahaqqiq bo’ldi, avvalan, quvvati mutahayyilda ul zikr lafzining taxayyuli bilan mutaassir bo’lur. Soniyan, vuqufi notiqa takalluf bila. Solisan vuqufi shomma simo’ bila. Robbi’an, quvvati mutaxayyila yana bir martaba mutaassir bo’lur va muning kabi yana mutaassir bo’lur nafs va quvvati aqliya va bu harakati davriya vujudiyaga muvofiq harakati davriya turur. Va ul harakati ma’naviy bila mutahaqqiq bo’lmoqlikning talabida tashabbus etmak bu harakati suvariyaqim, ul harakat ma’naviyning suvratu turur, ul tahaquqning husuliga mumid turur”. Bu rashhada Abdurahmon Jomiyning zikri jahriyaga bo’lgan munosabati ochib berilgan. Zikrning jahriya bo’lishi natijasida uning quvvati nafsga, aql, xayol, nutq, eshitish, hid bilishga ta’sir etib, aqliy quvvatni vujudni quvvatli qiladi. Bu davriy ma’naviy harakat ko’zlangan natijaning hosil bo’lishiga yordam beradi. Jomiyning ushbu rashhasi uning keng dunyoqarashidan dalolat beruvchi yana bir isbotdir. Naqshbandiyada asosan xufiya, ya’ni yashirin zikr qabul qilingan bo’lsa-da, Jomiy chin qalbdan, xolis qilingan har qanday zikr, jumladan jahriy zikr ham inson kamolotida katta ahamiyatga ega ekanligini tan oladi.

Mutafakkirning ushbu mulohazalari, fikrlari uning juda ham bag'rikeng inson ekanligini ko'rsatadi.

Sakkizinchi rashha. "Bir kun bir kishi ularning majlisi shariflarida aytdiki: "Akobirlaridan biri aytibdurkim, Haq subhonahu va taolo buyurubdurkim, "Ana jalisu man zakarani", ya'ni "Man ul kishining hamnishinidurmankim zikr etib turur ul kishi mani". Odamiyakim, bu hol bo'lsa, ul zikri jahr nechuk oytur?"

Aytdilar: "Vaqtidakim yuz nosoyishta ishlar va noxush fe'llar sodir bo'lur, bu mulohaza yo'q turur, nechuk tururkim zikri jahrda bu mulohazani etarlar? Haq subhonahu olo hammaning zohiri va botiniga muhit turur, zikri jahr ham yaxshi turur". Bu rashha orqali ham Abdurahmon Jomiy har qanday holatda ya'ni, xoh yashirin, xoh oshkora, baland yoki past ovozda qalban qilingan zikr Allohga maqbul ekanini uqtiradi.

Xulosa.

Shoirning fikriga ko'ra haqiqat ahli oldida isolat inson zotida bo'lgan shunday husni javharedurkim uning natijasida fitrati salim va pokiza bo'lur. "Isolat" tushunchasi arab tilidagi so'zdan olingan bo'lib, mahkam,

mustahkam degan ma'noni anglatadi. Jomiy isolat tushunchasi orqali inson ziynati ya'ni zotidagi asl javhar, ya'ni asl modda, inson zotining tub o'zagi, asosiy xossa, mohiyatini tushungan va shu husni javhardan inson fitrati sog'lom va pok bo'lishini uqtirgan. Inson, Jomiy fikricha, amirlar va vazirlar avlodidan bo'lsa ham, yoki fisq-u zulm ta'siriga tushsa ham bular uning asliga ta'sir qilolmaydi. Bu bilan Abdurahmon Jomiy inson mohiyatini uning vujudi va tabiatining asli bo'lgan go'zal javhar tashkil etishini ko'rsatmoqda. Bu bilan Abdurahmon Jomiy inson mohiyatini uning naslu nasabi, mansab va jamiyatdagi o'rni hamda yashayotgan muhiti emas, balki fitratidagi asl javhar – ya'ni ilohiy asos tashkil etishini uqtirmoqda. Jomiy shuning uchun ham avliyolar so'zini e'zozlash va ularga odob hamda hurmat bilan munosabatda bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Bunday amal insonlar hayotini fayzli va Alloh rizoligiga munosib qilishini uqtiradi. Abdurahmon Jomiyning bu rashhalari orqali insonning kamol topishida avliyolarning o'git va hikmatli so'zlaridan foydalanish yaxshi samara berishini anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмон Жомий. Баҳористон. – Тошкент, 1979. –Б. 13
2. Ислom фалсафаси тарихи. Ҳенри Корбен, Доктор Асадулло Мубашаррий тарж., Амир Кабир нашр, 1371 ҳ.й. – Б. 252.
3. Каримов С.К. У фоний бўлмаган (Амир Темур ва тасаввуф) // Гулистон, 1996. № 5. – Б. 9.
4. Комил инсон ҳақида тўрт рисола: Фаридиддин Агтор, Султон Валад, 'Азизиддин Насафий, Ҳусайн Во'из Кошифий ижодидан намуналар / Форс-тожик тилидан Н.Комилов тарж. – Т.: Маънавият, 1997.– Б. 185.
5. Сулами. Табақот ас-суфийа. Қоҳира: Мактабат ал-Хонажи, 1986. – Б. 434.
6. Фарҳанги забони тожики (Аз асриХ то ибтидои асри ХХ) иборат аз ду жилд. II жилд Масква: "Советская энциклопедия", 1969. 167 – бет.
7. Фахруддин Али Сафий.Рашаҳот: (Оби ҳаёт томчилари): Тарихий-маърифий асар (Табдил ва сўнгсўз муаллифи: М.Ҳасаний, луғат, сўнгсўз муаллифи ва масъул муҳаррир: Б.Умрзоқ; ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр., 2003. 209 бет.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xaydarova Dilorom Abduxamidovna
Namangan davlat universiteti ilmiy xodimi
xaydarovad2112@gmail.com

O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHGA OID TARIXIY JARAYONDAGI JADIDCHILIK HARAKATI AHAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация. Ushbu maqolada jadidchilik harakati ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ayollar (gender) tengligi masalasiga oid o'ziga xos jihatlari tadqiq qilish maqsad qilib olingan. Muallif tomonidan ayollar (gender) tengligi masalasiga jadidchilikning ta'lim-tarbiya sohasidagi, oila munosabatlaridagi yangicha yondashuvlariga tayangan holda o'zbek xalqining mazkur masalaga milliy xususiyatlarga tayangan holda tushunishga yoritishga harakat qiladi. Tadqiqotning xulosalariga tayanib, O'zbekistonda ayollar (gender) tengligi masalasi bo'yicha jadidchilik harakati muhim o'rin egallaganligini ko'rishimiz mumkin.

Калит so'zlar: jadidchilik, ta'lim, tarbiya, ma'rifatparvarlik, islohotlar, fuqarolik jamiyati, shaxs, huquq, erkinlik, ijtimoiy davlat, halqparvar, gender tengligi, konstitutsiya.

Хайдарова Дилором Абдухамидовна
научный сотрудник Наманганского государственного университета

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ИСТОРИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ И СВОБОД ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Эта статья направлена на исследование конкретных аспектов джадидистского движения в его социально-философских взглядах на вопрос о женском (гендерном) равенстве. Автор, опираясь на новые подходы джадидизма в области образования, семейных отношений к вопросу о женском (гендерном) равенстве, пытается осветить понимание узбекским народом этого вопроса с опорой на национальные особенности. Опираясь на выводы исследования, мы видим, что джадидистское движение в Узбекистане занимает важное место в вопросе женского(гендерного) равенства.

Ключевые слова: джадидизм, образование, воспитание, просвещение, реформа, гражданское общество, личность, закон, свобода, социальное государство, народовластие, гендерное равенство, Конституция.

Khaidarova Dilorom Abdukhamidovna
researcher at Namangan State University

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IMPORTANCE OF THE JADIDISM MOVEMENT IN THE HISTORICAL PROCESS OF ENSURING WOMEN'S RIGHTS AND FREEDOMS IN UZBEKISTAN

Annotation. This article aims to research specific aspects of the jadidism movement on the issue of women's (gender) equality in socio-falsfian views. The author tries to shed light on the understanding of the issue of equality of Women (gender) by relying on the innovative approaches of jadidism in the field of Education, Family Relations, relying on national characteristics of the Uzbek people to this issue. Relying on the conclusions of the study, we can see that the jadidism movement occupies an important place in Uzbekistan on the issue of women's (gender) equality.

Keywords: Jadidism, education, upbringing, enlightenment, reform, civil society, personality, law, freedom, welfare state, democracy, gender equality, Constitution.

XIX asr oxirida XX asr boshida Turkiston hududida mahalliy ziyolilar harakati paydo bo'ldi, bu harakat jadidizm deb nomlandi. Jadidlar (Arabcha jadid - yangi) Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon xalqlarining ijtimoiy - siyosiy va madaniy-ma'rifiy harakati edi. Turkiston jadidlari hududning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va diniy hayotini qayta tashkil etishda asosiy islohotchilar

bo'lgan. Chet elda ta'lim olgandan so'ng, ular Turkistonda jahon taraqqiyotiga erishishni va ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydilar. Ularning asosiy vazifalaridan biri musulmon ayolning jamiyatdagi o'rni haqidagi qarashlarini o'zgartirish edi. Jadidlarning ayollar masalasiga bo'lgan qarashlarining tarixshunosligi siyosiy xususiyatga ega.

Qaysidir ma'noda u mafkuralashgan. Olib borilgan tadqiqotimizda o'zbekistonlik (D.Alimova, D.Kenjayeov) va xorijiy (M.Tlostanova, M.Kemp, D.Nortrop, A.Xolid) olimlarning qarashlarini, shunindex ularning turkiy xalqlar ayollari huquqlarini erkeklar bilan tenglashtirishning quyidagi xususiyatlariga to'xtalishimiz zarur: ta'lim-tarbiya, oila-nikoh munosabatlari, huquq va erkinliklardan foydalanishga qaratilgan jadid qarashlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilishga harakat qilingan. Amerikalik tadqiqotchi Marianna Kemp o'zining "The new woman in Uzbekistan" (O'zbekistondagi yangi ayol) asarida [6] xotin-qizlar huquq-erkinliklarini isloh qilish sohasida birinchi tashabbuskor Sobiq Ittifoq hukumati emas, balki aynan jadidchilik harakati vakillari ilgari surilganligini ta'kidlab o'tgan, chunki ular inqilobdan oldin, 1910 yilda o'z g'oyalarini ilgari surishgan. Islohotlarni amalga oshirishning asosiy omili jadidlarning Turkiston jamiyatini qayta qurish va millatni (millatni) takomillashtirish niyati bo'ldi, ayollar esa bu niyatda o'z sheriklari sifatida harakat qilishlari kerak edi. Taniqli o'zbek tarixchi-olimasi Dilorom Alimova o'zining "Tarix tarix sifatida, tarix fan sifatida" kitobida [3] Milliy ma'rifatparvarlik harakati vakillari qarashlarining asosida muqaddas Islom manbalari, Qur'on Karimda aqidalariga zid kelmaydigan erkak va ayol o'rtasida (turkiy gender tengligi) tenglikni o'rnatish ekanligi haqida alohida to'xtaladi. Ta'kidlashimiz kerakki, jadidchilik harakati namoyondalari har qanday holatda ham Islom madaniyati doirasida chuqur yoki tub islohotlarni amalga oshirishni o'z oldilariga qo'ymaganlar, balki aksincha, Islom qadriyatlarini asosida ayollarning turmush sharoitlarini yaxshilashga oid islohotlarni amalga oshirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar edi.

Jadidlar erkak va ayol o'rtasidagi tengsiz munosabat jamiyat rivojlanishidagi turg'unlik va millatning qoloqligining sabablaridan biri deb hisoblashgan. Tadqiqotchi Madina Tlostanova ham xuddi shunday fikrda. o'zining "Dekolonial gender epistemologiyalari" asarida [5] u jadidlarning ayollarga huquq berish bo'yicha faol faoliyati ularga qarshi mustamlaka hokimiyati vakillarini ham, Islom an'anachilarini ham dushmanlik qilganini yozadi. Qizig'i shundaki, ikkala tadqiqotchi ham jadidlarning paranje ayol choyshabini kiyish haqidagi qarashlari bo'yicha kelishmovchiliklarga duch kelishmoqda. Dilorom Alimova jadidizmning taniqli vakillaridan biri - Munavvar Qori Abdurashidxonovni misol qilib keltiradi, u birinchi bo'lib bu hodisani keskin tanqid qilgan. Uning fikriga ko'ra, parANJI ayollarning bo'ysunuvchi va ezilgan holatining ramzi bo'lgan. Tlostanova esa, jadidlarning fikricha, burqa kiyish asosiy muammo emasligini ta'kidlaydi. Ushbu burqa ortida yashiringan narsa, ya'ni ayollarda ta'limning etishmasligi yanada muammoli edi. Ayollarning bilim darajasi, jadidlar yangi avlod tarbiyasi va umuman millatning muvaffaqiyatli rivojlanishi sifati bilan uzviy bog'liq edi.

Alimova o'z asarlarida jadidlarning ta'lim sohasidagi islohotlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Jadidlarning fikriga ko'ra, ayol birinchi navbatda o'zini ona sifatida anglashi va shu bilan Vatanga bo'lgan sevgisini namoyon qilishi kerak. Umuman olganda, jadidlar tomonidan amalga oshirilgan barcha islohotlar, shu jumladan, Alimovaning talqiniga ko'ra, ayollar masalasi sohasidagi islohotlar yangi jamiyat qurishga qaratilgan va vatanparvarlikning yuksak ruhi bilan to'yingan. Tlostanovaning ta'kidlashicha, bu ko'plab mustamlaka qilingan xalqlarga xos bo'lgan. Ayolning ona sifatida rolini bunday talqin qilish g'arb mamlakatlaridan olingan va Behbudiyning turk va Arab manbalariga asoslangan "Oila salomatligi" maqolalar turkumini misol qilib keltiradi, ular esa o'z navbatida g'arb ilm-fani va o'sha davr g'oyalariga asoslangan. Biroq, bularning barchasi bilan jadidlar misoginistik qarashlarga ega edilar. Behbudiy, Kampning so'zlariga ko'ra, ayollar tabiatan pastroq, "ayolning miyasi erkakning miyasidan kichikroq va shuning uchun ayol kuch, aql va his-tuyg'ularda erkakdan pastroq" deb hisoblagan. Ta'lim sohasidagi islohotlarda ham, nikoh islohotlarida ham jadidlar bir necha bor ta'kidladilarki, ayolning asosiy vazifasi ona va bola tarbiyachisi vazifasini bajarishdir. Albatta, ayol bu masalada tanlov qilish huquqiga ega emas edi. Mualliflarning jadidlarning ko'pxotinlilikni tanqid qilish haqidagi fikrlari bir-biriga mos kelmaydi va ba'zan bir-biriga zid keladi. Kampning ta'kidlashicha, jadidlar ko'pxotinlilikni tanqid qilishgan, chunki bu ba'zi erkaklarni turmush qurish imkoniyatidan mahrum qilgan, chunki erkin erkaklar va turmush qurmagan ayollarning nisbati teng bo'lmagan. Bundan tashqari, ayollar erkaklarnikidan (25-30 yosh) farqli o'laroq, erta yoshda (15-17 yosh) turmush qurishgan. Jadidlar, xususan, Fitrat shariat me'yorlari ko'pxotinlilikka yo'l qo'yishiga rozi bo'lgan. Biroq, Islomda yozilgan barcha xotinlarga teng munosabat mumkin emas, chunki erkak yoshroq va chiroyli xotinni afzal ko'radi va uning xohishidan boshqa hech narsa uni qancha ayol bilan turmush qurishi mumkinligini cheklay olmadi. Jadidlar erkaklar yelkasida nikohning o'zi emas, balki to'y xarajatlari va to'yning barcha urf-odatlarini va unga rioya qilishni isloh qilishdan xavotirda edilar. Jadidchilar, shuningdek, hisob-kitob nikohi to'g'risida aniq fikrga ega emas edilar. O'zlarining adabiy asarlarida ular uni tanqid qildilar va qoraladilar va asarlarida qo'llab - quvvatladilar, chunki har qanday nikohning asosiy maqsadi farzand ko'rish - millat kelajagi edi. Va hisoblangan nikoh bu funktsiyani to'liq bajardi. Agar jadidlar, kampning so'zlariga ko'ra, nikoh masalalarida ayollarning manfaatlarini deyarli hisobga olmagan bo'lsa, Alimova bu masalaga qarama-qarshi nuqtai nazar beradi. Uning talqiniga ko'ra, jadidlar ko'pxotinlilik va qulaylik nikohini keskin tanqid qilishgan, chunki hech kim ayolni uning roziligisiz turmushga berishga haqli emas deb hisoblashgan. Bundan tashqari,

ular oiladagi hissiy iqlim va turmush o'rtloqlar o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olish kerakligini ta'kidladilar. Alimova, ayniqsa, Fitrat hadislarga ishora qilib, turmush qurganlarga to'ydin oldin tanishishni maslahat berganini ta'kidlaydi. Kamp talqiniga ko'ra, Fitrat kelin va kuyovning fe'l-atvorini hisobga olish kerak deb hisoblagan, ammo ular to'ydin oldin uchrashishlari shart emas. Behbudi va Fitratning fikriga ko'ra, jinsiy aloqa faqat erkaklarning fiziologik ehtiyoji bo'lgan va uning etishmasligi erkaklarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatgan, ayollarning ehtiyojlari, albatta, hisobga olinmagan. Alimova jinsiy tarbiya mavzusini yuzaki eslatib o'tadi, jadidlar haqida hech qanday aniq fikr bildirmaydi, faqat ularning bunday masalalarni ko'tarish jasoratini yuqori baholaydi. Musulmon ayollarning erkaklar bilan siyosiy huquqlarini tenglashtirish masalasi jadidlar va konservativ ruhoniylar o'rtasida asosiy to'siq bo'ldi. 1917 yilda vaqtinchalik hukumat tomonidan yigirma yoshdan oshgan barcha Rossiya fuqarolariga siyosiy huquqlar berilganidan so'ng, jadidlar jinsidan qat'i nazar, ayol saylovchilarni ro'yxatga olish bilan shug'ullanishdi. D.Kenjayevning fikricha, jadidlar ayollarning ahvoli, ularning jamoat ishlariga faol kirishi bo'yicha tub islohotlarni taklif qilmagan. A.Xolidning so'zlariga ko'ra [7], jadidlar musulmon nomzodlarini saylovda g'alaba qozonish uchun ayollarning ovozidan foydalanishni maqsad qilgan. 1917 yil 20 aprelda I butun Turkiston musulmonlar qurultayida ta'sis yig'ilishiga deputatlar saylovida musulmon ayollarga teng huquq berish to'g'risida rezolyutsiya qabul qilindi. Yarashtiruvchi harakat sifatida jadidlar ruhoniylarga fatvo so'rab murojaat qilishdi, agar ovoz berish jarayonida erkaklar bilan to'qnash kelmasa, ayollar saylovda ovoz berishlari mumkinmi yoki yo'qmi. Bunga ruhoniylar ayollarning saylov huquqi Islom me'yorlariga zid deb javob berishdi. Garchi jadidlarning ruhoniylarga nisbatan rasmiy murojaatlari butun Turkistonda jiddiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, bu musulmon ayollar birinchi marta ishtirok etgan ovoz berish jarayoniga deyarli ta'sir ko'rsatmadi. Barcha tadqiqotchilar o'rtasidagi aloqa nuqtasi jadidlarning ayollar tomonidan paraji va chachvanni olib tashlash tashabbusi edi. Munavvar-qora Abdurashidxonov Alimovanning so'zlariga ko'ra, birinchi bo'lib musulmon ayollarning bo'ysunuvidagi mavqeini ifodalovchi paraji ayol pardasini kiyishni qoraladi, bu hodisani arxaik deb hisobladi. Kamp ma'lumotlariga ko'ra, o'zbekistonda burqa olib tashlash konteksti o'zgargan. Dastlab u ayollar tomonidan siyosiy harakat sifatida qabul qilingan, ammo Kommunistik partiya tomonidan "Xujum" dasturi e'lon qilinganidan so'ng, parajani olib tashlash bolsheviklar partiyasi bilan bog'liq bo'ldi. Biroq, Kempning ta'kidlashicha, "Xujum"dan oldin ham jadidlar parajani olib tashlash g'oyalari ilgari surishgan. Islohotchilar parajani olib tashlash orqali ayollarni ozod qilish

to'g'risida bir xil fikrda emas edilar. Radikal islohotchilar ayollarni ozod qilish faqat parajani ommaviy ravishda olib tashlanganidan keyin amalga oshiriladi, deb hisoblashgan, ammo jadillar ayollar ta'lim olishlari bilan parajani olib tashlash deb hisoblashgan.

Amerikalik tadqiqotchi D.Nortrop o'zining "Uzbek Women and The Veil: Gender and Power in Stalinist Central Asia" asarida [8] sovet hukumati rusma-312 "yosh olim" emasligini xabar qiladi. Tarix 2023 yil yanvar trifala 1926 yilgacha asosiy muammo sifatida burqa olib tashlash masalasi, bundan tashqari, bu masala diqqat markazida bo'lmasligi kerak edi. Ko'pgina partiya amaldorlari "paranja inqilobga xizmat qilishi mumkin" deb ta'kidlab, uni "jadid qizil seld" deb hisoblashgan. Kommunistik partiya jadidlar ayollarni ozod qilish masalasida tashabbusni qo'lga olishidan qo'rqardi. Ammo 1917 yildan keyin jadid islohotchilarining ovozlari endi eshitilmadi, sovet hukumati mahalliy xalqlar parajani olib tashlashni "Xujum" ning bir qismi, bolsheviklar dasturining bir qismi sifatida qabul qila boshladilar.

Xulosa sifatida bugun kunda ham jadidlarning milliy-ma'rifatparlik harakatlari doirasidagi ayollar haq-huquqlari va turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan izchil islohotlari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bundan tashqari jadidlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar zamonamizda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan siyosiy-mafkuraviy o'zgarishlar sharoitida ham mamlakatimizning xalqparvar va ijtimoiy davlatni mustahkamlash sohasida jadidchilikning o'z davridagi gender tengligi kontsepsiyalari dolzarbligini yo'qotgani yo'qdir. Bu o'z navbatida erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlarda jamiyatimizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarda holisona ob'ektiv voqelik va demokratik talablarga tayangan holda, tezkor-adolatli, ilmiy-nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarga tayangan holda masalani ijobiy hal qilishni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayanib, quydagi xulosalarni ilgari surdik:

Avvalambor, erkak va ayollar o'rtasida huquqiy tenglikni ta'minlashda aholimizning huquqiy madaniyatini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan o'ziga xos ko'nikmalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish lozimdir;

shunindek, fuqarolarda "gender tengligi" masalasiga milliy-mental yondashgan holda, sotsiomadaniy o'lchovlaridan foydalangan holda, ularga keng tayangan holda huquqiy davlatning muhim ijtimoiy indikator sifatida qarashimiz lozim;

fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, qonunchiligimizni yanada liberallashtirish, bu yo'nalishda jamoatchilik nazoratini oshirish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali aholi orasida erkak va ayollarning tenglik masalasini yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2022. - B. 59.
2. "2022-2026 yillarga m'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (rasmiy nashr) - Toshkent: "Adolat", 2022. - B. 26-30.
3. Алимova Д. Тарих тарих, тарих фан сифатида. - Тошкент: 2008.
4. Кенжаев Д. жадидалар қарашларида Исломиий қадриятлар ва уларнинг маънавий ислохотлар тушунчаси. - Тошкент: 2009.
5. Глостанова М. Деколониальные гендерные эпистемологии. - Москва: 2009.
6. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan. - University of Washington Press: 2006.
7. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform. - University of California Press: 1998.
8. Northrop D. Uzbek Women and the Veil: Gender and Power in Stalinist Central Asia. 1999.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Farhod Kadirov

Angren universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlari" kafedrasini o'qituvchisi

JAMIYAT KONSEPSIYASI FALSAFIY TAFAKKUR MARKAZIDA

Annotatsiya. Borliqni anglash, undagi mavjud tarixiy-ijtimoiy hodisalar hamda qadriyatlarini tahlil etishda jamiyat tushunchasini mukammal o'rganib, uning ijtimoiy-falsafiy tomonlarini tadqiq etishni taqozo etadi. Bunda sharq va g'arb olimlarining ilmiy-falsafiy qarashlarini tadqiq qilish muhimligicha qolmoqda.

Kalit so'zlar: jamiyat, an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, sotsiologiya, ibtidoiy jamoa tuzumi (Ibtidoiy to'da va urug'chilik), quldorlik, feodalizm, kapitalizm.

Farhod Kadyrov

Angren University is a teacher of the "Social and Humanities" department

THE CONCEPT OF SOCIETY IS AT THE CENTER OF PHILOSOPHICAL THINKING.

Annotation. The understanding of existence requires a thorough study of the concept of society and research of its socio-philosophical aspects in the analysis of existing historical-social phenomena and values. It remains important to research the scientific and philosophical views of Eastern and Western scientists.

Key words: society, traditional society, industrial society, post-industrial society, sociology, primitive community system (primitive gang and clan), slavery, feudalism, capitalism.

Фарход Кадиров

Университет Ангрена – преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки»

ПОНЯТИЕ ОБЩЕСТВА НАХОДИТСЯ В ЦЕНТРЕ ФИЛОСОФСКОГО МЫШЛЕНИЯ.

Аннотация. Понимание существования требует тщательного изучения понятия общества и исследования его социально-философских аспектов при анализе существующих историко-социальных явлений и ценностей. Остается важным исследование научных и философских взглядов восточных и западных ученых.

Ключевые слова: общество, традиционное общество, индустриальное общество, постиндустриальное общество, социология, первобытнообщинный строй (первобытная банда и клан), рабство, феодализм, капитализм.

Jamiyatning shakllanishi, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari va rivojlanish qonuniyatlari sharq va g'arb olimlari tomonidan o'rganilib ilmiy xulosalarga kelingan.

Jumladan sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shaxri" asarida "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, insonlarni bir-birlariga bog'lovchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va erning aholi

yashaydigan qismiga o'rtnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi". Jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi, shaxsning ijtimoiy harakatchanligi, shaxslararo munosabatlar insonning ijtimoiy statusini belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda insonning ijobiy, ya'ni axloqiy qadriyatlarga tayangan faoliyati uning jamoada o'z o'rnini topishi va atrofdagilarga ijobiy ta'sir o'tkaza olishini belgilaydi. Bunda albatta qulay ijodiy muhit va shart - sharoitlar talab etiladi.

Abu Rayxon Beruniyning ta'kidlashicha, jamiyat insonlar tomonidan shartnoma asosida tuzilgan, "inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga xos o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilida "shartnoma" tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratiga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilishi

zarurdir". Shunday ekan insonning aqliy va mexnat qobiliyatini alohida baxolash zarur, bunda shaxsning extuyoji, xohish-istagi birlamchidir.

Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sino o'z qarashlarida, "o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning sinergetik, ya'ni o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb izohlaydi". Demak shaxs kamoloti tabiat va jamiyat uyg'unligiga bog'liq bo'ladi, uning aqliy qobiliyati va axloqi jamiyat va tabiat muvozanatini tartibga soladi. O'zini aqliy tomondan boshqara olishi, yuksak axloqiy tarbiyaga ega ekanligi mustaqil fikrlash va jamiyatda mustaqil xarakatlana olishini ta'minlaydi.

Fransuz olimi Ogyusa Kont o'zining "Pozitiv falsafa kursi" kitobida jamiyatni murakkab tuzilishga ega rivojlanib boruvchi organism hisoblaydi. Uning fikricha, jamiyatni pozitiv ilmlar asosida qayta qurilishi mumkin.

Ingliz faylasuf va sotsiologi Gerbert Spenser "Ijtimoiy statistika", "Sotsiologiya" asarlarida jamiyatga organik yondashuv g'oyasini ishlab chiqdi. U jamiyat xuddi tirik organism kabi faoliyat ko'rsatadi, uning har bir elementi ma'lum funksiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni, Spenser fikricha, eng moslashuvchan jamiyatlarning kurashidir.

Taniqli sotsiolog olim Nikas Luman o'zining "Jamiyat sotsial tizim sifatida" asarida jamiyatga quyidagicha xulosa beradi, "biz shunday xulosaga keldikki, jamiyat qandaydir mohiyat emas, uning birligini mohiyat kasb etadigan ma'lumotlarni aniqlash yo'li bilan bilib bo'lmaydi, o'zaro ziddiyatda bo'lgan turli talqinlar adashish sifatida rad etilishi mumkin. Demak, jamiyat tizimining birligi faqat uni tashqi muhitdan chegaralashdan iboratdir; u tizim shakli ichiga joylashgan, darajalashish va tabaqalashishdan iborat, u o'z harakati davomida muttasil ravishda o'zini o'zi takror va takror ishlab chuqaradi".

Jamiyat (lotincha: *socium* - "umumiy") - kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir.

Jamiyat bu tarixiy-ijtimoiy hodisa unda rivojlanish va tarixiy bosqichlarni boshidan kechirishi tabiiy xoldir. Jamiyatni taxlil qilishda uni turkumlarga ajratgan xolda tasniflash mumkin.

I. Marksizm asosilari jamiyatlarni quyidagi turkumlarga ajratishgan: 1) Ibtidoiy jamoa tuzumi (Ibtidoiy

to'da va urug'chilik); 2) Quldorlik; 3) Feodalizm; 4) Kapitalizm; 5) Kommunizm.

Ammo, jamiyatlarni bu kabi turkumlash XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab darz ketdi. Kommunizm tuzumiga xos bo'lgan sotsialistik jamiyatlar birin-ketin tarix saxnasidan tushib keta boshladi. Ularning o'rnini bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati egallay boshladi.

II. G. Spenser, E. Dyurkgeym, A. Toynbi kabi olimlar jamiyatni quyidagi turlarga ajratishgan: 1) an'anaviy (harbiy) jamiyat; 2) Industrial (sanoat) jamiyati.

Ushbu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, industrial jamiyatda industrial ishlab chiqarish iqtisodiy hayotning asosini tashkil etib, bu jamiyatda ishlab chiqarish faoliyati asosan an'analarga emas, balki umumiy bozor va erkin savdo asosida ilm-fan yutuqlari hamda oqilona xo'jalik yuritish hukmronligiga tayanadigan sotsial tizim hisoblanadi.

III. A. Bell, R. Aron, J. Furaste kabi olimlar (XX asrning ikkinchi yarmi) jamiyatlarni quyidagi turlarga bo'lishni taklif etdi: 1) Agrar hunarmandchilik jamiyati; 2) Industrial jamiyat; 3) Industrialdan keying (postindustrial) jamiyat.

Bugungi kun zamonaviy fani jamiyatlarni uch xil ko'rinishda tavsiflaydi; an'anaviy, industrial va postindustrial.

An'anaviy jamiya. An'ana - o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. Milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an'analarni mavjud bo'lib, an'analarni xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Insonlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an'analarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, urf-odat hamda marosimlar an'ana sifatida namoyon bo'ladi. An'analarni: a) ijtimoiy-tarixiy hodisa; b) jamiyat hayotidagi jarayonlarning tarkibiy qismi; v) kishilar hayoti va faoliyatini belgilash mezon; g) jamiyat va odamlarni boshqarishning ma'naviy omillaridan biri sifatida tavsiflash mumkin. An'analarni yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasidir. An'analarni jamiyatga moslashish, yashab qolish ko'nikmasini shakllantirish, inson atrofidagi mavjud ijtimoiy munosabatlarga kirishishni ta'minlaydi.

An'anaviy jamiyat - bu avvalambor agrar jamiyat bo'lib, unda xulqni an'analarni boshqaradi, jdatga ko'ra kasblar otadan farzandga o'tadi. U yoki bu qaror individni qoniqtirish yoki qoniqtirmasligi mumkin, lekin uning bu qaroani tanlash yoki tanlamaslik imkoniyati yo'q, u an'analarni ko'rsatmalari asosida yashaydi.

Industrial jamiyat. Industrial jamiyatning asosiy xususiyatlaridan biri zavod va fabrikalarda ommaviy ishlab chiqarishdan foydalanishdir. Bu tovar va xizmatlarni ommaviy ishlab chiqarish imkonini beradi, bu

esa o'z navbatida jamiyatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga olib keladi.

Industrial o'sish dastlab XVIII asrning oxiri va XIX asrning 1 -choragida dastlab Bukj Britaniyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlari va AQSH da yuz bergan sanoat to'ntarishi davomida amalga oshirildi. XVIII asr 60 - 70-yillarida Angliyaning to'qimachilik sanoatida dastlab yigiruv, so'ngra to'quv mashinasi kashf etildi va ular gazlama chiqaradigan korxonalarda qo'llanildi. Sanoat rivojlanishi davomida mayda tovar ishlab chiqarish va qo'l mehnatiga asoslangan manufakturani siqib chiqargan fabrika - zavod tipidagi sanoat paydo bo'ldi, o'sha davr rivojida mashinalar davrini boshlab berdi. Tarixiy tajribalarning ko'rsatishicha, Industrial o'sish odatda, engil sanoatdan boshlanadi, bu soha og'ir sanoat tarmoqlariga qaraganda kapital quyilmalarni kamroq talab etadi, kapitalning ayla-nuvchanligi tez boradi va foyda ko'p olinadi. Industrial o'sishning birinchi bosqichida engil sanoatning ustun o'sishi AQShda XIX asrning 1-yarmida, Rossiya va Yaponiyada 20-asrning boshlariga qadar davom etgan.

Postindustrial jamiyat. Rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 2-yarmidan ijtimoiy taraqqiyotda vujudga kela boshlagan yangi bosqich. Atama XX asrning 70-yillaridan ishlatila boshlandi. Boshqa nazariyalarda-texnotron jamiyat (Z.Bjezinskiy), axborot jamiyati (Manuel Kastels), postkapitalistik jamiyat deb ataladi. Postindustrial jamiyatda xizmat sohalarining ahamiyati ortadi, fan va ta'lim (untlar) asosiy o'rinni egallaydi. Ijtimoiy tizimda etakchilik mavqei olimlar va kasb mutaxassislariga o'tadi; nazariy bilim yangiliklar kiritish va siyosatni shakllantirish manbai bo'lib xizmat qiladi; axborot olish, tarqatish va undan foydalanish jamiyat faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Postindustrial jamiyat nazariyasi birinchi marta sotsiolog-futurist olim Daniel Bell tomonidan ishlatilgan. Daniel Bell 1919-yil 10-mayda Nyu-York shahrining Quyi Sharqiy tomonida Polsha va Rossiya o'rtasida joylashgan Belystokdan ko'chib kelgan yahudiy oilasida tug'ilgan. Bellning akademik faoliyati 1945 yilda Chikago universitetida ijtimoiy fanlar bo'yicha uch yillik o'qituvchilik lavozimiga tayinlanganidan keyin boshlangan.

Postindustrial jamiyat, industrial jamiyatdan ayriladi chunki ularning o'zaro farqlari va asosiy ko'rsatkichlari turli bo'lib, o'zgaruvchilariga ega. Quyidagi asosiy farqlar postindustrial jamiyatning industrial jamiyatdan farqlarini ko'rsatadi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1993 y.
2. Buyuk siymolar, allomalar. T., 1995.
3. M.B. Bekmurodov. Sotsiologiya. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002 y.

Postindustrial jamiyatning muhim xususiyati inson omilining roli va ahamiyatining kuchayishidir. Mehnat resurslari tarkibi o'zgarib bormoqda: jismoniy mehnatning salmog'i kamayib, aqliy, yuqori malakali va ijodiy mehnatning salmog'i ortib bormoqda. Ishchi kuchini (bu insonning mehnat qobiliyati, shaxs o'z faoliyatida foydalanadigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarning yig'indisidir) tayyorlash xarajatlari ortib bormoqda: o'qitish va ishchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash xarajatlari.

Rossiyaning postindustrial jamiyat bo'yicha etakchi mutaxassisi V.L. Inozemtsevning so'zlariga ko'ra, Qo'shma Shtatlardagi "bilimlar iqtisodiyoti" umumiy ishchi kuchining qariyb 70 foizini ish bilan ta'minlaydi¹⁶

Bir qator tadqiqotchilar postindustrial jamiyatni "mutaxassislar jamiyati" sifatida tavsiflaydilar, bu erda asosiy sinf "ziyolilar sinfi", hokimiyat esa meritokratiya - intellektual elitaga tegishli.

Postindustrializm asoschisi D. Bell yozganidek, "postsindustrial jamiyat... siyosiy darajadagi vakillari maslahatchi, ekspert yoki texnokrat rolini o'ynaydigan intellektual sinfning paydo bo'lishini o'z ichiga oladi". Shu bilan birga, "ta'limga asoslangan mulkiy tabaqalanish" tendentsiyalari allaqachon aniq namoyon bo'lmoqda.

Mashhur iqtisodchi P. Drukerning fikricha, "bilim xodimlari" "bilimlar jamiyati" da ko'pchilikka aylanmaydi, balki... ular allaqachon uning etakchi sinfiga aylangan".

Ushbu yangi intellektual sinfni belgilash uchun E. Toffler birinchi marta "Kuchning metamorfozlari" (1990) kitobida "kognitariat" atamasini kiritadi.

To'g'ri qo'l mehnati spektrning pastki qismida joylashgan va asta-sekin yo'qolib bormoqda. Iqtisodiyotda kam sonli qo'l ishchilari bilan "proletariat" ozchilikda bo'lib, ko'proq "kognitariat" bilan almashtiriladi. O'ta ramziy iqtisodiyot paydo bo'lganda, proletar kognitar bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki jamiyat tushunchasini o'rganishga bo'lgan ilmiy-falsafiy yondashuv mamlakatimiz fuqarolarining yashash tarzi va ma'naviy etuklikka erishish uchun katta hissa qo'shadi. Milliy mafkurani rivojlantirish hamda zamonaviylashtirishda alohida o'ringa ega. Bugungi globallashib borayotgan dunyoda zamonga mos kelmaydigan dunyoqarash, eskicha moddiy va ma'naviy munosabatlar o'z o'rnini yangisiga bo'shatib berishiga imkon beradi.

¹⁶ V. Inozemtsevning "Buzilgan sivilizatsiya. Mavjud shartlar va postiqisodiy inqilobning mumkin bo'lgan oqibatlarini".

4. Karimov, I., Valiyeva, S., Tulenova, K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo'llanma). Toshkent., 2008 yil.
5. Qomusiy lug'at. -T. "Sharq". 2004 yil.
6. Луман Н.Л Общество как социальная система. Пер. с нем./А. Антоновский. -М.: Логос. 2004.
7. Qirg'zboyev, M. Sotsiologiya. Toshkent. "Navro'z", 2017 yil.
8. Бабосов Э.М. Общая социология: учебно-методическое пособие для студентов вузов/Э.М. Бабосов. -3-с изд.- Минск: "ТетраСистеме", 2006.
9. O'z ME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
10. Karl Marks, "Kapital", 1-jild, bob.
11. V. Inozemtsevning "Buzilgan sivilizatsiya. Mavjud shartlar va postiqtisodiy inqilobning mumkin bo'lgan oqibatlari".
12. D. Bell Kelayotgan postindustriya jamiyati. M. Akademiya, 1999. ISBN 5-87444-070-4.
13. P. Druker. Ijtimoiy o'zgarishlar davri. 2014.
14. <http://forum.oyina.uz/kiril/teahouse/2199> (22.05.2024)
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jamiyat> (22.05.2024)
16. <https://uz.wikipedia.org/wiki/An%CA%BCana> (22.05.2024)
17. https://uz.wikipedia.org/wiki/Industrial_o%CA%BBsish (22.05.2024)

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Redjabova Dilnoza Maxammadikromovna
O'zbekiston Respublikasi IIV mas'ul xodimi

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI VA ROLI.

Annotatsiya. Maqolada ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Shuningdek Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Bu esa xotin-qizlarning ham ishlab chiqaruvchi kuch sifatida mavqega ega ekanligi to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Kalit so'zlar: ayollar, xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, gender.

Реджабова Дильноза Махаммадикромовна
Ответственный сотрудник МВД Республики Узбекистан

МЕСТО И РОЛЬ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье вопрос женщин, их участие в общественно-политических отношениях, обеспечение их прав и свобод на практике является важным показателем развития государств и демократии. Также внимание к женщинам поднялось на уровень реальной государственной политики: фундаментально усовершенствовались ее правовые и институциональные основы. Это привело к появлению идей о том, что женщины также играют роль производительной силы.

Ключевые слова: женщины, женщины, в общественно-политических процессах, гендер.

Redjabova Dilnoza Makhammadikromovna

Responsible officer of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

THE PLACE AND ROLE OF WOMEN IN THE SOCIAL AND POLITICAL LIFE OF THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. In the article, the issue of women, their participation in socio-political relations, the fact that their rights and freedoms are ensured in practice is an important index of the development of states and democracy. Also, attention to women has risen to the level of real state policy: its legal and institutional foundations have been fundamentally improved. This led to the emergence of ideas that women also have a position as a productive force.

Keywords: women, women, in socio-political processes, gender.

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni, uning siyosiy va huquqiy

madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans

poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Ayollarning jamiyatdagi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalaridagi mavqei u kamol topishi intensivligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayollarning mavqeini aks ettiradigan ma'lumotlar inson salohiyatini rivojlantirishda mamlakat erishgan real yutuqlarning, shaxsni uyg'un kamol toptirish va uning salohiyatini kompleks ro'yobga chiqarish maqsadida jamiyatning ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar berilgan ijtimoiy teng adolat sari borishi darajasini xolis mezoni hisoblanadi. Keyingi o'n yillikda ham jamoatchilik, ham olimlar tomonidan xotin-qizlar masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu, eng avvalo, jamiyatning imkoniyatlari va hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi vazifalari bilan belgilanadigan ayollar maqomini oshirishga qaratilgan yo'nalish bilan izohlanadi. Mehnatga haq to'lash, ijtimoiy ta'minot, turmushda va oilada, bolalar tarbiyasida mavqei jihatdan ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'lmoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida xotin-qizlarning o'rni va roli tobora yuksalib bormoqda. Bu holatni ko'plab mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotining hal qiluvchi sohalarida faoliyat yuritayotgan ayollarning soni va salmog'i ko'payib borayotganligida ko'rish mumkin. Xotin-qizlar jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida jahon miqyosida taniqli siyosatchi, olim, san'atkor, sportchi, tadbirkor va boshqaruvchi sifatida o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyon qilmoqdalar. Ba'zi hollarda o'zlarining faolligi, bilimliligi, uddaburonligi, kuchliligi va mas'uliyatliligi bilan erkaklardan qolishmasligini namoyon qilayotganliklarini isbotlash shart emas. Ular insoniyatning hayotiy muhim sohalarini, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar, fan, madaniyat va sport, san'at, axborot, xullas, barcha sohalarini, garchi erkaklarchalik imkoniyatlarga ega bo'lmasalarda, zabt etmoqdalar. Siyosiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, jahonning bir qancha mamlakatlari xotin-qizlar rahbarligida boshqarilmoqda¹⁷.

"Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi. Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim."¹⁸ Zero, jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti Davlatimiz rahbari ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning

bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi ustuvor vazifa ekaniga alohida e'tibor qaratmoqda.

Millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyos.

Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o'rni, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g'oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei ham har jihatdan yuqori baholanmoqda. Jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar e'tirofiga ko'ra, O'zbekiston ayollar uchun munosib muhit yaratgan mamlakatlar qatoriga kiritilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda azal-azaldan muhtarama ayollarga yuksak ehtirom ko'rsatib kelinadi.

Qadimgi davrlarda ayol oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga tegmagan, uning vazifasi erini g'orda kutish, odam tutgan mamontni pishirish, uyni jihozlash, bolalarni tarbiyalash edi. O'sha paytda odamlar guruh bo'lib yashar, ayol o'zi uchun erkak tanlay olmas edi. Erkak oilani yaratishni boshladi va o'zi uchun sog'lom ayolni tanladi. Kelajakda ayollar ovda ishtirok etishni boshladilar, ularning vazifasi hayvonni toshlar bilan tuzoqqa tushirish bo'lgan. Bu ayolning asta-sekin erkaklar bilan tengligining dastlabki ko'rinishi edi. Antik davrda, odamlarning ongi yanada rivojlandi, ko'plab mamlakatlarda ayollarga sig'inish, ularni qadrlash va tinglash yuzaga keldi. Qadimgi Yunonistonda ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni sof davlat topshirig'i edi. Ayolning vazifasi eriga nima qilish kerakligini va uni qanday qilib to'g'ri bajarishini aytib berish, unga rahbarlik qilish edi. O'sha paytda sevgi nikohlari bo'lmagan, barcha munosabatlar va oilalar siyosiy manfaatlarga muvofiq ravishda qurilgan. Farzandli bo'lish ham davlat tomonidan qo'yilgan vazifa edi. Agar ayol bolalay olmasa, demak, erkak uyiga boshqasini olib kelish huquqiga ega bo'lgan. Albatta, erkak unga uylanmagan, uning rafiqasi bitta hisoblangan, ammo munosabatlar hamma oldida oshkor bo'lgan. Agar bunday odatiy xotin bolalarni tug'dirgan bo'lsa, unda ular to'laqonli merosxo'rga aylanishgan. Sobiq ittifoq davrida oilaning xavfsizligi, bolalarni tarbiyalash va ularning kelajakdagi hayoti uchun aynan ayol javobgar edi. Oilada nima bo'lishidan qat'i nazar ayol aybdor bo'lgan. Chunki

¹⁷ Ўзбекистон Хотин-қизлар кўмитаси маълумотлари, 2019 йил январь

¹⁸ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 250 b.

fuqarolarining psixologiyasi shu tarzda qurilganki, barcha erkaklarning xatolari uchun ayol javobgar edi.¹⁹

XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini borasida keng fikrlar bildirdilar. Masalan, Fitrat — "Oila" asarida shunday fikrlar bor: — "Ayollarning ijtimoiy-siësiy faolligi milliy ozodlik, erk uchun zarur: ayollar faqat uy-ro'zg'or, bola tarbiyasi bilan band qolmasligi kerak", - deydi. Ayollarning huquqlari albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug'iliboq tiriklayin o'ldirilgani ko'pchilikka ma'lum. Muqaddas Islom dini hamisha aëllarni e'zozlashga buyuradi. Jannat onalar oyog'i ostidadir, degan naql asrlar osha o'z mavqeni yo'qotgani yo'q. Islom ta'limoti aëllarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiëtida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir, deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida aëlgaga ko'proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa aëlning huquqi ta'minlanadi. Nikoh shartlaridan bo'lmish – mahr ham aynan aëllarning foydasi uchun joriy etilgan.

Darhaqiqat insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga sharqona ehtirom va e'zoz bilan o'lchanadi. Bejiz emaski, Sharqda ayolni farishtaga qiyos qilishadi. Chunki farishtalar Olloh Taolo yaratgan eng pok begunoh zotlardir.²⁰ Aytish joizki, jamiyat rivojida xotin-qizlarimizning alohida o'rnini bor. Chunki ayol – kelajak va hayot davomchisi.

XX asr xotin-qizlarning o'z huquq va erkinliklari, siyosiy imkoniyatlari va mas'uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo'ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko'rmagan va guvohi bo'lmagan, orzu intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan siyosiy huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgarganligi va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar va erkaklarning maqomi ham tenglashganligi diqqatga sazovordir. Aytib o'tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo'q. Bir vaqtning o'zida oila ishlarini saranjomlash bilan bir vaqtda, siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o'zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma'noda, siyosiy masalalarda o'z maqomiga ega bo'lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'proq energiya sarflashni talab qilmoqda.

Haqiqatdan ham bugungi kunga kelib xotin-qizlarga nisbatan qarashlar, ularni mehnat jamoasida o'z o'rnini topishi uchun imkoniyatlar ortdi. Xususan

mamlakatimizda so'ngi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy va siyosiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash uchun juda katta va tizimli ishlar amalga oshirildi. Birgini mahalla tizimini olib qaraydigan bo'lsak u yerda faoliyat olib borayotgan beshlik tizimi hamjihatlikda mahalladagi xotin-qizlarni axborotlar bilan ta'minlash, zamonaviy kasblarga o'qitish, o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun barcha qulayliklarni yaratmoqda. Ana shu say harakatlar evaziga bugungi kunda ayollarning har sohada faolliklari o'sdi. Endilikda ular jamiyatning teng huquqli faol a'zolariga aylanib ulgurdi. Davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ham erkaklar bilan teng huquqdagi inson sifatida o'zlarining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy va eng asosiysi ijtimoiy siyosiy bilim va saviyalarini oshirib bormoqdalar.

Tarix darsliklari va adabiyotlarini ko'zdan kechirsak eng qadimgi davrlardan hozirgi kunga qadar qayerda insoniyat svilizatsiyasi yuksak rivojlanish pog'onasiga yetgan bo'lsa, aynan o'sha mamlakatda xotin-qizlarning qadr-qimmatini, ularning jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy faolligi yuqori darajada bo'lgan. Aksincha qayerda jaholat hukmronlik qilayotgan bo'lsa o'sha yerda xotin-qizlarning shani, qadri, g'ururi toptalgan. Shu bilan bir qatorda ular ayovsiz kamsitilgan. Shunday ekan xotin-qizlarga nisbatan qilinayotgan munosabat qanday ekanligini ularning oilasida, mahallasida va eng asosiysi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday ishtirok etayotganligidan ham bilib olsa bo'ladi.

Endi shahar va qishloqlarda yashayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga va uni oshirishdagi muhim jihatlarga to'xtalib o'tsak. Avvalo ularni o'z kasb-hunarni bilish darajasi va saviyasi nuqtayi nazaridan o'ziga munosib ish bilan ta'minlash lozim. Agarda xotin-qizlar o'z ish joyiga ega bo'lsa mamlakat hayotida ham o'z o'rnini va rolga ega bo'lgan bo'ldi. Shu bilan bir qatorda dunyoqarashi o'zgaradi va o'zini o'zi himoya qila oladi. Bu esa o'z navbatida jamiyat ravnaqi uchun hissa qo'shilishiga olib keladi. Aynan ayollarning mamlakat ravnaqiga qo'shayotgan hissasini anglay bilishi o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti innovatsion rivojlantirish yo'lidan borayotgan bir vaqtda ilm-fanga alohida e'tibor qaratilib, olima ayollarimizning mamlakatimiz rivojiga munosib hissalarini qo'shib kelayotganliklariga guvoh bo'lmoqdamiz. Ular tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy ma'rifiy va madaniy sohalarning rivojiga katta turtki bo'lib, dunyo olimlari tomonidan tan olinayotganligi ham diqqatga sazovordir. Buni yurtimizda ilm-fan bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarimizning sonini kundankunga ko'payib borayotganligida ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatimizda 1000ga yaqin fan

¹⁹ Пронин, А.А. Положение женщин в современной России: общая характеристика. – М., 2000.

²⁰ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. 7-том. - Т.:Ўзбекистон, 1999 йил, 256 б

doktori, 5000 ga yaqin fan nomzodi, 10 nafardan ortiq akademik, ilm-fan va ishlab chiqarishning turli sohalarida samarali mehnat qilayotganligini alohida e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev — "oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi"²¹, deb ta'kidlagan. Shu o'rinda zamonaviy xotin-qizlarning portretiga qisqacha ta'rif bersak, ular – siyosiy faol fuqaro, tadbirkor, tibbiy savodxon va ma'naviyatli ona, iqtisodiy bilimlar egasi bo'lgan rafiqa hisoblanadi. Oilada nafaqat erkak har tomonlama yetuk bilimli, savodxon hamda bir ishning boshini tutgan bo'lishi zarur, balki uning umr yo'ldoshi bo'lgan ayol ham kasbu hunarli yoki biror ma'lumot egasi bo'lishini zamonning o'zi talab etmoqda. Chunki onalar kelajak avlodni tarbiyalaydilar.

Bugungi kunda xotin-qizlarimiz ishlab chiqarish, tadbirkorlik, hunarmandchilik, ilm-fan, san'at, sport, ichki ishlar kabi sohalarida muvaffaqiyatlarga erishmoqda, xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida va muassasalarga rahbarlik qilmoqda. Mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 50 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadi. Davlat qonunlarini qabul qilinishida ishtirok etish, unda xotin qizlarlar masalasini qo'ya bilish, ularni manfaatini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlardan aniqlanmoqdaki, xotin-qizlar masalasi o'z-o'zidan hal bo'lmaydi, buning uchun izchil davlat siyosati, uning aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, eng muhimi, xotin-qizlarning faolligi zarur. Jamiyat hayotida xotin-qizlarning roli va o'rnini oshirish, avvalo, ularning bandligini ta'minlash borasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mamlakatimizda tub islohotlar rejasini tuzilgan.

Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilinishi ijtimoiy-siyosiy madaniyatni shakllantirish usullaridan bo'lib, ularni hokimiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy imkoniyati va salohiyatini amalga oshirish jamiyatda demokratiyaning eng asosiy va dolzarb indikator hisoblanadi. Shu bois, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy manfaatlarini tenglik prinsipi asosida hal qilish maqsadga muvofiq. Bu kabi vazifalar barcha xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini,

salohiyat va imkoniyatini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy faol, yetuk ma'naviyatli, jamiyatning muhim tayanchi bo'lgan xotin-qizlar sonini yanada oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- xotin-qizlarimizning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida OAVlarda siyosiy, huquqiy bilimni oshiruvchi ko'rsatuvlarni ko'paytirish;

- xotin-qizlarni ijtimoiy muhofazalash, xususan, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollarning reproduktiv salomatligini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlarni nazoratga olish;

- tug'ish va bola parvarishi ta'tiliga chiqqan ayollarga malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslari (zamonaviy, innovatsion usullar asosida qisqa o'quv dasturlari asosida) tashkil etish;

- kechgi maktabgacha ta'lim muassasalari, maxsus fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab va gimnaziyalar kabi ta'lim tizimlarini rivojlantirish.

- ichki ishlar tizimlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faoliyatini yanada rivojlantirish va ular uchun keng imkoniyatlar yaratib berish;

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirishda quyidagi ustuvor vazifalarni alohida sanab o'tishimiz joiz.

Birinchi xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shujumlardan, nogironligi bo'lgan aëllarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy ërdam ko'rsatish;

Ikkinchi xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

Uchinchi xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib boirish;

Umuman olganda, respublikamizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda huquqiy asos yaratilgan bo'lib, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlarni jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalari doimiy diqqat markazlaridagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Biz qurayotgan jamiyat fuqarolik jamiyatidir. Chunki jamiyat taraqqiyoti bugungi kunda shunday yuksaklikka ko'tarilganki, unda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida himoya qilinadi. Xoh davlat tashkiloti, xoh nodavlat tashkiloti bo'lsin, barcha institutlar, inson

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган нутқи.// http://uza.uz/oz/politics/2018,7_mart.

haq-huquqlarini ta'minlash, shuningdek, xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini yanada mustahkamlash borasida tinimsiz ish olib bormoqda. Ayolni ulug'lash oila, hayot, Vatanni ulug'lash demakdir. Xotin-qizlar huquqlari haqida gapirganda, ko'z o'ngimizda Konstitutsiyamiz namo'ni bo'ladi. Unda insonning yashash, shaxsiy daxlsizlik, sha'n, qadr-qimmat, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalani, so'z, e'tiqod erkinligi, o'ziga tegishli hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish kabi huquqlari, shuningdek, jamiyat va davlatni boshqarishda bevosita yoki o'z vakili orqali qatnashish, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish, o'z huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida istalgan joyga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat etish, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlari belgilab qo'yilgan. Har bir shaxsга tegishli bo'lgan yuqoridagi huquqiy me'yorlar o'ndan ortiq kodeks va yuzlab qonunlar bilan tartibga solingan. Misol uchun, Mehnat kodeksida ayrim toifadagi xodimlar tariqasida xotin-qizlarga oilaviy vazifalarni bajarish bilan bog'liq qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Mehnat qonunchiligida ayollarga bir qancha imtiyozlar ko'zda tutilganligi bois onalarimiz barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor xotin-qizlarni yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish ta'siridan holi bo'lgan ishga o'tkazish hamda tungi, ish vaqtidan tashqari va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish yoki xizmat safariga yuborishning cheklanishi, shuningdek, homiladorlik e'ki tug'ish va

bola ikki-uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun ta'til hamda bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar berilishi kabi imkoniyatlarning mavjudligi xotin-qizlarimizga qonunlarimiz orqali yaratilgan imtiyozlardan dalolatdir.

Mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar nafaqat mehnat faoliyatini olib borayotgan xotin-qizlarimiz uchun imtiyozlar beradi balkim ishlamasdan uyda o'tirgan xotin-qizlarni ham chetlab o'tmaydi. Jumladan, ishlamaydigan onalarga 2 yoshgacha bolani parvarish qilish uchun nafaqa to'lanmoqda. Bundan tashqari, mehnat shartnomalarida homiladorligi va farzand ko'rganligi tufayli ayollarga moddiy yordam ko'rsatish, 2 yoshdan 3 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollarga haq to'lanadigan ta'til berish, 3 yoshdan kichik bo'lgan bolali a'ellar ish vaqtini bir soatga qisqartirish singari imtiyozlar o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etila'etgan bir sharoitda a'ellar ijtimoiy va siyosiy faolligining o'sishi juda muhim omil hisoblanadi. Kundek ravshanki, O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot yillari mobaynida bu yo'lda salmoqli natijalar qo'lgaga kiritildi. Shubha yo'qki, ayollarga yashash, mehnat qilish va yosh avlodni

tarbiyalashlari uchun yaratilgan va yaratila'etgan qulay sharoitlar bundan keyin ham mamlakatimizning yanada zalvorli muvaffaqiyatlarni zabt etishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Bugun mamlakatimizda ayollarning jamiyatda tutgan o'rni va haq-huquqlari haqida faxr va iftixor bilan juda ko'p misollarga, fakt va dalillarga tayangan holda uzoq gapirish mumkin. Darhaqiqat, mustaqillikka erishgan ilk yillarimizdanoq, xotin-qizlarga bo'lgan yuksak darajadagi e'tibor va e'tirof davlat si'asati darajasiga olib chiqilgani endilikda o'zining yuqori samalarini ko'rsatmoqda. Biz mamlakatimiz taraqqi'etini, jamiyatimiz rivojini xotin-qizlarsiz, ularning faol ishtirokisiz tasavvur yeta olmaymiz. Shu bois yurtimizda ayol huquqi, erkinligi, tengligi eng oliy, muqaddas qadriyat darajasiga ko'tarildi. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonda bu borada keng ko'lamlı, katta hajmdagi izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini qat'iy kafolatlovchi mustahkam qonunchilik bazasi shakllantirildi va bu jarayon tobora takomillashtirib borilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, a'elga izzat-hurmat, e'zoz-ehtiroam ko'rsatish — millatga ehtiroam ko'rsatishning bosh omiliga aylandi.

Binobarin, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda a'ellarning jamiyatdagi o'rni va rolini mustakamlash, ularning bilimlı, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish kabi masalalarga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Davlatchiligimizning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri shaxsning ijtimoiy va siyosiy binobarin, huquqiy faolligini ta'minlashdir. Jamiyatning ma'naviy va axloqiy yetukligi darajasi hamisha xotin-qizlarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei, ularning davlat va jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi bilan islohotlarning muvaffaqiyatli kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Har qanday tuzum va har qanday ijtimoiy muhitda xotin-qizlar ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish orqali oila farovonligiga erishiladi. Oila farovon bo'lsa, bu, o'z navbatida, jamiyatning ravnaqiga olib keladi. Shuning uchun xotin-qizlar masalasini olib chiqish orqali jamiyat miqyosida tahsinga loyiq juda ko'p vazifalarni bajarish mumkin. Xotin-qizlarga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlar uning tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lishida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar ma'naviyati ijtimoiy hayotning yorqin ko'zqusidir. Chunki ayolda ham oilaviy turmush, ham iqtisodiy va siyosiy hayot o'z aksini ko'rsatadi. Ayol

ma'naviyatining har bir qirrasini jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uzviylashadi. Xotin-qizlarning oilada mehri, pokligi, jonkuyarligi oila uchun obro' va baraka bo'lsa, jamiyatga nisbatan ta'siri undan ham ko'pdir. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish, milliy an'analarni davom ettirish ham bugungi kunda xotin-qizlar zimmasidadir. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak jamiyat ijtimoiy-siyosiy maydonida o'z o'rnini va ro'liga ega bo'lgan zamonaviy o'zbek ayoli — ta'lim olib, kasb egallayotgan, xizmat darajasi pillapoyalaridan ko'tarilib, mamlakat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etayotgan ijtimoiy faol shaxs. Oila va yurtimizda hukm surayotgan tinchlik osoyishtalik,

yaqinlarining salomatligi, baxt-saodati xotin-qizlarning ertangi kunga ishonchini oshirib, kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardandir. Hozirgi kunda mamalakatimizda xotin-qizlarning oila va jamiyatda o'z munosib o'rnini topishida juda katta islohotlar amalga oshirildi. Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha qonunchilik bazasi shakllantirildi. Xotin-qizlar masalasi yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayolga ehtirom ko'rsatish uni e'zozlash — millatga, vatanga, ertangi kunga, kelajak avlodlarga ehtirom ko'rsatishning bosh mezoniga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси маълумотлари, 2019 йил январь
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 250 b.
3. Пронин, А.А. Положение женщин в современной России: общая характеристика. – М., 2000.
4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-том. - Т.:Ўзбекистон, 1999 йил, 256 б
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган нутқи.// <http://uza.uz/oz/politics/2018>, 7 март.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Maxmudova Aziza Nugmanovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti
rustamovamaxmudova@bk.ru

BIOETIKANING DOLZARB MUAMMOLARINI IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL QILISH

Annotasiya. Ushbu maqolada bioetikaning dolzarb muammolari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilindi. XX- asrning ikkinchi yarmida zamonaviy ishlab chiqarishning texnologik bosimi kuchayishi, tabiiy resurslarning kamayishi, energiya xarajatlarining ko'payishi, ekologik oqibatlar tufayli jamiyatning fanga bo'lgan munosabatida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda fanning avtonom bo'lmagan tabiati, ya'ni fanning madaniyat tizimiga kiritilishi, ushbu qo'shilishning ilmiy bilimlarni rivojlantirish jarayoniga va uning istiqbollari ta'siri haqidagi g'oyalar shubha tug'dirmaydi. Ilm-fanni jamiyatning ma'naviy hayotining boshqa sohalaridan pozitivistik ajratish bugungi kunda uning o'zini oqilona yo'q qilishiga tengdir. Fanni jamiyat mavjudligining maqsadlari va ma'nolarining ichki birligi kontekstida ko'rib chiqish fanning axloqiy muammolarini rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu ishlanmalar insonga ob'ektiv yo'naltirilgan fan yo'nalishlari uchun alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bioetika, axloqiy qo'mita, bemor huquqlari, shifokor huquqlari, transplantatsiya, invitro, klonlash.

Махмудова Азиза Нугмановна
Самаркандский государственный медицинский университет
Доцент кафедры социальных и гуманитарных наук

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДОЛЗАРБ ПРОБЛЕМЫ БИОЭТИКИ

Абстракт. В данной статье актуальные проблемы биоэтики анализируются социально-философски. Во второй половине XX века произошли существенные изменения в отношении общества к науке, обусловленные ростом технологического давления современного производства, истощением природных ресурсов, увеличением затрат на энергоносители, экологическими последствиями. Сегодня не подлежит сомнению неавтономный характер науки, то есть внедрение науки в культурную систему, влияние этой интеграции на процесс развития научного знания и его перспективы. Позитивистское отделение науки от других сфер духовной жизни общества сегодня равносильно ее рациональному саморазрушению. Рассмотрение науки в контексте внутреннего единства целей и смыслов существования общества определяет актуальность разработки нравственных проблем науки. Особое значение эти разработки имеют для направлений науки, объективно ориентированных на человека.

Ключевые слова: биоэтика, этический комитет, права пациента, права врача, трансплантация, invitro, клонирование.

Makhmudova Aziza Nugmanovna
Samarkand State Medical University
Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF DOLZARB PROBLEMS OF BIOETHICS

Abstract. In this article, current problems of bioethics were analyzed socio-philosophically. In the second half of the 20th century, there were significant changes in society's attitude to science due to increasing technological pressure of modern production, depletion of natural resources, increase in energy costs, and environmental consequences. Today, there is no doubt about the non-autonomous nature of science, that is, the introduction of science into the cultural system, the impact of this integration on the process of developing scientific knowledge and its prospects. The positivist separation of science from other spheres of the spiritual life of society today is equivalent to its rational self-destruction. Considering science in the context of the internal unity of the goals and meanings of the existence of society determines the relevance of the development of moral problems of science. These developments are of particular importance for science directions that are objectively oriented towards a person.

Key words: bioethics, ethical committee, patient's rights, doctor's rights, transplantation, invitro, cloning.

Kirish.

Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri tabiatshunoslikning fundamental va amaliy sohalari yutuqlarini sintez qilishga bog'liq. Ammo tibbiyot insonni o'rganadi, uning bilimlari tabiatshunoslik bilan cheklanmaydi, bu nafaqat imkon beradi, balki tushuntirish tadqiqotlariga axloqiy omillarni kiritishni ham o'z ichiga oladi. XX asr oxirida tibbiy-biologik bilimlarga axloqiy komponentni kiritish yangi biotibbiyot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va joriy etilishi munosabati bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Reanimatologiya, transplantatsiya, genetik muhandislik, sun'iy urug'lantirish kabi biotibbiyot fani va amaliyotining haqiqatlari nafaqat professional tibbiyot hamjamiyati, balki butun jamiyat uchun ijtimoiy-axloqiy muammolarni dolzarb qiladi. Ular orasida reanimatsiya protseduralarining ijtimoiy va axloqiy asoslilikini aniqlash, keyinchalik transplantatsiya amaliyoti uchun tibbiy o'ldirishni tashkil etish; sun'iy urug'lantirish usullarining ijtimoiy-axloqiy cheksizligining yo'l qo'yilishi, shu jumladan invitro ko'payishi va klonlash; genetik diagnostika va prognozlashning ijtimoiy va axloqiy maqbulligini aniqlash va boshqalar.

Milliy va xalqaro professional tibbiyot birlashmalari tomonidan qabul qilingan axloqiy tUSDagi deklaratsiyalar va hujjatlar sonining tez o'sishi tibbiyot mutaxassislari tomonidan zamonaviy ijtimoiy-axloqiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan mas'uliyatni tushunishidan dalolat beradi, ularni kompleks tadqiqotlar va yondashuvlarsiz hal qilish mumkin emas, shu jumladan falsafiy va uslubiy ishlanmalar. Ob'ektivlik va ilmiy maqsadning qiymat-maqsad tabiati o'rtasidagi bog'liqlik muammosi faoliyat.

Zamonaviy biotibbiyot texnologiyalarining ijtimoiy asoslilik va amaliy maqbulligining ko'rsatkichi nafaqat ularning texnologik samaradorligi, balki ijtimoiy-axloqiy maqsadga muvofiqligi hamdir. Ilm-fanning, xususan zamonaviy tibbiyotning murakkab ko'p bosqichli ijtimoiy-madaniy kontekstga kiritilishi fanning falsafiy va axloqiy asoslarini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi. Zamonaviy tibbiyotning ijtimoiy-axloqiy muammolarini hal qilishda yondashuvlarni tushunish va ishlab chiqish shakli biotibbiyot etikasiga aylanadi. U zamonaviy biotibbiyot yordamida inson hayoti va o'limini maqbul manipulyatsiya qilish chegaralari to'g'risida bilim sohasi sifatida shakllanadi, mutaxassislar va jamiyat tomonidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda va ularni tibbiyotda amalda qo'llashda javobgarlikni anglashga yordam beradi.

Biroq, nafaqat professional, balki xalqaro siyosiy tashkilotlar - BMT, YUNESKO, Evropa Kengashi zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan foydalanish sohasida inson qadr-qimmatiga ham shaxs, ham biologik tur vakili sifatida tahdid borligini tan olishadi.

Tibbiyotning yangi imkoniyatlari nafaqat davolanish, balki inson hayotini boshqarish bilan ham bog'liq. Bu konstitutsiyaviy ravishda inson qadr-

qimmatini hurmat qilish majburiyatini olgan davlatda sog'liqni saqlash sohasidagi "inson huquqlari" masalasini dolzarblashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq " insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'la olmaydi. Hech kim qiynoqqa solinishi, suiiste'mol qilinishi, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan muomala yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Hech kim uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalardan o'tishi mumkin emas (26-modda). Ushbu huquqni ta'minlash, ayniqsa, biotibbiyotning progressiv rivojlanishi va jamiyat va davlat tomonidan yangi biotibbiyot texnologiyalaridan foydalanishni to'g'ri tartibga solishning yo'qligi sharoitida dolzarb bo'lib qoladi, bu esa qaytarib bo'lmaydigan ijtimoiy-madaniy va demografik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan biotibbiyot etikasining rivojlanishi va uning zamonaviy tibbiy ta'lim tizimiga kiritilishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki axloqiy vaziyatlarda, xususan, tibbiyotda yangi texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mutaxassisning xulq-atvor namunalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan.

Biotibbiyot faoliyatini tartibga solish bo'yicha axloqiy tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalaniladigan kategorik-aksiologik apparat juda "rangli" rasmni taqdim etadi.

Tadqiqotning dolzarbli reproduktiv funktsiyalar, o'lim bosqichlari, inson genomi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning axloqiy mezonlarini aniqlash bilan bevosita bog'liq; tibbiy faoliyatning axloqiy va axloqiy madaniyatining roli oshishi bilan; tibbiy ta'limning ijtimoiy-gumanitar bloki sohasidagi o'zgarishlar zarurati bilan; biotibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish bilan bog'liq.

Tadqiqot natijasida biotibbiyot etikasining fanlararo tabiati nafaqat zamonaviy biotibbiyot tizimidagi munosabatlarni tartibga solishni, balki "fan-jamiyat", "fan-madaniyat", "fan-din" munosabatlari tizimida ham ta'minlanishi aniqlandi. "; biotibbiyot faoliyatining axloqiy mezonlarini tanlashning ijtimoiy va falsafiy asoslari aniqlandi.

Evropaliklar bu erni avval antik davrdagi lotincha "sinae", so'ng fransuzlar "chine" va ingilizlar esa, o'z tillarida "china" deb nomlaganlar. Bu mustaqillik yillarida nasr etilgan tarixchi olim A. Xo'jaevning "Buyuk Ipak yo'li" kitobida ko'rsatilgan "xitoy" atamasi hozirgi davlat va xalq nomidan kelib chiqqan emas. Xitoy atamasi hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining shimoli-sharqiy qismi

bo'lmish Manjuriyada qadimda diryashagan va keyin G'arbga qarab ko'chgan "kiton" (kidon) xalqi nomidan kelib chiqqan. Musulmon davlatlari manbalarida ushbu atama xitoy, kiton, xatay, evropa adabiyotlarida esa, catai, cata, cathai deb yozilgan²³. SHundan, "xitoy" so'zining kelib chiqishiga turkiylarning tili sabab bo'lganligi ularning tarixidan bexabar kishi uchun ajablanarlidir.

- U nafaqat porox, qurol, muxr, qog'oz ishlab chiqarish bilan mashxur balkim, nashr qilish, bosma pechati, zamonabiy tibbiyotning bugungi kungacha keyinchalik chinni kabi ixtirolari bilan ham jahongonga dong'i ketgan davlatdir.

Qadimgi Xitoy davlati o'zining urf-odatatlari, an'analariga tayangan, xalqchil tabobati bilan mashxurdir. Aynan, qadimdan yozuv, bosma ierogliflari dastlab qora mol terisi, toshbaqa toshi, bambuk taxtachalariga yozilgan. Faqatgina mil.avv.1asrdan boshlab, qog'ozga yozishni boshlaganlar. Bu ixtiro, yani qog'oz ishlab chiqilishi davlat

²²N. Nizomiddinov Qadimgi Xitoy tarixi diniy e'tiqodi va madaniyati. T.: Fan va texnologiya. 2014.

²³ A.Xo'jaev Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. T.:O'zbek milliy ensiklopediyasi. 2007

boshqaruvini, fan va madaniyatni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Xitoy hududida hozirgacha ko'plab ibodatxonalar va falsafiy maktablar mavjud bo'lib, ularda turli xil kasalliklarni davolovchi usullardan hali ham qo'llaniladi. Bundan tashqari har bir xitoylik jismoniy salomatlikni saqlashga Xitoy xalq tabobati nafaqat tibbiyotni balki uning falsafiy mohiyatini ham ifodalaydi.

Material va usullar. Xitoy xalq tabobati shakllanib rivojlanishida Konfutsiy, Daosizm, In-yan kabi falsafiy maktablarining o'rnini ajratib turuvchi va umulashtirib turuvchi jihatlarni qiyosiy tahlil, analiz, sintez, induktiv va deduktiv metodlar alohida alohida ko'rish mumkin. Bu falsafiy maktablarning o'xshashligi mifologig qarashlarda butun koinot—osmon, inson va tabiat hodisalari hamda olamning asosini tashkil etgan -olov, suv, havo, daraxt, metal kabi besh unurning ilohiy harakatlaridadir.

Eng qadimiy falsafiy maktablardan biri Konfutsiy nomi bilan bog'liq bo'lib, mil.av. V-III asrlarda keng tarqalgan. Uning asoschisi yirik xitoy faylasufi, hakimi, tarixchi, davlat arbobi -Konfutsiy hisoblanadi. Konfutsiychilik -diniy shaklga keltirilgan odob-ahloq falsafasi. Uning ta'limotining asosini inson va uning ahloqiy masalalri tashkil etadi. Uning falsafiy qarashlarida ahloqiy tamoyillar, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari muhim o'rin egallagan. Bu ta'limot Qadimgi Xitoyda uzoq yillar davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Uning ta'limoticha insonlar tabiatdan bir xil tuzilishga ega bo'lib, bir-birlariga o'xshash bo'ladilar, ularni tarbiyalariga, yashayotgan muhitlariga qarab farqlash mumkindir.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, olamni osmon boshqaradi. Osmon-irodasi taqdiridir. Imperatorlar esa, Xudoning erdagi elchisi deb hisoblanadi. Olam va erdagi tartib-qoidalar osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib -ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini "Li" tushunchasi belgilaydi. Jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib-insoniyat jamiyatining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, inson faqat o'zi uchun emas, balki uni qurshab turgan tabiat, jamiyat uchun ham yashashi kerak. Faylasuf-hakimning ta'limotida insonning hayotda tutgan ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug' hisoblanib, o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, aksincha nimaniki o'ziga ep bilsa, boshqalarga ham shuni tilashi kerak deb hisoblangan.

Konfutsiy tomonidan qayta tahrir qilgan kitoblar quyidagilar bo'lib:

1. I-sin - O'zgarishlar kitobi;
2. Si-shu – To'rt kitob doktrinasi;
3. Shi-dzin- Qo'shiqlar kitobi;
4. Shu-dzin-Tarix kitobi;
5. Li-dzin - Rituellar bitigi

6. Chun syu-Bahor va kuz kitoblarining asosiy mohiyati- falsafiy mazmun kasb etgan. Bu kitoblarda qadimgi xitoy yozma bitiklari, jamiyatining xilma xil folklore manbai, hukumdor shaxslarning hayot-faoliyati, qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Eng asosiy g'oya besh oddiy lekin buyuk insoniy fazilatlaridan iborat bo'lib, ular donolik, insoniylik, sadoqat, keksalarni hurmat qilish va jasoratni qamrab oladi. Bu fazilatlar kishilarning hatti-harakati, hulq-atvorini belgilab beruvchi asosiy qoidalar bo'lib, amaliy dastur vazifasini bajaradi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra, tabiat qonunlariga mos kelib, insonlar hayotida aql mezoni asosida o'rnatilgan tartib-qoidaning muhim shartlaridan hisoblanadi. Bunday shartlarni esa faqatgina yuksak ma'naviyatli kishilargina amalga oshirishga qodir bo'la oladilar.

Donishmand Konfutsiyning ezgulik inson tabiatining asosi degan g'oyasini shogirdlari davom ettirib, eng avvalo bilim, to'g'riso'zlik, xushfe'llik, mehr - muruvvatli bo'lish kabi fazilatlar orqali ifodalanadi. Aql tamoyiliga asoslangan insoniylikni tan olmagan, o'zining hukmronligini zo'ravonlik bilan amalga oshirgan hukmdor podshox xalqidan umidini uzgani maqul.

Inson tabiatning bir qismidir. Tabiatni ustidan hukmronlik qilish, o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida insonlar birlashadilar. Insonlar yaxshi, ijobiy fazilatlar ta'lim-tarbiya natijasidir. Aql tarozisi, mezoni bilan qilingan har qanday ish tabiat bilan uyg'unlikka olib keladi Uyg'unlik bu garmoniya.

Garmoniya-birlik, unga erishgan inson qudratli kuchdir. Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Szidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni – tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini «Qi» elementi tashkil etadi. Qi elementi – bu mutanosiblik, uyg'unlik, manbai va unga erishish visitasidir. Qi elementi hayot belgisi bo'lib, xitoyliklarning fikricha, inson tanasidan uning toliq emirilib yo'qolishi o'limga olib keladi.

XII asrda xitoy faylasufi Dju Si "Qi" energiyasi dunyo va insonning paydo bo'lishidagi rolini batafsil tasvirlab berdi.

Xitoy falsafasiga ko'ra, bu energiya hamma narsaga hayot beradi. Ularning ta'limotiga ko'ra, tabiat tirik organizmdir, "Qi" energiyasi esa, tabiat nafasi, hayot nafasi, barcha tirik va notrik tabiat uchun haqiqiy kuch manbai. Xitoy falsafiy ta'limotiga asosan Qi elementining paydo bo'lishi inson genetikasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan inson tanlagan yo'lga ya'ni yashash tarsi, fikrlashi hamda harakat qilishiga bog'liqdir.

Bu hayotiy energiya butun tanada to'g'ri, erkin va uzluksiz aylanishi kerak, shundagina u muvozanatda bo'lib inson hayotning barcha jabhasida muvaffaqiyat hamda farovonlikni taminlaydigan qulay muhit yaratadi. Ammo muvozanat buzilib, muvaffaqiyatsizlik yuzaga kelsa (noto'g'ri yo'l tanlansa), janjallar, kasalliklar va ko'pgina boshqa muammolarga olib kelishi mumkin. Inson organizimidagi nomutannosiblik Qi hayotiy energiyaning asta sekin yo'qolib, emirilishiga va uning o'rniga zararli, yomon energiya egallaydi. Bu energiya har narsada mujassam bo'lsa, demak, ortiqcha ishlatilmaydigan narsalardan xolos bo'lish, asabini tarang qiluvchi barcha jismlar, xattoki yomon o'y-fikrlar ham, yashash tarziga ta'sir etadi. Bu esa, Qi energiyasini to'liq, to'g'ri va silliq harakatlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardir. Qi energiyasi tug'ilgandan berilgan bo'lib, insonning psixologik xarakteri, emotsonial kayfiyati, yashash tarziga qarab, shaxsiy rivojlanishi va sog'liqni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish—qadimgi xalqlarga xos bo'lgan falsafaning bosh g'oyalaridan biridir. Qqadim zamonlardayoq buyuk aqlegalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chorlagani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan muammolarning oldini olish to'g'risida juda ibratli o'gitlar berishgan.

Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarni buzmaslik to'g'risidagi da'vatlari eskirgani yo'q. Yillar, asrlar o'tishi ularning qadrini tushirmaydi. Zero, bu ta'limotlar insoniyatning o'tda yonmas va suvda cho'kmas umuminsoniy qadriyatlarini to'g'risidadir.

Xitoy falsafasining yana bir ta'limotlaridan biri Dao hisoblanib, tabiat yo'li, uning qonun-qoida va tartiblari ma'nosini anglatadi. Bu tushunchaning ma'nosi doimiy ravishda o'zgarib borgan. Dastlab, "Dao" yo'l, qonun tushunchalarini anglatgan bo'lsa, keyinchalik insonning hayot yo'lini belgilovchi ahloqiy me'yorlarni ifodalagan. Daosizmning ahloqiy ta'limotiga ko'ra, jamiyatdagi barcha baxtsizliklar tabiiy qonunning buzilishidan kelib chiqadi. Uni buzmaslik uchun insonlar o'z ehtiyojlarini xotirjamlikda, me'yorda qoniqtirishlari zarurdir. Faqat insongagina aql-farosat berilgan bo'lib uni to'g'ri ishlatishi, yaxshilik va ezigulikka yo'naltirishi lozim.

Daosizm ta'limotiga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni in va YAn' orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va YAn o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofda olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan.

«Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Olingan natijalarni muhokama qilish. Qadimgi Xitoy ilm-fan rivojida tabobatning ham o'rni kattadir. Xitoy tabobati bugungi kunda ham butun dunyo tan olgan eng ilg'or muolajalar majmuidir. Mutaxassislarining hisoblashlaricha, Xitoy an'anaviy tabobati bir necha ming yillar davomida yaratilgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma asarga egadir. U turli kasalliklarni tashxislash, davolashning qimmatli tajribasiga ega bo'lib, juda ko'p avlodlarning og'ir kasalliklariga qarshi kurashida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi xitoy tabiblari tomonidan kashf etilgan davolash amaliyotlarining muolajalari bit necha asrlardan keyingina rivojlangan G'arb tibbiyoti tomonidan tan olinib, qo'llanilmoqda.

Tarixdan Qadimgi Xitoy tabobatiga bo'lgan munosabat o'zgacha ahamiyatga ega. Eramizdan avvalgi 259-210 yillarda hukmdor bo'lgan juda ham badjahl, qaysar imperator Sin SHixuan barcha kitoblarni yo'q qildirgan bo'lsa ham, tibbiyotga oid kitoblarni saqlagan va yo'q qilmagan ekan. Chunki Xitoyda bemorni davolaydigan mashg'ulot, faoliyat deb qaralmasdan, balkim ko'p mushohada-mulohazalarga sabab bo'ladigan soha ahamiyat berilib, to'g'ri hamda adolatli xulosalar chiqarishga e'tibor qaratilgan. Xitoy tibbiyotiga oid manbalar, ta'limotlar ko'xna tadqiqotlar deb kifoyalanmasdan, balki ularni ko'proq inson salomatligi, sog'lig'I to'g'risidagi o'tmish alloma-donishmandlarning falsafiy dunyoqarashlarini ifodalovchi qimmatbaho nodir asarlar deb qarashgandir.

Aslida Qadimgi Xitoy tabobati - bu ming yillar davomida qo'llanib kelingan salomatlik va yaxshi kayfiyat tizimi hisoblanadi? Chunki u muvozanat, uyg'unlik hamda ehergiya quvvatiga asoslanadi.

Misol tariqasida qadimgi Xitoy tabobatining ilk manbalaridan "Sariq imperator traktati" (Ichki kasalliklar) bo'lib, u qadimgi yunonlarning mashhur tabibi Gippokratning tibbiyot to'plami hamda SHarq mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning Tib qonunlariga tenglashtirilgan tarixiy-madaniy yodgorligi hisoblanadi.

Ushbu manbani imperatorni o'zi yozganligi bilan ham xitoyliklar uchun qadrlidir.

Manba 2 qismdan iborat bo'lib, har biri 81 bobdan tuzilgan tibbiy maslahatlarni o'z ichiga oladi.

Uning 1 qismi oddiy va oson savollar deb nomlanib, an'anaviy tashxislash usullari haqidagi qadimgi Xitoy tabobatining nazariy manbai hisoblanadi.

Manbaning 2-qismi kamroq eslanadigan rux o'qi deb nomlanib, unda akupunktura terapiyasi batafsil ma'lumot berilgan.

Tibbiyot manbai sifatidagi traktatda tibbiyotning barcha fundamental nazariyalari keltirilgan, ayniqsa, kasalliklarni oldini olishning asosiy vazifasi hisoblangan

gigiena masalalari keng yoritilgan. Xitoylik tabiblarning fikricha, kasallikni davolashdan uni profilaktika qilib oldini olish zarurligi, leki kasallik tanaga tarqalib ketgan bo'lsa, uni asoratlarini oldini olish kerak. Davolashdan avval to'g'ri tashxislash muhim o'rin tutadi. Bunda dastlab bemorni ko'zdan kechirish, pulsni tekshirish, so'rovnoma o'tkazish kabi usullar orqali tashxislanadi.

SHundan Xitoyliklar kasallikni tashqi ko'rinishga ko'ra aniqlay oladigan tabibni oliy, pulsini tekshirish orqali aniqlovchi tabib mohir-usta va so'rovnoma- bemorning ovozi eshitib aniqlovchi tabib hunarmand deb baholaganlar.

1972 yildan boshlab qadimgi Xitoy xalq tabobatini asrlar davomida tajribadan sinalgan (ba'zilar eskilik sarqiti, zararli deb qaralmasdan) ilmiy asoslangan manba deb, fan sifatida qabul qilingan va Xitoy tabobatining milliy ramzi, millat, xalqning ma'naviy mulki deb tan olingan.

Qadimgi Xitoy tabobatining 9ta qonuni mavjud bo'lib, ular tabiat va inson bilan uzviy bog'liqligini isbotlaydi. Xitoyliklar fikricha, butun koinot, osmon, Kurrai-Zamindan paydo bo'ladi va ularni Ibtidosidan Intixosiga qadar ana shu qonunlar boshqaradi. Ular:

1-qonun bu Osmon bilan inson tanasining bog'liqligi;

2-qonun bu Zamin bilan tana a'zolarining o'zaro bog'liqligi;

3-qonun bu Insonning yurak va qon tomirlarining bog'liqligi;

4-qonun bu Vaqt va makon bog'liqligil

5-qonun bu tovish va eshitish a'zolarining bog'liqligi;

6-qonun bu 5 unurning -In-Yan bilan bog'liqligi;

7-qonun bu Yulduzlar bilan insonning bosh qismi bilan bog'liqligi;


8-qonun bu Tabiat bilan Quvvat energiyasining bog'liqligi va nihoyat

9-qonun bu Koinot bilan Inson tanasidagi qon tomirlari barcha teshiklari bilan bog'likligida deyiladi. Bu qonunlar Osmon-Inson-Zamin o'rtasidagi uyg'unligini ifodalaydi, ularni sharxlash va izox berish mushkul, lekin aynan qadimgi Xitoy xalq tabobatining biz bilgan va bilmagan usullari ko'pligi bugungi yutuqlaridan yaqqol ko'rinadi. Buni yana quyidagi faktdan ham anglash qiyin emasdir, yani Jaxon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti bergan ma'lumotiga ko'ra, 1949 yildan 2009 yilgacha bo'lgan davr mobaynida xitoyliklarning o'rtacha yashash umri 55dan 73 yoshga etgan. Bu esa, mamlakat aholisining umri uzayganidan darak beradi.

Qadimgi Xitoy xalq tabobatini yuksalishida U-sin, 5 elementning inson a'zolari bilan bog'liqligi haqidagi ta'limot ham ahamiyatga molikdir. Bu 5 element havo, suv, olov, daraxt va metal hisoblanib, qadimgi Xitoy falsafasi va tibbiyotining asosini tashkil etadi. Bu asos materiyaning besh energiya holatini ifodalaydi va butun tabiatdagi narsa va hodisalar. hatto inson tanasi va ruhiyati bilan ham uzviy bog'liqdir. U-sin konsepsiyasida 5elementning inson

organizmi bilan tashqi muhit o'rtasidagi munosabat tushuntirilgan.

Inson tanasida besh element quyidagicha taqsimlangan: jgar daraxtga, yurak olovga, taloq tuproqqa, o'pka metallga, buyrak suvga mos keladi. Yil fasllarining almashinuvi besh elementining xususiyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Masalan, Bahor fasli yasharish, yangilanish xususiyatiga ega bo'lib, bu daraxt elementining funksiyasiga ham xosdir. Yoz fasli rivojlanish bilan tavsiflanadi, inson organizmida yurak xuddi shu vazifani bajaradi. Kuz fasli-yig'im-terim fasli, shuning uchun metal elementi terim funksiyasini tavsiflaydi. Va nihoyat, qish boshpana, qishlash vaqtidir, shuning uchun suv elementiga mos keladi hamda zahira hisoblanadi.



U-Sin konsepsiyasi nuqtai nazaridan, yoz fasli bilan bog'liq bo'lgan vaqtni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu faslda yurak va ingichka ichak bilan bog'liq bo'lgan OLOV elementi bilan tanishamiz

Yoz bu barcha jarayonlarning juda tez tez o'sish, faollashuv sodir bo'ladigan davr hisoblanadi.

OLOV-5 elementi yonib turuvchi qizil va alvon ranglarda ifodalanadi. Olov energiyasi vertical ravishda – pastdan-yuqoriga, er qaridan osmonga, bilmaslikdan bilishga, moddiylikdan ma'naviy yuksaklik tomon harakatlanadigan kuchdir.

Olov elementiga tegishli bo'lgan organ yurak hamda ingichka ichakdir.

YURAK –qonni itarib turadigan va uni organizmdagi asosiy qon tomirlar orqali harakatga keltiradigan nasosdir. Bundan tashqari yurak endokrin tizimi, qalqansimon bez, buyraklar va buyrak osti bezlari uchun ham javobgardir.

YURAK xuddi jigar singari issiq tana organi hisoblanadi, chunki u doimo o'zidan eng issiq biologik suyuqlik-qonni haydab chiqaradi. Yurak bo'lmasa organism ishlamaydi, u o'lik hisoblanib yashamaydi. Bu holat yuz bermasligi uchu inson o'z tanasiga muntazam ravishda g'amxo'rlik qilishi kerak. Agar yurak haddan tashqari faol bo'lsa unda qaysidir unsur miqdori normadan oshgan hisoblanib, insonni asabi tarang bo'ladi. Bunday

holatni asosan boshqaruvchi menejerlarda kuzatish mumkin bo'ladi. U hamma ishni o'z zimmasiga olib, hech kimga ishonmay bir o'zi ko'pchilik bajaradigan ishlarni yakka holda qilishga urinib organizmni zo'riqtiradi, natijada toliqib, yurak faoliyatini ishdan chiqishiga olib keladi. Oxir oqibat asbiylashish, charchash va zo'riqish natijasida yurak hastaligiga olib keladi.

5 unsur elementlaridan birining yetishmasligi yoki ortiqchaligi organizmni disbalansga olib keladi. Yurak faolligining haddan ortiq harakati bu organizmda suv elementining etishmasligi, yurakni hovuridan tushirib turishga yordam berib turuvchi elementning etishmasligi sabab organizmida disbalans holat yuzaga keladi.

Bunday disbalans nevrologik hastalıklarga sabab bo'lib, o'z navbatida organizmni uyqusizlik, stress, dipressiya, hattoki eplepsiya, nutq buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ingichka ichak yurak bilan bog'liq bo'lgan organ hisoblanadi. Uning vazifasi ovqat hazm qilish jarayonida ozuqa moddalarini so'rishdir. Ingichka ichak qonga ozuqa moddalarning so'rilishini ta'minlash bilan birga insonning intellectual darajasiga ham ta'sir qiladi. Xuddi yurak faoliyatidagidek suv tanqisligi ingichka ichakda ham disbalans namoyon bo'lsa, organizmning fiziologik buzilishi bilan birga unda intellectual g'oyalarini, e'tiqodini ham rivojlantira olmaydi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan fikrlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Inson tanasida olov elementining muvozanatlashganda yani organizmdagi 5 unsur elementlarning mutanosibligi yoz faslining quvonchga to'la bo'lishi, barcha istaklarning bajarilishiga olib keladi. SHunda inson hotirijam va muvozanatli bo'lib ish boshqarishi, boshqalar bilan kirishimli, xushkayfiyatda bo'ladi.

Ular liderlik vazifasini xotirijamlikda kerak bo'lsa chetga chiqishni ham bilishadi. Ko'zlari quvonchdan porlab turishi va mehribonlik hamda oliyanoblik tuyg'ularini kuzatish mumkin.

Tuproq –energiyasi gorizontol ravishda yopiq doirada harakat qiladi. Yul fasllar orasidagi almashinuv davrlari ham tuproq elementi bilan bog'liq. Bu vaqtda inson yangilanish yani bir davrdan boshqasiga o'tayotganida o'zida kuch to'plashi va e'tiborli bo'lishga undaydi. Tuproq elementi jigarrang va sariq ranglarda ifodalanadi.

Inson o'zliginia ushbu element orqali rahm-shafqat, hamdardlik, muhabbat va sevgi , boshqalarni tushunish hamda tabiat bilan hamohangligini namoyon qiladi. Bunday xislatli insonlar hamma bilan kirishimli va qalban yaqin bo'ladi.

Sog'lom er elementiga ega bo'lgan insonning ichki dunyosi boy, ma'nan etuk bo'lib, boshqalarga g'amxo'rlik qilish va yaxshi energetikasini bera olish imkoniga ega bo'ladi.

Tuproq (Er)- elementiga tegishli bo'lgan tana a'zosi - **Qora taloq** hisoblanadi. U mantiqiy, ratsional fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish qobiliyatiga hamda kuchli va xotiraga egadir.

Bu organ kechiktirilgan yoz fasli bilan belgilanib, ayni pishiqchilik, hosilni yug'ishtirish, qayta ishlash, tanlab olish, omon qolish va donolikka etishish, oziqlantirish davri deb belgilanadi va hayotning har xil vaziyatlarida intellectual darajani namoyon qiladi.

Qora taloqdan tashqari **Yer** elementiga **oshqozon** ham kiradi. Oshqozon – bu ozuqa moddalarining so'rilishi va ovqat hazm qilish uchun javob beradigan tizim.

Tuproqning asosiy vazifasi tana a'zolarining ichki muhitini oziqlantirish va barqaror saqlashdir. Xitoyliklarning fikricha, oziq-ovqat tushunchasi nafaqat tana xujayralarini oziqlantirish, ozuqa moddalari bilan ta'minlash, balki ularni kislorod bilan ham to'yintirishdir. Hayot tizimining buzilishi erelementining nomutanosibligi, disbalansligi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, Uyqu va uyqusizlik, nafas olish ritmlari, menustrial davr, to'g'ri ovqatlanish tartibi, psixologik, fiziologik va ma'naviy faoliyat ritmlari-bularning barchasi ma'lum darajada Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishiga ham bog'liqdir.

Umuman olganda, Yer Qadimgi Xitoy falsafasi va tabobatida markaziy o'rin tutib, muhim ro'l o'ynaydigan element hisoblanadi. U-Sin ta'limotining diagrammalarida Yer markazda tasvirlangan, suv, daraxt, olov va metal elementlari uni to'rt tomondan o'rab olgan.

Qadimgi Xitoy tabobatida ham yer elementining disbalansligiga ahamiyat berilib, uni muvozanatini tiklash orqaligina barcha tana va ruxiy kasalliklarni davolashgan. Turli xil oziq-ovqat va shifobaxsh, dorivor o'simliklardagi mikroelementlar haqidagi bilimlari, amaliy tajribalari hamda oshqozon va qora taloq meridianlarining massaji, akupunkturadan to'g'ri foydalanilishi orqali davolashning yutuqlari, samaraviy natijalari erishilgandir. Bundan tashqari inson organizmini sog'lomlashtirish hamda yer energiyasini kuchaytirish uchun maxsus jismoniy mashqlardan foydalanilgan.

Metall elementining mohiyati uning konsentratsiyasi va kondensatsiyasiga bog'liqdir. Uning harakati tashqaridan ichkariga yo'nalishda harakatlanadi. Metall elementining hisobiga yerning hosildorlik, unumdorligi oshadi. Metallar yerning muhim ozuqasi hisoblanadi. Xitoyliklarda shunday naql bor: Yer bu- ona bo'lsa, uning otasi – Metal hisoblanadi. Yer va Metalning birlashuvidan tug'ilish, yaralish yuzaga keladi. Daraxt elementining paydo bo'lishiga zamin tug'iladi.

Metall elementiga tegishli bo'lgan inson organizmidagi a'zo bu- O'pka va yo'g'on ichak hisoblanadi. O'pka eng muhim a'zo bo'lib u tanani himoyachisi hisoblanadi. U hayotiy energiyasi Qi bilan boyitadi, Yo'g'on ichak esa, organizmni xar-xil

toksinlardan tozalaydi hamda ortiqcha chiqindilarni chiqarishga yordam beradi. Bundan Metall elementi asosiy ikki vazifani bajaradi: qabul qilish hamda chiqarish harakatlaridir.

Qadimgi Xitoy tabobatida tabibalar diqqatni jamlash va nafas olishni nazorat qilishda meditatsiyadan foydalanganlar. Ushbu meditatsiya nafas olish jarayoni orqali Inson va Koinot bilan bog'liqligini bildirsa, meditatsiyadan ongli ravishda foydalanish esa, insonning yer va tabiat bilan uygunlikda yashash vositasi hisoblanadi.

Insonlarda metal elementining kamayishi yoki yo'q bo'lib ketishining asosiy sababi bu atrof-muhit tabiat bilan uyg'unlikning etimasligi hamda pessimistic

Odamlarda metall elementidagi muvozanatning yo'q bo'lib ketishining belgisi atrof-muhit bilan aloqaning etarli emasligi hamda hayotga pessimistic nazar bilan qarashdadir. Agar inson organizmida metal element etarli hamda sog'lom bo'lsa, unda hayotga bo'lgan ishonch, qiziqish kuchayadi va ijobiy kayfiyat ustunlik qiladi. Agar inson o'tmishdagi negativilardan ozod bo'lsagina, hayot charxpalagi doirasidan chiqib ketadi va eski o'ladi uning o'rmini yangi tug'ilish, yasharish makoni yuzaga keladi. Buning uchun tinmay harakatda bo'lib taslim bo'lmasdan, iymon-e'tiqodini ishonch bilan but qilish zarur SHundagina tashqi olam bilan insonning ichki dunyosi uyg'unlikda, muvozanatda bo'ladi.

Suv elementi -qish faslidagi qisqa kunlar va uzoq tunlar hisobidan ortadi, ko'payadi. Suvning energiyasi yerning markaziga yuqoridan pastga qarab yo'nalgan bo'lib uning tabiati, xarakterli xususiyati- sho'ng'ish, g'arq bo'lishdir.

Suv elementining kuchi tortishish vazifasini bajarib, borliqning, koinotning markaziga, hayotning manbaiga, onging mohiyatiga olib boradi.

Suv elementining tabiati, xarakterli xususiyati kelajakda rivojlanishning kuchli potensialini o'z ichiga olgan don, urug' shaklida ifodalanadi. Ekilgan kichik makondagi urug' kelajakda qudratli daraxtga aylanadi. Qudratli daraxtning mohiyati - urug'dir. Urug' esa, Xitoy an'alarida ajdodlarning energiyasi hisoblanadi. Buyrak uning himoyachisi. Ajdodlar energiyasi- insonning otonasi, ajdodlaridan meros qilib oladigan turli xil energiya turlari hisoblanib, bu tushuncha-genetik kod atamasiga aynandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.M.Mirziyoev "O'zbekiston Respublikasida Xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4668 10.04.2020.
2. Ши Синь Инъ Драгоценные жемчужины Китайской медицины. Неоглори. 2006
3. Юлдашева Л.С. Халқ табобати фалсафаси ўқув қўлланма. Тошкент-, Invest book, -2023.
4. Sagdullaevna, Y. L. (2022). The Principle of Emanation in IBN Sino's Ontology. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(12), 90-92. Retrieved from <http://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/539>

Suv elementiga tegishli bo'lgan a'zo bu – buyrak, qovuq hamda suyak to'qimasi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy tabobatida buyrak nafaqat ajdodlar energiyasini saqlash a'zosi hisoblanadi, balkim ovqatni qabul qilish va hazm qilishdan keyin inson tanasiga kiradigan va darhol ishlatilmaydigan boshqa turdagi energiya turlari uchun zahira a'zo hisoblanadi.

Aslida, buyrak boshqa tana a'zolari qatorida o'z ta'sirini butun organizmga tarqatiladigan, ta'sir etadigan kuch maydoni hisoblanadi. Suv elementi tanada turli xil vazifalarni bajaradi, jumladan u-suyuq qurilish material, inson tanasining 65 % tashkil etuvchi moylash hamda erituvchi vosita hisoblanadi. Inson organizmini xar xil toksin va shlaklardan suv bilan yuvib tozalashda buyraklar orqali amalga oshiriladi.

Inson tanasidagi suv elementining harakatida ovqatlanish jarayoni bilan hech qanday umumiy aloqa yo'q. Ovqatlanish jarayoni – bu oshqozon hamda oshqozon osti bezining vazifasi hisoblanadi.

Suv inson organizmidagi chiqindilarni to'planib qolishidan saqlaydi hamda oldini oladi va tana a'zolarini yaxshi ishlashini ta'minlaydi. SHuning uchun ham tabiblar buyrakni yurak singari inson tanasining eng muhim a'zosi, chunki u tanadagi ichki muhitni barqarorlashtiruvchi asos, deb hisoblaydilar.

Xulosa.

Demak, suv elementi bu obi hayot hisoblanib, inson tanasini jismoniy, ruxiy va ma'nan o'sib rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. U tanada erkin, tekis va muvozanat bilan harakatlanishi zarurdir. Suv muvozanatining buzilishi turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Jumladan, buyrak toshi kasalligi, infeksiyon kasalliklar, suyak kasalliklari, ich ketish, soch to'kilish hatto uyqusizlik va boshqa bir qancha kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bu kasalliklar insonni injiq, qo'rqqoq, tajang qilib quyadi. Suv elementining normada bo'lishi inson xotirjamligini, qalb va rux sokinligini va hushkayfiyatda bo'lishini ta'minlaydi.

Eng asosiysi shundakim, insonning salomatligi hamda uni uzoq umr tinch-xotirjam va farovonlikda yashashi uchun inson tabiat bilan uyg'unlikda yashashi hamda tana va rux salomatligiga e'tibor berish lozim.

5. Yuldasheva, Lola Sadullaevna (2024). SPIRIT AS A NATURAL FORCE IN BERUNI'S VIEWS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (4), 199-203.

6. Юлдашева, Л. . (2022). ЖОН - ТАНАНИНГ ҲАЁТИЙ КУЧИ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(13), 117–120. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/7238>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Qilichev Feruzbek To'ychi o'g'li
falsafa doktori, (PhD)

EKOLOGIK GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DINIY QADRIYATLAR ROLI

Annotatsiya: Maqolada ekologik globallashuv jarayonida shaxs ekologik madaniyatining shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar ilmiy tahlil qilingan. Ekologik globallashuv jarayonida shaxs ekologik ongi, moddiy va ma'naviy madaniyati darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy mezon diniy qadriyatlar ekanligi, va uning tabiatni muhofaza qilish sohasidagi amaliy faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik globallashuv, shaxs ekologik ongi, ekologik madaniyat, diniy qadriyatlar, ekologik dunyoqarash.

Qilichev Feruzbek Toychi ugli
Doctor of Philosophy (PhD)

THE ROLE OF RELIGIOUS VALUES IN THE DEVELOPMENT OF PERSONAL ECOLOGICAL CULTURE IN THE PROCESS OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION

Abstract: In the process of ecological globalization, the ideas about the formation of individual ecological culture and its specific features are scientifically analyzed. In the process of ecological globalization, it was analyzed that religious values are the main criteria affecting the level of ecological consciousness, material and spiritual culture of a person, and his practical activities in the field of nature protection.

Key words: ecological globalization, ecological consciousness of the individual, ecological culture, religious values, ecological outlook.

Киличев Ферузбека Тойчи угли
доктор философии (PhD)

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В процессе экологической глобализации научно анализирующая представления о формировании индивидуальной экологической культуры и ее специфических чертах. В процессе экологической глобализации проанализировано, что религиозные ценности являются основными критериями, влияющими на уровень экологического сознания, материальной и духовной культуры человека, його практической деятельности в области охраны природы.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экологическое сознание личности, экологическая культура, религиозные ценности, экологическое мировоззрение.

Kirish.

Yangi global sivilizatsiya jarayonida shubhasiz, yangi madaniyatni yuksaltirishga muhtojlik sezmoqda. Ushbu yangi madaniyat dunyoning kelajakdagi rivojlanishini ifodalovchi ilg'or madaniyat bo'lishi kerak. U na "to'liq g'arblashuv", na "butun sharqlashtirish", na butunlay "yevropalashirilgan" yoki "go'zallashgan", na "sariq" yoki "yashil" bo'lishi mumkin. Chunki dunyoda kelajakda dunyo taraqqiyotiga to'liq moslashgan sof ilg'or madaniyat asosini tashkil etuvchi yagona sivilizatsiya madaniyati shakllangani yo'q. Bu yangi ilg'or madaniyat shakli Shimol va Janubni to'ldiradigan, Sharq va G'arbni

birlashtirgan yangi madaniyat turi bo'lishi shart. Bu madaniyat shakli postmodern madaniyat deb yuritilmoqda.

Uzoq vaqt davomida G'arb moddiy sivilizatsiyasining haddan tashqari rivojlanishi tufayli odamlarda bir vaqtlar G'arb sivilizatsiyasi yoki umuman madaniyati eng ilg'or madaniyat degan tasavvur paydo bo'lgan. Agar biron bir mamlakat gullab-yashnamoqchi bo'lsa, u butunlay g'arblashgan bo'lishi kerakligi insonlar ongiga singdirilgan. Va xatto bu rivojlangan davlatlarni diniy qadriyatlari ham istisnosiz qabul qilinishi talab etilgan. Aslida, bu qarash noxolis, asos va umuminsoniy

xarakterga ega emas. Ekologik madaniyatda esa bunday subyektiv omillar ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. U insoniyat hayoti va kelajak taraqqiyotida ekologik muammolarning dolzarbligini chuqur anglash bilan tavsiflanadi. Atrof-muhitni e'tiborsiz qoldirishning qayg'uli tajribasi kimyoviy ifloslanish, shovqin, tebranish, elektromagnit nurlanish, radiatsiya va hokazo.

Yoshlar va bolalarni ekologik madaniyatga tarbiyalash aholida ekologik mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Atrof-muhitning holati masalasi butun dunyo jamoatchiligining diqqat markazidadir. Bu an'ana ajdodlarimiz tinimsiz takrorlab kelgan marosimlar, maqollar orqali avlodlar o'tib kelmoqda. "Otdan bir daraxt qolsin", "Buloq ko'rsang, ko'zingni och", "Daraxt ildizi bilan kuchli, odam do'stlari bilan kuchli", "Gul o'stirsa, gul o'stirar. Yer ko'rki, yurt ko'rki qiz o'stirar". Bugun biz bu fazilatlarni yo'qotib, milliy o'zligimizni atrof muhitga yo'qotgandek bo'ldik. "Insoniyatning tabiatsiz kuni yo'q, tabiatning uni ifodalashga tili yo'q" degan naqlning o'zi ham shundan dalolat berayotgandek.

Hozirgi vaqtda dunyo ahlining e'tibori ekologik ta'lim muammosiga qaratilmoqda. Buning sababi shundaki, bugungi kunda har qanday inson uchun ikkita dolzarb masala mavjud: birinchisi, inson hozir tabiat bilan yaqin aloqada, ammo bu tuzatib bo'lmaydigan ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Buni Birlashgan Millatlar Tashkiloti va bir qator davlatlar tomonidan biosferani saqlash, inson va atrof-muhit haqidagi yangi bilim tizimini shakllantirishga qaratilgan energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etishni talab qiluvchi barqaror rivojlanish strategiyasining qabul qilinishi bilan izohlash mumkin. Hozirgi vaqtda ko'pchilik global ekologik muammolarga qiziqish bildirmoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish davlatning eng muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik madaniyat jamiyatda tartib saqlanishi, tabiatga oqilona munosabat shakllanishiga ta'sir etadi. B.T.Lixachevning fikricha, ekologik madaniyatning mohiyati ekologik jihatdan asoslangan irodani shakllantirishi mumkin²⁴.

Ekologik madaniyat inson, uning turli tomonlari va xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlarda "ekologik madaniyat" tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan.

Mahalliy dunyoviy ilohiyotda madaniyat va din o'rtasidagi munosabatlar masalasi yaqinda ko'rib chiqila boshlandi. Din falsafasi dinga qo'pol munosabatda bo'lish bilan mos kelmaydi, bunda u nomadaniy, aksilmadaniy

hodisaga tushib qoladi, diniy-falsafiy an'analarda tegishli tafakkur darajasini qabul qilmaydi. Din muayyan tarixiy sharoitlarda ma'naviy madaniyat tizimida muhim o'rin tutadigan madaniyat elementidir. Din asosan ma'naviy madaniyatning reproduktiv (ijodiy bo'lmagan) elementi bilan bog'liq. Dinning mohiyati, diniy tashkilotlarning diniy bo'lmagan funksiyalarini hisobga olmasa, shaxsning rivojlanishiga yordam bermadi. Jamiyat o'z qadriyatlarini saralaydi. Ikkala jarayon uchun ham bir xil talab mavjud. Dunyoviylik mamlakatimiz sharoitida yagona qulay, umuminsoniy va tarixan shakllangan davlatdir. Uning targ'iboti va mustahkamlanishi jamiyat barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Dunyoviylikni kuchaytirish dinni zaiflashtirish degani emas. Sekulyarizm qanchalik kuchaymasin, diniy faoliyat o'ziga xos tarzda davom etadi. Diniy faoliyatni e'tibordan chetda qoldirmaslik, uni faqat hisob-kitob sifatida emas, balki uning sifati va natijasi sifatida ham ko'rib chiqish kerak. Din sohasidagi faoliyatni kuchaytirish deganda dinni kuchaytirish emas, balki diniy faoliyatga e'tiborni kuchaytirish, deb tushunish kerak.

Din shunchaki e'tiqodlar tizimi emas, u hayot tarzi, xulq-atvori, axloqiy me'yorlar majmui, yaxshilik bilan yomonni, halol va insofni ajratuvchi ma'naviy tamoyillar tizimidir. Demak, din masalasi ruh masalasidir. Dinga ma'naviyat asosi sifatida qarash, uning ijodiy qadriyatlari va ma'naviy salohiyatiga e'tibor qaratish zarur. Dinning ma'naviy salohiyatidan azaliy g'oyalar, dunyoviy g'oyalar uchun foydalanish mumkin. Shunday qilib, biz yo'qotgan barcha narsalarimizni hisobga olishimiz va doimiy qadriyatlarni yaratishimiz mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, an'anaviy ma'naviy qadriyatlar zahirida bu dinning ma'naviyatlanish jarayoni yotadi.

Haqiqiy dinning ma'lumligi va ildizi bunyodkorlik qadriyatlari bilan bog'liq ekani barcha ochiqko'ngil insonlarga yaxshi ma'lum. Islom dinining axloq-odob, o'zaro hurmat, tinchlik va hamjihatlik, halol mehnat, adolat, tenglik, aql-idrok, ilm-ma'rifat kabi qadriyatlari barcha jahon dinlari uchun umumiydir. Aynan shu qadriyatlarning g'alabasi insoniyat jamiyatini sivilizatsiyaga olib keldi.

Islomda daraxt ekish katta sharafdird. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ko'pgina hadislarida bu masala chetda qolmagan. Masalan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'z ummatlariga dehqonchilik, xususan ko'chat ekishni targ'ib qila turib shunday deganlar: **"Agar qiyomat bo'lib qolsa va birontangizning qo'lida xurmo daraxti bo'lsa, bas, uni ekib olsin"** (Buxoriy va Ahmad rivoyati)²⁵. Bu hadisdan ko'ramizki, daraxt ekish juda muhim. Payg'ambarimiz

²⁴ Лихачев, Д. С. Экология культуры // Лихачев, Д. С. Воспоминания. Раздумья. Работы разных лет : к 100-летию Д. С. Лихачева : [в 3 т.] / Д. С. Лихачев ; Институт русской литературы (Пушкинский Дом), Международный благотворительный фонд им. Д. С. Лихачева. - Санкт-Петербург : АРС. - Т. 2. - 2006. - С. 309-325.

²⁵ <https://azon.uz/content/views/qiyomat-bulib-qolsa-ham-tuhtatilmaydigan>

sollallohu alayhi vasallam buni nafaqat aytganlar, balki amalda isbotlaganlar. Ma'lumki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkadan Madinaga ko'chib kelganlarida, Madina qudug'ini tozalash uchun uning atrofiga daraxt o'tqazganlar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning "Odamlarning eng yaxshisi boshqalarga foyda keltirganidir" deganlarini unutmashimiz kerak. Yana bir hadisi sharifda: "Biror kishi daraxt eksa, uning daftariga eggan daraxtining mevasidek savob yoziladi", deyiladi.

Tabiatni asrash, atrof-muhitni toza saqlash ham insonning burchidir. Chunki Islom dini insoniyatni poklikka chorlovchi dindir. Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ko'plab hadislarida poklikning ahamiyati haqida so'z boradi. "Poklik iymonning yarmidir" degan hadis bunga dalildir. Shu boisdan ham Abdulla Avloniy: "Ifloslik balosidan poklik davosi ilo qutulmoq kerak. Baliqning hayoti suv ila o'ldig'i kabi, insonning salomatligi havo iladir"²⁶, – deb ta'kidlaydi.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) sahobalariga odamlar yuradigan yo'lda, ular dam oladigan soyada, ayniqsa, mevali daraxtlar tagida tahorat olish mumkin emasligini aytganlar. "Ikki la'natdan ehtiyot bo'ling!" Ular: "Ikki la'nati kim?" dedilar. – so'radi u. Payg'ambarimiz: Tahoratni yo'lda yoki soyada buzadi, deyishadi. Asosan, musulmon buzg'unchi emas, balki butun, buzg'unchi, tuzatuvchi, zararli emas, balki foydalidir.

Alloh taolo insoniyatga ko'p ne'matlarni topshirgan. Bu omonatni suiiste'mol qilmaslik ham musulmonga xos xususiyatdir. Ana shunday ne'matlardan biri tabiatdir. Musulmon farzandidek tabiatni asrash kerak. Bir hadisda: "Ular gaplashganda yolg'on gapirishadi. Agar va'da bersa, vafo qilmaydi va omonatga xiyonat qiladi". Qolaversa, Alloh taolo Qur'oni karimda bu cheksiz ne'matlarga oxiratda talab borligidan ogohlantirgan. U yerda: "Albatta, boyligingiz haqida so'roq qilinasiz". Shuning uchun ham donishmandlarimiz "Suvning ham talabi bor", deytilar.

Islomda ov mavzusi ham chetda qolmagan. Shariatimizda go'shti yeyiladigan yovvoyi hayvonlarni yoki terisi, mo'ynasi, shoxi yeyilmasa ham go'sht sifatida ishlatiladigan hayvonlarni ovlash hukmi muboh deyiladi. Alloh taolo Qur'oni karimda: "Sizdan halol nima ekanligini so'rashadi. Aytgich: "Pok narsalar sizlarga haloldir. Agar siz Xudo nomi bilan o'rgatgan va tarbiyalagan hayvonlarni ovlasangiz, ular siz uchun tutganlarini yenglar".

Dinimiz asosida ov qilmoqchi bo'lgan kishi quyidagi odobni bilishi kerak: O'q otish yoki o'rgatilgan itni jo'natishda "Bismillah" deyish kerak. Hayvonlarni ov

bahonasida ko'p o'ldirmaslik kerak. Bunday qilish nafaqat tabiatga zarar yetkazadi, balki inson qalbida rahmshafqatning yo'qolishiga ham olib keladi. Go'sht yeyilishi uchun ovchi musulmon yoki ahli kitob bo'lishi kerak. Ovchi itni o'rgatish kerak. Ovda tutilgan hayvon jarohlardan o'lishi kerak. Agar o'rgatilgan it yoki qush jonivorni hech qanday jarohatsiz ursa, bo'g'ib o'ldirsa yoki o'ldirish bilan qo'rqitsa, uni yeb bo'lmaydi. Chunki ovdagi jarohatlar o'lim bilan jazolanadi. Agar hayvon jarohatsiz va qonsiz o'lsa, u harom o'ladi.

Islomda o'z umrining o'rtasida bo'lib qolish, yuqoridan ko'rinib qolish uchun bo'rttirib gapirish, qarzga botib, qimmat taomlarga berilib, qimmatbaho kiyim-kechak, qimmatbaho mashinalarga berilib ketish manmanlik va isrofgarchilik sanaladi. Qur'on oyatida: "Yenglar, ichinglar va isrof qilmanglar, chunki Alloh isrof qiluvchilarni sevmas". Dinlararo dialog mohiyati konfessiyaviy subyektlar faoliyatida namoyon bo'ladi, "ularning qarama-qarshiligini bartaraf etishga va ikkala subyektning ham individualligini saqlagan holda, ongning qadriyatiy ko'rsatmalari birligiga erishishga yo'naltirilgandir"²⁷.

Hozirgi davrda intellektual sohada muayyan konsepsiyalar, xususan, S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" modeli umumsivilizasion dialogga, bag'rikenglikka rahna soladi. Bu kabi konsepsiyalar nafaqat ilmiy, balki jahon jamoatchiligiga kelajakda G'arb va boshqa mamlakatlar o'rtasidagi ixtilof – geosiyosatning markaziy o'q chizig'i bo'lib qolishini isbotlashga qaratilgan mafkuraviy qarashdir, xolos. Shuning uchun ham "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" modeli nafaqat olimlar o'rtasida, balki turli mamlakatlar, xususan, islom dunyosidagi siyosiy doiralarda ham turlicha, ba'zan asosli tanqidlarga ham sabab bo'lmoqda. Masalan, Eron Islom Respublikasining sobiq Prezidenti Sayyid Muhammad Xotamiy tashabbusi bilan sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot masalasi YUNESKOning 1999 yildagi sessiyadagi va BMTning 2000 yildagi 53-Bosh Assambleyasida muhokama etilgan edi. Mazkur ming yillik sammitida XXI asr – sivilizatsiyalararo muloqot asri, deb e'lon qilindi²⁸ bu bilan "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi"ga munosib javob qaytarildi. Xususan, O'zbekistonda erkin jamiyat, demokratik huquqiy davlat qaror topishi davrida milliy taraqqiyot xususiyatlari diniy qadriyatlarining ekologik muammolar yechimini topishda o'ziga xos tamoyillarini, konstruktiv-ratsional usul-vositalarini belgilab bermoqda va bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

Obyektivlik tamoyili. Diniy ekologik qadriyatlarining obyektivlik xususiyatlari. Uning obyektivligi tarixiy taraqqiyot taqozosi va zaruriyati bilan

²⁶ Авлоний А. Танланган асарлар. 2-жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. –Б.44.

²⁷ Каган М.С. Горизонты и границы диалога в истории культуры: философский анализ // Каган М.С. Избранные труды. В 7 т. Т.1. Проблема методологии. – СПб., 2006. – С. 218.

²⁸ Хотеми М. Выступление на 53-сессии Генеральной Ассамблеи, информационный бюллетень посольства Ирана в Ташкенте. – Т., 2001. – № 7.

izohlanadi. Lekin diniy qadriyatlar shaxs ma'naviyatiga ta'siri nuqtai nazaridan, subyektiv omil rolini bajaradi. Bu diniy qadriyatlarda obyektivlik va subyektivlikning o'zaro aloqadorligini namoyon qiladi.

Islomiy, buddaviylik va xristianlik ekologik qadriyatlari qiyosiy tipologik tahlil qilinadigan bo'lsa, ularda mohiyatli birlik va umumiy mazmun ustuvorligini ko'rish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, dinlararo ekologik qadriyatlarning integratsiyalashuv tendensiyasini aniqlash bilan bog'liq murakkab muammolarni hal qilishni taqozo etadi. Xususan turli dinlarga xos qadriyatlarni ekologiyalashtirishning pozitiv oqibatlarini ommalashtirish va boshqa omillar muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni hal qilish qo'yilgan muammoga kompleks-sistemali yondashuvni taqozo qiladi.

Ekologik madaniyat strukturasi muayyan barqaror elementlar mavjudki, ularning tarkibida diniy qadriyatlar u yoki bu darajada doimo o'z o'rniga ega. Diniy qadriyatlarning rivojlanish dinamikasida ikki jihat – ularning mazmunan va tarkiban murakkablashuvi, yangidan-yangi qadriyatlarning vujudga kelishi, differensiya va integratsiya jarayonlariga moyillik ko'zga tashlanadi.

Konkretlilik tamoyili. Diniy qadriyatlar, umuman, obyektiv reallikni ideal obrazlar tarzida ifodalashiga qaramasdan, konkret mazmunga ega. Chunki diniy qadriyatlarning har qanday shakli, birinchidan, voqelikning konkret xususiyatlarini aniq usullar va vositalar orqali ifodalaydi. Ikkinchidan, diniy qadriyatlarning har qanday namunalariidagi konkretlilik, mohiyat e'tiboriga ko'ra, umumiylikning muayyanligini ifodalaydi. Uchinchidan, diniy qadriyatlardagi konkretlilik tamoyili shaxs ma'naviyatiga aniq ta'sir yo'nalishlariga, mexanizmlarga, usul-vositalarga egaligi bilan xarakterlanadi. To'rtinchidan, diniy qadriyatlardagi konkretlilikning umumiyliigi – shaxs emotsional-ruhiy holatiga ta'siriga; muayyanligi esa o'z ta'sir mexanizmlariga yo'nalganlik bilan izohlanadi.

Boshqacha aytganda, tarixan diniy qadriyatlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirida uning konkret ayrim konfessional ko'rinishlarining ustuvorligi namoyon bo'ladi. Masalan, O'rta asr islomiy qadriyatlarida ekologik muammolarga fatalistik, passiv munosabat, G'arbiy Yevropadagi Reformatsiya davriga xos protestanizm qadriyatlarida esa tejamkorlik, mehnat kishisining ulug'lanishi, hashamat, ortiqcha as'asaning qoralanishi ijtimoiy jarayonlarning, umuman, kapitalizm vujudga kelishining asosiy omili bo'lganligi kuzatiladi²⁹.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lixachev, D. S. Ekologiya kultury // Lixachev, D. S. Vospominaniya. Razdumya. Raboty raznykh let : k 100-letiyu D. S. Lixacheva : [v 3 t.] / D. S. Lixachev ; Institut russkoy literatury (Pushkinskiy Dom), Mejdunarodnyy blagotvornitelnyy fond im. D. S. Lixacheva. - Sankt-Peterburg : ARS. - T. 2. - 2006. – S. 309-325.

Vijdon erkinligi tamoyili. Diniy e'tiqodda mustaqil qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Jumladan, diniy qadriyatlar va vijdon erkinligi – insoniy ehtiyojlar va manfaatlarni ifodalashda namoyon bo'lmoqda. Diniy qadriyatlarning barqaror rivoji yoki vijdon erkinligiga, mazmun-mohiyatan, shaxs barkamolligining mezoni sifatida qarash kerak. Zero, diniy qadriyatlarni e'tirof etish, vijdon erkinligi ijtimoiy borliqning insoniy istiqbolini belgilashning ma'naviy asosidir.

Xulosa. Diniy qadriyatlarning ekologik "sifat darajasi" xususiy ijodiy takomillikning shart-sharoiti, imkoniyati hisoblanadi. Eng muhimi, diniy qadriyatlardagi ijodiy takomillik inson ma'naviyati, xalq ruhiyati, milliy mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqib umuminsoniy manfaatlarga mos kelsagina, umumiy gumanistik mohiyatini namoyon qiladi.

Diniy qadriyatlarning shaxs madaniyatiga ta'siridagi ayrim usul va vositalarning determenantligini e'tirof etish, uning uyg'unligini ta'minlash g'oyasiga putur yetkazmaydi. Aksincha, ayrim usullar va vositalar dominantligi, ularning uyg'unligini rag'batlantiruvchi omildir. Masalan, diniy qadriyatlarni rivojlantirishda qo'llaniladigan etnokonfessional usul va vositalar umuminsoniyat diniy qadriyatlari taraqqiyotining muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Diniy qadriyatlarning shaxs ekologik madaniyatiga ta'siridagi ommaviylik, uning obyekt differensiallashuvi natijasida "personifikatsiyalashganligini", ya'ni individualligini istisno qilmaydi. Aksincha, har qanday alohidalik ommaviylikning namoyon bo'lishidir. Boshqacha aytganda, umuman, ekologik madaniyat tarkibida diniy qadriyatlarning o'ziga xosligini ijtimoiy makon va tarixiy zamon nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, xronologik hamda geografik tarqalish xususiyatlariga ko'ra turkumlashtirish mumkin.

Diniy qadriyatlarning shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishdagi roli tarixan turlicha bo'lib, u hatto madaniy merosning turli namunalari orqali yetib kelgan. Xususan, yaqin o'tmishimizda "Navoiyxonlik", "Bedilxonlik", "Mashrabxonlik", So'fi Olloyor kabi tasavvufiy an'analarga asoslangan madaniy an'analarda gumanistik-diniy qadriyatlar targ'ibot-tashviqoti keng tarqalgan bo'lib, ular shaxs rivojida muhim ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun diniy qadriyatlarning shaxs ekologik madaniyatiga ta'siri masalasiga uning usul-vositalarini rivojlantirishdan xoli tarzda qarash mumkin emas.

²⁹ Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. – М., 1990. – 560 с.

2. <https://azon.uz/content/views/qiyomat-bulib-qolsa-ham-tuhtatilmaydigan>
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. –B.44.
4. Kagan M.S. Gorizontы i granitsy dialoga v istorii kultury: filosofskiy analiz // Kagan M.S. Izbrannyye trudy. V 7 t. T.1. Problema metodologii. – SPB., 2006. – S. 218.
5. Xotemi M. Vystupleniye na 53-sessii Generalnoy Assamblei, informatsionnyy byulleten posolstva Irana v Tashkente. – T., 2001. – № 7.
6. Veber M. Protestantskaya etika i dux kapitalizma. – M., 1990. – 560 s.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Oripov E. Sh.

QDPI, Huquq ta'limi kafedrası mudiri (PhD)

OILA AN'ANAVIY QADRIYATLAR VORISIYILIGINI TA'MINLOVCHI INSTITUT SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila institutining jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Oila nafaqat tarbiya maskani sifatida, balki milliy va madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va meroslarning vorisiyligini ta'minlovchi asosiy institut ekanligi yoritilgan. Maqolada oilaviy qadriyatlarning jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, ma'naviy rivojlanishi va milliy o'zlikni saqlab qolishdagi roli ilmiy nuqtai nazardan o'rganilib, ularning avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni ta'minlashdagi vazifalari ko'rsatib berilgan. Oila qadriyatlari orqali axloqiy normalar shakllanishi va milliy merosning asrab-avaylanishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi haqida xulosalar keltirilgan.

Tayanch soz'lar: Oila, qadriyat, an'anaviy qadriyat, "Hidoya" asari, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, A.Fitrat

Oripov E. Sh.

QDPI, Head of the Department of Legal Education (PhD)

"THE FAMILY AS AN INSTITUTION ENSURING THE INHERITANCE OF TRADITIONAL VALUES"

Abstract. This article analyzes the role and significance of the family institution in the transmission of traditional values across generations within society. The family is not only considered a center for upbringing but also the primary institution that ensures the inheritance of national and cultural values, traditions, and heritage. The article examines the role of family values in ensuring social stability, spiritual development, and preserving national identity from a scientific perspective. It highlights how these values strengthen intergenerational connections and promote social cohesion. The formation of moral norms and the preservation of cultural heritage through family values are shown to contribute to the sustainable development of society.

Key words: Family, value, traditional value, "Hidaya" work, Abu Raikhan Beruni, Abu Nasr Farabi, A. Fitrat

Орипов Э. Ш.

QDPI, заведующий кафедрой юридического образования (к.ю.н.)

"СЕМЬЯ КАК ИНСТИТУТ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЙ ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ"

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение института семьи в передаче традиционных ценностей между поколениями в обществе. Семья рассматривается не только как центр воспитания, но и как основной институт, обеспечивающий преемственность национальных и культурных ценностей, традиций и наследия. В статье изучается роль семейных ценностей в обеспечении социальной стабильности, духовного развития и сохранения национальной идентичности с научной точки зрения. Подчеркивается, как эти ценности укрепляют связи между поколениями и способствуют социальной сплоченности. Показано, что формирование моральных норм и сохранение культурного наследия через семейные ценности способствует устойчивому развитию общества.

Ключевые слова: Семья, ценности, традиционные ценности, произведение «Хидая», Абу Райхан Беруни, Абу Наср Фараби, А. Фитрат.

Kirish

Oila an'anaviy qadriyatlar vorisiyligini ta'minlashda markaziy o'rinni egallaydi, chunki u jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida ijtimoiy merosni avloddan avlodga yetkazuvchi institut hisoblanadi. Oila orqali milliy va madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy tushunchalar, axloqiy me'yorlar bolalar va yoshlarga singdiriladi. Ayniqsa, oila muhitida shakllangan

qadriyatlar va tarbiya orqali shaxsiy identifikatsiya, madaniy merosni asrab-avaylash va davom ettirish kafolatlanadi. Oila avlodlar o'rtasidagi bog'lanishlarni mustahkamlab, qadriyatlar tizimini tabiiy ravishda kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Shu orqali milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy hamjihatlikka erishish osonlashadi.

"Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar" tushunchasini ilmiy-falsafiy kategoriyalar yordamida muhokama qilish ushbu tushunchaning chuqurroq ma'nosini ochib beradi. Ushbu tushunchani falsafiy kategoriyalar asosida tahlil qilish tadqiqotimiz maqsadini yanada aniqlashtiradi:

Ontologiya nuqtai nazaridan oilaviy-an'anaviy qadriyatlar inson borlig'ining ajralmas qismi hisoblanadi. Oila jamiyatning eng kichik hujayrasi sifatida insonning mavjudligi, hayoti va rivojlanishi uchun asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Oila orqali inson tabiiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, ijtimoiy hayotning muhim elementlarini, masalan, axloqiy me'yorlar, madaniy meros, va diniy qadriyatlarni qabul qiladi. Shu ma'noda, oilaviy qadriyatlar insonning ijtimoiy borlig'ini aniqlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar bilim olish va anglash jarayoni sifatida hal qiluvchi o'rin tutadi. Oiladagi tarbiya orqali bolalar hayotning asosiy bilimlarini o'rganadilar. Bu qadriyatlar epistemologik jihatdan insonning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy ta'sir ko'rsatadi. Oila bolaga ma'lumotlar bilan to'g'ri muomala qilishni, haqiqatni ajratishni va axloqiy xulq-atvorni shakllantirishni o'rgatadi.

Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar aksiyologik ma'noda jamiyatda axloqiy va ma'naviy me'yorlarning barqarorligini ta'minlaydi. Oilaning o'ziga xosligi, masalan, hurmat, mehribonlik, o'zaro yordam, va mas'uliyat kabi qadriyatlar jamiyatdagi axloqiy asoslar hisoblanadi. Shu ma'noda, oilaviy qadriyatlar insonlarning kundalik hayotini boshqaradigan asosiy axloqiy me'yorlarni shakllantiradi va ularga tayanadi.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan, oilaviy-an'anaviy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy strukturani va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi muhim element hisoblanadi. Oila jamiyatning asosiy institutlaridan biri bo'lib, u orqali ijtimoiy tizimlar va normalar avlodlarga uzatiladi. Oilaviy qadriyatlar bu jarayonda ijtimoiy tartibni saqlash va jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga yordam beradi.

Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning poydevori hisoblanadi. Oila insonning axloqiy ongini shakllantiradi, unga qanday to'g'ri va noto'g'ri ekanini o'rgatadi. Oiladagi qadriyatlar insonning butun hayoti davomida xulq-atvoriga va boshqalar bilan munosabatlariga ta'sir qiladi. Bu qadriyatlar insonlarning jamiyatda mas'uliyatli va axloqiy shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Fenomenologiya oilaviy qadriyatlarni insonning shaxsiy tajribasi orqali anglashda muhim rol o'ynaydi. Oila ichidagi muhit va munosabatlar insonning o'zini anglashiga va hayotdagi maqsadlarini shakllantirishiga asosiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson oilasi orqali o'ziga xos madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni qabul qiladi va shu asosda dunyoqarashini shakllantiradi.

Ko'rinib turibdi-ki, oilaviy-an'anaviy qadriyatlarni ilmiy-falsafiy kategoriyalar yordamida muhokama qilish inson va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq anglashga, qadriyatlarning jamiyatdagi o'rnini tushunishga va inson rivojlanishida qanday asosiy omillar rol o'ynashini aniqlashga yordam beradi.

Materiallar va usullar

Bugungi kunda jamiyatda oilaviy an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish uchun ma'naviy merosni o'rganish hamda amaliyotga tadbiiq etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Islom dinida er-xotin o'rtasidagi munosabatlar hurmat va adolatga asoslanadi. Har birining o'ziga xos huquqlari va majburiyatlari bor. Qur'onda er-xotinning bir-birlariga mehr va shafqat bilan munosabatda bo'lishi zarurligi qayd etilgan: "Ular (xotinlar) sizlar uchun libosdirlar, sizlar esa ular uchun libosdirlarsizlar..." (Qur'on, 2:187). Bu oyat er va xotinning bir-birini himoya qilish va to'ldirish zarurligini bildiradi. Erning moliyaviy ta'minoti va xotinning uy-joy va tarbiya masalalaridagi burchlari ham islom dinida aniq belgilangan. Xususan, Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida sog'lom va barqaror oilani shakllantirishning huquqiy, ma'naviy asoslari belgilangan. Ushbu asarning "Taloq kitobi" nomli qismida oilaviy muammolarga shariy yechimlar keltirilgan. Jumladan asarda: "... taloq ma'n qilingan, ammo (er ila xotinning bir uyda kelishmay yashashlari oqibatida, ulardan biror gunoh sodir bo'lishidan) qutulish uchun ruxsat etilgandir", "... nikoh qullikning bir ko'rinishi", "... taloq esa o'sha qullikni ketkazishining bir ko'rinishidir". Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, islom ta'limotida oilani saqlab qolish va er yoki xotinning shaxsiy daxlsizligini ta'minlash o'rtasida insoniy muvozanat mavjud. Shuningdek, "Hidoya" asarida ayol oila qurishdan avval qanday haq-huquqlarga egaligini bilish zarurligi uqtiriladi. Jumladan, "nikohning asl mohiyati haqida ilm bo'lishligi shart qilinadi. Chunki qiz bola faqat ilmi bo'lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo'lolmaydi". Ko'rinib turibdiki, farzand va millat tarbiyachisi bo'lgan onalarni ilmi bo'lishi shariyat talablaridan biri bo'lgan. Islom ta'limotida oilaning mustahkamligi, er-xotin o'rtasidagi mehr-muhabbat va o'zaro ishonchning barqarorligini ta'minlash uchun mukammal axloqiy me'yorlar ishlab chiqilgan. Jumladan, "Hidoya" asarida oila barqarorligini ta'minlash uchun er va xotinning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy jihatdan teng bo'lishligi ta'kidlanadi: "Nikohda tenglik e'tiborga olinadi. Payg'ambar alayhissalom aytganlarki: "Ogoh bo'linglarki, ayollarni faqat o'zlariga teng bo'lgan kishigagina bersinlar".

Abu Nasr Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud bo'ladi. Lekin aqliy bilimi, ma'naviyliigi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini va ma'lumoti oiladagi tarbiya bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Buyuk

mutafakkir Abu Ali ibn Sino "Tadbir-al-manozil" asarida er va xotin qobil farzand tarbiyalash uchun o'zlari ibrat bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino "Bolada yaxshi xarakter va xulq-atvor tarbiyalash uchun uning shaxsini hurmat qilish kerak, uni sevish va e'zozlash lozim. Uning oldida yomon gapirmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik kerak, lekin tarbiyada talabchanlik bo'lishi lozim", degan g'oyani ilgari suradi.

Sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Rayxon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Beruniy o'z qarashlarida, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'zining «Minerologiya» asarida oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, bahtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi va shunday yozadi: "Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo'lsang, u senga xizmatchi bo'ladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlargina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma". Abu Rayhon Beruniy ta'kidicha, oilada farzand ta'lim va tarbiyasi insonparvarlik negizida shakllantirilsa, bu farzand o'zini millatning ajralmas qismi sifatida his qiladi. Bu esa unda jamiyatdagi barcha islohotlarga daxldorlik tuyg'usini rivojlantiradi.

So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ayolning farovon oila qurishdagi o'rniga muhim ahamiyat berib shunday deydi: "Yaxshi rafiq – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngul yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi" [5]. Darhaqiqat, ona ushbu sifatlar egasi bo'lsa, oila barqaror va farovon bo'ladi. Agar ota-onada ushbu sifatlarning ziddi bo'lsa-chi? Bu haqida buyuk pedagog Abdulla Avloniy alam bilan: "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "...Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Bir kishi deyurki, qaysi onalarni aytursuz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarnimi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar" der. Mana bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, "Qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmoq, tarbiya qilmoq lozimdur" [6] - deb aytgan edi.

XX asr boshlarida jadidchilik harakatining eng faol vakillaridan biri, bu davr ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan Abdurauf Fitrat oila va uning boshqarish tartiblari haqida ilmiy-nazariy qarashlarini ishlab chiqdi. Uning qarashlarida ilgari surilgan g'oya va mulohazalar oila, nikoh, farzand tarbiyasi kabi an'anaviy qadriyatlarga bag'ishlangan. Abdurauf Fitrat jamiyatning muhim instituti oila haqida o'z mulohazalarini ilmiy va diniy manbalar asosida tahlil qiladi. Oila negizlarini mavjud qonuniyatlar asosida shakllantirmasdan va kelajak avlod tarbiyasini isloh qilmasdan millat taraqqiyotini rivojlantirish mumkin emas. Demak, millat taqdiri oilaning vaziyatiga bog'liq hodisadir. "Xar bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat xam shuncha kuchli va muazzam bo'ladi." [7]. Fitratning talqinicha, farzand faqat ota-onaning quvonchi emas, balki, millatning qudrati va nomusidir. Demak "oila" va "farzand" tushunchalari er-xotinning shaxsiy masalasi emas. Ayni vaqtda millatning barqaror vorisiyligini belgilaydigan xalqadir. Abdurauf Fitrat ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lgan oilagina millatini taraqqiyotga olib chiqish mumkinligini aytadi. "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor..." [8], – degan edi alam bilan Fitrat. Farzand tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida Abdurauf Fitrat: "xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi", degan edi.

Natija va muhokamalar

Ta'lim jarayonlarini zamon talablariga moslashtirishda oilaviy-an'anaviy qadriyatlar bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi. Ular ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonini qo'llab-quvvatlab, madaniy merosning uzluksizligi va yangi avlodlarga singdirilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

✓ **Tarbiya funksiyasi:** Oila an'anaviy qadriyatlarni uzluksiz avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy ijtimoiy institut bo'lib, bolalarni dastlabki axloqiy va ma'naviy ko'nikmalarga ega bo'lishida yordam beradi. Bu qadriyatlar ta'lim jarayonida beriladigan bilim va ko'nikmalarga mos keladi va ular bilan to'ldiriladi.

✓ **Identifikatsiya funksiyasi:** Oila milliy va madaniy o'zlikni saqlab qolishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila muhitida shakllangan an'anaviy qadriyatlar shaxsiy identifikatsiyani belgilaydi, bu esa ta'limdagi global va zamonaviy tendensiyalar ta'siriga moslashish imkonini

beradi. Bu orqali shaxs o'zining madaniy ildizlariga sodiq qolib, zamonaviy dunyoga integratsiyalanadi.

✓ **Barqarorlik funksiyasi:** Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar jamiyatdagi o'zgarishlar va ta'limdagi yangiliklarga moslashishda barqarorlikni ta'minlaydi. Ular shaxsni tez o'zgaruvchan zamon talablariga tayyorlaydi va insonning asosiy qadriyatlarini saqlab qolishiga ko'maklashadi.

✓ **Axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash funksiyasi:** Oila bolalarga va yoshlarga zamonaviy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishda ruhiy va axloqiy qo'llab-quvvatlashni beradi. Bu esa ularning o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

✓ **Madaniy vorislik funksiyasi:** Oila orqali madaniy meros va an'analar zamonaviy ta'lim jarayonida ham davom ettiriladi. Bu qadriyatlar bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ularga ijtimoiy va madaniy normalarni singdirish imkonini beradi. Shuningdek, bu an'anaviy qadriyatlar ularning jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishida yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy-an'anaviy qadriyatlar zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, madaniy merosni saqlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish orqali muhim funksiyalarni bajaradi. Bu qadriyatlar shaxsni zamon talablari va ta'limdagi yangiliklarga moslashtirishda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Jamiyatda oilaviy-an'anaviy qadriyatlar barqarorligiga erishish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Bunday qadriyatlar insonlar hayotida axloqiy va ma'naviy yo'nalish beradi, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Quyida bu barqarorlikning asosiy natijalari keltirilgan:

✓ **Yuqori axloqiy va ma'naviy me'yorlar shakllanishi:** Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar barqaror bo'lganda, jamiyatda halollik, mehnatsevarlik, hurmat, va mas'uliyat kabi asosiy axloqiy qadriyatlar keng tarqaladi. Bu, o'z navbatida, jamiyat a'zolari o'rtasida barqaror munosabatlar va sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlaydi.

✓ **Ijtimoiy barqarorlik va birdamlik:** Oilaviy qadriyatlar mustahkam bo'lganda, oilalar jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga hissa qo'shadi. Oila a'zolari bir-birlariga yordam berishadi, ijtimoiy mas'uliyatni bo'lishishadi, bu esa ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikka olib keladi. Bu barqarorlik ijtimoiy munosabatlarni yanada mustahkamlaydi.

✓ **Avlodlar o'rtasida meros vorisiyligining saqlanishi:** Oilaviy qadriyatlarining barqarorligi madaniy va ma'naviy merosni kelajak avlodlarga yetkazishga imkon beradi. Bu esa milliy o'zlikni saqlash va avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga olib keladi. Bu jarayon milliy an'analar va urf-odatlarini saqlash va davom ettirishda muhimdir.

✓ **Sog'lom oilalar va ijtimoiy muhit shakllanishi:** Oilaviy qadriyatlar barqaror bo'lganda, sog'lom va mustahkam oilalar paydo bo'ladi. Bu oilalar o'z navbatida farzandlarini yaxshi tarbiya qilib, jamiyatga axloqli, mas'uliyatli shaxslarni kiritadi. Sog'lom oilalar jamiyatda jinoyatchilik darajasining pastligi, yaxshi ijtimoiy muhit va jamiyatning umumiy farovonligiga olib keladi.

✓ **Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik:** Barqaror oilalar iqtisodiy barqarorlikka erishishda ham katta rol o'ynaydi. Mustahkam qadriyatlarga ega bo'lgan oilalar odatda mehnatsevar, mas'uliyatli va o'z iqtisodiy farovonligini ta'minlay oladigan a'zolari tarbiyalaydi. Bu esa jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

✓ **Bola tarbiyasida ijobiy natijalar:** Barqaror oilaviy qadriyatlar farzandlarning sog'lom rivojlanishiga, ularning jamiyatda yaxshi shaxs bo'lib yetishishiga katta ta'sir qiladi. Bolalar axloqiy qadriyatlarni oiladan o'rganib, ularni hayotda qo'llashadi, bu esa kelajakda yaxshi fuqaro va jamiyat a'zosi bo'lib yetishishga olib keladi.

✓ **Jamiyatdagi inqirozlarning oldini olish:** Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar mustahkam bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy inqirozlar kamroq kuzatiladi. Barqaror qadriyatlarga asoslangan oilalar jamiyatda tartib, intizom va barqarorlikni saqlashga ko'maklashadi, bu esa har qanday inqiroz va tangliklarni yengib o'tishga yordam beradi.

✓ Shunday qilib, oilaviy-an'anaviy qadriyatlarining barqarorligi jamiyatning turli sohalarida ijobiy natijalar keltirib chiqaradi va jamiyatning umumiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Bir oilaning turli avlod vakillari (bola-ota-bobo) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk davrlaridan mavjud hodisadir. Bugungi kunda bashariyat tomonidan tan olingan va foydalanib kelinayotgan tartib-qoidalar ushbu munosabatlar tizimining mahsulidir. Ma'lum bir millatning an'anaviy qadriyatiga aylanib qolgan xulq-atvor me'yorlari aynan shu vorisiylik orqali asrlar davomida mustahkamlanib yoki zaiflashib boradi. Agar avlodlararo munosabatlar vorisiylik qonuniyati asosida rivojlanmasa oilaviy an'anaviy qadriyatlar asl mazmunidan uzoqlashib, milliy taraqqiyotga to'g'anoq bo'lishi yoki ularning o'rnini yot g'oyalar egallashi mumkin. Avlodlararo aksiologik transformatsiya doim ham barqaror kechmaydi. Bunda bir zamon va makondagi avlod vakillarining o'zaro munosabatlarida turli tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa ushbu muammoni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etish zaruratini tug'diradi.

Bugungi kunda yoshlarimiz qadriyatlari tarkibida an'anaviy qadriyatlar va yangi pragmatik «muvaffaqiyat etikasi» uyg'unligida beqaror muvozanat mavjud. Oila instituti ijtimoiy-ma'naviy, etnik ma'lumotlarning

barqaror tashuvchisi bo'lgan, muvaffaqiyatli ijtimoiylashgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega shaxsni tarbiyalovchi noyob ijtimoiy ta'lim muassasasining dolzarb masalalaridan biridir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev MDH davlatlarining yig'ilishida milliy ma'naviyatimizning beshigi hisoblangan oila instituti va unda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish [2] masalasini alohida qayd etib o'tdi. Tadqiqotchi Sh.Amirxo'jaev jamiyatda oilaviy qadriyatlar regulyativ va akkumulyativ funksiyalarni bajarib, an'anaviy xulq me'yorlarini saqlab qolish uchun xizmat qilayotganini [3] ta'kidlaydi. Darhaqiqat, oila "insoniyat tarixida ijtimoiy-madaniy munosabatlarning generatori va integratoriga aylangan" [4] institut sifatida jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlamoqda.

An'anaviy jamiyat a'zosi o'zini oilasidan alohida tasavvur qila olmaydi. U butun umri davomida o'zini oilaning bir qismidek his qiladi. Uning uchun har qanday boylik va obro'dan ko'ra oilasi muqaddasdir. U o'z oilasiga, yaqin qarindoshlariga nima qilayotganini ko'rsatadi, ularning fikrini so'raydi. Demak, jamiyatdagi urf-odat va me'yorlar an'anaviy jamiyat a'zosi uchun ixtiyoriy xarakterdagi muqaddas burchdir. Ammo bugungi kunda oila instituti ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy-siyosiy, demografik va boshqa ta'sirlar natijasida bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bizning fikrimiz asosi quyidagilar:

- an'anaviy nikohga bo'lgan munosabatning zaiflashishi;
- nikoh tanlash mezonlarining o'zgarishi;
- nikohni taqiqlash va cheklashlarni qayta baholash;
- oilaviy va shaxsiy munosabatlar muvozanatining buzilishi;
- nikoh yoshiga yetmagan qizlarning jinsiy xulq-atvorini liberallashtirish;
- an'anaviy oilaviy va to'y- marosimlarida g'arbga taqlid qilish;
- qon-qarindoshlik rishtalari va oilaviy munosabatlarning ahamiyati va qiymatining nisbatan kamayishi;
- ajralishlarga jiddiy e'tibor bermaslik va an'anaviy oilaviy qadriyatlarning zaiflashishi.

Yangi taraqqiyot strategiyasida zamonaviy oila institutini shakllantirish hamda yuqorida keltirilgan muammolarni yechimi uchun keng ko'lamda tadqiqotlar o'tkazish hamda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb muammo sifatida ko'tarilgan. Ushbu muammoni yechimiga Abdurauf Fitrat o'tgan asrda quyidagicha izoh bergan edi: "Baxtsizligimizning sababi oiladorlik xususidagi har bir harakatimiz, sarob orzularimiz va xato fikrlarimizning natijasida bo'lib, aksariyati Qur'on hukmlariga ziddir. Shuning uchun zulm va tajovuz ko'rmagan oilalar bizda nihoyatda kam ko'rinadi". Oilaning milliy asoslaridagi o'zgarishlar uning ma'naviy asoslariga ta'sir qilib, jamiyatdagi an'anaviy

qadriyatlar va milliy me'yorlar tizimini qaytadan baholashga to'sqinlik qiladi.

Bizningcha, oilaviy ajralishlarning ortib borayotgani jamiyatda an'anaviy qadriyatlarining zaiflashgani sababli bo'lishi mumkin. An'anaviy qadriyatlar oilaviy hayotda muhim o'rin tutadi, chunki ular er-xotin va boshqa oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, sadoqat, mas'uliyat va o'zaro yordam kabi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. An'anaviy qadriyatlarining zaiflashishi oilaviy ajralishlarga qanday ta'sir qilishi mumkinligini quyidagi dalillar bilan asoslash mumkin:

1. An'anaviy qadriyatlar va oiladagi birlik

An'anaviy qadriyatlar oiladagi birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi hurmat, kattalarga bo'lgan e'tibor, kichiklarga mehr-oqibat, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan mas'uliyatlari kabi qadriyatlar oilaviy birlikni saqlab turadi. Agar bu qadriyatlar zaiflashsa, oilaviy munosabatlarda parokandalik va ziddiyatlar ko'payishi mumkin, bu esa ajralish xavfini oshiradi.

2. Shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish

Zamonaviy jamiyatda shaxsiy erkinlik va manfaatlar ko'proq ahamiyat kasb etishi natijasida, an'anaviy qadriyatlar, masalan, fidoyilik, sabr-toqat va oila manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish zaiflashadi. Er-xotin o'z manfaatlarini ustun qo'ya boshlasa, bu o'zaro muvozanat va hamjihatlikni yo'qotib, oilaning mustahkamligiga putur yetkazishi mumkin.

3. Avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikning yo'qolishi

An'anaviy qadriyatlar avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Katta avlodning maslahatlari va tajribalari yosh oila a'zolari uchun qo'llanma bo'ladi. Biroq, bu qadriyatlar zaiflashsa, katta avlodning oilaga ta'siri kamayadi va bu yosh oilalarning mustahkamligini susaytirishi mumkin. Avlodlar o'rtasidagi bu uzilish oila ichidagi ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi.

4. Jamiyatning individualizmga moyilligi

Ko'plab zamonaviy jamiyatlar individualizm va shaxsiy muvaffaqiyatga e'tibor qaratadi, bu esa an'anaviy qadriyatlar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi hamkorlik va birdamlikni zaiflashtiradi. Individualizm kuchaysa, er-xotin o'zaro qiyinchiliklarga duch kelganda birgalikda muammolarni hal qilishga emas, balki alohida yo'l izlashga moyil bo'ladi.

5. Diniy va axloqiy qadriyatlarining zaiflashishi

An'anaviy oilaviy qadriyatlar ko'pincha diniy va axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Diniy qadriyatlar oilaviy hayotda sabr-toqat, fidoyilik, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni rivojlantiradi. Agar bu qadriyatlar zaiflashsa, oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar ko'proq bo'lishi va ajralish ehtimoli ortishi mumkin.

6. Munosabatlarga kamroq e'tibor qaratish

An'anaviy qadriyatlar asosida qurilgan oilalarda o'zaro munosabatlar muhim o'rin tutadi. Bir-biriga e'tiborli

bo'lish, muammolarni birgalikda hal qilish va oila a'zolarining hissiy ehtiyojlariga javob berish oilaning mustahkamligini ta'minlaydi. Agar bu qadriyatlar zaiflashsa, er-xotin o'rtasidagi e'tibor susayadi va bu o'z navbatida ajralishga olib kelishi mumkin.

7. Ijtimoiy nazoratning kamayishi

An'anaviy jamiyatlarda ajralish katta ijtimoiy nazorat ostida ko'rib chiqilgan va bu oila saqlab qolinishiga sabab bo'lgan. Biroq, zamonaviy davrda ajralishlar kamroq ijtimoiy bosimga uchraydi, bu esa osonroq ajralishga qaror qilishga olib kelishi mumkin.

8. Oila qadriyatlarining zamonaviy madaniyat bilan to'qnashuvi

Globalizatsiya va madaniy yangiliklar ba'zan an'anaviy oilaviy qadriyatlar bilan to'qnash keladi. Yangi madaniy ta'sirlar an'anaviy qadriyatlarni zaiflashtirishi, natijada oila a'zolarining maqsad va qadriyatlari o'rtasida kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, an'anaviy qadriyatlarning zaiflashishi oilaning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oilaviy qadriyatlar oilaning asosi bo'lib, ular saqlangan holda oila ichidagi muammolarni hal qilish, o'zaro ishonch va hurmatni saqlash osonroq bo'ladi.

Xulosa

Jamiyatda barqaror oilani shakllantirish uchun yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy va ma'naviy merosimiz xulosalariga tayanib quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

1. Avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash – An'anaviy qadriyatlar oilaviy meros sifatida yangi avlodlarga o'tadi, bu esa oilaviy birlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning o'z avlodlariga qadriyatlarni o'rgatishi orqali avlodlar o'rtasida uzviylik va hamjihatlik ta'minlanadi.

2. Tarbiya va axloqiy normalarni shakllantirish – Oilaviy qadriyatlar inson tarbiyasida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Farzandlar oila muhitida axloqiy va ijtimoiy qoidalarni o'rganib, jamiyatda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'ladi.

3. Jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlash – Oilaviy qadriyatlar oilalar barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Barqaror oilalar esa jamiyatning umumiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi, chunki oilalar jamiyatning asosiy hujayrasi hisoblanadi.

4. Madaniy merosni asrab-avaylash va davom ettirish – Oilaviy qadriyatlar orqali milliy madaniyat, urf-odatlar va an'analar avloddan-avlodga o'tadi, bu esa jamiyatning milliy o'zligini saqlab qolishga yordam beradi.

5. Ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish – Oilaviy qadriyatlar ijtimoiy birdamlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Oila a'zolari o'rtasidagi hamjihatlik va o'zaro qo'llab-quvvatlash jamiyatda umumiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

6. Ma'naviy va diniy qadriyatlarni saqlash – Ko'pgina jamiyatlarda diniy va ma'naviy qadriyatlar oilaviy muhitda mustahkamlanadi. Bu qadriyatlar jamiyat a'zolarining ma'naviy hayotini tartibga solishga, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Oilaviy-an'anaviy qadriyatlar jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun asos bo'lib, ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatlarda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi to'g'risidagi Nizom
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. 2017 yil, 11 oktyabr.
3. Amirxo'jaev Sh.Q. Ijtimoiy tizimda oila institutida ijtimoiy madaniy jarayonlar transformatsiyasi. Falsafa va hayot jurnali. 2020. №1 (Maxsus son) – B.24.
4. Amirxo'jaev Sh.Q. Ijtimoiy tizimda oila institutida ijtimoiy madaniy jarayonlar transformatsiyasi. Falsafa va hayot. 2020. №1 (Maxsus son) – B.24.
5. A.Navoiy. Mahbub-ul qulub. T.: "Yangi asr avlodi". 1996. B.36
6. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2001. – 100 b
7. A.Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari /A.Fitrat – Toshkent: "Ma'naviyat", 2016. – 168 b.
8. A.Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari /A.Fitrat – Toshkent: "Ma'naviyat", 2016. – 25 b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Boymirzayev Qahramon Hasanboyevich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UDK: 101.1

ABU ABDULLOH RUDAKIY QARASHLARIDAGI ADOLAT G'OYASINI HOZIRGI ZAMONGA TRANSFORMATSIYALASH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Maqolada musulmon sharqidagi tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va ijtimoiy muhit, Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat talqinini o'rganishning ilmiy-metodologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, Abu Abdulloh Rudakiy qarashlaridagi adolat g'oyasini hozirgi zamonga transformatsiyalash istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: musulmon sharqi, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, axloqiy qarashlar, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, faoliyat, Abu Abdulloh Rudakiy, tarixiy-falsafiy tahlil.

Боймирзаев Кахрамон Хасанбоевич
Независимый исследователь Ферганского государственного университета

ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ИДЕИ СПРАВЕДЛИВОСТИ ВО ВЗГЛЯДАХ АБУ АБДУЛЛЫ РУДАКИ ДО НАСТОЯЩЕГО ВРЕМЕНИ

Аннотация: В статье рассматриваются исторические, социокультурные условия и социальная среда на мусульманском Востоке, научно-методологические основы изучения трактовки справедливости в нравственных воззрениях Абу Абдуллы Рудаки. Также проанализирован справедливый правитель и вопрос справедливости в моральных воззрениях Абу Абдуллы Рудаки.

Ключевые слова: Мусульманский Восток, исторические, социокультурные условия, социальная среда, нравственные взгляды, философия, справедливость, научно-методологические основы, деятельность, Абу Абдулла Рудаки, историко-философский анализ.

Boymirzayev Kakhramon Hasanboyevich
Independent researcher of Fergana State University

PROSPECTS OF TRANSFORMATION OF THE IDEA OF JUSTICE IN THE VIEWS OF ABU ABDULLAH RUDAKI TO THE PRESENT TIME

Abstract: The article examines the historical, socio-cultural conditions and social environment in the Muslim East, the scientific and methodological bases of studying the interpretation of justice in the moral views of Abu Abdullah Rudaki. Also, the just ruler and the question of justice in Abu Abdullah Rudaki's moral views were analyzed.

Key words: Muslim East, historical, socio-cultural conditions, social environment, moral views, philosophical, justice, scientific-methodological basis, activity, Abu Abdullah Rudaki, historical-philosophical analysis.

Kirish.

Abu Abdulloh Rudakiy ma'rifatli bo'lish, bu o'z-o'zini bilish hamdir, degan fikrni ilgari suradi. Faylasuf ta'limotiga ko'ra, insonning asosiy maqsadi komillikka erishish bo'lmog'i lozim. Bizning tushunishimizcha, faylasuf bu yerda insoning ilmiy-ma'naviy yetukligi uning abadiyligiga, o'lim va yo'qlikni yengishiga ishora etmoqda. Faylasuf-shoir "Men nafasla tor-mor etmoqchiman" deganda, bevosita ilmiy-ma'naviy yuksaklik, Allohni anglash holatlari nazarda tutilgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas.

Abu Abdulloh Rudakiy olamning sir-sinoatini bilishda, jumboqlar iskanjasini yengishda komillikni birinchi darajada qaraydi. U komil insonning xislatlarini odamlardan izlaydi, insonni o'zini anglashga, ya'ni buyukligini anglashga da'vat etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

IX-XI asrlarda Musulmon SHarqidagi tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va ijtimoiy muhit, Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat talqinini o'rganishning ilmiy-metodologik asoslari A.Ashraf (AQSH), K.Y.Bosvort (Angliya), Frantsua de

Blois (Frantsiya), Rypka (Niderlandiya), Dabashi, Hamid (AQSH), E.G.Braun (Angliya), R.M.CHopra (Hindiston), Sautgeyt, Minoo S. (Eron), A.Boboxonov, A.Zunnunov, N.Komilov, U.Mahkamov, U.Uvatov, SH.M.SHomuhamedov, R.Komilov, E.Yusupov, G.Navro'zova, O.Musurmonova, I.CHoriev, S.Nishonova, SH.Olimov, K.Y.Qilicheva, G.Izbullaeva, S.U.Xodjaniyazov kabi tadquqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Natijalar va muhokama.

Inson o'zini bo'lgani kabi ya'ni qanday bo'lsa shu holda, o'zini bo'yamay ko'rsatishga yetishish uchun o'z borlig'ini to'g'ri tasavvur etishi, insoniy mohiyatini tushunib yetishi lozim. Abu Abdulloh Rudakiy odamlarning ichki dunyosi uning tashqi qiyofasi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishiga urg'u berib, dil bilan til, qalb bilan qiyofa birligini saqlashga undaydi. Bu bilan mutafakkir insonni takabburlik va munofiqlikdan voz kechishga chaqiradi.

Agar inson o'zining kim ekanligini to'g'ri fahmlay bilmasa, turmushda o'zining har bir qadamini tahlil etib yashashdan o'z qolsa, uning dunyoni tushinishi amri maholdir. O'z holini anglamagan, qalbidagi kechgan botiniy tuyg'uni boshqara olmaydigan kishi o'zgalarni to'g'ri anglab, borliq mohiyati haqida haqqoniy fikr yuritishga qodir bo'la olmaydi. Inson o'zini to'g'ri tushunib, o'zining salbiy jihatlarini idrok eta olgandagina haqiqatga yaqinlashishi mumkin, haqqa yaqinlashmoq esa, inson borlig'ining azaliy murodlaridandir.

Inson o'z-o'zini anglagan holda borliqqa, o'ziga munosabatda bo'lishi Abu Abdulloh Rudakiy tomonidan ilgari surilib, uning komillikka erishishning asosiy bosqichi, deb qaraladi.

Abu Abdulloh Rudakiy inson tabiatini tahlil qilar ekan, uni doimo izlanuvchanlikka moyil ekani, uning bir on ham tinib-tinchimasligini ta'kidlaydi. Faylasufning yuqoridagi fikri, odamzod ham safardadir va o'z mohiyatiga erishmaguncha tinmay harakat qiladi, (agar shunday qilmasa) u o'zini ham tanimaydi, ham xulq bilan bezanib kamolot kasb etmaydi, degan fikriga nihoyatda yaqindir. Umuman, musulmon Sharqi mutafakkirlarining asarlarini ilmiy tahlil qiladigan bo'lsak, insonni o'z-o'zini anglashi, axloqiy va ma'naviy yuksakligi kamolotning bosh mezoni sifatida qaraladi.

Abu Abdulloh Rudakiy komil insonning hislatlarini yerdagi odamlardan izlaydi, insonni o'zini tanishga, buyukligini anglashga da'vat etadi. Uning ta'kidlashicha, insonda nafaqat ikki dunyoning asrori mujassam, balki u ikki dunyodan ulug'roqdir. Abu Abdulloh Rudakiy ilgari surgan g'oyada olamning yagona ruh tajalliysi orqali boshqarilishi, har bir zarrada shu mutlaq javharning zuhuri borligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston o'z oldiga yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yar ekan, bu maqsad yo'lida avvalo ma'rifatli avlod, komil insonlarni

tarbiyalash ustuvor vazifa qilib belgilanishi shubhasiz. O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, komil inson, barkamol va sog'lom avlod tarbiyasi butun jamiyatning bosh vazifasiga aylanmas ekan, bu maqsadni amalga oshirish mushkul bo'lib qolaveradi. Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda, davlatimiz, jamiyatimiz qurilishida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning ma'no-mohiyati sog'lom avlod tarbiyasi bilan uzviy bog'liq ekanligi ushbu sohalaridagi islohotlar ko'lamida ham o'z aksini topmoqda.

Jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat tsivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi komillik mezoni shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni baxt-saodatli qilishdan iborat bo'lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglatiradi. Inson kamolotida jismoniy va ma'naviy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Komillikning yana bir jihati vatanga, millatga, elu-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Ma'naviy barkamol, komil insonlargina insoniyat olamini asrab, uni jaholat botqog'idan olib chiqishi muqarrar ekanligini ilm-fan yana bir bor isbotlamoqda.

SHunday ekan, Abu Abdulloh Rudakiy insonning kamoloti haqida fikr bildirganda, insonning vujudidagi jismoniy, aqliy va ilohiy mohiyatning bir butun mavjudligi, uning komilligiga asos bo'lishini isbotlashga harakat qiladi. Insonni sevish, ruhni poklash, ta'lim-tarbiya kabi axloqiy tushunchalar inson kamolotining mezoni sifatida qaraladi. Abu Abdulloh Rudakiy dunyoqarashidagi axloqiy qadriyatlar umumlashgan holda komil insonni aks ettiradi.

Xullas, Abu Abdulloh Rudakiyning komil inson to'g'risidagi g'oyalarini umumlashtirib, quyidagi xulosani ilgari surish mumkin:

Birinchi, insonning o'zligini anglashi, o'zini boricha yo ko'rsatgani kabi bo'lishi yoki bo'lgani kabi ko'rsatishi insonning kamoloti yo'lidagi dastlabki qadamdir.

Ikkinchi, insonning jismoniy, aqliy va ruhiy mohiyatining uyg'unligi inson kamolotini ta'minlovchi asosiy omillardir. Chunki jismonan sog'lom va baquvvat, aqlan yetuk va barkamol, mustaqil dunyoqarashga ega, ijtimoiy munosabatlarda faol, shuningdek, ma'naviy - ruhiy jihatdan kamol topgan, e'tiqodi mustahkam, yot va buzg'unchi g'oyalarga qarshi turib, insoniyat taraqqiyoti, ma'naviy kamoloti uchun o'zini mas'uliyatli his etish, bizning nazarimizcha, Rudakiy ilgari surgan komil inson qiyofasining asosiy namunasidir.

Uchinchi, faylasuf - shoir Abu Abdulloh Rudakiy ilgari surgan ma'rifatli inson g'oyasi insonni komillik sari intilishida, yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda hozirgi vaqtda ham o'z tarbiyaviy kuchini yo'qotmagan o'lmas ezgu g'oyadir. Bu g'oya jamiyatda, kishilararo munosabatda ro'y berayotgan salbiy illatlar va odamiylikka zid hatti - harakatlarga qarshi

kurashda, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarni birlik va hamjihat bo'lib yashashida, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirishda asqotadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida, keng qamrovli islohotlar jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyatda farovon turmush tarzini yaratish masalalari kun tartibida turgan vaziyatda diniylik va dunyoviylik munosabatlarini tartibga solish ham muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada din va dunyoviylik, din va ilm, din va axloq uyg'unligini yaratish va ijtimoiy dunyoqarashga ularning ahamiyatini to'g'ri tushuntirib beradigan tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi o'tmish ta'limidan farqli o'laroq, axborotlarni berish va aqliy qobiliyatni mashq qildirishdangina iborat emas, u hayot uchun zarur bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarni shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Zero, "dunyoda turli ko'rinishlarga ega dinlar mavjud. Avvalo, ularni haqli va farqli ravishda ilohiy va ilohiy bo'lmagan dinlarga ajratiladi. Bu e'tiqodlar tadqiq etilgan vaqtda insonlarning turli zamonlarda turli narsalarga ko'ngil qo'yganini, XX asrning insoniga qarab ularning g'alati e'tiqodlar ichida yashayotganini guvohi bo'lamiz. Masalan, ho'kizga topinishadi. ... misrliklar topinishgan, hindlar hozir ham topinishadi. Qadimgi eronliklar quyoshga sig'inishgan. Yaponlar hozir ham sig'inadilar. Texnologiyada shu qadar taraqqiy etgan yaponlar... imperatorlari quyoshning o'g'li emish... Bulardan tashqari, qahramonlarini ilohiylashtiradiganlar, o'z qo'llari bilan yasagan yog'ochlariga, toshlarga, tog'larga, ayrim yulduzlarga sig'inadiganlar ham bor". Demak, har bir jamiyatda bir e'tiqod tizimi bor. SHuningdek, bu e'tiqodda o'sha jamiyatning axloqi va ilmi namoyon bo'ladi. Jamiyatning ilmi rivojlangan bo'lsa, axloqi go'zal bo'lsa, dini ham shunga monand bo'ladi. Hech bir zamon dini yomon, axloqi va ilmi yaxshi jamiyatlar yoki xalqlar bo'lmaydi yoki aksincha. SHu bois din, axloq va ilm barcha jamiyatlarda bir hil darajada rivojlanadi. "Barcha e'tiqodli odamlorni sof, haqiqiy e'tiqodli kishilar deya olmaymiz CHunki ishonch-e'tiqodning shakli emas, sifati muhimdir. Har ishda shunday... Masalan, XX asrning odami oqillikni yoqtiradi, unga hurmat-ehtirom bildiradi, olqishlaydi. Aql hurmatga loyiq bir borliqdir. Lekin yer yuzida qancha inson bo'lsa hammasida aql bor, ammo hammaning harakati ham go'zal harakat emas". Demak, ilmi va axloqi yuksak insonning ishonch-e'tiqodi ham yuzaki emas, qalban mustahkam bo'ladi.

Bugungi islom dunyosida ilmiy faoliyat erkinligini yaratish, tolerant gnoseologik-teologik qarashlar muhitini shakllantirish bilan birga islomiy va dunyoviy ilmlarni o'rganish va o'rgatish metodologiyasini yangilash dolzarb vazifalardan biridir. Zero, "musulmon dunyosi taraqqiyotida ulkan rol o'ynagan xalqimiz mentalitetining asosini tom ma'noda bag'rikenglik, olijanoblik va ezgulik

kabi fazilatlar tashkil etadi". Zamonaviy islom olamida diniy ilmlarni qadrlash, dunyoviy ilmlarni, ilm-fan yangiliklarini ham inkor etish holatlari kuchayayotgan vaziyatda ilmiy muhitda tolerantlikni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. O'rta asrlarga xos bag'rikenglik muhitini gnoseologik va teologik izlanishlarga olib kirish islom dunyosining yuksak taraqqiy etgan jamiyatlardan biriga aylantiruvchi omil hisoblanadi. Tadqiqotchi-olim T.Karim fikriga ko'ra, kishilarning dunyoga munosabatlari mazmunan to'rt xilda namoyon bo'ladi: 1) diniy mutaassiblik; 2) diniy bag'rikenglik; 3) dunyoviylik; 4) dahriylik. SHu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlash joizki, dunyoviylik bag'rikenglik tushunchasini ham o'z ichiga qamrab olishini hisobga olsak, bizning nazarimizda, kishilarning dunyoga munosabatlarini uchga bo'lish mumkin. Bular dunyoviylik, diniy mutassiblik va dahriylikdir. Ulardan qaysi biri jamiyatda yetakchi mavqeni egallashi diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, jamiyatda diniy mutaassiblik hukmron bo'lganida, har qanday dunyoviy tamoyillar inkor etiladi. SHu bilan birga, dahriylik ham dinni jamiyat uchun afyun deb hisoblashini boshimizdan o'tkazdik. Dunyoviy demokratik qadriyat va tamoyillarga asoslangan jamiyatlarda bag'rikenglikning har qanday shakli, jumladan diniy bag'rikenglik ham muhim qadriyat sifatida ta'minlanadi.

Islom dini kirib borgan o'lkalarda kishilar xulq-atvorida soddalik, muloyimlik, vatanparvarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi insoniy fazilatlarining yuqori cho'qqiga ko'tarilgani va shu asosda ilm-fan taraqqiy etib, insonlar hayoti farovon bo'lib, jamiyatda osudalik va barqarorlik ustuvor bo'lganini ko'rish mumkin. CHunki o'rta asr SHaqr allomalarining gnoseologik va teologik qarashlari asosida islom aqidalari orqali insonlar hayotini osonlashtirish, muhtojlarga yordam berish, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, halollik va poklikka targ'ib qilish yuksak darajada tahlil qilingan va ijtimoiy muhitga ularning ta'siri kuchli bo'lgan. Jumladan, Muoz ibn Jabalni Yamanga yuborayotganlarida unga nasihat qilib, "Osonlashtiring, og'irlashtirmang. Xushxabar bering, nafratlantirmang. O'zaro yordam bering va ixtilof qilmang", - deganlar (Imom Buxoriy rivoyati). SHunga o'xshash boshqa bir fikrni Abu Homid G'azzoliy bildiradi. Uningcha, "ilm go'yo badan holatiga o'xshaydi. Tanada ham sog'lik va chiroy kabi ozi ham, ko'pi ham foydali bo'lgan holatlar bor. Xunuklik va yomon xulq kabi ko'pi ham, ozi ham mazmum bo'lganlari mavjud. Yana esa, mol sarflashdagi kabi iqtisod qilinganda mahmud sanaladigan holatlar bor. CHunki mol sarflashda isrof qilish mahmud emas, iqtisod bilan me'yorida bo'lgani mahmud, ziyodasi mazmumdir. Ilm ham shunga o'xshash. Uning bir turi borki, ozi ham, ko'pi ham mazmum qilingan. Unday ilmdan din va sehr, tilsimot kabi ilmlar misol bo'ladi. Inson tasarruvidagi qimmatbaho umrni bunday foydasiz

amallarga sarflash isrofdir. Isrof esa, mazammam etiladi. Ammo shunday ilmlar borki, dunyoviy ehtiyojlarni qondirish uchun ular ziyoda qilinadi, bu esa, alal-oqibat zararga olib olib boradi". Bundan ham ko'rinadiki, islom dini insonlar turmushini yengillashtirish va turli mashaqqatlardan xalos etib, o'zaro totuv hayot kechirishga chorlashdir.

Biroq bugungi kunda ayrim shaxslar tomonidan islomiy aqidalarni o'zicha talqin qilish, dinni o'zi uchun qiyin qilib olish va o'zgalarga ham mashaqqatli ko'rsatishga harakatlar kuzatilmoqda. Jumladan, musulmonlar hayotini og'irlashtirishga sabab bo'luvchi fatvolar berish, aslida muboh, ya'ni halol sanalgan narsalarni makruh yoki haromga chiqarish holatlari uchrab turibdi. SHuningdek, ba'zi musulmonlar islom hukmlarini tushunishda mutaassibona qarashlarni yoqlab, diniy ko'rsatmalarni tushunish va ularga amal qilishda ixtilof chiqarib, o'z fikrini dindagi eng to'g'ri va yagona islomiy qarash sanab, o'zgacha dunyoqarashdagi insonlarga nisbatan keskin munosabatda bo'lmoqdalar. Natijada, insonlar o'rtasida o'zaro nifoq, bir-biriga nisbatan adovat qilish, mayda masalalarni global diniy muammo qilib ko'rsatish, oqibatda, musulmon jamiyatlarida ichki nizolarning avj olishi, parkandalik, bo'linish va beqapror vaziyatning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Mana

shunday holatlar asosida zamonaviy ilohiyotshunoslikning sust rivojlanayotganligini, islom ma'rifatining yuzaki qabul qilinayotganligi ko'rinib qolmoqda. SHu bois ham bugun o'rta asrSHarq allomalarining gnoseologik qarashlarini o'rganish va shu bilan birga islom ilohiyotshunosligi bilan chuqurroq tanishi va keng islomiy dunyoqarashni shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Xulosa.

Rudakiy olijanoblik g'oyasida insoniylik, nafsni tiyish, yuksak axloq odob qarashlarini xam ilari suradi. Xullas, Rudakiyning dunyoqarashida karam, ehson, mehurmuruvvat, tavoze', kamtarlik, nafsni jilovlash, xayrli ishlar, adab, solih amallar bir-biriga bog'liq tushunchalar sifatida talqin qilinadi, bir-birini to'ldiradi, ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi. Ushbu axloqiy qadriyatlarining hammasi birlashib, insonparvarlikni tashkil qiladi. Ular insonni komil inson qilib tarbiyalashda, baxtli, saodatli bo'lib yetishishida muhim asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Rudakiy ijodi o'z zamonasining falsafiy g'oyalari bilan sug'orilgan fikrlarini bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi uchun juda zarur dasturamal sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Доктор Халил Рахбар "Рудаки", Техрон, 1354, - Б-55
2. Абдурахмон Рафъат Пошо. Тобеъинлар ҳаёти. (Нашрга тайёрловчилар Бобомурод Эрали, Баҳодир Карим) –Тошкент.: Шарқ, 2018. –Б. 384.
3. Жиход Ат-Турбоний. Ислom умматининг 100 буюк шахси. Тарж: Шокир Долимов, Хурсанд Аҳмедов. Istanbul.: Furkan. 2020. –Б. 680.
4. Илмдан бошқа нажот йўқ. А.Ф.Абдуллаев. –Тошкент.: Тошкент ислом университети, 2017. –Б. 156
5. Имом Зарнужий. Илм олиш сирлари. Тарж. З.Шарипов –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. –Б. 144.
6. Саржоний, Доктор Роғиб. Ислom ва олам. –Тошкент.: Имом Бухорий халқаро маркази. 2018. –Б. 144.
7. Мирзаев А.М. Рудакий. Москва.: Наука. 1968. Б-187
8. Мухаммад Садик Хумаюнфар, Рудаки. Техрон,1338, Б-34
9. Мухаббат тароналари. Рубоийлар (Форс-тожик тилидан Э.Очилов таржималари). – Т, 2005. Б-35
10. Нафиси С., Ахвал ва аш'аре Абу Абдаллах-Джафар... Рудаки, т. 1-3, Техрон, 1310-19. Б-28. Рудакий. – Тошкент, 1957. Б-35

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mannapov Sultanbek

Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti professori
orcid ID: 0009-0001-6714-9091

UDK: 101.1

YANGI O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUSIQIY MEROS NAMUNALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda musiqiy meros omilini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirishda musiqiy meros namunalaridan foydalanish imkoniyatlari, Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida musiqiy meros omilining istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirishda musiqiy meros namunalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ma'naviy tarbiya, musiqiy meros, ijtimoiy-falsafiy omil, tarbiya, dinamika, uyg'unlashtirish, ijtimoiy davlat, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos, taraqqiyot, ijtimoiy qadriyat, madaniyat konteksti.

Маннапов Султанбек

Ферганский государственный университет
Профессор факультета педагогики-психологии и искусствоведения

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИМЕРОВ МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье рассмотрены теоретико-методологические основы социально-философского исследования фактора музыкального наследия в реализации непрерывного духовного образования в Новом Узбекистане, возможности использования примеров музыкального наследия для повышения эффективности системы непрерывного духовного образования, будущие задачи фактора музыкального наследия в процессе непрерывного духовного образования изучаются. Также анализируются социально-философские и концептуальные аспекты системы непрерывного духовного образования.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida korrupsiyaga qarshi kurash yangi bosqichga olib chiqildi. Ayniqsa, O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida korrupsiyaga qarshi murosasizlikni shakllantirish, davlat miqiyosida kuchli kurash mexanizmlarini yaratish, jamiyatda jamoatchilik monitoringini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Zero,

«yangi O'zbekiston strategiyasi korrupsiyadan holi mamlakat barpo etishni nazarda tutadi. Ushbu maqsad bugun butun jamiyatimizni jipslashtiruvchi omilga aylanmoqda. Korrupsiya balosini jamiyatimiz hayotidan yo'q qilishga qaratilgan siyosat kelgusida ham qat'iy davom ettiriladi»³⁰.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

«Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur.»³¹ Shuningdek, korrupsiyaviy munosabatlarning ochiq-oydin tan olinishi, xalqaro tashkilotlar tomonidan baholangan vaziyatni to'g'rilash uchun davlat siyosati darajasida chora-tadbirlarning belgilanayotganligi e'tirofqa sazovordir. Jumladan, «Bu borada Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reestri»ning yuritilishi, «Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilinishi olib borayotgan sa'y-harakatlarimizning samarasini oshirishga xizmat qiladi. «Korrupsiyani qabul qilish indeksi» reytingida mamlakatimizning egallayotgan o'rinlari bu boradagi harakatlarimizni baholovchi asosiy ko'rsatkichlar sirasiga kiradi»³². Bu esa, korrupsion xavfsizlikni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish, qanday kurash usullarini ishlab chiqish, jazolash mexanizmlarini yaratish borasida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.³³

Buyuk sohibqron bobomiz Amir Temur ta'kidlaganlaridek, «qayerdagi qonun hukmronlik qilar ekan, o'sha joyda erkinlik bo'ladi». Korrupsiya jinoyati esa qonunlarning ustuvorligini inkor etishga, ularni buzishga, aylanib o'tishga olib keladigan illatdir³⁴. Buyuk ajdodlarimiz ijodida ta'lim-tarbiya masalalariga

bag'ishlangan ko'plab nodir asarlar va ta'limotlarni ko'rishimiz mumkin. Ana shunday sharqona axloq kodeksini yaratgan mutafakkirlardan biri Husayn Voiz Koshifiydir. Koshifiy ijodiga mansub «Axloqi Muhsiniy» asarining har bir bobida muayyan insoniy fazilatlarining mohiyati ochib berilgan. Asarning 40-bobi «Mulozimlar tarbiyati va odobi bayonida» deb nomlanib, poraxo'rlikning oqibatlarini keltirib o'tilgan. «Vazir ish yurituvchi amaldorlardan pora olishdan ehtiyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergan bo'ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi. Bunday zabunlikka vazir munosib emas»³⁵.

“OAVda korrupsiya muammosi” metodikasi

Bu metodikani o'tkazish tartibi quyidagicha: OTM tashkilotida korrupsiyaga qarshi bir oyda bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurash kunini e'lon qilinishi va ushbu fikrlar yuzasidan ilmiy amaliy anjuman uchun manbalarni yig'ib borilishi kerak. Inson ma'naviyatiga ta'sir etuvchi eng katta kuchlardan biri bu OAV vositalari bo'lib bu orqali jamiyatda mafkuraviy tizimni yangilashda va korrupsion holatlarning oldini olishda foydalanishimiz mumkin.

Biz tavsiya etgan metodikadan foydalansak, jamiyatdagi ijtimoiy ongning o'zgarishiga erisha olamiz. Agar biz korrupsiyaga oid muammolarni talabalar o'rtasida muammo sifatida qo'ysak, va bu muammoga oid mulohazali, ilmiy fikrlarni OAV vositalari orqali targ'ib etsak, jamiyatda korrupsion holatlarni oldini olish imkonini yaratgan bo'lar edik. OTM muassasalarida talabalar orasida korrupsion holatlarni oldini olish korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Natijalar

Korrupsiyaga qarshi rejim deganda korrupsiyaning oldini olish, aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortishga oid huquqiy islohotlar, ularni amalga oshirish yetarli emas. Korrupsiya tobora umumiy xarakterga ega bo'lganligi sababli, ayrim mamlakatlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish harakatlarini ko'paytirish kerak.³⁶

Biz ushbu metodikamizning tadbiri uchun Farg'ona davlat universiteti talabalaridan respondent sifatida foydalandik va quyidagicha natijaga erishdik.

³⁰Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 428-430 b.

³¹ Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston. 2016. – 10 b.

³²Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 433 b

³³ M.B. Бекмуродов, ю.ф.д., X.C. Хайитов, А.Ю. Умаров, X.C. Хайитов, Ф.Б. Махмудов, X.T. Азизов, А.Э. Бурханов, X.C. Хайитов, Б.И. Исмаилов, О.Т. Хусанов, Т.Б. Матибоев, Ш.Ж. Хайдаров, Ш.Ф. Асадов, Г.С. Исмаилова, А.Э. Юлдашев, Д.К. Якубов, С.С. Маманов, А.Намозбоев, Б.Х.Рахмонов, М.Р. Расулов, М.Р. Расулов, Ф.Б. Махмудов, Л.У. Инагамова, Н.К. Самандарова, Д.М.

Бекчанов. Korrupsiyaga qarshi kurashish. // Darslik. –T.: Akademiya. 2022. – 41 b

³⁴ Akhatov, L.K., Rasulov, A.N., Mirzorakhimov, O.K., Sharipov, M.L., & Ibrokhimov, F.A. (2020). The Outlookings of Religious and Sufism in Teaching of Abdurakhman Jami. Journal of Critical Reviews, 7(17), 112-116.


³⁵ Кошанова, Н. М. (2020). Оила ва мураббий манфаатли ҳамкорлигининг таълим сифатини оширишдаги аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 32-41.

³⁶ <https://www.state.gov/combatting-corruption-and-promoting-good-governance/>

No	Kurs	O'zlashtirish ko'rsatkichi	“OAVda korrupsiya muammosi” metodikasi qo'llangandan keyingi ko'rsatkich
1	1-kurs	89 %	97 %

2	2-kurs	85 %	92 %
3	3-kurs	83 %	93 %

Ushbu jadvalni diagrammada quyidagicha ifodaladik.



Muhokama

«Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun «davlat organlarining davlat xizmatchilari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi»³⁷ kerakligi aniq belgilangan. Bu esa, davlat organlari davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar faoliyatini tartibga solish zaruratini ham keltirib chiqaradi. Unga ko'ra, mansabdor shaxslarni turli sohalarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini cheklash, yoki yaqin qarindoshlarini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga doir aniq qoidalarni ham ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur qonunga ko'ra, davlat organlari davlat xizmatchilari yoki mansabdor shaxslar faoliyatida «manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, bevosita rahbari darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart»ligi belgilangan bo'lsada, bu qoida bajarilmaganda qanday huquqbuzarliklar sodir bo'lishi, qanday jazo qo'llanishi aniq belgilab qo'yilmagan. Shuning uchun korrupsiya xavfsizligini shakllantirishda manfaatlar to'qnashuvi holati kuzatilishi mansabdor shaxs faoliyatini so'roq ostida qoldiradigan darajada munosabatga tortilsa, jamoatchilik monitoringini bunday holatlarda yuqori mas'uliyat bilan ishlasa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Har bir sohadagi manfaatlar to'qnashuvi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning

siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquqi, erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi³⁸.

Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasini quyidagicha tariflash mumkin. Davlat tashkiloti xodimining, uning yaqin qarindoshlarining va unga aloqador shaxslarning shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolarning, tashkilotning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi) vaziyatga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi ishlatiladi. Demak, manfaatlar to'qnashuvi deganda shaxsiy manfaatdorlik tashkilot xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat tushuniladi.

Iqtisodiy erkinlik, iqtisodiy demokratiya to'g'risida gap ketgan zahoti AQShlik siyosatshunos Robert Dalni esga olishadi va uning «plyuralistik demokratiya» g'oyasiga murojaat qilishadi. Uning ilmiy g'oyasiga ko'ra, tenglik har doim erkinlikka, iqtisodiy demokratiya har doim siyosiy demokratiyaning rivojlanishiga olib kelavermaydi. Sanoatning rivojlanishi, mulkiy plyuralizmning rang-baranglashuvi «siyosiy hayotda foydalanadigan resurslarga teng ega bo'lmagan fuqarolar

³⁷O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni. 2017. 4 yanvar// <http://parlament.gov.uz/uz/laws/adopted/253/19165>

³⁸B.I. Ismailov, I.I. Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari // O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2021. 242-b

korrupsiyani shakllanishiga olib keldi»³⁹. Siyosiy hayotda faol qatnashishini ta'minlaydigan resurslarga (mulkka, mavqega va b.) ega bo'lmalik kishilarning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'sirini susaytiradi, hatto siyosiy demokratiyani fiksiyaga aylantiradi. Bu o'rinda AQSh prezidentligiga, mer lavozimlariga mudom yirik mulk egalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuqori mavqega ega bo'lgan shaxslar da'vogar bo'lib kelganini eslash o'rindir. Demak, iqtisodiy demokratiya hamma vaqt ham siyosiy demokratiyaga xizmat qilavermas va jamiyatda tenglik, adolat tamoyillarining qaror topishiga xizmat qilavermas ekan.

Xulosa

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi rahbari A.Burxonov fikricha, «so'nggi yillarda davlat organlari faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta'minlash mexanizmlari, shuningdek, jamoatchilik nazorati institutlari tubdan takomillashtirildi. Raqamli va onlayn texnologiyalarning keng qo'llanilishi davlat organlarining jamiyat oldidagi hisobdorligini oshirdi. Yer uchastkalari va davlat aktivlarini, shuningdek, avtotransport vositalari uchun davlat raqam belgilarini onlayn auksionda sotish tizimi yo'lga qo'yildi hamda doimiy takomillashtirilib borilmoqda»⁴⁰. Mana shunday tashkiliy masalalarni yangicha munosabat asosida hal etilishi ham jamiyatda korrupsiyaviy munosabatlarga bo'lgan fikrlash tarzini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga davlat xizmatlarini raqamlashtirilishi va inson omilini chiqarib tashlanishi ham o'z samarasini ko'rsata boshladi.

Korrupsiyaviy munosabatlarning asosiy sababi va o'ziga xos xususiyati uning xufyoni va munosabatga kirishuvchi har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lishi bilan belgilanadi. Ya'ni, korrupsiya jinoyati bu munosabatga kirishgan tomonlarni o'zaro manfaatli kelishiuvchi asosida sodir etiladi. Shuning uchun ko'p holatlarda tegishli kurashuvchi organlarga shikoyat qilinmaydi. Shu bilan birga bugungi kunda ko'p davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ishonchsizlik shakllanib qolganligi uchun ham pora so'rash holatlariga tegishli oranlarga shikoyat qilinmaydi. O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarasizligi, kurashuvchi tizimlarning ham korrupsiyaviy munosabatlar botqog'iga botib qolganligi va ko'p hollarda shikoyatlarning natijasiz va pora talab qiluvchilarning jazosiz qolib ketishi ortidan kuchli ishonchsizlik shakllanib qolgan va bu uzoq yillar davomida odatga ham aylanib qolgan edi. Xalqda korrupsiyaviy munosabatlarga shunchaki odat sifatida qarash, ma'lum bir muassasa xodimiga «uni ham bola-chaqasi bor» tamoyili asosida o'zi talab qilmasa ham «abedlik» berib chiqish odati shakllanib qolgan edi. So'ngi yillarda davlat organlari faoliyatini isloh qilinishi, uni xalqqa yaqinlashtirilishi va inson manfaatlari uchun ishlash prinsipining qat'iy lashtirilishi ham bu odatlarni yo'qotish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichga olib chiqilishi, davlat amaldorlari va davlat xizmati xodimlarining jazoga tortilishining boshlanishi ortidan bu holatlarga sekin-astalik bilan chek qo'yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 428-430 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston. 2016. – 10 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 433 b
4. M.B. Bekmurodov, yu.f.d., X.S. Xayitov, A.Y. Umarov, X.S. Xayitov, F.B. Maxmudov, X.T. Azizov, A.E. Burxonov, X.S. Xayitov, B.I. Ismailov, O.T. Xusanov, T.B. Matiboyev, Sh.J. Haydarov, Sh.G'. Asadov, G.S. Ismailova, A.E. Yuldashev, D.K. Yakubov, S.S. Mamanov, A.Namozboyev, B.X.Raxmonov, M.R. Rasulov, M.R. Rasulov, F.B. Maxmudov, L.U. Inagamova, N.K. Samandarova, D.M. Bekchanov. Korrupsiyaga qarshi kurashish. // Darslik. –T.: Akademiya. 2022. – 41 b
5. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni. 2017. 4yanvar// <http://parlament.gov.uz/uz/laws/adopted/253/19165>
6. Dal R. Vvedenie v ekonomicheskuyu demokratiyu. Per. s angl. –M.: Nauka; SP IKPA, 1991. 15 s.
7. B.I. Ismailov, I.I. Nasriyev Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari // O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2021. 242-b
8. Korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy birdamlikni talab etadi. <https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/04/06/2021>. 6 aprel.
9. <https://www.state.gov/combating-corruption-and-promoting-good-governance/>
10. Akhatov, L.K., Rasulov, A.N., Mirzorakhimov, O.K., Sharipov, M.L., & Ibrokhimov, F.A. (2020). The Outlookings of Religious and Sufism in Teaching of Abdurakhman Jami. *Journal of Critical Reviews*, 7(17), 112-116.
11. Кошанова, Н. М. (2020). Оила ва мураббий манфаатли ҳамкорлигининг таълим сифатини оширишдаги аҳамияти. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 32-41.

³⁹Dal R. Vvedenie v ekonomicheskuyu demokratiyu. Per. s angl. –M.: Nauka; SP IKPA, 1991. 15 s.

⁴⁰Korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy birdamlikni talab etadi. <https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/04/06/2021>. 6 aprel.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Toshov Xurshid Ilxomovich

O'zMU Falsafa va mantiq kafedrası
doktaranti (DSc), dotsent
E-mail: sujдиниya@mail.ru

UDK 1-278.096

MANIPULYATSIYA TUZULMASIDA TA'SIR ELEMENTINING NAMOYON BO'LIH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ma'lumki, ongni manipulyatsiyalash fenomeni o'zida murakkab tuzulmaviy yaxlitlikni namoyon qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada ongnii manipulyatsiyalash fenomenining tuzulmasida muhim o'rin tutuvchi ta'sir ko'rsatish elementi tahlil qilinadi. Bunda, ayni elementning kategoriya sifatidagi mazmunini ochib berishga diqqat qaratiladi. Qolaversa, ayni elementning tuzulmadagi boshqa unsurlar bilan o'zaro aloqador jihatlari tadqiqiga alohida urg'u beriladi. Bundan tashqari, ta'sir ko'rsatishning psixologik, kommunikativ hamda manipulyativ jihatlari mavjud yondashuvlar metodologiyalari tahlili asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Ta'sir, kommunikativ strategiya, manipulyatsiya, yashirin ta'sir, nazorat, manipulyativ strategiyalar, xulq-atvor, kognitiv tuzulma, hissiyotlar.

Toshov Xurshid Ilxomovich

Докторант кафедры
Философия и логика НУУз, доцент

Аннотация. Известно, что феномен манипулирования сознанием демонстрирует сложную структурную целостность. Исходя из этого, в данной статье анализируется элемент воздействия, который играет важную роль в структуре феномена манипулирования сознанием. В этом случае основное внимание уделяется раскрытию содержания того же элемента, что и категория. При этом особый акцент делается на исследовании аспектов взаимодействия одного и того же элемента с другими элементами конструкции. Кроме того, на основе анализа существующих методологий подходов раскрываются психологический, коммуникативный и манипулятивный аспекты воздействия.

Ключевые слова. Влияние, коммуникативная стратегия, манипуляция, скрытое влияние, контроль, манипулятивные стратегии, поведение, когнитивная структура, эмоции.

Toshov Khurshid Ilxomovich

Postdoctoral student (DSc) of the Department
of Philosophy and Logic of the
National University of Uzbekistan, dotsent

Annotation. It is known that the phenomenon of mind manipulation shows a complex structural integrity. Based on this, this article analyzes the element of influence, which plays an important role in the structure of the phenomenon of mind manipulation. In this case, the focus is on revealing the content of the same element as a category. In addition, special emphasis is placed on the research of the aspects of interaction of the same element with other elements in the structure. In addition, the psychological, communicative, and manipulative aspects of influence are revealed based on the analysis of existing approaches methodologies.

Key words. Influence, communicative strategy, manipulation, covert influence, control, manipulative strategies, behavior, cognitive structure, emotions.

Kirish

Manipulyatsiya fenomeni jamiyat hayotining turli sohalarida keng qo'llanilganligi bois uni tushunish borasidagi metodologik yondashuvlarda ham xilma-xil omillar diterminand qilib olinadi. Jumladan, siyosiy

komunikatsiya jarayonlari nuqtai nazaridan manipulyatsiya yumshoq boshqaruv kuchi sifatida tushuntirilsa, psixologik konsepsiyalarda yashirin psixologik ta'sir o'laroq talqin etiladi. Sotsiologik nazariyalarda esa, ko'pincha, ijtimoiy munosabatlar

jarayonida ro'y beradigan kommunikatsiyaning elementi deya tushuntiriladi.

Bundan tashqari, ongni manipulyatsiyalash fenomenini tadqiq qilish texnikasi va mexanizmlariga ko'ra ham u turli pozitsiyalardan turib ta'riflanishi mumkin. xususan, individual yoki, ommaviylik singari kommunikativ miqyosidan qat'iy nazar, nutqiy aktlardan foydalanib amalga oshiriladigan manipulyatsiya shakllari tahlilida u til vositalari yordamida tushuntiriladi. Soddarok qilib aytganda, ayni nuqtai nazardan, manipulyatsiya lingvistik hodisa sifatida tushuntiriladi. Muhimi shundaki, nutqiy yoki, til manipulyatsiyasi eng qadimiy shakllardan sanalganligi tufayli mazkur fenomenni ayni nuqtai nazardan turib tushuntirishga intiladigan konsepsiyalar ham miqdoran birmuncha ko'p hisoblanadi.

Shuningdek, ongni manipulyatsiyalashda mantiqiy xatolar va sofizmlar texnikasidan foydalanishni samarador sanaydigan yondashuvlar ham keng tarqalgan bo'lib, bunday konsepsiyalar tilshunoslik hamda mantiq sohalarining kesimida shakllangan. Ayni yo'nalishdagi konsepsiyalarda inson ongining kognitiv tuzulmasidagi ratsional jihatlarini nishonga olish manipulyatsiya muvaffaqiyatining garovi ekanligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, argumentlash nazariyasi, retorika kabi sohalarida manipulyatsiya tuzulmasining ratsional elementlariga alohida diqqat qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili

Ongni manipulyatsiyalash fenomeni qadim sivilizatsiyalar davrlaridan buyon mutafakkirlar va olimlar diqqatini tortib kelayotgan hodisa sanaladi. U kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridanoq mifologik, falsafiy hamda siyosiy muhokamalar markazida bo'lib kelgan jumladan, Qadimgi Xitoy manbalarida boshqaruv san'atining ajralmas elementi sifatida talqin etilgan. Qadimgi Hind manbalarida ham ayyorlik ko'rinishida tanqidiy ko'rib chiqilgan, qadimgi Yunon mifologiyasida Germes mabudi ayyorlik timsoli sanalgan. Keyinchalik esa, sofistlar maktabi, hamda notiqlik san'ati doirasida shakllangan muvoffaqiyatli va ishonarli nutq qurish texnikasi borasidagi qarashlar ham manipulyativ ta'sir usullarining takomillashishi uchun muayyan nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Ongni manipulyatsiya qilish fenomeni sohalararo tadqiqod predmeti sanalib, u falsafa, psixologiya, sotsiologiya, lingvistika, siyosiy fanlar, singari yo'nalishlarda keng o'rganiladi. Ayni fenomen yaxlit holda to'laligicha o'rganilmagan bo'lsada, uning ayrim jihatlari yuqoridagi tadqiqod sohalar nuqtai nazardan muayyan darajada tahlil etilgan. Jumladan, E Shostroma [1], K.Xorni [2] izlanishlarida manipulyatsiya ob'ekti va sub'ekti o'rtasidagi psixologik farqlar ochib berilgan bo'lsa, Ye.L.Dotsenko [3] ishlarida manipulyatsiya fenomenini tushuntirishga qaratilgan yondashuvlar natijalari hamda ularning psixologik jihatlari sintizlanadi. G. Tard, G.

Lebon, S. Moskovich, S. Sigele, V. M Bexterev, Z. Freyd, K. G.Yung asarlarida individual va ommaviy ongga ta'sir ko'rsatish usullarining o'ziga xos xususiyatlari tahliliga diqqat qaratiladi. F. Zimbardo, M. Lyayppe, D. Mayers, E. Aronson, E.R.Pratkanis izlanishlarida esa, shaxs kognitiv tuzulmasiga ijtimoiy ta'sir ko'rsatish jarayonlarining alohida aspektlari tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Manipulyatsiya fenomenining kategorial tuzulmasini aniqroq tasavvur qilish uchun eng avvalo uning muhim belgilaridan sanaluvchi psixologik ta'sir tushunchasining mazmun mohiyatini ko'rib chiqish taqazolanadi. Ayni kategoriya amaliy psixologiya sohasiga oid asosiy tushuncha bo'lsada, uning mohiyati va uni tasvirlash apparati borasida umume'tirof etilgan yakdil yondashuv mavjud emas. Agar ta'sir xususan, psixologik ta'sir kategoriyasining mazmuni ochib berilgan izohli lug'atlarga murojaat qilinsa, (biror narsaga erishish maqsadida muayyan kishiga yo'naltirilgan harakat» [4],- degan ko'rinishdagi javobni topish mumkin. Odatda amaliyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, psixologik ta'sir ko'rsatishdan avval muayyan maqsad qo'yilmagan hollarda ham u ko'pincha, ta'sir ko'rsatuvchi tomon foydasiga ishlaydi.

Kovalevning ta'sir tushunchasi mohiyatini ochib berishga qaratilgan mulohazalari bu borada birmuncha qiziqish uyg'otadi. Ta'sir deganda u (ikki yoki undan ortiq teng tartiblangan tizimlarning o'zaro munosabati va uning natijasida ulardan hech bo'lmaganda bittasining tuzulmasi, jumladan, makoniy va zamoniyl xususiyatlari va holatida ro'y beradigan o'zgarish jarayonini» [5],- tushunadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish jooizki, ayni vaziyatda qo'llanilgan kategorial apparat tushunchaning mohiyatini ochib berishdan ko'ra, uning mazmunini tushunish bilan bog'liq murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, teng tartiblanganlik tushunchasining qanday ma'noda qo'llanilganligi va teng tartiblangan tizimlar deganda alohida shaxs yoki, kishilar guruhi tushunilishi masalasi ochiq qolmoqda. Ayni kateooriyalar mazmunining ochib berilmaganligi tufayli psixologik ta'sirning nisbatan tor sinflarga kiruvchi turlariga oid alohida belgilarini ham qamrab olgan holda ta'riflash imkonini bermaydi. Inson doimo tashqi omillarning psixologik ta'sirini boshdan kechiradi, chunki har qanday tashqi ta'sir ma'lum bir qiymatga erishib, tegishli analizatorida ma'lum bir reaksiyani keltirib chiqaradi. Ayni yondashuv zamonaviy tadqiqodlarda ilgari suriladigan yondashuvlarga ham birmuncha mos keladi. Bunday tadqiqodlar tahlillari natijalarini umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

ta'sir deganda "o'zaro munosabat ishtirokchilaridan biriga harakat va axborotni maqsadga muvofiq tarzda ko'chirib o'tkazish" [6], - tushuniladi. Harakatning uzatilishi impulslar ko'rinishida bevosita, yoki, biror narsa to'g'risida xabar olib boruvchi hamda, idrok qilish tizimini mazkur signallarning ma'nosi va ahamiyatiga yo'naltiruvchi signallar majmuaasi shaklida bilvosita amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlab o'tish joizki, ta'sirning kelib chiqishi adresatga nisbatan tashqi bo'lgan va unda aks eta turib konkret inson faoliyati regulyatorlarining o'zgarishiga olib kelgan holatdagina uni psixologik ta'sir sifatida tavsiflash mumkin. Ayni o'rinda tashqi yo'nalgan va ichki yo'nalgan ta'sirlar birdek nazarda tutilmoqda. Buning natijasida esa turli faoliyat shakllari sub'ekti uchun ifodalanganlik, yo'nalganlik va ahamiyatlilik darajasi o'zgarishi mumkin.

Psixologik ta'sir muayyan faoliyatni o'zgartiruvchi jarayon va uning natijasi sifatida ham tavsiflanishi mumkin. Shu ma'noda psixologik ta'sir kategoriyasini ta'riflashda qo'llanilgan belgilar garchi hajman birmuncha umumiy xarakter kasb etsada, uni mazmun nuqtai nazardan yaqinroq bo'lgan tushunchalardan chegaralagan holda tasavvur qilish imkonini beradi. Sub'ektning ayni ta'sirni aks ettirish jarayonida faoliyat regulyatorlarining o'zgarishi psixologik ta'sirning demarkatsion begisi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida amalga oshirilgan mulohazalar tahlillari natijalarini umumlashtirgan holda psixologik ta'sir kategoriyasiniayni tadqiqod mantig'i nuqtai nazaridan kommunikativ faoliyat ishtirokchilaridan birining xulq-atvori va boshqa ko'plab psixologik xususiyatlarini o'zgartirish maqsadida axborotni bir odamdan ikkinchisiga yo'nalgan tarzda uzatish ma'nosida tushunish mumkin[7].

Bundan kelib chiqqan holda psixologik ta'sirning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin: u yagona ta'sir jarayonining ikki tomonidan bittasi sanaladi; u yaxlit o'zaro aloqa jarayonining tarkibiga kiruvchi biryoqlama ta'sir sanaladi; ta'sir adresatining psixik xarakteristikasi va holatida o'zgarish sodir ro'y berishi psixologik ta'sirning natijasi sanaladi.

Psixologiya sohasiga oid zamonaviy tadqiqodlarda ayni ta'sir strategiyalariga qarab uning bir nechta turlari ajratib ko'rsatiladi.

Mazkur metodologik yondashuvga tayanadigan izlanishlarda imperativ, rivojlanuvchi va manipulyativ ta'sir strategiyalari farqlanadi. Ekstrimal vaziyatlarda yaxshi samara beruvchi imperativ strategiyalar shaxsning chuqur tuzulmalariga ta'sir ko'rsatmagan holda, kognitiv tuzulmalarni qo'llab-quvvatlaydi. Shaxsiyatni o'zgartirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli effektga qarab yo'naltirilgan rivojlanuvchi ta'sir strategiyasi inson bilan davomli muloqot mobaynida amalga oshiriladi.

Uchinchi manipulyativ strategiyada ta'sirning

kinga yo'naltirilganligi yashirin bo'ladi.

Manipulyativ ta'sirning mazmuni haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish uchun eng avvalo ayni atamaning etimologik tahliliga diqqat qaratish lozim.

Eng avvalo, manipulyatsiya atamasi texnologik mazmun kasb etib, ob'yektlarga maxsus maqsadda murojaat qilish, qo'l boshqaruvi, qo'l vositassida amalga oshiriladigan harakat ma'nolarida tushuniladi. Masalan, tibbiyot sohasida tananing biror a'zosini qo'l yordamida tekshirish yoki muolaja jarayonini amalga oshirishga nisbatan manipulyatsiya atamasi qo'llaniladi. Ko'rinib turibdiki, ayni ma'noda manipulyatsiya tushunchasi texnologik mazmun kasb etadi. Sodaroq qilib aytganda, u texnologik kontekstda tutqichlar orqali sun'iy tarzda qo'l bilan amalga oshiriladigan harakatni anglatib, ko'p hollarda mazkur tutkichlar manipulyatorlar deb ataladi. Predmetlarni masofadan turib harakatlantirish bilan bog'liq mexanizmlar takomillashib borgani sari manipulyatorlar qo'l o'rnini bosadigan sun'iy uskunalar deya nomlana boshlandi.

Ikkinchi ma'noda manipulyatsiya (kishilarning kichik guruhi)ni anglatgan. mazkur tushunchaga ayni mazmun dastlab qadimgi rimda yuklangan bo'lib, u manipulu- o'ta mobillashgan kichik jangchilar otryadini anglatgan. Jang san'ati tarixida manipulyar falangalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Har bir manipula ikkita senturii va 120 kishidan tashkil topgan bo'lib, 30 ta manipula bitta legionni hosil qilgan. Har bitta manipula qattiq va zich massa shaklida tutib turilgan. Agar uning harakatlanish jarayonida safdan qochish yoki uzulishlar ro'y bersa yuzaga kelgan chalkashlik butunboshli qanotlarni qamrab olmasligi uchun yaqin oraliqda harakat to'xtatiladi. Chalkashlik bartaraf qilinib, manipulaning harakatlanishi uchun bo'sh joy ochilishi bilanoq u oldinga qarab siljishda davom etadi. Manipulyar tuzilma nafaqat jangavor tarkibning buzilmasdan saqlanishi, balki, uning noqulay va notanish mahalliy sharoitlarga moslashishi uchun ham imkon beradi. Manipulyar tuzulma tufayli jangavor tarkib yo'lda nima sodir bo'lishidan qat'iy nazar, o'z tartibini yo'qotmaydigan qat'iy tashkillanish asosida dushmanni kutib oladi [8].

Yuqoridagi misoldan ham manipulyatsiya fenomeni o'sha davrlardayoq xuddi hozirgi saylov jarayonlari, reklama va OAVlarda namoyon bo'ladigan boshqaruv, bo'ysunish, tanlov huquqining yo'qligi singari belgilarni aks ettirganligini ko'rish mumkin.

Muayyan ta'sir ko'rsatish orqali ongni boshqarish ma'nosidagi manipulyatsiya haqidagi g'oyalarni boshqa ko'plab mualliflar qarashlarida ham uchratish mumkin. Aynan yashirin ta'sir elementi kishilar ongini manipulyatsiyalash borasidagi zamonaviy tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Ye. L. Dotsenko ta'sir ko'rsatish manipulyatsiya tushunchasining muhim jins belgisi ekanligini ta'kidlaydi [9].

Manipulyatsiyaning psixologik ta'sir turi sifatidagi

ta'rifidan tashqari Ye. L. Dotsenko kishilarning joriy xoxish va istaklariga qarshi bo'lgan motivatsiyalarga nisbatan moyillik uyg'otuvchi xodisa ekanligini ham ta'kidlaydi. Shuningdek, u shaxslararo kommunikatsiya jarayonida qo'llaniladigan manipulyatsiyani ham psixologik ta'sir sifatida tavsiflaydi. Bunda u G.A.Kovalevning ta'sir borasidagi ta'rifi hamda psixologik ta'sirning asosiy belgilarini tahlil etishga tayanadi:

1) Bu yagona o'zaro ta'sirga kirishuvchi ikki tomonning biri hisoblanadi;

2) Bu yaxlit o'zaro ta'sir jarayonini tarkibida qamrab oluvchi bir yoqlama ta'sir hisoblanadi.

3) Ta'sir adresati holati va ayrim psixologik xususiyatlarning o'zgarishi ayni ta'sirning natijasi o'laroq namoyon bo'ladi.

A. U. Xarash o'z izlanishlarida birinchilardan bo'lib, manipulyatsiyani psixologik ta'sir kontekstida tadqiq etgan. Uning fikriga ko'ra, kommunikativ ta'sir o'zaro muloqot jarayoni ishtirokchilarida birgalikdagi kommunikativ ustanovkalarining rivojlanishi natijasida hosil bo'ladi [10]. Mazkur nuqtayi nazar bir tarafdin psixologik ta'sir tabiatining shaxslararo xususiyat (interpersonallik) kasb etishini nazarda tutsa, boshqa tomondan esa psixologik ta'sirning shaxs ongiga kirib borishini ta'minlovchi yashirin kontekstga ega bo'lishini nazarda tutadi. Mazkur konsepsiyada kommunikativ ta'sirning muloqot tuzilmasidagi o'rniga alohida ahamiyat qaratiladi. Unga ko'ra, kommunikativ ta'sir shaxsning shakllanishi va qayta shakllanishidan oldingi xal qiluvchi vaziyat hisoblanadi.

A.U.Xarash fikrini qo'llab-quvvatlagan holda "muloqot jarayonida shaxsning yo'nalganligi" kategoriyasini ishlab chiqqan S.L.Bratchenko kommunikativ yo'nalganlik o'z ichiga nafaqat muloqot maqsadi haqidagi tasavvurlarni, qolaversa uning ma'nosi, vositalari hamda muloqot jarayonida namoyon qilinishi istalgan hamda yo'l qo'yiladigan hulq-atvorni ham qamrab oladi. Boshqa tomondan esa u o'zida shaxslararo muloqotdagi u yoki bu darajada anglangan shaxsiy ustanovkalar qadriyatiy mo'ljallar yig'indisini namoyon qiladi[11]. Muloqotga ma'noviy va qadriyatiy munosabat - bu shaxs yo'nalganligining ichki tuzilmasini tashkil qilib, u haqiqiy xulq atvorda namoyon bo'ladi. Garchi muallif muloqotdagi manipulyativ yo'nalganlikni avtoitar, konformistik, altersentristik, indifferent kabi boshqa turdagi yo'nalganliklar bilan birgalikda tahlil qilsada, u haqidagi tasavvurlar ortida shaxsning o'ziga, boshqalarga va umuman muloqotga nisbatan munosabatini aks ettiruvchi ma'no va qadriyatlar bilan boyigan bo'ladi.

Ammo shunga qaramay S. L. Bratchenkoning izlanishlarida manipulyatsiya fenomenining mohiyati ta'sir kategoriyasi orqali ochib beriladi. Manipulyatsiyalash - bir inson yoki insonlar guruhining (manipulyatorning) boshqalarga o'tkazadigan maqsadli ta'sir usullaridan biri bo'lib, unda ta'sir ko'rsatish jarayoni

manipulyatsiyalash ob'ektidan yashirin tarzda manipulyator maqsadlariga muvofiq shaklda amalga oshiriladi. Maqsadga yo'nalganlik manipulyativ ta'sirning elementi ekanligiga ko'plab tadqiqotlarda e'tibor qaratilgan bo'lsada, S. L. Bratchenko mazkur element manipulyativ ta'sirni boshqa turdagi ta'sirlardan ajratib turuvchi muhim belgi ekanligini ko'rsatib o'tadi. S.L.Bratchenkoning manipulyatsiyaga bergan ta'rifida faqatgina manipulyator maqsadlariga xizmat qiluvchi mahfiylik muhim talablardan sanalmaydi. Shunga asoslanib, ular manipulyatsiya ob'ekti manfaati uchun ishlatiladigan holatlar mavjudligini taxmin qilish mumkin. Boshqacharoq qilib aytganda, S.L.Bratchenkoga ko'ra, manipulyatsiya birmuncha oshkora ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Ochiqdan-ochiq shantaj buning yaqqol misoli bo'la oladi. Ammo shunga qaramay S. L. Bratchenko ham manipulyatsiyani psixologik ta'sir turlaridan biri sifatida ko'rsatishga urinib, u psixologik nuqtayi nazardan murakkab muloqot usuli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Yuqorida tahlil qilingan yondashuvlar xulosalarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, manipulyatsiya real kommunikatsiya jarayonida hosil bo'ladigan muloqot maqsadi bilan uzviy aloqadorlik kasb etuvchi psixologik ta'sir turi sifatida tavsiflanadi. Ammo u ularning hech biri bilan aynanlik kasb etmaydi. Manipulyatsiya - murakkab fenomen bo'lib, u turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur fenomen mohiyatini ochib berishga qaratilgan aksariyat tadqiqotlarda yashirinlik va noma'lumlik manipulyativ ta'sirning asosiy xususiyati sifatida ko'rsatiladi. S.L.Bratchenkoning qarashi bundan mustasno bo'lib, unga ko'ra, manipulyatsiya manipulyatsiya ob'ektiga bildirmasdan amalga oshiriladi. Ammo u ham manipulyatsiya bir odamning ikkinchi odam tomonidan eksplutatsiya qilinishi degan yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi [12].

Manipulyatsiyaning keyingi muhim belgisi esa nazoratning mavjudligi hisoblanadi. Ammo ayrim tadqiqotchilar [13, 14, 15] u manipulyatsiyaning tub mohiyatini belgilab bermasada, uning muhim xususiyatlaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Manipulyatsiya orqali kishilarni eksplutatsiya qilish zamirida boshqaga nisbatan narsa, ob'ekt sifatida qarashga asoslangan yondashuv yotadi. Manipulyatsiyaga insonning o'zini namoyon qilish huquqining buzilishi deb qarovchi gumanistik psixologiyaga ko'ra, o'zi uchun foyda olish belgisi, aniqrog'i hodisani ahloqiy baholash natijasida manipulyatsiyaning zaruratini to'la tan olish yoki undan foydalanish imkoniyatlarini to'la inkor qilish kuzatiladi. Manipulyatsion ta'sirni qo'llashning ahloqiy jihatlari borasida o'rta me'yorni ta'kidlovchi tadqiqotlarda ba'zan uni tadbiiq qilish zarurligi, hatto foydali ekanligi urg'ulanadi. Ota-ona va bola, o'qituvchi va o'quvchi ba'zan esa psixolog va uning mijozi o'rtasida samarador muloqotni o'rnatish maqsadida manipulyativ ta'sir mexanizmlarini qo'llash ahloqan to'g'ri deb baholaniladi.

[16, 17].

Shu ma'noda manipulyatsiya maqsadi yashirin bo'lgani holda kishilarda ularning qadriyatiy mo'ljallarini, tasavvurlarini hamda fikr va qarashlarini o'zgartirgan holda muayyan hatti-harakatni bajarishga hohish uyg'otadi. Muhimi shundaki, agar manipulyatsion ta'sir mexanizmlari samarador funktsiya bajarsa, manipulyatsiya ob'ektlari ongida o'zlarining tanlov, xoxish hamda qaror qabul qilish borasida mustaqil ekanliklari to'g'risidagi illyuziya mavjud bo'ladi. Sodaroq qilib aytganda, manipulyatsiya ob'ektlari o'zlarini o'z ixtiyorlariga ko'ra, muayyan tanlovni amalga oshirgan deb hisoblaydilar. Boshqacharoq qilib aytganda, manipulyativ ta'sir mexanizmlarining samarador qo'llanilishi u yo'naltirilgan kishilarda o'zlari xoxlamagan ishni qilishga moyillik, o'zlari xoxlagan ishni qilishdan nafratlanish tuyg'usi uyg'onishiga olib kelgani holda manipulyatsiya ob'ektlari o'zlarining tanlovlarini mutlaqo erkin tarzda amalga oshirganliklariga ishonadilar.

Yuqorida ham ta'kidlanganidek, ko'plab tadqiqotlarda manipulyatsiyadan foydalanish nafaqat destruktiv oqibatlariga, muayyan konstruktiv natijalarga ham olib kelishi mumkin. Ayniqsa, pedagogik faoliyat, aholini muayyan islohotlar mafkurasi atrofida jipslashtirish kabilar buning misoli bo'la oladi. Jumladan, ajdodlar xatolarini takrorlamaslikni o'rgatish maqsadida ota-onalarning mingyillardan beri og'izdan-og'izga ko'chib kelayotgan ertaklardan tarixiy tajribani uzatish vositasi sifatida foydalanishlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, ko'p yolg'on gapiradigan bolani urib-so'kkandan ko'ra, unga yolg'onchi cho'pon haqidagi A.Navoiy asarlarida keltirilgan hikoyani aytib berish samarador ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yana boshqa bir keysga diqqat qarataylik: boshliq hodimning xizmat vazifasidan tashqari biror-bir ishni bajarishini xoxlaydi. Ammo hodimning oldida qarzdor bo'lmaslik uchun uni urishib, unga jahll qilish o'rniga yumshoq muomala qiladi. Hodimni go'yoki o'ziga yaqin olib, uni maqtab qo'yadi. Tilyog'lamalilik deb ataluvchi mazkur manipulyatsiya usuli ta'sirida hodim boshliq aytgan vazifani bajarishni o'ziga sharaf deb biladi.

Tarafdorlari Abakumov I. V., Belousov A. K., Bodalev A. A., Bratchenko S. L., Ryumshina L.I. bo'lgan

ma'noviy-qadriyatiy yondashuvga ko'ra, manipulyatsiya o'zini, boshqani va umuman muloqot jarayonini qadrsizlantirish sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvga ko'ra, o'z manfaati yo'lida boshqalardan foydalanish hamda foydalanilayotgan kishi tomonidan buning anglanmaganligi manipulyatsiyaning eng muhim belgisi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra manipulyatsiya manipulyatsiyalovchi, manipulyatsiyalanuvchi hamda tashqi holat yoki manipulyatsiya uchun qulay shart-sharoit kabi elementlardan tashkil topadi. Faqatgina yaxlit kompleks yondashuv mazkur murakkab fenomenning batafsil tushunishga imkon beradi. Bu yondashuvga ko'ra, manipulyatsiya bir jihatdan ta'sir, boshqa tomondan esa murakkab tashkillashgan manipulyativ faoliyat sifatida tushunilishi mumkin.

Xulosa va takliflar

1. Yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlar tahlillari natijalarini umumlashtirib, manipulyatsiya fenomenining mohiyatini quyidagicha tushuntirish mumkin:

Manipulyatsiya shaxsiy foyda olish maqsadida boshqa odamlardan foydalanish ma'nosida tushunilishi mumkin. Bu vaziyatda boshqa odam muloqotning to'laqonli sherigi emas, balki foyda olish ob'ekti sifatida qaralib, u qadrsizlantirilgan holda shaxsdan narsaga aylantiriladi.

2. Psixologik ma'noda manipulyatsiya shuni anglatadiki, kishilarni nazorat qilish, ularni boshqarish, ulardan ustunlikka erishish va ular ustidan hukm yuritishga manipulyatsiya ob'ektining erkinligini cheklash, ularni manipulyator maqsadlariga muvofiq tarzda harakat qilishga majburlash hamda ularda tanlov erkinligini qoldirmaslik yoki ayni tanlovni anglashga to'sqinlik qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Psixologik ta'sirning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin: u yagona ta'sir jarayonining ikki tomonidan bittasi sanaladi; u yaxlit o'zaro aloqa jarayonining tarkibiga kiruvchi biryozlama ta'sir sanaladi; ta'sir adresatining psixik xarakteristikasi va holatida o'zgarish sodir ro'y berishi psixologik ta'sirning natijasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамова, Г.С. Психологические механизмы управления, и о том, как их использовать / Г.С. Абрамова - М.: Известия, 2002. - 312 с.
2. Агеев, В.С. Межгрупповое взаимодействие: Социально-психологические проблемы / В.С. Агеев - М.: Изд-во МГУ, 1990. - 239 с.
3. Антоненко, И.В. Доверие: социально-психологический феномен: монография / И.В. Антоненко. - М.: Социум; ГУУ, 2004. - 320 с.
4. Ожегов, С.И. Словарь русского языка / С.И. Ожегов. - М.: Рус. яз., 1989. - 750 с.
5. Ковалев, Г. А. О системе психологического воздействия (К определению понятия. Психология воздействия (проблемы теории и практики) / Г.А. Ковалев // Сб. научных трудов: АПН СССР; НИИ общей и педагогической психологии. - М., 1989. - С. 4-5.
6. Психологический словарь / под ред. В.В. Давыдова. - М., 1996. В. 58 Купрейченко, А.Б. Психология доверия

- и недоверия / А.Б. Купрейченко - М.: Институт психологии РАН, 2008. - 571 с.
7. Словарь практического психолога / сост. С.Ю. Головин. - Минск: Харвест, 1998. - С. 77-78.
 8. Дельбрюк, Г. История военного искусства / Г. Дельбрюк. - СПб., 1994. - 387 с.
 9. Доценко, Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита / Е.Л. Доценко - М.: ЧеРо; Издательство МГУ, 1997. - 455 с.
 10. Харащ, А.У. Социально-психологические механизмы коммуникативного воздействия / А. У. Харащ. - М., 1983. - 351 с.
 11. Братченко, С.Л. Диагностика личностно-развивающего потенциала / С.Л. Братченко - Псков, 1997. - С. 34-62.
 12. Братченко, С.Л. Экзистенциальная психология глубинного общения: уроки Джеймса Бьюдженталя. / С.Л. Братченко - М., 2001. - 357 с.
 13. Рюмшина, Л.И. Игры и манипуляции в межличностном общении / Л.И. Рюмшина. - Ростов-н/Д., 1997. - 148 с.
 14. Липецкий, М.Л. Внушение и мы / М.Л. Липецкий. - М.: Знание, 2003. - 96 с.
 15. Мелия, М. Бизнес - это психология / М. Мелия. - М.: Знание, 2006. - 372 с.
 16. Доценко, Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита / Е.Л. Доценко - М.: ЧеРо; Издательство МГУ, 1997. - 455 с.
 17. Ермаков, Ю.А. Манипуляция личностью: Смысл, приемы, последствия / Ю.А. Ермаков. - Екатеринбург, 1995. - 339 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xojiyev Tunis Nurkosimovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
karfagen_87@mail.ru

UDK:1 (09) (584.4)(100)

IJTIMOY RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy rivojlanishga oid "modernizatsion yondashuv" fenomenining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning tushuncha sifatidagi mazmuni ochib beriladi. Jumladan, ijtimoiy rivojlanishning modernizatsion nazariyasiga oid kategorial apparat uning tarixiy-siyosiy, metodologik jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, modernizatsion yondashuvga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining bosqichlari, ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalarining transformatsiyasiga ko'ra belgilanishi ochib berilgan. Bunda ijtimoiy munosabatlar, xususan, jamiyat hayotining ma'naviy sohasi yuqorida aytib o'tilgan fenomenlar transformatsiyasiga ko'ra determinlashuvi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsion yondashuv, quvib yetuvchi modernizatsiya modeli, kechikkan modernizatsiya.

Хожиев Тунис Нуркосимович

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
доцент кафедры Юридические науки факультета социальных наук
доктор философии (PhD)

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье раскрывается его содержание как понятия путем анализа основных особенностей феномена «модернизационного подхода», связанного с общественным развитием. В частности, раскрывается категориальный аппарат модернизационной теории общественного развития, ее историко-политический, методологический аспекты. Также согласно модернизационному подходу выявлено, что этапы развития общества определяются трансформацией средств производства. В нем раскрывается детерминация общественных отношений, в частности, духовной сферы жизни общества, согласно трансформации названных явлений.

Ключевые слова: модернизация, социальное развитие, модернизационный подход, модель догоняющей модернизации, отсроченная модернизация.

Khojiyev Tunis Nurkosimovich

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Associate Professor of the department "Legal Sciences" of the faculty of Social Sciences, doctor of philosophy (PhD)

MODERN TRENDS AND PROSPECTS OF SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation. This article reveals its content as a concept by analyzing the main features of the "modernization approach" phenomenon related to social development. In particular, the categorical apparatus related to the modernization theory of social development, its historical-political, methodological aspects are revealed. Also, according to the modernization approach, it is revealed that the stages of the development of the society are determined according to the transformation of the means of production. It reveals the determination of social relations, in particular, the spiritual sphere of society's life, according to the transformation of the above-mentioned phenomena.

Key words: modernization, social development, modernization approach, catch-up modernization model, delayed modernization.

Kirish

Ijtimoiy gumanitar fan sohasiga oid tadqiqotlarda ijtimoiy rivojlanish kategoriyasini tushuntirishga qaratilgan xilma-xil paradigmalar yondashuvlarni uchratish mumkin. Ularning har birida ayni kategoriyaning mazmunini tashkil qiluvchi muayyan belgilar dominant qilib olingan holda butun boshli kishilik jamiyati taraqqiyoti tushuntirib beriladi. Bu esa, bir jihatdan ijtimoiy taraqqiyot kategoriyasini yaxlit va kompleks tarzda tushunishga imkon bersa, boshqa tomondan esa bunday yondashuvlarning birontasini mutloqlashtirish ushbu kategoriya mazmunini bir yoqlama cheklangan tarzda tushunishga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqot predmeti doirasidan kelib chiqqan holda ijtimoiy rivojlanish kategoriyasi deganda o'tmishdagi biror bir holat yangi tizim taraqqiyotining hech bir bosqichida to'raligicha qayta takrorlanmaydigan qolaversa, vaqt o'tishi bilan muayyan sohaga oid tizim parametrlari tobora yangi daraja kasb etib borishiga yo'nalgan jarayon tushuniladi. Bular sirasiga iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sib borishi, texnik taraqqiyot, aholi sonining oshib borishi kabilarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari alohida sohalarga oid parametrlar o'sish sur'atlarining tezlashishi tabiiy ravishda tizim umumiy holatining ham yaxshilanib borishiga, jumladan jamiyatda ijtimoiy tenglik holatining mustahkamlanishi, demokratik jarayonlarning yangicha sifat ko'rsatkichlari kasb etib borishiga olib keladi. Ziddiyatlar yangi ijtimoiy hayot shakllari, aholi ijodiy qobiliyatlarini yirik innovatsion tashkillashishga yo'naltirish kabi tizimning immanent xususiyatlari orqali hal qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Ijtimoiy rivojlanish qadimdan to bugungi kungacha tarix falsafasi konsepsiyasi doirasida keng muhokama qilingan. Jumladan, formatsion yondashuv metodologiyasi asosida Rostow W., Rothbard M., Stepin B.C., Field A., Bell D. kabi olimlar tadqiqotlarida ijtimoiy rivojlanish jarayonlari konseptual jihatdan asoslangan. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda konvergensiya nazariyasi industrial va postindustrial ijtimoiy rivojlanish modellari formatsion nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Modernizatsiya nazariyalarining evolyusiyasi falsafiy-tarixiy tahlil predmeti sifatida tahlil etilar ekan ijtimoiy jarayon sifatida ularni yuzaga keltirgan tarixiy shart-sharoit o'rganilishi lozim. Aniqrog'i, mazkur nazariyalarning yuzaga kelishi va transformatsiyalashuvida jiddiy ta'sirga ega bo'lgan empirik voq'elik omilini nazarda tutish muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki,

modernizatsiya turli nazariy model va konstruksiyalarda ifodalangan paradigma yoki ana bo'lishi bilan birgalikda muayyan tarixiy davrlarda ro'y berib borgan ijtimoiy jarayon hamdir.

Albatta, muayyan tarixiy davrda ro'y bergan ijtimoiy jarayon sifatidagi modernizatsiya va uning uch yo'nalishi yuzaga kelishida kapitalizmga tayanuvchi G'arb sivilizatsiyasi taraqqiyotining ahamiyati muhim bo'ldi. Kapitalizm dinamik kuchiga tayangan G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi boshqa sivilizatsiyalarga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb eta borib, nog'arb sivilizatsiya va butunboshli mintaqalarga o'z sivilizatsiyasini namuna sifatida ko'rsata boshladi. Oqibatda, birinchidan, bir tomondan G'arbiy Yevropa, ikkinchi tomondan, Osiyo va Afrika mamlakatlari o'rtasidagi farqlar yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchidan, G'arbiy Yevropaning yer sharidagi har bir mintaqaga ulkan ta'siri turli mamlakatlarni xilma-xil shakl va turfa sur'atlarda modernizatsiyaga jalb qildi. Bu hol uch modernizatsiya yo'nalishining shakllanishiga olib keldi[1]. Ayni ushbu yo'nalishlar va modellarning shakllanishi keyinchalik ijtimoiy rivojlanish zamonaviy konsepsiyalari transformatsiyalashuvini yuzaga keltirdi. Quyida ushbu transformatsiyalashuv jarayonlari tahlil qilinadi.

Birinchi yo'nalishdagi mamlakatlarda modernizatsiya jamiyat kundalik hayotida tabiiy ravishda kelib chiqqan edi. Bular sirasiga Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Shimoliy Italiya, Shveysariya, AQSh va Kanada kabi mamlakatlarni kiritish mumkin. O'tkir ijtimoiy ziddiyatlar hamda Amerikada ro'y bergan Shimol va Janub urushi misolidagi organik munosabatlarning buzilishi va boshqa ayrim omillarni istisno etmagan holda bu yo'nalish mamlakatlarida jamiyatning barcha sohalari muayyan darajada ozmi-ko'pmi teng rivojlandi. Bu mamlakatlarda o'zgarishlarga asos bo'lgan keskin islohotlar ham tadrijiy taraqqiyot sur'atlaridan kelib chiqadi. Ularda modernizatsiya endogen omillar kuchiga tayangan holda tabiiy va organik yo'l bilan amalga oshdi. U quyidan ijtimoiy ongni o'zgartirib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning transformatsiyasiga olib keldi. Birinchi yo'nalish mamlakatlari butun dunyo modernizatsiyasining yadrosi, umumjahon kapitalistik tizim markazlarini tashkil qildi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu markazda turli davrlarda yetakchi mamlakatlar xilma-xil mavqe va o'rin kasb etdilar. O'rta asrlar Yevropa tarixida Yangi davrning boshlarida bu borada Ispaniya va Portugaliya yetakchilikni qo'lga olgan bo'lsa, keyinchalik ustunlik Gollandiya tomonga, undan esa Buyuk Britaniyaga o'tib va nihoyat XX asrda AQSh birinchi mamlakatga aylandi. Bu vaqtga kelib manufaktura asosida shakllangan ilk kapitalizm bilan tavsiflanuvchi modernizatsiya jarayoni Yevropaning ayrim davlatlarida krepastnoylikning yangi ko'rinishi bilan birgalikda kechdi. Yevropaning Sharqiy Germaniya, Janubiy Sharqiy Yevropa davlatlari, Polsha singari

mamlakatlardan tashkil topgan boshqa qismida esa bu jarayon oziq-ovqat, meva va o'rmon xo'jalik mahsulotlari eksportiga asoslangan xalqaro mehnat taqsimoti hamrohligida ro'y berdi.

Xalqaro mehnat taqsimoti yangi asr boshlaridagi Yevropa modernizatsiyasining pul aylanmasi qismini tashkil qildi. Ma'lumki, Yevropaning qolgan qismi mamlakatlarida kapitalistik tartibotlar mustahkam yo'lga qo'yilguniga qadar Yevropaning mazkur jarayon (kapitalistik tartibotning o'rnatilishi) ertaroq ro'y bergan qismlarida modernizatsiya sur'atlarining sekinlashuvi holatlari ham kuzatilgan. Xususan, Yevropa bozorining donchilik asosida kengayishi parchalanib ketgan Germaniyada kapitalistik industrializmining rivojiga to'sqinlik qildi. Shunga qaramasdan, Germaniya, jumladan Prussiyada bu davrga kelib fuqarolik jamiyatining shakllanishi hamda ratsionalistik g'oyalarning keng tarqalganligini kuzatish mumkin edi. XIX asrning o'rtalariga kelib Germaniyada ushbu asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya va Fransiyani rivojlanish darajasi va boshqa munosabatlarda quvib yetish imkonini beruvchi, modernizatsiyaga asos bo'lgan sotsial va madaniy muhit shakllandi. Shu ma'noda, Germaniyani byurgerlik va yer egaligi hamda politsiya monarxiyasi mavjud bo'lgan birinchi yo'nalishdagi mamlakatlar qatoriga kiritish mumkin[2].

Ispaniyada modernizatsiya jarayonlari uyg'onish davrida boshlanganiga qaramasdan o'z nihoyasiga yetmadi. XV asrning boshlaridayoq Ispaniyada yollanma ishchilar mehnatiga asoslangan kapitalistik korxonalar yuzaga kelgan bo'lsada, qirollik monarxiyasining mutloqlik xususiyati, ijtimoiy hayotda cherkovning ulkan roli, davlat va jamiyatning o'ta darajada byurokratlashganligi hamda harbiylashganligi kapitalizm rivojining susayishiga olib keldi. Ko'rinib turibdiki, mazkur jarayonlar oqibatida hech bir rivojlangan Yevropa davlati hech bir davrda taraqqiyotdan ortda qolgan chekka hududga aylanib qolmadi. Bu jarayonlar Franko o'zining qayta qurish siyosatini amalga oshirgan XX asrning 50-60 yillariga qadar davom etdi[3]. Ispanlar (kastiliyaliklar, kataloniyaliklar, basklar, galisiyaliklar) qiyin vaqtlarda ham o'zining Yevropaga xos bo'lgan madaniy ildizlaridan uzilmagan holda modernitining zaruriy elementi bo'lgan erkinlikka intilish va o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usini yo'qotmadilar. Bir tomondan hukmron elitaning islohot tarafdorlari bo'lgan qismi hatti-harakatlarining, boshqa tomondan esa xalqning diktatura va fuqarolik jamiyatiga o'tkazilayotgan bosimiga qarshi kurashlari dastlab ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy modernizatsiya, keyinchalik esa siyosiy hayotda o'z mevasini berdi[4]. So'nggi ellik yil davomida Ispaniyada ro'y bergan uzluksiz modernizatsiya jarayoni uning yuqori darajada taraqqiy etgan mamlakatlar orasidan joy olishiga sabab bo'ldi. Ispaniyadagi ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlar uning shunchaki rivojlangan mamlakatlar safidagi davlat bo'lib qolmasdan

Yevropadagi va butun dunyodagi yetakchilardan biri ekanligini anlatib turadi. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning sivilizatsion geografik chegaralari ortidagi hududlarda umumjahon xo'jalik tizimiga kirmagan butun dunyo modernizatsiyasining ikkinchi va uchinchi modernizatsiya yo'nalish mamlakatlarini tashkil qiluvchi mintaqalar bilan birga periferiyalar va yarimperiferiyalar joylashgan[5].

Ikkinchi yo'nalishga kiruvchi mamlakatlarda modernizatsiyaga asos bo'luvchi ichki xususan, sotsiomadaniy omillar mustaqil ravishda shakllandi, ammo bu mamlakatlar umumjahon modernizatsiyasiga u yoki bu darajada turtki bo'luvchi markaziy derjavalar bilan iqtisodiy va siyosiy-harbiy ma'noda raqobatlasha olmaydilar. Mazkur mamlakatlardagi kapitalizm uchun yetarlicha asoslarning mavjud emasligi ularning modernizatsiyaga ehtiyojmandlik harakteri bilan belgilanadi. Bu hol asosan quvib yetuvchi modernizatsiya shaklida kuzatiladi. Bu mamlakatlarda modernizatsiya jarayonlari G'arbnning chaqiriqlariga muayyan darajadagi javob sifatida namoyon bo'lib, shu ma'noda quvib yetuvchi modernizatsiyani aks ettiruvchi yoki ikkilamchi modernizatsiya deya tavsiflash mumkin. Shunga qaramay kapitalizmning ikkinchi yo'nalishdagi mamlakatlar siyosiy va suveren davlat ma'nosida mustaqil bo'lib qolmoqdalar. Bunday mamlakatlarda islohotlarning tashabbuskori va amalga oshiruvchisi sifatida davlat modernizatsiyaning asosiy sub'ekti hisoblanadi. Modernizatsiyaning ikkinchi yo'nalishdagi mamlakatlar qatoriga Sharqiy va Janubiy Sharqiy Yevropa davlatlari, Yaponiya, Turkiya, Rossiya kabilarni kiritish mumkin. Bu mamlakatlardagi hukmron elitalar (Yaponiya, Rossiya XIX asrda) modernizatsiya rivojiga turtki bo'luvchi jahon bozorida raqobatning keskinlashuvi, mustaqillikka tahdid, urush havfi singari qator mafkuraviy omillarni o'ylab topdilar va targ'ib qildilar.

Ikkinchi yo'nalishdagi mamlakatlar modernizatsiyasiga ularga nisbatan ko'proq rivojlangan mamlakatlar o'z taraqqiyotining o'n yillari, balki yuz yillari mobaynida shakllantirgan texnika va texnologiya, ishlab chiqarishning turli shakllari, sotsial tashkilotlar borasidagi tajribalaridan ta'sirlanish xususiyati xos edi. Ba'zida bunday ta'sirlar sof tashqi va puxta o'ylanmagan yuzaki sun'iy yo'l bilan kiritilib madaniy o'zgarishlarga mos bo'lmaganligi tufayli ko'pincha salbiy, hatto inqirozli oqibatlarni yuzaga keltirgan. Garchi ko'plab marta ro'y bergan inqirozli vaziyatlarga qaramasdan ikkinchi yo'nalish mamlakatlari ham birinchi yo'nalish mamlakatlari erishgan sanoatning o'sishi, fan taraqqiyoti, texnika va ommaviy ta'lim, siyosiy demokratiya, qonun ustuvorligi, inson shaxsiyati mustaqil qadriyatlarining tan olinishi singari qator yutuqlar bilan boyigan rivojlanish yo'liga tushib oldilar. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib birinchi yo'nalish qatoriga qo'shib olgan Yaponiya ayrim sohalarida ulardan o'zib ham ketdi.

Modernizatsiyaga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgan ikkinchi yo'nalishga kiruvchi barcha mamlakatlarga tegishli ba'zi umumiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, davlat taraqqiyoti - *developmental state* deb ataluvchi xususiyatga ko'ra, davlat o'z hududidagi zaif yoki umuman mavjud bo'lmagan ishbilarmonlik sinfi o'rnini kompensatsiyalaydi. Milliy burjuaziya zaif bo'lgan mamlakatlarda modernizatsiyani boshlash uchun qulay boshlang'ich muhit ham past darajada taraqqiy etgan hisoblanib, bunday vaziyatlarda davlatning roliga zarurat oshadi. Buni quvib yetuvchi modernizatsiya modelining o'ziga xos qonuniyati sifatida ta'kidlash mumkin[6].

Ma'lumki, modernizatsiya jarayonlarida davlat rolining oshishi avtoritarizmga, aniqrog'i avtoritar rivojlanish yo'lining joriy qilinishiga olib keladi[7]. Bunday davlatlar mamlakatning boy qatlami hisobiga YaIMda kapital yotqizishning ulushini ko'paytirish uchun ham iqtisodiy, ham ma'muriy usul va chora-tadbirlarni keng miqyosda qo'llaydilar. Ular sanoatda amal qiluvchi texnologik modernizatsiya, yangi xo'jalik sohaslarini yaratish, shunga muvofiq kadrlar tayyorlash, yangi milliy ta'lim tizimi va ilmiy markazlar tashkil qilishga qaratilgan siyosat yuritadilar. Quvib yetish modernizatsiyasining qoidalariga ko'ra, milliy ta'lim tizimi va ilmiy markazlar yaratishga qaratilgan islohotlar modernizatsiyaning boshlang'ich bosqichlarida emas, sanoatda muayyan taraqqiyot va yutuqlarga erishilgandan so'ng amalga oshiriladi. Shu sabab davlat bu borada nafaqat ma'muriy resurslar, shuningdek, ijtimoiy konsensusdan ham unumli foydalanadi, aniqrog'i, jamiyatning aksariyat faol qismi moddiy farovonlik darajasini oshirish hamda vertikal sotsial mobillikka erishish evaziga o'z siyosiy erkinliklarining muayyan ma'noda cheklanishiga rozi bo'ladilar. Tezlashtirilgan modernizatsiya jarayonining bunday xususiyatlari dastlab Osiyodagi yangi industrial davlatlarda (YaID) ko'zga tashlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib, uni meritokratiya prinsipi konfutsiylik an'anasi darajasida yuksalgan Xitoy va Vetnamda kuzatish mumkin. Kechikkan modernizatsiya modeliga ko'ra, davlat taraqqiyoti nomli rivojlanish yo'li kuchli sud tizimi va xususiy mulk huquqi himoyasiga katta e'tibor qaratadi. Quvib yetuvchi modernizatsiyada, ayniqsa, uning boshlang'ich bosqichlarida qa'tiyatli siyosiy yetakchi hamda uning tashabbuskor va eski an'anaviy tartibotlar oqimiga qarshi kurasha oladigan jamoasiga zarurat katta bo'ladi[8].

Eng muvaffaqiyatli modernizatsiya shakli eski ijtimoiy ziddiyatlar va muammolarni hal qilib, ba'zan rivojlanish sur'atlarining tezligi bilan aloqador bo'lgan yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday ziddiyatlar modernizatsiyaning o'ziga ham tahdid solishi mumkin. Xususan, ko'plab mamlakatlarning muvaffaqiyatli modernizatsiyasi oqibatida o'suvchan xususiyatga ega ijtimoiy tarangliklar paydo bo'ladi. Bu jarayonlarda

jamiyatning sotsial tuzilishi va kishilarning hayotiy mo'ljal olishga qaratilgan qadriyatlarini o'zgaradi. Natijada, jamiyat tobora xilma-xillik kasb etib boradi. Barcha rivojlangan mamlakatlardagi singari siyosiy pozitsiya nuqtai nazaridan o'ng va chap qanotlarni keltirib chiqaruvchi modernistlar va traditsionalistlar o'rtasidagi sinflararo ijtimoiy ziddiyatda namoyon bo'luvchi yangicha keskinlik maydoni yuzaga keladi[9]. Hattoki, modernistlar o'rtasida ham turli qarashlarga asoslangan xilma-xil oqimlar ham vujudga kelishi mumkin. Tezkor va notekis modernizatsiya oqibatida jamiyatning bunday xilma-xillik kasb etish xolatini dunyoning ko'plab mamlakatlarida kuzatish mumkin.

Janubiy Sharqiy Yevropa va bir qancha Lotin amerikasi mamlakatlarining quvib yetish modernizatsiya modeli bilan bog'liq tajribalari tahlili oqibatida ushbu modelning quyidagi qonuniyatini aniqlash mumkin:

- davlat va uning yetakchisi mazkur modelga oid o'zgarishlarning generatori hisoblanadi;

- bunday modelda zamonaviy jamiyatga o'tish jarayoni davlat institutlarining shakllantirilishi, konstitutsiya moddalarining qayta ishlanishi, milliy davlat qurilishining asosiy prinsiplarini belgilab olish singari qator siyosiy masalalarni hal qilish orqali boshlanadi.

Quvib yetuvchi modernizatsiya modeliga oid nazariy xulosalar Janubiy Sharqiy Osiyo, Janubiy-Sharqiy Yevropa va Lotin amerikasi mamlakatlarining tajribasida o'z amaliy tasdig'ini topdi. Lotin amerikasi mamlakatlarining modernizatsiyasi ularning dunyo bozori tizimidagi o'rnini bilan belgilanadi. Aniqrog'i, bu mamlakatlar shakar, qaxva, kakao, paxta kabi maxsulotlarni jahon bozoriga yetkazib beruvchisi sifatida qishloq xo'jalik xom ashyo eksportini nazarda tutuvchi yagona maqsadga buysunadilar.

Uchinchi yo'nalishdagi mamlakatlar rivojlangan mamlakatlar bozoriga asosan xom-ashyo va oziq-ovqat singari kolonial mahsulotlarni yetkazish vazifasi bilan shug'ullanadilar. Ular mustamlakachilar va mahalliy amaldorlarga qulaylik yaratish uchun bandargohlar, yo'llar, omborxonalar, ma'muriy idora binolarini barpo qilib infrastrukturani rivojlantirdilar. Bu modernizatsiya yo'nalishi bir muncha yuzaki bo'lib, uning aholi turmush darajasi yaxshilanishidagi ta'siri deyarli sezilmaydi. Mahalliy modernizatsiyalashgan elita vakillari istiqomat qiluvchi kvartallar joylashgan zamonaviy anklavlar yuzaga keladi. Bunday jamiyatlarni dualistik jamiyatlar sifatida tavsiflanadi. Modernizatsiya jarayonida uchinchi yo'nalishdagi mamlakatlarning xo'jalik tizimi ko'p ukladlilik, sotsial tuzilmasi esa, an'anaviylik va zamonaviy anklavlardan iborat ko'p qatlamlilik xususiyatlarini kasb etib boradi[10]. Bu kapitalizm preferiyalariga xos bo'lgan ichki rivojlanish holatini yuzaga keltirdi. Ko'p holatlarda bu mamlakatlardagi modernizatsiya natijalari G'arb bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu mamlakatlardagi modernizatsiya ular bog'liq bo'lgan birinchi yo'nalishdagi

mamlakatlar rivojlanish характери bilan belgilanadi. Uchinchi yo'nalishdagi mamlakatlarda G'arb sivilizatsiyasi ekspansiyasining boshqa mintaqalar va dunyo bozoriga ta'siri ostida bu davlatlarning mustaqil taraqqiyotini istisno qiluvchi jamiyat va xo'jalik ko'rinishdagi tuzilma shakllandi. Bu tuzilma sobiq metropoliyalarga bog'liqlikdan manfaatdor bo'lgan pereferiya mamlakatlardagi xo'jalik, ijtimoiy faoliyat, madaniyat va siyosatning keyingi rivojini belgiladi. Boshqalarga bog'liq ravishda taraqqiy etish modeli eski tartiblar o'ta sodda mehnat faoliyati, qashshoqlikka asoslanuvchi, xo'jalikning agrar va tog'-kon sanoatini saqlab qolishga urinadi. Bu sektorda faoliyat yurituvchilar esa o'ta tor va ichki bozorda ish olib boradilar. Shu ma'noda qaramlik umumiy iqtisodiy-ijtimoiy qoloqlikni keltirib chiqarib, pereferiyalarning tarixiy jihatdan markazdan uzilib qolganligi tufayli qoloqlik o'z navbatida qaramlikni keltirib chiqargan.

Kapitalizm markazida ro'y bergan o'zgarishlar pereferiya mamlakatlarida ham aks etgan. Bu bosqichma bosqich ravishda eski savdo munosabatlaridan tortib, ishlab chiqarish texnologiyalarigacha, undan ta'lim tizimiga qadar bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda moliyaviy, shuningdek, texnologik qaramlikning o'rni sezilarli bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarning o'zi uchun texnologiyalar zarur bo'lib turgan paytda ularni va boshqa ko'plab ehtiyot qismlarni pereferiyalarga jo'natish muammosi ham mavjud bo'ladi. Bugungi kunda esa o'ziga xos intellektual va axboriy qaramlik sifatida ta'riflanayotgan ilmiy yutuqlar va axborot oqimiga bo'lgan bog'liqlik birlamchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mustamlakachilik harakatlari va sokin iqtisodiy ekspansiyalar jarayonida Yevropa mustamlakachilari mahalliy madaniyat, an'ana va turmush tarzi bilan yaxshi tanish bo'lgan o'sha yerlik bilimdonlar salohiyatiga tayanganligi tufayli qaram xalqlarni oson va samarali boshqarganlar. Bu esa o'z navbatida mahalliy elita orasidan dastlab milliy ozodlik harakati yetakchilari, keyinchalik esa mustaqil davlatlar prezidentlari yoki bosh vazirlari yetishib chiqishiga olib keldi. Elitaning siyosiy irodasi va ijtimoiy mas'uliyati birgalikda uchinchi yo'nalish mamlakatlarining real modernizatsiya jarayonida muayyan muvaffaqiyatlarga erishishlariga olib keldi. Shu tariqa ularning ba'zilar ikkinchi yo'nalish modernizatsiyasiga yaqinlashgan bo'lsa, qolganlari birinchi yo'nalish mamlakatlari modernizatsiya yo'liga yaqinlashdilar. Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, Malayziya singari Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari buning yaqqol misoli bo'la oladi. Zamonaviylikka yaqinlashish jarayoni sifatida qaraluvchi modernizatsiya bu mintaqalarda vesterinizatsiya emas, aksincha davlatchilikni Yevropa standartida qayta shakllantirish tendensiyasi sifatida baholanadi hamda bu to'xtatib bo'lmas uzluksiz jarayon hisoblanadi. Bu rivojlanishning

o'ziga xos yo'li bo'lib, demokratiya, konstitutsion liberalizm normalari bilan avtoxiton siyosiy madaniyatning konkret konfessional, o'sha mamlakatga xos va regional xususiyatlari sintezlashadi. Masalan, Yaponiyada liberal demokratik partiyaning roli, Malayziyada konfessional islom parametrlarining roli, Singapurda formal ma'noda ba'zi erkinliklarning cheklanganligi hamda siyosiy yetakchi va mentor raxnamoning roli ustuvor ahamiyat kasb etadi[11].

Shunday mamlakatlar borki, ularda kundalik hayotning sotsiomadaniy asoslari nog'arb jamiyatlarning an'analari bilan birgalikda katta ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bunday vaziyatni avvalo Yaponiya, qolaversa, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida kuzatish mumkin. Yangilanishlar-novatsiyalar aholi tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan jamiyatlarda modernizatsiya o'zining ulkan mevalarini berdi hamda uning keng tadbiiq qilinishi uchun kundalik hayotda katta zamin hozirlandi.

Shu ma'noda modernizatsiya tashabbuskorlaridan qisqa vaqt ichida katta muammolarni hal qilish talab qilinadi:

Birinchi, butun mamlakat aholisini bo'lmasada, uning faol qismi iste'mol qobiliyatini tezkorlik bilan oshirish.

Ikkinchi, ishchi hodimlar qatlami kattagina qismining malakasini oshirish, aniqrog'i, ularning faoliyatiga intellektuallik xususiyatini singdirish.

Uchinchi, umumjahon qadriyatlari bilan milliy an'anaviy qadriyatlarining o'zaro uyg'unligiga erishish, ayniqsa, bu uyg'unlik ta'lim tizimida yaqqol aks etmog'i lozim.

To'rtinchidan, turli ijtimoiy guruhlar vakillari o'rtasidagi ijtimoiy notenglikni kamaytirish.

Beshinchidan, shaxs barkamolligiga erishish uchun real imkoniyatlarni kengaytirish orqali mamlakat taraqqiyotini istovchi kishilar sonini ko'paytirish.

Shu tariqa modernizatsiya dunyo mamlakatlarga turli tezlik va shakllarda kirib borib, uch yo'nalishdagi modernizatsiyani hosil qildi.

Birinchi yo'nalish mamlakatlari modernizatsiyaning yadrosi hisoblanisa, ikkinchi yo'nalish mamlakatlariga boshqalar tajribasidan ta'sirlanish xususiyati xos. Bunday mamlakatlarda siyosiy yetakchilar taraqqiyotning generatorlari hisoblanib, ularda milliy davlatchilik qurilishining bosh prinsiplarini aniqlab olishga birinchi galdagi vazifa sifatida qaraladi. Ikkinchi yo'nalish mamlakatlari modernizatsiyasi ularning dunyo bozori tizimida kolonial mahsulotlarni yetkazib beruvchi sifatida o'z o'rniga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi. Uchinchi yo'nalishdagi modernizatsiyani muayyan ma'noda ikkinchi yo'nalishdagi modernizatsiyaga o'tish bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Zero, ko'p hollarda uchinchi yo'nalish mamlakatlari mustamlakachilikdan ozod bo'lgach, ikkinchi yo'nalishdagi modernizatsiyaga qadam qo'yadilar, yoki aksincha, aksariyat ikkinchi

modernizatsiya yo'nalishidagi mamlakatlar o'zlari mustamlaka bo'lgan davrlarda uchinchi yo'nalishdagi modernizatsiyani boshdan kechirgan bo'ladilar. Mastamlakachilik davrida amalga oshirilgan uchinchi yo'nalish modernizatsiyasi bir muncha yuzaki bo'lishiga qaramasdan ikkinchi yo'nalishdagi modernizatsiyaga o'tish uchun muayyan ma'noda qulay iqtisodiy-tarixiy sharoit va sotsio-madaniy muhit yaratadi. Aniqroq qilib aytganda, uchinchi yo'nalishdagi mamlakatlarda amalga oshirilgan modernizatsiya u hududda agrar jamiyatdan sanoatlashgan jamiyatga o'tish jarayonlarini boshlab beradi. Shunday ekan, uchinchi yo'nalish modernizatsiyasini ikkinchi yo'nalishdagi modernizatsiyaning boshlanishi yoki aksincha, ikkinchi yo'nalishdagi modernizatsiyaning uchinchi yo'nalishdagi modernizatsiyaning tarixan davomi soddaroq qilib esa har ikki yo'nalishdagi modernizatsiyani bir yo'nalishning (quvib yetuvchi modernizatsiya modelining) tarixiy-xronologik jihatdan mustaqil, ammo bir-birini o'zaro taqazo qiluvchi va to'ldiruvchi hamda birinchisi ikkinchisini zaruriy tarzda keltirib chiqaruvchi alohida qismlari deyish mumkin.

Xulosa va takliflar

1. Modernizatsiya nazariyalari evolyusiyasini xronologik jihatdan quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin. 50-60 yillar, 60-70 yillar, 70-80 yillar, 80-yillardan keyingi davr. Modernizatsion paradigmaning yaxlit an'ana sifatidagi evolyusiyasi shuni ko'rsatadiki, u nazariy-metodologik jihatdan doimiy rivojlanib borgan. Buni modernizatsiya jarayonlarini tushuntirishga oid nazariy-metodologik yondashuv va modellarning bir-biriga transformatsiyasi ham ko'rsatib turibdi. Aniqrog'i, modernizatsion paradigma vujudga kelgan davrlaridan to bugungi kunga qadar yangi nazariy-metodologik andozalar yoki modellarga moslashib, doimiy shakllanib, takomillashib borish jarayonini boshdan kechirmoqda.

Shunga ko'ra, modernizatsion paradigmaning quyidagi nazariy modellarda ifodalanuvchi evolyusiyasini ko'rsatish mumkin: linear model, parsial (qisman) modernizatsiya modeli, ko'pchizikli model, aktor model, strukturaviy model.

2. Modernizatsiya ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy, demografik, sotsial va madaniy sohalarida amal qiluvchi turli xil yo'nalishga ega, ko'p qatlamli, xilma-xil darajada amal qiluvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Modernizatsiyaning ko'plab tur va modellarga ega ekanligi uni amalga oshirishda qo'llanilgan mexanizmlarga bog'liq bo'lib konkret tarixiy davr va hududda ro'y berganligi bilan belgilanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlariga xos bo'lgan birlamchi yoki organik modernizatsiya tarixiy xronologik jihatdan birinchi sanoat inqilobi davriga mos kelib, o'zining madaniy an'analari va obrazlariga asoslangan holda evolyusion yo'l bilan amalga oshgan.

3. Organik modernizatsiya yo'lidan borgan mamlakatlarni quvib yetuvchi (endogen-ekzogen, ekzogen modernizatsiya) modernizatsiya yo'lidan borgan mamlakatlar bilan solishtirganda mazkur davlatlardagi modernizatsiya jarayonlarida siyosiy omilning roli katta bo'lib, tezlashgan modernizatsiya amalga oshirilgan hududlarda an'anaviy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarning zamonaviysiga transformatsiyalashuvi uchun yetarlicha qulay shart-sharoit mavjud bo'lmaganligi tufayli ko'p xollarda davlat modernizatsiya tashabbuskori va tashkilotchisi vazifasini bajargan. Shuningdek, mustamlaka mamlakatlarda amalga oshirilgan yuzaki modernizatsiya yo'nalishi ham mavjud bo'lib, uni noorganik (quvib yetuvchi) modernizatsiya modeliga o'tish bosqichi sifatida tavsiflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хорос В.Г., Мирский Г.И, Майданик К.Л. и др. Авторитаризм и демократия в развивающихся странах. Москва: Наука, 1996. - 336 с. С-10-13.
2. Лев Рейснер, Нодари Симония Эволюция восточных обществ: Синтез традиционного и современного, Москва: Главная редакция восточной литературы издательства "Наука". 1984. – 584 с. с. 235-263.
3. MARTINEZ SERRANO JOSE ANTONIO. Economía española, 1960-1980: Crecimiento y cambio structural. Madrid: H. Blume. 1982. P 384. P-88.
4. Фадеев Д.А. Опыт политики переходного периода: Испания после Франко // Полис (Политические исследования), 1991, №5, С- 121-127.
5. Фадеев Д.А. Опыт политики переходного периода. Испания после Франко /Д.А.Фадеев//Полис. –1991. –№ 5. – С- 121-127.
6. Gerschenkron A. Economic Backwardness in Historical Perspectives. A Book of Essays. Cambridge, Massachusetts : Belknap Press of Harvard University Press, 1962. P 456. P. 44.
7. Хорос В.Г., Мирский Г.И, Майданик К.Л. и др. Авторитаризм и демократия в развивающихся странах. Москва: Наука,1996. - 336. С-13-18.
8. Прозоровский А.С. Модернизаторский авторитаризм в Индонезии и Южной Корее//МЭиМО, 2004, №7. С 83-92.
9. Amin S. L'Empire du chaos. La nouvelle mondialisation capitaliste. Paris, Editions L'Harmattan. 1992. P 137. P.

27-30.

10. Touraine A. Les Societies Dependantes: Essai sur l’Amerique Latine. Paris, Gembloux, 1976. P 266. P-74.

11. Булекбаев С.Б., Бурханов К. Казахстанский путь в дилемме: Восток или Запад?. - Астана: Елорда, 2010. – 336 с.С-96.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Abdullayev Diyorbek Azodovich
Mustaqil izlanuvchi

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDAGI TARBIYASI ORQALI ULARDA ONA VATANIMIZNI ASRASH TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: *Vatanparvar* — bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi. Maqolada harbiy vatanparvarlik tarbiyasining harbiy nashrlar va virtual platformalarning o'rni asoslari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: yurt, vatan, vatanga sadoqat va harbiy kuchlar ta'limi

Abdullayev Diyorbek Azodovich
Independent researcher

FORMING IN THEM THE SENSE OF PROTECTING OUR MOTHER COUNTRY THROUGH PATRIOTIC EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

Abstract: *Patriotism is a concept that expresses people's love and loyalty to their motherland and their homeland. Patriotism is a universal human feeling common to all people, peoples, and nations, refined over the centuries, and a set of emotions that have been refined from spiritual values. The article explores the basics of military patriotism education in the role of military publications and virtual platforms.*

Key words: country, motherland, loyalty to the motherland and training of military forces

Абдуллаев Диёрбек Азодович
Независимый исследователь

ФОРМИРОВАНИЕ У НИХ ЧУВСТВА ЗАЩИТЫ РОДИНОЙ СТРАНЫ ЧЕРЕЗ ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *Патриотизм – понятие, выражающее любовь и верность людей к своей Родине и своей Родине. Патриотизм – это общечеловеческое чувство, общее для всех людей, народов и наций, отточенное веками, и совокупность эмоций, отточенная из духовных ценностей. В статье исследуются основы воспитания военного патриотизма в роли военных изданий и виртуальных площадок.*

Ключевые слова: страна, Родина, верность Родине и подготовка военных сил.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ma'naviy targ'ibotning qamrovini yanada kengaytirish, yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni kasb-hunarga yo'naltirish, Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini takomillashtirish, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilib, ularga sog'lom fikr beradigan manbalarni ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berilib yoshlarga oid barcha sohalardagi davlat siyosatini samarali tashkil etishga qaratilgan "Yangi O'zbekiston yoshlari" dasturini ishlab chiqish, qonunchilikni o'zgartirish bo'yicha takliflar berildi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jahon hamjamiyati nigohida yuksak baholanmoqda. Bugun globallashuv davrida yoshlarga e'tibor qaratish, ularning

har biri sifatli bilimga ega bo'lishini va yoshlarga aloqador barcha sohalarni yanada rivojlantirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Bu borada kim kuchli bo'lsa, marralar ham unga boqib ketaveradi. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash borasida milliy modelning ishga tushurilishi natijasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning ta'lim olishi uchun juda ko'p imtiyozlar va imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston - yoshlar mamlakati. Shu bois, yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kamolotiga alohida e'tibor qaratiladi. eng avvalo, bu sohadagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari doimiy takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi

qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa hokimiyat va boshqaruv organlarining bu boradagi vakolatlari hamda sohaga doir boshqa ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solingan. Shuningdek, yoshlarning bepul umumiy ta'lim olish huquqining kafolatlangani ham e'tiborga molikdir. Bugungi kunda mamlakatimizda iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya ta'lim sohasining rivojiga mustahkam poydevori bo'lmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo'lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo'lmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'tgan olti yil ichida respublikada yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizga oshgan. Xususan, bakalavriat yo'nalishiga qabullar 2016-yilda 58 ming 22 ta bo'lgan. Bu raqam 2022-yilga kelib 190 ming 375 taga yetgan. Magistraturada 2016-yilda 5 ming nafar talaba o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 16 ming 933 taga yetgan. Bu raqamlardan ma'lumki yoshlar kelajagiga bo'lgan e'tibordan quvonasan kishi. Davlatimiz rahbari tomonidan OTMlarda tahsil olayotgan xotin-qizlar uchun ham alohida imtiyozlar ham ajratilishi to'g'risida qaror qabul qilishlari ham barchani birdek quvontirdi. Bunda **2022-2026-yillarga** mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqildi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etilishi. Paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochilishi. Ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinib, o'tgan yilda banklarga **1 trillion 800 milliard so'm**, kelgusi besh yilda **8 trillion** so'm mablag' ajratilishi belgilangan edi. Qolaversa, Magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab berilishi hamda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanishi belgilangan edi va amalga ham oshirildi. Shu bilan bir qatorda universitetimizning magistratura ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan **1-2 kurs jami 428 ta qizlarga** qonunda belgilangan tartibda shartnoma to'lovlari to'liq to'lab berildi. Bu imkoniyatlar davlat rahbarining har tomonlama yoshlarni qo'llab-quvvatlashi, yoshlarni tubdan o'rganib ularning istaklariga va harakatlariga qarab zamon bilan hamnafas tarzda qaror va qonunlar qabul qilayotganliklari har bir yoshning yuragida yurtiga, oilasiga, jamiyatiga va eng asosiysi yurt boshiga nisbatan faxr va ma'suliyat hissini sezish mumkin. Bu quvonarli albatta. Ayni kunlarda mamlakatimiz miqiyosida

umumxalq referendumiga qo'yilgan konstitusiyaviy qonun loyihasi o'ziga xos tarzda qizg'inlik bilan yoshlar orasida ham muhokama qilinmoqda. Yoshlar bu loyihani mamnunlik bilan kutib olib, konstitusiyaviy hujjatga befarq emasligini anglagan holatda uni o'qib o'rganib chiqmoqda. Bu loyihaning qabul qilinishi millatimiz nomusidek bo'lgan qomusimizni mazmunan boyitadi, uning hayotiyiligi va ta'sirchanligini keskin oshiradi. Bu qonunlar taklifi, tahriri, yozilishiga boringki bir yil ketgandir, biroq bu hujjat xalqqa yuz yillab xizmat qilib xalq e'tibori markazida bo'ladi.

Konsepsiya yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitdagi dolzarb vazifalarni belgilab beradi. Konsepsiya – yaxlit ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lib, unda O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un aloqa o'rnatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ona Vatanimizni asrash va shuhratini dunyoga tarannum etish, unga bo'lgan sadoqat, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga tayyorlik singari eng muhim tushunchalar va vatanparvarlik tuyg'usini yoshlarning qalbi va ongida ilk bolalik davridan boshlab shakllantirish hujjatning asosiy mazmunini tashkil etadi. yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

- milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

- yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

- O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek boshqa davlat va nodavlat organlari Konsepsiya amalga oshirilishi uchun mas'ul etib belgilandi. Ushbu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklandi, u boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining Konsepsiyani o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishlari ustidan nazorat qiladi, shuningdek har chorakda Vazirlar Mahkamasiga hisobot taqdim etadi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o'rganuvchi harbiy psixologiya ham muhim ahamiyatga

ega. Psixologik fan inson shaxsiyoti, ichki ma'naviy dunyosi, o'zini tutish omillari, bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi. Tarbiyachilarning psixologik fanni yaxshi bilishi, ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o'quvchilarini harbiy o'quv yurtlariga kirish va O'zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. *Oriental Journal of Social Sciences*, 29- 32.
2. Рафиқова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). ЁШЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ, 2(1).
3. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. *Теория и практика современной науки*, (5), 67-69.
4. Ahatov, S. A., & Akhmatkulov, U. M. (2021). Basics of pre-conscription military training subject. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 441-447.
5. Saidov, I. M., Axmatqulov, U. M., & Abdullayev, B. T. (2020). ОММАВИЙ ВА ИНТЕРНЕТ АХБОРОТ RESURLARINING YOSHLARDA VATANGA SODIQLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDAGI BOG'LIQLIKLAR. *Academic research in educational sciences*, (4), 199-203.
6. Собиров, О. Ф., & Ахмадқулов, У. М. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ. *Мировая наука*, (11), 306-308.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Dilbar Ro'zmetova
Alfraganus universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dosenti
E-mail:jumaniyoz@gmail.com

SHARQ FALSAFASIDA QADRIYATLAR MASALASI

Annotasiya. Maqolada Qadriyatlarining mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq muammolarning tahlili, xususan, Markaziy Osiyodagi, ayniqsa, O'zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari, falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqllar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalari borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning mohiyati, mazmuni, ularning falsafiy tafakkur tarixida tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qadriyat, Sharq, Spetamen, Alpomish, To'maris, Shiroq, doston, vatanparvarlik, xalq, yurt, ozodlik, fidoiylik, oqim, mutafakkir.

Дилбар Розметова
Университет Альфраганус
доцент кафедры "Социальные науки"

ВОПРОС О ЦЕННОСТЯХ В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. В статье анализ проблем, связанных с сущностью, содержанием, формами проявления ценностей, в частности, мыслителями и учеными Центральной Азии, особенно Узбекистана, философско-исторический анализ восходит к древним повествованиям, наречиям, мифам, пословицам, эпосам, образцам народного устного творчества, созданным на нашей земле. В народном устном творчестве анализируются более универсальные и общечеловеческие ценности, их сущность, содержание, их роль в истории философской мысли.

Ключевые слова: ценность, Восток, Спецамен, Алпомиш, Тумарис, Широқ, эпос, патриотизм, народ, земля, освобождение, самопожертвование, поток, мыслитель.

Dilbar Rozmetova
Alfraganus University
Associate Professor of the Department of Social Sciences

THE QUESTION OF VALUES IN EASTERN PHILOSOPHY

Annotation. The article analyzes the problems related to the essence, content, and forms of manifestation of values, in particular, by thinkers and scientists of Central Asia, especially Uzbekistan, philosophical and historical analysis goes back to ancient narratives, dialects, myths, proverbs, epics, and samples of folk oral art created on our land. In folk oral art, more universal and universal values, their essence, content, and their role in the history of philosophical thought are analyzed.

Keywords: Value, East, Special phenomenon, Alpomish, Tumaris, Shirak, epic, patriotism, people, land, liberation, self-sacrifice, stream, thinker.

Kirish.

Qadriyatlarining mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Kishilar qadim zamonlardan o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji

davomida bu boradagi muammolar ko'paygan, ularni hal qilishning ahamiyati ortavergan.

Adabiyotlar tahlili:

Qadriyatlar mavzusi bir qator dunyoqarashlarning asosida yotgan, ularning markaziy qismini tashkil qilgan. Ko'pgina falsafiy oqimlar va mutafakkirlar ham bu mavzuni chetlab o'tmaganlar. Mavzuning falsafiy-tarixiy tahliliga bag'ishlangan G'arb va Yevropa, Rossiya va sobiq

ittifoqning mintaqamizdan boshqa hududlarida yashaydigan olim va mutaxassislariga tegishli kitob va risolalarda, bu tahlil asosan, Yevropa olimlarining merosi va qadriyatshunoslikka qo'shgan hissasi to'g'risida boradi. Bunda Sokrat, Platon, Aristotel', Geraklit, Demokrit, J.J.Russo, A.Sen-Simon, Sh.Fur'e, R.Ouen, I.Kant, M.Sheler, N.Gartman, V.Vindel'band, G.Rikkert, Ujeyms, J.D'yui, N.Berdyayev, P.Sorokin, E.Dyurkgeym, T.Parsons va boshqalarning nomlari tilga olinadi. Biz ham ushbu mutafakkir, olim va faylasuflarning qarashlari, xulosalari va mulohazalaridan ijodiy foydalandik, shu davomida ular yozgan ba'zi asarlarga murojaat qildik. Ularning fandagi o'rni, asarlarining ahamiyati katta, «sofizm», «platonizm», «kantchilik», «pragmatizm», «pozitivizm», «industrial jamiyat», «postindustrial jamiyat» kabi oqim va ta'limotlar ana shu olim hamda faylasuflarning nomi bilan bog'langan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ammo qadriyatlar mavzusi ko'hna va navqiron Sharq, uning tarkibiy qismi bo'lgan Markaziy Osiyo va O'zbekiston mutafakkirlari hamda olimlari uchun ham begona emas! Qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo'lmas kerak. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug'bek, Jamiy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Maxtumquli, Abay, Behbudiy, A.Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ijodida ham bu mavzuning izlari bor. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmaslikda, yangilab turishda, zamona realliklari nuqtai nazaridan xolisona talqin qilishdadir. Quyida biz yurtimizning o'tmish madaniyatida qadriyatlar muammosi qanday ahamiyat kasb etganligi va ilm ahli tomonidan qay tariqa yoritilganligini qisqacha tahlil qilamiz. Biz uchun bunda eng asosiy maqsad – tarixiy tadqiqot emas, balki masalaning qadriyatshunoslik bilan bog'liq tarzda qo'yilishi va tahlil qilinishidir. Bu boradagi intilish «Osiyosentrizm» tarzida emas, balki avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar tarixini jahon madaniyatining tarkibiy qismi va sivilizasiyamiz madaniyatining ajralmas bo'lagi sifatida xolisona o'rganishga harakat qilishdir. Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalari borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan. «Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning «Iliada» va «Odiseya» dostonlari bilan qiyoslash mumkin»⁴¹

Tahlillar va natijalar.

Qadimgi odamlar borliq to'g'risida o'ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto ularning ba'zilarini ilohiylashtirganlar. Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o'z aksini topgan, har bir din o'ziga xos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular birbirlaridan ana shu dinlarining asosiy kitoblari Qur'on, Injil, Veda, Upanishad va boshqalarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o'z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgan sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan. Ajdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o'rin berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar Axuramazda qiyofasi orqali ko'rsatilgan. Kitob mualliflaridan biri Zaratushtra (Zardusht) fikricha, odamlar yaxshilik, yorug'lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida Axuramazda tomonida bo'lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma'naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Avestoda yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid manbalar borki, ularni yanada chuqur o'rganish lozim. Qadriyatlar mavzusi «Moniy davri» (milodning III-IV asri, asoschisi Moniy 216-276 yillarda yashagan) falsafiy-ilohiy ta'limotida ham yaqqol ifodalangan. Moniy fikricha ikki dunyo – «zulmat va ziyo dunyosi» mavjud, birinchisida adolatsizlik, zulm, zo'rvonlik hukm suradi, ikkinchisi adabiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir. Moniy ta'limotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatlari jamlangan, ularning umumiy tizim mifologiya, filosofiya, kosmogoniya, astronomiya va boshqa ijtimoiy-tabiiy bilim sohalari bilan bog'liqlikda bayon qilingan. Qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan Mazdak (51 yilda qatl qilingan) ta'limotida ham ko'zga tashlanib turadi. Afsuski, islom rasmiy dinga aylanganidan so'ng bu izlar xiralashib qolgan, ularni izlab topish qiyinlashgan. Markaziy Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlar

⁴¹ O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – T.: O'zbekiston, 1995. 6-bet

rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy hukmron dinga aylangan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi. Islom dini Osiyoda faqat arablarning dini bo'lib qolmadi, u ko'pgina sharq xalqlarining ham umumiy diniga aylandi. Alohida e'tirof etish kerakki, Qur'onda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyatlar xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sirning ahamiyatini turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o'tmishda ham muayyan qadrga ega ekanligini inkor qilishning ilohi yo'q. Zaminimizda yashagan har bir mutafakkir, olim, alloma ijodida islom dini ilohiy qadriyatlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi va arab itilosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimizning yo'qotib yuborilganligini alohida qayd qilmoq kerak. Bu to'g'rida Beruniy «Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar» asarida afsus bilan yozib qoldirgan. Kezi kelganda yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, vatanimiz sivilizasiyasining qadriyatlari arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta aks ta'sir o'rsatganligi shubhasiz. horazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulug'bek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy. Bobur, Bedil, Mashrab kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizasiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta'siri beqiyos. Ularning islomga, uni zamona zayllari orasidan o'tishi jarayoniga ta'sirlari to'g'risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamonaviy islom ilohiyotchilarining al-Buxoriy asarlarini Qur'ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotganliklar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy va Naqshbandning qabrlariga muqaddas sajdagohlar sifatida sig'inishlari bejiz emas! Manbalar yetarli bo'lishiga qaramasdan yurtimiz sivilizasiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta'siri to'g'risida yozilgan asarlar haligacha yetarli emas, bu to'g'rida tadqiqotlar olib borish zaruriyati allaqachon yetilgan. Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keyingi davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi.⁴²

Xorazmiy olimning qadri, o'tmishlari fikrlarini kelajakka hokisor yetkazib berishda, deb hisoblar edi.

Mutafakkir quyidagicha yozadi: «O'tmish davrlarda o'tgan olimlar fanning turli tarmoqlari... sohasida asarlar yozish bilan o'zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar... Ulardan biri o'zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi, uni o'zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi»⁴³. Bu so'zlar butun sharq olimlari uchun umumiy talab, kamolot mezon, hozirgi intellektual mulk egalari ma'naviy qiyofasining asosiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy (873-959) ham qadriyatlarga katta e'tibor bergan⁴⁴. Forobiyning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlarini «Madina al-fozila» ta'limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to'g'risidagi ta'limotida yuksak g'oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining umumiy tizimini izohlab bergan⁴⁵. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma'naviy-ahloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Alloh g'oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaray olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biridir.

Xulosalar.

Yurtimizda qadriyatlar mavzusi o'zining o'tmishiga ega, uning ildizlari esa qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G'arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog'i lozim. Qadriyatshunoslik faniga yurtimiz tarixida o'z o'tmishiga ega bo'lgan bilimlar sohasi sifatida qarash va mamlakatimizda bu fanning zamonaviy rivojlanishini belgilaydigan asoslar bor, deyish mumkin. Bugungi kunda qadriyatlar mavzusida tadqiqotlar biroz jonlangan bo'lsada, Afsuski, masalaning zamonaviy qadriyatshunoslik bilan bog'liq bu jihati xaligacha to'la-to'kis o'rganilmagan va o'zining tadqiqotchilarini kutmoqda.

⁴² Файзуллаев А.Ф. Научное творчество Мухамеда ал-Хоразми. – Т.: Фан, 1983 (китобда ал-Хоразмий иждодига бағишланган манбалар берилган).

⁴³ Mukhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – Т.: Fan, 1983. 59-bet.1

⁴⁴ Ramatov, J., & Umarova, R. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1974-1980.

⁴⁵ Ramatov, J., (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.

Foydalanilgan adabiyotlar

- oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;

- gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda byudjetni rejalashtirish, gender masalalarini byudjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish;

- gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish;

- gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo'lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish[1].

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida gender tenglikka erishishdagi eng asosiy indikatorlardan biri zo'ravonlik darajasini minimallashtirish bilan asoslanadi.

Binobarin, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida xalqimizga yot bo'lgan zo'ravonlik harakatlariga butunlay barham berish, xotin-qizlarimizni har qanday tazyiqlardan himoya qilish oldimizda turgan muhim vazifalardan sanaladi. Buning uchun xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda ayollarni har qanday tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalarini doim nazorat qilib borish talab etiladi.

Zo'ravonlik xotin-qizlarning ruhiy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy salomatligiga zarar etkazibgina qolmaydi, balki uni ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan shaxs sifatida jiddiy ijtimoiy muammolarga ham duchor qiladi.

Maishiy zo'ravonlik (oiladagi zo'ravonlik) – butun dunyoda keng tarqalgan va har qanday millat, ijtimoiy sinf va ilmiy salohiyat (bilim)ga ega bo'lgan jamiyat vakillari uchun xos bo'lgan hodisadir. Bizning respublikamiz ham bundan mustasno emas. Jamoatchilik orasida zo'ravonlik, faqat ijtimoiy notinch oilalarda yuz beradi, deyiladigan fikr keng tarqalgan. Lekin zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan bu fikrning butunlay noto'g'ri ekanligi isbotlangan.

Zo'ravonlik salbiy ijtimoiy hodisa bo'lib, juda murakkab mavzu hisoblanadi. Uning qurbonlari ko'pgina hollarda sukut saqlashga majburdirlar va bu zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan xotin-qizlar bilan ishlash, muloqotga kirishishda alohida yondashuvni talab etadi.

Oilalarda yuzaga keladigan bunday vaziyat albatta bir necha muammolar, jumladan, inqiroz va ertangi kunga bo'lgan ishonchsizlik, hayotiy muhim qarorlarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmaslik, inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarining o'z qiymatini yo'qotishi va turli xil ruhiy muammolarning uyg'unlikdagi ko'rinishlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi boshchiligidagi, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ko'magida reabilitatsiya va moslashtirish respublika markazi qoshida "zo'ravonlikka yo'l yo'q!" Telegram kanali faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kanal eng avvalo, xotin-qizlar, qolaversa, gender zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi bilan bevosita va bilvosita daxldor bo'lgan davlat-nodavlat idora va tashkilotlari, jurnalist va blogerlar hamda keng omma uchun mo'ljallangan.

Telegram kanalida xotin-qizlarning o'zlari yoki yaqinlari, oilada yoxud ish joyida gender zo'ravonlikka uchragan taqdirda, kerakli huquqiy yordam, amaliy ma'lumot, kimga va qaerga murojaat qilishi haqida zarur axborotlarga ega bo'lishi mumkin. Bu erda ular uchun mamlakatimiz va jahon miqyosida gender tenglikni

ta'minlash va gender zo'ravonlikka qarshi kurashishga oid eng so'nggi yangilik va xabarlar joylashtirib boriladi.

Shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarga erishish haqidagi xotin-qizlarni qiziqtirgan savollarga javob topish mumkin.

Uydagi zo'ravonliklarning sabablari orasida ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy (individual) sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy zo'ravonlik: bolalarni boqishdan bosh tortish; daromadni yashirish; oilaning pullarini sarflash; moliyaviy qarorlarning aksariyatini shaxsan qabul qilish. Bu holda, masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishda bolalar yoki ayolning ehtiyojlari inobatga olinmaydi; xotin, xaridlarni amalga oshirar ekan, to'lov cheklari bilan birga axborot berishi lozim bo'ladi va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 2 iyuldagi "Ijtimoiy reabilitasiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son qaroriga ko'ra zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarga o'z vaqtida va manzilli yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish, o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvor paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va unga erta barham berish maqsadida nodavlat notijorat tashkiloti sifatida "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitasiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi" tashkil etildi.

Bugunga kelib zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitasiya qilish va moslashtirish bo'yicha tashkil etilgan markazlar soni 197 tadan iborat bo'lib, shundan viloyat ijtimoiy moslashuv markazlari soni 14 ta, shahar, tumanlar ijtimoiy moslashuv markazlari soni 183 tani tashkil etadi. "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitasiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish Markazlari"ga 2020 yilda 22 383 nafar shaxs murojaat qilgan. Ularning 7 ming 423 nafariga psixologik, 3 ming 311 nafariga huquqiy yordam ko'rsatilgan.

2020 yil 25 noyabrdan 10 dekabrgacha "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish bo'yicha 16 kun faollik" aktsiyasi o'tkazilgan. Aktsiya doirasida qo'mita tomonidan ijtimoiy roliklar va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan posterlar ishlab chiqilgan va respublika bo'ylab namoyish qilingan.

Shuningdek, aktsiya doirasida O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va BMT taraqqiyot dasturining "Davlat boshqaruvida ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish" qo'shma loyihasi doirasida zo'ravonlik va uning turlari, ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish yuzasidan xalqaro tajribani inobatga olgan holda inspektorlar uchun treninglar o'tkazilgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra"[2], dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o'z umr yo'ldoshi tomonidan jismoniy tazyiq o'tkaziladi.

Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'ravonlik holatlariga duch kelganlari haqida ma'lum qiladi. Ayollar o'limining muayyan qismi ularning turmush o'rtog'i tomonidan amalga oshiriladi va zo'ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so'zlaydi.

Zo'ravonlikka qarshi kurashda huquqiy mexanizmlar ta'siri kuchli bo'lishi bilan birga, zo'ravonlik qurbonlari tomonidan ham ularni zo'ravonlikdan himoya qilish uchun qonun ishlashiga yordam berilishi maqsadga muvofiq. Aksariyat hollarda zo'ravonlik qurbonlari bunday holatlarni sir tutishga harakat qilishadi. Shunday ekan, ularni zo'ravonlik faktini tan olish, zo'ravonlikdan normal hayotgacha bo'lgan qadamlarga o'rgatish kerak. Bunda eng asosiy bo'g'in odamlar va atrof-muhit bo'ladi, ya'ni jamoatchilikning faolligi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish;
- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilinishini ta'minlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniyligni mustahkamlash;
- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;
- xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rish;
- tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini ta'minlash.

Ko'pgina xorijiy davlatlarda zo'ravonlik oilada sodir etilsa, jinoyatni og'irlashtiruvchi holat sifatida qabul qilinadi. O'zbekistonda esa oiladagi zo'ravonlik etarlicha baholanmaydi, e'tiborga olinmaydi. Aslida qonun oldida oilaviy rishtalar qandayligidan qat'i nazar, barcha teng huquqlidir. Ko'chadagi begona insonni haqoratlash yoki unga tan jarohati etkazish qanday javobgarlikka tortilsa, oiladagi shaxsga nisbatan zo'ravonlik ham shunday jazolanishi lozim.

Tadqiqot doirasida "Gender tenglikni ta'minlash asoslari" mavzusida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. Mazkur so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar 247 nafarni tashkil etdi. Ijtimoiy so'rovnoma Farg'ona,

Andijon va Namangan viloyatlarida o'tkazildi. Shuningdek, so'rovnomada ushbu viloyatdan tanlab olingan ekspert-respondentlar ham ishtirok etdi.

Tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan so'rovnomada quyidagi savollardan foydalanildi.

1. Gender tenglik deganda nimani tushunasiz?
2. Gender tenglik asosida erkak va ayollarning tengligini shakllantirish xaqida qanday fikrdasiz?
3. Feminizm deganda nimani tushunasiz?
4. Gender tenglikni ta'minlashdagi milliy xususiyatlar nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
5. Ijtimoiy tarmoqlarda ayollarga nisbatan oilaviy zo'rovonlik xolatlari ko'payib ketayotganligiga qanday munosabatdasiz?
6. Gender tenglikka erishishning ijtimoiy ahamiyatini qanday baholaysiz?
7. Xotin-qizlarning qaysi sohalarda huquqlarining erkaklar bilan teng bo'lishini normal holat sifatida tushunasiz?
8. Bugun jamiyatimizda gender tenglik bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotganligining sababi nimada?
9. Xotin-qizlarga nisbatan zo'rovonlikka qanday munosabatdasiz?
10. Gender tenglikka erishishga to'sqinlik qilayotgan qanday ijtimoiy va gender stereotiplar mavjud?

Ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etganlarning 72 % yoki 178 nafari oddiy respondent ishtirokchilar, 28 % yoki 69 nafari ekspert-respondentlarni tashkil qildi.

So'rovnomada berilgan savollarning statistik tahlili quyidagicha:

Birinchi savol: "gender tenglik deganda nimani tushunasiz?", - degan savolga ishtirokchilarning 60 % yoki 150 nafari ma'lumotga ega emasligini bildirgan bo'lsa, 28 % yoki 69 nafari "Erkak va ayollarning teng huquqliligi" degan javobni, 12 % yoki 30 nafari ayollar harakati ekanligini aytgan.

Ikkinchi savol: "gender tenglik asosida erkak va ayollarning tengligini shakllantirish xaqida qanday fikrdasiz?", - degan savolga ishtirokchilarning 66 % yoki 163 nafari ma'qullab javob bergan va bu jamiyat taraqqiyoti uchun juda kerakli ekanligini bildirgan bo'lsa, 26 % yoki 64 nafari bu Islomiy e'tiqodga to'g'ri kelmasligini bildirgan. Ishtirokchilarning 8 %i yoki 20 nafari bu haqida tushunchaga ega esaligini bildirgan.

To'rtinchi savol: "gender tenglikni ta'minlashdagi milliy xususiyatlar nimalardan iborat bo'lishi mumkin?", - degan savolga ishtirokchilarning 57 % yoki 141 nafarining bergan javoblaridan e'tiqodiy aqidalar va milliy urf-odatlar ustuvorligi kelib chiqsa, 31 % yoki 77 nafarining bergan javoblaridan ijtimoiy stereotiplar, oilaviy qadriyatlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Respondentlarning 12 % yoki 30 nafari bo'lsa, bu to'g'risida hech narsa bilmasligini bildirgan.

Oltinchi savol: "gender tenglikka erishishning ijtimoiy ahamiyatini qanday baholaysiz?", - degan savolga ishtirokchilarning 69 % yoki 170 nafari jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik asosi ekanligini bildirgan bo'lsa, 31 % yoki 77 nafari beqarorlikni, oilaviy parokandalikni, ajirimlarni ko'paytirishini ta'kidlagan.

Ettinchi savol: "xotin-qizlarning qaysi sohalarda huquqlarining erkaklar bilan teng bo'lishini normal holat sifatida tushunasiz?", - degan savolga ishtirokchilarning 55 % yoki 136 nafari jamiyatning barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratilishi lozim, degan fikrni bildirganlar. Ishtirokchilarning 24 % yoki 59 nafari ta'lim, sog'liqni saqlash va ayrim davlat xizmatlarida, degan javobni berishgan, 21 % yoki 52 nafari boshqaruvdan tashqari barcha faoliyat turlarida teng imkoniyatlar berilishi kerak, degan javobni berishgan.

To'qqizinchi savol: "xotin-qizlarga nisbatan zo'rovonlikka qanday munosabatdasiz?", - degan savolga ishtirokchilarning 92 % yoki 227 nafari salbiy munosabatda bo'lishini, qoralashini bildirgan bo'lsa, 8 % i yoki 20 nafari har zamonda "ayollarni o'z o'rnini" ko'rsatib turish kerakligi, har doim erkaklarni ayblayvermaslik kerakligini bildirgan.

O'tkazilgan sosiologik tadqiqotlar O'zbekistonda gender tenglik masalasiga fuqarolar o'ziga xos tarzda, ya'ni milliy urf odatlar, udumlar va e'tiqodidan kelib chiqib yondoshishini, ayollar va erkaklar tengligi masalasi esa azaldan milliy o'ziga xos ijtimoiy asoslarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Fuqarolarda ayollarga e'tibor yoki ularning erkaklar bilan tengligi masalasi aksariyat hollarda milliy va axloqiy qadriyatlar, "oilada erkak kishining ustunligi" g'oyalari bilan uyg'un tarzda kechadi hamda o'z navbatida erkaklarda ayollarga hurmat va e'tibor ularni qadrlashning milliy me'zonlariga asoslanadi.

Shuningdek, sotsiologik tadqiqot natijalari jamiyatimizda etarli huquqiy va tashkiliy asos yaratilgan bo'lsada, nafaqat erkak kishilar, balki ayollarning ham bilimni oshirish, ularning bu boradagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvatlash hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalaga aylanganligini ko'rsatmoqda.

Xotin-qizlarni jamiyatning siyosiy hayotiga jalb etishning faollashuvi ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi, zero, busiz haqiqiy demokratik davlatni qurib bo'lmaydi.

Barcha sohalarda, ayniqsa siyosat sohasida gender tenglikka erishish oson ish emas. Aynan shu sababli demokratiya qaror topgan mamlakatlardagi xotin-qizlar harakati rivojlanishi tajribasini o'zlashtirish, uni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlaridan foydalanish zarur.

Bu masalada siyosiy partiyalar emas, balki xotin-qizlarning nohukumat tashkilotlari (NHT) faollik

ko'rsatmoqda. Bizningcha, aynan shu tashkilotlar siyosiy etakchilik malakalarini shakllantirish imkoniyatiga ega. 1995 yildan boshlab, mamlakatimizda xotin-qizlar tashkilotlari jadallik bilan rivojlana boshladi.

Hozirgi vaqtda mahalliy, milliy va xalqaro darajalarda xotin-qizlarning nohukumat tashkilotlaridagi ishtiroki xotin-qizlar siyosiy faoliyatining asosiy shakllaridan biridir. Xotin-qizlarning jamoat tashkilotlaridagi faoliyati siyosiy ish tajribasini orttirishga ko'maklashadi va umumiy siyosiy madaniyat darajasini oshiradi. Xotin-qizlar muammolarini qarorlar qabul qilish darajasida amaliy hal etish uchun parlament a'zolari bo'lgan xotin-qizlar bilan xotin-qizlar tashkilotlari vakillari o'rtasida yaqindan hamkorlik o'rnatish zarur bo'ladi.

Xotin-qizlarning mahalliy davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni ularning xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kegashlariga saylanishi, ular faoliyatida ishtirok etishi bilan ham bog'liqdir. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hokim o'rtasida davlat hokimiyati taqsimlanishi tamoyili yotsa-da, ular ijtimoiy, siyosiy, madaniy muammolarni hal etishda uyg'undirlar. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari "davlat hokimiyatining vakillik organlari" deb ham ataladi.

Yuridik fanlari doktori, professor A.To'laganov yozganidek: "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanish huquqi ularga faqat saylovlarda ishtirok etish imkonini berib qolmasdan, deputatlikka saylangandan so'ng davlat hokimiyatini bevosita amalga oshirish imkonini ham beradi"[3].

Ya'ni xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hokim bilan birga hududni boshqarish vazifalarini bajaradilar, Agar asosiy Qonunimizdagi "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir (7-modda)"[4], degan printsipdan kelib chiqsak, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hokim o'rtasida o'ziga xos mutanosiblik bo'lishi shartligini anglaymiz.

Xotin-qizlar qo'mitasi ayollar masalasini, ular duch kelayotgan muammolarni yuqori davlat boshqaruvi pog'onasida hal etish imkoniga ega. Bu bilan u boshqa nodavlat tashkilotlaridan farq qiladi. Shunisi e'tiborliki, mazkur tashkilotning viloyat va tumanlarda ham bo'limlari mavjud, ularning barchasini oliy ma'lumotli, xotin-qizlar masalasidan xabardor, aholi yaxshi taniyidigan, faol va tashabbuskor ayollar boshqaradi. Ular o'rtacha 45-47 yoshlardadir.

To'plagan ma'lumotlarimizga ko'ra, xotin-qizlar qo'mitalarini boshqarayotgan ayollarning 44 foizi gumanitar bilimga, 28 foizi injener-texnik, agronom yoki hisob-kitobchi, moliyachidir. 24 foiz ayol turli boshqaruv ishlarida, lavozimlarida ishlagan, keyin xotin-qizlar qo'mitasini boshqarishga taklif qilingan. Ularning barchasi

oilali, ikki yoki to'rt farzandning onasi. Xotin-qizlar qo'mitasini boshqarishga ularni asosan, mahalliy hokimiyat taklif etgan.

Xotin-qizlar qo'mitalarining barcha viloyat, tuman, mahalla va o'quv yurtlaridagi bo'lim hamda boshlang'ich tashkilotlarining faoliyati ko'rsatadiki, ular bugun respublikamizdagi eng yirik va xotin-qizlarning tashabbuslariga boshchilik qilayotgan haqiqiy ommaviy tashkilotdir.

Xulosa qilib aytganda, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan gender strategiyasining idikatorlarini to'g'ri baholash va shu asosda islohotlarni olib borish, qonunchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatning ijtimoiy ongida gender tenglik tafakkurini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Mamlakatimizda 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va etakchilik qilishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash ko'zda tutilgan.

Barcha sohalarda, xususan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda, ayollarning har tomonlama faol ishtirokini va ularga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlarini ta'minlash maqsadida barcha tegishli choralarini, shu jumladan qonunchilikni takomillashtirish choralarini ko'rish maqsad qilingan.

Qizlarning professional faoliyat sohasini tanlashini tahlil qilish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, ayollarning, ayniqsa yosh qizlarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ular qiziqishining turli yo'nalishlari bo'yicha assotsiasiyalar tashkil etish, qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga monelik qiladigan aqidalarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ayol kadrlar zaxirasini shakllantirish institutini faol qo'llash amaliyotini joriy qilish orqali ular jamiyat rivojiga, jamiyat boshqaruvida munosib xizmat qilishining imkoniyat doirasi kengayadi. Demak, har bir sohani harakatga keltirishda asosiy "kuch" kadr ekanligini inobatga olsak, ayol kadrlar zaxirasini shakllantirish institutini joriy etish natijasida, ayollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashning usullari va tizimi shakllantiriladi. Zo'ravonlikka qarshi kurashda huquqiy mexanizmlar ta'siri kuchli bo'lishi bilan birga, zo'ravonlik qurbonlari tomonidan ham ularni zo'ravonlikdan himoya qilish uchun qonun ishlashiga yordam berilishi maqsadga muvofiq. Aksar hollarda zo'ravonlik qurbonlari bunday holatlarni sir tutishga harakat qilishadi. Shunday ekan, ularni zo'ravonlik faktini tan olish, zo'ravonlikdan normal hayotgacha bo'lgan qadamlarga o'rgatish kerak. Bunda eng asosiy bo'g'in odamlar va atrof-muhit bo'ladi, ya'ni jamoatchilikning fikri hamda faolligi muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi «2030 yilga qadar o'zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida» gi SQ-297-IV-son Qarori
2. Violence against women. Key facts. World Health Organization, <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>
3. To'laganov A. Davlat hokimiyatining vakillik va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish. – Toshkent: TDYuI, 2002. –B.39.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2014. –B.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali o'qituvchisi
gulshodamixliyeva94@gmail.com

UDK 130.3

GLOBALLASHUV DAVRIDA TAFAKKUR ERKINLIGIGA BO'LGAN ZARURIYAT

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi globallashuv davrida, axborot texnologiyalar asrida jamiyat har tomonlama rivojiga o'z hissasini qo'sha oladigan erkin tafakkurli, ma'naviyatli shaxsarga bo'lgan ehtiyoj va uning yechimlari o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada tafakkur erkinligi tushunchasiga alohida to'xtalib tafakkur erkinligi va ma'suliyat tushunchalarining aloqadorligi taqqoslab o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur erkiligi, globallashuv davri, axborot texnologiyalar asri, ma'naviyat, jamiyat, erkinlik, mas'uliyat.

Mikhlieva Gulshoda Zarip kizi
independent researcher, Karshi branch of TUIT named after Muhammad al-Khwarazmi

THE NEED FOR FREEDOM OF THOUGHT IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Annotation: this article explores the need for a free-minded, spiritual person who can contribute to the comprehensive development of society in today's era of globalization, in the age of Information Technology, and its solutions. In addition, the article focuses specifically on the concept of freedom of contemplation, comparing the relationship of the concepts of freedom of thought and enlightenment.

Keywords: Freedom of thought, the era of globalization, the age of Information Technology, spirituality, society, freedom, responsibility.

Михлиева Гулшода Зарип кизи
независимый исследователь Каршинский филиал ТУИТ имени Мухаммада аль-Хорезми

НЕОБХОДИМОСТЬ СВОБОДЫ МЫСЛИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В этой статье исследуется потребность и ее решения в свободомыслящей, одухотворенной личности, способной внести свой вклад в вестороннее развитие общества в сегодняшнюю эпоху глобализации, в век информационных технологий. Кроме того, в статье сравнивается взаимосвязь понятий свободы мысли и ответственности, уделяя особое внимание понятию свободы мышления.

Ключевые слова: свобода мысли, эпоха глобализации, век информационных технологий, духовность, общество, свобода, ответственность.

Kirish

Ilm-fan va texnika taraqqiyoti bizga cheksiz bo'lib tuyiladigan imkoniyatlar va erkinliklar maydonini ochib berdi. Ushbu taraqqiyot tufayli insoniyat endi biosferaga va jamiyatga kiritadigan artefaktlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ular uzoq muddatda qanday rivojlanish va ularning jamiyatimizdagi oqibatlarini bilmasdan turib. Shunday qilib, texnologiyalar fanlar va biotexnologiyalarning, xususan, genetika va sun'iy intellekt sohalaridagi jadal rivojlanishi insoniyatni ulardan kelib chiqadigan ko'plab savollar uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga chaqiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan to bugungi kungacha rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishga intilmoqda. Biz Mustaqil O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishimiz uchun nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tizimni yuksaltirishimiz balki jamiyatdagi insonlar ongi va tafakkurini, dunyoqarashini ham o'zgartirishimiz kerak. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: "Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan turib biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"[1]. Darhaqiqat mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, Jahondagi rivojlangan davlatlari bilan raqobat qila oladigan jamiyat yaratish uchun avvalo jamiyatdagi

insonlarning aqliy salohiyatini va tafakkurini rivojlantirish, mafkuraviy imunitetini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

“To‘rtinchi sanoat inqilobi” va globallashuv davrida jamiyat ma‘naviyatini rivojlantirish, erkin fikrlovchi tafakkuri teran shaxslarni rivojlantirish to‘g‘risida judayam ko‘p o‘zbek olimlarimiz samarali izlanishlar olib bormoqdalar. Xususan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich jamiyatimizni har tomonlama rivojlantirish va buning uchun yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, erkin tafakkurli shaxs qilib voyaga yetkazish uchun qilinadigan ishlar va uning samaralari haqida o‘z asarlarida alohida to‘xtalib o‘tgan.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham ko‘plab asarlarida shu jumladan “Adolatli jamiyat sari” asarlarida axborot texnologiyalar asrida ma‘naviyatni va barkamol avlodni voyaga yetkazish va bu bilan jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkin ekanligi va jamiyatimizda saqlanib qolgan mahdudlik davridagi tafakkurdagi qaramlik sarqitlardan xolos etilsagina tafakkur erkinligiga erishish mumkinligi haqida ta‘kidlagan.

Professor Abdurayim Erkayev “Manaviyat va taraqqiyot”, “Tafakkur erkinligi” nomli asarlarida tafakkur erkinligi jamiyatning taraqqiy etishiga ta‘siri haqida izlanishlar olib borgan.

Bugungi kunda jamiyatimiz vakillariga judayam katta erkinliklar berilmoqda. Bu berilayotga erkinliklar zamirida davlatimiz va jamiyatimizni rivojlanishiga, davlatimizning dunyo tan olgan rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishga bo‘lgan harakati va ishonchi o‘rin egallagan. Qachonki jamiyatda insonlar erkin bo‘lsa ularning tafakkuri erkin bo‘ladi. Insonlar har bir amalga oshiradigan ishlarini erkin va yangiliklarga boy tarzda bajaradi. Masalan quldorlik jamiyatini oladigan bo‘lsak qul faqat quldor buyurgan ishni, quldor buyurgan tarzda amalga oshiradi. Chunki qulning o‘zi ham tafakkuri ham tobe. Qul quldor buyurgan yer yumshatish ishini oddiy quldor bergan belkurak bilan bajarsa, erkin inson o‘ziga tegishli yerini yumshatishda oddiy belkurak bilan ish sekin kechishini va uni omoch yasab tezroq yumshatish g‘oyasini amalga oshiradi. Tafakkur erkinligi hurfikirlilikni o‘z ichiga oladi. Erkin bo‘lgan shaxsgina idrok etadi, fikrlaydi, tanqidiy fikrlash va javob qaytarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inson qachonki mana shu fazilatlariga ega bo‘lsagina bilimga bo‘lgan qiziqish ortadi, yangi kashfiyotlar qiladi. Bunday bilimli, tafakkuri erkin shaxslar bilan jamiyat va uning tafakkuri rivojlanadi.

Har doim erkinlik o‘zi bilan birga ma‘suliyatni oladi. Tafakkuri erkin bo‘lgan va ma‘suliyatni to‘g‘ri his etgan jamiyatda rivojlanish bo‘ladi. Professor Abdurayim Erkayev shunday degan: “Mas‘uliyatdan qo‘rqadigan, tobe tafakkur egalari ilmiy texnikaviy, iqtisodiy yangiliklarni yetarlicha qabul qila olmaydi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni takommildan ko‘ra ko‘proq ularni

turg‘unlashtirishga moyillik ko‘rsatadila”.[2]. Bunday tobe tafakkur egalari kim nima desan ham ishonuvchan va turli xil yot g‘oyalarga, turli siyosiy qo‘paruvchilar, diniy ekstrimizm targ‘ibot va nayranglariga osongina ishonib ularning ortidan ergashishlari mumkin. Tafakkur tobeligidan qutilish va tafakkurni erkinlashtirish uchun jamiyat a‘zolarini ongi va ongostidan ijtimoiy qo‘rquv sarqitlarini chiqarib tashlash kerak. Buning uchun demokratiyani rivojlantirish qonun ustuvorligini oshirish, jamiyat hayotini barcha yo‘nalishlarda erkinlashtirishdir va ta‘lim tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarida erkin qaror qabul qila oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni voyaga yetkazishdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Demokratiyani qaror toptirish va fuqarolik jamiyatini mukammallashtirish tafakkur erkinligini rivojlantirishini ta‘minlash va rivojlantirishning huquqiy, ijtimoiy va siyosiy shartlaridan biridir. Birinchi prezidentimiz aytganidek “Albatta hammamizga ayonki, jamiyat tafakkurini butunlay yangilash bir ikki yillik ish emas, uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon. Qolaversa, bu yo‘lda tinimsiz izlanish va mehnat qilish, hali-beri uchrab turadigan eskicha fikrlash asoratlarini yengib o‘tish oson emasligini ham tushinamiz” [3].

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda jamiyatimiz, davlatimiz va undagi qonunlar tubdan yangilanmoqda. Iqtisodiyot, siyosiy yoki ijtimoiy sohani aytamizmi barchasida tub yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy sohadan ta‘lim tarbiya jarayonini aytadigan bo‘lsak bu sohada bugungi kunda tub burilish ro‘y berdi. Ta‘lim-tarbiya tizimi qaytadan ko‘rib chiqildi. O‘rta maxsus va Oliy ta‘limlarning xususiyashtirilishi, o‘quvchi va o‘qituvchilarning majburiy mehnatdan xalos etilishi va bu qonun bilan mustahkamlanishi bu sohaning judayam katta yutug‘i bo‘ldi desak yangilishmagan bo‘lamiz. Jamiyatimizda bunda yangilanishlar bilan birgalikda xalq ongi va tafakkuri o‘smoqda va dunyoqarashi o‘zgarimoqda.

Inson erkinligining negizi va ajralmas bir qismi deb biz tafakkur erkingi ayta olamiz. Tafakkur erkinligi jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyatlar va erkinliklarning mahsulidir va inson erkinligining aqliy negizidir. Bugungi Ommaviy axborot vositalari rivojlangan va globallashuv davri kishisi bilan ho‘kizga omoch taqib yer haydab kun ko‘radigan, o‘zi yashayotgan jamiyatida qanday voqealar yuz berayotganidan behabar kishisi ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, fikr mulohazalari bir biridan tubdan farq qiladi. Tafakkurning erkinligi va rivojlanishiga ijtimoiy taraqqiyot darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: “Tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma‘naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi” [4]. Jamiyatimizda insonlarning tafakkur erkinligini o‘stirish uchun, xalqimiz o‘z tafakkur salohiyatini yanada

yuksakroq yuzaga chiqarishi uchun har qanday tashqi va ichki tahdidlardan ogoh bo'lish, jamiyatdagi insonlar xavf va ularga qo'rquv uyg'otuvchi omillarga qarshi faol kurashmoq, demokratiyani yanada mustahkamlamoq va yoshlar ongiga sog'lom milliy g'ururni singdirmoq juda ham zarur.

Yangi O'zbekistonda tobe taffakkurli va mas'uliyatdan qo'rqadigan shaxs yoki jamiyat milliy yuksalish jarayoniga aslo to'g'ri kelmaydi. Dunyo davlatlari shiddat bilan rivojlanayotgan va globalashuv zamonida, robotlashgan jamiyatga va sun'iy intellektga bo'lgan talabning oshishi davrida, bundan tashqari jahonda turli tahdidlar, "Ommaviy madaniyat"ning salib jihatdan ortishi davrida ilmiy-texnikaviy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga shunchaki yondashdilar. Ya'ni ularni takomillashtirishdan ko'ra ko'proq ularni turg'unlashtirishga harakat qiladilar. Tobe tafakkur egalari har doim turli siyosiy qo'paruvchilar, diniy ekstrimizmga jalb etuvchilar, ommaviy madaniyatning salbiy jihatlarini targ'ibotchilari nayrangiga uchishlari va ulaning ortidan ergashishlari mumkin. "Turli cheklanishlar domidagi tobe, qotib qolgan dogmatik yoki ijtimoiy qo'rquvdan soxta faollik, totalitar yaxdillik xususiyati kasb etgan tafakkur yoxud diniy ekstremizm g'oyalariga mukkasidan ketib mutaassiblikka aylangan tafakkur inson kamolotiga, jamiyat taraqqiyotiga salbiy va bir yoqlama ta'sir ko'rsatadi" [5]. Jamiyat tarixi va uning taraqqiyotini o'rganish jarayonida, qachon va qayerda inson va uning tafakkuri erkin rivojlangan bo'lsa o'sha yerda taraqqiyot yuz berganini guvoh bo'lamiz va aksincha qayerda qaramlik va quldorlik, cheklangan erkinlik kuchaygan bo'lsa, o'sha yerda ijtimoiy taraqqiyot sekinlashgan va to'xtagan bo'ladi. Bunga xalqimizni necha ming yillik tarixini misol keltirib aytishimiz mumkin.

Sovet hukmronligi davrida har bir sohada, xususan ta'lim sohasida ham ma'lum cheklanishlar qo'yilgan edi. Insonlarning ijodiy izlanishlari va erkin fikr yuritishlariga cheklovlar qo'yilgan edi. Bu yurtimizdagi turli fan bilan chug'illanuvchi olimlarimiz saviyasiga va milliy tafakkurimizga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Sovet davrida xalqimiz mulkdan begonalashtirilganligi tufayli iqtisodiy tafakkuriga ham kuchli qoloqlik vujudga kelgan. Shuning uchun ham jahonning ilg'or mamalakatlati iqtisodiy tafakkuridan hozircha ancha orqadamiz. Bugungi islohotlar yo'lidagi eng mashaqqatli qiyinchiligi bu millatning iqtisodiy ongi va tafakkurining qoloqligi va uni rivojlantirishdir. Bu yo'lda bugungi kunda judayam katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy yo'naltirilishi, iqtisodiy munosabatlarini yanada erkinlashtirishni va ta'lim-tarbiya jarayonida iqtisodiyot ilmiga yetarlicha e'tibor berilayotganini misol qilib aytishimiz mumkin.

Sovet davrida shaxs manfaatlarining jamoa manfaatlariga bo'ysundirilganligi, insonlar huquq va erkinliklari bilan hisoblashmaslik, inson huquqlaridan

partiyaning mafkurasining ustun qo'yilishi va insonlarning kelib chiqishiga qarab kamsitilishi xalqimizning huquqiy tafakkurining qoloqligiga sabab bo'ldi.

"Sovet jamiyatining o'ta mafkuralashganligi, marksizm-leninizm aqidalariga mos kelmaydigan har qanday fikr, g'oya va qarashlarning ta'qib qilinishi, sovet tuzumining salkam qirq yillik birinchi davrida repressiyalar ko'rinishida siyosiy zo'ravonlik boshqaruv uslubining tarkibiy qismi sifatida ochiqchasiga qo'llanilganligi aholi ongiga ijtimoiy qo'rquvni singdirdi" [6]. Aynan shuning uchun insonlar erkin fikr yuritish, tanqidiy fikr bildirishdan hadiksirab qolishdi. Insonlarni o'z dinidan, o'zligidan, millat esa milliy boylıklaridan begonalashtirildi. Insonlarning tafakkuri tobelika tushib qoldi va shunchaki "sen menga tegma, men senga tegmayaman" qabilida yashashga o'rganib qoldi. Shunday tobe tafakkurga o'rganib qolgan jamiyatda har bir sohada oldinga o'sish va rivojlanish bo'lmadi. Mustaqillikka erishganimizdan keyingi davr bizning millatimiz uchun katta burulish bo'ldi va bugungi kungacha sovet tuzumi davridagi sarqit illatlarni chiqarib tashlash va millatimiz, xalqimiz ongini, tafakkurini o'stirish uchun keng jabhada islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda insonlar jamiyatda har jabhada faol, yaratuvchi, to'g'ri va tanqidiy fikrlovchi, tafakkuri teran, ma'suliyatli, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, tashabbuskor va mustaqil qaror qabul qila oladigan, mehnatsevar shaxs bo'lishi kerak. Shundagina millatimizni ijtimoiy taraqqiyotini yuksak cho'qqiga olib chiqqan bo'lamiz.

Demokratik Fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi shartlaridan bir-insonning huquq va erkinliklarining qonunlarda to'liq belgilanishi hamda ularning ta'minlash uchun shart-sharoitlarning yaratilishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining demokratik huquqiy davlatni qurishdan asosiy maqsad – ushbu davlatda yashovchi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini to'la taminlashdan iborat". [7]. Bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatining tarkibiy qismi va to'la huquqli teng sub'ektidir. U BMT Ustavini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlarini tan oladi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining shartnomalarida, ko'plab xalqaro konvensiyalarda ishtirok etadi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston o'zi tanlagan yo'li, insoniyat madaniyatining qadriyatlarini tasavvur etib, demokratiya va insonparvarlik yo'lidan odimlab bormoqda. [8].

Xulosa.

Jamiyatni rivojlanishi, uni taraqqiy topishi unda yashovchi fuqarolarni qay darajada erkinligiga bog'liq. Necha ming yillar mobaynida insonlarning haq-huquqlari toptaldi, qancha-qancha insonlar qullikka mahkum qilindi.

Hali tug'ilmagan necha minglab go'daklar taqdiri oldindan qullik, qaramlik domiga hukm qilindi. Bunday inson huquqlari, erkinliklari toptalgan jamiyatlarda rivojlanish kuzatilmadi. Jamiyatda o'sish, yangilikka intilish hodisalari yuz bermadi.

Buyuk ajdodimiz Abu Nosir Farobiy "Fozil shahar ahlining qarashlari" kitobida shunday yozadi: "O'z tabiatiga ko'ra har bir inson shunday tuzilganki, u o'z mavjudligini ta'minlash va komil martabaga erishish uchun juda ko'p narsalarga ehtiyoji bor. Bu narsalarni uning bir o'zi hosil qila olmaydi va ularga erishish uchun muayyan bir kishilik jamoasiga ehtiyoj sezadi. Bu jamoaning har bir a'zosi o'ziga va o'zgalarga zarur bo'lgan biror-bir kishining ehtiyojlari to'liq qondirilish imkoni paydo bo'ladi" [9]. Shu ma'noda bunday jamoaning har bir a'zosi bir-biriga nisbatan ma'suliyatlidir. Agar bunday

jamoada har bir inson o'z ma'suliyatini to'g'ri anglab, kamolot sari intilsa, o'zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko'makdosh bo'lishga astoydil urinsa, natijada "fozil shahar" (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi.

Insonlar erkin fikrlab, tafakkur erkinligiga ega bo'lib, har bir vazifaga ma'suliyat bilan yondashishlari va jamiyat taraqqiyotiga erishishlari uchun jamiyat ham shart-sharoit yaratib berishi zarur. Qachonki jamiyatda fikr, tafakkur erkinligi mavjud bo'lsa insonlarda ma'suliyat hissi oshadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi"[10] degan fikrlarini aytib o'tganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Adolatli jamiyat sari. -T., O'zbekiston, 1998. -B.17.
2. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot, -T., 2009. -B.378.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T., Ma'naviyat, 2008. -B 100-101.
4. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.34.
5. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. -T., Ma'naviyat, 2009. -B.380.
6. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. -T., 2009. -B.371.
7. G'afurov A.B., Tillaboyev M.A. Inson huquqlari. -T., 2012. -B.24.
8. Tadjixonov B.U. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini amalga oshirish: nazariy va amaliy muammolari. -T., 2003. -B.49.
9. Аль-Фараби. Философский трактат. -Алма - ата, 2003. -С.303.
10. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.: O'zbekiston, 1996. -B.34.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Tuychiyev Zafar Nardonqulovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tarix fani o'qituvchisi
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: tuychiyevzafar1984@gmail.com

MEHR-MURUVVAT, SABR-TOQAT VA KAMTARLIK KABI SO'FIYLIK TAMOYILLARINING O'ZBEK XALQ FALSAFASIDAGI O'RNINI

Annotatsiya: So'fiylik tamoyili bo'lgan mehr-muruvvat o'zbek xalqining ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashida alohida o'rin tutadi va turli tarixiy davrlarda xalqning og'ir kunlarni yengib o'tishda muhim g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: mehr-muruvvat, Sufra, Kamtarlik, Qur'on, ishq, vafo, fano, sabr-toqat, sof, mo'jiza.

Туйчиев Зафар Нардонкулович

Учитель истории Школы творчества Халимы Худойбердиевой
научный сотрудник Ферганского государственного университета

МЕСТО СУФИЙСКИХ ПРИНЦИПОВ, КАК ДОБРОТА, ТЕРПЕНИЕ И СМИРОЕНИЕ, В ФИЛОСОФИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Аннотация: Доброта, являющаяся принципом суфизма, занимает особое место в общественно-философском мировоззрении узбекского народа и служила важным идейным источником преодоления народом трудных времен в разные исторические периоды.

Ключевые слова: Доброта, Сувфра, Смирение, Коран, Любовь, Верность, Смерть, Терпение, Чистота, Чудо.

Tuychiyev Zafar Nardonkulovich

Teacher of history at Halima Khudoyberdiyeva School of Creativity
Researcher of Fergana State University

THE PLACE OF SUFI PRINCIPLES SUCH AS KINDNESS, PATIENCE AND HUMILITY IN THE PHILOSOPHY OF THE UZBEK PEOPLE

Abstract: Kindness, which is the principle of Sufism, occupies a special place in the socio-philosophical worldview of the Uzbek people and served as an important ideological source for the people to overcome difficult times in different historical periods.

Key words: Kindness, Sufra, Humility, Koran, Love, Loyalty, Death, Patience, Purity, Miracle.

Kirish (Introduction).

Mehr-muruvvat, sabr-toqat va kamtarlik kabi so'fiylik tamoyillari o'zbek xalq falsafasida markaziy o'rin tutadi va xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tamoyillar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning bir-biriga bo'lgan muhabbat va ehtiromini, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mehr-muruvvat – odamlar o'rtasida mehr-oqibatli munosabatlarni shakllantirishga intilishdir. O'zbek xalq an'anaviy falsafasida mehr-muruvvat jamiyatdagi barcha guruhlar va qatlamlar o'rtasida hamjihatlik, o'zaro yordam va insonparvarlik tuyg'usini qo'llab-quvvatlaydi. Qosimiy Anvarning asarlarida biz so'fiylarni «sofdil», «mardi sof», «sifat», «so'fiy sof», «ahli dil», «ahli dard», «rohi talab» kabi

tushunchalar bilan ifodalanganligining guvohi bo'lamiz [1, 76]. Muhimi shundaki, Qosimiy ham Beruniy singari so'fiylarni «so'f»-iylar deb ataydi va ularni jun kiyib yurganlar deb tushuntiradi [1, 27].

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Qorsimiyda so'fiy so'zi sufo, sufra tushunchalari bilan ham almashadi:

Qilmadi bir lahzaye sabru sukun,
Sufra boshinda oni qildi berun.[1, 35]
Yoki

Sen ne uchun qilding ani dilfig'ar,
Sufra boshinda chiqarib xoru zor.[1, 35]

Sabr-toqat so'fiylikda nafsni nazorat qilish, har qanday vaziyatda ham osoyishtalikni saqlash bilan bog'liq. Bu qadriyat o'zbek xalq falsafasida turmushda yuz

beradigan qiyinchiliklarga sabr qilish, o'z ishiga bag'ishlanganlik va uzoq muddatli manfaatlarga intilish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Kamtarlik esa nafsni qondirishdan voz kechish, jamiyat va uning manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishni anglatadi. Kamtarlik o'zbek xalq falsafasida madaniy va ma'naviy boyliklarni qadrlash, o'zini bilganlik va boshqalarga hurmat bilan qarashni ta'minlaydi. Bu so'fiylik tamoyillari xalqning ijtimoiy hayotida keng yoyilgan va hozirgi kunda ham insonlar o'rtasidagi ma'naviy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim g'oyalar sifatida xizmat qiladi. Mehr-muruvvat, sabr-toqat va kamtarlik kabi so'fiylik tamoyillari o'zbek xalq falsafasida muhim o'rin tutadi. Bu prinsiplar tasavvuf ta'limoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nafsni tarbiyalash va axloqiy kamolotga erishishni nazarda tutadi. Tasavvuf nafs bilan jihatni, ya'ni insonning ichki «yaramas» xislatlarini yengishni asosiy vazifa qilib oladi. Bu jarayon nafsni tarbiyalash orqali inson ruhiyatini poklashni maqsad qiladi, bu esa jamiyatdagi ma'naviy taraqqiyotga xizmat qiladi. «Payg'ambarning eng ulug' mo'jizasi – bu kalami Sharif, ya'ni «Qur'oni karim». Bu satlarda shunga ishora bor. Muhammad Mustafo payg'ambarlar silsilasida so'z sehgari sifatida shuhrat qozongan. Ul janobning nutqi, va'zi, oyatlari ilohiy vahiylik edi. Qur'on suralari Allohning kalomi bo'lib, Jabrail Alayhissalom Hazrati Muhammadga yetkazib turgan, Hazrati Muhammad Mustafo buni o'z navbatida xalqqa yetkazgan. «Qur'on»da islomiy aqidalar, vahdat va tavhid g'oyalari, mo'min-musulmonlik ruknlari, falsafa va hikmat, g'ayb asrori ifodasi bo'lgan tilsimli ma'nolar, shuningdek mo'minlarning kundalik hayotiga lozim bo'ladigan ko'rsatmalar bor. Odam farzandiga kerak bo'ladigan barcha axloqiy-ma'naviy narsalarni bu muqaddas kitobdan topish mumkin. Shunga ko'ra beqiyos hadislar ham inson kamoloti, uning hayoti tarzini yo'lga soluvchi o'chmas chiroqlardir» [2, 42].

So'fiylik tamoyili bo'lgan mehr-muruvvat o'zbek xalqining ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashida alohida o'rin tutadi va turli tarixiy davrlarda xalqning og'ir kunlarni yengib o'tishda muhim g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilgan. Mehr-muruvvat xalq o'rtasida mehr-oqibat, saxiylik va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etib, jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlashda ahamiyatli omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O'zbek falsafasida, ayniqsa so'fiylik an'analarida, mehr-muruvvat insonning ezgu sifatlaridan biri bo'lib, ikki dunyoda ham ajru savobga erishishga yo'l ochadi. Xususan, bugungi kunlarda yuzaga kelayotgan sinovli vaziyatlarda, xalqimiz ushbu qadriyatlarga suyangan holda muammolarni yengib o'tishga harakat qilmoqda. Mehr-muruvvat ana shunday og'ir paytlarda jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, birdamlik va ahillikni ta'minlaydi. Prezident tashabbusi

ostida amalga oshirilayotgan islohotlar xalq orasidagi mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda, xalqning o'z kuchiga va aqliga tayanishini ko'rsatar ekan, mehr-muruvvat, saxovat va hamjihatlik insoniyatni qiyinchiliklardan qutqaruvchi asosiy vositalardan biri ekanligini ta'kidlash lozim.

So'fiylikning asosiy g'oyalaridan biri bo'lgan mehr-muruvvat insoniyatni yaxshilikka yo'llashda muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlar zamirida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash, adolat, bag'rikenglik va g'amxo'rlik kabi insoniy fazilatlar mujassamdir. Voyiz Koshifiy tasavvuf so'zini ham harfma-harf ifodalab shunday yozadi: «Ya'ni: Agar so'rsalarki, xurufiy tasavvufining ma'nosi nima? Ayt, «T» – tajrit, «S» – sadoqat va safo, «V» – vafo, «F» – fano [3, 19].

O'zbek xalqining axloqiy fazilatlarini tasavvufiy ta'limotlar bilan boyitilgan. Ahmad Yassaviy kabi mashhur mutasavviflar insonning axloqiy kamoloti va uning nafsini yengishni muhim vazifa deb bilishgan. Yassaviyning asarlarida mehr-muruvvat, saxovat va halollik targ'ib qilinib, nafsning inson hayotiga salbiy ta'siri tushuntirilgan. Unga ko'ra, nafsni yenggan inson haqiqiy shoh bo'lib, uni mag'lub etgan inson esa qulga aylanadi. Bu g'oyalar nafaqat diniy, balki jamiyatning ma'naviy asoslarini ham mustahkamlaydi. O'zbek xalqining so'fiylik tafakkuri insonning jamiyatdagi o'rni, adolatli va ma'naviy barkamol inson sifatida shakllanishiga qaratilgan. Axloqni yuksaltirish, halollik va poklikka intilish nafaqat shaxsiy ma'naviyatni, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shu tariqa, mehr-muruvvat, sabr-toqat va kamtarlik kabi so'fiylik tamoyillari nafaqat shaxsiy ruhiy kamolotning, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligining muhim asoslaridan biridir. Tasavvuf inson axloqini isloh qilish orqali jamiyatni ham ma'naviy yuksaltirishga qaratilgan ta'limot sifatida o'zbek xalq falsafasida muhim o'rin egallaydi.

«Tasavvuf o'z-o'zini idrok etish va o'z-o'zini kamolga yetkazish yo'lini uch asosiy bosqichga bo'lardi. Birinchi bosqich – shariat, ya'ni Qur'on va Muhammad payg'ambar haqidagi rivoyatlarda aks etgan qonun-qoidalarni bajarish davri, aniqrog'i tayyorgarlik bosqichi. Lekin bu hali yo'lga kirish degan gap emas, zero ularni bajarish har bir musulmon uchun farz. So'filar uchun ham shundoq: faqat islom qonun-qoidalarini o'zlashtiran taqdirdagina, yana olg'a yurish, ikkinchi bosqich tariqatga o'tish mumkin.

Birinchi tayyorgarlik bosqichi – shariat so'fiylarda mantiqiy bilimlarga to'g'ri kelar, ilmi zohiriy, deb atalardi. So'fiylar mantiqiy bilimlarning ahamiyatini rad etmagan holda, uni mahdud – cheklangan deb qarashar, zero u faqat alomatlar, xossalar xususiyatlarini ilg'or, ularning ta'biricha, javhari zotga emas, sifatga boqar, binobarin, uning mahsuli «haqiqat emas, bil haqiqat» edi. Mantiqiy bilim butunni bo'laklarga bo'lish – tahlil va sanjob qilish ila ro'yobga chiqadi. Ilohiy haqiqat esa o'z mohiyatining

mutlaq bo'lishi e'tibori bilan tahlil va sanjobga yo'l qo'yamaydi, bas, uni mantiqiy yo'sinda idrok etish mumkin emas.

So'fiylar aqliy mushohada ortida tag'in bir mushohada bor, deb hisoblashar, uni ilmi g'ayb deb atashardi. Faqat ilmi g'ayb vositasida asror ochilar, shu yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsa ilmi asror deb atalardi. Tashqi tuyg'ular vositasi mantiqiy qonunlarni bilib bo'lmaganidek, ilmi g'ayb ochadigan narsalarni mantiq ocholmasdi» [4, 142-143].

Mehr-muruvvat, sabr-toqat va kamtarlik kabi so'fiylik tamoyillari o'zbek xalq falsafasida juda muhim o'rin tutadi va jamiyatning ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu tamoyillar nafaqat shaxsning ichki ruhiy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishda, balki jamiyatdagi o'zaro hamkorlik, birdamlik va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Imom Sha'roniy uhaqda; "Jahannam olovidan shu qadar qo'rqar ediki, go'yo do'zax faqat uning uchun yaratilgan deb o'ylagan bo'lardingiz", degan [5, 31-32]. Basra tasavvuf maktabining yana bir vakili Robiyatu Adaviya uchuni esa Alloh uchun qilinadigan taqvo qo'rquv hissiga emas balki muhabbatga yo'g'irilgan bo'lishi kerak. U ham kunduz va kchalari Alloh rizozi yo'lida ibodat qilib, ko'z yosh to'ksada bu uning jahannam olovidan qo'rrqanidan emas Allohga bo'lgan ishq-muhabbatidan edi. Robiya bu holati bilan tasavvuf tarixiga "ilohiy ishq" tushunchasini birinchi olib kirgan so'fiy bo'ldi va keyingi davrlarda tasavvufiy tushunchada katta o'rin tutadigan bir chashma ochib berdi. Uning soyasida tasavvufi dunyoqarash trzi yangicha shakl oldi va "ilohiy ishq" qarashi asrlar mobaynida tasavvuf adabiyotining bosh mavzusini tashkil etibgina qolmay tasavvuf falsafasida ham muhim o'rin tutdi[6, 51]. Aynan "ilohiy ishq" tushunchasi tasavvuf estetikasining tub mohiyatini tashkil etadi. Robiyadagi ilohiy ishq jazabasini YE.E. Bertels "muhabbat" deb izohlaydi va uning Allohga munajatini keltiradi: "YO Alloh, yulduzlar charaqlab turibdi, odamlarning ko'zi esa yumilgan. Har bir oshiq o'z mahbusasi bilan visol lazzatini tortmoqda, men esa yolg'iz Sen bilanman. YO, egam, agar Senga men do'zaxingdan qo'rqqanim uchun ibodat qilayotgan bo'lsam, meni do'zaxingda yondir, agar jannating ilinjida ibodat qilayotgan bo'lsam, meni unga yo'latma. Agar faqat O'zingni deb ibodat qilayotgan bo'lsam, mendan mangu go'zal jamolingni yashirin tutma!" [7, 42]

Mehr tushunchasi, xolis va ta'masiz muhabbat, o'z-o'zidan shaxsga xos axloqiy fazilatdir. U jamiyatda shaxsiy, oilaviy va etnik birlikni ta'minlashda, yordam berish va hamdardlik qilish orqali ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. So'fiylikning muhimi bo'lgan mehr, insoniy tuyg'ularning eng oliy shakli sifatida ko'rilgan. Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar mehrni insonning oliy

axloqiy fazilatlarini sifatida ta'riflaganlar, ularning asarlarida kambag'allarga yordam berish va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash insonning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Homid G'azolliiy muhabbatni nafaqat hissiy balki aqliy bilishning ham mahsuli deb ataydi. Zero, kishi nimaniki bilsa, o'shanigina sevishi mumkin. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muhabbatning besh turi mavjud: 1) insonning o'ziga, o'z kamoloti va sog' salomatligiga muhabbati; 2) insonning o'z hayotini davom ettirishini ta'minlovchi, uni asrovchi, undan turli maxluqotni(halok etuvchilarni) nari tutuvchi valine'matlariga muhabbati; 3) insonning, garchand shaxsan o'ziga yaxshilik bilan javob bergan bo'lmasa ham, boshqa insonlarga xizmat qilgan, muruvvat ko'rsatgan zotlarga muhabbati; 4) insonning tashqi yoki ichki qiyofadagi barcha go'zallika muhabbati; 5) insonning o'zi bilan botiniy (ichki), yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muhabbati [8, 16].

Mehr-muruvvat, o'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy adolatni saqlashda muhim tamoyildir. Ijtimoiy birdamlik va qo'llab-quvvatlash bilan birga, insonlarning o'zaro moddiy va ma'naviy yordam berish madaniyatini shakllantirgan. Buyuk allomalarning asarlarida mehr komil insonni shakllantirishning markaziy g'oyasi bo'lib, jamiyatni demokratik va adolatli jamiyatga aylantirishda asosiy omillardan biri hisoblangan. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida ham mehrning o'rni katta. Millatni farovon hayotga erishtirish, ozod Vatan qurishda mehr insonlarni birlashtiradi. Mehr insonning davlat va jamiyatda turli millat va din vakillari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikda faoliyat olib borish qobiliyatini oshiradi. Bu jarayonda millatlararo totuvlik va jamoaviy birdamlik kabi fazilatlar qaror topadi. Mehrning ildizi oiladan boshlanadi, u jamiyatni shakllantirish va mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oilada shakllanadigan mehr, jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikning asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, mehr, sabr-toqat va kamtarlik so'fiylikning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy axloqiy asoslari sifatida jamiyatning barqarorligi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Zero, "O'z-o'zini anglab yetgan kishigina o'zini Yaratganni anglab yetadi, u o'z-o'zicha mavjud emas, uning borligi, mavjudligining davomi, kamolotga erishuvi Allohdan va Alloh vositasidadir", deydi G'azzoliy [9, 239].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Mehr-oqibat, ta'kidlaganidek, mehrga nisbatan jamoaviy birlikning uzviy qismi hisoblanadi, chunki u shaxsning nafaqat shaxsiy yordam ko'rsatish qobiliyatini, balki u bilan birga jamoa a'zolariga empatiyani ham anglatadi. Bu tushuncha o'zining ijtimoiy ildizlarini ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, qabilaviy birlik va hamjihatlik asosida rivojlantirgan. Bugungi kunda ham mehr-oqibat jamiyat taraqqiyotida, ayniqsa o'zbek xalqining an'anaviy va turmush tarzida, oilaviy va qavmchilik munosabatlarida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қосимий А. Маснавийлар. – Б. 27, 35, 76, 165.
2. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 42.
3. Кошифий Воиз. Фугувватномаи султоний.2011. – Б. 19.
4. Радий Фши. Жалолиддин Румий. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, – Б. 142-143.
5. Шаръоний. Табақатул кубро, Миср, 1954, 1-ж. – Б. 31-32.
6. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. –Т.: “Истиқлол”1999. – Б. 51.
7. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. М.; “Наука”, 1965, –С. 42.
8. Абдулла Шер. Тасаввуф, Ғаззолий ва ғўзаллик фалсафаси//Соғлом авлод учун.-2002.-№2. – Б. 16.
9. Газали А. Воскрешене наук о вере. М.; “Наука”, 1980. – Б. 239.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna

NamDU mustaqil izlanuvchisi

QK xizmatchisi Chirchiq OTQMBYU Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: matquliyevjasur@gmail.com

INSON KAPITALI TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson kapitali, uning bugungi kunda jamiyatning barcha jabhalarida, xususan ta'lim tizimidagi o'rni va roli yoritilib, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Mazzu doirasida inson kapitali tushunchasining sotsiologik, tarixiy, ilmiy, terminologik jihatlari obyekt sifatida tadqiq etilgan. Maqolada raqamlashgan jamiyat sharoitida inson kapitali va ta'lim tizimining bog'liqligi, aloqadorligi o'rganilgan. Inson kapitalini yuksaltirish asnosida jamiyatda mobillikni faollashtirish, ko'nikma va odatlarni shakllantirish, hamda daromadlar o'sib barqarorligini ta'minlash haqidagi xulosalar berilgan. Zamonaviy investitsiya hisoblanmish Inson kapitali va uning zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kapital, raqamlashgan jamiyat, inson, qobiliyat, ta'lim, kompetentsiya, iqtisodiyot, ko'nikma, ijtimoiylashuv, investitsiya, sotsial mobillik, Yangi O'zbekiston, ta'lim, bandlik, jamiyat.

Khudayorova Zebuniso Otanazarovna

NamDU independent researcher

JV employee Chirchik is a senior teacher of the Department of Humanities at OTQMBYU

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF HUMAN CAPITAL

Abstract. In this thesis, the role of education, especially higher education, in the development of human capital was sociologically analyzed. although the topic requires a large amount of scientific theoretical study, it was studied as a dialectic of modern educational trends, social cooperation, and interrelationship. Conclusions on increasing social and economic empowerment through education, activating social norms and social mobility in young people, forming skills and habits, and ensuring the growth and stability of incomes are given.

Key words: human, ability, education, competence, economy, health, socialization, society, investment, social mobility, higher education, employment.

Худаёрова Зебунисо Отаназаровна

независимый исследователь НамГУ

Сотрудник СП Чирчик – старший преподаватель кафедры гуманитарных наук ОТКМБЮУ

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Абстрактный. В данной статье человеческий капитал, его место и роль во всех аспектах жизни современного общества, особенно в системе образования, анализируются с социально-философской точки зрения. В рамках темы исследованы социологические, исторические, научные, терминологические аспекты понятия человеческого капитала как объекта. В статье рассматривается взаимосвязь человеческого капитала и системы образования в цифровом обществе. В ходе увеличения человеческого капитала сделаны выводы об активизации мобильности в обществе, формировании навыков и привычек, обеспечении роста и стабильности доходов. Анализируется человеческий капитал, который считается современной инвестицией, и его место в социальной жизни современного Узбекистана.

Ключевые слова: капитал, цифровое общество, человек, способности, образование, компетентность, экономика, навык, социализация, инвестиции, социальная мобильность, Новый Узбекистан, образование, занятость, общество.

Kirish

Mehnat bozorida ish joylarining intellektuallashuvi, raqamli iqtisodiyotga o'tish va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirish

alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, dunyoning barcha mamlakatlarida inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonda inson kapitali insoniyatning va har

bir davlatning taqdirini belgilaydigan asosiy mezoniga aylandi. Mamlakatimizda bugungi kunda inson kapitalini shakllantirish, uning insonlar hayotini yaxshilash uchun qator strategik vazifalar amalga oshirilmoqda. Vaholanki, yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham inson kapitalini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida "inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" va bu orqali mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish, "davlat – jamiyat – inson" tamoyili asosida ishlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Inson kapitali tushunchasining nazariy asoslari o'tgan asrning o'rtalarida faylasuf, sotsiolog, siyosatchi olimlari va iqtisodchilar orasida vujudga kela boshladi. Jumladan XX asr oxiri va XXI asrlarda g'arb olimlaridan G. Bekker, T.Shuls, P. Druker, M.Bloug, D.Romer, D. Minser, S.Polachek, N.Menkyu, D.Benxabib, E.Denison, R.Solov, J.Kendrik, S.Kuznets, S.Fabrikant, M.Shpigel, D.Veyl, A.Gujon, R.Lukas, D. Koen, M. Soto, V.Luts lar, MDH mamlakatlari hududida esa L.Simkina, A. Koritskiy, Y.Korchagin, I.Skoblyakova, V.Birbkov, S.Kovalenok, Z.Xabibullina, A. Podberezkinlar o'rganilgan.

Zamonaviy inson kapitali tushunchasining iqtisodiy nazariyalari T. Shuls, G.Bekker, E. Denison, R. Solov, J.Kendrik, S. Kuznets, S. Fabrikant, I. Fisher, R.Lukas va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Inson kapitali nazariyasini iqtisodiy jihatdan o'rganganda institutsional nazariya, neoklasik nazariya, neo-Keynesianizm va boshqa xususiy iqtisodiy nazariyalarga ajratish mumkin.

Inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari, nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlari, milliy qadriyatlarning va raqamlashtirishning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini mamlakatimizda akademik olimlarimizdan R.Abdullayeva, Q. Abduraxmonov, S. G'ulomov, Sh. Akramov, M.Abdullayeva, Q. Nazarov, F.Yuldasheva, G.G'affarova, G.Jalalova, M.Sharipov, M.Sodirjonov, Z. Abdullayevalar tomonidan ham o'rganilib, ilmiy jihatdan izlanishlar olib borilmoqda.

A.Smit insonni ijtimoiy boylikning bir qismi va ishlab chiqarishning pirovard maqsadi, A. Marshall esa boylik to'plashni inson taraqqiyoti bilan bevosita bog'lab tushuntiradi. Inson kapitali rivojida ta'lim masalalari muhim o'rin tutishini ilgari surgan ingliz olimi P. Uolsh bo'lib, "inson kapitali bu – xarajatlarni foyda bilan qaytarish uchun sarflangan harajatlarni talab etadi va qo'shimcha tarzda unga xizmat qiladi" degan fikrni ilgari suradi.

T.Shuls va G.Bekker tadqiqotlarida "inson kapitali" omili faqat inson (ta'lim va kasbiy mahoratlar bo'yicha)ga

sarflangan investitsiyalar majmui sifatida tushunilib, uning natijasida sotsiumning ishlash qobiliyati oshdi.

Muhokama

Zamonaviy sharoitda inson kapitalini shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonda natijalarga erishish va daromad olish uchun o'z kasbiy faoliyatida qo'llashi mumkin bo'lgan ma'lum bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni doimiy ravishda shakllantirishni nazarda tutad. Dunyoning ilg'or xalqaro ilmiy tadqiqot institutlarida va ijtimoiy-falsafiy masalalarni tadqiq etuvchi markazlarda inson kapitali konsepsiyasi, inson kapitalini shakllantirish mezonlari va uni rivojlantirish omillarini ishlab chiqish, inson kapitalining tuzilishi va turlari hamda uning jamiyat modernizatsiyasi, barqaror rivojlanish va ijtimoiy rivojlanish omili ekanligi kabi muammolar tadqiq etilmoqda.

Inson kapitali o'z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sotsiumga yo'naltirib boradi. Bular demografik, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat, madaniy, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilardan iborat. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlari va funksional imperativlarga mos keladi. Shu bilan birga, inson kapitaliga xizmat qiluvchi uch xil salohiyat turini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: a) shaxs va jamoaning ehtiyoj, qobiliyat va ijtimoiy hayotni qo'llab-quvvatlashga oid komplekslar tizimi; b) ehtiyoj, qobiliyat va malakaga oid tizimlar majmuasi; v) odatiy hayot faoliyatidir. Inson kapitalining rivoji ham shaxsning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson kapitali ham unga mos bo'ladi.

Inson aql-idrok sohibi bo'lganligi uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o'rab turgan barcha ijtimoiy muhitda ro'y berayotgan voqealar ta'siri kuchli bo'ladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da inson faktori, inson omili va inson kapitali xususidagi sharhlar "inson" va "omil" so'zlariga bag'ishlangan izohlarda, afsuski, mavjud emas.

Ammo, bu so'zlar hamda ish kuchi, inson faktori, inson omili birikmalarining tilimizda amaliy qo'llanilish an'analariga tayanib, ularning anglatgan ma'nolari xususida mulohaza yuritish mumkin. "Ish kuchi" o'zbekchada odamning biologik va fizik imkoniyatlariga ("kuch") tayangan holda mehnat faoliyatini amalga oshirilgan vaziyatlarga qo'llaniladigan iboradir. Masalan: 1960-yillarda Angliya va Fransiya mamlakatlari iqtisodining ish kuchiga bo'lgan talabi asosan sobiq mustamlakalardan kelgan qora ishchilar hisobiga qoplanar edi (Gazeta – archive).

«Inson faktori» 1980-yillarda tilimizga rus tili orqali kalka yo'li bilan tarjima qilish tufayli (chelovecheskiy faktor - inson faktori) kirib kelgan birikma va tushunchadir.

Bugungi kunda zamonaviy dunyo nazdida resurslar o'z doirasini kengaytirib bormoqda, endi an'anaviy hisoblab kelingan uch resurs: mehnat, yer, kapital omillariga fan-texnika tarraqiyoti omili ham qo'shildi, axborot va bilimlar esa eng muhim resurslarga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot bevosita ana shu asosda shakllanib, ushbu iqtisodiyotda inson va uning salohiyati hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yil – "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi ham aslida manashunday kapitallar bilan iqtisodiy va ijtimoiy hayotimizni boyitish uchun yaratilganidir. Qabul qilingan yangi taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo'nalish bo'yicha "Inson qadri uchun – 100 ta maqsad" belgilangan. Ular orasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishga oid vazifalar bor. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Jamiyat turmushi va iqtisodiyotda inson faktorining (Human Factor) va umuman inson kapitali (Human Capital) tushunchasining ommalashuvi yetakchi rivojlangan davlatlarda bu xususdagi tadqiqotlarning avj olishiga olib keldi. Amerikalik ikki iqtisodchi olim - Teodor Shuls (1979) va Geri Bekker (1992) inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdilar va bu tadqiqotlari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. Bu olimlarning inson kapitali tushunchasiga bergan ta'rifini ham qisqacha ushbu satrlarda umumlashtirish mumkin: «inson kapitali – shaxsning o'zi va umuman, jamiyatning ko'p sonli ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan bilimi, qobiliyati va ko'nikmalari yig'indisidir».

Inson kapitali nazariyasi asoschilarining bu qisqacha ta'rifi vaqt o'tishi bilan insoniyat turmushida yuzaga kelgan o'zgarishlar tufayli yil sayin kengayib va mukammalashib bormoqda. Bugungi kunda inson kapitali haqidagi nazariya iqtisod fanining mustaqil tarmog'iga – bilim iqtisodi yo'nalishiga aylandi.⁴⁶

Inson kapitali tushunchasining markazida albatta har doim inson bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ammo bugungi kunda bu tushunchaning zamirida yaxshi ta'lim olgan, ijodkor va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega inson yotmoqda. Binobarin, yuqori texnologiyalarga asoslangan va innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni faqat ana shunday professional ishchi, injener-texnik xodim, menedjer va

boshqaruvchilarning armiyasi vujudga keltirishi va boshqarishi mumkin. AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropadagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning namunasi inson kapitali hozirgi davrda zamonaviy iqtisod va jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish va ijtimoiy faktori ekanligini ko'rsatmoqda. Inson kapitali tushunchasi inson faktori va insonning imkoniyatlari (resurslari) tushunchalarining yig'indisi bo'lishdan tashqari endi uning iqtisodiy kategoriya ekanligi barcha tarafidan tan olinmoqda.⁴⁷

Biz YAİM ni o'stirish uchun ham albatta ushbu "kapital"ni ko'paytirmog'imiz zarur. Boisi shuki, kuchli va ilm-salohiyatga ega bo'lgan shaxslarga ega davlat iqtisodiyoti har qachon baquvvat va barqaror bo'lib, keyingi islohatlar uchun zamin hozirlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'lik sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning muhim usuli, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib moddiy fapovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Shuni ta'kidlash keppakki, inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi har bir yosh fuqaroning shaxsiy mulki hisoblanadi. To'liq o'rta ma'lumotga ega kishilar bilan universitet diplomiga ega mutaxassislar o'rtasidagi farq solishtirilganda, oliy ma'lumotli kishilar topgan daromad va keltirilgan foydadagi afzallik keskin farqlar bilan ajralib turishini ko'rish mumkin. Masalan, Indoneziyada oradagi farq 80 foizdan oshsa, Ushbu ko'rsatkich Paragvayda 300 foizni tashkil etgan. uning faoliyati makon-zamonda cheksiz bo'ladi, chunki bilimlar ma'lumotlar manbasi sifatida axborotlarni nafaqat manzilga tezda etkazadi, balki tahliliy prognoz asosida istiqbolni belgilaydi.

Ko'pgina rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya, Malayziya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning rivojlanish japayonida ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugungi kundagi rivojlanish japayonlari bizning ham oldimizga ushbu davlatlar singapi mehnat bozorida talab katta bo'lgan sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasini ko'ndalang qo'yimoqda. Hozirgi davrda jahon bozorida shunday kasb va hunarlar vujudga kelganki, ularning aksariyati universitet va kollejlarda emas, balki oddiy o'quv markazlarida uch yoki bir yilda emas, juda qisqa vaqt ichida tayyorlanmoqda.

⁴⁶ Kurganskiy S.A. Vvedeniye v teoriyu chelovecheskogo kapitala. - SPb.: GUEF, 1999. -60 S.; Korchagin Y. A. Sovremennaya ekonomika Rossii. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2008 ISBN 978-5-222-14027-7.

⁴⁷ Paulman .V F. O chelovecheskom kapitale > http://lit.lib.ru/p/paulxman_w_f/text_0900-1.shtml (December, 2014)

Inson kapitali nafaqat xalqaro darajada, balki mahalliy sharoit, shu jumladan, hududiy xususiyatlarga ko'ra ham ta'lim va amaliy faoliyat jarayonida inson tomonidan qo'lg'a kiritilgan bilim, ko'nikma hamda qobiliyatdir. U birinchi navbatda, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish va amalga oshirishga imkon beradi. Kapital ta'lim japyoni va ijodiy faoliyatda shakllanadi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida qo'llaniladi. Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni baparaf etish, pirovardida ilmfanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Aholining oliy ta'lim bilan qampab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi. Har qanday inson kapitalining sifat darajasi mamlakat miqyosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'psatadi. Bunda biz (ekspertlar fikri ham) doimiy ta'kidlab keladigan "ta'lim faqatgina shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati emas, balki jamiyat va qolavepsa millatning jamoaviylikka yo'naltirilgan kelajagiga sapmoya sifatida ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashimiz yangicha yondashuv bo'ladi. Inson kapitali ma'lum bir chegara qiymatidan oshib ketganda, jamoaviylikka innovatsion ta'sir ortadi. Oliy ma'lumotli odamlarning yuqori foizga erishishi, bizning nazarimizda "qadriyat va udumlarga asoslangan jamoaviylik"ni "innovatsion jamoaviylik" ka yoki yaratuvchi xalq (millat)ga aylantirish kafolatini beradi. Yuqorida

ta'kidlanganidek, har qanday inson kapitalining rivojlanganlik va mukammalligi asosiy kopponent hissoblanadigan ta'lim sifatiga va davomiyligiga bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'limga alohida urg'u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangicha davr ruhiga mos fazilatlar (bosiqlik, vazminlik, diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter va shu kabilar)ga ega kadrlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetda olingan ta'lim pragmatik belgilarni ifodalovchi darajaga qarab joylarda bandlik darajasining nafaqat miqdori, shu bilan birga sifatini ham oshiradi.

Xulosa

Yuqoridagi ta'riflardan shunday xulosa qilish mumkinki, inson kapitali bu oddiy bir termin emas, balki zamonning eng ilg'or qatlami bo'lgan yetuk kadrlarga berilgan nisbatdir. Ushbu nisbat berilgan jumla bugungi raqamlashgan jamiyatning barcha talablariga javob bera oluvchi shaxslarga qo'llanilishi juda o'rinlidir. Zero, inson kapitali uchun tikilgan sarmoya hamisha o'zini ming chandon oqlay oladi. Biz buni ushbu "kapital" ni yetishtirib berishda beqiyos o'ringa ega bo'lgan ta'limga berilgan e'tibor va investitsiyalarning keyingi davrda olib keladigan foyda ko'lami orqali ham bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. -B.51-230.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60, <https://lex.uz>. 28.01.2022. -B-2,3.
3. Питер Друкер. Эффективный управляющий. – М.: ВЦИ, 1994. – С. 268.
4. Копитский А.В. Введение в теорию человеческого капитала // http://sibupk.nsk.su/New /04/ chairs / c_theory/ kapital/book1.htm
5. Корчагин Й.А. Современная экономика России. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2008 ISBN 978-5-222-14027-7.
6. Курганский С.А. Введение в теорию человеческого капитала. - SPb.: GUEF, 1999. -60 S.
7. Becker G. S. Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. – University of Chicago press, 2009.
8. Becker G. S. Human capital and the economy //Proceedings of the American philosophical society. – 1992. – Т. 136. – №. 1. – S. 85-92.
9. Коменский Й.А. Концептуализация формирования человеческого капитала в социо-экономической системе региона // Научные сообщения. Экономика и управление. 2010. №5. – С.102–110.
9. Ходжалова Х.М. Человеческий капитал современной семи // Креативная экономика. 2014. №11(95). – С. 62–72.
10. Паулман В.Ф. О человеческом капитале http://lit.lib.ru/p/paulxman_w_f/text_0900-1.shtml (December, 2014)
11. Ali, Muhammad. O'z-o'zingni anglab yet. - Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2012. -B.347.
12. Gaffarova, G.G. (2022), Murakkab tizimlarda axborot generatsiyasi. –Toshkent: Noshir, - 224 b.
13. Sodirjonov M. M. Innovatsion taraqqiyot yo'lida inson kapitalini rivojlanish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2020. – №2 (88). – B. 57.
14. Sodirjonov, M. "Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, bilimi, axloq odobi, dunyoqarashiga bog'lik // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 10 (2022).
15. Sodirjonov M.M. Inson kapitali pivojlanish jarayonlarining etnosotsiologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida). Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – B. 94.

16. Xudayorova Z.O. "Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects" (Yangi O'zbekiston ta'lim tizimini raqamlashtirish: muammo va istiqbollar). *ASADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, Vol. 12, Issue 10, October 2022.(SJIF 2022=8.252)
17. G'affarova, G.; Norboyeva, D. (2023). Kreativlik falsafasi. Monografiya. – Chirchiq: "Zebo print", – 105 b.
18. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(2), 13-17.
19. Gaffarova, G. (2022). Characteristics of Interdiscipline Approaches: Philosophical Analysis. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*. Volume: 2 Issue: 5, P.55-60.
20. G'affarova, G.; Qodirov, B. (2022). Structural fundamentals of action strategy. *Journal of Positive School Psychology*. Vol.6, No.4, -Pp.9492-9500.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Rixsiyeva Lola Azimjanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o'qituvchi
l_rikhsieva@gmail.com

UDK 808.2

INGLIZ TILIDAGI GEOLOGIYA SOHASIGA OID MATNLARNI TARJIMA QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR

Annotasiya: Ushbu maqolada geologiya sohasiga oid matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'pincha uchraydigan tipologik jihat bo'yicha gap bo'laklarning ketma-ketligi farqlanishi va tarjima birligining ikki holati, ya'ni terminologik bo'lmagan birliklar orqali tarjima qilingan termin birikmalar, tarjimoning soxta do'stlari bayon etilgan. Shuningdek, yo'l qo'yilgan muammoli tarjimalarni tahlil qilinib, tavsiya etiladigan tarjimalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: Geologiya, termin, tipologik jihat, asliyat, tarjima, tarjima birligi.

Rikhsieva Lola Azimjanovna

Uzbekistan State University of world languages, senior teacher

PROBLEMS ENCOUNTERED WHEN TRANSLATING TEXTS RELATED TO THE FIELD OF GEOLOGY IN ENGLISH

Annotation: This article describes the difference in the sequence of sentence fragments in the typological aspect that is often found when translating texts on the field of Geology from English to Uzbek, and the two states of the unit of translation, that is, term combinations translated through non-terminological units, false friends of the translator. Recommended translations have also been analyzed for problematic translations that have been allowed.

Keywords: Geology, term, typological aspect, originality, translation, unit of translation.

Рихсиева Лола азимжановна

Узбекский государственный университет мировых языков, старший преподаватель

ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ТЕКСТОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ОБЛАСТИ ГЕОЛОГИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В этой статье рассказывается о типологическом аспекте, который часто встречается при переводе текстов, относящихся к области геологии, с английского на узбекский язык. Дифференциация последовательности фрагментов предложения и два случая единицы перевода, то есть термин, переведенный через нетерминологические единицы соединения, ложные друзья переводчика. Также были проанализированы допустимые проблемные переводы и представлены рекомендуемые переводы.

Ключевые слова: геология, термин, типологический аспект, происхождение, перевод, единица перевода.

Kirish.

Tarjima insoniyatning madaniy taraqqiyotida juda katta rol o'ynaydi. Tarjima tufayli bir mamlakat aholisi boshqa mamlakatlarning hayoti, turmush tarzi, tarixi, adabiyoti, ilm-fan yutuqlari bilan tanishadi. Tarjima ma'lumotni ochiq qiladi va odamlarni birlashtiradi. Tarjima-bu mavjud matnning yangi nashridir. I.G'afurov fikricha, tarjima natijasida boshqa til yoki tillarda asliyat bilan teng kuchga, teng haqqa, teng harakatga ega bo'lgan matnlar yuzaga keladi[1]. L. S. Barxudarov tarjima deganda bir tildagi nutqiy asardagi (matndagi) mazmunini

o'zgaragan va saqlanib qolgan holda boshqa tildagi nutqiy asarga aylantirish jarayoni deb ta'riflaydi. Demak, tarjima jarayonida til birliklari almashtiriladi, lekin mazmun jamlamasi, ya'ni matn orqali uzatiladigan ma'lumotlar o'zgarishsiz qoladi[2].

Adabiyotlar tahlili.

Tarjima inson hayotidagi faoliyatining juda qadimiy shaklidir, uning ildizlari tillar alohida ajrala boshlagan va bir nechta tillarni biladigan va turli til jamoalari vakillarining muloqotida vositachi sifatida ishlay oladigan odamlarga ehtiyoj paydo bo'lgan olis davrlarga borib

taqalishiga qaramasdan, tarjimaga oid nazariy qonun-qoidalar XIX asrdan e'tiboran ishlana boshladi.

XX asrning yigirmanchi yillaridagina to'la nazariya tusini oldi. Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik fan sohasi sifatida shakllandi va tarjima nazariyasini bilish tarjimaning turlari, hamda tillarning ma'lum jihatlari bilan bog'liq alohida tarjima muammolarini ko'rib chiqish uchun ham, tarjima amaliyoti uchun ham asos yaratadi. Tarjima nazariyasi muhim fanlardan sanalib kelmoqda, shuning uchun tarjimada uchraydigan muammolarni hal qilishda ko'pgina izlanishlar olib borilgan va hanuzgacha olib borilyapti. Bularga o'zbek tarjimashunos olimlardan Q.Musaev, G.Salomov, I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, G.Rahimov rus va ingliz olimlardan L.S.Barxudarov, V.N. Komissarov, Z.G.Proshina, N.N.Bobireva, J.K.Katford, Piter Nyumarklarning ilmiy ishlari e'tirof etiladi. Ilmiy izlanishlarga tayangan holda, tarjima ilmiga oid va ushbu faoliyatga tegishli muammolarni muayyan darajada muhokama etilgan hollar uchraganini keltirish joizdir.

I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarovlar keltirishgan muammolardan biri shundaki, 1980 yillardan oldin til nazariyasi va tarjima orasidagi bog'liqlikka juda kam e'tibor berilgani, ya'ni tilshunoslar til hodisalarini tarjimaga qo'llamaganliklari tarjima jarayonini sust bo'lishiga olib kelgan. Tarjima nazariyasi o'z ob'ektiga ega, u tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlanishlarga e'tibor qaratadi va kontrastiv lingvistikaning qoidalarga tayanadi[3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Qiyosiy tipologiya bilan shug'ullangan tadqiqotchilar dunyo tillarning gaplardagi elementlarning tartibiga ko'ra tillarning turlarini ajratib ko'rsatishgan. Misol uchun, tillarni SOV-ega, to'ldiruvchi, kesim tartibi bo'yicha turkiy tillarga, SVO-ega, kesim, to'ldiruvchi tartibi bo'yicha hind-evropa tillariga, OVS-to'ldiruvchi, kesim, ega tartibiga qarab Afrika xalqlari tillariga ajratildi va bu orqali tillarning o'zaro qardosh yoki qardosh bo'lmaganini aniqlash imkonini berdi. Aynan shu tipologik jihat bo'yicha yaqin bo'lgan tillar orasida tarjima jarayoni oson, bir-biridan uzoq bo'lgan tillar orasida esa tarjima muammoli kechadi[4]. Misol uchun, ingliz tilidagi geologiyaga oid gaplardagi gap bo'laklarning ketma-ketligi bo'yicha rus tilidagi gaplarlardagiga juda yaqin bo'lgani uchun va ikkalasi hind-yevropa tillariga mansub bo'lganlari uchun ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilish tarjimonga deyarli muammo keltirib chiqarmaydi.

Tahlil va natijalar.

Asliyat: *Landforms provide an empirical description of the earth's surface features*[5].

Rus tiliga tarjimasi: *Рельефы дают эмпирическое описание особенностей земной поверхности*. Ushbu ikki tilda tipologik jihat bo'yicha izomorfik xususiyati (SVO), ya'ni gaplardagi gap bo'laklarning ketma-ketligi o'xshashligi tarjima jarayoniga qiyinchilik tug'dirmagan

bir paytda, aynan shu asliyatdagi gapni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida (SOV) gap bo'laklarning ketma-ketligini saqlab qolish imkonini bermaydi va nisbatan tarjimon uchun qiyinchilikni yuzaga keltiradi.

O'zbek tiliga tarjimasi: *Er relyeflari er yuzasi xususiyatlarning empirik asosdagi tavsifni taqdim etadi. Bunday tipologik jihat bo'yicha gap bo'laklarning ketma-ketligi farqlanishi geologiyaga oid matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasining birinchi galdagi muammolar tipologiyasidir*. Tarjima jarayonida ko'p hollarda yo'lga qo'yiladigan stilistik xatolar va semantik jihatdan chalkashliklar asosan matndagi terminlardan foydalanish bilan bog'liq.

Tarjimalarda terminlarning noto'g'ri qo'llanilishi yoki so'zning terminologik bo'lmagan ma'noda qo'llanilishi terminning mohiyatini tushunmaslikdan dalolat beradi. Shunday qilib, keyingi tarjima muammolar tipologiyasiga geologiyaga oid matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda *tarjima birligi* muammosini kiritishimiz mumkin.

L.S.Barxudarov o'z ilmiy ishida tarjima birlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Tarjima birligi deganda, biz asliyat matnidagi tarjima matnida mos kelishi mumkin bo'lgan, lekin tarkibiy qismlari alohida ko'rilganda tarjima qilinayotgan matnidagi mos kelmaydigan birlikni tushunamiz"[6].

O'zbek olimlarimiz I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarovlar nima uchun birliklarni tarkibiy qismlari alohida ko'rilganda tarjima qilinayotgan matndagiga mos kelmasligini quyidagicha tushuntirib berishgan: "Ma'lumki, tarjimada bitta tushunchaga bitta tushunchaning to'g'ri kelish holatlari kam uchraydi, bir so'zga so'z birikmasi, bir so'zga gap, hatto bitta so'z ma'nosiga ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lgan frazeologik birlik to'g'ri kelishi mumkin[7]. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, tarjima birligi tarkibiga tilda mavjud bo'lgan barcha birliklar, ya'ni fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, klishelar, frazeologik birlik, terminlar, gap, abzas va tarjima qilinayotgan butun matn kiradi[8].

Geologiyaga oid matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan tarjima birligi muammosini quyidagi holatlarda ko'rib chiqamiz: *Terminologik bo'lmagan birliklar orqali tarjima qilingan termin birikmalar*:

Asliyat: *A body of igneous rock.*

Muammoli tarjima: *Olovli tog' jinslari.*

Tavsiya etiladigan tarjima: *Effuziv magmatik tog' jinslari shakli.*

Asliyat: *Freezing point of petroleum product.*

Muammoli tarjima: *Neft mahsulotining muzlash nuqtasi.*

Tavsiya etiladigan tarjima: *Neft mahsulotining kristallanish harorati.*

Ko'pincha malakali bo'lmagan tarjimonlar lug'atdagi so'zning birinchi ma'nosini qabul qilishlari va

bu birinchi ma'nodagi leksik birlik termin bo'lmashligi mumkinligi sababli sohaga oid matnlarda tarjima birligining muammosini keltirib chiqaradi. Tarjima birligi muammosining keyingi holati bu—asliyat tilidagi so'z tovushlarini tarjima qilinayotgan tilga o'tkazish natijasida yuzaga keladigan chalkashliklar va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan "Tarjimonning soxta do'stlari":

Asliyat: *reservoir rock*. **Muammoli tarjima:** *rezervuarli tog' jins*.

Tavsiya etiladigan tarjima: *g'ovakli qumtosh yoki kollektor*.

Asliyat: *basset*.

Muammoli tarjima: *basset*.

Tavsiya etiladigan tarjima: *tog' jinlari qatlamining qirras*.

Z.Proshina "Teoriya perevoda" (Tarjima nazariyasi) darsligida asliyat va tarjima qilinayotgan matnlarni solishtirilganda, "tarjimonlarning soxta do'stlari" semantik, sintaktik, stilistik va pragmatik jihatdan farq qilinishini bayon etgan.[9] Bunga ko'ra, geologiyaga oid matnlarni ingliz tildan o'zbek tiliga tarjima qilishda faqatgina semantik jihati namoyon bo'ldi va quyidagi ikkita qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oldi. Bular:

- 1) umumiy va o'ziga xos ma'no;
- 2) monosemantik va polisemantik.

Misol uchun, *reservoir* so'zi *rezervuar* degan umumiy ma'noga ega, lekin *reservoir rock* termin birikma

umumiy ma'noga qarshi xos ma'nodagi (*g'ovakli qumtosh yoki kollektor*) tarjimasini tavsiya etilgan. Yoki *basset* polisemantik termin bo'lgani uchun, geologiyaga oid ma'nosi tanlanadi, agar asliyat tilidan so'zni harfma-harf tarjima qilinayotgan tilga o'tkazilsa, *basset*—*zotdor itning* nomini anglatadi va natijada tarjimada chalkashlik yuzaga keladi.

N.Bobireva "tarjimonning soxta do'stlarini" ikkita asosiy guruhga bo'lib o'rgangan. Birinchi guruhga shakl jihatdan o'xshash, lekin ma'no jihatdan butunlay boshqacha so'zlar kiradi. Misol uchun, *resin opal* termin birikmaning birinchi qismi rezina so'zining yozilishiga juda yaqin bo'lgani uchun tarjima jarayonida tarjimonlar tomonidan avtomatik ravishda qo'llanib yuborilishi mumkin, lekin minerologiyada mineralarni ko'rinishi bo'yicha *mum* yoki *qatron(smola)* so'zlar qo'llanishi joizdir.

Xulosa.

Xulosa qilib, aytishimiz mumkinki ma'lum bir sohaga oid matnlarni tarjima qilish haqiqatan ham muammolarga boy faoliyat hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan tipologik jihat bo'yicha gap bo'laklarning ketma-ketligi farqlanishi, tarjima birligining ikki holati, ya'ni terminologik bo'lmagan birliklar orqali tarjima qilingan termin birikmalar, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimonning soxta do'stlari tarjima qilish tadqiqoti jarayonida namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. -T., 2008.
2. Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. -М.: Междунар. Отношения, 1975. -С.240
3. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. -T., 2012. -B.19
4. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua. -Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. -B.32
5. Part 629-Glossary of Landform and Geologic Terms (583). 430-629-H, 1st Ed., Amend. 25, Nov. 2017
6. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. -М.: Междунар. отношения, 1975. -С.175
7. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. -T., 2012. -B.106
8. Илюшкина М.Ю. Теория перевода: Основные понятия и проблемы. Учебное пособие. -Екатеринбург, 2015. -С.18
9. Прошина З.Г. Теория перевода (с английского языка на русский и с русского языка на английский): Уч. на англ. яз. – Владивосток., 2008. -С.131

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Umarjonova Madinabonu Fatxiddin kizi

MA TESOL graduate student at Webster University in Tashkent

Email: xabibullayevab@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-8514-3519>

UDK 808.3

EXPLORING SPEAKING ANXIETY IN EFL SETTINGS: CAUSES OF EMERGENCE AND EFFECTIVE SOLUTIONS

Abstract: *There are instances in which we all can feel anxiety while we are delivering speech to other people. Speaking anxiety is commonly found within EFL-speaking classrooms, and it has become a serious problem for both students and teachers. This research aims to identify the causes of speaking anxiousness that impede successful speaking production, using the example of high school students in Uzbekistan, and provide practical solutions that assist in eliminating verbal communication barriers. In order to determine this, qualitative methods, including focus groups and interviews are employed to learn the unsettling feelings when learners engage in verbal communication. The six teachers who teach speaking as an integrated skill were interviewed to determine how students feel while expressing their thoughts to teachers and their peers and what are potential reasons for speech-related anxiety. Apart from this, ten students with high affective filters were interviewed to learn the repercussions of anxiety that they experience in the classroom how they felt themselves, and the influence of communication apprehension on their performance.*

The findings of the research showed that the teachers observed noticeable symptoms such as muscle tension, trembling, sweating partial voice loss, and redness in the face. The learners reported nervousness, stress, and dryness in their throats, fearing making errors and being judged by other students. The classroom observation concluded that students with high levels of speech-related anxiety tend to participate less in oral activities, avoid speaking opportunities, and lose eye-contact with others.

Key words: *EFL, speaking, anxiety, oral performance, English.*

Umarjonova Madinabonu Fatxiddin qizi

Toshkent shahridagi Webster universitetining
ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi (AQSh)

MA TESOL bitiruvchisi

EFL MUHITLARIDA NUTQ BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUOMMOLARNI O'RGANISH: KELIB CHIQUISH SABABLARI VA SAMARALI YECHIMLARI

Annotatsiya: *Shunday holatlar borki, biz hammamiz boshqa odamlarga nutq so'zlayotganimizda havotirlanamiz. Nutqiy bezovtalik odatda EFL tilida so'zlashuvchi sinflarda uchraydi va bu talabalar va o'qituvchilar uchun jiddiy muammoga aylandi. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistondagi yuqori sinf o'quvchilari misolida muvaffaqiyatli nutqiy ishlab chiqarishga to'sqinlik qiluvchi nutqiy xavotirlanish sabablarini aniqlash va verbal muloqot to'siqlarini bartaraf etishga yordam beradigan amaliy yechimlarni taqdim etishdan iborat. Buni aniqlash uchun o'quvchilar og'zaki muloqotga kirishganda bezovta qiluvchi his-tuyg'ularni o'rganish uchun fokus-guruhlar va intervyularni o'z ichiga olgan sifatli usullar qo'llaniladi. Integral ko'nikma sifatida gapirishni o'rgatuvchi oltita o'qituvchidan o'quvchilar o'qituvchilar va ularning tengdoshlariga o'z fikrlarini bildirishda qanday his qilishlari va nutq bilan bog'liq xavotirlanishning potentsial sabablari nima ekanligini aniqlash uchun suhbat o'tkazildi. Bundan tashqari, affektiv filtrlari yuqori bo'lgan 10 nafar o'quvchi bilan suhbat o'tkazildi, ular sinfda o'zlarini qanday his qilishlari haqida tashvishning ta'sirini va muloqotdan xavotirlanishning o'z natijalariga ta'sirini o'rgandilar.*

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarda mushaklarning taranglashishi, titroq, terlash, qisman ovoz yo'qolishi, yuzning qizarishi kabi sezilarli alomatlar kuzatildi. O'quvchilar xato qilish va boshqa o'quvchilar tomonidan baholanishdan qo'rqib, asabiylashish, stress va tomoq qurishi haqida xabar berishgan. Sinfda o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, nutq bilan bog'liq xavotir darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar og'zaki mashg'ulotlarda kamroq qatnashadilar, gapirish imkoniyatlaridan qochadilar va boshqalar bilan ko'z aloqasini yo'qotadilar.

Tayanch so'zlar: *Chet tili sifatida ingliz tili, gapirish, og'zaki nutqdagi xavotir hissi, og'zaki nutq, ingliz tili.*

ИССЛЕДОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ ТРЕВОГИ В НАСТРОЙКАХ ЭФЛ: ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ЭФФЕКТИВНЫЕ РЕШЕНИЯ

Аннотация: Бывают случаи, когда мы все испытываем беспокойство, когда выступаем перед другими людьми. Разговорная тревога обычно обнаруживается в классах, где говорят на ЭФЛ, и она стала серьезной проблемой как для студентов, так и для учителей. Данное исследование направлено на выявление причин речевой тревожности, препятствующей успешной речи, на примере учащихся старших классов Узбекистана и предоставление практических решений, способствующих устранению барьеров вербального общения. Для определения этого используются качественные методы, в том числе фокус-группы и интервью для изучения неукротимых чувств учащихся при вербальном общении. С шестью учителями, обучающими говорению как интегрированному навыку, было проведено интервью для определения того, как учащиеся чувствуют себя, выражая свои мысли учителям и их сверстникам, и какие могут быть причины речевой тревоги. Кроме того, было проведено собеседование с десятью студентами с высоким аффективным фильтром для изучения последствий тревоги, которые они испытывают в классе, как они себя чувствуют, и влияния общения на их результаты.

Результаты исследования показали, что у преподавателей наблюдались выраженные симптомы, такие как напряжение мышц, дрожь, потливость, частичная потеря голоса, покраснение лица. Учащиеся сообщили о нервозности, стрессе и сухости в горле, боясь совершить ошибку и быть оцененными другими учащимися. В классном наблюдении был сделан вывод о том, что учащиеся с высоким уровнем речевой тревожности, как правило, меньше участвуют в устной деятельности, избегают возможности говорить, теряют глазovou связь с окружающими.

Ключевые слова: Английский как иностранный язык, английская речь, тревожность, устная речь, английский язык.

Introduction.

The initial period of learning a language and acquiring communication skills can be challenging for students. Tanveer stated that feelings of nervousness and speaking apprehension are commonly found among EFL students [10]. There are many times that language learners may exhibit speaking anxiousness when they express themselves. "Many of us have memories of ridicule and failure in language classes at school or failing to communicate effectively while traveling in a foreign country, and this may or may not fill us with some level of shame" [6]. For students who are embarrassed to make mistakes or afraid of being judged negatively by teachers and other students the classroom can be a place of great fear. The specific context that the study investigates is High schools in Uzbekistan. According to the English Proficiency Index in 2024, Uzbekistan demonstrated "very low English proficiency" ranked at number 93 out of 113 countries [2]. Even though students showed a low level of English speaking competence, it remains a very essential language skill for achieving both educational and professional success in Uzbekistan. Students who reach academic excellence in English and have a language certificate that proves their English proficiency can be accepted by both private and public educational establishments with or without entrance exams. Besides, people who learn or know English very well are highly valued by employers as well. When we think about the term "speaking anxiety" we might think about "stress", "nervousness", the feeling of being unsettled" and so on.

Literature review.

The Dictionary of Psychology defines speaking anxiety as a "fear of giving a speech or presentation in public because of the expectation of being negatively evaluated or humiliated by others". Students who suffer from speech-related anxiety tend to have problems with concentrating and mastering the language [1]. This study aims to examine the factors that contribute to speaking anxiety and suggest some solutions to aid learners in overcoming communication apprehension.

It is true that the main aims of learning a foreign language are communicating fluently and reaching a native-like competence. Becoming fluent in English is often difficult not only for Uzbek students but also for foreign language learners because it is influenced by several factors such as affective filters, cognitive factors, approaches, and methods chosen by language instructors.

Affective filter. The main factor that inhibits successful language acquisition is a high affective filter which means "mental block" [9]. The affective factors encompass motivation, self-confidence, and anxiety that belong to learners' feelings and personality traits [5]. If learners experience more positive feelings such as pleasure, enjoyment, and a sense of satisfaction, the level of affective filter will be lower. Conversely, if students undergo negative emotions, including fear of making mistakes or being judged by other students, the affective filter level will be high. Every language learner must bear in mind that the language-acquiring process requires consistent effort and strong desire. It is often the case that most English learners tend to be demotivated when they do not see quick progress or results which can contribute to a heightened

affective filter. Personality traits including, introversion or jumping on perfectionism can conduce to a high affective filter. Students with high levels of anxiety can be introverted naturally which means they are not willing to speak more even though they excel at other language aspects. The role of self-confidence is far greater. Being afraid of pronouncing inaccurately, making mistakes related to grammar or word choice or constant hesitations are the signs of low self-confidence. However, there are several ways that assist in lowering affective filters. One of them is linking language learning to students' future lives and constant appreciation. Language instructors should explain the importance of language learning and becoming fluent speakers by connecting it to future life and career paths. This explanation can serve as a motivation. While learners have high motivation, it will be easy for them to acquire the language. Rewarding students' achievements even if it is small can boost students' motivation encouraging them to accomplish more positive outcomes. To foster students' self-confidence, the instructor should employ collaborative activities in which the interaction mode will be student and student. This collaboration helps learners to foster self-confidence as whenever students are engaging in group work, they can easily express their ideas and thoughts to their peers. In Uzbekistan, most English classes are teacher-centered which means students feel extra pressure when they speak to the teacher and they fear taking negative feedback from the teacher. The instructor plays a main role in the classroom by explaining the topic, conducting an activity or different task, and evaluating. Collaborative tasks are not enough. In order to enhance self-confidence in students, the instructors should apply group work or pair work activities.

Cognitive factor. Cognitive factors can trigger speech-related anxiety. One of them is poor background knowledge. Not having ample knowledge of grammar, topic-specific vocabulary, and poor critical thinking can contribute to speaking anxiety. EFL students tend to worry about making grammar mistakes and being humiliated while delivering a speech to someone. The reason why foreign language learners often fear making grammar mistakes is incomplete knowledge of grammar and feeling unsure. If students do not fully understand or they cannot apply the grammar rules in speech, the learners can feel stressed or avoid performing orally. Negative feedback or evaluation by teachers can make students demotivated or simply, learners can lose their interest in producing speech. Another problem is the lack of familiarity. If the teacher encourages students to talk about topics that are quite familiar to students such as traveling, leisure time activity, and profession, the learners can speak without cease. However, complex conversational topics and themes that insist on adequate critical thinking may require preparation in advance. Besides, banning speaking in L1 in language classrooms may contribute to speaking

apprehension in students, especially for those who are at the initial step of learning. In the language classroom competitive environment can create anxiety.[7] It means that due to the competitive environment in language classrooms, most students' desired goals can be achieved and show better outcomes than other students. In this classroom, the students start to compare themselves with other students. There are solutions to avoid these challenges. As it is mentioned above, not having ample knowledge of grammar may cause anxiety. To illuminate this problem, the instructor should provide proper grammar instruction within the speaking lesson. The lesson should not be theory or grammar concept-based but the instructor should teach grammar rules in speaking, through meaningful and authentic texts.

Misapplied method or technique. It is fairly certain that most teachers often heavily emphasize grammatical accuracy (GTM method) even in speaking lessons. In that case, the language learners may feel afraid of making grammar errors while producing speech. Sometimes, intense feedback or forced participation by the instructor can make the situation even more worst.

The important factor to consider is different learning styles, which means some learners may require more time to process information in their minds, and there are students whose learning styles are different. Under those circumstances, these students may feel overlooked or neglected if the teachers apply intense feedback for students' grammar mistakes or forced participation techniques to assess their speaking progress.

Another technique that is utilized by language instructors is spontaneous speaking practice. On the one side, this technique may help learners to develop and practice communication skills. However, it can be also a daunting task even for adult learners. It often happens in different classroom contexts such as classroom discussions, debates, presentations, or quick response sessions. As a result, learners' level of activeness may decrease which means learners prefer to stay silent and just listen to other students' responses silently because of a lack of familiarity with the topic and inadequate time to prepare. However, there are several strategies to mitigate speech-related anxiety. For example, brainstorming ideas, outlining key points, or simply taking notes may help not only process information quickly, but also it can gradually increase their speaking skills. Using visual prompts, and ready templates for speaking can also contribute to fostering communication. Building a supportive environment by teachers is very essential for enhancing oral communication. In this supportive environment where each mistake should be seen as a learning opportunity. The importance of giving constructive feedback is far greater. The feedback should not be harsh or solely focus on grammar mistakes but it should address both learners' strengths and weaknesses.

Research Methodology.

In order to conduct a study, the interviews are carried out with six High school learners, three of them girls and three boys, who study in Tashkent. To learn more about speech-related anxiety, students were interviewed individually. When it comes to students' nationality, all of them are Uzbek except for one Russian girl. The age profile of the learners is from 15 to 17 years old. All learners are studying in different public schools. The learners are remarked as S1, S2, S3, S4, S5, S6. Looking at the teachers, they are originally from Uzbekistan. They are at the age of 30-45 years old. The instructors teach English in different public schools. The names of the candidates are anonymous. The interviews with teachers were conducted in the form of discussion. Four questions were asked to both English teachers and students. These questions are different for teachers and students.

Questions for students.

1. What do you feel when you perform orally in English?
2. What aspects of speaking (fluency, vocabulary, accuracy, pronunciation) are challenging for you?
3. Do you feel any physical reaction when you perform?
4. Have you ever experienced a speaking apprehension?

Questions for teachers

1. How do you know when your student experiences speaking anxiety?
2. Do you spot any physical reaction?
3. Does the anxiety adversely affect students' activeness?
4. What strategy or technique assists in mitigating speech-related anxiety?

Results and analysis.

The outcome of this interview was presented in the form of table representing students' responds to the questions. The answers of these students were explored and analyzed.

Table for question 1 (students)

Answers	Students
1. Pleasure	S1
2. Anxious.	S4, S5, S6.
3. Low self-confidence	S2

For question 1, students were asked how they felt themselves when performing orally. From the table, we can see that most students feel worried and concerned. Only one student described the experience as enjoyable and fun. Student 2 has low self-confidence.

Table for question 2 (students)

Answers	Students
1. Fluency	S1

2. Vocabulary	S3, S4
3. Pronunciation	S2
4. Grammatical accuracy	S5, S6

The learners were asked about the aspects of speaking which is challenging and inhibit their speaking production. According to the results, one student has a fluency problem as described he has more hesitation while performing. S2 and S3 have problems with word choice and vocabulary activation. They said that they often forget the words that they want to use. Student 2 has pronunciation problems especially with "th", and plural "s" sound and connected speech. S5 and S6 described that they often fear making grammar errors especially in tenses and "to be". They constantly worry about being humiliated by their peers.

Table for question 3

Answers	Students
1. Partial voice loss and redness	S2
2. Trembling	S5, S6
3. Sweating	S1
4. Dryness in throat	S3, S4

For question 3, the students were asked about the physical reaction they feel when producing a speech. Most of them experience trembling (S5, S6) and dryness in the throat (S3, S4), while one student (S2) feels partial voice loss and redness. S1 experiences sweating. According to students' responses, the reactions will be more visible when students are asked to speak spontaneously.

Table for question 4 (students)

Answers	Students
1. Yes	S2, S3, S4, S5, S6
2. No	S1

For question 4, the students are asked about whether they feel like speaking apprehension or not. 5 students answered yes. The reasons for this anxiety are asked. According to respondents, most students are concerned about being judged by teachers (S2, S5, S6). S3 and S4 experienced anxiety because of a lack of familiarity and time constraints to preparation. S1 has not experienced anxiety.

Discussion.

When it comes to teachers' responses during the interview, the responses are really close to each other. According to their responses, most students are less active than each other in speaking or the instructors can easily notice visible discomfort in students. By observing these students, they can easily notice that their students have speaking anxiety. Looking at the physical reactions, all six teachers responded that redness on the face, dryness in the throat, trembling, and sweating are the common reactions

that students can have. The teachers added that those students who have speaking apprehension are less active and try to keep silent during the speaking practice. Another point is that forced participation can increase their anxiety levels.

Having noticed this speaking anxiety in students, the teachers try to mitigate it by creating a supportive environment, emphasizing on both form and meaning in a balanced way, and applying differentiated instructions in speaking lessons to focus on different learning styles and needs. "Differentiated instruction is a philosophy of teaching purporting that students learn best when their teachers effectively address the variance in students' readiness levels, interests, and learning profile preferences. A key goal of differentiated instruction is maximizing the learning potential of each student" [11,12]. Another important point to take into consideration is providing constructive feedback.

Conclusion.

The research was carried out to investigate the reason for emerging speaking anxiety in EFL setting with

the example of high school students in Uzbekistan and suggest solutions to avoid and overcome this anxiety. In order to learn this issue in students, the interviews are carried out with both students and teachers. The study found that students feel visible discomfort such as redness on the face, dryness in the throat, and constant hesitation if they have anxiety level in speaking. Apart from that, if students are not familiar with speaking topics or they are forced to participate immediately, they would experience verbal anxiety.

The majority of the teachers remarked that students who have speaking apprehension tend to be less active in speaking class or simply keep silent. The reason for that is being judged or humiliated by the instructor or other students. The possible solutions that help overcome anxiety would be creating a supportive environment where students can feel relaxed, focusing on form and meaning equally, applying differentiated instructions to address the needs of students, encouraging collaboration, and providing constructive feedback.

References:

1. Brown, H. D. (2004). *Language Assessment: Principles and Classroom Practices*. New York: Longman.
2. English First, EF English Proficiency Index, (2019) <https://www.ef.com/wwen/epi/regions/asia/uzbekistan/>
3. Gani, A. S., Fajrina, D., & Hanifa, R. (2015). Students' Learning Strategies for Developing Speaking Ability. *Studies in English Language and Education*, 2, 17-30.
4. <https://doi.org/10.24815/siele.v2i1.2232>
5. Hanifa, R. (2018). Factors generating anxiety when learning EFL speaking skill. *Studies in English Language and Education Journal*, 5(2), 230-239
6. Kasap, S. & Power, K. M. (2019). Anxiety in the EFL Speaking Classrooms. *The Journal of Language Teaching and Learning*, 9(2), 23-36.
7. Kasbi, S., & Shirvan, M. E. (2017). Ecological understanding of foreign language speaking anxiety: emerging patterns and dynamic systems. *Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education*, 2(1), 1-20.
8. Kayaoğlu, M. N., & Sağlamel, H. (2013). Students' perceptions of language anxiety in speaking classes. *Journal of History Culture and Art Research*, 2(2), 142-160.
9. Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
10. Tanveer, M. (2007). *Investigation of the Factors That Cause Language Anxiety for ESL/EFL Learners in Learning Speaking Skills and the Influence It Casts on Communication in the Target Language*. University of Glasgow.
11. Tomlinson, C. (2001). *How to differentiate instruction in mixed-ability classrooms* (2nd ed). Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.
12. Tomlinson, C. (2003). *Fulfilling the promise of the differentiated classroom: Tools and strategies for responsive teaching*. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
Namangan davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim kafedراسi professori, f.f.n.
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

QAHRAMON RUHIY OLAMI VA YOZUVCHI KONSEPSIYASI IFODASI

Annotatsiya: Har qanday yaxshi asar qahramon ruhiy olamini teran yoritadi. U qoida o'zbek adabiyoti uchun ham xos. Shukur Xolmirzayev ijodi bugungi o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridan sanaladi. Uning asarlari qahramon ruhiyatini yuksak darajada aks ettirganligi bilan ahamiyatli. Ushbu maqolada adibning "Olabo'ji" romani qahramon ruhiy olami va yozuvchi konsepsiyasi ifodasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tahlil, xarakter, antropotsentrik paradigma, shakl va mazmun, estetik subyekt, badiiy butunlik, badiiy shartlilik, o'quvchiga yo'naltirilganlik, originallik, universonallik, qahramon ruhiyati, konsepsiya, tamoyillar tizimi, asar g'oyasi, yozuvchi dunyoqarashi, ramz, majoz, personajlar taqdiri, dunyoqarash va yondashuv, adaptatsiya, inson va insoniyat qismati, badiiy-estetik konsepsiya.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, кафедры дошкольная и начальная образование, кандидат филологических наук, профессор НамГУ

ДУХОВНЫЙ МИР ГЕРОЯ И ВЫРАЖЕНИЕ ПИСАТЕЛЬСКОЙ КОНЦЕПЦИИ

Аннотация: Любое доброе произведение глубоко освещает духовный мир героя. Это правило характерно для узбекской литературы. Творчество Шукура Холмирзаяева – один из ярких образцов современной узбекской литературы. Его произведения значимы тем, что на высоком уровне отражают психику героя. В данной статье рассматривается психический мир героя романа «Олабужи» писателя и концепция писателя.

Ключевые слова: художественный анализ, персонаж, антропоцентрическая парадигма, форма и содержание, эстетический субъект, художественная целостность, художественная условность, читательская ориентация, оригинальность, универсальность, психика героя, концепция, система принципов, идея произведения, мировоззрение писателя, символ, метафора, судьбы персонажей, мировоззрение и подход, экранизация, судьба человека и человечества, художественно-эстетическая концепция.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

Namangan State University, Department of Preschool and Primary Education,
Candidate of Philological Sciences, Professor of NamSU

THE SPIRITUAL WORLD OF THE HERO AND THE EXPRESSION OF THE WRITER'S CONCEPTION

Annotation: Any good work deeply illuminates the spiritual world of the hero. This rule is typical for Uzbek literature. Shukur Kholmirezayev's work is one of the bright examples of today's Uzbek literature. His works are significant because they reflect the psyche of the hero at a high level. This article examines the mental world of the hero of the novel "Olaboji" by the writer and the concept of the writer.

Key words: artistic analysis, character, anthropocentric paradigm, form and content, aesthetic subject, artistic integrity, artistic conditionality, reader orientation, originality, universality, hero's psyche, concept, system of principles, idea of the work, writer's outlook, symbol, metaphor, fate of characters, outlook and approach, adaptation, fate of man and humanity, artistic and aesthetic concept.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, ulug' adib
Shukur Xolmirzayevning asarlarini o'qimagan o'zbek
o'quvchisini topish qiyin. Betakror hikoyalari, jozibador

Kirish.

qissalari, yuksak saviyali romanlari allaqachon o'zbek adabiyotining nodir javohirlari qatoridan o'rin olgan. Yozuvchi bir umr o'zbek xalqining xarakterini, yashash tarzini, qiyofasini badiiy obrazlar orqali tasvirlab berdi.

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atini ustoz Abdulla Qahardan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev nasriy asarlarida qahramon ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz ko'plab hikoya va romanlarida aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galeriyasi bo'lib gavdalandi. Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryozlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so'zga xasis bo'lsa-da, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek taassurot uyg'otadi.

Adabiyotlar tahlili.

Konsepsiya (lot. Conceptio – majmua, tizim) – umumiy ma'noda biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar bo'lsa, adabiyotda – biror asarning asosiy g'oyasi yoki yozuvchi dunyoqarashi, aniqroq aytganda, yozuvchining qarashi-yondashuvini anglatadi. Konsepsiya badiiy asar mohiyatini, ijodkorning —menini ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori bilan, asar o'z konsepsiyasiga ko'ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo'ladi. O'quvchining ma'naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiyasi alohida ta'kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko'ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o'z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining konsepsiyasi tarzida qo'yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi-usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi.

Adabiyotshunos olim S.Komilova o'zining “Sharq yulduzi” jurnalining 2015-yil 5-sonida chop ettirgan maqolasida zamonaviy o'zbek adabiyotida konsepsiya masalasiga alohida to'xtaladi [6, 153].

“Lekin shuni qayd etish kerakki, o'zbek adabiy tanqidchiligida adabiyotning o'z-o'zini shakllantirishga urinishi borasida yakdil fikrlar yo'q. Masalan, adabiyotshunos olim Hakimjon Karimov ilgari surgan paradigma in'ikos nazariyasiga va ijtimoiy-madaniy hamda adabiy tafakkurning rivojlanishida ong kategoriyasining roliga asoslanadi.

Adabiyotshunos olim H.Karimov zamonaviy so'z ijodkorlarining eng muvaffaqiyatli tajribalari ramz va majozlarga tayanganini ta'kidlaydi. Adabiyotshunos olim “Zamonaviy o'zbek adabiyoti uchun muallifning dunyoni his etish konsepsiyalaridagi xilma-xillik, voqelikni anglashning yangicha shakllari paydo bo'lishi hamda adabiy obrazlarni milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan qayta anglash xosdir”, deya xulosa qiladi” [6,154].

Zamonaviy adabiy jarayonda turlicha uslublar, janrlar va bugungi voqelikni haqqoniy aks ettira oladigan tasviriy-ifoda vositalarining yangilanishi bilan ifodalanuvchi g'oyaviy-estetik yondashuvlarning paydo bo'lishi shu bilan izohlanadi

Tadqiqot metodologiyasi.

Qahramon ruhiy olami tasviri Shukur Xolmirzayev nasriy asarlarida o'ziga xos tarzda aks etganligi bilan kitobxonning diqqatini tortmay qolmaydi. Nafaqat nasriy asarlari, balki dramatik asarlarida ham yozuvchi konsepsiyasi o'ziga xos tarzda aks etganligini kuzatishimiz mumkin. Yozuvchining “Olabo'ji” romanini o'qiganimizda anglaymizki, olabo'ji – sho'ro tuzumining yashash tarziga bo'yin egmagan, milliy qadriyatlarimizga ixlosi baland bir devonadir. Boshqalar nazrida devona deb e'tirof etilgan bosh qahramon – buyuk arxeolog (qadimshunos), ayni chog'da o'ziga xos o'jar bir insondirki, hayotning zarbalaridan qochib, tabiat bag'riga chekinadi. Shu bois “jinni” laqabini oladi va oqibat jinnixonaga jo'natiladi [7, 346].

O'quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e'tiborini xarakter yaratishga qaratgandek ko'rinadiki, bu o'quvchini o'ylashga, chuqur mulohaza qilishga majbur qiladi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Har bir o'quvchi qanday asar o'qimasin o'qigan asar qahramonlarining taqdirini o'zi xohlaganidek bo'lishini istaydi. Adibning “Olabo'ji” romanida Ulton obrazi ruhiyati ifoda etilgan. Adib qahramon ruhiyati orqali inson hayotidagi o'zgarishlarning ta'sirini ushbu romanda tasvrlaydi va buning uddasidan chiqadi.

Buni adibning “Olabo'ji” romaninida qahramon ruhiy olami misolida kuzatishimiz mumkin.

Tahlillar va natijalar.

An'anaviy tasvir yo'nalishiga xos badiiy izlanishlarini jahon adabiyoti ifoda usullari bilan vobasta qilishga, inson shaxsini turli rakurslardan aks ettirishga, uning o'y-xayollariyu xatti-harakatlari ruhiy asosini tadqiq etishga intilgan o'zbek nosirlari qatorida O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev nomi alohida ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev “Olabo'ji” romanida mustaqillikka intilish va bozor iqtisodiyotiga “o'tish davri” murakkabliklari va odamlar tabiatida kechgan o'zgarishlarni qalamga olib, ularni bartaraf etishning yo'llari haqida poetik hukm-xulosalar chiqargan. Bu jarayonlar roman bosh qahramoni – oddiy qishloq

o'qituvchisi, ko'zga ko'ringan yozuvchisi Ulton Sultonovning taqdiri misolida qanday badiiy tahlil va tadqiq etilishini o'rganish maqsadini ko'zlaydi.

Shubhasiz, asarda adaptatsiya masalasi inson va insoniyat qismatini ham chetlab o'tmaydi. Shunday ekan, aytish mumkinki, roman badiiy vaqtida harakatlanuvchi personajlar taqdiri misolida yaqin o'tmish davri zamondoshlarimiz hayoti, davr va shaxsh fojiasi o'z aksini topgan.

Muallif roman haqida izoh berar ekan: "Olabo'ji" o'tgan yili "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilindi. Shu asarning janrini romandan katta hikoya deb belgiladim. Bu narsani o'zimni o'zim aldash uchun qildim. Roman desam, voqealar tarmoqlanib, sochilib ketadigandek tuyuldi. Agar hikoya desam, men o'zimni tiya bilarkanman. Baribir, shunday bo'lsa ham 400-500 qog'oz bo'lib ketdi" [14, 124].

Asar qahramoni Ultonning yaqinlari, tanish-bilishlari bilan bo'lgan munosabatlari, o'zi ishongan insonlar tufayli "olabo'ji"ga aylanishi albatta kitobxonni chuqur mulohazaga chorlamay qolmaydi. Xarakter va voqealar o'rtasidagi munosabat insoniy muloqotlar jarayonida ochila boradi.

Sh.Xolmirzayev roman tugunidayoq voqealar qanday kechishiga kitobxonni qiziqtirib qo'yadi [9, 335-336]. Voqealarning borishidagi o'ziga xos sirlilik, roman tugunining sabablarini bilishga qiziqishni kuchaytiradi. Yozuvchi asosiy voqea bayoni bilan u bo'lib o'tadigan joylar tasvirini yonma-yon tarzda tasvirlaydi. Aytish mumkinki, roman ekspozitsiyasi yetakchi voqealarga parallel holda chiziladi. Real voqelik bilan bog'liq muammolar izlanish, iztirobli o'ylar, ajdodlar merosini o'zlashtirish va kelajakka ishonch orqali bartaraf etilishi mumkinligi fikri romanning yechimidir.

Yozuvchi romaning asosiy qahramonlaridan biri Ulton Sultonovning og'ir iztiroblarga to'la hayotini shunday tasvirlaganki, kitobxonda Ultonga nisbatan achinish, yosh yigitni nobud qilib, "Olabo'ji"ga aylantirgan jamiyat, shu jamiyatda katta rol o'ynayotgan rahbarlarga nafrat uyg'onishi tabiiy.

Asarda bo'lib o'tgan voqealar, harakatlar bosh qahramon Ulton Sultonov taqdiri bilan uzviy bog'liq. Unda Ulton hur fikrli, sodda, tabiatni jonu dilidan sevuvchi, erk va mustaqillik, ekologik o'pirilishlarga qarshi o't ochuvchi yozuvchi shaxs sifatida tasvirlangan. U doimo tabiatdek tabiiy yashashni istaydi. Uningcha, hayotda har bir ish –

tabiiy beg'araz va makru xiylalarga ustamonligi degan modullardan holi bo'lishi kerak.

Adib Ulton obrazini yaratishda psixologizmdan keng foydalanadi. Nafaqat Ulton obrazi, balki boshqa qahramonlar tasvirida ham psixologizmdan keng foydalanib, asarni kitobxonlar tomonidan sevib qarshi olishlariga erisha oldi.

Yozuvchi bir-ikki kichik epizodni keltirish orqali Ultonnigina emas, balki uning yurti ham, bu yurtning tabiati ham birovlarining –ruslarning inon-ixtiyorida ekanligini aytadi. O'sha birovlar bu yurtni xohlasa tank ostida toptaydi, xohlasa maktab o'quvchilarining darslarini to'xtatib qo'yib, paxtaga, hashak o'rimiga va boshqa yumushlarga oylab jalb etadi. Biroq ota-bobosi bajarib kelgan bu yumushlar Ulton uchun odatiy tusga kirgan. G'ayri odatiy holat, to'g'rirog'i, tuzatib bo'lmaydigan kulfat Ultonning boshiga Bahorga uylangandan so'ng tushadi.

Ayrim yozuvchilar qahramon va personajlari xarakteridagi o'zgarishni dalillash uchun, uni jamiyatda yuz berayotgan favqulodda o'tkir voqea-hodisalar orasida ular bilan uzviy bog'liq holda, voqea-hodisalarga munosabatlarini aks ettirish orqali tasvirlasa, ayrim yozuvchilar birgina detal orqali ham qahramon va personajlari xarakteridagi to'ntarishni dalillay oladi" [8,14]. Darhaqiqat, har bir ijodkor asarida detallardan foydalanadi. Shu detal asardagi barcha voqealarni bog'lab turuvchi, muallif g'oyasini ochishga xizmat etish vazifasini bajaradi. "Qiziq detal, chiroyli parcha shu vaqtda asarning qimmatini oshiradiki, shu qiziqarlighi, shu chiroyligi bilan g'oyaning tashviq qilinishiga xizmat qilsa" [10, 123], deydi yozuvchi Abdulla Qahhor. Yozuvchi Ulton ruhiyatini, asarning asosiy g'oyasini ochib berish uchun ayiq detalidan foydalangan.

Xulosalar.

Umuman olganda, yozuvchi o'z dunyoqarashi, konsepsiyasini har bir asarda qaysidir darajada namoyon etadi. Bu dunyoqarash va yondashuv, albatta, qahramon ruhiyatida ham ifodasini topadi. Shukur Xolmirzayev Ulton Sultonov dunyosidagi o'zgarishlarni ba'zan o'z dunyoqarashi bilan uyg'un, ba'zan esa yozuvchi ixtiyorida tashqarida tasvirlaydi. Yozuvchi ma'naviy olami qahramonlarda doimo to'laligicha aks etmaydi, ammo, shunday o'rinlar borki, unda yozuvchi mantig'i ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidova M.O. Shukur Xolmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
2. Hamidova M. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi, 2021.- № 4.- B.331.
3. Komilova S. Zamonaviy o'zbek adabiy jarayoni konsepsiyasi // Sharq yulduzi, 2015–5. B.154.
4. Ne'matillayeva F. O'zbek adabotida Shukur Xolmirzayevning tutgan orni // Ijodkor o'qituvchi, 2023.- № 28.-345-347.
5. Qodirov K. Hayotbaxsh shabadalar.- Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.- B.14.

6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.- Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.335-336.
7. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. - T.: Fan, 1967.
8. Xolmirzayev Sh. Qadimiy Baqtriya tuprog'ida // Sharq yulduzi, 1973.- № 11.- B. 148.
9. Xolmirzayev Sh. Olabo'ji //Sharq yulduzi, 1992.-№ 1. – B. 37.
10. Xolmirzayev Sh. Olabo'ji: roman.- Toshkent: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2023.-608 b.
11. Xolmirzayev Sh., Yunust T. Insonni kashf etish baxti // Sharq yulduzi, 1993.- № 9.- B. 124.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD

NUTQIY MULOQOT TIZIMIDA INFORMATIVLIK

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy diskursiv kategoriyalardan biri sanlawochi informativlikning til va nutqda tutgan o'rni va ahamiyati, ifodalanishi masalalari lingvistik tahlil qilinadi. Til funksiyalaridan biri sifatida informativlikning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Har qanday jamiyat taraqqiyotidagi muhim omil, inson ijtimoiylashuvi, fikr almashinuving asosi ham axborot, ya'ni informatsiyalar alnashinuvinga asoslanishi, axborot inson dunyoqarashini shakllantirishi masalasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: diskurs, matn, informativlik, kogeziya, kommunikativ birlik, kontekst, pragmalingvistika, kommunikativ lingvistika, nutqiy muloqot tizimi.

Казакова Нозима Абдулбакиевна,
Доцент Наманганского государственного университета, PhD

ИНФОРМАТИВНОСТЬ В СИСТЕМЕ РЕЧЕВОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация: В данной статье лингвистически анализируется роль и значение одной из основных дискурсивных категорий количественной информативности в языке и речи. Содержание и сущность информативности раскрываются как одна из функций языка. Важным фактором развития любого общества, основой социализации человека и обмена идеями является информация, т.е. обмен информацией, вопрос о том, как информация формирует личность человека. учитывается мировоззрение.

Ключевые слова: дискурс, текст, информативность, связность, коммуникативное единство, контекст, прагмалингвистика, коммуникативная лингвистика, система речевой коммуникации.

Kazakova Nozima Abdulbakiyevna,
docent of Namangan State University, PhD

INFORMATIVENESS IN SPEECH COMMUNICATION SYSTEM

Annotation: In this article, the role and importance of one of the main discursive categories, the number informativeness in language and speech, and the issues of expression are analyzed linguistically. The content and essence of informativeness is revealed as one of the functions of language. An important factor in the development of any society, the basis of human socialization and exchange of ideas is information, information exchange, the question of how information forms a person's worldview is considered.

Key words: discourse, text, informativeness, cohesion, communicative unit, context, pragmalinguistics, communicative linguistics, speech communication system.

Kirish.

Keyingi yillarda kommunikativ tilshunoslik, diskurs, diskursiv tahlil masalalari tilshunoslikda dolzarb masalalardan sanalmoqda. Chunki insoniyat hayoti, o'tmishi, buguni va kelajagi nutqiy muloqot tizimi bilan chambarchas bogliq. Nutqiy muloqot tizimida esa axborot eng muhim kategoriya deyishimiz mumkin. Axborot bu bilimlar, yangi ma'lumotlar, tinglovchi uchun muhim bo'lgan ma'lumot ekanligi ma'lum. Axborotlarning ifodalanish shakli, uzatish kanali, hajmi, mazmuni kabi xususiyatlari bugungi kunda boshqa formatga almashayotgani sir emas. Kundalik maishiy diskurs, institutsional diskursning siyosiy diskurs, ilmiy diskurs,

pedagogic diskurs, tibbiy diskurs, yuridik diskurs, badiiy diskurs kabi diskurs turlarida informativlik turli darajada o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili.

Informativlik masalasi matn tilshunosligiga oid ilmiy adabiyotlarda qisman o'rganilgan. Jumladan, bu borada I.Galperin, I.Muxa, N.Neporachenko, M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarning ishlari ma'lum. [1,2,3] Ma'lumki, tilshunoslikda matnning kategorial belgilari sifatida quyidagi belgilar qayd etiladi:

1) kogeziya - matn bo'laklarining grammatik, leksik, ritmik, grafik vositalar yordamida birikishi;

2) kogerentlik - matn qismlarining semantik-mantiqiy munosabatlar (sabab-oqibat, referentativ, zamon-makon) negizida bog'lanishi;

3) intensionallik - matn strukturaviy va ma'noviy yaxlitligining kommunikativ maqsad bilan bog'liqligi;

4) adresatlik - axborotni uni qabul qiluvchining ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda uzatish (boshqacha aytganda-retsipient tanlovi);

5) informativlik - uzatilayotgan axborotning adresat uchun muhimligi yoki yangilik darajasi;

6) situativlik - matn mazmuniy va strukturaviy qurilishining kommunikativ sharoit, vaziyat bilan bog'liqligi;

7) intertekstuallik - ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'noning qayta yaratilishi. [3] Aslida matn ham kommunikativ birlik. U orqali muallif o'quvchi bilan mulqotga kirishadi va unda qayd etilgan yuqoridagi kategoriyalar diskursga ham tegishli. Chunki diskurs matn bilan giperonim va giponim munosabatiga ega. Matnda qayd etilgan informativlik, kogeziya, kogerentlik, intensionallik, adresatlik, situativlik, intertekstuallik kabi kategorial belgilar nutqiy faoliyat jarayonida u yoki bu darajada voqelanadi.

Muhokama.

Informativlik diskursdagi muhim kategoriyalardan biri. Chunki til funksiyalaridan biri hisoblanuvchi kommunikativlik ham har qanday jamiyat taraqqiyotidagi muhim omil, inson ijtimoiylashuvi, fikr almashinuvining asosi ham axborot, ya'ni informatsiyalar alnashinuviga asoslanadi. Axborot inson dunyoqarashini shakllantiradi, shaxs sifatida rivojlanishga asos bo'ladi. Informatsiya fanda 2 xil ma'noda qo'llanadi:

1. Har qanday gap yoki jumla informatsiya tarzida qabul qilinishi mumkin.

2. Biror obyekt haqidagi xabar ma'nosida tushunishimiz mumkin.

Matn tilshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis I.Galperin informatsiyani quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Mazmuniy-daliliy axborot. Bu verbal ifodalangan, o'z tabiatiga ko'ra eksplitsit ifodalangan axborot.

2. Mazmuniy-konseptual axborot. Bunday axborot turi keltirilayotgan dalillarga muallif munosabati asosida shakllangan axborot turidir. Bunday axborot badiiy matnga, kundalik maishiy diskursga tegishli bo'ladi.

3. Mazmuniy-tagma'noli axborot. Bu kosa tagida nimkosa shaklida ifodalangan axborot hisoblanadi.

XXI asr – axborot asri degan jumla juda ko'p kontekstlarda takrorlanadi. Darhaqiqat, bugungi kunda axborot manbalari, yetib kelish usullari haddan tashqari kengaygan. Har bir shaxs o'zi xohlasa-xohlamasa axborot og'ushuda yashaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, telefondagi muloqotlar orqali diskursning har qanday turi va har qanday mavzudagi, konseptual asosdagi axborotlarni

inson qabul qiladi va bevosita yoki bilvosita shu diskurs ishtirokchisiga aylanadi.

Turli ijtimoiy guruhlarga va janriy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra diskursda informativlik darajasi turlicha bo'lishi tabiiy holat.

Informativlik kategoriyasi har qanday matnning va diskursning ajralmas xususiyati hisoblanadi va mazmuniy kategoriyalar qatoriga kiradi. Informativlik kategoriyasining voqelanishi turli janrdagi diskursda turli darajada bo'lishi mumkin

Uzoq yillar davomida diskursning lisoniy maqomi masalasi muhokamali masalalardan bo'lgan, deyishimiz mumkin. Diskurs, odatda, matn hodisasiga qarama-qarshi qo'yilib, og'zaki nutq shakliga nisbatan diskurs terminini qo'llash lozimligi, yozma nutq mahsuli esa matn termini bilan yuritilishi haqida ko'plab adabiyotlarda aytilgan. So'nggi yillardagi adabiyotlarda diskurs matn sathidan ham yuqori turuvchi sath sifatida baholanmoqda va matn diskursning muayyan qismi ekanligi haqida fikrlar mavjud. Matn hodisasiga tegishli bo'lgan informativlik kategoriyasi diskurs uchun ham xosdir. Aslida informativlik butun til va nutqqa tegishli kategoriya sifatida baholashimiz mumkin. Chunki nutqiy muloqotdan asosiy, bosh maqsad o'zaro axborot almashish ekanligi ma'lum.

Lingvistikaga oid ilmiy adabiyotlarda informativlik termini izohiga 2 xil yondashuv mavjud.

I. Informativlik turli xil ko'rinishlardagi axborotda aks ettirilgan, muayyan maqsadda idrok etish, saqlash va qayta ishlash obyektini sanaluvchi matnning/diskursning predmet-fikriy mazmuni sifatida qaraladi.

II. Ikkinchi yondashuvda informativlik matnning yoki diskursning adresat uchun g'oyaviy-mazmuniy yangiligi darajasi sifatida tushuniladi. Bu ma'noda informativlik adresatning shaxsiy tavsifiga bog'liq va munosabatdagi omil hisoblanadi.

Informativlikning quyidagi turlari adabiyotlarda qayd etilgan:

1. To'liq informativlik.
2. Qo'shaloq informativlik.
3. Integrativ informativlik
4. Komplementar informativlik

Xulosa.

Nutqiy muloqot jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda so'zlovchi va tinglovchi orasida kodlash va dekodlash bosqichlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Bu bosqichlarda informativlik kategoriyasi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu bilim va ma'lumotlar, umumiy bilish fondi, eksplitsit ifoda, implitsit ifoda, intertekstuallik tushunchalari bilan ham bog'liq. Informativlikning yuqorida qayd etilgan turlari diskursning xilma-xil ko'rinishlarida o'ziga usul va vositalar bilan turli darajada ifodalanadi va ahamiyatga ega bo'ladi. Informativlik kategoriyasi ilmiy diskurs uchun, ayniqsa, ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ф. Теория текста. (Доклад на III Всесоюзной тюркологической конференции.) // Советская тюркология, 1981. – №1. – С. 93.
2. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 140 с
3. Йўлдошев М., Исақов З., Ҳайдаров Ш. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 112 б.
4. Карасик В. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Gnozis, 2004. – 389 с.
5. Купина И.А. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва, 1980. – 78 с.
6. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, Бухоро университети, 2000. – 36 б.
7. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 87 б.
8. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: Низомий номли педагогика институти
9. Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта. – С. 25.
10. Москальская О.И. Грамматика текста. – Москва, 1981. – 183 с.
11. Муха И. П. Категория информативности кинодиалога: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Иркутск, 2011. – 22 с.
12. Нечепоренко Н. М. Категория информативности в малоформатном научном тексте энциклопедического характера: когнитивный и дискурсивный аспекты (на материале английских и русских лингвистических энциклопедий). Тамбов, 2011.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Kodirova Mukaddas Tog'ayevna
Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: qmuqaddas@mail.ru

UDK: 811.111.81.2

O'ZBEK TILI BIZNES DISKURSIDA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda diskurs tadqiqining muammolariga bag'ishlangan. Shuningdek, unda o'zbek tili biznes diskursidagi xushmuomalalikning rolini va namoyon bo'lishini o'rganadi. Biznes munosabatlarida xushmuomalalik strategiyalari qanday qo'llanilishini tahlil qilish orqali tadqiqot madaniy qadriyatlar va kommunikatsiya amaliyotlari o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ochib beradi. Natijalar xushmuomalalikning biznes munosabatlarini boshqarish, ijtimoiy hamohanglikni saqlash va kasbiy muhitda samarali kommunikatsiyani ta'minlash uchun qanday qo'llanilishini mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: xushmuomalalik, biznes diskurs, bilvosita nutq, verbal bo'lmagan xushmuomalalik, madaniy ishoralar.

Кодирова Мукаддас Тогаевна
Доцент Термезского государственного университета, PhD

МЕСТО КАТЕГОРИИ ВЕЖЛИВОСТИ В ДЕЛОВОМ ДИСКУРСЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам исследования дискурса в лингвистике. В нем также исследуется роль и проявление вежливости в деловом дискурсе узбекского языка. Анализируя, как стратегии вежливости используются в деловых отношениях, исследование выявляет глубокую связь между культурными ценностями и практиками общения. Результаты показывают, как вежливость используется для управления деловыми отношениями, поддержания социальной гармонии и обеспечения эффективного общения в профессиональной среде.

Ключевые слова: вежливость, деловой дискурс, косвенная речь, невербальная вежливость, культурные сигналы.

Kodirova Mukaddas Togaevna
Associate Professor of Termez State University, PhD

THE PLACE OF THE CATEGORY OF POLITENESS IN THE BUSINESS DISCOURSE OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: This article is devoted to the problems of discourse research in linguistics. It also studies the role and manifestation of politeness in Uzbek language business discourse. By analyzing how politeness strategies are used in business relationships, the study reveals a deep connection between cultural values and communication practices. The results highlight how politeness can be used to manage business relationships, maintain social harmony, and ensure effective communication in professional settings.

Keywords: politeness, business discourse, indirect speech, non-verbal politeness, cultural cues.

Kirish.

Biznes kommunikatsiyasi muvaffaqiyatli muzokaralar va hamkorliklar uchun muhim ahamiyat kasb etadi [8], ayniqsa, madaniy xilma-xillik mavjud bo'lgan muhitlarda. O'zbek tili biznes diskursi til sohiblarining o'ziga xos madaniy va lingvistik fonida shakllangan bo'lib, u yerda an'anaviy va zamonaviy ta'sirlar kesishadi. Xushmuomalalik samarali kommunikatsiyaning asosiy qismidir, ayniqsa, biznes kontekstlarda munosabatlarni saqlash va mojarolardan qochish muhim bo'lganda. O'zbek biznes diskursida xushmuomalalik madaniy me'yorlar va amaliyotlarga chuqur singgan bo'lib, biznes

professionallarining bir-biri bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini shakllantiradi. Ushbu tadqiqot o'zbek biznes diskursida qo'llaniladigan aniq xushmuomalalik strategiyalarini o'rganishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik kategoriyasi haqida yagona qarash mavjud emas. G.R. Vlasyan "Lingvistik xushmuomalalik ta'rifi turlicha yondashuvlar" [7] deb nomlangan maqolasida xushmuomalalikni quyidagi yondashuvlari va tushunchalarini ajratib ko'rsatadi: xushmuomalalik nutq maksimalari va qoidalari sifatida (G.P.Gris, R.Lakoff, J.

Lich [4]) [6]; xushmuomalalik axloqiy kategoriya sifatida (L. Kastler, N.I.Formanovskaya, S.A.Risinzon); xushmuomalalik inson statusini baholovchi sifatida (V.E.Goldin, V.I.Karasik) va xushmuomalalik yuzda ifoda saqlovchi sifatida (E.Goffman, P.Braun, S.Levinson, R.Scollon, S.Scollon). G.R.Vlasyan esa, xushmuomalalik kategoriyasini etnikmadaniy o'ziga xos birlik deb ataydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbek tili biznes diskursida xushmuomalalik kategoriyasining o'rniga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

O'zbek madaniyati hurmat, kamtarlik va ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga katta e'tibor beradi, bu qadriyatlar tilda o'z aksini topadi. O'zbek tilida xushmuomalalik an'anaviy qadriyatlar, masalan, katta yoshdagilarga hurmat, kamtarlik va jamoatchilikka xizmat qilish kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Bu madaniy me'yorlar xushmuomalalikning kundalik va biznes aloqalarida qanday ifodalanganligini belgilaydi. O'zbek tilida biznes diskursida xushmuomalalikni ifodalash uchun quyidagilardan foydalaniladi:


1. *Hurmat ko'rsatish va unvonlardan foydalanish*: Biznes professionallari bir-biriga unvonlar va hurmat ko'rsatish so'zlari bilan murojaat qilishadi, bu ijtimoiy mavqe va yoshga hurmatni aks ettiradi. Bu amaliyot ayniqsa iyerarxik biznes tuzilmalarida muhimdir. Masalan, "Siz" va "Janob/Xonim" murojaat shakllaridan: "Siz bilan kelishuvni muhokama qilish uchun qo'ng'iroq qilmoqchimiz, Janob Karimov". Bu misolda "Siz" formal muomala, hamkorni hurmat bilan chaqirishga xizmat qiladi. "Janob" unvoni ham shu maqsadda qo'llaniladi; "Gulnora opa, biz sizning fikringizni bilib olmoqchimiz". "Opa" qaindoshlik terminini qo'shish suhbatlashuvchini iliq va hurmatli tarzda chaqirishga xizmat qiladi. Bu so'z hamkorga o'zini qulay his qilishiga yordam beradi.

2. *Bilvosita nutq*: Bilvosita til so'rovlarni yumshatish, fikr-mulohazalar berish yoki norozilikni bildirish uchun qo'llaniladigan odatiy strategiya hisoblanadi [2]. Bu bilvositalik ko'pincha yumshatuvchi so'zlar, passiv qurilmalar va evfemizmlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Masalan, so'rovlarni yumshatishda: "Agar mumkin bo'lsa, ertaga biz bilan uchrashishni rejalashtirsangiz yaxshi bo'lardi". Bu gapda "agar mumkin bo'lsa" iborasi so'rovni to'g'ridan-to'g'ri berish o'rniga yumshoq va hurmatli shaklda ifodalashga xizmat qiladi; "Taqdimot keyingi seshanba kuni amalga oshiriladi." Passiv konstruktsiya (amalga oshiriladi) gapiruvchini to'g'ridan-to'g'ri mas'uliyatdan ozod qiladi va shu bilan birga, so'rovni yumshoq tarzda ifodalashga yordam beradi.

3. *Verbal bo'lmagan xushmuomalalik*: O'zbek tili biznes diskursida verbal bo'lmagan xushmuomalalik ko'pincha

so'zsiz (ishoralar, ko'z aloqasi va b.) muloqotning ahamiyatli qismi hisoblanadi [3]. Xushmuomalalikning bu turi turlicha amalga oshirilishi mumkin, masalan, tanishish va qo'l berish: "Ish uchrashuviga kelgan hamkorga jilmayib qo'l cho'zib salom berdi, so'ngra o'zini tanishtirdi". Bu harakatlar iliq va ochiq munosabatni namoyon etadi va muloqotning o'zaro hurmatga asoslanganligini ko'rsatadi.

4. *Madaniy ishoralar*: Madaniy o'ziga xos ishoralar, masalan, maqollar va frazeologik ifodalardan foydalanish biznes nutqida xushmuomalalikning yana bir ko'rinishidir. Ushbu ishoralar ko'pincha hurmat va hamohanglik qadriyatlariga muvofiq keladigan yashirin ma'nolarni ifodalaydi [5]. Mas., "Bu masalada hamma narsani batafsil tushuntirishim mumkin, lekin bir so'z bilan yuz so'z aytilsin, biz birgalikda ishlay olamiz". Bu maqol (bir so'z bilan yuz so'z aytilsin) muloqotda qisqa va aniqlikni ta'kidlaydi. Bu maqolning ishlatilishi suhbatdoshga gapirilgan gapning mazmunini tushunishni osonlashtiradi va o'zaro ishonchni kuchaytiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida biznes diskursida maqollar va iboralarni qo'llash o'zaro hurmatni ko'rsatish, o'z fikrlarini aniqroq va samaraliroq yetkazish, shuningdek, suhbatdosh bilan ishonchli va samimiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tili biznes diskursida xushmuomalalik bilvosita, rasmiylik va hurmat ko'rsatish usullari bilan xarakterlanadi. Tahlil uchun 50 ga yaqin biznes muloqotlar kuzatildi va quyidagi natijalarga erishildi:



1-rasm. O'zbek tilida biznes diskursida xushmuomalalikni ifodalash

O'zbek tilidagi materiallarni o'rganish natijasida olib borilgan tahlil, ushbu xushmuomalalik elementlarining qanday amalga oshirilayotganini va bu elementlarning biznes aloqalaridagi o'rni aniqlandi:

1. *Hurmat ko'rsatish*: O'zbek biznes muloqotida hurmat ko'rsatish ancha oldin-sezilgan va qadrlangan qadriyat sifatida nazarda tutiladi. Odatda, biznes xodimlari bir-biriga unvonlar orqali murojaat qilishadi, bu esa ijtimoiy mavqe va yoshga bo'lgan hurmatni aks ettiradi. Mas., "Janob", "Xonim", "Doktor" kabi unvonlar muntazam foydalaniladi va bu muloqotda rasmiylikni hamda hamkorlar o'rtasida hurmatni saqlaydi.

2. *Bilvosita nutq*: Ushbu strategiya so'rovlar, fikr-mulohazalar va rad etish jarayonlarida xushmuomalalikni saqlashga yordam beradi. Mas., biron-bir masala haqida samimiy muhokama qilishda, iboralar ("Agar imkoniyat bo'lsa") bilan so'rovni yumshoq ifodalash, rad etishlarni diplomatik tarzda taqdim etilish, muloqotni yanada yumshoq va hurmatga asoslangan holatga olib keladi.

3. *Verbal bo'lmagan kommunikatsiya*: Bevosita so'zlar bilan bir qatorda, so'zsiz muloqot ham biznes muomalalarida muhim rol o'ynaydi. Ko'z aloqasi, jilmayish, qo'l berish kabi noverbal harakatlar, bir-biriga yaxshilik va samimiylik ko'rsatmasi sifatida qabul qilinadi. Bu, muloqotda ishtirok etayotgan taraflarning o'rtasida iliq muhitni yaratadi.

4. *Rasmiylik va samimiylik balansini saqlash*: O'zbek tilida biznes diskursida xushmuomalalikni ifodalashda, rasmiylik va samimiylik o'rtasida muvozanatni saqlash zarur. Boshqalar bilan bu muvozanatni topish, muvaffaqiyatli biznes aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, 50dan ortiq biznes muloqotlarni o'rganish natijasida xushmuomalalikning ifodalanish usullari va uning samara keltirish qobiliyati oydinlashgan. Bu noan'anaviy strategiyalar va tajriba, o'zbek biznes muhitiga xos bo'lgan qadriyatlar va an'analar bilan

uyg'unlashgan holda, muvaffaqiyatli muloqotlarni tashkil etishda yordam beradi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot o'zbek tili biznes diskursida xushmuomalalikni atroflicha tahlil qiladi, kommunikatsiya amaliyotlarini shakllantirishda madaniy qadriyatlarining rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot o'zbek tilida samarali biznes kommunikatsiya uchun mahalliy xushmuomalalik strategiyalarini tushunish va ularga moslashishning ahamiyatini uqtiradi. Tahlilga tortilgan materiallar madaniy kontekstning biznes kommunikatsiyasida xushmuomalalikni tushunishdagi ahamiyatini yorqinayotganini ko'rsatadi. O'zbek tili biznes diskursida xushmuomalalik faqat ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish emas, balki murakkab ijtimoiy iyerarxiyalar va munosabatlarni strategik boshqarish haqida hamdir. Bilvosita til va hurmat ko'rsatish usullaridan foydalanish hurmat, kamtarlik va ijtimoiy hamohanglikni saqlashga qaratilgan kengroq madaniy urg'ularni aks ettiradi. Xalqaro biznes amaliyotchilari uchun ushbu xushmuomalalik strategiyalarini tushunish o'zbek tilidagi samarali kommunikatsiyalar uchun ham muhimdir. Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, ushbu strategiyalar mojarolar xavfini kamaytirish va o'zaro hurmatni mustahkamlash orqali biznes o'zaro ta'sirlar samaradorligiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bargiela-Chiappini F., Nickerson C., Planken B. Business Discourse / F. Bargiela-Chiappini, C. Nickerson, B. Planken. – Houndmills, Basingstoke, Hampshire: Palgrave Macmillan, 2010. – 282 p.
2. Brown P. & Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – UK: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
3. Hofstede G. Culture's Consequences: International Differences in Work-Related Values Cross Cultural Research and Methodology (Tom 5). – UK: London, 1984. – 327 p. ISSN 0271-9177
4. Leech G.N. Principles of pragmatics [Text] / G.N. Leech. - London: Longman, 1983. – 250 p.
5. Matsumoto Y. Reexamination of the Universality of Face: Politeness Phenomena in Japanese /Journal of Pragmatics, 12(4), 1988. – P. 403-426.
6. Баландина Н.А. Дискурс переговоров в англоязычной деловой коммуникации [Текст]: дис. ... канд. филол. наук / Н.А. Баландина. – Волгоград, 2004. – 193 с.
7. Власян, Г. Р. Различные подходы к определению лингвистической вежливости / Г. Р. Власян // Вестник Нижневартковского гос. ун-та. – 2010. – № 3. – С. 29-39.
8. Стодолинская Ю.В. Бизнес дискурс как самостоятельный тип дискурса / Ю.В. Стодолинская // Перевод и сопоставительная лингвистика. – Екатеринбург: Уральский гуманитарный институт, 2013. – Вып. 9. – С. 82-86.
9. Шабан Абдулжаббар Кадим Махди. Средства вербализации вежливости в деловом дискурсе: универсальное и культурно-специфическое (на материале английского, арабского и русского языков) // <https://www.dissertat.com/content/sredstva-verbalizatsii-vezhливости-v-delovom-diskurse-universalnoe-i-kulturno-spetsifichesko>.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nurullayev Xasan To'xtayevich
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
Xorijiy tillar kafedrası dotsenti
EMAIL: khasan.nurullaev@gmail.com

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VOSITASIDA INSONNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI VA O'ZARO MUNOSABATLARINING IFODA ETILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar antroposentrik aspektida tahlil etilgan, har ikki tildagi insonning jamiyatda tutgan o'rni va o'zaro munosabatlarini ifoda etuvchi frazeologizmlar aniqlangan va frazeosemantik guruhlariga tasniflab tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, antroposentrik, lingvomadaniy, madaniyat, frazeosemantik guruh, konseptual tahlil, chog'ishtirma tahlil.

Nurullayev Khasan Tukhtayevich
Karshi engineering-economics institute
Associate Professor of the Department of Foreign languages

EXPRESSION OF HUMAN ROLE IN SOCIETY AND RELATIONSHIPS THROUGH PHRASEOLOGIES IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Abstract: In this article, the phraseological units of the German and Uzbek languages are analyzed from an anthropocentric point of view, the phraseologisms in both languages that express the place of a person in society and their mutual relations are identified and classified into phraseosemantic groups.

Keywords: phraseologism, anthropocentric, linguacultural, culture, phraseosemantic group, conceptual analysis, cross-sectional analysis.

Нуруллаев Хасан Тухтаевич
Каршинский инженерно-экономический институт
Доцент кафедры иностранных языков

ВЫРАЖЕНИЕ РОЛИ ЧЕЛОВЕКА В ОБЩЕСТВЕ И ОТНОШЕНИЯХ ЧЕРЕЗ ФРАЗЕОЛОГИИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье фразеологизмы немецкого и узбекского языков анализируются с антропоцентрической точки зрения, выделяются фразеологизмы обоих языков, выражающие место человека в обществе и его взаимоотношения, и классифицируются на фразеосемантические группы.

Ключевые слова: фразеологизм, антропоцентрический, лингвокультурологический, культура, фразеосемантическая группа, концептуальный анализ, сопоставительный анализ.

Kirish.

Frazeologizmlar, odatda, emotsional va milliy-madaniy o'ziga xosliklarni, shuningdek, kishilarning turli harakatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi va o'zida verbal muloqotning an'anaviy simvolikasi hamda keng tarqalgan milliy urf-odatlar, marosimlarni mujassam etadi.

Dunyo tilshunosligida frazeologizmlarni chog'ishtirma aspektida o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar salmog'i ortib bormoqda. Ularda frazeologizmlarning semantik-struktur, milliy-madaniy,

antroposentrik hamda konseptual tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, frazeologik birliklar har bir xalqning an'analari, turmush tarzi, e'tiqodi, tarixi bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarni ekspressiv va obrazli-hissiy shaklda aks ettiradi.

Adabiyotlar tahlili.

Qardosh va qardosh bo'lmagan tillarda frazeologizmlar A.Isayev, Sh.R.Usmonova, Sh.O.Nazirova, H.Z.Alimova, U.M.Rashidova, X.X.Xomidov, nemis va o'zbek tillari doirasida frazeologizmlar M.E.Umarxo'jayev,

Sh.S.Imyaminova, A.A.Yaxshiyev, jumladan, frazeologizmlar Z.Y.Sadiqov, G.M.Umarjonova kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tilshunoslik sohasida bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarda til va inson o'rtasidagi munosabat faol o'rganilmoqda. Til va madaniyat, til va etnografik guruhlarning o'zaro munosabatlari lingvistik hamda frazeologik tadqiqotlarning obyekt sifatida e'tirof etilmoqda. Bir qarashda, OLMda inson tasviri umumiylik kasb etadigandek ko'rinsa-da, FBlarda milliy va madaniy o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Zamonaviy tilshunoslik lisoniy hodisalarni inson bilan bog'lab o'rganishni nazarda tutar ekan, lingvomadaniy hamda antropotsentrik tadqiqotlar ko'lamini kengaytmoqda. Mazkur maqolada chog'ishtirma, kognitiv-semantik, komponent, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Insonning jamiyatda tutgan o'rni hamda o'zaro munosabatlarini ifoda etuvchi frazeologik birliklar miqdori nemis va o'zbek tillarida salmoqlikdir. Tahlil etilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, kishilarning jamiyatda tutgan o'rni, uning qaysi ijtimoiy sinfga mansubligi, obro'ning borligi yoki yo'qligi, nufuzi orqali hal qila oladigan masalalar ko'lamining kengligi orqali tavsiflanadi. O'zbek tilida kishilarning alohida tabaqalarga mansubligini ifodalovchi FBlar mavjud bo'lmasa-da, g'ururi toptalgan, ezilgan va poymol bo'lganligini ifodalaydigan FBlar uchraydi (*oyoq osti bo'lmoq, oyoq osti qilmoq*). Nemis tilidagi *das Recht mit Füßen treten* "huquqini poymol qilmoq", *jmdn. um einen Kopfkürzer (kleiner) machen* "yerga urmoq", *jmdn. etw. mit Füßen treten* "oyoq osti qilmoq" FBlari ham shaxsni obro'sizlantirish mazmuniga ega.

O'zbek tilida shaxs imkoniyatlarining cheklanganligini ifodalovchi FBlar, asosan qo'lning kaltaligi yoki qisqaligi obrazi orqali aks etish hollari ko'zga tashlanadi: qo'li kalta bo'ldi (*Biroq odam oz bo'lgandan keyin, qo'limiz kalta bo'lar ekan. Birmuncha g'o'zalar qum ostida nobud bo'lsa, ilojimiz qancha? Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli. [7; 300-b.]*), qo'li qisqa (*O'z holimga yarasha to'yona bilan borib, xursandchilingni qutlashga qodir emasmidim? Shukur, kolxozchiman, qo'lim qisqa emas. Oybek, Oltin vodiidan shabadalar. [7;300-b.]*), qo'li qisqaligi (*Shokir ota yana o'zining "qo'li qisqaligi" dan, ro'zg'or tangligidan g'oyat kuyinib so'zladi. Oybek, Qutlug' qon. [7; 300-b.]*), qo'lini kalta qilmoq (*O'shanday beozor kunlarning tagiga suv ketdi. Inqilob eshonning qo'lini kalta qilib qo'ydi. Said Ahmad, Hukm [7; 300-b.]*).

Nemis tilidagi *einen langen Arm haben* frazeologik birligi o'zbek tilidagi *qo'li uzun* iborasi mazmuniga to'g'ri keladi. Har ikki tildagi FBlar kishining jamiyatda katta kuch va ta'sirga, imkoniyatlarga ega ekanligini tavsiflaydi. Shu bilan bir qatorda, o'zbek tilida salbiy mazmun kasb etadigan, boshqalarga qaraganda badavlat bo'lgan

zo'rvon kishilarni ifodalovchi *bo'yni yo'g'on* FBlar ham uchraydi. Masalan: [*O'g'lingizning*] *boshiga bir musht urib, bir burda qattiq non beradigan bir bo'yni yo'g'onga tegmasam, men ham yurgan ekanman!* A. Qahhor, *Qo'shchinor* [2; 403-b.]. Tahlil davomida kuzatildiki, nemis tilida jamiyatda biror bir kishining nufuzi baland ekanligi uning istagi bir marta barmoq chertish orqali amalga oshishini ifodalovchi *nur mit dem Finger schnippen/ schnipsen müssen* "bir ishorasi bilan amalga oshmoq" hamda *nur mit dem kleinen Finger winkeln müssen* (s.s.: jimjilog'ini qimirlatishi yetarli bo'lmoq) "aytgani aytgan, degani degan bo'lmoq" FBlari, *tirsak* leksemasi ishtirok etgan va ta'sir doirasi kuchli bo'lgan shaxsni bildiruvchi *seine Ellbogen [ge]brauchen* "aytgani aytgan, degani degan bo'lmoq" iborasi ham mavjud. O'zbek tilidagi *bosh tana a'zosi rahbar, boshliq* kabi ma'noni ham ifodalaydi. Shu bois, o'zbek tilida ushbu leksema vositasida shakllangan kishining jamiyatda tutgan o'rni tavsif etuvchi FBlar mavjud (*bosh bo'lmoq*).

Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham insonning nasl-nasabidan kelib chiqib uning jamiyatdagi mavqeini ifodalaydigan FBlar uchradi. Nemis tilida bu kabi frazeologizmlar *tomir* va *og'iz* somatik leksik birliklari vositasida yuzaga kelgan. *Blaues Blut haben* (s.s.: moviy qoni bor bo'lmoq), *blaues Blut in den Adern haben* (s.s.: tomirida moviy qoni bor bo'lmoq), *in jmds. Adern fließt blaues Blut* (s.s.: biron kishining tomirlarida moviy qon oqmoq) FBlarida kishining jamiyatda aslzoda nasabga hamda yuqori nufuzga ega ekanligi uning tomirlarida moviy rangdagi qon oqishi orqali tasvirlangan. Etimologik jihatdan mazkur frazeologizmlar nemis tiliga ispan tilidan o'zlashgan bo'lib, aslida unda ifoda etilgan moviy rang qonga emas, balki qon tomiriga qiyosdir [1]. Aslzodalarning oddiy kishilar singari mehnat qilmasligi va o'ta nozik ekanligi bois ularning terisi ostida qon tomirlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, *der Mund* (og'iz) leksemasi ishtirok etgan *mit einem goldenen/silbernen Löffel im Mund geboren sein* (s.s.: og'zida oltin (kumush) qoshiq bilan tug'ilmoq) iborasi jamiyatdagi boy kishini yoki boy oilaga mansublikni ifodalaydi. Mazkur ma'no frazeologizmda shaxsning kumush yoki tilla qoshiqda taomlanishi obrazi vositasida mujassamlashgan. O'zbek tilida *tomir otmoq* FBlar kishining jamiyatda o'z mavqeini mustahkamlab olganligini tavsiflaydi.

Kishilarning jamiyatdagi mavqeini uning mashhurlik darajasi orqali ham belgilanishi mumkin. *Og'izga tushmoq* va *og'izdan og'izga ko'chmoq* FBlari odamlar orasida tez-tez tilga olinishni, biror bir ma'lumotning jamiyatda tarqalishini bildiradi. Nemis tilida mavjud *in aller Munde sein* "ovoza bo'lmoq" hamda *in aller Leute Mund/ Munde sein* "og'izdan og'izga ko'chmoq" FBlari mashhur bo'lib ketish ma'nosini bildiradi.

Nemis tilida **boylik**, to'kin-sochin hayot tarzini *auf großem Fuß leben* "pichog'i moy ustida bo'lmoq, badavlat yashamoq" frazeologizmi ifodalaydi. Nemis tilidagi mazkur FBning kelib chiqishi haqida qarama-qarshi fikrlar

mavjud. Uning etimologiyasi *Fuß* (oyoq) so'zining 17-asrda yuzaga kelgan "*Art und Weise des Seins*" ya'ni "hayot tarzi" mazmuni bilan bog'liqdir. FBdagi "*der große Fuß*" (s.s.: katta oyoq) jumlasini biron bir kishi tomonidan amalga oshirilgan katta ishni bildiradi. FBning kelib chiqishiga 14-15-asrlarda yashagan zodagonlar kiygan uchli katta oyoq kiyimlarining shakllari asos bo'lgan, degan ba'zi qarashlar esa asossizdir [96; 1006]. Ma'lumki, o'zbek tilida "dunyo" so'zi boylik, mol-davlat mazmunida ham qo'llaniladi. Shu sababli, o'zbek tilida badavlat kishilarga nisbatan qo'log'igacha dunyoga ko'milmoq frazeologizmi ishlatiladi. Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham **kambag'allikni** ifodalab keluvchi FBlar mavjud. Nemis tilidagi *von der Hand in den Mund leben* "zo'rg'a kun kechirmoq", *von seiner Hände Arbeit leben* "topgani tomog'idan ortmaslik" kabi FBlar nochor kishilarni tavsiflashga, o'zbek tilida *topgani tomog'idan ortmaydi, qo'l uchida yashamoq* FBlari qashshoq kishi obrazini gavdalantiradi.

Nemis va o'zbek tillarida **shaxslararo munosabatlarni** ifoda etuvchi FBlar soni ko'p. Nemis tilida shaxslarning o'zaro yaxshi munosabatlarini ifodalovchi FBlarda *Fuß* (oyoq) somasi faol ishtirok etganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin: *auf gutem Fuß mit jmdm./ etw. stehen* "biron bir kishi bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq", *mit jmdm. auf freundschaftlichem/ gespanntem/ vertrautem Fuß stehen* "biron bir kishi bilan do'stona munosabatda bo'lmoq, yaxshi chiqishmoq, apoq-chapoq bo'lmoq". O'zbek tilida mavjud bo'lgan *og'iz-burun o'pishmoq* frazeologik birligi ham juda inoq kishilar obrazini tasvirlashda, salbiy ma'noga ega. FB ma'lum toifadagi kishilarning o'zaro til topishib olganligi ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *Boylar, ruhoniylar, katta yer egalari; amaldorlarning hammasi bir-biri bilan og'iz-burun o'pishgan. M.O'runxo'jayev, Unutilmas kunlar* [4; 187-b.].

Nemis tilidagi *sich in den Haaren liegen* "yuz ko'rmas bo'lib ketmoq, yulduzi chap tushmoq" frazeologizmi urishqoq kishilar obrazi asosida shakllangan va bir-biri bilan kelisha olmaydigan, o'zaro munosabatlari yomon kishilar obrazini aks ettiradi. O'zbek tilida *yuz ko'rmas bo'lib ketmoq* iborasi biron bir kishi bilan aloqani uzish yoki mavjud munosabatlarga butunlay barham berish ma'nosida, faqat inkor shaklda qo'llaniladigan *yuzini ko'rmoq* frazeologizmi biron shaxs bilan hech qanday munosabatlarda bo'lmaslik ma'nosida qo'llaniladi. Shu bilan bir qatorda, "birovga choh qazisang, unga o'zing tushasan" ma'nosiga ega FBlar ham uchradiki, bu o'zbek mentalitetidagi qo'shnichilik munosabatlarida yaqqol aks etadi (*kulma qo'shningga, qaytib kelar boshingga*).

Lingvokulturografik manbalarni o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, nemis tilida ham, o'zbek tilida ham biron kishini qo'llab quvvatlash, unga homiylik qilish, **yordam qilish** ma'nosiga ega FBlar ko'p. Nemis tilida yuqoridagi ma'noni ifodalovchi FBlar asosan **Hand, Arm** (qo'l) (*jmdm. [mit etwas] unter die Arme greifen; [selbst] mit Hand anlegen; jmdm. [bei etw.] an die Hand/ zur Hand gehen;*

jmdm. in allem an die Hand gehen; jmdm. zur Hand gehen; seine/ die [schützende oder helfende] Hand über jmdn. halten), **Bein** (oyoq) (*etw. (wieder) auf die Beine bringen; jmdm. auf die Beine helfen/ jmdn. (wieder) auf die Beine bringen; jmdn. auf die Beine bringen*), **Ohr** (quloq) (*ein offenes (williges, geneigtes) Ohr finden*) somatik leksik birliklari vositasida shakllanganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, nemis tilidagi *jmdm. den Rücken kehren/ wenden* (zudrehen), *seine/ die [schützende oder helfende] Hand von jmdm. abziehen*, *jmdm./ einer Sache die kalte Schulter zeigen*, *jmdn. am steifen ausgestreckten Arm verhungern lassen*, *jmdm. das Messer in die Hand geben* FBlari o'zgalarga yordam qo'lini cho'zmaslik va qo'llamaslik mazmuniga ega.

O'zbek tilida yordam berish ma'nosi asosan *qo'l'tiq, oyoq va qo'l* tana a'zolari nomlari ishtirok etgan FBlar orqali ifodalanadi. Kishining ishonchini qozonib, uning pinjiga kirish kabi salbiy mazmuniga ega bo'lsa-da, *qo'l'tig'iga kirmoq* frazeologizmi o'zgalarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berish mazmuniga ham ega. Misol keltiramiz: *Kasal bo'lib qolsam nima bo'ladi? ... Qo'l'tig'imga kim kiradi? Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa. A.Qahhor, Qo'shchinor* [6; 406-b.]. Madad berish, qo'llashni ifoda etuvchi *qo'l'tig'idan ko'tarmoq* (*suyamoq*) frazeologizmi ham shu jumladandir. Misol: *Tag'in men, Boboqulning o'g'li, qo'l'tig'idan suyaydigan azamat bo'lib qolibdi, deb quvonib yuribman-a! S. Anorboyev, Oqsoy* [6; 406-b.]. Yiqilgan yeridan turg'izib qo'yimoq yoki yo'lga solib yubormoq ma'nosini bildiruvchi *oyoqqa turg'izmoq va qo'l-qanot bo'lmoq* FBlari mazkur semantik guruh tarkibida e'tirof etiladi.

Nemis tilidagi *jmdn. auf den Händen tragen* "kaftida ko'tarmoq" frazeologizmi biror kishiga bo'lgan **hurmatni** ifoda etadi. FBning kelib chiqishi xristian dinining muqaddas kitobiga borib taqaladi. Kitobda shunday deyilgan: "*Der Herr hat seinen Engeln befohlen, dass sie dich behüten auf allen deinen Wegen, dass sie dich auf den Händen tragen, damit dein Fuß an keinen Stein stößt* [1]. – Yaratgan farishtalariga seni barcha yo'llarda himoya qilishlarini, oyog'ing toshga qoqilmasligi uchun seni qo'llarida ko'tarib yurishni buyurdi" (X.N.). Shu sababli mazkur ibora 12-asrda nemis romantik she'riyatiga kirib keldi va bugungi kunda ham qo'llaniladi. Shu bilan birga, nemis mentalitetida chuqur ehtiromni tavsif etadigan iboralarda *Fuß* (oyoq) somatik leksik birligi faol ishtirok etadi (*jmdm. etw. zu Füßen legen* "oyoqlari ostiga poyonoz qilmoq", *jemandem sein Herz zu Füßen legen* "chuqur ehtirom ko'rsatmoq", *jemandem zu Füßen liegen* "tavoze ko'rsatmoq, oyog'iga bosh urmoq").

Izzat-hurmat qilish hamda kishining hurmatini bajo keltirish o'zbek tilida biron bir kishini boshida yoki kaftida ko'tarish obrazi orqali aks ettiriladi: *boshiga ko'tarmoq*. Misol: *Sharaflarga burkab ota nomini, Boshiga ko'tardi onajonini. B. Boyqobilov, Sadoqat. Kelin bo'lsa "dada", "oyi", deb boshiga ko'taradi. Topganidan ozmi-ko'pmi dadamga deb berib yuboradi. X.Ahmar, Kim haq?* [2; 336-b.]

Kaftda ko'tarmoq frazeologik birligi ham o'zgalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish mazmuniga ega. Misol keltiramiz: *Askar bolalarni kaftimizda ko'tarsak arziydi. Oybek, Oltin vodiidan shabadalar* [3; 374-b.]. O'zbek tilida ko'z tana a'zosi tayanch so'z sifatida qatnashgan ko'zga ilmoq FB "birovni nazarga olmoq, hurmat qilmoq", ko'zga surtmoq iborasi esa "ortiq darajada qadrlamoq, e'zozlamoq" ma'nosini anglatadi. Yuksak hurmat va minnatdorlik o'zbek mentalitetida egilib, boshni quyi solish, ta'zim qilish orqali ham ifodalanadi. Shu bois, oyog'iga bosh qo'ymoq frazeologik birligini ham ehtirom mazmunida talqin qilsak, xato bo'lmaydi. Misol: *Agar ko'chada bo'lmasa edi, Yo'lchi shu onda bu go'zal, toza yurakli, jasur, vafodor qizning oyoqlariga bosh qo'yishga tayyor edi* (Oybek, *Qutlug' qon*) [2; 339-b.]. O'zbek tilida kishilarga nisbatan hurmatsizlikni ifoda etuvchi FBlar ham uchradi.

Yuziga oyoq qo'ymoq (tiramoq) frazeologizmi kimsaning xohishiga qarshi uning hurmati bilan hisoblashmay ish qilishni anglatadi.

Xulosa.

Shaxslararo munosabatlar, kishining jamiyatda tutgan o'rni va oilaviy munosabatlarini ifoda etadigan frazeologizmlar tahlil qilindi va bu boradagi universal va farqli jihatlar o'rganildi. Aniqlangan farqli jihatlarni ikki tilning turli til oilalariga mansubligi bilan izohlash mumkin, zero har bir xalq obrazli frazeologik birliklarini o'ziga tanish bo'lgan hodisalar va hayot sohalari, jumladan, tabiat elementlari, hayvonot va nabotot olami, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning an'anaviy shakllari, eng asosiysi insonning kundalik hayotdagi faoliyatidan oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wörterbuch für Redensarten, Redewendungen, idiomatische Ausdrücke, Sprichwörter, Umgangssprache. Elektron resurs: <https://www.redensarten-index.de>.
2. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.I. O'zR FA Til va adabiyot instituti. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –680 b.
3. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. O'zR FA Til va adabiyot instituti. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –672 b.
4. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. III. O'zR FA Til va adabiyot instituti. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –688 b.
5. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. IV. O'zR FA Til va adabiyot instituti. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. –608 b.
6. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (rahbar) va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.V. O'zR FA Til va adabiyot instituti. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. –592 b.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1978. –407 b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Saydaxmedov Nigora Sulaymonovna,
NamDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
katta o'qituvchisi, (PhD)
Email: saydaxmedovanigoraxon@gmail.com

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MUMTOZ SHOIRLAR IJODINING YORITILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf ijodida mumtoz shoirlarni talmeh san'ati orqali yoritilishi va she'rlarida badiiy san'atning tutgan o'rni masalasida kuzatishlar olib boriladi. Ayniqsa, shoirning she'riy namunalarida mumtoz shoirlarimizga murojaatini yoki ularni o'zining ilgari surib turgan g'oyalariga maslakdosh timsol sifatida keltirganligini ko'rishimiz mumkin. Talmeh san'ati ishtirok etgan parchalar asosida Muhammad Yusufning o'ziga xos an'anaviy she'r yozish mahorati ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekona ohanglar, tarix, an'ana, badiiy san'atlar, talmeh, ijodkor uslubi, tarixiy shaxs nomlari, asar qahramonlari ruhiyati.

Сайдахмедов Нигора Сулеймановна,
Кафедра узбекского языка и литературы НамГУ
старший преподаватель, (PhD)
Электронный адрес: saydaxmedovanigoraxon@gmail.com
Тел: +99894-343-86-68

ОСВЕЩЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ПОЭТОВ-КЛАССИКОВ В ПОЭЗИИ МУХАММЕДА ЮСУФА

Аннотация: в данной статье рассматривается освещение классических поэтов через искусство тальмех в творчестве поэта Мухаммада Юсуфа и роль художественного искусства в его стихах. В частности, в поэтических примерах мы можем видеть его обращение к нашим классическим поэтам или его использование их в качестве сочувственного воплощения идей, которые он выдвигал. На основе отрывков, связанных с искусством тальме, предпринята попытка раскрыть своеобразные навыки написания традиционных стихов Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: Узбекские напевы, история, традиции, изобразительное искусство, тальмех, творческие стиль, имена исторических деятелей, психика героев произведения.

Saidakhmedov Nigora Suleymanovna,
Department of Uzbek language and literature of NamDU
senior teacher, (PhD)
Location: saydaxmedovanigoraxon@gmail.com
Tel: +99894-343-86-68

COVERAGE OF THE WORK OF CLASSICAL POETS IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF

Annotation: this article covers the work of the poet Muhammad Yusuf on the role of classical poets in talmeh art and the role of artistic art in their poems. In particular, in poetic examples, we can see the poet's appeal to our classical poets or his citing them as a symbol of his advanced ideas. Based on excerpts involving Talmeh art, efforts are made to reveal the unique traditional poetry writing skills of Muhammad Yusuf.

Key words: Uzbek melodies, history, traditions, fine arts, talmeh, creative style, names of historical figures, psyche of the heroes of the work.

Kirish.

Atoullloh Husayniyning “Badoyi’u – sanoyi”¹ asarida quyidagicha fikrlarga duch kelamiz: arab she’riyatining ma’nosi va san’atini noziktab bilan anglaguvchilar so’zlash, tushunmoq uchun ikki narsa muhim deb hisoblaydilar: biri ma’oni (tabiiy holda go’zal bo’lgan so’zlar: dilbar, latif) ilmi va ikkinchisi bayon (so’z qo’shib hosil qilingan so’zlar: xuddi paridek, quyosh yanglig’) ilmidur². Muhammad Yusuf hayoti va ijodi kuzatib borar ekanmiz quyidagilarga duch keldik: “akamda shunday bir odat bo’lib, buni Hamdam tog’am to umrining oxirigacha hayratlanib gapirib yurdi. “Onam qo’liga kitob olib, ovoz chiqarib **ilmi qiroat, ilmi notiqlik, bayon** bilan o’qishni boshladi deguncha, Muhammadjon kelib, onamning quchog’iga boshini qo’yib yotar va ko’zini yumib olib, o’qishini tinglar edi. Onam o’qishni to’xtatib, nabirasiga razm solsa, darrov ko’zini ochardi-da “o’qing” der edi. Ahmad Yassaviy, Mashrab, Navoiy, Rumiylarning qancha-qancha g’azal-u dostonlari, she’rlarini eshtib, o’sha yosh bolagina holiga soatlab kitob o’qitib, ko’z yumib tinglab yotgan, yuzlab misralarni yod olgan damlari ko’z oldimga keladi”³. Bilishimizcha bu qobilyat shoirga buvisi va onasidan o’tadi. Mashrab, Nodira g’azallarini, Hoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini **qiroat** va **sharh** bilan aytib bergan vaqtlarida tinglab lol qolar edik⁴ – deydi shoirning singlisi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Muhammad Yusuf hayoti, ijodi va she’rlarini yoritishda “T-sxemasi”, “Taqqoslash”, “Tahlil” metodlaridan unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Uning she’rlariga nazar tashlar ekanmiz, deyarli ko’pchilikida mavzuga monand tarzda tarixiy shaxslarga murojaatini yoki ularni o’zining ilgari surib turgan g’oyalariga maslakdosh timsol sifatida keltirganligini ko’rishimiz mumkin. Ba’zi she’rlarida esa tarixiy obraz bilan bevosita suhbat qurgandek ham bo’ladi. Binobarin, “She’riyat tarix vositasida davr muammolari yechimini

“Ona tilim”	“Nega yig’lamaysan”
Sen bo’lmasang nima bizga silliq she’rlar, Bu dunyoda tili yo’qda dil yo’q derlar. Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar , Yuragimning to’ridagi so’lmas gulim, Ona tilim, kechir meni, ona tilim.	Qirq yil choral go’rdan chiqmaydi Bobur, Chiqsa ham bag’ringa sig’maydi Bobur. Hindu quchog’ida uhlaydi Bobur , Nega yig’lamaysan, ahli Andijon?

“Ona tilim” (116-b), “Nega yig’lamaysan” (117-b).

“Buyuk” musofirlikni Navoiy va Bobur kabi ulug’ ijodkorlarning ko’ksini kuydirib ketgan armon sifatida qabul qiladi:

“Marsiya”	“Marsiya”
Jaloliddin qoni jo’shdi qoningizda, Umid qilib uzilmagan joningizdan.	Alvon-alvon gular yog’ar adirlarga, Qo’l yetmaydi sizlar yotgan abrlarga.

axtarganda, moziy voqealari, o’tmish ma’naviy merosi, milliy an’analarga yoki tarixiy shaxslarning millat hayotida qoldirgan izlariga murojaat etadi va bulardan muhim xulosalar chiqarishga intiladi”⁵. “Alisher Navoiy asarlari bugun har bir xonadon uchun aziz va muqaddas”⁶. Uning timsolini ijodda yaratish va ilohiyona hikmatlarini olam aro targ’ib qilish shoirlarga burchdek. “Alisher Navoiyni anglash va his qilish o’zbek xalqi tarixini, madaniyatini, qalbi ehtiyojlarini, o’zligini anglash va his qilish demakdir. Shunday ekan, Navoiyni, umuman mumtoz adabiyotni bilish har bir o’zbek farzandi uchun ham qarz, ham farz” dir⁷. Bu da’vat qalb da’vatidir. Jumladan, Muhammad Yusuf ham o’tmishni baralla kuylagan shoir. Jumladan, Navoiy va Bobur kabi buyuk shaxslar shoirning har ikki she’ridan birida joy olgan. Buyuklarga ehtirom: tinimsiz izlanishlari, tarixni o’qib chekkan zaxmatlari evaziga, o’z qalbidagi tuyg’ularni ham, xalq dilidagi orzu-hasratlarni ham nozik va chuqur ilg’ay olgan va ularni haroratli, quyma satrlar bilan minglab yuraklarga joylagan. Buni bir so’z bilan xassoslik deb atashimiz mumkin. Shoirlar yodi qalamga olingan satrlarni “T-sxemasi” da ko’rib chiqamiz. T harfining o’ng qanotida Navoiyga atalgan satrlar, chap qanotida esa Boburga atalgan satrlar bilan tanishamiz.

Navoiyga atalgan satrlar	Boburga atalgan satrlar
O’tdi dunyo, ketdi dunyo, Yopildi to’rt darvozasi Qoldi Xayyom, qoldi Sino, Mir Alisher ovozasini.	Ketdi paymon to’lib, Hatto Temurdek bobosi. Mangu o’chmas yod bo’lib, Qoldi Boburbek nomasi.

“Xalq bo’l elim” (92-bet)

Shoir so’z karvoninig har bir satrida Navoiy va Boburga nisbatan beqiyos mehr-muhabbat, el dardiga “kamarbastalik”, zaxmatkash va ulug’ shoirlar qismatidan kuyunchak farzand ehtiromi jo’shqin ehtiros bilan uyg’unlashgan ma’no mujassami:

¹ Атоуллох Хусайний. Бадойи’ул-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981, 34 б.

² Сагторова М. Қизғалдоқлар армоним менинг. 2022, – Н.: Mashrab, 34 б.

³ Сагторова М. Қизғалдоқлар армоним менинг. 2022, – Н.: Mashrab, 34 б.

⁴ Ҷша китоб 13 б.

⁶ To’xliyev B. Alisher Navoiy va yoshlar tarbiyasi. –Т.: Bayoz, 2015, 3-bet.

⁷ Vohidov E. Bahramandlik // Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. – Т.: Yulduzcha, 1989, 7-bet.

Navoiydek zotlar yotar yoningizda , Afg'on qirlarida qolgan bahodirlar.	Olis yurtida yo'ldosh bo'lib Boburlarga , Afg'on qirlarida qolgan bahodirlar.
--	---

Toledoshlari kabi shoirda ham favqulodda iste'dod, jo'shqinlik, otashnafaslik bisyor edi. Unda Boburga xos xislatlar bor edi.

"Fig'on"	"Fig'on"
Osmon to'la yulduz armonlaringmi, Sening bor bisoting- dostonlaringmi? Alpomish atalmish botiring qani, Ulug'beging qani, Boburing qani?	Kulib kun chiqodur, yig'lab kun botar, Navoiy hirotda beega yotar. Yuzlarin yoritar tunda oy balqib... Mashrab Balx dorida turibdi qalqib...

"Fig'on" (121-b)

Shoir she'riyatini kuzatish davomida guvoh bo'lamizki, ikki dilbar shoir Bobur va Muhammad Yusuf she'rlari g'oyasi, va xatto "buyuk" musofirlik taqdiri ham, hayot chiziqklarining tugash nuqtasi ham bir hil bo'lishi kishini hayratlantiradi.

Z.M.Bobur ruboiy	Muhammad Yusuf "Bobur nidosi"
Tole yo'qki joning'a balolig' bo'ldi, Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi. O'z yerni qo'yib Hind sore yuzlandim, Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.	Toqatim toldi oqibat, Taxtni yov oldi oqibat. O'z yurtim qoldi oqibat, Afg'on ketdim daryo kechib. Bog'ishamol sayr endi – Qilg'ay chiqib g'ayr endi. Boburing yo'q, xayr endi, Anjon ketdim daryo kechib!

Muhammad Yusuf "Bobur nidosi" she'rida, uning qalb qo'rini his qilib bevosita Boburning yuqorida ilgari surgan g'oyasini davom ettirgandek bo'ladi. Xususan, "Ajab dunyo" she'rida ham Navoiy va Boburga yuzlanib o'tilgan:

Ikki buyuk shoir, ikki musofir –
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...
Sizni o'ylatmasmi bu jumboq, bu sir –
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...
Uchrashishmagandi ular hayotda ,
Yoturlar yonma – yon ikki lahadda.
Aa nima deysiz endi, hayot – hayot-da –
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur!
("Ajab dunyo" 22-b)

Shoirning she'rlarini o'qir ekanmiz Navoiy va Boburga o'zgacha muhabbat qo'yganligining guvohi bo'lamiz. Shoir nafaqat she'rlari orasida shoirlarni xotirlab o'tgan, balki ularning o'ziga bag'ishlab ham she'rlar yozganini ko'ryapmiz. Navoiy, Bobur taqdiriga achinib,

go'zal baytlariga tasanno aytgan holda o'zbek mumtoz adabiyoti vakillariga shoh baytlar yaratdi.

Navoiyga bag'ishlangan satrlar	Boburga bag'ishlangan satrlar
Oltin beshik avlodining maskanisan, Alisherlar , Ulug'beklar vatanisan.	Hinduga musofir o'sha, Hirotdagi Bobur o'sha * * Ey, Mirzo Boburning nabiralari Belbog'ingiz qani belingizdagi.

Inson hech qachon o'zini o'zi aldayolmaydi. Har qanday holatda ham vijdon ovozi so'zini aytib turadi. Dilga murojaat vijdonga murojaatdir. Boshqacha qilib aytganda shoir qalbidagi tuyg'ular, ongidagi fikrlar she'rlarida aks etadi. To'maris, Manguberdi, Ulug'bek kabi vatan fidoyilarining nomini eslaganda dilini sog'inch o'rtasa, Chingizdek bosqinchi nomini tutganda mungli yig'laydi.

"Giyoh unmay, er yig'laydi,
Chingiz o'tgan joylarda.
Ko'ksimda bir she'r yig'laydi
Chingiz o'tgan joylarda".

Shoirning Chingizxon emas, Chingiz deb atashining o'zida munosabat bor. O'tmishdagi ajdodlar oldida avlodlarning burchdorligi, ularning xotirasini aziz tutish darkorligi tarixiy siymolar misolida uqdiriladi. Ammo, zamona zayli bilan o'shanday qilolmaganlikdan nadomat qiladi:

Bobolaring
Dastingdan dod
Urrib kelsa, netarsan,
Unutding deb
Ustingga ot
Surib kelsa, netarsan?
Mirzo Bobur
Mozoridan
Turib kelsa netarsan?–
Ey dil, sen ayt!⁸

Bu tarix taloto'plarida bir-biriga yarog' ko'targanlar uchun, birlashish o'miga ajralib o'zgalarga qaram bo'lib qolganlikning armonidir. Muhammad Yusuf badiiy san'atlardan nafasot uchungina emas, davr ruhini berishda ham mohirona foydalanadi. Aslida, yuksak va teran ma'nolar ifodasiga xizmat qilgan soddalik hamma murakkabliklardan balandda turadi. Chunki bunday she'rlarni birgina istak bilan yaratib bo'lmaydi. Bunday cho'qqiga Xudo bergan judayam noyob iste'dod orqaligina ko'tarilish mumkin: "Padarkushdan pana qilib

⁸ Muhammad Yusuf. Элимда алёрим қолур. –Тошкент, 2017.

Ulug'beging quchgayman...". Ha, murakkab va ziddiyatli hayot haqida bu darajadagi shaffof soddalik bilan yozish uchun shoir faqat va faqat yuksalishi kerak bo'ladi, tushishi emas! O'zbek xalq ijodi – folklorni, mumtoz she'riyatimizning ulug' vakillari – Bobur, Mashrab ijodini eslasak, aytmogchi bo'lgan muddaomiz yanada oydinlashadi. Tarixiy shaxslarga, ona tiliga, vatanga, millatga mansub har bir narsaga e'tibori va bu ehtirom bilan baland badiiy saviyada ifodalay olgani she'rlarining ta'sirchanligini yanada oshirdi.

Xulosa.

Muhammad Yusufning vatanparvarlik lirikasini xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyotimizda yurt mavzusida bitilgan asarlarning eng yaxshi jihatlarini uyg'unlashtirgan tarzda davom etdirib, yangilagan she'rlar deyish mumkin. Bir so'z bilan aytganda Muhammad Yusuf shoir sifatida vatan haqida, xalq haqida, buyuk ajdodlar qanday yozish kerakligining yuksak namunasini ko'rsatdi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh to'g'yonli, goh iftixorli yo'llarning manzara va ohanglari, sadolari Muhammad Yusuf she'riyatida to'la mujassamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атоуллох Хусайний. Бадойиъул-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981, 34 б.
2. Сагторова М. Қизғалдоқлар армоним менинг. 2022, – Н.: Машраб, 34 б.
3. То'xliyev В. Alisher Navoiy va yoshlar tarbiyasi. – Т.: Bayoz, 2015, 3-bet.
4. Vohidov E. Bahramandlik // Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. – Т.: Yulduzcha, 1989, 7-bet.
5. Мухаммад Юсуф. Элимда алёрим қолур. – Тошкент, 2017.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Rahmonov Ulug'bek Bahodirovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Andijon davlat universiteti

rahmanobulugbek@gmail.com

AQSH LEKSIKOGRAFIYASI TARIXI

Annotatsiya. Maqola AQSH leksikografiyasi tarixiga bag'ishlangan. Unda jahonga mashhur Sencheri, Jonson, Vebster va Vusterning lug'atlari yaratilish tarixi hamda ular o'rtasidagi munosabatlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar. Izohli-ensiklopedik, ma'lumotnoma, lug'at, so'zlar soni, amerikanizmlar.

Рахмонов Улугбек Бахадирович

Доктор философии в филологии, (PhD)

Андижанский государственный университет

ИСТОРИЯ ЛЕКСИКОГРАФИИ США

Аннотация. Статья посвящена истории лексикографии США. Анализируется история создания всемирно известных словарей Сенчери, Джонсона, Вебстера и Вустера и взаимосвязь между ними.

Ключевые слова. Тольковий-энциклопедический, справочник, словарь, подсчет слов, американизмы.

Rakhmonov Ulugbek Bahodirovich

Doctor of Philosophy, (PhD)

Andijan State University

HISTORY OF U.S. LEXICOGRAPHY

Abstract. The article focuses on the history of U.S. lexicography. In this article the world-famous dictionaries of Century, Johnson, Webster and Wooster are drawn into analysis of the history of creation and the relationship between them.

Keywords. Explanatory-encyclopedic, reference, dictionary, number of words, Americanisms.

Kirish.

AQSH leksikografiyasining eng yirik muvaffaqiyatlaridan biri bu "Sencheri" izohli-ensiklopedik lug'ati hisoblanadi (**The Century Dictionary. An Encyclopedic Lexicon of the English Language**. I nashri - 1889-1891 yillar). Bu lug'atning yaratilish tarixi, huddi leksikografik kuchlarning XVIII-XIX asrlar oxirida joy-joyiga qo'yilishi kabi maxsus tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Amerika leksikografiyasining holati "Sencheri" lug'atini yaratish vaqtigacha qanday bo'lgan edi? Yangi "Sencheri" izohli-ensiklopedik lug'atini yaratishning zaruriyatini nima keltirib chiqardi? Bunday zaruriyat xolisona edimi? degan savollar dunyo leksikograf olimlar oldida dolzarblik kasb eta boshladi.

Adabiyotlar tahlili.

Ma'lumki, AQSHda tuzilgan va nashr qilingan ingliz tilining birinchi lug'ati, kichik Samyuel Jonsonning 1798 yilda nashr etilgan "Maktab lug'ati" (**A School Dictionary**) hisoblanadi. Ushbu lug'at asosan o'zining

buyuk o'tmishdoshi va familiyadoshi ingliz Samyuel Jonsonning lug'ati (**A Dictionary of the English Language**) materiallariga asoslangan. Jonsonning ushbu lug'ati katta originallikka da'vogarlik qilmagan. Bu ham o'z maqsadlariga ko'ra ("maktablarga yoshlarga ingliz tilini bilishni osonlashtiradigan lug'at berish"), ham o'zining hajmi bo'yicha (41000 taga yaqin so'z, 198 bet) g'oyat oddiy nashr edi. Oradan ikki yil o'tib, 1800 yilda, Jonson Jon Elliot bilan hamkorlikda yangi lug'atni (**A Selected, Pronouncing and Accented Dictionary**) nashr qildiradi. Bu lug'atda lug'at maqolalarining soni deyarli 7 mingtaga ortdi, ammo yangi nashrdagi lug'atning sifati jiddiy ravishda o'zgarmadi. Biroq Elliot hamda Jonsonning lug'ati shu bilan ahamiyatliki, u aslini olganda, amerikanizmlarning qayd qilinishiga asos soldi. O'sha 1800 yilning o'zidayoq Kaleb Aleysanderning lug'ati (**The Columbian Dictionary of the English Language**) dunyo yuzini ko'rdi. Lug'at originallik bilan faqat shunda ajralib turdiki, u ohanjamali (g'aroyib) va tadqiqotchilarning qayd

qilishlaricha, o'zining titul varag'ida unga hech qanday asoslarsiz, amerikanizmlarning katta soni qo'shilganligi haqida e'lon qildi.

XIX asrning birinchi yarmida Noy Uebster o'zining birinchi lug'atini (**A Compendious Dictionary of the English Language**) yaratdi hamda 1806 yilda chop ettirdi. Lug'at shu bilan qiziqarliki, uning muqaddima qismida keyinchalik Uebster tomonidan o'zining mashhur "Amerika lug'ati" da (**An American Dictionary of the English Language**) rivojlantirilgan bir qator prinsiplar bayon qilinadi. Bu prinsiplar orasida – leksikograflarning til tarixiga e'tiborini oshirish, yozish qoidasini isloh qilish talabi, talaffuzning o'zgaruvchan xarakterini tan olishning zaruriyati, so'zlarning etimologiyasini batafsil tadqiq qilish zaruriyati ko'rib o'tilgan. Biroq 1828 yilga kelib esa Amerika lug'atshunoslik tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan Uebsterning ikki tomli mashhur "Amerika lug'ati" nashr qilindi. Ushbu sanalar Amerika (va jahon) leksikografiyasining tarixidagi ajoyib sanalardan biri hisoblanadi. Uebster 1825 yilda yakuniga yetkazgan lug'ati esa eng ko'zga ko'ringan amerikalik leksikografning deyarli yigirma yillik ishining mevasi bo'ldi. Uebsterning "Amerika lug'ati" Jonsonning lug'ati chiqqani qaramay "Yangi inglizcha lug'at"ning (ya'ni "Katta Oksford lug'ati"ning) birinchi tomi paydo bo'lishi oralig'ida leksikografiyaning rivojiga eng muhim hissani ifoda qildi.[5] "Amerika lug'ati"ning eng misli ko'rilmagan jihatlar orasida quyidagilarni aytish mumkin. Bu ish maqsadining kengligini hamda uning katta hajmini (70 mingta so'z), lug'aviy ta'riflarning haddan tashqari yuqori sifatini ("Uebster buyuk inson, so'z ma'nolarining chinakam izohlovchisi edi"), keng qo'llaniladigan ilmiy-texnik terminlarning qo'shilishini, lug'atda ko'p so'zlarning amerikalashtirilgan orfografiyasini (birinchi marta Uebster tomonidan taklif qilingan bir qator yozilishlar hozirgi kunda ham ingliz tilining) amerikacha variantida qabul qilingan. Undan tashqari, aslini olganda, Uebster amerikalik leksikograflar orasida birinchi bo'lib izohli lug'atda faqat so'z haqidagi haqiqiy filologik ma'lumotni emas, balki denotat haqidagi ensiklopedik ma'lumotlarni ham joylashtirdi. Masalan S.Stegerning qayd qilishicha Uebster, bunday qilar ekan, "o'zining kitobxoniga ancha-muncha xizmat ko'rsatar edi".[6. 51] Amerika leksikografiyasining izohli lug'atda ikki tomonlama filologik-ensiklopedik sharhlashdan tashkil topgan xarakterli an'anasi ko'p jihatdan Uebsterga borib taqaladi. Ijobiy tomonlar bilan bir qatorda lug'atda bir qator muhim kamchiliklar ham ko'rsatib o'tiladi. Uebsterga qarab chiqilayotgan so'zlarning etimologiyalari eng kam nasib bo'ldi hamda talaffuzni ko'rsatish metodi nihoyatda muvaffaqiyatsiz chiqdi. Bir qator lug'aviy ta'riflar provinsializmlarga bag'ishlanadi (Dj.F. Krappning qayd qilishicha, Uebster "Yangi Angliyaning ahamiyati g'oyasiga butun vujudi bilan berilgan ediki, u ko'pincha vaysaqi provinsializmga botib ketar edi, bu shunchaki

Yangi Angliyada taomil bo'lgan so'zlarning va iboralarning lug'atini emas, balki amerika lug'atini tuzishga qasd qilgan kishi uchun kechirib bo'lmaydigan holdir"[4. 361]). 1841 yilda Uebster lug'atning yangi, to'g'rilangan va to'ldirilgan nashrini bosmadan chiqardi. 1847 yilda Uebsterning vafotidan keyingi birinchi nashri Uebster lug'atlarini qayta nashr qilishga barcha xuquqlarni qo'lga kiritgan "Merriam" ("G. and S.Merriam Company") kompaniyasining rahbarligi (himoyasi) ostida chiqdi. 1859 yilda "Merriam" kompaniyasi Uebster lug'atining yangi qayta nashrini, sinonimlarning ro'yxatlarini, yangi so'zlardan tuzilgan ilovani va illyustratsiyali ilovani (illyustratsiyali ilova Amerika leksikografiyasida yangilik bo'ldi) qo'shib, chop ettirdi. Uebsterning mana shu lug'atining aynan o'zi deb ataluvchi nashrning 1864 yilda chop etilishi oldinga tomon qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Lug'at ta'riflari keyingi qayta ishlashga va aniqlashtirishga harakat qilindi, so'zlar talaffuzining berilishi tubdan yaxshilandi. Ammo eng muhimi shu bo'ldiki, so'zlarning etimologik xarakteristikasi asosiy qayta ishlashga tortildi, etimologiyalarni aniqlashtirish va sinchkovlik bilan qilingan tekshirish yuqori ilmiy darajada Berlinlik doktor K. A. F. Mann (K.A.F.Mann) tomonidan amalga oshirildi.

Tahlillar va natijalar.

Amerikada "Sencheri" lug'ati chop etilishidan oldin Uebsterning lug'atlari eng mashhur Amerika lug'atlardan biri sanalarda. Biroq ular yagona lug'atlar emas edilar. Uzoq vaqtgacha ular bilan ko'p jihatdan Uebster lug'atlaridan qolishmaydigan, balki ko'p hollarda ulardan leksikografik ijrosining sifati bo'yicha ustunlik qiladigan Djozef Vusterning lug'atlari bilan raqobat qilardilar. Dj.F. Kreppning ta'kidlashicha, "Uebsterdan keyin Amerika lug'at ishlarining solnomasida eng mashhur nomlardan biri Djozef Emerson Vusterning nomi tilga olinadi"[4. 374]. Vusterning lug'ati (**Comprehensive Pronouncing and Explanatory Dictionary of the English Language**) 1830 yilda nashr etildi. 1847 va 1849 yillarda u qayta nashr qilindi. 1855 yili esa yangi, qayta ko'rib chiqilgan nashri (bir nechta boshqa nom ostida (**A Pronouncing, Explanatory, and Synonymous Dictionary of the English Language**)) chiqdi, 1846 yil Vuster o'zining "Universal lug'at"ini, 1860 yilda "Ingliz tili lug'ati"ni (**A Dictionary of the English Language**) nashr ettirdi. Bu lug'atning oxirgi nashri 1896 yilda chop etildi. Vusterning 1830 yildagi lug'ati umuman olganda "nozik va yaxshi ilmiy darajada bajarilgan ish" [4. 371] darajasini ifodalaydi. Orfografiyada Vuster Britaniya an'anasi va Uebster o'rtasidagi "qiyinchilik tug'dirmaydigan ishni" asos qilib oldi. Vusterning lug'aviy ta'riflari qisqa va aniq, ammo yaxshi ifodalanmagan edi. Vuster etimologiyadagi Uebster uchun g'oyat xarakterli bo'lgan ko'plab xatolardan o'zini chetga olishga muvassar bo'ldi. Lug'atning eng kuchli jihati so'zning orfoepik tomonini ko'rsatish hisoblanadi. 1860-yilgi nashri vustercha barcha nashrlarning eng muhimi sanaladi.

Vusterning 1860 yildagi lug'ati uning o'zining 1830 yildagi lug'atini takrorlaydi. Biroq, so'zlik hajmining katta ahamiyatga ega bo'lganligi (43 mingta so'zga nisbatan 104 mingta so'z) bilan ahamiyat kasb etadi. Vusterning – lug'aviy ta'riflarni yozishdagi uslubi – “umuman olganda qisqa, aniq, sodda, tushunarli va nozikligi bilan qoyil qilishni keltirib chiqarish bilan ajralib turadi” [3. 101].

Nihoyat, 1860 yilda Vuster birinchi marta, so'zning sharhidan tashqari, shuningdek uning sinonimlarini ishlab chiqishi bilan qimmatli bo'lgan lug'atni yaratdi. Bir qator (asosan, leksikografiyaning o'ziga aloqasi bo'lmagan) sabablar tufayli Vusterning lug'atlari Uebster lug'ati tomonidan (va “Merriam” kompaniyasi tomonidan) raqobatga dosh bera olmadilar va mashhur “lug'atlar urushi”da (war of the dictionaries) “Merriam” kompaniyasi tomonidan yaratilgan lug'atlar tomonidan mag'lub etildi. Xalbertning qayd qilishicha, “Vusterning lug'atlari, garchi ular ma'lum nuqtai nazardan eng yaxshi ishlar bo'lsalarda, ular leksikografiyadagi haqiqiy oldinga qo'yilgan maqsadlarni ifodalay olmagan. “Sencheri” lug'ati esa ingliz leksikografiyasining rivojlanishida muhim o'rin tutadi [2. 32].

Biroq “Sencheri”ning yaratilish tarixini tadqiq qilishdan oldin, yana bitta muhim lug'at haqida garchi qisqacha bo'lsa ham, uning yaratilishi taklif qilinayotgan ishda bosilib chiqqan “Sencheri”ning nashri vaqtida, ya'ni 1900 yilda tugallangan ish haqida eslatish zarur bo'lgan I. Fankning lug'atini ko'zda tutaymiz. Masalan, “Sencheri” lug'atidan farqli ravishda Fankning lug'ati o'tmishdosh-lug'atlarning materialiga kam tayanadi. L.P. Stupinning ta'kidlashicha, Fankning lug'ati “ko'p jihatdan novatorlik prinsiplariga qurilgan” [1. 40]. O'zining hajmli lug'atini (birinchi nashrda – 300 mingdan ortiq so'zlar, keyin

keladiganlarda – 458 mingtaga so'zlar) “o'rtacha” tajribasiz kitobxonning ehtiyojiga moslab va zarur leksikografik ma'lumotni to'plashning qulayligini hamda zerikarliligini ahamiyatli deb hisoblab (birinchi o'ringa qo'yib), xususan, Fank materialning lug'at maqolasida kelish tartibini o'zgartirdi. Bu klassik tartib quyidagicha edi:

1. So'zning yozilishi.
2. Talaffuz
3. Etimologiya
4. So'z ma'nolarining tizimi tarixiy ketma-ketlikda Fank esa boshqacha tartibni taklif qildi:
 1. So'zning yozilishi.
 2. Talaffuz
 3. So'z ma'nolarining tizimi tarixiy ketma-ketlikda
 4. Etimologiya”.

Fank ma'nolar ta'riflarining tushunarligiga va aniqligiga katta e'tibor qaratadi. Lug'at juda ko'p maxsus terminlarni, yana shuningdek ensiklopedik xarakterdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Fankning lug'ati hozirgacha keng ommabob hisoblanadi. 1913 yilda u qayta ishlandi va o'sha vaqtdan buyon bir necha marta qayta nashr qilindi. Umuman olganda Fankning lug'ati Amerika leksikografiyasida muhim o'rin egallaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX asrning oxiriga kelib Amerika leksikografiyasi endi lug'atlarni yaratishda bir qator muhim muvaffaqiyatlarga ega bo'ldi. Shuningdek ensiklopediyalarni yaratish ishida ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishildi. AQSHning kitob bozorida ko'plab obro'li bir tomlik izohli lug'atlar, ilmiy va texnik terminlarning lug'atlari, yana shuningdek ensiklopediyalar yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Stupin L.P. Slovari "трудных слов" i ix mesto v istorii angliyskoy leksikografii. - V kn.: Voprosy struktury angliyskogo yazyka v sinxronii i diaxronii, v. 3, L., 1973, C. 187-195.
2. Hulbert J.R. Dictionaries British and American. N.Y. Routledge, 2019. P. 110.
3. Friend J.H. The development of American lexicography, 1798-1864. The Hague, 1965, P. 129.
4. Krapp G.P. The English Language in America. 2 vols, N.Y., 1925. P. 377.
5. Murray J. The Evolution of English Lexicography. Good Press, 2019, P. 38.
6. Steger S.A. American Dictionaries: A Dissertation Submitted to the faculty of the University Verginia in Partial Fulfilment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy. Forgotten Books, 2018, P.160.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nizomova Zarifa Kamoliddin qizi,
Namangan davlat universitet filologiya fakulteti I kurs mustaqil izlanuvchisi
e-mail:zarifanizomova801@gmail.com

VIRTUAL MULOQOT VA UNDA NOVERBAL VOSITALARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham nutqiy muloqotning noverbal vositalari (ovozdagi turli holatlar, ishoralar, mimika va gavda harakatlari) tadqiqi filning turli aspektlarida amalga oshirilgan. Zamonaviy hayot realiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi dunyoning barcha jamiyatida muloqot o'ta erkin, kutilmagan hamda til qoidalaridan yiroqligi bilan xarakterlanadi. Bunda noverbal vositalarning o'rni har qachongidan ortgan va ular o'z zimmalariga katta pragmatik yukni ola boshladi. Ayniqsa, ularning virtual muloqotda noverbal vositalar tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Mazkur maqolada paralingvistik vositalar haqida qisqacha ma'lumot berilgan, hamda ularning o'rganilish darajasi va ahamiyati ochib berilgan. Murojaatda noverbal shakllari ham keng tahlil qilingan. Shuningdek, lingvistik va nolingvistik aloqalar, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir va qarama-qarshiliklar, ma'lum tas'virni yaratish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Muloqot jarayonida noverbal vositalarning xususiyatlar masalasi ham yoritilgan. Bundan tashqari, o'zbeklarda aloqa-aralashuv jarayonida qadimdan tarkib topgan va ishlatib kelinayotgan muomala shakllari ham berilgan.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, noverbal vositalar, noverbal shakl, lingvistik va nolingvistik aloqa, jestlar, imo-ishoralar.

Низомова Зарифа Камолиддиновна
Независимый исследователь I курса филологического факультета
Наманганского государственного университета

ВИРТУАЛЬНОЕ ОБЩЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ В НЕМ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ

Аннотация. В мировой лингвистике, в частности, в узбекской лингвистике, изучение невербальных средств речевого общения (различных состояний голоса, жестов, мимики и движений тела) осуществлялось в различных аспектах языка. Реалии современной жизни свидетельствуют о том, что во всем обществе современного мира общение характеризуется крайней свободой, непредсказуемостью и далекостью от языковых правил. Роль невербальных инструментов в этом возросла, чем когда-либо прежде, и они начали брать на себя большую прагматическую нагрузку. Особенно их невербальные инструменты в виртуальном общении остаются незамеченными исследователями. В процессе общения также освещается вопрос о свойствах невербальных средств. Кроме того, в процессе общения-вмешательства у узбеков давались формы обращения, которые издавна складывались и использовались.

Ключевые слова: виртуальное общение, невербальные средства, невербальная форма, лингвистическое и нелингвистическое общение, жесты, кинестетика, жесты, мимика, такесики./кпм.

Nizamova Zarifa Kamoliddin kizi,
Namangan State University Faculty of philology I Course independent researcher

VIRTUAL COMMUNICATION AND THE USE OF NONVERBAL TOOLS IN IT

Abstract. In World linguistics, in particular in Uzbek linguistics, the study of nonverbal means of speech communication (various states in the voice, gestures, facial expressions and posture movements) was carried out in different aspects of the language. The realities of modern life show that in all societies of the current world, communication is characterized by being extremely free, unexpected and far from the rules of language. In this, the role of nonverbal tools has grown more than ever, and they began to take on a huge pragmatic load. In particular, in their virtual communication, noverbal tools remain unnoticed by researchers. Mzakur's paper provides a brief overview of paralinguistic tools, and reveals the degree and significance of their study. The appeal also extensively analyzed nonverbal forms. Also discussed are linguistic and non-linguistic relations, interaction and contradictions between them, the possibility of creating a certain establishment. In the process of communication, the issue of properties of nonverbal means is also covered. In addition, forms of treatment have also been given in Uzbeks, which have long been composed and used in the process of communication and intervention.

Key words: *virtual communication, nonverbal means, nonverbal form, linguistic and non-linguistic communication, gestures, gestures.*

Kirish.

Til vositalariga funksional tomondan yondashish tamoyili tabiiy ravishda nutq vositalarining qamrov kengaytirishni talab qiladi. Aloqa jarayonida ekstralingvistik vositalarga nisbatan paralingvistik vositalar, ayniqsa, keng qo'llanadi. So'zlovchining o'g'zaki nutqi bilan birgalikda qo'llanib, tinglovchilar bilan bevosita aloqa qilishda nutq mazmunini to'ldiradigan, uning jozibadorligi, ta'sirchanligini oshiradigan imo-ishoralarning o'zaro aloqadorligini va farqlarini tadqiq qilish maqsadida til va nutqni sistemali o'rganish lozim bo'lmoqda.

Ana shunday amaliy talab bilan nutqning bu yordamchi vositalarini o'rganuvchi maxsus fan sohasi maydonga keldi. Hozirgi kunda bu fan sohasi "paralingvistika" nomi bilan tilshunoslikdan mustahkam o'rin oldi.

Adabiyotlar tahlili.

Dunyo tilshunosligida paralingvistik vositalar turli aspektlarda G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.Ye.Kreydlin, R.K.Potapova, V.V.Potapov, A.Piz, B.Piz, V.A.Pronnikov, I.D.Ladanov, C.Stepanov, S.A.Garkaves, I.Kuznesov, J.Messinjer, L.I.Dmitriyeva, L.N.Klokova, V.V.Pavlova, T.N.Pirkina, I.A.Ax'yamova, G.V.Barishnikova, M.L.Butovskaya kabi olimlar[16]ning tadqiqotlarida yoritildi.

Paralingvistik vositalarning mazmuniy va stilistik tadqiqiga bag'ishlangan ishlardan o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova, Q.Kaxarov, X.Ismoilovlar[1]ning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning o'rni masalasini ochib berishga, paralingvistik vositalarning madaniyatlararo xoslanishini tahlil etish hamda virtual muloqotda noverbal vositalarning madaniy me'yorlarni aniqlashga alohida ahamiyat beriladi.

Tahlillar va natijalar.

Noverbal nutqiy kommunikativ vositalar (tana holatlari va jestlar, tashqi ko'rinish, mimika, yuz ifodasi)ning insoniy muloqot jarayonidagi rolga olimlar azaldan qiziqib kelganlar. Xususan, qadimgi Rimning taniqli notiq va mutafakkiri M.T.Tsitseron o'sha paytda notiqlikda imo-ishoralarning ahamiyatini tushunib, unga shogirdlarini ham o'rgatgan[2]. Amerika tilshunosi A.Xill va kuzatilgan paralingvistik hodisalarning til bilan bog'lanishiga e'tibor qaratgan. Keyinchalik J.Teyger mazkur sohaga oid maxsus asar yozib, uning mohiyatini asoslab bergan[3]. Shu bilan birga, bu hodisa sovet

tilshunosi Nikolay Vladimirovich Yushmanning 1930-yillarda o'zining "G'ayritabiiy fonetika" asarida e'tiborini tortdi[4].

Og'zaki bo'lmagan aloqa mexanizmlari va belgilar tarkibini o'rganish qadimgi madaniyatda boshlangan va ritorika bilan chambarchas o'zaro bog'liq edi. Notiqlik texnikasining ahamiyatini tushunish bilan bir qatorda, melodik, akustikaga ham katta ahamiyat berildi. Bularga fonatsiya hamda kinesikani misol qilib keltirishimiz mumkin.

Fonatsiya-yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "phōnē" tovush, ovoz degan ma'noni anglatadi. Fonatsiya – bu tovush yo'llarining artikulyar harakatlari orqali o'zgartiriladigan tovush hosil qilish uchun halqumdan foydalanishdir. Fonatsiya inson ovoz moslamasining barcha xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan butun jismoniy hodisa sifatida, birinchi navbatda, jismoniy shaxs sifatida gapiradigan subyektga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib beradi. Ovoz kuchi, tembr, ohang, fantastika kabi umumiy fonatsiya xususiyatlari o'z tabiatiga ko'ra subyektning fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq va uning psixologik holatiga qarab, doimo nutq artikulyatsiyasi bilan birga keladi va subyektning jismoniy holatining tashqi ko'rsatkichi hisoblanadi[5].

Aloqa vositalarining fonatsiyasi insonning holatini, uning tajribasini, farovonligini, hatto temperamenti va fe'l-atvori haqida to'g'ri xabar beradi.

Fonatsiya vositalari ikki guruhga bo'linadi: lingvistik (lingvistik) va paralingvistik (prosodik).

Lingvistik fonatsiyaga so'zlarni tashkil etuvchi nutq tovushlari, intonatsiyalar, so'z urg'usi va mantiqiy pauzalar kiradi.

Paralingvistik fonatsiyaga ovoznning ovoz sifati, diapazoni, tembri va kuchi (balandligi), diksiya, ohang (ton harakati), xarakterlovchilar (yoki tildan tashqari fonatsiya), pauza to'ldiruvchilari, til imo-ishoralari, nutq tempi, artikulyatsiya kabi paralingvistik vositalar kiradi. Tovushlar va intonatsiya og'ishlarining, ya'ni bu nutq tovushining individual psixik va fiziologik xususiyati.

Keling, ushbu turdagi fonatsiya vositalarini batafsil ko'rib chiqaylik.

1. Ekstralingvistika yoki xarakterlovchilar deb ataladigan, ya'ni tovush tizimiga kirmaydigan, lekin og'zaki nutqni to'ldiradigan, o'rnini bosadigan, oldindan aytib beradigan va so'zlovchining hissiy holatini ifodalovchi tovush qo'shimchalari. Ekstralingvistika vositalariga quyidagilar kiradi:

- muloqot paytida paydo bo'ladigan o'ziga xos tovushlar, masalan, kulish, yig'lash, shivirlash, xo'rsinish, xirillash, duduqlanish va boshqalar.

- nol tovushlar: pauzalar;

- ajratuvchi tovushlar: yo'tal;
- nasalizatsiya tovushlari: "ha-ha-ha"[6]

2. Nutq tembrini – ovozning individual-shaxsiy tovush rangi bo'lib, u nutqqa o'ziga xos tovush va hissiy-ekspressiv soylarni beradi. Siz odamni ko'rmasdan ovozingizning tembriga qarab taniy olasiz, chunki bu o'ziga xos identifikatsiya belgisidir. Individual tembrning to'liq tavsifini berish juda qiyin, lekin uni ovozingizning eng aniq belgisi bilan tavsiflash mumkin: jarangdor ovoz, xirillagan, baland, qarilik va boshqalar. Yetarli tajriba va e'tiborga ega bo'lsa-da, suhbatdoshning ovoz tembrini tahlil qilish orqali u haqida kerakli ma'lumotlarni olish mumkin.

3. Ovozning kuchi (balandligi) ovozingizning kamroq individual qiymati bo'lib, vaziyatga ko'proq bog'liq. Garchi siz bu ikki tushunchani ("kuch" va "balandlik") tenglashtirmasligingiz kerak. Ovozning kuchi obyektiv qiymat bo'lib, desibellarda o'lchanadi. Ovozning kuchi ovoz paychalarining tebranish amplitudasiga, ularning kuchlanish darajasiga va rezonatorlarning faolligiga bog'liq.

Ovozning kuchi odamdan odamga farq qiladi. Ba'zi odamlar katta nutq yuklarini yengishga qodir bo'lgan kuchli ovozga ega. Boshqa odamlar zaif, sokin ovozga ega, undan noto'g'ri foydalanish stressning kuchayishi sharoitida turli funksional va organik kasalliklarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'z navbatida, hajm kuchga bog'liq. Ovozning balandligi subyektiv tushunchadir, chunki tovushni idrok etish hamda uni bilish bilan bog'liq. Ovoz balandligi kommunikativ vaziyatga qarab o'zgartirilishi mumkin bo'lgan boshqariladigan sifatdir, ya'ni qayerdan, kim bilan, qaysi masofada muloqot qilishingizni baholab beradi. Shuningdek, ovoz balandligi odamlarning bir-biri bilan o'zaro muloqotga kirish maqsadiga bog'liq. Ovoz balandligining moslashuvchan o'zgarishi nutqning ifodaliligi va xilma-xilligiga erishish vositasidir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, har doim ham ovoz balandligi boshqa odamlarning idrok etishi uchun nutqni tushunish va "qulaylik" ga hissa qo'shmaydi. To'g'ri tanlangan temp, mos pauzalar, rivojlangan artikulyatsiya va ovozingizning parvozi tufayli nutq tinglovchi tomonidan yaxshiroq qabul qilinadi.

Ovoz haqida gapirganda, biz quyidagi xususiyatlar va tarkibiy qismlarni ko'rib chiqishimiz mumkin: balandlik, ritm, mantiqiy stress, nutq nafas olish, diksiya va fonemik jarayonlar.

Ovoz balandligi – ovozingizning fiziologik xususiyati bo'lib, ovoz burmalarining tarangligi va ularning tebranish chastotasi bilan boshqariladi, bu hissiy va semantik ma'lumotlarni yetkazishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ovoz balandligi orqali tovush qatlamlarining bir soniyada harakatlanish tezligi kuzatiladi. Qanchalik tez-tez burmalar va havo tebransa, biz eshitadigan tovush shunchalik baland bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki,

ovoz balandligi uchun asosiy hal qiluvchi moment – bu odamning jinsi, aniqlik tananing gormonal fonidir. Agar inson tanasi yoshga qarab o'zgarsa, unda ovoz balandligi o'zgarishi mumkin.

So'zlovchilarning nutq paytida qilgan xatolari-ovoz balandligining eng yaxshi usuli hisoblanadi. Masalan, bir xil balandlikdagi nutq monotonlik taassurotini yaratadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun turli xil ovoz balandligi, ohanglari, turli xil melodik naqshlar (intonatsiya shakllari) dan foydalanish mumkin. Ammo shuni esda tutish kerakki, juda baland ohang asabiylashish, hayajon, hatto uyatchanlik va nafas qisilishi bilan ham sodir bo'ladi.

Ammo agar ma'ruzachida ilhom, nutq mavzusiga ishtiyok yetishmasa yoki u qo'rqqoqlik va uyatchanlik bilan ajralib tursa, bu yerda biz juda past ohang haqida gapirishimiz mumkin.

Va bu xatolar ustida ishlash kerak. Masalan, ohangni ko'tarmaslik uchun gapirganda ortiqcha tashvishlanmaslik, tortishuvlardan qochish va his-tuyg'ularga berilmaslik kerak. Past ohang bilan kurashayotganda, o'zingizda jasoratni rivojlantirish, bilim olish, hamma narsani o'rganishga qiziqishni rivojlantirish va nutqingizni o'rgatish kerak[7].

Ritm – o'lchovli va hissiy idrok qilinadigan birliklarning takrorlanishi, nutq ifodasining ekspressiv-emotsional funktsiya. Nutq ritmini tashkil etish asosida inson tanasining faoliyatini, ayniqsa uning nafas olishini tavsiflovchi tabiiy ritm muhim rol o'ynaydi. Nafas olish jarayoni nisbatan ritmik bo'lgani uchun nutq ham ritmik bo'ladi. Oddiy so'zlar bilan aytganda, vaqti-vaqti bilan havoni nafas olish va chiqarishga bo'lgan ehtiyojimiz ovozingizning to'xtash joylariga ta'sir qiladi, ya'ni nutqimizni birliklarga ajratuvchi pauzalar. Shundan kelib chiqib, nutq ritmi birligi – bu so'z yoki so'zlar turkumi bo'lib, keyin pauzalar yordamida cheklanadi.

Nutqning nafas olishi tovushlarning shakllanishi manbai, nutqning asosidir. Nutqni nafas olish ovozingizning shakllanishini, tovushlarni to'g'ri assimilyatsiya qilishni ta'minlaydi, u tovush kuchini o'zgartirishi mumkin, pauzalarni kuzatish, ovoz balandligini o'zgartirish, nutq ohangidan foydalanish va nutqning ravonligini saqlashga yordam beradi.

Ammo "pauza to'ldiruvchilari" kabi narsani ham ta'kidlash kerak. Ingliz tilida ular "til to'ldiruvchilari" deb ham ataladi. Ushbu to'ldiruvchilar quyidagi so'zlarni o'z ichiga oladi:

- "ah", "eh", "er", "erm" – mos so'zlarni "og'riqlik izlash" paytida ishlatiladigan eng keng tarqalgan va tipik pauza to'ldiruvchilari;

- "yaxshi" – bu tildagi eng mashhur pauza to'ldiruvchisi. Bu unchalik katta ma'noga ega emas, lekin siz biror narsani unutmagandek ko'rsatishga yordam beradi, lekin masalan, o'z fikringizni qanday qilib eng yaxshi ifoda etishni o'ylaysiz. Bundan tashqari, "yaxshi"

shubha bildirish va boshqa odamlarning so'zlarini tuzatish uchun ishlatiladi ("Demak, mening vizam o'n besh kundan keyin tayyor bo'ladi." – "Xo'sh, yigirma kundan keyin."), suhbatning tugashini bildirish ("Xo'sh, ertaga uchrashamiz va boshqa savollarni muhokama qilamiz.");

- "Yaxshi" fikrni qanday qilib eng yaxshi shakllantirish haqida o'ylagan ko'rinishni berishni xohlaganingizda ham foydalidir;

- "like" – bu so'z bo'shliqlarni to'ldirish uchun "yaxshi" bilan bir xil ma'noga ega. Bundan tashqari, "yoqdi" o'zidan keyingi so'zning ahamiyatini ta'kidlash uchun signal so'zi sifatida ishlatiladi ("Butun jamoa edi, kabi, tushkunlikka tushdi") va ma'lumotlarga nisbatan noaniqlikni ko'rsatadi ("Viza yigirma yil ichida tayyor bo'ladi" kunlar (yoki yo'q)).

Mantiqiy urg'u (semantik stress) – bu gapga aniqroq ma'no berish uchun eng muhim so'zni tanlash.

Diksiya – nutqning ravshanligi, tushunariligi va ifodaliligi. Soflik va aniq talaffuz artikulyar apparatlarning to'g'ri ishlashiga bog'liq: farenks, pastki jag', til, tanglay va lablar. Fonemik jarayonlarda uchta komponentni ajratish mumkin:

a) fonematik xabardorlik. Bu ona tilidagi tovushlarni tan olish qobiliyatidir.

b) Fonemik idrok etish. Bu o'qish va yozishni o'rganish jarayonini o'zlashtirish asosida shakllanadigan ovozli tahlil va sintezdir. Fonemik tahlil so'zlarni tovushlarga ajratish qobiliyatini anglatadi. Sintez deganda esa tovushlarning yaxlit so'zga birikmasi tushuniladi.

c) Fonemik ifodalash. Bu amalga oshirish qobiliyatidir, ya'ni aqliy nuqtai nazardan fonemik tahlil, tasavvurlarga asoslangan.

4. Nutq tezligi – nutq elementlarini (tovushlar, bo'g'inlar va so'zlar) talaffuz qilish tezligi. Nutq tezligi prosodik elementlarga tegishli bo'lib, intonatsiyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Nutq tezligi so'zlovchining individual xususiyatlariga, hissiy holatning xususiyatlariga va muloqot holatiga va talaffuz uslubiga bog'liq. Bundan tashqari, olimlar ta'kidlashicha, sur'at birinchi navbatda insonning psixofiziologik xususiyatlariga bog'liq, ya'ni ba'zilar sekinroq gapiradi, boshqalari esa, aksincha, tez.

Nutq tezligi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kommunikativ funksiyalarni, ya'ni muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish vositasi;

- ekspressiv funksiyalarni, ya'ni his-tuyg'ularni ifodalash vositasi;

- stilistik funksiyalarni, ya'ni sheriklar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash vositasi;

- sintaktik funksiyalarni, ya'ni bayonotning yaxlitligini ifodalovchi vosita.

Nutq tezligi o'lchanadi:

- vaqt birligida aytiladigan nutq elementlari soni;

- elementning o'rtacha davomiyligi.

Nutq tezligining pasayishi, asosan, unilarning davomiyligini oshirish orqali erishiladi, tezlikni oshirish esa unilar va undoshlarning davomiyligini qisqartirish orqali amalga oshiriladi.

Agar biror kishi o'z nutqining tezligini sekinlashtirsa, u o'z xabarining muhimligini, ahamiyatini ta'kidlaydi. Va aksincha, nutqini tezlashtirish orqali odam aytilgan narsaning ikkinchi darajali ahamiyatini ifodalaydi. Oddiy sur'atning muhim sharti – bu miya yarim korteksida sodir bo'ladigan asosiy jarayonlar – qo'zg'alish va inhibitsiyonning (onlayn muloqot qilishda o'zini tutishning yetishmasligi) to'g'ri nisbati.

Garchi ba'zi odamlarda bu jarayonlarning rivojlanishidagi buzilishlarni aniqlash mumkin bo'lsa-da, ular bolalikdan boshlangan. Ko'pgina bolalar nutqning normal tezligini darhol o'zlashtira olmaydi. Odatda, ko'p bolalar juda tez gapirishadi, chunki inhibitiv jarayonlar va o'z nutqlarini nazorat qilish hali ham zaif. Aksincha, bolaning nutqi juda sekin bo'lishi mumkin. Ammo ko'p hollarda bularning barchasi yosh bilan yo'qoladi, ya'ni normal holatga qaytadi. Ammo bir qator sabablarga ko'ra, bolalar nutq tezligida patologik buzilishlarni boshdan kechirishi mumkin: taxilaliya va bradilaliya.

Taxilaliya – nutq tempining buzilishi, bu patologik tezlashtirilgan nutq oqimi bilan ifodalanadi bundan tashqari, shoshilib, kuchanib, bog'inlarni qoldirib ketib so'zlarni tez-tez talaffuz qilishdir. Bradilaliya va taxilaliya tashxisi qo'yilgan insonlar, muloqot jarayonida o'z fikrlarini tinglovchiga yoritib bera olishmaydi. Shuningdek, taxilaliya bir xil so'zlarning takrorlanishi va duduqlanishi bilan tavsiflanadi, bunda so'zlarning oxiri va talaffuzi buzilishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, nutqning tezlashtirilgan sur'ati so'zlarni qisqartirishning yangi shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, borgan edi-borgandi, bor ekan-borakan kabi.

Bradilaliya – nutq tezligining buzilishi bo'lib, u nutqning patologik sekin tezligi bilan ifodalanadi. Bradilaliya unli tovushlarning loyqa artikulyatsiya bilan cho'zilishi bilan tavsiflanadi.

5. Ohang – gapning intonatsion qolipi, nutq davomida ohangning o'zgarishi va harakatini ifodalovchi vositadir.

Ton – tovushning jismoniy sifati bo'lib, u ritmik tebranishlarning chastotasi va ovoz paychalarining kuchlanishi bilan belgilanadi. Ohang ma'lumotni etkazishda ma'ruzachining his-tuyg'ularini ifodalaydi. Bu yerda tinglovchilarning so'zlovchiga nisbatan qoladigan taassurotlari ovoz balandligiga bog'liq. Ovozning baland ohangi ko'pincha xirillagan, isterik deb ataladi. Bu kuchli hayajon yoki qo'rquvdan ovozning falsettoğa aylanishi tufayli sodir bo'ladi. Past ohang qadr-qimmat va kuchni anglatadi.

Ko'pgina hollarda, ohanglar bir-birigaga mos keladi:

- Gapning to'liqligini ifodalash uchun past ohang qo'llaniladi.

Alimardon kipriklarini pirpiratdi :(talaffuzda pirpiratti),

-Kim?

Muqaddam bir nafas jim qoldi-da, sekingina aytdi: (aytti). [10]

Nutq ohangi, intonatsiya bilan birga, shaxsdan qat'i nazar, odam haqida ma'lum ma'lumotlarni yetkazishi mumkin, chunki odam har doim ham o'zini, his-tuyg'ularini va intonatsiyasini boshqara olmaydi.

6. Intonatsiya (lotincha intonare – baland ovozda gapirish) nutqning ritmik-melodik tomoni bo'lib, gapda sintaktik ma'nolarni ifodalash va emotsional-ekspressiv rang berish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Intonatsiya funksiyalari:

- gaplarning kommunikativ turlarini farqlaydi – savol, undov, hikoya;

- gap qismlarini semantik ahamiyatiga, urg'usiga ko'ra farqlaydi;

- gapni ritmik guruhlar va sintagmalarga bo'lish bilan birga, bir butunlik hosil qiladi;

- o'ziga xos his-tuyg'ularni ifodalaydi;

- bayonotning pastki matnini ochib beradi;

- so'zlovchini va muloqot holatini tavsiflaydi.

Yuqorida aytilganlarning barchasiga asoslanib, fonetika va fonatsiya vositalari har qanday tilning asosidir, degan xulosaga kelish o'rinlidir. Bir qator fonatsiya vositalari tufayli biz tilning tuzilishini, uning grammatik tomonini, lug'atini o'rganishimiz, gapni to'g'ri qurishimiz va hokazo. Shuningdek, fonatsiya aloqa vositalari insonning holati, uning tajribasi, farovonligi, hatto temperamenti va fe'l-atvori haqida juda aniq ma'lumot beradi.

Kulgichlar va hisbelgilarga qo'shimcha ravishda, virtual muloqotda og'zaki bo'lmagan "mem" vositalari mavjud. Mem konsepsiyasi 1976- yilda evolyusion biolog Richard Dokkins Xudbin Gen kitobida madaniy axborot tarqalishini tushuntirish uchun kiritgan[11]. Richard Dokkins bu atamani ixtiro qilgan bo'lsa-da mem va mem nazariyasini ishlab chiqdi, u bu g'oya butunlay yangi ekanligini da'vo qilmadi[12]. Dokkins ushbu atamani kuzatuvchi ko'rib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday madaniy mavjudotga nisbatan ishlatgan replikator. U ko'plab madaniy subyektlarni replikator sifatida ko'rish mumkin deb faraz qildi va kuylar, modalar o'rganilgan qobiliyatlarni misol qilib ko'rsatdi. Memlar, odatda, ma'lumot va xatti-harakatlarning samarali nusxalari sifatida rivojlangan odamlarga ta'sir qilish yo'li bilan takrorlanadi. Odamlar har doim ham memlarni mukammal nusxa ko'chiraolmagani uchun va ularni

boshqa memlar bilan takomillashtirish, birlashtirish yoki boshqa usul bilan o'zgartirishlari mumkin, chunki ular vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.



1-rasm. Mem namunasi

Bu grafik 1940-yillarda mashhur bo'lib, turli mamlakatlarda turli xil nomlar bilan mavjud bo'lib, memni replikasiya yo'li bilan qanday o'zgartirish mumkinligini ko'rsatib berdi. Bu dunyodagi birinchi keng tarqalgan memlardan biri sifatida qaraladi[13].

Internet memi esa shu mem tushunchasining internetga oid qismidir.

Mem ifodalanishi mumkin bo'lgan madaniy ma'lumotlar birligi sifatida har qanday g'oya, ramz, harakat uslubi yoki yo'nalishi sifatida, ongli ravishda va odamlar tomonidan ongsiz ravishda nutq, yozishmalar, marosimlar va imo- ishoralar video orqali uzatiladi. Dokkins barcha madaniy ma'lumotlarni solishtirdi, uning fikricha, biologik ma'lumotlarga ega memlardan iborat, tabiiy tanlanish, mutatsiya va sun'iy tanlanish genlardan tashkil topgan, shuning uchun, genlar kabi memlar ham ularga bo'ysunadi[14].

Ayni paytda memlar ommaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylandi.

Internet fenomeni yoki internet memi deb kishidan kishiga internet orqali tarqaluvchi biror faoliyat, tushuncha, shior yoki mediaga aytiladi[6]. Internet foydalanuvchilari, har qanday kulgili tasvirlar kabi ko'plab madaniy kodlardan foydalanishadi. Memlardan foydalanish hozirda qiziqarli xarakterni o'zida kasb etmoqda. Memlarni vosita sifatida ko'rish og'zaki bo'lmagan muloqot jarayonida aloqa ishtirokchisi grafik tasvirni (mem) baham ko'radi, biz o'sha nutq vaziyatlarida ba'zi his-tuyg'ularni ifodalash o'rnigani ularni tasvirlaymiz. Misol qilib jamoat joylarida yerga yotib suratga tushish ("planking") va Harlem Shake musiqasiga raqsga tushayotganlarni videoga olishni keltirish mumkin.

Mem lug'atda "odamdan odamga tarqaluvchi g'oya, fe'l-atvor yoki uslub" deb ta'riflanadi[15]. Internet memi tasvir, havola, video, veb sayt yoki hashtag shaklida bo'lishi mumkin. Shunchaki so'z yoki ibora, jumladan atayin xato yozilgan ibora bo'lishi ham mumkin. Bunday memlar odamlar orasida ijtimoiy tarmoq, blog, email yoki

yangiliklar orqali tarqaladi. Internet memlari internet madaniyatining katta qismidir.

Demotivator – bu qora yoki ko‘k fonda joylashgan tasvirni (kamroq hollarda yozuv) va qisqacha shior sharhini (odatda oq shriftda) o‘z ichiga olgan yaratilgan matn. Demotivatorlar AQShda XX asrning oxirida paydo bo‘lgan deb ishoniladi. Plakatlarning parodiyasi sifatida motivatorlar mehnat va yoshlar muhitida faol hayotiy pozitsiya va mehnat ekspluatatsiyasini targ‘ib qilish uchun ishlatiladigan, lekin ko‘pincha muvaffaqiyatsiz va kulgili bo‘lgan ijtimoiy reklama turidir. Demotivatorlarning o‘ziga xos xususiyati uning tuzilishidagi fotosurat yoki chizma tasvirining va unga nostandart, kutilmagan izohning kombinatsiyasi bo‘lib, u kulgili yoki fojiali effekt berishi mumkin. Shuningdek, muayyan harakatlarni ilhomlantiradi. Aynan shuning uchun demotivatorlar internet-muloqotda ta‘sir qilishning samarali usullardan biriga aylandi.



2-rasm Demotivatorning namunasi [8]

Bizning ishimizda biz demotivatorni pretsedent matn (Yu.N.Karaulov atamasi) sifatida aniqlaymiz, chunki u bir tomondan ma'lumot, ikkinchi tomondan hissiy jihatdan aloqa ishtirokchilari uchun muhimdir. Ushbu rasmda tasvirlangan demotivator harakatni rag‘batlantiruvchi omillardan biri bo‘lib, ma'lum bir harakatni amalga oshirishga ilhomlantiradi. Demotivatorning ajralmas qismi bo‘lgan rasm yoki fotosurat ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga ta‘sirni kuchaytiradi[13].

Maslahat – bu kvadrat maydondagi ma'lum bir belgi tasviridan (ko‘pincha rang- barang) va bu belgining odatiy fikrlash yoki xatti- harakatini, uning hayotidan ba‘zi bir vaziyatni aks ettiruvchi imzodan iborat kreallashtirilgan matn.

Oxirgi, eng qiziqarli, bizning fikrimizcha, og‘zaki bo‘lmagan usul aloqa – matnning tinish belgilari va grafik dizayni. To‘g‘ridan-to‘g‘ri biz ushbu aloqa usulini ko‘rib chiqamiz faqat norasmiy muloqot doirasida. Bu tushuntirish muhim ahamiyatga ega boshqa vazifalar; rasmiy aloqadan farqli ravishda norasmiy muloqot, qat‘iy

qoidalarga ega emas, shaxsiy muloqot uchun xizmat qiladi, unda his- tuyg‘ularini ifodalash joizdir, demak u norasmiy holatda og‘zaki bo‘lmagan muloqot jarayonini bajaradi.

Tilshunoslikda tinish belgilari uning bo‘limi bo‘lib, birinchi navbatda, tinish belgilari, ikkinchidan, ularning yozma ravishda joylashishini o‘rganadi. Tilshunoslikda tinish belgilarining maqsadi va asoslari masalasida tinish belgilari uchtasini aniqlaydi.

Ularning asosiy yo‘nalishlari:

- mantiqiy;
- sintaktik;
- intonatsiya

Tinish belgilarining mantiqiy yo‘nalishini o‘rganishni akademik F.I. Buslaev, unga ko‘ra tinish belgilari ikki xil ma‘noga ega:

-bir jumlani boshqasidan yoki uning bir qismini boshqasidan ajratib, fikrlarni ifodalashda ravshanlikka hissa qo‘shish;

- so‘zlovchining yuzidagi his-tuyg‘ularni va uning tinglovchiga munosabatini ifodalash.

Rus tilini o‘rgatish amaliyoti tufayli tinish belgilarini o‘rganishda sintaktik yo‘nalish ma‘lum bo‘ldi. Buning vakili Ya. K. Grot tinish belgilari bog‘lanishni og‘zaki nutqni soddalashtiradigan gaplar va gap qismlari o‘rtasida yozma tilni tasvirlaydi. Intonatsiya nazariyasi izdoshlari L.V.Shcherba va A.M. Peshkovskiyalar tinish belgilari iboraning ritmi va ohangini yetkazishga xizmat qiladi deb hisoblagan, ko‘p hollarda grammatik jihatdan emas, balki deklamaativ tarzda ifodalanadi deya ta‘kidlashgan[17]. Darhaqiqat, bugungi kunda tinish belgilari o‘rnida virtual muloqotda noverbal vositalar yozma matnga qo‘shimcha konnotatsiyalar ham berish mumkin. Masalan: virtual makonda nuqta, qavs va undov belgisini o‘rniga kulgichlar yoki tabassurning soddalashtirilgan versiyasini, norozilik hisbelgilardan foydalanish mumkin.

Tinish belgilari o‘rnida noverbal vositalardan foydalanish, matnda qo‘shimcha grafik dizaynirni bezatish, e‘tiborni jalb etish va hissiy emotsiyaning vazifalarini ham bajaradi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, paralingvistik vositalarni o‘rganish madaniy aloqalarni yaxshi yo‘lga qo‘yishga, xalqlarning o‘zaro bir-birlarini yaxshi tushunishiga, tarjima ishlarining sifatini ko‘tarishga, kishilarning dunyo xalqlari urf-odatlarini, hayotiy tajribalarini atroflicha bilishga, inson madaniy saviyasining ko‘tarilishi, xalqlar haqidagi tasavvurlarining kengayishi, tilshunoslikning boshqa fanlar orasidagi o‘rnini, qimmatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (references):

1. Qarang: Колшанский Г.В. Паралингвистика. – Москва: Наука, 1974.; Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 112 с.; Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. – Москва: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с.; Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации. – Москва: Языки славянской культуры, 2005. – 224 с.;

2. Цицерон М.Т. Три трактата об ораторском искусстве / Под редакцией М. Л. Гаспарова. – М.: Наука, 1994. – 475 с.
3. Нурмонов.А. Танланган асарлар III жилдлик .Жилд . – Т., 2012. – С.213.
4. Юшман Н.В. Экстранормальная фонетика. 1930 – х гг. [49,165 с.]
5. Реформатский А. А. Введение в языкознание [Текст] / А. А.Реформатский. - М., 1998. - 167 с.
6. Василик М. А. Пара- и экстралингвистические особенности невербальной коммуникации [Текст] / М. А. Василик. – М.: Эксмо, 2009. – 185с.
7. Сопер П. Основа искусства речи [Текст] / П. Сопер. – М.: Прогресс,1992. – С. 149 .
8. Mazkur bo'limdagi rasm va materiallar «Personalni boshqaruv» (Moskva – 1996 – 1997) jurnali ilovasidan olindi.
9. Chubert, Karen. “Bazaar goes bizarre”, USA Today.
10. Ў.Хошимов “Танланган асарлар”.- Тошкент: “ZUKKO KITOVBXON”, 2021. – S.239.
11. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Internet_fenomeni
12. <https://ewikiuz.top/wiki/meme>
13. <https://ewikiuz.top/wiki/meme>
14. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B5%D0%BC#_city_note – :1 – 1
15. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Internet_fenomeni
16. <https://ewikiuz.top/wiki/meme>
17. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Internet_fenomeni

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sharifa Iskandarova
FarDU professori
Umida Yokubbayeva
Turan International University o'qituvchisi

“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI” ASARIDA QO‘LLANILGAN LINGVOMADANIY BIRLIKLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada muhtaram Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida qo‘llanilgan madaniy koloritga ega leksemalar etimologik, lingvomadaniy va funksional jihatdan tahlilga tortilgan. Maqolada tahlilga tortilgan leksemalarning lingvomadaniy tahlili ular bilan assotsiatsiyaga kirishuvchi maqol va frazeologik birliklar tahlili bilan birgalik amalga oshirilgan.

Kalit so‘z. Lingvokulturologiya, lingvomadaniy tahlil, lingvomadaniy birlik, lakuna, assotsiatsiya, antroposentrik tadqiqot.

Шарифа Искандерова
Профессор ФарГУ
Умида Ёкуббаева
Преподаватель Международного университета Туран

О ЛИНГВИСКО-КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦАХ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В «НОВОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА»

Аннотация. В данной статье лексемы с культурной окраской, использованные в произведении уважаемого Президента «Новая стратегия развития Узбекистана», анализируются этимологически, лингвистически, культурно и функционально. Лингвокультурологический анализ анализируемых в статье лексем проводится совместно с анализом пословиц и связанных с ними фразеологизмов.

Ключевое слово. Лингвистическая культура, лингвокультурный анализ, лингвокультурное единство, лакуна, ассоциация, антропоцентрическое исследование.

Sharifa Iskanderova
FarSU professor
Umida Yokubbayeva
Turan International University teacher

ABOUT THE LINGUISTIC-CULTURAL UNITS USED IN THE “NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT STRATEGY”

Annotation. In this article, lexemes with a cultural color used in the work of the honorable President “New Development Strategy of Uzbekistan” are analyzed etymologically, linguistically, culturally and functionally. The linguistic and cultural analysis of lexemes analyzed in the article is carried out together with the analysis of proverbs and phraseological units associated with them.

Key word. Linguistic culture, linguistic and cultural analysis, linguistic and cultural unity, lacuna, association, anthropocentric research.

Kirish.

Madaniy ma'lumotnomalar, ramzlar va an'analar ko'pincha muayyan guruhlarga murojaat qilish yoki muayyan his-tuyg'ularni qo'zg'atish uchun ishlatiladi. Lingvokulturemalarni tahlil qilish siyosiy matnning madaniy elementlaridagi o'ziga xoslikni yaratish, kuch dinamikasini o'rnatish hamda omma e'tiborini, kuchini

ma'lum maqsadga safarbar qilish uchun qanday ishlatilishini o'rganishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, siyosiy nutq va matnlarda qo'llanilayotgan lingvokulturologik birliklar siyosatchilarning asosiy mafkuralari, strategiyalari, niyatlarini yoritib berish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Matnni antroposentrik tadqiq etish tarkibida shakllangan yangi tarmoqlardan biri

lingvokulturologiyadir. Lingvokulturologiya – til va madaniyatning kesishmasi sifatida millatga xos madaniyat unsurlarini ma’lum birliklar orqali tilda o’z ifodasini topish hodisasi [14].

Adabiyotlar tahlili.

Tilni madaniy jihatdan tahlil qilish an’anasiningildizi XIX asrda V.Fon Gumboldga borib taqalsa-da, *lingvokulturologiya* tushunchasining termin sifatida shakllanishiga V.N.Teliya va V.A.Maslovaning ilmiy tadqiqotlari sabab bo’lgan[7]. Matnlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish jahon tilshunosligida bir qator tadqiqot materiallari va yangi nazariyalarni shakllanishiga olib kelgan. Xususan, V.V.Vorobyev, M.M.Kopilenko, E.V.Babayeva kabi rus tilshunoslari matnlarning lingvomadaniy jihatiga e’tibor qaratganlar [3,4,5].

O’zbek tilshunosligida esa matni lingvomadaniy tadqiq etish bo’yicha ilk tadqiqotlar sifatida A.Nurmonov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganovalarning ilmiy asarlarini keltirish mumkin [8,9,10]. Mazkur tadqiqotlar badiiy, ilmiy, publitsistik materiallar, folklor namunalarini, shaxsiy yozishmalar hamda turli doiradagi erkin muloqot namunalarini tahlilga tortish natijasida yuzaga kelgan. Keyinchalik Sh.Qalandarov, Sh.Maxmaraimova, D.Rustamov, F.Usmonov, Z.Muqimova, D.Ashurov, B.Tojiboyev, D.Fayzullayevalarning ilmiy tadqiqotlarida o’zbek tilining madaniy birliklari va turli matn shakllarining madaniy xususiyatlari o’rganib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda tilning millatning madaniy mundarijasini hamda rivojlanish ko’rsatkichlarini o’zida namoyon qiluvchi vosita sifatidagi talqinini ko’rish mumkin. Milliy-madaniy ko’rsatkichlarning badiiy va publitsistik matnlar tarkibida faol qo’llanilishi tadqiqot materiali sifatida badiiy, publitsistik matnlarga murojaat etilishiga olib kelgan. Siyosiy matnlarning madaniy tahlili bilan bog’liq dissertatsion ishlarning yetarli darajada emasligi davlat rahbari asarlarini siyosiy matn namunasi sifatida lingvomadiy tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri ekanligini belgilab beradi.

Tilshunoslikda Prezident asarlarining siyosiy matn sifatida lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilishi, mazkur asarlardagi til, madaniyat va siyosat sohasida yuz beruvchi o’zgarishlarni ommaga tushuntirishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar orqali matnlarning shakllanishi, siyosatning tilga ta’siri, madaniy va ijtimoiy muhitdagi o’zgarishlar, siyosat diskursi, madaniy diskurslar va o’zbek tilining madaniy jihatlariga bog’liq tushunchalar yoritiladi.

Tilda millatning madaniy turmush tarzi, qadriyatlarini, tarixi, an’ana-udumlari, dunyoqarashi, muloqot madaniyati haqida ma’lumot beruvchi vosita sifatida milliylik belgisiga ega bo’lgan paremlar o’rnini alohida ta’kidlash lozim [14]. Ularning prezident asarlari matni uchun ahamiyati juda katta bo’lib, aniq va kuchli ifodalarni yaratishda, ma’nolarni tushuntirishda va siyosiy ko’rsatkichlarni oshirishga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Madaniy

fanni yaratuvchi vositalardan biri bo’lgan lingvokulturmalar milliy-madaniy birlik sifatida nutqni sayqallovchi, har bir til egasining takrorlanmas qadriyatlarini ifodalovchi vositalar hisoblanadi. Tilshunos V.Teliya “*Til o’z ichki ma’nolari hamda assotsiatsiyalari bilan olamning konseptual modelini milliy-madaniy ranglar bilan bezaydi*” [3,41], – deydi. Bunday ranglar leksemalarning atash ma’nosi bilan birga yuradi va bog’liq shakllanadi. Ular muqobili mavjud bo’lmagan so’zlar sifatida boshqa tillarda kuzatilmaydi. Milliy-madaniy ma’noga ega komponentli leksik birliklar har bir millat ongida hayotiy bilimlar asosida yashaydi va shakllanadi. Bu kabi leksik birliklar beradigan madaniy tushuncha mazkur birlik atrofida yuzaga keladigan semantik maydondagi assotsiativ munosabat tahlillari asosida yanada oydinlashadi. Tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan lingvokulturmalar har bir xalqning qadriyatlarini, kiyimlari, taomlari, marosimlari, axloq etiketlari assotsiatsiyasi atrofida qo’llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada *bamaslahat, mahalla, duogo’y, beshik, belbog’* kabi leksemalarining “Yangi O’zbekiston strategiyasi” kitobida qo’llanishi, ushbu leksemalarning ijtimoiy-siyosiy matnda ifodalagan semantikasi lug’atlarda izohlangan ma’nolari bilan qiyoslangan holda ularning lingvomadaniy tahlili amalga oshirildi. Ijtimoiy-siyosiy termin darajasiga ko’tarilgan lingvomadaniy birliklar ajratib ko’rsatildi.

Tahlillar va natijalar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida madaniy ifodaga ega leksik birliklar mavjud bo’lib, ularni birma-bir tahlilga tortish orqali siyosiy matn doirasida lingvomadaniy birliklarning vazifasi va asar uslubiga qanday ta’sir etishini o’rganib chiqamiz. *Maslahat* leksemasi arab tilidan o’zlashgan bo’lib, “biror ishni qanday qilish yoki umuman nima qilish kerakligi haqida yo’l-yo’riq tarzidagi fikr, mulohaza” (ЎТИА, II, 551), – degan ma’noni anglatadi.

Xalqimizda qadimdan yosh avlodning katta yosh vakillari (avvalo, ota-onasi, qarindosh-urug’lari, yaqinlari)ning fikr-mulohaza hamda tavsiyalarini tinglab, keyin ma’lum bir yumushga qo’l urish odati axloq etiketi sifatida *maslahat* leksemasini lakunalar qatoriga qo’shilishiga olib kelgan. Mazkur birlik atrofida u bilan assotsiativ munosabatga kirishuvchi turli strukturaga ega birliklar shakllangan. Masalan, ota-onaga nisbatan *maslahatgo’y; atrofida qilarga maslahat solmoq* kabilar. O’zbek xalqida to’y-marosimlarini o’tkazishdan avval “*maslahat oshi*” deb nomlanuvchi, asosan, yaqin birodar, qon-qarindoshlar jamlanmasidan iborat odatga aylanib, qadriyat tarzida shakllangan yig’in bo’lib, bu kichik bir davrada marosim shaklida amalga oshiriladigan, to’y yumushlarini oila kattalarining ko’rsatmalariga muvofiq yig’in qatnashchilari o’rtasida taqsimlanishi uchun o’tkaziladigan maslahat kengashi hisoblanadi. Mazkur

an'analar uzoq tarixdan takrorlanib kelinayotganligi xalqimiz nutqida ushbu mavzu doirasidagi paremiologik birliklarni shakllanishiga olib kelgan. Jumladan, "Maslahatli to'y buzilmas", "Maslahatli osh achimas", "Maslahatli to'n tor kelmas" (ЎТИА, II, 552). Mazkur maqollarda *maslahat* leksemasi o'zbek xalqining milliy taomi, kiyimi va marosimiga nisbatan qo'llanilayotgan bo'lsa-da, bosh ma'no "jamoani har qanday jarayonda birdamlikka chaqirish"dan iborat. Yurtimizning bir qator hududlarida mahalla va qishloq markazlari mavjud bo'lib, xalq tilida *guzar* nomi bilan yuritiladi. Ushbu obyekt mahalladagi turli ijtimoiy muammolar mahalla oqsoqollari boshchiligida o'z yechimini topadigan markaz vazifasini o'taydi. Shu boisdan mazkur makonga nisbatan "*maslahat guzari*" nomini qo'llash odat tusiga kirgan. O'zi ishtirok etgan matn mazmuniga etnik madaniyat haqidagi komponentlarni uyg'unlashtiruvchi *maslahat* leksemasining semantik doirasiga ijtimoiylik xususiyati qo'shib, semantik jihatdan takomillashganligini ko'rish mumkin. Masalan, "*Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda fuqarolarimiz bilan keng muloqot qilib, bamaslahat ish tutdik*" (ЯЎТС, 41). Asarda *bamaslahat* leksemasi "maslahatlashgan holda" shaklida butun bir jamoa/jamiyat vakillarining dard-u tashvishlarini tinglagan holda, qonunlar ijrosini ta'minlashga nisbatan qo'llanilgan, ya'ni umumnutq yoki boshqa matn namunalariga nisbatan asarda ushbu leksema *mahallabay ishlash, xalq qabulxonolari, virtual qabulxona, aholi dardiga quloq solish, muammolarni joyida hal qilish* kabi yangi birliklar bilan munosabatga kirishib, qonuniy belgilangan, tub milliy etiketning davlat rivoji yo'lidagi takomillashgan shakliga aylandi. Asarda milliy qadriyat shaklida asrlar osha bizgacha yetib kelayotgan kengashuv yig'inlari, oila boshlaridan maslahat olish kabi erkin jarayon emas, ma'lum qonunlar bilan tartibga solingan, mas'ul rahbarlar boshchiligidagi aholi bilan bo'ladigan uchrashuvlar, saylovoldi tashkil etiladigan, aholining taklif va mulohazalari mazmuni, miqdoriga qaratilgan davlat nazoratidagi siyosiy tashkiliy jarayonlar nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qayta o'zgartirish kiritish avvalida aholi murojaatlarini onlayn shaklda qabul qilish jarayoni yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlantiradi. Mahalla yig'inlarida tashkil etiladigan mahalla faxriylari va ziyolilar ishtirokidagi rasmiy yig'ilishlar ham qadriyatlarimizning rivojlantirilgan, demokratlashgan maslahat berish olish an'anasining yuridik kuchga ega shakllari hisoblanadi.

Mahalla leksemasi etnik jihatdan milliy-madaniy odat va an'analarni atrofida jamlovchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. *Mahalla* leksemasining kelib chiqishi qadim tarixga borib taqalib, o'zbek tilidagi "joy" semasi muvofiq keluvchi arabcha *mahallun* leksemasi asosida shakllangan. Mahallaning o'zbek millati uchun ahamiyatliligi, har bir jamiyat vakilida boshqa lingvokulturremalarga nisbatan ko'proq tushuncha

mavjudligi B.Tojiboyevning tadqiqot ishida keltirilgan[11]. Turar joy ma'nosini ifodalovchi mazkur leksema bir qator odat va an'analarni o'z atrofida birlashtiradi. Masalan, *hashar, qo'shnichilik, to'y va aza marosimlari* kabi. O'zbek xalqida mahallaga oliy qadriyat sifatida qaraladi. Mahalla rahbari (oqsoqol, rais) mahalladagi har bir jarayon uchun javobgar hisoblanadi. Mahalla tarbiya maskani ekanligini "*Bir bolaga yetti mahalla ota-ona*" [14] maqolidan ham bilish mumkin. Xalqimizda mahallaga milliy qadriyatlar maskani sifatida qaralishi omma nutqida "*Mahalla-ko'y nima deydi?*", "*Mahallada duvo-duvo gap*", "*Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi*", "*Yetti mahalla eshitdi/eshitsin*", "*Bir qizga yetti qo'shni – ota-ona*" singari ajralmas birliklar shaklida yuzaga kelgan jummalarni qo'llanilishiga sabab bo'ldi. *Mahalla* leksemasining milliylik semasi "qo'shnichilik" bilan bog'liq an'analarda yanada oydinlashadi. Jumladan, "*Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shning yaxshi*" maqolida turli marosimlarda mahalla ahlining bir-biriga suyanishi, biror oilada yuz beruvchi mushkulotga mahalladagi qo'shnilarning dastlabki ko'makchi bo'lib turishi bilan bog'liq qadriyatlar ifoda etilgan. Mazkur jarayonlarda mahallada o'zbekona qadriyatlar poydevori bo'lgan ahillikni ko'ramiz. Umumnutq doirasida odamlar jamoasi va mavzesiga ishora qiluvchi mazkur leksema siyosiy matn tarkibida qarorlar ijrosi ta'minlanadigan, markazlashgan boshqaruvning dastlabki bosqichi sifatida qaralganligini ko'ramiz. Masalan, *mahallalar kesimida ishlash, mahallabay ishlash; ... barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi shart* (ЯЎТС, 440).

Duogo'y leksemasi arab tilidan olingan bo'lib, *duo* leksemasi asosida shakllangan. Mazkur leksema "duo qiluvchi", "duo o'quvchi" semalarini anglatadi. Turli uslub doirasida *duogo'y* leksemasining turfa ma'nolarni ifodalab kelishini ko'rish mumkin. Masalan, 1. Duo qiluvchi; 2. Issiq-sovuq qiluvchi, azayimxon; 3. Kishiga yaxshilik tilovchi, mehribon (ЎТИА, I, 666). Tilshunos N.Amanlikova *duogo'y* leksemasining etimologik, semantik xususiyatlari haqida quyidagicha fikrlarni bildirib o'tgan: "O'zbek tilida, odatda, yosh jihatidan chegaralangan, asosan, yoshi katta, ma'lum turmush tajribasiga ega bo'lgan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Badiiy matnda yoshlarga nisbatan qo'llanilish holatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur leksemalarning "O'tkan kunlar" qahramoni Otabek ta'rifida ishlatilishi bunga misoldir. Bu o'rinda shaxsning yosh bo'lishiga qaramasdan, dono, aqlli ekanligi ta'sirchan ifoda etiladi" [12, 55-56]. D.Ashurov "Alpomish" dostonining madaniy tahlilini qilish asnosida duolarni sof xalqona milliylikni ko'rsatuvchi lingvokulturremalar sifatida bir necha turlarini farqlagan: "*duoyi xayr (olqish), duoyibad (qarg'ish), duoyi fotiha (bir ishni boshlash uchun), dam duo (Qur'on suralaridan ayrimlarini o'qib, dam solinadigan duo: inson taqdiriga ta'sir etishi uchun turli buyum, suratlarga solinadigan va islom dinida qoralanadigan*

duo)” [13,39]. *Duo* leksemasi doirasida lingvomadaniy jarayonlar bilan bog‘liq “dasturxonga duo bermoq (oilada, to‘y-marosimlarida mehmondorchilikning boshlanish va tugash qismida); kimgadir duo bermoq (safarga ketayotgan, yangi hayot boshlayotgan (kelin va kuyovga), yangi jarayon bilan shug‘ullanish arafasida turgan shaxslarga); duo olmoq (kimnidir xursand qilgan, rozi qilib duosini olgan, farzandni ota-onasidan duo olishi – ayni bir vaziyatdagi emas butun hayoti davomidagi faoliyatining ijobiy natijasi)” kabi jumlar milliy qadriyat sifatida shakllangan. *Duo* lingvokulturemasi asosida maqollar ham shakllangan. Masalan, “*Oltin olma duo ol*”; “*Duo olgan omondir, qarq‘ish olgan yomondir*” kabi maqollar *duo* leksemasining milliy-madaniy semasini ochib berishda ishtirok eta oladi. Mazkur birliklarning genezisiga nazar soladigan bo‘lsak, ularning o‘zbek xalqi diniy dunyoqarashi bilan bog‘liqligi va xalqimizda bir qator qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Asarda mazkur leksemani quyidagi shaklda uchrashini kuzatamiz: “...*duogo‘y otaxon va onaxonlarimizni e‘zozlash, ularni hayotdan rozi qilish, umrlarini uzaytirish eng ulug‘ qadriyatlarimizdan biri bo‘lib kelmoqda*” (RʼTC, 249). Matnda *duogo‘y* leksemasi o‘zbek xalqida oila kattalarini hurmat-ehtiromla qilish, otaxon va onaxonlarimizga xos doimo farzand va nabiralarga yaxshilik tilash, mehribonlik qilish xislatlari asrlar davomida avlodlar avlodga meros bo‘lib kelayotgan, odatda, ota-onalarimiz va qariyalar tiliga xos leksik birlik sifatida qo‘llanilgan.

Beshik leksemasi o‘zbek xalqining tarixi bilan bog‘liq ko‘chma ma‘nolarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy-madaniy ma‘noga ega lakuna hisoblanadi. *Beshik* leksemasi lug‘atlarda “chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog‘ochdan yasalgan yo‘rg‘a oyoqli maxsus moslama; tebratma belanchak. Ko‘chma ma‘noda biror narsaning, voqea-hodisaning tug‘ilgan yeri, makoni, manbai” (ЎТИА, I, 666) sifatida izohlanadi. Xalq orasida mazkur leksema bilan bog‘liq turli lingvomadaniy tushunchalar shakllangan. Masalan, *beshikkerti* – chaqaloqlarni beshikda yotgan paytidan unashirib qo‘yish odati; *beshikasbob* – beshik uchun kerakli jihozlar; *beshikto‘yi* – asosan katta farzand tug‘ilgan paytda o‘tkaziladigan marosim kabi odatlar mavjud. Asrlar davomida hayot haqiqatlarini xulosa shaklida bayon qiluvchi paremiologik birliklar: “*Beshikdan to qabrgacha ilm izla*”, “*Beshikda tekkan, kafanda ketar*” (“payt” semasi), “*Inoq oilada beshik bo‘shamas*” (“serfarzandlik”), “*Ona yering – oltin beshiging*” (“makon, joy”) kabilar turli nutqiy vaziyatlarda *beshik* leksemasining milliy koloritlarini ko‘rsatib beradi. Yurtimiz tarixan *bola* va *beshik* leksemalarini o‘zaro muqobil, bir-birini “chaqiruvchi” birliklar sifatida qo‘llab kelgan. Mazkur leksemalar ifodalagan tushuncha xalqimizning etnik turmush-tarzi bilan uzviy bog‘liq. Onalarimiz beshikda yotgan bola alpqomat va sog‘lom bo‘lishiga ishongan. Shuning uchun ham “*Beshik bolasi, bek bolasi*”, “*Beshikdagi bolaning bek bo‘larin kim bilar*” shaklidagi paremiologik

birliklar yuzaga kelgan deyish mumkin. Bu kabi milliy qadriyatlarimiz beshikni farzand ramziga aylantirdi.

Beshik bilan bog‘liq turfa odatlar mavjud bo‘lib, mamlakatimizning ayrim hududlarida bola ilk bor beshikka belanganda beshik ustida turgan onaga non tishlatib, ustiga ko‘rpa yopiladi va bu farzandni “aziz-u mukarram hamda og‘ir-bosiq tabiatli” bo‘lishiga nisbatan ishonchni ifodalagan. Umumnutqda emotsional ifodaga ega “*beshigini tebratmoq*” frazemasi *beshik* leksemasining go‘daklik paytida ishlatilishiga, shaxsning yangi tug‘ilgan paytiga, yoshligiga ishora qiladi. O‘zbek millati nutqida mazkur frazema ishtirokida shakllangan barqaror birikmalar sirasida “*beshigini tebratmoq*” birligi turfa nutqiy vaziyatda turlicha uslubiy xususiyatga ega bo‘ladi. Jumladan, “go‘dakligidan katta qilgan” ma‘nosida qo‘llash orqali oila kattalarini e‘zozlash qadriyati o‘zbek millati mentalitetida qat‘iy qoida shaklida amal qilishi nazarda tutilsa, tarixan “biror jarayonni boshlash, tashkil etish, faoliyatni yo‘lga qo‘yish” ma‘nosida ham qo‘llanilib kelingan o‘rinlar ham mavjud. Ayrim nutqiy vaziyatda esa salbiy ma‘noni ifodalashini kuzatish mumkin. Bunday holatdagi ifoda shakli metonimik ko‘chimga asoslangan bo‘ladi. Siyosiy matnlarda mazkur leksemaning qanday ma‘no ifodalab kelganligini tahlillar orqali ko‘rib chiqish muhimdir. “*Bizning mamlakatimiz, jumladan, bugungi O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi*” (RʼTC, 33). *Beshik* leksemasi o‘z ma‘nosida qo‘llanilganda milliy-madaniy sema to‘lig‘icha anglashilib turadi. Leksemaning ustama semasi uning asl semasi ustida shakllanadi, biroq yangi ma‘noda ham milliy sema yo‘qolib ketmaydi. Asarda *beshik* leksemasini aynan milliy-madaniy ma‘no ifodalovchi lingvokulturema emas, atrofida u bilan bog‘liq shakllangan, assotsiativ munosabatdagi yangi semantik tarkibga ega birlik sifatida baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Shunday ekan matnda “go‘dak yotishi uchun tayyorlanadigan buyum” semasida emas, “inson hayotining tarixi go‘daklik davridan boshlanishi” hamda “tarixiylik” semasi bilan umumiylishishi va makonga ishora qilishini mazkur jumla mazmunidan bilish mumkin.

Matnda qo‘llanilgan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik yangi birliklardan biri sifatida *yashil belbog‘* birikmaviy ifodasini keltirish mumkin. Madaniy kodga ega *belbog‘* leksemasi asar matnida qanday vazifa bajarganligini aniqlash uchun mazkur birlikning yuzaga kelish tarixi va sababiga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik. SHHT dasturlaridan birining nomi bo‘lgan bu birlik ma‘lum siyosiy jarayonga nom sifatida ilk bor 1930-yillarda Londonda yuzaga kelgan. Buyuk Britaniya va Angliyada aholi sonining ko‘payishi yangi yerlarga bo‘lgan ehtiyoj va yerdan samarali foydalanish maqsadi jamiyatda mazkur birlikni shakllanishiga sabab bo‘lgan [14]. Tabiatni aslida saqlab qolishga bo‘lgan siyosiy harakatlar XIX asrda “ochiq maydonlar”, XX asrda “yashil o‘pka” kabi tushunchalarni shakllanishiga sabab bo‘lgan tashqi omillardan biri

ekanligini ta'kidlash mumkin. Ularning bugungi kundagi terminologik varianti sifatida Yevropada "green belt" ("yashil kamar") atamasi qo'llanilmoqda. Birikmaning qismi bo'lgan *belbog'* leksemasida milliylik semasi saqlanib qolganligini aniqlashdan avval uning etimologik jihatdan yoritish o'rinli bo'ladi.

Belbog' leksemasi *bel* va *bog'/bog'lam* leksemalarining birikishidan hosil bo'lgan. *Belbog'* o'zbek xalqining milliy kiyimlaridan biri bo'lib, lug'atlarimizda quyidagicha izohlanadi: 1. Milliy kiyim (o'zbek millatining to'y va aza marosimlarini ifodalash belgisi mavjudlik); 2. Xalq orasida "belida *belbog'i* bor" – haqiqiy er yigitlarga nisbatan qo'llaniluvchi xususiyat (ЎТИА, I, 220). Mazkur leksemaning yana bir semasi haqida M.Asomiddinova shunday deydi: "*Belbog' XI asr tilida qur, qurshag' so'zlari bilan ifodalangan. Aslida qurshag', qurshamoq fe'llaridan olingan bo'lib, "Devonu lug'otit turk" da bu leksema o'tov ustidan aylantirib bog'lanadigan jiyak, o'tov jiyagi, arqoni ma'nolarida ham qo'llanilgan*" [2,34]. Mazkur semada ham bog'lashga xizmat qiluvchi predmetlikka ishora mavjud. Tilshunos D.Rustamov *belbog'* leksemasining barcha semalari lingvomadaniy xususiyatga egaligini ta'kidlaydi [10,4]. Xususan, *belida belbog'i bor* – o'zbek millatida erkaklarning kiyimi ekanligiga asoslanib "erkak" degan semada qo'llanilib, erkaklar milliy libosining ajralmas bir qismi hisoblanadi. *Belbog'* erkaklargagina xos bo'lganligi tufayli lingvomadaniy birliklarda *belbog'* leksemasining aynan "erlik" ramzi semasi faollashgan. *Belbog'* leksemasi "erlik" semasi uchun kodlashgandir. Xalqimizda to'y marosimlarida "qamishdan *belbog' bog'lab xizmat qilish*" frazemasi ham aynan erkaklarga nisbatan qo'llanilib, bunda mazkur frazemada *belbog'* leksemasiga vazifadosh shaklda *qamish* leksemasining qo'llanilishi orqali "baquvvatlik" va "mustahkamlik" semalari emas, "qattiq,

jarayon so'nggiga qadar sabot bilan amalga oshiriladigan ko'mak"ni ifodalaganligini ko'rish mumkin. Lingvomadaniy xususiyatga ega *belbog'* leksemasi tarkibidagi xalqning o'ziga xos etnik belgilarini ko'rsatib beruvchi semalar *yashil belbog'* birligida ham mavjuddir. Demak, bu holat lug'at tarkibida yangicha ifoda paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Asarda mazkur birlikni quyidagi shaklda izohlash orqali *belbog'* leksemasining ma'nosini aniqlash mumkin: *yashil* – "tabiiy"; *belbog'* – "geografik makon, hudud, joy va ushbu hududdagi qonunan belgilangan chiziq, chegara" kabi. Yoki quyidagi izohga asoslangan holda ta'rif berishimiz ham mumkin. "Har narsaning o'rta belidan o'tgan faraziy chiziq yoki halqa" (ЎТИА, I, 126). Ushbu ta'rifdagi "chiziqlik" ma'nosi *yashil belbog'* birikmasi tarkibida mavjud va ayni kalkalangan variantdagi tushunchaga ham monandir.

Xulosalar.

Mazkur tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, lingvomadaniy birliklar har qanday kontekst tarkibida o'z milliy ma'nosini saqlab qolish bilan birga kontekst mazmuniga moslashib yangi ustama semalarga ega bo'lish, qo'llanish doirasi kengayish imkoniyatiga ega ekan. Lingvomadaniy birliklarning siyosiy muloqotlarni kuchaytirish, ma'no va tasvirlarni ranglantirish, siyosiy tushunchalarni xalq tushunchalariga qorishiq ifodalash, axborotni xalqchil ommaga yetkazishda qo'llaniladi. Ulardan samarali foydalanish siyosiy matnni tushuntirish, tushunish kuchini va ta'sirini oshiradi. Umuman olganda, siyosiy matnlardagi lingvokulturemalarni o'rganish til, madaniyat va siyosat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga yordam beradi. Siyosiy nutqni shakllantirish va ta'sir qilish usullari haqida tushuncha beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021.
2. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент, Фан, 1981. – Б.34.
3. Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и её эксперссивно-оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – М., 1988.
4. Воробьев В.В. Теоретические и прикладные аспекты лингвокультурологии. Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1996.
5. Копыленко М.М. Социальное и этническое в языке (очерк взаимодействия). Облик слова. Сб.статей памяти Д.Н.Шмелёва. – М., 1997.
6. Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997.
7. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013
8. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012.
9. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013.
10. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015.
11. Рустамов Д. Лексемалар миллий-маданий хосланган семасининг лингвомаданий аспекти: Филология фанлари бўйича фалсафа докт (PhD) ... дисс. – Farg'ona, 2018.
12. Тожибоев В. О'zbek tilida so'zning assosiativ ma'no strukturasi. Monografiya. – Toshkent, Mahalla va Oila, 2021.

12. Amanlikova N. O'zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari. Monografiya. – Toshkent: Transport, 2021.

13. Ashurov D. “Alpomish” dostonining lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. fals. doktori (PhD) ...diss. – Namangan, 2021.

14. Internet ma'lumotlari:

<https://www.historytoday.com/green-belt>. (Murojaat etilgan sana: 15.08.2022);

<https://e-library.namdu.uz/NamDU>. Ismoilov T. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. (Murojaat etilgan sana: 20.10.23);

http://yspu.yar.ru/vestnik/novye_Issledovaniy/27_4/. (Murojaat etilgan sana: 10.07.23);

http://yspu.yar.ru/vestnik/novye_Issledovaniy/27_4/. (Murojaat etilgan sana: 10.07.23);

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abdullayeva Soxibaxon Olimbek qizi
Namangan davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
e-mail: Abdullayevas191@gmail.com

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA MASALLAR VA ULARDAGI RAMZLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Simvolizm adabiyotning poydevori bo'lib xizmat qiladi va hayotning murakkabliklarini o'rganish uchun nozik ob'ektlarni taklif qiladi. Bu tadqiqotda adabiy asarlarda ramziylikning ko'p qirrali o'rni o'rganilib, uning o'zbek adabiyotida namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda Dilmurod Qur'onov, M.Yo'ldoshev, L.Reznikov kabi olimlarning fikr-mulohazalari asosida timsolning ta'rifi va talqini chuqur o'rganilib, uning axloqiy, ijtimoiy va har tomonlama tahlil qilish orqali tadqiqot turli adabiy janrlarda timsollarning keng qo'llanilishini ochib beradi, uning qadimgi folklordan zamonaviy iboralargacha bo'lgan evolyutsiyasini yoritadi.

Kalit so'zlar: ramz, masal, badiiy obraz, syujet, Gulxaniy, "Zarbulmasal", Krilov, Ezop.

Абдуллаева Сохибахон Олимбек кызы
научный сотрудник Наманганского
государственного университета

ХАРАКТЕРИСТИКА БАСНЕЙ И ИХ СИМВОЛИКОВ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. Символизм служит основой литературы и предлагает тонкую призму, через которую можно исследовать сложности жизни. В данном исследовании изучается многогранная роль символизма в литературных произведениях, особое внимание уделяется его проявлению в узбекской литературе. Основываясь на мнениях таких учёных, как Дильмурод Куронов, М. Ёлдошев, Л. Резников, в исследовании глубоко изучено определение и трактовка символа, а посредством его нравственного, социального и всестороннего анализа выявлено широкое использование символа. символы в различных литературных жанрах, от древнего фольклора до современного, освещает его эволюцию во фразах.

Ключевые слова: символ, басня, литературный персонаж, система, Гюльхани «Зарбулмасал», Крылов, Эзоп.

Abdullayeva Sokhibakhon Olimbek kizi
Researcher of Namangan State University

CHARACTERISTICS OF FABLES AND THEIR SYMBOLS IN EASTERN AND WESTERN LITERATURE

Abstract. Symbolism serves as a foundation in literature and offers a subtle lens through which to explore the complexities of life. In this study, the multifaceted role of symbolism in literary works is studied, and special attention is paid to its manifestation in Uzbek literature. Based on the opinions of scientists such as Dilmurod Kuronov, M. Yoldoshev, L. Reznikov, the definition and interpretation of the symbol is deeply studied in the research, and its moral, social and psychological aspects are studied through a comprehensive analysis, the study reveals the widespread use of symbols in various literary genres, illuminating its evolution from ancient folklore to modern expressions.

Key words: symbol, fable, literary character, system, Gulkhani "Zarbulmasal", Krilov, Esop.

Kirish.

Adabiyot-hayotning badiiy in'ikosidir [5.30-bet]. Badiiy asarda hayot obrazlar vositasida ifodalanadi. Bu obrazlar gohida hayotda uchrovchi insonlarning tipiklashtirilgan obrazlari, prototiplari bo'lsa, shu bilan bir qatorda, adabiyotlarda uchrovchi hayvonlar, qurt-qumursqalar, qushlar-tabiatdagi jamiki jonzoqlar ham

voqelikni ochib berish uchun xizmat qiladi. Badiiy asarda uchrovchi hayvonlar, qushlar va boshqa jonzoqlar asarda badiiy ifodalikni oshirish va hayotiy voqelikni majoziy ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Majoziylikni ifodalashda ko'chimlar, ayniqsa, ramzlar keng qo'llaniladi va uni masal yoki ertaklardagi yetakchi ko'chimlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqotda uslubiy yondashuv adabiy timsolni har tomonlama tahlil qilishni, xususan, o'zbek adabiyotida timsollardan foydalanishga e'tiborni qaratishni nazarda tutadi. Dilmurod Quronov, M.Yo'ldoshev, L.Reznikov kabi turli olimlar tomonidan berilgan ta'rif va talqinlar timsollarning adabiyotdagi mohiyati va vazifalarini tushunish uchun ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ramzga quyidagicha ta'rif berilgan: Ramz (arabcha "ishora qilmoq") badiiy adabiyotda voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan biri. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'pma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmuni ifodalaydi. Masalan, sher-mardlik, tulki-makkorlik, bo'ri ochko'zlik va boshqalar [8.59-b]

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov ramzga quyidagi ta'rif beradi: "Ramz (arabcha-imo, ishora, imlash) simvol, ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z birikmasi, obrazlilik turi" [1. 245-246-bet].

Tilshunos olim M Yo'ldoshev esa "Ramz-badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatilishi" [7. 130-bet], deb ta'rif beradi.

Rus olimi L.Reznikov ta'kidlashicha, "ramz belgining o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan alohida turi hisoblanadi. Ramz tashqi hodisa bo'lib, shartli, lekin o'zining yaqqol obrazi orqali boshqa ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Ramz o'zi aniq, lekin u ifodalayotgan tushuncha u yoki bu ma'noda mavxumdir [4. 304-b].

Ramzlardan adabiyotning barcha janrlari-lirik, epik va dramatik asarlarda keng foydalanilsa-da, ular, aksariyat hollarda, masal va ertaklarda asosiy ko'chim vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, masal janrining kelib chiqishi eramizdan oldingi I asrga, Ezop masallariga borib taqaladi. "Masal janri II asrlarda Babriy, Rimda Fyodr (eramizning I asri) Avian (IV asr) tomonidan rivojlantirildi. Masal janri taraqqiyotiga fransuz masalchisi Lafonten (XVII), rus masalchisi I.A.Krilov, Daniyalik masalchisi Golberg (XVIII), Olmoniyalik masalchi Lessing (XIX) katta hissa qo'shdilar [6. 304-bet]".

Masal janri nafaqat g'arbda balki, sharqda ham keng rivojlangan. Bunga misol tariqasida Navoiyning "Hayrat ul-abror", Gulxaniyning "Zarbulmasal"i, ni aytib o'tish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, masal janri keng tarbiyaviy ahamiyatga ega va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi janrdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, timsollar, xususan, hayvon va qushlardan foydalanish orqali turli adabiy janrlarda,

jumladan, lirik, epik va dramatik asarlarda keng qo'llaniladi. Tadqiqot adabiyotda ramziylik evolyutsiyasini yoritib beradi, uning ildizlarini qadimgi folkloridan hozirgi adabiy iboralargacha izlaydi. O'zbek adabiyotidan, xususan, Gulxaniy ijodidan namunalar ramziy tasvirlar jamiyat muammolari, axloqiy ikkilanishlar, inson tabiatini tasvirlashda qanday xizmat qilishini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar.

Muhokama adabiy asarlarda ramziylikning ahamiyatini chuqurroq ochib beradi, uning axloqiy saboqlar, ijtimoiy sharhlar va psixologik tushunchalarni etkazishdagi rolini ta'kidlaydi. Sharq va G'arb adabiy an'analari o'rtasidagi qiyoslar chizilgan, ramzlardan foydalanishdagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatilgan. Muhokama Gulxaniy va Ivan Krilov kabi aniq adabiy asarlarni tahlil qilish orqali hayvonlar va qushlar kabi ramzlarning jamiyat normalari, insoniy xulq-atvori va axloqiy qadriyatlarini tanqid qilishda qanday qo'llanilishini o'rganadi.

Masallarning o'zagini ramz tashkil qiladi. Masallar orqali jamiyatdagi turli xil illatlar kishilar o'rtasidagi muammoli vaziyatlar, illatlar, kamchilik va nuqsonlarga oyna tutib beriladi, ulardan tegishli xulosalar chiqariladi. Garchi Sharq va G'arb masalchiligida turli ramziy obrazlar turlicha yuk tashisada, ularni alohida tahlil qilinsa, sharq masalchiligida, ayniqsa, Gulxaniyning "Zarbulmasal"ida, kishilar xulq atvori, turmush tarzi ifodalaniib kelgan, g'arb masalchiligida, masalan, Ezop, Ivan Krilov masallarida esa ramziy obrazlar orqali insonlar kamchiliklari, illatlarini ifodalab bergan.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida barcha masallar tizimli syujetga asoslangan, va murakkab kompozitsiyaga ega. Asarda Gulxaniy o'z davrining eng aktual masalarini badiiy ifodalab beradi, feodal tizim, uning chirib borishi, odamlarning xulq-atvori tanazzuli, mamlakatning vayronligi ramziy obrazlar orqali ifodalab berilgan. Garchi, asosiy qahramonlari qushlar bo'lsada, asarda yana boshqa hayvonlar tuya, maymun, tulki, eshaklar va hattoki hasharotlarni ham uchratishimiz mumkin (chayon). Bu obrazlarning har biri insonlarga xos harakterlar, turmush tarzini ifodalaydi. Asarda tasvirlanib kelingan har bir obrazlar-qushlar, hayvonlar, hasharotlar-barchasi o'z obrazi orqali yaramas kishilar illatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Boyo'g'li, Kordon va Yapaloqqush ramzlari jamiyatdagi feodallarga xos ochko'zlik, maqtanchoqlik, shuxratparastlik kabi salbiy xususiyatlarni ifodalasa, yana bir boshqa hayvonlar orqali yalqovlik, kaltabinlik, farosatsizlik, manmanlik ramzi bo'lib xizmat qiladi. Bu xususiyatlar ba'zi o'rinlarda qahramonlarning tasviri bilan ochib berilsa, ba'zi o'rinlarda masal so'ngida xulosani o'quvchi chiqaradi.

Masalan, ijobiy fazilatlarini ulug'lovchi va yovuzlikni fosh etuvchi "Tuya bilan bo'taloq [2.17-18-bet]" masalida tuya obrazi orqali erki bo'lmagan, feodallarga qaram

bo'lgan insonlarni tasvirlab kelgan va bu ramzi orqali feodallarni kambag'allarga nisbatan rahm-shavqatli, saxovatli bo'lishga chaqiradi. Gulxaniy ushbu masalida "oilasi katta, lekin kulbasida ozuqadan boshqa narsa yo'q"ligini tasvirlash orqali sarbon yashayotga jamiyatda yashashning og'irligini tasvirlaydi. Shu bilan bir qatorda jazirama faslda onasining orqasidan bo'zlab borayotgan bo'taloq, hamda o'zida zarracha ham ixtiyori bo'lmagani sababli bolasini to'ydira olmayotgan ona tuya ramzlari yordami bilan shoir ana shu jamiyatda "qo'lidan hech narsa kelmayotgan qora xalqni arqonda yetaklanayotgan tuya singari jamiyatning oqimiga qo'shilib, hayotini o'zgartirish qo'lidan kelmaydi [2.17-18-bet]", deya tasvirlanadi.

Gulxaniy sarbon, tuya va bo'taloq ramzlaridan o'zi yashayotgan jamiyatdagi tengsizlikni, og'ir va mashaqqatli mehnatni tasvirlaydi. Bunda sarbon o'z g'amidan boshqani o'ylamaydigan amaldorlar, og'ir yuk ostida bo'lgan tuya va ona sutidan mahrum bo'taloq esa kuni qiyinchilida o'tayotgan, hayoti yorug'likka chiqmayotgan va og'ir mehnatda yashasa-da o'zi istagan hayotiga yetisha olmayotgan odamlarni ramziy obrazi bo'lib xizmat qiladi.

Gulxaniyning "Maymun va najjor [2.15-16-bet]" masalida esa yozuvchi kasb-hunar egalari ko'klarga ko'taradi, qo'lidan ish kelmasa-da, uni sirini bilmasdan bajarishga uringan va natijada kulgu ostida qolgan odamlarni tanqid qiladi.

Masal Hudhud tilidan Yapaloqqushni sovchilikka kelganini tanqid qilish uchun berilgan, unda najjorning shu darajada hunarining ustasi ekanligini uni Farhodga mengzashidan ma'lum bo'ladi.

"...Shaxrning zindonidin ozod o'lub,

Tog'ning Shirinig'a Farhod o'lub...[2.16-bet]"

Lekin, o'zini najjorga qiyoslagan, biroq, u kabi hunarmand emasligini tan olmagan maymun oxir-oqibatda jismoniy jazo olib sharmanda bo'lgani qoladi. Bu masal tarbiyaviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lib, najjor ramzi orqali hunar egalari ko'rsatib berilgan bo'lsa, maymun timsoli orqali esa ishning mohiyatini bilmasdan, uni pala-partish bajaruvchi va oxirida sharmanda bo'luvchi insonlar ko'rsatib beriladi.

Gulxaniyning "Toshbaqa bilan chayon [2.32-bet]" masalida esa bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki obraz berilgan: toshbaqa-aqlli, farosatli, safarlarda ko'p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do'st timsoli, chayon esa uning ziddi. U boshqalarga yomonlik qilishdan huzur qiladi, yaxshilikni bilmaydigan kimsalarning ramziy obrazidir.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida berilgan masallardagi ramziy obrazlarni tahlil qilganimizda unda qisqa masallar va kam sonli obrazlar orqali tarbiyaviy-axloqiy masalalar, jamiyatdagi muammolar ko'tarilib chiqilganini ko'rishimiz mumkin.

G'arb adabiyotida yozilgan masallar esa Gulxaniy masallaridan shakl jihatidan bir muncha farq qiladi, desak

mubolag'a bo'lmaydi. Ezop masallari qisqa va lo'nda, shu bilan bir qatorda xulosa masal yakunida berib o'tiladi. Krilov masallarining deyarli barchasi she'riy shaklga solingan. Ammo, masallardagi keltirilgan ramziy obrazlarga qaradigan bo'lsak, Ezop masallarida, hayvonlardan tortib, yunon xudolarini ham uchratishimiz mumkin.

Misol uchun, Ezopning "Tulki va echki [10. 7]" masalida o'raga tushib ketgan tulki ayyorlik bilan yo'ldan o'tib ketayotgan echkini aldab, uni ustidan sakrab o'radan chiqib ketadi. Birovning maslahatiga quloq solib, o'zi qiyin vaziyatga tushib qolgan odamlarni echki obrazi bilan tasvirlasa, tulki har doimgidek ayyor odamlar ramzini ifodalab kelgan. "Tulki va uzum [10.6]" masalida esa, tulki ramzi o'zi uddalay olmayotgan va bu uchun vaziyatni doim aybdor qilib ko'rsatuvchi odamlarni tasvirlasa, "Dumsiz tulki [10.8]" masala orqali bu ramziy obrazi bilan yaqin odamlari manfaatini emas, faqat o'zini shaxsiy manfaatini o'ylab boshqalarga maslahat beruvchi insonlarning harakterini ochib beradi.

G'arb adabiyotining yana bir mashxur masalnavisi, Krilov, o'z masallarini hayotida ko'rgan voqea-hodisalarga asoslagan holda yozadi. U Ezop va boshqa G'arb adabiyotining masalnavislarining ijodini o'rganib, ularning syujetidan foydalangan holda, rus voqeligi bilan bog'liq holda masallar yaratadi [3. 5-6-bet]. Ivan Krilov o'z masallari bilan jahon masalchilik an'anasini yuqori cho'qqiga olib chiqadi. Uning masallari xalqchil bo'lib, unda u xushomadgo'y, bilimga befarq, nodon, ikkiyuzlamachi, noshud odamlarni ko'rsatib beradi.

Masalan, "Tuxmatchi va ilon" [3.8-bet] masalida Krilov, tuxmatchilik qanday yomon illat ekanligini do'zaxda hattoki ilon ham tuxmatchilarga yo'l berganidan ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, asarlarda ilon obrazi bir-biriga umuman qarama-qarshi bo'lgan insonga xos harakterni ochish uchun xizmat qiladi. Ularning biri donolik bo'lsa, ikkinchisi insonlarga yomonlik qilishdan qaytmaydigan odamlar ham ilonga o'xshatiladi, xattoki, tilimizda "ilonni yog'ini yalagan" sifatini boshqalarga har qanday usulda bo'lsa ham yomonlik qiladigan odamlar uchun ishlatiladi. Krilov ilondan ham yomonroq odamlar borligini masalga ilon ramzini kiritish orqali yoritib beradi.

Tulki obrazini boshqa masalnavislar masallarida uchratganimizdek, Krilov masallarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning "Tulki va qarg'a" [3. 15-bet] masalida tulki ayyor, ishini qanday usulda bo'lsa ham yakunlash uchun yolg'ondan ham tiyilmaydigan odamlarni ko'rsatiladi. Qarg'a ramziy obrazi bilan esa xushomad va maqtovga och va natijada ayyor odamning tuzog'iga tushib qolgan odamlarni tasvirlaydi. Xuddi shunday tulki ramziy obrazi uning boshqa masali "Tulki va uzum" masalida ham uchraydi. Shunday zaif odamlar borki, ular o'z maqsadiga erisha olmay, butun muammo o'zlarida — dangasalik va qo'rqqoqlikda ekanini tan olish o'rniga, o'zlari xohlagan narsadan bahona yoki qandaydir nuqson izlay

boshlaydilar. Bunday odamlarni Krilov shunchaki tulki bilan solishtirmaydi. Bu g'alati, ayyor, o'z-o'zidan biror narsa yaratishga qodir emas, boshqalar yaratgan narsadan yashashga odatlangan xususiyatlariga ega hayvon. Muallif ushbu masali bilan maqsadga erishish uchun unga intilish va harakat qilish kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu ertakdagi tulki uzum atrofida aylanib yurdi va uni olish uchun deyarli hech narsa qilmadi. Muallif odamlardagi dangasalikni, ularning muvaffaqiyatsizliklariga bahona izlashni masxara qiladi [9].

Krilovning mashxur "Kvartet" [8] masali esa aslida har qanday ishda insonning qobiliyati, bilimi va tajribasi muhim ahamiyatga egaligini, mahorat va musiqiy bilimga ega bo'lmasa, ayiq (shuningdek, eshak, echki va maymun) nota va asboblarni ming xil uslubda taxlab chiqishsa ham, yaxshi musiqachi bo'la olmasligini ta'kidlasa-da, uning zamondoshlari bu masalni Davlat Kengashining to'rtta bo'limi rahbarlarini, ularning o'zaro hamkorlikdagi sa'y-

harakatlarini muvofiqlashtira olmaganliklarini tanqid qilgan yoki Krilov „Ruscha so'zni sevuvchilarning suhbatı“ adabiy to'garagi yig'ilishlari raislarini masxara qilgan, deb taxmin qilishgan, sababi bu rahbarlar ham masaldagi hayvonlar singari to'rtta bo'lgan deyishadi [8]. Umuman olganda Krilov masallarida hayotiylik, o'zi yashagan davr nafasi ufurib turadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot badiiy ifoda va ijtimoiy aks ettirish uchun kuchli vosita sifatida adabiyotda ramziylikning doimiy dolzarbligini ta'kidlaydi. Ramziy tasvirlar adabiy rivoyatlarni boyitishda davom etib, o'quvchilarga insoniy holat va borliq murakkabliklari haqida chuqur tushunchalar beradi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar turli madaniyatlar va davrlardagi adabiy simvolizmning madaniy, falsafiy va psixologik jihatlarini tushunishimizni chuqurlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. Akademnashr-2013. 245-246-b
2. Gulxaniy. Zarbulmasal. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent-1972.
3. I.A.Krilov. Masallar. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
4. Резников Л.О. Гнесиологические вопросы семиотики. М., 1979. – 304 бет.
5. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent-2002. 30-bet
6. Xolmatov Sh.K. Adabiy janrlar poetikasi (Masal janri). [leksiya tekstlari] - Samarqand, 1980.
7. Ўйдошев М.М. Бадий матнинг лисоний таҳлили: Методик қўлланма. – Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий Кутубхона нашриёти, 2010. –130б.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-O'zbekiston Davlat nashriyoti.-2004. 7-jild.

Axborot resurs-manbaalari

9. Kvartet masali - Vikipediya (wikipedia.org)
10. Tulki va uzum“ masali - Vikipediya (wikipedia.org)
11. www.kitob.uz.- Respublika bolalar kutubxonasi

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Kasimova Ra'no Raxmatulloeva
f.f.f.d. (PhD), Buxoro davlat universiteti
Ingliz adabiyotshunosligi va
tarjimashunoslik kafedrasida dotsenti
e-mail: r.r.kasimova@buxdu.uz

O'roqova Mexriniso O'ktamovna
Buxoro davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
e-mail:mehrinisooroqova@mail.ru

QAHRAMON PSIXOLOGIYASIGA NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda adabiyotshunoslikda dolzarb bo'lgan badiiy psixologizm tushunchasi va uning o'rganilish tarixi yoritib berilgan. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan va badiiy psixologizmga ta'rif bergan olimlar keltirilgan. Badiiy psixologizmni berish usullari, vositalari hamda turlari tahlil qilingan. Badiiy psixologizm adabiyotning turli janrlarda kelishi va uning asarga qilgan ta'siriga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, psixologiya, psixoanaliz, his-tuyg'ular, ichki olam, ruhiy olam, qahramon, roman, lirika.

Касимова Рано Рахматуллоевна
д.ф.ф.н. (PhD), доцент кафедры Английской
литературоведения и переводоведения
Бухарского государственного университета
Уракова Мехринисо Уктамовна
докторант Бухарского
государственного университета

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПСИХОЛОГИЮ ХАРАКТЕРА

Аннотация: В данной статье освещено понятие художественного психологизма, актуальное сегодня в литературоведении, и история его изучения. Перечислены ученые, проводившие исследования в этой области и определившие художественную психологию. Анализируются методы, средства и виды художественной психологии. Художественная психология акцентирует внимание на появлении литературы разных жанров и ее влиянии на произведение.

Ключевые слова: художественная психология, психология, психоанализ, чувства, внутренний мир, духовный мир, герой, роман, лирика.

Kasimova Rano Rakhmatulloeva
PhD in Philological Sciences,
Associate Professor, Bukhara State University,
English Literature and Translation Studies Department
Urakova Mekhriniso Uktamovna
PhD student of Bukhara State University

THEORETICAL VIEWS ON PSYCHOLOGY OF THE CHARACTER

Annotation: In this article, the concept of artistic psychologism, which is relevant today in literary studies, and the history of its study are highlighted. Scientists who conducted research in this field and defined artistic psychology are listed. Methods, tools and types of artistic psychology are analyzed. In the work, it is more paid attention that literary psychology may come in different genres and its effect in the work.

Key words: literary psychology, psychology, psychoanalysis, feelings, inner world, spiritual world, character, novel, lyrics.

Introduction.

Without knowing the social life, the characteristic of humans and the rules of art, it is difficult to write eternal piece of art. Readers can comprehend other person's life, their social life and heart with only one word in a literary work. Literary work is a product of the author's mind and the authors depict human and society's life and their destiny. The creator of work describe the events in the story that they happened in the past or may happen in the future in our life. The readers judge the problems of in the works. The themes and content of the novel are strongly connected with the period and society. The authors may just write some interesting events in some period, but such novels can not catch the attention of readers, using the different types of literary methods can help to achieve the degree of work of art. To unfold the characters in the story, the writer may use not only the literary elements, but also psychological elements.

Literature analysis.

Literary psychology is – describing intensely the soul of the heros, their inner world and their behavior. The term literary psychology is connected with the words psychological analysis, psychological description, psychological image, psychological novel, psychological story and psychology. As the literary scholar A.B.Yesin stated, literary psychology is expressing fully, in detail and deeply the characters' imaginary world, ideas, discussions using artistic literary elements [11]. The concept literary psychology was introduced in Russian literature about two hundred years ago. The scientists D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.A.Potebney, the literary scholars A.B.Yesin, M.M.Baxtin, D.S.Lixachev, JI.Ya.Ginzburg, psychologists G.G.Granik, I.V.Straxoviy, L.S.Vigotskiy, O.V.Soboleva researched in this field. The subject psychology is a complex branch that studies human and his inner world and it has its long history. The first views about psychology appeared about two thousand and half years ago.

Methods.

Any literary word, whether it is oral or written, it is important to effect person's spiritual-psychological world. If the literary work can not find its readers then it can not achieve its primary function. The literary work becomes alive, when it starts to communicate with the reader, acquires receptive essence. At this point, literary psychology starts to work. The writer's literary text, style of psychological expression can reach the reader.

Results.

Literary word describes and shows humans to themselves, that's why it is a circulatory process and it organizes following socio-historical, biographical, individual-psychological events, influencing from them and portraying. One may call the first one is a creative process and the second one is receptive process. Literary psychology is dialogic event and happens between two of them. The writer professor Abdurauf Fitrat expresses this

event clearly in the following statement: "Literature – expressing waves of thoughts and feelings with the help of words and sentences and creating the same waves in others". Professor A.Fitrat did not come this clearly definition at once of course. Indeed, literary psychology exists in Uzbek literature from ancient times. In the epics of Uzbek nations "Gorogli" and "Alpomish", psychological types are used to reveal characters' inner world and helped the novels to become materpieces. Especially it is mostly seen in the epics of "Gorogli". Each character show their personality while communicating with other characters. In particular, in the epic "Alpomish" literary psychology elements can be seen in the speeches of Boybo'ri, Alpomish, Boysari, Barchinoy, Qorajon, Qaldirg'och and Toychaxon. For example, Alpomish has given monologue before climbing the hill, it served to reveal his spiritual world. So, literary psychology has been existed since the literature started to describe the image of person. From that times, literature started to pay attention not the out sides of the heros, but their behavior, personality. This term is given as psychopoetics in the western literature. According to the statement of A.Potebnya, the images are crucial in literary works and any image or character has its own individual psychologic features. Jacques Lacan has said in his "psychoanalysis structure", psychological structure plays great role in the whole novel. Besides that the scientists Alfred Adler, Karl Jung, Rene Wellek, Austin Curren paid attention to literary psychology and creating poetic images in them. So, three issues effected greatly in literary psychology in the recent years and it has several social, literary-philosophical and psychological results.

- Firstly, several changes in our social life and formation of independent Uzbek society has increased to look at the human not as one piece of mechanism, but individual subject and person.

- Secondly, there appeared urge to form new ideal ethics in literary-ethics and to see the world with new sight.

- Thirdly, globalization effected not only the western literature, but also in Uzbek prose as well.

Observing the issues stated above one may say, the issue literary psychology has great cultural-historical, philosophical-psychological, artistic-aesthetic essence. It serves being important theory in modern literature. There is a need to generalize theoretical criteria and to determine new approaches in this field. It may be seen as the concept literary psychology is not enough clear in modern literature from semantic point of view. Researches use this term in their general and practical works. But, there are some positions their ideas may have some oppositions. Because literary psychology is considered to be one of the complex issues. From one side it demands to know much knowledge from many subjects (psychology, philosophy, aesthetics, literary studies) in studying this field and from other side it has connection with all main problems of literature. There are many research works and they may be studied from

many sides (theoretical, literary-historical, analytical), but there is lack of following issues:

- theoretical criteria have not been fully defined in literary psychology;

- changes in the principles of literary psychology, the nature of appearing differently in each period, literary environment, individual writer's works is neglected;

- terminological clarity is lacking. It is observed different definitions in various researches;

- there is no general diverse methodological approaches from methodological point of view;

The writer may describe the character's spirit directly or indirectly. The character thoughts, his feelings may be described by "inner monologue", "stream of consciousness" or by the expression of writer and it is called direct way. Expressing character's spirit by his behavior, his words, face-eyes expressions(mime), physiological changes is named indirect way. These two types fill each other, that's why the author uses both of them [12].

Literary psychology is a unique features of literature, it can reveal person's character, his inner world. One can observe masterpieces in A.Chexov, I.Turgenev, F.Dostoyevskiy, M.Lermontov, L.Tolstoy's works.

Professor H.Umurov states that, the terms "psychology", "inner world", "inner life", "spiritual world" can be used as synonyms [14]. Because all of them expresses person's subjective world, the feelings that can feel the person himself and others can feel it by signs, hints and symbols.

In literature psychology not only learns the spirits of characters in novel, but also pays attention to the inner world of the author and spiritual-moral world of the reader [7]. XXth century Uzbek writers paid partly attention to psychological elements, writers' psychology and psychoanalysis in their articles and research works.

The scholar Yokubjon Is'hokov researched literary psychology in Alisher Navai's "Xamsa" and said that, "In literature, psychology plays great role to create man's character, to reveal human's spiritual world. Psychology is one of the essential means of creating character" [15].

Literary psychology is mainly connected with literary image. Literary psychology also differs in literary types and genres. For example, lyric works fully describes man's inner world and spirit. That's why, literary psychology is in the central part in lyric works. In dramas,

the main element in producing character is the speech of hero, monologue and dialogues, that's why the authors mainly use the letters.

The author may use usual and unusual depicting means to show hero's spiritual condition, his inner feelings and life. Inner monologue (monologue discussion, monologue memory, monologue comment), the characterization of speech, words repetition, stream of consciousness, psychologic portrait (dynamic portrait and static portrait), and symbols are usual means. Unusual elements are hallucination, person's dilemma, speech with himself, letters and diaries, dreams.

In literature, the methodology in researching literary psychology has been created. The writers have taken into consideration the period, historical-social processes of the work, the author's writing style and methods. Russian literarian M.L.Berdikova has introduced the term "the degree of psychology" in her research and classified in the following criteria:

- Psychology boosters in the text (psychological detail, heros' psychological behavior, psychological description;

- Character description elements (psychological portrait, psychological characteristic, psychological conflict, psychological setting);

- Character and situation ratio (self-awareness of the hero, changing mood of the hero) [15].

Literary types and genres play an important role in determining psychological level in literary work. Epic types novel and story may be similar in narrating prose, but they differ with each other in specific features. "The event is the centre of the story, the hero is in the centre of novel. Thats why, all the events are organized around the hero, its plot is not as multidisciplinary as in the novel [13].

Conclusion.

In general, character psychology and its theory is deeply researched both in world and Uzbek literature. To use them in analysing literary works helps to analyze efficiently and serves to increase the skills of the authors. Observing the history of literary psychology in world and uzbek literature, it can be said that it is important and necessary to accomplish researches in this sphere in uzbek literature in these days. The problem of literary psychology has been studied in more depth in world literary scholars researches and the views in this field are revealed in detail.

The list of used literature:

1. A.E.Turayevich. The Main Forms of Psychological Analysis in a Literary Text // European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 2022. – pp. 45–47.
2. A.Qayumov, M.Abdurahimova. Nabi Jaloliddin qissalarida psixofiziologik tasvir. – Farg'ona, 2022. – B.13-40.
3. Agtayan Zilfa A, Lantowa Jafar. Psychology Analysis of Main Character in the Novel Gitanjali by Febrialdi R. // Pioneer: Journal of Language and Literature, 2022. – pp. 220-234.
4. Ahadjon Ro'ziboy o'g'li Muhammadiyev. Badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar va ularning yoritilishi ("Quyosh qoraymas" romani misolida) // Academic Research In Educational Sciences, 2021. – B.561-564.

5. Badegul Can Emir. Literature and psychology in the context of the interaction of social sciences // Khazar Journal of Humanities and Social Sciences, 2016.– pp.49-55.
6. Goksen Aras. Personality and individual differences: Literature in Psychology-Psychology in literature // Procedia - Social and Behavioral Sciences, 2015. – pp.250 – 257.
7. Karim B; Ruhiyat alifbosi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi: Toshkent 2018, 5-bet.
8. Kasimova R.R. Adabiyot psixologiyasi // So'z san'ati xalqaro jurnali. –Toshkent, 2021. – №4(4). –B.58-67 (10.00.00; №31).
9. Kasimova R.R. Bevosita o'girmalarda muallif va tarjimon psixologiyasi (ingliz hamda o'zbek mutarjumlari faoliyati misolida). Filologiya Fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati. Buxoro, 2024.72b.
10. Ro'ziyeva Y.Q.qizi. O'zbek nasrida bosh qahramon psixologiyasi // Golden Brain, 2023. – B.47–50.
11. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы : учебное пособие. – М. : Флинта : Наука, 2011.
12. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – А.: Ҳаёт нашриёти, 2002.
13. Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б.173.
14. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т., Фан, 1983.
15. <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-psikhologizma-russkoi-prozyvtoroi-poloviny-1980-kh-godovtvorchestvo-v-astafeva>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Raximova Laylo Muminbayevna,
mustaqil izlanuvchi, Urganch davlat universiteti

DISKURS TAHLILI VA UNDAGI YONDASHUVLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tilshunosligida mavjud bo'lgan diskurs tushunchasi tahlili hamda unga yondashuvlar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, tilshunoslikda diskurs tahlilining morfologik, fonetik, funksional va semantik tahlil turlari farqlanishi, bu tahlillar turli xil manbalarga tayanishi haqidagi mulohazalar bayon qilinib, ular qoidalar va tamoyillar, kontekst va madaniyatlar, funksiyalar va tuzilmalar, hokimiyat va g'oyaviylik bo'yicha tasnif qilinadi.

Kalit so'zlar: diskurs, kontekst, tamoyil, g'oyaviylik, potentsial, semantik tahlil, muloqot diskursi.

Рахимова Лейла Муминбаевна,
независимый исследователь, ургенчский государственный университет

В КОНТЕКСТЕ АНАЛИЗА ДИСКУРСА И ПОДХОДОВ К НЕМУ

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ понятия дискурса в мировой лингвистике и подходов к нему. Также описаны различия между морфологическим, фонетическим, функциональным и семантическим видами анализа дискурса в лингвистике, даны комментарии о том, что эти анализы опираются на разные источники и классифицируются по правилам и принципам, контексту и культуре, функциям и структуры, власть и идеология.

Ключевые слова: дискурс, контекст, принцип, идеология, потенциал, семантический анализ, дискурс общения.

Rakhimova Laylo Muminbayevna,
independent seeker, Urgench State University

DISCOURSE ANALYSIS AND APPROACHES IN IT

Abstract. This article discusses the analysis of the concept of discourse in world linguistics and the approaches to it. Also, the differences between morphological, phonetic, functional and semantic analysis types of discourse analysis in linguistics are described, and comments are made that these analyzes rely on different sources, and they are classified according to rules and principles, context and cultures, functions and structures, power and ideology.

Key words: discourse, context, principle, ideology, potential, semantic analysis, discourse of communication.

Kirish.

Nutqning diskurs tahlili struktur tahlildan farqli ravishda bir jumla tahliliga nisbatan bir yoki bir nechta kombinatsiyani qabul qilish mumkinligini ko'rsatadi. Diskurs tahlilida ichki va tashqi yondashuv farqlanadi. Ichki yondashuv ona tilida so'zlashuvchilar grammatik jihatdan to'g'ri jumalarni yaratishlari uchun foydalanadigan ichki qoidalarni tadqiq qilishdan iborat. Bunda alohida tanlangan jumlar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan, kontekstdan ajratib olingan va o'ylab topilgan yoki idealizatsiya qilingan bo'ladi.

Tashqi yondashuv esa muloqot kontekstiga bog'liq holda til birliklarining ma'no-mazmun kasb etishi, uning funksional xususiyatlarini aniqlash, boshqa yondosh kommunikatsiya vositalari bilan birlashtirilganda hosil bo'ladigan diskursni his qilish, uni kuzatish, pragmatik

ma'nosini anglashga qaratilgan tadqiqotlarni qamrab oladi.

Tadqiqot obyekti va metodlari.

Tadqiqot obyekti hisoblanmish diskurs tahlilining morfologik, fonetik, funksional va semantik tahlil turlari farqlanadi va bu tahlillar turli xil manbalarga tayanadi. Ular asosan quyidagicha tasnif qilinadi: qoidalar va tamoyillar, kontekst va madaniyatlar, funksiyalar va tuzilmalar, hokimiyat va g'oyaviylik bo'yicha. Ushbu tushunchalarni yoritishda lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, sinxron va diaxron yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari.

Qoidalar va tamoyillar. Diskurs tahlilining umumiy qoida va tamoyillari nutq akti nazariyalari, xushmuomalalik nazariyasi va suhbatni tahlil qilishning umumiy lingvistik, madaniy va nutqiy etiket me'yorlarini

belgilab beradi. Suhbatda nutq faoliyatini yoki jumalarning kommunikativ funksiyalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Masalan, voqealar haqida xabar berish, soʻralgan maʼlumotlar yoki faoliyat toʻgʻrisida bayonotlar berish yoki nutq faoliyatini taqiqlovchi soʻzlardan foydalanish mumkin.

Diskurs vaziyatida madaniy konvensiyalar va suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyiga muvofiq suhbatning ijtimoiy kontekstiga mos ravishda oʻz tilida soʻzlash, yuzma-yuz ogʻzaki muloqotda muloqot mahoratini shakllantirish muhim sanaladi. Bular muloqotda suhbat mavzusini ochish va boshqa mavzuga burish vaqti va oʻrmini soʻzlovchi bilishi, mavzuni qanday boshlash, uni bayon qilish yoki tugatish va oldingi aytilgan fikr bilan belgilangan pragmatik cheklovlarga muvofiq maʼruzachiga qanday javob berish kabi kognitiv faoliyat turlaridan iborat. Xushmuomalalik, rasmiyatchilik va tinglovchining yoshi yoki holati, nutqning "uslublari" yoki "regisrlari"ni inobatga olish ham ushbu masalalar jumlasiga kiradi.

Kontekst va madaniyatlar. Bular muloqot etnografiyasi va oʻzaro sotsiolingvistik munosabatlarga qaratilgan. Muloqot etnografiyasi nutq orqali yetkazilayotgan xabarning madaniy jihatlarini oʻrganish uchun muayyan ijtimoiy guruhning nutqi bilan bogʻliq madaniy xususiyatlarni tavsiflashga, shuningdek, muayyan jamiyatda madaniy qadriyatlarining paydo boʻlishida tilning ishtiroki va vazifasini oʻrganishga qaratilgan. Bu oʻz navbatida madaniy muloqot usullari va turli xil eʼtiqod hamda ijtimoiy verbal va noverbal munosabatlarni tushunishni oʻz ichiga oladi. Interaktiv sotsiolingvistik tadqiqotlar suhbatdoshlarning kundalik kommunikativ amaliyotida yetkazmoqchi boʻlgan xabarni talqin qilish qobiliyatini hisobga olish va uni takror tahlilga tortish orqali madaniy jihatdan belgilangan kontekstual taxminlarga, kod va uslubni almashtirish kabi "kontekstualizatsiya signallari"ga, prosodik va leksik tallovlarga alohida eʼtibor beradi.

Funksiyalar va tuzilmalar. Ular tizimli - funksional tilshunoslikda matnga til va grammatik yondashuvlarning matn modellari sifatida guruhlangan. Bu matn tahlilining keng qamrovli nazariyasini taqdim etadi. Til avtonom tizim sifatida emas, balki "ijtimoiy semiotik" tizim sifatida kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstning bir qismi sifatida qaraladi; maqsad tilga tashqaridan qarash va, xususan, lingvistik jarayonlarni ijtimoiy tartib nuqtayi nazaridan talqin qilishdir. Grammatika maʼno sifatida potentsial maʼruzachilar va yozuvchilarning bir vaqtning oʻzida tajribani (gʻoyaviy funksiyani) namoyish etish, ularning ishtirokchilari bilan munosabatlarini boshqarish (shaxslararo funksiya) va dialog yoki monolog yaratish zarurati bilan funksional ravishda belgilanadigan "potentsial", ogʻzaki yoki yozma boʻlsin, bu yaxlit va izchil (matn funksiyasi) tizim sifatida qaraladi.

Hokimiyat va gʻoyaviylik. Ushbu yondashuv tanqidiy tahlilga qaratilgan hamda pragmatik va sotsiolingvistik yondashuvlar bilan bogʻliq. "Hokimiyatning yashirin taʼsiri"ni belgilashga qaratilgan effektlar turi zaifliklarni qoralashi, minimal holatni istisno qilishi, imtiyozni tabiiylashtirishi va mafkurani aql-idrok sifatida taqdim etishning oddiy uydirmasi orqali boʻlishi mumkin. Shaxsiyat, ustunlik, qarshilik koʻrsatish va matndan dalillarni izlash, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va reklama matnlari, siyosiy hujjatlar va sinf, jins, etnik va boshqa tarafdashlik nutqlari bilan bogʻliq muammolar shular jumlasidandir.

Nutqni tahlil qilish alohida jummalarga ahamiyat bermaydi, balki bogʻlangan soʻzlarga eʼtibor qaratishga harakat qiladi. Bu maʼno ifodalaydigan va oʻquvchiga yoki tinglovchiga murojaat qiladigan soʻzlarning yaxlit kombinatsiyasidir. Ajratilgan jumalarni yaratish hech qanday ahamiyatga ega emas, ammo nutqda soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, jumalar yaratish juda muhimdir. Yozma nutqni oʻqish yoki ogʻzaki nutqni eshitish lingvistik shakllarni bilishdan koʻra muhimroq va murakkabroqdir, chunki oʻquvchi yoki tinglovchi bu jumalar oʻrtasidagi aloqalarni talqin qilishi va ularni tushunishi kerak.

Nutqning bir qismini anglash - bu talqin qilish faoliyati boʻlib, u oʻquvchilar (tinglovchilar) kabi odamlar ushbu nutqqa muallif (maʼruzachi) kiritgan narsalarning nima olib kelishiga bogʻliq. Ushbu tadqiqotda insonlar soʻzlovchi nutqini qanday tushunishlari ham hisobga olingan. Muloqot diskursida nutqni tahlil qilish bilan muvaffaqiyatli shugʻullanish uchun tuzilgan juft jumalar oʻrtasidagi semantik munosabatlar va ularning sintaktik strukturada qoʻllanilishi bilan bogʻliq boʻlishi fikr va munosabatning toʻgʻri ifodalanishini taʼminlaydi. Shuningdek, muloqot diskursida nutq tahlili jumla ichidagi tanlovlar va umuman nutq faoliyatini tashkil qilish va talqin qilish oʻrtasidagi munosabatni tushunishga qanday hissa qoʻshganligini koʻrsatishga harakat qiladi. Ogʻzaki diskursni tahlil qilish nafaqat maʼruzachi yoki nutq muallifiga muayyan vaziyatlarga koʻra soʻzlar, sintaktik tarkibning toʻgʻri tartibini tanlashda yordam beradi, balki tinglovchi va oʻquvchini nutqning toʻgʻri maʼnosini talqin qilish va xulosa chiqarishga yordam beradi. Bu soʻzlovchi yoki muallif nimani niyat qilgani, shuningdek, nutq fragmentini ishlab chiqarishda oʻzini qanchalik samimiy tutayotganini taʼminlaydi.

Diskurs ifodalagan fikr insonning dunyoviy bilimlari, qadriyatlari va oʻz hayotiy kechinmalariga tayangan holda hamma joyda mavjud boʻlgan usullarini oʻz ichiga qamrab oladi. U kundalik mahalliy matnlarda va suhbatlarda qoʻllanilishi, bilimlarini shakllantirish va tartibga solish, normallashtirish, yangi bilim va oʻzaro munosabatlarni mustahkamlash uchun ishlatiladi. Faqat diskurs nima ekanligini bilish yetarli emas, aksincha uning tuzilishi va tushunilishi haqida ham maʼlumotlarga ham ega boʻlish zarurdir.

Diskurs tahlili turli fanlarda tobora ko'proq e'tiborga olinadi. Bunga quyidagilar kiradi: taksonomiya, nutq aktlari nazariyasi, sotsiolingvistika, etnografiya, pragmatika, suhbatni tahlil qilish va variatsion diskurs tahlili (shuningdek, tanqidiy diskurs tahlili, hikoya tahlili, diskursiv psixologiya va boshqalarni qo'shish mumkin) va falsafadan tilshunoslikka, semiotikaga, sotsiologiyaga, antropologiyaga ham aloqador hisoblanadi. Uning maydonlarining bunday keng doirasi nutq tushunchasining o'zi ancha keng ekanligini ko'rsatadi. Bu, shuningdek, so'nggi bir necha o'n yilliklarda nutqni tahlil qilish nima uchun alohida qiziqish sifatida paydo bo'lganligini ko'rsatishi mumkin. Turli sohalar nutqni o'rganishni foydali deb topishi katta madaniy va epistemologik o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Og'zaki va yozma nutq ular bajaradigan funksiyalar bilan bog'liq bo'lgan biroz boshqacha talablarni qo'yadi. Yozish nisbiy doimiylikning afzalliklariga ega, bu yozuvlarni saqlaydiganlarning xotiralaridan mustaqil ravishda yozuvlarni saqlash funksiyasiga imkon beradi. Yozma nutq uzoq masofada, ya'ni xatlar, gazetalar va boshqalar orqali muloqot qilishi mumkin va bir vaqtning o'zida katta sonlarda barcha turdagi nashrlar tomonidan chop etilishi mumkin. Magnitafon, telefon, radio va televideniye ixtirosi og'zaki tilning vaqt, masofa va raqamlarga nisbatan cheklovlarini yengishga yordam beradi.

Yozma nutq nafaqat doimiy, balki til belgilarining ko'rgazmali ifodasi hamdir. Buning muhim natijasi shundaki, yozuvchi allaqachon yozgan narsalarini ko'rib chiqishi, suhbatdoshining uni to'xtatishidan qo'rqmasdan har bir so'z o'rtasida pauza qilishi mumkin. U ma'lum bir so'zni tanlashga vaqt ajratishi, hatto kerak bo'lsa, uni lug'atdan qidirishi ham mumkin. Yozma til badiiy

asarlarni rasm yoki haykaltaroshlik yaratish bilan taqqoslanadigan tarzda yaratishga imkon beradi. Og'zaki nutq esa yozish hech qachon bajara olmaydigan funksiyalarni saqlab qoladi. Masalan, qabul qiluvchining zudlikda mulohazalari bilan tezkor, to'g'ridan to'g'ri aloqa qilishi. Ma'ruzachi hozirgina aytgan so'zlarini kuzatishi va uning muloqot istagiga mos kelishi yoki kelmasligini, aniqlashi kerak, shu bilan birga u navbatdagi aytiladigan fikrini aytishga tayyorlanib, uni kuzatib boradi va bir vaqtning o'zida fikr ifodasiga mos so'zlarini tanlab, o'zi xohlagan muloqot maqsadining umumiy namunasiga moslashtiradi. Nutq aytishi va monitoring qilishi, bundan tashqari, nafaqat o'zi ishlashi, balki uning tinglovchisi tomonidan qabul qilinishini nazorat qiladi.

Xulosa.

Demak, diskursni tahlil qilish butun kommunikativ hodisani, shu jumladan, uning sodir bo'lishiga imkon beradigan barcha sharoit va funksiyalarni hisobga oladi. Shu sababli nutqni tahlil qiladigan fan juda keng qamrovli usullarga muhtoj. Til va uning ishlatilishi har doim jiddiy o'zgarishlarga duchor bo'lganidek, bu yerda ham usullar o'zgaradi. Lekin birinchi navbatda biz turli xil yagona fanlarni taqdim etishimiz kerak, ularning har biri nutqning ma'lum bir jihatini yoritib beradi. Misol tariqasida, nutqni tahlil qilish orqali ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan uchta markaziy sohani tanishtirib o'tamiz: strukturalizm, kognitiv fanlar va semiotika. Bulardan tashqari, nutqni tahlil qilish konsepsiyasiga qo'shilishi mumkin bo'lgan boshqa fanlar ham mavjud. Bular: aloqani o'rganish (elektron ommaviy axborot vositalari, bosma ommaviy axborot vositalari, axborot manbalarini tarqatish va boshqalar), pragmatika, psixolingvistika (ular kognitiv fanlarga qisman bog'liqdir), mantiq, sotsiolingvistika, ijtimoiy fanlar kabi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Allen, J.P.B. & S. Pit Corder (eds.). Papers in applied linguistics, Vol. II. London: Oxford University Press, 1980.
2. Geoffrey N. Leech. Semantics: The Study of Meaning. Penguin Books, 1990.
3. Mathesius, V. From comparative word order studies. Linguistic Inquiry, 1992.
4. Renkema J. Introduction to discourse studies. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Pub, 2004.
5. Thornton, S. Explorations in Discourse Analysis. UK: Wiley-Blackwell, 2008.
6. Webster, Jonathan. Studies in English language / M.A.K. Halliday; edited by Jonathan Webster. – New York: Continuum International Publishing Group, 2005.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xaboxunova Roziyaxon Shodmonovna
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
roziyamumtoz@gmail.com

QADIMGI DAVR TURKIY ADABIYOT MANBALARINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola qadimgi turkiy adabiyot manbalarining ilmiy o'rganilishi va ularning tarixiy, madaniy, va tilshunoslik jihatlaridan ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada qadimgi turkiy adabiyot manbalarining turli turlari, jumladan, epik asarlar, lirik asarlar, xalq naql va afsonalar, hamda diniy adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, qadimgi adabiyot manbalarining tahlili uchun tilshunoslik, matnshunoslik, va tarixiy tahlil usullari qo'llaniladi.

Maqolada qadimgi turkiy adabiyotning madaniyat va urf-odatlariga ta'siri, tarixiy konteksti va zamonaviy tadqiqotlarda uning o'rni haqida batafsil muhokama qilinadi. Adabiyot manbalarining o'rganilishining ilmiy natijalari, yangi metodologiyalar va zamonaviy yondashuvlar yoritiladi. Maqola qadimgi turkiy adabiyot manbalarini o'rganishning istiqboldagi yo'nalishlari va tadqiqot imkoniyatlarini belgilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qadimgi turkiy adabiyot, epik asarlar, lirik asarlar, xalq naql va afsonalar, diniy adabiyot, tilshunoslik, matnshunoslik, tarixiy tahlil, madaniy meros, zamonaviy tadqiqotlar.

Xaboxunova Roziyaxon Shodmonovna
Teacher of Andijan State University
roziyamumtoz@gmail.com

STUDY OF ANCIENT TURKIC LITERARY SOURCES

Abstract: This article rigorously analyzes the scientific study of ancient Turkic literary sources and their significance from historical, cultural, and linguistic aspects. It examines a wide array of ancient Turkic literature sources, including epic, lyrical, folk tales and legends, and religious literature. The analysis is underpinned by the use of linguistic, textual studies, and historical analysis methods.

The article delves into the historical context of ancient Turkic literature, shedding light on its profound influence on culture and traditions. It underscores the scientific results of studying literary sources, innovative methodologies, and contemporary approaches. The article aims to chart the future directions and research opportunities of studying ancient Turkic literary sources, providing a deeper understanding of our cultural heritage.

Keywords: ancient Turkish literature, epic works, lyrical works, folk tales and legends, religious literature, linguistics, textual studies, historical analysis, cultural heritage, modern studies.

Хабохунова Розияхон Шодмоновна
Преподаватель Андиганского государственного университета
roziyamumtoz@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ ДРЕВНЕТЮРКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация: В этой статье тщательно анализируется научное изучение древнетюркских литературных источников и их значение с точки зрения исторического, культурного и лингвистического аспектов. В ней используется междисциплинарный подход, изучающий различные древнетюркские литературные источники, включая эпос, лирику, народные сказки и легенды, а также религиозную литературу. Анализ подкреплен лингвистическими, текстовыми и историческими методами анализа.

Статья углубляется в исторический контекст древнетюркской литературы, проливая свет на ее глубокое влияние на культуру и традиции. В ней подчеркиваются научные результаты изучения литературных источников, инновационные методологии и современные подходы. Цель статьи — наметить будущие направления и исследовательские возможности изучения древнетюркских литературных источников, обеспечивая более глубокое понимание нашего культурного наследия.

Ключевые слова: древнетюркская литература, эпические произведения, лирические произведения, народные сказки и легенды, религиозная литература, лингвистика, текстология, исторический анализ, культурное наследие, современные исследования.

Kirish.

Qadimgi turkiy adabiyot manbalarining ilmiy o'rganilishi turkiy madaniyat va tilshunoslik tarixini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi qadimgi turkiy adabiyot manbalarini tahlil qilish orqali, ularning tarixiy, madaniy va tilshunoslik jihatidan ahamiyatini aniqlashdir. Qadimgi turkiy adabiyot asarlari, asosan, xalqning tarixiy xotirasi, madaniy urf-odatlar va til rivojlanishidagi o'ziga xos o'rni bilan ajralib turadi. Ushbu manbalarni o'rganish orqali, biz turkiy xalqning tarixiy rivojlanishini, madaniy va tilshunoslik o'zgarishlarini yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Relevanti shundan iboratki, qadimgi adabiyot manbalarining ilmiy o'rganilishi zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar orqali turkiy xalqlarning tarixiy merosi, madaniy qadriyatlar, va ularning o'zaro aloqalari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, qadimgi adabiyot manbalarining tahlili til rivojlanishi va adabiyot tarixida mavjud bo'lgan jarayonlarni aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili:

1. Qadimgi adabiyot manbalarining tahlili: Qadimgi turkiy adabiyot manbalarining tahlil qilish metodlari, ularning til, uslub, va mavzularini o'rganish. Bu adabiyot manbalarining tarixiy va madaniy kontekstda qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash.

2. Qo'llanilish tarixi: Qadimgi adabiyot manbalarining qanday sharoitlarda yaratilgani, ular qanday tarixiy davrlarda va qanday sharoitlarda qo'llanilganligi. Bu o'z navbatida ularning tarixiy muhitini va madaniy ta'sirini o'rganishga yordam beradi.

3. Ilmiy ahamiyati: Qadimgi turkiy adabiyot manbalarining zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda qanday o'rni borligi, ular qanday tahlil qilingan va ularning ilmiy tadqiqotlar uchun ahamiyati qanday ekanligi. Bu o'rganish orqali, qadimgi adabiyot manbalarining zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlariga qo'shgan hissasini aniqlash mumkin.

Bu tadqiqot masalalari orqali maqola qadimgi turkiy adabiyot manbalarining ilmiy o'rganilishini chuqurroq tahlil qilib, ularning tarixiy va madaniy ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur ishda VIII-XIII asrlar turkiy xalqlar adabiyotining qadimgi davrlariga oid manbalari, xususan, xalq og'zaki ijodi namunalari, "Alp Er Tunga", "O'guznoma" va "Qo'rquq ota" kabi dostonlar, "Orxon-Yenisey" yozuvlari, "Qutadgu bilig", "Devoni Lug'ati't-Turk" kabi asarlar tahlilga tortildi.

Muammoni o'rganishda madaniy-tarixiy va qiyosiy-tipologik tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar:

Qadimgi turkiy adabiyot manbalarining yashash davri, asosan, VIII-XIII asrlar orasini qamrab oladi. Ushbu davrda yaratigan asarlar turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy rivojlanishining muhim qismidir. Turkiy adabiyotning qadimgi davrlariga oid manbalar turli tarixiy sharoitlar va madaniy kontekstlarda yaratilgan, bu esa ularning tarixiy va madaniy qiymatini oshiradi.

1. **VIII-X asrlar:** Bu davrda qadimgi turkiy yozma adabiyotning dastlabki namunalariga ega bo'ldik. "Orxon-Yenisey" yozuvlari va "Kutadgu Bilig" asarlari, masalan, bu davrga oid eng muhim adabiy manbalardandir. Orxon-Yenisey yozuvlari turkiy xalqlarning tarixiy yodgorliklari sifatida, ularning diniy e'tiqodlari, urf-odatlar va davlat tuzilishi haqida ma'lumot beradi.

2. **XI-XIII asrlar:** Bu davrda turkiy adabiyot yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. "Devoni Lug'ati't-Turk" kabi asarlar turkiy tilining lug'aviy boyligini va grammatik qoidalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu davrda sufi adabiyoti va she'riyatining rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Qadimgi turkiy adabiyot manbalari turli turlarga bo'linadi, har biri o'ziga xos adabiy uslublar va mazmunlarga ega:

1. **Epik asarlar:** Qadimgi turkiy adabiyotning epik asarlari xalq qahramonlari va tarixiy voqealar haqida hikoya qiladi. Masalan, "Alp Er Tunga" va "O'guznoma" kabi asarlar bu turga kiradi. Bu asarlar, ko'pincha, qadimgi turkiy xalqlarning urushlar, qahramonlik va e'tiqodlarini tasvirlaydi.

2. **Lirik asarlar:** Lirik asarlar, asosan, insonning ichki dunyosi, sevgi, dard, va tabiat haqida yozilgan she'riy asarlardir. Ular ko'pincha xalq qo'shiqlari, ruboiylar va nazm shaklida bo'ladi. Masalan, "Kutadgu Bilig" dagi lirik qismlar qadimgi turkiy xalqning ichki his-tuyg'ularini ifodalaydi.

3. **Xalq naql va afsonalar:** Xalq naql va afsonalar qadimgi turkiy xalqlarning og'zaki adabiyotining muhim qismini tashkil etadi. Bu asarlar xalq orasida og'zaki ravishda yurgan hikoyalar, afsonalar, va naqlarda qadimgi xalq urf-odatlar, e'tiqodlari va tarixi tasvirlanadi. Masalan, "Korkut Ata" afsonalari bunday manbalar qatoriga kiradi.

4. **Diniy adabiyot:** Diniy adabiyot qadimgi turkiy xalqlarning diniy e'tiqodlarini va diniy ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Bu asarlar ko'pincha diniy ritual va marosimlarni tasvirlaydi va turkiy xalqlarning islom e'tiqodini qabul qilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, sufi adabiyotining dastlabki namunalari bu davrga taalluqlidir.

Ushbu manbalar, qadimgi turkiy adabiyotning boy tarixiy va madaniy merosini yaratadi va ularning o'rganilishi, turkiy xalqning tarixiy va madaniy rivojlanishini tushunishda katta ahamiyatga ega.

Qadimgi turkiy adabiyot manbalarini tahlil qilishda bir nechta asosiy usullar qo'llaniladi:

1. Tilshunoslik tahlili: Tilshunoslik tahlili qadimgi turkiy adabiyotning til xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu usul tilning grammatik, leksik, va fonologik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, Orxon-Yenisey yozuvlarida turkiy tilining qanday grammatika qoidalariga amal qilinishi, so'z birikmalari, va sintaksis tuzilmalari tadqiq qilinadi. Tilshunoslik tahlili adabiyot manbalarining tarixiy va madaniy kontekstda qanday rivojlanganligini tushunishga imkon beradi.

2. Matnshunoslik tahlili: Matnshunoslik tahlili adabiyot asarlarining matnlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan. Bu usul asarlarning strukturasi, uslubi, va tematik tarkibini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Masalan, "Kutadgu Bilig" asarining struktural tuzilishi, uslubi va mavzulari qanday shakllanganini o'rganish orqali, adabiyotning o'ziga xos uslubi va mavzu tanlovlari aniqlanadi.

3. Tarixiy tahlil: Tarixiy tahlil qadimgi adabiyot manbalarining tarixiy kontekstini va yaratilgan davrning ijtimoiy, madaniy, va siyosiy sharoitlarini o'rganishga qaratilgan. Bu usul orqali, asarlarning yaratish davriga oid tarixiy voqealar, madaniy o'zgarishlar, va ijtimoiy sharoitlarni tushunish mumkin. Misol uchun, "Alp Er Tunga" va "Oguznoma" asarlarini tahlil qilishda, ularning yaratilgan davridagi turkiy xalqlarning tarixiy vaziyati va madaniy muhitlari hisobga olinadi.

Qadimgi turkiy adabiyotda bir qancha muhim mualliflar va ularning asarlari mavjud bo'lib, ular turkiy adabiyot tarixida katta ahamiyatga ega. Quyida ba'zi muhim mualliflar va ularning asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan:

1. Qutadgu Bilig (Yusuf Xos Hojib): Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan "Qutadgu Bilig" (O'zbekcha: "Baxtli Bilim") — qadimgi turkiy adabiyotning eng muhim asarlaridan biridir. Asar 1069-1070 yillarda yozilgan bo'lib, u turkiy xalqlarning etik, axloqiy va siyosiy idealari haqida

yoziq. Matn, ko'plab naql va hikmatlar orqali adabiy va ma'naviy ta'limotlarni o'z ichiga oladi.

2. Alp Er Tunga: Alp Er Tunga asarlari, turkiy adabiyotning qadimgi epik janriga oid muhim manbalardir. Bu asarlar, turkiy xalqning qahramonlik, jangovar va madaniy hayotini tasvirlaydi. Alp Er Tunga haqidagi asarlar, xalq oralig'ida og'zaki rivoyat sifatida yurgan va adabiy qahramonlarning mashhurligini oshirgan.

3. Og'uznoma: Oguznoma, turkiy xalqlarning og'zaki adabiyotining asosiy manbalaridan biridir. Bu asar, Og'uz (Oghuz) turkiylarining tarixiy va madaniy merosini aks ettiradi. Oguznoma, ko'plab afsonalar, qahramonlik hikoyalari va xalq rivoyatlarini o'z ichiga oladi.

4. Devoni Lug'ati't-Turk (Mahmud Koshg'ariy): Mahmud Kashgariy tomonidan yozilgan "Devoni Lug'ati't-Turk" (Turkiy tilining lug'ati) 1072-1074 yillarda yaratilgan. Bu asar, turkiy tilining lug'aviy boyligini va grammatik qoidalarini o'z ichiga oladi. Mahmud Kashgariy, turkiy tilining rivojlanishini va dialektlarini tizimlashtirishda katta rol o'ynagan.

Ushbu mualliflar va asarlar, qadimgi turkiy adabiyotning boy merosini tashkil qiladi va ularning tahlili orqali adabiyot tarixini, madaniyatini, va til rivojlanishini yaxshiroq tushunish mumkin.

Xulosa.

Qadimgi turkiy adabiyot manbalarining madaniy va tarixiy ahamiyatini tushunish orqali, biz turkiy xalqlarning tarixiy, madaniy, va tilshunoslik rivojlanishiga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bu asarlar, faqat adabiyot sifatida emas, balki turkiy xalqlarning tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qadimgi turkiy adabiyot manbalariga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar turli yo'nalishlar va metodologiyalarni qamrab oladi. Bu tadqiqotlar qadimgi adabiyotning yanada chuqurroq tushunilishiga, uning tarixiy, madaniy, va tilshunoslik jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu yo'nalishlarda davom etishi va qadimgi turkiy adabiyot manbalarining yanada to'liqroq va chuqurroq tushunilishiga yordam berishi kutilmoqda. Yangi yondashuvlar va metodologiyalar qadimgi adabiyotning yanada kengroq va mukammal tahlilini ta'minlash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Juraev, B. (2019). "Qadimgi turkiy yozuvlar: Orxon-Yenisey inshootlari va ularning tarixiy ahamiyati". Toshkent: Fan.
2. Toshmatov, X. (2020). "O'rta asr turkiy adabiyoti: Xorazmiy adabiyotining o'rni va ahamiyati". Toshkent: Fan.
3. Ruziev, A. (2021). "Turkiy til va adabiyot tarixida yangi yondashuvlar". Toshkent: Fan.
4. Xusanov, M. (2022). "O'zbek xalq adabiyotida qadimgi turkiy epik an'analarning aks etishi". Toshkent: Fan.
5. Abdullayev, I. (2023). "Qadimgi turkiy adabiyot va uning zamonaviy tahlili". Toshkent: Fan.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna
Teacher of Termez state pedagogical institute
E-mail: teacheroyjamol@gmail.com

UDK: 81.119 (97.11)

NEOLOGISMS IN DANCE TERMINOLOGY

Annotation: In this article, these neologisms, which originate from different dance communities and reflect cultural identities and expressions, play an important role in describing the evolution of dance and in helping practitioners improve their communication. Examples like “tutting”, “fluid dancing” and “krumping” are examples of how these terms take on unique movement skills and cultural influences. While enriching dance vocabulary, neologisms also create problems of accuracy and reception in traditional dance discourse.

Key words: dance, neologisms, dance terminology, concepts, cultural context.

Худойбердиева Ойжамол Музаффаровна

преподаватель Термезский Государственный педагогический институт

НЕОЛОГИЗМЫ В ТАНЦЕВАЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация: В этой статье эти неологизмы, происходящие из разных танцевальных сообществ и отражающие культурную идентичность и самовыражение, играют важную роль в описании эволюции танца и помогают практикам улучшить свое общение. Такие примеры, как «таттинг», «плавный танец» и «кранпинг», являются примерами того, как эти термины приобретают уникальные двигательные навыки и культурные влияния. Обогащая танцевальный словарь, неологизмы также создают проблемы точности и восприятия в традиционном танцевальном дискурсе.

Ключевые слова: танец, неологизмы, танцевальная терминология, концепты, культурный контекст.

Xudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

RAQS TERMINOLOGIYASIDA NEOLOGIZMLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli xil raqs jamoalaridan kelib chiqqan va madaniy o'ziga xosliklar va badiiy ifodalarni aks ettiruvchi bu neologizmlar raqs evolyutsiyasini tasvirlashda va amaliyotchilar o'rtasidagi aloqani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. «Tutting», «suyuq raqs» va «krumping» kabi misollar bu atamalarning noyob harakat fazilatlarini va madaniy ta'sirlarni qanday qamrab olishini ko'rsatadi. Raqs lug'atini boyitish bilan birga, neologizmlar an'anaviy raqs nutqida aniqlik va qabul qilish muammolarini ham keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: raqs, neologizmlar, raqs terminologiyasi, tushunchalar, madaniy kontekst.

Introduction.

The development of technology has impacted human interaction, with technological advancements in Internet communication and social networking platforms contributing to it. As technology develops rapidly, people adapt and cope with these changes by combining and creating new words to communicate with each other as quickly as possible. Language is a living entity, constantly evolving to reflect new ideas, technologies, and cultural shifts. In the realm of dance, this evolution is particularly evident in the creation and adoption of neologisms—new words or phrases that emerge to describe innovative movements, styles, techniques, and concepts. Neologisms

not only enrich the vocabulary of dance but also serve as markers of artistic progression and the dynamic nature of the art form itself. Neologisms present new words that differ from already existing words in English vocabulary. As regards to creating new words, different types of morphological processes occur. Peoples' creativity to communicate faster has accelerated the transformation of language rhythm and words. Thus, neologisms keep appearing and expanding the English vocabulary and it is to be claimed that a better and clearer understanding of them guides learners to use the English language in all kinds of ways, gain necessary information, and improve their communication ability [3;9].

The term **neologism** – first used in 1772 (in a translation from French) is a “practice of innovation in language, the use of new words or old words in new senses”. It derives from French néologisme (18 c.), from neo- “new” + Greek logos “word” + -ism. The meaning “new word or expression” came later in English, in 1803. Neological usage “characterized by new words or phrases” is attested from 1754 [6.]. New words are evidently and constantly entering the lexicon to describe new concepts and technologies and what they mean to us.

Literature analysis.

As the neologism branch of lexicology develops and strengthens, its range of problems is related to the multidimensional study of neologisms in the Russian written language. At the same time, research is being done in the field of lexicographic presentations neologisms. A qualitatively new phase in matters of lexicography of innovations special dictionaries of new words, meanings and expressions were created. Since the beginning of the 70s, when neological dictionaries of a similar nature and scope appeared almost simultaneously in Russian, English and French, it was possible to talk about the emergence of a new lexicographic specialization on its own theoretical basis. The works of such scientists as E.A. Zemskaya, N.Z. Kotelova, R.Yu. Namitokova, A.G. Lykov, E.V. Senko, O.A. Gabinskaya, O.S. Akhmanova, V.A. Kozyrev, V.D. Chernyak, S.I. Alatortseva, S.I. Togoeva and others. A large number of works dedicated to the study of neologisms, confirm the relevance and the demand for this knowledge for modern science. Note that, along with the concept of neologism, in modern linguistics it is actively synonymous concepts of neoplasm are also used, neolexemes, lexical innovation [5; 96.].

Research methodology.

In the discourse of dance, current modern terms, i.e. neologisms, are used by dance practitioners to make the dance technique more attractive and understandable. This article, devoted to the importance of neologisms in the use of dance discourse, effectively uses analysis, synthesis, comparative analysis and a number of other methods and methods used in the field of philological sciences of scientific research.

Analyzes and results.

Neologisms are an important feature of the language, contributing to its development, uniqueness. But this raises the problem of proper understanding and translation of neologisms, no dictionary can keep up with the modern development of science, culture, technology and society, affecting all areas of human knowledge. The main quality of neologisms that distinguishes them from all other units of the vocabulary of the language is the quality and ability that is displayed in the term of the word.

The Role of Neologisms in Dance. Neologisms in dance terminology fulfill several crucial roles:

1. **Capturing Innovation:** As dance techniques evolve and new styles emerge, neologisms provide succinct and precise ways to describe these innovations. They act as linguistic snapshots that encapsulate the essence of a new movement or concept.

2. **Expressing Cultural Identity:** Dance neologisms often reflect the cultural, social, and historical contexts in which they originate. They can embody cultural fusion, regional influences, or responses to contemporary issues.

3. **Facilitating Communication:** Clear and specific terminology enhances communication among dancers, choreographers, instructors, and enthusiasts. Neologisms streamline instruction, rehearsal, and critique processes by providing common ground for understanding complex movements and ideas.

4. **Celebrating Creativity:** Neologisms celebrate the creativity and inventiveness inherent in dance. They highlight the artistic flair and ingenuity of choreographers and dancers who innovate and push boundaries within the discipline.

Examples of Dance Neologisms. Here are some examples of neologisms in dance terminology that have emerged to describe innovative movements, styles, techniques, and concepts:

Tutting: Originating from hip-hop dance culture, «tutting» refers to intricate hand and arm movements inspired by Egyptian hieroglyphics. The term derives from the angular, geometric shapes reminiscent of King Tut’s tomb artifacts.

Liquid Dancing: Popularized in the rave and EDM (Electronic Dance Music) scenes, «liquid dancing» involves fluid, flowing movements that create an illusion of melting or liquefying the body. This style emphasizes smooth transitions and continuous motion.

Krumping: Emerging from the hip-hop community in Los Angeles, «krumping» is characterized by aggressive and energetic movements, often involving rapid arm swings, chest pops, and stomping. The term «krump» is believed to be an amalgamation of «kicking» and «jumping».

Gaga Movement Language: Developed by Israeli choreographer Ohad Naharin, the «Gaga Movement Language» uses terms like «the crawl,» «the floating,» and «the shake» to guide dancers in exploring sensations and movement qualities rather than specific steps or shapes.

Popping and Locking: Developed in California during the 1970s, «popping» involves contracting and relaxing muscles to create a jerking effect («pop»), while «locking» is characterized by freezing movements («lock») and rhythmic pauses.

House Dance: Originating from Chicago and New York City’s underground club scenes in the 1980s, «house dance» incorporates footwork, fluid movements, and improvisation to house music beats, emphasizing groove, soul, and connection to the music.

Whacking: A dance style characterized by fast arm movements and posing, often performed to disco or funk music. Originating from the gay clubs of Los Angeles in the 1970s, «whacking» (or «waacking») involves expressive gestures and theatricality. The process of creating dance neologisms is organic and responsive to artistic and cultural trends. They may arise spontaneously within dance communities, through collaborations between choreographers and dancers, or as a deliberate effort to articulate new techniques or styles. Once introduced, neologisms often spread through workshops, performances, instructional videos, and social media platforms, becoming integrated into broader dance discourse.

Conclusion.

Neologisms in dance terminology are more than just words—they are expressions of creativity, innovation, and cultural evolution within the art form. They reflect the ever-changing landscape of dance, responding to new ideas, technologies, and artistic expressions. As dance continues to evolve and diversify, so too will its language, embracing new neologisms that capture the imagination and propel the art form forward. In celebrating dance neologisms, we celebrate the spirit of exploration, experimentation, and expression that defines dance as a vibrant and evolving cultural practice. Each new term adds to the rich tapestry of dance vocabulary, contributing to a legacy of innovation and creativity that shapes the future of this dynamic art form.

References.

1. Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna. (2023). The Role of Dance Terminology in Linguistics. *Genius Repository*, 26, 83–85. Retrieved from <https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/246>
2. Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna. (2024). ENGLISH AND UZBEK NATIONAL DANCE TERMINOLOGY. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 26, 154–158. Retrieved from <https://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1070>
3. Shahlee, Sakina, Rosniah Mustafa (2019), "Neologisms in Social Networking among Youths", *Toryish International Journal of Multidisciplinary (TIJM)*, 1(1), 1-9.
4. Алаторцева, С.И. Проблемы неологии и русская неография: автореферат дис. ... д-ра филол. Наук / С.И. Алаторцева. – Санкт-Петербург, 1999. – 44 с.
5. Попова Т.В. Русская неология и неография. – Екатеринбург : УГТУ-УПИ, 2005. – 96 с.
6. <https://www.etymonline.com/word/neologism>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti (DSc)

E-mail: shakhnozaaskarova2@mail.com

UDK: 801.82:81'255:821.51:811.111

“ALPOMISH” ASARI INGLIZCHA TARJIMASINI AMALGA OSHIRISHNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugunning dolzarb masalalaridan – til va madaniyat, ularning o'zaro munosabatlari, o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'alarini mujassamlagan nodir asar “Alpomish”ning inglizcha tarjimasidagi ba'zi misralarning lingvomadaniy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Noqardosh ikki til orasidagi ko'prik bo'lmish tarjimonning bu boradagi qobiliyati, tarjima qiyinchiliklari va ularni bartaraf qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, tarjimonning “soxta do'stlari”, ekvivalentlik, qiyinchilik, mulohaza.

Асқарова Шахноза Камолидиновна

Докторант (DSc) Ташкентского государственного
университета востоковедения

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ АНГЛИЙСКОГО ПЕРЕВОДА «АЛПОМЫША»

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингво-культурологические аспекты некоторых стихов английского перевода «Алпомиша», редкого произведения, воплощающего актуальные проблемы современности – языка и культуры, их взаимоотношений, национальных обычаев и традиций узбекского народа. Приводятся умения переводчика, являющегося мостом между двумя неродственными языками, а также предложения и рекомендации по трудностям перевода и их устранению.

Ключевые слова: лингвокультурология, переводоведение, «ложные друзья» переводчика, эквивалентность, трудность, суждение.

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

Doctoral student (DSc) of Tashkent State University of Oriental Studies

LINGUOCULTURAL ASPECTS OF IMPLEMENTING THE ENGLISH TRANSLATION OF “ALPOMISH”

Abstract: This article discusses the linguocultural aspects of some of the verses in the English translation of “Alpomish”, a rare work that embodies today's current issues – language and culture, their mutual relations, the national customs and traditions of the Uzbek people. The ability of the translator, who is a bridge between two unrelated languages, as well as suggestions and recommendations on translation difficulties and their elimination are given.

Key words: Linguoculturology, translation studies, translator's “false friends”, equivalence, challenge, judgment.

Kirish.

Yangilanayotgan O'zbekistonda barcha sohalar qatori tarjimashunoslik sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab mumtoz va zamonaviy asarlar tarjimonlar tomonidan o'zbek tilidan chet tiliga, chet tilidan o'zbek tiliga o'girilmoqda. Bu esa nafaqat tilshunoslik, tarjimashunoslik yoki adabiyotshunoslik, balki qolgan barcha sohalar ham turli janrdagi adabiyot,

manbalar bilan boyishini ta'minlaydigan asosiy omilni tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi “Alpomish” asarini ilk bor ingliz tiliga to'liq tarjima qilgan olim Q.Ma'murovning ham bu boradagi sa'y-harakatlari diqqatga sazovor [2].

Tarjimani tillararo va madaniyatlararo muloqotni ta'minlash jarayoni, ikki tildan foydalangan holda amalga

oshadigan muloqot shakli hamda tillarning o'zaro aloqasini ta'minlovchi unsur sifatida o'rganilar ekan, tillar va madaniyatlar orasidagi nomutanosiblik mavjud ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Bugungi kun tarjimashunosligida dunyo tillarining har qanday real voqelikni ifodalash va tasvirlash qobiliyatiga ega ekanligi, mana shunday voqelik va tasvirlardan tashkil topgan asarlarni qardosh yoki noqardosh tillarga o'girishda bir necha usullardan foydalanilmoqda. R.Yakobson mutaxassislar tomonidan vaqti-vaqti bilan tarjima nazariyasi va amaliyotidagi ko'plab chigal muammolar tugunini kesib tashlashga urinish sifatida talqin etiladigan "tarjimasizlik" g'oyalarini ko'rib chiqib, quyidagi mulohazada to'xtaldi: "Barcha kognitiv tajriba va uning tasnifi har qanday mavjud tilda ifodalanishi mumkin" [1; 364.]. Olimning fikriga to'laqonli qo'shilgan holda ta'kidlash mumkinki, istalgan mavjud tilda tarjima qilib bo'lmaydigan voqelikning o'zi yo'q, realiya, lacuna kabi milliylikni anglatuvchi so'zlar esa aynan tarjima qilinmasada, talqin qilinadi yoxud izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

"Alpomish" asari inglizcha tarjimasini amalga oshirishning lingvomadaniy jihatlari tadqiqiga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, konseptual, komponent, sintaktik-semantik va lingvostatistik tahlil (elementlari) usullaridan samarali foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

"Tarjimani transformatsiyaning ma'lum bir turi, aniqrog'i tillararo transformatsiya deb hisoblash mumkin" [5; 6.].

Yuqoridagi tarifdan tarjimaning alohida muhim belgilarini keltirish mumkin. Tarjima – bu:

- uning asliyat bilan munosabatidan hosil bo'ladigan nutqiy asar;
- bir tilda tasvirlangan voqelikni boshqa til vositasida ifodalash, qayta ifodalash;
- tillararo va madaniyatlararo muloqot jarayoni;
- ikki tildan foydalangan holda muloqot qilish, tillar aloqasi, ikki tillilik hodisasi (zullisonaynlik);
- aloqa komponentlari birikadigan nutqiy faoliyat turi;
- ikki tomonlama jarayon, chunonchi u ikki qism va ikki xil vaqtdan iborat bo'ladi;
- tillararo transformatsiya;
- og'zaki san'at turi; ilmga asoslangan san'at [9; 545.].

N.K.Garbovskiyning yuqoridagi mulohazalarining davomi sifatida tarjimaning yana bir aspekti – ikki tilning tegishli birliklari semantika hamda tovush o'rtasidagi to'liq o'xshashlikni nazarda tutishini ta'kidlash lozim. Tarjima nutqiy asar, ya'ni matn ko'rinishida tarjima nazariyasi uchun aynan nisbiy qiymat sifatida ahamiyatlidir. Biroq matn tarjimasining nisbiy xususiyati faqat asliyatga nisbatan ko'rilmaligi kerak. Albatta, tarjima matni asliyat

asari bilan solishtirilganda yashirin tarjima faoliyatini oshkor etish, uning mexanizmlarini ochish va modellashtirish imkonini beradigan yagona moddiylashtirilgan unsurdir.

"Alpomish" dostoni inglizcha tarjimasini tahlil qilar ekanmiz, uning o'zbek xalqi madaniyati mohiyatini tubdan namoyish etuvchi manba ekanini ta'kidlagan holda tarjimon tomonidan o'girilgan misralardan ko'rib chiqamiz. Mazkur kitobda mavjud badiiy matn tarjimasini ko'p hollarda muvaffaqiyatli chiqqan, ba'zan esa aksincha. Asliyat:

Himoyat deb keldim, bo'ldim gunohkor,
Bunday menga azob berma, jallodlar,
Qamchi urib, zulm qilma xunxorlar,
Ne sababdan men bo'libman gunohkor? [A. 24 b.]

Tarjima:

I came here seeking support, a sinner,
Don't torture me, so much butchers,
Whipping me don't torture me, bloodsuckers,
Why should I have been a sinner, why? [Alp. 38 b.]

Misradagi so'zlar tarjimasini aynan bo'lmasa ham parcha ma'nosi umumiy jihatdan asliyatga mos kelgan. Faqat *butcher* so'zi jalloddan ko'ra ko'proq qassob ma'nosini beradi.

Butcher – n. A person whose trade is the preparation and selling of meat [10; 25.].

Executioner – n. The official who carries out a sentence of death; headsman, hangman, etc [10; 25.]. Demak, bu o'rinda tarjimon *executioner* so'zidan foydalangan maqsadga muvofiq bo'lar edi degan xulosaga kelish mumkin. Ammo *butcher* so'zi ham jallod o'rnida badiiy asarlarda qo'llansa xato emas. Demak, tarjimani muvaffaqiyatli chiqqan, deya olamiz. Ba'zi joylarda tarjimon tomonidan nasriy bayon ham, nazm ham tarjima qilinmay qolib ketgan. Vaholanki, bizning milliy-madaniy xususiyatlarimizni mujassamlagan voqealar rivoji aynan ana shu 29-58 betgacha bo'lgan qismda edi va bu qism inglizchada tasvirlanmagan. Bunga asosiy sabab, birinchidan, milliy xos so'zlarning ko'pligi, realiya va lakunalarning aynan ana shu sahifalarda faolligini va mazkur holat tarjima mushkulligini yuzaga keltirishi mumkin. Ikkinchidan, asardagi voqealar zanjirining muhim sahnalari tarjimada tushib qolgan. Oqibatda inglizcha tarjimani o'quvchi Barchinga qalmoqlardan bir nechasi og'iz solib sovchi bo'lganini, javob tariqasida ularga olti oylik muhlat berib, fursatdan unumli foydalanish maqsadida Alpomishga chopar yuborgani, xatni Boybo'ri o'g'lidan yashirgani, Qaldirg'ochoyim akasi Alpomishni yorini qutqarish uchun borishga undagani kabi ma'lumotlardan bexabar qoladi. Bu holat esa asar mazmunining yaxlitligiga rahna soladi. Shu sababli misralardan ayrimlarini tarjima qilib ko'ramiz. Asliyat:

To o'lguncha so'ylab qolgan til bo'lsin,
G'animning shaokati kuyib kul bo'lsin,
Ko'rar ko'zim, bolam, senga yo'l bo'lsin?

Egar, abzal, anjom olib kelasan,
Ko'tarilib bunda halok bo'lasan,
Yo'l bo'lsin, jon bolam, qayda borasan? [A 65-b.]

Tarjima:

Till the end day may one be able to speak,
And the enemy may lose all of their peak.
Apple of my eye, why ever would you go?!
Saddle, harness and instrument you bring on,
Once you do it, you will find your martyrdom,

Why ever would you, my child, where do you go?!
(Tarjima bizniki).

Xulosa.

Shunday qilib, tarjima qilinayotgan asar ma'no-mazmunini asliyatdagi kabi saqlash va o'zga til sohiblariga yetkazib berish tarjimondan nafaqat o'z tilida, balki tarjima tilida ham saqlab qolishi, so'zlarga asliyatdagi kabi "ma'no libosini kiygizish"ni talab etadi. Aks holda o'quvchi uchun asliyat tilidagi marosimu-an'analar, urf-odatlar tushunarsizligicha qolib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Якобсон Р. Избранные работы. М., 1985. – 554 с.
2. Ma'murov Q. "Alpomish". Toshkent: Zeboprint. 2023. 380 b.
3. Kollektiv. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 175.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981. 2 jild. – B. 370.
5. Бархударов Л. С. Язык и перевод. М, 1975. – 267 с.
6. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tiliniig leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 18.
7. Madayev O. Alpomish. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B.64.
8. Yunusova B.M. "Alpomish" dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi. Fil. f. f. dok. diss. Namangan. 2022. – 164 b.
9. Гарбовский Н.К. Теория перевода. Московский университет. – Москва, 2007. – 545 с.
10. Oxfor English Dictionary. University press. 2005. – 25 p.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ismonaliyeva Mahbuba Jabarali qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: ismonaliyeva94@gmail.com

POLVON OBRAZI BADIY KONSEPT SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada polvon obrazi qadimiy kurash san'ati va polvonlik qadriyatlarini asosida shakllangan polvon konseptining ifoda etish vositasi ekanligi tahlil qilinadi. 70-yillar o'zbek nasrida polvon obrazining faollashuvi jamiyatni polvon konsepti ifoda etgan qadriyatlar asosida anglash ehtiyojining natijasi ekanligi ko'rib chiqiladi. Ushbu davr adabiyoti namunalari asosida polvon obrazi va polvon konseptining munosabati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Polvon obrazi, polvon konsepti, polvon motiv obrazi, turg'unlik yillari, polvonlik qadriyatlarini.

Исмоналиева Махбуба Жабаралиевна

Докторант Андижанского государственного университета

ОБРАЗ БОРЦА КАК ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ПОНЯТИЕ

Аннотация: В данной статье анализируется образ борца как средство выражения концепции борца, сформированной на основе древнего искусства борьбы и ценностей борьбы. Считается, что активизация образа борца в узбекской прозе 70-х годов является результатом необходимости понимания общества на основе ценностей, выражаемых концепцией борца. Связь образа борца и понятия борца изучается на образцах литературы этого периода.

Ключевые слова: образ борца, концепция борца, мотив образа борца, годы застоя, ценности борьбы.

Ismonaliyeva Mahbuba Jabarali kizi

Doctoral student of Andijan State University

THE IMAGE OF POLWON AS AN ARTISTIC CONCEPT

Abstract: This article analyzes the image of a wrestler as a means of expressing the concept of a wrestler formed on the basis of the ancient art of wrestling and the values of wrestling. It is considered that the activation of the image of the wrestler in the Uzbek prose of the 70s is the result of the need to understand the society based on the values expressed by the concept of the wrestler. The relationship between the image of a wrestler and the concept of a wrestler is studied based on the samples of the literature of this period.

Keywords: image of wrestler, concept of wrestler, image of wrestler motive, years of stagnation, values of wrestling.

Kirish.

Urushdan keyingi tiklanish yillarida yo'l qo'yilgan xatolar, shuningdek, milliy respublika xalqlarining doimo mafkuraviy-siyosiy asoratga solinishi 70 – 80-yillarga kelib Sovet Ittifoqida ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulga sabab bo'ldi. Bunday vaziyat aholining turmush sharoitini yanada og'irlashtirdi va, o'z navbatida, kommunistik jamiyat haqidagi g'oyalarning puch, va'dalarning yolg'on ekanligini ko'rsatdi. "Turg'unlik yillari" nomini olgan ushbu davr millat tafakkuriga ham salbiy ta'sir o'tkazdi: ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat o'zgardi, jamiyat hayotida ularning ahamiyati yo'qolib bordi, poraxo'rlik, qonunbuzarlik, ko'zbo'yamachilik avj oldi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlarini oyog'osti etildi, ular diniy xurofot sifatida tanqid ostiga olindi. San'at va adabiyotni baynalminallashtirish orqali milliy ruh va

o'zlikni yo'q qilishga harakat qilindi. Mana shunday omillar 70 – 80-yillar adabiyotida milliy-ma'naviy qadriyatlarni qayta anglash ehtiyojini paydo qildi va bu ehtiyoj qadriyatlarni o'z shaxsiyatida mujassam etgan insonlar hayotini badiiy talqin etish masalasini yuzaga chiqardi. Ushbu davr adabiyotida turkiy qavmlarning etnik tafakkuri rivojida hosil bo'lgan "alplik tizimi" xususiyatlari bilan o'zbek xalqi qadriyatlarini uyg'unligida shakllangan e'tiqod egalari bo'lgan polvon obrazining faollashuvi mavjud sharoitda qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatini anglash ehtiyoji bilan bog'liq holda yuz berdi.

Adabiyotlar tahlili.

Said Ahmadning "Qirq besh kun" romani o'zbek xalqining jasorati, qudratining timsoli bo'lgan Katta Farg'ona kanalining bunyod etilishiga bag'ishlangan. Asarda o'zbek polvoni obrazining badiiy talqini orqali

ijodkorning mavjud davrga nisbatan estetik ideali ifoda etilgan, xalq birdamligi, o'ziga xos turmush tarzi jamiyat hayoti bilan muqoyasa qilingan. Ushbu asar yaratilganidan ikki yil o'tib, ya'ni 1976-yilda yozilgan Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida esa polvonlik qadriyatlari mavjud davr shart-sharoitini anglash vositasi sifatida talqin etiladi. 80-yillarda yozilgan "Jimjitlik" romanida Said Ahmad polvonlar hayotiga qayta murojaat qiladi, ammo muallif o'zining badiiy niyati, ma'naviy-axloqiy tubanlashgan jamiyatdan hosil bo'lgan kayfiyati o'laroq, ushbu asarida polvon obraziga nisbatan kinoyaviy munosabatda bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada jahon adabiyotshunosligida yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kognitiv poetika tamoyillariga murojaat etildi, polvon konseptini anglash vositasi sifatida tadqiq etishda kognitiv-konseptual tahlil metodi, shuningdek, asarlarni yaratilgan davri bilan bog'liqlikda o'rganishda tasniflash va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Said Ahmadning "Qirq besh kun" romanida o'zbek polvonlari obrazi Katta Farg'ona kanali qurilishining qahramonlari sifatida talqin etiladi. Muallif xalqning bunyodkorligi, mehnat jasoratini yuqori pafosda tasvirlaydi. 30-yillar texnika imkoniyatiga nisbatan qurilish miqyosining ulkanligi, shuningdek, siyosiy-iqtisodiy totalitar sharoitdan kelib chiqib ushbu bunyodkorlikning xalq turmushida fojialar yasagani tabiiy. Ammo muallifning qurilish bilan bog'liq voqelikka g'oyaviy-hissiy munosabati (Adib kanal qurilish ishlarida fotosuratchi vazifasida ishlagan. Qurilish jarayoni lavhalarini doimiy muhrlab borish muallifga voqelikni teran anglash imkoniyatini bergan) o'laroq, xalqning og'ir mehnat sharoitiga qaramay birdamligidan hosil bo'lgan ko'tarinki kayfiyati ifodasiga kengroq e'tibor qaratiladiki, bu ana shu voqelikni mavjud ijtimoiy-siyosiy sharoit ta'sirida millatning parokanda bo'lishi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy tanazzuli bilan muqoyasa qilishdan hosil bo'lgan. Qiyoslash natijasida esa polvonlar hayoti orqali ijtimoiy munosabatlarda qadriyatlar reallashuvi shaxs ruhiy-ma'naviy yuksalishining asosi sifatida davr ijtimoiy-axloqiy tubanlashuvining sabablarini anglash vositasiga aylangan.

Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida davr ijtimoiy-madaniy sharoiti, jamiyatning ma'naviy-ruhiy holati polvon konsepti asosida badiiy talqin etilgan. Qahramonlarning hayotdagi pozistiyasi hamda ularning o'zaro yoki muhit bilan ziddiyatlari qadriyatlarga turlicha munosabatning natijasida kelib chiqadi va uni badiiy idrok etish asar konsepsiyasiga asos bo'ladi. Ma'lumki, nobop ijtimoiy-siyosiy sharoit munosabatlarda qadriyatlarining reallashmasligi, axloqiy me'yorlarning buzilishi va uning oqibatida jamiyatning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'ladi. Bo'ri polvon hayotida

do'sti Nasim va qishloqning eski raisi bilan sodir bo'lgan voqealar mavjud davr shart-sharoitlari bilan bog'liqlikda idrok etiladi. Shuningdek, asarda ba'zi xarakterlarga nisbatan kinoyaviy munosabat mavjudki, bu muhit kishilari bilan muallif estetik idealining zid ekanligida voqe bo'ladi.

Davr adabiyotida polvon obrazi badiiy talqinlariga murojat jamiyatni ijtimoiy-siyosiy isloh etish, millat ruhiyatiga singib borayotgan illatlarning ildizini anglash ehtiyoji bilan bog'liqdir. Agar "Qirq besh kun" romanida xalqning hamjihatligi va jasoratini ulug'lash orqali jamiyat tafakkurida milliy birlik tushunchasini uyg'otish maqsad qilingan bo'lsa, "Yulduzlar mangu yonadi" asariga kelib obraz talqinlariga davr ijtimoiy-axloqiy sharoitini tahlil etish funksiyalari qo'shildiki, bu polvon obrazini o'zbek nasrida o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi xarakter darajasiga ko'tardi.

80-yillarga kelib "Paxta ishi", "O'zbek ishi" kabi uydirmalar bilan butun ittifoqda o'zbek xalqini badnom qilishga harakat qilindi. Paxta dalasida umri xazon bo'lgan insonlar hayoti endi qamoq, surgun, o'lim fojialari bilan butkul barbod etildi. Sho'ro hukumatining xalqlar boshiga solgan kulfatlari ichida ulg'aygan, 50-yillar repressiyasida "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olingan Said Ahmad Markazning o'z "umri"ni saqlab qolish uchun qilayotgan yana bir nayrangini anglab yetgandi. Uning mana shu yillarda yaratilgan "Jimjitlik" romanida davr manzaralari, mutega aylangan, boshiga solingan barcha kulfatlarni jim kuzatayotgan xalq fojiasi tasvirlanadi. Agar "Qirq besh kun" romanida polvon obrazi talqini polvon konseptiga mos ravishda *milliy birlik, oriyat, jasorat* tushunchalarini ifoda etgan bo'lsa, "Jimjitlik" asaridagi polvon obrazi talqinida bunday ifoda kuzatilmaydi. Balki ijtimoiy-siyosiy nopok davrda o'zligini yo'qotgan, Mirvali saltanatining qo'g'irchog'iga aylangan Nasim, Ja'far, Nizom, Rajab kabi polvonlarning qilmishlariga nisbatan yozuvchining kinoyaviy munosabati mavjudki, asar voqealariga ayol polvon – Habiba Bobodo'stova obrazining kiritilishi, uning halolligi va oriyati, el orasida yuksak or-nomusi uchun ulug'lanib kelingan, ammo mavjud shart-sharoitda ma'naviy qiyofasini yo'qotgan nomard polvonlarga kontrast qo'yiladi va endi muallif kinoyasi qahramonlar botgan razolatgagina emas, balki unga sabab bo'lgan, insonlarni o'zligidan ayirib, qadr-qimmatini paymol etgan davrga qaratiladi.

70 – 80- yillar adabiyoti ijodkorlarining asarlarida polvon konsepti asosida o'zbek xalqi qadriyatlarini anglashga intilish, jamiyat va undagi munosabatlarni badiiy tadqiq etish ehtiyoji natijasida polvon obrazi talqinlarining takrorlanishi, o'zbek nasrida polvon motiv obrazining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Keyingi davr adabiyotida, jumladan, mustaqillik davri qissa va hikoyalarda polvon obrazi orqali ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni tahlil etish, totalitar tuzumda "quvg'in qilingan qadriyatlar"ni tiklashga intilish, obraz badiiy

talqini ko'lamini yanada oshirdi. Aytish joizki, bu davr adabiyoti ijodkorlari ham o'z asarlarida o'tmish ustozlari ijodida sayqallanib, polvon motiv obrazini shakllantirgan xususiyatlardan, ya'ni polvon timsolida o'zbek xalqi qadriyatlarining mujassamligi, polvonlarning ana shu qadriyatlardan kelib chiquvchi hayot tarzi va e'tiqodi, polvonning kurash sahnasi va uning ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini tasvirlash orqali qadriyatlarni qayta anglash va anglatish imkoniyati mavjudligidan ijodiy foydalandilar. Shuningdek, polvon obrazi talqin etilgan asarlarda o'ziga xos syujet motivining takrorlanishi kuzatiladi, ya'ni qahramon asl polvonlik nimada ekanligini anglashi, uning ma'naviy yuksalishi hayotda nimanidir boy berishi, asosan, yaqin insonidan judo bo'lishi orqali yuz beradi. Masalan, Lutfinisa o'limidan so'ng Azizxonda hayot ma'nosi nimada ekanligi anglash jarayoni boshlanadi va el-yurt, ota-onasi oldida qilgan ishlarini mulohaza qila boshlaydi. Bo'ri polvon esa do'stining yolg'oni bilan Momoqizdan ayrilishi, aldov va ayriliqdan hosil bo'lgan iztirob unda polvonlik e'tiqodining shakllanishi va, ayni chog'da, ichki ruhiy muvozanatga kelishiga sabab bo'ladi. Ushbu syujet motivlari qahramonning ma'naviy-axloqiy shakllanishini ochib berish orqali asar badiiy konsepsiyasini tashkil etgan polvon konseptining ifodasini mustahkamlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek polvoni timsolini motiv obraz sifatida shakllantirgan xususiyatlar, avvalo, qadimiy kurash san'ati rivoji bilan bog'liq holda hosil bo'lib borgan polvonlik qadriyatlari bilan bog'liqdir. Zero, bu qadriyatlar asta-sekin ularning yashash tarzi, hayotiy e'tiqodlarining asosiga aylangan. Shuningdek, polvonlarning kelib chiqishi qadimiy qahramonlik jasorati hamda turkiy elatlar mifologiyasidagi "alplik tizimi" bilan bog'lanadi, qahramon so'zi bilan yondosh ishlatilgan

pahlavon leksikasining etimologik shakllanish jarayonida polvon shakliga o'tishi ham buni dalillaydi. Kurash san'ati asosida shakllangan polvonlik qadriyatlarini mardlik, or-nomus, halolik kabi tushunchalar tashkil etib, aynan shu sababdan jismoniy kamolotga etgan har bir kurashchi polvonlik qadriyatlarini davrada isbotlay olsagina haqiqiy polvon sifatida e'tirof etilgan. Polvon shaxsiyatida mujassamlashgan bunday jihatlar xalq turmushida ularni jismoniy ustun toifa sifatidagina emas, balki jasorati, mardligi, oriyati bilan ham boshqalardan yuqori qabul qilinishiga sabab bo'lgan va bu narsa ularning hayoti, turmush-tarziga doimiy ta'sir o'tkazgan. Xalq tafakkurida polvon tushunchasi ana shunday ikki tomonlama ma'no kasb etib, uning birlamchi ma'nosiga milliy o'ziga xoslik va qadriyatlar ifodasining qo'shilishi uni milliy-madaniy dunyoqarash birligi – polvon konsepti sifatida shakllantirgan.

Xulosalar.

Polvon konsepti *halollik, oriyat, jasorat, g'urur, nomus* kabi qadriyatlar *kurash* va *polvon* tushunchalarining lug'aviy ma'nosi ustiga qo'shilishidan hosil bo'lgan o'zbek xalqining milliy-madaniy tafakkuri, dunyoqarashining birligidir. Qadim zamonlardan kurash san'ati asosida shakllanib kelgan, polvon shaxsining qanday bo'lishi kerakligi haqidagi qoidalar polvonlik qadriyatlari sifatida qabul qilinib, uning an'ana va shaxs ma'naviyati bilan uyg'unligi, milliy tafakkur tizimida ushbu qadriyatlarni polvon konseptiga aylantirdi. Mavjud davrni anglashga intilish, jamiyatda qadriyatlarning reallashmasligi, uning sabablari va oqibatini polvon konsepti asosida badiiy tadqiq etish adabiyotda polvon obrazining faollashuviga olib keldi. Demak, ijodkorning mavjud davrni anglashi polvon konsepti asosida sodir bo'lsa, uni asarda ifoda etish polvon obrazi vositasida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
3. Sheraliyeva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 224 b.
4. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: Sano-standart, 2016. – 640 b.
5. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 320 b.
6. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 92 b.
7. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Sharq, 1994. – 464 b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Robiya Vaxobjonov

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mohizar_95@mail.ru

XX ASR BOSHLARIDA YURTIMIZDAGI TIL SIYOSATI VA TIL VAZIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiolingvistika faninining asosiy obyektlaridan biri hisoblangan til siyosati va til vaziyati tushunchalariga ta'rif bergan holda, XX asr boshlaridagi yurtimizda til masalasiga oid siyosati yoritilgan.

Kalit so'zlar: til siyosati, til vaziyati, sotsiolingvistika, publitsistik matn, jadid, jadidchilik.

Робия Вахобжонова

Докторант Наманганского государственного университета

ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА И ЯЗЫКОВАЯ СИТУАЦИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ В НАЧАЛЕ ВЕКА

Аннотация. В данной статье описываются языковая политика и языковая ситуация, которые считаются одними из основных объектов социолингвистики, а также языковая политика в нашей стране в начале 20 века.

Ключевые слова: языковая политика, языковая ситуация, социолингвистика, публицистический текст, джадид, джадидизм.

Robiya Vakhobjonova

Doctoral student of Namangan State University

LANGUAGE POLICY AND LANGUAGE SITUATION IN OUR COUNTRY AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

Abstract. This article describes the language policy and the language situation, which are considered one of the main objects of sociolinguistics and the language policy in our country at the beginning of the 20th century.

Key words: language policy, language situation, sociolinguistics, journalistic text, jadid, jadidism.

Kirish.

Bugungi rivojlanayotgan dunyoda faqatgina bir tildan foydalanadigan davlatni topish juda mushkul hisoblanadi. Bir davlatda eng kamida ikki yoki undan ortiq tillar mavjudligi til siyosatiga oid qonun- qoidalar, qarorlar joriy qilinishini talab qiladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo ziyolilari orasida o'zlikni anglash anglash hissi kuchaygan davr edi. Xotiradan unutilish darajasigacha kelib qolgan madaniy va ma'naviy meroslarimizni qayta tiklash va insonlar orasida o'tmish madaniyatiga nisbatan hurmat, mehr-muhabbat hissini uyg'otish jarayonlari boshlandi. Albatta, bu harakatning yo'l boshchilari sifatida jadidlar maydonga keldi. Ular nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotni o'zgartirish, balki ommaning ma'naviy turmushini ham asta-sekinlik bilan o'stirishga bel bog'lagan edi. Bu o'rinda eng avvalo, ona tiliga alohida ahamiyat berib, mustabid tuzum oqibatida xalokat yoqasiga kelib qolganligini ochiq-oydin ko'ra olgan edilar. Yurtimizdagi yangicha tuzum (mustabid tuzum) yangicha til siyosati hamda til vaziyatini ham taqozo etad edi.

Buning natijasida boshqa ittifoqdosh davlatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham rus tilining o'zbek tiliga tazyiqi kuchaydi. Ona tilimiz XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarning oxiriga qadar rus tilining ta'sirida qoldi. Chunonchi, o'zlari rahbarligida nashr etilgan gazeta va jurnallarda ma'naviy hayot, milliy o'zlikni anglash, bu davrdagi til siyosati, tillarning holati, o'zbek tiliga boshqa tillarning (rus tilining) ta'siri masalalariga alohida e'tibor berilgan. Biz quyida jadidlar tomonidan chop etilgan publitsistik maqolalarning ayrimlarini ko'zdan kechirgan holda davr til siyosati va til vaziyati masalalarini yoritishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Tadqiq etilayotgan mavzu Abdusaidov A, Boboyeva A, Muhammadiyev R, Kurbanova S, Tog'ayev O, Cherepaxov M.S, Kurbanov T.I, Qilichev E, Xalilova M, Proxorov E.P, Belinskiy V.G, Nikolskiy L.B, Abdurashidov Z, Egamqulov N, Mo'minov F,

Nurmatov A, Voroshilov V.V, Xudoyqulov M kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida atroflicha o'rganilgan.

Ushbu maqolada tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, tasniflash, tahlil metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar.

Sotsiolingvistikada turli yillarda turli davlatlarda o'tkazilgan til siyosati bo'yicha ancha-muncha tajriba mavjud va bugungi kunga kelib, uning bir necha modellari shakllangan.⁹ Sotsiolingvist L.B.Nikolskiy turli davlatlarda o'tkazilgan til siyosatlarini tahlil qilar ekan, til siyosati shakllangan til me'yorlarini saqlab qolishi yoki yangi til me'yorlarini joriy qilishga mo'ljallanishini; rasmiy tilni belgilashda haqiqiy til vaziyati e'tiborga olinganligi yoki olinmaganligiga ko'ra til siyosati demokratik va nodemokratik xususiyat kasb etishini; mavjud tillarning rivoji uchun teng sharoit yaratilganligi yoki yaratilmaganligiga ko'ra til siyosatining baynalmilal yoki milliy yo'nalishi mumkinligini farqlaydi.¹⁰

XX asr boshlarida til siyosati va til vaziyati haqida so'z yuritishdan avval bu ikki tushunchaga to'xtalib o'tish lozim. Sotsiolingvistika faniga oid ilmiy manbalarda til siyosatiga quyidagicha ta'rif keltiriladi; ma'lum bir davlat, sinf, ijtimoiy guruhlarning mavjud tildan hamda subkodlar vazifalarini o'zgartish, saqlab qolish, yangi lingvistik me'yorlarni joriy qilish yoki eskilarini saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi. "Til siyosati tilni planlashtirish bilan shug'ullanayotganlarga tegishli bo'lib, ular rasmiy til siyosati shakllanishiga bevosita aloqador bo'lgan tilshunoslar, ta'lim xodimlari, huquqshunoslar va rahbarlardir¹¹. V.A.Avrora fikriga ko'ra, til siyosatining bevosita obyekti tilning funksional tomoni hisoblanadi. Tilning funksional tomoni tashqi ta'sirlarga sezuvchan bo'ladi. Jamiyat tilning struktura tomonini ham ma'lum darajada boshqarishi mumkin, biroq uni bevosita emas, tilning funksional tomoni vositasida boshqaradi. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, har bir til, albatta, jamiyat uchun eng asosiy kommunikativ funksiya bajaradi va shu vazilari negizida til siyosati amalga oshiriladi.

Til vaziyati atamasi dastlab XX asrning 30-yillarida chet el olimlarining Osiyo va Afrika xalqlari tillarini o'rganish bag'ishlangan ishlarida uchraydi. Bu termin biror-bir mamlakat yoki ularning muayyan bir hududida amal qiluvchi tillar uyushmasiga nisbatan ishlatiladi. I.Ferguson fikricha, muayyan bir vaqtda, muayyan bir joyda qanday tildan foydalanilmoqda, tillar soni, qanday turdagi til ushbu arealda ishlatiladi, qancha odam qanday sharoitda shu tilda gaplashadi, ushbu jamoa a'zolarining shu tilga bo'lgan munosabati haqidagi masalalar, umuman ulganda, tilning qo'llanish doirasini "til vaziyati" termini o'z ichiga qamrab oladi¹².

XX asr boshlaridagi til vaziyati va siyosatini o'rganish uchun, albatta, so'z yuritilayotgan davrda yashab ijod qilgan, Vatan kelajagi uchun xizmat qilgan, xurlik uchun kurashgan jadidlarning badiiy, publitsistik ruhda yozgan meroslariga nazar solishimiz lozim. Jumladan, jadidlar tomonidan nashr qilingan "Oyina" jurnali, "Turkiston viloyati gazetasi", "Xurshid" va boshqa gazeta, jrnallarda til masalalariga bag'ishlangan maqolalar bosilib turgan. Jumladan, Maxmudxo'ja Behbudiy "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi", "Sart so'zi majhuldur", "Sart so'zi ma'lum bo'lmadi" singari bir qator maqolalarida o'zining tilshunoslikka oid qarashlarini bayon qilgan. Bu haqida quyidagilarni yozadi: "Turkistonning o'ziga tegishli shevasi turk tilining lahjasi bo'lib, "Navoiy" kitobi bu lahjaning go'yo muhim kitobidir. Ammo ko'pdan beri Turkistonda madaniyat va san'ati va adabiyoti tadanniy etgani uchun xalq bu lahjani buzganlar. Buzmoq nari tursun, Turkistonning har bir shahrining va hatto ba'zi biq qasaba va ko'ylarining shevasi boshqadur"¹³. Yuqoridagi matndan ma'lum bo'ladiki, bu davrdagi mustabid tuzum, madaniy, siyosiy, iqtisodiy turmushdagi o'zgarishlar tilda o'z aksini ko'rsatmay qolmaydi, chunonchi bu fikrlar XX asr boshlaridagi til siyosatiga ham oiddir.

So'z yuritilayotgan davrga oid manbalarni ko'zdan kechirish davomida shu narsa ayon bo'ldiki, o'zbek millatiga mansub bo'lgan holda milliy tilida erkin gaplasha olmagan, ziyoli qatlam esa rus tilini o'rganishga o'z o'zidan majbur bo'lgan. Hatto rasmiy yig'inlar ham rus tilida olib borilgan. Agarda o'zbek tilida gapiradigan bo'lsa, u insonga bepisand munosabatda bo'lingan. Ota-onalar ham o'z farzandlarini o'zbek maktablariga emas, aksincha, rus maktablariga berishga harakat qilishgan. Shu vaziyatlarga shaxsan guvoh bo'lgan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Ashurali Zohiriy, Fitrat kabi jonkuyarlar xalq ongiga milliy til va adabiyotimizni saqlash qolishga, asrashga qaratilgan, publitsistik, drammatik, badiiy asarlari bilan ta'sir o'tkazganlar. Jumladan, Abdurauf Fitrat jonkuyar tilshunos sifatida 20- yillar til siyosati haqida "Sarfi" kitobida yozadi: "... Bugun turk dunyosi uchun "Bir yalpi til" qabul etmak xayollari bilan ovora bo'ldik. Tilimizni shunga to'g'ri yurguzmak uchun unumsiz tirishdik. Bu xayollarning amalga oshmogonini bilgandan keyin o'z tilimizni tushuna boshladik. Bu yo'lda birinchi odimni qo'qonlik Ashurali Zohiriy otdi. Imlo bitik so'zini yozib chiqardi. Undan so'ngra Toshkentda "Chig'atoy gurungi" ochildi".

Fitrat 1919-yil 12-iyunda "Ishtirokiyun" gazetasining 132-sonida e'lon qilingan "Tilimiz" maqolasida o'zbek tilining tarixidagi achchiq qismati, uzoq yillar arab va fors tillar ta'sirida bo'lib kelganligi, lekin

⁹ Odilov Yo. "Til siyosati: davlat tili, rasmiy til va milliy tillar". "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2022-yil, 2-son, 3-bet.

¹⁰ Николаский Л. Б. Синхронная сotsiolingvistika. – М: "Наука", 1976, - Стр. 117-119.

¹¹ Sh.Xudoyqulova. Sotsiolingvistika (o'quv-uslubiy majmua). Guliston -2018, 42-43-betlaro

¹² Berdialiyev A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi. T, 2019.

¹³ Ko'rsatilgan manba.

leksik-grammatik jihatdan bu tillardan hech qanday qolishmasligini ta'kidlaydi¹⁴. Ushbu maqoladagi ayrim o'rinlarni keltirishni joiz deb topdik. Chunonchi, "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog'inda bo'lg'on bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizni holini bilmasdan gapirurlar. ... Turk tili shuncha boylig'i, shuncha tugalligi bilan baxtsizliqdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir. Turkchanning baxtsizligi arab bosqini bilan bog'lanmishdir.

Turkcha baxtsizdir. Ming yillardan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas! Yahsamishdir – Yashar. Negakim, boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o'zini arab, fors tillaridan qutqara olurmi, yo'qmi?¹⁵ Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'lishicha, bu davrdagi o'zbek tiliga bo'layotgan munosabat, milliy til sifatida yetarlicha e'zozlanmayotgani, unga nisbatan hurmatsizlik qilinayotgani faqatgina rus tili ta'siridagina emas, balki ancha oldinroq Markaziy Osiyoni egallagan arablar, qolaversa, fors tili o'z ta'sirini ko'rsatmoqda degan fikrlarni ochiq-oydin anglashimiz mumkin. Bizningcha esa, XX asr boshlariga nazar soladigan bo'lsak, o'z tilimizga oid siyosat rus hukumati manfaatlarini uchungina xizmat qilgan. Vaholanki, bu davrda ona tilimizga rus tili shu qadar ta'sirini o'tkazganki, buni yuqorida aytganimizdek, yoppasiga barcha qatlam bu tilni egallashga harakat qilganidan bilish qiyin emas. "O'zbek tilshunosligi tarixi" kitobida keltirilishicha, bu davring yetuk tilshunoslaridan hisoblangan Ashurali Zohiriy ham, tilimizning bu holatiga: "agar ajnabiy so'zlar qo'llanaversa, tilda soflik bitta-bitta, sal yilning ichida boshqa so'zlar u tilni qoplab, tanimaslik holiga kelib qoladi va yutadi. Shuning uchun ham turmushga kirib kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalamoq uchun "o'z tilimizning boyligidan

foydalanmoqni tavsiya etadi. "Ag'ar undoq so'zlar topilmasa, ovrupacha, arabcha, forsiychadan olmoq" lozimligini aytadi.¹⁶

Abdulla Avloniy ham barcha xalqlarning eng muhim belgisi til ekanligini ta'kidlaydi. "Dar bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmaktir"¹⁷. Yuqoridagi fikrlardan ayon bo'ladiki, har bir davrning o'z til siyosati hamda u asosida shakllangan til vaziyati vujudga keladi. Shu jumladan, ushbu fikrlarimiz XX asr muhitiga ham taalluqlidir.

Xulosa.

O'tmish tariximizga nazar solsak, taassufki, rus tuzumi davrida milliy g'urur, millat ruhi bo'lgan ona tilimizning obro'sini kamaytirishga bo'lgan urinishlar ko'p bo'ldi. Ma'rifatparvar ijodkor, millat junkuyari Abdulla Qodiriy "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", deya ta'kidlashi vositasida tarixning zaharli holatlarini ko'rsatgan. Mustabid tuzum davrida ona tilimizga bo'lgan nohaqliklarga qaramasdan, xalqimiz o'z ona tilini saqlab qola oldi. 1989-yil 21-oktabr kuni qabul qilingan "Davlat tili to'g'risidagi qonunga muvofiq, o'zbek tili davlat tili, deb e'lon qilindi.

Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 4-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ona tilimiz borasida amalga oshirilayotgan muhim til siyosatidir. Farmonga binoan 21-oktabr mamlakatimizda "O'zbek tili bayrami kuni", deb e'lon qilindi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tuzilmasining tashkil etilgani o'zbek tilining obro'sini, mavqei oshirish, tilimizga bo'lgan hurmatni yanada oshirish, bu borada davlat siyosati amalga oshirilayotganini yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar (referances).

1. Xalilova M. O'zbek tili stilistikasi asoslari. "Farg'ona" - 2009.
2. Sul-tonmurodova S, Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent-2009.
3. Boltaboyev H. "Abdurauf Fitrat" jadid adabiyoti namoyandalari. "Zabarjad media" – 2022.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent -2002.
5. Sh.Xudoyqulova. Sotsiolingvistika (o'quv-uslubiy majmua). Guliston -2018, 43-44-betlar.
6. Abdusaidov A. Gazeta tilining leksik-stilistik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 1991 va boshqalar.
7. Berdialiyev A. O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi. T, 2019.
8. Cho'lpon. "Turkistonda matbuot" maqola. "Fuqaro fuyuzati" jurnali Boku-1920.
9. Николский Л. Б. Синхронная сoтсиoлингвистика. – М: "Наука", 1976, - Стр. 117-119.
10. Xolboyev S. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov (risola). Toshkent- 2022, 119-bet.
11. Madaminova G. "Publitsistika uslubida maqol va matallarning ifodalanish xususiyatlari" Journal of universal science research. 2017. 594-599-betlar.
12. Odilov Y. "Publitsistik matn va leksik taraqqiyot" . "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020.

¹⁴ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. T, "O'zbekiston"-2002, 139-bet.

¹⁵ Fitrat "Tilimiz" maqolasi. "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919-yi. 12-iyul. 132-son.

¹⁶ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. T, "O'zbekiston"-2002, 135-bet.

¹⁷ Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1979, 249-267-betlar

13. Usmonova U. "Publitsistik matnning sintaktik-stilistik xususiyatlari" maqolasi. 2018.

14. WWW.Kitobxon.com.

15. WWW.ziyouz.com.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Usmonova Shahnoza Erkinjonovna
Namangan davlat universiteti
2-kurs tayanch doktoranti,
e-mail: zafarbekismatov@gmail.com

FITRAT LIRIKASIDA QO'LLANGAN EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda emotsional-ekspressivlik tushunchasi hali ham markaziy tushunchalardan ekanligini yaxshi bilamiz. Ko'plab shoir va yozuvchilarimizning asarlari misolida bu tushunchani bir necha tilshunoslik yo'nalishlarida tadqiq qilingan. Faqat baho munosabatini ifodalaydigan bu so'zlarni Fitrat she'rlarida qo'llanishi va ularning lingvopragmatik tahlilini hali o'rganilmagan. Shu bois mazkur maqolada Abdurauf Fitrat she'rlarida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilinadi. Shu bilan birga Fitratning badiiy topilmalarini ham o'rganilib, shoir aslida nima demoqchiligini yoritiladi.

Kalit so'zlar: emotsional-ekspressiv ma'no, emotsiya, emotsionallik, ekspressivlik, emotiv, emotsional-ekspressiv bo'yoq, denotativ, konnotativ va pragmatik ma'no, fonetik usul, morfologik usul, leksik usul, punktatsion usul.

Усмонова Шахноза Эркинжоновна
Наманганский государственный университет
Студент 2 курса основного докторантуры

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ВЫРАЖАЮЩИХ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНУЮ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТЬ ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ЛИРИКЕ ФИТРАТА

Аннотация: Мы хорошо знаем что понятие, эмоционально-выразительности по прежнему остоесяодним из центральных понятий в современной лингвистика. На примере произведений многих поэтов и писателей данное понятие изучалось в нескольких областях языкознания. Употребление этих слов, выражающих лишь ценностное отношение, в стихотворениях Фитрата и их лингвопрагматический анализ до сих пор не изучены. Поэтому в данной статье анализируются лингвопрагматические особенности языковых средство выражения эмоционально-выразительности в прежнему стихотворениях Фитрата. При этом изучаются и художественные находки Фитрата, освещается то, что на самом деле хочет сказать поэт .

Ключевые слова: эмоция, эмоциональность, экспрессивность,эмотив, эмоционально-выразительное значение, эмоционально-выразительная окраска, денотативное, личнотативно-прагматическое значение, фонетический метод, морфологический метод, лексический метод, пунктуационный метод.

Usmonova Shahnoza Erkinjonovna
Namangan State University
2nd year basic doctoral student

LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF LEXICAL MEANS OF EMOTIONAL-EKSPRESSIVENESS USED IN FITRAT'S LYRICS

Annotation: We know well that the concept of emotional-expressiveness is still one of the central concepts in today's modern linguistics. On the example of the works of many poets and writers, this concept has been studied in several areas of linguistics. The use of these words, wich express only the relation of value, in Fitrat's poems and their linguo-pragmatic analyzis have not yet been studied. Therefore, this article analyzes the linguo-pragmatic features of linguistic tools expressing emotional-expressiveness in Abdurauf Fitrat's poems. At the same time, the artistic findings of Fitrat are also studied, and what the poet actually wants to say is illuminated.

Key words: emotion, emotionality, expressiveness, emotive, emotional-expressive meaning, emotional-expressive color, denotative, connotative and pragmatic meaning, phonetic method, morphological method, lexical method, punctuation method.

Kirish.

Tilshunoslikda emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalovchi leksikalarni keng tahlil qilingan. Xo'sh, emotsiya va emotsionallik, ekspressiv va ekspressivlik o'zi nima? "Emotsiya" fransuzcha so'z bo'lib, his-hayajonga solmoq, to'ldirish ma'nolarini anglatadi. Lug'atlarda unga tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siri natijasida odam va hayvonlarda paydo bo'ladigan ruhiy kechinma, his-tuyg'u, his-hayajon, qo'zg'alish deb ta'rif berilgan. Shu o'zakdan kelib chiqqan "emotsional" termini esa his-tuyg'u ifodalovchi ma'nosini anglatadi, "emotsionallik" so'zi emotsional belgi, xususiyat, shunday belgi xususiyatga egalik ma'nolarini ifodalaydi.

"Ekspressiv" lotincha so'z bo'lib, asl ma'nosiga ko'ra "kuchaytirilgan" demakdir. Bu termin tilshunoslikka ko'chma ma'nosi bilan kirgan bo'lib, "kuchli hissiy obrazlilik xususiyati" degan ma'noni ifodalaydi [1;6]. His-hayajon psixologiya fanida tekshirilsa-da, tildagi vositalar orqali his-hayajon ifodalangan sabab tilshunoslar tomonidan o'rganiladi. Ekspressivlik va emotsionallik tushunchalari bir-biriga bog'liq bo'lgan, umumiy tushunchalarni ifodalaydi. [2;6]. "Nutqni yana-da yorqinroq, ta'sirchanroq, taassurotliroq qiladigan narsalarning hammasi ekspressivdir. Demak, nutqning ekspressivligi – nutqni yorqin, ta'sirchan, tasviriy, taassurotli qiluvchi vositalardir" [3;99]. Ekspressivlik (lotincha expressio) – ifodaviylik, his-tuyg'uni, xavotirni bildiruvchi kuch degani.

Adabiyotlar tahlili.

Jahon tilshunosligida ko'p tilshunoslar, jumladan, F.Sossyur, V.Vundt, K.S.Lyuis, E.Bergen, V.F.Gegel, D.Bolingerlar o'z ilmiy ishlarida emotsional-ekspressiv so'zlar va ularning ma'no taraqqiyotini o'rganishgan. V.I.Shaxovskiy, E.M.Galkina Fedoruk, E.F.Patrichcheva, S.S.Plyamovataya, S.G.Lyubova, S.K.Abakumov, V.V.Vinogradov, Y.Y.Myagkova kabi rus tilshunoslari esa o'z tadqiqotlarida emotsional so'zlarni ko'proq psixologiya faniga bog'lab o'rganishga erishishgan.

O'zbek tilshunosligida ham bu borada samarali tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Dastlab Y.Pinxasov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" ilmiy qo'llanmasida emotsional so'zlarni his-hayajonni bildiruvchi maxsus so'zlar va so'zlovchining predmet, voqea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi so'zlar [4;44]ga bo'lganini e'tirof etgan bo'lsa, I.Qo'chqortoyev so'zlarning bog'lanishi asosida emotsional-ekspressivlik hosil bo'lishini aytib o'tgan [5;168]. S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, F.Kamolov, H.Jamolxonov, G.Kabuljanova, G'.Qambarov, X.Doniyorov, M.Mirtojiyev, S.G'oyibov, R.Qong'urov, A.Abdullayevlarning ilmiy tadqiqotlarida ham emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi leksikalar tahlilini kuzatamiz.

O'zbek tilida nominativ ma'noga ekspressiya elementi qo'shilgan so'zlar ko'pligini bilamiz. Ularni o'rganishdan avval so'zning umumiy ma'nolari haqida ham fikr yuritish lozim. Bilamizki, so'zning umumiy ma'nosi denotativ, konnotativ va pragmatik ma'noga bo'linadi. Denotativ ma'no – obyektiv borliqning insoniyat ongidagi bevosita in'ikosi. Konnotativ ma'noni ayrim adabiyotlarda, jumladan, M.Hakimovning "Semasiologiya" asarida emotiv, emotsional-ekspressiv ma'no [6;28] deb ham aytilgan. Bunga sabab esa konnotativ ma'no qo'shimcha ma'no bo'lib, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lishidir. Emotsional-ekspressiv bo'yoq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Pragmatik ma'no ham tilshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'lgani bois ijtimoiy, amaliy ma'no hisoblanadi, asrlar mobaynida qo'llanib kelinayotgan denotativ yoki konnotativ to'ldira olmayotgan bo'sh o'rinlarni, o'zi qoniqmayotgan jihatlarni ifodalash uchun millat tomonidan ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy, geografik-areal, diniy-etnografik va boshqa jihatlarni o'zida namoyon qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy asosli fikrlarni jadidimiz Abdurauf Fitrat asarlari asosida tahlil qilishga harakat qilamiz, zero uning she'rlarida qo'llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalarni hali lingvopragmatik tahlil qilinmaganligini kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu galgi maqolamizda uning ba'zi she'rlarida qo'llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi leksikalarni lingvopragmatik tahlil qilib chiqamiz.

Tahlillar va natijalar.

Buning uchun esa avvalo, so'zning emotsional-ekspressivlik darajasi so'zlovchining layoqatiga bog'liq bo'lishini yodda tutgan holda emotsional-ekspressivlikni amalga oshirish mumkin bo'lgan usullardan ba'zilarini belgilab olamiz va aynan shu usullarga Fitrat she'rlaridan misollar keltirish orqali shoir aslida nima demoqchi ekanligini ko'rib chiqamiz. Biz tilda emotsional-ekspressiv bo'yoq to'rt xil usulda namoyon bo'lishini bilamiz. Ular quyidagilar:

- 1) leksik;
- 2) so'zni metaforik qo'llash;
- 3) affiksatsiya;
- 4) kontekstual.

Biz bulardan leksik usul orqali tilda hosil bo'ladigan emotsional-ekspressivlikni Fitrat lirikasi misolida ko'rib chiqamiz. Emotsional-ekspressiv bo'yoqning leksik usulda ifodalanishida stilistik bo'yoq so'z negizining o'zi bilan ifodalanadi. Bunday vaziyatda so'zning o'z lug'aviy ma'nosida tabiatan, aslan baholash elementi mavjud bo'ladi. Tilda emotsiyaning ifodalanishi doim ekspressivdir, biroq tildagi ekspressiya doim emotsional bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, emotsionallikning ekspressivlikka munosabati xususiy holatning umumiy

holatga munosabatidekdir. Ba'zi olimlar yuqoridagi holatlarni qayd etib, quyidagicha yozadi: "Har qanday emotsionallik - ekspressivlikdir. Shuning uchun fanda "emotsional-ekspressiv" termini qo'llanadi". Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, "ekspressiya" so'zining birinchi ma'nosi "ifodalilik" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi "his-hayajonlarning namoyon bo'lish kuchi"dir. "Emotsional-ekspressiv" juft termin sostavida ekspressiv so'zi ifodalilikdan tashqari anglatilayotgan tushunchaga nisbatan so'zlovchining emotsional munosabati kuchli namoyon bo'lishini ham bildiradi, ya'ni emotsional-ekspressiv termini lingvistik hodisa mohiyatini to'la aks ettirishga xizmat qiladi. [7;162] Demak, bu atamani qo'llash emotsiyalarni atovchi va ijtimoiy nuqtayi nazardan ijobiy yoki salbiy baholanuvchi leksikaga oid so'zlardan emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalovchi so'zlarni aniq farqlashga yordam beradi. Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksika ko'proq oddiy so'zlashuv nutqida yoki kitobiy-poetik, ya'ni badiiy uslubda, tantanavor nutqda qo'llanadi. So'z ifodalagan ekspressivlikka ko'ra odatda uch qatlam ajratiladi:

- 1) neytral leksika;
- 2) yuqori stilistik bo'yoqli leksika;
- 3) past stilistik bo'yoqli leksika.

Past stilistik bo'yoqqa so'zlashuv leksikasiga oid so'zlar, yuqori stilistik bo'yoqqa esa kitobiy leksikaga oid leksikalar kiradi. Umumiste'moldagi so'zlar esa neytral leksikani tashkil qiladi. Sababi ular ekspressiv bo'yoqqa ega emas. Emotsional-ekspressiv leksik qatlamga mansub so'zlar voqea-hodisalarga so'zlovchining subyektiv emotsional munosabatini ifodalashi nuqtayi nazaridan ikki katta guruhga ajratiladi:

- 1) ijobiy munosabat anglatuvchi leksika;
- 2) salbiy (peyorativ) munosabat anglatuvchi leksika.

Bu guruhlarga kiruvchi misollarni Fitrat asarlarida ko'plab uchratamiz. Ijobiy ma'no ottenkalari juda rang-barangdir. Ular orasidan Fitrat asarlarida uchraydiganlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1) yuqori, tantanavorlik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar:

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
Bu millatning saodatini, baxtin o'qudim. ("O'gut'")

Qardoshlarim, mana sizga bir o'lka

Kim, topilmas yer yuzida singari.

Har yonida keng, yam-yashil uchmohlar

Jon suvından yetishkandir gullari... ("Sharq")

Orqadoshlar, to'planaylik jahlning uyini yiqqali

El ko'zin olgan qorong'u pardalarni yirtkali.

Yorutaylik ma'rifat nuri-la Turkistonlari,

Ilm o'chog'ida yetishkan er-yigitlar, to'planing!

Qochiraylik *jahl urdu(lashkar)sin*, ochaylik
onglari...

("O'qutg'uvchilar

yurtiga")

Bu o'g'urli(sho'rlik) o'lka buncheda o'tni?

Kim to'kkan? ("Sharq")

Biz erurmiz *ma'rifat arslonlari, ilm erlari*,

To'planaylik, turk elig'a to'g'ri yo'llar ochqali.

("O'qutg'uvchilar yurtiga")

Ey xoqonlar o'chog'i!

Ey qahramonlar tug'oyi!

Qani u *chaqmoq chaqishli botir xoqonlaring?*

Qani avvalgi o'q yurushli, otli beklaring?

Nechun "urho"laring eshitilmaydir? ("Yurt qayg'usi" sochma)

2) yuqori poetik so'zlar:

Ishq bog'ining tentak, singirli, yongan,

Bulbulidir. Bashariyat dunyosini

Kichik, *nozli qanoti* uzra qo'yar,

Ko'klar sari yuksaltkali talpinar. ("Shoir")

Shoir ishqning *eng nozli*,

Erka, injiq yog'dusidir, turolmas

Ma'shuqidan ko'rmagancha kulushli,

Marhamatli, chin sezguli bir ko'mak,

Mana shudir uning uchun bor tilak. ("Shoir")

Bir oz burun *chog'ir ichkan parilarg'a* o'xshardi.

Bilmam nechun o'ylardi..! ("Yana yondim")

Erka malak, achchig'lanmam senga

Uchirsang-da ko'kka yurak kulin.

Achchig'lanmam senga, *nozli quyosh*,

Yondirsang-da *umidimning gulin*.

("Achchig'lanma, degan eding")

Bilmadim, *gulin*, ayt o'zing kulib,

Oshiqing nechuk atag'ay seni? ("Kim deyyay seni?")

Qani ul damki, sen eding *yorim*,

Munisim, hamdamim, madadkorim. ("Go'zalim, bevafo gulistonim")

Emotsional-ekspressiv ma'noli so'zlarda salbiy ma'no ottenkalarining turlari ijobiy ma'no ottenkalariga nisbatan ham ancha rang-barangligi bilan farqlanadi. Yana Fitrat she'rilaridan olingan parchalar asosida bularni ko'rib chiqamiz:

1) nafratlanish ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar:

"Hayot" degan qopqon borsun,

Parchalansun, bitsun, yo'qolsun.

("Achchig'lanma, degan eding")

Kirli toj ko'b qo'rqdi botur tovshidan,

Seskanib, titrab... yoshrunderi

Bir javob bermasdan. ("Behbudiyning sag'anasin izladim")

Qilolmasang shu ishlarni,

Sening uchun xo'rlikdir bu...

Yiqil, yo'qol, ket! ("Og'ut")

Qurshatmishdir qo'rg'on qilib tegrasin —

Kim yovvoyi bir hayvon

Suqub qolmasun munga yirtqich tishin,
tirnog'in. ("Sharq")

2) haqorat anglatuvchi so'zlar:

Madaniyat degan *g'arbli olbosti*,

Boqing, buning ko'ragidan o'q bosdi.
 ("Sharq")

Oh... u kunlar!...

Sho'r suvlardan chiqib kelgan bu *maymun*,

Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un

Anglizlar!...

Hamda *uning quyrug'ini tutkanlar!* ("Qor")

[8]

Xulosalar.

Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni xulosa qilish mumkinki, ekspressiv leksikalar nominativ funksiyadan tashqari o'zlari ifodalayotgan tushunchaga nisbatan so'zlovchining subyektiv bahosini ham ko'rsatib turadi. Ularning bu xususiyati emotsional-ekspressiv bo'yoq jihatdan neytral bo'lgan so'zlarga taqqoslanganda,

ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, emotsional-ekspressiv leksik qatlamga oid so'zlar, nominativ ma'no anglatishdan tashqari, bu ma'noning doimiy va obyektiv elementi bo'lgan, uning uzviy komponenti hisoblangan yorqin stilistik bo'yoqqa ega. Bu bo'yoq so'zlovchining nutq predmetiga nisbatan ijobiy yo salbiy emotsional munosabatini ifodalash formasida namoyon bo'ladi. Abdurauf Fitrat she'rlarida ham buni yaqqol ko'ra oldik. Yuqorida keltirilgan she'rlarida ta'sirchanlik qanday vositalar orqali ifodalanganligini ko'rish orqali uni yana bir bor tengi yo'q ijodkor va shu bilan bir vaqtda yetuk tilshunos olim bo'lganligini isbotladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маджидова Р.У., Муҳиддинова Х.С., Султонова Ш.М. Тилшуносликка кириш. - Тошкент, 2015. – 6б.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодалаиши. - Тошкент: Фан, 1983.– 6 б.
3. Галькина-Федорук Е. М. , Горшкова К. В., Шанский Н.М. Современный русский язык. М, 1962. – Т.1. - с. 99.
4. Пинхасов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 44 б.
5. Қўчқортөв И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. - Тошкент: Фан, 1977.– 168 б.
6. Ҳақимова М. Семасиология. - Тошкент, 2008.– 28 б.
7. Ўзбек тили лексикологияси. - Тошкент: Фан, 1987. – 162 б.
8. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 31-32-33-36-37-38-41-42- б.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna
Termiz davlat universiteti 2-bosqich (DSc) doktoranti
E-mail: uglonoy@yahoo.com

UDK: 811.81.373

BIBLIYA DINIY BARQAROR BIRLIKLARINING O'Z VA KO'CHMA MA'NOSI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bibliya iboralarining Injildagi o'z va so'zlashuv nutqidagi ko'chma ma'nosi tahlil etilgan bo'lib, zamonaviy ingliz tilida ularning tarjima jarayonlari ochib berilgan. Biz ushbu maqoladagi ma'lumotlar asosida Bibliya iboralarining tamomila o'zga ma'no kasb etganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Maqolani yoritish davomida diniy barqaror birliklarning tarjima qilish metodlari ko'rib chiqildi va ularni yanada chuqurroq tahlil etish uchun zarur adabiyotlarga murojaat etildi. Ularning o'z va ko'chma ma'nosi o'rtasidagi farq chog'ishtirma metod asosida ochib berildi.

Kalit so'zlar: diniy barqaror birikmalar, Bibliya iboralari, o'z ma'no, ko'chma ma'no, monosemantik, polisemantik, chog'ishtirma metod.

Худойназарова Углоной Алламурадовна

Докторант 2 курса (DSc) Термезского государственного университета

ЗНАЧЕНИЕ СТАБИЛЬНЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ЕДИНИЦ В БИБЛИИ

Аннотация: В данной статье анализируется переносное значение библейских словосочетаний в Библии и в разговорной речи, а также раскрываются процессы их перевода на современный английский язык. Опираясь на информацию данной статьи, мы можем стать свидетелями того, что библейские фразы приобрели совершенно иной смысл. В ходе освещения статьи были рассмотрены способы перевода устойчивых религиозных единиц и использована необходимая литература для их более глубокого анализа. На основе перекрестного метода выявлена разница между их исходным и переводным значением.

Ключевые слова: религиозные устойчивые сочетания, библейские словосочетания, исходное значение, переносное значение, однозначность, многозначность, гибридный метод.

Khudoynazarova Uglonoy Allamurodovna

2nd course (DSc) doctoral student of Termez State University

THE MEANING OF STABLE RELIGIOUS UNITS IN THE BIBLE

Annotation: This article analyzes the figurative meaning of biblical phrases in the Bible and in colloquial speech, and their translation processes in modern English are revealed. Based on the information in this article, we can witness that the biblical phrases have acquired a completely different meaning. During the coverage of the article, the translation methods of stable religious units were considered and necessary literature was referred to for their deeper analysis. The difference between their original and translational meaning was revealed on the basis of cross-sectional method.

Key words: religious stable combinations, biblical phrases, original meaning, figurative meaning, monosemantic, polysemantic, hybrid method.

Kirish.

Muqaddas Bibliya iboralari barqarorligini yo'qotib vaqt o'tishi bilan, yangi ma'no kasb etadi, bu tilni rivojlantirishning qonuniyatlaridan biridir [1;55]. Tilni rivojlantirishga xizmat qiluvchi leksik va frazeologik o'zgarishlar til universiyalariga xos xususiyatdir [2;75]. Leksik o'zgaruvchanlik frazeologik birliklar tuzilishining

diskretligi, frazeologik birliklar tarkibiy qismlarining semantik munosabati bilan bog'liq [3;104].

Adabiyotlar tahlili.

Bibliya eng qadimgi adabiy yodgorliklardan biri bo'lib, diniy pand-nasihatlar, aqidalar, bashoratlar, hikoyat, rivoyat va maktublardan iborat. Va ular o'ziga xos diniy iboralar, diniy barqaror birliklardan tarkib topgan bo'lib, ular nasroniylik dinining eng muhim jihatlarini aks

ettiradi. Jami 70 kitobdan iborat bo'lgan Bibliyani tadqiq etishga bo'lgan qiziqish kun sari ortib bormoqda. Dunyo tilshunoslari, adabiy tanqidchilar, din vakillari ushbu kitobning din va fan o'rtasidagi o'zaro aloqasini o'rganishga oshiqmoqdalar. Jumladan, XIII asrda Kardinal Stefan Lengton tomonidan hozirgi holatga keltirilgan hamda XVI asrda Rober Stefan tomonidan raqamlashtirilgan ushbu adabiy manba ingliz frazeologizmlarini to'laqonli tadqiq etishda asosiy manba bo'lib xizmat qila oladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida Bibliya iboralarning monosemantik va polisemantik xususiyatlarini ochib beruvchi qiyosiy, chog'ishtirma, analitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Tadqiqot jarayonida quyidagi Bibliya iboralarning nutqiy aktdagi semantik jihatlariga e'tibor qaratildi:

Adam and Eve – aybsiz, itoatsiz, yalang'och holatidagi dastlabki erkak va ayol.

Bibliyada: And the Lord God formed man of the dust of the ground, and breathed into his nostrils the breath of life; and a man became a living soul....And the rib, which the Lord God had taken from man, made he a woman, and brought her unto the man....And they were both naked, the man and his wife, were not ashamed (Genesis 2:7, 22, 25). And Adam called his wife's name Eve because she was the mother of all living. (Genesis 3;20).

Nutqiy aktda: In many Ugandan villages, children go about their ravaged lives in Adam's and Eve's suits-naked. Uganda hududining ko'p qishloqlarida bolalar vayron qilingan hayotida yalang'och holatda kun kechiradilar.

Adam's curse – ish, mehnat. *Bibliyada:* And unto Adam he said, Because thou hast hearkened unto the voice of thy wife, and hast eaten of the tree, of which I commanded thee, saying, Thou shalt not eat of it: cursed is the ground for thy sake; in sorrow shalt thou eat of it all the days of thy life; Thorns also and thistles shall it bring forth to thee, and thou shalt eat the herb of the field; In the sweet of thy face shalt thou eat bread, till thou return unto the ground; for out of it wast thou taken, for dust thou art, and unto dust shalt thou return (Genesis 3:17-19)

Nutqiy aktda: Work is a very, very important theme. America is a work culture, but Russia was not. In Russia work was the curse of Adam. So you have to ask yourself: What is everybody in this novel doing? There is the whole question of work versus pleasure [4].

A little lower than angels – Allohga itoat etish.

Bibliyada: But we see Jesus, who was made a little lower than the angels for the suffering of death, crowned with glory and honour; that he by the grace of God should taste death for every man. (Hebrews 2:9). *Bibliya:* Lekin biz o'lim azobi uchun farishtalardan bir oz pastroq qilib qo'yilgan, ulug'vorlik va shon-sharaf toji kiygan Isoni

ko'ramiz; Xudoning inoyati bilan u har bir inson uchun o'limni totib ko'rsin.

You are my heroes and heroines. You are but little lower than the angels – Sen mening qaxromonimsan. Sen misoli farishtasan [5].

Cain and Abel – aka-ukalar o'rtasidagi sovuq munosabat.

Bibliyada: And Cain talked with Abel his brother: and it came to pass, when they were in the field, that Cain rose up against Abel his brother, and slew him. And the Lord said unto Cain, Where is Abel thy brother? And he said, I know not: Am I my brother's keeper? (Genesis 4:8-9).

Nutqiy aktda: Mulroneys is a taciturn pig farmer raising two sons in the Georgia wastelands. When his long-lost brother ...pays a call, dark staff gets stirred up. Think Cain and Abel, Southern Gothic style. Mulroni-Jorjiya cho'llarida ikki o'g'il tarbiyalayotgan cho'chqaboqar fermer. Uning uzoq vaqtdan buyon yo'qolgan akasi qo'ng'iroq qilganida o'tmishdagi qorong'u xotiralari esga tushadi. Ular o'rtasidagi sovuq munosabat, achchiq alamli, iztirobli o'ylar.

The fashion of this world – Allohga itoat etmaydiganlarning yashash tarzi.

Bibliyada: The fashion of this world passeth away. Dindan holi hayot o'tib bormoqda.

Nutqiy aktda: As TV shows from The Jetsons to Star Trek have shown, futuristic fashion predictions have missed the mark before. What's cool now and what's cool in the future could be quiet different [6;506].

Give up the ghost – vafot etmoq, biror amalni to'xtatmoq.

Bibliyada: And Jesus cried with a loud voice, and gave up the ghost. Iesus baland na'ra tortdi va joni uzildi [6;506].

Nutqiy aktda: My car gave up the ghost and now I have to walk home-Mashinam buzilib qoldi va men endi uyga piyoda ketaman [7].

God is my witness – kimningdir Xudodan uning so'zlarini haqiqat deb tasdiqlashini so'rashda qo'llaniladigan birlik.

Bibliyada: For God is my witness, whom I serve with my spirit in the Gospel of his Son, that without ceasing I make mention of you always in my prayers. Xudo mening O'g'lining xushxabarida ruhim bilan xizmat qilayotganimning guvohidirki, men ibodatlarimda doimo Seni eslashdan to'xtamayman.

Nutqiy aktda: A: Tom, what happened to the money I gave you? I thought you were going to take it to the bank. B: I did! With God as my witness, I handed it to the teller myself. A: Men senga bergan pulni nima qilding, Tom? Uni bankka qo'yding deb o'ylagan edim. T: Xudo shohid, men uni o'zim kassaga topshirdim.

Injilda bir qator diniy birliklar mavjudki ular og'zaki nutqda ko'chma ma'no ifodalaydi. Jumladan: *noonday demon-tushkunlik, Solomon-dono inson, Sodom and*

Gomorra (Iordanoya, Suriyadagi vayron etilgan qadimgi shahar)-ahloqsizlikni targ'ib etuvchi nopok joy kabi.

War in heaven – Bibliya talqinidagi Alloh va isyonkor farishtalar o'rtasidagi ziddiyat.

Bibliyada: and there was war in heaven: Michael and his angels fought against the dragon; and the dragon fought and his angels, And prevailed not; neither was their place found any more in heaven. And the great dragon was cast out, that old serpent, called the Devil, and Satan, which deceiveth the whole world: he was cast out into the earth, and his angels was cast out with him.

Nutqiy aktda: And I heard a loud voice saying in heaven, Now is come salvation, and strength, and the kingdom of our God and the power of his Christ; for the

accuser of our brethren is cast down, which accused them before our God day and night [6; 506].

Take one's Bible oath – rostligini isbotlash uchun ont ichmoq.

I'd take my Bible oath that Jane didn't steal the money – Jeyn pulni o'g'irlamagan, men ont ichaman kabi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Bibliya iboralari ingliz frazeologizmlarini o'rgainshda asosiy manba hisoblanadi. Olimlarning statistik tahlillari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili frazeologizmlarining deyarli 70%i Bibliya asosida shakllangan bo'lib, ular ushbu tilning mazmundorligi, ohangdorligini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Татьяна Федуленкова. Ключи к учебнику "Практический курс английского языка 1 курс". Издательство Айрис-Пресс, 2007. – С. 256.
2. Mieder W. "It's a Small World": From Widespread Idioms to Widespread Proverbs. In T. N. Fedulenkova (Ed.), *Modern Phraseology Issues*. Pomorsky State University, 2018. – pp. 74–97.
3. Жуков В. П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва: Ленанд, 2019. – 176 с.
4. Jacob Stockinger. One classic but many Anna Kareninas. *The Capital Times*. Madison. September 14. 2005. – p. 76.
5. Steven Rea. Sideways Was Director's Idyll in Wine Country. *The Philadelphia Inquirer*. 2004. – p. 91.
6. Harvey Wayne. *Raising cain: how the bible shapes the things you say*. – Nashville: TN: Holman Reference, 2013. – 506 p.
7. <https://hinative.com/questions>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o'g'li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: bekhmirzokhid27@mail.ru

KISHI NOMLARI BILAN ATALGAN MASHINA BRENDLARINING NOMLANISHI XUSUSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslikning onomastika sohasidagi dolzarb masalalardan biriga bag'ishlangan. Kishi nomlari bilan atalgan transport vositalari antroporeyonimlar, mashina brendlarning nomlanish xususiyatlari va guruhlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponim, antroporeyonim, Chevrolet, Tesla.

Мухаммадалиев Мирзохид
Докторант Наманганского статьи университета

О НАЗВАНИИ МАРОК АВТОМОБИЛЕЙ ИМЕНАМИ ЛЮДЕЙ

Аннотация. Данная статья посвящена одному из актуальных вопросов в области ономастики языкознания. Приведены транспортные средства, названные в честь людей, антропонимы, особенности и группы названий марок автомобилей.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, антропореоним, Шевроле, Тесла.

Mukhammadaliyev Mirzokhid
Doctoral student of Namangan State University

REGARDING THE NAMING OF CAR BRANDS NAMED AFTER PEOPLE

Annotation. This article is devoted to one of the current issues in the field of onomastics of linguistics. Vehicles named after people, anthroponyms, features and groups of names of car brands are given.

Key words: onomastics, anthroponym, anthroporeonym, Chevrolet, Tesla.

Kirish.

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.¹⁸

Yangi avtomobil brendlarning xalqaro bozorda yaxshi muvaffaqiyati nafaqat ular ishlab chiqargan mashina sifatiga, shuningdek ularga tanlangan nomlarga ham bog'liqdir. Bu nom yaxshi va avtomobil sotilishi kerak bo'lgan hudud aholisi orasida yaxshi munosabatni uyg'ota olishi kerak. Bu borada maxsus tuzilgan komissiyalar, madaniyatlararo muloqot sohasida yaxshi tajribaga ega tilshunos va onomast olimlar ishlashmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'zbek va boshqa tillardagi mashina, mashina brendlari nomlarining onomastikasi va ularning ma'nolari

bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan. Ammo, antroponimlar va ularning asosiy masalalari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarining ilmiy jihatdan o'rganish 1960-yillarda boshlangan. Xuddi shu davrda D.Abdurahmanov (1960), O'.Nosirov (1965), F.Abdullayev (1960, 1961), M.Shamsiyeva (1962), A.Ishayev (1961), X.Donyorov (1960) kabi olimlarning o'zbek antroponimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e'lon qilingan edi.¹⁹

Dunyoda juda ko'p transport vositalari mavjud: velosipedlar, skuterlar, mototsikllar, avtomobillar, avtobus, tramvay, trolleybuslar, kemalar, qayiqqlar, metro, samolyotlar, elektr poyezdlar va boshqalar. Har qanday transport o'zining nomiga ega. Zamonaviy onomastikada poreyonim har qanday transport vositalariga berilgan nomlarni o'rganadi. Poreyonimlar bizga xalqlarning

¹⁸ Yo'ldoshev B.O'zbek onomastika masalalari. – Samarqand, 2011. – B.10.

¹⁹ Yo'ldoshev B.O'zbek onomastika masalalari. – Samarqand, 2011. – B.3.

onomastik an'analarini, nomlarning til ichidagi va tillararo aloqalari xususiyatlarini ochib beradi.

Tahlil va natijalar.

Antroponim – (yunoncha: *antropos* – antropos + *onoma* – atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri.²⁰ Kishi nomlari bilan atalgan transport vositalar *antroporeyonimlar* deb yuritiladi.

Kompaniya asoschilarining nomlari bilan atalgan mashina brendlari.

Avtokompaniya yaratilgach unga qanday nom berish juda muhim. Bunda bir necha yo'llar mavjud bo'lib, eng oson yo'l kompaniyaning o'zining nomiga nomlashdir. Bundan tashqari, qarindosh yoki hamkoringiz, o'sha hududdagi davlat rahbarini nomi bilan nomlash.

Chevrolet – iqtisodiy jihatdan mustaqil Genral Motors korporatsiyasi bo'linmasi tomonidan bir tovar belgisi ostida ishlab chiqariladigan va sotiladigan brend nomi.²¹

Chevrolet kompaniyasi 1911-yilda tashkil topgan, o'sha paytda Genral Motors korporatsiyasining ham egasi bo'lgan amerikalik tadbirkor Uilyam Duran va shvetsariyalik poygachi, mexanik va avtomobil ishlab chiqaruvchisi Lui Chevrolet tomonidan tashkil qilingan. Uilyam Duran Chevrolet ismi savdoni oshirishga yordam beradi deb o'yladi va kompaniyani uning nomi bilan atadi.

2008-yil mart oyida "Uzavtosanoat" AJ O'zbekistonda Chevrolet rusumli avtomobillarni yig'ish va sotish maqsadida Genral Motors korporatsiyasi bilan hamkorlik to'g'risida bitim tuzdi. Keyingi uch yil ichida Chevroletning – *Captiva*, *Epika*, *Tacuma*, *Nexia N 150*, *Nexia T250*, *Lacetti*, *Spark*, *Malibu*, *Cobalt*, *Lacetti (Genra)*, *Orlando*, *Labo*, *Tracker*, *Onex* – kabi modellari ishlab chiqarildi.

Amerika brendlari.

Ford – jahondagi eng yirik avtomobil kompaniyalaridan biri. 1903-yilda AQSH avtomobil sanoat asoschilaridan biri, sanoatchi Genri Ford tomonidan tashkil etilgan. "Ford Motors" da avtomobillarning "Ford", "Lincoln", "Merkury", "Jaguar", "Aston Martin", "Mustang" kabi 70 dan ortiq modellari yaratildi va ishlab chiqarildi.²²

Buick – Amerika avtomobilsozlik transmilliy korporatsiyasi, Genral Motors kompaniyasining bo'linmasi. Detroyda yashovchi shotlandiyalik David Dunbar Buick bu kompaniyaning asoschisi hisoblanadi.

Chrysler – bu kompaniya asoschi Walter Chrysler sharafiga nomlangan. Chrysler 1963-1964-yillarda 55 ta turbinali mashinalar ishlab chiqardi.

Dodge – aka-uka Dodge 1900-yilda Detroytda Dodge Brothers mashinasozlik ustaxonasiga asos soldi, va shuning uchun Dodge deb nomlandi. 1914-yilda birinchi avtomobil Dodge bayrog'i ostida ishlab chiqarildi.²³

Lincoln – 1917-yilda Genri Martyn o'g'li Uilfred bilan asos solgan. Genri Amerika prezidenti Avram Linkolnni shunchalik muxlisi ediki, 1864-yilda ovoz bergan birinchi prezidenti ekanligini ta'kidlab, kompaniyaning uning nomi bilan atagan.

Chevrolet – shvetsariyalik poygachi va avtomobil muhandisi Lui Chevrolet sharafiga nomlangan. Kompaniyaga 1911-yilda Lui Chevrolet va Genral Motors kompaniyasining taxtdan ajralgan asoschisi Uilyam Dyurant tomonidan asos solingan.

Tesla – bu kompaniyaga 2003-yilda Martin Eberxard va Mark Tarpenning tomonidan asos solingan va amerikalik ixtirochi Nikola Tesla sharafiga nomlangan.

Harley Davidson – 1903-yilda Milwaukee shahrida va rasmiy ravishda 1907-yilda tashkil etilgan. Kompaniya asoschilari Uilyam Harli va Devidson aka-uka Artur, Uilyam va Uotler sharafiga nomlangan.

Yevropa brendlari.

Rolls Royce – hashamatli avtomobil ishlab chiqaruvchisi Rolls Royce kompaniya asoschilari Charls Stuart Rolls va Federek Genri Roys sharafiga nomlangan.

Bentley – 1919-yilda Angliyaning Kru shahrida Valter Ouen Bantli tomonidan asos solingan va uning nomi bilan atalgan hashamatli avtomobil brendi.

Aston Martin – 1913-yilda Lione Martin va Robert Bamford tomonidan asos solingan hashamatli sport avtomobillari ishlab chiqaruvchi.

Norton – 1989-yilda Birmingemda asos solingan asoschisi Jeyms Lansdaun Norton nomi bilan atalgan mototsikl ishlab chiqaruvchi brend.

Germaniya brendlari.

Mercedes Benz – 1883-yilda Karl Fridrix Benz tomonidan asos solingan.

Maybach – Mercedes Benz tarkibiga kiruvchi avtomobil brendi. Brend o'z nomini asoschilari Vilgelm Maybax va uning o'g'li Karl Maybaxdan olgan.

Audi – 1909-yilda Avgust Horch tomonidan asos solingan avtomobil ishlab chiqaruvchisi. Horch qadimgi nemis tilida "tinglash" degan ma'noni anglatadi va uning lotincha ekvivalenti "Audi" dir.

Fransuz brendlari.

Peugeot – bu uning asoschisi Armand Peugeot nomi bilan atalgan avtomobil brendi. Kompaniyaning kelib chiqishi 1810-yilga borib taqaladi.

Renault – 1898-yilda asos solingan Renault ko'p millatli avtomobil ishlab chiqaruvchisi. Kompaniya

²⁰ Бегматов Э., Удуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.13

²¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Chevrolet>

²² "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" 9-жилд. – Тошкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.285

²³ <https://www.google.com/amp/s/www.team-bhp.com/news/car-brands-named-after-their-founders%3Famp>

asoschilari Lui Renault va uning akalari Marsel va Fernand sharafiga nomlangan.

Bugatti – italiyalik Ettore Bugatti tomonidan asos solingan yuqori samarali avtomobil ishlab chiqaruvchisi.

Citroen – 1919-yilda sanoatchi Andre Citroen tomonidan asos solingan va uning nomi bilan atalgan fransuz avtomobil brendi.

Italiya brendlari.

Piaggio – bu o'zining asoschisi Rinaldo Piadjo nomi bilan atalgan avtomobil kompaniyasi bo'lib, 1884-yilda asos solingan.

Lancia – 1906-yilda tashkil etilgan avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo'lib, uning ikki asoschisidan biri Vincenzo Lancia nomi bilan atalgan.

Maserti – 1914-yilda Italiyaning Boloniya shahrida aka-uka Maserati – Alfieri, Ettore va Ernesto tomonidan asos solingan va ularning nomlari bilan atalgan avtomobil ishlab chiqaruvchisi.

Alfa Romeo – 1916-yilda neapolitenlik tadbirkor Nikola Romeo kompaniyani sotib oladi va uning nomini Alfa Romeoga o'zgartiradi.

Ferrari – bu uning asoschisi Enzo Ferrari nomi bilan atalgan sport avtomobillari ishlab chiqaruvchisi.

Lamborghini – uning asoschisi Ferruccio Lamborghini nomi bilan atalgan sport avtomobillari va SUVlar ishlab chiqaruvchisi. Kompaniya kelib chiqishi 1948-yilga borib taqaladi.

Pagani – 1992-yilda Horasio Pagani tomonidan asos solingan va uning nomi bilan atalgan sport avtomobillari

va uglerod tolasi komponentlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya.

Benelli – 1911-yilda tashkil etilgan ikki g'ildirakli avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniya. Kompaniya Benelli oilasi nomi bilan atalgan.

Moto Guizzi – 1921-yilda tashkil etilgan mototsikl ishlab chiqaruvchi. Uning asoschisi Karlo Guzzi nomi bilan atalgan.

Moto Morini – Moto Morini mototsikl ishlab chiqaruvchisi bo'lib, uning nomi kompaniyaning 1937-yilda asos solgan asoschisi Alfonso Morini nomidan olingan.

Mv Augusta – 1945-yilda aka-uka Augusta, Domeneko va Vincenzo tomonidan asos solingan mototsikl ishlab chiqaruvchisi.

Koenigsegg – 1994-yilda Kristian Von Koenigsegg tomonidan asos solingan va uning sharafiga nomlangan shved sport avtomobillari ishlab chiqaruvchisi.

Xulosa.

Tadqiqot davomida kishi nomlari (antroponimlar) bilan atalgan mashina brendlarning nomlarini ko'rib chiqdik. Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda, mashina brendlarning nomlari o'sha kompaniya asoschilari, poygachilar, tadbirkorlar, davlat rahbarlari nomlari bilan atalganini o'rgandik. Shunday qilib, poreyonimlar tarixda mashhur va taniqli kishilarning nomlari orqali keyingi avlodga madaniy va tarixiy xotiralarni yetkazish uchun eng samarali usuldir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 9-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Yo'ldoshev B. O'zbek onomastika masalalari. – Samarqand, 2011.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Chevrolet>
5. [https://www.google.com/amp/s/www.team-bhp.com/news/car-brands-named-after-their-founders%3Famp\](https://www.google.com/amp/s/www.team-bhp.com/news/car-brands-named-after-their-founders%3Famp)

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi

Termiz davlat pedagogika instituti "Amaliy ingliz tili" kafedrası o'qituvchisi
E-mail: boboqulovanilufar237@gmail.com

UDK: 811.81.519

FINGER/ BARMOQ BILAN BOG'LIQ SOMATIK MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz somatik maqollarida barmoq somatizmi qanday qo'llanilishi tushuntirilgan. Barmoq inson tanasining kichik qismi bo'lishiga qaramasdan, ko'plab ishlarni bajarishga qodir ekanligi va bu somatik komponent maqollarda turli ma'nolarni ifodalashi ko'rsatilgan. O'zbek va ingliz maqollarida barmoq somatizmi ko'pincha mehnat, tayyorgarlik, muammolar va qarorlar qabul qilish jarayonida ishlatilishi maqolada ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: maqol, somatizm, barmoq, semantika, tahlil, komponent, ma'nolari.

Бобокудова Нилуфар Хайрулло кизи

Термезский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры "Практический английский язык"

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦ СВЯЗАННЫХ С ПАЛЬЦЕМ/FINGER

Аннотация. В данной статье объясняется, как соматизм пальцев используется в узбекских и английских соматических пословицах. Хотя палец — небольшая часть человеческого тела, он способен выполнять множество задач, и было показано, что этот соматический компонент в пословицах выражает различные значения. В статье показано, что соматизм пальцев часто используется в узбекских и английских пословицах в процессе работы, подготовки, решения задач и принятия решений.

Ключевые слова: пословица, соматизм, палец, семантика, анализ, компонент, значения.

Bobokulova Nilufar Xayrullo qizi

Termez state pedagogical institute
Teacher of the department of "Practical English"

SEMANTIC ANALYSIS OF SOMATIC PROVERBS RELATED TO FINGER

Annotation. This article explains how finger somatism is used in Uzbek and English proverbs. It highlights that although the finger is a small part of the human body, it is capable of performing many tasks, and this somatic component is used in proverbs to convey various meanings. In both Uzbek and English proverbs, finger somatism is often employed to symbolize work, preparation, problems, and decision-making processes. The article shows how these concepts are represented through finger-related imagery in different cultures' proverbs.

Key words: proverb, somatism, finger, semantics, analysis, component, meanings.

Kirish.

Somatik paremalarda tana a'zolari nomlarining ishlatilishi insonning kundalik hayotida ularning vazifalari bilan doimiy aloqada bo'lishi bilan bog'liq. Paremaldagi somatizmlarning ko'pligi va tematik rang-barangligi ma'lum organlar yoki tana qismlarining inson hayotidagi ahamiyati va ularning vazifalarining qanchalik muhim ekanligini aks ettiradi. Somatizmlar har qanday tilda so'z boyligi fondining eng qadimiy qatlami bo'lib, ularning ajralib turuvchi jihati mental xususiyatlarni ham o'zida mujassam etishidir. Somatizmlarga doimiy e'tibor

berilishining sababi shundaki, inson o'zini anglash, shaxs sifatida idrok etish jarayonini bevosita tana a'zolari orqali seziladigan hissiyotlar bilan boshlaydi. Tana hissiyotlari va tajribalari o'zlikni tushunishning ilk manbai hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbek va ingliz tillari materiali asosida turli voqeliklarni ifodalash uchun ishlatiladigan birliklarning qiyosiy tahlili bilan ko'plab tadqiqotchilar shug'ullangan. Tana qismlarining nomlari, ya'ni aksariyat madaniyat va tillar uchun universal hisoblangan somatizmlar so'z yoki birikma elementlari sifatida xizmat qiladi, chunki barcha

tillar va madaniyatlar egalari fiziologik jihatdan bir xil tuzilishga ega. Biroq, tananing barcha qismlari tilda bir xil ahamiyatga ega emas — baʼzilari boshqalariga qaraganda muhimroq oʻrin tutadi [10; 22].

Bu hodisa N.V. Masaleva, S.V. Bogolepova, M. Nassiri, G.Y. Kreydlin, Z.A. Bogus, Yu.A. Dolgoplov, Y.V. Ivanova, N.V. Kuniskaya, R.U. Madjidova, I.Y. Gorodeskaya, Y.S. Kubryakova, S.I. Magomedova, F.O. Vakk, A.A. Nasirov, M.N. Azimova, M.I. Gadoyeva, O.P. Uralova va U.M. Rashidova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Xorijiy tilni oʻqitishda kompetensiyaviy yondoshuvning ahamiyatiga bagʻishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning filologiya fanlari sohasida qoʻllaniladigan analiz, semantikasi, chogʻishtirma va boshqa bir qator metod va usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Barmoq - qoʻl va oyoq panajsining beshta harakatchan qismidan har biri [4; 86]. *Finger/Barmoq* somatizmi koʻplab maqollarda ishlatiladi va turli xil maʼnolarni ifodalaydi. Barmoq inson tanasining eng kichik, ammo juda koʻp vazifalarni bajara oladigan qismi hisoblanadi. Somatik komponentli maqollarda barmoqning ishlatilishi koʻpincha biror narsani boshlash, aniqlash yoki kichkina tana aʼzosi bilan katta maqsadlarga erishish maʼnolarini ifodalaydi [8; 14].

Oʻzbek maqollarida barmoq somatizmi ish maʼnosida keladi: *Burga tutmoq uchun ham barmoqni hoʻllamoq kerak*. Hatto kichik ishlar uchun ham maʼlum tayyorgarlik yoki kuch sarflash kerak. *Somatik Komponent*: Barmoqni hoʻllamoq: Harakat qilish, tayyorgarlik koʻrish. *Burga tutmoq*: Kichik va murakkab ish. *Maʼnosi*: Har qanday ishni amalga oshirish uchun harakat va kuch talab qilinadi.

Barmogʻing qiynagandan koʻra uni chopib tashlash afzal.

Maʼnosi: Uzoq davom etadigan kichik azobdan koʻra, bir martalik katta azobni afzal koʻrish. **Somatik Komponent: Barmoq**: Kichik muammo yoki azob. **Chopib tashlash**: Keskin qaror, muammoni birdan hal qilish. Kichik muammolarni uzoq vaqt davomida koʻtarishdan koʻra, birdaniga hal qilish yaxshiroq.

Ahmoqlar jimjilogʻini chopsa, Aqllilar bosh barmogʻini chopadi. Ahmoqlar kichik yoʻqotishlarni tanlasalar, aqllilar katta, ammo muhimroq yoʻqotishlarni tanlaydi. *Somatik Komponent: Jimjilogʻ*: Kichik muammo yoki qism. *Bosh barmoq*: Muhimroq qism. Kichik yoʻqotishlar oʻrniga katta, ammo muhimroq yoʻqotishlar qabul qilinishi donolik belgisidir.

El bilan kesilgan barmoqdan qon chiqmas. Maqolning maʼnosi, Jamiyat bilan birgalikda qilinadigan ishlar yoki yoʻqotishlar kamroq zarar keltiradi. **Somatik Komponent: Barmoq**: Shaxsiy yoʻqotish. **Kesish**: Yoʻqotish yoki azob. **Maʼnosi**: Kollektiv harakatlar individual

zararlarni kamaytiradi. **“Baxtingga ishonma, barmogʻingga ishon”** – Baxt va omaddan koʻra, oʻz mehnatingiz va qobiliyatingizga tayanish yaxshiroq. **Barmoq somatik komponenti bu yerda**, mehnat qilish qobiliyati degan maʼnoda qoʻllanilgan va *Baxt* esa tasodifiy omillar.

Maʼnosi: Oʻz mehnati va qobiliyatiga tayanish.

Ingliz tilida barmoq somatizmi maqollarda turli xil maʼnolarni ifodalaydi, shu jumladan, muammolar, nizolar, harakat, tanqid, farqlar va hokazo. **A dry finger cannot pick up salt** (Kichik narsalarni ushlab uchun maʼlum sharoitlar kerak). Har qanday ishni bajarish uchun maʼlum sharoitlar va tayyorgarlik zarur. **All the fingers are not alike** (Hamma barmoqlar yoki narsalar bir xil emas). Barmoqlar somatizmi maʼnosida odamlar nazarda tutilgan. Hamma odamlar bir-biriga oʻxshamaydi [3; 54].

Fingers were made before forks (Qoʻllar sanchigʻilardan oldin yaratilgan). **Five fingers are brothers but not equals** (Besh qoʻl aka-ukalar, lekin teng emaslar). Ushbu maqol, bir guruhdagi aʼzolar orasida ham farqlar va xilma-xillik mavjudligini koʻrsatadi. **Never put your finger between the tree and the bark** (Mojarolar yoki nizo orasiga kirishdan saqlanish kerak).

Boshqalarning mojarolariga aralashmaslik zarur. **One finger can't lift a pebble** (bir barmoq kichik toshchani koʻtara olmaydi). Kichik vazifalarni ham bajarish uchun birgalikda harakat qilish zarur. **The one who points his finger has three pointing back at him** (bir kishi barmogʻi bilan koʻrsatdimi, uch kishi birdan uni qaytib koʻrsatadi). Boshqalarni tanqid qilganingizda oʻzingizning kamchiliklaringiz haqida ham oʻylang. Barmoq inson tanasining eng kichik, lekin juda koʻp vazifalarni bajarishga qodir boʻlgan qismi boʻlib, koʻplab oʻzbek va ingliz maqollarida keng qoʻllaniladi.

Oʻzbek maqollarida barmoq koʻpincha mehnat, tayyorgarlik va kichik harakatlar orqali katta maqsadlarga erishish bilan bogʻlanadi. Masalan, *“Burga tutmoq uchun ham barmoqni hoʻllamoq kerak”* maqolida kichik ishlar uchun ham tayyorgarlik zarurligi taʼkidlanadi. Shuningdek, *“Barmogʻing qiynagandan koʻra uni chopib tashlash afzal”* degan maqolda uzoq davom etadigan kichik muammolardan koʻra, birdaniga hal qilish afzal ekani ifodalanadi.

Ingliz tilidagi maqollarda esa barmoq somatizmi koʻpincha muammolar, nizolar, farqlar va harakatlarni ifodalaydi. Masalan, *“All the fingers are not alike”* maqoli insonlar orasidagi farqlarni koʻrsatsa, *“One finger can't lift a pebble”* birgalikda harakat qilish zarurligini taʼkidlaydi. Shu bilan birga, *“The one who points his finger has three pointing back at him”* maqoli tanqid qilishdan oldin oʻz kamchiliklarini koʻrib chiqish kerakligini eslatadi.

Xulosa.

Shunday qilib, barmoq somatizmi oʻzbek va ingliz maqollarida insonning kichik, ammo muhim harakatlari

orqali katta maqsadlarga erishish, mehnat, tayyorgarlik va jamoaviy hamkorlikni ifodalaydi.

O'zbek maqollarida ko'proq mehnat va muammolarni hal qilishga urg'u berilsa, ingliz maqollarida

nizolar, farqlar va tanqid mavzulari ko'proq yoritiladi. Har ikki til maqollarida barmoq somatizmi orqali kichik harakatlarning katta ahamiyati va insonlar o'rtasidagi farqlarni tushunish ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis). Qo'shma gap. – Guliston, 2008. – 143 b.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 247 b.
3. Gadoyeva M.I. Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi. Filol.fan. dokt. ... diss. avtoreferati. – Buxoro: 2022. – 70 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 169 b.
5. Rashidova U.M. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. (Ko'z, qo'l va yurak komponentli iboralar misolida). Filol.fanlari bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand: 2018. – 50 b.
6. Uralova O.P. Ingliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol.fanlari bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand: 2020. – 58 b.
7. Wardhaugh R. Investigating Language. Central Problems in Linguistics. – Oxford: Blackwell, 1994. – 292 p.
8. Yusupov O'. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 37 b.
9. Yusupov U. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 282 b.
10. Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Таллин: 1964. – 22 с.
11. Городецкая И.Е. Фразеологизмы-соматизмы в русском и французском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск: 2007. – 23 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Navruzova Nigina Xamidovna
Bukhara State University teacher
Email: n.x.navruzova@buxdu.uz

CONNOTATION AS A MEANS OF EXPRESSIVENESS OF NOMINATIVE UNITS

Abstract. This article explores the role of connotation as a significant means of expressiveness in nominative units within language. Connotation refers to the associative meanings and emotional implications that words carry beyond their literal definitions. By examining various examples from literature, everyday speech, and different linguistic contexts, the study highlights how connotative meanings enrich communication, evoke emotions, and influence perceptions. The analysis reveals that nominative units — ranging from simple nouns to complex phrases — can possess multiple layers of meaning that enhance their expressiveness. Furthermore, the article discusses the interplay between connotation and cultural context, illustrating how shared experiences and societal norms shape the connotative landscape of language. Ultimately, this research underscores the importance of connotation in achieving nuanced expression and effective communication, suggesting that a deeper understanding of this phenomenon can improve both linguistic competence and interpretative skills.

Key words: Connotation, expressiveness, cultural context, linguistic competence, interpretative skills.

Наврузова Нигина Хамидовна

Бухарский государственный университет учитель

КОННОТАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ЭКСПРЕССИВНОЙ ОКРАСКИ НОМИНАТИВНЫХ ЕДИНИЦ

Абстракт. В этой статье исследуется роль коннотации как важного средства выразительности в номинативных единицах языка. Коннотация относится к ассоциативным значениям и эмоциональному подтексту, которые слова несут в себе помимо их буквального определения. Изучая различные примеры из литературы, повседневной речи и различных лингвистических контекстов, авторы исследования подчеркивают, как коннотативные значения обогащают общение, вызывают эмоции и влияют на восприятие. Анализ показывает, что номинативные единицы — от простых существительных до сложных фраз — могут обладать несколькими уровнями значения, которые усиливают их выразительность. Кроме того, в статье обсуждается взаимодействие между коннотацией и культурным контекстом, иллюстрирующее, как общий опыт и социальные нормы формируют коннотативный ландшафт языка.

Ключевые слова: коннотация, выразительность, культурный контекст, лингвистическая компетентность, навыки интерпретации.

Navruzova Nigina Xamidovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

KONNOTATSIYA NOMINATIV BIRLIKLARNING EKSPRESSIVLIK VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqola konnotatsiyaning til ichidagi nominativ birliklarda ekspressivlikning muhim vositasi sifatida rolini o'rganadi. Konnotatsiya so'zlarning so'zma-so'z ta'riflaridan tashqarida olib boradigan assotsiativ ma'nolarni va hissiy ta'sirlarni anglatadi. Adabiyot, kundalik nutq va turli xil lingvistik kontekstlardan turli xil misollarni o'rganib, tadqiqot konnotativ ma'nolar muloqotni qanday boyitishi, hissiyotlarni uyg'otishi va in'ikoslarga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, nominativ birliklar — oddiy otlardan murakkab iboralarga qadar — ularning ekspressivligini oshiradigan bir necha ma'no qatlamlariga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, maqolada konnotatsiya va madaniy kontekst o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhokama qilinadi, umumiy tajribalar va ijtimoiy me'yorlar tilning konnotativ landshaftini qanday shakllantirishini tasvirlaydi. Shunday qilib, tadqiqotda nozik ifoda va samarali muloqotga erishishda konnotatsiyaning muhimligi ta'kidlanib, ushbu hodisani chuqurroq anglash lingvistik kompetentsiyani ham, izohlash qobiliyatini ham yaxshilashi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: Konnotatsiya, ekspressivlik, madaniy kontekst, lingvistik kompetentsiya, talqin qilish qobiliyatlari.

Introduction.

The role of connotation in speech is very important; no language can do without it, since “these are necessary means of improving and making speech culturally flexible, means by which the subjective human factor ‘bursts’ into the objective information expressed with the help of words” [1].

The peculiarity of such vocabulary is usually characterized by the special complexity of the semantics of words, connected with the fact that the content of the word, in addition to the objective-conceptual meaning, contains connotative components. They reflect the emotional, expressive and evaluative attitude of people to those phenomena that are designated by the word.

In the context of the anthropocentric paradigm, it is important that, exchanging information of a factual nature, the participants in communication do not remain impartial, but express their attitude to the subject under discussion, to partners, to the communication situation as a whole. Therefore, the study of the human factor in language is inextricably linked with its expressive function, realized by a system of multi-level linguistic means.

Analysis of Literature.

A significant part of this system consists of words with a connotative component of meaning, considered ambiguously in terms of their linguistic status, as well as from the point of view of the volume and nature of connotation, the specificity of certain connotative meanings and the methods of their representation in language and speech (E.S. Aznaurova, Yu.D. Apresyan, I.V. Arnold, L.G. Babenko, N.A. Lukyanova, V.N. Telia, T.A. Tripolskaya, V.K. Kharchenko, A.L. Sharandin, V.I. Shakhovsky, etc.).

This situation with the study and description of connotation is largely due, in our opinion, to the fact that it is unclear how to distinguish connotative components in a specific (speech) unit. Sufficiently reliable methods of connotation research and methods of its adequate lexicographic description have not been developed.

In recent years, the attention of researchers has been attracted to issues related to the study of connotatively labeled units and their status in the sign theory of language (I.A. Arnold, L.G. Babenko, E.V. Kuznetsova, N.A. Lukyanova, I.A. Sternin, V.N. Telia, T.A. Tripolskaya, A.L. Sharandin, etc.).

Methodology of research.

This paper examines the significance of connotation as a vital tool for expressiveness in language's nominative units. Connotation encompasses the associated meanings and emotional nuances that words convey beyond their literal interpretations. Through an analysis of various examples from literature, everyday conversation, and diverse linguistic settings, the study demonstrates how connotative meanings enhance communication, trigger emotions, and shape perceptions. The findings indicate that nominative units—ranging from basic nouns to intricate

phrases—can have multiple layers of meaning that boost their expressiveness. Additionally, the paper addresses the relationship between connotation and cultural context, showing how collective experiences and societal norms influence the connotative dimensions of language. Ultimately, this research highlights the crucial role of connotation in achieving subtle expression and effective communication, suggesting that a deeper grasp of this concept can enhance both linguistic skills and interpretative abilities.

Analyses and results.

The study of connotation in a wide speech or text space led to the expansion of this very concept, which turned out to be more complex and multifaceted than previously imagined. It turned out that the connotation can go beyond the word. Traditional studies of connotation, which is not part of the semantic structure of a word, but is created by the creative intentions of the author, although they took into account the context, but focused on a rather limited segment of the text [2]. Previously, connotation was not considered in a wide textual space, into which it can be inscribed, while acquiring the properties of a pragmatic connotation.

Within its framework, connotation turns out to be one of the most important areas of human speech-thinking activity, reflecting the conceptualization of the subjective sphere of reality and expressing it through multilevel linguistic units, primarily lexical and syntactic, in the structure of a particular discourse (text). Moreover, the essential point of reflecting the subjective (connotative) sphere of human activity is that this sphere, this side of human perception of reality is not characterized by the uniformity of any one connotative component, but is a combined model, as a rule, in unequal proportions of various connotative meanings, the nature of which turns out to be associated with different sides of human mental activity. But at the same time, there is no doubt that in their combination (simultaneity), connotative meanings are oriented to the communicative needs of speakers, to the realization of various intentions of a linguistic personality [3].

In the “Dictionary of Linguistic Terms” O.S. Akhmanova can see the following definition of connotation: “Connotation - (added meaning, coloring, coloring). The additional content of a word (or expression), its accompanying semantic or stylistic shades, which are superimposed on its basic meaning, serve to express various kinds of expressive-emotional-evaluative overtones and can give the statement solemnity, playfulness, ease, familiarity”.

But with the definition of connotation, not everything is so simple. Over the past decades, various approaches to the study of connotation have appeared, which indicates the complexity of this phenomenon.

I.A. Sternin in his work "Problems of analyzing the structure of the meaning of a word" gives the following definition of connotation: "Connotation is understood as additional information in relation to the concept, as part of the meaning associated with the characteristics of the communication situation, the participants in the act of communication, a certain attitude of the participants in the act of communication to the subject of speech. Connotation is part of the systemic meaning of a linguistic sign".

V.N. Telia speaks of connotative meaning as "a semantic essence that is routinely and occasionally included in the semantics of linguistic units and expresses the emotive-evaluative and stylistically marked attitude of the subject of speech to reality when it is designated in a statement".

We agree with a number of researchers who believe that the connotative macrocomponent is included in the lexical and phraseological meaning along with the significative-denotative one and interacts with it.

Scientists also have different opinions regarding the structure of the connotative component of meaning. A.V. Kunin distinguishes emotive, expressive and functional-stylistic components. L.E. Kruglikova talks about the emotional and evaluative, but does not include a stylistic component.

Many scientists have dealt with the problem of studying the evaluative component of connotation. The variety of approaches emphasizes the complexity and importance of this component in the connotation.

I.A. Sternin in his work "Problems of analyzing the structure of the meaning of a word" gives the following definition of evaluation: "The evaluative component of the meaning of a sign is an approving or disapproving assessment contained in the meaning of the word.

In the process of analysis, one cannot associate the evaluative component of a word with the truth or falsity of the use of a word with this component; the assessment of the word used may not correspond to the real situation". The author talks about the subjective nature of the assessment. Indeed, a person is a "subject" of assessment, who has his own worldview, his own socio-cultural values, which may differ from the values of society [4].

But at the same time, many authors talk about the objective nature of evaluation component. on the totality of the social experience of a linguistic community and the norm recognized within it" [5]. Thus, we see the dual

nature of assessment. In our study, we will adhere to the point of view of E.F. Arsenyeva, who argues that "evaluateness can be defined as the attitude of the subject to the object of nomination enshrined in language".

Here are a few examples of connotative meanings in different contexts:

"After a long day at work, coming back to my cozy home feels like a warm hug."

In the first example the word "home" may have connotations of warmth, security, and comfort, evoking feelings of safety and belonging.

"I can't trust him; he's always been a snake in the grass."

In the second example the term "snake" often connotes deceit or betrayal, suggesting a negative or untrustworthy character.

"The firefighter's heroic actions in rescuing the family from the burning building were truly brave."

Using the word "brave" to describe someone can carry connotations of courage, boldness, or valor, implying admiration for their actions [6].

"As I gazed at the serene blue ocean, I felt a deep sense of peace and tranquility wash over me."

The color blue can have connotations of calmness, tranquility, or sadness, depending on the context in which it is used.

These connotations help to create a richer and more nuanced understanding of the words and ideas being conveyed.

Conclusion.

In conclusion, connotation serves as a powerful means of expressiveness within nominative units, enriching language with layers of meaning that extend beyond mere definitions. Through the interplay of emotional nuances and cultural contexts, connotative meanings allow for a more nuanced and impactful communication. The analysis presented underscores how words can evoke feelings, shape perceptions, and foster connections among speakers and listeners. By recognizing the significance of connotation, individuals can enhance their linguistic skills and interpretative abilities, leading to more effective and expressive communication. Ultimately, a deeper understanding of connotation not only enriches our appreciation of language but also empowers us to convey complex ideas and emotions with greater clarity and depth.

The list of used literature.

1. Khamidovna , N. N. . (2024). Words that Paint a Picture. *Miasto Przyszłości*, 47, 1175–1178. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/3444>
2. Khaydarov, A. A., & Raimovna, A. Z. (2022). CONNOTATIVE MEANING AS PART OF THE SEMANTIC STRUCTURE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 584-587.
3. Navruzova, N. (2024). THE POSITION OF CONNOTATIVE MEANING IN THE SEMANTIC STRUCTURE OF A WORD. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 50(50). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12704

4. Rakhmatova, M. M. (2019). Linguistic features of the concept “beauty” in English, Uzbek and Tajik national cultures. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (78), 764-770.
5. Navruzova Nigina Khamidovna. (2023). THE EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANINGS IN THE STRUCTURE OF THE ENGLISH LANGUAGE. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 76–81. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/744>
6. Navruzova Nigina Xamidovna. (2023). NOMINATIV BIRLIKLARNING KONNOTATIV ASPEKTI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 106–110. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1002>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Raxmatova Mehriniso Musinovna

Buxoro davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jabborova Aziza Jobirovna

Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

azizajabborova14@gmail.com

KAMALA D. HARRISNING NYU- HAMPSHIRDA SO'ZLAGAN NUTQIDAGI EVFEMIZMLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqola Kamala Harrisning Nyu-Hampshirdagi nutqidan amaliy misol sifatida foydalangan holda, undagi evfemizmlarni lingvistik tahlil qiladi. Tahlilda ijobiy his-tuyg'ularni yetkazishda evfemizmlarning roli ochib beriladi. Maqola nutqdan aniq misollarni ko'rib chiqish orqali evfemizmlar qanday qilib ma'noni kuchaytirishi yoki yashirishi mumkinligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: evfemizm, lingvistika, sintaksis, morfologiya, semantika, pragmatika va fonetika.

Рахматова Мехринисо Мусиновна

Бухарский государственный университет доктор философских наук, доцент

Жабборова Азиза Жобировна

Докторант Наманганского государственного университета

azizajabborova14@gmail.com

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭВФЕМИЗМОВ В РЕЧИ КАМАЛЫ Д. ХАРРИС В НЬЮ-ГЭМПШИРЕ

Аннотация: В данной статье в качестве примера представлен лингвистический анализ эвфемизмов в речи Камалы Харрис в Нью Хемпшире. В анализе подчеркивается роль эвфемизмов в передаче положительных эмоций и подчеркивании социального вклада. В статье на конкретных примерах из дискурса показано, как эвфемизмы могут усиливать или затемнять смысл.

Ключевые слова: эвфемизмы, лингвистика, синтаксис, морфология, семантика, прагматика и фонетика.

Rakhmatova Mehriniso Musinovna

Bukhara state university doctor of philosophy in philological sciences, associate professor

Jabborova Aziza Jobirovna

Doctoral Student of Namangan state university

azizajabborova14@gmail.com

LINGUISTIC ANALYSIS OF EUPHEMISMS IN KAMALA D. HARRIS' SPEECH IN NEW HAMPSHIRE

Abstract: This article provides a linguistic analysis of euphemisms in Kamala Harris' New Hampshire speech as a case study. The analysis highlights the role of euphemisms in conveying positive emotions and emphasizing social contributions. The article reveals how euphemisms can enhance or obscure meaning by looking at specific examples from discourse.

Key words: euphemism, linguistics, syntax, morphology, semantics, pragmatics and phonetics.

Kirish.

Ushbu maqola sintaksis, morfologiya, semantika, pragmatika va fonetikani o'z ichiga olgan lingvistika va evfemizmlar haqida umumiy ma'lumot beradi va bu tushunchalarni Kamala Xarrisning Nyu-Hampshirda so'zlagan nutqidagi evfemizmlarni tahlil qilishda qo'llaydi. Evfemizmlarni o'rganib chiqib, maqola lingvistik tahlil qanday qilib tilni shakllantirib, evfemizmlar tinglovchiga ta'sir qilishi mumkinligi haqida so'z olib boradi. Tahlilda

tilshunoslik nazariyasining amaliy qo'llanilishini ko'rsatish uchun nutqdan aniq misollarga e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Evfemizmlar lingvistik tadqiqotlar doirasida madaniy munosabatlar va kommunikativ strategiyalarni aks ettiruvchi qiziqarli tadqiqot sohasidir. Ushbu adabiyot sharhi evfemizmlar va ularning tildagi roli haqidagi

tushunchamizni shakllantirgan asosiy nazariy asoslar va emperik tadqiqotlarni o'rganadi.

Evfemizmlar odatda qo'pol, haqoratli yoki yoqimsiz deb hisoblangan atamalarni almashtirish uchun ishlatiladigan bilvosita yoki yumshoq iboralar sifatida qo'llaniladi (Burridge, 2012). Evfemizmlarning semantik nazariyasiga ko'ra, bu iboralar potensial salbiy yoki taqiqlangan mavzularning ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi (Hughes, 2009). Lakoffning (1975) xushmuomalalik nazariyasi shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va yuzni saqlab qolish strategiyasidir, chunki ular ma'ruzachilarga xafa qilmasdan nozik mavzular haqida so'z ochishga yordam beradi.

Orwell (1946) evfemizmlar haqiqatni yashirishi va in'ikoslarni manipulyatsiya qilishi mumkinligini ta'kidlaydi, bu tushuncha uning siyosiy tilni tanqid qilishida o'rganilgan. Bu nuqtai nazar Goffmanning (1963) yuzga tahdid soladigan xatti-harakatlar konsepsiyasiga mos keladi, bunda evfemizmlar shaxslarning ijtimoiy o'ziga xosligini himoya qilish uchun bufer vazifasini bajaradi. Tannen (1990) bu tushunchani yanada kengaytirib evfemizmlar qanday qilib ravon shaxslararo muloqotni osonlashtirishi va ijtimoiy ishqalanishni kamaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Evfemizmlar madaniy kontekstlarga chuqur kirib, jamiyat qadriyatlarini va tabularini aks ettiradi. Allan va Burridge (1991) evfemizmlarni tanlash ko'pincha madaniyatga qarab farqlanishini ta'kidlab, til amaliyotlari madaniy me'yorlar tomonidan qanday shakllantirilganligini ko'rsatadi. Misol uchun, Wierzbicka (1991) turli tillar o'lim va tana funksiyalari kabi tushunchalar bilan shug'ullanish uchun evfemizmlardan qanday foydalanishini o'rganadi va madaniy e'tiqodlarning evfemistik iboralarga ta'sirini ko'rsatadi.

Evfemizmlar ko'pincha siyosiy va institutsional kontekstlarda jamoatchilik fikrini shakllantirish va nozik muammolarni hal qilish uchun qo'llaniladi. Evfemistik til byurokratik nutqning umumiy xususiyati bo'lib, u siyosat va qarorlarning ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi (Lutz, 1989). Fauler (1991) siyosiy tilda davlat harakatlarining asl mohiyatini yashirish uchun evfemizmlardan qanday foydalanish haqida gapirib, siyosiy voqelikni qurishda evfemizmlarning rolini ko'rsatadi.

So'nggi tadqiqotlarda evfemizmlarning ommaviy axborot vositalari va raqamli aloqadagi roli o'rganildi. Peters (2011) ommaviy axborot vositalarini yoritishdagi evfemistik til voqealarni jamoatchilik tushunishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi, Xyuz (2017) esa shaxsiy va professional taassurotlarni boshqarish uchun ijtimoiy tarmoqlarda evfemizmlardan foydalanishni tahlil qiladi. Ushbu davom etayotgan tadqiqot raqamli asrda evfemistik tilning rivojlanayotgan tabiatini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani yaratish uchun <https://media.natlib.uz/>, <http://library.academy.uz/> va <https://arxiv.org/> saytlaridan ma'lumotlar va maqolalar yig'ildi. Maqolalardan olingan xulosalarning mazmuni keltirilib, yozuvchilarning ismlari bilan dalillandi. Bundan tashqari, analiz qilinayotgan Amerika prezidentligiga nomzod Kamala Harrisning nutqining matni <https://www.c-span.org/video/?538122-1/vice-president-harris-campaigns-portsmouth-hampshire> saytidan olindi.

Tahlillar va natijalar.

"Lingvistika" atamasi birinchi marta 1847-yilda (Harper, 2018) qo'llanilgan bo'lib, tilning ilmiy ta'limi hisoblanadi. Lingvistik tahlil deganda so'zning sintaktik, semantik, morfologik, fonetik, fonologik va pragmatik tahlili tushuniladi.

Sintaksis -bu so'zlar va morfemalar qanday qilib fraza va gap shaklida bir biriga bog'lanishini o'rganadigan bo'lim.

Morfologiya- so'zlar nimalar yordamida bog'lanishini o'rganadigan bo'lim.

Semantika-bu lingvistikaning so'zning grammatik va leksik ma'nolarini o'rganadigan bo'limi.

Pragmatika- bu so'zning kontekstdagi ma'nosini organadigan sohasi.

Fonetika va fonologiya esa tovushlarni o'rganadigan bo'limlar hisoblanadi.

Kamala Harrisning Nyu Hemsforda so'zlagan nutqining tahliliga keladigan bo'lsak, Kamala Harris, asosan, ko'taruvchi evfemizmlardan (Kate Burridge, 2012, 2) foydalanadi.

"Oh, thank you, everyone. Nicole, thank you. You guys are just so **extraordinary**, and **I applaud the way you do the business** that you do and **the love that you do in giving community**. I love our small-business owners. It is what you do - I'm going to talk a bit about you in a minute, but you are **part of the fabric - the essential fabric of a community** that cares about one another".

"**Extraordinary**"(ajoyib)-bu ijobiy evfemizm odamlar qanchalik o'zgacha ekanligini ko'rsatuvchi, ularning xizmati uchun oddiy va kamtarona tashakkuridir. Bu so'z sifat so'z turkumida mansub bo'lib, 6ta bo'g'indan iboratga o'xshasada, lekin, aslida 5ta bo'g'indan tashkil topadi. Bu so'z tarkibidagi [ao] diftonggi standart ingliz tilida [au], masalan, Maori yoki [ei.o], masalan, aorta va chaos kabi talaffuz qilinmay [o] shaklida talaffuz qilinadi. So'zning o'zagi *ordinary* bo'lib, *extra* lotin tilidan "-dan tashqari" degan ma'noni anglatadigan prefiksning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

"**I applaud the way you do the business**"(siz vazifani bajarishda tutgan yo'lingizni olqishlayman)-bu ibora ishning bajarilish usulini bo'rttirish asosida maqtaydi. Ibora ingliz tilidagi standart ega-kesim-to'ldiruvchidan tashkil topgan darak gap shaklida bo'lib,

otli ibora "the way you do the business" vositasiz to'ldiruvchi sifatida fe'lga, "applaud" ga, bog'lanadi.

"(I applaud) the love that you do in giving community" (jamiyatga berayotgan sevgingizni olqishlayman) – bu ibora emotsional tomondan qo'shilayotgan hissani qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi. Bu gap oddiy darak struktura asosida yasalgan bo'lsa ham, "that you do in giving community" qismi nisbiy olmosh yordamida yasalgan bo'lib, jamiyatga uzatilayotgan muhabbatni tasvirlash uchun noodatiy strukturani yaratadi.

"(You are) part of the fabric - the essential fabric of a community" (matoning bir qismi – jamiyatning tuzilmasi) – insonlarning rolini jamiyatda juda muhim tarzda ifodalash uchun shoirona usuldan foydalanilgan. Gap darak shaklida, ega-kesim-aniqlovchi tuzilmasida hosil bo'lgan. Ega-you, kesim-are, aniqlovchi-part of the fabric - the essential fabric of a community. Asosiy gap- "you are part of the fabric" bo'lib, chiziqchadan keyingi qism- "the essential fabric of a community" izohlovchi sifatida gapni yoki gapping bir bo'lagini ochib berish uchun

qo'llanilgan. Bu gapda *fabric-2* xil ma'noda metafora bo'lib kelgan.

1. Fabric- *matoma* nosida jamiyatga ishora qiladi.
2. Fabric-tuzilma ma'nosida shaxsga ishora qiladi.

Xulosalar.

Kamala Harris nutqining lingvistik tahlili muloqotni shakllantirishda evfemizmlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot "g'ayrioddiy" kabi atama va "biznesni amalga oshirish usuli" va "jamiyatning asosiy to'qimasi" kabi iboralarni ajratib ko'rsatish orqali tildan minnatdorchilik bildirish, ijtimoiy rollarni ta'kidlash va nozik mavzularni boshqarish uchun qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Tahlil til tuzilmalarining murakkabligi va ularning ma'noga ta'sirini yoritib berib, evfemizmlarning tilni yumshatish va ijtimoiy uyg'unlikni kuchaytirishga xizmat qilishini ochib beradi. Ushbu maqola nafaqat aloqani tushunishda lingvistik nazariyaning muhimligini tasdiqlaydi, balki ushbu nazariyalarning real dunyo nutqida amaliy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Kamala Harrisning nutqi evfemizmlarga boy bo'lib, nutqning davomi lingvistik tahlil qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Allan, K., & Burrige, K. (1991). *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. Oxford University Press.
2. Burrige, K. (2012). *Because of the Language of the Media*. Routledge.
3. Burrige, K. (2012). *Euphemism and Language Change: The Sixth and Seventh Ages*. URL: <http://journals.openedition.org/lexis/355>; DOI: <https://doi.org/10.4000/lexis.355>
4. Fowler, R. (1991). *Language in the News: Discourse and Ideology in the Press*. Routledge.
5. Goffman, E. (1963). *Behavior in Public Places: Notes on the Social Organization of Gatherings*. Free Press.
6. Harper, D. (2018). "Linguist". *Online Etymology Dictionary*. Retrieved 5 March.
7. Hughes, G. (2009). *An Encyclopedia of Swearing*. M.E. Sharpe.
8. Hughes, G. (2017). *Swearing in English: Bad Language, Virtue, and Power*. Oxford University Press.
9. Lakoff, R. (1975). *Language and Woman's Place*. Harper & Row.
10. Lutz, W. (1989). *Language and Politics*. The University of Chicago Press.
11. Orwell, G. (1946). *Politics and the English Language*. Horizon.
12. Peters, M. (2011). *Language and Media*. Routledge.
13. Tannen, D. (1990). *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. Ballantine Books.
14. Wierzbicka, A. (1991). *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. Mouton de Gruyter.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abdullaeva Sanobar Bahrillaevna

Doctoral Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages,
PhD on philological sciences

INTERPRETATION OF "GENIUS" IN PHRASEOLOGISMS OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK

Abstract. The article explores the concept of "genius" through the lens of phraseological units in English, Russian, and Uzbek languages. Genius is characterized by exceptional creativity, problem-solving, and innovation, and this notion is shaped uniquely within different linguistic and cultural contexts. The research focuses on how various cultures interpret and express genius in their respective languages, emphasizing national nuances. The methodology involves the comparative analysis of idioms reflecting the idea of genius in the three languages, revealing shared and distinct cultural perspectives. English phraseologisms often highlight individual achievement, while also incorporating humor to downplay one's abilities. Russian idioms emphasize the intellectual and spiritual dimensions of genius, reflecting a historical view of intelligence as a divine gift. In contrast, Uzbek expressions like focus on intellectual precision, particularly in creative endeavors.

Key words: phraseological units, realization, national nuances, cognitive analysis.

Abdullayeva Sanobar Baxrillayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti, f.f.f.d. (PhD)

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA "DAHO" TUSHUNCHASINING TALQINI

Annotatsiya. Maqolada "daho" tushunchasi ingliz, rus va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Daho o'ziga xos ijodkorlik, muammolarni hal qilish va yangilik bilan ajralib turadi va bu tushuncha turli til va madaniy kontekstlarda o'ziga xos tarzda shakllanadi. Tadqiqot turli madaniyatlar o'z tillarida daholikni qanday talqin qilishlari va ifodalashiga, milliy tusga urg'u berishga qaratilgan. Metodologiya uchta tilda daho g'oyasini aks ettiruvchi idiomalarni qiyosiy tahlil qilishni, umumiy va o'ziga xos madaniy istiqbollarni ochib berishni o'z ichiga olagan. Ingliz frazeologizmlari ko'pincha individual yutuqlarni ta'kidlaydi, shu bilan birga biroovning qobiliyatlarini pasaytirish uchun hazil tarzda ko'rsatadi. Rus iboralari dahoning intellektual va ma'naviy o'lchovlarini ta'kidlab, aqlning ilohiy sovg'a sifatida tarixiy nuqtai nazaridan aks ettiradi. Bundan farqli o'laroq, o'zbek iboralari intellektual aniqlikka, xususan, ijodiy ishlarga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, tushunish, milliy tus, kognitiv tahlil.

Абдуллаева Санобар Бахриллаевна

Докторант Самаркандского государственного института
иностранных языков, д.ф.ф.н. (PhD)

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЕНИАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКИХ, РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация. В статье рассматривается понятие «гений» во фразеологических единицах в английском, русском и узбекского языков. Гений характеризуется исключительной креативностью, решением проблем и новаторством, и это понятие формируется уникальным образом в различных языковых и культурных контекстах. Исследование фокусируется на том, как различные культуры интерпретируют и выражают гениальность в своих языках, подчеркивая национальные нюансы. Методология включает сравнительный анализ идиом, отражающих идею гениальности в трех языках, раскрывая общие и различные культурные перспективы. Английские фразеологизмы часто подчеркивают индивидуальные достижения, а также включают юмор, чтобы преуменьшить чьи-либо способности. Русские идиомы подчеркивают интеллектуальные и духовные аспекты гениальности, отражая исторический взгляд на интеллект как на божественный дар. Узбекские выражения, напротив, фокусируются на интеллектуальной точности, особенно в творческих начинаниях.

Ключевые слова: фразеологизмы, понимание, национальные нюансы, когнитивный анализ.

Introduction.

The phenomenon of "genius" is characterized by the ability to create something new, unique and significant, as well as to solve complex problems in an unusual and original way. The stereotype of genius in different cultures is associated with various phenomena, objects and subjects, which can be determined by comparing the phraseological picture of the world. Comparison of phraseological units in different systems and unrelated languages allows us to identify how different cultures and linguistic traditions interpret the concept of "genius". "Language is closely connected with culture: it grows into it, develops in it and expresses it," V. A. Maslova rightly notes [4, 5]. In the late 20th - early 21st centuries, much attention began to be paid to the problem of reflecting culture in language, which was studied in the works of V. A. Maslova (2001), V. N. Telia (2006), A. E. Guseva (2024).

This research is devoted to the study of the concept of "genius" in English, Russian and Uzbek languages. The choice of the object of study is determined by a number of factors, including the intention to identify the presence of national nuances in the description of the concept of "genius". The subject of discussion of the presence of national characteristics in phraseological units seems to us quite natural, since they "reflect the history of the people, the uniqueness of their culture and life" [3, 4].

Methods and materials.

"Alisher Navoiy dostonlarining ichki, botiniy ma'nosini anglar ekanmiz, ularda ideal dunyo hayotining tasvirini ko'ramiz. Bu muhabbat va ezgulik, do'stlik va birdamlik dunyosi bo'lib, unda yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi, adolat va donolik, muhabbat va yaxshilik hukm suradi. Ularda inson ruhi (aql)ning kamolot sari yuksalishi jarayoni ifodalanadi. Navoiy qahramonlari uchun ishq bu insonda qalbini turli illatlar va hayvoniy xissiyotlar ta'siridan tozalovchi, insonda yuksak ma'naviy xis tuyg'ular uyg'otuvchi bir ruh yoki axloqiy kuchdir. Ishaq — bu inson ruhining oliyanoblik va mardlikka yuksalish yo'li, sadoqat va do'stlikni sinov yo'li, inson o'zining

barcha ma'naviy kuch-quvvati, jismoniy va aqliy qobiliyatlari yuzaga chiqarishining vositasidir."²⁴

Ushbu olimlardan tashqari Alisher Navoiy ijodi Sh.R.Baratov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov²⁵; F.I.Haydarov²⁶; T.V.Marsinkovskaya²⁷; Z.T.Nishonova²⁸; G.Jdan²⁹ kabi olimlar tomonidan ham psixologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan va bu izlanishlar kitob, darslik holida nashr etilgan.

Navoiy asarlari pedagogika sohasi nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilgan bo'lib, O'.J.Yo'ldoshev, A.Abdurashidov, A.N.Ziyayev, M.Hamidov, M.M.Yusupov, A.Nusratov, S.S.Isamiddinov, N.M.Ochilova kabi olimlar bu yo'nalishda ish olib borganlar. Xususan, O'.J.Yo'ldoshev tahriri ostida nashr etilgan "Uumiy pedagogika" asarida quyidagi fikrlarga duch kelamiz: "Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunar egallashini va eng yaxshi insoniy fazilatlariga ega kishilar bo'lishini orzu qiladi. Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari markaziy o'rinda turadi. Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak va qadrlidir.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch-qudratiga alohida e'tibor beradi. Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yorituvchi chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi."³⁰

Shuning bilan birgalikda, Navoiy asarlari adabiyotimiz xazinasini sanaladi va adabiyotning har bir yo'nalishi tadqiq etgani kabi metodik jihatdan ham bir muncha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A. Hayitmetovning "Navoiyxonlik suhbatlari", S.Hasanovning "Navoiyning yetti tuhfasi", H.Qudratullayevning "Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari", Sh.Sirojiddinovning "Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV-XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari" (qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlil), A.Erkinovning "Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari", K.Mullaxo'jayevaning "Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi" kabi qator tadqiqotlarda shoir ijodining ko'plab qirralari tadqiq etilgan. Adabiyotshunos olim Rahim Vohidov Navoiy shaxsining buyukligini Islom diniga bo'lgan e'tiqod bilan bog'laydi: "Birgina fikr va hayotiy lavha asosida bugungi ta'limdagi kemtik

tomonlarni tanqid ostiga oladi. O'sib kelayotgan yosh avlod savodxonligida diniy bilimlarning ustunligini asoslab bera oladi. O'tmishda ta'lim berishda zohiriy va botiniy bilimlarning yonma-yon o'qitilganligini alohida ilova qiladi. Olim yana shuni alohida sharhlaydiki, garchi Qur'on tafsirini bilmay turib oyatlarini yod olgan bolaning zehni o'tkir, talaffuzi, nutqi hamda qiroat san'ati o'tkirlashadi. Shundagina dunyoviy bilimlarning haqiqiy bilimdoniga aylanadi."³¹

M.Tojiboyev, Sh.Yusupova va E.Bo'riyeva "Adabiy germenevtika va mumtoz badiiy til"³² hamda D.Qur'onov "Talqin imkonlari"³³ kabi asarlari bilan ushbu olimlarimiz ham mumtoz badiiy tilni tushunish bo'yicha yetarlicha ishlarni amalga oshirganlar.

Navoiy asarlari o'rta asrlarda yaratilgani bois hozirgi tilimizdan biroz farq qiladi. Buni til lug'at boyligi misolida aytishimiz mumkin. Ammo hozirgi tilimizda Navoiy asarlari tabdil qilinganda ham ma'nolari to'liq ochib berilmaydi, sharhga muhtoj. Chunki, Navoiy tili mazmun ko'lami jihatidan ancha mukammal, bu so'zlarni biz hozirgi tilimizda to'laqonli ishlatmaymiz. Shoir asarlarini o'rgatishning qiyinchiligi faqatgina lug'at boyligida emas. Navoiy asarlari umumbashariy g'oyalarni ilgari suradi hamda so'fiyona o'rinlari ham talaygina. Bunday mazmunni tushunish uchun o'quvchidan bir muncha bilimlarni talab qiladi. Shu jihatdan ham maktab yoshidagi o'quvchilarga biroz soddaroq tushuntirish variantlarini o'ylab topish adabiyot metodikamiz oldidagi vazifalardandir.

Adabiyot darslarida asarlarni tushuntirish asosan, uch yo'nalishda olib boriladi: epik, lirik va dramatik. Navoiy nazmda ijod qilganligi bois, uning asarlari ham lirika bo'limida o'rganiladi. Lirika esa, boshqa janr turlaridan ancha murakkabroq. Xususan, Q.Yo'ldoshevning: "Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ular samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yo o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarini uyg'otadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so'z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan biri"³⁴,— degan fikrlari ayni haqiqatdir. S. Ahmedov ham lirik asarlar to'g'risida gapirib: "Lirika ijodkor qalbi oniy bir tezlikda his etgan sezgining, mavjud muhitga estetik munosabatning mevasidir. Shoir tashqi olamdan olgan

²⁴ N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. Psixologiya tarixi. – 2019. Noshir nashriyoti.

²⁵ Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Psixologiya tarixi va nazariyasi \ darslik. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019.

²⁶ Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma'ruzalar matni). T. 2003.

²⁷ Marsinkovskaya T.V. Istoriya psixologii. M., 2002.

²⁸ Nishonova Z. T. —Psixologiya tarixi. T -2002.

²⁹ Jdan G. Istoriya psixologii \ Uchebnik. — M.: Izd-va J42 MGU, 1990

³⁰ O'.J.Yo'ldoshev tahriri ostida. Umumiy Pedagogika.—T.: "Fan va texnologiya", 2017

³¹ Saidova Nodira Mustakimovna. Navoiy va ilohiyot Rahim Vohidov talqinida. Innovation in technology and science education. 2023

³² M. Тожибоев, Ш.Юсупова ва Э.Бўриева. Адабий герменеvtика ва mumtoz бadiiy тил. —Т.: Университет, 2013.

³³ Д.Куронов. Талкин имконлари. —Т.: Турон замин зиё нашрети. 2015

³⁴ Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.doktori....diss. — Toshkent. 1997.

taassurotlari natijasida vujudga kelgan fikrini his-tuyg'ularga o'rab yana yuzaga chiqaradi, kitobxonda fikr tug'ilishiga sabab bo'ladi"³⁵,— deydi.

Alisher Navoiy asarlarini o'quvchilarga tushuntirishning afzalliklaridan biri ko'p salmog'i aynan lirika janrida ekanligidadir. Shuningdek, Jomiy ham bolaga ta'lim berishda she'r ilmi, adab ilmini muhim deb bilgan va undan axloqiy tarbiya va o'quvchi xotirasini mustahkamlovchi vosita sifatida foydalangan. Darhaqiqat, qadimda she'rlardan savod chiqarish va xotirani mustahkamlash maqsadida foydalanganini Alisher Navoiyning quyidagi baytlari ham tasdiqlaydi:

Yodima bundoq kelur bu mojaro,
Kim tufuliyat chog'i maktab aro...
Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o'quturkim ravon bo'lsun savod.

Ko'rinib turibdiki, lirik janrlar orqali bolaga ta'lim berish Navoiy davri balki, undan ham oldinroq samarali ekanligi o'z isbotini topgan. Bunday usulda ta'lim berishda faqatgina lirik matnning o'quvchi yosh va psixologik xususiyatlariga mos ekanligini tekshirib olishimiz kerak bo'ladi.

Navoiy asarlarini maktab o'quvchilariga tanishtirishning eng dolzarb muammolaridan yana biri — bu janr xususiyatlaridir. Bilamizki, Navoiy aruz vaznida ijod qilgan. Aruz ancha murakkab she'r vaznidir. Bu borada A. Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" nomli ilk metodik qo'llanma bizga ancha yordam beradi. "Qo'llanma ikki qismdan tashkil topgan. Dastlab aruz vaznining asosiy tushunchalari, xususiyatlari, qonun-qoidalari tanishtirilsa, ikkinchi qismida bevosita o'sha davr dastur va darsliklaridan o'rin olgan mumtoz asarlarning vazni, taqte'si, ruknlari ko'rsatilgan, ularni ifodali o'qishda qanday jihatlarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida alohida-alohida tavsiyalar berilgan." Yana shunday izlanishlardan biri S.Akmalovning "4-7-sinflarda she'riy asarlarni o'rganish" kitobida mumtoz lirik asarlarni tahlil qilish usullari o'rgatilgan. Bu kitob aynan umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-7-sinflarida o'tiladigan she'rlarni qanday o'rgatishga bag'ishlangan bo'lib, unda aruz vazni ham o'quvchilar yoshiga mos tarzda tushuntirib ketilgan. S. Dolimov esa "8-sinf o'zbek adabiyoti tarixi darsligi uchun metodik qo'llanma" sida g'azallarni qanday tahlil qilish kerakligini tushuntirib bergan. Olim g'azallarni tahlil qilish jarayonida suhbat va sharhlab o'qish metodlaridan keng foydalanish kerakligiga urg'u beradi. Ushbu kitobda g'azal tahlili qay tartibda tashkil etilishi bayon etilgan:

1. O'rganishga asos qilib olingan g'azal ijodkorining lirikasi borasida umumiy tushuncha berish.
2. G'azal matnini ifodali o'qish.

3. G'azalda keltirilgan lug'at va iboraviy birikmalar ustida ish olib borish.

4. O'rganilayotgan g'azal vaznini aniqlash hamda o'rganuvchilarga g'azalni vazn qoidalariga moslab o'qitishga o'rgatish.

5. G'azalda keltirilgan badiiy obrazlar tahlili va sharhlarini keltirish.

6. Matnda keltirilgan majoziy obraz va majoziy ifodalarni tahlil etish.

7. G'azal mazmuniga aloqador savollar yordamida mavzuni to'laqonli ochish.

8. Badiiy tasvir vositalarini aniqlash."³⁶

Adabiyot o'qitish metodikasi fani doirasida qilingan ko'plab ilmiy va metodik izlanishlar nafaqat umumiy adabiyotni, balki mumtoz adabiyot namunalari o'rganish uchun ham yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday manbalardan biri 2020-yilda chop etilgan Dilfuza To'xliyevaning "Maktab darsliklaridagi mumtoz asarlar lug'ati va izohi"³⁷ nomli metodik qo'llanmasidir. Ushbu kitob maktab darsliklarida keltirilgan lirik mumtoz asarlar — g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasida kabilarni anglashda o'qituvchi va o'quvchilarga amaliy jihatdan yordam berish uchun tayyorlangan. Ushbu qo'llanmada maktab darsligiga kiritilgan, ammo yetarli lug'at va izohlar bilan to'ldirilmagan lirik janrdagi asarlar tahlili keltirilgan. Ularning har biriga to'liq tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati va hozirgi tilimizdagi nasriy bayonlar ilova qilib ko'rsatilgan.

Adabiyot darsliklarida keltirilgan Navoiy asarlari badiiy matn hisoblanadi va badiiy asarning pragmatik funksiyalarini yuzaga chiqarish, o'quvchilarning muayyan badiiy asardan olgan nazariy tushunchalarini amaliy ko'nikmalari bilan parallel rivojlantirishda yangicha tamoyillar asosida ta'lim berish metodika fani tomonidan tavsiya etilmoqda. Bulardan "Savol va topshiriqlar badiiy matnning yangicha talqinlarini yaratishga xizmat qilishi kerak" tamoyili Navoiy asarlarini tahlil etishda ham muhim o'rin kasb etadi. Chunki barcha o'rganiladigan matnlar singari Navoiy asarlarini o'rganishda ham savol va topshiriqlar muhim o'rin kasb etadi. Shuningdek, fan dasturlarida, darsliklardagi mavjud adabiy matnlar, xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab g'azallarini, Fitrat, Qodiriy kabi jadid namoyondalari ijodini zamonaviylik prinsipida (badiiy asarni tushunishga yordam beradigan boshqa yondashuvlarni ham unutmagan taqdirda, albatta), vizual tahlilda o'quvchini qamrab turgan muhitga, uning ruhiy, ma'naviy ehtiyojlariga bog'lagan holda o'rgatish ko'proq samara beradi. Mana shunday yangicha usul va metodik yondashuvlarning tahlili keltirilgan metodik qo'llanmalar soni oshib, fanni o'rganishga yordamchi vazifa

³⁵ Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish: Adabiyot o'qituvchilariga yordam. - T.: O'qituvchi, 1986.

³⁶ S. Dolimov. 8-sinf o'zbek adabiyoti tarixi darsligi uchun metodik qo'llanma.

³⁷ To'xliyeva, D. Maktab darsliklaridagi mumtoz asarlar lug'ati va izohi [Matn]: Metodik qo'llanma / D.To'xliyeva. — Toshkent: Bayoz, 2020. —192 b.

ko'rsatmoqda. Jumladan, Zulxumor Mirzayevaning "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (o'qituvchi qo'llanmasi)" metodik qo'llanmasida Navoiy ijodini o'rganish borasida bir muncha tavsiyalar berilgan: badiiy matn bilan ishlashda uning boshqa turdagi matnlardan farqlarini va badiiy asarni o'qish yoki o'qitishdagi maqsadlar ham boshqa turdagi matnlarni o'qish yoki o'qitishdagi maqsadlardan tubdan farq qilishini hisobga olish kerak. Asarni hamma har xil tushunadi va talqin qiladi, hatto bir o'quvchi bir asarni har xil paytda o'qiganda har xil xulosalarga keladi va bu holatni normal holat sifatida qabul qilish lozim. Shuni hisobga olga holda, adabiyot darslarida o'qituvchi e'tiborni asardagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yodlatish yoki o'quvchilarga asarning ma'lum bir talqinini yagona maqbul talqin sifatida singdirishi emas, balki ularga asar matni bilan ishlash asnosida badiiy matn, o'z bilimlari va hayotiy tajribalari hamda kontekstdan kelib chiqqan holda o'z talqinlarini yaratishga yordam berishi lozim."³⁸

Mumtoz asarlar ustida ishlashda ularning birmuncha murakkab jihatlari borligi unutmagan holda darsni tashkil etish lozim. Ta'kidlash joizki, har bir fanning ta'limiy jihatlari bilan birgalikda uning tarbiyaviy-didaktik tomonlari ham muhimdir. Ahamiyatga molik jihati shundaki, adabiyot darslari, avvalo, tarbiyaviy darslardir. Ammo buni o'quvchiga eltish uchun asar ustida astoydil ishlashga to'g'ri keladi. Ayni daqiqada, "hazrat Navoiyning asarlari tahlilida ham savol va topshiriqlarni shiddat bilan berish, tezkor sur'at didaktik maqsadga

eltmaydi. Sababi bu asarlar o'z tabiati bilan har qanday kishini o'ziga tildiradigan xususiyatga ega."³⁹ Shunday ekan, bu asarlarning deyarli barcha jihatlarni o'quvchilarga yetkazish oldimizda turgan asosiy vazifalardandir. Ayni damda, Navoiy asarlarining janr xususiyatlari ko'lamdorligi sababli o'quvchilarga mavzuni-asarni tushuntirishdan oldin ushbu janr haqida nazariy ma'lumot berish talab etiladi. Bu xususda metodist olim S. Dolimov birgina janr misolida: "Navoiy tuyuqlariga bag'ishlangan dars tuyuq haqidagi nazariy ma'lumot bilan boshlanadi"⁴⁰, - o'rinli fikr bildiradi. Bu o'rinda Qozoqboy Yo'ldosh ham quyidagi fikrlarni bildiradi: "9-sinfda Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini o'rgatishga 10 soat vaqt ajratilgan. Dastlabki soatda adibning umr va ijod yo'lini o'rganish ko'zda tutilgan. O'qituvchi ulug' shoirning umrbayoni shu vaqtga qadar har bir sinfda o'rganib kelinganini ko'zda tutib, birinchi soatni to'lig'icha kirish mashg'uloti tarzida o'tishi, ya'ni "Xamsa" janriga xos jihatlarni anglatishga diqqat qaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda har qanday beshta asar "Xamsa" bo'lavermasligi, bunday janrdagi asarni bitmoq uchun qat'iy qo'liqlar ichida turgan holda ularni yorib chiqqan bilish zarurligi, shu boisdan "Xamsa" yozgan adiblar barmoq bilan sanarli ekani bildiriladi. Shuningdek, har bir dostonida Navoiy tomonidan kiritilgan yangilik ta'kidlanishi va shu yo'l bilan o'quvchilar asarga qiziqtirilishi joiz."⁴¹

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dolimov S. "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi uchun metodik qo'llanma. -T.: "O'qituvchi", 1980. 55-bet.
2. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2022 189-b
3. Zulxumor Mirzayeva. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (o'qituvchi qo'llanmasi). T- 2020
4. To'xliyeva, D. Maktab darsliklaridagi mumtoz asarlar lug'ati va izohi [Matn]:Metodik qo'llanma / D.To'xliyeva. – Toshkent: Bayoz, 2020. –192 b
5. S. Dolimov. 8-sinf o'zbek adabiyoti tarixi darsligi uchun metodik qo'llanma.
6. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.doktori....diss. – Toshkent. 1997.
7. Ahmedov S. Adabiyot darslarida epik janrlarni o'rganish: Adabiyot o'qituvchilariga yordam. - T.: O'qituvchi, 1986.
8. O'.J.Yo'ldoshev tahriri ostida. Umumiy Pedagogika.—T.: "Fan va texnologiya", 2017
9. Saidova Nodira Mustakimovna. Navoiy va ilohiyot Rahim Vohidov talqinida. Innovation in technology and science education. 2023
10. М. Тожибоев, Ш.Юсупова ва Э.Бўриева. Адабий герменевтика ва мумтоз бадиий тил. –Т.: Университет, 2013.
11. Д.Қурононов. Талқин имконлари. –Т.: Турон замин зиё нашрети. 2015
12. N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. Psixologiya tarixi. – 2019. Noshir nashriyoti.

³⁸ Zulxumor Mirzayeva. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (o'qituvchi qo'llanmasi). T- 2020

³⁹ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2022 123-b

⁴⁰ Dolimov S. "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi uchun metodik qo'llanma. -T.: "O'qituvchi", 1980. 55-bet.

⁴¹ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2022 189-b

13. Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O R. Psixologiya tarixi va nazariyasi \ darslik. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019.
14. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma'ruzalar matni). T. 2003.
15. Marsinkovskaya T.V. Istoriya psixologii. M., 2002.
16. Nishonova Z. T. —Psixologiya tarixi. T -2002.
17. Jdan G. Istoriya psixologii \ Uchebnik. — M.: Izd-va J42 MGU, 1990

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Madraximova Durdona Umirbekovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axbotot texnologiyalari universiteti, xorijiy tillar kafedrası, assistent o'qituvchisi

akbar93@list.ru

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MAXSUS TERMINOLOGIYA TARIXI

Annatsiya: Ushbu maqola axborot-kommunikatsion texnologiyalar terminologik lug'atlari tarixini qisqacha tahlil qiladi va bu sohada faoliyat yuritgan olimlarning fikrlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: kommunikatsion, texnologiya, terminologik, axborot, metodologik, lug'at.

Мадрахимова Дурдона Умирбековна

Преподаватель Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ И ИСТОРИИ СПЕЦИАЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация в этой статье кратко анализируется история терминологических словарей информационных и коммуникационных технологий и исследуются мнения ученых, работавших в этой области.

Ключевые слова: коммуникативные, технологические, терминологические, информационные, методологические, лексические.

Madrahimova Durdona Umirbekovna

Lecturer Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

ON INFORMATION TECHNOLOGY AND HISTORY OF SPECIAL TERMINOLOGY

Annotation: this article briefly analyzes the history of terminological dictionaries of information and communication technologies and studies the opinions of scientists who have worked in this field.

Keywords: communicative, technology, terminological, informational, methodological, dictionary.

Introduction.

Informatization of society is a global social process, the peculiarity of which is that the dominant type of activity in the sphere of social production is the collection, accumulation, production, processing, storage, transmission and use of information, carried out on the basis of modern microprocessor and computer technology, as well as on the basis of various means of information exchange. Informatization of society ensures:

Active use of the constantly expanding intellectual potential of society, concentrated in the printed fund, and scientific, industrial and other types of activity of its members;

Integration of information technologies into scientific and industrial activities, initiating the development of all spheres of social production, intellectualization of labor activity;

High level of information services, accessibility of any member of society to sources of reliable information,

visualization of the information provided, significance of the data used.

Literature analysis.

The use of open information systems designed to use the entire array of information currently available to society in a certain area allows us to improve the mechanisms for managing the social structure, promotes the humanization and democratization of society, and increases the level of well-being of its members. The processes occurring in connection with the informatization of society contribute not only to the acceleration of scientific and technological progress, the intellectualization of all types of human activity, but also to the creation of a qualitatively new information environment of society, ensuring the development of the creative potential of the individual.

Research methodology.

Information technology is a set of methods, production and software and technological means, united in a technological chain, providing collection, storage, processing, output and distribution of information.

Information technologies are intended to reduce the labor intensity of the processes of using information resources. Information technologies are called upon, based on and rationally using modern achievements in the field of computer technology and other high technologies, the latest means of communication, software and practical experience, to solve problems of effective organization of the information process to reduce the costs of time, labor, energy and material resources in all spheres of human life and modern society. Information technologies interact and are often an integral part of the service sector, management, industrial production, social processes. [1, 96]

Analyzes and results.

Information technology covers all resources necessary for information management, especially computers, software and networks necessary for creating, storing, managing, transmitting and retrieving information. Information technology can be grouped as follows:

- Technical means;
- Communication means;
- Organizational and methodological support;
- Standardization.

The process of designing an information system begins with the process of designing IT and is considered together with the process of processing data in the subject area. Moreover, the design process itself is automated and becomes available not only to a professional information system designer, but also to the end user. Thus, the end user can independently design and improve their individual subsystems. The purpose of using information technology is to increase labor productivity when using information resources. Information resources are understood as a set of data that is valuable to the organization. These include files and databases, documents, texts, graphics, knowledge, audio and video information. The explanatory dictionary of informatics gives the following definition of IT. Information technology is a set of methods, production processes and software and hardware tools, united by a technological process and ensuring the collection, storage, processing, output and distribution of information to reduce the labor intensity of the processes of using information resources, increase their reliability and efficiency. [2, 185]

Investigating the problems of IT terminology is also important for present linguistics.

Terminology is a group of specialized words and respective meanings in a particular field, and also the study of such terms and their use; the latter meaning is also known as terminology science. A term is a word, compound word, or multi-word expression that in specific contexts is given specific meanings—these may deviate from the meanings the same words have in other contexts and in everyday language. Terminology is a discipline that studies, among other things, the development of such

terms and their interrelationships within a specialized domain. Terminology differs from lexicography, as it involves the study of concepts, conceptual systems and their labels (terms), whereas lexicography studies words and their meanings.

Terminology is a discipline that systematically studies the "labelling or designating of concepts" particular to one or more subject fields or domains of human activity. It does this through the research and analysis of terms in context for the purpose of documenting and promoting consistent usage. Terminology can be limited to one or more languages (for example, "multilingual terminology" and "bilingual terminology"), or may have an interdisciplinarity focus on the use of terms in different fields. [3, 145]

As a result of studying various areas of specialized vocabulary, it was established that, along with terms, there are other special lexical units that were identified and described: nomens (G.O.Vinokur 1939), professionalisms (N.P. Kuzmin 1970), professional argotisms (L.I.Skvortsov 1972), or professional jargonisms (N.M.Gladkaya 1977), pre-terms and quasi-terms (V.M.Leichik 1981), terminoids (A. D. Khayutin 1972), prototherms (S.V.Grinev 1990). These special lexemes have a number of common features with terms, but they also have differences. A term is a nominative word or phrase (a noun or a phrase with a noun as a support word), accepted to name general concepts. Nomens are names of individual concepts, as well as specific mass products reproduced according to the same model a given number of times. [4, 254] The difference between a term and a nomen is that nomens name individual concepts, while terms name general concepts. Pre-terms are special lexemes used as terms for naming newly formed concepts, but do not meet the basic requirements for a term. Pre-terms are usually: (a) a descriptive phrase - a multi-word nominative phrase used to name a concept and allowing one to accurately describe its essence, but do not meet the requirement of brevity; (b) a coordinative phrase; (c) a combination containing a participial or adverbial participial phrase. Pre-terms are used as terms for naming new concepts for which it is not immediately possible to select suitable terms. Pre-terms are distinguished from terms by their temporary nature, instability of form, failure to meet the requirements of brevity and general acceptance, and often the absence of stylistic neutrality. In most cases, pre-terms are eventually supplanted by terms. In a number of cases, the replacement of a pre-term by a lexical unit that better meets terminological requirements is delayed, and the pre-term is fixed in specialized vocabulary, acquiring a stable character and becoming a quasi-term.

The status of professionalisms is quite complex, as some experts: a) identify them with terms, b) classify them as units of craft vocabulary, c) classify them as specialized vocabulary of a non-nominative nature (verbs, adverbs,

adjectives); d) classify them as non-standardized specialized vocabulary, limited to use in the oral speech of professionals in an informal setting, and often having emotional and expressive connotations. A type of professionalism is professional jargon, which is incapable of acquiring a normative character, and its conventionality is clearly felt by speakers. A terminoid is a special lexeme used to name insufficiently established (developing) and ambiguously understood concepts that do not have clear boundaries, and therefore definitions. Therefore, terminoids do not have such terminological properties as precision of meaning, contextual independence, and stable character, although they name concepts. Proto-terms are special lexemes that appeared and were used before the emergence of sciences (the earliest ones were probably 30-40 thousand years ago), and therefore they do not name concepts (which arose with the emergence of science), but special ideas. Proto-terms have not disappeared since then - they have been preserved in the craft vocabulary and everyday vocabulary that has come down to us (since many special ideas have since entered general use). Over time, with the emergence of scientific disciplines in which special subject ideas of crafts and some other types of activity are theoretically understood and transformed into systems of scientific concepts, some of the proto-terms that have become firmly established in specialized speech are included in scientific terminology, and the rest exist either in the form of commonly used vocabulary of subject areas in which scientific and theoretical foundations are absent (not yet formed), or function in the form of so-called "folk terminologies" used in parallel with scientific terms, but without connection with the conceptual system. Thus, many basic terms of old terminologies were once proto-terms and retained a number of their features - the use of random, superficial features for motivation or the absence (loss) of motivation. [3, 195]

Now let's look at the history of terminological dictionaries.

A terminological dictionary is a work that systematically collects and explains terms, their meanings and forms of use in a certain science or field. These dictionaries are used in various fields such as scientific, technical, legal and other fields.

The origin of terminological dictionaries depends on the development of science and technology, the change of language, the needs of society and the requirements of communication. Terminology is essential for clarity and clear communication, mainly in science and industry.

Origin process:

1. Historical foundations: Terminological dictionaries have been formed since ancient times, mainly found in ancient written sources and scientific works.

2. Scientific revolution: in the 20th century, as a result of the scientific revolution and technological progress, new

terms appeared, and their explanatory dictionaries began to be compiled.

3. Terminological standardization: The need to standardize and systematize terms in various sciences and fields has led to the organization of this process in many countries.

The history of the development of terminological dictionaries is related to the development of language and science, the needs of society and the exchange of information. Below are the stages of their development:

Development history:

1. Antiquity: The first appearance of terminological dictionaries can be found in ancient written sources, for example, in Mesopotamia and Egypt. They mainly included terms related to trade and scientific knowledge.

2. Middle Ages: In the Middle Ages, terminological dictionaries appeared mostly in religious and philosophical fields. Works written in Arabic played an important role in the development of terminology.

3. New era: in the 18th and 19th centuries, with the rapid development of science and technology, terminological dictionaries increased. In Europe, a number of academies and institutes were engaged in creating their own terminological dictionaries.

4. 20th century: In the 20th century, the development of scientific research and technology led to the standardization of terms and their systematic creation of many dictionaries. During this period, terminological dictionaries were developed in many fields (engineering, medicine, economics).

5. Today: Today, globalization and the development of information technologies have led to the creation and use of terminological dictionaries in electronic form. These processes made communication in scientific and technical fields much easier.

Origin and history of terminological dictionaries in Turkic languages

The origin of terminological dictionaries in Turkic languages depends on centuries-old cultural and scientific development processes. Turkic peoples developed special terms and concepts as a result of their achievements in the fields of science, art and culture. This process became the basis for the creation and development of terminological dictionaries.

Ancient times and early terms

The origin of terminological dictionaries in Turkic languages is related to ancient written sources. The Orkhan-Yenisei inscriptions (VII-VIII centuries) are important as one of the first written monuments of the Turkic peoples. In these inscriptions there are social and political life, military and administrative terms of the Turkic peoples, and the formation of the first system of terms began during this period.

Mahmud Kashgari and "Devonu Lugat-it turk"

The tradition of creating terminological dictionaries in Turkic languages dates back to the 11th century. Mahmoud Kashgari, a great linguist, played a major role in this process with his work "Devonu Lugat-it turk". This work is known as the first systematic dictionary of Turkic languages and is an important source for studying the life, culture and language of Turkic peoples. It contains special terms related to military, social, political and cultural life.

Medieval and scientific works

Terminological words increased in connection with the development of science and literature in the Turkic peoples in the Middle Ages. During this period, along with Arabic and Persian terms, terms in medicine, astronomy and mathematics entered the Turkish language. Turkish, Arabic and Persian terms are listed together in scientific and medical works.

XIX century and Ottoman period

In the 19th century, the tradition of creating a special terminological dictionary in Turkic languages began to develop. Terminological dictionaries containing military, legal, political and economic terms appeared in Ottoman Turkish. During the Ottoman period, special terms used in

the state administration, legal system, and military spheres were formed.

Conclusion.

In the 20th century, with the establishment of the Republic of Turkey, the movement to reform the Turkish language and remove Arabic-Persian words began under the leadership of Atatürk. As a result, many new terminological dictionaries were created, which helped to systematize new terms in the field of science and technology.

In the 20th century, work on the compilation of terminological dictionaries in the Uzbek language also began. This process is related to the strengthening and development of the Uzbek language, and special dictionaries related to law, medicine, technology and other fields were developed.

With the development of digital technologies in the 21st century, terminological dictionaries have moved to an online format. Terminological dictionaries for modern fields in various Turkic languages began to be widely distributed in digital form.

References.

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. — М., Советская Энциклопедия, 1968.
2. Винокур Г. О. (1939) О некоторых явления словообразования в русской технической терминологии // История отечественного терминоведения: классики терминоведения. — М., 1994.
3. Гринев С. В. (1993) Введение в терминоведение. — М., Московский Лицей, 1993.
4. Кузьмин Н. П. Нормативная и ненормативная специальная лексика // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. — М, 1970.
5. Лейчик В. М. Некоторые вопросы упорядочения, стандартизации и использования научно-технической терминологии // Термин и слово. — Горький, 1981.
6. Информационные процессы в различных сферах деятельности // Сайт о коммуникативных процессах Архивная копия от 2 ноября 2014 на Wayback Machine
7. Hoshimov, O. (2020). "Terminologik lug'atlar va ularning ahamiyati." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
8. Jumaniyazova, D. (2019). O'zbek terminologiyasi: muammo va yechimlar. Tashkent: Iste'dod.
9. Kamalov, T. (2018). "Terminologiya va uning rivojlanishi." Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
10. Köksal, H. (2016). "Türk Dilinde Terminoloji." Ankara: Türk Dil Kurumu.
11. Muradov, B. (2020). "Terminologiya va uning rivojlanishi." Toshkent: Iste'dod.
12. Qashg'ariy, M. (2010). "Devonu lug'atit turk." Tahrir: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
13. Xudoyberganov, S. (2018). Tilshunoslikda terminologiya. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
14. Yılmaz, S. (2019). "Türkçe Terminolojinin Gelişimi." İstanbul: Nobel Yayınları.
15. <https://files.nazaryev.ru/ifmo/third-year B9.pdf>
16. https://en.wikipedia.org/wiki/Terminology#cite_note-2

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Axmadjonov Tursunpo'lat Axmadjon o'g'li
University of Business and Science, O'qituvchi
axmadjonov tursunpo'lat1994@mail.ru
Xasanboyev Ilhomjon Abdubanno o'g'li
University of Business and Science, O'qituvchi
ilhomjonxasanboyev66@mail.ru

INGLIZ TILIDA PREDIKATIV KONSTRUKSIYALARNING LINGVISTIK MOHIYATI VA TASNIFI

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilida predikativ konstruksiyalarning lingvistik mohiyati va tasnifini yoritishga bag'ishlangan. Shuningdek maqolada predikativ konstruksiyalarning ingliz grammatikasidagi o'rni, jumla tuzishda va ega-predikat munosabatlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ham ta'kidlanadi. Tadqiqotda predikativ konstruksiyalarni semantik tahlil, korpusga asoslangan tahlil va ta'vsiy lingvistik tahlil metodlari yordamida chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: predikativ konstruksiyalar, lingvistik mohiyat, predikativ tuzilmalarning tasnifi, semantika, ega-va-predikat munosabati, gap tuzilishi, funksional grammatika, ingliz tili grammatikasi.

Akhmadjonov Tursunpulat Akhmadjon ugli
University of Business and Science, Teacher
Ilhomjon Xasanboyev Abdubanno ugli
University of Business and Science, Teacher

THE LINGUISTIC ESSENCE AND CLASSIFICATION OF PREDICATIVE CONSTRUCTIONS IN ENGLISH

Annotation: This article is dedicated to the linguistic essence and classification of predicative constructions in the English language. The article also emphasizes the importance of predicative constructions in English grammar, particularly in sentence formation and the creation of subject-predicate relations. The research provides an in-depth analysis of predicative constructions through the methods of semantic analysis, corpus-based analysis, and descriptive linguistic analysis.

Keywords: predicative constructions, linguistic essence, classification of predicative constructions, semantics, subject-predicate relation, sentence structure, functional grammar, English grammar.

Ахмаджонов Турсунпулат Ахмаджон угли
Преподаватель University of Business and Science
Ильхомжон Хасанбоев Абдубанно угли
Преподаватель University of Business and Science

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПРЕДИКАТИВНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: Данная статья посвящена лингвистической сути и классификации предикативных конструкций в английском языке. В статье также подчеркивается важность предикативных конструкций в английской грамматике, особенно в построении предложений и создании отношений между подлежащим и сказуемым. В исследовании проводится глубокий анализ предикативных конструкций с помощью методов семантического анализа, корпусного анализа и описательного лингвистического анализа.

Ключевые слова: предикативные конструкции, лингвистическая суть, классификация предикативных конструкций, семантика, отношение подлежащего и сказуемого, структура предложения, функциональная грамматика, английская грамматика.

Kirish.

Ingliz tilidagi predikativ konstruksiyalar tili tizimining o'ziga xos qismi bo'lib, gap tuzilishida muhim o'rin tutadi. Predikativ konstruksiyalar jumlada ega va predikatning o'zaro munosabatlarini belgilab, mazmunan bog'langan bo'laklarning to'g'ri tuzilishini ta'minlaydi [11]. Bunday konstruksiyalar tilshunoslikning ko'p qirralaridan biri bo'lib, gapning mazmunini to'g'ri ifodalashda asosiy rol o'ynaydi. Ular o'z ichiga grammatik strukturani, funksional ahamiyatni va gapning semantik yukini olib kiradi. Predikativ konstruksiyalar ingliz tilining grammatika tizimida ega-predikat (subject-predicate) munosabatini tashkil qiluvchi asosi bo'lib, bu munosabat gapdagi fikrning to'liqligini va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Lingvistik nuqtai nazardan, predikativ konstruksiyalar ko'p jihatli tahlilni talab qiladi, chunki ular gapning semantik, sintaktik va funksional jihatlarini o'z ichiga oladi [2]. Ingliz tilidagi predikativ konstruksiyalarni o'rganish nafaqat tilshunoslar, balki ingliz tili o'qituvchilari va talabalari uchun ham dolzarb hisoblanadi, chunki ularning to'g'ri qo'llanilishi gap tuzish jarayonining asosi sifatida qaraladi. Shu ma'noda, predikativ konstruksiyalarni tasniflash va ularning lingvistik mohiyatini aniqlash til tuzilmasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada predikativ konstruksiyalarning ma'nosini, ularning subyekt-predikat o'rtasidagi semantik munosabatlari va sintaktik va funksional jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda semantik, korpusga asoslangan va tavsifiy lingvistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Semantik tahlil ingliz tilidagi predikativ konstruksiyalarning ma'nosi va funksiyasini o'rganish uchun qo'llaniladigan eng muhim metodlardan biridir [7]. Semantik tahlil yordamida subyekt va predikat o'rtasidagi munosabat ma'no darajasida tekshiriladi, ya'ni har bir gap qismi umumiy ma'noni qanday shakllantirayotgani aniqlanadi [3]. Bu yondashuv predikativ konstruksiyalarning gapda qanday ma'no berishini tushinishga yordam beradi. Predikativ konstruksiyalar ko'pincha gapning turli elementlari (sub'ekt, predikat va to'ldiruvchi) qanday semantik rollarni egallashi asosida tahlil qilinadi [4]. Ingliz tilida sub'ekt odatda "agent" yoki "tajriba qiluvchi" rolini oladi, predikat esa sub'ekt bilan bog'liq bo'lgan "harakat" yoki "holat"ni ifodalaydi.

Misol uchun:

The boy kicked the ball.

Ushbu gapda The boy (subyekt), the ball (obyekt) harakatni qabul qiluvchi hisoblanadi.

Shuningdek Semantik tahlil orqali predikativ konstruksiyalarning ma'no jihatlarini o'rganildi. Predikativ konstruksiyalar subyekt va predikat o'rtasidagi ma'no bog'lanishini belgilab, gapning umumiy mazmunini shakllantiradi [12].

Misol uchun:

"She is happy".

Ushbu gapda "is happy" konstruksiyasi subyektning hozirgi holatini ifodalaydi. "happy" sifat predikativ ma'noni bildiradi.

"He became a teacher".

"became a teacher" konstruksiyasi subyektning kasbini aniqlaydi, "became" fe'li holat o'zgarishini bildiradi.

Semantik tahlil natijalari orqali quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin:

1. **Subyekt-predikat munosabatlari:** Predikativ konstruksiyalar sub'ekt va predikat o'rtasidagi sintaktik va semantik munosabatlarni aniqroq qilib berish, ayniqsa agentlik, harakat va sifatlar nuqtai nazaridan.

2. **Gap ma'nosi:** Gapning ma'nosi faqat so'zlarning alohida ma'nosi bilan emas, balki predikativ tuzilmalar bu ma'nolarni qanday tashkil qilishi bilan belgilanadi. Bu ingliz tilidagi sintaksis va semantika o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochib beradi.

Korpusga asoslangan tahlil (Corpus-Based Analysis) ko'p miqdordagi matnlar to'plami (korpus) orqali til hodisalarini tadqiq qilish uchun qo'llanildi. Ingliz tilidagi predikativ konstruksiyalarni tahlil qilishda, korpus lingvistikasi katta ahamiyatga ega bo'lib, u orqali real hayotdagi matnlarda predikativ konstruksiyalar qanday qo'llanilayotganini aniqlash mumkin [5]. Bu metod orqali predikativ konstruksiyalarni qaysi shakllarda va qaysi kontekstlarda tez-tez ishlatilishi o'rganildi. Korpusga asoslangan tahlil orqali predikativ konstruksiyalarni o'rganish uchun, *British National Corpus (BNC)* yoki *Corpus of Contemporary American English (COCA)* kabi korpuslardan foydalanish mumkin. Masalan, quyida ingliz tilidagi "be + predicative adjective" konstruksiyasini tahlil qilamiz:

1. Konstruksiya: "be" fe'li va predikativ sifat.

Misol: She is happy.

Bunday konstruksiya BNC yoki COCA orqali tahlil qilinsa, eng ko'p ishlatilgan predikativ sifatning qaysi kontekstda ishlatilgani aniqlanishi mumkin. Korpusdan olingan real misollar yordamida predikativ sifatlar qanday turli xil uslublarda ishlatilgani ko'rsatiladi:

She is happy with the results.

He is sad about the situation.

They are satisfied with their performance.

Bu yerda be fe'li bilan ishlatilayotgan predikativ sifatning kontekstdagi roli va ularning gap tuzilishidagi o'rni o'rganiladi.

Korpusdan Olingan Statistika

Misol uchun, COCA korpusida "be + predicative adjective" konstruksiyasini tahlil qilsak, eng ko'p ishlatilgan sifatlar va ularning qanday turli kontekstlarda ishlatilishi haqida quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin:

har bir so'z 5,000 dan ortiq foydalanilgan.

sad so'zi 3,200 marta foydalanilgan.

satisfied 2,000 dan ortiq foydalanilgan.

Bu statistik ma'lumotlar tahlil jarayonida predikativ konstruksiyalarning semantik va sintaktik jihatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Korpusga asoslangan tahlil natijalarida predikativ konstruksiyalarning real hayotdagi qo'llanilishi va ularning sintaktik va semantik roli haqida chuqur ma'lumotlar olish mumkin [8]. Bunday tahlil orqali grammatik xulosalar real ma'lumotlar bilan mustahkamlanadi va lingvistik hodisalarning ko'proq statistik asoslangan natijalari chiqariladi. Korpusga asoslangan tahlil predikativ konstruksiyalarni chuqur o'rganish imkonini beradi [9]. U orqali bu konstruksiyalarning qo'llanish chastotasi, kontekstual xususiyatlari va ularning turli uslubiy darajalarda qanday ishlatilgani aniqlanadi. Shu sababli, bu tahlil metodi lingvistika sohasida juda katta ahamiyatga ega.

Tavsifiy lingvistik tahlil yordamida predikativ konstruksiyalarning grammatik strukturalari va funksional rollari o'rganildi. Ushbu tahlil usulida til hodisalarining grammatik, sintaktik va semantik jihatlarini aniq tavsiflanadi va tahlil qilinadi. Predikativ konstruksiyalarni o'rganishda tavsifiy tahlil juda foydali, chunki bu konstruksiyalar turli xil gap tuzilmalarida va til kontekstida qanday ishlatilishini tushunish imkonini beradi [10].

1.Grammatik Tavsif: Tavsifiy tahlilda predikativ konstruksiyalar grammatik jihatdan qanday shakllanishi o'rganiladi [1]. Masalan, predikativ konstruksiyalarning asosiy qismi fe'l va predikativ element (odatda sifat yoki ot) orqali shakllanadi. Ushbu konstruksiyalar ko'pincha jumlada ega bilan bog'lanadi va uning holatini, xususiyatini yoki vaziyatini ifodalaydi.

Misol uchun:

Ingliz tilida "be + adjective" konstruksiyasi:

She is tired. (U charchagan.)

The weather is hot. (Ob-havo issiq.)

Bu yerda predikativ konstruksiya ega (she, the weather) va predikat (tired, hot) o'rtasidagi bog'lanishni ko'rishimiz mumkin.

2.Sintaktik Tavsif: Predikativ konstruksiyalarning sintaktik o'rni va ularning jumla tuzilishidagi roli ham tavsifiy tahlilning muhim jihati hisoblanadi [6]. Ingliz tilidagi predikativ konstruksiyalar, odatda, jumlaning asosi bo'lib, ega va predikat o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni ko'rsatadi.

Misol uchun:

They are students. (Ular talaba.) Bu gapda "they" — ega, "are" — bog'lovchi fe'l, va "students" — predikativ ot bo'lib, predikativ konstruksiya sintaktik jihatdan gapning mazmunini to'ldiradi.

The sky became dark. (Osmondagi rang qorong'i bo'ldi.) Bu gapda "became" — predikativ konstruksiyani hosil qiluvchi fe'l, "dark" — predikativ sifat bo'lib keladi. Tavsifiy tahlil bu konstruksiyani gapdagi sintaktik va semantik munosabatlar nuqtai nazaridan o'rganadi.

3.Semantik Tavsif: Predikativ konstruksiyalar, odatda, ega va predikat o'rtasidagi munosabatni ifoda etish uchun ishlatiladi. Tavsifiy tahlilda ularning semantik jihatlarini tahlil qilinadi. Masalan, predikativ konstruksiyalarda predikat ega haqida qanday ma'lumot berayotganini va bu ma'lumotning qanday semantik ma'noga ega ekanligini aniqlashimiz mumkin.

Misol uchun:

The food is delicious. (Taom mazali.) Bu gapda predikativ sifat "delicious" ega "the food" haqida semantik jihatdan qo'shimcha ma'lumot beradi.

The decision seems wrong. (Qaror noto'g'ri ko'rinadi.) Bu yerda "seems" predikativ fe'l, "wrong" esa semantik jihatdan qarorning xato ekanligini anglatmoqda.

Xulosalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilida predikativ konstruksiyalarning lingvistik mohiyati juda ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Predikativ konstruksiyalar tilning sintaktik va semantik tuzilmasida muhim rol o'ynashi, ega va predikat o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash orqali gapning to'liq va tushunarli bo'lishini ta'minlashi aniqlandi. Tadqiqot davomida predikativ konstruksiyalarni semantik tahlil qilish orqali ularning turli ma'nolarni ifodalash imkoniyati borligi ko'rsatildi. Korpusga asoslangan tahlil predikativ konstruksiyalarning real til matnlarida keng qo'llanilishini tasdiqladi, bu esa ularning kommunikativ jihatdan samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Tavsifiy lingvistik tahlil natijalari esa predikativ konstruksiyalarning grammatik jihatdan murakkab bo'lsa-da, o'quvchilar va til o'rganuvchilar uchun muhim tadqiqot ob'ekti ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari predikativ konstruksiyalarning ingliz tilidagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi va kelgusida bu sohani yanada kengroq o'rganishga turtki bo'laoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). *Longman Grammar of Spoken and Written English*. Longman.
2. Crystal, D. (2008). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Blackwell Publishing.
3. Chomsky, N. (1981). *Lectures on Government and Binding*. Foris Publications.
4. Celce-Murcia, M., & Larsen-Freeman, D. (1999). *The Grammar Book: An ESL/EFL Teacher's Course* (2nd ed.). Heinle & Heinle.

5. Fodor, J. D., & Sag, I. A. (1982). *Reference and Compositionality*. *Linguistics and Philosophy*, 5(3), 367-398.
6. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge University Press.
7. Kearns, K. (2000). *Semantics*. Palgrave Macmillan.
8. Leech, G. N. (1981). *Semantics: The Study of Meaning*. Penguin Books.
9. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Cambridge University Press.
10. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. Longman.
11. Radford, A. (2004). *English Syntax: An Introduction*. Cambridge University Press.
12. Thomson, A. J., & Martinet, A. V. (1986). *A Practical English Grammar* (3rd ed.). Oxford University Press.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Zebo Erdanova

O'zDJTU, Ingliz tili nazariy aspektlari №3 kafedresi, PhD.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARGA OID KASBIY TIL BIRLIKLARNING SOHALARARO SEMANTIK TASNIFI

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri tillararo aloqalarni o'rganishdir. Bilamizki, tillar, lahjalar, dialektlar, qardosh tillar va qardosh bo'lmagan tillar doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi va shu orqali rivojlanadi. Bu aloqalarida e'tiborni tortadigan holatlardan biri: bu bir tildan boshqa tilga ko'chgan o'zlashmalardir. Ushbu maqolada kasblararo leksik birliklarning terminologik tasnifi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Motivatsiya, polisemiya, desemantizatsiya, sintaktik aloqa, semantik qatlam, til parametrlari, etnik maydon.

Зебо Эрданова

УзГУМЯ, кафедра теоретических аспектов английского языка №3, PhD.

МЕЖОТРАСЛЕВАЯ СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Абстракт. Одной из основных проблем современного языкознания является изучение межъязыковых отношений. Мы знаем, что языки, диалекты, родственные и неродственные языки постоянно влияют друг на друга и таким образом развиваются. Одним из наиболее ярких случаев в этой связи является то, что речь идет о переходе с одного языка на другой. В данной статье рассматривается терминологическая классификация межпрофессиональных лексических единиц.

Ключевые слова. Мотивация, полисемия, десемантизация, синтаксическая коммуникация, семантический слой, параметры языка, этнический ареал.

Zebo Erdanova

UzSUWL, department №3 of theoretical aspects of the English language, PhD.

INTER-FIELD SEMANTIC CLASSIFICATION OF PROFESSIONAL LANGUAGE UNITS RELATED TO ENGLISH AND UZBEK

Abstract. One of the main problems of modern linguistics is the study of interlinguistic relations. We know that languages, dialects, sister languages and non-sister languages constantly influence each other and thus develop. One of the most striking cases in this connection is that it is a transfer from one language to another. This article covers the terminological classification of interprofessional lexical units.

Keywords. Motivation, polysemy, desemantization, syntactic communication, semantic layer, language parameters, ethnic area.

Hozirgi kunda o'zbek tili rivojiga boshqa tillardan o'zlashmalarning kirib kelishi kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Shuningdek, yigirma yillar oldin insonlar uchun yod bo'lgan leksik birliklarning muloqotda qo'llashnilishi odatiy hol bo'lib qoldi. Misol uchun, o'ziga xoslik yoki sifat uchun "ekslyuziv", uslub yoki ko'rinish uchun "imidj", yoki kasbiy faoliyatga doir "dallol", "makler", tikuvchilik yoki chevarlik uchun "dizayner" kabi boshqa ko'plab o'zga tillardan kirib kelgan leksik birliklarga duch kelamiz.

Tilshunos olim Vilgelm fon Gumboldt o'z tadqiqotida "tilning ichki formasi"ni semantik maydon tushunchasi bilan birgalikda tahlil qilgan. Demak, umumiy

sema asosida birlashgan til birligi semantik yoki tushuncha maydonida birlashadi.

Tilning lug'ati boyligidagi so'zlarni semantik maydonda tahlil qilish haqida so'z yuritganimizda, eng avvalo, taqqoslash parametrlarini aniqlab olishimiz zarur. Taqqoslash parametrlari deb, so'zlarning morfologik tuzilishi, so'zlarning yasali usullari va semantik ma'no xususiyatlari tushuniladi.

Kasbiy faoliyatga mansub nomlarni tillararo qiyoslaganimizda, ularning etnik xususiyati, tilda madaniy o'rni, muloqotda qo'llanish uslublariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Tilda mavjud bo'lgan lug'aviy birliklar o'z ma'no tushunchasiga ko'ra bir necha mavzuviy guruhlariga bo'linadi. O'zbek tilshunosligida tadqiqotchi olimlar ushbu mavzuviy guruhlar ustida tadqiqotlar olib borishgan. Ulardan Sh.Iskandarova va A.Sobirov tadqiqotlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Har bir tildagi leksik sathda ichki mavzuviy bo'linishlar sodir bo'ladi, ayni paytda mavzuviy guruhlar muayyan semantik maydonda uzviy munosabatlarni belgilashda muhimdir. Til maydonlari leksik-semantik guruhlardan, ular esa tarkibiga kiruvchi til elementlaridan tashkil topadi va bu xususiyat til diskretligi deb nomlanadi.

O'zbek tilida insonning kasbiy faoliyatiga bog'liq kasb-hunar nomlari muayyan mavzuviy guruhlariga bo'linadi va vaqtlar oralig'ida shakllanadi. Ingliz va o'zbek tiliga mansub kasb nomlarini quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratamiz:

Jumladan, Maishiy xizmat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb nomlari: bichiqchi, tikuvchi, abrbandchi, adrasbof, bo'zchi, bo'yinchado'z, gilamdo'z, do'ppido'z, zardo'z, to'quvchi, sartarosh, farrosh kabi.

Abrband so'zi asli forscha bo'lib, "bog'lam, bog', tug'un" kabi ma'nolarni anglatadi. O'zbek tili izohli lug'atida bu so'zning bir necha ma'nolari keltirilgan. Demak *abrband* - atlas, shoyi tandasiga maxsus usulda gul (naqsh) solish. *Eski abrbandchi ustalar arband texnikasini juda qadim zamonlardanoq bilganlar.* ("Fan va Turmush"); Bu so'zdan kasb nomi *abrbandchi* so'zi paydo bo'lib, *abrband* ishlovchi ma'nosini beradi. Keyingi izohiga e'tibor beramiz *abrbandi*: atlas, shoyi tanda iplariga gul (naqsh) solish usuli.

Bundan tashqari, bir necha frazeologik birliklarni ham misol qilish mumkin: Bo'zchining mokisiday yugurmoq (yoki qatnamoq) to'xtovsiz borib-kelib turmoq, ko'p qatnamoq; sarson bo'lmoq: *Men va'da qilingan pulni bo'zchining mokisiday qatnamaguncha bergan odamni hech qachon ko'rmaganman va Natal hindlari ham bu ma'noda istisno emaslar.* (Mohandas Karamchand Gandi, Mening hayotim). *Men doim Los-Anjeles va San-Diyego o'rtasida bo'zchining mokisiday qatnayman va biznesni kengaytirish ilinjida yangi loyihalar ustida ishlayman.* (Kim Kiyosaki, Boy ayol).

Shuningdek, kasb, ish faoliyat haqida so'z yuritganimizda, ingliz tilida bir qancha leksik birliklarga duch kelamiz. Ingliz tilida *occupation, job, work, position* kabi so'zlar bor va biz ularning ma'nosini farqlay olishimiz lozim.

Occupation - an occupation is a group of jobs that are reasonably similar with regard to the tasks performed and the knowledge, skills and abilities required for their successful performance. Primary teacher, computer programmer, civil engineer, accountant, nurse, sales person, airline pilot, secretary, and security guard, are all examples of occupations. Tarjimasi: mutaxassis – zaruriy

bilim, ko'nikma va malakalar zarur bo'lgan ish faoliyatidir. Bularga o'qituvchi, kompyuter dasturchisi, buxgalter, hamshira, uchuvchi, shifokor, kotib va shu kabi kasblar kiradi.

Keyingi tushuncha bu job - consists of a set of tasks, both mental and physical, and responsibilities that are undertaken in order to produce something or to provide a service. Many jobs are similar, but each one must be defined in accordance with the specific tasks to be performed in that job. Ya'ni, ham aqliy, ham jismoniy vazifalarni mas'uliyat bilan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi ish faoliyatidir. Ko'pgina ishlar bir-biriga o'xshashdir, ammo ularning har biri ushbu ishda bajarilishi kerak bo'lgan aniq vazifalarga muvofiq belgilanishi kerak.

Ingliz tilida maishiy xizmat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb nomlari ikki turga bo'linadi: xizmat ko'rsatish va savdo-sotiqda faoliyat yurituvchilar "*Service and sales workers*". Xizmat ko'rsatish sohasida "*Personal service workers*" *bartender, beautician, courier, chef, cook, F&B attendant, flight attendant, steward, hostess, stewardess, hair dresser, barber, spa attendant, tour guide, waiter* kabi xizmat ko'rsatish sohasiga doir kasb nomlari kiradi.

Savdo-sotiq sohasida xizmat ko'rsatuvchi "*sales workers*" faoliyat turlariga: *shops salesperson, cashier, clearing agent, employment agent* kabi kasb nomlari kiradi. Bundan tashqari, maishiy xizmat sohasi vakillariga bolalar bilan shug'ullanuvchi kasb turlari ham kiradi. Bu kasb turlari ingliz tilida *child-care workers*⁴² deb nomlanadi: *nanny, governess* bo'lib, ularning vazifalari ham aniq qilib belgilangan. Bu soha vakillari bolalarga kiyinish, yuvinish, ovqatlanishni o'rgatish; har xil o'yinlarni o'ynash usullarini o'rgatish; hikoya aytish va tinglash odobini o'rgatish; tozalik va gigiyenaga rioya qilishni o'rgatish kabi vazifalar yuklatiladi.

O'zbek tili bilan qiyoslasak, ingliz tilida maishiy xizmat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb nomlari turlichadir.

Ta'lim sohasiga oid kasb nomlari. Jamiyatda insonlarning ongini rivojlantirish, unga ma'naviy ozuqa berish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, insonlarning ham mehnat, ham ilm-fanga ko'nikmalarini shakllantirish bilan shug'ullanuvchi kasb nomlari: o'qituvchi, murabbiy, pedagog, tarbiyalovchi kabilar.

Eskirgan leksik birliklardan biri domulla so'zi asli fors va hind tillaridan kirib kelgan bo'lib, ma'nosi "ota, katta o'qituvchi; ruhoniyl olim" bir nechta leksik ma'nolarni anglatadi: 1. Diniy maktab muallimi. *Ular domulla yoki uzoqni o'ylaydigan otalar kabi chamalab turmaydilar-da, eng yaqin qo'shni yoki sevikli qarindoshlarining bolalaridan birining oti bilan atab, qarab tura beradilar.* (A.Qodiriy, Obid Ketmon).

⁴² Career and occupation dictionary 2nd edition – Department of Labour, Ministry of labour and human resources, 2012.- p. 400.

2. Madrasani bitirgan mulla kishi. *Domulla Niyoz yorlig'ini tugatib, qog'ozni manglayiga ko'tardi va ikki qo'llab Xudoyorga uzatdi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon)⁴³.

Ingliz tilida bu soha vakillari: Lecturers, Zorig Chusum Trainer (an'anaviy san'at va hunarmandchilik yo'nalishi), driving instructor, school counsellor, teacher counselor, professor, teacher (secondary, primary, special) va boshqalar.

Ingliz tilida ham o'qitish, ta'lim tarbiya berish tushunchasi chuqurroq talqin etiladi. Bu soha vakillari shaxs va jamiyatning ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun noyob xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bilim, ko'nikma va sifatning maxsus qo'llanilishi demakdir.

Bir nechta leksik birliklarni lug'aviy tahlil qilsak:

Lecturer – noun.: a discourse given before an audience or class especially for instruction; 2: a formal reproof: History and Etymology for lecture (noun. Middle English, act of reading, from Late Latin *lectura*, from Latin *lectus*, past participle of *legere*): *He is an experienced teacher and lecturer.*

Tutor – noun.: a person charged with the instruction and guidance of another: such as a: a private teacher; b: a teacher in a British university who gives individual instruction to undergraduates: *There are some formidable brains in our tutorial group.*

Hozirgi kunda ingliz tilidan bir qancha kasb-hunarga oid so'zlar o'zlashma holatida o'zbek tili lug'atiga kirib kelmoqda.

Tijorat bilan bog'liq kasb-hunar nomlari. Bu guruhga oid kasb nomlari ishlab chiqarish bilan emas, iste'molga yetkazish, foyda olish, xaridor va savdogar o'rtasidagi munosabatlar bilan xarakterlanadi. O'zbek tili lug'atida azal-azaldan bu faoliyat turiga oid bir qancha so'zlar mavjud: savdogar, sotuvchi, olib-sotar, attor, baliqchi, aspijallob, baqqol, budkachi, bo'yrafurush kabi. Bu turkumga kiruvchi so'zlarning ham eskirgan, iste'moldan chiqqanlari ham va boshqa tillardan kirib kelgan yangi shakllari ham mavjud.

Eskirgan va muomaladan chiqqan tijoratga oid so'zlarga *bo'yrafurush, attor, aspijallob, baqqol, bo'yrachi, dallol, ipakfurush, meshkob, tujjor* shu kabilardir. Ularga O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha leksik tavsif berilgan:

Baqqol – oziq-ovqat mollari, sabzavot sotuvchi. esk. Mayda-chuyda ro'zg'or mollari va oziq-ovqat(meva, shirinliklar va sh.k.)lar sotuvchi mayda savdogar. *So'z ko'rki – maqol, guzar ko'rki – baqqol.* (maqol). *Madrasada saboqlar to'xtab qolgan, Dovud baqqol hujrani tortib olgan edi.* (Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik).

Dallol – arab. – jarchi, vositachi. 1. Savdo-sotiqda oluvchi bilan sotuvchi o'rtasida vositachilik qiluvchi,

molga narx qo'yib, ularni kelishtiruvchi kishi. *El nazar qilmasa, eshak bozoriga dallol ham bo'lolmaysan! Maqol.* Tilning uzuni dallolga kerak. *Maqol.* Muhsin guppi avvaldan dallol yollab olgan shekilli, ikkovlashib bir turkmandan gilam savdolashardi. (*"Sharq yulduzi"*).

2. salb. O'rtada turib, nojo'ya ishlarni bitishtiruvchi; *Xonning dallollaridan qo'rqardilar.* Oydin, Gulsanam⁴⁴.

3. Dalla, qo'shmachi. (*G'ofir*): *Axir dallol deganda paranj bo'ladi-da, choponni yigit kishi kiyadi.* Hamza, Boy ila xizmatchi.

Tujjor – savdogar, tijoratchilar. esk. savdogar. *Bundan g'azablangan Abraha bir kuni Yaman tujjorlaridan so'radi: - Makkadagi Ka'bani ko'rdilaringmi? Ahmad Lutfiy, Saodat asri qissalari.*

Boshqa tillardan o'zlashgan yoki yangilangan tijorat kasb-hunar nomlariga: makler, diler, tadbirkor, biznesmen, tijoratchi shu kabilar.

Bundan tashqari, Pazandachilikka oid kasb nomlari turkumga xo'randalar uchun mazali va totli taomlarni tayyorlash bilan shug'ullunuvchi kasb egalari kiradi. Bularga *oshpaz, kabobpaz, xonimpaz, norinchi, kallapaz, bo'zagar* shu kabi. O'zbek tilining izohli lug'atidan mahalliy oshpazlik sohasiga oid bir nechta so'zlarni tahlilini keltirsak:

Kallapaz – Kalla-pocha va ichlarni pishirib sotuvchi shaxs. *Tashqarida shovqin-suron davom etar, uzoqroq joydan qalandarlar talqini eshitilar va do'kon yonidagi bir kallapaz zo'r berib yog'liq xasipini maqtar edi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon).

Bo'zagar – bo'za tayyorlovchi, bo'zachi) Bo'za tayyorlash va sotish bilan shug'ullanuvchi kishi, bo'zachi. *Bo'zagar Otabekni kimning bolasi ekanligini yaxshi bilgani uchun hamma ishni uning tilagiga qarab qilar....* (A.Qodiriy O'tkan kunlar)⁴⁵.

Baliqpaz – Baliq pishiruvchi, baliqdan taom tayyorlovchi oshpaz. *Baliqpaz ikki bo'lak chala pishgan baliq dumini keltirib, chipta ustiga qo'yib ketdi.* (S.Siyoev, Avaz).

O'zbek tili leksikasiga yangi kasb nomlarining kirib kelishi uning lug'at boyligining boyishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda tilshunoslarning o'zlashgan kasb nomlari, eskirgan va tarixlashgan kasb nomlari hamda zamonaviy kasb nomlarini lug'atlarda to'g'ri tahlilini qilish asosiy vazifalaridan biridir.

Bu masalada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasb nomlarining leksik jihatlarini o'rganish, qiyosiy tipologiyasini yaratish, taqqoslash va tasniflash ularni o'rganishning asosiy metodlari hisoblanadi.

Kelgusida kasb nomlarini sheva va lahjalarda, adabiy tilda, rasmiy va norasmiy muloqotda qiyosiy o'rganish va ularni izohli lug'atlarda yoritish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

⁴³Қодирий А. Мехробдан чаён. – Т.:Фафур Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. - Б.76.

⁴⁴Ойдин. Ҳикоялар. Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1954. – Б.182.

⁴⁵ҚодирийА. Ўткан кунлар. Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2021. - Б. 218.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмад Лутфий. Соадат асри Наргиза Раҳмат қизи таржимаси. –Т: “Шарқ”, 2006. - Б.7
2. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. - Тошкент: Маънавият, 2004. - Б. 11-12.
3. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. - Тошкент: Фан, 1998. - Б.152.
4. Ким Кийосаки, Бой аёл.Таржимон: Азиз Аҳмаджанов – Т.:“Адабиёт учқунлари”, 2016, - Б 26.
5. Моҳандас Карамчанд Ганди. Менинг ҳаётим. Русчадан Амир Файзулла таржимаси. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. - Б.85.
6. Ойдин. Ҳикоялар. Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1954. – Б.182.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд.Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. - Б.549.
8. ҚодирийА. Мехробдан чаён. Тошкент:Ғафур Ғулум номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. - Б. 237.
9. Қодирий А. Обид Кетмон. -Тошкент:Ўз ССР давлат Бадиий адабиёт нашриёти, 1959. - Б.27.
10. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Бой ила хизматчи. Тошкент: “Ғафур Ғулум”, 1918. - Б.156.
11. Холмирзаев Ш. Қил кўприк. Тошкент: “Ғафур Ғулум”, 1984. - Б.38.
12. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 87
14. Career and occupation dictionary 2nd edition – Department of Labour, Ministry of labour and human resources, 2012.- p. 400.
15. <https://www.teachers.ab.ca/SiteCollectionDocuments/ATA/About/What%20we%20think/Position%20Papers%202018/Nature%20of%20Teaching%20and%20Teaching%20as%20a%20Profession.pdf>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ergasheva Nilufar Zamirovna

Roman-German tillari kafedrası o'qituvchisi
Mudofaa vazirligiga qarashli O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
"Tinchlik yo'lidagi hamkorlik" dasturi tayyorlash markazi

INSON HUQUQLARIGA OID MATNLARNI TARJIMA QILISHDA GENDER ASPEKTGA OID MASALALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlariga oid matnlarni tarjima qilishda genderga oid masalalarni qanday hal qilish mumkinligi yoritiladi. Inson huquqlari va gender tenglikka doir hujjatlar, qonunlar va xalqaro shartnomalarning to'g'ri va aniq tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimada gender aspektlarni inobatga olish inson huquqlarini ta'minlashdagi adolatlilik va inklyuzivlikni kafolatlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, gender neytral til qo'llash va madaniy o'zgarishlarni inobatga olish kabi masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, gender tengligi, gender neytral til, tarjima, madaniy o'zgarishlar, inklyuzivlik.

Эргашева Нилуфар Замировна

Преподаватель кафедры романо-германских языков
Вооруженные силы Республики Узбекистан при Министерстве обороны
Центр подготовки программы "Сотрудничество на пути к миру"

ГЕНДЕРНЫЕ АСПЕКТЫ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ТЕКСТОВ ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В данной статье рассматривается, как можно решать гендерные вопросы при переводе текстов, связанных с правами человека. Кроме того, обсуждаются вопросы использования гендерно-нейтрального языка и учета культурных изменений. Точный и правильный перевод документов, законов и международных договоров, связанных с правами человека и гендерным равенством, имеет большое значение. Учет гендерных аспектов при переводе играет ключевую роль в обеспечении справедливости и инклюзивности при защите прав человека.

Ключевые слова: права человека, гендерное равенство, гендерно-нейтральный язык, перевод, культурные изменения, инклюзивность.

Ergasheva Nilufar Zamirovna

Teacher of the Department of romance-Germanic languages
Armed Forces of the Republic of Uzbekistan under the Ministry of Defense
Center for the preparation of the program "cooperation on the road to peace"

GENDER ASPECTS IN TRANSLATING HUMAN RIGHTS TEXTS

Abstract. This article deals with the issues based on how gender-related issues can be addressed when translating texts on human rights. Additionally, the article discusses the use of gender-neutral language and the consideration of cultural shifts. The accurate and precise translation of documents, laws, and international treaties related to human rights and gender equality holds significant importance. Taking gender aspects into account during translation plays a crucial role in ensuring fairness and inclusivity in the protection of human rights.

Keywords: Human rights, gender equality, gender-neutral language, translation, cultural shifts, inclusivity.

Kirish.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan inson huquqlari nafaqat fuqarolik va siyosiy huquqlar, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni ham o'z ichiga oladi. Bu huquqlar barcha insonlarga tegishli bo'lib,

ularning irqi, jinsi, millati yoki diniy mansubligidan qat'i nazar himoya qilinadi. Lekin inson huquqlari hujjatlarini turli tillarga tarjima qilish jarayonida gender aspektlar ko'pincha e'tiborsiz qoladi. Bu esa huquqiy hujjatlar tarjimasidagi noaniqlik va adashishlarga olib kelishi mumkin.

Gender aspektlar, ya'ni erkak va ayollar o'rtasidagi tenglikka oid masalalar, inson huquqlariga oid matnlarni tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarda jinsga oid stereotiplarni saqlab qolish yoki yo'qotish tarjimonning tilga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shuningdek, gender neytral tildan foydalanish inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi, chunki bu barcha insonlarni teng huquqli deb e'tirof etishga yordam beradi.

Mazkur maqolada inson huquqlariga oid matnlarni tarjima qilishda genderga oid masalalarning o'rni va ularni hal qilish uchun qanday yondashuvlar mavjudligi yoritiladi. Shuningdek, gender neytral tildan foydalanishning afzalliklari, jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar va tarjimonning rolini tahlil qilish orqali mazkur mavzudagi muhim jihatlar muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Inson huquqlariga oid hujjatlar tarjimasida gender neytral til qo'llash bugungi kunda muhim deb hisoblanadi. Miller (2014) o'zining gender neytral til bo'yicha tadqiqotida tilda erkaklarga yoki ayollarga xos aniq fe'llar yoki atamalardan foydalanmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Millerning fikricha, tarjimada neytral til qo'llash insonlarning huquqlarini bir xil darajada ta'minlashga yordam beradi va jamiyatdagi barcha insonlarni o'zlarini inklyuziv his qilishlarini rag'batlantiradi.

Kameron (2005) tarjimada gender stereotiplarini bartaraf qilish haqida so'z yuritib, jamiyatdagi an'anaviy tasavvurlar va stereotiplarning inson huquqlariga oid matnlarning noto'g'ri tarjima qilinishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. U inson huquqlari hujjatlarida "erkak" yoki "ayol" degan to'g'ridan-to'g'ri murojaatlarning o'rniga, inklyuziv va neytral tilni afzal ko'rishni tavsiya etadi.

Tarjimada madaniy kontekstni hisobga olish juda muhimdir. Venuti (1995) tarjimada madaniy kontekstning ahamiyatini ta'kidlaydi va har bir tildagi madaniy farqlar inson huquqlariga oid matnlar tarjimasiga ta'sir qilishi mumkinligini aytadi. Gender bilan bog'liq madaniy o'zgarishlar, ya'ni ba'zi jamiyatlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi rollarning boshqacha qabul qilinishi, tarjima jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi mumkin.

Bassnett (2002) o'zining tarjima nazariyasiga oid asarida tarjimonning rolini muhim jihat sifatida ta'kidlaydi. Bassnettning fikricha, tarjimon nafaqat matni tildan tilga ko'chirish bilan cheklanmasligi kerak, balki jamiyatdagi madaniy va gender kontekstlarni ham hisobga olishi lozim. Inson huquqlariga oid matnlarda genderga oid masalalarni tarjimon to'g'ri tushunib, ularni neytral tarzda ifoda etishi zarur.

Beyker (2010) tarjima jarayonida gender tengligini ta'minlash haqida yozib, tarjimonlardan gender aspektlarni chuqurroq tushunishni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, inson huquqlariga oid matnlar ko'pincha turli jinslar o'rtasidagi huquqlar tengligini himoya qilishni

nazarda tutadi. Ammo bu hujjatlarni turli tillarga tarjima qilish jarayonida gender stereotiplarini saqlab qolish yoki to'g'ri neytral til qo'llanilmasligi natijasida asl ma'nodan chetlashish mumkin. Beyker gender tengligini tarjima jarayonida saqlab qolish uchun maxsus vositalardan foydalanish va gender aspektlarini doimiy tarzda ko'zdan kechirishni tavsiya qiladi.

Turnbull (2013) inklyuziv tildan foydalanish inson huquqlari matnlarining tarjimasida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, inklyuziv til inson huquqlarini himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi, chunki bu til barcha shaxslarni, jinsi, irqi, yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, teng huquqli qilib ko'rsatadi. Turnbull inklyuziv tilning afzalliklarini misollar orqali ko'rsatib beradi va uni inson huquqlariga oid matnlarning xalqaro va mahalliy darajada qabul qilinishini yaxshilash vositasi sifatida ta'riflaydi.

Muhokamalar.

Inson huquqlariga oid matnlarda gender neytral til qo'llanilishi nafaqat jamiyatda tenglikni qo'llab-quvvatlaydi, balki inson huquqlari himoyasini ham kuchaytiradi. Tarjimonlar, tarjima jarayonida aniq va inklyuziv tildan foydalangan holda, gender stereotiplarining oldini olishlari lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender neytral tildan foydalanish inson huquqlariga oid matnlarni qabul qilinishini yaxshilaydi va ularni barcha jamiyatlar uchun tushunarli va moslashuvchan qiladi.

Inson huquqlari matnlarini turli tillarga tarjima qilishda madaniy farqlarni hisobga olish juda muhimdir. Chunki har bir til o'z madaniyatiga xos tuzilish va tasavvurlarga ega. Masalan, ayrim tillarda genderga oid murojaatlar ochiqroq va yorqin bo'lishi mumkin, boshqalarda esa bu murojaatlar qo'shimcha tushuntirishni talab qiladi. Madaniy kontekstni inobatga olgan holda matnning to'g'ri tarjima qilish, matnning inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Gender stereotiplari inson huquqlariga oid matnlarda ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri mavjud bo'lmasligi mumkin, lekin ularning ta'siri tilda aks etishi mumkin. Masalan, aniq jinsga ishora qiluvchi atamalardan foydalanish ko'pincha tarjimada gender stereotiplarini saqlab qolishi mumkin. Shuning uchun tarjimonlardan gender tenglikni himoya qiluvchi neytral tildan foydalanish talab etiladi. Buning uchun, tarjimonlar tilga xos bo'lgan genderga oid ijtimoiy stereotiplarni yaxshi bilishi va ularni bartaraf qilish yo'llarini bilishi zarur.

Inklyuziv tildan foydalanish inson huquqlariga oid matnlarni yanada kengroq jamoatchilik uchun tushunarli qiladi. Barcha jins va qatlam vakillari uchun inklyuziv til qo'llash ularning o'zlarini himoyalangan va teng huquqli deb his qilishlariga yordam beradi. Inson huquqlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan hujjatlarda har qanday

shaxs o'zini qo'llab-quvvatlangan his qilishi kerak va buning uchun til doimiy tarzda inklyuziv bo'lishi zarur.

Tarjimon nafaqat til mutaxassisi, balki madaniy va ijtimoiy kontekstlarni tushunib, ularni to'g'ri talqin qila oluvchi shaxs sifatida ham harakat qilishi kerak. Inson huquqlariga oid matnlarni tarjima qilar ekan, tarjimon o'zining shaxsiy yoki jamiyatdagi stereotiplar ta'sirida bo'lishini cheklab, gender neytrallik va inklyuzivlikni ta'minlashi kerak. Buning uchun, tarjimonlar doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab, gender va inson huquqlari sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishlari lozim.

Xulosa.

Inson huquqlariga oid matnlarni tarjima qilishda gender aspektlarni hisobga olish matnning aniq va adolatli tarjima qilinishiga olib keladi. Gender neytral tildan foydalanish va stereotiplardan voz kechish inson huquqlari himoyasi uchun muhim qadamlar hisoblanadi. Tarjimonlardan madaniy kontekstlarni tushunish, genderni xos stereotiplarning oldini olish va inklyuziv til qo'llash talab qilinadi. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun tarjimonlar jamiyatdagi o'zgarishlarni kuzatib borishlari, gender tengligini himoya qiluvchi yondashuvlarni qo'llashlari va inson huquqlariga oid matnlarni har tomonlama tushunishlari zarur. Tarjimada aniqlik, tenglik va inklyuzivlik inson huquqlarini himoya qilishdagi muhim omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Миллер, Ж. (2014). *Гендер нейтрал тил ва унинг аҳамияти*. Нью Йорк: Оксфорд университети нашри.
2. Камерон, Д. (2005). *Гендер стереотиплари ва тил*. Лондон: Рутледж.
3. Вентути, Л. (1995). *Таржима ва маданий контекст*. Кембриж: Полити Пресс.
4. Баснетт, С. (2002). *Таржима назарияси*. Лондон: Тейлор ва Франсис.
5. Бейкер, М. (2010). *Таржимада гендер тенглиги ва унинг қўлланилиши*. Лондон: Контининталь Пресс.
6. Турнбулл, Э. (2013). *Инклюзив тил ва инсон ҳуқуқлари*. Париж: ЮНЕСКО нашри.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ergashev Muhammadjon Rakhmonovich
Docent, PhD of philological sciences, KSPI

THEORETICAL ASPECTS OF STUDYING TERMS

Annotation. The article is devoted to the analysis of theoretical works on issues of terminology. The authors of the article analyze dictionary and research definitions of the term, consider the main provisions of scientific works on the stated problems, identify the key characteristics and classifications of the concept under study. The analysis of dictionary definitions of the term allowed the authors to formulate a generalized definition of this concept.

Key words: linguistics; term; classification; dictionary definition; scientific research; scope of the term; function of the term; lexical unit.

Ergashev Muhammadjon Raxmonovich
QDPI, PhD, dotsent

TERMINLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya: maqola terminologiya masalalari bo'yicha nazariy ishlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqola mualliflari atamaning lug'at va tadqiqot ta'riflarini tahlil qiladilar, ko'rsatilgan muammolar bo'yicha ilmiy ishlarning asosiy qoidalarini ko'rib chiqadilar, o'rganilayotgan tushunchaning asosiy xususiyatlari va tasniflarini aniqlaydilar. Terminning lug'at ta'riflarini tahlil qilish mualliflarga ushbu tushunchaning umumlashtirilgan ta'rifi shakllantirishga imkon berdi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik; muddat; tasniflash; lug'at ta'rifi; ilmiy tadqiqot; muddat doirasi; atamaning vazifasi; leksik birlik.

Эргашев Мухаммаджон Рахмонович
Доцент, PhD, КТПИ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРМИНОВ

Аннотация: статья посвящена анализу теоретических работ по вопросам терминологии. Авторы статьи анализируют словарные и исследовательские определения термина, рассматривают основные положения научных работ по заявленным проблемам, выявляют ключевые характеристики и классификации исследуемого понятия. Анализ словарных определений термина позволил авторам сформулировать обобщенное определение этого понятия.

Ключевые слова: лингвистика; срок; классификация; словарное определение; научные исследования; объем термина; функция термина; лексическая единица.

The purpose of the stated article is to analyze the definitions of the term, its classifications and identify the most important characteristics of the concept under consideration, developed in linguistic science.

Terminology issues have been considered by scientists in all branches of scientific knowledge: philosophy, history, sociology, psychology, political science. This area of knowledge is most comprehensively covered in linguistics.[1]

The idea of the functions and characteristics inherent in a term, its place and role has become the object of research by many Russian scientists.

D. N. Ushakov in the "Explanatory Dictionary of the Russian Language" gives the following definition of this concept: "A term is a word that is the name of a strictly

defined concept, a special word and expression accepted to designate something in a particular sphere, profession."

An analysis of D. N. Ushakov's definition shows that the scientist indicates a certain area of the term's functioning, its professional affiliation. This characteristic was somewhat clarified by S. I. Ozhegov, who indicated that "a term is the name of a certain concept of some area." [2]

Later, the interpretation of the term underwent minor changes, while maintaining accuracy and unambiguity as the main features of the term. A. A. Reformatsky emphasizes the desire of terms to be unambiguous in his definition.

It is precisely the affiliation of a term to a particular sphere of activity that linguists most often point out in their

works. L. L. Nelyubin points out that "a term is a word or phrase that is an exact designation of a certain concept in the field of science, technology, art." V. M. Leichik suggests understanding the term as "a lexical unit of a certain language for special purposes." M. N. Volodina attributes to the term "the meaning of a word of a special sphere of functioning".[3]

The considered definitions of the term allow us to speak about such universal characteristics of the term as belonging to the lexical level of language and a certain area, unambiguity. The term, like all other universals, is difficult to define. Due to the complexity of such a task, there are many research attempts to define terms in linguistics. B. N. Golovin cites seven definitions of this concept and criticizes them for the discrepancy between the features of the term established by the definitions and its linguistic characteristics. He notes that "a term is a separate word or a subordinate formed on the basis of a noun, denoting a professional concept of a profession." This definition is quite capacious, but some of its aspects may give rise to objections.

Thus, V. P. Danilenko believes that not only nouns, but also any parts of speech can act as terms. In his research, V. P. Danilenko cites nineteen definitions of the term and emphasizes that this is an incomplete list that can be continued. The presence of such a significant number of definitions of the term is explained by the fact that by the time they appeared, a special scientific discipline (terminology) had not been formed that would classify terms according to certain criteria.

All linguistic definitions of the term available in scientific literature can be conditionally divided into two groups. In the first group of definitions, scientists note the fact that terms are special words in the lexical composition of the language. The definitions of the second group are based on the idea expressed by G. O. Vinokur that "terms are words that have a special function." The idea of the special role of terms is key for the school of D. S. Lotte, he developed unique rules by which a term should be constructed. D. S. Lotte believed that "a term should be short and used unambiguously." [4]

In further studies, D.S. Lotte's followers developed the ideas of their teacher and consolidated the rules for creating a term in normative and methodological documents. The rules for creating terms developed by D.S. Lotte and his followers have been criticized since the mid-1970s. Scientists agree on the idea that it is impossible to apply these rules in connection with the fact that a term is a word or phrase in a special function. Thus, the position that a term is a special word is not accepted by modern science.

As a result of his scientific research, B. N. Golovin came to the conclusion that most terms were borrowed from the field of non-specialized vocabulary. In his opinion, "many terms consist of morphemes that were

originally commonly used. Thus, almost any word can become a term. The reverse process also takes place, when a lexical unit used in the function of a term ceases to be considered a term." The analyzed definitions of the term allow us to formulate a generalized definition: a term is a lexical unit of language used for special purposes, denoting a general concept of the theory of a certain special area of knowledge or activity. The proposed definition emphasizes "the following characteristics inherent in any term:

1. Terms have all the semantic and formal features of words of the language.

2. Terms function precisely in the vocabulary of the language of special purposes, and not in the vocabulary of a particular language as a whole.

3. To achieve special goals, terms serve as a means of denoting special general concepts.

4. Terms are elements of terminology systems that reflect theories that describe special spheres – objects of language for special purposes." [5]

Thus, the definition of a term is based on the fact that a term is a special object, different from words and phrases. And although terminology studies in the vast majority of cases considers the same lexemes as other branches of linguistics, these units exhibit other characteristics. Other normative requirements are imposed on them than on lexical units. And only in this aspect can we say that terms are special words.

Disagreements in approaches to defining a term have led to the desire of scientists to emphasize the most significant aspects of this concept. Thus, along with formulating a definition of a term, its main properties should be highlighted. Thus, S. V. Grinev highlights the following most characteristic properties of a term:

1. Specificity of use, its belonging to a special field of knowledge.

2. Substantive accuracy of the term.

3. The presence of a definition.

4. Relative independence from context.

5. Stylistic neutrality.

6. Conventionality.

7. Unambiguity.

8. Nominative character.

When defining the main function of a term, S. V. Grinev pays special attention to the nominative function, which, according to the linguist, "enables terms to maintain syntactic unity." [6]

V. M. Leychik identifies the features inherent in terms:

1. The presence in the vocabulary of nominations to which a person refers to solve a given problem.

2. Belonging to a certain language.

3. Are part of the normative vocabulary of the language for special purposes.

As the analysis of the main features of the term shows, it is necessary to take into account both the aspects

of the functioning of the terms and the characteristics inherent in the entire terminology system as a whole. It is obvious that the term necessarily belongs to the language for special purposes, its use directly depends on the type of activity or field of knowledge. It is indisputable that with the development of science and technology, the terminological system of the language is developing at a progressive pace.[7]

In addition to a significant number of definitions of the term, scientists have developed and described various classifications of terms. This is due to the presence of a comprehensive approach to classification criteria. Most often, classifications are associated with the field of knowledge in which these terms are applicable.

One of the common classifications is the division of terms into three groups by content:

- 1) by philosophical content: observational terms and theoretical terms. Used mainly in philosophy;
- 2) by the object of the name of the applied sphere: science, technology, production;
- 3) by the logical category of the designated concept: objects; processes; features, properties; quantities and their units.

Greatest interest to us are linguistic classifications based on the features of terms as words or phrases of a certain language. Scientists distinguish the following classifications:

- 1) by semantic structure: unambiguous and polysemantic;
- 2) by formal structure: terms-words and terms-phrases. In this case, terms-words can also be classified according to the morphemic structure of the word, with the

structural type, with the morphological structure. Terms-phrases are classified according to the type of their structure, with the semantic structure, by the morphological type of the main word, etc.;

- 3) depending on the source language: native, borrowed, mixed type;
- 4) by authorship: collective and individual;
- 5) historical and lexicological terms, including archaic terms, neologisms.[8]

These classifications allow us to form an idea of the structure of the subject area in all its diversity. So, the analysis of various approaches to defining a term allowed us to identify its main characteristics:

1. The term nominates a certain concept or object in a certain area.
2. The term serves as a means of communication in a special sphere.
3. The term is part of the terminological system and is related to other terms of the system.

Conclusion.

Any lexical unit of a given natural language can be a lexical unit of the language for special purposes, functioning in the language; in this case, it becomes a term if it begins to perform certain functions. Consequently, a term is a lexical unit that expresses a concept and denotes special objects or phenomena in certain spheres of human activity. As the conducted research analysis of theoretical works shows, at the current stage of scientific development there is no single definition and classification of the term, however, scientists are unanimous in their opinion on the accuracy, unambiguity and belonging of the term to a special sphere of use.

References.

1. Vinokur G.O. O nekotoryx yavleniyax slovoobrazovaniya v russkoy texnicheskoy terminologii // Trudi Moskovskogo instituta istorii, filosofii i literaturi. M.: LITERA, 1939. T. 5. Sbornik statey po yazikovedeniyu. S. 3-54.
2. Volodina M. N. Termin kak sredstvo spetsialnoy informatsii. M.: LITERA, 1996. 74 s.
3. Golovin B. N. Lingvisticheskie ucheniya o terminax. M.: Visshaya shkola, 1987. 105 s.
4. Golovin B. N. O nekotoryx zadachax i tematike issledovaniya nauchnoy i nauchno-texnicheskoy terminologii // Uchenie zapiski Gorikovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya lingvisticheskaya. 1970. Vip. 114. S. 17-26.
5. Grinev S. V. Vvedenie v terminovedenie. M.: Moskovskiy lisey, 1993. 309p
6. Danilenko V. P. Russkaya terminologiya: opit lingvisticheskogo opisaniya. M.: Nauka, 1977. 246 s.
7. Kiyak T. R. Lingvisticheskie aspekty terminovedeniya: ucheb. posobie. Kiev: UMK VO, 1989. 312 s.
8. Leychik V. M. Terminovedenie: predmet, metodi, struktura. M.: Izd-vo LKI, 2007. 256 s.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi
Namangan davlat chet tillar instituti o'qituvchisi
ismoilovazarnigor094@gmail.com

UDK 371.2

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNINING TAXLILI

Annotatsiya: Mazkur maqola bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetentsiyasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni lug'aviy kompetentsiyaga oid bilimlari va ko'nikmalarini oshirish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish. Leksik kompetentsiya – bu chet tilini o'rgatuvchi o'qituvchilar uchun muhim jihat bo'lib, bu kompetentsiya nafaqat o'rgatiladigan lug'at boyligini, balki o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya olib borishni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullari tahlil qilinadi, xususan, zamonaviy til o'rgatish platformalari, interaktiv metodlardan foydalanish va xalqaro tajribalarning o'rganilishi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida leksik kompetentsiyani rivojlantirish uchun yaratilgan maxsus dasturlar va texnologiyalarning samaradorligi baholanadi. Leksik kompetentsiyani rivojlantirish bo'yicha turli xil kommunikativ va integratsion yondashuvlar ham o'rganilgan bo'lib, ularning til o'rgatish jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: leksik kompetentsiya, o'qitish metodlari, zamonaviy texnologiyalar, kommunikativ yondashuv, til o'rgatish platformalari.

Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi
Teacher of Namangan State Institute of Foreign Languages

ANALYSIS OF THE CONTENT OF IMPROVING THE LEXICAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract: This article is dedicated to the issues of improving the lexical competence of prospective English language teachers. The main objective of this research is to enhance the professional readiness of future teachers by improving their knowledge and skills related to lexical competence. Lexical competence is a crucial aspect for foreign language teachers, as it involves not only the breadth of vocabulary taught but also the ability to communicate effectively with students. The study analyzes modern pedagogical technologies and innovative teaching methods, specifically focusing on the use of contemporary language teaching platforms, interactive methods, and the examination of international practices. Additionally, the effectiveness of specific programs and technologies designed to develop lexical competence during the training of future teachers is evaluated. Various communicative and integrative approaches to enhancing lexical competence are also explored, with their impact on the language teaching process examined.

Keywords: lexical competence, teaching methods, modern technologies, communicative approach, language teaching platforms.

Исмоилова Зарнигор Рахимжон кизи
Преподаватель Намганского государственного института иностранных языков

АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: Статья посвящена вопросам совершенствования лексической компетенции будущих учителей английского языка. Основная цель данного исследования заключается в повышении профессиональной готовности будущих педагогов путем улучшения их знаний и навыков, связанных с лексической компетенцией. Лексическая компетенция является ключевым аспектом для учителей иностранного языка, так как она включает не только объем преподаваемого словарного запаса, но и способность эффективно коммуницировать с учениками. В исследовании анализируются современные педагогические технологии и инновационные методы обучения, с особым вниманием к использованию современных платформ для преподавания языков, интерактивных методов и изучению международных практик. Также оценивается эффективность конкретных программ и технологий, направленных на развитие лексической компетенции

во время подготовки будущих учителей. Рассматриваются различные коммуникативные и интегративные подходы к совершенствованию лексической компетенции и их влияние на процесс обучения языку.

Ключевые слова: лексическая компетенция, методы обучения, современные технологии, коммуникативный подход, платформы для преподавания языков.

Kirish.

Ingliz tili dunyodagi eng keng tarqalgan va o'rganilayotgan tillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida leksik kompetentsiyani rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Leksik kompetentsiya o'quvchilarning lug'at boyligi va tilning barcha aspektlarini tushunishga asoslangan bo'lib, bu malaka o'qituvchi o'rgatayotgan tilni qanchalik samarali tushunishi va tushuntira olishiga bog'liq. Shuningdek, leksik kompetentsiya boshqa til kompetentsiyalari bilan bog'liq bo'lib, leksik boyligining yetarli darajada rivojlanmaganligi o'qitish jarayonida turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning leksik kompetentsiyasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv o'quv usullari va kommunikativ metodlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhimdir[2]. Bugungi kunda o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida texnologik vositalar va xalqaro tajribalardan foydalanish ushbu kompetensiyani samarali rivojlantirishda asosiy vositalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu maqola leksik kompetentsiyani rivojlantirish mazmuni, o'qituvchilarning malakasini oshirish yo'llari va usullarini tahlil qilishni maqsad qilgan.

Metodologiya.

Tadqiqot davomida kontent-tahlil va sifatli tadqiqot metodlari qo'llanildi. O'quvchilar va o'qituvchilarga leksik kompetentsiyani o'rgatish jarayonida ishlatiladigan dasturiy vositalar va interaktiv o'qitish usullari tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy manbalardan foydalanib, turli mamlakatlardagi leksik kompetentsiya rivojlantirish tajribalari o'rganildi va o'zbek tilidagi o'qitish tizimi bilan taqqoslandi. O'rganish natijalarini to'liq baholash uchun o'quv dasturlaridagi o'zgarishlar va texnologiyalar kiritilishi samaradorligini aniqlash bo'yicha so'rovlar ham o'tkazildi. Metod sifatida tilni o'rganish jarayonidagi zamonaviy yondashuvlar, innovatsion dasturlar va texnologiyalar qo'llanildi. O'qituvchilarning fikrlari va kuzatuvlari ham umumlashtirilib, ushbu jarayonni samarali tashkil qilishda qanday yondashuvlar muvaffaqiyatli ekanligi o'rganildi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetentsiyasini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlar asosiy omil sifatida e'tirof etilishi mumkin:

1. Zamonaviy o'quv materiallari va texnologiyalardan foydalanish: Interaktiv ta'lim platformalari va texnologiyalar leksik kompetentsiyani samarali o'sishiga hissa qo'shadi. Masalan, Quizlet, Kahoot

kabi vositalar o'quvchilarga o'rganilgan lug'atlarni mustahkamlashda yordam beradi. O'qituvchilarga leksik materiallarni turli kontekstlarda qo'llash imkoniyati beriladi[5].

2. Kommunikativ va integratsion metodlarning qo'llanilishi: Bo'lajak o'qituvchilarga leksik kompetentsiyani o'rganishda kommunikativ va interaktiv metodlardan foydalanish natijani oshirishga xizmat qiladi. Masalan, rolli o'yinlar, guruhda ishlash, real hayotiy situatsiyalarni modellashtirish orqali lug'at boyligini oshirish imkonini beradi.

3. Xalqaro tajribani mahalliy tizimga tatbiq etish: Tadqiqot davomida xalqaro tajriba o'rganilib, ba'zi muvaffaqiyatli metodlar O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash mumkinligi ko'rsatildi.[3;45]

Xususan, o'quvchilarning leksik kompetentsiyasini oshirish uchun chet ellik hamkasblar bilan o'zaro aloqalar o'rnatish, konferensiyalar va seminarlar orqali tajriba almashish taklif etildi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetentsiyasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va kommunikativ yondashuvlarning samaradorligi yuqori. Mobil ilovalar va onlayn ta'lim platformalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning tilga oid qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda[1]. Ayniqsa, gamifikatsiya va interaktiv usullar lug'at boyligini o'zlashtirishni qiziqarli va samarali qilmoqda. Biroq, texnologiyalarning o'quvchilarga ta'sirini o'rganishda shaxsiy ehtiyojlar va o'quv uslublarni hisobga olish lozim. Tadqiqot davomida ko'rsatib o'tilganidek, texnologiyalar o'z-o'zidan samarali natija bermasligi mumkin, ularni to'g'ri yondashuv va metodikalar bilan qo'llash zarur. [6;98]

статье представлен лингвистический анализ использования метафоры в деловом дискурсе с акцентом на ее функцию в общении, формулировании стратегии и организационном поведении. Исследования подчеркивают когнитивную, риторическую и убедительную силу метафор в формировании деловых повествований и принятии решений. Кроме того, в статье исследуется, как метафоры отражают и формируют корпоративную культуру и идентичность.

Ключевые слова: метафора, деловой дискурс, когнитивная функция, риторическая функция, стратегическая коммуникация, корпоративная культура, военные метафоры, спортивные метафоры, метафоры здоровья, метафоры путешествий, организационные изменения, лидерское общение, концептуальная теория метафор, бизнес-стратегия.

Kirish.

Metafora kuchli lingvistik vosita bo'lib, u o'zining an'anaviy adabiy rolidan uzoqroqqa cho'ziladi. Kundalik tilda metaforalar bizning fikrlarimizni shakllantiradi, idrokimizni tuzadi va murakkab g'oyalarni qanday etkazishimizga ta'sir qiladi. Ishbilarmonlik nutqi sohasida metaforalar ayniqsa ahamiyatli bo'lib, mavhum, ko'p qirrali tushunchalarni ochiq va qiziqarli tarzda ifodalash uchun vositani taklif qiladi. Biznes mutaxassislari tez-tez tashkiliy strategiyalarni, bozor dinamikasini, yetakchilik yondashuvlarini va raqobatdosh o'zaro ta'sirlarni tasvirlash uchun metaforalardan foydalanadilar. Bozorlarni "jang maydoni" sifatida tasvirlashdan tortib, "tarbiyalash" va "o'stirish" nuqtai nazaridan tashkiliy o'sishni shakllantirishgacha, metafora tushunish va qaror qabul qilishni osonlashtiradigan kognitiv yorliqlar bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot, menejment, moliya va inson xatti-harakatlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni boshqarish zarurati bilan tavsiflangan biznes nutqi murakkab tushunchalar va munosabatlarni aniqlashtirish uchun ko'pincha metaforaga tayanadi. Masalan, korporativ rahbarlar qiyin paytlarda "kompaniyani boshqarish" yoki bozor o'zgarishlariga javoban "buriqish" haqida gapirishlari mumkin. Ushbu metaforik iboralar nafaqat muloqotni soddalashtiradi, balki biznes faoliyatini tashkiliy qadriyatlar va strategiyalarni aks ettiruvchi usullarda ham tuzadi. Bundan tashqari, metaforalar tashkilotdagi shaxslarning o'z rollari, maqsadlari va muammolarini tushunishlariga nozik ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa harakatni boshqaradigan jamoaviy rivoyatni rivojlantiradi. Ushbu maqola metaforalarning biznes nutqidagi rolini lingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga, ular tashkilotlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aloqani qanday shakllantirishini o'rganishga intiladi. Kontseptual metafora nazariyasiga asoslanib, ushbu tadqiqot biznes sharoitida keng tarqalgan metafora turlari va funktsiyalarini tahlil qiladi. Tahlil metaforaning kognitiv, ritorik va strategik o'lchamlarini ta'kidlab, metaforik til biznes dunyosi haqiqatlarini qanday aks ettirishi va qurishi haqida tushuncha beradi. Ushbu lingvistik ob'ektiv orqali biz metafora murakkablikni boshqarish, ishontirishni kuchaytirish va zamonaviy biznesning doimiy rivojlanayotgan landshaftida korporativ o'ziga xoslikni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishini yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Tilda metaforadan foydalanish, xususan, biznes kabi ixtisoslashgan sohalarda tilshunoslik, kognitiv fan va tashkiliy tadqiqotlar kabi fanlar bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'ldi. Ushbu bo'limda biz metafora nazariyasi, professional nutqda metafora qo'llanilishi va uning biznes aloqasidagi o'ziga xos roli bo'yicha asosiy adabiyotlarni ko'rib chiqamiz. Sharh kontseptual metafora nazariyasi (CMT) va metaforalarni tashkiliy va biznes kontekstlarida qo'llash bo'yicha empirik tadqiqotlar kabi asosiy nazariyalarga asoslanadi[5].

Kognitiv tilshunoslikdagi metafora tadqiqotlarining asosi Jorj Lakoff va Mark Jonsonning "Biz yashayotgan metafora" (1980) asaridir. Ularning kontseptual metafora nazariyasi (CMT) metafora nafaqat adabiy figura, balki inson bilishidagi markaziy mexanizm degan g'oyani kiritdi. CMT ma'lumotlariga ko'ra, metaforalar odamlarning mavhum tushunchalarni qanday tushunishlarini, ularni ko'proq tanish, aniq tajribalar bilan taqqoslash orqali shakllantiradi. Masalan, "Vaqt – pul" yoki "Hayot – bu sayohat" kabi metaforalar kundalik jismoniy tajribalar orqali qanchalik murakkab, nomoddiy hodisalarni anglashini ochib beradi[1].

Biznes sohasida CMT metaforalar odamlarga bozorlar, raqobat va yetakchilik kabi mavhum tashkiliy hodisalarni kontseptsiyalashda qanday yordam berishini tushuntirishda muhim rol o'ynadi. Masalan, "Bozor - bu jang maydoni" metaforasi urush elementlarini bozor raqobatiga qaratadi va biznesning strategik o'zaro ta'sirini tushunish uchun yorqin asos yaratadi. Bunday metaforalarning keng qo'llanilishi ularning kognitiv va kommunikativ ahamiyatini ta'kidlaydi[2].

Metafora turli xil professional nutqlarda, jumladan, huquqiy, tibbiy, siyosiy va biznes aloqalarida asosiy rol o'ynaydi. Kameron va Lou (1999) professional nutqda metafora funktsiyasini tushunish va muloqotni osonlashtirish uchun murakkab yoki mavhum tushunchalarni soddalashtirish vositasi sifatida ta'kidladilar. Professional sharoitlarda metaforalar ko'pincha odamlarga murakkab munosabatlar va tizimlarni boshqarishga yordam beradigan kognitiv va kommunikativ vosita sifatida ishlaydi. Biznesda metaforalar nafaqat aniqlashtirish, balki ishontirish, tashkilot xatti-harakatlarini shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir qilish uchun ham xizmat qiladi[6].

Koller (2004) ma'lumotlariga ko'ra, tashkiliy nutqdagi metaforalar bir nechta asosiy usullarda ishlaydi:

(1) tashkilotlar va ularning jarayonlarini kontseptsiyalash, (2) kommunikatsiyalarning ritorik ta'sirini kuchaytirish va (3) ijtimoiy va korporativ o'ziga xoslikni shakllantirish. Kollarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, metaforalar tashkiliy rivoyatlarni yaratishda, ayniqsa o'zgarishlar yoki inqiroz davrida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Misol uchun, tashkilotni qayta qurish paytida rahbarlar o'tishni qiyin, ammo boshqarish mumkin bo'lgan, optimizm va qat'iyatlilik tuyg'usini rivojlantirish uchun "qo'pol suvlarda suzib o'tish" kabi metaforalardan foydalanishi mumkin[3].

Kornelissen (2005) metafora menejerlar va xodimlarga tashkiliy o'zgarishlarni qanday shakllantirishga yordam berishini o'rganish orqali biznes nutqidagi metafora tadqiqotini kengaytirdi. U metaforalar yangi biznes strategiyalarini anglash, xodimlarga korporativ madaniyat yoki bozordagi joylashuvdagi o'zgarishlarga moslashishga yordam berish uchun muhim ekanligini aniqladi. Masalan, biznes yo'nalishini "kemani aylantirish" deb ta'riflash, muvofiqlashtirilgan harakat va barqaror rahbarlikni talab qiladigan strategik yo'nalish hissini anglatadi[8].

Tashkiliy o'zgarishlar davrida metaforalar ayniqsa muhimdir. Suddaby va Greenwood (2005) metaforalarning yangi strategiyalarni qonuniylashtirish va qayta qurish harakatlarida ritorik vosita sifatida qanday ishlashini o'rganib chiqdi. Rahbarlar murakkab jarayonlarni soddalashtirish, ularni xodimlar va manfaatdor tomonlar uchun yanada tushunarli qilish uchun metaforalardan foydalanadilar. O'zgarishlarni "yangi sahifa ochish" yoki "kelajak uchun urug'larni ekish" deb ta'riflash, jarayonni ijobiy va istiqbolli, sotib olishni rag'batlantiradigan va qarshilikni kamaytiradi[4].

Bundan tashqari, metaforalar o'zgarishlar paytida korporativ identifikatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Kornelissen, Holt va Zundel (2011) metafora o'zgarishlar paytida korporativ madaniyat va o'ziga xoslikni shakllantirishdagi rolini ta'kidlab, rahbarlar tomonidan qo'llaniladigan metafora xodimlarning strategik siljishlarni qanday qabul qilishlari va ularga munosabat bildirishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatdi[9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ishbilarmonlik nutqida metaforalardan foydalanish bo'yicha ushbu tadqiqotning tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirishga mo'ljallangan. Ushbu aralash usullar yondashuvi biznes aloqalarida metafora qo'llanilishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi va taklif qilingan nazariy tushunchalarni empirik qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqot uchta asosiy bosqich atrofida tuzilgan: ma'lumotlar to'plash, metaforalarni aniqlash va tasniflash va nutqni tahlil qilish.

Tahlil va natijalar.

Ushbu tadqiqot natijalari biznes nutqida metafora qo'llashning bir qancha muhim naqshlarini ochib beradi,

ular tarmoqlar, aloqa turlari va biznes kontekstlari bo'yicha sezilarli farqlarga ega. Korpusning miqdoriy tahlili tanlangan biznes matnlarida 2348 ta metaforik iboralarni aniqladi. Ushbu iboralar beshta asosiy manba sohasiga bo'lingan: urush, sport, salomatlik/biologiya, sayohat/navigatsiya va o'sish. Quyida metafora toifalarining taqsimoti keltirilgan:

Metafora toifasi	chastotasi	Jami foiz
Urush metaforalari	741	31,6%
Sport metaforalari	612	26,1%
Salomatlik/Biologiya metaforalari	482	20,5%
Sayohat/navigatsiya	358	15,2%
O'sish metaforalari	155	6,6%

Urush metaforalari eng ko'p qo'llanilgan bo'lib, aniqlangan metaforalarning 31,6 foizini tashkil etadi. "Bozor ulushi uchun kurash", "brendni himoya qilish" va "raqobat hujumlari" kabi iboralar korporativ strategiya hujjatlarida, xususan, texnologiya va moliya kabi yuqori raqobat bilan ajralib turadigan sohalarda keng tarqalgan.

Sport metaforalari 26,1% chastota bilan yaqindan kuzatildi. Ushbu metaforalar ko'pincha marketing va yetakchilik nutqlarida paydo bo'lib, ishlash va muvaffaqiyatga qaratilgan. Umumiy iboralar orasida "poygada g'alaba qozonish", "katta gol urish" va "jamoa o'yinchilari" kiradi.

Salomatlik va biologiya metaforalari ichki korporativ muloqotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, metaforalarning 20,5% ni tashkil qiladi. "Iqtidorni tarbiyalash", "tashkiliy salomatlik" va "inqirozlardan shifo" kabi iboralar HR hisobotlarida va korporativ madaniyat muhokamalarida keng tarqalgan bo'lib, kompaniyalar hayotiyli va farovonligini ta'kidlaydi.

Sayohat va navigatsiya metaforalari 15,2% ni tashkil qiladi, ular tez-tez noaniqlik yoki inqirozni boshqarish paytlarida, masalan, "turbulent bozorlarni boshqarish" yoki "yangi yo'nalishni belgilash" kabi holatlarda qo'llanilgan. Ushbu metaforalar bosh direktorning nutqlarida va yillik hisobotlarida, ayniqsa o'tish davrida keng tarqalgan.

O'sish metaforalari kamroq tez-tez 6,6% bo'lsa-da, asosan kompaniyaning kengayishi va rivojlanishi haqidagi munozaralarda paydo bo'ldi. Umumiy iboralar orasida "biznesni rivojlantirish", "innovatsiya urug'ini ekish" va "yetakchilikni etishtirish" kiradi.

Metaforalar mavhum yoki murakkab biznes tushunchalarini yanada qulayroq qilishda muhim rol

o'ynaydi. Bu, ayniqsa, strategik munozaralarda yaqqol namoyon bo'ladi, bunda bozorning raqobat dinamikasini soddalashtirish uchun "jang qiluvchi raqobatchilar" yoki "bozor ulushini himoya qilish" kabi urush metaforalaridan foydalaniladi. Raqobatni tanish, aniq shartlar asosida shakllantirish orqali biznes rahbarlari murakkab strategiyalarni kengroq auditoriya, jumladan, xodimlar, manfaatdor tomonlar va investorlar tomonidan oson tushuniladigan usullar bilan muloqot qilishlari mumkin.

Masalan, yetakchi texnologiya firmasining press-revizida bosh direktor kompaniyaning raqobatga yondashuvini "agressiv yangi ishtirokchilarga qarshi chiziqni ushlab turish" deb ta'riflagan. Ushbu metafora bozorni joylashtirish va raqobatchilarni tahlil qilishning texnik tafsilotlarini o'rganmasdan, bozor hukmronligini saqlab qolish g'oyasini samarali tarzda etkazdi.

Ishbilarmonlik nutqidagi metafora ko'pincha his-tuyg'ularga ta'sir qilish uchun ishlatiladi, ayniqsa etakchilar bilan muloqotda. Urush va sport metaforalari ko'pincha jamoalarni kuchaytirish, shoshilinchlik hissini yaratish yoki manfaatdor tomonlarga ishonchni singdirish uchun ishlatilgan. Nutqlar va hisobotlarda "muvaffaqiyat uchun kurashish" yoki "poygada g'alaba qozonish" kabi iboralar kompaniyani o'z bozorida kuchli da'vogar sifatida ko'rsatib, qat'iyat va chidamlilik haqidagi hikoyani kuchaytirdi.

Tashkiliy o'zgarishlar va inqirozlarni boshqarishda metaforalar muhim rol o'ynaydi. Sayohat va navigatsiya metaforalari ushbu kontekstlarda ayniqsa keng tarqalgan edi, chunki ular biznes rahbarlariga noaniqlik va moslashuvchanlik zarurligini ijobiy nuqtai nazardan etkazishga imkon berdi. Iqtisodiy tanazzul yoki ichki qayta qurish davrida bosh direktorning murojaatlarida "qo'pol suvlarda harakatlanish" yoki "yangi yo'nalishni belgilash" kabi iboralar keng tarqalgan edi.

COVID-19 pandemiyasi davrida sayohat metaforalari ayniqsa mashhur bo'ldi, yetakchilar ko'pincha "noaniq hudud bo'ylab yo'l topish" yoki "bo'ronidan o'tish" kabi atamalarni ishlatishadi. Ushbu metaforalar inqirozni kuchli yetakchilik va strategik qarorlar qabul qilish bilan boshqarilishi mumkin bo'lgan muammo sifatida shakllantirishga yordam berdi va manfaatdor tomonlarni optimistik va diqqatli bo'lishga undadi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot metaforalarning korporativ muloqotda kognitiv, ritorik, strategik va madaniy vositalar sifatida qanday ishlatilishi haqida tushuncha beradigan ishilarmonlik nutqidagi muhim rolni o'rganib chiqdi. Turli sohalardagi biznes matnlarini korpus asosida tahlil qilish orqali tadqiqot shuni ko'rsatadiki, metafora nafaqat bezak elementlari, balki murakkab tushunchalarni soddalashtirish, idrok etishni shakllantirish va strategik

qarorlar qabul qilishda rahbarlik qilishning muhim mexanizmlaridir.

Miqdoriy tahlil shuni ko'rsatdiki, urush, sport, salomatlik, sayohat va o'sish metaforalari biznes aloqalarida ustunlik qiladi, ularning har biri kontekstga qarab alohida funktsiyalarni bajaradi. Urush va sport metaforalari texnologiya va moliya kabi raqobatbardosh sohalarda keng tarqalgan, salomatlik va o'sish metaforalari esa tashkilot madaniyati va xodimlar farovonligiga qaratilgan ichki korporativ aloqalarda keng tarqalgan. Sayohat metaforalari ko'pincha inqiroz yoki o'tish davrida qo'llaniladi, bu esa biznes muammolarini yetakchilik va moslashuvchanlikni talab qiladigan navigatsiya yo'llari sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Sifatli nutq tahlili mavhum biznes tushunchalarini, xususan, strategik aloqada yanada qulayroq qilishda metaforalarning kognitiv funktsiyasini ta'kidladi. Raqobatni "jang" yoki biznes muvaffaqiyatini "poygada g'alaba qozonish" deb belgilash orqali liderlar murakkab strategiyalarni keng auditoriyaga mos keladigan tarzda etkazishlari mumkin. Bundan tashqari, metaforalar ritorik funktsiyani bajaradi, manfaatdor tomonlarning idrokiga ta'sir qiladi, unda turtki beradigan va ishontiradigan yorqin tasvirlarni yaratadi. Tashkiliy o'zgarishlar davrida metaforalar o'tish va inqirozlarni ijobiy nuqtai nazardan shakllantirish uchun juda muhim bo'lib, noaniqlikni boshqarishga yordam beradi va optimizmni rivojlantiradi.

Kognitiv va ritorik kuchga qo'shimcha ravishda, biznes nutqidagi metaforalar strategik funktsiyaga ega bo'lib, kompaniyalarning qarorlar qabul qilish va o'z maqsadlarini bildirish usullarini shakllantiradi. Strategiyalarni sayohatlar, janglar yoki o'sish jarayonlari sifatida belgilab, rahbarlar o'z harakatlarini kengroq tashkiliy rivoyatlar bilan moslashtirishi mumkin, bu esa xabar almashishda izchillikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, metaforalar o'sish, salomatlik va jamoa ruhini ta'kidlaydigan metaforik iboralar orqali korporativ identifikatsiya va qadriyatlarini mustahkamlab, biznes aloqasining madaniy funktsiyasiga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ishilarmonlik muloqotida metafora muhimligini ta'kidlab, uning aniqlik, ishontirish va tashkiliy uyg'unlikni oshirishdagi ko'p qirrali rolini ochib beradi. Metaforalar korxonalariga murakkab bozor muhitida harakat qilish, o'zgarishlarni samarali boshqarish va kuchli korporativ madaniyatni rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlar metaforalarning turli madaniy kontekstlarda va sohalarda qanday o'zgarishini yoki raqamli va ijtimoiy mediaga asoslangan biznes aloqalarida metaforadan foydalanish qanday rivojlanishini o'rganishi mumkin. Metaforalardan strategik foydalanishni tushunish tobora globallashtirib borayotgan va murakkab biznes dunyosida samarali yetakchilik va muloqot uchun muhim bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lakoff, George, and Mark Johnson. *Metaphors we live by*. University of Chicago press, 2008.
2. Charteris-Black, J. (2004). *Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis*. Palgrave Macmillan.
3. Koller, V. (2004). *Metaphor and Gender in Business Media Discourse*. Palgrave Macmillan.
4. Suddaby, R., & Greenwood, R. (2005). Rhetorical Strategies of Legitimacy. *Administrative Science Quarterly*, 50(1), 35-67.
5. Cornelissen, J. P. (2005). Beyond Compare: Metaphor in Organization Theory. *Academy of Management Review*, 30(4), 751-764.
6. Cameron, L., & Low, G. (1999). *Researching and Applying Metaphor*. Cambridge University Press.
7. Charteris-Black, J. (2004). *Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis*. Palgrave Macmillan.
8. Cornelissen, J. P. (2005). Beyond Compare: Metaphor in Organization Theory. *Academy of Management Review*, 30(4), 751-764.
9. Cornelissen, J. P., Holt, R., & Zundel, M. (2011). The Role of Analogy and Metaphor in the Framing and Legitimization of Strategic Change. *Organization Studies*, 32(12), 1701-1716.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Mashrabova Buviniso Nurbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
1-kurs tayanch doktoranti

KINODISKURS TAHLILI: RIVOJLANISH TARIXI, MADANIY VA IJTIMOY QARASHLAR

Annotatsiya. Kinodiskursi kino san'ati va madaniyatshunoslikda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan tushuncha bo'lib, film matnlarining ijtimoiy, madaniy va ideologik kontekstlarini o'rganishga qaratilgan. Kinodiskursi, kino nutqining strukturasi va tarkibiy qismlari orqali ifodalangan ma'noni tahlil qiladi. Ushbu ilmiy maqolada kinodiskurs tushunchasi, unga berilgan ta'riflar, uning o'rganilish tarixi hamda bu atamaning madaniy, ijtimoiy va ideologik qarashlarning shakllanishini va aks ettirilishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: kino, kinodiskurs, kino tili, kino nutqi, madaniy qarashlar, ijtimoiy qarashlar.

Машрабова Буинисо Нурбек кизи
Андижанский государственный педагогический институт
Базовый докторант 1 курса

АНАЛИЗ КИНОДИСКУРСА: ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ, КУЛЬТУРНЫЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ.

Аннотация. Кинодискурс — это понятие, имеющее особое значение в киноискусстве и культурологии, сосредоточенное на изучении социального, культурного и идеологического контекста кинотекстов. Кинодискурс анализирует смысл, выраженный через структуру и составные части киноязыка. В данной научной статье рассматриваются понятие кинодискурса, предоставленные ему определения, его историческое развитие, а также исследованные формирования и отражения культурных, социальных и идеологических взглядов в рамках этого термина.

Ключевые слова: кино, кинодискурс, киноязык, кинотекст, культурные взгляды, социальные взгляды.

Mashrabova Buviniso Nurbek daughter
Andijan State Pedagogical Institute
1st course base doctaranti

FILM DISCOURSE ANALYSIS: HISTORY OF DEVELOPMENT, CULTURAL AND SOCIAL PERSPECTIVES.

Annotation. Film discourse is a concept of particular significance in film studies and cultural studies, focusing on the examination of the social, cultural, and ideological contexts of film texts. Film discourse analyzes the meaning expressed through the structure and components of cinematic language. This academic article explores the concept of film discourse, definitions, its historical development, and how this term reflects and shapes cultural, social, and ideological perspectives.

Keywords: film, film discourse, film language, cinematic discourse, cultural perspectives, social perspectives.

Kirish.

Kinomatografiyaga ommaviy axborot vositalarining ajralmas bir qismi sifatida qaraladi. Gazeta, jurnal va radio kabi ommaviy axborot vositalarining boshqa turlariga qaraganda, kinomatografiya eng jadal sur'atlarda rivojlanmoqda va tomoshabinga ham ta'sir doirasi keng, deya ayta olamiz. Bu soha o'z navbatida, adabiyot, rassomlik, musiqa, teatr va fotografiya bilan uzviy bogliq hamda ularning yutuqlaridan o'z rivojlanish jarayonida samarali foydalanmoqda. Kino 1880-yilda paydo bo'lgandan beri madaniyatshunoslar, psixologlar, sotsiologlar va kino tanqidchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Kino sohasining tilshunos olimlar

tomonidan o'rganilishi natijasida, tilshunoslik fanida yangi ilmiy atama kinodiskurs tushunchasining kiritilishiga sabab bo'ldi.

Kinodiskurs tushunchasi kino san'atida va madaniyatshunoslikda filmlar orqali ifodalangan ma'no, ideologiya va ijtimoiy xabarlarini tahlil qilishga qaratilgan nazariyadir.[8; 251-255] Diskurs atamsi, asosan, tilshunoslik, ijtimoiy fanlar va madaniyat nazariyalarida ishlatiladi. Kino diskursi filmlarning o'ziga xos tilida, vizual va eshitish elementlarida aks ettirilgan ma'nolarni o'rganish bilan bog'liqdir.

Kino tili hamda nutqi tushunchalarining tahlili

Kino tili deyilganda, bu film va video asarlarning muhit, atmosfera, va voqealarni ifodalashda ishlatiladigan kommunikatsiya vositasi tushuniladi. **Kino tili** vizual va audial elementlardan tarkib topgani barchaga ma'lum, hamda har bir kadr, rang, yorug'lik va tovush orqali filmning ma'no va hissiy bo'yoqdorligi ochib beriladi.[2;284] Kino tilining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat deyishimiz mumkin:

1. Vizual Elementlar: Bu elementlar kino tilining ajralmas hamda asosiy qismi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki kino bu tomosha qilish uchun yaratiladi. Kamera harakatlari, kadr o'lchamlari, ranglar palitrasi, va tasvirning kompozitsiyasi filmdagi voqealarni ifodalovchi asosiy vositalardir. Masalan, yaqin kadrda biror kishining yuzini tasvirlash uning hissiyotlarini yanada chuqurroq ifodalashi mumkin.[3; 41-44]

2. Montaj: Bu komponentni filmning bezagi sifatida tushuniladi. Kadrlarni bir-biriga ulash, vaqt va makon o'zgarishlarini ko'rsatishda yordam beradi. Montaj orqali rejissyor voqealarni qanday tartibda ko'rsatishini va qaysi xususiyatlarni ajratib ko'rsatishini belgilaydi.[3; 41-44]

3. Yorug'lik va Rang: Yorug'lik va ranglar filmning emosional holatini belgilaydi. Masalan, qorong'u ranglar va past yorug'lik dramatik yoki xavfli muhitni yaratishi mumkin, aksincha yorqin ranglar va yorqin yorug'lik xursandchilik yoki umidni ko'rsatishi mumkin.[3;41-44]

4. Tovush va Musiqa: Tovush effektlari va musiqa ham filmning muhitini yaratishda va hissiyotlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Musiqa yordamida filmning intensivligi va dinamikasi oshirilishi mumkin.[3; 41-44]

Kino nutqiga to'xtaladigan bo'lsak, uni kinodagi obrazlar, dialoglar va ovoz yordamida voqealarni, xarakterlarni va asosiy ma'noni ifodalash deya ta'riflanadi.[8; 251-255] **Kino nutqi** dialoglar orqali personajlarning fikr va hissiyotlarini, aksentlar va intonatsiyalar orqali esa ular orasidagi munosabatlarni ko'rsatadi. **Kino nutqi**, shuningdek, ovoz effekti, fon musiqasi va boshqalar yordamida yanada boyitilishi mumkin. **Kino tili va nutqini** bir-biridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi, har ikkalasi ham kino yaratilishida hamda tomoshabinga yetkazilishida juda muhim vositalar sanaladi, bu komponentlar orqali tomoshabinlar filmning ichki dunyosini yaxshiroq tushinishi va filmdagi qahramonlarning his-tuyg'ularini chuqurroq his qilishi mumkin.

Kino nutqining o'rganilish tarixi

Kino nutqi – filmda obrazlar, dialoglar va ovozlar orqali voqealar va hissiyotlarni ifodalash usuli – kinematografiyaning muhim komponentidir.[9;220] Kino nutqining o'rganilishi va rivojlanishi kino san'atining tarixiy rivojlanishiga bevosita bog'liq.

1. Erta Dastlabki Yillar (1890-1910-yillar)

Kino san'ati tarixidagi dastlabki yillarda, filmning nutqi deyarli mavjud emas edi. Eng dastlabki filmlar mutlaqo tavsifiy bo'lib, ovoz yoki dialoglardan foydalanilmagan. Filmdagi tasvirlar va harakatlar orqali

hikoya qilingan voqealar tomoshabinlar tomonidan anglashilar edi. Bu davrda, kino nutqining asosiy komponentlarini vizual tasvirlar va harakatlar tashkil qilgan.

2. O'rta Yillar (1910-1930-yillar)

1910-yillarda va 1920-yillarda kino industriyasining rivojlanishi bilan birga, kino nutqi yanada rivojlana boshladi. O'rta yillarda kino dialoglari va ovozli filmlar (suhbatli filmlar) haqida fikrlar paydo bo'ldi. 1927-yilda "The Jazz Singer" filmida ilk marta so'zli va ovozli film sifatida tanilgan "talkie" (suhbatli film) ekran yuzini ko'rdi. Bu, kino nutqining rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi.

3. O'zgarishlar va Rivojlanish (1930-1950-yillar)

1930-yillardan boshlab, kino nutqi yanada kengayib, kino san'ati turli uslub va texnikalarga ega bo'ldi. Dialoglarning sifatli yozilishi, ovoz va musiqaning samarali qo'llanilishi, dramaturgiya va aktyorlik ijrosi yuksak darajaga ko'tarildi. 1940-1950-yillarda, kino nutqining rivojlanishi bilan birga, turli janrlar va uslublar paydo bo'ldi, ular o'zining alohida ovoz va nutq uslubiga ega bo'ldi.

4. Zamonaviy Davr (1950-yildan Hozirgacha)

1950-yillardan boshlab, kino nutqi va uning o'rganilishi yanada murakkablashdi. Kinematografiya san'atining rivojlanishi bilan birgalikda, kino nutqi innovatsion texnologiyalar, ilg'or montaj texnikalari va eksperimentlar yordamida yangi uslublar va formatlarga ega bo'ldi. Dialoglar, tovush effektlari, musiqalar, va ovozli tasvirlarning qo'llanilishi filmning yangi ko'rinishini yaratdi. Zamonaviy kinoda kino nutqi nafaqat voqealarni, balki personajlarning ichki dunyosini va hissiyotlarini ham chuqurroq ifodalashga imkon beradi.

Kino matnlarini diskurs sifatida o'rganilishi.

Kino matnlarini diskurs sifatida o'rganish hamda tahlil qilish juda ko'plab tilshunos olimlarning diqqat markazidagi mavzudur. Bu borada bir qancha tilshunoslarning nazariy xulosalarini keltiramiz.

Ingliz tilshunosi **J.Mitriy**, kino matnlarini diskurs sifatida o'rgangan. Barthesning nazariyalariga ko'ra, kino matnlari ko'p qatlamli belgi tizimlariga ega bo'lib, ular orqali turli ma'nolar yaratiladi. Uning "*Texnologik Dastur*" asarida, Barzes kino va boshqa madaniy fenomenlarni signifikat va signifikat (belgi va ma'no) orqali tahlil qiladi. Kino, uning fikricha, ko'plab kodlarni o'z ichiga oladi, ular orqali madaniy, ideologik va siyosiy tushunchalar va fikrlar ifodalanadi. [5;277]

Yapon faylasufi hamda tilshunos olimi **D.Tasukiano** diskurs konseptini kengma'noda ochib berishga harakat qiladi hamda uni bilim, kuch va ijtimoiy tartiblar bilan bog'laydi. Uning "*Bilimning Arxeologiyasi*" ("*The Archaeology of Knowledge*") asarida diskurs tushunchasini kino matni bilan birgalikda ifodaladi. Faukaldning nazariyasiga ko'ra, kino, ijtimoiy hamda madaniy hayotni

qayta yaratish va taʼsir qilish vositasi sifatida xizmat qiladi.[8; 300-310]

Laura Mulvey, britaniyalik feminist kinotahlilchi, kino diskursida jinsiy rol va erkak nazarining (male gaze) oʻrni haqida oʻz asarlarida bayon etadi. Uning *“Visual Pleasure and Narrative Cinema”* maqolasida, Mulvey kino matnlarining erkak tomoshabin tomonidan tushunilishi hamda bu jarayonda ayollar tomonidan qanday tushunilishi tahlil qilinadi. Mulveyning xulosalariga koʻra, kino diskursi jinsiy va gender rollarni mustahkamlovchi ijtimoiy nazar va stereotiplarni oʻzida aks ettiradi. [6;454]

David Bordwell va Kristin Thompson, kino nazariyachilari, kino matnlarini diskurs sifatida oʻrganishda formalistik yondashuvni taklif qiladilar. Ularning *“Film Art: An Introduction”* asarida, kino matnlarini tuzilma va hikoya tahlili orqali oʻrganish mumkinligini taʼkidlaydilar. Bordwell va Thompsonning yondashuviga koʻra, kino diskursi filmning strukturasi, narrativ texnikalari va stilistik elementlari orqali shakllanadi.[1;384]

Kinodiskursda madaniy va ijtimoiy qarashlarning shakllanishi

Kino sanʼati, ijtimoiy va madaniy qarashlarni ifodalashda va shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Kino nutqi – bu filmda ishlatiladigan vizual, eshitish va narrativ elementlar orqali yaratilgan maʼno va xabarlarini ifodalovchi tizimdir, deb ham taʼriflanadi.[4;180] Kino matnlaridagi madaniy va ijtimoiy qarashlar filmning mavzu, personajlar, hikoya va estetik elementlari orqali aks ettiriladi. Bu qarashlar kino orqali tomoshabinlarga yetkaziladi va ijtimoiy ongini shakllantirishda yordam beradi.

Madaniy qarashlarning shakllanishi

Kino nutqi madaniy qarashlarni shakllantirishda bir necha muhim yoʻllar bilan ishlaydi:

a) **Madaniy Identitet:** *Filmida madaniy identitetlarning tasviri va ifodasi tomoshabinlarga turli millat va xalqlarning madaniyatlarini, urf-odatlarini hamda anʼanalarini bevosita koʻrsatib beradi. Masalan, milliy yoki etnik identitetlar filmning qahramonlarining kiyinishida, oʻzini tutishida hamda filmdagi muhit va syujet orqali aks ettiriladi. Bu tasvirlar madaniy identitetlarni yaratishda va targʻib qilishda rol oʻynaydi.*

b) **Madaniy Stereotiplar:** *Kino matnlaridagi madaniy stereotiplar, masalan, maʼlum bir madaniyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan va ularning milliyligi ifodalovchi urf-odatlarida oʻz ifodasini topadi. Filmida aks ettirilgan stereotiplar*

tomoshabinlarning madaniy qabul qilishini va tushunishini shakllantirishi mumkin.

c) **Madaniy Narrativlar:** *Kino diskursida madaniy narrativlar yoki hikoyalar madaniyatlararo muvofiqlik yaratishga yordam beradi. Filmida ifodalangan madaniy hikoyalar, tarixiy voqealar va qahramonlar orqali maʼlum bir madaniy qarashlar va qadriyatlar yoritilib beriladi.[7;310]*

Ijtimoiy qarashlarning shakllanishi

Kino nutqi ijtimoiy qarashlarni shakllantirishda quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

a) **Ijtimoiy Stereotiplar:** *Kino matnlaridagi ijtimoiy stereotiplar, masalan, jins, irq, sinf va boshqa ijtimoiy guruhlarning haqida umumlashtirilgan tasavvurlarni ifodalaydi.*

b) **Ijtimoiy Muammolar:** *Filmlar ijtimoiy muammolarni, masalan, gender tengsizliklari, irqchilik, kambagʻallik va boshqa ijtimoiy masalalarni koʻrsatishi mumkin.*

c) **Ideologik Tashviqot:** *Kino nutqi ijtimoiy ideologiyalarni targʻib qilishda muhim vositadir. Filmlar orqali maʼlum siyosiy yoki ijtimoiy ideologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yoki qarshi chiqish mumkin. Masalan, maʼlum bir siyosiy nazariyani qoʻllab-quvvatlovchi yoki tanqid qiluvchi film matnlari ijtimoiy ongini shakllantirishi mumkin.[6;63-105]*

Kinodiskursidagi madaniy va ijtimoiy qarashlarning oʻzgarishi

Kinodiskursda madaniy va ijtimoiy qarashlar vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi mumkin:

Madaniy oʻzgarishlar: *Film matnlarida madaniy qarashlar madaniy oʻzgarishlarni aks ettirishi mumkin. Yangi madaniy qarashlar, gender tengligi, irqiy xilma-xillik va boshqa zamonaviy masalalar film matnlarida qanday tasvirlanishini oʻrganish madaniy oʻzgarishlarni tushunishga yordam beradi.*

Siyosiy oʻzgarishlar: *Kino nutqi siyosiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Masalan, maʼlum bir siyosiy rejimning yoki ijtimoiy harakatning taʼsiri film matnlarida qanday aks etishini oʻrganish mumkin.*

Xulosa.

Kino nutqlarida madaniy va ijtimoiy qarashlarning shakllanishi kino sanʼatining ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday rol oʻynashini tushunishga yordam beradi. Film matnlaridagi madaniy identitetlar, stereotiplar, narrativlar va ijtimoiy muammolar kino orqali tomoshabinlarga yetkaziladi va ijtimoiy ongini shakllantirishda yordam beradi. Kino nutqi madaniy va ijtimoiy qarashlarning qanday shakllanishi va oʻzgarishini oʻrganish kino sanʼatining kuchli taʼsirini va ijtimoiy rolini yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bordwell D. *Narration of the fiction studies.* – Madison: University of Wisconsin Press, 1985. – 384 p.
2. Dynel, M. *Stranger than Fiction: A Few Methodological Notes on Linguistic Research in Film Discourse.* // *Brno Studies in English.* – London: № 37(1). – P. 41-61.
3. Giannetti L. *Understanding Movies* (ninth edition). New Jersey: Upper saddle River, 2019. – P. 284.
4. Лавриненко И.Н. Критерии классификации кинодискурса. – Вестник Харьковского национального университета. // *Дискурсология: семантика и прагматика.* – Москва. № 1003, 2012. – С. 41–44.

5. Leonardi V. Translating film titles: Linguistic skills, cultural awareness or marketing strategies? // Язык, коммуникация и социальная среда. № 9. – Москва, 2011. – С.180–201.
6. Mitry, J. Semiotics and the analysis of film. – Bloomington: Indiana University Press, 2000. – 277 p.
7. Mulvey L. Visuals and Other Pleasures (Second Edition). New York: PALGRAVE Houndmills, Basingstoke, 1989. –P. 454.
8. Richardson K. Television Dramatic Dialogue. // A Sociolinguistic Study. – New York: Oxford, 2010. – P. 63-105.
9. Slyshkin G.G., Efremova M.A. Kinotekst (opyt lingvokulturologicheskogo analiza). – Moscow: Vodolei Publishers, 2006. – С. 310.
10. Tecucianu D. The language of cinema: film grammar and visual literacy. // International Journal of communication research, volume 4, Issue 3. – Tokio. 2014. – P. 251-255.
11. Wildfeuer, J, Bateman, J. Film Text Analysis: New Perspectives on the Analysis of Filmic Meaning. – London: Routledge, 2019. – 220 p.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Z.A.Akbarova

filologiya fanlari doktori, FarDU professori

M.S.Muxtoriy

FarDU o'qituvchisi

UDK: 81:159.9+376.3

NEYROPSIXOLINGVISTIK BOG'LIQLIKDA MIYA FAOLIYATINING TILNI ESLAB QOLISHDAGI ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va xotira o'rtasidagi neyropsixolingvistik bog'liqlik ya'ni qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiraning til jarayonlariga ta'siri hamda tilning xotira shakllanishiga ta'siri hamda miyadagi til jarayonlari va xotira mexanizmlarining o'zaro aloqasi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: neyropsixolingvistika, til, mnemotexnika, xotira, boshlang'ich ta'lim, metodika, metod, nutq.

Z. A. Akbarova

Doctor of Philology, Professor at FarDU

M. Mukhtoriy

Teacher at FarDU

NEUROPSYCHOLINGUISTIC CORRELATION: THE ROLE OF BRAIN ACTIVITY IN LANGUAGE RETENTION

Abstract. This article examines the neuropsycholinguistic correlation between language and memory, specifically the impact of short-term and long-term memory on language processes, as well as the influence of language on memory formation. It also explores the interaction between language processes and memory mechanisms in the brain.

Keywords: neuropsycholinguistics, language, mnemonic techniques, memory, primary education, methodology, method, speech.

З.А. Акбарова,

доктор филологических наук, профессор ФарГУ

М. Мухторий,

преподаватель ФарГУ

НЕЙРОПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СВЯЗЬ И РОЛЬ МОЗГОВОЙ АКТИВНОСТИ В ЗАПОМИНАНИИ ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье исследована нейropsихолингвистическая связь между языком и памятью, а также влияние краткосрочной и долгосрочной памяти на языковые процессы и влияние языка на формирование памяти. Кроме того, рассмотрены взаимосвязь языковых процессов и механизмов памяти в мозге.

Ключевые слова: нейropsихолингвистика, язык, мнемотехника, память, начальное образование, методика, метод, речь.

Kirish.

Mamlakatimizda nutqi ravon va dunyoqarashi keng yosh avlodni tarbiyalash ta'lim tizimida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani ijrosi uchun o'quvchilarga til ta'limini chuqur o'rgatish talab etiladi. Boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga tilning keng imkoniyatlari ochib berilsa, o'quvchilarning tafakkuri keng va nutqi rivojlangan shaxs bo'lib yetishadilar. Bu borada

mamlakatimizda ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilmfan tili sifatidagi nufuzini oshirish yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'zbek tilini o'rgatish tizimini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish, o'zbek tili bo'yicha mashg'ulot va dars soatlarini ko'paytirish, o'zbek tili bo'yicha bilimlarni

baholash tizimini takomillashtirish, o'zbek adabiy tilining yozma nutq me'yorlari va qoidalarini o'rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qisqa muddatli o'quv kurslarini muntazam ravishda tashkil qilib borish va masofaviy o'qitish tizimida ta'lim olish imkoniyatini yaratish, ta'limning barcha bosqichlarida davlat tili o'qitilishi hamda o'zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, o'zbek tili o'quv leksikografiya tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo'yicha atamalar lug'atini yaratish hamda o'zbek tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy metodikasini yaratish [5] kabilar ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu sohada samarali natijaga erishish uchun neyropsixolingvistik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Sh.X.Shaxobiddinova o'z tadqiqotlarida eksperimental va klinik lingvistika borasida katta tajriba to'plagan Moskvada joylashgan global reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab turuvchi Oliy ekonomika maktabi (Высшая экономическая школа)da faoliyat yurituvchi — Til va miya markazida Farg'ona davlat universitetida bajarilayotgan — "Milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish" nomli maqsadli amaliy loyiha doirasida qisqa muddatli stajirovka o'tash jarayonida inson tafakkuri, xarakteri hamda til sohibi bo'lgan xalqning mentaliteti uning tili orqali ifodalanibgina qolmay u orqali shakllanishiga hamda insonning klinik qiyofasi tavsifida ham tilning o'rnini katta ekanligiga yana bir bor amin bo'lganliklari haqida aytganlar [7].

Neyropsixolingvistika atamasining tadriji ancha qiziqarliroq. Neyrolingvistikani psixolingvistikaning bir uzvi sifatida ko'rish an'anasi mavjud. Shuningdek, bu ikkisining obyektini va predmetini farqlab ko'rsatish ham keng tarqalgan: psixolingvistika til, tafakkur va ongning o'zaro aloqasini nevrologiyadan tashqarida o'rganadi. Neyrolingvistika miyaning nutqiy funksiyasini butun bir sistema sifatida, nutqning buzilish va yo'qolish holatlari (afaziya)ni sistemaning buzilishi sifatida o'rganadi [7]. Bizning fikrimizcha ta'lim tizimida o'quvchi nutqini o'stirishda bu masalalarga e'tiborni kuchaytira olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari o'quvchilarning nutq boyligini oshirishda ona tilini chuqur o'rgatish bilan birgalikda ikkinchi tilni o'rgatish masalasini ham o'rtaga qo'ysak, bu o'quvchilar nutqini o'sishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bilingvizm tadqiqotiga doir olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor bolalarning kognitiv rivojlanshiga til ko'nikmalarining ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos omillarni topishga qaratadilar. Shunday omillardan biri bolalarning hissiy rivojlanishi bo'lib, bu jarayon bolalar nutqining rivojlanishiga

sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada lisoniy shaxs va uning olam manzarasi ikki tillilik ta'siri ostida shakllanishni boshlaydi [8]. Bizning farazimizcha ham bolaning kognitiv rivojlanishi til ta'limini chuqur o'rganishida muhim hisoblanadi. Bu borada o'quvchilarga tilga oid bilimlar mnemotexnik usullar orqali singdirilsa, anglatilayotgan bilim ularning xotirasida chuqur saqlanib qolishiga erisha olamiz. Biz o'zimizning tadqiqot ishimizda mnemotexnikaning vizual usullaridan foydalanishni tavsiya etdik. Bu usulni tildagi iboralarni o'rgatish yuzaidan bo'lgan tadqiqotlarda sinadik. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iboralarni mnemotexnik usullarda o'rgatish ularning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirdi. Bunda iboralarga mos rasmlar o'quvchilarga taqdim etildi va quyidagicha izohi berildi. Nafas rostlamoq – qisqa muddatli dam olmoq. Bu ibora odatda kimdir biror mashaqqatli ishni tugatgach yoki uzoq yurishdan keyin nafasini tiklash uchun to'xtab, dam olganida ishlatiladi. Masalan, uzoq masofani bosib o'tgandan keyin yoki jismoniy faoliyatdan so'ng dam olishni xohlaganda nafas rostlamoq deyiladi.

Tahlillar va natijalar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning nutqida ko'plab so'zlarning ma'nolarini tushunib-tushunmay qo'llash holatlariga duch kelamiz. Bu o'quvchilar tafakkurida tildagi muayyan so'zlarning ma'nolari to'liq anglashilmaganligidan dalolat beradi. Miya ikki yarimshardan iborat. Rasmiy kitob o'qish davomida miyaning chap yarimshari matnini, o'ng yarimshari rasmni tahlil qiladi [2]. Rasmiy kitob matn va rasm orasidagi "o'zaro o'yin"dan tashkil topgan bo'lib, o'quvchidan mana shu o'yinni talqin qilishni talab etadi [4]. Rasmiy kitoblar ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan tanqidiy va tahliliy suhbatlar olib borishda pedagoglar uchun samarali vosita hisoblanadi [1]. Bola rasmiy kitob o'qiyotganida, kognitiv jihatdan, unda 3 ta faoliyat sodir bo'ladi: 1) matnini tushunish, ya'ni lingvistik qobiliyat; 2) rasmni tushunish, ya'ni tasviriy qobiliyat; 3) bu ikki qobiliyat integratsiyasi [3]. O'quvchilar dars mashg'ulotlarida iboralarning ma'nolarini to'la tushuna olmaydilar, chunki iboralar ko'chma ma'noda qo'llanilib, muqobili bir so'zga teng bo'lgan brikmalardir. Ushbu brikmalarni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yod olishi murakkab jarayondir. Bunga mnemotexnik usullar orqali yondashilsa, ijobiy natijaga erishiladi.

Mnemotexnik usullar — bu xotira va eslab qolish qobiliyatini oshirishga yordam beradigan maxsus texnikalar hisoblanadi. Mnemotexnika usullari axborotni assotsiatsiyalar va vizual tasvirlar orqali esda saqlashni osonlashtiradi, murakkab ma'lumotlarni tezroq va samarali o'zlashtirish mumkin, ma'lumotlarni kodlash va ularni boshqacha tarzda tasvirlash, ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi, o'quvchilarga yoki o'rganuvchilarga yangi burchakdan qarashga yordam beradi.

Miyaning tilni eslab qolishdagi eng muhim vazifalaridan biri — bu yangi soʻzlar va tushunchalarni esda saqlash va ular bilan bogʻliq assotsiatsiyalarni yaratishdir. Tilni oʻrganishda qisqa muddatli eslab qolish jarayoni ishchi xotira yordamida amalga oshiriladi. Bu xotira miya uchun yangi soʻzlarni qayta ishlash va ularni uzoq muddatli xotiraga oʻtkazishda vositachilik qiladi. Uzoq muddatli xotira soʻzlar va til tushunchalarini doimiy ravishda eslab qolishga yordam beradi. U yangi oʻrganilgan soʻzlarni allaqachon mavjud boʻlgan axborot bilan bogʻlab, assotsiativ bogʻlanishlarni yaratadi.

Tilni eslab qolish jarayonida miya emotsiyalar bilan bogʻliq jarayonlarni ham faollashtiradi. Ushbu miya qismi emotsiyalar bilan bogʻliq xotira shakllanishida ishtirok etadi. Emotsional jihatdan muhim boʻlgan soʻzlar yoki iboralar yaxshiroq eslab qolinar ekan, ular tilning bir qismi sifatida mustahkamlanadi. Shaxsning hayotiy tajribalari va hissiyotlari bilan bogʻliq til tushunchalari miya uchun osonroq eslab qolishga yordam beradi. Masalan, kuchli his-tuygʻular bilan bogʻlangan soʻzlar uzoq muddat esda qoladi.

Xulosa.

Oddiy takrorlashdan koʻra, mnemotexnik usullar orqali eslab qolingani maʼlumotlar uzoq muddat xotirada

saqlanib qoladi, chunki ular tushunchalar, tasvirlar yoki hissiyotlar bilan bogʻlanadi, axborotni esda saqlash jarayonida diqqatni yanada yuqori darajada jalb qilishni taʼminlaydi, axborotning asosiy jihatlarini ajratib, ularni toʻgʻri shakllantirish orqali diqqat markazida ushlab turadi.

Mnemotexnika katta hajmdagi maʼlumotlarni kichik qismlarga boʻlib, ularni osongina qayta tiklashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, matematik formulalar yoki tarixiy faktlarni yodlashda foydali. Mnemotexnik usullar oʻqishni ijodiy va qiziqarli jarayonga aylantiradi. Masalan, rim raqamlarini oʻrganishda ularni hayotiy tasvirlar bilan bogʻlash orqali oʻrganish jarayoni osonlashadi.

Miya faoliyati tilni oʻrganish va eslab qolish jarayonida koʻp qatlamli va murakkab jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Miyaning turli qismlari birgalikda ishlash orqali soʻzlarni, grammatik qoidalarni va talaffuzni eslab qolish, assotsiatsiyalar yaratish va ularni qayta tiklash imkonini beradi. Neyroplastiklik va xotira mexanizmlari til oʻrganish jarayonini samarali qilishda katta rol oʻynaydi.

Nutq oʻstirish jarayoni bolalar va kattalarda tilni oʻrganish va rivojlantirishni taʼminlaydigan muhim yoʻnalishlardan biridir. Bu jarayon shaxsning kommunikatsion qobiliyatlarini oshirish, oʻz fikrlarini aniq va ravon ifodalashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Albers P. Theorizing visual representation in children's literature // *Journal of Literacy Research*, 2008, 40(2), 163–200.
2. Albright L.K. Bringing the Ice Maiden to life: Engaging adolescents in learning through picture book read-alouds in content areas // *Journal of Adolescent & Adult Literacy*, 2002, 45, 418–428.
3. D. Muminova “Bolaning kognitiv rivojlanishi uchun pedagogik jarayonda rasmi kitoblardan foydalanish” *TIL VA ADABIYOT TAʼLIMI* jurnali. 2024-yil, 3-son. 45-bet.
4. Mari'a Cecilia Silva-Dí'az. Picturebooks, lies and mindreading. Gretel Research Group, Universitat Auto'noma de Barce lona, Spain // *Nordic Journal of ChildLit Aesthetics*, Vol. 6, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son.
6. Sh.H. Shaxobidinova, Z.A.Akbarova, N.R.Umarova “Neyrolingvistikaning nazariy asoslari va metodlari” *FarDU. Ilmiy xabarlar jurnali*. 2023-yil, 4-son, 280-bet.
7. Sh.X.Shaxobiddinova “Neyropsixolingvistika atamasining tadriji” *Elektron lugʻatlar yaratishning nazariy va amaliy asoslari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. Andijon-2023-yil. 347 b. 337-bet.
8. Z.A. Akbarova “Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning taʼsiri” *FarDU. Ilmiy xabarlari*. 2024-yil, 2-son. 240-bet.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nargiza Esemuratova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpog'iston gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining tayanch doktoranti
e-mail: enargiza98@gmail.com

I. YUSUPOV SHE'RIYATIDA TRANSFORMATSIYALANGAN MAQOL VA MATALLAR BADDIYLIKNI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston va O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni I.Yusupovning maqol va matallarni o'z asarlarida o'zlashtirgan holda mavzuga mos tanlash mahorati haqida so'z etiladi. Transformatsiyalangan maqol va matallar asarlarning badiiy mazmuniga ta'sir etuvchi vosita sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: poetika, mazmun, tematika, maqol va matallar, transformatsiya.

Наргиза Есемуратова

базовый докторант Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук
Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан

ТРАНСФОРМИРОВАННЫЕ ПОСЛОВИЦЫ И ПОГОВОРКИ КАК ФАКТОР УСИЛЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОСТИ В ПОЭЗИИ И. ЮСУПОВА

Аннотация: В данной статье речь идёт о мастерстве И. Юсупова, народного поэта Каракалпакстана и Узбекистана, Героя Узбекистана, при выборе пословиц и поговорок в соответствии с тематикой, при усвоении их в произведениях. Трансформированные пословицы и поговорки рассматриваются как средства, оказывающие влияние на художественное содержание произведений.

Ключевые слова: поэтика, содержание, тематика, пословицы и поговорки, трансформация.

Nargiza Esemuratova

Basic doctoral student of the Karakalpak Research Institute of Humanities,
Karakalpak Branch Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

TRANSFORMED PROVERBS AND SAYINGS AS A FACTOR OF STRENGTHENING ARTISTICITY IN THE POETRY OF I. YUSUPOV

Abstract: This article is about the skill of I. Yusupov, the people's poet of Karakalpakstan and Uzbekistan, Hero of Uzbekistan, in choosing proverbs and sayings in accordance with the topic, when assimilating them in his works. Transformed proverbs and sayings are considered as means that influence the artistic content of works.

Key words: poetics, content, themes, proverbs and sayings, transformation.

В художественной литературе жизненная истина, народный быт, мысли автора излагаются и передаются различными путями. Один из них – пословицы и поговорки. Исползованные автором пословицы и поговорки усиливают художественность ценность произведений и служат тому, что они выделяются от других. Идея и мысли автора излагаются на языке произведения, и, при этом, место пословиц и поговорок значительно для обеспечения художественности языка произведения.

Например, в народе есть пословица "Samal bolmasa terektiñ ushı qıumildamaydı". И. Юсупов

трансформирует данную пословицу и приводит в стихотворных строчках следующим образом:

„Qamis basi qilt etpese de,
Qashan dawil bolarn biler“ [3, 175].

Однако в данных строчках приведена противоположная мысль. То есть поэт применяет способ антитезы. Пословица и трансформированный вариант пословицы являются противоположными друг другу по содержанию, тем самым посредством антонимичного значения усиливается художественность произведения.

Кроме того, ещё одним словом способом использования видоизмененных со структурно-семантической точки зрения пословиц и поговорок является инверсия.

Если компоненты в составе пословиц и поговорок не подвергаются изменениям и приводятся в привычной, утвержденной в народе форме, такая последовательность называется традиционной. В научной литературе данное понятие носит название «прямого порядка». А при способе инверсии, используя пословицы и поговорки в произведениях, обычная последовательность компонентов в их составе подвергается изменениям. Поэтому, при анализе пословиц и поговорок, подвергнутых инверсии, мы, в первую очередь, опираемся на нормы порядка слов.

TEXTUAL-FUNCTIONAL ROLE OF THE SIGN IN DISCOURSE

Abstract. In order for a literary text to represent a formed poetic whole, it must be a device of the second level of structure. Such literary and artistic structure arises as a result of the ancient laws of the art of words, the aesthetic essence of signs, and in the structural-semiotic approach - the interrelation of sign concepts that perform a poetic function. It is thanks to these connections that the structure of the text is formed. This article examines the textual-functional role and essence of the sign used in discourse, associated with the personality, that is, with the personality (hero, narrator, character of the literary text).

Key words: Artistic text, concept, discourse, narrator-reader, addressee, addressee, structuralism, poststructuralism, semiotics, linguistic device.

Har qanday matn, eng avvalo, diskursiv ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi. Buning sababi shundaki, matn ifoda etgan badiiy kontsepsiya diskurs vositasida yuzaga chiqadi.

“Решающим критерием дискурса оказывается особая языковая среда, в которой создаются языковые конструкции. В соответствии с этим пониманием дискурс — это «язык в языке», то есть определённая лексика, семантика, прагматика и синтаксис,

проявляющие себя как идеология в актуализируемых коммуникативных актах, речи и текстах”. (“Diskursning ustuvor mezonni alohida til muhiti ekanligida namoyon bo'lib, unda lisoniy qurilmalar yaratiladi. Ushbu nuqtai nazarga muvofiq diskurs “til tarkibidagi til”, ya'ni muayyan leksika, semantika, pragmatika va sintaksis hisoblanib, u o'zini dolzarblashgan kommunikativ akt, nutq va matnlarda namoyon etadi”).

Yuqorida qayd etilgan “til ichidagi til”lardan biri matn, shu jumladan, badiiy matndir. Strukturalizm, poststrukturalizm va semiotikaga oid ishlarda bu tushuncha faol qoʻllaniladi. Rolan Bart “Tillarning boʻlinishi”, “Tillar urushi”, “Til guldurosi” tadqiqotlarida bu muammoga alohida eʼtibor qaratgan. Olimning fikricha, maʼlum bir tilning tasniflanishi birinchi navbatda diskursga bogʻliq. Mavjud hokimiyatga aloqadorlik enkratik, unga taalluqli emaslik esa akkrativ diskurs deb ataladi. Mazkur mulohazani aniqlashtiradigan boʻlsak, ijtimoiy nuqtai nazardan qaralganda, muloqot jarayonida hukumat siyosati, qaror va farmonlari, mafkuraviy tizimi kabilar haqida soʻz borsa, bunday kommunikatsiya enkratik, shaxsiy hayotga oid yoxud siyosatga bevosita bogʻliq boʻlmagan sohalar boʻyicha suhbat akkrativ diskurs sanaladi.

“Tillarning boʻlinishi yuqorida koʻrsatilgan tasnif bilangina cheklanmaydi, albatta. Matn diskursi ilmiy, badiiy, publitsistik, shaxsiy kabilarga boʻlinganidek, badiiy matnning oʻzi ham tarkibida bir necha “til”larni jamlay oladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, badiiy matn universal, shu bilan birga, juda noyob adabiy-poetik hodisadir.

Biz ushbu maqolada shaxsiy, yaʼni shaxs (badiiy matn tarkibidagi qahramon, roviy, personaj)ga aloqador diskursda istifoda etilgan belgining matniy-funksional oʻrni, mohiyati haqida fikr yuritimiz. Maqolada tahlil uchun Abdulla Qahhorning “Sarob” romani tanlab olindi.

“Sarob” fojiviy hayot va fojiviy shaxs haqidagi badiiy yaratmadir. Romanda fojining ustuvorligi haqidagi fikr dastlab akademik Matyoqub Qoʻshjonov tomonidan aytilgan. U mazkur asarga bagʻishlangan tadqiqotini “Adashganlar fojiasi” deb atagan edi.

“Sarob”, aytilganidek, roman janrida yozilgan. Bu epik janr poetik tizimining kengligi, teranligi, ifoda tarzining koʻlamdorligi, xususan, badiiy olamidagi belgilarning son-sanoqsizligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Biz bu oʻrinda ana shu matndagi ayrim belgilarni koʻrib chiqamiz.

Badiiy matndagi belgi quyidagilarda ifoda topishi mumkin:

- 1) soʻz;
- 2) soʻz birikmasi;
- 3) gap;
- 4) badiiy obraz (qahramon, personaj).

Ayrim hollarda badiiy matn tarkibidagi bir nechta soʻz, soʻz birikmasi, gap oʻzaro birlashib, bitta belgini yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, butun bir matn yagona matn tarzida namoyon boʻlish xususiyatiga ega. Koʻpincha matnning belgi tarzidagi ifodasini sarlavhada mujassam boʻladi. Bu fikr isbotini biz tahlil etayotgan badiiy matnda koʻramiz.

“Sarob (forscha – xayoliy manzara, sarob, quruq vaʼdalar). Uzoqlarda sarob sarob jimirlaydi. Koʻl betida

qovjiragan yantogʻu isiriq suzib yurganday...” (S. Nurov. “Narvon”).

1. Atmosferaning optik hodisa – notekis haroratga ega boʻlgan havo sharoitida nurlarning oʻziga xos sinishi natijasida ufq ortidagi (uzoqdagi) narsalarning xayoliy, soxta tasvirlarning paydo boʻlishi.

2. Koʻchma. Aldamchi tasavvur, xayolot, xomxayol. Men oʻylagan narsa sarob boʻlib chiqdi. (Uygʻun va Izzat Sulton. Alisher Navoiy”).

Badiiy matn sarlavhasi odatda koʻchma-ramziy xususiyat kasb etadi. Abdulla Qahhor romanida ham shunday jihatni koʻramiz. Undagi voqealar rivoji davomida biror-bir oʻrinda ham optik hodisa boʻlgan sarob tasviri mavjud emas. Bu esa asar sarlavhasining konnotativ asosga ega ekanligini koʻrsatyapti.

Sovet davrida mazkur romanga bagʻishlangan tadqiqotlarda sarob konnotatsiyasi Rahimdosh Saidiy va uning davradoshlariga qaratilgani, yaʼni ularning ijtimoiy hayotda tanlagan yoʻli aldamchi, xomxayol ekanligi taʼkidlanadi. Bunday qarash birinchi navbatda oʻsha zamon dunyoqarashi, shu bilan birga, bosh qahramon xarakteridagi murakkablik, fojiviylik bilan bogʻliq. Bundan tashqari, “Sarob” koʻp qatlamli badiiy yaratma boʻlgani sababli undagi yuz – siyosiy-mafkuraviy qatlam adabiyotshunoslarning shunday fikrga kelishlariga sabab boʻlgan. Bu oʻrinda aytish kerakki, “Sarob” qahramoni jangari sovet munaqqidlariga manzur boʻlmagan. Ularga bu obraz yovuzlik, jaholatning tipik namoyandasi emas, muallif xayrixohligi bilan yaratilgan ijobiy shaxs timsolidek tuyulgan.

Yigirmanchi asrning 30-50-yillarida sovet, shu jumladan, zamonaviy oʻzbek adabiyotida yaratilgan “sinfiy dushmanlar” (ular aslida milliy ozodlik harakati ishtirokchilari, diyonatli ziyoli-jadidlar, din arboblari boʻlgan) johil, zolim, firibgar, muttaham kimsalar tarzida tasvirlanardi. Shoʻro adabiyotida bunday obrazlarning muayyan qoliplari shakllangan edi. Rahimjon Saidiy esa bunday qoliplarga mos tushmagan. Xuddi shu sababga koʻra roman dastlab oʻsha davr tanqidchiligida ijobiy hodisa sifatida baholanmagan, uning nashr etilishi ham qiyin kechgan.

“Sarob”ni milliy adabiyotshunoslikda birinchilardan boʻlib, siyosiy-mafkuraviy aqidalar asosida emas, badiiyat mezonlari asosida teran tadqiq etgan alloma Matyoqub Qoʻshjonov biz yuqorida tilga olgan “Adashganlar fojiasi” nomli ishida Rahimjon Saidiy obrazining maʼlum bir jihatlari “Tinch Don”dagi Grigoriy Melexovga yaqinligini qayd etgan edi. Bunday qiyos aniq ilmiy kuzatishlar asosida amalga oshirilgan boʻlib, fikrimizcha, mazkur ikki obraz bir qancha xususiyat-alomatlari bilan bir-biriga mushtarak va aloqadordir. Bunday mushtaraklik ular yashagan davr ziddiyatlari hamda shaxsiyat va taqdiridagi fojiviylik bilan bogʻliqlari. Biz ushbu maqolada roman matnidagi ayrim belgilarni tahlil etish orqali bosh qahramon badiiy

strukturasidagi o'ziga xosliklarni aniqlashga va shu asosda uning hayoti va shaxsiyatidagi fojiaaviylik darajasini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Asarning dastlabki faslida syujet tizimida muhim o'rin tutgan obrazlardan biri – Munisxon nigohi, ichki bahosi yordamida Saidiyning muxtasar va aniq portreti berilgan: “Qizning vahima bilan o'tmaslashgan zehni zalning eshigidan chiqqanidan so'nggina asliga qaytdi: yonida sog'lom, har bir harakatidan kuch-quvvat aks etib turgan bejirim yigit borardi”.

O'rta Osiyo romanchiligining dastlabki namunalari – “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Doxunda”, “Qullar”, shu bilan birga nisbatan keyinroq yaratilgan “Qutlug' qon”, “Navoiy” romanlarida faqat ijobiy obrazlargina mana shunday yorqin ranglarda chizilgan, ularda muallifning qahramonga oshkora xayrixohligi aniq ko'rinib turadi. Bunday munosabatning tarixiy-genetik ildizlari folklorning epik va liro-epik janrlari (epopeya, doston, ertak), mumtoz adabiyotdagi dostonchilik an'analari bilan bog'liq.

Yuqorida keltirilgan portret tasviridan ayonlashadiki, roman badiiy-g'oyaviy kontseptsiyasiga ko'ra, birinchidan, Rahimjon Saidiy “yovuzlikning mukammal tajassumi” bo'lgan salbiy obrazlardan emas, u o'zining ko'rkamligi va iliq muomalasi bilan Munisxondan sohibjamol qizning e'tiborini torta oladigan jozibaga ega. Uning fojiaaviy taqdiri bir jamiyatda yashab kelgan insonlarning zamona zayli tufayli o'zaro zid guruhlariga bo'lingani, shuningdek, o'ziga xos fe'l-sajiyasidagi chigalliklar, ma'lum darajada nasabidagi badbaxlik (otasining sinib, o'z joniga qasd qilishi) kabilarga aloqador. Ikkinchidan, esa bunday tasvir so'z san'atida insonni tasvirlashning o'ziga xos usulidan ham kelish chiqishini

ko'rsatish lozim. Bunday usulga ko'ra, badiiyat namunasidagi inson qanday qiyofa, shakl-shamoyilga ega bo'lmasin, u ichki dunyosi, amallariga ko'ra baholanishi lozim. Abdulla Qahhor asarlarida asosan ana shunday yo'l istifoda etilgan.

“Sarob” matnida asosiy obrazlar xarakterining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha o'z ifodasini topgan:

1) adresant va adresat muloqoti orqali. Bunday diskursda bayonchi (roviy) matn ishtirokchisi xatti-harakatlari, ruhiy olamidagi o'zgarishlar haqida kitobxonga ma'lumot berib boradi. Badiiy matnda bunday muloqot eng faol va samarali qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rsatilgan diskursiv kommunikatsiyani Rahimjonning Munisxonga munosabati va u bilan bo'lgan muloqotlarida ko'rish mumkin:


1.“Yigit hayron edi: “Buning husnigina emas, hatto kiygan kiyimi mo'jiza-ku...” (7-bet).

2.“Vujudi mo'jiza, har bir so'zi, harakati hayotga chaqirib turgan bu qizga hamdard bo'lish uchun u har narsaga tayyor edi” (9-bet).

3.“Qizning lab tishlab bosh chayqashi uning ko'z oldidan, mayin tovushi qulog'idan ketmas edi” (9-bet).

4.“Uning boshidagi fikrlar aralash-quralash bo'lib ketdi; bularning ichidan birortasini ajratib olsa, o'sha ham hayolga aylanib ketar edi: “Bu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo'lsam”, der edi (9-bet).

Yuqorida keltirilgan to'rtta matniy parchada bitta belgi bo'lib, uning bildiruvchilari bir paradigmatic qatorga birlashib, kontseptni yuzaga keltirgan va roman qahramonining ruhiy kechinmalarining quyidagi darajalarini ko'rsatishga xizmat qilgan:



Aslida ushbu to'rtta bildiruvchi bitta kontsept (qahramon qalbida paydo bo'layotgan muhabbat tuyg'usi)ni ifodalagan.

“Sarob” romani qahramoniga xos badiiy struktura bir talay alomat-jihatlar bilan yuqorida sanab o'tilgan obrazlarning poetik qurilmasidan ajralib turadi. Avvalambor u izchil realizm mezonlari asosida yuzaga kelgan yaratmadagi obraz, shu boisdan unda odatdagi (romantik tafakkur mahsuli bo'lmagan) odamga xos

xususiyatlar mujassamlashgan. Kitobxon shunday asosga ko'ra, Saidiyning o'ziga manzur bo'lgan qizga bunday qarashini yoshlikka xos o'tkinchi qarash deb tushunishi hamda shakllangan xudbin kimsa sifatida qabul qilmasligi ham mumkin. Ammo mazkur holga qaramay, qahramonning ushbu nuqtai nazari uning kelajakdagi

ruhiyati, hayoti bilan bog'liqligini unutmaslik kerak bo'ladi.

Roviy-kitobxon (adresat-adresant) diskursida bayonchi (muallif obrazi) bosh qahramon xarakteri chizgilarini muayyan badiiy lavhalar tasviri davomida ifoda etar ekan, undagi o'ziga xosliklar, shaxsiyatidagi o'zgachaliklarning tarixiy-genetik, shu bilan birga, ijtimoiy davr, muhit bilan aloqador jihatlari ko'rsatib boradi. Romanning ikkinchi faslida roviy diskursida aytilganidek, Rahimjonning otasi hunarmandlar tabaqasiga mansub bo'lib, temirchilik bilan shug'ullangan. Aytilishicha, Saidiyning otasi mashina-bosqon, mashina-dam bilan ishlaydigan katta bir korxonada ochmoqchi bo'lib anchagina temirchilarni to'pladi, bu ishga talay sarmoya ham xarjladi-yu, ish boshlamasdan sinib yer bilan yakson bo'ldi va o'zini osdi" (12-bet).

Sovet davrida Abdulla Qahhor ijodiga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda Saidiyning badavlat kishilarga xayrixohligi, ularning davrasiga qo'shilishga intilishi, g'oya va maqsadlariga yon bosishi mulkdorlar tabaqasiga mansubligi bilan izohlanadi. Aslida, diskursdan ma'lum bo'lishicha, Rahimjonning otasi mehnatkash bir chilangar, uning tadbirkorlik faoliyati bu boradagi tajribasizligi, eng muhimi, chor hukumatining Turkistonda sanoatni taraqqiy ettirishga zid siyosati tufayli barbod bo'ladi.

Matndagi mazkur kommunikativ axborot qahramon xarakterini tushunish va baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Saidiyning otasidan mol-davlat, yaxshi nom emas (musulmon dunyoqarashida o'z joniga qasd qilish og'ir gunoh sifatida baholangan), quyidagilar "meros" bo'lib qolgan:

1) omadsizlik (Rahimjonning buyuk adib bo'lib olamga tanilish va o'z didiga mos go'zal qiz bilan oila qurish haqidagi xayol va urinishlari sarob bo'lib chiqadi);

2) chuqur va davomli depressiya, melanxolik xarakter. Ota yoki onaning bevaqt, xususan, fojiali o'limi farzand, ayniqsa, u yosh bola bo'lsa, uning ruhiyatiga chuqur ta'sir qilib, unda umidsizlik, qo'rqqoqlik, jur'atsizlik kabi salbiy kayfiyatlarni yuzaga keltiradi. Bu haqda Matyoqub Qo'shjonov shunday deb yozgan edi: "Ehtimol, otasining fojiali taqdiri Saidiy dilida qora iz qoldirgandir". Psixoanaliz nazariyasi asoschisi Zigmund Freyd inson ruhiyatidagi oid asosiy anomaliyalar ildizini uning bolaligidan qidirish kerakligini ta'kidlagan. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qarasa, "Sarob" romani qahramoniga xos jur'atsizlik, iroda zaifligi, ko'p hollarda odamovilik, do'stni dushmandan farqlay olmaslik xususiyatlari bolalikda olgan ruhiy jarohatlar asorati ekanligi oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ю.Лотман. Структура художественного текста. – Москва: Эксмо, 2023. – С. 66.
2. Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика. Поэтика – Москва: Прогресс, 1989. – С. 529.
3. Матёқуб Қўшжонов. Ҳаёт ва қаҳрамон – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 196-249.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 452.
5. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 3-том – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Saidova Rizvon Mustaf o qizi
Jizzax DPU tayanch doktoranti
Elektron pochta: saidovarizvongul@gmail.com

BADIIY IJOD TARAQQIYOTI VA ADABIY TA'SIR MASALASI (Abdulla Qahhor ijodi misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy ijod taraqqiyotida adabiy ta'sirning o'rni o'rganildi. Adabiy ta'sir natijasida yaratilgan ayrim asarlar keltirilgan. Qator adabiyotshunos olimlarning adabiy ta'sir xususidagi qarashlari o'rganilgan. Abdulla Qahhor ijodida adabiy ta'sir masalasi hamda muammolari tadqiq etilgan va adibning adabiy ta'sir yuzasidan bildirgan adabiy-tanqidiy fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'sir, badiiy ijod, badiiyluk me'zoni, talant, estetik zavq, rus adabiyoti.

Саидова Ризван Мустаф овна
Базовый докторант Джизакского ДПУ

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА И ПРОБЛЕМА ЛИТЕРАТУРНОГО ВЛИЯНИЕ

Аннотация: В данной статье изученарол литературного влияния в развитии художественного творчества. Представлены некоторые произведения, созданные в результате литературного влияния. Изучены мнения многих литературоведов о литературном влиянии. Исследуются вопрос проблемы литературного влияния в творчестве Абдуллы Каххара, описываются литературно-критические мнения, высказываемые писателем по поводу литературного влияния.

Ключевые слова: литературное влияние, художественное творчество, критерий артистизма, талант, эстетическое удовольствие, русская литература.

Saidova Rizvon Mustafa kizi
Jizzakh SPU base doctoral student

THE QUESTION OF THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC CREATIVITY AND LITERARY INFLUENCE

Annotation: In this article, the role of literary influence in the development of artistic creativity was studied. Some works created as a result of literary influence are presented. The views of many literary scholars on literary influence have been studied. The issue and problems of literary influence in Abdulla Kahhar's work are researched and the writer's opinions about literary influence are stated.

Keywords: literary influence, artistic creation, criterion of artistry, talent, aesthetic pleasure, Russian literature.

Abdulla Qahhorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni beqiyosdir. U xalqi va adabiyot ahli uchun ajoyib meros qoldirdi. Undan meros bo'lib qolgan adabiy an'analarning umri boqiydir. Bu adabiy an'analarni ham asrlar osha avloddan avlodga, xalqlardan xalqlarga o'tib, san'atkorlar ijodida mujassamlashib, badiiy adabiyot rivojiga hissa qo'shishi hamda jahon adabiyoti xazinasini yanada boyitishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiy ta'sir adabiy an'analarning bir ko'rinishi bo'lib, har qaysi ijodkorning asarlari yaratilishida o'ziga xos o'ringa ega. Abdulla Qahhor asarlarida adabiy ta'sir masalasi haqida ba'zi dissertatsiya, monografiya va maqolalarda qimmatli tahlillar olib borilgan, ma'lumotlar qayd etilgan, biroq adabiy ta'sir masalasi ijod qonuniyatlari

nuqtayi nazardan adib asrlarida maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada Abdulla Qahhor ijodida adabiy ta'sir muammolari tadqiq etiladi va adibning adabiy ta'sir yuzasidan bildirgan adabiy-tanqidiy fikrlari bayon etiladi, shuningdek, badiiy ijod asoslarida adabiy ta'sir masalasi xususida so'z yuritiladi.

Jahon va o'zbek adabiyoti xazinasida shunday durdona asarlar borki, bu asarlarning yaratilishida adabiy ta'sir muhim o'ringa ega. Yozuvchi ijod laboratoriyasida shunday holatlar bo'ladiki, kitob mutolaasi jarayonida undagi voqealardan, ilgari surilgan g'oyalardan, obrazlardan, qahramon nutqi yoki badiiy tarjima jarayonida ijodkorga yangi bir asar g'oyasi kelishi, adabiy ta'sirga berilishi natijasida yangi bir asar rejasi paydo

bo'lishi mumkin, Xususan, "Anna Karenina" romanining ilk rejasi L. N. Tolstoyning hayoliga Pushkinning prozasini o'qib o'tirgan paytida keladi. F. M. Dostevskiy Raskolnikov obrazining asosiy konseptsiyasi Balzak asarlari ta'sirida tug'iladi...

Xuddi shunday holatlarni o'zbek yozuvchilari ijodida ham ko'rish mumkin. Oybek "Yevgeniy Onegin" (A. S. Pushkin) tarjimasini bilan shug'illanar ekan, "Qutlug' qon"ni yozish fikriga keladi. A. Qahhor, A. P. Chexov asarlarini o'qirgan, u "u narsa va hodisalarga qarab, ularni qanday ko'rishni o'rgatgani" va "Millatchilar", "Bemor", "O'tmishdan ertaklar" kabi asarlarining Chexov ta'sirida yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. A. Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasini Qurbon Beregin degan tanishi aytib bergan voqealar ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, P. Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanining yuzaga kelishida Bobur haqidagi tarixiy manbalar, hujjatlar bilan bir qatorda "Boburnoma" asarining ham salmoqli ta'siri borligini ko'ramiz. [1,73]

Ma'lumki, Abdulla Qahhor rus hikoyanavisi A. P. Chexov asarlaridan ta'sirlangan. Bu haqda adib bir qancha maqolalarida so'z yuritgan. XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, munaqqid Oybek "Chexov va o'zbek adabiyoti" sarlavhali maqolasida o'zbek adiblari, chunonchi, Abdulla Qahhor ijodiga Chexov ta'siri xususida so'z yuritadi: Oybek maqolada Abdulla Qahhor ijodida Chexovning ta'siri nimada ifodalanadi degan savolga javob beradi:

Abdulla Qahhor ijodiyotida biz, albatta, g'oyaviy ya'ni mazmun jihatidan bo'lgan ta'sirni ko'rmaymiz. Chexovning anchagina asarlarini qamrab olgan kayfiyat-xafagazaklik, noilojlik, umidsizlik kabi holatlar Abdulla Qahhor ijodiyoti uchun begonadir. Bu narsa o'z-o'zidan ma'lum. Ulug' rus yozuvchisi o'z zamonasining dimiqtiruvchi bir davrning ifodachisidir. Chexov o'zining kichik, mo'jaz hikoyalarda uvadasi va rasvosi chiqqan, xunik va razil muhitni, g'am-g'ussali voqelikni ko'rsatadi. U vaqtlarda xalq hayoti, M. Gorkiy ta'biri bilan aytganda, "mudroq va chalajon" edi. Bularning hammasi allaqachonlar yo'qolib, rivoyat bobidan joy olgan. Bizning esa endi o'z novellistlarimiz bor. Ular Chexovdan o'rgandilar va o'rganmoqdalar. [2,189]

Munaqqid Oybek ta'kidlanganidek, Abdulla Qahhor asarlarida Chexov asarlarining mazmuniy ta'siri yo'q. Mohir adib o'z salohiyati va talanti ila mohirlik bilan ustozidan uslubiy sirlarni o'zlashtirgan. Chexov hikoyalari ta'siriga butunlay berilib, Chexov hikoyalarning nusxasini yaratib qo'ymagan. Sababi, Abdulla Qahhor badiiy ijod sirlarini puxta egallagan, qolaversa, yuksak talant va iqtidorga ega ediki, bu hislatlar uni Abdulla Qahhor darajasiga yetishishida yetakchi omillardan biri bo'lgan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Badiylikning eng muhim belgisi o'quvchini hayajonga sola bilish, uning qalbida chuqur iz qoldirishdir. Ana shu xususiyatga ega asargina haqiqiy badiiy asardir.

Ch. Aytmatovning so'zlari bilan aytganda, "...xuddi yozuvchi san'atining kishilarga emotsional ma'naviy ta'sir kuchi o'sha yozuvchining badiiy ta'lant o'lchovidir". [3,151] Abdulla Qahhor, shubhasiz, yuksak iqtidor egasi edi. Adib ustozlari asarlaridan estetik zavq oldi, badiylik me'zonlaridan biri badiiy ta'sir masalasini tahlil qilib, shogirdlari uchun o'z maslahatlarini qoldirdi va ma'naviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan badiiy meros qoldirdi.

U (Abdulla Qahhor. Izoh bizdan) "Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida" kitobida: Adabiyotning international xarakterini, o'z xalqining va boshqa qardosh xalqlarning milliy madaniyatlariga chuqur hurmat ruhi bilan sug'orilgan asarlarni yuqori baholardi. Milliy adabiyotlar qardosh xalqlar madaniyatidan ham oziqlanadi, derdi u. O'zbek va rus an'analarining asosida kamol topgan ijodi o'sha so'zlarining yorqin misolidir. [4,21]

G'arb va Sharq adabiyoti bilimdoni Abdulla Qahhorning yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, adabiyotshunoslik nazariyasini, badiiy ijod qonuniyatini chuqur bilgan. Jahon adabiyoti na'munalarini o'rgangan, va o'zbek adabiyotida adabiy ta'sir asosida ham betakror asarlar yaratgan. Shu bilan birgalikda, yosh yozuvchilar uchun o'zining qimmatli maslahatlarini ham qayd etgan. Bu qaydlar adabiy ta'sir masalasi bilan bog'liq bo'lib, rus adabiyoti na'munalaridan to'g'idan to'g'i, bevosita andoza olish xato ekanligini, adabiy ta'sir natijasidan mahorat bilan asarda foydalanish darkorligini, yozuvchi asar yaratar ekan, o'z o'rni bilan avvalo, ko'z oldida o'z xalqi turmushiga mos bo'lgan voqea-hodisalar tasvirlanishi, adabiy ta'sir qolipiga tushib, unga beixtiyor ergashishdan ehtiyotkorlik zarurligi haqida to'xtalib shunday deydi:

Ruschadan mexanistik ravishda o'rnak olib bo'lmaydi. Biz o'z turmushimizga muvofiq keladigan yangiliklar vujudga keltirmasak bo'lmaydi... [5,226] deydi. Abdulla Qahhorning fikrlarining uzviy davomi sifatida munaqqid Oybek ham Chexov asarlariga yuqori baho bergan holda uning asarlaridan ta'sirlanish mexanik ravishda bo'lmasligi kerakligini ta'kidlaydi:

...Chexovning ko'p badiiy priyomlari, qaynab chiqqan chashma kabi bizning adabiy dala-maydonlarimizni sug'oradi. Lekin yozuvchi bu mahorat sirlarini mexanik ravishda o'zlashtirishi mumkin emas. [2,195]

O'zbek adabiyotining yirik ikki vakili Abdulla Qahhor hamda Oybekning bu fikrlarining tub zamirida umumiy tarzda bir asardan ta'sirlanish natijasida yangi asar yaratilishi mumkinligi ammo adabiy ta'sirga berilib o'qilgan asarga juda yaqin bo'lgan asarni ijodkor yaratib qo'yishdan ehtiyot bo'lishi, his etilgan estetik zavqdan o'ziga xos yangi asar yaratilishi lozimligi haqida so'z ketmoqda. Demak, har bir san'atkor mutolaa vaqtida, ijod jarayonida adabiy ta'sirga berilishi mumkin, ammo mahoratli san'atkorning ta'sirlanish natijasida yangi asarini yashovchan asar darajasida yarata oladi. Shuningdek,

badiiy asardan ta'sirlanish uchun ijodkorda ziyraklik, kuzatuvchanlik, sermulohazalilik kabi fazilatlar mujassam bo'lsa, asarni muallif darajasida tushunishi, kutilmaganda yangi g'oyalar tug'ilishi, qator obrazlarni tasavvur qilishi mumkin.

Qahhorshunos rus olimasi Irina Borolina Abdulla Qahhor haqidagi chizgilarida adibdagi ta'sirchanlik va kuzatuvchanlik, ziyraklik hislatlarini iliq xotiralar bilan eslaydi:

U odamlar bilan befarq munosabatda bo'la olmaganini uchun ham suhbatdoshi ko'ngliga tezgina yo'l topardi, ayni chog'da, ko'pam hissiyotga berilavermasdi. O'zi kamroq gapirib, ko'proq hamsuhbatining so'zlarini eshitishni afzal ko'rardi; kishiga diqqat bilan razm solib o'tirardi; go'yo qo'l harakatlarini imo-ishoralarini, ifoda yo'sinini eslab qolishga urinayotgandek tuyulardi. Mobodo, hikoya qilinayotgan voqea uni to'lqinlantirib yuborsa, u juda qiziqib tinglardi; faqat roviyga qo'shilishib qayg'uribgina qolmay, xuddi bironing qismatini o'z boshidan kechirayotgandek bo'lardi. Abdulla Qahhorga xos bunday ziyraklik, ta'sirchanlik ijod jarayonida juda qo'l kelardi; u o'z taassurotlarini obrazlarning nozik ichki kechinmalarida yorqin aks ettirardi-inson tabiatini kashf etardi. [4, 20]

Badiiylik me'zonlaridan biri bu-ta'sirchanlikdir. Adabiyotshunos olim Hotam Umurov "Badiiy ijod asoslari" kitobida adabiy tasir badiiy ijod asoslaridan biri ekanligini quyidagicha izohlaydi:

Yozuvchi ma'lum g'oya asosida to'plangan alohida faktlarni o'zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalbidan o'tkazib, ko'pchilikka xos qilib umumlashtiradi. Ya'ni, aniq g'oyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi, umumlashtiradi va jonli, tabiiy va betakror go'zal narsani yaratadi. Yaratgan asari (lavhasi) o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi, kitobxon o'y-hayollarini o'ziga tamoman band etadi. [6, 33]

Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan, chegarasiz jarayondir. Yozuvchi o'z ijodining ma'lum davrida-usta san'atkor darajasiga ko'tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o'stirmasa-hayotdan va san'atdan o'rganishda davom etmasa u orqaga ketaveradi, o'quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o'rganish, kashf etish to'xtagan joyda talant kuchi, ta'siri susaya boshlaydi. Talant yangilik bermagach, chaynalgan "kashf"larni-yasama, sun'iy gullarni taqdim qila boshlaydi.

S. Ahmad yozadi: "...ruhiyatimda g'alati kayfiyat paydo bo'lib qoladi. Muzika, qo'shiq eshitishga mayl

paydo bo'ladi. Arzimagan kichik ko'ngilsizlik ham menga yomon ta'sir qiladi. Arzimagan gapga ham kulгим keladi. Nazarimda, umrim bekorga ketayotganga o'xshaydi. Nimanidir yozishim kerak, degan ichki intilish paydo bo'ladi. Ana shundan keyin kayfiyatimga qarab mavzu kela boshlaydi. Agar g'amgin o'ylar chulg'ab olgan bo'lsa-taqdiri og'ir kishilar hayoti, kayfim chog' bo'lsa, baxtli taqdirlar ko'z oldimdan o'taveradi". [6,51]

Tashqi muhit, kishi kayfiyati, xotiralar, oniy lahzada insondagi hislar qurshovi ta'siri ham ijodkorni ijod jarayoni tomon boshlaydi. Asar yaratilish jarayonida ijodkor ham muallif, ham kitobxon ham tanqidchi demakdir. Biror omildan ta'sirlanish natijasida asar yaratilar ekan, asarni yozish asnosida yoki asar bitgach yaratuvchi o'z asarini baholashi ham zarur sanaladi. Adabiy ta'sirga berilib, asar u ta'sirlangan asarga o'xshab qolmadimi, qaysi o'rinlari bilan uni ta'sirlantirgan asar bilan mushtarak va qaysi jihatlar bilan farqli, buni tekshirib turish san'atkor uchun foydalidir.

Ko'rinyaptiki, asar yaratish jarayonida yozuvchining ongi go'yo ikkiga bo'linadi: u (muallif) yaratuvchi, u (o'quvchi) baholovchidir. Ana shu yaratuvchanlik va baholovchilik holatlarining mutanosibliigi asarning ta'sir kuchini ta'minlaydi. [6,94]

Xulosa o'rnida aytish joizki, adabiy ta'sir natijasida ko'p hollarda san'atkorlarda yangi asar yozish fikri tug'ilar ekan, asarni yozish jarayonida, albatta, ijodkordan yuksak mahorat, ta'lant talab etiladi. Zero, ta'sirlanish oqibatida yoziladigan asar o'z ta'sirini o'tkizgan asardan farqli bo'lishi, taqlidgo'ylik o'rinlari uchramasligi, mualliflar aytmoqchi bo'lgan xulosalar juda yaqin kelmasligiga ahamiyat qaratmoq zarur. Badiiy ijod qonuniyatlaridan bohobar bo'lgan holda o'z novatorligini namoyon qilgan yohud asarlari o'ziga xos jihatlar bilan farqli bo'lgan san'atkorlar uchun adabiy ta'sir asarlarining yaratilishida muhim ahamiyatga ega. Abdulla Qahhor jahon va rus adabiyotining durdona asarlaridan ta'sirlanib, ilhomlanib asar yaratar ekan, badiiy ta'sir ostida qolib ketmadi, mexanik andoza olish yo'lida yurmadi, balki badiiy adabiyotning estetik zavqi ta'sirida asar yaratar ekan, o'zbek adabiyotida o'z uslubi, o'z so'zi va o'z o'rniga ega bo'ldi beb ayta olamiz. Shu o'rinda Abdulla Qahhorga xos bo'lgan ziyraklik, kuzatuvchanlik, o'zgalardardini o'z dardidek qabul qilish kabi fazilatlar asar mohiyatini chuqur anglashga va adabiy ta'sir bergan zavqdan to'g'ri foydalanib yangi asarlar yaratishida o'z hissasiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xotam Umurov. Badiiy ijod asoslari. Toshkent. "O'zbekiston" 2001. 73-b
2. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchi tom. Toshkent. "Fan" 1979.189-b.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. "O'qituvchi" 2005. 151-b
4. Kibriyo Qahhorova, Otayor Nahanov. A. Qahhor zamondoshlari xotirasida. Toshkent. "G'afur G'ulom" 1987.

5. Abdulla Qahhor. 6 tomlik. 226-bet
6. X. Umurov. Badiiy ijod asoslari. Toshkent. "O'zbekiston" 2001. 51-94-b

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Saydaliyeva Mahliyo

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

LINGVO KOGNITIV TERMINLAR. KOGNITIV STILISTIKA

Annotatsiya: Kognitivologiyaning rivoji lingvistikada ham kognitiv yondashuvning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Dastavval kognitiv tilshunoslik mustaqil soha sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik nutqni kognitiv jihatdan tadqiq qilish boshlandi. Shu tariqa kognitiv stilistika shakllandi. Kognitiv stilistika masalalari jahonning bir qator taniqli tilshunoslari e'tiborini tortdi hamda sohaga aloqador tadqiqotlar soni ortib bordi. Mazkur maqolada kognitiv lingvistikaning asosiy termini konseptual metafora hamda konseptual bog'lash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Kognitiv tilshunoslik, kognitiv stilistika, bog'lash maydoni, konsept, konseptual metafora.

Saidaliyeva Mahliyo

Associate doctoral student of Kokand State Pedagogical Institute

LINGUA COGNITIVE TERMS. COGNITIVE STYLISTICS

Abstract: The development of cognitive science led to the emergence of a cognitive approach in linguistics. At first, cognitive linguistics appeared as an independent field, and later cognitive research of speech began. In this way, cognitive stylistics was formed. The issues of cognitive stylistics have attracted the attention of a number of well-known linguists of the world, and the number of studies related to the field has increased. In this article, the main term of cognitive linguistics is devoted to issues of conceptual metaphor and conceptual connection.

Key words: Cognitive linguistics, cognitive stylistics, connection field, concept, conceptual metaphor.

Сайдалиева Махлия

Базовый докторант Кокандского государственного педагогического института

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ТЕРМИНЫ. КOGНИТИВНАЯ СТИЛИСТИКА

Аннотация: Развитие когнитивной науки привело к появлению когнитивного подхода в лингвистике. Сначала когнитивная лингвистика возникла как самостоятельная область, а позже начались когнитивные исследования речи. Так сформировалась когнитивная стилстика. Вопросы когнитивной стилстики привлекли внимание ряда известных лингвистов мира, увеличилось количество исследований, связанных с этой областью. В данной статье основной термин когнитивной лингвистики посвящен вопросам концептуальной метафоры и концептуальной связи.

Ключевые слова: Когнитивная лингвистика, когнитивная стилстика, поле связей, концепт, концептуальная метафора.

Kognitiv tilshunoslik asosi bo'lmish bu termin Jorj Lakoff va Mark Jonsonlar tomonidan fanga olib kirilgan [1]. G.Fauconnier esa bu tushunchani yanada rivojlantirishga hissa qo'shgan. Ko'plab maqolalari va asarlari [2] orqali mashhur adabiy tanqidchi olim, metafora tushunchasining turli jabhalarini yoritib bergan. Ushbu nazariya fikr va tilni shakllantirishda metaforalarning o'rniga diqqat qaratadi. "Kognitiv metafora, shuningdek, konseptual metafora - asosiy aqliy jarayonlardan biri hisoblanib, atrofimizdagi dunyoni bilish, tizimlash va tushuntirish usuli; bir konseptual soha haqidagi bilimlarning boshqa konseptual sohada kesishishi. U ma'lum bir madaniy hamjamiyat tajribasi qismlarini shakllantiradi va takrorlaydi"[3].

Masalan, rus, o'zbek, ingliz tillarida so'zlashuvchilar yosh o'tgan sari soch rangining o'zgarishini turli rang-tus orqali ifodalaydi, chunki til egalari tilni o'z aqliy va madaniy tuzilmalari bog'liq holda tartibga soladi, bu hatto bizning vizual tizimimiz kabi asosiy mexanizmlarni ham shakllantira oladi. Go red, qizarib ketdi, pokrasnet (покраснеть) birliklarida qizil rangi bir xil semantik ma'noni yani hijolatchilikni ifodalaydi, ammo "krasnaya tsena" (Красная цена) rus tilida mahsulot yoki xizmatning chegirmali yoki arzonlashtirilgan narxiga ishora qiladi, ammo o'zbek va ingliz tillarida chegirmalarni rang orqali ifodalovchi frazeologik birliklar mavjud emas. Yuqorida aytganimiz, ingliz va o'zbek tillarida yosh o'tgan sari soch

rangining o'zgarishini ifodalovchi birliklar misolida konseptual metaforani ko'rib chiqsak. Ingliz tilida "gray hair (kulrang soch)" deganda biz ko'pincha sochlarning jismoniy rangini tasvirlabgina qolmay, balki konseptual metaforani ham qo'llaymiz. Bu metafora kul rang qarish va donolik bilan bog'liq degan fikrga asoslanadi. Bu metafora shuni ko'rsatadiki, odamlar yoshi ulg'aygan sari xuddi soch rangi o'zgariganidek donolik va hayotiy tajribaga ega bo'ladi. Demak, bu yerda konseptual metafora shundan iboratki, "kulrang soch" donishmandlik va qarishni anglatadi. O'zbek tilida qarish davomida soch rangini o'zgarishini oq rang bilan ifodalaydi "oq soch". O'zbek xalqida nimadir o'z tusini yo'qatsa oq rangga assotsiatsiya qilinishini ko'rish mumkin "rangi oqarib ketdi" bu yerdagi rang ma'nosi qo'rquv va ajablanishni ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki o'zbek xalqida qarish tushunchasiga nisbatan inglizlarda bo'lganidek donolik emas kuchdan ketish tushunchasi ustunroq turadi. Konseptual metaforalar til va fikrlashda kuchli vositadir. Ular bizga mavhum tushunchalar yoki his-tuyg'ularni tanish, aniq tajribalar asosida yetkazishga imkon beradi. Ushbu misollarda sochlarga nisbatan rangning metaforik ishlatilishi bizga qarish va donolik g'oyalarini tushunish va yetkazishga yordam beradi. "Tilshunoslar va faylasuflar metafora inson idrokida markaziy o'rinni egallashiga kuchli dalil keltirgan. Shuningdek erta yoshdagi bolalarda metaforik fikrlashni tadqiq qilish, tillar o'rtasidagi metafora ifodasi qonuniyatlarini aniqlash, metafora murakkabliklarini yuzaga chiqarish metodologiyalarini yaratdilar"[1].

Ingliz tilidagi "knock someone's socks off" va o'zbek tilidagi "Og'zini ochib qo'ymoq" paremlarini tahlil qilaylik:

1. Metaforik elementlar:

- Har ikkala parema ham majoziy ifodadir. Muayyan tushunchani yetkazish uchun ular jonli va xayoliy metaforalardan foydalanadilar. Ingliz tilida "birovning paypog'ini yechish" metaforik ma'noda kimnidir hayratga soladigan yoki hayratlantiruvchi ma'noni anglatadi, shunda ularning paypoqlari majoziy ma'noda yechiladi. O'zbek tilida xuddi shu tushunchani ifodalash uchun "og'zini ochib qo'ymoq" metaforasidan foydalaniladi.

2. Jismoniy va kognitiv tushunchalarning uyg'unligi:

- Bu paremlar jismoniy va kognitiv elementlarni o'zida birlashtiradi. Ingliz tilida ibora "knock" (urish) jismoniy harakatni hayrat yoki hayratning kognitiv tushunchasi bilan birlashtiradi. Xuddi shunday, o'zbek tilida "Og'zini ochib qo'ymoq"da "ochish" harakatida tashqi jismoniy faollik yo'q, hayratga tushiruvchi hechqanday jismoniy kontaktsiz amalga oshiriladi.

3. Hissiy ta'sir:

- Ikkala ibora ham hissiy ta'sir yaratish uchun ishlatiladi. Ular chuqur taassurot qoldirish, hayratlanish yoki hayratga tushish tajribasini yorqin tasvirlaydi.

Metaforalarni tanlash ifodaning hissiy tomoniga chuqurlik va shiddat qo'shadi.


4. Madaniy farqlar:

-Bu iboralar o'xshash tushunchalarni yetkazish uchun ishlatiladigan metaforalardagi madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Ular tinglovchilarning kognitiv va hissiy jarayonlarini o'z ichiga olgan til egalarining madaniy jihatlaridan mos tarzda shakllangan. Paypoq so'zi o'zbek tilida ijobiy ottenkaga ega emas, ammo inglizlarda yangi yil bayramida paypoq ichiga sovg'a solish odati mavjud. Bunda ham paypoq hayratlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqida esa og'zingni yum, og'zing ochilmasin kabi iboralar hayratlanishni to'xtatishda beriladigan buyruqlardir. Demak paypoq inglizlarda, og'iz o'zbeklarda bir xil kognitiv tushunchani berishda qo'llaniluvchi ikki xil so'zlardir.

Konseptual bog'lash nazariyasi Gilles Fauconnier va Mark Tyorner tomonidan ishlab chiqilgan [1]. Ushbu nazariya odamlar tilni tushunish va aqliy bo'shliqlarni yaratishda yuzaga keladigan bog'lash va integratsiyaning kognitiv jarayonlarini o'rganadi. Bu yangi ma'nolar, g'oyalar va tushunchalarni yaratish uchun turli xil aqliy bo'shliqlarni yoki konseptual sohalarni birlashtirish yoki aralashtirishni o'z ichiga oladi. "Bizning o'ylash usulimiz"[1] asari shu nazariyaga bag'ishlangan va uning amaliy tahlilini yoritib bergan. Kognitiv stilist olimlar tomonidan ong maydoni nazariyasi [4] konseptual bog'lash atamasiga muqobil sinonim sifatida qo'llaniladi. "Bizning o'ylash usulimiz" asarining "Bog'lash elementlari" deb nomlangan uchinchi bobi ushbu nazariyani amaliy jihatdan yanada chuqurroq tushunishimizga yordam beradi. "Aqliy bo'shliqlar – o'ylash yoki gapirish jarayonida tilning tushunarli bo'lishi uchun tuzilgan konseptual to'plamlar"[5]. Bu bo'shliqlarni to'ldirish asarda quyidagicha grafika qilanadi.

2.2-rasm.

Aqliy boshliqlarning o'zaro aloqaga kirishuvi.



[5]

Konseptual bog‘lash bir vaqtning o‘zida bir nechta aqliy bo‘shliqlarni faollashtirishni o‘z ichiga oladi, ularning har biri boshqa konseptual sohani ifodalaydi. Ushbu sohalarni bilim, tushuncha va tajribalarni o‘zida jamlaydigan kognitiv tuzilmalar deb hisoblash mumkin. Bog‘lash jarayonida turli ong bo‘shliqlaridagi elementlar tanlanib yangi “bog‘lash” kombinatsiyalarini yaratadi. Bog‘lash maydoni manba bo‘shliqlaridan farqli ravishda o‘zining paydo bo‘lgan tuzilishiga ega. Ushbu yangi tuzilma yangi tushunchalar va g‘oyalar paydo bo‘lishiga imkon beradi. Konseptual bog‘lash faqat til bilan cheklanmaydi, balki til, tasviriy san‘at, matematika, muammolarni hal qilish va ijodkorlik kabi turli sohalarida faoliyat yuritadigan umumiy kognitiv jarayondir. Lingvistik kontekstlarda konseptual bog‘lanish metaforik fikrlash qanday paydo bo‘lishini va turli sohalaridagi elementlar murakkab yoki mavhum g‘oyalarni yetkazish uchun bog‘langanda lingvistik ijodkorlik qanday paydo bo‘lishini tushuntirishga yordam beradi. Bu jarayon inson tafakkuri va ifodasining asosini tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan nazariyalarga asoslangan holda konseptual "Robotik ishchi" bog‘lanmasini ko‘rib chiqaylik. Ushbu bog‘lanish konseptsiyada biz robotning xususiyatlarini ishchining roli va atributlari bilan birlashtiramiz.

1. Aqliy bo‘shliqlar:

- Aqliy makon 1: "Robot" (Sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish imkoniyatlariga ega mashinalar bilan bog‘liq konseptual soha)

- Aqliy makon 2: "Ishchi" (topshiriqlarni bajarish va ishchi kuchiga hissa qo‘shish uchun ishlaydigan shaxslar bilan bog‘liq konseptual soha)

2. Tanlangan proyeksiya:

- Aqliy makon 1: Robotdan biz avtomatlashtirish, aniqlik va vazifalarni charchoqsiz bajarish qobiliyati bilan bog‘liq elementlarni loyihalashtiramiz.

- Aqliy makon 2: Ishchidan biz bandlik, inson mehnati va mehnatga hissa qo‘shuvchi jamiyat a‘zosining roli bilan bog‘liq elementlarni loyihalashtiramiz.

3. Bog‘lanishning paydo bo‘lishi:

- Yangi paydo bo‘lgan bog‘lanish "Robot ishchi" tushunchasidir. Ushbu aralash konseptsiyada biz turli sohalarida ishchi rolini o‘z zimmasiga oladigan robotni tasavvur qilamiz. Ushbu robot ishchining vazifalarini avtomatlashtirish, aniqlik va samaradorlik bilan bajarishga qodir, xuddi inson ishchisiga o‘xshaydi, lekin charchoq yoki dam olish kabi cheklolarga ega emas.

4. Uyg‘unlashtirish.

- Bog‘lash doirasida ikkala manba bo‘shliqlaridagi elementlar izchil konseptsiyani yaratish uchun xaritaga tushiriladi va birlashtiriladi. Integratsiya robotning fazilatlarini ishchining atributlari bilan birlashtirishni o‘z ichiga oladi, natijada vazifalarni mustaqil tarzda bajara oladigan qobiliyatli va ishonchli ishchi paydo bo‘ladi.

Ushbu konseptual bog‘lash robotlar sohasida avtomatlashtirish va yuqori aniqlikda faoliyat olib boradigan an‘anaviy ishchi o‘rnini egallagan yangi ishchi kuchini paydo qiladi. Yani robotlar mehnat bilan bog‘liq turli vazifalarni, xususan, aniqlik talab qilinadigan va takroran bajariladigan mehnat sohalarida ish faoliyatini o‘z zimmalariga oladi degan g‘oyasini ifodalaydi. Konseptual bog‘lashlarning oxirgi bosqichi ongimizda integratsiyalashadi va bu konseptual uyg‘unlik deb ataladi. "Konseptual bog‘lash va uyg‘unlashtirish tarmoqlari aqliy bo‘shliqlar tarmoqlarida paydo bo‘ladi. Asosiy diagrammada tasvirlangan to‘rtta aqliy bo‘shliq mavjud: ikkita kirish, umumiy bo‘shliq va bog‘lash. Konseptual integratsiya tarmoqlari bir nechta kirish joylari va hatto bir nechta aralash bo‘shliqlarga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fauconnier G, Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending And The Mind's Hidden Complexities. – United Kingdom: Basic Books, 2008.
2. Fauconnier G. Mappings in Thought and Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997.
3. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/>
4. Gavins J. Text World Theory: An Introduction. – United Kingdom: Edinburgh University Press, 2007.
5. https://books.google.co.uz/books/about/The_Way_We_Think.html?id=zf83DgAAQBAJ&printsec=frontcover&source=kp_read_button&hl=en&newbks=1&newbks_redir=0&gboemv=1&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Sidiqov Qosimjon Abilovich
Namangan davlat universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
qosimjon1977@mail.ru
Parpibayev Botirali Raximjon o'g'li
Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi
botiraliparpibayev4@gmail.com

MAQOLLAR TARJIMASI – MUKAMMAL IJOD JARAYONI

Annatsiya: Maqola O'zbekistonda eng qadimiy turkiy yozma yodgorliklardan biri bo'lgan "Qutadg'u bilig" asarida berilgan ikkita maqolning R.Denkoff tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasidagi muammolar haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: kontekst, maqol, davlat, bilim, ibora, obraz.

Сидиқов Қосимжон Абилович
Наманганский Государственный Университет
Кандидат филологических наук, доцент
Парпибаев Ботирали Рахимжон угли
Наманганский Государственный Университет
независимый исследователь докторант

ПЕРЕВОД ПОСЛОВИЦ – СОВЕРШЕННЫЙ ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС

Аннотация: Статья рассматривает проблемы перевода двух пословиц из произведения "Кутадгу Билиг", одного из древнейших тюркских письменных памятников, на английский язык, выполненного Р. Денковым.

Ключевые слова: контекст, пословица, государство, знание, фраза, образ.

Sidiqov Qosimjon Abilovich
Namangan State University
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
Parpibayev Botirali Raximjon's son
Namangan State University
independent researcher PhD student

TRANSLATION OF PROVERBS – A PERFECT CREATIVE PROCESS

Annotation: The article examines the problems of translating two proverbs from the work "Kutadgu Bilig", one of the oldest Turkic written monuments, into English, made by R. Denkoff.

Keywords: context, proverb, state, knowledge, phrase, image.

Kirish.

"Qutadg'u Bilig" – Yusuf Hos Xojibning o'z zamonining ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini chuqur o'z ichiga olgan bebaho asaridir. Ushbu asar, nafaqat o'z davrining, balki hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan maqollar bilan boyitilgan bo'lib, inson hayoti, axloqiy me'yorlar va bilimning ahamiyati haqida chuqur va ma'rifatli fikrlarni ifodalaydi. Maqollar, asosan, xalqning dono fikrlarini va hayotiy tajribalarini aks ettiradi, bu esa bizga o'zimizni va atrofimizdagi murakkab dunyoni

yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi. "Qutadg'u Bilig" dagi maqollar, zamonaviy hayotda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashda, ularning axloqiy va ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu asar orqali biz nafaqat o'zimizni, balki jamiyatimizni ham yaxshilash uchun zarur bo'lgan bilim va tajribalarni olamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qadimgi turkiy davlatchilik va adabiyotning buyuk namoyondasi, mutafakkir Yusuf Xos Hojib chin ma'noda

soʻz san'atining ustasi hisoblanadi. Uning asrlar davomida oʻz ahamiyatini yoʻqotmay, butun dunyo ilm-fan ahlini oʻziga jalb etayotgan "Qutadgʻu bilig" asari, muallifning turkiy soʻz bilimidagi ustunligini yaqqol koʻrsatadi. Shoir asarda soʻzlardan shunday nozik va mahorat bilan foydalanadiki, oʻquvchi nafis soʻz san'atidan bahramand boʻladi. Misralar va baytlar kishini oʻziga tortadi va soʻzning buyuk kuchini namoyon etadi.

Tahlillar va natijalar.

Yusuf Xos Hojib "Qutadgʻu bilig"da maqollarga alohida e'tibor qaratadi va ulardan ustalik bilan foydalanadi. Professor B.Toʻxliiev "Qutadgʻu bilig" poetikasi haqida gapirib, soʻz takrorlarining ma'noni ifodalashdagi yetakchi oʻrinlardan birini egallashini qayd etadi[4.106].

"Qutadgʻu Bilig" asari ikki turkshunos olimlar R.Denkoff va U.Mey tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Turkshunos olim U.Mey bu nodir qoʻlyozmani she'riy tarzda tarjima qilingan. Biroq, bizning ilmiy tadqiqotimiz doirasida uning tarjimasiga murojaat qilishni lozim deb topmadik.

Asarda uchragan keng ma'noli maqollarning ingliz tiliga qanday tarjima qilinganligi va ularning mazmun butunligini oʻquvchiga yetkazib berish jarayonida, quyidagi maqollarda aks ettirilgan fikrlar va gʻoyalar, tarjima jarayonining murakkabligi va kontekstga mos ravishda ifoda etilishi muhim ahamiyatga ega boʻladi. Bu esa, oʻz navbatida, tarjimonning madaniy kontekstni hisobga olish, soʻzlarning koʻp ma'noliligini toʻgʻri anglash va oʻquvchining tushunish qobiliyatini oshirish maqsadida amalga oshirilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Asarda insoniylik mavzusida quyidagi maqol bor:

Kimning bolsa devlet uzadı elig,

ķamuğ tetrusi ong sözi öğ bilig.

Ajun feylesufi nengi bolmasa,

Neçe tildam erse ķışedi tilig. (3075-3076)

Q. Karimov tarjiması:

Кимнинг давлати бўлса, қўли узун бўлади,

Њамма тескариси ўнг, сўзи ақл, билим (бўлади).

Дунё файласуфи мол-дунёси бўлмаса,

Неча сўзамол бўлса (ҳам) тилини тияди. (3036-

3037)

Asaridagi ushbu maqol, davlat, bilim va aqldan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Umuman olganda, maqolda davlatning kuchi va uning ahamiyati, shuningdek, bilim va aqlning roliga e'tibor qaratilgan. Maqolning birinchi qismi davlatga ega bo'lishning qudratini ifodalaydi. Davlat kuchli bo'lsa, insonning imkoniyatlari kengayadi va u ko'p narsalarga erisha oladi. Ikkinchi qismida esa, aql va bilimning zarurligi haqida so'z yuritiladi. Aqlli odamlar har doim to'g'ri yo'lni tanlaydi va o'z fikrlarini aniq ifoda etadi. Uchinchidan, faylasuflar yoki bilimdonlarning moddiy narsalarga bog'liq bo'lmasligi kerakligi ta'kidlanadi. Ularning asosiy maqsadi bilim va tushuncha olishdir. Nihoyat, ko'p gapirish o'rniga, o'z

fikrini aniq va to'g'ri ifoda etish muhimligi urg'ulanadi. Shu tarzda, maqol davlat, bilim va aqldan foydalanishning ahamiyatini bir butun sifatida ko'rsatadi, bu esa insonlarni muvaffaqiyatga erishishga undaydi. Bilim va aql orqali inson o'z imkoniyatlarini kengaytiradi va hayotda o'z o'rnini topadi.

Uning R.Denkoff tomonidan qilingan tarjiması:

For a man has Fortune, his hand is long;

Now wise arc his words, and right is his wrong.

The philosopher, if he lacks for wealth.

Though eloquent once, now tied is his tongue.

Mazmuni:

Кишини давлати бўлса унинг қўллари узун,

Сўзлари доно хатоси ҳам тўғри.

Файласуф бўлса-ю бойлиги бўлмаса,

Нотиқ бўлган бўлса ҳам, энди тили ту-илган.

Bu maqolda R.Denkoffning ingliz tiliga tarjimasidagi ayrim tarjimaviy muammolarni ko'rib chiqishili mumkin. Har bir jumla bo'yicha muammolar tahlil qilindi:

1. "Кимнинг давлати бўлса, қўли узун бўлади"

R.Denkoffning tarjiması:

"For a man has Fortune, his hand is long."

Bu iboraning asl mazmuni boylik yoki hokimiyatga ega odamning kuchi yoki ta'siri katta bo'lishiga ishora qiladi. "Қўли узун бўлади" iborasi odatda, "kuchli ta'sirga ega bo'ladi" yoki "boshqalarga oson ta'sir o'tkaza oladi" degan ma'noni beradi. Ingliz tilidagi tarjimada bu fikr to'g'ri berilgan, ammo "his hand is long" ifodasi ingliz o'quvchisi uchun aniq ma'noni yetkazmasligi mumkin, chunki bu ingliz tilida keng qo'llaniladigan ibora emas va kontekstdan ajralgan bo'lib ko'rinadi.

2. "Њамма тескариси ўнг, сўзи ақл, билим (бўлади)"

R.Denkoffning tarjiması:

"Now wise are his words, and right is his wrong."

Bu qator juda murakkab tarjima qilingan. Asliyatda, ma'no shundan iboratki, boy yoki hokimiyatga ega bo'lgan odamning gaplari oqilona ko'rinadi va noto'g'ri bo'lsa ham to'g'ri deb qabul qilinadi. "Right is his wrong" ifodasi grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa ham, u asl fikrni to'g'ri aks ettirmaydi. Tarjima qilingan jumlada falsafiy jihat ko'rinib turibdi, ammo asl mazmun aniqroq bo'lishi kerak edi: odamning so'zlari noto'g'ri bo'lsa ham, uning boyligi yoki ta'siri tufayli to'g'ri deb qabul qilinadi.

3. "Дунё файласуфи мол-дунёси бўлмаса"

Inglizcha tarjiması:

"The philosopher, if he lacks for wealth."

Bu iboraning tarjiması mazmun jihatdan nisbatan to'g'ri, lekin so'z tanlashda noziklik yo'qolgan. Bu satr aslida boyligi bo'lmagan donishmandni tasvirlaydi, va tarjimada bu umumiy tushuncha aks ettirilgan. Biroq, "if he lacks for wealth" iborasi faqat umumiy boylig yetishmasligiga ishora qiladi, aslida esa bu jumla falsafiy bo'lib, dunyoqarashi keng bo'lgan kishining boyligi yo'q

bo'lsada, undagi donishmandlik yo'qolimasligi ifoda etiladi.

4. "Неча сўзамол бўлса (ҳам) тилини тияди"

Inglizcha tarjimasi:

"Though eloquent once, now tied is his tongue."

Ushbu tarjimada asosiy ma'no ancha o'zgartirilgan.

Asliyatda, boyligi yo'q odam, hatto dono va ko'p gapiradigan bo'lsa ham, o'z fikrini ochiq aytolmaydi, chunki uning boyligi yo'q. Inglizcha tarjimada "**now tied is his tongue**" degan ibora ishlatilgan, lekin bu ibora o'zbekcha asldagi "**tilini tishlab o'tirmoq**" degan ma'noni to'liq aks ettirmaydi. Bu satrda donishmandning tilini tiyishi, boylik yetishmasligi tufayli gapira olmasligi haqida so'z bormoqda, ammo inglizcha versiyada bu ma'noda yo'qotish bor.

Biz ham ushbu maqolga o'zimizning tarjimaviy muqobilimizni berib o'tdik:

"Whoever has wealth, their hand will reach far,

Everything turns out right, their words seem wise and knowledgeable.

Even if a philosopher lacks worldly possessions,

No matter how eloquent they are, they will hold their tongue." (P.B)

Asarda keltirilgan yana bir maqolni taxlil qilsak:

Köni söz açığ ol singürgil an,

Yarın asğı kelgey süçitgey sini.

Köni söz köngülke kör açığ irig,

Irig söz köni ol köni söz қани. (5777-5778)

Q.Karimov tarjimasi:

Тўғри сўз дағалдир, уни сингдиргин,

Эртага манфаати тегади, сени суюнтиради.

Тўғри сўз кўнгилга аччиқ, қаттиқ (ботади), кўр,

Дағал (яғни аччиқ) сўз тўғри (сўз) дир, тўғри сўз

қани (ўзи). (5651-52)

Ushbu maqolda to'g'ri so'zning ahamiyati va uning inson hayotidagi o'rnini ta'kidlaydi. Maqolning mazmuni shundan iboratki, to'g'ri so'z, garchi ba'zida achchiq va og'ir bo'lsa ham, insonning rivojlanishi va manfaatlari uchun zarurdir. To'g'ri so'zlar ko'pincha ko'ngilga og'ir tushadi, ammo ular insonni o'zini anglashga, o'z kamchiliklarini tan olishga va yaxshilanishga undaydi. Bunday so'zlar, shuningdek, hayotda to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi va insonni yanada kuchliroq qiladi. Aksincha, da'vo qilinadigan, lekin haqiqatdan yiroq bo'lgan so'zlar, insonni aldaydi va uni noto'g'ri yo'lga boshlaydi. Ular vaqtinchalik quvonch keltirishi mumkin, ammo uzoq muddatda zarar yetkazadi. Shuning uchun, to'g'ri va da'volar bilan to'la bo'lgan so'zlarni qabul qilish muhimdir. Umuman olganda, bu misralar insonni haqiqatni qabul qilishga, to'g'ri yo'lni tanlashga va ezgu ishlar qilishga undaydi. To'g'ri so'zlar orqali inson o'zini rivojlantiradi va hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishadi.

R.Denkoffning tarjimasi:

Truth is bitter food,

And difficult to eat;

Swallow the bitter pill,

For it shall make you sweet.

Mazmuni:

Haqiqat achchiq ovqat kabidir,

Uni chaynash azobdir.

Achchiq dorini yutgin,

Va u senga shifo bo'ladi.

Tarjimadagi muammolarni yoritishda, asliyat va tarjima mazmunidagi farqlarga e'tibor qaratish lozim. Bu yerda maqolning ingliz tiliga tarjima qilinayotganda bir necha jihatlar hisobga olinmagan.

1. So'zlarning ko'chma ma'nosi: O'zbek tilida "**to'g'ri so'z**" deyilganida haqiqat yoki rost so'z nazarda tutiladi. Tarjimada esa bu jihat to'liq aks ettirilmagan. Masalan, "**Truth is bitter food**" qismi "**to'g'ri so'z dag'aldir**" iborasini ifoda qilmoqchi bo'lgan, lekin "**food**" (oziq-ovqat) so'zi metaforik jihatdan unchalik mos kelmaydi. Bu o'rniga, "**Truth is harsh**" yoki "**Truth is bitter and hard to accept**" kabi iboralar yanada tabiiy bo'lar edi.

2. Ibora va obrazlardagi farqlar: O'zbek maqolida "**to'g'ri so'z ko'ngilga achchiq, qattiq botadi**" degan ibora qo'llanilgan. Bu, haqiqatning ko'ngilni og'ritishi, ammo oxirida foyda keltirishi haqida. Tarjimada esa "**Swallow the bitter pill**" iborasi ishlatilgan. Ingliz tilida bu ibora mavjud va to'g'ri tarjima bo'lib tuyuladi, lekin bu o'zbekcha asliyatga yaqinlashmaydi. Asliyatda "**botadi**" degan so'z ichki his-tuyg'uni ifodalaydi, lekin "**pill**" (tabletka) iborasi esa fiziologik jarayonni tasvirlaydi. Bu ma'nodagi nozik farqlarni hisobga olish kerak.

3. Foyda va manfaat haqida: O'zbekcha maqolda "**ertaga manfaati tegadi**" degan jumla bor. Bu jumlada haqiqat achchiq bo'lsa-da, kelajakda inson uchun foyda keltirishi ta'kidlangan. Ingliz tilidagi tarjimada bu jihat o'z aksini to'liq topmagan, shunchaki "**For it shall make you sweet**" deyiladi, lekin bu "**manfaat keltirish**"ga to'g'ri kelmaydi. "**In the long run, it will benefit you**" kabi ibora yaxshiroq bo'lishi mumkin edi.

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda, bu maqolni aniqroq va mazmuniga yaqinroq qilib quyidagicha tarjima qildik:

"Truth is harsh and bitter, but accept it, for in the long run, it will benefit you and bring you joy."

Xulosa.

R. Denkoff tarjimasida bu maqollarning umumiy mazmuni berilgan bo'lsa ham, tarjimada muayyan muammolar mavjud. Xususan, ba'zi iboralar va madaniy tushunchalar ingliz tilida to'liq aks ettirilmagan yoki noto'g'ri ifoda qilingan. Masalan, "**қўли узун бўлмоқ**" kabi iboralar yoki "**noto'g'ri to'g'ri bo'lib ko'rinadi**" kabi fikrlar ingliz tiliga tarjima qilinganda ma'nosi noaniq bo'lib qolgan. Tarjimaning kontekst va madaniy ma'nolarni to'liq yetkazishi uchun yanada chuqurroq tahlil va iboralar ustida ishlash talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Исомиддинов З. Яқин туркий тиллардан шеърий таржима хусусиятлари. ("Манас" эпоси таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 1991. – 22 б.
2. Расулий М. Ўзбек адабиётидан рус тилига қилинган таржималарга бир назар // Таржима санъати: мақолалар тўплами. – Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б. 114-117.
3. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 222 б.
4. Тухлиев Б. Вопросы поэтики "Кутадгу билиг" Юсуфа Хас Хаджиба. – Т.: Аср-матбуот, 2004. – 214 с.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 12-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2002.
6. Ҳаққул И. Эътиқод ва ижод. – Т.: Фан, 2007. – 248 б.
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971.
8. Denkoff R. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, University of Chicago Press, 1983.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Usmanova Nilufar

Senior teacher, English Integrated Language Teaching Course 2
Uzbekistan State World Language University

PRAGMATIC ANALYSIS OF VAGUE LANGUAGE

Abstract. This article describes vague language through a pragmatic lens, examining how speakers use it to achieve specific communicative goals. By reviewing key theoretical perspectives and analyzing real-world conversational data, the article demonstrates how vague language facilitates cooperation, mitigates face-threatening acts, and provides flexibility in meaning. This pragmatic approach to vague language highlights its essential role in effective communication. Vague language, characterized by indeterminate or imprecise expressions, is a pervasive feature of everyday communication. While it might seem to hinder clarity, vague language serves important pragmatic functions, such as promoting politeness, softening statements, managing uncertainty, and maintaining conversational flow.

Keywords: Vague language, pragmatics, politeness, communication, conversational cooperation, face-saving, indirectness.

Usmonova Nilufar

Katta o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

NOANIQ TILNING PRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada noaniq til pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinib, gapiruvchilar uni ma'lum kommunikativ maqsadlarga erishish uchun qanday qo'llashlari o'rganiladi. Asosiy nazariy yondashuvlar tahlili va voqelikdagi muloqot ma'lumotlari asosida maqolada noaniq til o'zaro hamkorlikni osonlashtirishi, munosabatlarni yumshatishi va ma'noda elastiklikni ta'minlashi ko'rsatiladi. Noaniq tilga bo'lgan bu pragmatik yondashuv uni samarali muloqotda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Noaniq yoki aniq bo'lmagan ifodalar bilan xarakterlanadigan noaniq til kundalik muloqotning tarqalgan xususiyatidir. U suhbatdagi aniqlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lsa-da, noaniq til muhim pragmatik vazifalarni bajaradi, masalan, hurmatni saqlash va muloqotning uzluksizligini ta'minlash.

Kalit so'zlar: Noaniq til, pragmatika, hurmat, muloqot, suhbatdagi hamkorlik, bilvosita ifoda.

Усманова Нилуфар

Старший преподаватель 2 курса интегрированного преподавания английского языка
Узбекский государственный университет мировых языков

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕОПРЕДЕЛЁННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье рассматривается неопределённый язык с прагматической точки зрения, исследуя, как говорящие используют его для достижения определённых коммуникативных целей. Путём обзора ключевых теоретических подходов и анализа данных реальных разговоров, статья демонстрирует, как неопределённый язык способствует сотрудничеству, смягчает угрозы лицу и предоставляет гибкость в значениях. Прагматический подход к неопределённому языку подчеркивает его важную роль в эффективной коммуникации. Неопределённый язык, характеризующийся неясными или неточными выражениями, является повсеместной чертой повседневного общения. Хотя он может показаться препятствием для ясности, неопределённый язык выполняет важные прагматические функции, такие как содействие вежливости, смягчение утверждений, управление неопределённостью и поддержание непрерывности разговора.

Ключевые слова: неопределённый язык, прагматика, вежливость, коммуникация, кооперация в разговоре, сохранение лица, косвенность.

Introduction.

Vague language, often viewed as imprecise or a sign of linguistic laziness, actually plays a vital role in natural communication. It provides flexibility, enabling speakers to

navigate social interactions more smoothly and avoid conflict. Phrases like "sort of," "a bit," "around," "something like that," and "whatever" are commonly used in both spoken and written language. These expressions not only

signal uncertainty or generalization but also help to maintain politeness, manage potentially face-threatening situations, and foster cooperative communication.

Pragmatics, the study of language use in real-world contexts, offers insight into why speakers choose vague language. From this perspective, vagueness is not a communication flaw but rather a deliberate strategy that reflects the speaker's intentions, the relationship between those involved, and the context of the conversation. Vague language allows speakers to soften requests, minimize the chances of disagreement, and create a sense of inclusivity or mutual understanding.

Literature review.

Vague language has been studied extensively within the field of pragmatics due to its widespread use in everyday conversation. Channell (1994) provides a comprehensive definition of vague language as expressions that lack precision or offer general information. According to Channell, vague language allows speakers to remain flexible, especially when exact information is either unavailable or unnecessary. This flexibility helps speakers manage interpersonal relationships by avoiding overly direct or confrontational language.

Crystal and Davy (1975) describe vague language as a hallmark of informal conversation, noting that it helps to reduce the cognitive load on both speakers and listeners. In casual conversations, providing precise information is often unnecessary, and vague language can facilitate a smoother flow of discourse. This perspective aligns with the idea that vague language functions as a conversational lubricant, reducing the risk of misunderstandings and promoting social harmony.

Vague language can be analyzed through the lens of Grice's (1975) Cooperative Principle, which suggests that successful communication relies on speakers following certain conversational maxims: Quantity, Quality, Relation, and Manner. The maxim of Quantity, for example, dictates that speakers provide an appropriate amount of information—not too much and not too little. Vague language often allows speakers to follow this maxim by providing enough information to maintain the conversation without overburdening the listener with excessive detail.

At first glance, vague language may seem to violate the maxim of Manner, which emphasizes clarity and the avoidance of ambiguity. However, in many contexts, vagueness can actually enhance clarity by preventing unnecessary precision that could confuse or overwhelm the listener. Cutting (2007) argues that vague language often strikes a balance between Grice's maxims, fulfilling conversational goals while maintaining the cooperative nature of dialogue.

Vague language is frequently employed as a politeness strategy, especially in contexts where directness might be perceived as too harsh or confrontational. Brown

and Levinson's (1987) Politeness Theory posits that speakers use face-saving strategies to mitigate the potential for face-threatening acts (FTAs). Vague language allows speakers to soften their statements, reduce the force of requests, or hedge their opinions in ways that make their communication more socially acceptable.

For example, rather than directly saying, *"I disagree,"* a speaker might say, *"I sort of see it differently,"* which mitigates the face-threatening impact of the disagreement. Similarly, vague expressions like *"maybe," "kind of,"* or *"a bit"* can help speakers manage their interlocutors' expectations or reactions, making the conversation more collaborative and less confrontational. Lakoff (1973) further notes that vagueness and approximation allow speakers to show deference or politeness, particularly in hierarchical relationships.

Sperber and Wilson (1986) introduced Relevance Theory as a framework for understanding how speakers convey meaning in context. According to Relevance Theory, communication is not just about conveying information but about balancing cognitive effort and communicative effect. Vague language plays a significant role in this process by allowing speakers to provide sufficient information for the listener to infer the intended meaning without overloading them with unnecessary specifics.

Methodology.

This study employs a qualitative approach to explore the pragmatic functions of vague language in real-world conversations. The data for analysis were collected from naturalistic spoken interactions in both formal and informal settings. These include conversations recorded in professional environments (e.g., business meetings) and casual exchanges between friends or family members.

Discussions.

One of the key findings from the data analysis is that vague language is frequently used as a politeness strategy to mitigate face-threatening acts (FTAs). In both formal and informal contexts, speakers employed vague expressions to soften the impact of potentially confrontational statements or requests. For example, when giving feedback in a business meeting, a manager might say, *"There are kind of a few areas we could improve,"* rather than pointing out specific shortcomings. This use of vagueness allows the speaker to avoid sounding overly critical while still addressing the issue at hand.

In interpersonal relationships, vague language serves a similar function by helping speakers avoid direct confrontation. When discussing sensitive topics, speakers often use vague expressions to downplay the seriousness of the issue or to provide room for negotiation. For instance, saying *"I think we might need to rethink this a bit"* is less direct and less face-threatening than saying, *"This is wrong, and we need to change it."*

Vague language is also commonly used to manage uncertainty or to provide flexibility in communication. In situations where the speaker does not have precise information or where exactness is unnecessary, vague expressions allow for conversational flow without the need for clarification or correction. For example, in casual conversation, saying “We’ll meet around lunchtime” provides enough information for the listener to understand the general time frame without requiring a specific time.

This use of vague language aligns with Grice’s maxim of Quantity, as speakers provide enough information for the conversation to proceed without overloading the listener with irrelevant details. The flexibility offered by vague language also allows interlocutors to adapt their interpretations based on the context, making communication more fluid and cooperative.

Vague language fosters cooperation by allowing speakers to maintain conversational flow and avoid disrupting the interaction with unnecessary precision. In group settings, vague expressions often serve to build consensus or to accommodate differing perspectives. For instance, when discussing plans, one participant might say, “We’re thinking about doing something like a team-building event,” leaving room for others to contribute ideas or suggest alternatives. The vagueness in this statement encourages participation and signals that the speaker is open to input.

This cooperative function of vague language is particularly evident in professional environments, where speakers often use vagueness to navigate complex decision-making processes. By avoiding overly specific or rigid proposals, speakers create opportunities for collaborative problem-solving and negotiation.

The analysis also reveals that vague language is often used to manage power dynamics and social

hierarchies in communication. In formal settings, subordinates may use vague expressions when addressing superiors to avoid sounding too assertive or confrontational. For example, an employee might say, “I’m not sure, but it could be something to look into” when offering a suggestion to a manager. This indirectness helps to maintain the power dynamic while still allowing the employee to contribute to the conversation.

Similarly, superiors may use vague language to soften directives or feedback, thereby fostering a more positive working environment. This was observed in conversations where managers used phrases like “maybe we could think about adjusting this” rather than issuing direct commands. The vagueness in these statements reduces the likelihood of resistance or defensiveness from the listener.

Conclusion.

Vague language plays a vital role in communication, serving as a pragmatic tool that helps speakers navigate social interactions, manage uncertainty, and maintain politeness. Far from being a sign of linguistic imprecision, vague language is a strategic resource that allows speakers to achieve specific communicative goals, such as softening requests, avoiding face-threatening acts, and fostering cooperation. The findings of this study highlight the importance of vague language in both formal and informal contexts, demonstrating its flexibility and utility in various communicative settings.

Future research could explore the use of vague language in specific professional or institutional contexts, such as legal or medical communication, where precision and politeness must be carefully balanced. Additionally, cross-cultural studies would provide valuable insights into how vague language is used and interpreted in different linguistic and cultural environments.

References:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
2. Channell, J. (1994). *Vague Language*. Oxford University Press.
3. Crystal, D., & Davy, D. (1975). *Advanced Conversational English*. Longman.
4. Cutting, J. (2007). *Vagueness in Conversation*. Palgrave Macmillan.
5. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41-58). Academic Press.
6. Jucker, A. H., Smith, S. W., & Ludge, T. A. (2003). Vague Language in Spoken Discourse. *Journal of Pragmatics*, 35(2), 134-152.
7. Lakoff, R. (1973). The Logic of Politeness: Or, Minding Your P’s and Q’s. *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society*, 292-305.
8. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). *Relevance: Communication and Cognition*. Blackwell.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xolova Muyassar Abdulhakimovana
Termiz davlat universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrası dots.v.b.
filologiya fanlari falsafa doktori
orcid: 0000-0002-7604-2958
xolovam@tersu.uz

O'ZBEK TILI DILAETAL LUG'ATIDA QIPCHOQ LAHJASI TARJIMASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada onlayn lug'at ma'lumotlar bazasidagi qipchoq lahjasining tutgan o'rni, interfeysi hamda uning ingliz tiliga doir tarjimalar borasida nazariyalar Surxondaryo viloyatining tuman shevalari misolida o'z ifodasini topgan. Ekspeditsiyalarning bir qancha metodlar vositasida olib borilishi (grafik tavsif, kuzatish usuli, dialektlar semasi dekod referati, dialekt tarjimalari muqobil usuli) doirasida fikrlashilgan. 500dan ortiq leksemaning tarjimasi hamda ularning onlayn dialekt lug'atlari ma'lumotlar bazasidagi akslanishi haqida bayonet berilgan hamda xulosa sifatida fonetik variantlilikda to'g'ridan to'g'ri tarjima, adabiy norma farqliligida dialektning variantlari tarjimasi izohlar bilan beriishi, tub aholining turmush tarzini ko'rsatuvchi [lakunalarning] ingliz tiliga tarjimasiz kiritilishi kerak degan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: dialektal korpus, dialekt lug'at; dialekt bazalari; dialekt tarjimasi; dialekt onlayn ma'lumotlar bazalari, muqobil tarjima.

Муюссар Холова
orcid: 0000-0002-7604-2958
(PhD) Кафедра узбекского языкознания
Термезского государственного университета

ПЕРЕВОД КИПЧАКСКОГО ДИАЛЕКТА В ДИАЛЕКТАЛЬНОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Абстракт. В данной статье на примере районных говоров Сурхандарьинской области изложены теории о роли кыпчакского диалекта в онлайн-словарной базе, его интерфейсе и переводах на английский язык. Рассмотрено проведение экспедиций с использованием нескольких методов (графическое описание, метод наблюдения, отчет о расшифровке диалектной схемы, альтернативный метод диалектного перевода). Приведен перевод более 500 лексем и их отражение в базе онлайн-диалектных словарей, а в качестве заключения - прямой перевод в случае фонетической вариации, перевод диалектных вариантов в отличие от литературной нормы с комментариями, образ жизни. коренного населения высказано предложение вставить ориентировочные [лакуны] без перевода на английский язык.

Ключевые слова: диалектный корпус, диалектный словарь; диалектные основы; диалектный перевод; диалектные онлайн-базы данных, альтернативный перевод.

Muyassar Kholova
orcid: 0000-0002-7604-2958
(PhD) Department of Languages
Termez State University

TRANSLATION OF THE KYPCHAK DIALECT IN THE DIALECTAL DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. In this article, using the example of regional dialects of the Surkhandaryya region, theories are presented about the role of the Kipchak dialect in the online dictionary database, its interface, and translations into English. The article considers the conduct of expeditions using several methods (graphic description, observation method, report on decoding the dialect scheme, alternative method of dialect translation). The translation of more than 500 lexemes and their reflection in the database of online dialect dictionaries are given. As a conclusion - a direct translation in the case of phonetic variation, translation of dialect variants in contrast to the literary

norm with comments, lifestyle. of the Indigenous population, a proposal was made to insert indicative [gaps] without translation into English. Keywords: dialect corpus, dialect dictionary, dialect bases, dialect translation, dialect online databases, alternative translation.

Keywords: *dialect corpus, dialect dictionary; dialect stems; dialect translation; dialect online databases, alternative translation.*

Jahon tilshunosligida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini raqamli axborot vositalaridan ayri tasavvur qilish qiyin. Zamon talabidan kelib chiqib lingvist olimlar tadqiqot olib borish nazariyalarini tasdiqlovchi misollarni kitoblardan terib uzoq vaqt yo'qotishni ishtashmaydi. Demak bu kabi ilmiy ehtiyojni qondiruvchi lug'atlar ishlab chiqish kerak. Shuningdek tilshunoslikning leksikografiyasida sohasida yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj onlayn shakldagi elektron lug'atlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi va bu kabi elektron til bazalar o'z faoliyatida "yashab" qolish uchun kitob shaklidagi lug'atlaridan imkoniyatlari keng bo'lishini soha talabi edi.

Bilamizki, dialektlarni o'rganish, tadqiq etish uchun qishloq hududlariga ekspeditsiyalar tashkil qilinadi. Mahmud Qoshg'ariy shunday sayohatlari davomida turkiy tillar va ularning tarkibidagi dialektlarni tasniflar ekan, ularning lingvistik yoki geografik belgilar asosida emas, ularning etnik xususiyatlariga tayangan holda tasniflagan⁴⁶. Qishloq infratuzilmasidagi o'zgarishlarning tilga ta'sir doirasi, ommaviy axborot-kommunikatsiya, telefon, internet va hokazolarning etnik aholi tilidagi shevaning sayqallanayotganligi, adabiy tilning asta-sekin shevaning yo'qolib ketishiga sabab bo'layotganligi, keksa avlod tilida saqlanib turgan sheva elementlarining hamda hozirga qadar shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan dialektal ma'lumotlarni o'zida jamlagan yagona dialektologik bazani tuzishni dolzarb masala sifatida ko'ndalang qo'ymoqda. Natijada tilda mavjud dialektlarni nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan tadqiq etish, bu orqali sheva birliklarini saqlab qolish, avloddan avlodga yetkazish imkoniyatining ko'lamini kengaytmoqda va milliy til korpuslarida sheva birliklarini lingvistik aniqlashning umumiy tamoyillarini o'rganish hamda ishlab chiqishning amaliy ahamiyati oshmoqda. Til elementlarini bir joyga to'plash va til korpuslari ustida izlanishlar olib borilgani xususida tadqiqot tajribalariga murojyat qilsak, 2018 yilda ingliz lahjalari ilovasi (EDA) va ingliz dialektlari ilova korpusini (EDAC) taqdim etilganligini ko'rish mumkin. Buning uchun android qurilmasi uchun ilova ishlab chiqiladi va Buyuk Britaniyada istiqomat qiluvchi aholining 47 000 ming nafari tanlangan 26 ta so'zning o'z hududlariga tegishli variantlarini belgilashgan.

Shuningdek 3500 dan ortiq respondent shu dialektlar qatnashgan audio yozuvlarni taqdim etishgan va dialektning qo'llanish doirasi haqida xulosaga kelingan⁴⁷. Arab dialektlari bazasi doirasida Farhan W. neyron mashinada boshqaruvsiz arab dialektal tarjima bo'yicha o'z ishlarini taqdim etgan. Unda dialekt parallel o'quv korpusida aks etmaydi va mazkur amaliyot uchun ikkita tizim: birinchisi dialektidan standart til (adabiy til)ga tarjima modeli; ikkinchi tizim esa Google NMT (GNMT) tizimiga asoslangan. Albatta, muallif tizimlarni, avvalo, nazorat ostidagi muhitda baholashini, ya'ni parallel korpuslar Iordaniya va Zamonaviy Standart Arab tili (MSA) yordamida leksemalar qiyosi amalga oshirilishini, shundan so'ngina avtomatik tarjima muhitga o'tkazilishi maqsadga muvofiqligini aytib o'tadi⁴⁸. Kaddoura S. dialektlarning ijtimoiy tarmoqdagi tutgan o'rniga baho berar ekan, shevaning adabiy tilga nisbatan ta'sir doirasi kengroq bo'lishini ta'kidlaydi. Boshqir lingvistikasining dialektologik korpus tuzish tajribasida dialektal bazalarning turlligining oldini olish uchun amaliyotni uch yo'nalishda: leksikologik baza, dialektal kartalar yig'ilmesi, dialektal matnlar bazasi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Olim rahbarlik qilgan ilmiy loyiha dialektal birliklarni fonetik, semantik hamda morfologik dialektizmlarning tahliliga qaratilgan bo'lib, unda 52000 dialektal til birliklarining tahlili aks etgan⁴⁹.

Uzbek lingvistikasida esa tilni korpusga joylash bo'yicha amaliy ishlar sifatida o'zbek elektron korpusida⁵⁰ turli lingvistik sathdagi lingvistik modellari shlab chiqilgan⁵¹, o'zbek tili ta'limiy korpusida⁵² esa o'zbek tili o'quv ta'limi doirasida barcha birliklarning morfologik annotatsiyalangan korpusi ustida tadqiqot olib borilgan⁵³, shuningdek, o'zbek tili yordamchi birliklar bazasi⁵⁴ ustida olib borilganligi tahsinga sazovor.

Tilning dunyostandardlariga olib chiqishning o'ziga xos shartlari bor. Shulardan biri til o'zining turli sathlarda lingvistik annotatsiyalangan korpusi quyidagi shakllangan bazalarga ega bo'lishi kerak:

- a) Tilning fonetik bazasi⁵⁵;
- b) Tilning semantik bazasi;
- c) Tilning morfologik bazasi;
- d) Tilning dialektologik bazasi;

⁴⁶ Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent. 1962.

⁴⁷ Leemann A., Kolly M., Britain D. The English Dialects App: The creation of a crowdsourced dialect corpus

(2018) *Ampersand*, 5, pp. 1 - 17, Cited 34 times. DOI: 10.1016/j.amper.2017.11.001

⁴⁸ Wael, Farhan. "Unsupervised dialectal neural machine translation." *Information Processing and Management*, vol.57, no. 3, May.2020. <https://doi.org/10.1016/j.ipm.2019.102181>

⁴⁹ Sirazitdinov, Zinnur A. Dialectological base of the machine fund of the bashkir language as a tool for research bashkir dialect continuum, *Oriental Studies*, vol 23, no 1, pp. 212 – 219. 2016. <https://doi.org/10.22162/2075-7794-2016-23-1-212-219>

⁵⁰ <https://uzbekcorpus.uz/>

⁵¹ Mengliev, D.; Barakhnin, V.; Abdurakhmonova, N. Development of Intellectual Web System for Morph Analyzing of Uzbek Words. *Applied Sciences*, 2021, 11, 9117. <https://doi.org/10.3390/app11199117>

⁵² <http://uzschoolcorpara.uz/>

⁵³ Mengliev B, Shohida Shahabitdinova, Shahlo Khamroeva, Shakhnoza Gulyamova, Adiba Botirova. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer. *Journal of Language and Linguistic Studies*, 2021, 17 (1), pp. 558 - 564

⁵⁴ <https://auxwords.uz/>

⁵⁵ Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.

e) Tilning sintaktik struktur bazasi.

Bugunga qadar o'zbek tilining korpusini tuzish ustida tadqiqotlar o'lib borilayotgan bo'lsa-da, uning dialektal bazasi va korpusini⁵⁶ tuzish ustida tadqiqotimiz ishning deochasi va ushbu izlanishning bugungi kunda dolzarbligini anglatadi⁵⁷.

Shevalar bazasining interfeysi. Interfeys bazada tayyorlangan, texnik va programmalash jamlanmasi bo'lib, nazorat qiluvchi, o'lchovchi hamda turli vazifaviy qurilmalarning bir-biriga ta'sirini, o'tishini ta'minlaydi. Shuningdek, axborotlarni sinxronlash, kodlash, modullar sistemasi, qurilmalarning mexanik va elektr birikmalarini signal, ya'ni ma'lumot to'plash imkonini beradi⁵⁸.

Dialektal lug'atlar bazasini loyihalash jarayoni, avvalo, uning tashqi ko'rinishini ichki mohiyatga moslastirishni taqozo etadi. Bunda e'tibor uning dizayniga qaratiladi. E'tibor qaratilayotgan har bir amaliy tadqiqot uning dizayni yuqori darajali bo'lishni talab etadi. Milliylikni ko'rsatib beruvchi suratlar (masalan, o'tov, milliy kiyim-bosh, bezaklar, an'ana va udumlarni aks ettirgan lavhalar)dan foydalanish korpusda muhim omillardan hisoblanadi. Masalan, Surxondaryo viloyatining bir tumani Boysunning aksariyat aholisi qipchoq sheva vakillaridir va ularning yashash tarzlari asosan chorva mahsulotini yetishtirishga mo'ljallangan. Aholining yashash tarzi, o'tgan ajdodlarga sadoqat ruhiyati va shuningdek hozirdagi milliy qarashlaridan kelib chiqib, bazaning tashqi interfeysida chorva bilan shug'ullanuvchi aholi istiqomat qiluvchi o'tov rasmi keltirildi⁵⁹.

Shevalar bazasining taqdimoti. Milliy til o'z ichiga adabiy tilni va uning shevalarni saqlaydi. Hozirga qadar o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, boshqir, tatar chuvash va hokazo tillarning bir umumturkiy tillar sifatida chuqur ildizlariga ega.

Mazkur holatning bir isboti sifatida til maydoniga chiqayotgan shevalar tadqiqi, asosan, nazariy tahlillanishi vositasida xulosalarning to'laqonli aks etmasligi o'zbek dialektologiyasi hamda korpus lingvistikasi doirasida tadqiqot olib boruvchi olimlar oldiga o'zbek dialektlari: qipchoq, qarluq va o'g'iz kabilarni informatsion dunyoga olib chiqish talabini qo'yimoqda.

Metods. Bizning tadqiqot ishimiz uzbek tili dialektal bazasi tuzish doirasida ilk izlanishlardan biri bo'lganligi tufayli Surxondaryo viloyati hududlaridan biri Boysun tumaniga talabalar bilan ekspeditsiya uyushtirildi. Hudud aholi bilan qilingan suhbatlar, ularning hayot tarzi o'rganishda kuzatish metodidan foydalanildi. Dialektal lug'at bazasining ham og'zaki, ham yozma shakldagi dialektal leksemalar bilan boyitish mukammal darajaga

keltiradi. Shu bois Boysun tumanida istiqomat qilayotgan baxshilardan (do'mbira vositasida milliy qo'shiq aytuvchi) yozib olib nashr etilgan dostonlarda keltirilgan dialektlarning izohini keltirishda tavsiflash metodidan foydalanildi. Uzbek tilida adabiy til va dialektning talaffuzida katta farqliklar kuzatiladi, shuningdek hududda bir vaqtda uch lahja: qipchoq, qarluq va o'g'uz lahjalaridan foydalanuvchi aholining aloqa-aralashuvi kuzatiladi. Onlayn lug'atdan foydalanuvchi tadqiqotchi uchun bu muammoni yechish hamda qulaylik tug'dirish maqsadida bazada dialektning adabiy til, transliterativ va transkripsiyasi grafik tavsiflash metodidan foydalangan holda aks ettirildi.

Etnik aholining yashash tarzi, mentaliteti va lingvokulturogik hayotini ko'rsatuvchi leksemalarning o'zbek-ingliz tilida ma'nosini ochib berish izohlash metodidan foydalangan holda annotatsiyalandi. Lug'at bazasidagi so'zlardan ingliz tilidagi tarjimalari morfologik, leksik-semantik, etimologik saralashda va statistikasini chiqarishda statistika metodidan foydalanildi.

Natija. Ushbu ma'lumotlar bazasi keng foydalanuvchilar doirasi uchun mo'ljallangan bo'lib, so'rov bo'yicha ma'lumotlar bazasining quyidagi qismlari foydalanuvchiga taqdim etiladi:

1. Bosh jadvali (Homepage)
2. So'zlar jadvali (Table of words).
3. Loyiha haqida (About the project).
4. Transkripsiya (Transcription).
5. Aloqa (Communication).

Dialektal saytlarning tashqi interfeysi foydalanuvchi diqqatini jalb etish, tajribasini maksimal darajada oshirish tuzilmasini talab etadi. Bu kabi shevaga doir onlayn baza oynalari lahja va shevalarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini, shuningdek, mintaqaviy o'ziga xosligi bilan ajralib turishini hisobga olgan holda ilmiy va qisman badiiy dizaynni tanlangan⁶⁰. Ya'ni dialekt ma'lumotlar bazasidagi bosh sahifa ifodasi. Dialekt bazasi haqida umumiy tasavvur berish uchun ushbu sahifaning interfeysi milliy mentalitet, madaniyat va ma'naviyatni aks ettiruvchi rasmga ega 0,60% oynadan iborat (0,40%). Ushbu 0,40% oyna uchta tashqi qismga bo'lingan: morfologik va etimologik statistika.

1-yacheyka. Shevalar bazasidagi umumimorfologik analizator xulosasi, ya'ni tashqi statistika keltirilgan. (bazasida mustaqil so'z turkumi – 492; yordamchi so'z turkumi – 3; alohida so'z turkumi –7)

2-yacheyka. Shevaga oid birliklarning bazaga qo'shilgan eng oxirgi namunalarning keng auditoriya foydalanishini hisobga olib, undan foydalanuvchilarga imkoniyatlar darajasini oshirish transliterastiyada

⁵⁶ <http://dialectcorpora.uz/#>

⁵⁷ Kholova, M. (2020). Pech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound "j" dialects). *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1103–1107. <https://doi.org/10.5373/JARDCS/V12I6/S20201139>

⁵⁸ URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Interfeys>

⁵⁹ <https://dialect.uz>

⁶⁰ <https://dialect.uz/> havola vositasida dizaynni ko'rish mumkin.

shaklidagi taqdimoti mavjud. Jaloq (it ovqatlanigan likopcha), jaltibash (kal yoki umuman sochi olingan kishi), jamav (kiyimning yirtilgan yoki teshilgan qismiga ulangan mato), jalpaymāq (yoyilgan holda yotish), jalpoq (tekis, yerga yopishtirilgan holat) keltirilgan.

3-yacheyka. Shevaga oid birliklar soʻzlarning etimologik: fors (62), arab (16), moʻgʻul (2) rus tili va rus tili orqali oʻtgan ingliz, fransuz tillaridan kirib kelish statistikasi keltirilgan⁶¹.

Dialektal lugʻat bazasining soʻzlar jadvali qismida

Shevalar bazasidan foydalanish imkoniyatlari		
1.	Adabiy til	Ayirmoq
2.	Transliterastiya	Ayirib taylamaq
3.	Transkriptsiya	Ājirib tajlamāq
4.	Turkum	Feʼl
5.	Izoh.	Uloqni koʻpkari, ot oʻyinida, soʻyilgan echki bolasini bir necha daʼvogarlarining ichidan yulib olish va belgilangan joyda hammadan oldin koʻrsatilgan joyga eltib tashlamoq
6.	Misol	Guloyim shartillatib uloqti yulib ketib, ayirib tashladi.
7.	Sinonim	• Boʻlaklamoq (Ad.t.) ajratmoq (Ad.t.)
8.	Omonim	-
9.	Antonim	Qoʻshmoq
10.	Oʻz yoki oʻzlashgan qatlam	
11.	Rus tili	Разделить
12.	Ingliz tili	Divide

Shevalar bazasida leksemalar taqdimoti

Onlayn lugʻatlar bazasida shevalarini tarjima qilish muammolari. Oxirgi 35 yilda ingliz tili chet tili sifatida oʻqitiluvchi hududlarda tarjima borasida asosiy yordamchi sifatida Google internet tarmogʻidan foydalanishadi⁶². Abraham Lee ispan tili kursidagi ishtirokchilar bilan tajriba oʻtkazib, veb-sayt vositasidagi tarjimaga doir mulohazalarini bildirgan va uning yechimlariga toʻxtalgan⁶³.

Bu tarjima usulidan, asosan, yozma axborot tayyorlovchi foydalanuvchilar amalga oshirishadi. Lingvistik doirada dialektlarning adabiy tilga qaraganda mohiyati, tavsifi, semantik maʼnoviy koʻlamdorligi bilamiz va biz ushbu parametrlar dialektlar lugʻatining ingliz tiliga tarjima jarayonida ham nazardan chetda turmasligi lozim. Oʻzbek adabiy tiliga oid boʻlgan leksema, soʻzlar, gaplar va grammatik birliklarning tarjimalaridan foydalanish mumkindir, biroq bu tizim hali oʻzbek dialektlarining tarjimalarini oʻzida aks ettirmaydi. Bu esa uzbek tili shevalarining ingliz tiliga doir tarjima lugʻatlariga ehtiyoj borligini koʻrsatib oʻtadi.

Bizning onlayn lugʻatlar bazasida dialektlarning ingliz tiliga oid tarjimasi qiyidagi yondashuvlarga asoslanib aks ettirildi:

1. Fonetik farqlilikka ega dialektlarning ingliz tiliga tarjimasi.
2. Leksik farqlilikka ega boʻlgan dialektlarning ingliz tiliga tarjimasi.
3. Dialektlarning semantik tarjimasi:
 - a) materialga berilgan izoh;
 - b) material va u bilan bogʻliq voqelikka berilgan tarjima.

Uzbek tili dialektlari misolida Surxondaryo viloyati Boysun shevalari lugʻatini koʻzdan kechirib, dialektlar tarkibidagi farq asosan fonetik farqlanishga asoslanib, ularning tarjimasi bilan bogʻliq muammolarning standart til tarjimasiga bogʻlagan holda yechimini berish mumkin deb oʻylaymiz, biroq yashash tarzi, milliy madaniyat, etnografik qarashlar, lingvokulturoogik atmosferani ifodalovchi leksik birliklar birikmali hamda izohli tarjimaga ehtiyoj sezadi. Quyida umumiy onlayn lugʻat ichiga kiritilgan 502 ta leksemalarning turkumlar kesimida 3 xil tarjima usullari haqida maʼlumot keltirilgan.

Umumiy leksemalar soni 502 ta (turkumlar)	Fonetik farqlilikka ega dialektlarning ingliz tiliga tarjimasi.	Leksik farqlilikka ega boʻlgan dialektlarning ingliz tiliga birikmali tarjimasi.	Leksik farqlilikka ega boʻlgan dialektlarning semantik tarjimasi: a/b
Ot/noun (332)	188	70	74
Sifat/adjective (47)	38	2	7

⁶¹ Холова М. А. Oʻzbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi oʻrni (Boysun tumani "j" lochi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

⁶² Alrajhi A.S. Genre effect on Google Translate-assisted L2 writing output quality. (2023) ReCALL, 35 (3), pp. 305 - 320, DOI: 10.1017/S0958344022000143/ https://www.scopus.com/

⁶³ Abraham, Lee. B. Web-based translation for promoting language awareness: Evidence from Spanish. (2009) *Language Learning and Language Teaching*, 25, pp. 65-83.

Son/number (1)	1	-	-
Olmosh/pronoun (2)	1		1
Fe'l/verb (102)	86	3	13
Ravish/adverb (8)	7	1	
Bog'lovchi (3)	3	-	-
Modal (1)			1
Undov (4)			2
Taqlid (2)		1	1

Fonetik farqlilikka ega dialektlarning ingliz tiliga tarjimasini. Tarjimaning bu usulida asosiy e'tibor adabiy tildan fonetik farqlilikka ega dialektlarga qaratildi. Chunonchi, o'zbek adabiy tilida kuzatilgan bu kabi birliklarning aksariyati ingliz tilidagi tarjimalariga ega bo'lgan leksemalar hisoblanadi. Turkumlar kesimida fonetik farqlanuvchi dialektlarning statistik ko'p sonli ekanligini ko'rib o'tish mumkin. Ya'ni ot so'z turkumi – 332 ta, sifat so'z turkumi – 38 son 1 ta, olmosh so'z turkumi – 1 ta, fe'l so'z turkumi – 86 ta, ravish so'z turkumi – 7 ta, bog'lovchi – 3 tani tashkil qilib, modal, undov, taqlid kabi so'z turkumlarida kuzatilmadi:

turkum	adabiy til	Transkripsiya	leksema tarjimasini
ot	bog'lov	Bajlāv	Connection
sifat	ochofat	Ačapat	Rapacious
Son	Yetti	Žeti	Seven
fe'l	chirillamoq	Čarillamāq	To squawk
olmosh	Bu	Bül	This
ravish	Chippa	Čippa	Complete
Bog'lovchi	Magar	Māgār	If

Fonetik dialektlarning ingliz tiliga tarjimasida boshqa (leksik, semantik dialektlardan farqli o'laroq) qator qulayliklar mavjud:

- 1) dialektlarning asosan lemma shaklida namoyon bo'lishi;
- 2) dialektlarning adabiy tildan fonemalar vositasida farqlanishi;
- 3) dialektlar semasining umumiylik;
- 4) onlayn baza uchun ingliz tili (va boshqa tillarga, masalan, rus tiliga) uchun yagona tarjima bazasini shakllantirilishi ehtimolining yuqoriligidir.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir tilda bo'lgani kabi uzbek tili grammatikasida ot so'z turkumining nisbatan katta o'rinni tutishi fonetik dialektlarning aksariyat qismini ingliz tiliga leksematik tarjimasini yuzaga chiqargan.

Leksik farqlilikka ega bo'lgan dialektlarning ingliz tiliga birikmali tarjimasini. Uzbek milliy tilining

tarkibiy qismi bo'lgan dialektlarning ma'no nozikliklarini anglatuvchi bir qancha polisemantik semalari mavjudki, ularni adabiy til tarkibida kuzatmaymiz: b'ir majdān (ozgina muddat), b'ujūr (biqin), čappāti (suyuq oshirilgan xamirdan yupqa pishirilgan non), bežārim (tinmasdan qimirlab turadigan yoki doim ishni buzadigan shaxs, asosan, bola). Bu kabi nutqiy birliklarning ingliz tiliga tarjimasida to'g'ridan to'g'ri leksematik tarjimaning amalga oshirilishi dialekt tarkibidagi barcha semalarning to'laqonli ochilmasligi yoki anglanishida buzilishlarga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, bunday leksik dialektlar, asosan, birikmali shaklda tarjima qilib berilishi maqsadga muvofiq. Shunda turkiy tillar va uning tarkibidagi shevalarni tadqiq etayotgan boshqa til sohibi dialektning kontektdagi barcha semasini anglash vositasida tadqiqotlarida xatoliklarning oldi olingan bo'lar edi. Demak, tarjimaning bu usulida asosiy e'tibor adabiy tildan fleksik dialektlarning ingliz tilidagi birikmali tarjimalariga e'tibor qaratiladi. Bu kabi dialektlarning turkumlar kesimida son jihatdan kamchilikni tashkil etganligining guvohi bo'ldik. Ya'ni ot so'z turkumi – 70 ta, sifat so'z turkumi – 2 ta, son – yo'q, olmosh so'z turkumi – yo'q, fe'l so'z turkumi – 3 ta, ravish so'z turkumi – 1 ta, shuningdek, bog'lovchi, modal, undov, taqlid kabi so'z turkumlarida tarjimaning bu usuli ko'zga tashlanmadi⁶⁴.

Turkum	adabiy til	transkripsiya	birikmali tarjima
Ot	Bedov	Bedāv	Playful horse
Sifat	Chatanoq	Čatanak	Someone who walks on his feet
Son	-	-	-
fe'l	Yigirmoq	Ijirmāq	Preparation by weaving from wool ⁶⁵
Olmosh	Pukka	Pükkä	Deep surface state of the bone, semantics here are so-so

Uzbek dialektlari turk tili guruhida bo'lgan barcha adabiy tillar kabi o'zbek adabiy tilining boy manbalaridan biri hisoblanadi va mahalliy lahjalar, o'z navbatida ma'lum bir milliy madaniyat, urf-odatlar hamda qarashlari bilan

⁶⁴ Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.

⁶⁵ Abdulkhakimovna K. M. O 'zbek dialektal korpusida fe'lining sintaktik kategoriyasi (Surxondaryo viloyati shevalari misolida) //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 2. – №. 2.

boshqa hududlardan farqlanadi⁶⁶. Tarjima qilish jarayonida leksemalar tashiyotgan ma’noni berish uchun asosiy e’tiborni so’zning milliy madaniyat haqidagi tashuvchi axborotiga qaratilsagina izohli tarjimada ko’zlangan maqsadga erishiladi. O’rganishlarimiz shuni ko’rsatadiki, ingliz tiliga o’g’irishning bu usuli orqali tarjima qilingan leksemalarning aksariyati so’z turkumlariga doir: ābdasta – a long and slender faucet used for face and hand washing with a wide belly and a narrow neck; ābroyan – Palov when cooking rice add rice to the pot (water is added to fried meat onions and carrots and carrots are pressed again before adding rice; žavvan ātālā – The flour is fried in oil and cooked in water; ũkkavār – Here swearing is sometimes used in the Boysun dialect as caressing; Šrēm (žer) – Dry crumbly sticky soil; pũkkā – The deep surface-facing state of the lover means that here kabilar uzbek xalqining hayoti, milliy qarashlari aks etgan maishiy leksika hamda entografik urf-odatlar bilan bog’liq holda yuzaga chiqishining guvohi bo’lindi. Bu kabi dialektlar uzbek shevalarida kopchilikni tashkil etsa-da, bizning tadqiqot maydonimiz Surxondaryo (Boysun) shevasining chegaralangan qismini turkumlar kesimida soni kamchilikni tashkil etishining guvohi bo’lindi: ot so’z turkumi – 74 ta, sifat so’z turkumi – 7 ta, son – yo’q, olmosh so’z turkumi – 1, fe’l so’z turkumi – 13 ta, ravish so’z turkumi – 1 ta, shuningdek, bog’lovchi so’z turkumi – yoq, modal so’z turkumi – 1 ta, undov so’z turkumi – 2ta, taqlid so’z turkumi – 1ta va hokazolarda tarjimaning izohlash orqali berilishini ko’rish mumkin⁶⁷.

turkum	adabiy til	Transkripsiya	izohli tarjima
Ot	socho’sar	čāčvösār	muscular meat beef, according to the people eat muscle beef spot her owner grows hair ⁶⁸

Sifat	-	šiqšiqqa	Ratio to the location of the fracture or the playability of the bone
fe’l	-	Egin bermāq	Push with different parts of the body such as the sleeve part

Boysun shevasining turkumlar kesimida uning statistik ko’rinishi tablitsada aks etgan:

Xulosa. Uzbek dialektlarining o’zga (ingliz) tiliga tarjimasini monografik planda ishlab chiqilmaganligini hisobga olib shunday xulosaga kelindi:

✓ uzbek dialektlarining mashina tarjimasini ishlab chiqishda ikki bosqichni tashkil etmoq darkor va bunda birinchi bosqichda har bir hududga tegishli bo’lgan lahjalar kesimida leksemalar lug’atini ishlab chiqish darkor⁶⁹.

✓ birinchi bosqichni bosib o’tishda ajratilgan kesimda lug’atda mavjud dialektlarning uch xil: adabiy til, fonematik va fonetik grafikasini ishlab chiqilishi dialektal onlayn lug’at bazasining istalgan auditoriya: sinxron va diaxron aspektdagi turkiy tillar doirasida tadqiqot olib boruvchi auditoriyaga xizmat qilishini ta’minlaydi;

✓ uzbek dialektlarning leksik, birikmali va izohli tarjimalari turkumlar kesimida tahlil qilinganda eng katta o’rinni shaxslik, predmetlik va harakat-holat aks ettiruvchi ot va fe’l egallaganligi uzbek dialektlarining o’rtasida ushbu turkumlarning tarjimasini bilan bog’liq bundan-da osonroq yechimlar berish lozimligini ko’rsatadi;

✓ uzbek dialektlarning leksik, birikmali va izohli tarjimalari uzbek tilini o’rganayotgan o’zga til vakillariga nafaqat tilning turli ma’noviy nozikliklarini anglashda, balki aynan o’sha millatning madaniyati, mentaliteti, urf-odati, etnografiyasi bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O’zbek dialektologiyasi. –Toshkent. 1962.
- Leemann A., Kolly M., Britain D. The English Dialects App: The creation of a crowdsourced dialect corpus (2018) *Ampersand*, 5, pp. 1 - 17, Cited 34 times. DOI: 10.1016/j.amper.2017.11.001
- Wael, Farhan. “Unsupervised dialectal neural machine translation.” *Information Processing and Management*, vol.57, no. 3, May.2020. <https://doi.org/10.1016/j.ipm.2019.102181>
- Sirazitdinov, Zinnur A. Dialectological base of the machine fund of the bashkir language as a tool for research bashkir dialect continuum, *Oriental Studies*, vol 23, no 1, pp. 212 – 219. 2016. <https://doi.org/10.22162/2075-7794-2016-23-1-212-219>

⁶⁶ Nurettin D. Johansen Lee. Dialect contact in Northern Cyprus. (2006) *International Journal of the Sociology of Language*, (181), pp. 1-9. 10.1515/IJSL.2006.047

⁶⁷ Abdulhakimovna X. M. Surxondaryo shevalari korpusiga sheva matnlarini ichki tizimga kiritish prinsiplari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 39-45.

⁶⁸ Abdulhakimovna K. M. O’zbek dialektal korpusida fe’lning sintaktik kategoriyasi (Surxondaryo viloyati shevalari misolida) // *Philological research: language, literature, education*. – 2024. – T. 2. – №. 2.

⁶⁹ Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.

5. Mengliev, D.; Barakhnin, V.; Abdurakhmonova, N. Development of Intellectual Web System for Morph Analyzing of Uzbek Words. *Applied Sciences*, 2021, 11, 9117. <https://doi.org/10.3390/app11199117>
6. Mengliev B, Shohida Shahabitdinova, Shahlo Khamroeva , Shakhnoza Gulyamova , Adiba Botirova. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer. *Journal of Language and Linguistic Studies*, 2021, 17 (1), pp. 558 - 564
7. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.
8. Kholova, M. (2020). Peech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus(Baysun district on the example of the sound “J” dialects). *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1103–1107. <https://doi.org/10.5373/JARDCS/V12I6 /S20201139>
9. Холова М. А. О’zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o’rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
10. Alrajhi A.S. Genre effect on Google Translate-assisted L2 writing output quality. (2023) *ReCALL*, 35 (3), pp. 305 - 320, DOI: 10.1017/S0958344022000143/ <https://www.scopus.com/>
11. Abraham, Lee. B. Web-based translation for promoting language awareness: Evidence from Spanish. (2009) *Language Learning and Language Teaching*, 25, pp. 65-83.
12. Abdulkhakimovna K. M. O ‘zbek dialektal korpusida fe’lning sintaktik kategoriyasi (Surxondaryo viloyati shevalari misolida) //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 2. – №. 2.
13. Nurettin D. Johansen Lee. Dialect contact in Northern Cyprus. (2006) *International Journal of the Sociology of Language*, (181), pp. 1-9. 10.1515/IJSL.2006.047
14. Abdulkhakimovna X. M. Surxondaryo shevalari korpusiga sheva matnlarini ichki tizimga kiritish prinsiplari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 39-45.
15. Abdulkhakimovna K. M. O’zbek dialektal korpusida fe’lning sintaktik kategoriyasi (Surxondaryo viloyati shevalari misolida) // Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 2. – №. 2.
16. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.
17. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.
18. <https://uzbekcorpus.uz/>
19. <http://dialectcorpora.uz/#>
20. <http://uzschoolcorpara.uz/>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Xushboqova Muqaddas

Termiz davlat universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) fakulteti
Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi magistri
muqaddaskhushbokova@gmail.com

KORPUS DIALEKTOLOGIYASI TADQIQIGA DOIR AYRIM QAYDLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada dialektologiyaning nazariyadan amaliyotga o'tish jarayoni batafsil tahlil qilingan. Unda shevashunoslikning dolzarb muammolari va ularni hal etish uchun olib borilgan ishlar bosqichma-bosqich ko'rsatilgan. Maqolada shuningdek, so'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy va amaliy izlanishlar va dialektolog-tilshunos olimlarning ilgari surgan g'oyalari haqida ma'lumot berilgan. Bu jarayonlar dialektologiyada yangi yondashuvlar va metodologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda, bu esa o'z navbatida lingvistik tadqiqotlarning rivojlanishiga olib keladi..

Kalit so'zlar: sath, frazeologik birliklar, dialektal materiallar, tilning belgisi qoidalari, o'zbek shevalar korpus, dialektologik atlas, filologik tadqiqod, information dunyo.

Хушбакова Мукаддас

Термезский государственный университет
Факультет филологии и языкознания (узбекский язык)
Магистр компьютерной лингвистики

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕТКИ ПО ИЗУЧЕНИЮ КОРПУСНОЙ ДИАЛЕКТОЛОГИИ

Аннотация: В данной статье подробно анализируется процесс перехода диалектологии от теории к практике. В ней шаг за шагом показаны актуальные проблемы языкознания и шаги, предпринимаемые для их решения. В статье также представлена информация о научных и практических исследованиях, проведенных в последние годы, и идеях, выдвинутых диалектологами-лингвистами. Эти процессы служат развитию новых подходов и методологий в диалектологии, что, в свою очередь, приводит к развитию лингвистических исследований.

Ключевые слова: уровень, фразеологизмы, диалектный материал, маркированные правила языка, корпус узбекских диалектов, диалектологический атлас, филологические исследования, информационный мир.

Khushbakova Muqaddas

Termez State University
Faculty of philology and Language Teaching (Uzbek language)
Master of computer linguistics

SOME NOTES ON THE CORPUS DIALECTOLOGY STUDY

Abstract: This article provides a detailed analysis of the process of transitioning from theory to practice in dialectology. It outlines the pressing issues in dialectology and the step-by-step efforts made to address them. The article also includes information about recent scientific and practical research, as well as the ideas proposed by dialectologists and linguists. These processes are contributing to the development of new approaches and methodologies in dialectology, which, in turn, leads to the advancement of linguistic research..

Key words: sath, phraseological units, dialectal materials, marked rules of language, Uzbek dialects Corpus, dialectologic atlas, philological Survey, information World.

Bugungi kunga qadar o'zbek xalqi o'zining tarixiy taraqqiyot jarayonida g'oyat murakkab va turli bosqichlarni o'z boshidan kechirdi va shu bilan birgalikda turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy

munosabatda bo'lib, o'z fonetik, leksik va grammatik sathini boyitib keldi. Vaholanki, o'zbek tilining lug'at va so'zlik tarkibi uzoq davrning mahsuli bo'lib, shu xalqning barcha a'zolari uchun tushunarli, iqtisodiy-ijtimoiy

turmushda ko'p qo'llaniladigan, aniq ma'no bera oladigan, so'z yasalishi va grammatik ma'no berish uchun asos bo'ladigan juda boy so'z va so'z formalariga, frazeologik birliklarga egadir.

Qishloq infratuzilmasidagi o'zgarishlarning tilga ta'sir doirasi, ommaviy axborot-kommunikatsiya, telefon, internet va hokazolarning etnik aholi tilidagi shevaning sayqallanayotganligi, adabiy tilning asta-sekin shevaning yo'qolib ketishiga sabab bo'layotganligi, keksa avlod tilida saqlanib turgan sheva elementlarining hamda hozirga qadar shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan dialektal ma'lumotlarni o'zida jamlagan yagona dialektologik bazani tuzishni dolzarb masala sifatida ko'ndalang qo'ymoqda. Natijada tilda mavjud dialektlarni nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan tadqiq etish, bu orqali sheva birliklarini saqlab qolish, avloddan avlodga yetkazish imkoniyatining ko'lami kengaymoqda va milliy til korpuslarida sheva birliklarini lingvistik aniqlashning umumiy tamoyillarini o'rganish hamda ishlab chiqishning amaliy ahamiyati oshmoqda. Til elementlarini bir joyga to'plash va til korpuslari ustida izlanishlar olib borilgani xususida tadqiqot tajribalariga murojlat qilsak, 2018 yilda ingliz lahjalari ilovasi (EDA) va ingliz dialektlari ilova korpusini (EDAC) taqdim etilganligini ko'rish mumkin. Buning uchun android qurilmasi uchun ilova ishlab chiqiladi va Buyuk Britaniyada istiqomat qiluvchi aholining 47 000 ming nafari tanlangan 26 ta so'zning o'z hududlariga tegishli variantlarini belgilashgan va dialektik qarashlar o'z o'rnida amaliy tilshunoslikni ham chetlab o'tmadi. Ayni vaqtda aholi orasida shevada so'zlashuvchilar adabiy hamda chet el tilida so'zlashuvchilarga nisbatan kamroq bo'lsa-da, jonli tilda ya'ni shevada so'zlashuvchilar hali o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

Tilshunoslikning amaliy muammolari jadidlarimizni ham bir dam o'ylantirgan ekan. Jadid ziyolilari oldida turgan eng asosiy vazifa o'zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqish, o'qitish tizimini takomillashtirish, ilmiy, amaliy lug'atlar tuzish, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. Chunki "ilmiy axtarishlar bo'lmag'uncha qichqirib so'yladiq" bu til daqqidir (qo'poldir) buning o'rnig'a turkchanning adabiy bir shevasini olayiq" degan til bilmaslar bilan kurashdik – ularni yengdik. Biroq, hanzuz tilimizning belgisi qoidalarini maydong'a qo'ya olmadiq. Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarimiz orasida ularning jon ozig'i bo'lib turg'an dostonlar, ashulalar, matallar, qo'shiqlar bor. "Qutadg'u bilig", "Hibat ul haqoyiq", "Devoni lug'atit turk", "Muqaddimat ul adab" kabi eski vasiqalar bor. Shunlarning hammasini qilni qirib yorib tekshiraylik; bir-biriga solishtirib, kelishtirib, tekli, tubli natijalar – ilmiy bo'lib chiqadir. Kimsaning-da lom-mim deyishiga yo'l qolmaydir". Biz nazariyada biroz ilg'or bo'lib, amaliyotda picha oqsoqmiz. Hatto jadidlar ham shevalarni ustida ishlash kerakligini ta'kidlashgan ekan. Keyingi yillarda

o'zbek sheva va lahjalari bo'yicha lingvomadaniy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Sun'iy til ko'rinishidagi adabiy tildan ko'ra shevalarda lingvomadaniy xususiyatlar yaqqol ko'rinadi. Ya'ni, shevalar tayyor lingvomadaniy material hisoblanadi. O.Fayfulloyevning "O'zbek folkloridagi lingvokulturemelarining inglizcha tarjimada berilishi", S.Rahimovning "Surxondaryo chorvachilik leksikasida etnografizmlar", F.Musayevaning "O'zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi" kabi tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. O'zbek tilshunosligining boshqa sohalar qatori dialektologiya fanida ham antroposentrik paradigma metodlari asosida til materialini tadqiq qilish taboro keng yoyilmoqda. Jumladan, bunday tadqiq usullaridan biri – lingvomadaniy tahlil metodi uchun sun'iy o'zlashtirilgan til materialidan ko'ra, tabiiy shakllangan til materialini, ya'ni xalq tili bo'lgan sheva va lahjalarni o'rganish qulay. Xalq shevalari – milliy qadriyatlarimiz ko'zgusi, milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi, milliy tilimizning "joni", madaniyatimizning yorqin ko'rinishidir.

Shevalarni korpusi ustida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar sifatida Xolova M tomonidan olib borilgan korpus amaliyoti kuzatilsa, keyinchalik Yuldasheva Z., Rustamova Z., Islomova Sh.larning tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin. Hozirga qadar O'zbekiston hududidagi olimlar tomonidan ekspeditsiya natijalari orqali shevashunoslik atlasini tashkil qilingan bo'lsa-da, sheva matnlarini o'zida aks ettirgan elektron shaklning va nafaqat Boysun balki, umuman, yurtimiz hududidagi boshqa shevalarning ham korpusini tuzish muammolari hal etilmaganligi ishning dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Sheva ma'lum bir hududga doir bo'lgan kishilarning mulqotni ta'minlovchi vositadir va uning qo'llanish doirasi chegaralangan. O'zbek shevalari korpusini yaratish bir tomondan tilda mavjud birliklarning yo'qolib ketmasligini va unda milliy mentalitet aks etishini isbotlasa, ikkinchi tomondan dialektal materiallar bilan ishlash, qiyoslash, qo'llanish doirasini va boshqa tillardagi muqobillarini topish bilan bog'liq masalalarning oson yechimini taqdim etadi. Amaliy tilshunoslikda olib borilgan ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek tilida shevaga oid bir qancha manbalar: lug'atlar, dialektologik atlaslar, shevalarning fonetik, leksik-grammatik tahlil va tadqiq natijalari, butun bir filologik ma'lumotlarni elektron formatga o'tkazish jarayonlarini boshladilar. Milliy til va uning shevalarini informatsion dunyoga olib chiqish yangi tadqiqotlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki shevashunos tadqiqotchilar oldida turgan masalaning yechimi shevalarni bir tizimga olgan korpuslarni yarata olishdir. Buning uchun birinchi qadam

o'zbek milliy shevalarini yagonatizimga olgan ma'lumotlar bazasini tuzishdir⁷⁰.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim kerakki, o'zbek shevalari korpusi bilan bog'liq muammolar hali "ochilmagan qo'riq" singari o'z tadqiqotini kutib turgan dolzarb muammolardan biridir. Siz-u biz shevalar korpusi

va uning bazalarini nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etib, shevalarning "o'lmas"ligini ta'minlash hamda dialektal tadqiq maydoni hozirlashimiz lozim. Zero, o'zbek milliy shevalar bazasining siz-u bizga ochadigan haliko'p sir-sinoatlari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolova M. Jahondialektalkorpuslarigabirnazar //«узбекские национальные образовательные здания теоретическое и практическое создание вопросы” Международная научно-практическая конференция. – 2023. – Т. 2. – №. 2.
2. ХоловаМ. Database of the Uzbek dialect online dictionary and notes on the translation of the Kipchak dialect into English // Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 4.
3. Azimov I. M. Jadidlar faoliyatida amaliy tilshunoslik masalalari // O'zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari. – С. 18.
4. Muftillayeva R. Dialektal korpuslarning umumiy tavsifi: tajriba va tahlil //Uzbekistan: Language and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 4.
5. Xolova M. Jahon dialektal korpuslariga bir nazar //«Узбекские национальные образовательные здания теоретическое и практическое создание вопросы” Международная научно-практическая конференция. – 2023. – Т. 2. – №. 2.
6. Matkarimovich I. Y., Yuldashevna I. Z. O'zbek tilining dialektal korpusini yaratish tamoyillari // Konferensiyalar i Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 27-29.
7. Rustamova Z. O'zbek tili dialektal korpusini yaratishning lingivistik asoslari // Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1255-1258.
8. ¹Islomova Sh. O'zbek shevalari korpuslari uchun dialektizm iboralarini talqin qilishning ayrim masaallari.
9. ¹ХоловаМ. А. Boysun shevasi korpusi: Ibtido (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕИ ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 5.
10. Abdulkhakimovna K. M. O'zbek dialektal korpusida fe'lning sintaktik kategoriyasi (Surxondaryo viloyati shevalari misolida) //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 2. – №. 2.
11. Usanboyevna D. S. Teaching English on the basis of a collaborative approach //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 46-48.

⁷⁰Usanboyevna D. S. TEACHING ENGLISH ON THE BASIS OF A COLLABORATIVE APPROACH //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 46-48.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Zoyirova Dilso'z Abdijalilovna

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING GENDER MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada chet tillarni o'rganishda genderning roli tahlil qilinib, o'g'il va qiz o'quvchilar hamda genderga nisbatan neytral bo'lgan talabalarning motivatsiya, o'quv uslublari, ishtirok va natijalardagi farqlari o'rganiladi. Tadqiqotda an'anaviy gender normalari sabab yuzaga keluvchi qiyinchiliklar va teng ishtirokni ta'minlovchi inklyuziv ta'lim strategiyalarining ahamiyati ta'kidlanadi. Pedagoglar uchun genderga sezgir yondashuvlar ishlab chiqish va adolatli til o'rganish muhitini yaratish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: gender, chet tilini o'rganish, motivatsiya, ishtirok, natijalar, inklyuzivlik, tilga ega chiqish.

Zoirova Dilsoz Abdijalilovna

Senior teacher, Tashkent State University of Law

GENDER ISSUES OF FOREIGN LANGUAGE LEARNING

Annotation. This article explores the role of gender in foreign language learning, examining differences in motivation, learning styles, participation, and performance among male, female, and non-binary students. The study highlights the challenges caused by traditional gender norms and the importance of inclusive teaching strategies to promote equal participation. It provides recommendations for educators to develop gender-sensitive approaches and foster more equitable language learning environments.

Keywords: Gender, foreign language learning, motivation, participation, performance, inclusivity, language acquisition.

Зойирова Дильсоз Абдижалиловна

Старший преподаватель Ташкентского государственного юридического университета

ГЕНДЕРНЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. В статье рассматривается роль гендера в изучении иностранных языков, исследуются различия в мотивации, стилях обучения, участии и успеваемости среди мальчиков, девочек и небинарных студентов. Исследование подчеркивает проблемы, связанные с традиционными гендерными нормами, и важность инклюзивных образовательных стратегий для обеспечения равного участия. Предлагаются рекомендации для педагогов по разработке гендерно-чувствительных подходов и созданию справедливых условий для изучения языков.

Ключевые слова: гендер, изучение иностранных языков, мотивация, участие, успеваемость, инклюзивность, овладение языком.

Kirish.

Chet tilini o'rganish turli omillar, jumladan motivatsiya, ijtimoiy-madaniy muhit va individual farqlar ta'sirida murakkab jarayondir. Bular orasida o'quvchilarning munosabati, xulq-atvori va natijalarini shakllantirishda jins muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkak va ayol o'quvchilar ko'pincha turli xil ta'lim sharoitlarida ishlash, ishtirok etish va motivatsiyadagi nomutanosiblik bilan til o'zlashtirishni boshqacha boshdan kechirishadi. Ushbu gender naqshlari nafaqat ijtimoiy stereotiplarni aks ettiradi, balki o'quv muhitida gender dinamikasi qanday ishlashini tushunish muhimligini ham ta'kidlaydi.

Ushbu maqola chet tilini o'rganishga ta'sir ko'rsatadigan gender bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, motivatsiya, o'rganish uslublari, sinfdagi ishtiroki va ishlash samaradorligi kabi omillarga e'tibor qaratadi. U asosiy savollarga javob berishga intiladi: Nega o'quvchilar til o'rganishning ayrim sohalarida erkaklarnikidan ustunroq? Ijtimoiy umidlar motivatsiya va ishtirokga qanday ta'sir qiladi? Erkak, ayol va jinsi xilma-xil talabalar til sinflarida qanday qiyinchiliklarga duch kelishadi va o'qituvchilar ularni qanday hal qilishlari mumkin?

Bu savollarni tushunish inklyuzivlikni rag'batlantirish va jinsidan qat'i nazar, barcha o'quvchilar muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega

bo'lishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Gender va chet tili ta'limining kesishishini o'rganish orqali ushbu maqola o'qituvchilar uchun yanada adolatli ta'lim muhitini yaratish uchun amaliy tushunchalar va pedagogik strategiyalarni taqdim etadi.

Bir qator tadqiqotlarda chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyada jinsga asoslangan farqlar aniqlangan. Gardner va Lambert (1972) integrativ va instrumental motivatsiya tushunchalarini kiritdilar, ular erkak va ayol o'quvchilar o'rtasida farq qiladi. Qizlar madaniyat va muloqotga bo'lgan shaxsiy qiziqishdan kelib chiqqan holda ko'proq integral motivatsiyani namoyon qiladilar, o'g'il bolalar esa ishga joylashish kabi amaliy maqsadlarga ko'proq intilishadi (Dörnyei, 2001).

Sanderlend (1998) ta'kidlaganidek, ijtimoiy me'yorlar til o'rganishni ayollik xususiyatlari bilan bog'laydi, bu esa o'g'il bolalarning motivatsiyasining past bo'lishiga olib keladi. Ushbu stereotip ko'plab madaniy kontekstlarda tasdiqlangan, bu erda til ko'nikmalari odatda ayollar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, kommunikativ vazifalarga mos keladi (Block, 2014).

Gender o'rganish imtiyozlariga ta'sir qiladi, talabalarning chet tillari bilan qanday munosabatda bo'lishini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiz talabalar guruh muhokamalari va tengdoshlarining o'zaro ta'siri kabi hamkorlikdagi ta'lim faoliyatini afzal ko'rishadi (Oksford, 1993). Boshqa tomondan, erkak o'quvchilar raqobatbardosh vazifalarni, mantiqiy mashqlarni yoki muammolarni hal qilish usullarini afzal ko'rishlari mumkin (Ellis, 1994). Ushbu imtiyozlar, ayniqsa, o'qitish usullari bir jinsning afzal ko'rgan uslubiga ko'proq mos keladigan bo'lsa, sinfdagi faollikdagi farqlarga olib kelishi mumkin (Pavlenko va Piller, 2008).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizlar raqobat sharoitida yuqori til tashvishini namoyon qiladi, bu ularning og'zaki ishtirokini kamaytirishi mumkin, o'g'il bolalar esa yuqori qulaylik darajasi tufayli bu kontekstlarda ustun bo'lishi mumkin (Swain, 2000).

Tadqiqotda yaxshi tasdiqlangan namuna shundan iboratki, ayol o'quvchilar ko'pincha chet tilini o'rganishning bir qancha jihatlari, xususan, o'qishni tushunish, yozish ko'nikmalari va so'z boyligini o'zlashtirish bo'yicha erkaklarnikidan ustunroqdir (Norton, 2000). Ellis (1994) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkichlar bo'shlig'i yuqori darajadagi og'zaki mashg'ulotlar va o'quvchilarning yanada izchil o'rganish odatlaridan kelib chiqishi mumkin.

Aksincha, ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkak talabalar o'z-o'zidan og'zaki muloqot qilishda qiz talabalardan ustun bo'lishi mumkin (Blok, 2014). Bu ularning ravonlikni rivojlantirish uchun muhim ko'nikma bo'lgan tavakkalchilikni qabul qilish tendentsiyasini aks ettirishi mumkin. Biroq, bu ishlash farqlari madaniy va lingvistik kontekstlarda farqlanadi, bu ularning universal

qo'llanilmasligini, balki ijtimoiy talablar va pedagogik amaliyotlar ta'sirida ekanligini ko'rsatadi (Pavlenko, 2001).

Tadqiqot shuningdek, chet tillari sinflarida gender tajribalarini shakllantirishda ijtimoiy me'yorlar va madaniy kutishlarning rolini ta'kidlaydi. Ko'pgina jamiyatlarda qizlar til o'rganish bilan shug'ullanishga rag'batlantiriladi, shu bilan birga ijtimoiy kommunikativ bo'lishni talab qiladi, o'g'il bolalar esa ko'proq texnik yoki ilmiy fanlarda ustunlikka erishish uchun ijtimoiy bosimga duch kelishi mumkin (Sanderlend, 1998). Ushbu madaniy tarafkashlik erkak o'quvchilarning motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin, natijada til fanlari bo'yicha yomon akademik natijalarga olib keladi.

Pavlenko va Piller (2008) til, o'ziga xoslik va jinsning kesishishini muhokama qilib, chet tilini o'rganish nafaqat lingvistik shakllarni o'zlashtirishni, balki erkak va ayol o'quvchilarda turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiyat o'zgarishlarini boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu o'ziga xoslik o'zgarishi yangi til va madaniyat ularning o'z-o'zini anglashi bilan qanchalik mos kelishiga qarab o'quvchilarni rag'batlantirishi yoki tushkunlikka tushirishi mumkin.

Kuzatilgan gender nomutanosibligiga javoban, bir qancha olimlar ushbu muammolarni hal qilish uchun inklyuziv o'qitish strategiyalarini tavsiya qildilar. Oksford (1993) turli xil ta'lim imtiyozlariga ega bo'lgan talabalarni jalb qilish uchun birgalikdagi va raqobatbardosh faoliyatni o'z ichiga olgan muvozanatli yondashuvni taklif qildi. Block (2014) ta'kidlaydiki, o'qituvchilar an'anaviy gender stereotiplariga qarshi turli xil namunalar taqdim etish va barcha jinslar uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini taqdim etish orqali kurashishlari kerak. Bundan tashqari, teng ishtirokni rag'batlantirish va sinfdagi mashg'ulotlar bir jinsni boshqasidan ustun qo'yimasligini ta'minlash yanada inklyuziv ta'lim muhitini yaratish yo'lidagi muhim qadamdir.

Til o'rganishda gender bo'yicha mavjud tadqiqotlarning aksariyati ikkilik jins toifalariga (erkak va ayol) qaratilgan. Biroq, yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar ikkilik bo'lmagan va jinsi xilma-xil o'quvchilarning tajribasini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Bu talabalar til sinflarida qo'shimcha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ayniqsa o'quv dasturlari, darsliklar yoki o'qitish amaliyoti qattiq gender rollarini kuchaytirganda (Norton va Pavlenko, 2019). Til o'rganish kontekstida barcha gender identifikatorlari talabalarini qo'llab-quvvatlovchi gender inklyuzivligini rivojlantirish strategiyalarini o'rganish uchun kelajakdagi tadqiqotlar zarur.

Ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o'rganishda gender bilan bog'liq masalalarni har tomonlama tushunish uchun miqdoriy va sifat usullarini birlashtirgan aralash usullarni qo'llaydi. Miqdoriy komponent talabalarning o'quv faoliyati va ishtirok etish shakllari to'g'risida ma'lumot to'plashni o'z ichiga oladi, sifat komponenti esa intervyu

va so'rovlar orqali talabalar va o'qituvchilarning nuqtai nazarini o'rganadi.

Ushbu ikki tomonlama yondashuv gender nomutanosibligining statistik dalillarini va talabalar va o'qituvchilarning hayotiy tajribalari haqida chuqur ma'lumot beradi, bu mavzuni nozik tushunishga yordam beradi.

Tadqiqotda chet tili kurslarini taklif qiluvchi umumta'lim maktablari va universitetlarning ishtirokchilari ishtirok etadi. Namuna quyidagilardan iborat:

100 nafar erkak va qiz talaba turli malaka darajalari (boshlang'ichdan yuqori darajaga qadar).

Ikkilik bo'lmagan va jinsi xilma-xil bo'lgan 10 talaba til sinflarida duch keladigan muammolarni tushunish uchun.

Aralash jinsdagi sinflarda tajribaga ega 15 ta til o'qituvchilari.

Ishtirokchilar yosh, jins, malaka darajasi va institutsional kontekst bo'yicha xilma-xillikni ta'minlash uchun tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlab olish yordamida tanlangan.

Ma'lumotlarni yig'ish usullari

Anketalar

Quyidagi o'zgaruvchilar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash uchun talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalari o'tkazildi:

Chet tilini o'rganish uchun motivatsiya (Likert shkalasi yordamida o'lchanadi).

Afzal o'rganish uslublari (hamkorlik, raqobatbardosh yoki mustaqil).

Til sinflarida gender bilan bog'liq muammolar va to'siqlar.

So'rovda ishtirokchilarning jinsi, ta'lim darajasi va ular o'rganayotgan yoki o'rgatayotgan chet tilini aniqlash uchun demografik savollar ham kiritilgan.

Sinfdagi kuzatuvlar

Ishtirok etish shakllarini o'rganish uchun to'rt hafta davomida qatnashmagan sinfdagi kuzatuvlar o'tkazildi. Ushbu kuzatishlar quyidagilarga qaratilgan:

Sinfdagi o'zaro ta'sirlar (masalan, jins bo'yicha ishtirok etish chastotasi).

O'qituvchi-shogird dinamikasi (masalan, o'qituvchilar teng ishtirokni rag'batlantiradimi).

Faoliyat turlari (hamkorlik va raqobatbardoshlik) va talabalarning faollik darajasi.

Yarim tuzilgan intervyular

20 nafar talaba (10 nafar erkak, 5 nafar ayol va 5 nafar ikkilik bo'lmagan) va 10 nafar o'qituvchi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlar ishtirokchilarning shaxsiy tajribalari, munosabatlari va gender va chet tillarini o'rganish bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan.

Ushbu bo'limda to'plangan ma'lumotlarning asosiy Tadqiqotlari taqdim etiladi, so'ngra natijalar tahlil qilinadi.

So'rov natijalari

Motivatsiya darajalari:

Ayol talabalar erkak talabalarga (o'rtacha ball: 3,5/5) nisbatan yuqori ichki motivatsiyani (o'rtacha ball: 4,2/5) qayd etdilar.

Til o'rganishning amaliy afzalliklariga ko'proq e'tibor qaratgan erkak talabalar yuqori instrumental motivatsiyani ko'rsatdilar (o'rtacha ball: 4,1/5).

Ishlash natijalari:

O'qish va yozish bo'yicha topshiriqlar bo'yicha qiz talabalar erkak o'quvchilardan ustun keldi.

O'rtacha o'qish balli: Ayol (85%), Erkak (72%)

O'rtacha yozma ball: Ayol (81%), Erkak (68%)

Erkak talabalar og'zaki muloqotda bir oz yaxshiroq ishlashdi.

O'rtacha nutq bahosi: Erkak (74%), Ayol (70%)

Ishtirok etish shakllari:

Ayollar guruh muhokamalarida va birgalikdagi vazifalarda ko'proq qatnashgan.

Erkaklar ko'proq raqobatbardosh faoliyat bilan shug'ullanadilar, lekin odatdagi sinfdagi o'zaro munosabatlarda kamroq faol edilar.

Ikkilik bo'lmagan talabalar:

Ikkilik bo'lmagan talabalar qat'iy gender rollari tufayli til darslarida qatnashishda qiyinchiliklarga duch kelishgan va jinsga qarab ajratilgan faoliyatdan o'zlarini noqulay his qilishgan.

Suhbat va kuzatish natijalari

Gender stereotiplarining ta'siri:

Erkak va qiz talabalar til o'rganishga gender stereotiplari ta'sir qilishini tan olishdi. Erkak talabalar tilni o'rganishda yuqori natijalarga erishgani uchun "erkaksiz" degan yorlig'iga duchor bo'lmaslik uchun bosim his qilishgan, qiz talabalar esa til bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ijtimoiy bosimni his qilishgan.

Sinf muhiti va o'qitish uslublari:

O'qituvchilarning hamkorlikda o'rganish strategiyalaridan foydalanishlari qiz talabalarga ko'proq foyda keltirdi, erkak talabalar esa ko'proq raqobatbardosh, vazifaga asoslangan o'quv faoliyatini afzal ko'rdilar.

Ikkilik bo'lmagan talabalar duch keladigan qiyinchiliklar:

Ikkilik bo'lmagan talabalar o'zlarini marginallashtirgan his qilishgan, chunki sinfdagi mashg'ulotlar va o'quv materiallari ko'pincha ikkilik gender me'yorlarini mustahkamlagan. Ular ko'proq inklyuziv o'qitish amaliyoti va gender neytral resurslarga ehtiyoj borligini bildirdilar.

Statistik tahlil

Erkak va qiz talabalarning til ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq bor yoki yo'qligini aniqlash uchun t-testi o'tkazildi.

O'qish ballari: $t(118) = 3,82, p < 0,01$

Yozish ballari: $t(118) = 3,44, p < 0,01$

Nutq ballari: $t(118) = -1,12, p > 0,05$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qiz talabalar o'qish va yozishda sezilarli darajada yaxshi natijalarga erishgan, nutq qobiliyatidagi farq esa statistik jihatdan ahamiyatli emas edi.

Natijalarni muhokama qilish.

Natijalar oldingi tadqiqotlar bilan mos keladi, bu esa genderning chet tilini o'rganishda motivatsiya, ishtirok etish va ishlashga ta'sir qilishini tasdiqlaydi. Ayol talabalarning yuqori motivatsiyasi va izchil ishtiroki o'qish va yozish vazifalarini yaxshiroq bajarishga yordam beradi. Ayni paytda, erkak talabalar og'zaki muloqot vazifalarida bir oz ustunlik qilishdi, bu spontan, ishlashga yo'naltirilgan faoliyatni afzal ko'rishni taklif qiladi.

Tadqiqotlar, shuningdek, ikkilik bo'lmagan talabalar duch keladigan qiyinchiliklarni ta'kidlaydi, bu esa an'anaviy jinslar bo'yicha ajratilgan o'qitish amaliyotlari bu o'quvchilarni tasodifan chiqarib tashlashi mumkinligini ko'rsatadi. Bu gender o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv ta'lim yondashuvlari zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu bo'limda to'plangan ma'lumotlarning asosiy Tadqiqotlari taqdim etiladi, so'ngra natijalar tahlil qilinadi.

So'rov natijalari

Motivatsiya darajalari:

Ayol talabalar erkak talabalarga (o'rtacha ball: 3,5/5) nisbatan yuqori ichki motivatsiyani (o'rtacha ball: 4,2/5) qayd etdilar.

Til o'rganishning amaliy afzalliklariga ko'proq e'tibor qaratgan erkak talabalar yuqori instrumental motivatsiyani ko'rsatdilar (o'rtacha ball: 4,1/5).

Ishlash natijalari:

O'qish va yozish bo'yicha topshiriqlar bo'yicha qiz talabalar erkak o'quvchilardan ustun keldi.

O'rtacha o'qish balli: Ayol (85%), Erkak (72%)

O'rtacha yozma ball: Ayol (81%), Erkak (68%)

Erkak talabalar og'zaki muloqotda bir oz yaxshiroq ishlashdi.

O'rtacha nutq bahosi: Erkak (74%), Ayol (70%)

Ishtirok etish shakllari:

Ayollar guruh muhokamalarida va birgalikdagi vazifalarda ko'proq qatnashgan.

Erkaklar ko'proq raqobatbardosh faoliyat bilan shug'ullanadilar, lekin odatdagi sinfdagi o'zaro munosabatlarda kamroq faol edilar.

Ikkilik bo'lmagan talabalar:

Ikkilik bo'lmagan talabalar qat'iy gender rollari tufayli til darslarida qatnashishda qiyinchiliklarga duch kelishgan va jinsga qarab ajratilgan faoliyatdan o'zlarini noqulay his qilishgan.

Suhbat va kuzatish natijalari

Gender stereotiplarining ta'siri:

Erkak va qiz talabalar til o'rganishga gender stereotiplari ta'sir qilishini tan olishdi. Erkak talabalar tilni

o'rganishda yuqori natijalarga erishgani uchun "erkaksiz" degan yorlig'iga duchor bo'lmaslik uchun bosim his qilishgan, qiz talabalar esa til bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ijtimoiy bosimni his qilishgan.

Sinf muhiti va o'qitish uslublari:

O'qituvchilarning hamkorlikda o'rganish strategiyalaridan foydalanishlari qiz talabalarga ko'proq foyda keltirdi, erkak talabalar esa ko'proq raqobatbardosh, vazifaga asoslangan o'quv faoliyatini afzal ko'rdilar.

Ikkilik bo'lmagan talabalar duch keladigan qiyinchiliklar:

Ikkilik bo'lmagan talabalar o'zlarini marginallashtirgan his qilishgan, chunki sinfdagi mashg'ulotlar va o'quv materiallari ko'pincha ikkilik gender me'yorlarini mustahkamlagan. Ular ko'proq inklyuziv o'qitish amaliyoti va gender neytral resurslarga ehtiyoj borligini bildirdilar.

Statistik tahlil

Erkak va qiz talabalarning til ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq bor yoki yo'qligini aniqlash uchun t-testi o'tkazildi.

O'qish ballari: $t(118) = 3,82, p < 0,01$

Yozish ballari: $t(118) = 3,44, p < 0,01$

Nutq ballari: $t(118) = -1,12, p > 0,05$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, qiz talabalar o'qish va yozishda sezilarli darajada yaxshi natijalarga erishgan, nutq qobiliyatidagi farq esa statistik jihatdan ahamiyatli emas edi.

Ushbu tadqiqot jinsning chet tilini o'rganishga sezilarli ta'sirini, jumladan motivatsiya, ishtirok etish, o'rganish uslublari va akademik natijalardagi farqlarni ta'kidlaydi. Ayol o'quvchilar odatda yuqori ichki motivatsiyani namoyon etadilar, o'qish va yozish vazifalarini yaxshiroq bajaradilar va hamkorlikdagi o'quv faoliyatida faolroq ishtirok etadilar. Bundan farqli o'laroq, erkak o'quvchilar raqobatbardosh vazifalarni afzal ko'rishadi va og'zaki muloqotda yaxshiroq ishlashga moyildirlar, garchi ularning motivatsiyasiga til o'rganishga jalb qilishni to'xtatadigan ijtimoiy stereotiplar ta'sir qilishi mumkin.

Tadqiqot, shuningdek, an'anaviy gender rollari ustunlik qiladigan sinflarda ikkilik bo'lmagan va gender xilma-xil o'quvchilar duch keladigan muammolarni ta'kidlab, ko'proq inklyuziv pedagogik amaliyotlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni hal qilish o'qituvchilardan turli xil ta'lim afzalliklariga mos keladigan turli xil o'qitish usullarini qo'llashni, stereotiplarni shubha ostiga qo'yishni va barcha jinslarning ishtirokini rag'batlantirishni talab qiladi. Bu turli xil o'quvchilarning kuchli tomonlari va afzalliklariga mos keladigan hamkorlik, raqobatbardosh va individual faoliyatlar aralashmasini o'z ichiga olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Миллер, Ж. (2014). *Гендер нейтрал тил ва унинг аҳамияти*. Нью Йорк: Оксфорд университети нашри.
2. Камерон, Д. (2005). *Гендер стереотиплари ва тил*. Лондон: Рутледж.
3. Венути, Л. (1995). *Таржима ва маданий контекст*. Кембриж: Полити Пресс.
4. Баснетт, С. (2002). *Таржима назарияси*. Лондон: Тейлор ва Франсис.
5. Бейкер, М. (2010). *Таржимада гендер тенглиги ва унинг қўлланилиши*. Лондон: Контининталь Пресс.
6. Турнбулл, Э. (2013). *Инклюзив тил ва инсон ҳуқуқлари*. Париж: ЮНЕСКО нашри.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Babaxodjayeva Nigora Muxitdinovna

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyalar universiteti
boboxujeva@bk.ru

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA AYOL OBRAZINING ZAMONAVIY TALQINI VA QIYOSI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahharning asarlaridagi ayol obrazlari zamonaviy kontekstda tahlil qilingan. Maqolada Qahharning ayollarning ijtimoiy va shaxsiy roli, ularning hayotdagi o'rni va kurashlari qanday tasvirlangani tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holatlari bilan Qahharning ayol obrazlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar ko'rsatilib, zamonaviy kontekstdagi ayollar uchun ularning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhar, ayol obrazlari, zamonaviy ayollar, ijtimoiy rol, qiyoslash, huquqlar.

Бабаходжаева Нигора Мухитдиновна

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУЛЛЫ КАХХАРА: СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И СОПОСТАВЛЕНИЕ

Аннотация: В статье рассматривается образ женщины в произведениях Абдуллы Каххара в контексте современности. Анализируется, как в произведениях Каххара отражены социальные и личные роли женщин, их положение в жизни и их борьба. Также рассматриваются сходства и различия между образами женщин в произведениях Каххара и современными социальными, экономическими и политическими условиями, а также значение этих образов для современной женщины.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, образы женщин, современная женщина, социальная роль, сопоставление, права.

Babakhodjaeva Nigora Mukhtidinovna

Termez State University of Engineering and Agrotechnology

THE IMAGE OF WOMEN IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHAR: CONTEMPORARY INTERPRETATION AND COMPARISON

Abstract: This article examines the image of women in the works of Abdulla Qahhar in the context of contemporary society. It analyzes how Kahhar portrays the social and personal roles of women, their position in life, and their struggles. Additionally, the article explores the similarities and differences between Qahhar's depictions of women and the modern social, economic, and political conditions, highlighting the significance of these images for contemporary women.

Keywords: Abdulla Qahhar, images of women, contemporary women, social role, comparison, rights.

Kirish.

Abdulla Qahhor — o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lib, o'z asarlarida insonning ichki dunyosini, jamiyatdagi muammolarni va ayollarning jamiyatdagi o'rini ta'sirli va chuqur ifoda etgan. U asarlaridagi inson hayotidagi orzular va illyuziyalar, ularning inson ruhiyatiga va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri haqidagi falsafiy qarashlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr o'zbek adabiyoti xazinasini bir qator janrlardagi bebaho asarlar bilan boyitgan Abdulla Qahhor hikoyachilik taraqqiyotiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Yozuvchining hikoyalari ham milliy, ham mafkuraviy, ham vaqt chegaralarini yorib o'tib,

abadiylikka daxldor hodisaga aylandi. Abdulla Qahhar ijodida ayol obrazi muhim o'rin tutadi va u o'z asarlarida ayollarning turli xil qiyofalari va xarakterlarini namoyon etadi. Uning ayol obrazlari turli xil bo'lib, jamiyatdagi o'rni va vazifalarini, shuningdek, ularning shaxsiy kechinmalari va g'am-alamlarini aks ettiradi. Yozuvchi ayol obrazlarini markaziy o'ringa qo'yadi, ular orqali jamiyatdagi turli muammolar va insonning ichki kechinmalari haqida fikr yuritadi.

Kuchli va matonatli ayollar: Abdulla Qahhar Qahharning asarlaridagi ayollar, odatda, juda kuchli, irodali va matonatli insonlardir. Masalan, "Sulton Murat" asaridagi ayol qahramon o'zining turmush o'rtog'i va oilasi

uchun juda ko'p qiyinchiliklarga bardosh beradi, lekin hech qachon o'z maqsadidan qaytmaydi. Bu obrazlar orqali Qahhar jamiyatdagi ayollarning roli va muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Abdulla Qahharning asarlarini zamonaviy ayol obrazi bilan bog'lashda, metodologiyaning quyidagi asosiy nuqtalariga e'tibor berdik:

Tadqiqot mavzusini belgilash: maqolada qo'yilayotgan maqsad va tadqiqotning asosiy mavzusi Abdulla Qahhar asarlaridagi ayol obrazlarini zamonaviy ayol obrazi bilan qiyoslashdir.

Ta'rif va tahlil: yozuvchi asarlarning umumiy konteksti va asosiy mavzusini tahlil qilish. Abdulla Qahhorning asarlarida ayollar qanday tasvirlangani, ularning ijtimoiy va shaxsiy rollari qanday bo'lgani to'g'risidagi ma'lumotlar.

Zamonaviy kontekst: zamonaviy ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi o'rni, ularga qarshi turli stereotiplar va cheklovlar. Abdulla Qahhor asarlaridagi ayol obrazlarining zamonaviy ayollarga ta'siri: ularning zamonaviy ayollar uchun qanday ahamiyatga egaligini aniqlashda foydalanildi.

Qiyoslash va xulosa: Abdulla Qahhor asarlari va zamonaviy ayollar obrazlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar: Qahhor ayol obrazlari va zamonaviy ayollar obrazlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlashda foydalanildi.

Tadqiqot uchun manbalar: maqolada foydalanilgan asarlar, ilmiy maqolalar, adabiyotlar va boshqa manbalarni ko'rsatish va zamonaviy konteksti va tadqiqot mavzusiga doir manbalarni to'plash Abdulla Qahorning ayol obrazlarini zamonaviy ayol obrazi bilan bog'lashda va asarlarning dolzarbligini yoritishda yordam beradi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda Abdulla Qahhar asarlarini zamonaviy ayol obrazi bilan bog'lashning bir necha yo'llari mavjud. Abdulla Qahhor o'z asarlarida ayollarning kuchi, mustaqilligi va huquqlarini himoya qilish mavzularini ko'targan. Bu mavzular hamon dolzarb va zamonaviy jamiyatda ayollarning haq-huquqlari uchun kurashini aks ettiradi. Qahhorning asarlarida ayollar jamiyatdagi adolatsizlik va huquqlar uchun kurashda ishtirok etadi. Bugungi kunda ham feministik harakatlar va ayollar huquqlari uchun kurash zamonaviy jamiyatda muhim masala bo'lib qolmoqda. Yozuvchining xotin- qizlarni himoya qilish va huquqlari uchun kurashi g'oyalari bugungi kunda zamonaviy feministik yoki gender tenglik harakatlari bilan hamohangdir.

Abdulla Qahhar ayol obrazlari odatda kuchli va mustaqil bo'lib, o'z hayotida katta roli bor. Zamonaviy o'zbek ayollari ham o'z sohasida muvaffaqiyatlarga erishish, biznes, fan, siyosat va san'atda yetakchi bo'lish kabi maqsadlar sari intilmoqdalar. Abdulla Qahhor ayol qahramonlari o'z huquqlari va imkoniyatlari bilan bog'liq

muammolarga yechim izlashadi. mustaqillik va kuch-qudrati masalalarini ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, zamonaviy ayollarning adibning qahramonlari kabi jamiyatdagi an'anaviy stereotiplar va oiladagi zulm va cheklovlarga uchrashi muammolari jamiyatda uchraydi.

Abdulla Qahhorning ayol obrazlari orqali zamonaviy jamiyatdagi ayollarning huquqlari, mustaqilligi va kurashlari haqida fikr yuritish mumkin. Bu asarlar yordamida zamonaviy ayollarning jamiyatdagi o'rni va kurashini tushunish osonlashadi. A. Qahhor asarlaridagi ayollar juda mehnatkashdir. Ularning aksariyati dehqonchilik bilan shug'ullanadi, uy ishlarini bajaradi, yoki jamiyatda faol bo'lib, turli kasblarda mehnat qiladilar. Masalan, "Qo'shchinor chirog'i" asaridagi ayol qahramonlar o'z mehnati va fidoyiligi orqali jamiyatning barqarorligiga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, bu ayollar muhabbat va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanadi. Ular o'z jufti yoki oilasiga nisbatan juda sadoqatlidir va har qanday vaziyatda ham o'z yaqinlarini qo'llab-quvvatlaydilar. "Taxir va Zuhra" pyesasidagi Zuhra obrazi ana shunday muhabbat va sadoqat ramzi bo'lib, u o'z muhabbati yo'lida turli to'siqlardan o'tadi. Yozuvchi o'z ijodida jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolar, shu jumladan, kambag'allik, adolatsizlik va ayollarga nisbatan zo'ravonlik mavzularini ham tasvirlagan. Bu mavzular orqali A. Qahhor jamiyatdagi ayollarning ahvoli haqida o'ylanishga chaqirib, jamiyatdagi ayollarning o'rni va ahamiyatini tasvirlashga, ularni haq-huquqlari uchun kurash olib borishga chaqirgan.

Va ayollar obrazi har doim murakkab, ko'p qirrali va o'z zamonasi uchun juda dolzarb bo'lgan. Uning ayol qahramonlari orqali yozuvchi

Masalan, Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana" asaridagi Hafiza ijtimoiy muammolar, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadigan obrazlardan biri. "Qo'shchinor chiroqlari" dagi Kanizak obrazi ham inson hayotidagi muxim qiyofa sifatida tasvirlanadi. Bu ayol qahramonlar orqali yozuvchi hayotdagi turli to'siqlar, qiyinchiliklar, muhabbat va sadoqat mavzularini ochib beradi. Ular juda realistlik va haqqoniy tasvirlangan, ularning ichki kechinmalari, qayg'u va xursandchiliklari juda chuqur ifoda etilgan. Asarlardagi psixologizm inson ruhiyatining nozik qirralarini ochib berishga harakat qiladi, shu bilan birga insonning o'z orzulari bilan kurashi va ularning hayotidagi ta'siri haqida falsafiy mulohazalarni o'rtaga qo'yadi.

Abdulla Qahhorning «Kishining bir g'oyaga sadoqati tanlagan kasb- hunari bilan, shu g'oyaga qay darajada yaxshi va ko'proq xizmat qilgani, qilayotgani bilan o'lchanadi» [1.3] degan fikri bor. Yozuvchining ana shunday g'oyalaridan biri-qahramon va personajlarni hayotiy, hakqoniy aks etgirish, ularni chuqur o'rganib, so'ng asarlariga olib kirishdir. Ayniqsa, o'zbek xotin-qizlarining nozik his-tuyg'ularini ifodalashda Abdulla

Qahhor tasvirlash uslubidan mohirona foydalana olgan. Masalan, yozuvchining bir qator asarlari («Bemor», «Anor», «Dahshat») qatori «Jonfig'on», «Maston» hikoyalarida oddiy o'zbek ayollarining o'ziga xos qiyofasi, jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etish yo'lidagi kurashi tasvirlangan.

«Jonfig'on» hikoyasi 1939 yilda yozilgan bo'lsa-da, unda yaratilgan Malohatxon obrazi bizga zamondoshdek tuyuladi. «Adib shunday detallar topadiki, ular hikoya zamirida katta g'oyani, muhim hayotiy haqiqatni to'la ochishga xizmat qiladi» [4.13]

Haqiqatdan ham, hikoyada Abdulla Qahhor Malohat obrazi orqali hayotga befarq qaramaydigan, kamsuqum, vafodor, hatto, el-yurtni himoya qilishga ham qodir kuchli shaxs timsolini aks ettirgan. Hikoya qahramoni Jonfig'on-ichkilikboz, yalqov er. Malohat esa aksincha, «uyini ham», «ishni ham» eplaydigan ayol. U erini ishlashga, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi: «Men sizga aytayin, pulingizning keragi yo'q, ishlangiz bo'lgani! Men sizni hozir erim deyishga nomus qilaman!» [2,14]

Ko'rinib turibdiki, Malohat o'zining e'tiqodi, hayotga ishonchi bilan eriga nisbatan ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi. Uning qat'iyati, irodasi qiyinchiliklardan cho'chimasligi, «yo'ldan qaytishga undayotgan» erini ham maqsad sari chorlaydi.

Adibning 30-yillarda yaratgan yana bir hikoyasi «Maston» o'zbek ayollarining nafaqat orzu-umidlari, balki kurashini ifodalovchi asardir. Hikoyada ikki dugona — Maston va Tursunboy obrazlari misolida hayotga chanqoq, qiyinchiliklardan qo'rqumaydigan ayollar aks ettirilgan. Maston shaharda o'qishni xohlaydi va dugonasi Tursunoyni ham birga borishga undaydi. Yo'ldagi qiyinchiliklarga chiday olmagan Tursunoy: «Qurib ketsin! O'qishing boshingdan ordona qolsin, Maston... Qo'y, ey... erimdan qolmayin!» [3. 15] — deb zorlanadi. Maston unga e'tibor qilmay, «Yig'lama, Tursunoy, yig'lama. Yig'i boshni og'ritib, kishini lohas qiladi. Kavush-mahsingni kiy, sochingni boshingga o'rab, ustidan ro'mol bog'lab ol. Qorong'i tushguncha dashtdan chiqib olmasak bo'lmaydi, hali ko'rding-ku, dashtdan shundaqa kaltakesaklar ko'p bo'ladi, Bo'l!» [3. 16]. Mastonning bu so'zlarida faollik, harakatchanlik, kurashchanlik ifodalangan. U dugonasining ikkilanishlari, qo'rquvini yengishga undab, maqsad sari astoydil harakat qiladi. «Maston» va

«Jonfig'on» hikoyalarida erlarining «soyasida» qolib ketmaslik uchun barcha qiyinchiliklarni yengishga tayyor turgan mardona ayollar obrazlari yaratilgan.

Abdulla Qahhor Malohat, Maston, Tursunoy obrazlarini yoritishda o'ziga xos yo'l tutadi. Hikoyalarda portret, ya'ni qahramonlarning tashqi ko'rinishi deyarli yo'q. Faqat matnda uchraydigan «Oftobda qoraygan bo'yni», «yo'g'on ikki yarim sochi» («Maston») «ko'k piyoladan kichikroq buqogi bo'lib, shuni o'tgan yili kestirgan edi» («Jonfig'on») kabi detallar hikoyalardagi ayollarning tashqi qiyofasini gavdalantiradi. Ana shunday bir-ikki kichik detallar orqali adib qahramonlarning xarakterini yarata olgan va ruhiy holatini ochib bergan. Hikoyalarning tili, badiiy vositalari, manzaralar tasviri ham qahramonlarning xarakterini ochishga xizmat qilgan. Bular hammasi yozuvchining hayot haqiqatini chuqur o'rganganligidan dalolat berib turadi.

Shu tariqa, Abdulla Qahhor «Maston», «Jonfig'on» hikoyalarida hayotda adashgan, to'g'ri yo'ldan chetga chiqib qolgan ba'zi kishilarni qaynoq hayot quchog'iga tortishi, ularni mehnatga undash kabi g'oyani ilgari suradi va xayoldan o'tayotgan o'zbek ayollarining o'zi xos psixologiyasini yaratadi.

Xulosa.

Abdulla Qahhor asarlaridagi ayol obrazlarida ijtimoiy va shaxsiy hayotda juda murakkab va ko'p jihatdan o'rganishga to'g'ri keladigan jihatlari mavjud bo'lib, zamonaviy ayollarning ijtimoiy va moddiy. Ma'naviy, iqtisodiy holatlari bilan qiyoslash, ularning kurashlari va orzularining zamonaviy kontekstdagi ahamiyatini yanada aniqlashga yordam beradi. Bu obrazlar zamonaviy jamiyatdagi ayollarning hayotdagi o'z o'rnini topishi, ilm olishi, oiladagi zo'ravonliklar, nohaqliklarga qarshi kurashida yangi tushunchalarni taqdim etadi. Abdulla Qahhorning asarlaridagi ayol obrazlari zamonamiz ayollarining ijtimoiy, iqtisodiy va xuquqiy faolliklarini oshirishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqacha aytganda, maqola Abdulla Qahhorning asarlaridagi ayol obrazlari zamonaviy kontekstda xotin qizlarning ijtimoiy roli va huquqlarini yaxshilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi, hamda zamonaviy ayollarning o'z muammolari va imkoniyatlarini tahlil qilishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qahhor. A. Povest va hikoyalar. Toshkent, 1965, 34-bet.
2. Qahhor A. Povest va hikoyalar. . Toshkent, 196522-bet.
3. Qahhor. A. Povest va hikoyalar. . Toshkent, 196523-bet.
4. Sharafiddinov. O. O'zbek ayolining taqdiri. A. Qahhor. Povest va hikoyalar kitobidan, Toshkent, 1965, 215-bet.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

I.U. Tojiboyev

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
Namangan davlat universiteti

INGLIZ TILIDAGI "BEAUTY/UGLINESS" KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR ORASIDAGI SINONIMIK VA ANTONIMIK MUNOSABATLAR

Annotasiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi "beauty/ugliness" ("go'zallik/xunuklik") konseptini ifodalovchi leksemalar va ular orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlar tahliliga e'tibor qaratiladi. "beauty/ugliness" konseptlari inson ongida va nutqida doimo yonma-yon turuvchi, bir-birini taqozo etuvchi, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar ekanligi hamda "Beauty/ugliness" konseptlarini ifodalovchi so'zlarning semantik strukturalaridagi "yoqimlilik" hissi avvalo insonga xosligi va shu his insonda turli darajada bo'lishi xususida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: konsept, go'zallik/xunuklik, leksik birlik, sinonimik munosabat, antonimik munosabat, graduonimiya, daraja, kuchli darajada, kuchsiz darajada.

И.Ю. Тожибоев

Доктор философии в филологии (PhD)
Наманганский государственный университет

СИНОНИМНЫЕ И АНТОНИМИЧЕСКИЕ СВЯЗИ МЕЖДУ ЛЕКСЕМАМИ, ВЫРАЖАЮЩИМИ ПОНЯТИЕ «КРАСОТА/УРОДСТВО» В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу лексем, репрезентирующих концепт «красота/уродливость» в английском языке, и их синонимических и антонимических отношений между ними. Понятия «красота/уродливость» всегда находятся рядом в сознании и речи человека, они требуют друг друга и неразрывно связаны друг с другом, а ощущение «миловатости» в семантических структурах слов, выражающих Понятия «красота/уродливость» – это прежде всего подробно рассмотрены особенности человека и разные уровни этого чувства в человеке.

Ключевые слова: концепт, красота/уродливость, лексическая единица, синонимическая связь, антонимическая связь, градуонимия, сильно, слабо, степень, сильная степень, слабая степень.

I.U. Tojiboyev

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)
Namangan State University

SYNONYMOUS AND ANTONYMIC RELATIONSHIPS BETWEEN LEXEMAS EXPRESSING THE CONCEPT OF "BEAUTY/UGLINESS" IN ENGLISH

Annotation. This article focuses on the analysis of lexemes representing the concept of "beauty/ugliness" in the English language and their synonymic and antonymic relationships between them. The concepts of "beauty/ugliness" are always side by side in the human mind and speech, they require each other and are integrally related to each other, and the feeling of "cuteness" in the semantic structures of the words expressing the concepts of "Beauty/ugliness" is primarily It is considered in detail about the characteristics of a person and the different levels of this feeling in a person.

Key words: Concept, beauty/ugliness, lexical unit, synonymous relationship, antonymic relationship, graduonymy, strongly, weakly.

Kirish.

Ma'lumki, tilshunoslikda sinonimlar haqida tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularda bayon qilingan fikrlar ko'p hollarda bir-biriga mos kelmaydi. Sinonimlar

ko'p adabiyotlarda "ma'nosi bir xil" yoki "bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar" sifatida ta'riflanadi.

I.V.Arnold so'zning ma'nosida asosiy qism va ma'no nozikligi yoki qo'shimca ma'nolar bo'lishini,

sinonimlar ma'ning asosiy qismida bir-biriga mos kelishini qayd etgan [1; 45].

Sinonimlarni belgilashda so'zlarning ma'nodagi yaqinligiga qarab ish ko'rish qator chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Buning sababi so'zlarning ma'no jihatdan yaqinligi har xil darajada bo'lishidir. Ba'zi so'zlar ma'no jihatdan boshqa biror so'zga juda yaqin bo'lsa, ba'zining ma'nodagi yaqinligi unga nisbatan kamroq bo'lishi mumkin. Ayrim so'zlarning ma'nosi esa bir-biridan uzoq, lekin har holda ular o'rtasida bog'lanish bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra sinonimlarni belgilashda ma'nodagi yaqinlikka qarab ish ko'riladigan bo'lsa, u holda ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lgan so'zlar ham, shuningdek, qisman bo'lsa-da, ma'noda yaqinligi bo'lgan so'zlar ham o'zaro sinonim deb qaralishi kerak bo'ladi.

O'zaro sinonim so'zlardan har birining o'ziga xos belgisi, birinchidan, uning talaffuz va yozilish jihatdan har xil bo'lishi va, ikkinchidan, har birining o'ziga xos ma'no ottenkasiga, qo'shimcha ma'nolarga egaligidir. Demak, sinonimlarni ta'riflashda ularni birlashtiruvchi ma'no hammasida bir xil bo'lishini, bu so'zlarning yozilish va talaffuz jihatdan har xil bo'lishini, shuningdek, ularning turli ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanishini hisobga olish kerak.

Sinonimlar ma'lum darajada tilning taraqqiyot darajasini, uning boyligini ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Birdan ortiq so'zning sinonim ekanligini to'g'ri farqlash va ulardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish fikrni aniq ifodalashga, sub'ektning o'zi fikr yuritayotgan ob'ektga munosabatini aniq ko'rsatib berishga imkon beradi.

Usul va munozara.

Sinonimlarni belgilashda so'zning asl ma'nosi bilan uning kontekstda reallashadigan ma'nosini, shuningdek, ko'chma ma'nosini hisobga olish lozim bo'ladi. Ba'zan tilda shunday hodisalar ham bo'ladi, biror so'z o'zining asl ma'nosidan ko'ra ko'chma ma'nosida keng doirada qo'llanishi mumkin. Masalan, *"fox"* (*tulki*) so'zi *"ayyor"* ma'nosida juda keng qo'llanadi. Odatda sinonimlar bittadan ortiq, ya'ni ikki, uch, to'rt va ko'p til birligining o'zaro munosabati asosida tug'iladi. Bunday munosabatda qatnashuvchi birliklarning miqdorini chegaralab, belgilab qo'yish mumkin emas. Ikkinchidan, bu til birliklari o'z ichida muntazam bir sistemani tashkil etadi.

Demak, sinonimlik munosabatida tilning kamida ikki birligi qatnashadi. Bulardan biri ikkinchisiga nisbatan sinonim bo'ladi, barchasi birgalikda sinonimik uyani tashkil qiladi. Sinonimiya vositasida ma'noni kuchaytirishga, nozik ma'no qirralarini anglatishga va rang-barang stilistik bo'yoqlarni ifodalashga erishiladi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning bir qirradi bo'rtadi. Aslida sinonimiya tug'ilishi uchun lug'aviy birliklar (shuningdek, grammatik birliklar ham) o'zaro farqlanishlarga ham ega bo'lishi lozim. So'z yoki iborani tanlab ishlatishda har gal ana shu farqlanishlarni

nazarda tutishga to'g'ri keladi. Muayyan fikr yoki munosabatni bildirishda sinonimik uyadan eng muvofiq so'z yoki iborani tanlay olish talab etiladi [5; 96].

Sinonimlardan nutqni ravon tuzishda, qaytariqlardan qochishda, shuningdek, tovush (talaffuz) noqulayliklarini bartaraf qilishda unumli foydalaniladi. Sinonimlar ifodalagan tushunchaning belgi darajasi har xil bo'lishi mumkin. Sinonimik qatoridagi ba'zi so'zlar belgini me'yoriy darajada ifodalasa, ayrimlari kuchli yoki kuchsiz darajada ifodalaydi.

Graduonimiya va antonimiya munosabatiga kelsak, bular aslida asosga tayanuvchi semantik hodisalar. Graduonimiya va antonimiya hodisalari farqlanuvlar zaminida shakllanadi. Antonimiyaning an'anaviy va hozirda keng tarqalgan belgilanishida bir graduonimik qatorning ikki qutbi (yorqin chekkalari) olinib, ushbu qatorning oraliq yoki yondosh farqlanuv munosabatlari baholashdan chetda qolgan. Buni masalan, yomon – qoniqarli – yaxshi – a'lo darajalanish qatorida ko'rishimiz mumkin. Bunda haqli ravishda shunday savol tug'iladi: Agar yomon – yaxshi (yaxshi-yomon) o'zaro antonim bo'lsa, shu qatorning qolgan munosabatlari (yomon – qoniqarli, qoniqarli-yaxshi) qanday baholanishi kerak? O'z-o'zidan tushuniladiki, bu qatoridagi har uch munosabat bir xil tusdadir. [2; 155]. Shuning uchun ushbu qator noto'liq emas, bunda yaxshi–yomon katta (kuchli) farqlarga ega bo'lib, kuchli oppozitsiyani tashkil etayotgan bo'lsa, qolgan yomon – qoniqarli, qoniqarli-yaxshi juftliklari kuchsiz oppozitsiyalarni shakllantirayotganligini guvohi bo'lamiz.[3; 157]

Sinonimiya va antonimiya parallel hodisalar bo'lib, biri ikkinchisini inkor qilmaydi, cheklamaydi. Shu sababli har bir antonimning o'z sinonimi bo'lishi mumkin. Shuni qayd etish joizki, til hodisalarini faqatgina sinonimiya tomonidan emas, balki antonimiya nuqtai nazaridan ham o'rganish mazkur hodisani mukammal, chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Biz tadqiqot olib borgan *"beauty/ugliness"* konseptlari inson ongida va nutqida doimo yonma-yon turuvchi, bir-birini taqozo etuvchi, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. *"Beauty/ugliness"* konseptlarini ifodalovchi so'zlarning semantik strukturalaridagi *"yoqimlilik"* hissi avvalo insonga xos. Xuddi shu his insonda turli darajada bo'ladi.

Masalan, *beauty* konseptini *ifodalovchi beautiful – lovely – charming – graceful* leksemalari bir – biriga sinonim bo'lsa, *raving beauty – beauty queen – femme fatale – prince charming* kabilar ham o'zlari ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra sinonim hisoblanishi mumkin. Masalan: *She had lovely (beautiful) hair* [6; 899]; *There are lots of charming (lovely) little restaurants along the river* [6; 241]

Ugliness ma'nosini ifodalovchi *ugly – unsightly – unseemly – unshapely yoki graceless – ungraceful* leksemalari bir-biriga nisbatan sinonim bo'la oladi. Masalan: *Do you think its frame makes the picture look ugly (unsightly)?* [6; 1619]

Unpleasantness – sadness – unhappiness – wretchedness yoki *arching heart-broken heart* kabilar ham bir-biriga sinonim hisoblanadi. Masalan: *Joan's childhood was filled with pain and sadness (unhappiness)* [6; 1311].

Biz tahlil qilgan konseptlarni ifodalovchi leksik birliklar ma'no kuchaytirishni ifodalash jihatdan bir-biriga sinonim hisoblansa-da, qo'llanish jihatdan farq qiladi, ya'ni bir ma'noning har xil darajada kuchaytirishi, turli uslubga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu so'zlar orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlarni ochishda intensivlik shkalasi qo'l keladi. Biz tahlil etayotgan "beauty" so'zi vertikal shkalaning yuqori qismidan, "ugliness" esa quyi qismidan o'rin oladi. Agar "chiroyli" so'zining ma'nosini darajalab kuchsizlantirib keladigan bo'lsak, "yoqimlilik" hissi tobora kamayib borib, oxir oqibat "yoqimsizlik" hissi boshlanadi. Boshqacha aytganda, chiroylilik xunuklikka aylana boradi. Biroq "yoqimsizlik" hissi ifodalanishida ham intensivlik mavjud.

Xulosa.

Xulosa shuki, "beauty" bilan "ugliness" ma'nolari intensivlik shkalasida zanjir hosil qiladi. "Yoqimsizlik" hissi kuchsiz darajadan kuchli daraja tomon o'sib boradi. Boshqacha aytganda, "yoqimsizlik" hissi ham turli darajalarda namoyon bo'la oladi.

Qarama-qarshi, zid ma'no bildiradigan so'zlar biri ikkinchisiga nisbatan antonim hisoblanadi: *long – short, far – near, right – left, love – hate* kabi. So'z turkumlari bo'yicha antonimlar, ayniqsa, sifat va ravishlarda ko'p uchraydi: *good – bad, beautiful – ugly, wide – narrow, fast – slow and, etc.*

Ingliz tilida sifat antonimlarga *ir-, im-, is-, un-* kabi inkor ma'no anglatuvchi prefikslar qo'shilib, ma'noni kuchaytirishi mumkin. Co'zlarning antonim ekanini belgilashda mantiqiy markaz prinsipidan o'rinli foydalanish lozim. Antonimik qutblarning o'rtasi deb faraz qilingan nuqta yoki ikki antonim so'z bildirgan tushunchalar o'rtasidagi oraliq tushuncha mantiqiy markaz hisoblanadi. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biridir. Antonimiyani belgilash, bir tomondan, so'zlarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiya bir so'zning ma'nosini o'zaro farqlashga yordam beradi, shuningdek, sinonimlarni belgilashda ham qo'l keladi.

Ma'lumki, hozirgi kunga qadar antonimlarni belgilashda qatorning ikki qutbi (yorqin chekkalari) olinib, ushbu qatorning oraliq yoki yondosh farqlanuv munosabatlari baholashdan chetda qolgan. Buni, masalan, *beautiful – ugly* qatorida yaqqol ko'rish mumkin. Bu

o'rinda haqli ravishda shunday savol tug'iladi: Agar *beautiful – ugly (ugly – beautiful)* o'zaro antonim bo'lsa, shu qatorida mavjud bo'lgan munosabatlar (*beautiful – hideous, beautiful – grotesque, beautiful – dowdy, beautiful – unshapely*) qanday baholanishi kerak?

Tahlil natijalariga ko'ra *beautiful – ugly (ugly – beautiful)* katta farqlarga ega bo'lib, kuchli oppozitsiyani tashkil etayotgan bo'lsa, (*beautiful – hideous, beautiful – grotesque, beautiful – dowdy, beautiful – unshapely*) kabilar kuchsiz antonimik juftliklarni shakllantirayotganligining guvohi bo'lamiz.

"Beauty/ugliness" konseptini ifodalovchi so'zlarning sinonimik va antonimik munosabatlari

Ifodalash darajasi: Kuchli daraja: **Beauty-** *charming – very attractive, exquisite – extremely beautiful, enchantress – extremely attractive, belle – very beautiful, grow up – very beautiful, handsome – very attractive, magnificent – very impressive;*

Ifodalash darajasi: Kuchli daraja: **Ugliness-** *hideous – very ugly, grotesque – extremely ugly, gross – extremely unpleasant, loathsome – very unpleasant, ghastly – very unpleasant, foul – very unpleasant, odious – very unpleasant;*

Ifodalash darajasi: Kuchsiz daraja: **Beauty-** *graceful – attractive, natty – attractive, slightly – attractive, shapely – attractive in shape, comely – attractive, elegant – attractive, showy – attractive;*

Ifodalash darajasi: Kuchsiz daraja: **Ugliness-** *graceless – not attractive, dowdy – not attractive, awkward – not attractive, unshapely – not attractive, unprepossessing – not impressive or attractive, inelegant – not attractive, grim – ugly and unpleasant;*

Ifodalanish darajasi kuchli yoki kuchsiz ekaniga qarab yuqorida berilgan so'zlar o'zaro sinonim bo'lsa, qarama-qarshi ifodalanish darajasi qatorida berilgan so'zlar antonimik munosabatdadir.

"Beauty/ugliness" konseptlarini ifodalovchi so'zlarning bunday tahlili ular orasidagi nozik sinonimik va antonimik munosabatlarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Demak, "beauty/ugliness" konseptlari intensivlik shkalasida bir semantik zanjirdan o'rin oladi. Har bir konseptni ifodalovchi so'zlar o'z qatoridagi so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Jadval orqali ular orasidagi antonimik munosabatlarni ham aniq ko'rish mumkin. Yuqoridagi qayd etib o'tganimizdek, so'z ma'nosining darajalanishi kuchsiz antonimik munosabatlarning ham shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – Л.: Просвещение, 1973. – 304 с.
2. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. – Toshkent: Fan, 1995. – 32 b.

3. Bozorov O. Graduonimiyaning antonimiya va sinonimiyani shakllantirishdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. 1996. №2 – B. 62 - 64.
4. Ziyaev A.I. Ingliz tilida so‘z ma‘nolarini kuchaytirishning lingvokognitiv aspekti: Filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. – Samarqand, 2009. – 24 b.
5. Hojiev A.P. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 308 b.
6. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Second Edition. – Macmillan Publishers Limited, 2007.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute dotsenti
Anorqulova@list.ru

**“OILA” KONSEPTINING AYRIM LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(ZARBULMASAL ASARI MANTI ASOSIDA)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada insoniyatning eng qadimgi tushunchalaridan biri bo'lgan oilaning o'ziga xos falsafiy, etnik, lingvokulturologik xususiyatlari, shuningdek unga doir ayrim tadqiqotlarning izohi o'rin olgan. Qolaversa, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari matnida qo'llanilgan oila tushunchasiga doir masallar lisoniy-kognitiv jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, nikoh, oilavoy munosabatlar, quda-andachilik, qarindosh-urug'lik, lisoniy aspekt.

Аноркулова Озода Низамджон кизи
Доцент Узбекско-Финдского педагогического института

**НЕКОТОРЫЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КОНЦЕПТА «СЕМЬЯ» (НА
СЮЖЕТЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЗАРБУЛМАСАЛА)**

Аннотация. В данной статье представлены уникальные философские, этнические, лингвистические и культурные характеристики семьи, которая является одной из древнейших концепций человечества, а также объяснение некоторых исследований, связанных с ней. Кроме того, лингвистически и когнитивно проанализированы пословицы о понятии семьи, используемые в тексте «Зарбулмасала» Гульхани.

Ключевые слова: семья, брак, семейные отношения, крестные родители, родство, языковой аспект.

Anorqulova Ozoda Nizamjon qizi
Associate Professor of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

**SOME LINGUOCULTUROLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE "FAMILY" CONCEPT (BASED ON THE
PLOT OF ZARBULMASAL'S WORK)**

Annotation. This article contains the unique philosophical, ethnic, linguistic and cultural characteristics of the family, which is one of the oldest concepts of mankind, as well as an explanation of some researches related to it. In addition, the proverbs about the concept of family used in the text of Gulkhani's "Zarbulmasal" were analyzed linguistically and cognitively.

Key words: family, marriage, family relations, godparents, kinship, linguistic aspect.

Kirish.

Oila - doimiy rivojlanish va o'zgarish jarayonida bo'lgan murakkab ijtimoiy-madaniy obyekt bo'lib, ijtimoiy institut va kichik guruh sifatida qaraladi hamda bolalarni tug'ish va tarbiyalash, bo'sh vaqt va dam olishni tashkil etish, jismoniy salomatlikni saqlashning eng muhim ijtimoiy vazifalarini bajaradi. Zamonaviy sharoitda oila, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida, ikkinchi tomondan, oilada sodir bo'layotgan ichki jarayonlar ta'sirida o'zgarib, o'z taraqqiyotida qiyin, noaniq davrni boshdan kechirmoqda. jamiyat va davlatda sodir bo'layotgan jarayonlarga, oila qadriyatining shaxs uchun ham, jamiyat va butun davlat uchun ahamiyatiga chambarchas bog'liq.

Shu munosabat bilan oila va oilaviy qadriyatlarining falsafiy, aksiologik tahlili biz uchun dolzarb bo'lib, bu oila va nikoh munosabatlari mavjudligining aksiologik asoslarini aniqlashga, umumiy qonuniyatlarning ilmiy asoslangan prognozini berishga imkon berdi. Oilaning boshqa ijtimoiy tuzilmalar bilan, ayniqsa, davlat bilan o'zaro munosabatlaridagi tendentsiyalar, ijtimoiy-madaniy kontekstda oilaning faoliyati va rivojlanishi uning aksiologik tahlilini aniqlash ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bevosita kognitiv qadriyatlarga asoslanadi. Nazariy-kognitiv kontekstda qadriyat obyektga nisbatan hissiy jihatdan yuklangan munosabatni ifodalaydi, u o'z ichiga qiziqishlar, afzalliklar, munosabatlar va boshqalarni oladi, qadriyat ongda va

umuman ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida subyektda shakllanadi.

Mazmun, tuzilish va shakllar nuqtayi nazaridan oila - bu tarixan o'zgaruvchan ijtimoiy guruh bo'lib, uning universal xususiyatlari qarindoshlik munosabatlari tizimi, ijtimoiy va individual shaxsiy xususiyatlarni o'rgatish va rivojlantirish hamda amalga oshirish makonidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Ijtimoiy-falsafiy tafakkurda oila, oila va nikoh munosabatlari, oilaviy munosabatlar tizimini tahlil qilish va ular bilan bog'liq huquqiy-me'yoriy munosabatlar haqidagi g'oyalar ontologik, aksiologik, shuningdek, madaniy-tarixiy kontekstda ko'rib chiqiladi va falsafa bilan uzviy bog'lanadi. Oila va oilaviy qadriyatlarni o'rganishning muhim uslubiy yondashuvi G.Kristensenning tadqiqoti bo'lib, unga ko'ra oila va nikoh tarixini o'rganishni rivojlantirishda uchta asosiy bosqichni ajratish mumkin. :

- 1) teologik (antik davrdan 19-asr o'rtalarigacha);
- 2) metafizik-falsafiy (19-asr 2-yarmidan 20-asr boshlarigacha);
- 3) ilmiy (20-asr). [4]

Bugungi kunga qadar "oila" konsepti ilm-fanning ko'plab sohalarida tadqiq etilgan. Masalan, rus tilshunosligida uning sotsiologik, falsafiy, etnik, lingvistik va shu kabi yo'nalishlarda tahlil etilishi "oila" konseptining keng tarmoqli ekanligini anglatadi. Masalan, A.Perevoznikova oila konseptinign olamning lisoniy manzarasida shakllanishini tadqiq etgan bo'lsa [2: 147-156.], A.Skazko rus madaniyatida "oila" tushunchasining o'zgarishini tadqiq etgan [3: 8.].

O'zbek tilshunosligida esa bunday tadqiqotlarning soni deyarli uchramaydi. Oila haiqda ayrim kichik maqolalar, tezislar mavjud bo'lib, ularda "oila" konseptining to'liq mohiyati qamrab olinmagan. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, quyida "oila" konseptining ayrim lingvistik, madaniy xususiyatlarini ochib berishga urinib ko'ramiz.

Zamonaviy davrda shaxsning individuallashuvi, oila va nikohda yaqinlik, ota-onalarning bolalarga nisbatan "progressiv" munosabati birinchi o'ringa chiqqan bu zamonda qadimdan qolgan urf-odatlar, an'analar ham saqlanib qolinmoqda. Har qaysi zamonda oila insonning eng muhim, doim talpinadigan maskani sanalgan. Shu sababli xalq orasida u bilan bog'liq maqol va matallar, ertaklar, iboralar saqlanilib qolgan va bugungi kunda ham amal qilmoqda. Maqol, matal va ramzli hikoya asosida yaratilgan mashhur asarlardan biri bu "Zarbulmasal" asaridir. Gulxaniyning ushbu asarida 400 dan ortiq maqollar jamlangan. Asarda bosh obrazlar hisoblangan Boyo'g'li va Yapaloq qush o'rtasidagi quda-andachilik mojarolariga duch kelamiz. Bu esa xalqimizning azaliy oila bilan bog'liq bo'lgan qarashlari, turmush tarzini yaqqol ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

"Oila" konseptini tadqiq etishda, avvalo, tilning madaniylashuv masalasiga e'tibor qaratgan holda yondashish to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Negaki, inson va borliq munosabatlari lingvokulturologik aspektda o'z aksini topadi. Oila esa milliy-madaniy qarashlar paydo bo'ladigan, shakllanadigan hamda ajdodlardan avlodlarga yetkazib beriladigan makon sanaladi. Shu nuqtayi nazardan mazkur kichik ishda oilaning madaniy asoslarini xalq maqollari, masallar hamda ayrim tarixiy manbalar asosida ko'rib chiqishga qaror qildik.

Tahlil va natijalar.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida o'nga yaqin masallar oila bilan bog'liq qarashlarni yaqqol aks ettiradi. Jumladan, Ko'rqush Boyo'g'lining uyiga qizi Gunashbonuni so'rab borganida ikkala tarafda ham ko'plab maqollar ishlatiladi. Ko'rqush tomonidan aytilgan "Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'o bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur" maqolida kuyovlikka nomzodning sifatini ta'riflashga harakat qiladi. Ma'lumki, qadriyatlarimizga ko'ra, avvalo, yigit tomondan nikoh taklifi beriladi, uni qabul qilish yoki qilmaslik qizning ixtiyorida. Ikki insonni birlashtirish, oila atalmish go'zal qo'rg'onni yaratishda boshqa shaxslarning aralashuvi ham muhimdir. Ular xalq orasida sovchilar deb yuritiladi. Shu yerda Mahmud Koshg'ariyning "Devon" ida keltirilgan "sav" atamasiga to'xtalishni lozim topamiz. Asarda "sav" so'zi "qissa", "otalar so'zi", "qadimgi voqealardan xabar berish", "hikoya, biror voqeani so'zlab berish", "risola, xat, kichik kitobcha", "so'z, nutq", "ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi" ma'nolarini anglatishi keltiriladi. Bundan tashqari, payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ga ham savchi deb murojaat qilinadi [5:90-91]. Keyinchalik ushbu atama yigit va qiz orasida nikoh taklifi bilan yetkazadigan insonlarga nisbatan ishlatilishni bilan mazmuni torayganligini ko'ramiz. Qadimda sovchilar qiz tomondan ham nikoh taklifi bilan yigit tomonga borishgan, davrlar o'tishi bilan esa bu holat faqat yigitning qiz tomonga nikoh taklifini yetkazadigan insonlarga nisbatan aytiladi. Sovchilik, asosan, gender jihatdan ayollarga xosdek tuyuladi, aslida esa dastlab, sovchilikka erkaklar borishgan. O'z nutqida turli maqtov so'zlar, ta'rif-u tavsiflar bilan yigitning xislatlarini bo'rttirib maqtash, imkon qadar qiz tomonni rozi qilish sovchilarning asosiy xususiyati va vazifalasi sanaladi. Masalda keltirilgan jumlar ham kyovlikka nomzodni maqtash ma'nosida qo'llanilgan.

Shu vaziyatda Ko'rqush va Boyo'g'li orasida bir qancha masal aytishuvlari bo'lib o'tadi. Ular o'z nutqlarida qo'llagan ayrim maqollarni keltiramiz: "Otasi urmas qo'ng'izni, bolasi urar to'ng'izni" (farzandlarni majburlab turmushga berish mumkin emasligiga ishora tarzida aytilgan), "Qizni kim suymas, qimizni kim ichmas" (hamma insonda ham kamchilik bo'ladi degan ma'noda qo'llanilgan) "Erga bersang ishingni, erlar silar boshingni, itga bersang ishingni, itlar chaynar boshingni" (farzandni yaxshi

nomzod bilan turmush qurdirish lozimligiga ishora), “Ayron tilab kelsang, chelagingni yashirma” (sovchilarga nomzodning kamchiliklarini yashirmasdan aytishga nisbatan qo’llanilgan),

Qadimdan “ahli bayt” deb atalgan qarindosh-urug’chilik masalasi ham azaliy qardiyatlardan biri sanaladi. Qarindoshlar orasida sillayi rahmning bo’lishi, bir-biriga mehrlil, oqibatli bo’lish lozimligi ham oilada farzandlar ongiga singdiriladi. Zarbulmasalda mana shunday maqollardan bir nechtasini uchratish mumkin: “Qarindoshing kelsa – kelsin, bo’z xaltasi kelmasin”, “Qarindoshim- qora qozonim, Urug’im – unli chuvonim”, “Qarindoshing o’lsa-o’lsin, qadrdoning o’lmasin”, “Sopol chinni bo’lmas begona – ini”. Demak, qarindoshlik atamasi asarda “urug’” deb atalganiga guvoh bo’ldik. Hozirgi zamon dialektal leksikasida so’zlashuv uslubiga asosan “urug’im” atamasi qo’llaniladi. Ayniqsa, nikoh to’yi jarayonida “qiz/kelin urug’”, “yigit/kuyov urug’” degan jumlar ko’p. Bu esa bevosita nasl bilan bog’liq jarayon bo’lib, oila qurishda mazkur masalaga jiddiy qaraladi.

Oila kengayib, uning a’zolari ulg’aygach, albatta, ota-onalar yoki yaqin qarindoshlar tomonidan farzandlar turmush qurishga yo’naltiriladi. Buning natijasida qarindosh-urug’chilik yana bir tarmoqda kengayadi. Bu kengayish quda-andachilik deyiladi. Qarindoshlik munosabatlari bilan bog’liq suhbatlarda *quda-anda* so’zi ko’p ishlatiladi. *Quda* so’zi ko’pchilikka tanish, biroq, *anda* deganda nimani tushunish birmuncha mavhumdek tuyuladi. *Anda* deganda biz “qudaning qudasi”ni nazarda tutgan bo’lamiz. Bu so’z qudachilik “bordi-keldi”lari ikki qudalar bilangina emas, qudalarning qudalari bilan ham bo’lganligi sababli yuzaga kelgan. Ya’ni kishilar biri qiz berib, ikkinchisi kelin qilib qarindosh bo’lar ekanlar, ularning qudachilik “bordi-keldi”larida boshqa farzandlarining qaynota-qaynonalari ham muhim o’rin tutadi.

“Zarbulmasal” asarida Kordon tilidan “Quda bo’lsa, qul bo’lsa ham so’zlash”, “Quda bo’ldik-judo bo’ldik” kabi masallar mahorat bilan aytilgan. Boshqa davlatlarning madaniy qarashlariga nisbatan sharq, aynan o’zbek milliy mentalitetida quda-andachilik an’analari qat’iy saqlanib kelinmoqda. Bu masalaga salbiy tomondan ham ijobiy tomondan ham munosabat bor. Chunki bu rishtalar juda nozik bo’lib, arzimagan so’z orqali ham uzilishi mumkin, shu sababdan ham quda bo’ladigan oilalar ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan, ham ma’naviy-axloqiy jihatdan ham bir-biriga mos bo’lishi kerak. Qarindosh-urug’lar orasidan nikohning ta’qiqlanishi sabablaridan biri ham shunda, ya’ni o’zaro munosabatlarning darz ketishi bilan bog’liqdir.

Xullas, asarda Gulxaniy juda go’zal masallar orqali oila bilan bog’liq bo’lgan tushunchalarni izohlab beradi. Gunashbonu tilidan aytilgan “Bermas qizning qalini ko’p”, Kuykunak tomonidan aytilgan “katta kema qaydin yursa, kichik kema andin yurur” kabi masallar xalqimizning azaliy qadriyatlarini yaqqol namoyuon etadi. bundan tashqari asarda quda-andachilik marosimlari, ularning bajarilish holatlari ham juda qiziqarli va takrorlanmas tarzda ochib berilgan.

Xulosa va takliflar.

Oila insonning doim talpinadigan, unda huzur-halovat topadigan eng sevimli maskani hisoblanadi. O’zbek milliy madaniyati til elementlari orqali asrlardan-asrlarga saqlanib qolinadi va kelajak avlodga yetkaziladi. Shu asnodda bola ongida oilaga bo’lgan hurmatni shakllantirish ham madnaiy me’ros, milliy qarashlarni unga go’zal yetkazish bilan bog’liqdir. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari xuddis hu maqsadlarni amaga oshirishda muhim manba sanaladi. Oila haqidagi ilmiy-nazariy va tahliliy qarashlarimizni kelgusi ishlarimizda davom ettiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гулханий. Зарбулмасал. (Нашрга тайёрловчи Ф. Исҳоқов.) Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. 80 б.
2. Перевозникова А. К. Эволюция концепта семья в русской языковой картине мира // Лингвострановедение: Методы анализа, техники обучения М.: МГИМО-Университет МИД России, 2004. Ч. 2. С.147–156.
3. Сказко А. С. Трансформация концепта «семья» в культуре России. Ставрополь: Изд-во СГУ. 18 с.
4. Федуллова, Анна Борисовна. Семья и семейные ценности: Философско-аксиологический анализ. Дисс: кандидат философских наук. – Архангельск, 2003. – С. 255.
5. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 3 томлик, 3-том. / таржима ва нашрга тайёрловчи – С. Муталлибов. – Т.: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1963. – 90-91-б.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Raxmatulla Obilov

University of Business and Science, Teacher
orakhmatillo@gmail.com

Ahmadjonov Tursunpolat

University of Business and Science, Teacher

PROVERBS: PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR TRANSLATION CHALLENGES

Abstract. This paper examines the significance of proverbs as phraseological units in literature and the challenges of their translation. Proverbs serve as vital cultural artifacts that encapsulate wisdom, moral lessons, and societal values. The analysis focuses on Kutadgu Bilig by Yusuf Has Hajib, highlighting the role of proverbs in conveying ethical teachings and cultural heritage. Various translations of selected proverbs are discussed to illustrate the complexities involved in preserving their meanings across languages. The study emphasizes the importance of understanding cultural contexts to achieve effective translation.

Keywords: proverbs, phraseological units, translation, cultural heritage, Kutadgu Bilig, societal values, literature.

Raxmatulla Obilov

University of Business and Science, o'qituvchi

Ahmadjonov Tursunpo'lat

University of Business and Science, o'qituvchi

MAQOLLAR: FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNI TARJIMA MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiyotdagi maqollarni frazeologik birliklar sifatida o'rganadi va ularning tarjimasi bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqadi. Maqollar axloqiy saboqlar va ijtimoiy qadriyatlarini o'z ichiga olgan muhim madaniy artefaktlardir. Tahlil Yusuf Has Hajibning Kutadg'u Bilig asariga qaratilgan bo'lib, unda maqollarning axloqiy ta'limotlarini va madaniy merosni yetkazishdagi ro'li ko'rsatilgan. Tanlangan maqollar tarjimalarining turli uslublari muhokama qilinadi, bu esa tillararo ma'nolarni saqlashdagi murakkabliklarni namoyish etadi. Tadqiqot madaniy kontekstlarni tushunishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'lar: maqollar, frazeologik birliklar, tarjima, madaniy meros, Kutadg'u Bilig, ijtimoiy qadriyatlar, adabiyot.

Рахматулла Обилов

Университет бизнеса и науки, Преподаватель

Ахмаджонов Турсунпулат

Университет Бизнеса и Наук, Преподаватель

ПОСЛОВИЦЫ: ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА

Аннотация. В данной работе рассматривается значение пословиц как фразеологических единиц в литературе и трудности их перевода. Пословицы служат важными культурными артефактами, которые заключают в себе мудрость, моральные уроки и общественные ценности. Анализ сосредоточен на *Кутадгу Билиг* Юсуфа Хас Ходжиба, подчеркивая роль пословиц в передаче этических учений и культурного наследия. Обсуждаются различные переводы выбранных пословиц, чтобы проиллюстрировать сложности, связанные с сохранением их значений в разных языках. Исследование акцентирует внимание на важности понимания культурных контекстов для достижения эффективного перевода.

Ключевые слова: пословицы, фразеологические единицы, перевод, культурное наследие, *Кутадгу Билиг*, общественные ценности, литература.

Introduction.

Proverbs are a significant part of human communication, functioning as succinct expressions that encapsulate cultural wisdom, morals, and truths. They are classified as phraseological units—fixed combinations of

words that convey a specific meaning and cannot be easily altered in speech. These units exist as ready-made expressions, compiled in specialized dictionaries, and play an essential role in enriching language and enhancing communication.

The study of proverbs reveals their complex structure and cultural significance. A proverb is defined as a short, familiar saying that expresses popular wisdom in a memorable way. Proverbs possess fixed lexical components, traditional meanings, and are predominantly metaphorical, which makes them not only a linguistic feature but also a vital element of cultural heritage. This paper aims to explore the significance of proverbs in literature, the challenges faced in their translation, and the specific role they play in works like Kutadgu Bilig by Yusuf Has Hajib.

Methods.

This study employs a qualitative approach, analyzing the role of proverbs in both Uzbek and English literature. By examining notable literary works and their translation strategies, the research highlights the linguistic and cultural complexities involved in translating proverbs. The analysis includes specific examples from Kutadgu Bilig, comparing various translations to illustrate how different translators approach the nuances of proverbs.

Results.

Proverbs are not merely linguistic constructs; they embody the collective experiences, beliefs, and values of a culture. They serve as mirrors reflecting societal attitudes and wisdom passed down through generations. The preservation of proverbs illustrates their importance in maintaining cultural identity. For example, Uzbek proverbs often emphasize communal values, moral teachings, and social norms, encapsulating the essence of Uzbek culture.

In literature, proverbs enrich narrative and poetic forms. They have been used effectively by renowned authors such as M. Kashgari, Y.H. Hajib, A. Navoi, and Z.M. Babur in Uzbek literature, as well as W. Shakespeare, J. Chaucer, and G. Byron in English literature. Academic B. Nazarov posits that the historical and social contexts of proverbs provide vivid representations of societies, revealing insights into the lives and thoughts of past generations.

Kutadgu Bilig, an eminent work of Turkic literature written during the Karahanid Empire, is abundant in folk proverbs and aphorisms. This seminal text, composed by Yusuf Has Hajib, serves as a compendium of wisdom and moral guidance, integrating proverbs that illustrate the principles of knowledge, governance, and ethical conduct. The work's genre structure and linguistic style heavily incorporate folklore, showcasing the interplay between oral traditions and literary expression.

The influence of proverbs in Kutadgu Bilig is particularly notable in its didactic purpose. The author employs proverbs to convey lessons on virtue, wisdom, and societal harmony. For instance, a notable quatrain emphasizes the importance of continuous learning and the evolution of wisdom. This quatrain highlights that knowledge is acquired through experience, reflecting the

deeply held belief in the value of education and intellectual growth in Turkic cultures.

Translating proverbs poses unique challenges that require careful consideration of cultural contexts and linguistic nuances. For example, one of the quatrains from Kutadgu Bilig states:

“Toğa bilge toğmaz kişi öğrenür
Toğa sözlemez til turu sözlenür
Kişi öğrenip ötrü bilge bolur
Bilig bilse ötrü kamuğ iş önür.”

In English, this can be translated to mean:

“No one is born wise; one learns later.
A human's tongue learns to speak as they grow.
One becomes wise through learning,
Flourishing when knowledge is acquired.”

Robert Dankoff's translation of this quatrain effectively captures the essence but may overlook the deeper cultural and idiomatic meanings embedded in the original lines. His translation aims for clarity but sacrifices some of the original's poetic rhythm and metaphorical richness. Conversely, Walter May's version, while modern and accessible, employs terms like “expert” and “know-how,” which can detract from the historical context and gravitas of the original text.

The challenge arises because proverbs often do not have direct equivalents in other languages. As G. Salamov points out, certain phraseological units cannot be translated with equivalents. This limitation necessitates that translators either find a suitable equivalent or convey the main idea while retaining the essence of the proverb. The translator's choices can significantly influence the reader's perception and understanding of the original work.

Discussion.

The complexities of translating proverbs and phraseological units across different languages require a nuanced understanding of both linguistic structures and cultural contexts. The case of Kutadgu Bilig illustrates how deeply rooted proverbs are in the cultural fabric of Turkic society, reflecting their values and beliefs.

Translators must navigate the delicate balance between literal translations and cultural adaptations. The goal should not only be to convey the words but to capture the underlying meanings and emotions that proverbs evoke. This task is particularly challenging given the historical and cultural distance between the original text and the target language audience.

In addition to linguistic challenges, the translator must also consider the audience's cultural background. For instance, proverbs that resonate with one culture may be unfamiliar or meaningless in another, requiring creative approaches to convey similar sentiments. The essence of proverbs often lies in their cultural specificity, making them rich yet challenging for translation.

Conclusion.

The translation of proverbs and phraseological units presents significant challenges that require a deep understanding of both languages involved and their cultural contexts. Proverbs serve as vital cultural artifacts, reflecting societal values and wisdom throughout history. In works like *Kutadgu Bilig*, the presence of proverbs enriches the narrative and underscores the importance of knowledge and moral conduct.

Translators must strive to preserve the integrity of the original work while adapting the expressions for clarity and relevance in the target language. By recognizing the importance of proverbs, translators can contribute to the broader understanding and appreciation of cultural literature, ensuring that the wisdom embedded in these sayings is not lost in translation.

References.

1. Abdullayev, H. *Xalq maqollarining Qutadg'u bilig poetikasidagi o'rni va badiiy estetik funksiyalar*. Fil. Fan. Nomz. Diss. Tashkent, 2004.
2. Arat, R.R. *Kutadgu Bilig II Çeviri*. Turk Tarih Kurumu Basimevi, Ankara, 1994.
3. Balasaguni, Yusuf. *Beneficent Knowledge*. Translated into English by Walter May. Moscow, 1998.
4. Dankoff, Robert. *Wisdom of Royal Glory*. The University of Chicago Press, Chicago, 1983.
5. Древнетюркский словарь. Издательство "Наука", Ленинград.
6. <https://en.wikipedia.org/wiki/Proverb>
7. https://ibn.idsi.md/vizualizare_articol/83032
8. Salamov, G. *Language and Translation*. Tashkent, 1978.
9. Salomov, G., Komilov, N. *Do'stlik ko'priklari*. Tashkent, 1979.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

N.B.G'oiptova

Namangan davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

NUTQNING MEYORIDA RIVOJLANISHIDA LOGORITMIK MASHQLAR TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqning rivojlanishida logoritmik mashqlarni tutgan o'rni. Ritmik mashqlarni, musiqiy komponentni birlashtirib, nozik vosita mahoratini rivojlantirish. Nutqda uchraydigan kamchiliklarni logoritmik vositalardan foydalanib bartaraf etish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nutq terapiyasi, logoritmika, ritmik mashqlar, musiqa, ritm, nutq ritmi, musiqiy ritm, eshtish ritmi.

Н.Б. Гоипова

Наманганский государственный педагогический институт, преподаватель

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ ЛОГАРИФМИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В НОРМАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РЕЧИ

Аннотация: Роль логарифмических упражнений в развитии речи в данной статье. Развитие мелкой моторики путем сочетания ритмических упражнений и музыкальной составляющей. Объясняется устранение дефектов речи с помощью логарифмических средств.

Ключевые слова: Логопедическая деятельность, логоритмика, ритмические упражнения, музыка, ритм, речевой ритм, музыкальный ритм, слуховой ритм.

N.B. Goipova

Namangan State Pedagogical Institute, teacher

THE IMPORTANCE OF USING THE SYSTEM OF LOGARITHMIC EXERCISES IN THE NORMAL DEVELOPMENT OF SPEECH

Abstract: The role of logarithmic exercises in speech development in this article. Development of fine motor skills by combining rhythmic exercises and a musical component. Elimination of speech defects using logarithmic means is explained.

Key words: Speech therapy activities, logorhythmics, rhythmic exercises, music, rhythm, speech rhythm, musical rhythm, auditory rhythm.

Kirish.

Insoniyat uzoq vaqtdan beri insonda psixomotor ko'nikmalarning rivojlanishi uning vosita mahoratining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini payqagan. Oddiy qilib aytganda, insonning o'z tanasini ongli ravishda boshqarishi va uning asosiy funksiyalaridan foydalanish qobiliyatini oddiy vosita (motor) mashqlarisiz rivojlantirib bo'lmaydi. Bu funksiyalarga inson nutqi kiradi. Shuning uchun ham vosita faoliyati va inson nutqining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik aniq bo'ladi.

Kichkina bola uchun vosita funksiyalarining rivojlanishi uning atrofidagi dunyoni bilish jarayonining birinchi bosqichidir. Bu bosqichda odam o'z tanasini boshqarishni o'rganadi, iliq, yumshoq, sovuq, issiq va hokazolarni kutib olishdan bevosita his-tuyg'ularni oladi. Va boshqa davr uchun (nisbatan aytganda, u bolalar

bog'chasida bo'lganida) bola dunyo haqidagi intellektual bilimlarini birlashtiradi. Jismoniy sezgilar orqali dunyoni odatiy to'g'ridan-to'g'ri o'rganishi bilan.

Logoritmika aynan shu faktga asoslanib, ritmik mashqlarni, musiqiy komponentni birlashtirib, nozik vosita mahoratini rivojlantiradi. Bularning barchasi nutq buzilishlarini tuzatishga va bolalarda muloqot qilish qobiliyatini yaxshilashga imkon beradi.

Logoritmika nima? Bolalar uchun logoritmika - nutq terapiyasining maxsus yo'nalishi. Ushbu usulning nomi "nutq terapiyasi ritmi" atamasining qisqartmasi bo'lgan qo'shma so'zdir. Nomidan ko'rinib turibdiki, logoritmika ritmik asboblardan yordamida nutqni tuzatish bilan shug'ullanadi. Ushbu vositalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- so'z;

- musiqa;
- harakat (raqs);
- musiqa asboblari chalish.

Texnika mantiqiy, majoziy va assotsiativ fikrlashni, vizual idrok etishni, vosita qobiliyatlarini, xotirani va e'tiborni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, o'yinlar va vazifalarni o'z ichiga oladi. Mashg'ulotlarning o'zi ko'pincha musiqa hamrohligida olib boriladi, bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va hayajonli qiladi. Nutq va artikulyatsiya buzilishlarini tuzatishdan tashqari, logoritmikalar:

- nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- muloqot qilish uchun motivatsiyani oshiradi;
- bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi.

Qoida tariqasida, logoritmik mashqlar 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- o'yin vazifalari;
- qo'shiqlar ijrosi;
- she'r o'qish;
- nutq va aqlni rivojlantirish uchun mashqlar;
- Nozik vosita ko'nikmalarini va muvofiqlashtirishni o'rgatish uchun mashqlar.

Logoritmikani yakka tartibda yoki guruhda mashq qilish mumkin. Mashqlarning qiyinchilik darajasi bolaning yoshi va individual xususiyatlariga qarab tanlanadi. Ritmik mashqlar bolada to'g'ri nafas olishni rivojlantiradi, bu unga tovushlar va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi, shuningdek, murakkab birikmalar va uzun iboralarni talaffuz qilishda unga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi.

Shuni tushunish kerakki, eng yaxshi natijalarga erishish uchun logoritmik mashg'ulotlar ushbu texnikani yaxshi biladigan tajribali nutq terapevtining rahbarligi ostida o'tkazilishi kerak.

Metadologik asos : Harakat inson organizmiga qadimdan, hali tibbiyot endi ko'z ocha boshlayotgan davrda profilaktik va davolash vositasi sifatida energiya ta'sirining natijasi kabi qo'llanilgan. Ritmik va logoritmik ta'sirning odamlarga ahamiyatini ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganlar V.M.Bexterev.

V.A.Gilyarovskiy logopedik ritmika umumiy tonus, motorika, kayfiyatga ta'sir ko'rsatishini yozadi. U markaziy asab tizimidagi asabiy jarayonlarning siljishini mashq qildirishga, qobiqni faollashtirishga ko'maklashadi.

Ye.V.Chayanova, Ye.V.Konorova logopedik ritmika diqqat (uning konsentratsiyasi, hajmi, mustahkamligi, tarqatish) ni, xotirani (ko'rish eshitish, motorli, mantiqiy, majmuaviy) rivojlantiradi deb hisoblaydilar. V.A.Griner va nemis tadqiqotchilari K.Koler (Cr.Kohler) K.Shvabe (Chr.Schshabe) logopedik ritmika psixoterapevtik usul (jamoaviy-psixologik usul, musiqaterapiya) sifatida foydalanish mumkinligini ko'rsatadilar.

Tajriba va metodlar: Logoritmikaning asosiy maqsad va vazifalari.

Logoritmikani ikki nuqtai nazardan ko'rish mumkin:

1.So'z, musiqa va harakatni birlashtirgan maxsus texnika nuqtai nazaridan. Logoritmikada ushbu elementlarning har biriga urg'u berilishi mumkin. Ushbu yondashuv ushbu metodologiyani juda moslashuvchan va ko'p qirrali qiladi, bu o'qituvchilar va ularning talabalari uchun ijodkorlik uchun joy beradi.

2.Reabilitatsiya usullariga kiritilgan elementlardan biri sifatida, uning maqsadi turli xil anomaliyalar va nutq buzilishlarini tiklashdir.

Ushbu ikki yondashuv bilan bog'liq holda, logoritmikaning maqsadi boshqacha shakllantirilishi mumkin:

- fikr va his-tuyg'ularni samarali yetkazishga qodir bo'lgan uyg'un, erkin va ifodali nutqni shakllantirish. Natijada, muloqot jarayonida talabalarga ishonch va qulaylik hissini berish;

- nutq buzilishlarini nutqiy bo'lmagan aqliy funksiyalarni rivojlantirish orqali tuzatish (nafaqat nutq uchun mas'ul bo'lganlar) va oxir-oqibat - odamni normal nutq muhiti sharoitlariga moslashtirish.

Maqsadlarni ikki tomonlama tushunishga qaramay, logoritmikaning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1.To'g'ri nafas olish va nutq paytida nafas olishni nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish.

2.Nutqning to'g'ri intonatsiyasi va ritmini shakllantirish.

3.Tovushlarning artikulyatsiyasi va talaffuzini takomillashtirish.

4.Fonemik eshitish va nutq ritmini idrok etishni rivojlantirish.

5.Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish va nutq buzilishining oldini olish.

6.Muloqot ko'nikmalarini va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Qanday hollarda logaritmika zarur?

Logoritmik mashg'ulotlarga nutqida o'ziga xos nuqsonlari bo'lgan, shuningdek nutq funksiyalari normal rivojlangan, ammo u yoki bu sabablarga ko'ra muloqot qilishda qiynaladigan (xijolat, siqilish, qandaydir psixologik jarohat olgan va hokazo) bolalar qatnashishi mumkin.). Nutq disfunktsiyalari haqida gapiradigan bo'lsak, logoritmikalar tavsiya etiladi:

1.Alaliya, dislaliya va dizartriya kabi nutq buzilishlari bo'lgan bolalarda nutqni va tovushlarni talaffuz qilishni yaxshilash.

2.Nutq ritmining buzilishini tuzatish uchun (xususan, duduqlanishi bo'lgan bolalarda).

3.Nutq rivojlanishi kechikkan bolalarda fonemik eshitish va eshitish nutqini idrok etishni rivojlantirish uchun.

4. Nutq organlarining motorli ko'nikmalarini mustahkamlash va rivojlantirish: til, lablar, ovoz paychalarining, og'iz mushaklari.

5. Intonatsiyani, nutqning ekspressivligini va diksiyani yaxshilash.

Logoritmik mashqlarni bajarish qoidalari

Logoritmikani mashq qilishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

- o'rganilgan harakatlarni to'g'ri assimilyatsiya qilish;

- atrofdagi makonda harakat qilish qobiliyati;

- o'quvchilarning topshiriqlarni to'g'ri tushunishlari;

- qiyinchiliklarni yengish va natijalarga erishishga diqqatni jamlash qobiliyati;

- bolaning ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi.

Bunday holda, o'qituvchi:

- miyaning turli sohalari faoliyatini qo'zg'atish jarayonini o'rgatish uchun maqbul sharoitlarni belgilash;

- musiqa jo'rligining tempi va ritmini, harakat mashqlari dinamikasini to'g'ri tanlash;

- bola va butun guruh uchun eng mos ritmni aniqlash;

- barcha guruh a'zolari, shu jumladan eng zaiflar uchun qulay sharoitlar yaratish;

- darslarga ijodiy yondashish bilan yondashish, darslarni monoton holga keltirmaslik;

- bolaning yoshini, qobiliyatlarini va nutq rivojlanishining buzilish darajasini hisobga olgan holda, uning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish.

Logoritmikada jismoniy mashqlar turlari

Barcha mashqlarni uch toifaga bo'lish mumkin:

1. Nutq ritmi. Nutq a'zolari mushaklarining motorli ko'nikmalarini rivojlantirish va nutqni ritm bilan sinxronlashtirish uchun mashqlar. So'z yoki iboralarni ma'lum bir ritm bilan takrorlash, turli xil nutq ritmik o'yinlarida ishtirok etish (she'r o'qish, qiroat, rechitativ va boshqalar) kiradi.

2. Eshitish ritmi. Bu tinglash va ritmni tan olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar. Berilgan ritmni takrorlash (qarsak chalish, marsh, ovoz), turli xil tovush birikmalariga taqlid qilish, o'z ritmik naqshlarini yaratish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

3. Musiqiy ritm. Bu musiqa asboblarini chalish, qo'shiqlar kuylash, musiqiy o'yinlarda qatnashish, musiqiy asar asosida skitslar ijro etish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Xulosa.

Yuqoridagi logopedik ritmikani logopedik korreksion ishlar bosqichida qo'llashning samaradorligi haqida o'zbek olimlarining izlanishlari juda kam. Bu esa, mavzuning dolzarbligini belgilaydi va mavzu yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilishiga sabab bo'ladi. Logoritmik mashqlar orqali bolalar nutqining meyorida rivojlanishiga tasir etish, nutqda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish, nutqiy harakatlarni meyorlashtirish, nutq ravonligini oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida bolalarda uchraydiga nutq nuqsonlarini bartaraf etishda katta ahamiyatga ega. Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda logoritmik vositalarning samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim" Qo'qon – 2023 y
2. Amirsaidova Sh., Abidova N., Djalolova Z., Xamidova M. va boshqalar. Maxsus psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014 y. – 346 bet.
3. Po'latova P.M., Nurmuxamedova L.Sh., Yakubjanova D.B., Mamarajabova Z.N., Amirsaidova Sh.M. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiya, 2014 y. – 368 bet.
4. Abdullaeva Q. Bola tasavvuri va lugatini boyitish usullari: ilmiy metodik tuplam. - T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1997. -12 b.
5. Agranovich, 3. E. Sbornik domashnix zadaniy v pomomni logopedam i roditelyam dlya preodoleniya leksiko-grammaticheskogo nedorazvitiya rechi u doshkolnikov s ZPR [Tekst] / 3.E. Agranovich. – SPb. : DETSTVO-PRESS, 2007. – 128 s.
6. Arkin, E.A. Doshkolnyy vozrast [Tekst] / E. A. Arkin. – M., 2008. – 335 s.
7. Axutina T.V., Fotekova T.A. Diagnostika rechevnyx narusheniy shkolknikov s ispolzovaniem neyropsixologicheskix metodov: Posobie dlya logopedov i psixologov. M.: Arkti, 2002. – 64 s.
8. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007,2011. –600 b.
9. Ayupova M.Yu., Aripova Sh.D. To'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz. Metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2015. –236
10. Belova- David. "Narushenie rechi u doshkolnikov" M." Vlados "2001

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Alpanova Shirinxon Hakimovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti

MULOQOTNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Annotatsiya: Maqolada nutqiy faoliyatning lingvokulturologik jihatlari yoritilgan. Muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liqligi xususidagi qarashlar til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, sinxron, diaxron, psixolingvistik, diskurs, obyekt, subyekt.

Alpanova Shirinkhan Hakimovna

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)
Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics of Andijan State University

LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF COMMUNICATION

Abstract: Linguistic and cultural aspects of speech activity are covered in the article. Aspects of communicative behavior related to the national character, as well as views on its connection with human psychology and physiology, were assessed as an anthropocentric approach to the language system.

Key words: linguoculturology, cognitive linguistics, pragmatics, synchronic, diachronic, psycholinguistics, discourse, object, subject.

Алпанова Ширинхан Хакимовна

Доктор философии в филологии (PhD)
Доцент кафедры узбекского языкознания Андижанского государственного университета

ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБЩЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются лингвокультурные аспекты речевой деятельности. Аспекты коммуникативного поведения, связанные с национальным характером, а также взгляды на его связь с психологией и физиологией человека, оценивались как антропоцентрический подход к языковой системе.

Ключевые слова: лингвокультурология, когнитивная лингвистика, прагматика, синхроника, диахроника, психолингвистика, дискурс, объект, субъект.

XXI asrning dastlabki yillarida o'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar salmoqli o'rin egallay boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika, psixolingvistika kabi yangi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilganligi bilan ahamiyatlidir. Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga e'tiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarda ko'zga tashlangan bo'lsa ham, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani

tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti haqida ham turli qarashlar mavjud. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi.[1.222] V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi.[2.208] Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

Nutqiy muloqot inson faoliyatining mahsuli. Insoniy faoliyatda subyektiv, ya'ni inson uchun obyektiv - insondan tashqarida bo'lgan borliq uchun xos tomonlarni ajratish, bir-biridan farqlash faoliyat jarayonida subyektivlik sanaladi. Subyektivlik va obyektivlikning o'zaro uyg'unlashuvini o'rganish masalasida faylasuflar, ruhshunoslar va tilshunoslar xilma-xil nuqtai nazarda turadilar. Haqiqatdan ham, insoniy faoliyat har bir individning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, insoniy faoliyat mohiyatan subyektivdir. Faoliyat alohida individlar tomonidan amalga oshirilsa-da, bu faoliyat boshqa bir individlar tomonidan o'qiladi, baholanadi va unda shaxsiy munosabat tuyg'ulari uyg'onadi.

Ma'lumki, nutqiy birliklarning hosil bo'lishi va ularning tushunilishi aqliy faoliyat natijasidir. Bu faoliyatning bajarilishi bevosita lisoniy bilimga ega bo'lish sharti bilan bog'liq. Negaki, lisoniy bilimsiz voqelikni bilish, kechayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotni aks ettiruvchi mantiqiy strukturalarni lisoniy ifodalashning imkoni yo'q. Shunday ekan, kognitiv tilshunoslikka lisoniy qobiliyatning tarkib topishini tushuntiruvchi fan sifatida qaralishi bejiz emas.[3.17] Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy(mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganish tadqiq obyektiga turli jihatlardan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi. Matn yaratilishida yozuvchi (yoki so'zlovchi) omilini tadqiq etish individual uslub masalasini ham chuqurroq yoritishga olib keladi. Zero, tilshunosligimizda muayyan yozuvchi yoki shoir uslubi asosan so'z va gap sathi misolida o'rganilgan. Individual uslubga bu tarzda yondashuv ko'p hollarda ijodkor uslubining barcha qirralarini to'liq ko'rsata olmaydi.

N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda: "Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so'zlaydi"[4.108] Shu sababli ham, muayyan shaxs uslubi u yaratgan matnlar asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning so'z qo'llash yoki jumla tuzish mahorati nuqtai nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi nuqtai nazaridan o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqidagi, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liqligi xususidagi

qarashlar ham o'rin olganki, buni til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. "Muloqot muammosini milliy xarakter, millat aholisining o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o'rganish mumkin emas. Olamning lisoniy manzarasi "Olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy hamda majburiy usullari majmui; olamni idrok etish va kontseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullar yig'indisidir"[5.56] "Olamning lisoniy manzarasi" quyidagi vazifalarni bajaradi: olamni o'ziga xos ko'rishni ta'minlovchi interpretativ vazifa, olamda o'z o'rnini aniqlashga imkon beruvchi regulativ vazifa hamda voqelikni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish vazifalari. Lisoniy kontseptuallashtirishga jarayon sifatida qaraladi, chunki olamning lisoniy manzarasining ayrim uzvlari vaqt o'tishi bilan paydo bo'lishi, ravshanlashishi yoki xiralashishi mumkin bo'lgan dinamik sistema" [6.12]

So'zsiz, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha ta'riflar asosida ijtimoiy kommunikatsiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o'zaro "axborot - ma'no hamkorligi" sifatidagi talqini yotadi. Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan "hamkor"ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishonitirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o'zlari e'tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo'lmish belgilar so'zlovchi tomonidan o'z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg'ularini izhor etish uchun ham qo'llanishini bilamiz. Lisoniy muloqotning xuddi shu jihatlari e'tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o'zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo'lishini tasavvur qilish mumkin bo'ladi.[7.28]

Lisoniy muloqot jarayonida ijro etiladigan vazifalarning turli-tumanligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar miqdori haqida bildirilayotgan fikrlar ham turlicha.[8.59] Insonlarning voqelik haqidagi bilimi sub'ektiv jihatdan ma'lum darajada farq qilishi mumkin, lekin shuning bilan birgalikda yagona muhitda yashaydigan shaxslar shu muhit uchun umumiy bo'lgan tamoyillar va qonun-qoidalarga amal qilishini ham unutmazlik lozim. Xuddi shu narsa muloqotdagi shaxslarning voqelik idrokida o'ziga xos "shaxslararo kelishuviga" olib keladi. Kommunikatsiya voqelikning *subyektiv tasavvurida* qisman muqobillik va qisman nomuqobillikni taqozo etadi.

Til insonlarga o'zaro fikr almashish imkoniyatini berar ekan, har gal ummon kabi o'z bag'rida yashirgan duru javohirlarini namoyon etaveradi. Lisoniy va idrokiy jarayonlar o'zaro uyg'unlashib, yagona nutqiy

tafakkurni yuzaga keltiradi. Demak, nutqiy faoliyatning amalga oshirishining asosiy sharti har bir shaxsning umr bo'yi to'plagan lisoniy bilimi va hayoti davomida shakllangan lisoniy qobiliyatidir. Tilimiz jonkuyari, professor N. Mahmudov ta'biri bilan aytganda, "Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o'ziga xosligi borliqni ko'rishning, idrok etishning ham ma'lum ma'nodagi o'ziga xosligidir. Har bir xalq o'zicha ko'radi, eshitadi, zavqlanadi." Ya'ni har bir xalqning o'ziga xosligi uning turmush tarzida, fikrlash darajasida, lisoniy bilim va qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Implitsitlik nutqiy kommunikatsiyaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, bu xususiyat badiiy matn semantikasida yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy nutqni tahlil etgan ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, matnda ifodalangan fikr qanchalik yashirin bo'lsa, u shunchalik ta'sir kuchiga ega bo'ladi. [9.136]

Diqqatni jalb etadigan jihatlardan biri shuki, inson qalbining tubida asraydigan eng nozik his tuyg'ularini, intim kechinmalarini hech qachon oshig'iga yoki ma'shuqasiga tik qarab ayta olmaydi. Asriy qadriyatlar va an'analarga qat'iy rioya qiladigan o'zbek millatiga mansub insonlarda bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. Maktub yoki sms orqali, telefonda ovozli xabar qoldirish orqali izhor qilish osonroq va qulayroq tuyuladi. Agar yuzma-yuz gaplashishdan o'zga chora bo'lmasa, beixtiyor boshqa tilga murojaat qiladi – rus, ingliz, fransuz, fors, arab... Bunday holatga jahon adabiyotidan o'zbek adabiyoti namunalariidan istalgancha misol keltirish mumkin. L.N. Tolstoyning "Urush va tinchlik", "Anna Karenina" asarlaridagi sevgi mojarolari, Pushkinning "Evgeniy Onegin"i, Turgenev, Dostoevskiy asarlaridan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Biz Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romaniga murojaat qilamiz. "O'sha kuniyoq Yusuf Zahroga telefon qildi..."

–Taxminan bilib turibman shoshilinch uchrashuv sababini – dedi Zahro ular chog'roq kafeda "koka kola" ichib o'tirisharkan.

–Nima ekan? – Yusuf ayolning to'g'ri chamalaganiga qaramay so'radi.

–**Зачем спрашиваешь, знаем же мы оба, что ты хочешь порвать со мной.**

–**А ты что думаешь по этому поводу?** Yusuf ham beixtiyor Zahroga ergashib ruscha so'zlarkan, ayni damda o'yladi: "Nega ruscha? Bu madaniyat belgisimi, rang-baranglikka intilishmi yoki ruschada fikrlar dadil va ravon chiqadimi? Balki noshar'iy munosabat bo'lgani bois o'z gunoh va uyatingni o'zga til ortiga yashirishga urinishdir bu? Ya'ni axloqimni-ku buzdim, hech qursa, tilim bulg'anmay tursin, degan olijanoblikmi?"

...Ular jimgina yurib, katta yo'lga chiqishdi.

Yusuf mashinalardan birini to'xtatdi.

–Kuzatib qo'yaymi?

–**Ненадо я сама...** Zahro mashinaga o'tirayotib, so'radi:

–**Звонить будешь?**

–Kuchim yetsa, yo'q, bilmadim...

–Yaxshi qoling... Zahro yuzini mashinaning qorong'u tarafiga oldi.

–Yaxshi boring, – Yusuf nega "siz"lab xayrlashganini o'ziyam bilmadi." [10.179]

Yusuf uch do'stning ichida eng kuchlisi, eng donosi, eng ko'rkami, eng olijanobi edi, ammo taqdir unga kulib boqmadi. Oradan ancha yillar o'tib do'stlarini qo'l yetmas cho'qqilarda ko'rdi, o'zi esa adolatparvarligidanmi, haloligidanmi, rostgo'yligidanmi na mansabga, na boylikka, eng yomoni na oilaga ega bo'ldi. Unga zarurat bo'lgan pullarni do'stlari hoyu-havasari yo'lida behuda sovurayotganlarini ko'rgan yigitning qalbi ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ayovsiz kurash girdobida qoldi. Yusuf alamzada edi. Shu tuyg'u do'stning yuziga oyoq qo'yishiga, boyligu hashamat ichida yolg'iz qolib ko'ngliga, ruhiyatiga mos inson izlayotgan Zahro bilan xiyonat yo'lga kirishiga sabab bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan ikkisi ham vijdon azobida qolishdi. Chunki ularning ruhiyati bunday pastkashlik, razillikni ko'tara olmasdi. Agar o'sha orzulari osmon qadar bo'lgan talabalik yillarida Yusufga vaqti kelib sen jonajon do'sting Mirazimga xiyonat qilasan yoki Zahroga ishqingda majnun bo'lgan Mirazim hech qancha vaqt o'tmay duru javohirlar ichida seni yolg'iz qoldiradi va hozir akangday hurmat qilganing Yusufning qo'yniga kirasani deganlarida bunday sharmandalikdan o'limni afzal ko'rishgan bo'lardi. Dunyoning ishlarini qarangi, bugun ikkalasi ham o'zlarini bir qancha sabablar bilan oqlaganlari holda bu jirkanchlikka qo'l urdilar. Ammo bu xiyonat na Zahroga ruhiy osoyishtalik, na Yusufga alamdand chiqish imkonini berdi. Bu chohdan chiqish uchun Yusuf birinchi qadamni qo'ydi. Zahro ham yo'l izlayotgan edi, bu taklif ma'qul bo'ldi. Ular o'zligiga qaytdilar. Rus tiliga ham ehtiyoj qolmadi, o'rtaga yana ko'rinmas muqaddas parda tortildi.

–Yaxshi qoling... Zahro yuzini mashinaning qorong'u tarafiga oldi. (Bu yaxshilik alomati edi. Axir Yusuf nomahram, axir u erining eng yaqin do'sti, axir Zahro yengiltak ayol emas, axir uning ko'zlariga qanday tik qaraydi, axir Zahro ona, qizlarini jonidan ortiq ko'radi, hayotini ular uchun qurbon qilsa arzimaydimi.)

Yaxshi boring, – Yusuf nega "siz"lab xayrlashganini o'ziyam bilmadi.

Yusuf nega o'zbekcha gapira boshlaganiyu, nega sizlay boshlaganini o'zi ham izohlab bera olmas lekin nima bo'lganda ham ijobiy tarafga ekanligini ich-ichidan his qilardi. Bu uning ruhiyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq edi. Chunki Yusufning ruhi toza edi, chunki u xiyonatkor emasdi. Bu ularning asl qiyofasi edi.

O'zbek tilidagi nasriy asarlarni kuzatish shundan dalolat beradiki, poetik kommunikatsiyaning amalga oshirishda tadqiqotchilar tomonidan "sub'ektiv-tahliliy" deb nomlangan strategiya turi juda ko'p qo'llanadi. Mazkur strategiya real voqelikni modellashtirishning

o'ziga xos usuli bo'lib, unda matn muallifining referentni til unsurlari orqali tasvirlashidan ko'ra, unga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalash maqsadi ustunlik qiladi. Bunday usulning muhim nolisoniy xususiyati shundaki, unda o'quvchi omili yuqori darajada amal qiladi.

Darhaqiqat, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida,

madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks etishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
3. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода// Вопросы языкознания, 1994, №4. –с. 17-33.
4. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 108
5. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2000. – 47 б.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 12
7. Красных В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. –М.: Гнозис, 2002. –284 с.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б.59
9. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 136.
10. Улуғбек Ҳамдам. Мувоzanат. Т., 2004. Б.179

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi
muydinovmuhammadzoir@gmail.com

УДК: 372.881.161.1

SHOYIM BO'TAYEV HIKOYALARIGA GERMINEVTIK YONDASHUV

Annotatsiya : Ushbu maqolada Zamonaviy hikoyachilikda germinevtika va unga oid ma'lumotlar va islohotlar yoritilgan bo'lib, aynan hikoya tahlilida germinevtikaning tafakkur rivojlanishidagi muhim bo'lgan ahamiyati to'la yoritilgan.

Kalit so'zlar: Germinevtika, hikoyachilik, tahlil, lug'atshunoslik, Shoyim Bo'tayev ibratli hikoya, Adabiyot, tahlil, tavsir, sharq, uyg'onish davri, kreativlik.

Муйдинов Мухаммадзоир Зафарджонович
Независимый научный сотрудник Коканского государственного педагогического

ГЕРМИНЕВТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАССКАЗАМ ШОЙИМА БОТАЕВА

Аннотация: В данной статье герменевтика и связанные с ней сведения и реформы освещены в современном повествовании, а также полностью освещено важное значение герменевтики в развитии мышления при анализе истории.

Ключевые слова: Герменевтика, повествование, анализ, лексикология, Шойим Ботаев Великий рассказ, Литература, анализ, интерпретация, Восток, эпоха Возрождения, творчество.

Muydinov is the son of Muhammadzoir Zafarjon
Independent researcher of the Kokan State Pedagogical Institute

Annotation: In this article, hermeneutics and related information and reforms are covered in modern storytelling, and the important importance of hermeneutics in the development of thinking in the analysis of the story is fully covered.

Key words: Hermeneutics, storytelling, analysis, lexicology, Shoyim Botayev A great story, Literature, analysis, interpretation, east, renaissance period, creativity.

Kirish

O'zbekistonda yangi uyg'onish- Uchinchi Renessans davri boshlandi. Barcha sohalarda kundan kunga yangi yutuqlar va yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishi hamda kundan –kunga rivojlanishning jadallashuvi buning yaqqol isbotidir. Mamlakatda ta'lim sifatini, uni jamiyatda kechayotgan islohotlardagi o'rni va ishtirokini ta'minlamay turib, taraqqiyotga yuz tutish mushkul. Shu ma'noda yurtimizda halqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim-tarbiyaning samarali omillaridan keng ko'lamda foydalanish, bu jarayon qatnashchilari orasida ongli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, milliy merosimidan unumli foydalanishni taqozo etadi. Shu ma'noda hikoyachilikka daxldor barcha bilimlar bizga asqotadi.

Germinevtik hikoyachilik bu zamonaviyligi sababli asl ma'nosi tushunarsiz bo'lgan matnlarni tushunish, va talqin qilishni o'rganuvchi san'at hisoblanadi. Yunonchadan olingan ushbu so'z "tushunishish va tushuntirish o'qituvchisi" deb ham talqin qilinadi.

Adabiyotlar Tahlili

Hikoya germenevtikasi qadimgi yunonistonda paydo bo'lgan bo'lib, o'rta asrlarda germenevtikaning vazifasi faqatgina injilni sharxlash bo'lib qoldi. Uyg'onish davrida esa anglash san'ati rivojlanishi bilan o'sha paytdagi germenevtika ham milliy tillarga tarjima qilish asosi deya qaraldi. 19-asrda esa germenevtika tarixiy bilimlarning eng muhim uslubiga aylandi. M.Haydeggerning ta'kidlashicha germenevtika o'tmishdagi madaniyat asarlarini talqin qilishning metodologik masalalari bilan cheklanib qolmay, u insoniyat mavjudligining asosiy tuzilmalari, voqelikka munosabatini ham yoritadi.

Tahlillar va natijalar.

Bugunning germinetikasi aynan bugungi talablarga moslashadi. Bugungi yosh avlod har tomonlama mukammallika intilar ekan, yangicha dunyoqarash bilan birgalikda hikoyalarning asl ma'nosini bilishi va oqilona fikr yuritishda foydalanishi va yangicha usulda ularni tatbiq qilish aynan germinetikaning rivoji uchun xizmat qilmoqda.

Aksariyat manbalarda hikoyani tahlil qilish nazariyasi sifatida e'tirof etiladigan germinetika, tom ma'noda juda keng doirada qo'llanuvchi sohalar aro ta'limotdir. Chunki, ma'noni talqin qilish, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharxlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san'atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi. Hikoyaga germinetika yondashuv talabaning tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. G'arb mutafakkiri Gadamerning fikriga ko'ra hikoyani haqiqiy tushunishning asosi uning germinetikasidir va unga mahsuldor munosabatidir. Bu bilan hikoyani bevosita tushunish jarayonini yengillashtiradi. O'quvchi hikoyani o'rganar, bo'layotgan voqeani, hodisani talqin qilar ekan, o'rganuvchining tasavvuri, mulohazalari doimo hikoya mazmunini, ruhiyatini aynan aks ettiradi va tafakkurini yanada rivojlantiradi.

Misol uchun Shoyim Bo'tayevning "Haykal" hikoyasi germinetika tahlilga olsak, har bir detallar g'oyat kuchli hissiy qudratga ega, ular shu zahotining o'zida kitobxonga yetib boradi va unga kuchli ta'sir etadi. Ayrim yozuvchilar ba'zan butun boshli xarakter mohiyatini asosan portret tasviri orqali ochadi. Bunda u shunday yo'l tutadi: dastlab qahramon qiyofasidagi xarakterli belgilarni birma bir aytib o'tadi, so'ngra bu tafsilotlarni bitta xarakterli detal orqali umumlashtiradi, yozuvchi keltirgan tafsilotlar xarakter qiyofasining u yoki bu tomoni haqida tasavvur qilish imkonini bersa, umumlashtiruvchi detal xarakter qiyofasini yaxlit va lo'nda qilib gavdalaniradi, qo'yadi, ayni vaqtda shu detal xarakter mohiyatini ham belgilaydi, xarakterni biz xuddi shu detal orqali tasavvur qilamiz.

Shoyim Bo'tayevning so'z jilosidan oqilona va kerakli o'rinlarda foydalanib, mahorat bilan ishlangani quyidagi satrlarda ko'rinadi: "Hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan, aslida, ko'zni sal kattaroq ochib qarasa, har qanday odam ko'ra oladigan oddiy, ayni paytda g'aroyib voqea sodir bo'lgan shaharning bodu havosi, meva-chevasi va boshqa mayda-chuydasi haqida mehmon irimiga bo'lsada bir og'iz so'z aytmagandi. U faqat shahar o'rtasidan o'tadigan, bir vaqtlar suvi zilolday bo'lgan daryoning endilikda chiqindilarga to'lib-toshib, bo'tanaga aylanib, tuproq qal'adagi devday to'lg'anib oqib yotishini o'z hikoyasiga qistirib o'tgandi. Ba'zilar, ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba'zilar esa aksincha gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko'payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko'rishga ko'zlari, otishga o'qlari yo'q, deyisharkan.

Harholda, bu yurimsak gaplarning qay biri to'g'ri-yu, qay biri bo'htonligini ajrim qilish bo'tana suvni ko'rib turganday oson ish emas ekan.

Yuqorida keltirilgan hikoyaning so'zlarining asl ma'nosini germinetika nuqtai nazardan ochadigan bo'lsak, o'z o'rnida va yetarli darajada o'quvchini o'ziga tortib olishi ham hikoyaga nisbatan o'zgacha qiziqish va jilo berib turishiga guvoh bo'lamiz.

Shoyim Bo'tayev hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishonirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Har qaysi o'quvchi o'zicha tushgunadi. Shuning uchun ham mazkur yozuvchining hikoyalari germinetika tahlilga juda mos keladi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'lagi, epizodi bo'lib gavdalanadi. Hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Avtor yoki personajlar tomonidan aytilgan gaplarga, asardagi detallarga, voqealarga kitobxon ishonmasa, hatto shubha qilsa ham, asarning qiymati qolmaydi". Detalni tafsilotdan farq qimoq kerak. Tafsilotdan farqli o'laroq, detal qisqa va ixcham bo'ladi. Masalan, "Haykal" hikoyasidagi mana bu qismiga e'tibor beraylik: "Birov biron narsa xarid qiladimi-qilmaydimi — farqsiz, kirib kelib, besh-olti kishi sig'adigan xarrakka o'tirib oladi. Negaki, terifurushning uzoq-uzoq yurtlardan yo'qlab keladigan oshnolari bisyor. Ular shunchalik ko'p narsalarni bilishadiki, eshitib yoqangni tutamlaysan, tavba, tarvuzday bir kallaga shuncha gap sig'adimi-ya, deya hayron qolasan".

U tasvir ob'ektini sintezlashtirib ko'rsatish, u haqida kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega". Detal haqida maxsus kitob yozgan boshqa bir olim, taniqli adabiyotshunos va publisist Saydi Umarov esa unga quyidagicha ta'rif beradi: "Detal, odatda, yirik planda beriladi, u o'quvchini bir lahza to'xtatib, uning diqqat e'tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir ob'ektini bo'rttirib, qabartirib ko'rsatib, u haqda tez va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi". Shoyim Bo'tayevning "Haykal" hikoyasi ham o'z o'rnida detallarning o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Buni esa aynan hikoyaga germinetika yondashib, aniqlasak bo'ladi.

Zamonaviy hikoyalarning ni ilmiy tahlilida germinetikaning ahamiyati kattadir. Germinetika tushunilishi og'ir bo'lgan matnini anglash kechimi, ruhoniyl butunlikning betakror qismlarda ifodalanish yo'sinini tushunishdan iborat.

Keksa ajdodlarimiz ibratli voqea-hodisalar orqali bolalarni tarbiyalash usulidan keng foydalanishgan. Shu ma'noda farzandlariga ibratli voqealar, hikoyalarni so'zlab bergan. Ibratli hikoyalar qisqaligi va yodda qoluvchvnligi, ta'sir doirasi kengligi bilan tarbiyada ahamiyatli hisoblangan.

Masalan, quyidagi Shoyim Bo'tayev ijodidagi ibratli hikoyani tahlil qilamiz: bir kuni ko'chada sayr qilib yurgan

kishi yo'l chetida o'tirgan keksa odamni ko'rib qoldi. U mo'ysafidning qarshisiga kelib, murojaat qildi:

– Otaxon, ulug' yoshli inson ekansiz, anchagina uzoq hayot yo'lini bosib o'tgansiz. Shubhasiz, juda dono bo'lsangiz kerak. Ayting-chi, mana, men yosh va kuchliman-u, ammo hech qayerdan ish topa olmayapman, o'g'lim giyohvandlikka berildi, qizimni ham yaxshi tarbiyalay olmayapman, ayolim esa kun bo'yi uyda o'tirsa ham, hech qayerga qaramaydi. Xo'sh, men bu vaziyatda qanday yo'l tutishim kerak? Nima qilsam, bularning hammasini o'zgartira olaman?

Qariya javob berdi:

– Eshiging ustiga kichkinagina taxtacha osib, unga "Hamisha shunday bo'lavermaydi" deb yozib qo'y.

– Shu xolosmi? – hayron bo'ldi erkak.

– Shu xolos, – javob qildi keksa kishi.

U uyiga borib, qariya aytgandek qildi. Bir qancha vaqt o'tgach, uning o'g'li giyohvandlikni tashladi va hatto qilgan ishi gunoh ekanini tan olib, tavba qila boshladi. Qizi yosh bilan yigit bilan yaxshi ko'rishib, oila qurdi. Ayoli ham o'zgardi va risoladagi bekaga aylandi. Erkakning o'zi esa serdaromad ishga joylashdi va ko'p o'tmay, hatto mashina sotib oldi. Kunlarning birida u tanish ko'chadan o'tib borayotib, ikki yilcha oldin keksa mo'ysafidni uchratgan joyida to'xtadi. Qariya hali ham shu yerda o'tirgandi. Erkak uning oldiga yaqinlasharkan, mashinadan tushmagan holda, uning oynasini ochib, so'z qotdi:

– Ha, boboy, haliyam o'tiribsizmi? Men bo'lsa, ko'rib turganingizdek, ancha narsaga erishdim. O'g'lim giyohvandlikni tashladi, endi u taqvoli yigit, qizim sevib, sevilib turmushga chiqdi. Ayolim ham yaxshi rafiqaga aylandi. O'zim ishga joylashdim va endi ishxonamda martabali boshliqman. Siz esa haliyam o'shandek o'tiribsiz, no'noq chol! Xo'sh, endi menga nima deb maslahat berasiz?

Bu gaplardan qariyaning chehrasi o'zgarmadi, aksincha, u suhbatdoshiga xotirjam tikilganicha, dedi:

– Haligi taxtacha bor edi-ku, shuni olib tashlamagin...

Hikoyada boshingga qandaydir tashvish kelsa, bundan tushkunlikka tushib ketma, aksincha, juda zo'r hayot kechirayotgan bo'lsang, bundan havolanib ketma, hamisha shunday bo'lavermaydi, degan hikmatli gapni shior qilib olgin, deyiladi germinetivik tahlilida.

Hikoya hikmatomuzligi bilan birga nihoyatda hayotiy. Deylik, barchamizning boshimizdan kechirishimiz mumkin bo'lgan yoki kechirgan iholatimizni qamrab olgan. U shu jihati bilan esda qolarli va ibrat bo'larli, eng asosiysi tarbiya usulida ishonchligi bilan ahamiyat kasb etadi. Afsuski, oliygohlar o'qituvchilarining aksariyati maktabni bitirib endigina katta hayot ostonasiga qadam qo'ygan talabalarni tarbiyasiga e'tibor berishmaydi. Aksincha, talabamisan, maktab bolasimisan, istasang o'qi, istamasang, katta ko'cha, qabilida muomala qilishadi. Ammo yuqorida zikr etilgan hadisdan kelib chiqadigan

bo'lsak, tarbiyalanishning, ilm olishning chegarasi va vaqti yo'q. Shunday ekan, qaysi fan o'qituvchisi qanday mavzuni o'tishidan qat'i nazar, auditoriyada mavzuga yoki talabalarning kayfiyatiga qarab ibratli voqealarga bir necha soniyalarni ajratsa, birinchidan, talaba darsdan chalg'imagan holatda zerikish hissini tuymaydi. Ikkinchidan, o'qituvchi ma'naviyatini o'z ongida kashf eta boshlaydi. Uchinchidan ibratli voqea orqali o'zi, yaqinlari hayotida ro'y bergan turli holatlar bo'yicha xulosa chiqaradi. Bugun maktab yoki universitet hovlisida o'quvchilar, talabalar kattalarga "salom" bermasligidan ko'pchiligimiz noliymiz. Ammo o'qituvchilar ularga salom berib o'tishimiz mumkin-ku. Shu orqali ular bizni ko'rganlarida salom berishga odatlanishadi. Mana Shoyim Bo'tayev ijodidagi hikolalarning germinetivik tahlili natijalari.

Ibratli hikoyalar orqali tarbiya jarayonini yengillashtirishga, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi "oltin o'rtaliq"ni topishga erishish mumkin. Kechagidek, yodimda, ingliz tili fanidan yozma ravishda ko'p xatoga yo'l qo'ygan kursdoshimdan fan o'qituvchisi vatanparvarlik haqida biron bir hikoya aytib berishini so'ragandi. Kursdoshim chiroyli bir hikoyani aytib bergandi. O'qituvchimiz unga yaxshi o'qigin deb yaxshi baho qo'yib bergandilar. Endi anglab yetdimki, o'z Vatani sevgan, unga sadoqatli bo'lgshan insondan, kitob o'qiydigan yoshlardan hech qachon yomon inson chiqmaydi. O'sha kursdoshim hozir yaxshi bir maktabning direktori, ta'lim a'lochisi. Minglab vatanparvar yoshlarni tarbiyalayapti.

Millatimizning ertangi kuni yoshlarimiz qo'lida ekanligi, ularning tarbiyasi hayot-mamot masalasi ekanligiga har bir ota-ona, o'qituvchilar, yurt kelajagiga befarq bo'lmagan har bir fuqaro jiddiy qarashimiz kerak. Shu ma'noda tarbiya usullarida yana ajdodlarimizdan qolgan usullardan, jumladan, yoshlarni kitobxonlikka o'rgatishdan, hikoyalarni germinetivik tahlil qilib, hikoyalar asosida nasihat qilishdan, eng avvalo, ibrat qilib ko'rsata oladigan o'z hayot tarzimizni qurishimizdan foydalanishimiz kerak.

Ma'naviy tafakkurning kengligi, ilmiy salohiyatning yuksakligi har qanday davr uchun ijobiy natija olib kelgani tarximizdan ma'lum. Ilm olish uchun esa insonga tarbiya, intizom kerak. Iqtisodiyotda harajatsiz harakatning ko'effitsiyenti nolga tenglashtiriladi. Tarbiyasiz ta'lim ham xuddi shunday. Talaba oliygohni tamomlagani haqidagi diplomga bo'lishi mumkin, ammo tarbiyasi mukammal bo'lmasa, o'z ortidan o'nlab, yuzlab yoshlarni tarbiyasizlikka chorlashi turgan gap. Ilgari ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchilarning axloqsizligi haqida maqolalar, turli axborotlar tarqalmagan. Zero, o'qituvchi umrbod o'zining o'qituvchi ekanligini, pedagog ekanligini, ortidan bolalarni ergashtirib yuruvchi kasb egasi ekanligini his qilib yashagan.

Xulosalar.

Germenevtikani talqin qilish va tushunish usullariga murojaat qilish zarurati hikoya tahlilchisining, birinchi navbatda, har xil turdagi matnlar bilan ishlashi bilan izohlanadi. Tushunish doirasining kengayishi hermenevtik doiraning to'rtinchi ishtirokchisi - potentsial o'quvchi-talabalar o'rtasida amalga oshadi va talabalar orqali o'tadi, u kitob haqida ma'lumotni birinchi o'qituvchining ning og'zaki yoki reklama tasviri orqali oladi. Birinchi o'quvchining ma'nolari ikkinchi o'quvchining tegishli ma'nolarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, biz hermenevtik doirani yangi tushuncha orbitasiga olib boradigan ushbu to'rtinchi ishtirokchi orqali "ma'no birligini kengaytiruvchi konsentrik doiralar" haqida gapirishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa fanda gadamer taktikasi deyiladi. Aynan gadamer taktikasini adabiyotga yo'naltirish orqali esa o'quvchilarda adabiyotga bo'lgan qiziqishni yanada orttirish va bugungi kundagi davlat siyosati darajasiga aylangan kitobxonlikni ommaviy targ'ibot qilishga eishish mumkin.

Adabiyot va jamiyat, adabiy asar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish asarning maqsadini ham, ularni tushunishni ham oldindan belgilab beruvchi janrni kutish ufqini qayta yaratishga qodir bo'lgan darajada

sotsiologik va psixologik soddalashtirishlardan qochish imkonini beradi. kitobxonlar tomonidan taqdim etiladi va shu orqali ularni u yoki bu tarixiy vaziyatni avvalgi dolzarbligi bilan tushunishga undaydi.

Talabalarni fikrlashga, tinimsiz o'z ustida izlanishga undovchi kuch bo'lgan o'quvchiga tanish bo'lmagan yangidan yangi bilimlarni ham aynan zamonaviy hikoyalarga asoslangan holda anglashimiz va yangicha tushuncha va bilimlarni keng jamoatchilikka yoyishga erishishimiz mumkin.

Ta'lim, fan va izlanish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko'nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir necha xalqlar taqdiriga daxldor bo'lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanmoqda.

Narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va tushuntirish fan oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, zamonaviy hikoyalarning mohiyatini o'rganish ma'naviy – ma'rifiy tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Diltey V. Vvedeniye v nauku o duxe / Sobr. soch.: V 6 t. t.1.-M.: 2000.
2. Diltey. V. Hermenevtika i teoriya literaturi. Sobr. soch. v 6 t. — M.: Dom intellektualnoy knigi, 2001. - T. 4.
3. Jabborov Sh. Hermenevtika – tushuntirish san'ati. –Toshkent: Akademiya, 2010.
4. Jabborov Sh., Abdushukurov B. Sharq hermenevtikasining o'ziga xos xususiyatlari. –Toshkent: Akademiya, 2013.
5. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar / Nazarov Q. tahriri ostida. -Toshkent: Sharq, 2005.
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug`bek-hamd-1968>
7. Shoyim Bo'tayev hikoyalarida xayol va haqiqat (maqola) 977
8. Dilmurod Qur'onov "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent Navoiy universiteti 2018
9. Ziyouz.com "So'z" hikoyasi. 2013 2. Ziyouz.com "Ko'nglimdagi daryo" 2014
10. Ziyouz.com "Bir piyola suv" 2013
11. www.wikislovar.ru
12. <http://www.philosophypages.com/dy/>
13. <http://www.seop.leeds.ac.uk/entries/husserl/>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich
Namangan davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri
PhD, dotsent
fellow-257@mail.ru
УДК: 372.881.161.1

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLARNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning me'yorlashuv bosqichlari, ularning har bir davrdagi statistik tahlili keltirilgan. Olingan natijalar asosida o'zbek tilining leksik tarkibini statistik tahlil qilish va o'zbek tili lug'at tarkibini o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: o'zlashmalar, til tarixi, taraqqiyot bosqichlari, statistik tahlil.

Kuziyev Umidjon Yandashaliyevich
Head of Uzbek language and literature department
Namangan State University
PhD, docent

STAGES OF DEVELOPMENT OF LOANWORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: This article examines the stages of standardization of loanwords in the Uzbek language, providing a statistical analysis of each period. The results obtained allow for a statistical analysis of the lexical composition of the Uzbek language and provide insights into the study of its vocabulary.

Keywords: Loanwords, Language History, Stages of Development, Statistical Analysis.

Кузиев Умиджон Яндашалиевич,
Заведующий кафедры узбекского языка и литературы,
Наманганский государственный университет
PhD, доцент

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы нормализации заимствованных слов в узбекском языке, приводится их статистический анализ за каждый период. На основе полученных результатов появляется возможность провести статистический анализ лексического состава узбекского языка и изучить состав узбекского лексикона.

Ключевые слова: заимствования, история языка, этапы развития, статистический анализ.

Kirish.

Til ijtimoiy tabiatga ega voqelik sifatida uch xil vazifa bajaradi: kommunikativ vazifa, kumulyativ vazifa, direktiv vazifa⁷¹. Yuqoridagi har uch omil so'z o'zlashtirishdek muhim lingvistik va ijtimoiy hodisaga aloqadordir, shu sabab so'z o'zlashuvi lingvistika, sotsiologiya, tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik kabi sohalarining o'rganish obyekti hisoblanadi. So'z o'zlashtirish jamiyat bilan uzviy bog'liq hodisa bo'lib,

o'zlashtirish obyekti bo'lgan tushuncha yoki narsa jamiyat tomonidan ehtiyoj bo'lgandagina tilga kiradi. Sun'iy ravishda qabul qilingan keraksiz so'zlar esa tabiiy ravishda lug'at tarkibidan nome'yoriy hodisa sifatida siqib chiqariladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

⁷¹ Бу ҳақда қаранг: Мирзоева А.А., Султанова И.М. О методологических принципах общественной природы изучаемых языков // Filologiya masalalari, № 6. – Ozarbaycan, Baku, 2012. – 53-бет.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy turkologiyada soʻz oʻzlashtirilishining turli aspektlardagi tadqiqi qozoq tilshunosligida L.Rustemov, A.Niyazgʻaliyeva, M.Jambilkizi, K.Koch, G.Kuzembayeva, tatar tili misolida E.Axunzyanov, M.Maxmutov, A.Yarullina, M.Xayrullin, fonetik oʻzlashishi turk tili misolida Xalil Ibrohim Iskandar, M.Stachovskiy, chuvash tilida V.Yegorov, V.A.Ivanov, E.Fomin tomonidan tadqiq etilgan.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz oʻzlashishi yuzasidan koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu yoʻnalishdagi dastlabki urinish F. Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida oʻz aksini topgan boʻlsa, keyinchalik bir qator koʻzga koʻringan olimlarning ilmiy ishlarida ham shu sohaning ayrim qismlari oʻrganib chiqilgan. Oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish E. Begmatov⁷², A.R. Rustamov⁷³, B. Bafoyev⁷⁴ singari olimlarning ilmiy izlanishlarida ochib berilgan. Shuningdek, oʻzbek tili leksikasining taraqqiyot yoʻllari, uning etimologik tarkibi, oʻzbek tilidagi oʻzlashma va baynalmilal soʻzlarning lingvistik xususiyatlarini oʻrganish A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, M.M. Mirzayev⁷⁵, N. Gʻulomova⁷⁶, K. Yusupov⁷⁷, T.Rahmonov, O.P.Antonova⁷⁸ singari tilshunoslarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar. Oʻzbek tilida soʻz oʻzlashuvini davrlashtirishda yozma manbalarga tayanganimiz uchun ham turli tillardan kirgan soʻzlarning kirib kelish davri koʻpincha manba topilgan hudud va muallif shaxsi bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Jumladan, Sharqiy Turkiston va Fargʻona vodiysidan topilgan yodgorliklarda buddaviylikka oid diniy qoʻlyozmalar matnida sanskritcha, hindcha va xitoycha oʻzlashmalar Oʻrxun-Enasoy obidalariga nisbatan koʻproq kuzatiladi. Shu jihatdan arabcha oʻzlashmalar mavjud turkiy manbalar “Qutadgʻu biligʻ”, “Hibat ul-haqoyiq” asarlari islom tamaddunining eng sharqiy qismida yaratilgan boʻlib, oʻsha vaqtdagi Samarqand, Buxoro, Shosh kabi ilmiy markazlardagi asarlar hali oʻrganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oʻzbek tilidagi soʻz oʻzlashuvi jarayonini mavjud manbalar asosida quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Qadimgi turkiy til davri. Xitoy, hind, sanskrit, tibet tillariga oid oʻzlashmalar mavjud boʻlgan. Turkiylar yashagan hududlardagi aholining turli dinlarga eʼtiqod qilishi, masofalar uzoqligi tufayli boshqa millat vakillari bilan qoʻshnichilik aloqalari rivojlanishi natijasida bu tillarning taʼsiri turlicha boʻlgan deyishimiz mumkin. M. Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu biligʻ”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy” asarlarida cherik, sart, roy kabi sanskritcha soʻzlar, shad, xatun (xotin), ajun (ochun), kend kabi soʻgʻdiycha soʻzlar, baxshi, kug (kuy, musiqa), qam (shomon), loxtay (mato nomi), tegin (shahzoda), yabgʻu, yinju, tarxan, xaqan, xan, tugʻ (bayroq) singari xitoycha soʻzlar kuzatiladi⁷⁹. Alisher Navoiy asarlarida qoʻllangan 26000 dan ortiq soʻzlar orasida 70 ta soʻzning asosini hindcha soʻzlar tashkil qilgan⁸⁰.

2. Eski turkiy til davri. Bevosita fors-tojik, keyinchalik arab tiliga oid oʻzlashmalarning keng miqyosda oʻzlashtirilishi yuz berdi. Buning bir necha sabablari bor edi: turkiy xalqlarning islom diniga yoppasiga oʻtishi, Markaziy Osiyoda hukm surgan somoniylar sulolasining davlat tili siyosati, aholi turmush tarzining koʻchmanchilikdan oʻtroqlashuvga oʻta boshlashi bilan amalga oshdi. Fors-tojik tili forsiy va turkiy xalq vakillarining asriy qoʻshnichilik munosabati, siyosiy munosabatlar taʼsirida aralashuv roʻy berib, koʻproq kasb-hunar, maishiy hayot bilan bogʻliq leksikani tashkil etadi. Mahmud Koshgʻariy oʻz “Devon...”ida ayrim turkiy qabilalar tili, jumladan, oʻgʻuzlar tili fors-tojik tili taʼsirida leksik oʻzgarishlarga uchraganini yozadi⁸¹. Bu ikki xalqning munosabatini tavsiflash uchun Tatsiz Türk bolmas, bashsiz boʻrk bolmas maqolini keltiradi. “Devonulugʻotitürk”dabirqanchaoʻzlashmaforsiyoʻzlar ham tavsiflanadi⁸². Arabcha soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashishi bevosita VIII asrdan kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol oʻynagan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalishi; d) arab yozuvining qoʻllana boshlaganligi; g) madrasalarda arab tilining oʻqitilishi; e) turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmining) tarkib topganligi; f) olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va b.lar⁸³. Arablar bosqini davrida ilm oʻchogʻi boʻlgan koʻhna maʼbadlar, kutubxonalar yoʻq qilindi. Mashhur

⁷²Бегматов Э.А. Собственный пласт лексики современного литературного языка: Дисс. д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988; шу муаллиф. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1989.

⁷³Рустамов А.Р. Фонетико-морфологические особенности языка А. Навои: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Тошкент, 1966.

⁷⁴Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои. Лексико-семантические, статические и тематическая исследования: Дисс. канд. филол. наук. – Т.. 1989.

⁷⁵Мирзаев М. Тил қандай ривожланади. – Тошкент, 1972.

⁷⁶Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – 112 с.

⁷⁷Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент, 1974.

⁷⁸Антонова О. П. Семантика узбекских заимствований русскоязычных художественных произведениях писателей Узбекистана: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 243 с.

⁷⁹Дадабаев Ҳ. Древние заимствования в системе общественно-политической и социально-экономической терминологии узбекского языка XI-XIV вв. // Адабий мерос, 3(57), 1991. – 46-53-бетлар.

⁸⁰Бафоев Б. Навоий тилида ҳиндча сўзлар // ЎТА, №4, 1991, 38-бет

⁸¹Кошғарий М. Девону луғатит турк. I жилд – Тошкент, 1960. – 65-бет.

⁸²Güner, Galip. Dîvânülugâti't-türk'te oğuzcaolarak geçen künde "rezil, aşığilik" kelimesinin etimolojisi üzerine notlar // Gazi Türkiyat, Bahar 2015 / 16 : 15 – 21. Manba: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/1924039>

⁸³Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – 190-bet.

sayyoh Istaxriy XI asrda Movarounnahrğa kelib, Buxoro hali ham xarobalar ichida yotganini yozadi. Shundan kelib chiqsak, tarixiy sharoit ham olimlarning Bagʻdodga tomon oqishiga sabab boʻlgan. Bu holat ilmiy terminologiyaga ham katta taʼsir koʻrsatgan. Aytish muminki, bu davrda arabcha oʻzlashmalar turkiy tilga toʻliq singimagan. Turkiy tafsir, ayrim didaktik asarlarda diniy-maʼrifiy termin sifatida qoʻllanilgan xolos.

3. Eski oʻzbek tili davri fors-tojikcha va arabcha oʻzlashmalarning badiiy adabiyotga, siyosatga, kundalik soʻzlashuvga faol kirib kelishi bilan tavsiflanadi.

Fors-tojik tilining yana bir xususiyatining yodda tutish zarur: bu til arab tili, islom dini va madaniyatini turkiy xalqlarda targʻib qilishda vosita vazifasini ham

bajargan. Koʻpgina arabcha oʻzlashmalar avval fors-tojik tiliga, u orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan. Ikkinchi sabab sifatida – adabiyotni keltirish mumkin. Aruz talabiga moslash, ohangdorlikka intilish natijasida arabcha va forsiy oʻzlashmalar sheʼriyatga kirib keldi. Tarix kitoblar ham oʻsha davr anʼanasiga koʻra arabiy va forsiy izofalar, iboralar qolip sifatida ishlatila boshlandi. Sheʼriyatda turkiycha soʻzlar qofiya va vaznga moslash uchun unlilar va urgʻular almashinuvi kabi oʻzgarishlar yuz berdi.

Oʻzbek tilshunosligida B.Bafoyev quyidagi shoirlar ijodi misolida oʻzlashma soʻzlar statistikasini amalga oshirgan. Bunda 100 ta soʻz tanlab olinib, oʻrtacha qoʻllanishlar soni berilgan.

1.1.1.-jadval

Eski oʻzbek tilidagi soʻzlarning etimologik-statistik tahlili.

No	Shoirlar	Jami	Turkiy soʻzlar	Arabiy soʻzlar	Fors-tojikcha soʻzlar	Turkiy soʻzlar (%)	Arabiysoʻzlar (%)	Fors-tojikcha soʻzlar (%)
1	Gadoiy	95	49	25	21	51,6	26,3	22,1
2	Atoiy	96	53	25	18	55,2	26,0	18,8
3	Lutfiy	96	71	16	9	74,0	16,7	9,4
4	Sakkokiy	98	69	15	14	70,4	15,3	14,3
5	Husayniy	93	60	17	16	64,5	18,3	17,2
6	Navoiy	94	55	20	19	58,5	21,3	20,2
7	Rabgʻuziy	5428	2943	2155	330	54,2	39,7	6,1
Oʻrtachasalmogʻi % da						61,2	23,4	15,4

Jadvalni tahlil qilsak, sof turkiy soʻzlardan foydalanish darajasi Lutfiy va Sakkokiy ijodida yuqori (74 % va 70 %), shunga mos ravishda ularda arabcha soʻzlar 15 % atrofida, forsiy soʻzlar 10 foiz atrofida qoʻllangan.

Arabcha oʻzlashmalar eng koʻp qoʻllangan asar “Qisasi Rabgʻuziy” boʻlib, mazkur holat asarning diniy-maʼrifiy xarakterda ekanligi bilan tavsiflanadi. Badiiy matnlarda arabcha oʻzlashmalar salmogʻi 15–26 foiz, fors-tojikcha soʻzlar salmogʻi 9–22 % ni tashkil etgan.

Hozirgi oʻzbek tili bilan qiyoslaganimizda (3.4-jadvalga qarang), turkiy soʻzlar qoʻllanishida deyarli farq yoʻqligi (66 %), arabcha (23 % dan 11 % ga) va fors-tojikcha soʻzlar (15 % dan 8 % ga) qoʻllanishi esa kamayganini kuzatishimiz mumkin.

Arab tilidan kirgan soʻzlar asosan ot turkumiga mansubligi, shuningdek, mavhum tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar ekanligi bilan ajralib turadi. Oʻzbek ismlari tarkibida ham arabcha, shuningdek, islom dini bilan bogʻliq boʻlgan yahudiycha antroponimlar katta salmoqqa ega.

Oʻzbek tilidagi arabiy oʻzlashmalar va soʻz birikmalarini oʻrganish oʻtgan asrning 40-yillaridan boshlangan. Bu yoʻnalishdagi dastlabki urinish F. Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida oʻz aksini topgan boʻlsa⁸⁴, keyinchalik bir qator koʻzga koʻringan olimlarning ilmiy ishlarida ham shu sohaning ayrim qismlari oʻrganib chiqilgan. Oʻzbek tilidagi oʻzlashma soʻzlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish E. Begmatov⁸⁵, A.R. Rustamov⁸⁶, B. Bafoyev⁸⁷ singari olimlarning ilmiy izlanishlarida ochib berilgan. Shuningdek, oʻzbek tili leksikasining taraqqiyot yoʻllari, uning etimologik tarkibi, oʻzbek tilidagi oʻzlashma va baynalmilal soʻzlarning lingvistik xususiyatlarini oʻrganish A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, M.M. Mirzayev⁸⁸, N. Gʻulomova, K. Yusupov⁸⁹ singari tilshunoslarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

XX asr soʻngida til siyosati amalga oshirilgan vaqtga koʻpgina Yevropa tillaridan kirgan oʻzlashmalar arabcha muqobillariga almashtirib koʻrildi, koʻpgina qismi isteʼmolda qoldi.

⁸⁴Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Т, 1945.

⁸⁵Бегматов Э.А. Собственный пласт лексики современного литературного языка. – Дисс. д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988. Шу муаллиф. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1989.

⁸⁶Рустамов А.Р. Фонетико-морфологические особенности языка А. Навои. Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1966.

⁸⁷Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои. Лексико-семантические, статические и тематическая исследования.: Дисс. канд. филол. наук. – Т.. 1989.

⁸⁸Мирзаев М. Тил қандай ривожланади. – Тошкент, 1972.

⁸⁹Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент, 1974.

Lekin keyinchalik arabcha o'zlashmalarining iste'moldan chiqib borishi kuzatildi. Jumladan, Navoiy asarlarida uchraydigan nujum, nusrat, qurbat, qutr kabi so'zlar hozirgi tilimizda uchramaydi.

Fors-tojikcha o'zlashmalar masalasiga to'xtalganda, O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlar – so'g'd, baqtriya, xorazmiy, parfiyon, parikaniylarning tili eroniy tillar guruhiga mansub bo'lganini eslab o'tish joiz. Qadimdan qo'shnihilik munosabatida yashab kelgan xalqlar tilida so'z o'zlashtirish barcha sharoitlarda – ikki tillilik, og'zaki nutq, bosma manbalar vositasida amalga oshib borgan. O'zbek va fors (tojik) tillari orasidagi munosabatdoshlik barqaror til kontakti darajasiga yetishgan va uni til kontaktlarining proksimal ko'rinishi deb bema'lol aytish mumkin. Chunki, bu grammatik qurilishi har xil bo'lgan ikki til jamoasi o'rtasidagi bog'lanish, ya'ni til kontaktidir⁹⁰.

Fors-tojikcha o'zlashmalar turkiy tilning barcha tematik guruhlari, barcha turkumlarda uchraydi. Ayniqsa, belgi ifodalovchi so'zlar, shuningdek, mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'zlar katta salmoqqa ega. Fors-tojikcha o'zlashmalar miqdor jihatdan arabcha o'zlashmalardan ustunlikka ega.

4. Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'aviy o'zgarishlari XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo'lib, XX asr 1-choragida yakunlangan. "O'zbek tili leksikasidagi bu o'zgarish XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning chor Rossiyasiga qo'shib olinishi natijasida mamlakat hayotida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda o'zbeklarning ruslar bilan bevosita aloqaga kirishuvlari bilan bog'liq edi"⁹¹. Mazkur davr faol leksikasini o'rganishda O.Usmonov hamda SH.Hamidovlar tuzgan glossariy muhim ahamiyatga ega. Undagi ma'lumotlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida chop etilgan arabiy yozuvdagi nashrlar, kitoblardagi ishlatilgan 2146 ta so'z, so'z birikmasi, arabiy va forsiy izofalar jamlangan. Ularni jadvalda quyidagicha aks ettirdik:

1.1.2.-jadval

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zbek bosma nashrlarida qo'llangan so'zlarning etimologik-statistik tahlili.

Tillar	O'zbek	Rus	arab	fors-tojik	Turk-ozarbayjoncha
So'zlar soni	658	991	304	166	27
Salmog'i (%)	30,7	46,2	14,2	7,7	1

SHuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, glossariyda ruscha so'zlarning turli variantlari bir necha bor berilgan

bo'lib, shu nuqtai nazardan ularning miqdori qariyb ikki barobar kamayishi mumkin: gazet – g'azit –gazit – gazita; polis – politsiya – falis - falisa kabi.Bunda so'zlarning nisbati o'zbekcha so'zlar – 40 %, ruscha so'zlar 30,4 %, arabcha so'zlar – 18,5 foiz, fors-tojikcha so'zlar – 10,1 %, turkcha-ozarbayjoncha so'zlar 1,6 %ni tashkil etadi.

Alohida e'tibor qaratiladigan yana jihati usmonli turk va ozarbayjon tillariga oid sanjoq, qo'mita, qo'mondon, o'rdu, olmon, boyqut kabi so'zlarning muayyan nisbatda o'zbek tili leksikasida faollashuvi jarayonidir.

Tahlil jarayonida yana bir narsa ma'lum bo'ladiki, ruscha o'zlashmalar o'zbek va fors-tojik tillariga deyarli bir xilda kirib kelgan, garchi asos sifatida o'zbek tilidagi manbalar olingan bo'linsa ham, o'zlashmalarining variantlarida fors-tojik tilining fonetik qoidalari sezilib turgan o'rinlar ham ko'p.

Undan keyingi davrlarda vaqtli bosma nashrlardagi ruscha-internatsional o'zlashmalarining davriy o'sib borishi A.N.Tsoy dissertatsiyasi⁹²da quyidagi tarzda keltiriladi:

1.1.3.-jadval

XX asr o'rtalarida o'zbek bosma nashrlarida qo'llangan ruscha-internatsional so'zlarning statistik tahlili.

	1924	1927	1930	1934	1940	1947-1949	1957
"Turkiston" gazetasi	0,9 %						
"Qizil O'zbekiston" gazetasi		1,6 %	11,1 %	11,7 %	15 %	18 %	21,4 %

Ta'kidlab o'tish joizki, faqat rus tili vositachiligiga tayanib, muayyan chet tili materiallarini chuqur tadqiq etmaslik natijasida nafaqat ruscha so'zlarni, shuningdek, yevropacha so'zlarning ham etimologik manbasini belgilash mushkul masaladir. O.Jumaniyozov "O'zbek sovet entsiklopediyasi" hamda o'zbek tilining 2 jildli izohli lug'atlariga asoslanib, so'zlarning etimologiyasi berilishida noaniqliklar borligini, jumladan, nemischa deb berilgan so'zlar aslida frantsuz, yunon, lotin tillariga oidligini, inglizcha deb izohlangan so'zlarning bir qismi arabcha, afrikancha, hindcha, lotincha, frantsuzcha, xitoycha so'zlar ekanligini qayd etadi⁹³. Shu jihatdan tadqiqotlarda yevropacha so'zlarni ruscha so'zlar bilan qorishtirib, ruscha-baynalmilal so'zlar deb berish mantiqan to'g'ri, biroq etimologik jihatdan qayta tahlilga muhtoj. Keyingi

⁹⁰Хасанова Д. Сўз ўзлаштиришнинг сўз ясалишига муносабати ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008, 1-сон. – 84-бет.

⁹¹Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981 320 б. – Б.3

⁹²Цой А.Н. К вопросу о лексических заимствованиях из русского языка в узбекском языке. – Труды УзГУ им. А.Навои.Новая серия, № 79. – Самарканд, 1957. – С.91-92.

⁹³Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.44.

tadqiqotlarda ham o'zbek tilining rivojida rus tilining ahamiyatiga diqqat qaratilgan⁹⁴.

5. Istiqol davri o'zbek tili. Bu davr o'zbek davlatchiligida mustaqillikka erishuv, til mustaqilligi, siyosiy va iqtisodiy erkinlik bilan bog'liq ravishda O'zbekistonning jahon sahnasiga chiqishi, olamga tafakkuriy va ma'naviy moslashuv davri hisoblanib, ko'plab inglizcha (umuman yevropa tillariga oid) so'zlarning ommaviy kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Aytish joizki, german tillariga oid o'zlashmalar sho'ro davrida ham mavjud bo'lgan, biroq bunda rus tilining fonetik, semantik va leksikografik vositachiligi aniq sezilib turgan. Oxirgi yillarda bitta o'zlashmaning tub etimologik manbasi hamda rus tili ta'sirida imlo va talaffuzga singib qolgan variantlari solishtirish va bir qolipga solish muammosi

yuzaga chiqib kelmoqda. Mustaqillik davri o'zlashmalari borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan⁹⁵. Bu haqida keying ishlarimizda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Xulosa. O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlar, aytish mumkinki, o'zbek tili tarixini belgilash uchun ham hal qiluvchi kriteriyalardan hisoblangan. O'zbek tili tarixining har bir davri muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik ta'siri bilan ham ajralib turadi. Tahlillardan shu jihatga alohida urg'u berishni istardikki, arabcha, ruscha-baynalmilal o'zlashmalarning ta'siri o'zbek va tojik tillariga bir xil ta'sir qilgan. Shu sababli o'zlashmalarga muqobil varianti sifatida o'zbeklar tojikcha, tojiklar o'zbekcha variantini qo'llaganlar. Ularni morfologik o'zlashtirish jarayoni qoliplari ham deyarli bir xil kechgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Güner, Galip. Dîvânülugâti't-türk'teoğuz caolarak geçen kündi "rezil, aşâğilik" kelimesinin etimolojisi üzerin enotlar // Gazi Türkiyat, Bahar 2015 / 16 : 15 – 21. Manba: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/1924039>
2. Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: дисс. канд. филол. наук. – Т, 1945.
3. Антонова О. П. Семантика узбекских заимствований русскоязычных художественных произведениях писателей Узбекистана: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 243 с.
4. Бафоев Б. Алишер Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
5. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои. Лексико-семантические, статические и тематическая исследования: Дисс. канд. филол. наук. – Т.. 1989.
6. Бафоев Б. Навоий тилида хиндча сўзлар // ЎТА, №4,1991, 38-бет
7. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1989.
8. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985.
9. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.44.
10. Кодирова Н.И. Семантико-стилистический анализ заимствований в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001 гг. (на материале газет и устной речи): Дисс...канд. филол. наук. – Ташкент, 2001. – 167 с.;
11. Раҳмонов Т.И. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар: Филол.фан. номз. ... дисс. – Наманган, 1994. – 120 б.; Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 6-сон. – Б.3-10
12. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981 320 б. – Б.3
13. Хамдамов Ж. Из истории русского языка в обогащение лексики узбекского языке (вторая половина XIX века). АКД. – Ташкент, 1963;
14. Цой А.Н. К вопросу о лексических заимствованиях из русского языка в узбекском языке. – Труды УзГУ им. А.Навои. Новая серия, № 79. – Самарканд, 1957. – С.91-92.
15. Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент, 1974
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMU, 2023.

⁹⁴Хамдамов Ж. Из истории русского языка в обогащение лексики узбекского языке (вторая половина XIX века): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1963. – 24 с.; Данияров Р.И. Заимствование русско-интернациональных личных имен узбекским языком: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967.– 21 с.; Усмонов О., Дониёров Р. Ўзбек тилидаги русча-интернационал ўзлаштира сўзлар изоҳли лугати. – Тошкент: Фан, 1965.– 581 б.; Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Шжилдли.Ш жилд. Сўзясалишва лексика.–Тошкент: Фан, 1988;

⁹⁵Раҳмонов Т.И. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар: Филол.фан. номз. ... дисс. – Наманган, 1994. – 120 б.; Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 6-сон. – Б.3-10; Тўрахожаева А.Х.

Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – С. 26; Қўзиев У.Я. Ўзбек тилидаги изоҳли лугатларда ўзлашма сўзлар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 44 б.; Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили ("Халқ сўзи" газетаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарканд, 2021. – 143 б.; Давлятова Э. Мустақиллик даври ўзбек тилидаги ғарбий европа ўзлашмаларининг маданиятлараро тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 58 б.; Нигматова Л. Мустақиллик даври ўзбек лугатчилигида тил ва маданият муштарақлиги муаммоси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2021. – 211 б.;

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Tukhtabaeva Zamirakhon Kozimovna

Teacher "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"
National Research University
E-mail: zamira.tukhtabaeva@gmail.com

UDK 808.3

THE CONCEPT OF DISCOURSE IN LINGUISTICS AND DIFFERENT APPROACHES TO ITS DEFINITION

Annotation: The article attempts to explore different approaches to the definition of discourse, which has emerged as a central focus of contemporary linguistics. It also emphasizes the role of anthropocentric paradigm on the study of discursive phenomena.

Key words: Concept of discourse, anthropocentric paradigm, linguistic and non-linguistic (extralinguistic) factors.

Tuxtabayeva Zamiraxon Kozimovna,

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti o'qituvchisi

LINGVISTIKADA DISKURS TUSHUNCHASI VA UNI TALQIN QILISHDAGI TURLI YONDASHUVLAR

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning eng muhim masalalaridan hisoblangan diskurs tushunchasiga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu tushunchaning ta'rifi bo'lgan turli yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. Jumladan, maqolada diskurs hodisalarini tadqiq etishda antropotsentrik paradigmaning roliga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Diskurs tushunchasi, antropotsentrik paradigma, lisoniy va nolisoniy (eksralingvistik) omillar.

Тухтабаева Замирахон Козимовна,

"Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"
Национальный исследовательский университет, преподаватель

ПОНЯТИЕ ДИСКУРСА В ЛИНГВИСТИКЕ И РАЗЛИЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ЕГО ОПРЕДЕЛЕНИЮ

Аннотация: В статье рассматриваются различные подходы к определению дискурса, который оказался в центре внимания современной лингвистики. Также подчеркивается роль антропоцентрической парадигмы в изучении дискурсивных явлений.

Ключевые слова: Концепт дискурса, антропоцентрическая парадигма, лингвистические и нелингвистические (экстралингвистические) факторы.

Introduction.

The concept of discourse is a unique phenomenon that is widely studied in today's modern linguistics. The term *discourse* can be found not only in linguistics, but also in other fields, such as literature, sociology, philosophy, political science, medicine, law, and journalism. The researches conducted in these areas show that discourse is a complex social phenomenon, which plays an important role in individuals' personal development and the prosperity of society.

Literature review.

Although the term *discourse* has been extensively used in linguistics over the past two decades, there is still no universally agreed-upon definition that encompasses the full breadth of its usage among scholars. As mentioned

above, together with linguistics, the relevance of the concept of discourse is increasing in other scientific areas. Naturally, this tendency leads to different approaches to revealing the essence of the discourse phenomenon and makes it difficult to come to a unanimous conclusion about its explanation.

Various paradigms (measures) in linguistics have gained great importance in elucidating the essence of the concept of discourse. From the second half of the 20th century until today, new scientific paradigms have emerged in the field of linguistics. Linguists who conducted research during this period based their approach and views on these paradigms. However, there is still no consensus among linguists about the number of scientific paradigms. Most linguists acknowledge that

there are three main paradigms in the field of language: comparative-historical, systemic-structural and anthropocentric [1: 144]

Research methodology.

In modern linguistics, significant emphasis is placed on the anthropocentric approach, which puts the human perspective at the center of research. The term *anthropocentric* is derived from the Greek words “anthropos” – human, and the Latin word “centrum” – center, and considers humans as the center of the universe as its main subject of study. It is clear that the human interests are prioritized in various fields, including medicine, jurisprudence, sociology, philosophy, politics, and ecology. Given that language plays an important role as the primary medium of communication in almost all human activities, it has become essential to focus on the human-centered approach in linguistics as a key focus of research. Adopting the principle of anthropocentrism in linguistics requires to study language within a broad socio-cultural context.

Result and analysis.

American linguist Z. Harris, Pennsylvania University Professor published an article on discourse analysis in 1952, marking one of the first significant contributions to the field. He was a pioneer in popularizing the method of distributive analysis, which examines language units through a syntagmatic approach. In his work, Harris demonstrated that each language unit within a sentence should be analyzed as part of a cohesive whole, emphasizing the connections and meanings that emerge when considered in context, rather than in isolation. [4]

In her book “Theories of Discourse”, Linguist D. McDonnell mentions several key figures who significantly contributed to the development of discourse theory in linguistics. She thoroughly analyzes the differing interpretations of the concept of discourse by M. Foucault, B. Hindess, P. Hirst, L. Althusser, V. Voloshinov, and M. Bakhtin. McDonnell emphasizes that the phenomenon of discourse is closely linked to the existing society and social context, a perspective shared by each of these researchers. Specifically, she states, “Dialogue is the primary condition of discourse: all speech and writing is social... Discourses differ with the kinds of institutions and social practices in which they take shape, and with the positions of those who speak and those whom they address. The field of discourse is not homogeneous” [5: 1]. This means that discourse is both a result and a process of communication that arises from a specific social reality and contributes to the continuity of that reality. Social institutions and contexts play a crucial role in its emergence and implementation.

Dutch linguist T.A. van Dijk emphasizes the necessity of a comprehensive, step-by-step analysis of the concept of discourse. He interprets discourse broadly as a complex communicative phenomenon that occurs within a specific time, space, and social context, involving

interaction between the speaker and the listener (or observer). This communicative event can manifest both verbally and in writing, incorporating both verbal and non-verbal elements [4: 24]. For example, a dialogue between a teacher and a student, a presentation on a particular topic, a conversation among passengers on public transport, or the act of reading information from a website or newspaper can all serve as examples of engaging communicative events.

According to Dijk, discourse in the narrow sense refers to a spoken or written text that consists of verbal content. In this context, discourse encompasses both the completed and ongoing “products” of a communicative event, as well as the oral or written outcomes. When considering language, it is important to recognize that the principles governing language functioning in society are informed not only by the framework of pragmatic approach, but also by relevant social studies (e.g. opinions of speakers, their social and ethnic statuses) [4: 25]. Thus, such an analysis should also focus on the connections between discourse and the goals, feelings, and emotions of the speakers. The model of understanding the discourse phenomenon is closely linked to its cognitive consideration model, which makes discourse the subject of cognitive linguistics. Discourse reflects the essential knowledge required for effective communication, as it involves the strategy of selecting information relevant to the existing context and the participants involved.

Linguist E.V. Temnova describes discourse as a comprehensive concept that encompasses numerous linguistic and non-linguistic factors. This perspective allows researchers to view discourse as a product of communicative action that is meaningfully coherent, contextually relevant, and tied to specific genres and viewpoints. Furthermore, the society, culture, and historical period in which this interaction occurs are crucial considerations in the execution of the speech act [4]. Thus, discourse is shaped by social norms, cultural values, the influence of historical realities, and specific communicative goals. Whether formal or informal, written or spoken, discourse plays a vital role in our understanding and perception of the world around us.

Conclusion.

In conclusion, whether analyzing written or oral discourse, it is essential to understand and investigate not only the linguistic units employed but also the contextual factors related to the discursive communication or text. Both physical and abstract extralinguistic factors significantly influence this process. When communicants engage in oral or written communication, they utilize these factors directly and indirectly, to convey and comprehend the discourse.

To achieve a thorough understanding of discourse, it is crucial to analyze the language used within its sociological, pragmatic, psychological, cultural, and

political contexts. This perspective reveals that discourse is and a communicative event that plays a vital role in the a complex social reality, an integral aspect of human life, formation and self-expression of individuals.

References.

1. Хомутова Т.Н. *Научные парадигмы в лингвистике*. Вестн. Челябин. гос. ун-та. № 35. Филология. Искусствоведение. Вып. 37, 2009. – С. 142-151.
2. Mills S. *Discourse. The New Critical Idiom*. Taylor & Francis e-Library, 2001. – Pp. 177.
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english>
4. Темнова Е. В. *Современные подходы к изучению дискурса*. Язык, сознание, коммуникация. Вып. 26. М., 2004. – С. 24-32.
5. Makdonnel D. *Theories of Discourse*. Oxford: Basil Blackwell, 1986. – Pp. 156.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Nazarova Navbahor Ahrorovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Email: n.a.nazarova@buxdu.uz

UDC:81'367.622.12.

A LEXICOGRAPHICAL JOURNEY THROUGH "THE GODFATHER"

Annotation. This article surveys lexical layer of anthroponyms within Mario Puzo's novel "The Godfather" exploring the role of lexicography in analyzing and understanding the names of characters within the novel, the significance of anthroponyms in shaping the narrative and character portrayal.

Key words: lexicography, onomastics, onomastic unit, anthroponomy, dictionary, onomastic term, lexical, terms.

Назарова Навбахор Ахроровна

Преподаватель Бухарского государственного университета

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ПУТЕШЕСТВИЕ ПО «КРЕСТНОМУ ОТЦУ»

Аннотация. В статье исследуется лексический пласт антропонимов романа Марио Пьюзо «Крестный отец», исследуется роль лексикографии в анализе и понимании имен героев романа, значение антропонимов в формировании повествования и образа персонажей.

Ключевые слова: лексикография, ономастика, ономастическая единица, антропонимия, словарь, ономастический термин, лексика, термины.

Nazarova Navbahor Axrorovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

"CHO'QINTIRGAN OTA" BO'YLAB LEKSIKOGRAFIK SAYOHAT

Annotatsiya: Maqolada Mario Puzoning "Cho'qintirgan ota" romanidagi antroponimlarning lug'aviy qatlami o'rganilib, roman qahramonlari nomini tahlil qilish va tushunishda lug'atshunoslikning o'rni, hikoya va personaj tasvirini shakllantirishda antroponimlarning ahamiyati va mazmuni batafsil ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: leksikografiya, onomastika, onomastik birlik, antroponomiya, lug'at, onomastik atama, lug'at, atamalar.

Introduction.

Lexicography is the practice of compiling, editing, and writing dictionaries. It focuses on the study of words, their meanings, and how they are used in various contexts. Lexicographers are the language enthusiasts who work on researching and documenting the vocabulary of a language. The field of lexicography has a fascinating history that goes back thousands of years. In ancient times, dictionaries were mostly bilingual or multilingual, helping people understand and translate words between different languages[1]. However, modern lexicography has evolved to include monolingual dictionaries, specialized dictionaries, and even online dictionaries that are easily accessible to anyone.

Literature review.

In English lexicography, the representation of all names, nicknames, pen names, surnames, patronymic

names, middle names, and anthroponyms from "The Godfather" would typically depend on the specific dictionary and its scope. However, it's important to note that traditional English dictionaries primarily focus on general vocabulary and commonly used names rather than specific names from fictional works[2]. English dictionaries may include anthroponyms and associated information in various ways, such as:

1. Entry Definition: The main character names could be included as entries, providing brief definitions or explanations, similar to the way they are defined in general dictionaries. For example:

- "Vito Corleone: The patriarch and head of a powerful crime family in 'The Godfather' series."

- "Michael Corleone: The youngest son of Vito Corleone who becomes involved in the family business in 'The Godfather' series."

2. Examples within Definitions: The character names could be used as examples within the definitions of related terms or concepts. For instance:

- "The concept of a family dynasty, as seen in 'The Godfather' with the Corleone family."

- "The dynamics of power and loyalty within crime families, such as the Corleones in 'The Godfather' series."

3. Cultural References: Dictionaries may occasionally include explanations or cross-references to well-known fictional characters or names that have entered popular cultural discourse. In this context, references to the characters from "The Godfather" may be included to illustrate broader cultural understanding or to explain associated terms, such as "The Corleone Effect.[3]"

It's essential to note that traditional English dictionaries have limitations regarding the inclusion of specific names from fictional works due to their focus on general language use. However, specialized name dictionaries or reference materials on popular culture may provide more extensive coverage of fictional names, including characters from "The Godfather."

Research methodology.

English anthroponyms, like any other words in a language, have a strong connection to the lexical layer of the language. The lexical layer refers to the component of language that deals with vocabulary and the individual words that make up a language[4]. Anthroponyms, as a subset of vocabulary, play a crucial role in the lexical layer of English. They contribute to the richness and diversity of the language by representing the personal names of individuals. These names are used to identify and refer to people, distinguishing them from one another. In terms of lexicography, anthroponyms are included in dictionaries to provide comprehensive coverage of the vocabulary of a language. They help us understand the meaning, origin, and cultural significance of personal names. Lexicographers examine anthroponyms to determine their etymology, variations, and historical usage. This information is then incorporated into dictionary entries to provide users with a deeper understanding of these names.

Analysis and results.

An example of lexicography related to the anthroponyms (personal names) found in Mario Puzo's iconic novel, "The Godfather." In lexicography, anthroponyms are often included in dictionaries to provide information about the origin, meaning, and cultural significance of certain names[5]. Here's a fictional excerpt showcasing possible entries for a dictionary focusing on the anthroponyms found in "The Godfather":

Corleone, Vito (kɔ:rlɪ'ovni, 'vi:toʊ) - The patriarch and central character of "The Godfather." Vito Corleone, also known as "The Godfather," is a powerful and respected mafia boss. His given name, Vito, is of Latin origin,

meaning "alive" or "full of life." It symbolizes his strong presence and unwavering leadership.

Corleone, Michael (kɔ:rlɪ'ovni, 'mɪkəl) - The youngest son of Vito Corleone, who reluctantly takes over the family business. Michael, a Hebrew name derived from "Mikha'el," means "Who is like God?" This name reflects his transformation from a civilian outsider to a cunning and strategic leader, reminiscent of his father.

Corleone, Sonny (kɔ:rlɪ'ovni, 'sɒni) - Vito Corleone's hot-headed eldest son. Sonny, a nickname short for "Santino," is of Italian origin. It signifies his energetic and impulsive nature, often leading to volatile situations.

Corleone, Fredo (kɔ:rlɪ'ovni, 'freɪdoʊ) - Vito's middle son and the weakest link in the family. Fredo, a diminutive form of the Italian name "Federico," means "peaceful ruler." Ironically, Fredo's character is marked by insecurity and betrayals, straying from the family's ideals.

Corleone, Connie (kɔ:rlɪ'ovni, 'kɒni) - The only daughter of Vito Corleone. Connie, short for "Concetta" in Italian, is a name meaning "conception" or "longed-for child." Connie's character embodies the struggles and sacrifices faced by women within the male-dominated mafia environment.

Corleone, Tom (kɔ:rlɪ'ovni, tɒm) - The trusted confidant and consigliere of the Corleone family. Tom, derived from "Thomas," is a timeless name meaning "twin." As an advisor and legal counselor, Tom displays a balanced and diplomatic approach, often functioning as a voice of reason.

Michael Corleone (noun)- Origin: Italian / Meaning: "Michael" is derived from the Hebrew name "Mikha'el" meaning "Who is like God?" It is a common male given name originating from Jewish and Christian traditions. "Corleone" is an Italian surname linked to the fictional Corleone family prominently featured in Mario Puzo's novel "The Godfather."

Cultural Significance: Michael Corleone is the central character in "The Godfather" and undergoes a transformation from an idealistic young man to a powerful leader in the Corleone crime family. The character's name has become synonymous with intrigue, power, and moral ambiguity.

Vito Corleone (noun)- Origin: Italian / Meaning: "Vito" is an Italian given name with Latin origins, likely derived from "vita" meaning "life." "Corleone" is the surname of the fictional Corleone family in "The Godfather."

Cultural Significance: Vito Corleone is one of the key characters in "The Godfather" and serves as the patriarch and founder of the Corleone crime family. Known for his leadership and cunning, Vito represents a complex figure, embodying both ruthless brutality and family loyalty.

Kay Adams (noun)- Origin: English (Shortened form of Katherine)/ Meaning:

"Kay" is a diminutive or shortened form of the name "Katherine" or "Kaitlyn," deriving from the Greek name

"Aikaterine." The exact meaning of "Kay" can vary depending on the original name it is derived from. "Adams" is a common English surname.

Cultural Significance: Kay Adams is a character in "The Godfather" and serves as Michael Corleone's wife. As an outsider to the world of organized crime, Kay represents the bridge between Michael's criminal life and his desire for a legitimate, conventional family.

These entries provide a glimpse into the lexicographic process of documenting anthroponyms. They include information about the name's origin, meaning, and cultural significance within the context of "The Godfather" book[6]. It's worth noting that the inclusion of anthroponyms in dictionaries may vary depending on the dictionary's focus. While general dictionaries may provide brief definitions and origins, specialized anthroponym dictionaries might delve deeper into etymology, historical usage, and variations across different cultures.

Anthroponyms are also important for onomastics, which is the study of proper names. Onomastic studies explore the origins, usage patterns, and cultural aspects of names, including anthroponyms. This interdisciplinary field examines the social, historical, and linguistic aspects of names, shedding light on the relationship between individuals, their culture, and their language. Moreover,

anthroponyms reflect the evolution of English over time[7]. They showcase the influence of various factors, such as historical events, cultural shifts, immigration patterns, and naming traditions. Studying anthroponyms helps linguists and researchers trace the development and changes within the language and its society. It's fascinating to see how anthroponyms are interconnected with the lexical layer of English. They contribute to the ever-growing and evolving vocabulary that defines the language. Whether through their rich etymology, cultural implications, or historical significance, anthroponyms provide valuable insights into the lexical landscape of English.

Conclusion.

While standard English dictionaries primarily focus on common language, they often lack entries for specific names from fictional works. For a more comprehensive exploration of fictional names, especially those from iconic franchises like "The Godfather," specialized name dictionaries or pop culture reference materials are essential. It's important to remember that the provided examples are hypothetical and aim to showcase the potential format and content of such a dictionary dedicated to "The Godfather's" character names. The final entries would depend on the thorough research and analysis performed by lexicographers.

References:

1. Izomovich, R. Z., & Fazliddinova, U. D. (2021, November). The Problems of Second Language Acquisition and Writing in Teaching English Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 229-233).
2. Nazarova, N., & Yoqubovna, S. M. (2022). Lingvistikada lacuna muammosi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 113-115. conferenceseries. info/index.php/online/article/view/60.
3. Nazarova, N. (2023). Bases of the theoretical study of anthroponyms and their characteristics. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 31(31).
4. Ahrorovna, N. N. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 90-96.
5. Nazarova, N. A. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system (In Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 3, Issue 1, pp. 90-96).
6. Nazarova, N. (2023). Onimik leksemalarning o'ziga xos xususiyatlari. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 34(34).
7. Ahrorovna, N. N., & Niginabonu, Y. (2022). English Clubs in Non-Traditional Ways for Young Learners. Miasto Przyszłości, 30, 265-266.
8. Nazarova, N. (2023). antroponimlar mohiyati va semantik tahlili. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 35(35).
9. Ahrorovna, N. N., & Niginabonu, Y. (2023). Effective strategies for vocabulary learning in foreign languages. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5).
10. Ahrorovna, N. N. (2023). Antroponimlar mohiyati va semantik tahlili. Scientific aspects and trends in the field of scientific research, 1(10), 160-163.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich
Andijon davlat chet tillari instituti professori
filologiya fanlari doktori (DSc)

LINGVOKULTURULOGIYANING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada antropotsentrik tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri lingvokulturologiyaning yuzaga kelish omillari, rivojlanish bosqichlari, uning tarmoqlari va maktablari haqida so'z boradi. Lingvokulturologiyaning fan sifatida umumnazariy masalalari, madaniy semaga ega lingvokulturemalarni tadqiq etish metodologiyasi sohaning ko'zga ko'ringan vakillari ilmiy ishlari tahlillari orqali ochib berilgan. Milliy-madaniy sema tashuvchi ingliz, o'zbek va rus tillaridagi frazeologik birliklari tahlili orqali til, inson va madaniyat munosabatlari, ulardagi umumiy va xususiy jihatlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, interaktiv tendentsiyalar, lingvomadaniy, konsept, muloqot, etnos, ijtimoiy guruh, diaxron lingvokulturologiya.

Абдувалиев Махаматжон Арабович

Профессор Андижанский государственный институт иностранных языков,
доктор филологических наук (DSc)

О ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВАХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию факторов возникновения и этапов развития лингвокультурологии как самостоятельная отрасли антропоцентрической лингвистики раскрытию общетеоретические вопросы лингвокультурологии, методы исследования лингвокультурем имеющие культурные семы посредством анализа научных работ представителей данной отрасли лингвистики. Через анализ фразеологизмов английского, узбекского и русского языков, несущих национально-культурные семы, показаны взаимоотношения языка, человека и культуры, их общие и особенные стороны.

Ключевые слова: лингвокультурология, интерактивные тенденции, лингвокультурный, концепт, коммуникация, этнос, социальная группа, диахронический лингвокультурология.

Abduvaliyev Maxamatjon Arabovich

Professor Andijan State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philology (DSc)

ON THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF LINGUOCULTUROLOGY

Abstract: The article is devoted to the study of the factors of emergence, stages of development, its branches and schools of linguoculturology as well as the promoting directions of anthropocentric linguistics. The general theoretical issues of linguoculturology as a science, the methodology of researching linguoculturemes with cultural semes are revealed through the analysis of the scientific works of prominent representatives of the field. Through the analysis of phraseological units in English, Uzbek and Russian languages, which carry national-cultural semes, the relations of language, human and culture, their common and special aspects are shown.

Key words: linguoculturology, interactive trends, linguo-cultural, concept, communication, ethnos, social group, diachronic linguoculturology.

Kirish.

Madaniyatlararo muloqot jarayonlari miqyosi yanada kengayib va chuqurlashib borayotgan bugungi kunda muloqot vositasi vazifasini bajaruvchi til birliklarining lingvomadaniy jihatlarini inson omili bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish qizg'in pallaga kirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. V.I.Karasikning

haqli ta'kidlashicha, bu hol dunyoviy muammolarni tezkor globallasuvi, turli xalqlar xulq-atvori va muloqotida universal va maxsus jihatlarini hisobga olish zarurati; gumanitar fanlar rivojida obyektiv integrativ tendensiyaning mavjudligi, lingvistlar tomonidan bilimning aralash tarmoqlari (psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, kulturologiya, politologiya va boshqalar)

vakillari erishgan natijalarni egallab borish zarurati; lingvistik bilimlarning amaliy tomonlari, talab, reklama va siyosiy ta'sir amaliyotiga ommaviy axborotning kommunikativ sohasiga to'g'ridan-to'g'ri chiquvchi jamoaviy tajriba vositasi sifatida tushunish kabi qator sabablar bilan izohlanishi mumkin. Bizningcha, dunyoda o'zga tillarni o'qitish va o'rgatishga bo'lgan qiziqish keng tus olganligi, til hodisalarining madaniy komponentlarini ham nazardan chetda qoldirmaslikni talab etayotganligi va bunday yondashuv turli millatlar va etnoslar bir-birlarini oson, tez tushunishlari, kommunikativ maqsad to'la va samarali ro'yobga chiqishiga sabab bo'luvchi muhim omil ekanligi ham yuqoridagilar qatoridan o'rin olishini taqozo etmoqda.

XX asrning 90-yillarida lingvokulturologiya antropotsentrik tilshunoslikning alohida mustaqil yo'nalishi maqomiga ega bo'ldi. Lingvokulturologik tadqiqotlarning diqqat markazidan til-inson-madaniyat munosabatlari o'rin olgan bo'lib, u tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigma mahsuli sifatida namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar.

Shuni ta'kidlash joizki, mavzu jahon tilshunosligida batafsilroq o'rganilgan. Rus tilshunosligida N.Z.Gadjiyeva, L.S.Barxudarov, D.A.Shteling, N.P.Perfileva, I.V.Vaseva-Kadinkova, N.A.Jdanov, V.I.Semenov, V.A.Beloshapkova, Ye.A.Zemskaya, I.G.Miloslavskiy, M.V.Popov, R.M.Grechishnikova, L.I.Kameneva, A.F.Mixalev, N.I.Goncharenko, A.A.Vasil'eva, I.E.Namakshtanskaya, L.T.Jukova, L.N.Isakova; ingliz tilshunosligida L.G.Kimbal, X.Poutsma, R.Kverk, R.A.Klouz; o'zbek tilshunosligida A.N.Kononov, G'.A.Abdurahmonov, M.A.Asqarova, R.R.Sayfullayeva, G'.M. Xoshimov, M.A.Abdualiev; qozoq tilshunosligida X.M.Esenov, tojik tilshunosligida D.T.Tadjiev, qoraqalpoq tilshunosligida A.Umarovlarning qarashlari o'z aksini topgan va bu borada muayyan ilmiy natijalarga erishilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda komponent va transformatsion tahlil metodlari bilan bir qatorda, demografik tahlil, kuzatish va izohlash kabi tarkibiy usullar, shuningdek, tarixiy kontekstli tahlil, va assotsiativ eksperimental usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Lingvokulturologiyaning bugungacha bo'lgan rivojlanish davrini uch bosqichga bo'lish mumkin. Uning rivojidagi birinchi bosqich lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan V.Humboldt, A.A.Potebnya, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, D.Xaymz, G.Brutyanyan, E.Sepir, O.B.Uorf va boshqalarning nazariy qarashlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi bosqich lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida mustaqil yo'nalishi maqomiga ega bo'lish davri bo'lib, ushbu davrda fanning nazariy va metodologik asoslari yuzaga keldi. Ushbu fan rivojining uchinchi bosqichi lingvistika va

madaniyatshunoslik hamkorligiga asoslangan fundamental fan va uning 5 ta muhim yo'nalishlari doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar bilan bog'liq. V.A.Maslova lingvokulturologiyaning quyidagi mustaqil yo'nalishlarini sanab farqlaydi:

1. Ma'lum ijtimoiy guruh, etnosning madaniy jihatdan yorqin rivojlangan davri, ya'ni aniq lingvomadaniy vaziyatni tadqiq etuvchi lingvokulturologiya;

2. Diaxron lingvokulturologiya, ya'ni ma'lum bir etnosning ma'lum vaqt oralig'idagi lingvomadaniy holatidagi o'zgarishlarni o'rganuvchi tarmoq;

3. Turli, leksik o'zaro bog'langan etnoslarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etuvchi qiyosiy lingvokulturologiya;

4. Rivojlanish bosqichiga kirishayotgan chog'ishtirma lingvokulturologiya;

5. Lingvomamlakatshunoslik bo'yicha lug'atlar tuzish bilan shug'ullanuvchi lingvomadaniy leksikografiya.

O'tgan asrning oxirlariga kelib, lingvokulturologiyaning mazkur yo'nalishlarining taraqqiyoti madaniyat konstantlarini chetdan kuzatuvchi nuqtai nazaridan diaxronik aspektda o'rganuvchi X.S.Stepanov, turli etnoslar rivojining turli davrlariga xos matnlarda uchraydigan universal madaniy terminlarni tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan tadqiq etuvchi N.D.Arutyunova, frazeologizmlarning madaniy semantikasini til va madaniyat munosabatlari asosida sinxron aspektda o'rganuvchi V.N.Teliya, leksik birliklar lingvomadaniy xususiyatlari aks etgan lug'atlar yaratishning nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi V.V.Vorobyev, V.M.Shaklein va boshqalar maktablari va B.Valdenfelds; G. Palmer, A.Vejbitstkaya, Y.L.Vaysgerber, Y.Bartminskiy, E.Kassiyer, V.I.Karasik, L.Vayngar, A.Kroyber, K.Klukxon, D.Xaymz, B.Malinovskiy, Yu.P.Solodub, I.G.Olshanskiy, B.A.Paraxonskiy, I.A.Podyukov, Yu.M.Lotman, D.S.Lixachev, A.N.Leontyev, D.O.Dvorovolskiy, V.B.Kasevich, A.P.Babush-kin, Z.X.Bijeva, Ye.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, V.A.Maslova, N.A.Krasavskiy, D.B.Gudkov, L.Mikulina, M.A.Kuminich, M.Umarxo'jayev, D.Xudoyberganova, M.Murodov, U.Qoraboyev, D.A.Rustamov, G.K.Odilova kabi olimlarning dissertatsiyalari, ilmiy risolalari, o'quv adabiyotlari va maqolalarida lingvokulturologiya va uning muammolari, xususan, til va madaniyat munosabatlari bilan bog'liq masalalar atroflicha tadqiq etilgan.

Madaniyat fenomeni etnografiya, falsafa, sotsiologiya, adabiyotshunoslik kabi qator fanlarning namoyandalari tomonidan turlicha talqin etilishiga qaramasdan, til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi borasida ular yakdil ekanligini kuzatish mumkin. XIX asrning 30-yillarida V.Humboldtning til va madaniyat fenomeni bir-birlari bilan o'zaro bog'liqligi haqidagi

qarashlari lingvistik nisbiylik nazariyasi yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi. O'tgan asrning birinchi yarmida AQSh tilshunosligidagi antropologik yo'nalish namoyandalardan biri Benjamin Uorf lingvistik determinizm nazariyasiga asos soldi. Uning asosida E.Sepir g'oyalari yotadi. Aslida lingvistik nisbiylik nazariyasi haqidagi g'oya E.Sepirning "Lingvistikaning fan sifatidagi maqomi" nomli maqolasida o'z aksini topgan. E. Sepir shunday yozadi: "Biz olamni ko'ramiz, eshitamiz va umuman uning interpretatsiyasidagi bizning tanlov asosan jamiyatimizning lisoniy odatlari tomonidan belgilanadi va biz uni ayni o'shanday qabul qilamiz. E.Sepir nazariyasini rivojlantirgan holda B.Uorf shunday fikrni bildiradi: "Biz tabiatni ona tilimiz tomonidan aytilgan yo'nalishda bo'laklarga ajratamiz".

Yuqoridagi qarashlar mualliflari madaniy farqlarning asosiy sababini tillarning milliy o'ziga xosligida deb biladilar. Ushbu nazariyaning davomchilaridan biri F.Boas ham boshqa madaniyatlarni ularning tiliga murojaat qilmasdan turib tushunish mumkin emasligini ta'kidlagan edi.

D.Xayms til va madaniyat munosabatlariga etnografik so'zlashuv, etnografik muloqot nuqtai nazaridan yondashadi. Uning fikricha, har qanday o'zga yurt, o'zga faoliyatda maqbul va samarali tarzda qatnashish uchun ularning verbal xulqi haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak.

XX asrning oxiridan boshlab lingvokulturologiya alohida va mustaqil tilshunoslik yo'nalishi sifatida faol rivojlanish bosqichiga kirdi. Rus olimasi V.N. Teliyaning to'g'ri ta'kidlashicha: "Lingvokulturologiya inson haqidagi fanning antropologik paradigmikasining mulki bo'lib, uning tortish markazida madaniyat fenomeni turadi.

V.V.Vorobyov esa quyidagicha ta'rifni taqdim etadi. "Lingvokulturologiya milliy madaniyatni tilda aks etish muammosini o'rganuvchi tilshunoslik aspekti va semasi bo'limidir".

"Zamonaviy lingvokulturologiya madaniyat obyektlarini tilda reprezentatsiyasi usul va vositalarini, u yoki bu xalq mentalitetini tilda o'ziga xos namoyon bo'lishi, til birliklari ari semantikasida qadriyatli mazmun kategoriyalarining ifodalanish qonuniyatlarini o'rgatuvchi ilmiy fandır".

Gap lingvokulturologiyaning fan sifatidagi maqomi haqida ketar ekan, Ye.I.Zinovyeva shunday haqli fikrni bildiradi: "Ba'zi bir tadqiqotchilarning lingvokulturologiyani kognitiv lingvistika, etnolingvistika yoki sotsiolingvistikaning bir bo'limi sifatida ular tarkibiga kirishi borasidagi qarashlari to'g'ri emasdek tuyuladi. Ushbu holatda gap umumiy obyekt, turli tadqiqot predmetlariga ega fanlar kesishuvi haqida ketishi mumkin". Demak, madaniy axborotni o'zida to'plovchi va yetkazuvchi til, madaniyat va uni til yordamida yaratuvchi inson o'rtasidagi munosabatlar lingvokulturologiyaning obyekti sifatida namoyon bo'lsa, madaniyatdagi ramziy,

etalon, obrazli-metaforik ma'noga ega inson arxetipik va prototipik tafakkuri natijalarini umumlashtiruvchi mif, afsona, qadriyatlar, urf-odatlar, folklor va diniy diskurslar, she'riy va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizm, metaforalar, ramz va paremiyalar (maqol va matallar) kabilarda ifodasini topgan til birliklari uning predmetini tashkil etadi.

Til, madaniyat va uning subyekti bo'lgan inson o'rtasidagi munosabatlar serqirra va murakkab bo'lib, ularning asl tabiati, vazifasi va mohiyatini yagona bir metod, yechim, usul orqali ochib berish amri mahol. Aynan shunday qarash tarafdorlari tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda lingvokul-turologik tadqiqotlarda lingvistik, lingvokulturologik, sotsiologik va boshqa metodlardan foydalanib ish ko'rishni tavsiya etadilar. Masalan, V.V.Vorobyev Lingvokulturema (maydon)lar sistemasini, ulardagi ichki va tashqi semantika, paradigmatic va sintagmatic munosabatlar, shuningdek, bunday sistemalarni turli tillar va madaniyatlar qamrovidagi munosabatlarni tadqiq etishda semantik (lingvokulturologik) maydon, kontekstual (distributiv), komponent, kontrastiv, statistik tahlillarga asoslanib tasvirlash, badiiy asar tilining tahlili va boshqalardan samarali foydalanganligini alohida ta'kidlash mumkin.

V.A.Maslova bu toifa izlanishlarda kontent tahlil, freym tahlil, narrativ tahlil, maydon etnografiyasi (tasvirlash, tasniflash, ochiq intervyu, madaniyatni lingvistik rekonstruksiylash kabi metodlardan va eksperimental kognitiv lingvistika yoki psixosotsio-madaniy eksperiment interpretatsiya usullaridan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.

Lingvokulturologiya o'rganadigan birliklar borasida turlicha fikrlar mavjud. Bugungi kun lingvokulturologiyasida bunday birliklar turli-tuman bo'lib, ular quyidagilardan iborat: logoeistema, lingvokulturema, konsept, lingvomadaniy konsept, lingvosapientema. Logoeistema termini grek tilidan "so'z" va "bilim" so'zlari qovushuvidan paydo bo'lib, uning asl mazmuni til birligida saqlanayotgan "bilim"dir.

Ye.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov fikriga ko'ra, logoeistemalar biron-bir pretsedent matn (diskurs, bilim, voqea, fakt)ga aloqador ramz bo'lib, u so'z yoki so'z birikmasi, frazeologizm yoki klishe, metafora yoki allegoriya kabi lingvistik kategoriyalarga teng emas. Ular til va madaniyatga xos bo'lib, ular matnlarni eslashga majbur etuvchi simvol ortidagi signallardir. Lingvokulturema terminini ilmiy muloqotga V.V.Vorobyev olib kirgan bo'lib, u tasvirlashning asosiy birligi sifatida mazmun va ifoda shakllariga egaligi, uning tarkibida til segmentlaridan tashqari mos belgi orqali reprezentatsiyalashgan madaniy segmentlar ham mavjudligini ta'kidlaydi. "Lingvokulturema, V.V.Vorobyevning yozishicha, lingvokulturologik maydon birligi bo'lib, belgi ma'no va madaniyat predmetlari sinfi

haqidagi muvofiq tushunchalarni o'z ichiga oladi". Lingvomamlakatshunoslik fanining darg'alari Ye.M.Vereshagin va V.G.Kostomarov til va madaniyat munosabatlaridagi ko'p sonli faktlarni lingvosapientema orqali birlashtirishga harakat qilganlar. Ularning fikricha, uning asosida leksik fond va nutqiy xulq taktikasi yotadi. U nima uchun va qanday qilib, inson sotsial model asosida harakat qiladi (gapiradi), nima uchun va qanday qilib inson nutqiy xulq taktikasiga tayanib ish ko'radi, nima uchun va qanday qilib inson o'z nutqini leksik fondga tayanib tashkillaydi kabi aniq natijalarga olib keluvchi yo'l. Lingvokulturologiya tilshunoslikning maxsus fan yo'nalishi sifatida o'zining qator tushunchalar nomenklaturasiga ega bo'ldi. Masalan, lingvokulturema, lingvokulturologik paradigma, madaniyat konteksti, madaniyat tili, madaniy semalar, madaniy konseptlar, madaniy konnotatsiya, madaniy axborot va boshqalar.

Har qanday milliy tilda o'z aksini topgan ijtimoiy normalar, qadriyat, urf-odatlar, madaniyatning subyektiv elementlari lingvomadaniy konseptlar nomi bilan atalmoqda. Ye.I.Zinovyeva lingvomadaniy konseptni quyidagicha tavsiflaydi: "Lingvomadaniy konsept til, tafakkur va madaniyatni kompleks reprezentatsiyalashga yo'naltirilgan shartli mental birlikdir".

Boshqa so'zlar bilan aytganda, madaniyatning biror bo'lagi haqidagi bilimlar majmui konsept tafakkurda mavjud bo'lib, madaniy belgi xususiyatlar konsept semantikasini belgilab beradi va madaniy konsept til va nutqda obyektivlashadi.

S.G.Vorkachev e'tiroficha, lingvomadaniy konseptning mazmun plani kamida ikki semantik belgilar qatorini o'z ichiga oladi. Birinchidan, uning tarkibiga uni lisoniy voqelantiruvchilar uchun umumiy bo'lgan semalar kiradi va leksik-semantik paradigmani va uning tushunchaviy yoki prototipik asosini shakllantiradi. Ikkinchidan, uning tarkibiga hech bo'lmaganda uni voqelantiruvchilarning bir qismiga xos semantik belgilar lingvomadaniy etno-semantik o'ziga xosliklari til egalarining mentaliteti yoki milliy til shaxsining mentaliteti bilan bog'liq bo'ladi. Har qanday madaniy konsept lisoniy verbalizatorlardan biri orqali lisoniy manzara oladi. Verbalizatorlardan biri dominant, ya'ni konsept nomini atovchi asosiy birlik so'z maqomiga ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday maqomga polisemant so'zlarda so'zning leksik-semantik variantlaridan biri ega bo'ladi. Shu o'rinda G.G. Slishkinning quyidagi fikrlarini keltirish joiz deb hisoblaymiz. U yozadiki: "...lingvokulturolog uchun konsept poliapellirlik hususiyatiga ega, ya'ni u qator til va nutq birliklari orqali reallashishi mumkin va zarur; lingvokognitolog uchun har qanday so'zga o'z konsepti mos kelsa, lingvokulturolog uchun cheklangan miqdordagi madaniy ma'no birliklari konseptlar nomi bo'lib keladi".

Til nominativ birliklarida mavjud bo'lgan madaniy informatsiya (axborot) madaniy konseptlar birliklarida

mavjud bo'lgan madaniy fon, madaniy semalar orqali tasavvur qilinishi mumkin. V.N.Teliya va V.A.Maslova fikrlariga qo'shilgan holda til va milliy madaniyat o'rtasidagi aloqa madaniy konnotatsiya orqali vujudga keladi, degan fikrdamiz. Til birliklariga muhrlangan obrazlar u yoki bu sotsiumning moddiy, ijtimoiy hayoti bilan bog'liq bo'lib, ular xalq dunyoqarashi, borliq va uning turli qismlariga bo'lgan subyektiv baholari, turmush tarzi, qadriyat va urf-odatlar borasida muhim va o'ziga xos bilimlarni beradilar. Shu bois tillarning semantik makonida etnik o'ziga xosliklar kuzatilishi tabiiy hol deb o'ylaymiz. Bu, ayniqsa, milliy tillar frazeologik fondiga taaluqli frazeologizmlarda aniqroq namoyon bo'ladi. Olamning frazeologik manzarasi deganda har bir milliy tildagi FBlar semantikasida aks etgan bilimlar kvantini tushunamiz. Frazeologiya terminini keng ma'noda tushunuvchi va uning tarkibiga so'z birikmasi shaklidagi va gap shaklidagi FBlar, maqol, matallarni kirituvchi soha olimlari V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, A.D.Reyhshteyn, L.I.Reyzenzan, M.E.Umarho'jayev fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Har qanday tabiiy tilning frazeologik va paremiologik manzarasida etnolingvistik, etnomadaniy va etnokognitiv farqli jihatlari o'z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan tilning frazeologik manzarasi (TFM) bilan borliq o'rtasida to'liq moslik bo'ladi deyish to'g'ri bo'lmasa kerak. Boshqa so'zlar bilan aytganda, TFM borliqdagi predmetlarning aynan nusxasi emas, balki uning interpretatsiyasidir. Shu bois borliqdagi ma'lum predmet, hodisa haqidagi xususiyatlar turli etnomadaniyatlarda turlicha o'z ifodasini topadi. Buning sababi shuki, turli etnik madaniyat vakillari olamini o'zgacha idrok etish tarziga ega bo'lib, bu jarayonda ular o'zlari uchun muhim deb hisoblagan tomonlariga e'tibor qaratadilar. Natijada borliqdagi predmet yoki hodisaga xos muhim jihatlari o'sha sotsiumning ongi va tilidan o'rin oladi. Shuning uchun ham obyektiv olam va subyektiv olam fenomenlari interpretatsiyasi tilda, ayniqsa, frazeologizmlarda keskin farq qilishi mumkin.

Say amen (to) FB ning rus tilidagi ekvivalentlari *созглашаться (с чем-л)*; o'zbek tilidagi ekvivalentlari *omin demoq, nimagadir rozi bo'lmoq, nimanidir ma'qul topmoq* (tog'ri deb hisoblam, qo'llab-quvvatlam), *nimagadir o'z roziligini bermoq*dir. Ushbu FBda to'siqsizlik implitsit tarzda o'z ifodasini topgani barobarida unda ingliz, rus, o'zbek tillari diniy diskursiyalariga xos xitob, nido, undan tashqaridagi harakat, ishlarni amalga oshishiga ruxsat va rozilik berishini anglatadi: *Poor father, had but to say amen to the marriage of the young couple; Ona o'g'illarini frontga kuzatar ekan, qo'l ko'tarib omin dedi.*

I don't care if I do gap shaklidagi FB rus tilida *Я не прочь, не возражаю, согласен, удѐм*; o'zbek tilida *men qarshi emasman, roziman, bo'laveradi, maqbul* kabi ekvivalentlarga ega. Ushbu FB so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, u nutqning boshqa uslublarida deyarli uchramaydi.

Inglizlar milliy frazeologik manzarasidan o'rin olgan yana bir frazeologik chatishma *bloody* (yoki *bloodied*) but *unbowed* (*proud of what you have achieved despite having suffered great difficulties or losses*) "ko'p mashaqqatlar va yo'qotishlardan jabr tortganligiga qaramasdan, erishganlaridan faxrlanmoq degan to'siqsiz semali ma'noni anglatadi. Bu ma'noni *bloody* (qonli), *bloodied* (qonga botgan), *but* (zidlov bog'lovchisi) va *unbowed* (egilmagan) leksemalarining qovushishi asosida yuzaga kelgan va bu ma'no shu holatga tushgan individga taalluqlidir.

Anything goes sodda yig'iq gap shaklidagi FB bo'lib, u Oksford ideomalar lug'atida "there are no rules about acceptable behaviour or dress" deb izohlangan, ya'ni qabul qilsa bo'ladigan, maqbul xulq yoki kiyim borasida qoidalar mavjud emasdir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, odob va kiyinish borasida qat'iy talab yoki qoliplarning bo'lishi mumkin emas, chunki har bir xalq, millat bu borada uning madaniyatidan o'rin olgan an'ana va qadriyatlariga ega. Ushbu gap maqomidagi ikki tarkibli gapda to'siqsizlik yashirin tarzda ifodalangan. Ushbu FB ning o'zbek tilidagi ekvivalenti har qanday narsa ketaveradi (bo'laveradi), bunga hech qanday to'siq, g'ov yo'qdir. Mazkur FB XIX asrning oxirlarida *everything goes* shaklida paydo bo'lgan. Inglizlardan farqli o'laroq o'zbeklar odobi va kiyinishini tartibga soluvchi ijtimoiy qoidalar, normalar va cheklovlar borligi tufayli o'zbek

millati vakillari madaniyatida "anything goes"ning muqobili bo'lishiga ehtiyoj yo'qligidan dalolat beradi.

"Oq yo'!" iborasi rus tilida *Счастливого пути!*, *Счастливый путь!* *Добрый путь!*, *Путь добрый!*, ingliz tilida *Happy journey!*, *Bon voyage!*, *Have a safe journey!*, *Have a good* (safe, nice trip!), *God speed* (good speed)(to you); *I wish you a pleasant journey* ekvivalentlariga ega. Ular uchun umumiy o'xshash jihat safarga o'tlanayotgan kishi(lar)ga bildiriladigan tilak hamda safarga o'tlanayotgan(lar) uchun hech qanday to'siq, g'ov mavjud emasligidan dalolat beradi. Ibora tarkibida leksemalar metaforik tarzda qo'llangan va ularda yashirin to'siqsizlik semasi mavjud. *Bon voyage!* fransuz tilidan o'zlashib inglizlar muloqot diskurslariga singib ketganligini ham ta'kidlash lozim.

Xulosalar.

Olamning milliy lisoniy, xususan frazeologik manzarasidagi umumiy va o'xshash jihatlar bizni o'rab turgan olam va inson ruhoniyligi birligi, turli milliy tillar vakillarining miyasida ekologik va funksional o'xshashliklarning mavjudligidan deb bilamiz. Bunday umumiy va internatsional madaniy komponentlarning turli milliy tillarda mavjudligi turli etnos va til vakillari bir-birlarini oson va tez tushunishlariga va muloqot qilishlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беляевская Е.Г. Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. Вып. 7. Под ред. В.А. Пищальниковой. – М.: МГЭИ, 2004. – С. 12-22.
2. Voas F. Language // Voas F. General anthropology. – New York, 1938. – P. 124-145.
3. Воробьев В.В. Общие и специфические в лингвострановедении и лингвокультуроведении // Слово и текст в диалоге культур. Юбилейный сборник. – М., 2000. – С. 83-92.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – М.: Индрик. 2005. - 1038 с.
5. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – М., 2004. – 192 с.
6. Зиновьева Е.И. Лингвокультурология: от теории к практике. Учебник. – СПб.: СПбГУ; Нестор-История, 2016. - 182 с.¹ Воркачев С.Г. O'sha manba, 2004. – 192 с.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 69.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 27.
9. Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование // Вестник ВГУ. Серия., Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2004. №1. – С. 29-34.
10. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический, культурологические аспекты. – М.: 1996. – 288 с.
11. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – С. 24-37.
12. Oxford Idioms Dictionary for learners of English (Second Edition) by Dilys Parkinson and Ben Francis. Oxford University Press, 2006. – P. 125.
13. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. Издательская группа "Прогресс", 1993. – С. 261.
14. Уорф Б. О двух ошибочных воззрениях на речь и мышления характеризующих систему естественной логики, и о том как слова и обычаи влияют на мышление // Новое в лингвистике. – Вып. 1. – М., 1960. – С. 169-182.
15. Hymes D. The ethnography of speaking // Blount B.G. (ed) language, culture and society. – Prospect Heights: Waveland Press, Inc., 1995. - P. 248-282.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Durdona Boychayeva
Namangan davlat chet tillar instituti, tadqiqotchi
dboychayeva@mail.ru

UDK 808.5

INGLIZ RITSARLIK ROMANLARINING TEMATIK TASNIFI

Annotatsiya: O'rta asr ingliz romanlarining asosiy materiallari ritsarlarning sarguzashtlaridan iboratdir. Bu romanlarning aksariyati nazmda bo'lib, prozaik romanlar keyinchalik paydo bo'lgan. Ushbu maqolada ritsarlik romanlarining tematik tasnifi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu ritsarlik romanlari harakat birligining yo'qligi va personajlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Quyida 4ta tur Fransiya mavzusi, Britaniya mavzusi, Rim hamda Angliya mavzusiga turkumlanuvchi romanlar tasnifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: tematik, ritsarlik, realism, sarguzasht, Fransiya mavzusi, Britaniya mavzusi, Rim mavzusi, Angliya mavzusi, Troya, personaj.

Durdona Boychayeva,
Namangan State Institute of foreign languages, researcher

THEMATIC CLASSIFICATION OF ENGLISH CHIVALRIC NOVELS

Annotation: The main material of medieval English novels is the adventures of knights. Most of these novels were in verse, and prose novels appeared later. This article provides information about the thematic classification of chivalric novels. These novels of chivalry are characterized by the lack of unity of action and insufficient development of characters. Below is a classification of novels divided into 4 types: matter of French, matter of British, matter of Rome, matter of England.

Keywords: theme, chivalry, realism, adventure, matter of French, matter of British, matter of Rome, matter of England, Troy, character.

Дурдона Бойчаева,
Наманганский государственный институт иностранных языков, исследователь

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ АНГЛИЙСКИХ РЫЦАРСКИХ РОМАНОВ

Аннотация: Основной материал средневековых английских романов — приключения рыцарей. Большинство этих романов были в стихах, позднее появились романы в прозе. В данной статье представлена информация о тематической классификации рыцарских романов. Эти рыцарские романы характеризуются отсутствием единства действия и недостаточной проработкой характеров. Ниже представлена классификация романов, разделенная на 4 типа: французская тема, британская тема, римская тема и английская тема.

Ключевые слова: тема, рыцарство, реализм, приключение, французская тема, британская тема, римская тема, английская тема, Троя, персонаж.

Kirish.

Ritsarlik romanlari tabiatan reallikdan yiroqlik xususiyatiga ega bo'lib, bunday asarlar qahramonlari yoki ma'lum bir prinsiplarga tayanib, yoki qandaydir marosimlar asosida kurashadilar va, eng muhimi, bunda asosiy e'tibor qahramonning xarakteriga qaratiladi. Odatda, "roman" so'zi bevosita muhabbat hikoyasi bilan bog'liq tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili.

"Floris va Blanshflaur", "Lanselot va Gvinevra" kabi aniq muhabbat elementlariga ega bo'lgan mashhur o'rta asr romanlari borki, shuning uchun o'rta asr romanlarida doimo muayyan muhabbat mavzusi bo'lishi taxmin qilingan. Biroq, agar biz "Aleksandr" yoki "Sheryurak Richard" kabi romanlarini e'tiborga oladigan bo'lsak, ko'plab o'rta asr romanlarida hech qanday muhabbat elementi yo'qligiga guvoh bo'lamiz. Muhabbat hikoyasi asosiy mavzu bo'lgan bir necha istisnolar bor, albatta. Qolgan asarlarda, agar hikoyada muhabbat elementi

mavjud bo'lsa-da, u "Hemptonlik Bevis" romanidagi kabi tasodifiy, yoki "Uorviklik Gay" romanidagi kabi qahramonning sarguzashtiga motivatsiya sifatida, "Erek" yoki "Yvain" asarlaridagi kabi sarguzasht elementlarining bir qismi sifatida beriladi.

Aslida, o'rta asr ingliz romanlarining asosiy materiallari ritsarlarning sarguzashtlaridan iboratdir. Bu romanlarning aksariyati nazmda bo'lib, prozaik romanlar keyinchalik paydo bo'lgan. Nazmiy ritsarlik romanlari odatda bir mingdan olti ming satrgacha yozilgan bo'lib, odatda sakkiz bo'g'inli kupletlarda va satr oxiri qofiyalangan turli xil shakldagi to'rtliklardan iborat[1]. Ushbu ritsarlik romanlari harakat birligining yo'qligi va personajlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Bu romanlar harakatning birliksizligi va aniq belgilangan xarakterlarning kamligi bilan ajralib turadi. Odatda, xarakterlar tiplarga ega bo'lib, aniq bir naqshga mos keladi. Xarakterlarni individual bir tarzda yaratish uchun ko'p imkoniyatlar yo'q. Qahramon ideal ritsar sifatida tasvirlangan bo'lib, boshqa ritsarlardan ustunligini isbotlash kerak, shuning uchun shoir ba'zan qahramon uchun kuchli raqib sifatida ajdar yoki ulkan sudraluvchini kiritadi, bu orqali syujetni biroz o'zgartirishga harakat qiladi. Dastlab roman aristokratik yuqori tabaqaning xohishini qondirishga mo'ljallangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Fransuz tili Angliyada saroy til sifatida qabul qilingani sababli Fransuz romanlari ingliz hukmron doiralari orasida juda mashhur bo'ldi. Keyinchalik bu romanlar oddiy xalq orasida ham tarqala boshladi. Fransuz tilining mavqei shunchalik baland ediki, hattoki Angliyada yozilgan ritsarlik romanlari ham fransuz tilida edi. Bu holat o'n uchinchi asrning o'rtalarigacha davom etdi. Bu davrga kelib ingliz tili fransuz tilidan ustun qo'yila boshlandi va bu adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazib, endilikda asarlar ingliz tilida yozila boshlanadi[2]. Shu sababli ingliz ritsarlik romanlarining aksariyati o'n to'rtinchi asrga tegishli. Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlarining aksariyati fransuz romanlaridan tarjima qilingan yoki moslashtirilgan.

Tahlil va natijalar.

O'rta asr ingliz ritsarlik romanlari mavzu jihatdan uchta kategoriya bo'linadi:

1. Fransiya mavzusi;
2. Britaniya mavzusi;
3. Rim mavzusi.

Bu bo'linish XII asr oxirida Jan Bodel tomonidan taklif etilgan.

1. Fransiya mavzusi.

Bu mavzular ichida eng qadimiysi "Fransiya mavzusi" bo'lib, u Buyuk Karl va uning ritsarlari faoliyatlari bilan bog'liq. Angliya va Fransiya o'rtasidagi munosabatlar do'stona va juda yaqin, Fransiya Buyuk Karl haqidagi afsonalar manbai bo'lib, ingliz tilida bu afsonalarning interpretatsiyasi keng ifoda etilmagan.[3]

Buning sababi, fransuz shaxslari tarixidan hikoya qiluvchi ritsarli romanlari Frantsiyada katta qiziqishga sabab bo'lsa-da, Angliyada ularga nisbatan qiziqish ancha past bo'lishi mumkin edi. Yuzdan ortiq romanni o'zida birlashtirgan bu turkumidagi asarlarlarning eng mashhuri Buyuk Karl haqidagi ritsarlik romanlari bo'lib, u aksariyat romanlarda Xudo isyonkorlariga qarshi qattiq kurashayotgan inqilobchi sifatida tasvirlanadi. Buning yorqin misoli esa "Roland haqida qo'shiq" ritsarlik romanidir. Ikkinchi guruh epik asarlarida Buyuk Karlning o'z vassallariga qarshi olib borgan kurashlari tasvirlangan.

Buyuk Karl haqidagi barcha ritsarlik romanlarini ikki guruhga bo'lish mumkin - Ferumbras guruhi va Otuel guruhi. Ferumbras guruhi ikkita asar - "Rimning qulashi" va "Fierabras" ritsarlik romanlaridagi voqealarni kuylaydi. Garchi bu ikki asar bir-biridan bir oz farq qilsada, ular ingliz ritsarlik romanlarining haqiqiy manbalaridir. Vavilon sultoni Laban va uning o'g'li Ferumbrasning Rim yo'q qilishi va muqaddas xoch, thorns taxtasi va Qurusi o'lchash bilan bog'liq voqealarni tasvirlaydi va ularni Ispaniyaga yuboradi. Ikkinchi qism "Sir Ferumbras"da batafsil qayd etilgan voqealarning tezkor ifodasidir. U yerda Buyuk Karlning armiyasi muqaddas yodgorliklarni qaytarib olish va Sarasenlarni jazolash uchun Ispaniyaga qilgan yurishi chog'ida bo'yi yigirma fut baland bo'lgan, ko'rganlarni dahshatga soluvchi ritsar Ferumbrasga duch keladi. Biroq Ferumbras Oliver tomonidan mag'lub etilgach, nasroniylikni qabul qiladi va endi u nasroniy dini maqsadi uchun kurashishni boshlaydi. Turli sarguzashtlarga boy safardan vatanga qaytish chog'ida Oliver Saraselar tomonidan qo'lga olinadi. Hikoyaning asosiy qismi ana shu qo'lga olish voqealariga hamda Floripas (Sultonning qizi) va Burgundiyalik Yigit (Karlning ritsari) o'rtasidagi ishqiy munosabatlar tasviriga bag'ishlanadi. Floripas nasroniylarning muqaddas yodgorliklarni qaytarishlaridagi keyingi g'alabalariga yordam berishda asosiy vosita rolini bajaradi. "Ser Ferumbras" Buyuk Karl mavzusidagi ingliz ritsarlik romanlari orasida eng yaxshilardan biri hisoblanadi.

Otuel guruhida beshta roman mavjud. Ularning faqat uchta Otuel hikoyasiga haqiqatda mos keladi. Bu uchta hikoya ba'zi farqlar bilan bir xil hikoyani tasvirlaydi. Otuel amakisi Vernaguning o'limi uchun o'ch olish maqsaduda Rolandga tahdid qiladi. Roland bilan jangda Muqaddas Ruh kapalak timsolida, uning dubulg'asiga qo'nadi. Bu holatdan hayratga tushgan Otuel nasroniylikni qabul qiladi. Bu orada qirol Charles Otuelga qizi Belesantga uylanishini taklif qiladi. Shu voqealardan keyin nasroniylar g'alaba qozonishadi va Otuel Buyuk Karl bilan birga sayohatga ketadi. Keyin u Belesantga uylanib, Lombardiyaning lordiga aylanadi.

Eslatib o'tilgan yuqoridagi uch romandan tashqari "Ronald va Vernagu" romani ham bor. Asarning dastlabki qismida Buyuk Karlning Quddus Patriarxiga qanday

yordam bergani va turli muqaddas buyumlarni qo'lga kiritishi haqida voqealar hikoya qilinadi. Biroq, romanning nomi uning so'nggi qismi bilan bog'liq. Bu qismda bo'yi qirq futli sarasin Vernagu Buyuk Karlning jallodlarini kurashga chaqiradi.

Fransuz adabiyotida o'xshashi yo'q "Melen qamali" romani esa arxiyepiskop Turpinning ruhoniyluk libosini tashlab jang maydoniga o'tlanishini tasvirlangani bilan diqqatga sazovordir. Angliyada Buyuk Karl haqida yaratilgan ritsarlik romanlari asosan diniy mavzuda bo'lib, nasroniylukni ulug'lashga qaratilgan. Ikki Sarasen qahramon, Ferumbras va Otuel, nasroniy dinini qabul qilishadi va jarayonda ilohiy aralashuv hodisalari kuzatiladi. Ba'zan bunday romanlar rohiblar tomonidan yozilgan, ular o'z asarlarini hukmdor homiylar e'tiborini din ishlariga, uni keng yoyishga va, qolaversa, missionerlik faoliyatlariga jalb qilish vositasi deb bilishgan.

2. Britaniya mavzusi. "Britaniya mavzusi" qirol Artur hikoyalariga asoslangan. Artur haqidagi romanlarining aksariyati ingliz yilnomachilari asarlariga emas, balki Breton afsonalariga asoslangan.[4] O'n ikkinchi asrning oxiri va o'n uchinchi asrning boshigacha Germaniya va Fransiyada qirol Artur mavzusidagi romanlarning gullab-yashnash vaqti bo'lgan. Qirol Artur mavzusidagi ingliz ritsarlik romanlarida o'zidan avvalgi fransuz versiyalarining ta'siri yaqqol seziladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ingliz romanchilari, ayrimlarini hisobga olmaganda, ilk frantsuz yozuvchilari asarlaridagi kabi ruhni jonlantirib berolmadilar. Biroq shunday bo'lsa-da, qirol Artur haqidagi ingliz ritsarlik romanlarining ingliz adabiyotidagi o'rnini beqiyosdir.

Ushbu romanlar mualliflaridan Kretyen de Truani ta'kidlash kerakki, u o'z asarida bosh qahramon hayoti bilan bog'liq bir yoki bir nechta epizodlarnigina tasvirlaydi va shu orqali biografik romanlardan uzoqlashdi. Qirol Artur haqidagi keyingi ritsarlik romanlari Kretyen de Trua tomonidan belgilab berilgan yo'nalishni davom ettirishadi. Shuning uchun deyarli barcha ingliz ritsarlik romanlarida qirol Arturning butun hayoti emas, balki epizodik ko'rinishlari tasvirlangan, xolos. XIV asrning ikkinchi yarmida yozilgan Artur nomli qisqa she'r bundan mustasno. Aksariyat romanlar Arturning faoliyati yoki Yumaloq Stol ritsarlari boshdan kechirgan sarguzashtlar haqida so'zlaydi. Ayrim romanlarda esa Muqaddas Qadah tarixi kabi mavzular ham yoritilgan.

Artur hayotining dastlabki bosqichi Merlin obrazi bilan bevosita bog'liq tarzda tasvirlanadi. Artur tug'ilgan kechada Merlinning sehrli qobiliyati Uter Pendragonning Ygernega kirishiga yordam beradi. Yosh shahzoda Arturning toshdan sehrli qilichni sug'urib, taxtga o'tirgunicha, o'z mamlakatida ham, xorijda ham har bir jangda g'alaba qozonishida Merlinning maslahatlari va g'ayritabiiy kuchlari unga doim yordam bergan. Taxminan o'n ming satrdan iborat "Artur va Merlin" romani Arturning hayotining ushbu davri haqida hikoya qiladi.

Roman "Brut" nomli fransuz asaridan ilhomlanib yozilgan. U monotik xususiyatdan farqli ravishda turli janglarning uzluksiz sujetini gavdalandiradi.

Ingliz yozuvchilari uchun yana bir qiziqarli mavzu Gaveynning dastlabki harbiy sarguzashtlari edi. Bu ritsarlik romanlari orasida eng mashhuri "Ser Gaveyn va Yashil ritsar" hisoblanadi. Yana bir e'tiborga molik Gawain ishqiy munosabatlari "Yven va Gaveyn" bo'lib, u Kretyenning "Yvein" asaridan moslashtirilgan bo'lib, sayqallangan uslub va hikoya qilish texnikasi bilan ajralib turadi.

Yana bir ingliz ritsarlik romani, "Lanselot Layk", Lanselotni o'z mavzusi sifatida tanlaydi va uning Artur va Galiot o'rtasidagi jangdagi rolini tasvirlaydi. Asar yakunida esa Lanselot va Guinevra o'rtasidagi muhabbat rishtalarining paydo bo'lishi voqealari bilan tugaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, asarning yakuniy qismi qo'lyozmalarda saqlanib qolmagan. Adabiyotshunoslarning fikricha, bu roman fransuz prozaik asari hisoblangan "Lancelot" dan ilhomlanib yozilgan. Bu asar zerikarli muqaddima va qirollik mas'uliyat bilan bog'liq masalalar haqidagi yetti yuz misralik roman bo'lib, kitobxonlar nazaridan chetda qolgan. "Lanselot Layk" romani Lanselot haqidagi yagona ingliz romani bo'lsa-da, 1400 yilda yozilgan "Arturning o'limi" romanida ham Lanselotning sarguzashtlari, uning malika Guinevruga bo'lgan muhabbati, ularning ajralishi va nihoyat uning o'limi haqidagi voqealar tasvirlangan.

Lanselot va Guinevra xiyonatidan g'azablangan Artur Lanselotga qarshi urush boshlaydi. Bu kurash davomida Artur o'z jiyani Mordredning xiyonati tufayli uyiga qaytishga majbur bo'ladi va jangda olgan jarohatidan azob chekib o'lim to'shagida yotadi. Bu asar 1360-yilda yozilgan "Morte Arthure" alliterativ romanidan juda farq qiladi. Bu asarda Arturning Rimga yurishi tasvirlangan. Ammo yarador Arturni qayiqda davolash uchun olib ketilgani haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Asarda Artur ziyofatlari, uning ulkan mahluq bilan jangi, u va Guinevra o'rtasidagi ajralish sahnasi va boshqa ko'plab sahnalar tasvirini o'z ichiga olgan beqiyos parchalar mavjud.

O'rta asrlarda Artur siklining ichiga kiruvchi yana bir juda mashhur mavzu - Tristan mavzusi mavjud. Biroq, ingliz shoirlari bu mavzularni nisbatan ancha kam o'rganganlar. "Ser Tristrem" Tristan va Izoldaning fojiali sevgi hikoyasi haqidagi yagona ingliz ritsatrik romanidir. Ushbu she'riy asar qahramonning tug'ilishi, Irlandiyadagi sarguzashtlari va Qirol Mark saroyidagi sarguzashtlari, sevgi eleksirini ichishi va amakisining bo'g'usi xotini hisoblangan Izoldaga oshiq bo'lishi, keying sinovlar va oxirida uning o'limi haqidagi keng qamrovli voqealarni tasvirlaydi.

3. Rim mavzusi. Klassik hikoyalarga asoslangan o'rta asr ishqiy romanlari mavzulari asosan Aleksandr Makedonskiy, Troya urushi, Fiva qamali va Eneyning

sarguzashtlariga bag'ishlangan. Ushbu romanlar Rim mavzusini tashkil etadi. Bu mavzularning barchasi XII asr frantsuz romanlarida yoritilgan. Biroq, klassik mavzularga asoslangan ingliz romanlarida asosan Troya va Aleksandr haqidagi hikoyalarni tasvirlanadi.[5]

O'rta asrlar odamlarining Troya qulashiga doir bilimlari Homerning asarlaridan emas, balki grek tilidan tarjima qilingan ikki qisqa prozaik asardan olingan. Bu ikki hikoya Dares va Dictysga tegishli bo'lib, o'rta asr qo'lyozmalarida uchraydi. Garchi ularning ikkisi takrorlanish xolatlari mavjud bo'lsa-da, ularning ikkisi birgalikda Yason va "Oltin mo'yna" hikoyasidan tortib, yunonlarning g'alaba bilan qaytishi va Ulissning o'limigacha bo'lgan voqealar haqida to'liq ma'lumot beradi.[6] Ushbu materialga asoslangan birinchi xalq asari Norman-frantsuz shoiri Benua de Sen-Maurning "Troya haqida Roman" ritsarlik romanidir. Ikki ming misradan iborat "Troya qamali" nomli ingliz tilidagi she'riy asar esa Troya haqidagi ritsarlik romanining eng qadimgi namunasidir. Ushbu she'riy asarning manbalari XIV asrda yozilgan qo'lyozmalardir. Biroq, asar Yasonning sarguzashtlaridan tortib to Troyaning vayron bo'lishi va yunonlarning g'alabasigacha bo'lgan voqealarni qamrab olgan va qizg'in sur'atda rivojlanuvchi voqealarni tasvirlaydi. "Troya shon-shuhrati kitobi" ham xuddi shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, o'zining ravonligi bilan diqqatga sazovordir. U o'n sakkiz ming misradan iborat bo'lib, tahminan 1400 yillarda yozilgan.

Rim mavzusiga kiruvchi ingliz ritsarlik romanlari orasida Aleksandr mavzusi eng sevimlilardan biridir. O'rta asrlardagi mashhur Aleksandr romanlari barchasi miloddan 200 yil avval yozilgan yunon romantik biografiyasiga asoslangan. Bu asar Aleksandrning tug'ilishi, sayohatlari va Hindiston kabi mamlakatlarda o'tkazgan har xil tajribalari haqida afsonalarni o'z ichiga oladi. Kallisten qalamiga mansub bu asar Yulius Valerius tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan va keng tarqalgan. Yana bir mashhur lotincha tarjimasini Neapolning arxepresviteri Leo tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, bu tarjima "Historia de Preliis" deb ataladi. Aleksandr haqidagi G'arbiy Yevropada yozilgan xalq tilidagi barcha adabiy asarlar ushbu ikki lotin tarjimasiga asoslangan.

Xulosa.

Pizansonlik Alberikning provansal she'riy asari Yevropadagi Aleksandr mavzusidagi eng qadimgi ritsarlik romani hisoblanadi. Asar 1160 yilda frantsuz tiliga moslashtirilib, keyinchalik o'zgartirilgan. "Aleksandr" nomli ushbu roman frantsuz tilida keng tarqalgan standart roman hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jan Bodel tomonidan tasniflangan va uch guruhga bo'lingan ritsarlik romanlari garchi Angliyada yozilgan bo'lsa-da, asosan Yevropa mamlakatlari hayotidan olingan tarixiy shaxs va voqealar haqida hikoya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baugh, A.C. Literary History of England vol 1. London, 1994.
2. Daiches, David. A Critical History of English Literature Vol 1. India, 2007.
3. Burrow, J.A. Essays on Medieval Literature. Oxford, 1984
4. Legouis and Cazamian. A History of English Literature Vol 1. Macmillan, 1927.
5. Stevens, John. Medieval Romance. London, 1973
6. Mehl, Dieter. The Middle English Romances of the Thirteenth and Fourteenth Centuries. London, 1969.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Yugay Evgeniya Viktorovna
PhD, Associate Professor
Navoi State Pedagogical Institute
e.yugay@mail.ru

UDK 81-13

THE EVOLUTION OF SEMANTIC ASSOCIATIONS IN SCIENTIFIC LANGUAGE: A CORPUS-BASED STUDY

Abstract: This study explores the historical evolution of semantic associations in scientific language, emphasizing their impact on knowledge dissemination, clarity, and interdisciplinary collaboration. Corpus-based methods are employed to analyze how scientific language has evolved over time, particularly in relation to the development of specialized terminology and the influence of interdisciplinary research. This topic is especially relevant for research in Uzbekistan, where understanding the evolution of scientific language is crucial for enhancing scientific communication and collaboration.

Key words: semantic associations, scientific language, corpus-based study, knowledge dissemination, clarity, and interdisciplinary collaboration.

Yugay Evgeniya Viktorovna,
PhD, dotsent v/b
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

ILMIY TILDA SEMANTIK BIRLASHMALARNING EVOLYUTSIYASI: KORPUSGA ASOSLANGAN TADQIQOT

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ilmiy tildagi semantik assotsiatsiyalarning tarixiy rivojlanishini o'rganib, ularning bilim tarqalishi, aniqlik va fanlararo hamkorlikka ta'sirini ta'kidlaydi. Korpus asosidagi usullar orqali ilmiy tilda maxsus terminologiyaning rivojlanishi va fanlararo tadqiqotlarning ta'siri bilan bog'liq o'zgarishlar tahlil qilinadi. Bu mavzu O'zbekistonda ilmiy kommunikatsiya va hamkorlikni rivojlantirish uchun ilmiy tilning evolyutsiyasini tushunish muhim bo'lgan tadqiqotlar uchun ayniqsa dolzarbdir.

Kalit so'zlar: semantik assotsiatsiyalar, ilmiy til, korpusga asoslangan tadqiqot, bilim tarqalishi, aniqlik, fanlararo hamkorlik.

Югай Евгения Викторовна,
PhD, доцент и.о.
Навоийский Государственный Педагогический Институт
e.yugay@mail.ru

ЭВОЛЮЦИЯ СЕМАНТИЧЕСКИХ АССОЦИАЦИЙ В НАУЧНОМ ЯЗЫКЕ: КОРПУСНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация: В данном исследовании рассматривается историческая эволюция семантических ассоциаций в научном языке, с акцентом на их влияние на распространение знаний, ясность и междисциплинарное сотрудничество. Методами корпусного анализа исследуются изменения научного языка со временем, особенно в контексте развития специализированной терминологии и влияния междисциплинарных исследований. Эта тема особенно актуальна для исследований в Узбекистане, где понимание эволюции научного языка имеет важное значение для улучшения научной коммуникации и сотрудничества.

Ключевые слова: семантические ассоциации, научный язык, корпусное исследование, распространение знаний, ясность, междисциплинарное сотрудничество.

Introduction.

The evolution of scientific language has significantly influenced how knowledge is disseminated, understood,

and integrated across disciplines. Over centuries, the lexicon, syntax, and style of scientific writing have undergone substantial changes, reflecting broader shifts in

scientific paradigms, methodologies, and audiences. This evolution is particularly relevant for research in Uzbekistan, where developing effective scientific communication is essential for advancing interdisciplinary studies and international collaboration. The central research question of this study is: *How have semantic associations in scientific language evolved over time, and what impact does this evolution have on knowledge dissemination and interdisciplinary collaboration?*

Historically, scientific language was characterized by a formal, often convoluted style, intended for a limited audience of educated elites. With the Enlightenment and the rise of vernacular languages in scholarly communication, scientific language evolved towards greater accessibility. The development of specialized terminology in the 19th and 20th centuries further refined scientific discourse, making it more precise and discipline-specific. In recent decades, interdisciplinary research has driven the emergence of new semantic associations, reflecting the integration of concepts from diverse fields. Understanding these changes through corpus-based studies offers valuable insights into the historical evolution of scientific language and its ongoing impact on scientific communication.

Literature review.

This study utilizes a corpus-based approach to analyze the evolution of semantic associations in scientific language. A historical corpus of scientific texts, spanning from the Renaissance to the present day, was compiled for this analysis. The corpus includes texts from various scientific disciplines, allowing for a comprehensive examination of changes in vocabulary, syntax, and style. Text mining and computational linguistics tools were used to identify and track semantic associations across different time periods and disciplines. Key terms and phrases were analyzed to reveal how their meanings and associations have shifted over time, reflecting changes in scientific paradigms and the development of specialized terminologies.

From the classical texts of early science to the highly specialized language of modern research articles, these transformations mirror the progression of scientific thought and the increasing complexity of scientific concepts. The evolution of semantic associations in scientific language reflects changes in how scientific concepts are understood, communicated, and connected over time. This evolution is driven by advancements in knowledge, shifts in research paradigms, and the development of new technologies and methodologies. Thus, we can consider the following stages of scientific language:

Early Scientific Language. Historically, scientific communication was often restricted to a limited audience of educated elites. The language used was formal and often convoluted, aiming to establish authority and credibility.

For instance, during the Renaissance, scientists like Galileo and Newton wrote in Latin, which was the lingua franca of educated Europeans at the time. This practice, while promoting precision and a shared vocabulary among scholars, also limited access to scientific knowledge (Montgomery, 2000)[10]. With the Enlightenment and the rise of vernacular languages in scholarly communication, scientific language began to evolve towards greater accessibility. In the early stages of scientific inquiry, the language used was often descriptive and observational. During the Renaissance and Enlightenment periods, scientists like Galileo and Newton relied on natural language to describe their observations and theories. Semantic associations during this time were straightforward, linking terms directly to observable phenomena. According to Grafton (1994) example, terms like "gravity" and "force" were used in a more literal sense, with clear, tangible associations to physical experiences[5].

Development of Specialized Terminology. As science advanced, the need for precision and clarity led to the development of specialized terminology. In the 19th century, fields such as chemistry, biology, and physics began to formalize their languages. This period saw the introduction of systematic nomenclature in chemistry by Antoine Lavoisier and the development of the periodic table by Dmitri Mendeleev. Semantic associations became more complex, with terms acquiring specific, discipline-bound meanings. According to Holmes (2000) example, the term "atom" evolved from its philosophical roots in ancient Greece to a well-defined scientific concept in chemistry[6].

The 19th and 20th centuries saw the emergence of discipline-specific terminologies and standardized formats for presenting scientific research, such as the IMRAD structure (Introduction, Methods, Results, and Discussion). These changes facilitated clearer communication of complex ideas and allowed for more systematic dissemination of scientific findings (Gross, Harmon, & Reidy, 2002)[4]. Corpus-based studies provide valuable insights into the historical evolution of scientific language. By analyzing large collections of scientific texts from different time periods, researchers can track changes in vocabulary, syntax, and style. According to Biber & Finegan (1991) example, a corpus analysis of medical literature from the 19th century to the present can reveal how the terminology for diseases and treatments has evolved, reflecting advances in medical knowledge and changes in clinical practices[3]. Furthermore, corpus-based methods can uncover patterns in the usage of scientific jargon and how it becomes standardized across disciplines. For instance, the adoption of statistical terms like "p-value" and "confidence interval" in the 20th century can be traced through corpus analysis, according to Atkinson (1999), showing how these concepts became integral to scientific discourse across fields such as biology, psychology, and social sciences[1].

Impact of Scientific Paradigm Shifts. The 20th century brought significant paradigm shifts, most notably in physics with the development of relativity and quantum mechanics. These shifts altered the semantic associations of many terms. For instance, the concept of "time" in physics changed dramatically with Einstein's theory of relativity, associating it with space and gravity in ways previously unimagined. Similarly, the term "particle" in quantum mechanics acquired new associations with wave-particle duality and probability functions (Kuhn, 1962)[9]. Corpus linguistics also allows for the examination of semantic shifts over time. Terms that were once common in scientific literature may fall out of use, while new terms emerge, reflecting shifts in scientific paradigms and technological advancements. According to Meyer (2002) example, the term "ether" was widely used in physics literature until the early 20th century when it was largely replaced by concepts from quantum mechanics and relativity[11]. Another notable example of this evolution is the shift in the terminology used to describe genetic research. Early genetic studies used terms like "heredity" and "inheritance" broadly, while modern genetics employs specific terms like "genotype," "phenotype," and "allele." A corpus analysis can illustrate this shift by highlighting the frequency and context of these terms over time, showing how the field's language has become more precise and specialized (Kronfeldner, 2009)[8]. Interesting note was done by Hulme (2009), as an example he mentions the changing language of climate science[7]. In early 20th-century literature, terms like "global warming" were scarcely used, whereas contemporary climate science frequently employs terms such as "climate change," "carbon footprint," and "greenhouse gases." Corpus-based studies can chart these changes, providing a historical context for current scientific discussions and policy-making.

Research methodology.

Influence of Interdisciplinary Research. The rise of interdisciplinary research in the late 20th and early 21st centuries has further influenced the evolution of semantic associations. Fields such as bioinformatics, which combines biology and computer science, and environmental science, which integrates chemistry, biology, and earth sciences, require a melding of terminologies. Bourne and Chalabi (2006) say that this integration has led to new semantic associations, where terms like "network" can refer to both biological systems and computational structures[2].

Analysis and Results.

The analysis revealed several key stages in the evolution of scientific language, each marked by distinct semantic associations:

1. Early Scientific Language.
2. Development of Specialized Terminology.
3. Impact of Scientific Paradigm Shifts.
4. Influence of Interdisciplinary Research.

Corpus-based analysis provided evidence of these shifts, revealing patterns in the usage of scientific jargon and the standardization of terminology across disciplines. For example, the adoption of statistical terms like "p-value" and "confidence interval" was traced through scientific literature, illustrating how these concepts became integral to scientific discourse.

The findings of this study highlight the dynamic nature of scientific language and its evolution in response to changing scientific paradigms, methodologies, and audiences. In Uzbekistan, where scientific research is becoming increasingly important, understanding the historical evolution of semantic associations can inform strategies for improving scientific communication and fostering interdisciplinary collaboration. The development of specialized terminology has enhanced the precision of scientific language, but it has also created challenges for interdisciplinary research, where the integration of concepts from different fields requires careful negotiation of semantic associations.

Corpus-based studies offer a powerful tool for examining these changes, providing insights into how scientific language has evolved and how it continues to shape scientific inquiry. By tracking the evolution of key terms and phrases, researchers can better understand the historical context of scientific concepts and their current usage. This understanding is essential for improving the clarity and accessibility of scientific communication, particularly in interdisciplinary contexts.

Conclusion.

The evolution of semantic associations in scientific language reflects broader changes in how scientific concepts are understood, communicated, and connected over time. This study demonstrates the value of corpus-based methods for analyzing these changes and highlights the relevance of this research for enhancing scientific communication in Uzbekistan. Future research should focus on developing tools and methodologies that leverage semantic associations to improve scientific inquiry and interdisciplinary collaboration. By understanding the historical evolution of scientific language, researchers can better navigate the complexities of modern scientific discourse and contribute to the advancement of science both locally and internationally.

References:

1. Atkinson, D. (1999). *Scientific Discourse in Sociohistorical Context: The Philosophical Transactions of the Royal Society of London, 1675-1975*. Lawrence Erlbaum Associates.
2. Bourne, P. E., & Chalabi, Z. (2006). Ten simple rules for getting grants. *PLoS Computational Biology*, 2(2), e12.

3. Biber, D., & Finegan, E. (1991). *On the Exploitation of Computer Corpora in Variation Studies*. In K. Aijmer & B. Altenberg (Eds.), *English Corpus Linguistics* (pp. 204-220). Longman.
4. Gross, A. G., Harmon, J. E., & Reidy, M. S. (2002). *Communicating Science: The Scientific Article from the 17th Century to the Present*. Oxford University Press.
5. Grafton, A. (1994). *Defenders of the Text: The Traditions of Scholarship in an Age of Science, 1450-1800*. Harvard University Press.
6. Holmes, F. L. (2000). *Antoine Lavoisier: The Next Crucial Year; Or, the Sources of His Quantitative Method in Chemistry*. Princeton University Press.
7. Hulme, M. (2009). *Why We Disagree About Climate Change: Understanding Controversy, Inaction and Opportunity*. Cambridge University Press.
8. Kronfeldner, M. (2009). *Darwinian Creativity and Memetics*. Routledge.
9. Kuhn, T. S. (1962). *The Structure of Scientific Revolutions*. University of Chicago Press.
10. Montgomery, S. L. (2000). *Science in Translation: Movements of Knowledge through Cultures and Time*. University of Chicago Press. P.139
11. Meyer, P. (2002). *The Scientific Revolution and the Origins of Modern Science*. Palgrave Macmillan.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turg'unova Gulnoza Muxammadjonovna
Namangan davlat universiteti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJOBİY UNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarida darslarga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradigan turli usullar va texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, motivatsiya, pedagogik texnologiya, qiziqish, o'quv-biluv motivatsiyasi.

Тургунова Гульноза Мухаммаджоновна
Наманганский государственный университет

СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ АССОЦИАЦИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В статье исследуются различные методы и технологии, которые помогают учащимся младших классов формировать позитивное отношение к занятиям.

Ключевые слова: начальное образование, мотивация, педагогическая технология, интерес, учебная мотивация.

Turgunova Gulnoza Mukhammadzhonovna
Namangan State University

METHODS FOR THE FORMATION OF POSITIVE UNOSABATS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: The article researches various methods and technologies that help elementary school students develop a positive attitude toward classes.

Keywords: primary education, motivation, pedagogical technology, interest, educational motivation.

Kirish.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, ijobiy o'zgartirishlar jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda. Ta'lim ustuvorligini ta'minlash, ta'lim mazmunini modemizatsiyalashtirish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan barcha ezgu ishlar o'z samarasini bermoqda. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun ularga o'qish va o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholashni o'rgatish, ya'ni tahliliy fikrlashga o'rgatish asosida o'quv faoliyatini tashkil etish zarur. Tajribalarning ko'rsatishicha, ko'proq tahliliy fikrlash o'quvchining o'zi tomonidan yangi tushunchalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonlarida, ya'ni unga ikkinchi bir shaxs tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda sub'yekt-sub'yekt munosabatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Sub'yekt-sub'yekt munosabatlari asosida tashkil etilgan o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni

shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari (keyingi o'rinlarda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etilib, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fanlarning o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishida "umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, ... matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [2], 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari [3], 2022 yil 11 maydagi PF-134-son «2022 - 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari [4], 2019 yil 12 iyuldagi 577-son "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlari [5] hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar va jamiyatda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan birga davom etmoqda. Ta'limga ustuvorlik berish, uning mazmunini modernizatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlar o'z samarasini ko'rsata boshladi. O'quvchilarda darslarga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun ularni ma'lumotlarni o'qish, o'rganish, tahlil qilish va tanqidiy baholashga o'rgatish muhimdir. Bu tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini tashkil etishni anglatadi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar an'anaviy tarzda o'qitilmasdan, mustaqil ravishda yangi tushunchalarni o'rganishda ko'proq tahliliy fikrlash bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun ta'limga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida mustahkam munosabatlarni yaratish muhimligini ta'kidlash muhimdir. Ushbu yondashuv ushbu Sub'yekt-sub'yekt o'zaro ta'siri orqali darslarga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan. O'qitish samaradorligi nafaqat o'quvchilarning bilimlari yoki ularning malakasi, balki mavzu qanchalik aniq va ishonchli ekanligi, ma'lumotlar qanchalik yangi va tabiiy tuyulishi, o'qitish va o'quv faoliyatini boshqarishda innovatsion texnologiyalardan qanchalik yaxshi foydalanilganiga ham bog'liq. O'quvchilarning darsga nisbatan his-tuyg'ulari nafaqat ularning qanchalik yaxshi o'rganayotganlarini, balki ularning o'zlashtirish natijalariga nima ta'sir qilayotganini ham ko'rsatadi. Ushbu ta'sirlar darslarga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun qo'yilgan maqsadlar, o'quvchilarning tarkibi, ularning o'quv faoliyati, qo'llaniladigan dasturlar va texnologiyalar, mavjud resurslar va ta'limning umumiy ta'minoti, shu jumladan huquqiy va moddiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu elementlarning barchasi o'quvchilarda darslarga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiya.

N.F.Xaitovning tadqiqotlari o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani oshirish, ularda darslarga qiziqish uyg'otish va ta'limga ijobiy munosabat shakllantirishni o'rganadi [6]. U yangi o'quvchining maktabdan tashqari hamma narsaga qiziqish bildirishi

odatiy hol ekanligini ta'kidlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasining quvnoq va erkin muhitiga o'rgangan birinchi sinf o'quvchisi dars paytida nima uchun o'rnidan turolmashligi, gaplasha olmasligi yoki o'ynay olmasligini tushunishga qiynalishi mumkin. Bu o'tish davri qiyinchiliklarga duch kelganda cheklov, stress va umidsizlik tuyg'ularini keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, qiziqishning pasayishi kelajakda ularning barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin deb ta'kidlaydi.

N.F.Xaitova zamonaviy ta'lim tendensiyalari qanday qilib o'quvchilarda psixologik ziddiyatlarning oldini olishga yordam berishi va ularni yangi o'rganish usullarini izlashga undashini tadqiq etgan. Yosh avlodga muloqot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlar va ularning o'zaro ta'sirini kuchaytiruvchi boshqa ta'lim resurslari katta ta'sir ko'rsatadi. Uning tadqiqotida o'quvchilarni jalb qilish va ijobiy ta'lim muhitini yaratish uchun darslarga o'yin elementlarini kiritishni o'z ichiga olgan geymifikatsiyaning ahamiyati ta'kidlanadi. Geymifikatsiyani ham o'qitish usuli, ham ta'lim tajribasini shakllantirish yo'li sifatida ko'rish mumkin. Ta'limda geymifikatsiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarning darslarga chinakam qiziqishi
- O'quv jarayonida, hatto murakkab fanlarda ham faol ishtirok etishi
- Diqqat, tushunish, qiziqish, idrok va tanqidiy fikrlashni o'z ichiga olgan kognitiv faollikni oshirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir izlanish B.G.Babasheva tomonidan olib borildi. Uning fikricha, "o'quvchining o'quv-biluv motivatsiyalari ijtimoiy tajribalarni ijodkorlik bilan o'zlashtirish va ularni hayotda qo'llay olishda alohida o'rin tutadi. Bu esa ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad: ijodkorlik, tevarakat-rof, borliq-olamga ijodiy munosabat, yaratuvchanlik sifatlarining shaxsda o'quvchilikdan shakllanib, mehnat faoliyati va kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar orqali takomillashib borishini taqozo etadi" [7]. Zero, boshlang'ich sinf uchun rejalashtirilgan o'quv predmetlarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish masalasi ham o'rin olgan. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning o'quv-biluv ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun, birinchidan, nutq o'stirish bo'yicha ish mazmuni, xususan, o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan aniq nutqiy malakalarni, ikkinchidan esa, ta'limni tashkil qilish usullari, tegishli mashq turlari kabilarni aniq tasavvur qilishi muhim. Boshqacha aytganda, u yoki bu grammatik-orfografik malakalarni shakllantirishda o'quv-biluv motivatsiyasi qanday o'rin tutishini aniqlab olishi lozim.

Natijalar va muhokama.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining o'ziga xos

xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan o'quv motivlari, qiziqishlar va shaxsiy sifatlarni inobatga olgan holda quyidagilarni o'quvchilar bilan ishlash jarayonlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida keltirish mumkin:

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida tegishli mehyoriy-huquqiy, mehyoriy-uslubiy hujjatlarda belgilangan talablarga amal qilinishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida demokratik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish darajasi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion texnologiyalarni oqilona tatbiq etilishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundariyasi, shakllari va bunday ishlarni tashkil qilishning samarali yo'llari va usullarini inobatga olinishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi darajasi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlari bilan uyg'un holda ko'ra olish fazilatlarini va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish, mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etishga undovchi motivlarni shakllantirish;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari yosh avlod qalbi va ongiga milliy anhana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga qaratilganligi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimli fikrlash, keng dunyoqarash va refleksiv tafakkur shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'z faoliyatini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi

refleksiv ko'nikmalar shakllantirishga yo'naltirilgan vaziyatlarni tashkil etilishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari mustaqil ta'lim olish va o'zini-o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarning innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyilligini tarbiyalovchi vaziyatlarning izchilligi va uzluksizligi;

- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'quvchilar imkoniyatlarini obyektiv baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda o'quvchilarning mustaqil faoliyati natijalari hamda faol o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijalarini oldindan inobatga olinishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda hamkorlikdagi faoliyatni tahminlash va muvofiqlashtirish.

Yuqorida keltirilgan mezonlar hamda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib aytish mumkinki, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida vujudga keltirish zarur bo'lgan vaziyatlar hamda ularning tashkil etuvchi komponentlari o'quvchilar bilan ishlash jarayonlarida qulay ta'limiy muhitni shakllantirish mezonlari sifatida xizmat qilishi bilan bir qatorda, o'quvchilar bilan ishlash jarayonlari samaradorligi darajasini aniqlovchi omillar sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Xulosa.

O'quvchilarda darslarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadida barcha sub'yektlarni jarayonga jalb etadigan korporativ strategiya amalga oshirish muhim vazifa xisoblanadi. Bu tizimning barcha a'zolari hamjihatlikda harakat qilayotganini anglatadi. Ushbu korporativ strategiyaning yana bir muhim jihati shundaki, jamoa yetakchilari va otalarning darslarga ijobiy munosabatni shakllantirishda etnik va milliy-hududiy usullardan foydalanish tajribasi, ayniqsa, hamkorlikdagi faoliyatlarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son «2022 - 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.07.2019 yildagi 577-son "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"

6. Xaitova N.F. «Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiyadan foydalanish orqali o'quvchilar o'quv-bilish motivatsiyasini rivojlantirish. (1-sinflar misolida) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (rhd) dissertatsiya. Chirchiq-2022.

7. Babasheva B.G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik tizimi (Qoraqalpog'iston maktablari misolida) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus – 2021.11-bet

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raxmatova Xayrixon Ashiraliyevna
NamDU v.b profesori pedagogika fanlari nomzodi

IJTIMOY TA'SIR OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA "MAHALLA" INSTITUTI HAMKORLIGINING MUHIM OMILI

Annotatsiya: Yo'nalishi va mazmunidan qat'iy nazar turli subyektlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim omili ijtimoiy ta'sirdir. Binobarin, o'zaro tajriba almashish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlarni maqsadli yo'naltirishga qaratilgan kollaboratsiya jarayonida hamkor subyektlarning faoliyati asosida obyekt sifatida tanlangan shaxslarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hamkor subyektlar, xususan, oliy ta'lim muassasalari (OTM) hamda "Mahalla" instituti o'rtasidagi kollaboratsiyaga asoslangan ijtimoiy ta'sir muayyan hududiy birlik fuqarolarining shaxsiy sifatlarini ijtimoiy xulqqa aylanishini, xulq-atvorlari, yurish-turishlarida atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Maqolada OTM va "Mahalla" instituti hamkorligiga asoslangan ijtimoiy ta'sirning mazmuni, mexanizmi, turlari, shakl, metod, usul va vositalari to'g'risida so'z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: ta'sir, ijtimoiy ta'sir, ijtimoiy ta'sir mazmuni, ijtimoiy ta'sir mexanizmi, ijtimoiy ta'sir turlari, ijtimoiy ta'sir shakllari, ijtimoiy ta'sir metodlari, ijtimoiy ta'sir usullari, ijtimoiy ta'sir vositalari.

Рахматова Хайрихон Аширалиевна
Кандидат педагогических наук, и.о. профессора НамГУ

СОЦИАЛЬНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР СОТРУДНИЧЕСТВА ВУЗОВ И ИНСТИТУТА «МАХАЛЛА»

Резюме: Независимо от направления и содержания, важным фактором сотрудничества различных субъектов является социальное воздействие. Следовательно, в процессе сотрудничества, направленного на обмен взаимным опытом, поддержку друг друга, поиск возможностей, оно оказывает свое влияние на лиц, выбранных в качестве объектов на основе деятельности субъектов-партнеров. Социальное воздействие, основанное на сотрудничестве между субъектами-партнерами, в частности, высшими учебными заведениями (ВУЗами) и институтом "Махалля", служит определению трансформации личностных качеств граждан определенной территориальной единицы в социальное поведение, положительное отношение к окружающей среде в их обществе. В статье говорится о содержании, механизме, видах, формах, методах, способах и средствах социального воздействия на основе сотрудничества ВУЗа и института "Махалля".

Ключевые слова: влияние, социальное влияние, содержание социального воздействия, механизм социального воздействия, виды социального воздействия, формы социального воздействия, методы социального воздействия, способы социального воздействия, средства социального воздействия.

Rakhmatova Khairikhon Ashiraliyevna
Candidate of Pedagogical Sciences, acting professor of NamSU

SOCIAL IMPACT IS AN IMPORTANT FACTOR OF THE COOPERATION OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND "MAHALLA" INSTITUTE

Abstract: Regardless of the direction and content, an important factor in the cooperation of various entities is social impact. Consequently, in the process of cooperation aimed at exchanging mutual experience, supporting each other, and searching for opportunities, it exerts its influence on individuals selected as objects based on the activities of partner entities. Social impact, based on cooperation between partner entities, in particular, higher education institutions (HEIs) and the Mahalla Institute, serves to determine the transformation of the personal qualities of citizens of a certain territorial unit into social behavior and a positive attitude towards the environment in their society. The article talks about the content, mechanism, types, forms, methods, ways and means of social impact based on cooperation between the university and the Mahalla Institute.

Key concepts: influence, social influence, content of social influence, mechanism of social influence, types of social influence, forms of social influence, methods of social influence, ways of social influence, means of social influence.

Kirish.

Ko'plab sharq mamlakatlari, xususan, O'zbekistonda mahalla oila tuzilmasidan keyin shaxsning tarbiyasi va rivojlanishiga ijtimoiy ta'sir ko'rsatuvchi fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish instituti sanaladi. "Mahalla" institutining shaxs tarbiyasi va rivojlanishiga jamoatchilik ta'siri xususida so'z yuritishdan avval "ta'sir" hamda "ijtimoiy ta'sir" tushunchasining mohiyati bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ta'sir" tushunchasi "tashqi omillarning kishi yoki narsa holatini o'zgartirish, qo'zg'atish xususiyati va uning natijasi" [14, – 30-b.] degan ma'noni anglatishi ko'rsatilgan bo'lsa, elektron manbalarning birida "qandaydir obyektga nisbatan sodir etilib, uning xossalari, holati va shu kabilarining o'zgarishiga olib keladigan harakat" [3] ekani aytiladi. Aytish mumkinki, ta'sir muayyan jarayon bo'lib, unda tashqi omillarning harakati tufayli ma'lum jonli yoki jonsiz obyektning xossasi, holati albatta o'zgaradi.

1958 yilda Garvard universitetining psixologi Gerbert Kelman ta'sirning uchta asosiy variantini asosladi. Ular:

konformizm (unga ko'ra individ o'zgalarning fikrlariga qo'shiladi, biroq, amalda o'z qarashlariga bo'lgan ishonchni saqlab qoladi);

identifikatsiya (unga ko'ra individ lavozimi, martabasi, obro'si, maqomi yuqori bo'lgan shaxsning ta'sirida bo'ladi; masalan, ishchi-xodim o'zining rahbari, farzand ota-onasi yoki oilaning boshqa bir yoshi, hayotiy tajribasi o'ziga nisbatan katta bo'lgan shaxsning ta'sirida bo'ladi).

internalizatsiya – shaxslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka tayanib, ularning qarashlariga ham tashqi ham ichki ta'sir ko'rsatilgan holda bevosita

yoki bilvosita maslahatlashish orqali ta'sirlanish [15, – pp. 51-60].

Gerbert Kelman tomonidan qayd etilgan "internalizatsiya" tushunchasini muallifning qarashlarini to'ldirgan holda yanada aniqroq quyidagicha ifodalash mumkin: internalizatsiya – shaxs tomonidan jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar, e'tiqod, ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar, tasavvurlar va boshqalarni o'zlashtirish orqali u ega bo'lgan barqaror ichki sifatning tashqi real harakatlarga aylantirilishi [12]; moslashuvning muayyan ko'inishi sifatida kimningdir ishonchi, qadriyatlarini o'zining shaxsiy ishonchi, qadriyatlarining standarti sifatida qabul qilish [12, – s. 34].

Natijalar.

"Ta'sir" tushunchasining mohiyati o'z navbatida "ijtimoiy ta'sir" atamasining mazmunini yoritish uchun imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy ta'sir – tashqi omillar tomonidan shaxsning xulqi, sezgisi, hissiyoti yoki qarashlariga ta'sir ko'rsatgan holda uning boshqa shaxslar bilan munosabatlarida

o'zgarishlarning kuzatilishi, yangi mazmun kasb etilishiga sabab bo'lishini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik jarayon [8]; tashqi omillar (davlat, jamiyat, boshqa ijtimoiy institutlar)ning muayyan faoliyati ta'sirida shaxslar hayotidagi ahamiyatli va barqaror o'zgarishlar [1]; jamiyat yoki alohida indvidlarning jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar yoki hodisalarga ta'siri; jamiyatning boshqa a'zolari ega bo'lgan ong, me'yor va ko'rsatmalar ta'sirida shaxs dunyoqarashini belgilovchi g'oyalar, shuningdek, u ega bo'lgan ongda kechadigan o'zgarishlar [10]; shaxs tomonidan jamiyatda qabul qilingan me'yor, qadriyatlar, ishonch, ko'rsatma, tasavvur hamda yurish-turish namunalarini o'zlashtirishi orqali barqaror ichki sifatlarining tashqi ijtimoiy xulq shakliga aylanish jarayoni [2, – s. 22]; har qanday shaxsning kundalik hayotiga o'z ta'sirini o'tkazuvchi murakkab, ko'p qirrali va ko'p bosqichli jarayon [7]; davlat faoliyati sababli kishilarning hayotida ro'y beradigan ahamiyatli, barqaror o'zgarishlar [9].

Ayni o'rinda bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, ijtimoiy ta'sir muayyan jarayon bo'lib, u tashqi (kam holatlarda ichki) omillar, xususan, ijtimoiy subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy ta'sirning mazmunining ijobiy yoki salbiy xarakteri ta'sir obyekti bo'lgan shaxsning xulqi, sezgisi, hissiyotlari va hayotiy qarashlarida jamiyat tomonidan yaxshi va yomon tarzda baholanadigan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Muhokama.

Mohiyatiga ko'ra ijtimoiy obyektga ko'rsatilayotgan ta'sir maqsadli va maqsadsiz, rejali va rejasiz, ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Bildirilgan fikrlarga tayangan holda "ijtimoiy ta'sir" tushunchasini shunday ta'riflash mumkin: ijtimoiy ta'sir – ijtimoiy subyektlar: jamiyat, muayyan jamoa yoki shaxs tomonidan maqsadli/maqsadsiz, rejali/rejasiz, ixtiyoriy/ixtiyorsiz amalga oshiriladigan tashqi (kam holatlarda ichki) ta'sir natijasida o'zga shaxs yoki shaxslar guruhining faoliyatida ro'y beradigan ijobiy/salbiy o'zgarishlar.

Ijtimoiy ta'sirning ijobiy ahamiyati uning asoslanganligi, samaradorligi, barqarorligi, ijobiy natijalar bilan belgilanadi.


Til iste'molida "ijtimoiy ta'sir" tushunchasi dastlab 1969 yilda Yel universitetida sarmoyadorlar uchun axloqiy javobgarlik mavzusida tashkil qilingan seminarda ilk marta asoslandi. Mazkur seminarda sarmoyadorlik faoliyatining nafaqat moliyaviy foydalari, balki ijtimoiy hamda ekologik jihatlar muhokama qilingan edi. 1970 yilda esa AQSHning "Atrof-muhit muhofazasiga oid Milliy siyosati to'g'risida"gi Qonuniga "Ijtimoiy ta'sirni baholash" (Social Impact Assessment; SIA) deb nomlanuvchi metodlari kiritildi. 1990 yildan boshlab Jahon banki hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlarida qat'iy ravishda o'z loyihalari ijtimoiy ta'sirlarining baholanishiga e'tibor qaratdi. 2008 yildagi Jahon moliyaviy

inqirozi har bir faoliyat ijtimoiy ta'sirining baholanishi muhim ekanini yana bir bor tasdiqladi [1].

Xulosa.

Yuqorida qayd qilinganidek, ijtimoiy ta'sir jarayoni maqsadli va maqsadsiz tashkil qilinib, manipulyatsiya xarakteriga ega bo'ladi. Shu bilan birga har qanday ijtimoiy ta'siri yoki ijobiy yoki salbiy ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy jarayonlarda tashqi omillarning ta'siri turli shakllarda xilma-xil metod va vositalar (ta'sir qurollari) yordamida amalga oshiriladi. Psixologik, sotsial hamda pedagogik yondashuvlarga ko'ra turli tashqi (kam holatlarda ichki; masalan, dialog jarayonidagi ichki) omillar tomonidan shaxsga ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'sir quyidagi mexanizm [4; 5; 6]ga ega (1-rasm):




1-rasm. Ijtimoiy ta'sir mexanizmi

OTM va "Mahalla" instituti o'rtasidagi hamkorlik mohiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy ta'sirning turlari, shakllari hamda vositalari [11, – s. 74-75] quyidagi ekani aniqlandi (2-rasm):


Shuningdek, OTM va "Mahalla" instituti o'rtasidagi hamkorlik mohiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy ta'sirning quyidagi usullari va metodlari yordamida

amalga oshirish samarali ekaniga ishonch hosil qilindi (3-rasm).

Shunday qilib, ijtimoiy ta'sir yo'nalishi va mazmunidan qat'iy nazar turli subyektlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim omili sanaladi. Shunga ko'ra bu omil OTMning "Mahalla" instituti bilan hamkorligida ham alohida ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Ijtimoiy ta'sirning turlari, shakllari va vositalari



Binobarin, OTMning "Mahalla" instituti bilan kollaboratsiyasi hamkor subyektlar faoliyatining obyekt sifatida tanlangan shaxslarga ijtimoiy ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Hamkor subyektlar, xususan, OTM va "Mahalla" instituti o'rtasidagi kollaboratsiyaga asoslanuvchi ijtimoiy ta'sir muayyan hududiy birlik fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

asoslari, jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy tamoyillar, ijtimoiy-milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, ularning shaxsiy sifatlarini ijtimoiy xulqqa aylanishini, xulq-atvorlari, yurish-turishlarida atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андрисенко С. Что такое социальное воздействие и почему НКО полезно его измерять // <https://nuzhnapomosh.ru/media/post/chto-takoe-socialnoe-vozdjeystvie-i-pochemu-nko-polezno-ego-izmeryat>.
2. Бельский В.Ю., Гусев Н.Н., Лощаков Д.Г. Социологи я в терминах и понятиях. Тематический словарь. –М.:Московский университет МВД России, 2015. – С. 22.
3. Влияние (значения) // [https://ru.wikipedia.org/wiki/Влияние_\(значения\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Влияние_(значения)).
4. Методы социального влияния // https://summercamp.ru/Методы_социального_влияния.
5. Методы социального воздействие // https://spravochnick.ru/sociologiya/socialnoe_vozdeystvie/metody_socialnogo_vozdeystviya.
6. Плотников М.В. Методы социального влияния // <https://psychologos.ru/articles/view/metody-socialnogo-vliyaniya>.
7. Социальное влияние и его роль в формировании поведения людей // <https://blog.smart-inc.ru/sotsialnoe-vliyanie-i-ego-rol-v-formirovanii-povedeniya-lyudej>.
8. Социальное влияние // https://ru.wikipedia.org/wiki/Социальное_влияние.
9. Социальной воздействию // <https://edu.dobro.ru/upload/uf/015/unwvvg6atc62i515tv6b60sqglevm126n.pdf>.
10. Социальное воздействие // https://spravochnick.ru/sociologiya/socialnoe_vozdeystvie.
11. Фененко Ю.В. Социология управления / Учебное пособие. – М.: ПКЦ Альтекс, 2005. – С. 74-75.

12. Филиппов А.В., Романова Н.Н., Летагова Т.В. Тысяча состояний души. Краткий психолого-филологический словарь / 5-е издание. – М.: ЛитРес, 2021. – С. 34.
13. Энциклопедия социологии // <https://dic.academic.ru/dic.nsf/socio/1324/> Интернализация.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тартибот – Шукр / 5 жилдди. Тўртинчи жилд. А.Матвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 30-б.
15. Kelman С. Herbert. Compliance, identification, and internalization: three processes of attitude change // Journal of Conflict Resolution. – College Park (USA): Tydings Hall University of Maryland College. 1958/1. – pp. 51-60.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Usmonova Shaira Pulatovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Katta o'qituvchisi

FIZIKA FANINI O'QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING ILMIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI YARATILISH BOSQICHLARI VA TATBIQ ETISH.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'limda "Fizika" fanini o'qitishda zamonaviy multimedia texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy multimedia texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarga faol ta'lim jarayonlarida nazariy-namoyish materiallarini birlashtirish imkoniyati mavjudligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: interfaol multimedia tizimlari, kompyuterda dasturlashtirilgan ta'lim, kompyuter kommunikatsiyalari.

Усманова Шаира Пулатовна

Старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

ЭТАПЫ СОЗДАНИЯ И ВНЕДРЕНИЯ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ.

Аннотация. В данной статье раскрываются возможности использования современных мультимедийных технологий при преподавании «Физики» в высшее образование. Также выявлено, что студенты могут совмещать теоретические и демонстрационные материалы в активном процессе обучения с помощью современных мультимедийных технологий.

Ключевые слова: интерактивные мультимедийные системы, компьютерно-программированное образование, компьютерные коммуникации.

Usmanova Shaira Pulatovna

Senior teacher of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

STEPS OF CREATION AND IMPLEMENTATION OF THE SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL BASIS OF USING MULTIMEDIA TECHNOLOGY IN TEACHING PHYSICS.

Abstract. This article reveals the possibilities of using modern multimedia technologies in teaching "Physics" in higher education. It was also revealed that students can combine theoretical and demonstration materials in active learning processes with the help of modern multimedia technologies.

Key words: interactive multimedia systems, computer-programmed education, computer communications.

Hozirgi vaqtda ta'limida amalga oshirilayotgan chuqur o'zgarishlar, ya'ni ta'limning barcha darajalarida yangi avlod xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish va Evropa ta'lim makoniga kirishi bilan bog'liq. Bugungi kunda o'qituvchilik kasbining ajralmas qismi tadqiqot muammolarini hal qilish va ilmiy tadqiqotlar va o'quv jarayonini birlashtirish zarurati hisoblanadi. Fundamental ilmiy tadqiqotlar talabalarining axborotni izlash, tahlil qilish, o'zlashtirish va yangilash kompetensiyalarini egallashda eng muhim manba va vositaga aylanishi kerak. Fan va o'qitish o'rtasidagi bog'liqlik doimo oliy ta'lim xodimlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Biroq hozirda yoshlarning tabiiy fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi pasaygani, shuningdek, o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar darajasi biroz kamaygani tufayli bu muammo

ayniqsa dolzarb bo'lib bormoqda. Zamonaviy ta'lim vositalarini o'quv jarayoniga kiritish o'qituvchilarning kasbiy saviyasini saqlash hamda oliy ta'lim bitiruvchilari uchun bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishning zarur sharti hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayoni doimiy ravishda takomillashishni talab qiladi, chunki ustuvorliklar va ijtimoiy qadriyatlar o'zgarib bormoqda: ilmiy-texnikaviy taraqqiyot doimiy ravishda o'sib borayotgan inson ehtiyojlarini qondirish va rivojlanishni eng yaxshi qondiradigan ishlab chiqarish darajasiga erishish vositasi sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Shu bois mutaxassislar tayyorlashdagi mavjud vaziyat ta'lim muassasasida dars berish strategiyasi va taktikasini tubdan o'zgartirishni taqozo etmoqda. Har qanday ta'lim muassasasi bitiruvchisining asosiy xususiyatlari uning

bilim, ko'nikma va malakani egallaganligi bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiy jarayonini takomillashtirish, zamonaviy axborot – kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash orqali talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkoniyatlarini oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida tabiiy fanlarni o'qitishda multimediali ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning yangi yondashuvlarini tadqiq etishni taqazo etmoqda.

Hozirgi vaqtda, xususan, fizika fanini o'qitishda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, talabalarining ongiga chuqurroq kirib borish uchun multimediali ta'lim texnologiyalarini qo'llash zarurati paydo bo'ldi. Talabaniq bilish faoliyatini nazorat qilishning muhim qismi maxsus ishlab chiqilgan multimedia vositalari orqali amalga oshiriladigan o'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish nafaqat texnik vositalar, balki uslubiy yordam vositalarining mavjudligini ham talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitishda multimediali, innovatsion va virtual ta'lim vositalari va texnologiyalarini integratsiyalash asosida foydalanishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish zaruriyati yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chira tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5241-sonli qarori[2], 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni[3], 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari[4], 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida"[5]gi qarorlari mazkur tadqiqotni tahlil qilishda va fundamental asoslarini yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, multimedia bu kompyuter tizimida matn, tovush, video, grafik tasvir va animasiyani birlashtirishga imkon beradigan zamonaviy

kompyuter axborot texnologiyasidir [6]. Biroq multimedia texnologiyalar axborotni taqdim etishning turli xil vositalarning bir vaqtning o'zida qo'llanilishiga asoslangan axborot texnologiyasi sifatida qaralishi mumkin. Hamda foydalanuvchini axborot tizimi bilan interfaol muloqotida matnli, audiovizual, grafik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish usullari, metodlari va vositalarining majmuini ifodalovchi axborot texnologiyalari deb qarash mumkin [7].

Bent B., Andersen, Katya Van den Brink fikriga ko'ra, multimedia bir necha turdagi (matn, grafika, ovoz, video) ma'lumotlarni raqamli ko'rinishida akslanishi [8].

D.L.Krechman ta'kidlashicha, multimedia foydalanuvchiga yagona axborot muhiti sifatida tashkil etilgan turli xil (matn, grafika, ovoz, video) ma'lumotlar bilan muloqot rejimida ishlashga imkon beradigan apparat va dasturiy vositalarning majmuidir [9].

V.B.Popov multimediyaga quyidagicha ta'rif beradi: multimedia - bu dasturiy va apparat vositalaridan foydalangan holda muloqot rejimida matn, grafika, video va animasiyadan foydalanish imkonini beradigan maxsus texnologiya [10].

Amerika maktabining vakili professor Fred Xofstetter multimediyaga quyidagicha ta'rif beradi: Multimedia - bu matn, grafika, audio va video ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida taqdim etish hamda giperxavola va dasturiy vositalar yordamida kompyuterda dasturlarni boshqarish, kompyuter bilan o'zaro aloqa o'rnatish va yaratish imkoniyatini beradi [11].

Ushbu ta'rif multimedia uchun zarur bo'lgan to'rt komponentni o'z ichiga oladi. Birinchidan, siz ko'rgan va eshitgan narsalaringizni muvofiqlashtiruvchi va o'zaro aloqa (teskari aloqa) o'rnatuvchi kompyuter bo'lishi kerak. Ikkinchidan, o'rgatuvchi dasturlarda axborotlarni birlashtiruvchi havolalar bo'lishi kerak. Uchinchidan, kerakli axborotlarni batafsil o'rganishga imkon beradigan navigatsiya vositalari (giperhavolalar) bo'lishi kerak. Va nihoyat, o'quv jarayonida multimediyaga o'yin-kulgi uchun emas, balki zarur kompetensiyalarni egallash uchun ishlatilganligi sababli, talabaniq fikrlashini rivojlantirishiga yordam berishi kerak.

Olimlarning yuqorida keltirilgan fikrlariga asoslanib, multimedia tushunchasiga biz quyidagicha ta'rif beramiz:

Multimedia - bu dasturiy ta'minot va texnik vositalar yordamida kompyuterda turli xil (matn, grafika, ovoz, video, animatsiya) ma'lumotlarni yagona xujjatga birlashtirish imkonini beruvchi, interfaollikga ega hamda intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus texnologiyadir [12].

Multimedia dasturlarida axborot uzatishning ma'lum bir usuli ishlatiladi:

1. Turli xil axborot bloklarini (matn, grafika, videolavhalar) giperhavolalar orqali o'zaro ta'siri. Giperhavolalar maxsus mo'ljallangan matn yoki ma'lum

bir grafik tasvir ko'rinishida taqdim etiladi. Shu bilan birga, bir nechta giperhavola ekranga joylashtirilishi mumkin va ularning har biri o'z yo'nalishini belgilaydi.

2. Interfaollik, ya'ni foydalanuvchini kompyuter bilan ishlashning interfaol rejimi, unda u o'zi uchun qiziq bo'lgan ma'lumotni, uni uzatish tezligi va ketma-ketligini mustaqil ravishda tanlashi mumkin [13].

Ba'zi chet el pedagoglari o'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan keng ko'lamda foydalanish o'qituvchining mashina va uni boshqaruvchi injener bilan almashtirilishiga olib boradi, deb hisoblaydilar. Bunda o'qituvchi tashkilotchi rolini bajaradi, o'qitish vazifasi esa zamonaviy texnika vositalariga yuklanadi. Ammo o'qitish jarayonida faqat bilim berilibgina qolmay, o'qituvchi shaxsining murakkab ta'siri amalga oshiriladi hamki, buning natijasida talabanning dunyoqarashi, xulq-atvor normalari shakllanadi, shaxsning kamol topishi sodir bo'ladi. Bunga esa o'qituvchining ishtirokisiz erishib bo'lmaydi: uning axloqiy prinsiplari chuqur bilimlar hamda keng saviya bilan birgalikda har gal takrorlanmaydigan intellektual aloqaning shunday sharoitini yaratadiki, bunday sharoitsiz oqibat natijada o'qitish va tarbiyalashda muvaffaqiyat qozonish mumkin bo'lmaydi [14].

O'quv jarayonida talabalarining multimedia texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotdan foydalanish imkoniyati va samaradorligi uning reprezentativligi, mazmundorligi, yetariligi, dolzarbligi, o'z vaqtidaligi, aniqligi, ishonarliligi, barqarorligi kabi asosiy iste'mol sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir [15].

talabalarni axborot tizimlari bilan interfaol o'zaro muloqotida axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va uzatish hamda audiovizual, grafik va matnli axborotlarni ishlatishda metod, usul va vositalar kombinatsiyasi orqali multimedia imkoniyatlarini amalga oshiradi. Bu metod, usul va vositalar birikmasi kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini samarali oshirish maqsadida qo'llaniladi [16].


Motivasiya o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi va muvaffaqiyatli o'rganish uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra ta'limda multimediani qo'llanilishi ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi [17].

Multimediali ta'lim bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan. Zero, xalqimizda "yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi" degan maqol bor. Psixologiyada ham bir vaqtning o'zida talabanning ham ko'rish, ham eshitish organlaridan foydalanish orqali bilim berish, ular tomonidan materiallarni o'zlashtirishning yuqori bo'lishi uchun kafolatli ekanligi ta'kidlanadi. Bu borada akademik S.S.G'ulomov va boshqalar quyidagilarni ta'kidlaydi: "Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotning xotirada saqlab

qolinishi 25 - 30%ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortadi" [18].

Multimedaning apparat vositalari bilan ta'minlangan kompyuter inson faoliyatining va bilimlarning turli sohalarida universal o'rgatuvchi yoki axborot instrumenti sifatida qo'llaniladi. Bunda faqat zarur bo'lgan dasturiy vositalarni o'rnatish yetarli bo'ladi [19].

Multimedia texnologiyalarning oliy ta'lim tizimida qo'llanilish imkoniyatlarini o'rganib chiqib, bu tahlil natijasini 1.1-rasmda akslantirildi.



1.1 - rasm. Multimedia texnologiyalarni professional ta'lim tizimida qo'llanilish imkoniyatlari

Zamonaviy faol metodlariga ta'limning interfaol metodlarini keltirishimiz mumkin. Bu interfaol metodlarni amalga oshirishda multimedia texnologiyalar katta ahamiyatga egadir.

O'quv faoliyatining yangi shakllarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- 1) interfaol muloqot - foydalanuvchini kompyuter bilan muloqotda bo'lishi.
- 2) turli xil ob'yektlarni boshqara olish.
- 3) turli xil ob'yektlar, hodisalar va jarayonlarning ekrandagi aks etgan modellarini boshqara olish.
- 4) o'quv faoliyatini avtomatlashgan nazorati, nazorat natijalarini o'rganib chiqish, testlash.

Yuqorida keltirilgan o'quv faoliyat ko'rinishlari fikrlash va kognitiv faoliyatni rivojlantirishga, estetik tarbiya darajasini oshirishga, aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga, optimal qarorlarni qabul qilishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi [20].

Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarda ta'limni raqamlashtirishning zamonaviy sharoitlarini inobatga olingan holda, oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilganini ko'rishimiz mumkin. Ammo, shunga qaramay Oliy ta'limda fizika fanini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanib o'qitish muammosi nazariy jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmaganligi ta'limning o'qitish amaliyotida ham seziladi. Bu narsa talab qilinayotgan holatlarda kasbiy ko'nikmalarini bajara ololmasligida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 fevraldagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviylikini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5241-sonli qarori.
3. 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli farmoni.
4. 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni.
5. 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari to'g'risida" gi qaror.
6. Anisimova N.S. Multimedia – texnologii v obrazovani: ponyatiya, metody, sredstva: monografiya / N.S.Anisimova; pod red. G.A.Bordovskogo. – SPb.: Izd - vo RGPU im. A.I.Gersena, 2002. – 89 s.
7. Prokopenko I.F., Yevdokimov, V.I. Pedagogicheskiye texnologii: uchebnoye posobiye. Vtoroy vid / I.F.Prokopenko, V.I.Yevdokimov. – M.: Kollegium, 2006. – 224 s.
8. Bent B., Andersen, Katya Van den Brink. Multimedia v obrazovani: spetsializirovanny uchebny kurs. – M.: Drofa, 2007. – 224 s.
9. Krechman D.L., Pushkov A.I. Multimedia svoimi rukami SPb.: BXV, 1999. – 528 s. – ISBN 5-8206-0020-7.
10. Popov V.B. Основы информационных и телекоммуникационных технологий: Multimedia: Ucheb. posobiye dlya ssuzov i ped vuzov. M.: Finansy i statistika, 2007. – 336 s. – ISBN: 978 - 5 - 279 - 03176 - 4.
11. Hofstetter F. Multimedia literacy / F.Hofstetter. – McGraw - Hill College, 2001. – P. 5.
12. Abduraxmanova Sh.A. Texnologiya sozdaniya elektronnykh obrazovatelnykh resursov. Uchebnyk. – GRIF № 133 - 237. –T.: Navruz, 2020. – S. 186.
13. Zaysev I.Ye., Kushnir D.V. Multimedia v sistemax distantsionnogo obucheniya / I.Ye.Zaysev, D.V.Kushnir // Informatsionnyye resursy i texnologii v gumanitarnom obrazovani: sb. Statey. – SPb.: SPbGUKI, 2006. – S. 92 – 96.
14. Selivanova T. Xudojestvennaya kommunikatsiya ot knigi do kompyutera: obrazovatelny modul s ispolzovaniyem informatsionnykh texnologiy / T. Selivanova // Iskusstvo: pril. k gaz. "Pervoye sent.", 2006. – №12.– S. 5 - 8
15. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: Noshir. 2009, 368 b.
16. Vetlugina N.O. Organizatsionno-pedagogicheskiye usloviya primeneniya multimedia texnologiy v povysheniye effektivnosti podgotovki bakalavrov professionalnogo obucheniya. Dis. ... kand. ped. nauk: 13.00.08 / Vetlugina Nataliya Olegovna. – Yekaterenburg, 2016. – 7 c.
17. Babayeva Yu.D. Psixologicheskiye posledstviya informatizatsii / Yu.D.Babayeva, A.Ye.Voyskunskiy // Psixologicheskiy jurnal. – 1998. – № 1.
18. Gulomov S.S., Shermuhamedov A.T., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika. –T.: O'zbekiston, 1999. – 40 b.
19. Popov V.B. Основы информационных и телекоммуникационных технологий: Multimedia: Ucheb. posobiye dlya ssuzov i ped vuzov. M.: Finansy i statistika, 2007. – 336 s. – ISBN: 978 - 5 - 279 - 03176 - 4.
20. Kazibekova S.T. Multimediynnyye texnologii v aktivizatsii poznavatelnoy deyatel'nosti buduyich bakalavrov pedagogicheskogo obrazovaniya / S.T.Kazibekova // Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk: 13.00.08 - Maxachkala: DGPU. – 2014.;

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xoldarov Azizjon Rasulovich

Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
gmail: kholdarovazizjon206@gmail.com

Alimov Shavkat Azimovich

Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

MAKTAB O'QUVCHILARI VA XODIMLARINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO'G'RI HARAKAT QILISHGA TAYYORLASH BO'YICHA O'ZIGA XOS YONDASHUV

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari va xodimlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tizimi to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyat, fuqaro muhofazasi, tabiiy, texnogen, ekologik, zilzila, suv toshqini, qor ko'chkisi, kuchli shamol, epidemiya, epizootiya, epifitotiya, pandemiya, karantin, xavfsizlik.

Холдаров Азизжон Расулович,

Наманганское областное управление по чрезвычайным ситуациям

Алимов Шавкат Азимович

Наманганское областное управление по чрезвычайным ситуациям

ОРИГИНАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ШКОЛЬНИКОВ И ПЕРСОНАЛА К ПРАВИЛЬНОМУ ДЕЙСТВИЮ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация: В данной статье представлена информация о системе подготовки учащихся и персонала общеобразовательных школ к действиям в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера.

Ключевые слова: чрезвычайное ситуация, гражданская защита, природная, техногенное, экологическая, землетрясение, наводнение, лавина, сильный ветер, эпидемия, эпизоотия, эпифитотия, пандемия, карантин, безопасность, подготовка, система, наука, учебник, сейсмический.

Kholdarov Azizjon,

Namangan Regional Emergency Management

Alimov Shavkat

Namangan Regional Emergency Management

AN ORIGINAL APPROACH TO PREPARING STUDENTS AND STAFF FOR THE RIGHT ACTION IN EMERGENCY SITUATIONS

Abstract: This article provides information about the system of preparing students and employees of general secondary education schools for action in emergencies of a natural and man-made nature.

Key words: emergency situation, civil protection, natural, man-made, ecological, earthquake, flood, avalanche, strong wind, epidemic, epizootic, epiphytotic, pandemic, quarantine, security, preparation, system, science, textbook, seismic.

Kirish.

Sayyoramizning turli joylarida sodir bo'layotgan tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar insoniyatdan ushbu hodisalarga qarshi turishda zarur choralarni qo'llashni hamda ularga tayyor bo'lishini talab etmoqda. E'tirof etish kerakki, mamlakatimizdagi ko'plab sohalar qatori umumta'lim maktablari o'quvchilarini ham o'quv yili davomida, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga

muvofiq o'qish jarayonida darslarda, sport o'yinlari, musobaqalarida va boshqa joylarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash va o'qitish ishlari olib borilmoqda. Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022/2023 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalari soni 10 522 tani tashkil etgan bo'lib, ularda 6 mln. 304 ming nafar o'quvchilar tahsil olishmoqda. Bu esa mamlakatimiz

aholisi umumiy sonining (36 mln. 372 ming kishini) sal kam 17,4 foizini tashkil etadi [1].

Adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan boshlang'ich harbiy ta'lim asoslari, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularda harakat qilish, fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari sohasidagi qator mavzular bo'yicha ta'lim muassasalari o'quvchilariga CHQBT fani rahbarlari va o'qituvchilari tomonidan o'qitilib kelinmoqda [2]. Ta'lim muassasalari o'quvchilarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (CHQBT)ga jami 140 o'quv soati ajratilgan bo'lib, mashg'ulotlar har haftada ikki soatdan o'tkaziladi. Shuningdek, o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlari vaqtida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va mahoratlari to'garaklar, sportning tegishli turlari bo'yicha seksiyalar va harbiy-sport musobaqalari jumladan, "Yosh qutqaruvchi" musobaqalari davomida mustahkamlanadi [3].

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining 10- va 11-sinflarida CHQBT fani o'qitilmoqda va ushbu fan



darsliklarida fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi va tibbiy bilim asoslari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Kitoblarda berilgan mavzularni o'zlashtirish orqali o'quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko'nikmalarga ega bo'ladilar [4]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (ChQBT) fanidan darslikning 6- va 7- bo'limlari Fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari sohalariga bag'ishlangan va 14 ta amaliy va nazariy o'quv mashg'ulotlari mavzularini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ular ChQBT fani darsligida mavjud barcha mavzular sonining salkam yarmini tashkil etadi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish ishlariga ham e'tibor berilayotganligini belgisi [5]. Darslikdagi barcha

mashg'ulot mavzularida "O'quv faoliyati natijalari", "Bilasizmi?", "Tayanch so'zlar:" va "Savol va topshiriqlar" rukunlari mavjud bo'lib, o'quvchilar tomonidan mavzuni yahshi o'zlashtirishda qulay vosita bo'lmoqdalar [5]. Darslikning 6-bo'limidagi "Favqulodda vaziyatlar tushunchasi. Zilzila, ko'chkilar, suv toshqini, sel, qor ko'chishi, kuchli shamollar va boshqalar. Yaqinlashib kelayotgan xavf belgilari" deb atalgan 1-mashg'ulot mavzusida favqulodda vaziyatlar tushunchasi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lish ehtimoli mavjud tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar haqida so'z boradi. Shu jumladan, mashg'ulot mavzusida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrida "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi qabul qilingan 455-son Qarori va unga ko'ra, favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablari bo'yicha texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga tasniflanishi hamda zarar ko'rgan odamlar soni, moddiy zararlar miqdori va ko'lamiga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegaraviy turlarga bo'linishi bayon etilgan [6]. ChQBT fanining 10-sinf o'quv qo'llanmasidagi oltinchi bo'lim ikkinchi bobidagi 1-mashg'ulot mavzusi "Favqulodda yuzaga keladigan epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar. Karantin va pandemiya" hamda o'sha bobdagi 2-mashg'ulot mavzusi "Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi va ularning yuz berish sabablari" deb ataladi. Shuningdek, o'quv qo'llanmaning oltinchi bo'lim uchinchi bobi ommaviy qirg'in qurollari va ulardan aholini himoya qilish ishlariga bag'ishlangan bo'lib, 1-mashg'ulot mavzusi "Yadroviy qurol. Yadroviy zararlanish o'chog'i. Termoyadro quroli. Neytron bombasi. Kimyoviy qurol", 2-mashg'ulot mavzusi "Bakteriyaviy (biologik) qurol. Karantin va observatsiya. Zamonaviy oddiy qirg'in vositalari" deb nomlangan. Ushbu kitobning oltinchi bo'lim to'rtinchi bobi shaxsiy (individual) himoya vositalari, vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish tartibiga bag'ishlangan bo'lib, 1-mashg'ulot mavzusi "Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalar. Fuqaro gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish. Respirator. Changga qarshi matoli niqob, paxta-doka bog'lagich va ulardan foydalanish" hamda 2-amaliy mashg'ulot mazusi "Terini himoya qilish vositalari. Maxsus himoya vositalari: umumqo'shin himoya jamlanmasi, yengil kostyum, himoyalovchi-filtrovchi kiyim. Umumqo'shin himoya jamlanmasidan "yoping'ich", "yengil plash", "kombinezon" ko'rinishida foydalanish. L-1 yengil kostyumini kiyish. Terini himoya qilishning qo'lbola vositalaridan foydalanish. Germetizatsiyalash va aralashma shimdirish orqali himoya xususiyatlarini oshirish" deb ataladi [7]. Shuningdek, oltinchi bo'limning 5-, 6- va 7-boblari Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari, evakuatsiya tadbirlarida aholining harakat qilish tartibi, sanitariya ishlovi, kiyim-bosh va buyumlarni

zararsizlantirish tadbirlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda asosan radiatsiyaga qarshi pana joylar, oddiy pana joylar, odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish, evakuatsiya tadbirlarini o'tkazish va odamlarni sanitariya ishlovidan o'tkazish bilan bog'lik masalalar yoritilgan 3ta mashg'ulot mavzularidan iborat. Darslikning oltinchi bo'limidagi "Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari" nomli 5-bobda 1-mashg'ulot mavzusi "Panagohlar. Radiatsiyaga qarshi pana joylar. Oddiy pana joylar. Odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish" haqida bo'lib, unda quyidagilar bayon qilingan.

Tahlillar va natijalar.

Mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari va aholini dushmanning ommaviy qirg'in qurolidan himoya qilish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal qilish usullaridan biri iqtisodiyot obektlari va aholi punktlarida odamlarni yashirish uchun turli xil himoya inshootlarini qurishdan iborat. Himoya inshootlari oldindan tayyorlangan bo'lishi yoki maxsus ko'rsatma bo'yicha qurilishi mumkin.

Panagoh maxsus inshoot bo'lib, yashiringan odamlarni yadro portlashining barcha shikastlovchi omillaridan, zaharlovchi moddalar va bakteriyaviy vositalardan, shuningdek, yuqori harorat hamda zararli gazlardan himoya qilishga mo'ljallangan.

Panagoh asosiy va yordamchi xonalardan tashkil topadi. Asosiy xonalarda odamlar joylashadi. Bu xonalarda o'tirish uchun 2 yoki 3 qavatli so'rilar va yotish uchun tokchalar qilinadi. Yordamchi xonalarda sanuzel, filtr-ventilyatsiya kamerasi, tibbiyot xonasi, dizel elektrostansiyasi joylashadi [7]. Kitobning yettinchi bo'limi Tibbiy bilim asoslari sohasiga bag'ishlangan bo'lib, u 1 ta bob va 1 ta amaliy va 3 ta nazariy o'quv-mashg'ulotlaridan iborat. Jumladan, 1-nazariy mashg'ulot mavzusi "Jarohat to'g'risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Bog'lam va bog'lash uchun materiallar. Shaxsiy bog'lash paketidan foydalanish qoidalari", 2-amaliy mashg'ulot mavzusi "Amaliy. Bosh, ko'krak, qorin, qo'l va oyoq sohalariga sterilizatsiya qilingan bog'lamlar qo'yish", 3-amaliy mashg'ulot mavzusi "Qon ketishining turlari. Qon ketishini vaqtincha to'xtatish usullari. Arteriya qon

tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qo'lbola siquvchi bog'lam va tasma (jgut)dan foydalanish qoidalari" hamda 4-amaliy mashg'ulot mavzusi "Suyak sinishi to'g'risida tushuncha va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko'krak qafasi, oyoq va qo'l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari" deb nomlangan [8]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun ChQBT fanidan darslik jami 7ta bo'limdan iborat bo'lib, ulardan 1- hamda 7-bo'limlari "Fuqaro muhofazasi. Hayot xavfsizligi asoslari. Xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi" hamda "Tibbiy bilim asoslari" yo'nalishlariga oid 29 ta mavzulardan iborat. Darslikdagi mavzular mazmunini o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirishlari uchun unda fotoma'lumotlar, chizmalardan foydalanilgan. Har bir bob so'ngida mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida nazorat savollari berilgan. Darslikda yoshlarga harbiy ta'lim berishdan tashqari fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi hamda tibbiy bilim asoslari to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan bo'lib, ush bu mavzularni o'zlashtirish orqali o'quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Xulosa.

Bugungi kunda dunyo aholisi sonining ortib borishi bilan, respublikamiz aholisi soni ham ortib bormoqda. Insoniyatning atrof-muhitga ta'sirini inobatga olsak, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar insonlarning hayoti va sog'ligiga, atrof-muhitga jiddiy zarar keltirmoqda. Jabrlanuvchilarning orasida maktab o'quvchilari sonining ko'pligi achinarli holat. Shu sababli ham maktab o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif etaman:

- Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan dars mashg'ulotlari olib borish.

- Maktab o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" ko'rik tanlovini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son Qarori
2. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 11-sinf uchun darslik/ Sh.Ubaydullayev, B.Gafurov, D.Ubaydullayeva. Toshkent: «ILM ZIYO», 2018. 200 b.
3. <https://www.yandex.ru/images/search/ChQBT-10-11-sinf-darslik/>
4. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn]: 10-sinf uchun darslik/ – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrida "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi qabul qilingan 455-son Qarori
6. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn]: 10-sinf uchun darslik/ – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
7. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Isoqov Abdurashid Qutbiddinovich

Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi uslubchi o'qituvchisi
gmail: abdurashidisakov206@gmail.com

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI OLIB BORILADIGAN YO'RIQNOMALAR ASOSIDA KUCHLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALAR BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning inson organizmi va atrof-muhitga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari hamda ulardan muhofazalanishdagi mavjud muammolarga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, ushbu turdagi avariylarni oldini olishda yo'riqnomalarning ahamiyati hamda avariya sodir bo'lganda fuqaro muhofazasi boshliqlarining vakolat va majburiyatlari borasidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kimyoviy xavfli obyekt, kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda, fuqaro muhofazasi boshlig'i, xavf, zaharlanish, qutqaruv tuzilmalari, razvedka, shaxsiy himoya vositalari, yo'riqnoma, muhofaza.

Исаков Абдурашид Кутбиддинович

Инструктор-методист учебного центра безопасности
жизнедеятельности управления по чрезвычайным ситуациям Наманганской области

ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С СИЛЬНОДЕЙСТВУЮЩИМИ ТОКСИЧНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ, НА ОСНОВЕ РУКОВОДЯЩИХ ПРИНЦИПОВ С ПОМОЩЬЮ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. Усугубляются негативные последствия, которые сильнодействующие токсичные вещества могут оказывать на организм человека и окружающую природную среду, а также существующие проблемы в их защите. Также упоминается важность директив для предотвращения такого рода аварий, а также информация о полномочиях и ответственности руководителей гражданской обороны в случае аварии.

Ключевые слова: сильнодействующее отравляющее вещество, химически опасный объект, руководитель гражданской защиты, опасность, отравление, спасательные структуры, разведка, средства индивидуальной защиты, инструктаж, защита.

Isakov Abdurashid

Department of Emergency Situations of Namangan region

PREVENTION OF EMERGENCIES RELATED TO HIGHLY TOXIC SUBSTANCES BASED ON GUIDELINES WITH THE HELP OF NEW EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation. The negative effects that highly toxic substances can have on the human body and the environment, as well as existing problems in their protection, are aggravated. The importance of directives to prevent such accidents is also mentioned, as well as information on the powers and responsibilities of civil defense leaders in the event of an accident.

Keywords: strong-acting poisonous substance, chemically dangerous object, concentration, danger, poisoning, rescue structures, intelligence, personal protective equipment, instruction, protection.

Kirish.

Texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar orasida kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq obyektlardagi avariylar o'zining keltiradigan talofatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunday obyektlarda avariya sodir bo'lgan taqdirda, faqat obyekt ishchilarining

salomatligiga xavf tug'dirmasdan, balki uning atrofida joylashgan hudud aholisiga ham xavf tug'diradi. Shu sababli ham bunday turdagi avariylar sodir bo'lganda aholi xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga zarurat tug'ilmoqda [1].

Adabiyotlar tahlili.

Muallif tomonidan mavzu bo'yicha tadqiqot olib borish mobaynida ko'plab xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar va ishlanmalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganib chiqilib, tahlil qilindi. Xususan, soha bo'yicha xorij mutaxassislari A.V.Zyuzin, V.I.Semenovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida qishloq xo'jaligi va sanoatda eng ko'p foydalaniladigan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari, yonish va portlashga xavfliligi, ularning inson organizmiga ta'siri va atmosferadagi holati o'rganilgan [3, 4]. Shuningdek, F.A.Abidova va A.B.Abidovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish natijasida ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmada [2] kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar hamda ba'zi suyuqliklarning xususiyatlari, reaksiyaga kirishish qobiliyatlari, ularning fizik-kimyoviy xossalari va inson organizmiga ta'siri hamda ulardan muhofazalanishda ishlatiladigan shaxsiy himoya vositalari batafsil yoritib berilgan. Milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda atrof-muhitga tarqalib, inson organizmida zaharlanish holati yuzaga kelsa, u teri, oshqozon-ichak yo'llari hamda nafas olish organlari orqali qonga so'riladi. Qon orqali barcha organizm va to'qimalarga tashiladi hamda organizmning umumiy zaharlanishiga, ba'zan esa insonlarning qurbon bo'lishiga olib keladi. R.S.Sobirov tomonidan kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyaalarning yuzaga kelish sabablari, ularni oldini olish tadbirlari hamda avariya sharoitida va avariyaadan so'ng fuqarolarning harakatlari, shuningdek kimyoviy xavfli obyektlardagi yong'inlar va ularning ikkilamchi omillarini bartaraf etish tadbirlari o'rganilib, tahlil qilingan [5]. S. Kulpinov hamda Moskva davlat universitetining bir qator olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyaalarning yuzaga kelish sabablari, obyektlarning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari o'rganilgan [6, 7, 8, 9, 10] hamda zaharli modda ta'siridan aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berib o'tilgan.

Tahlil va natijalar.

Milliy va xorijdagi soha mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari o'rganildi. Tahlil natijalariga asosan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ta'siridan fuqarolarni muhofaza qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- kimyoviy xavfli obyekt va hudud aholisiga favqulodda vaziyat chog'ida to'g'ri harakatlanish bo'yicha davriy va zaruratga qarab navbatdan tashqari yo'riqnomalar tashkil etish;
- kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish;
- kimyoviy avariya yuzaga kelgan taqdirda aholining barcha qatlamini ogohlantirish;
- himoya inshootlariga (panagoh) yashirish;
- shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;

- shikastlangan hududlarda xavfsizlik talablariga rioya qilish;
- zararlangan hududlardagi odamlarni evakuatsiya qilish;

- jabrlangan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish;
- fuqarolarni sanitar-qayta ishlov, kiyim-kechak, inshootlarni, transport va texnikalarni degazatsiya qilish.

Yo'riqnoma bu insonlarning hayot faoliyati jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xavfsizlik texnikasi qoidalari majmuidir. Yo'riqnomalar kirish yo'riqnomasi va ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomalardan iborat. Yo'riqnomalar maxsus jihozlangan xonalarda, yetakchi mutaxassislar rahbarligida amalga oshiriladi. Yo'riqnom

o'tish jarayonida fuqaro muhofazasi boshliqlarining majburiyat va vakolatlariga alohida to'xtalib o'tiladi [11, 12, 13].

Hududlarda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda mahalliy davlat xokimiyati organlari rahbarlari - fuqaro muhofazasi boshliqlarining amalga oshirishi zarur bo'lgan tadbirlari

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni tarqalishi xavfi yuzaga kelganda [14]:

- zaharlanish ehtimoli mavjud hudud aholisini xabardor qilish;
- shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatish;
- FVDT rahbar tarkibini yig'ish, vaziyat to'g'risida xabardor qilish va vazifalar qo'yish;
- radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka maskanlarini tashkil etish;
- muhofaza inshootlarini aholini qabul qilishga tayyorlash;
- FVDT tuzilmalarini shay holatga keltirish;
- tuman, shahar, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmalari bilan o'zoro hamkorlikni tashkil etish va aloqa o'rnatish;
- shaxsiy muhofaza vositalari bilan ta'minlanmagan aholini evakuatsiya qilish tadbirlariga tayyorlash.

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi sodir bo'lganda [14]:

- "Diqqat, barchaga!" signalini berish va aholini ogohlantirish;
- avariya sodir bo'lgan ob'ektda, zaharlanish ehtimoli mavjud zonalarda razvedka ishlarini tashkillashtirish;
- shaxsiy himoya vositalarini aholiga tarqatish;
- FVDT rahbar tarkibini yig'ish va vazifalar qo'yish;
- radiatsiyaviy va kimyoviy nazorat maskanlarini tashkil etish va ular bergan ma'lumotlarni yig'ish;
- zaharlanish zonasidagi ob'ektlarning ish faoliyatini tugatish;
- avariya ro'y bergan obyekt xolati bilan tanishish;
- aholini panagohlarga, radiatsiyadan yashirish joylari, oddiy muhofaza inshootlariga yashirish;

- FVDT tuzilmalarini, otryadlarini shay xolatga keltirish va ularga vazifalar qo'yish;
- jabrlanganlarga yordam ko'rsatish, ularni xavfsiz joylarga ko'chirish;
- aholini zaharlanish zonasidan tashqariga ko'chirish.

Obyektlarda kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalishi xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda mahalliy davlat xokimiyati organlari rahbarlari - fuqaro muhofazasi boshliqlarining amalga oshirishi zarur bo'lgan tadbirlari

Kimyoviy avariya xavfi yuzaga kelganda [15]:

- favqulodda vaziyat xavfi to'g'risida yuqori tashkilotlarga, favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmasi, bo'limlariga, tegishli hudud raxbarlariga va obyekt rahbariga, ishchi xodimlariga hamda aholiga xabar berish;

- manbadan moddani tarqalishini oldini olish tadbirlarini amalga oshirish;

- ishchilarni zaruriy shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;

- panagohlarni, radiatsiyadan yashirinish joylarini tayyorlash;

- yong'in-portlash xavfini kamaytirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

- obyekt territoriyasini neytrallashtirish uchun moddalarni, asbob-uskunalarini tayyorlash;

- havodagi mavjud gaz miqdorini kamaytirish maqsadida havoga suv purkash uchun suv zahirasi va mashinalarni tayyorlash;

- radiatsion-kimyoviy nazorat maskanlarini o'rnatishni tashkillashtirish;

- korxonadagi barcha tuzilma, otryadlarni shay holga keltirish;

- korxonada ob'ekt rahbariyatidan kechayukunduz navbatchiliklar tashkil etish;

- navbatchi-dispatcherlik xizmatini ish faoliyatini kuchaytirish;

- maxsus operativ guruhlar tuzish;

- evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun avtotransport va qabul qilish punktlari tayyorlash;

- taqvim rejaga aniqliklar kiritish;

- sex ichidagi suv tomchilatish (suv to'sig'i) tizimining holatini tekshirib ko'rish.

Kimyoviy avariya sodir bo'lganda [15, 16]:

- kimyoviy avariya to'g'risida favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy boshqarmasi yoki bo'limlariga, yuqori tashkilotga, tuman yoki shahar hokimiyatiga, rahbarlarga va ishchilarga xabar berish;

- FV sodir bo'lgan manbani, ob'ektni razvedka qilish ishlarini amalga oshirish;

- shtab a'zolarini boshqaruv punktiga yig'ish;

- zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- manbani lokalizatsiya qilish bo'yicha zaruriy tadbirlar o'tkazish;

- atrof muxitda gazning konsentratsiyasini kamaytirish bo'yicha suv to'siqlarini yaratish, suv purkash ishlarini o'tkazish;

- ishchilarga shaxsiy muhofaza vositalarini tarqatish;

- ishchi va xizmatchilarni muhofaza inshootlariga yashirish;

- sharoitni hisobga olingan holda ishchi va xizmatchilarni shahardan tashqaridagi zonalarga evakuatsiya qilish;

- yordamga kelgan xizmatlar bilan hamkorlikda ish olib borish;

- energetika, kanalizatsiya, suv, bug' tizimlaridagi shikastlanishlarni bartaraf etish;

- zaharlanish manbasiga, ob'ektga kirish-chiqishni nazorat qilish va jamoat tartibini saqlash;

- maxsus kiyimlarni, avtomashinalarni, hududni degazatsiya qilish.

Xulosa.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonida, qishloq xo'jaligi va hayotimiz mobaynida yuzlab har xil kimyoviy birikmalar ishlatilmoqda. Ular insoniyat, hayvonot olami va o'simlik dunyosi uchun zararli hisoblanib, ularning soni kun sayin ortayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar xavfi ortaveradi. Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar, avariya va fojialar oqibatlarini tugatish bo'yicha to'plangan tajribalar, fuqarolar muhofazasida olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta'kidlangan FVlarda, fuqarolarni ongli ravishda tez, qat'iy harakat qilishga, iqtisodiyot tarmoqlarini tezda qayta tiklab, uni ishga tushirib yuborishga va talofot ko'rganlarga o'z vaqtida kerakli yordamlarni ko'rsata olishga o'rgatadi. Albatta, bu vazifalar, tabiiy ofatlar, avariya va talofotlarning tabiati, tavsifi, kelib chiqish sabablari va ularni keltiradigan oqibatlarini chuqur o'rganish natijasidagina amalga oshiriladi. Shu sababdan fuqaro muhofazasi xodimlari oldiga juda katta ma'suliyat (harbiy davrda ham, tinchlik davrida ham) fuqarolarni FVlar ruhida o'qitish vazifasini qo'yadi.

O'zbekistonda turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, talofatlar ko'lamini toraytirish, insonlar hayoti va ular tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarga yetadigan zararlarning oldini olish yoki ularni kamaytirishni ta'minlashda ishtirok etadigan barcha xizmatlarning o'zaro munosabatlarini belgilovchi va tartibga soluvchi qator qonunlar va shu sohaga taaluqli bo'lgan Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan hamda hayotga joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nigmatov I, Tojiyev M. „Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi“, darslik . - T.:Iqtisod-Moliya, 2011. – 262 b.
2. Sapayev M.S., Qodirov F.M. “Favqulodda vaziyatlarda hayot faoliyati xavfsizligi”, ma’ruzalar matni. TATU – 2013. – 194 b.
3. O‘.R.Yo‘ldoshev, O.D.Rahimov, R.T. Xo‘jaqulov, O.T.Hasanova. “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”, o‘quv qo‘llanma. Toshkent – “Davr” – 2013. – 200 b.
4. J.M.Qurbonov, J.S.Fayziev. “Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi”, o‘quv qo‘llanma. SamISI - 2009. – 284 b.
5. J.M.Qurbonov, Z.E.Mamarasulov. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, o‘quv qo‘llanma. SamISI - 2016. – 272 b.
6. F.A.Abidova, A.B.Abidov. “Kuchli ta‘sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari”. O‘zR FVV FMI – 2013. – 530 b.
7. R.S.Sobirov. “Kuchli ta‘sir etuvchi zaharli va radioaktiv obyektlardagi o‘ziga hos yong‘inlarni o‘chirish”, uslubiy qo‘llanma. O‘zR FVV FMI – 2017. – 30 b.
8. Turagalov T.J., Ilyosova Z.F. Favqulodda vaziyatlar. (qisqacha ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik izohli lug‘at). – T.,FMI, 2016. – 220 b.
9. Sharipov A.X. “Kimyoviy xavfli obyektida va temir yo‘l transportida kuchli ta‘sir etuvchi zaharli moddalarni saqlash”, uslubiy qo‘llanma. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti, 2010 y. - 23b.
10. S.Gazinazarova, O.Yuldoshev. “Avariya qutqaruv ishlari”, o‘quv qo‘llanma. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti, 2013 yil. - 160 b.
11. A. Boymirzayev. “Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam”. T. – “Zilol buloq” – 2019. - 396 b.

Internet resurslari:

12. www.Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.
13. www.Referat.uz - referat ma‘lumotlari bazasi
14. <http://diss.natlib.uz/>
15. <http://www.natlib.uz/>
16. www.Ziyonet.uz

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ne'matov Mashxurbek Inomjon o'g'li

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali
jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasida o'qituvchisi
mashhurnematov09@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0002-2827-1753>

UDK 371.13:37.016

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA ETNOPEDAOGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING LOKAL-MODULLI TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: "Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning lokal-modulli texnologiyasi" nomli tadqiqot etnopedagogik madaniyatning bo'lajak o'qituvchilarga ta'sirini chuqur o'rganadi. Ushbu texnologiya lokal va modulli yondashuvlarni birlashtirib, etnopedagogik tushunchalarni o'qituvchilarga samarali tarzda yetkazishni maqsad qiladi. Tadqiqot etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan modul tizimining samaradorligini baholaydi va amaliy misollar orqali metodologik yondashuvlarni ko'rsatadi. Natijada, bu texnologiya o'qituvchilarning etnik madaniyat va tarbiya bo'yicha bilimlarini oshirishga yordam beradi, ularning pedagogik faoliyatida xalq an'analari va qadriyatlarini hisobga olish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: Etnopedagogik madaniyat, bo'lajak o'qituvchilar, lokal-modulli texnologiya, pedagogik rivojlanish, tarbiya va madaniyat, metodologik yondashuvlar, o'qituvchining etnik madaniyati, pedagogik kompetensiya.

Неъматов Машхурбек, Иномжонович

Преподаватель кафедры «Физическая культура, теория и методика спорта» Ферганского филиала
Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физической культуры и спорта

ЛОКАЛЬНО-МОДУЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: Исследование «Локально-модульная технология развития этнопедagogической культуры у будущих учителей» глубоко изучает влияние этнопедagogической культуры на будущих учителей. Эта технология направлена на эффективное донесение этнопедagogических концепций до учителей путем сочетания локального и модульного подходов. В исследовании оценивается эффективность специально разработанной модульной системы развития этнопедagogической культуры и на практических примерах показаны методические подходы. В результате данная технология способствует повышению знаний учителей по этнической культуре и образованию, дает возможность учитывать национальные традиции и ценности в их педагогической деятельности.

Ключевые слова: Этнопедagogическая культура, будущие учителя, локально-модульная технология, педагогическое развитие, образование и культура, методические подходы, этническая культура учителя, педагогическая компетентность.

Nematov Mashxurbek Inomjon ugli

Ferghana branch institute for retraining and advanced training of specialists in physical culture and sports, teacher
of the department "Physical education, sports theory and methodology"

LOCAL-MODULE TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF ETHNO-EDUCATIONAL CULTURE IN FUTURE TEACHERS

Abstract: The study "Local-modular technology of developing ethnopedagogical culture in future teachers" deeply studies the influence of ethnopedagogical culture on future teachers. This technology aims to effectively convey ethnopedagogical concepts to teachers by combining local and modular approaches. The study evaluates the effectiveness of a specially designed module system for the development of ethnopedagogical culture and shows methodological approaches through practical examples. As a result, this technology helps to increase the knowledge of teachers on ethnic culture and education, makes it possible to take into account national traditions and values in their pedagogical activities.

Key words: *Ethno-pedagogical culture, future teachers, local-module technology, pedagogical development, education and culture, methodological approaches, teacher's ethnic culture, pedagogical competence.*

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatini rivojlantirish talab qilinmoqda. Globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi davrida, milliy va etnik qadriyatlarining ta'lim jarayonida hisobga olinishi juda muhimdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish uchun lokal-modulli texnologiyani ishlab chiqish va uning samaradorligini o'rganishdir.

Etnopedagogik madaniyat o'qituvchining pedagogik faoliyatida, talabalar bilan ishlashda, milliy va etnik qadriyatlarni hisobga olishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida milliy an'analar, madaniyat va qadriyatlarni to'g'ri yoritish, shuningdek, xalq pedagogikasining elementlarini ta'limga qo'shish orqali amalga oshiriladi. Etnopedagogik madaniyatning rivojlanishi o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshiradi, ular o'qitish metodlarini diversifikatsiya qilish, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy ta'lim tizimlari globalizatsiya, madaniyatlararo aloqalar va texnologik rivojlanishlar bilan tobora ko'proq o'zgarib bormoqda. Ushbu sharoitda, ta'lim jarayonini mahalliy ehtiyojlar va madaniy xususiyatlarga moslashtirish zarurati oshmoqda. "Lokal-modulli texnologiya" bu ehtiyojlarga javob beruvchi innovatsion yondashuvlardan biridir. U lokal (mahalliy) va modulli (bosqichma-bosqich) yondashuvlarning uyg'unligini o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu maqolada lokal-modulli texnologiyaning asosiy tamoyillari, konseptsiya va amaliy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot taqdim etiladi.

Lokal-modulli texnologiya, ta'lim jarayonida mahalliy ehtiyojlarni, madaniy xususiyatlarni va pedagogik strategiyalarni hisobga olishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu texnologiya, ikki asosiy elementni o'z ichiga oladi: lokal yondashuv va modulli tizim.

Lokal yondashuv o'ziga xos madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olishni anglatadi. Har bir mintaqaning o'ziga xos madaniy xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar ta'lim jarayonida hisobga olinishi zarur. Masalan, milliy qadriyatlar, an'anaviy marosimlar, til va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari mahalliy yondashuvning tarkibiy qismlari hisoblanadi.[5]

Adabiyotlar tahlili.

Oliy ta'lim tizimida ta'limning sifat bosqichiga ko'tarilishi bo'yicha o'zimizning yetakchi olimlar o'z izlanishlarini olib borishgan. Etnopedagogika — xalqning milliy tarbiya usullari, an'ana va urf-odatlar asosida shakllangan pedagogik yo'nalish. Bu soha milliy tarbiya va

an'analarining zamonaviy ta'lim tizimiga moslashuvi va integratsiyasini tadqiq qiladi. A.E. Jumaevning "Etnopedagogikaning nazariy asoslari" kitobi etnik va milliy tarbiya usullarining ta'limdagi o'rni haqida tushuncha beradi. S.G. Niyozovning "Milliy tarbiya asoslari" asarida milliy qadriyatlarni bolalar tarbiyasiga kiritish texnologiyalari haqida fikrlar mavjud. Ushbu manbalarda o'qituvchilarning etnik tarbiyaga yondashuvi va madaniy merosni o'qitish texnikalari tahlil qilingan.

Modulli ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini yengillashtirish va individuallashtirishga xizmat qiladi. Bu usul o'qituvchilarni o'z fanlarida muayyan modullar orqali tayyorlashni nazarda tutadi. T.T. Ziyodullayevaning "Modulli ta'lim tizimi: nazariy va amaliy asoslar" kitobi modullar orqali o'qitishni osonlashtirish yo'llarini tahlil qiladi. V.V. Guzeevning "Ta'lim texnologiyalari" asarida modulli ta'lim tizimining pedagogika bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan.

Bu manbalar modulli texnologiyalarni o'qitish jarayonidagi samaradorligini va talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu madaniyatni shakllantirish orqali o'qituvchi milliy qadriyatlarga asoslangan ta'limni rivojlantiradi. G.K. Kasimovning "O'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda etnik madaniyatning o'rni" maqolasi o'qituvchi malakasini oshirishda milliy madaniyat va qadriyatlarining ahamiyatini o'rganadi. N.M. Raximovning "O'qituvchilar tayyorlashda milliy qadriyatlar asosidagi ta'lim texnologiyalari" kitobi o'qituvchi sifatida etnopedagogik madaniyatning shakllanishiga bag'ishlangan.

Bu texnologiyalar muayyan hudud yoki kontekstda maxsus modullar orqali o'qitish jarayonini optimallashtirishni nazarda tutadi. Bu esa o'qituvchilarga milliy madaniyatni o'zlashtirishda yordam beradi. M.X. Usmonovning "Ta'limda lokal-modulli yondashuvlar" kitobi ta'lim texnologiyalarini mahalliy sharoitga moslashtirish haqida tushuncha beradi. O.T. Safarovning "Ta'lim jarayonini lokal-modulli yondashuvda tashkil qilish" maqolasi lokal texnologiyalar orqali o'quv dasturlarini optimallashtirish bo'yicha rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Etnopedagogik bilimlarni bosqichma-bosqich o'rgatishni va amaliyotda qo'llashni ta'minlash uchun tashkil etilgan modul va mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Har bir modul alohida mavzu yoki kompetensiyaga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarga bilimlarni bosqichma-

bosqich o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Modulli tizimning samaradorligi, o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda baholash va yangilab turishga yordam beradi.[3,8]

Lokal-modulli texnologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Madaniy kontekstni hisobga olish: Ta'lim jarayonida mahalliy madaniyat, tarixiy an'analar va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olish. Bu, o'qituvchilarga mahalliy ehtiyojlarga mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

2. Modulli yondashuv: Ta'lim jarayonida bilimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish va amaliyotda qo'llash. Har bir modul alohida mavzu yoki kompetensiyaga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarga qadam-baqadam o'rganish imkonini beradi.

3. Interaktivlik va amaliy mashg'ulotlar: Ta'lim jarayonida interaktiv va amaliy mashg'ulotlarni qo'llash orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash. Bu, o'qituvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan boyitishga yordam beradi.

4. Individual yondashuv: O'qituvchilarning individual ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olish. Har bir o'qituvchining ehtiyojlariga mos keladigan modul va mashg'ulotlar taqdim etiladi.

5. Baholash va tahlil: O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash, ular tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlarni tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish. Bu, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va zarur o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Lokal-modulli texnologiya o'ziga xos yondashuvni taklif etadi, bu etnopedagogik madaniyatni o'qituvchilarga ta'sirli tarzda yetkazishni maqsad qiladi. Lokal-modulli texnologiya ikki asosiy unsurdan iborat: lokal yondashuv va modulli tizim. Lokal yondashuv, aniq bir hududdagi madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olishni anglatadi. Modulli tizim esa, o'qituvchilarga etnopedagogik bilimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish va amaliyotda qo'llash uchun tashkil etilgan modul va mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar, ta'lim jarayonida etnopedagogik madaniyatni yoritishda va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning etnik madaniyat va pedagogik uslublarni birlashtirishi, talabalar bilan munosabatlarni yaxshilash, ularni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish va madaniy an'analarni qo'llashda yordam beradi. O'qituvchilarning etnopedagogik madaniyat bo'yicha bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim sifatini oshiradi va talabalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Lokal-modulli texnologiya ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi haqida bir nechta misollar keltirish mumkin:

1. Pedagogik materiallar: Mahalliy ehtiyojlarga mos pedagogik materiallar va dars rejaları ishlab chiqish. Masalan, o'zbek xalqining madaniy an'analari, tarbiyaviy

usullari va til xususiyatlarini hisobga olgan holda dars materiallarini yaratish.

2. Treninglar va seminarlar: Bo'lajak o'qituvchilar uchun etnopedagogik madaniyat bo'yicha treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. Bu, o'qituvchilarga lokal-modulli texnologiyani qanday qo'llashni o'rgatadi.

3. Metodik yordam: O'qituvchilarga pedagogik materiallar, metodik qo'llanmalar va maslahatlar taqdim etish. Bu, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida etnopedagogik madaniyatni qanday integratsiya qilishlarini ko'rsatadi.

4. Baholash mexanizmlari: O'qituvchilarning etnopedagogik bilimlarini baholash va ularning amaliyotdagi samaradorligini tahlil qilish. Masalan, baholash so'rovnomalari, testlar va amaliyotlarni baholash.

5. Innovatsion loyihalar: Lokal-modulli texnologiya yordamida yangi innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini yanada samarali qilish va ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish imkoniyatini beradi.

Lokal-modulli texnologiyaning afzalliklari va cheklovlari

Afzalliklari:

Mahalliy kontekstga moslashuv: Ta'lim jarayonida mahalliy madaniyat, tarixiy an'analar va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olish orqali o'qituvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqadi.

Modulli yondashuv: Bilimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi, bu esa o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantiradi.

Interaktivlik: Interaktiv va amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Individual yondashuv: Har bir o'qituvchining ehtiyojlariga mos keladigan modul va mashg'ulotlarni taqdim etadi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Cheklovlari:

Resurslar: Lokal-modulli texnologiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan resurslar va materiallar yetishmasligi.

Tashkiliy masalalar: Modulli tizimni tashkil etish va boshqarish, shuningdek, o'qituvchilarga treninglar va seminarlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan tashkiliy masalalar.

Moslashtirish: Mahalliy ehtiyojlarga mos keladigan pedagogik materiallarni yaratish va modulli tizimni mahalliy sharoitlarga moslashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar.

Baholash: O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va amaliyotdagi samaradorligini tahlil qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar.

Lokal-modulli texnologiyaning kelajakdagi rivojlanishi

Lokal-modulli texnologiya ta'lim jarayonida yanada kengroq qo'llanilishi va rivojlanishi mumkin. Kelajakda, bu texnologiya yordamida quyidagi sohalarida yangiliklar va takomillashtirishlarni amalga oshirish mumkin:

1. **Texnologik integratsiya:** Lokal-modulli texnologiyani raqamli vositalar va onlayn platformalar bilan integratsiya qilish. Bu, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida yanada samarali vositalarni taqdim etadi.

2. **Global-mahalliy aloqalar:** Lokal-modulli texnologiya yordamida global va mahalliy ta'lim ehtiyojlarini muvofiqlashtirish. Bu, o'qituvchilarga global ta'lim standartlarini mahalliy sharoitlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

3. **Innovatsion loyihalar:** Lokal-modulli texnologiya yordamida yangi innovatsion ta'lim loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

4. **Baholash va tadqiqot:** O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash va lokal-modulli texnologiyaning samaradorligini tadqiq qilish. Bu, texnologiyaning yanada takomillashuvini ta'minlaydi va ta'lim jarayonida qo'llanilishini oshiradi.

Tahlillar va natijalar.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – lokal-modulli texnologiyaning samaradorligini baholash va bo'lajak o'qituvchilarni etnopedagogik madaniyat bo'yicha tayyorlashda uning roli va ahamiyatini aniqlashdir. Tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

✓ Etnopedagogik madaniyatning o'qituvchilarga ta'sirini o'rganish.

✓ Lokal-modulli texnologiyaning asosiy prinsiplarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash.

✓ Pedagogik materiallar va metodikalar ishlab chiqish.

✓ Bo'lajak o'qituvchilar uchun etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha treninglar va mashg'ulotlar tashkil etish.

✓ Tadqiqot natijalarini tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot turli metodologik uslublarni o'z ichiga oladi, jumladan, anketalar, intervyular, tajriba

mashg'ulotlari va baholash metodlarini. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning etnopedagogik madaniyatga oid bilim va ko'nikmalari, lokal-modulli texnologiyaning samaradorligi, va o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlar tahlil qilinadi.

Lokal-modulli texnologiya yordamida o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish, ta'lim jarayonini yanada samarali va maqsadli qilish imkonini beradi. Bu texnologiya, o'qituvchilarga etnik madaniyat va pedagogik uslublarni integratsiya qilish, talabalar bilan ishlashda milliy qadriyatlarni hisobga olish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalari, bo'lajak o'qituvchilar uchun etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishda aniq yo'nalishlarni belgilaydi, ta'lim sifatini oshiradi va pedagogik faoliyatda yangi yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.[2,6]

Xulosa.

Lokal-modulli texnologiya ta'lim jarayonida mahalliy ehtiyojlarni, madaniy xususiyatlarni va pedagogik strategiyalarni hisobga olishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Bu texnologiya lokal (mahalliy) va modulli (bosqichma-bosqich) yondashuvlarning uyg'unligini o'zida mujassamlashtiradi. Lokal-modulli texnologiyaning asosiy tamoyillari madaniy kontekstni hisobga olish, modulli yondashuv, interaktivlik va amaliy mashg'ulotlarni qo'llash, individual yondashuv va baholashni o'z ichiga oladi. Texnologiyaning amaliy qo'llanilishi, pedagogik materiallar ishlab chiqish, treninglar va seminarlar tashkil etish, metodik yordam taqdim etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, texnologiyaning kelajakdagi rivojlanishi texnologik integratsiya, global-mahalliy aloqalar, innovatsion loyihalar va baholash va tadqiqot sohalarida yangiliklar va takomillashtirishlarni o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishda lokal-modulli texnologiyaning samaradorligini baholash, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida etnik madaniyatni hisobga olish va xalq an'analari bilan tanishtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va milliy qadriyatlarni saqlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Theoretical & Applied Science, (7), 171-178.
2. Berdiyev A. — O'zbek xalqining etnopedagogik qarashlari. Toshkent: O'qituvchi, 2012. 256 bet.
3. Mahmudov Z. — Etnopedagogika asoslari. Toshkent: Fan, 2010. 275 bet.
4. Nazarov M. — Milliy madaniyat va ta'lim jarayoni. Toshkent: Ma'naviyat, 2015. 320 bet.

5. Ne'matov M (2024) O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etnopedagogika asoslarini takomillashtirish. FarDU. ILMIY XABARLAR.
6. Rahimov U. — Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Sharq, 2018. 288 bet.
7. Usmonov M. — Milliy qadriyatlar va ta'lim. Toshkent: Ma'naviyat, 2016. 190 bet.
8. Г.Н.Волков Г.Д.Баубекова ЭТНОПЕДАГОГИКА Ташкент – 2000 Издательство Фани Академии наук Республики Узбекистан Дарслик 192-бет.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ochilov Hasan Amrullayevich

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti
e-mail: ochilov-h@mail.ru

OLIJ TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari rahbarlarining kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy tajribani o'rganish va uning milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridagi boshqaruv tajribasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, menejerlik kompetensiyasi, konseptual ko'nikmalar, shaxslararo ko'nikmalar, texnik ko'nikmalar, konseptual qobiliyatlar, menejer, mentorlik.

Очиллов Хасан Амруллаевич

докторант Институт переподготовки и повышения
квалификации кадров системы высшего образования

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ВУЗОВ

Аннотация: В данной статье анализируется возможность изучения зарубежного опыта формирования компетенций руководителей высших учебных заведений и его внедрения в национальную систему образования, опыта управления в ведущих высших учебных заведениях зарубежных стран.

Ключевые слова: компетентность, управленческая компетентность, концептуальные навыки, навыки межличностного общения, технические навыки, концептуальные навыки, менеджер, наставничество.

Ochilov Khasan Amrullaevich

Doctoral student Institute for Retraining and Professional Development
of Higher Education Personnel

FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING THE COMPETENCIES OF THE LEADERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: In this article, the possibility of studying foreign experience in the formation of the competencies of the leaders of higher education institutions and its implementation in the national education system, management experience in leading higher education institutions of foreign countries is analyzed.

Keywords: competence, managerial competence, conceptual skills, interpersonal skills, technical skills, conceptual skills, manager, mentoring.

Kirish.

Zamonaviy dunyoda oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va rivojlantirish jarayonlari tezkor va samarali bo'lishi uchun rahbarlarning kompetensiyalari muhim rol o'ynaydi. Oliy ta'lim muassasasi rahbari faqatgina boshqaruv qobiliyatlariga ega bo'lishi emas, balki zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni tushunishi, global va milliy ta'lim jarayonlaridagi o'zgarishlarni bilishi ham zarur. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism.

Ukrainaning jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi sharoitida oliy o'quv yurtining bo'lajak o'qituvchisini tayyorlash mavjud standartlarga muvofiq modernizatsiya qilishni talab qiladi. "Ukrainada ta'limni rivojlantirish milliy doktrinasi" da ifodalangan ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy shartlaridan biri pedagogik va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirishdir. Tadqiqotlarda aytilishicha, menejerlik kompetensiyasi uzoq vaqt davomida olimlar e'tiborini o'ziga tortmoqda buni V.Andrushchenko,

V.Bondar, L.Vashchenko, A.Grusheva, L.Danilenko, G.Dmitrenko, G.Elnikova, M.Zaxarov, V.Kremen, Y.Konarjevskiy, E.Pavlyutenkov, V.Pikel'naya, M.Potashnik, E.Xrykov [1] va boshqalarning asarlarida ko'rish mumkin. Bilimlarni ishlab chiqarish, o'zlashtirish va tarqatish samaradorligi oliy ta'lim sifatiga, jumladan, professor-o'qituvchilarning malaka darajasiga bog'liqligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Ta'lim muhitida jamoa a'zolari bir qator rollarni bajaradilar: ma'mur, rahbar, o'qituvchi, maslahatchi, baholovchi, muharrir, tadqiqotchi, tashkilotchi, ilmiy maktab vakili va boshqalardir.

Amerikalik olimlar P.Traypeti, J.Renyan va T.Pendeylar [2] shu nuqtai nazardan oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari boshqaruv kompetensiyasining to'rtta komponentini ajratib ko'rsatadilar:

Boshqaruv kompetensiyasining to'rtta komponenti:
Bilim, xulq-atvor, ma'muriy, tadqiqot.

Bilim komponenti (Bilim), xulq-atvor (Xulq-atvor), ma'muriy (ma'muriy) va tadqiqot (tadqiqot). Ushbu tadqiqotchilar universitet o'qituvchisining boshqaruv malakasi darajasini uning turli tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha baholashni taklif qiladilar. Masalan, bilim komponenti o'quv ishining sifati va miqdori kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Xulq-atvor komponentiga davomat kiradi introspeksiya (shaxsning zaif / kuchli tomonlarini aniqlash; o'qituvchining xulq-atvor kodeksiga rioya qilish; universitetning institutsional falsafasi, maqsad va vazifalariga sodiqlik; boshqalarga yordam berish); boshqalarni institutsional maqsad va vazifalarga erishishga undash. Ma'muriy komponent egallab turgan lavozimi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi (fakultet dekani/kafedra mudiri; turli jamiyatlar/ilmiy maktablar rahbari; ilmiy faoliyatni boshqarish; kirish kompaniyasini boshqarish; talabalar faoliyatini boshqarish; uy-joy resurslarini boshqarish; kompyuter infratuzilmasini boshqarish kutubxonani boshqarish/jurnal bosh muharriri vazifasini bajarish tashkiliy ko'nikmalar (masalan, ilmiy konferensiyalar/seminarlar tashkil etish va h.k.) Tadqiqot komponenti xalqaro ilmiy jurnallarda iqtibos ko'rsatkichi bilan maqolalar chop etishni o'z ichiga oladi, iqtibos ko'rsatkichi bo'lgan milliy ilmiy jurnallar uchun maqolalar yozish, iqtibos ko'rsatkichsiz xalqaro ilmiy jurnallar uchun maqolalar yozish; milliy ilmiy nashrlar uchun iqtibos ko'rsatkichsiz maqolalar yozish; homiyilar hisobidan tadqiqot qilish; ilmiy nashrlar tahririyatlarida ishtirok etish, xususan, xalqaro, milliy xom iqtibos, iqtibos indeksiz milliy va h.k [3].

Tadqiqotchi D.Jornem boshqaruv kompetensiyasining strukturasi ko'rib chiqib, yetakchilik kabi komponentning muhimligini ta'kidlaydi. Rahbarlik, olimning fikricha, konseptual (konseptual ko'nikmalar), shaxslararo (shaxslararo ko'nikmalar) va texnik (texnik ko'nikmalar) kўникмалар ёки малакаларга эга bo'lishni

o'z ichiga oladi. Konseptual qobiliyatlar deganda menejerning tushunchalarni shakllantirish qobiliyati tushuniladi, xususan: ijodiy fikrlash, mavhum fikrlash, murakkab vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati. Shaxslararo ko'nikmalarga o'qituvchilar jamoasida ham, qaror qabul qilish jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ham shaxslararo o'zaro munosabatlar va shaxslararo muloqot ko'nikmalari kiradi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasasi, jumladan, oliy ta'limning innovatsion madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Texnik ko'nikmalar aniq kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni o'z ichiga oladi[4].

G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'z lavozimlariga ko'ra ham an'anaviy yetakchilik funksiyalarini (fakultet dekani, kafedra mudiri, fan qo'mitasi raisi, guruh rahbari) va yangi, ko'pincha vaziyat, rollar, bu o'quv muhitidagi o'zgarishlarga tezda javob berish zarurati bilan bog'liq. Masalan, Qo'shma Shtatlarda yetakchilikning keng tarqalgan turi - mentorlik (mentorlik) bo'lib, tajribali hamkasblar yosh o'qituvchilarga ularning kasbiy rivojlanishida yordam beradi.

Amerikalik olim K.Devaniy yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish zarur bo'lgan oltita yo'nalishni belgilab berdi: ta'lim jarayonini takomillashtirish; ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va boshqarish; o'quv dasturlarini ishlab chiqish; ta'lim muassasasi darajasida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish; ish joyidagi ta'lim va boshqa o'qituvchilarga yordam berish; o'qituvchilarni sertifikatlash[5].

Shuni ta'kidlash kerakki, G'arb mamlakatlarida o'qituvchilarning ish joyidagi boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi, chunki rasmiy rahbarlar asosan ta'lim muassasalarini boshqarish соҳасида махсус маълумотга ega bo'lmagan professor-o'qituvchilar tarkibidan iborat. Bu holat shu bilan izohlanadiki, yaqin vaqtgacha Yevropaning aksariyat davlatlarida ta'lim muassasalari rahbarlaridan ta'limni boshqarish sohasida malaka talab etilmagan. Biroq so'nggi o'n yilliklarda ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish harakati munosabati bilan ta'limni boshqarishni professionalashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda, ya'ni o'qituvchilarni tayyorlash yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Shunday qilib, OYECD ma'lumotlariga ko'ra, ba'zi mamlakatlarda tegishli diplomning mavjudligi, garchi majburiy bo'lmasa ham, faol ravishda rag'batlantiriladi. Masalan, Finlyandiyada ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlariga da'vogarlar ta'lim boshqaruvi bo'yicha sertifikat (Certificate in Education Administration) yoki ushbu sohada tegishli bilimga ega bo'lishi kerak. Avstraliyada yaqin vaqtgacha maktab rahbarlariga qo'yiladigan yagona talab to'rt yillik o'qituvchilar malakasini oshirish bo'lgan bo'lsa, 2006 yilda maktab rahbarlarini kasbiy tayyorlash dasturi joriy

qilingan. Yaponiyada ta'lim islohotlarining yo'nalishlaridan biri universitetlarda dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'lib, u yerda o'qituvchilarni tayyorlash doirasida ta'lim rahbarlarini tayyorlash amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar rahbarlarning ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish uchun nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashini nazarda tutadi[6].

Shu nuqtai nazardan, Stenford ta'lim yetakchilik instituti mutaxassislari bo'lajak o'qituvchilarda yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning xususiyatlarini ularning kasbiy tayyorgarligining bir qismi sifatida belgilaydilar:

- o'quv rejasining o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi standartlariga muvofiqligi;
- o'quv dasturi falsafasi ta'lim muassasasi faoliyatini ibratli rahbarlik va takomillashtirishga asoslangan;
- nazariya va amaliyotni o'zida mujassam etgan va fikrlashni rag'batlantiradigan, shuningdek, muammoli ta'lim, tajribaviy tadqiqot, loyihaga asoslangan ta'lim, jurnal, portfolio kabi ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oluvchi faol, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim. O'qituvchilar va nomzodning o'zi malakali o'qituvchilarni, shu jumladan universitet professor-o'qituvchilarini va ta'lim muassasasini boshqarish sohasida tajribaga ega amaliyotchilarni o'qitishga jalb etish;
- talabalarni ijtimoiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Viktor Andrushenko - Google Scholar, Volodimir Bondar - Akademiya Google.
2. Tripathi P. PAKS : A competency based model for academic institutions / P. Tripathi, J. Ranjan, T. Pandeya // International journal of innovation, management and technology. 2010. Vol. 2. № 2. P. 214–218.
3. Tripathi P. PAKS : A competency based model for academic institutions / P. Tripathi, J. Ranjan, T. Pandeya // International journal of innovation, management and technology. 2010. Vol. 2. № 2. P. 214–218.
4. Iornem D. Management skills in education / D. Iornem // Paper presented at the Workshop on Leadership and Management in Education organized by the Teachers Registration Council of Nigeria, Held at Lokoja, Kogi State on November 23, 2010. – 2010. – 19 p.
5. Devaney K. The lead teacher : Ways to begin. N. Y.: Carnegie Forum on Education and the Economy, 1987. 27 p.
6. Schleicher A. Preparing Teachers and Developing School Leaders for the 21st Century: Lessons from around the world. OECD Publishing, 2012. 108 p.
7. Darling-Hammond L. Preparing school leaders for a changing world: Lessons from exemplary leadership development programs [Electronic resource] / [L. Darling-Hammond, M. LaPointe, D. Meyerson, M. T. Orr, C. Cohen. Stanford, CA:Stanford Educational Leadership Institute, 2007. URL: http://seli.stanford.edu/research/documents/sls_tech_report.pdf (date of access: 13.08.2014).
8. Watson L. Quality teaching and school leadership / Australian Institute for teaching and school leadership, 2005. 100 p.

- rahbarlik salohiyatiga ega talabalarni ma'muriy lavozimlarga maqsadli tanlash;
- Talabalarning ish tajribasiga qo'yiladigan talablarni oshirish, bu rahbarlik lavozimlariga potensial nomzodlarga uzoq vaqt va professional nazorat ostida rahbarlik funksiyalarini bajarish imkonini beradi[7]. Avstraliyada o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini qayta ko'rib chiqish zarurati milliy miqyosda tan olingan. Shunday qilib, Avstraliya Ta'lim, fan va o'qitish departamenti (Hamdo'stlik ta'lim, fan va trening departamenti) o'qituvchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berdi.

Avstraliyalik tadqiqotchi L.Uotson [8] bo'lajak o'qituvchilarni universitetda o'qitish jarayonida yetakchilik qobiliyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlab, sinfni boshqarish kabi yo'nalishlarni takomillashtirishga ustuvor e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va tatbiq etish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu jarayon OTM rahbarlarining malakasini oshirish va ta'lim tizimini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Shu sababli, milliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi

Namangan davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: khabibullayeva0811@gmail.com

INTERFAOL TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KOMMUNIKATIV NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda so'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan ishlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot o'tishning barcha bosqichlarida, o'qitishning interfaol usullaridan foydalanib, bolalarning kommunikativ nutqini yanada rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida interfaol metodlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: konsepsiya, interfaol, ta'lim, kommunikatsiya, nutq, muloqot, metod, innovatsiya, tizim, maktabgacha ta'lim.

Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi

PhD докторант 1-курса Наманганского государственного университета

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО В ИНТЕРАКТИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: в данной статье рассматриваются работы, проводимые в последние годы в целях дальнейшего развития системы дошкольного образования в нашей стране. Развитие коммуникативной речи детей с использованием интерактивных методов обучения на всех этапах обучения в дошкольных образовательных организациях. Подчеркнуто значение интерактивных методов в развитии детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: концепция, интерактив, образование, коммуникация, речь, общение, метод, инновация, система, дошкольное образование.

Khabibullaeva Sayyoraxon Makhamadali qizi

PhD student of Namangan State University

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF DEVELOPING THE COMMUNICATIVE SPEECH OF PRE-SCHOOL CHILDREN IN AN INTERACTIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation: in this article, the work carried out in recent years in order to further develop the system of preschool education in our country. Further development of children's communicative speech using interactive teaching methods at all stages of training in pre-school educational organizations. The importance of interactive methods in the development of preschool children is highlighted.

Key words: concept, interactive, education, communication, speech, communication, method, innovation, system, preschool education.

Kirish.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan, sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" qadul qilindi.

Ushbu Konsepsiyaga asosan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:

▪ maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

▪ maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

▪ maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish va boshqalar deb belgilandi.[1]

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yangi ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu usullardan biri interfaol ta'lim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Dunyo pedagogikasida XX asr boshlarida paydo bo'lib, o'sha asrning oltmishinchi yillarida shakllangan va asr oxirlarida bizga kirib kela boshlagan interfaol usullardan foydalanishning u yoki bu jihatlari borasida bir qator tadqiqot ishlari qilingan. D.Dyui, E.Bern, S.Zanko, V.V.Petrusinskiy, A.Kazakov, A.Yakushev, M.Klarin, V.Guzeev, G.Selevko, A.Gin va boshqa chet ellik olimlar o'z tadqiqotlarida turli davrlarda turli ta'lim muassasalarida interfaol usullarni qo'llash yo'llari to'g'risida o'z qarashlarini bildirganlar.

O'zbekistonlik olimlar ham o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish yo'llari to'g'risida bir qator izlanishlarni amalga oshirishgan. Ayniqsa, B.Farberman, D.Safin, R.Musina, Q.Husanboyeva, Sh.Yusupova, S.Odilova, F.Egamberdieva, Q.Qiyasova, M.Jumaniyozova, A.Hayitov, N.Boymurodov kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llash muammosining turli jihatlari to'xtalishgan. [2]

B.M. Bim-Bad tomonidan tahrir qilingan pedagogik ensiklopedik lug'atning ta'rifiga ko'ra, interfaol ta'lim – bu o'quvchining o'quv muhiti bilan o'zaro ta'siriga asoslangan ta'lim, o'zlashtirilgan tajriba sohasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi ta'lim jarayonining to'liq ishtirokchisiga aylanadi, uning tajribasi ta'lim bilimlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi tayyor bilim bermaydi, balki ishtirokchilarni mustaqil izlanishga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning ahamiyati va shu orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ fazilatlarini rivojlantirish muhokama qilinadi. "Interfaol" atamasi tavsiflandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida interfaol metodlarning ahamiyati o'rganildi.

Tahlillar va natijalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish,

maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ fazilatlarini rivojlantirishga, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartida belgilangan vazifalarga muvofiq atrofdagi odamlar bilan o'zaro muloqot va nutq malakalari, usullari va vositalarini o'zlashtirishga qaratilgan.

"Interfaol ta'lim nima?" degan savolga javob berib aytishimiz mumkin, "interaktiv" biror narsa (masalan, kompyuter) yoki kimdir (odam) bilan muloqot qilish yoki suhbat, dialog rejimida bo'lish qobiliyatini bildiradi. Yani, interfaol ta'lim - bu, birinchi navbatda, o'zaro muloqot amalga oshiriladigan dialogli ta'lim bo'lib, kommunikativ texnologiyalarning variantlaridan biri, bu juda aniq va bashorat qilinadigan maqsadlarga ega bo'lgan bilish faoliyatni tashkil etishning maxsus shaklidir. Interfaol ta'limning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda deyarli barcha bolalar bilish jarayonida ishtirok etadilar, ular o'zlari bilgan va o'ylagan narsalarni tushunish va mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot o'tishning asosiy shartlaridan biri uning barcha bosqichlarida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanib, bolalarning aqliy va kommunikativ nutqini yanada rivojlantirishdir.

"Interfaol" atamasi lotincha "inter akt" so'z birikmasidan olingan bo'lib, "inter" –o'zaro, birgalikda va "akt" –faoliyat ma'nolarini anglatadi.[3] Interfaol metodlar ta'lim mazmuni pedagog rahbarligida bolalarning bir-birlari bilan birgalikdagi faoliyati natijasida o'zlashtirilishini ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol metodlar bolalarning faolligi, erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishiga tayanadi. Interfaol metodlardan foydalanib bilim olish bolalar uchun qiziqarli faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar tarbiyalanuvchilarni o'qitishga emas, balki bilimlarni ularning o'zlari tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlashga qaratiladi. Bu usulda bolalar materialni buyurilganiday emas, o'zlari xohlaganday o'zlashtiradilar. Interaktiv metodlarda bolalar yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga urinishadilar va ular, albatta, kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. Topshiriqlarning kichik guruhdagi barcha bolalarga berilishi ularda jamoa tuyg'usini shakllantiradi.

A. Kononkoning fikricha, [4] hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash davomida interfaol o'qitish usullari haligacha yetarli darajada qo'llanilmaydi. Buning o'ziga yarasha bir qancha sabablari bor:

- ko'pchilik pedagog-tarbiyachilarning o'z faoliyatida tushuntirish va illyustrativ ko'rgazmalardan, monolog usullaridan foydalanishga moyillik ko'rsatishlarining sustligi va boshqalardek talab va tamoyillarga so'zsiz bo'ysunish odati;

- tarbiyachilarning ko'pchilik qismi innovatsion usullarga ishonmasligi va ulardan qo'rqishi, ularni samarali qo'llash va faol aniqlay olish, mas'uliyat bilan qaror qabul qilish, imtiyozlardan foydalanish tajribasining yo'qligi;

- haddan tashqari tanqidiy munosabatda bo'lish tendentsiyasi;

- yangi shart-sharoit va talablarga tez moslasha olmaslik;

- o'z-o'zini xolis baholay olish, o'z imkoniyatlarini, xohish-istaklarini zamon talablari bilan moslashtirish qobiliyatining va o'zini tahlil qilish ko'nikmasining shakllanmaganligi sabab bo'ladi.

Shunday qilib, interfaol o'qitish usuli maktabgacha yoshdan boshlab quyidagilarga yordam beradi:

- bolalarning individual psixik jarayonlarini faollashtirish;

- kommunikativ qobiliyatlarini, o'quv-axborot va o'quv-tashkiliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

- almashilayotgan ma'lumotlarni tushunishni ta'minlash;

- mashg'ulotlarga qiziqishni rivojlantirish, bolalarning bilish jarayonini faollashtirishga imkon berish;

- pedagogik ta'sirning individuallasuvi;

- bolalarni mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqaga (axborot almashinuviga) erishish.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, interfaollik bolada javobgarlik hissini, o'z-o'ziga tanqidiy munosabatni shakllantiradi, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishni rivojlantirib, o'zining kuchli tomonlarini to'g'ri va holisona baholashga, bilimlaridagi ishlovga moyil jihatlarni ko'ra bilishga o'rgatadi. Interfaol darsning asosiy tarkibiy qismi dialog bo'lib. Interfaol ta'lim jarayonida bolalar faol muloqotda bo'ladilar, ba'zan bahslashadilar, suhbatdoshlari bilan o'zaro tortishib, o'z fikrini isbotlashga harakat qiladilar.

Interfaol usullar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan bolalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Unda bolalar xuddi pedagog singari ta'limning subyekti, ya'ni ijrochisi bo'lishi, ta'lim olish ularning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Interfaol metodlarning asosida pedagog bilan tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi ishlashigina emas, balki ta'lim olayotgan har bir bolalarning bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi".
2. E.A.Qurbonovich, Interfaol ta'lim mohiyati// Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. 2023 4-son.
3. Словарь иностранных слов. –М.: «Русский язык», 1979. С-23; С-198
4. А. Kononko Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kompyuter. Moskva: EKSMO nashriyoti, 2006 yil.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Najmiddinov Dilshod Rafiddin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali doktoranti

e-mail: najmiddinov@jbnuu.uz

ORCID ID: 0000-0002-4767-7452

UDK:37.013.46

RAQAMLI IQTISODIYOT MUHITIDA BO'LAJAK IQTISODCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini tahlil qiladi. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi kadrlar tayyorlashning ahamiyati va ta'lim tizimini modernizatsiyalash bo'yicha olib borilgan islohotlar tahlil qilinadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi va 2024-yilda qabul qilingan PQ-62-sonli qaror asosida raqamli iqtisodiyotda iqtisodchi kadrlarni tayyorlash zaruriyati ochib beriladi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarni qo'llashda iqtisodchi kadrlarning malakasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, iqtisodchilar tayyorlash, kasbiy kompetensiya, ta'lim tizimi, raqamli texnologiyalar, "Raqamli O'zbekiston – 2030".

Нажмиддинов Дилшод Рафиддинович

Докторант Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ЭКОНОМИСТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы развития профессиональных компетенций будущих экономистов в условиях цифровой экономики. Рассматривается важность подготовки кадров в контексте перехода Узбекистана к цифровой экономике, а также реформы, проведенные по модернизации системы образования. На основе Национальной стратегии "Цифровой Узбекистан – 2030" и Постановления № PQ-62 от 2024 года раскрывается необходимость подготовки экономических кадров для цифровой экономики. В исследовании показаны пути повышения квалификации и развития профессиональных компетенций экономистов в использовании цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровая экономика, подготовка экономистов, профессиональная компетенция, система образования, цифровые технологии, "Цифровой Узбекистан – 2030".

Najmiddinov Dilshod Rafiddin ugli

PhD student at the Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE ECONOMISTS IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract: This article analyzes the issues of developing the professional competencies of future economists in the context of the digital economy. It examines the importance of training specialists during Uzbekistan's transition to the digital economy, as well as the reforms carried out to modernize the education system. Based on the "Digital Uzbekistan – 2030" national strategy and the PQ-62 decree issued in 2024, the necessity of training economists for the digital economy is highlighted. The study outlines ways to enhance the qualifications and professional competencies of economists in utilizing digital technologies.

Keywords: digital economy, economist training, professional competence, education system, digital technologies, "Digital Uzbekistan – 2030".

Kirish.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan,

yetarlicha kompetensiyalarga ega bo'lgan iqtisodchi kadrlar tayyorlash masalasini keying bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi 6079-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-fevral 2024-yilda qabul qilingan "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-sonli[2] va 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli qarorida[3] o'z aksini topgan.

Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalariga mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, keng ixtisosli, yuqori kompetentlikka ega bo'lgan iqtisodchi kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun ta'lim tizimini modernizatsiyalash, xususan o'quv reja hamda dasturlarni takomillashtirish, o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish, samarali ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, zarur moddiy-texnik bazani yaratish hamda undan samarali foydalanish zarur.

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqot ishi doirasida *adabiyotlar tahlili* hamda *taqqoslama tahlil* metodologiyalaridan foydalaniladi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini chuqur tahlil qilar ekanmiz, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ta'kidlanadi. Strategiyaning 2.3 – bandining "**Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**" deb nomlanishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga e'tibor qanchalik yuksak ekanini hamda ushbu sohada kadrlar tayyorlashning dolzarbligini ochib beradi. Jumladan, ushbu bandda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zarurligi bir necha jihatlarida ko'rsatilgan:

- Sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish: Bu texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi, bu esa iqtisodchi kadrlarni tayyorlashni talab qiladi.

- Logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish: Barcha ta'minot bosqichlarini avtomatlashtirish orqali amalga oshiriladi.

- Mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash: Zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi, bu esa iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirishni talab qiladi.

- Innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari: Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish uchun yuqori malakali kadrlar kerak bo'ladi.

- ERP tizimini joriy qilish: Korxonalar resurslarini boshqarish tizimini keng joriy etish.

- Sun'iy intellekt va robototexnika: Bu texnologiyalarni joriy etish uchun maxsus muhandislik va robototexnika sohalarida kadrlarni tayyorlash zarur.

Ushbu tadbirlar iqtisodchi kadrlar tayyorlashning qanchalik muhimligini ochib beradi, chunki ular raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asosiy vositalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-fevral 2024-yilda qabul qilingan "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-sonli qarorini tahlil qilar ekanmiz, mamlakat iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlashning zaruriyatini yanada teran anglash mumkin bo'ladi. Qarorda keltirilishicha:

- Iqtisodiyot uchun malakali kadrlarni tayyorlash zarurati, ushbu sohaga qo'yiladigan talablarning oshishi va o'zgarishi bilan bog'liq. Ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonida texnologik yangiliklar, zamonaviy bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash, o'quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilashni talab qiladi. Bu jarayonda mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan chet eldagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida o'qitish zarurati ham mavjud;

- Davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari xodimlarini malakasini oshirish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan o'qitish bo'yicha yagona elektron platformani yaratish kadrlar tayyorlashning dolzarb jihatlaridandir. Bu orqali davlat va mahalliy hokimiyat organlari raqamli rivojlanish bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'linmalarining mas'ul xodimlari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish mumkin bo'ladi;

- Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda global miqyosda tez rivojlanmoqda va bu o'z navbatida iqtisodiyotning turli sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlari, jumladan texnologik innovatsiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish va kommunikativ savodxonlikni oshirish, ta'lim tizimiga kiritilishi zarur. Bu o'z navbatida kadrlar tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'ladi;

- Shuningdek, iqtisodiyotning real sektorlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish, masalan, ishlab chiqarish korxonalarida addiktiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o'lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi;

- Elektron tijorat va raqamli to'lovlar tizimini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, xalqaro elektron tijorat standartlariga

moslashish va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi sharhlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati katta. Malakali kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga keng joriy etish mumkin bo'ladi. Bu esa iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa iqtisodchi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish ehtiyoji ijtimoiy-iqtisodiy tizimning takomillashuvi tufayli yuzaga keladi. Bugungi jamiyat ta'lim muassasalari oldiga iqtisodiyot tarmoqlarida yuz berayotgan o'zgarishlarga tezkorlik bilan moslasha oladigan, tezkor qarorlar qabul qila oladigan hamda nafaqat odatiy jarayonda, balki noodatiy jarayonlarda ham professional topshiriqlarni bajara oladigan kadrlar tayyorlash mas'uliyatini yuklamoqda.

Hozirgi vaqtda kompetentsiya paradigmasi oliy ta'lim tizimini qurishning asosiy metodologiyasi sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Bo'lajak iqtisodchilarning raqamli iqtisodiyot muhitida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni *taqqoslama tahlil* metodologiyasi orqali nazariy asoslarda ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagi izlanishlarni olib borishimiz mumkin bo'ladi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi va raqamli iqtisodiyot. Kasbiy kompetensiya – bu muayyan sohada bilim, ko'nikma va qobiliyatlardan iborat majmua bo'lib, insonning kasbda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishiga yordam beradi[4]. Raqamli iqtisodiyot muhitida esa kasbiy kompetensiyalar kengayib, ularga yangi talablar qo'yilmoqda. Bu, xususan, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash, ma'lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik, axborot tizimlari va raqamli marketing kabi yo'nalishlardagi bilim va ko'nikmalarni qamrab oladi.

Taqqoslama tahlil metodologiyasi yordamida kasbiy kompetensiyalarni raqamli iqtisodiyot sharoitidagi talablari bilan an'anaviy iqtisodiy sharoitdagi kompetensiyalarni solishtirish orqali, ularning qanchalik o'zgarayotganini ko'rish mumkin. An'anaviy iqtisodiyotda ko'proq moliyaviy va iqtisodiy nazariyalar, statistik usullarni bilish muhim bo'lgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchilardan texnologik bilimlar va raqamli platformalar bilan ishlash ko'nikmalari talab qilinadi.

Taqqoslama tahlil metodologiyasi asosida kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi natijasida ta'lim jarayonlarida ham raqamli texnologiyalar keng qo'llanila boshlandi. Iqtisodiy ta'limda ham bu jarayon o'z aksini topib, bo'lajak iqtisodchilarning o'qitilishida yangi metodlar, ayniqsa, raqamli vositalar va texnologiyalar orqali o'qitish kiritilmoqda. Taqqoslama tahlil metodologiyasi yordamida

raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi ikki yondashuv o'rtasida farq qilish mumkin:

An'anaviy yondashuv: Iqtisodiy nazariyalar va klassik iqtisodiy modellar asosida iqtisodchilarni tayyorlash hisoblanadi. Bu yondashuv iqtisodiy tizimning asosiy elementlarini chuqur o'rganishni ta'minlaydi, lekin raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada qamrab olmasligi mumkin.

Innovatsion yondashuv: Iqtisodchilarni raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (big data), tarmoq iqtisodiyoti kabi sohalar bilan integratsiyalashgan holda tayyorlash hisoblanadi. Bu yondashuv raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantiradi[5].

Taqqoslama tahlil metodologiyasi asosida yuqoridagi ikki yondashuvni solishtirib, raqamli iqtisodiyotda iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalari zamonaviy texnologik bilimlarni talab qilishi, shuningdek, an'anaviy iqtisodiy bilimlarning ahamiyatini yo'qotmasligi aniqlanadi. Bu jarayon kompetensiyalarning sintezini talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyotda iqtisodchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchilarni tayyorlashda quyidagi nazariy asoslarga tayanish lozim:

Interfaol o'qitish metodlari: Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar va raqamli platformalarda ishlash bo'yicha darslar. Bu metod raqamli iqtisodiyot talablariga javob beruvchi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Moslashuvchan ta'lim dasturlari: Ta'lim jarayonlarida o'zgaruvchan raqamli iqtisodiy muhitga moslashish uchun iqtisodchilarni tayyorlashning innovatsion modellarini kiritish. Bu jarayon talabalarga raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'minotlar bilan ishlash qobiliyatini o'rgatadi.

Multidissiplinar o'qitish: Iqtisodchilarning raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va informatsion texnologiyalar bilan ishlashda ko'nikmalarini rivojlantirish uchun iqtisodiy ta'limni boshqa sohalar bilan integratsiyalash. Bu nazariya raqamli iqtisodiyotning ko'p qirraliligini hisobga olgan holda, iqtisodchilarning keng qamrovli bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Taqqoslama tahlil metodologiyasi orqali raqamli iqtisodiyot muhitida bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari an'anaviy iqtisodiy ta'limning yangi sharoitlarga moslashishi va innovatsion o'qitish usullarining ahamiyatini ochib beradi. Bu jarayon orqali iqtisodchilarning raqamli texnologiyalarni qo'llashda malakali, amaliyotga yaqin va raqobatbardosh kasbiy bilimga ega bo'lishlari ta'minlanadi. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchilarni tayyorlash tizimini

takomillashtirish hamda yangi raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va natijalar.

Tahlillar. Raqamli iqtisodiyot muhitida iqtisodchilarni tayyorlashning muhim jihati – ularning kasbiy kompetensiyalarini yangi sharoitlarga moslashgan holda rivojlantirishdir. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning iqtisodchilar tayyorlash jarayoniga ta'siri, "Raqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi, va iqtisodiyot sohasidagi tegishli qarorlar asosida amalga oshiriladigan islohotlar tahlil qilindi.

Shu bilan birga, kasbiy kompetensiya tushunchasiga ham e'tibor qaratildi. An'anaviy iqtisodiy kompetensiyalar zamonaviy talablar bilan taqqoslanganda, ularning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va qo'llash kabi yangi elementlarni o'z ichiga olishi zarurligi aniqlandi. Taqqoslama tahlil metodologiyasi yordamida an'anaviy va innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi farqlar ochib berildi. Bu farqlar bo'lajak iqtisodchilar uchun qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda qanday o'qitish usullari qo'llanishi kerakligi masalalarida yaqqol ko'rindi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuv iqtisodiyotning asosiy elementlariga chuqur e'tibor qaratadi, lekin raqamli iqtisodiyot talablariga yetarlicha mos kelmaydi. Boshqa tomondan, innovatsion yondashuv raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, va tarmoq iqtisodiyoti sohalariga urg'u beradi. Bu esa raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun talab qilinadigan zamonaviy bilimlarni qamrab oladi.

Natijalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchilar uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- ✓ Raqamli texnologiyalar bilan ishlash.
- ✓ Ma'lumotlar tahlili.
- ✓ Innovatsion iqtisodiy modellarni tushunish.
- ✓ Kiberxavfsizlik va axborot tizimlari.
- ✓ Elektron tijorat va raqamli marketing.

Ushbu kompetensiyalar iqtisodchilarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga moslashishi uchun zarur.

Innovatsion o'qitish metodlarining afzalliklari shundaki, ular interfaol o'qitish metodlari orqali talabalarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash, o'quv dasturlarini raqamli iqtisodiyotga moslashtirish orqali ta'limning samaradorligini oshirish, moslashuvchan o'qitish tizimlarini tatbiq etish

Taqqoslama tahlil natijasida iqtisodchilarni an'anaviy va zamonaviy kompetensiyalarni uyg'unlashtirgan holda tayyorlash zarurligi aniqlandi. Zamonaviy sharoitlarda raqamli texnologiyalarni bilmagan iqtisodchilar mehnat bozorida kamroq talabga

ega bo'lishadi. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot muhitida o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularga zamonaviy texnologik yondashuvlarni kiritish talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyot uchun iqtisodchilarni tayyorlash siyosatining tubdan takomillashtirilishi kerak. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va tegishli davlat qarorlari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodchilarni raqamli texnologiyalarga oid bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash orqali mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Amaliy takliflar:

➤ O'quv reja va dasturlarni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish.

➤ Innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish.

➤ Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarini rivojlantirish.

➤ Mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilib, samarali o'qitish usullarini tatbiq etish.

Xulosa.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'quv dasturlarini modernizatsiyalash, interfaol o'qitish metodlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali iqtisodchilarni raqamli iqtisodiyot talablari asosida tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, iqtisodchi kadrlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotda malakali kadrlar yetishmovchiligi masalasi o'ta dolzarb bo'lib, bu raqamli texnologiyalarni o'zlashtirgan, innovatsion va kreativ iqtisodchilarni tayyorlash zaruratini tug'diradi. Bunday mutaxassislar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynashi kutiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotda iqtisodchilarni tayyorlash masalasi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodchilarni raqamli texnologiyalar asosida tayyorlash nafaqat O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishga, balki xalqaro bozor talablari bilan hamohang bo'lgan yuqori malakali kadrlarni yetkazib berishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davom etar ekan, bu jarayonda malakali kadrlarni yetkazib berish iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlaydi va mamlakatning global iqtisodiyotda raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi 6079-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7-favral 2024-yilda qabul qilingan "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-sonli qarori.
3. 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli qarori.
4. Cheetham, G., & Chivers, G. (1996). "Towards a holistic model of professional competence." *Journal of European Industrial Training*, 20(5), 20-30. doi:10.1108/03090599610119692.
5. Xolbutayevich O. T. et al. FORMATION OF INFORMATIONAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT // *Ilkogretim Online*. – 2021. – T. 20. – №. 4.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent
alamjonibragimov@gmail.com

O'QITUVCHINING TRAYEKTORIYASI: NAZARIYADAN AMALIYOTGA BOSQICHMA-BOSQICH YONDASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqola o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, malakasini oshirish tizimining samaradorligi, ularning qay darajada kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlarini qanoatlantirilishi hamda individual xususiyatlarining e'tiborga olinish masalalari yechimiga bag'ishlangan. Jumladan, tizimga o'qituvchilar malakasini oshirishning manzilliligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan texnologiyalarni joriy qilish doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari taqdim qilingan. Shuningdek, maqolada malaka oshirish ta'limini individuallashtirish, uning mohiyati, darajalari, o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuzilmasi va loyihalash bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: individuallashtirish, individual ta'lim dasturi, individual ta'lim marshruti, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, Gant diagrammasi.

Ибрагимов Адамжон Амриллоевич

Центр педагогического мастерства Самаркандской области
доктор педагогических наук, доцент

ТРАЕКТОРИЯ УЧИТЕЛЯ: ПОЭТАПНЫЙ ПОДХОД ОТ ТЕОРИИ К ПРАКТИКЕ

Аннотация. Данная статья посвящена решению вопросов непрерывного профессионального развития учителей, эффективности системы повышения квалификации, удовлетворения их профессиональных трудностей и потребностей, учета их индивидуальных особенностей. В частности, представлены результаты исследований, проведенных в рамках внедрения технологий, направленных на обеспечение адресности и непрерывности в систему повышения квалификации учителей. Также, в статье описаны условия индивидуализации повышения квалификации, ее сущность, уровни, структура индивидуальной траектории профессионального развития педагога, этапы проектирования.

Ключевые слова: индивидуализация, индивидуальная образовательная программа, индивидуальный образовательный маршрут, индивидуальная траектория профессионального развития, диаграмма Ганта.

Ibragimov Alamjon Amrilloevich

Pedagogical skill center of Samarkand region
director, Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor

TEACHER'S TRAJECTORY: A STEP-BY-STEP APPROACH FROM THEORY TO PRACTICE

Annotation. This article addresses the issues of teachers' ongoing professional development, aims to enhance the efficacy of the professional development system, responds to their professional difficulties and requirements, and considers their distinct qualities. The research findings regarding implementing technologies designed to enhance the addressability and continuity of teacher training were submitted to the system. The article delineates the individualization of in-service education, encompassing its essence, levels, the framework of the teacher's individual professional development trajectory, and the stages of design.

Keywords: individualization, individual education program, individual education route, individual professional development trajectory, Gant chart.

Kirish.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat, jamiyat va o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, malaka oshirish ta'limi sifatiga bo'lgan

ehtiyojlarini to'laligicha qanoatlantirish muammosining dolzarbligini belgilamoqda. Mazkur holatda muammoning samarali yechimiga malaka oshirish jarayonini pedagoglarga o'z ichki potentsiali va imkoniyatlarini

ro'yobga chiqarish, kasbiy defitsitlarini anglash va uni korreksiyalashga sharoit yaratuvchi individuallashtirish orqali erishish mumkin.

Pedagogik ensiklopediyada ko'rsatilishicha, individuallashtirish deganda har bir ta'lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinadigan, ularning o'quv-biluv faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Individuallashtirilgan o'qitish esa o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida tanlangan o'qitish yo'llari va turli o'quv-uslubiy, psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanishidir [7, 83-84-b.]. Shunindек, jarayonda o'qitish usuli va sur'ati ta'lim oluvchilarning individual farqlari, o'qishga bo'lgan qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga ko'ra tanlanishi inobatga olinadi [8,201-b.].

Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili.

E.V.Bondarevskiy, S.G.Vershlovskiy, V.I.Zagvyazinskiy, D.M.Zembitskiy, V.A.Kan-kalik, A.V.Petrovskiy, M.M.Potashniklarning tadqiqotlarida pedagogik professionalizm shakllanishi va rivojlanishining ommaviy uslublaridan individual uslublariga o'tish zaruriyati va aniq istiqbollari ko'rsatilgan. Tahlillar va tadqiqotlar mazkur muammolarni yechishda tayanch nuqta bo'lib pedagogning o'z pozitsiyasi, yangicha pedagogik tafakkurga ega bo'lishga xohishi va qobiliyati, alohida pedagogik dasturlar va texnologiyalarni tanlash va ishlab chiqish ko'nikmasi belgilanishini ko'rsatadi [2, 78-b.].

I.M.Osmolovskaya fikricha individuallashtirish ta'limni tabaqalashtirishning muhim shakli bo'lib, unda o'quv jarayoni nafaqat guruhning, balki har bir alohida olingan ta'lim oluvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi. I.E.Unt individuallashtirishni o'qitishning qanday shakl va metodlaridan foydalanilishidan qat'iy nazar ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish sifatida tushunadi [5, 184-b.].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, malaka oshirish ta'limini individuallashtirish deganda o'qituvchilarning potensial imkoniyatlarini rivojlantirishni,

individual xususiyatlari, ehtiyojlari va motivlarini inobatga oladigan, shaxsiy va kasbiy sifatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan hamda o'z oldiga qo'ygan ta'limiy maqsad va vazifalari asosida individual ta'lim tarektoriyasini qurishga sharoit yaratiladigan tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini tushunamiz.

Keyingi davrlardagi ilmiy adabiyotlarda o'qituvchilar kasbiy rivojlanishi va uzluksiz malaka oshirishi tizimini individuallashtirish jarayonlarini tadqiq qilishda "individual ta'lim dasturi, individual ta'lim marshruti, individual ta'lim trayektoriyasi" kabi atamalar tez-tez qo'llanilmoqda.

Tadqiq va natija.

Mavzuga doir ilmiy izlanishlar tahlili [1, 3, 4, 6, 9, 11, 10, 12] natijasida tadqiqotchilar tomonidan ushbu tushunchalarni izohlashda yakdillik yetishmasligi va ayrim holatlarda ular sinonim sifatida, ayrim holatlarda esa bir-biridan ba'zi xususiyatlari bilan farq qilishi ko'rsatilganligi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotimiz davomida mazkur tushunchalar mohiyati va ularga yondashuvlarga oid ilmiy-metodik adabiyotlarning mazmuniy tahlili quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon yaratdi (1-rasm):

Individual ta'lim dasturi – pedagogning kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklari tashxisi natijalari, qiziqishlari va motivlari asosida mustaqil tuziladigan, shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan, uzluksiz ta'limning turi va shakllarini maqbullashtirish imkoniyatini beruvchi hamda mustaqil ta'limni nazarda tutuvchi dasturni ifoda etadi.

Individual ta'lim marshruti – pedagogning individual ta'lim dasturini vaqt mezonlari va bosqichlariga bog'liq holda o'zlashtirish izchilligini maslahatchining hamrohligida amalga oshirishini hamda ta'lim jarayonida mavjud sharoitlarga moslashuvchanligini belgilaydi.

Individual ta'lim trayektoriyasi – pedagogning ta'lim jarayonida shaxsiy potensialini amalga oshirishi, kasbiy takomillashuvi, o'z mavqeini belgilashi va o'zini namoyon qilishiga doir belgilangan, anglangan va tajribalariga asoslangan o'ziga xos alohida harakat yo'li.

Individual ta'lim dasturi

Individual ta'lim marshruti

Individual ta'lim trayektoriyasi

1-rasm. Individual ta'lim dasturi, individual ta'lim marshruti va individual ta'lim trayektoriyasi tushunchalarining o'zaro munosabat sxemasi.

Demak, pedagogning kasbiy rivojlanishida o'z ta'lim faoliyatini loyihalashning bir-birini taqozo qiluvchi uchta darajasi ajratildi. Individual ta'lim trayektoriyasi

individual ta'lim dasturi va marshrutining mavjudligini (mazmuni belgilash, rejalashtirish, tahlil) hamda uni


amalga oshirishning puxta ishlangan usullarini (ta'lim jarayonini tashkil qilish texnologiyasi) nazarda tutadi.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi malaka oshirish muhitining chegaralari va imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularda malaka oshirish motivlarining mustahkamlanishi, kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirishning qulay va samarali vositalarini tanlash va amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, pedagoglarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari, shaxsiy motivlari, tajribasi, malaka darajasi va ijtimoiy imkoniyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish undan kasbiy defitsitlari darajasini anglash va baholay olish, loyihalash va rivojlanish nuqtalarini oldindan ko'ra olish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi. Tadqiqot davomida malaka oshirish kurslari tinglovchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari pedagoglar individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va amalga oshirishga ijobiy qarashlari va unga

ehtiyojlari borligini ko'rsatdi. "Siz individual ta'lim trayektoriyasini tuzish orqali malaka oshirishni samarali deb hisoblaysizmi?" degan savolga qatnashchilarning aksariyati ijobiy javob bergan bo'lsalarda, ularning 69%idan ortig'i mustaqil ravishda individual ta'lim trayektoriyalarini tuza olmasliklarini belgilaganlar. Bu esa pedagoglarning malaka oshirish shakli, usullari va vositalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasliklari hamda individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va amalga oshirish jarayoniga ilmiy-metodik hamrohlikni uyushtirish lozimligini tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda bu jarayonda malaka oshirish ta'lim muassasasi o'qituvchilari, metodistlar, tegishli malakaga ega mutaxassislar va pedagogning yaqin o'zaro ta'siri ahamiyatga ega.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzilmaviy jihatdan mazmunga doir, korreksion-tahliliy va tashkiliy komponentlarga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuzilmasi

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasining *mazmunga doir komponenti* malaka oshirish ta'limi mazmunini belgilaydi. Uning tayanch qismi Davlat talablarida belgilangan va ta'lim-tarbiya sifati hamda o'qituvchi kompetentligini ko'tarishga qaratilgan modullarni o'zlashtirishni, variativ qismi esa pedagogning kasbiy ehtiyojlari tashxisi natijalari va shaxsiy qiziqishlariga ko'ra tanlovi asosida belgilanadigan modullarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Bu modullar pedagogning individual ta'lim dasturida o'z ifodasini topadi.

Korreksion-tahliliy komponent pedagogning kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari tashxisi, faoliyat davomida doimiy tahlil, o'zini-o'zi tahlil hamda natijalarga ko'ra individual ta'lim trayektoriyasiga o'zgartirishlar kiritishni belgilaydi, shuningdek, tashkiliy komponentni moslashtirishga yo'naltiriladi. Shu o'rinda pedagogga individual ta'lim dasturini tuzish va marshrutini belgilashda ilmiy-metodik hamrohlik amalga oshiriladi.

Chunki, individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish jarayonida malaka oshirish ta'limi muassasasi o'qituvchisi va metodistlarning funksional vazifalari o'zgarib, o'zaro ta'sir funksiyasi maslahatchi, tahlilchi, tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchiga o'tadi.

Tashkiliy komponent belgilangan o'quv mazmunini o'zlashtirishning metodik va texnologik usullari yig'indisini, pedagogning ta'lim faoliyati shakli, metodlari, vositalari va qo'llab-quvvatlovchi instrumentlari kabi metodik tizimni ifodalaydi.


Tavsiyaviy loyihalash. Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashda pedagog va maslahatchi hamkorlikda ishlashlari va quyidagilarni inobatga olishlari lozim bo'ladi:

- umumiy kasbiy tayyorgarligi, ish tajribasi, kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari;
- kasbiy va ijtimoiy faoliyati holati;
- psixologik xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, emotsionalligi va b.), kommunikativ xususiyatlari;

- kasbiy, ijtimoiy va bilish motivlarining shakllanganligi va turg'unligi;
- optimal qarorlar qabul qila olishi hamda o'zi uchun eng qulay va samarali shakl va usullarni tanlay olishi;

- refleksiyasi, faoliyati mazmuni va defitsitlarini anglashi va b.

Individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va amalga oshirish algoritmi quyidagi rasmda keltirilgan (3-rasm):



3-rasm. Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va amalga oshirish algoritmi

Tashxis. Birinchi bosqichda o'qituvchining boshlang'ich holati, ya'ni ayni vaqtdagi kasbiy mahorati darajasi, kasbiy qiyinchiliklari, ehtiyojlari va qiziqishlari, sub'ektiv pozitsiyasi, intellektual-ijodiy faoliyatining individual uslubi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Buning uchun kompleks kasbiy tashxis o'tkaziladi. Tashxis anketa, test, suhbat metodlaridan foydalanib maslahatchi bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, pedagogning o'z-o'zini tashxislash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholay olish tajribasi hamda shaxsiy potentsiali, kasbiy defitsitlari va imkoniyatlari chegarasini anglashi va turg'un motivga ega bo'lishi juda ham muhim. Chunki, pedagog o'zini kasbiy anglashi orqaligina faoliyatidan maqsad va vazifalariga erishish vektorini ko'ra olishi mumkin.

Maqsadni aniqlashtirish. Mazkur bosqichda o'tkazilgan tashxis natijalariga ko'ra malaka oshirish maqsadi (malaka oshirish maqsadini individual tanlovi) va kutiladigan natijalar belgilanadi. Maqsadni belgilashda nafaqat pedagogning kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlari, balki tashqi talablar (davlat va jamiyat buyurtmasi, ta'lim muassasasi ehtiyojlari, ota-onalar, o'quvchilar takliflari) mutanosibligi ham inobatga olinadi.

Mazmunni shakllantirish. O'qituvchi individual ta'lim trayektoriyasini mazmunini loyihalashda mavjud resurslar moslashtiriladi. Avval malaka oshirish o'quv rejalarining invariant qismi, ya'ni o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan (tayanch) modullar bilan tanishtiriladi, keyin esa maslahatchi bilan birgalikda dasturning variativ qismi shakllantiriladi. Bu qism malaka oshirish o'quv rejalarining variativ modullari, turli metodik tadbirlarda ishtiroki, loyihalar tayyorlash (yoki ilg'or tajribasini) va tatbiq qilish, mustaqil ta'lim va boshqa pedagogik faoliyatiga doir

ishlardan iborat bo'lishi mumkin. Loyihalangan mazmun qo'yilgan maqsadga erishish uchun egallanadigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni to'liq qamrab olishi zarur.

Dasturning metodistlar va pedagogning mutaxassisligiga mos bo'lgan kafedra o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqilishi zaruriy taomil bo'lib, unda invariant modullar soni va soatlari miqdori aniq ko'rsatiladi va ixtiyoriy miqdordagi variativ modullar belgilanadi.

Marshrutni belgilash. Bu bosqichda o'qituvchining malaka oshirish ta'lim ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sir mexanizmi va harakat yo'nalishlari belgilanadi. Unda pedagog maslahatchi bilan hamkorlikda malaka oshirish shakllarini (an'anaviy yoki masofadan malaka oshirish kurslari, harakatdagi o'quv mashg'ulotlari, ustoz-shogird tizimi, stajirovka, bilvosita malaka oshirish, mahorat maktabi, turli metodik tadbirlar va b.), vaqt mezonlari, hisobot, tahlil va nazorat turlarini belgilaydi. Individual ta'lim marshruti ta'lim muassasasi rahbari tasdig'idan o'tkazilib, tegishli kelishuvlar vositasida me'yoriy jihatdan mustahkamlangandan so'ng uni amalga oshirish jarayoni boshlanadi.

Amalga oshirish. Belgilangan individual ta'lim marshruti maslahatchining ilmiy-metodik hamrohligida va tajribalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu bosqich juda murakkab bo'lib, pedagogning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida sabotliligi va mas'uliyatni zimmasiga ola bilishini belgilaydi. Pedagogning mahorati individual faoliyatini maqsadli tashkil qilish, samarali amalga oshirish vositalarini qidirish, faoliyatini tahlil qilish mezonlarini belgilay olishi, tahrir qilishi va baholay olishi, aniq muddatlar bilan ishlay olishida ko'rinadi. Zarur

hollarda maslahatchi bilan birgalikda qo'shimcha mutaxassislar jalb qilinadi yoki maslahatlashiladi.

Jarayonda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi uning maqsadi va mazmuni, amalga oshirish strategiyalari va taktikasi tahriri natijasida o'zgarishi mumkin. Marshrut davomida pedagog malaka oshirish shakllari (masalan, an'anaviydan masofaviyga yoki teskarisi), tanlangan variativ modullar (masalan, qaysidir modullardan voz kechish va boshqasini tanlash) va belgilangan vaqtni o'zgartirishi mumkin.

Tahlil va refleksiv baholash. Bu bosqich yakuniy bo'lib, unda jarayondagi faoliyatning ta'limiy mahsulotlari namoyon qilinadi, natijalar tahlil qilinadi va qo'yilgan maqsadlarga solishtiriladi. Refleksiya individual suhbat, o'z-o'zini baholash va tahlil qilish, o'zaro baholash va nazorat, o'zgarishlarni taqqoslash, refleksiv esse shakllarida tashkil etiladi.

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini rejalashtirishda Gant diagrammasidan foydalanish birmuncha afzalliklarga ega. Gant diagrammasi – ustunchalar ko'rinishidagi diagramma(gistogramma)larning keng tarqalgan shakli bo'lib, biror bir loyiha rejasi yoki ish grafigini yaqqol tasvirlashda foydalaniladi. Loyihalarni rejalashtirish metodi sifatida qilinadigan ishlar ro'yxati, topshiriqlar va

harakatlarning vaqt mezonlarini, bajarilish ketma-ketligini ifodalaydi. Loyihalarni boshqarishda bosqichlar, vazifalar va harakatlarni aks ettirishning standart tarkibiy qismi va muhim instrument bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa.

O'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashda unga ilmiy-metodik hamrohlik qilish, maslahatchi va tegishli mutaxassislar bilan faol o'zaro ta'sirni vujudga keltirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan metodik tadbirlar (an'anaviy va masofaviy malaka oshirish kurslari rejasi, metodik tuzilmalarning tadbirlari, harakatdagi o'quv mashg'ulotlari, virtual pedagogik uyushmalar, konferensiya, forum, seminar va b.) haqida aniq manzilli ma'lumotlar yetkazish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy rivojlanish individual ta'lim trayektoriyasi pedagogga kasbiy kompetentligini takomillashtirishga faol intilish, tezkor refleksiv rostdash va ilmiy-metodik hamrohlik asosida kasbiy va shaxsiy individualligini ko'rsatish va isbotlash, qadriyatli-ongli dunyoqarashi va e'tiqodini yuksaltirish, ilg'or tajribalarini namoyon qilish va ommalashtirish, alohida o'ziga xos bo'lgan kasbiy mahoratini o'stirishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вдовина С.А. Кунгурова И.М. Сущность и направления реализации индивидуальной образовательной программы// Интернет журнал «Науковедение». – 2013. – № 6. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://науковедение.ру/ПДФ40ПВН613.пдф> (дата обращения: 19.09.2016).
2. Возгова З.В. Деятельностный подход к моделированию региональной системы непрерывного повышения квалификации научно-педагогических работников: дисс... док.пед.наук. – Москва, 2015. – 388 с.
3. Гончарова А.С., Чумичева Р.М. Организация индивидуальной образовательной траектории обучения бакалавров // Вестник НГГУ. – 2012. – № 2. – С.3-11.
4. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari(tarix fani o'qituvchilari misolida): Ped. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 2007. – 176 b.
5. Кутузов А.В. Сущность индивидуализации образования и современной школе/ Учёные записки Забайкальского государственного университета. Серия: педагогические науки. – 2012. - № 5. – С. 183-190.
6. Маскаева А.М. Проектирование ИОТ обучающихся // Инициативы/ 21 века. – 2010. - №3. – С. 23-24.
7. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
8. Педагогическая энциклопедия. Т. 2. – М.: Академкнига, 2004. – 456 с.
9. Стерлягова Э.В. Обучение старшеклассников по индивидуальным учебным планам // Педагогика. – 2014. – № 2. – С. 40-44.
10. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: Изд-во МГУ, 2003. – 416 с.
11. Шапошникова Н.Ю. Индивидуальная образовательная траектория студента: анализ трактовок понятия // Педагогическое образование России. – 2015. – № 5. – С. 39-44
12. Щедровицкий Г.П. Очерки по философии образования. – М.: Издательская корпорация "Логос", 1993. – 235 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xamidjanov Abdulaziz Usubjon o'g'li

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqot instituti doktoranti (DSc)

Xalqaro toifadagi sport ustasi

e.mail: abdulaziz19931910@mail.ru

UDK: 796.015.82:89

SPORT KURASHI TURLARI BILAN SHUG'ULLANUVCHI SPORTDA KAMOLOTGA ERISHISH HAMDA OLIY SPORT MAHORATI BOSQICHIGA SARALASHDA MUSOBAQA FAOLIYATI KO'RSATKICHLARINING QIYOSIY STATISTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada sport kurashi turlari bilan shug'ullanuvchi sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga saralashda musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili texnik harakatlar uchun amalga oshirilgan urinishlar soni, baholangan muvaffaqiyatli urinishlar soni, hujum ishonchliligi, o'rtacha baho, hujum darajasi, hujumlar oralig'idagi vaqtlarni hisoblash formulalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sport kurashi, sportda kamolotga erishish, oliy sport mahorati, bosqich, saralash, musobaqa faoliyati, ko'rsatkichlar, qiyosiy statistik tahlil.

Хамиджанов Абдулазиз Усубжон оглы

Докторант научно-исследовательского института физической культуры и спорта (DSc) Мастер спорта международного класса

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ОТБОРЕ НА ЭТАПЫ СПОРТИВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И ВЫСШЕГО СПОРТИВНОГО МАСТЕРСТВА ЛИЦ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТИВНЫМИ ВИДАМИ БОРЬБЫ

Аннотация: в данной статье представлен сравнительный статистический анализ показателей соревновательной деятельности при отборе на этапы совершенствования и высшего спортивного мастерства в спорте, занимающемся спортивными единоборствами, разработаны формулы расчета количества попыток технических действий, количества оцененных успешных попыток, надежности атаки, средней оценки, уровня атаки, времени между атаками.

Ключевые слова: Спортивная борьба, спортивная зрелость, высшее спортивное мастерство, этап, квалификация, соревновательная деятельность, показатели, сравнительный статистический анализ.

Khamidzhanov Abdulaziz Usubjan ugli

Doctoral student of the scientific research institute of physical education and sports(DSc) Master of sports in international category

COMPARATIVE STATISTICAL ANALYSIS OF THE INDICATORS OF COMPETITION ACTIVITY IN ACHIEVING MATURITY IN SPORTS ENGAGED IN SPORTS WRESTLING AND QUALIFYING FOR THE STAGE OF HIGH SPORTS PERFORMANCE

Annotation: in this article, a comparative statistical analysis of the performance indicators of the competition in achieving perfection in the sport of sports wrestling and qualifying for the stage of high sportsmanship, formulas for calculating the number of attempts made for technical actions, the number of successful Beats evaluated, attack reliability, average grade, attack rate, time between attacks were developed.

Keywords: Sports wrestling, achieving perfection in sports, higher sports skills, stage, qualification, competition activities, indicators, comparative statistical analysis.

Kirish.

Jahonda sport kurashi turlarining inson jismoniy kamolotiga hissasi, sport etikasini to'liq ifodalash kabi xususiyatlarini tadqiq etish, samaradorligini isbotlash

hamda yanada rivojlantirish, sport kurashi turlarida sportchilarni tayyorlash tizimini ilmiy asoslash yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, kurashning barcha turlariga bolalarni saralashda funksional va jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik harakatlar va jismoniy sifatlarini rivojlanganligiga asoslangan saralash tizimi yaratilgan. Ammo sport kurashi turlarini o'rganish, o'rgatish hamda jahon miqyosida ommalashtirish, sport turi bo'yicha yosh musobaqachilarni saralash va yo'naltirishda, jismoniy imkoniyatlarini baholash metodlari shu o'rinda sport yutuqlarini bashorat qilishga qaratilgan muammolar yetarlicha o'rganilmagan.

Adabiyotlar tahlili.

Xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhiga ko'ra dunyoda sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirish ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: sportga saralash mexanizmi ishlab chiqilgan natijada sport turlariga saralash bosqichlarining uchun kompleks testlar tartiblashtirilgan Rossiya Federatsiyasi Voronej davlat institutida (Rossiya), Sportga yo'nalishi va saralashning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan, natijada sport turlariga yo'naltirish mexanizmlari takomillashtirilgan Moskva davlat jismoniy tarbiya akademiyasi, (Rossiya), kurashga nomzodlarni tanlash mezonlari ishlab chiqilgan natijada sport kurashi turlariga yo'naltirishda yosh xususiyatlari va tayyorgarlik testlari muvofiqlashtirilgan Quy Dunay "Galati universiteti (Ruminiyaning Galats sh), Ixtisoslashgan dinamik o'yinlardan foydalangan holda erkin kurashga saralash mezonlari aniqlangan natijada erkin kurashga oid o'yinlardan foydalangan holda dastlabki saralash tizimi yaratilgan.


Tadqiqotning metodologiyasi.

Davlat jismoniy tarbiya va Sport universiteti, (Moldova), Tana massasini kamaytirishning anaerobik kuchga ta'siri va yunon-rum kurashchilarining tanlangan somatik xususiyatlari, natijada yunon-rum kurashchilarini namunaviy model ko'rsatkichlarga ega vazn bo'y indeksleri ishlab chiqilgan Polsha davlat jismoniy tarbiya universiteti, (Varshava, Polsha), sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirishning metodologik asoslari aniqlangan, natijada sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirishda metodik tavsilar ishlab chiqilgan Markaziy Amerika Managua universiteti (AQSH), kurash sport turiga ixtisoslashgan sportchilarda musobaqalarda tana vaznini tartibga solishning ahamiyati aniqlangan, natijada yuqori malakali kurashchilarni namunaviy vazn-bo'y ko'rsatkichlari tartiblashtirilgan Yong in universiteti (Janubiy Koreya), sportchilarning sport natijalari va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda saralash mezonlari ishlab chiqilgan, natijada jismoniy

rivojlanishning saralash va yo'naltirishga baholash mezonlari ishlab chiqilgan Nigeriya Amerika universiteti (AQSH), sport kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini tahlil qilish mezonlari ishlab, natijada chiqilgan, natijada kurashchilarni saralashda morfofunktsional tiplarga ajratish mezonlari ishlab chiqilgan P.F.Lesgaft nomidagi Milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti, (Sankt-Peterburg) yuqoridagi keltirilgan yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida o'rganilib olingan natijalar yuqori reytingda turuvchi scopus, web of scines jurnallarida e'lon qilingan.

Tahlillar va natijalari

Sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichidagi sport kurashi turlariga saralash samadorligini aniqlash maqsadida sport kurashi turlarida musobaqa faoliyatini (MF) baholash maqsadida texnik-taktik tayyorgarlikni baholovchi va nazorat qiluvchi texnik-taktik harakatlarni baholovchi shkala 6 mezon ishlab chiqildi. Jumladan, texnik xarakterlar uchun amalga oshirilgan urinishlar soni (m), texnik harakatlar uchun baholangan muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), hujum ishonchliligi (Ha), urinishlar soni (m), muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), $Ha = n/m$ Hujum darajasi (W), o'rtacha baho (E) hujum oralig'idagi vaqt (t), $A = E/t$, yutib olingan ball (A), umumiy yutib olingan ballar yig'indisi (A), $W = Ha * A$. Hujum ishonchliligi (Ha), muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), hujum oralig'idagi vaqt (t) $Ha = n/t$, ushbu ma'lumotlarni asoslash va tahrirlashda yuqorida ko'rsatilgan formulalar asosida amalga oshirildi (5.5.1-jadvalga qarang).



7-rasm. Sport kurashi turlariga saralashda musobaqa faoliyatini (MF) tahlil olib borish

1-jadval

Sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichidagi sport kurashi turlariga saralashda musobaqa faoliyatini (MF) tahlil olib borish mezonlari

№	Texnik xarakterlar nomi va formulasi	Baholash shkalasi				
		1	2	3	4	5
1	Texnik harakatlar uchun amalga oshirilgan urinishlar soni (m)	14	12	10	8	6
2	Texnik harakatlar uchun baholangan muvaffaqiyatli urinishlar soni (n)	10	8	5	3	2
3	Hujum ishonchliligi (Ha), urinishlar soni (m), muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), $Ha=n/m$	0,7	0,6	0,5	0,4	0,3
4	Texnik harakatlar uchun o'rtacha baho (A), umumiy ballar yeg'indisi (E) hujum oralig'idagi texnik harakatlar vaqti (t), $A=E/t$	2,3	2	1,6	1,3	1
5	Hujum darajasi (W), texnik harakatlar uchun o'rtacha baho (A), hujum ishonchliligi (Ha) ga ko'paytiriladi $W=Ha*A$	1,6	1,2	0,8	0,5	0,3
6	Muvofaqqiyatli hujum oralig'i (Ia), muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), hujum oralig'idagi vaqt (t) $Ia=n/t$	2	1,6	1,3	1,0	0,6

Sport kurashi turlariga saralash samadorligini aniqlashda musobaqa faoliyatini (MF) biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mezonlar va baholash shkalasi yordamida saralash samadorligi tadqiqot boshida hamda oxirida asoslanadi

Nazorat guruhida sport maktabi muassasalari uchun mo'ljallangan an'anaviy dastur va nizom asosida, tajriba guruhida esa biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va taklif qilingan metodika asosida o'tkazildi.

Sport kurashi turlariga saralab olishda musobaqa faoliyatini tekshirish olingan texnik harakatlarni bajarish uchun urinishlar soni tadqiqot boshida, tajriba guruhida $6,1 \pm 0,5$ tani, nazorat guruhida esa $6,3 \pm 0,6$ tani tashkil qildi. Olingan ko'rsatkichlar tahlili ko'rsatkichlar orasidagi ishonchli farqlar kuzatilmadi $t=1,37$; $P>0,05$. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot yakunida tajriba guruhida $9,2 \pm 0,88$, nazorat guruhida esa $7,9 \pm 0,80$ tani tashkil qilib ko'rsatkichlar ishonchliligi $t=6,75$; $P<0,001$ (5.5.1-rasm. 2-jadvalga qarang).

The screenshot shows a web browser with several tabs open. The active page is 'Mantine', which displays a table of sports statistics. The table has columns for '№', 'Ф.И.Ш', 'Харакат белгиси', 'Харакат вақти', 'Харакат бали', and 'Натижа'. Below this, there is a summary table titled 'TTT kўrsatkichlari belgilarini' with columns for '№', 'Sport kurashi turlari', and various statistical indicators (m, n, Ha, E, a, Wa, N, N1, L, H3, СПР, K3, P1, P, C1, F, F1, M, Ma, R, d).

№	Sport kurashi turlari	TTT kўrsatkichlari belgilarini																				
		m	n	Ha	E	a	Wa	N	N1	L	H3	СПР	K3	P1	P	C1	F	F1	M	Ma	R	d
1	Erkin kurash	6.25	3.1	0.5	4.3	1.4	0.7	3.1	6.3	4.3	0.5	1.4	0.7	0	0	1.2	0.3	0.7	6.3	4	0.9	0.1
2	Yunon-rum kurashi	5.875	2.9	0.5	4.8	1.7	0.8	2.9	5.9	4.8	0.5	1.7	0.8	0	0	1	0.2	0.5	5.9	2.6	0.8	0
3	Dzyudo	6.125	3	0.5	4.1	1.5	0.7	3	6.1	4.1	0.5	1.5	0.7	0	0	1	0.2	0.6	6.1	2.4	0.9	0
4	Belbog'li kurash	5.75	2.6	0.5	4.5	1.7	0.8	2.6	5.8	4.5	0.5	1.7	0.8	0	0	1.3	0.3	0.6	5.8	4	0.8	0.1
5	Kurash	6	4.1	0.7	6.5	1.6	1.1	4.1	6	6.5	0.7	1.6	1.1	0	0	1	0.5	0.7	6	4.1	0.9	0.1
6	Bel olish kurashi	6.375	3.6	0.6	5.6	1.6	0.9	3.6	6.4	5.6	0.6	1.6	0.9	0	0	1.1	0.4	0.7	6.4	4.1	0.9	0.1

1-rasm. Sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga sport kurashi turlariga saralashda musobaqa faoliyati (MF) ko'rsatkichlarini aniqlovchi komyuter dasturi

Texnik harakatlarni bajarish uchun baholangan (muvaqqiyatli) urinishlar soni tajriba boshida, tadqiqot guruhida $4,1 \pm 0,4$ tani, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich bo'yicha $3,9 \pm 0,5$ tani tashkil qilib $t=1,75$; $P>0,05$. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot so'ngida, tajriba guruhida $6,3 \pm 0,82$ tani, nazorat guruhida esa $5,3 \pm 0,76$ tani tashkil qildi, tajriba guruhida nazarat guruhiga nisbatan ancha

yuqori ko'rsatkich qayd etishdi va bu statistik tahlillar bilan tasdiqlanadi $t=4,66$; $P<0,001$.

Hujum ishonchliligi, urinishlar soni, muvaqqiyatli urinishlar soni ushbu test natijalariga ko'ra tadqiqot boshida tajriba guruhida $0,51 \pm 0,06$ ni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida esa $0,48 \pm 0,05$ ni tashkil qildi $t=1,59$; $P>0,05$.

2-jadval

Sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga sport kurashi turlariga saralashda pedagogik tajriba boshida musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili (n=36)

№	Sport kurashi turlarida texnik xarakterlari nomi va formulasi	Tajriba guruhi n=18		Nazorat guruhi n=18		t	P
		$(\bar{X} \pm \sigma)$	V	$(\bar{X} \pm \sigma)$	V		
1	Texnik harakatlar uchun amalga oshirilgan urinishlar soni (m)	$6,1 \pm 0,5$	8,5	$6,3 \pm 0,6$	9,9	$1,37$	$>0,05$
2	Texnik harakatlar uchun baholangan muvaqqiyatli urinishlar soni (n)	$4,1 \pm 0,4$	11,7	$3,9 \pm 0,5$	13,2	$1,75$	$>0,05$
3	Hujum ishonchliligi (Ha), urinishlar soni (m), muvaqqiyatli urinishlar soni (n), $Ha=n/m$	$0,51 \pm 0,06$	13,3	$0,48 \pm 0,05$	10,7	$1,59$	$>0,05$
4	Texnik harakatlar uchun o'rtacha baho (A), umumiy ballar yeg'indisi (E) hujum oralig'idagi texnik harakatlar vaqti (t), $A=E/t$	$1,4 \pm 0,17$	12,1	$1,5 \pm 0,21$	14,1	$1,56$	$>0,05$
5	Hujum darajasi (W), texnik harakatlar uchun o'rtacha baho (A), hujum ishonchliligi (Ha) ga ko'paytiriladi $W=Ha \cdot A$	$0,7 \pm 0,09$	12,6	$0,67 \pm 0,06$	9,50	$1,80$	$>0,05$
6	Muvofaqqiyatli hujum oralig'i (Ia), muvaqqiyatli urinishlar soni (n), hujum oralig'idagi vaqt (t) $Ia=n/t$	$1,06 \pm 0,10$	10,2	$1,02 \pm 0,11$	10,9	$1,49$	$>0,05$

Tadqiqot so'ngida tajriba guruhida $0,61 \pm 0,06$ ni, nazorat guruhida esa $0,56 \pm 0,04$ ni tashkil qildi ko'rsatkichlar orasidagi statistik ishonchli farqlar $t=3,43$; $P<0,001$ kuzatildi (5.5.1-rasmga qarang).

Hujum darajasi, o'rtacha baho hujum oralig'idagi vaqt ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot boshida tajriba guruhida

$1,4 \pm 0,17$ ni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida $1,5 \pm 0,21$ ni tashkil qildi ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar kuzatilmadi $t=1,56$; $P>0,05$. Yuqorida ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot ohirida $2,1 \pm 0,27$ tani, nazorat guruhida $1,9 \pm 0,16$ tani tashkil qildi, olingan ma'lumotlarga ko'ra statistik farqlar kuzatildi $t=3,83$; $P<0,001$.

3-jadval


Sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga sport kurashi turlariga saralashda pedagogik tajriba boshida musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili (n=36)

№	Sport kurashi turlarida texnik xarakterlari nomi va formulasi	Tajriba guruhi n=18		Nazorat guruhi n=18		t	P
		$(\bar{X} \pm \sigma)$	V	$(\bar{X} \pm \sigma)$	V		
1	Texnik harakatlar uchun amalga oshirilgan urinishlar soni (m)	$9,2 \pm 0,88$	9,4	$7,9 \pm 0,80$	10,9	6,76	$<0,001$

2	Texnik harakatlar uchun baholangan muvaffaqiyatli urinishlar soni (n)	6,2±0,82	13,3	5,3±0,76	14,3	4,66	<0,001
3	Hujum ishonchliligi (Ha), urinishlar soni (m), muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), $Ha=n/m$	0,61±0,06	10,8	0,56±0,04	8,1	3,43	<0,01
4	Texnik harakatlar uchun o'rtacha baho (A), umumiy ballar yeg'indisi (E) hujum oralig'idagi texnik harakatlar vaqti (t), $A=E/t$	2,1±0,27	13,1	1,9±0,16	8,4	3,83	<0,001
5	Hujum darajasi (W), texnik harakatlar uchun o'rtacha baho (A), hujum ishonchliligi (Ha) ga ko'paytiriladi $W=Ha*A$	1,4±0,14	10,2	1,2±0,17	14,1	3,64	<0,001
6	Muvofaqqiyatli hujum oralig'i (Ia), muvaffaqiyatli urinishlar soni (n), hujum oralig'idagi vaqt (t) $Ia=n/t$	1,8±0,20	11,3	1,6±0,17	10,6	3,35	<0,01

Hujum ishonchliligi, muvaffaqiyatli urinishlar soni, hujum oralig'idagi vaqt ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot boshida tajriba guruhida 1,06±0,10 ni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida 1,02±0,11 ni tashkil qildi, statistik

ishonchli farqlar kuzatilmadi $t=1,49$; $P>0,05$. Yuqorida ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot yakunida tajriba guruhida 1,8±0,20 ni, nazorat guruhida esa 1,6±0,17 ni tashkil qildi va statistik ishonchli farqlar kuzatildi $t=3,35$; $P<0,01$.



2-rasm. Sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga sport kurashi turlariga saralashda pedagogik tajriba boshida musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili

Tadqiqot boshida olingan natijalar va tadqiqot yakunida olingan natijalarga asoslanib sport kurashi turlariga saralash tizimi va mazmunini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan musobaqa faoliyati va texnik-taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash sport kurashi turlariga saralash va yo'naltish, bundan tashqari bolalar va o'smirlar sport maktablarida shug'ullanayotgan sport kurashi turlarida guruhdan guruhga o'tkazishda ham o'z saralash samaradorligi asoslandi.

Xulosa.

Sport kurashi turlari bilan shug'ullanuvchi sportda kamolotga erishish hamda oliy sport mahorati bosqichiga saralashda musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili Hujum ishonchliligi, muvaffaqiyatli urinishlar soni, hujum oralig'idagi vaqt ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot boshida tajriba guruhida 1,06±0,10 ni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida 1,02±0,11 ni tashkil qildi, statistik ishonchli farqlar kuzatilmadi $t=1,49$; $P>0,05$. Yuqorida ko'rsatkich bo'yicha tadqiqot yakunida tajriba guruhida 1,8±0,20 ni, nazorat guruhida esa 1,6±0,17 ni

tashkil qildi va statistik ishonchli farqlar kuzatildi $t=3,35$; $P<0,01$. Bu o'z navbatida sport kurashchilarini uzoq muddatli tayyorlov bosqichiga saralash va yo'naltirishda

organizmning funksional ko'rsatkichlarining zahira imkoniyatlarini katta ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulaziz Usubjon ugli Khamiddjanov. (2020). The system and content of student selection in belt wrestling. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 316-317.
2. Khamidjanov Abdulaziz Usubjon og'li. (2020). Improving the system and content of selection of children for the sport of belt wrestling. Indicators, 8(11), 12-16.
3. Matkarimov R.M. Og'ir atletika nazariyasi va uslubiyati: jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik / R.M. Matkarimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2015. - 200 b.
4. Nuriddin Rukhiddinov Goziyev, Abdulaziz Usubjon ugli Khamiddjanov. (2019). The stage of improving the system and content of candidate selection for belt wrestling. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(3), 279-281.
5. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. / Darslik. – T.: Sano-Standart. 2017. – 480 b.
6. АУ Хамиджонов. (2020). Белбоғли кураш спорт турига болаларни саралашнинг назарий ва амалий таҳлили. Fan-Sportga, 6(6), 75-77.
7. ФА КЕРИМОВ, АУ ХАМИДЖОНОВ. (2021). Белбоғли курашга болаларни саралашда мусобақа фаолияти ва техник-тактик тайёргарлик кўрсаткичлар самарадорлигини баҳолаш ва назорат қилиш методикаси. Научно-практическая конференция, 1(1), 35-390.
8. То'vshiyev T.S. Yuqori malakali belbog'li kurashshilarning vazn toifasini inobatga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish Ch.: 2024.diss, B. 140.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xamidjanov Abdulaziz Usubjon o'g'li

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqot instituti doktoranti (DSc)

Xalqaro toifadagi sport ustasi

e.mail: abdulaziz19931910@mail.ru

UDK: 796.015.82:89

SPORT KURASHCHILARINI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGI KO'RSATKICHLARINING MODEL XUSUSIYATLARI ASOSIDA SARALASH MEZONLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada sport kurashchilarini funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xususiyatlari aniqlash asosida yosh sportchilarni sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirish mezonlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sport kurashi, funktsioanal tayyorgarlik, model, xususiyat, saralash, mezon.

Хамиджанов Абдулазиз Усубжон оглы

Докторант научно-исследовательского института физической культуры и спорта (DSc)

Мастер спорта международного класса

КРИТЕРИИ ОТБОРА СПОРТИВНЫХ БОРЦОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация: В данной статье разработаны критерии отбора и ориентации юных спортсменов по видам спортивной борьбы на основе определения модельных характеристик показателей функциональной подготовки спортивных борцов.

Ключевые слова: Спортивная борьба, функциональная подготовка, модель, характеристика, квалификация, критерий.

Khamidzhanov Abdulaziz Usubjon ugli

Doctoral student at the Scientific Research Institute of Physical Culture and Sports (DSc)

Master of Sports of international class

CRITERIA FOR THE SELECTION OF SPORTS WRESTLERS BASED ON MODEL CHARACTERISTICS OF FUNCTIONAL TRAINING INDICATORS

Annotation: This article develops criteria for the selection and orientation of young athletes by types of wrestling based on the definition of model characteristics of indicators of functional training of sports wrestlers.

Keywords: Wrestling, functional training, model, characteristic, qualification, criterion.

Kirish.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi asosiy masalalardan biri aholini doimiy ravishda sport bilan shug'ullanishini ta'minlashga qaratilmoqda. Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri "Sport turlari bo'yicha O'zbekiston terma jamoalari (yoshlar, o'smirlar va kattalar) a'zolarining hamda sport-ta'lim muassasalari sportchi o'quvchi va talabalarining jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, funksional holati, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini ilmiy jihatdan o'rganish, monitoring qilish va istiqbolini belgilash" kabi vazifalar qo'yilgan. Bugungi kunda sport kurashi turlari bo'yicha keng qamrovli, ilmiy-

uslubiy ishlar to'laligicha o'rganilmaganligi, bundan tashqari sport kurashi turlariga bolalarni saralab olish jarayonida yoshi hamda jinsiga, vazn-og'irligiga ko'ra umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik holatini baholovchi, sport kurashi turlariga bolalarni saralash tizimi yuzasidan mexanizmlarning yo'qligi sport kurashi turlariga oid qobiliyatlarni aniqlovchi kompleks testlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish talabini qo'ymoqda. Shuningdek, murabbiylar sport kurashi turlarida individual imkoniyatlari va sport zahiralarni aniqlash saralash bosqichida eng asosiy vosita sifatida umumiy hamda maxsus jismoniy tayyorgarligi qanday darajada ekanligini aniqlash, bolalarning kuchli

rivojlangan jismoniy sifatlarini sport turiga mos texnik-taktik mashqlar kompleksini ishlab chiqish shu o'rinda ilmiy va amaliy tajribaga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirishning ilmiy-uslubiy asoslarini, ilmiy-amaliy izlanishlar, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida o'rganilgan, jumladan: Rossiya Federatsiyasi Voronej davlat institutida (Rossiya), Moskva davlat jismoniy tarbiya akademiyasi, (Rossiya), Quyi Dunay "Galati universiteti (Ruminiyaning Galats sh), Kishinyov, Davlat jismoniy tarbiya va Sport universiteti, (Moldova), Polsha davlat jismoniy tarbiya universiteti, (Varshava, Polsha), Markaziy Amerika Managua universiteti (AQSH), Yong in universiteti (Janubiy Koreya), Nigeriya Amerika universiteti (AQSH), P.F.Lesgaft nomidagi Milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti, (Sankt-Peterburg) nomli yetakchi ta'lim universitetlari va institutlarida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning metodologiyasi.

Sport kurashchilari funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xususiyatlari asosida saralash mezonlari aniqlashda 94 nafar yuqori malakali sport kurashi bilan shug'ullanuvchilarni o'rganib funksional tayyorgarligi tahlil qilindi. Bunda biz to'rta testdan foydalandik. Jumladan 16 nafar yuqori malakali erkin kurashchilarni Rufe testi bo'yicha umumiy o'rtacha

ko'rsatkichi 3,5±0,3 ni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu ko'rsatkich bo'yicha 14 nafar yuqori malakali yunon-rum kurashchilarida umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 4,7±0,6 ni tashkil qilishi aniqlandi. Qolaversa 18 nafar yuqori malakali dzyudochilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 7,2±0,8 ni tashkil qildi. Shuningdek 22 nafar yuqori malakali Belbog'li kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 12,6±0,9 ni tashkil qildi.

Tahlillar va natijalari

Qolaversa 12 nafar yuqori malakali kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 11,5±1,2 ni tashkil qildi. Yuqori malakali erkin kurashchilarni Ortostatik sinov testi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 4,4±0,6 ni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu ko'rsatkich bo'yicha yuqori malakali yunon-rum kurashchilarida 7,5±0,9 ni tashkil qilishi aniqlandi. Qolaversa yuqori malakali dzyudochilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 11,3±1,4 ni tashkil qildi. Shuningdek yuqori malakali Belbog'li kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 17,8±1,6 ni tashkil qildi. Yuqori malakali kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 14,7±1,7 ni tashkil qildi. Jumladan yuqori malakali erkin kurashchilarni Shatnge testi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 68,2±3,7 ni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu ko'rsatkich bo'yicha yuqori malakali yunon rum kurashchilarida umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 61,4±4,1 ni tashkil qilishi aniqlandi. Qolaversa yuqori malakali dzyudochilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 56,3±5,4 ni tashkil qildi 1-jadvalga qarang).

1-jadval

Sport kurashchilari funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xususiyatlari asosida saralash mezonlari (n=82)


№	Sport turlariga saralash meyorlari	Sport kurash turlari									
		Erkin kurash (n=16)		Yunon-rum kurashi (n=14)		Dzyudo (n=18)		Belbog'li kurash (n=22)		Kurash (n=12)	
		($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V
1	Ryf'e testi	3,5±0,3	8,5	4,7±0,6	12,7	7,2±0,8	11,1	12,6±0,9	7,1	11,5±1,2	10,4
2	Ortostatik sinov	4,4±0,6	13,6	7,5±0,9	8,4	11,3±1,4	12,3	17,8±1,6	8,9	14,7±1,7	11,5
3	Shatnge testi	68,2±3,7	5,4	61,4±4,1	6,6	56,3±5,4	9,5	49,5±5,1	10,3	50,6±6,1	12,1
4	Genchi testi	43,4±4,8	11,1	12,9±5,2	12,9	37,5±4,6	12,2	32,7±3,8	11,5	35,3±4,2	11,8
5	Spirometr tekshiruvi	92±7,9	8,5	88±8,3	9,4	82±9,6	11,7	79±7,5	9,4	80±8,6	10,7

Shuningdek yuqori malakali Belbog'li kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 49,5±5,1 ni tashkil qildi.

Qolaversa yuqori malakali kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 50,6±6,1 ni tashkil qildi Jumladan yuqori malakali erkin kurashchilarni Genchi testi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 43,4±4,8 ni tashkil

qilgan bo'lsa, huddi shu ko'rsatkich bo'yicha yuqori malakali yunon rum kurashchilarida umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $12,9 \pm 5,2$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Qolaversa yuqori malakali dzyudochilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $37,5 \pm 4,6$ ni tashkil qildi. Shuningdek yuqori

malakali **Belbog'li kurashchilarning** umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $32,7 \pm 3,8$ ni tashkil qildi. Qolaversa yuqori malakali **kurashchilarning** umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $35,3 \pm 4,2$ ni tashkil qildi.



1-rasm. Sport kurashchilari funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xusiyatlari asosida saralash mezonlari

Jumladan yuqori malakali erkin kurashchilarni Spirometr tekshiruv testi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $92 \pm 7,9$ ni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu ko'rsatkich bo'yicha yuqori malakali yunon rum kurashchilarida umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $88 \pm 8,3$ ni

tashkil qilishi aniqlandi. Qolaversa yuqori malakali dzyudochilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $82 \pm 9,6$ ni tashkil qildi.

2-jadval

Sport kurashchilari funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xusiyatlari asosida sport sog'lomlashtirish birinchi bosqichga saralash mezonlari

№	Sport turlariga saralash meyorlari	Sport kurash turlari									
		Erkin kurash (n=71)		Yunon rum kurashi 114		Dzyudo 49		Belbog'li kurash 120		Kurash 38	
		($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V	($\bar{x} \pm \sigma$)	V
1	Ryf'e testi	4,4±0,5	11,3	5,8±5,3	9,1	10,3±6,3	6,1	15,9±1,8	11,3	15,1±1,4	9,2
2	Ortostatik sinov	6,9±5,4	7,8	9,3±8,1	8,7	12,2±9,2	7,5	18,5±2,4	12,9	16,6±2,2	13,2
3	Shatnge testi	35,5±3,4	9,5	32,8±4,4	13,4	29,7±3,4	11,4	25,1±1,9	7,5	27,8±3,3	11,8
4	Genchi testi	26,5±2,9	10,9	23,1±3,2	13,8	21,8±2,8	12,8	19,6±2,3	11,7	20,9±1,8	8,6
5	Spirometr tekshiruv	59±7,2	12,2	56±7,4	13,2	55±6,4	11,6	51±6,9	13,5	53±7,4	13,9

Shuningdek yuqori malakali Belbog'li kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $79 \pm 7,5$ ni tashkil qildi. Qolaversa yuqori malakali kurashchilarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichi $80 \pm 8,6$ ni tashkil qildi


Sport kurashchilari funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xusiyatlari asosida sport sog'lomlashtirish birinchi bosqichga saralash mezonlarini ishlab chiqishda

Sport sog'lomlashtirish guruhidagi sport kurashi bilan shug'ullanuvchi 71 nafar erkin kurashchining ruf'e testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $4,4 \pm 0,5$ ni tashkil qilishi aniqlandi, 114 nafar Yunon-rum kurashchilarning ruf'e testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $5,8 \pm 5,3$ ni tashkil qilishi aniqlandi. 49 nafar Dzyudochilarning ruf'e testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $10,3 \pm 6,3$ ni tashkil qilishi aniqlandi. 120 nafar Belbog'li kurashchilarning ruf'e testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $15,9 \pm 1,8$ ni tashkil qilishi aniqlandi. 38 nafar kurashchilarning ruf'e testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $15,1 \pm 1,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi.

Sport sog'lomlashtirish guruhidagi sport kurashi bilan shug'ullanuvchi erkin kurashchining Ortostatik sinov testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $6,9 \pm 5,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi, Yunon rum kurashchilarning Ortostatik

sinov testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $9,3 \pm 8,1$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Dzyudochilarning Ortostatik sinov testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $12,2 \pm 9,2$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Belbog'li kurashchilarning Ortostatik sinov testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $18,5 \pm 2,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi kurashchilarning Ortostatik sinov testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $16,6 \pm 2,2$ ni tashkil qilishi aniqlandi.

Sport sog'lomlashtirish guruhidagi sport kurashi bilan shug'ullanuvchi erkin kurashchining Shatnge testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $35,5 \pm 3,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi, Yunon rum kurashchilarning Shatnge testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $32,8 \pm 4,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Dzyudochilarning Shatnge testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $29,7 \pm 3,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Sport kurashi turlariga ikki bosqichli saralash va yo'naltirish mexanizmi

Belbog'li kurashchilarning Shatnge testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $25,1 \pm 1,9$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Kurashchilarning Shatnge testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $27,8 \pm 3,3$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Sport sog'lomlashtirish guruhidagi sport kurashi bilan shug'ullanuvchi erkin kurashchining Genchi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $26,5 \pm 2,9$ ni tashkil qilishi aniqlandi, Yunon rum kurashchilarning Genchi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $23,1 \pm 3,2$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Dzyudochilarning Genchi testining umumiy

o'rtacha ko'rsatkichlari $21,8 \pm 2,8$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Belbog'li kurashchilarning Genchi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $19,6 \pm 2,3$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Kurashchilarning Genchi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $20,9 \pm 1,8$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Sport sog'lomlashtirish guruhidagi sport kurashi bilan shug'ullanuvchi erkin kurashchining Spirometr tekshiruvi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $59 \pm 7,2$ ni tashkil qilishi aniqlandi, Yunon rum kurashchilarning Spirometr tekshiruvi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $56 \pm 7,4$

ni tashkil qilishi aniqlandi. Dzyudochilarning Spirometr tekshiruvi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $55\pm 6,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi. Belbog'li kurashchilarning Spirometr tekshiruvi testining umumiy o'rtacha

Sport kurashchilarini funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xususiyatlari asosida saralash mezonlari asosida saralash va yo'naltirish asosan sport sog'lomlashtirish guruhlarida amalga oshirish yuqori samara berdi. Bunda biz eng yaxshi funksional tayyorgarlik erkin kurashchilarda aniqlandi ruf'e testida $3,5\pm 0,3$ soniyani tashkil qilgan bo'lsa, sport sog'lomlashtirish bosqichidagi eng yaxshi natija ko'rsatgan yosh kurashchilarni $4,4\pm 0,5$ soniya natija ko'rsatgan

ko'rsatkichlari $51\pm 6,9$ ni tashkil qilishi aniqlandi. kurashchilarning Spirometr tekshiruvi testining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari $53\pm 7,4$ ni tashkil qilishi aniqlandi.

Xulosa.

kurashchilarni erkin kurashga saralab oldik. Funksional ko'rsatkichi eng past ko'rsatkich kurashchilarda aniqlandi $11,5\pm 1,2$ soniyani tashkil qilganligi sababli eng past ko'rsatkichga ega yosh kurashchilarni $15,1\pm 1,4$ soniyani tashkil qilganligi sababli kurash sport turiga yo'naltirildi. Bu o'z navbatida sport kurashchilarini uzoq muddatli tayyorlov bosqichiga saralash va yo'naltirishda organizimning funksional ko'rsatkichlarining zahira imkoniyatlarini katta ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulaziz Usubjon ugli Khamiddjanov. (2020). The system and content of student selection in belt wrestling. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 316-317.

2. Khamidjanov Abdulaziz Usubjon og'li. (2020). Improving the system and content of selection of children for the sport of belt wrestling. Indicators, 8(11), 12-16.

3. Matkarimov R.M. Og'ir atletika nazariyasi va uslubiyati: jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik/R.M. Matkarimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2015. - 200 b.

4. Nuriddin Rukhiddinov Goziyev, Abdulaziz Usubjon ugli Khamiddjanov. (2019). The stage of improving the system and content of candidate selection for belt wrestling. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(3), 279-281.

5. T.S.To'ychiyev. Yuqori malakali belbog'li kurashchilarni vazn toifasini inobatga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarligini rejalashtirish. 13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 2024 – 140 b.

6. АУ Хамиджонов. (2020). Белбоғли кураш спорт турига болаларни саралашнинг назарий ва амалий таҳлили. Fan-Sportga, 6(6), 75-77.

7. ФА КЕРИМОВ, АУ ХАМИДЖОНОВ. (2021). Белбоғли курашга болаларни саралашда мусобақа фаолияти ва техник-тактик тайёргарлик кўрсаткичлар самарадорлигини баҳолаш ва назорат қилиш методикаси. Научно-практическая конференция, 35-390.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abdurahmonova Sharofat Bahromali qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
sharofatabdurahmonova@gmail.com

ADABIY TA'LIM AMALIYOTIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya: Ushbu maqola kulturologik yondashuvni maktab ta'limi amaliyotida qo'llash va uning ilmiy-nazariy asoslari mavzusiga bag'ishlangan. Mazkur yondashuvning dastlabki ildizlari adabiyot darsliklari misolida ko'rib chiqiladi. Kulturologik ta'limning bugungi kundagi ahamiyati va uni amaliyotga joriy qilish borasidagi bir qancha olimlarning tadqiqot ishlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: yondashuv, globallashuv, amaliyot, kulturologik ta'lim, pedagogik texnologiya, retseptiv, kognitiv, kreativ yondashuv, transsendental.

Абдурахманова Шарофат Бахромалиевна

Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

КУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД В ПРАКТИКЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Данная статья посвящена теме применения культурологического подхода в практике школьного образования и его научно-теоретическим основам. Исходные истоки этого подхода рассматриваются на примере учебников по литературе. Анализируются исследовательские работы ряда ученых о значении культурного образования сегодня и его реализации.

Ключевые слова: подход, глобализация, практика, культурное образование, педагогическая технология, рецептивный, когнитивный, творческий подход, трансцендентальное.

Abdurakhmanova Sharofat Bakhromaliyevna

Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

CULTURAL APPROACH IN THE PRACTICE OF LITERARY EDUCATION

Annotation: This article is devoted to the topic of applying the cultural approach in the practice of school education and its scientific and theoretical foundations. The initial roots of this approach are considered on the example of literature textbooks. The research works of several scientists on the importance of cultural education today and its implementation are analyzed.

Key words: approach, globalization, practice, cultural education, pedagogical technology, receptive, cognitive, creative approach, transcendental.

Kirish.

Hozirgi rivojlanib borayotgan murakkab va tezkor zamonda global axborot kommunikatsiya yutuqlarini ta'lim sohasiga yo'naltirish va uni amaliyotga integratsiya qilish ko'nikmasini shakllantirish ta'lim muhim vazifalardandir: "Yangilanayotgan pedagogika ilmi xalqning ruhiyatiga xos sifatlarni atroflicha o'rganishi, sistemalashtirishi, chog'ishtirishi va muayyan xulosalar chiqarishi taqozo etiladi"[1.33]. Zamonaviy pedagogik ta'limning eng belgili jihati ham yangicha pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilardagi mavjud iste'dod qirralarini ochishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarga doimiy zarurat mavjudligidir. Ana shu maqsadga xizmat qiladigan yangicha yondashuv usullaridan biri kulturologik ta'lim hisoblanadi.

"Kulturologik ta'limning asosiy vazifasi o'qituvchi – filologni maktab o'quvchilarida klassik adabiyot asarlarining mazmuni haqidagi bilimlarni, badiiy asarni tarixiy va kulturologik kontekstni hisobga olgan holda tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan"[2.4]. Ayni shu yondashuv turini pedagogika sohasida ilk bor A. Komenskiy va J. Lokk tadqiq qilganlar. Ammo madaniy aspekt predmeti sifatida ko'proq muallif yaratgan asardan tashqari uning o'ziga bog'liq bo'lgan avtobiografik ma'lumotlar va san'at asaridagi o'ziga xoslikni ifoda etuvchi tashqi omillar tushunilgan.

Umuman olganda, badiiy asarlarni kulturologik tahlil qilish deganda uning millatga xos mentaliteti, madaniyati, turmush-tarzi, makon va zamon nuqtayi nazaridan ijtimoiy muhiti va muallif ko'zlagan holatidan

turib tahlil qila olish va amaliyotga oqilona tatbiq qilish yo'llarini ochishga ko'mak beradigan amaliy tavsiyalar yo'rig'ini yaratish amaliyoti tushuniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

San'atning eng muhim xususiyatlaridan biri ruhiy kechimlarni yuqtirish tabiati hisoblanadi. Kitobxon badiiy asarni o'qir va o'zlashtirar ekan, ayni damda u mo'jaz yaratiqqa inson o'laroq yondashishi birlamchi bo'ladi, shuningdek, o'zidagi ruhiy-psixologik o'zgarishlarni teran anglagani holda qahramonlarning quvonch-u azoblariga sherik bo'ladi, ma'lum vaqt shu personajlar ruhiy vaziyatlari ta'sirida qoladi, go'yo asar kitobxon ruhiy olamida qayta kashf qilinadi. Olimlar bu hodisani idrok qilish kechimi bilan bog'liq jarayon deb izohlaydi. Ayni mana shu chog'da o'quvchining badiiy asarni qabul qilish kechuvidagi ijodiy-retseptiv jarayonga subyekt sifatida ko'chishi faollashadi. Ya'ni o'rganish uchun berilgan matnga uni o'zlashtiruvchi vazifa sifatida emas, balki unga o'zining mustaqil fikrlari bilan qayta baholanadigan yangi badiiy yaratiq sifatida qaraydi, natijada go'yo kitobxon o'quv jarayonida asarning hammuallifi sifatida qayta gavdalanadi. Bu holatni uch bosqichli jarayon bilan tavsiflash mumkin: avvalo berilgan matnga diqqat qiladi, keyin ushbu jarayonning ishtirokchisiga aylanadi, so'ng o'z shuurida mazkur asarning yangi yaratuvchi, hammuallifiga aylanadi. Ayni shu pallada o'quvchining asar muallifi bilan transsendental munosabati izchillashadi. Dialogning haqiqiy ko'rinishi ushbu jarayonda sezilarli namoyon bo'ladi.

Zamonaviylashtirilgan ta'lim shaklining eng muhim xususiyatlaridan biri o'qituvchi dars jarayonida o'quvchiga tayyor xulosani bermay, balki uning o'zini aqliy va ijodiy mehnati ila xulosaga olib borishga yo'naltirilgan konsepsiyaning ustuvorligidir. Biz o'rganayotgan ta'lim shakli ham, avvalo o'quvchilarni tahlil qilish ko'nikmalarini o'rgatish jarayonida ularga ko'proq fantaziya va hissiy sohasini boshqaradigan vazifalarni berish tamoyili ustunlik qiladi. O'quvchi asarni qabul qilar ekan, dastlab asar mohiyatiga kirish oldidan ziddiyatli elementlari o'z shuurida jamlab oladi, bu orada matnning ichki dialogizmi faoliyati o'z ishini boshlaydi. Ichki dialogizmdan tashqi muloqotga o'tish jarayonida pedagog kultural muhitni yaratish uchun asarning muloqot predmetiga aylanishi mumkin bo'lgan barcha elementlarni – tushunchalar, g'oyalar, muammolar, sahna karikaturasi, qahramon va epizodlar individual qiyofasiga xos detallarni aniqlaydi, so'ngra vazifaning asosiy ikkinchi bosiqchi – kognitiv yo'sindagi topshiriqlarni o'quvchilarga yuklaydi. Bu jarayonda kultural jihatlarining ochilishi jadallashadi. Eng qizig'i, bu yondashuvda yakdil xulosaning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas va bu kulturologik ta'limning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Muhokama va natijalar.

Mazkur yondashuv turida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri "rolli o'yin" hisoblanadi. Bundan tashqari matnda aks etgan tasvirga monand surat chizish, og'zaki hikoyalash orqali manzarini bo'yoqlar vositasida tasvirlash, lentalar orqali ovozsiz sahna asari olish, asar qahramonlari nutqiga taqlidan yangicha ovoz pardalarini yozish, qahramonlar ruhiy olamidan kelib chiqqan holda kutilmagan va komik ijrolarni bayon etish, jonli ekskursiyalar tashkil etish orqali asar yaratilgan davr va makonga monand kichik ko'rinishdagi ijodiy chiqishlar tashkil etish, monologlar so'zlash va boshqa shu shakldagi individual kreativlikka asoslangan, birlamchi kulturologik belgilarni ochishga xizmat qiladigan usullarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Kulturologik ta'limni joriy qilishda ko'plab olimlar o'quvchilar yosh xususiyati va madaniy jarayonlarni davrlashtirgan holda sinflashtirishni yoqlab chiqqanlar. Yondashuvni tashkil etishning taxminiy ko'rinishi dastlab adabiy ta'lim tizimining maqsad va vazifalarida o'z aksini topmagan bo'lsa-da, ularda aks etgan mavzularda kulturologik ta'limga propedevtika bo'lib xizmat qilgan uchqunlarni ko'rish mumkin. Xususan, 5-sinf adabiyot darsliklarida [3]asosan, xalq og'zaki ijodi va adabiy ertaklar, shuningdek jahon adabiyotiga oid mashhur ertak namunalari o'rin olgan bo'lib, ularda dunyo xalqlariga xos kultural jihatlarining dastlabki kurtaklari ko'zga tashlanadi, bu ifodalar dastlab mazkur fenomen ostida tadqiq qilinmagan bo'lsa-da, ularning zamirida madaniy yondashuvning tarixiy ildizlari o'rin olganini ko'rish mumkin bo'ladi. 6-sinf darsliklarida ham [4]mazkur janrlarning dunyo tamaddunida yetakchilik qilgan ijod namunalari kengroq o'rin beriladi. Chunonchi, 5-sinf darsligida bolalar yunon, rus, gruzin xalq ertaklari bilan tanishgan bo'lsa, 6-sinfda esa ularga qo'shimcha tarzda qozoq, ingliz, irland, fransuz, AQSh, italyan xalqlarining badiiy durdonalaridan bahramand bo'ladi. 7-8-sinf darsliklarida kulturologik yondashuvni tarixiy va adabiy kontekstda tahlil qilish imkoniyatlarining shakllanganligini ko'rish mumkin. Xususan, nisbatan murakkabroq, badiiy mushohadasi chuqur bo'lgan asarlar tanlangan bo'lib, ayniqsa, milliy adabiyotni jahon durdonalari bilan qiyoslab o'qish asnosida dastlabki kultural uyg'unlik va o'zaro farqli jihatlarini aniqlash, tahlil qilish va barcha birliklarni konsentrizm tamoyili asosida qayta kashf qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

9-sinf darsliklarida esa adabiy janrlarning har uch turi bo'yicha turli davrlarda ijod qilib o'tgan jahon xalqlari adiblarining sara asarlari o'rin olgan. Endilikda bolalar badiiy asarni turli davrlardan turib baholash, mushohada qilish asnosida zamonlararo muloqot (Baxtin) [6]asosida badiiy yaratiqni tahlil qiladilar. Demak, mazkur jarayonda o'quvchilarda asarlarni xronologik tizimlashtirish, poetik uyg'unlikni teran anglash hamda g'oyaviy-badiiy mohiyatni izchil ochish va o'z qarashlarini erkin ifoda etish xususiyatlari shakllanganini ko'rish mumkin bo'ladi.

10-11-sinf darsliklarida o'rin olgan asarlarda esa ijtimoiy-siyosiy yo'sindagi asarlar bilan tanishiladi. Bu bosqichda bolalar asarlarni muammoli-tematik taqqoslash orqali milliy adabiyotni jahon adabiyoti kontekstida qayta ko'rib chiqadilar.

Xulosa.

Umuman, umumta'lim maktablari darsliklari va ularni o'qitish amaliyotida kulturologik yondashuvning o'ziga xos belgilari qisman ko'zga tashlanadi. Ammo uning o'zini alohida struktural tizimli shaklda qo'llash bo'yicha maxsus yo'riqlar mavjud emasligi mazkur usulning kengroq tadqiq qilinishiga ehtiyoj zarurligini taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo'ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. –T.: Tafakkur nashriyoti, 2023.
2. Основное общее образование. Федеральный государственный образовательный стандарт. Сборник нормативно-правовых материалов. –М.: Вентана-Граф, 2014.
3. S. Ahmedov va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun darslik. –T.: Sharq, 2020.
4. Z. Mirzayeva va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun. –T., 2022.
5. Husanboyeva, Qunduzoy va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2022.
6. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. –М.: 1979.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Alimjanova Matlyuba Yunusovna
Farg'ona davlat universiteti
Sirtqi bo'lim Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası o'qituvchisi
alimjanova971@gmail.com

UDK: 37.091.3

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI VA UNING TARKIBIY QISMLARI. KASBIY KOMPETENTSIYA TURLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari va kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini yoritadi. Bozor munosabatlari sharoitida raqobatga bardoshli bo'lish va mehnat bozorida ustuvor o'rin egallash har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikni talab qiladi. Kompetentlik tushunchasi, uning mazmuni va ko'rinishlari muhokama qilinib, pedagogik sohada o'qituvchining kompetentligi qaysi sifatlar asosida shakllanishi kerakligi ko'rsatilgan. Maqolada pedagogning ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik turlari va ularning kasbiy faoliyatda qanday aks etishi kengroq tahlil qilinadi. Kompetentlik tushunchasi kasbiy bilimlarni samarali qo'llash, zamonaviy pedagogik usullarni to'g'ri tanlash va innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, maqola pedagogik kompetentlikning nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanishdagi muhim qirralarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik, kasbiy mahurat, pedagogik faoliyat, bozor munosabatlari, raqobatbardoshlik, innovatsion yondashuv.

Алимджанова Матлюба Юнусовна
Ферганский государственный университет
Кафедра социально-гуманитарных наук,
Заочное отделение, Преподаватель

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА И ЕЁ СОСТАВЛЯЮЩИЕ. ВИДЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация: Данная статья освещает теоретические основы понятия компетентности и его значимость в профессиональной деятельности. В условиях рыночных отношений устойчивость к конкуренции и занятость на рынке труда требуют от каждого специалиста профессиональной компетентности. Обсуждается понятие компетентности, его содержание и виды, а также показано, на основе каких качеств должна формироваться компетентность педагога в образовательной сфере. В статье подробно анализируются такие виды компетентности педагога, как социальная, специальная, личностная, технологическая и экстремальная, и их отражение в профессиональной деятельности. Понятие компетентности включает в себя эффективное применение профессиональных знаний, правильный выбор современных педагогических методов и улучшение образовательного процесса через инновационные подходы. Кроме того, статья раскрывает важные аспекты использования теоретических знаний в практике педагогической компетентности.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, социальная компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, технологическая компетентность, экстремальная компетентность, профессиональное мастерство, педагогическая деятельность, рыночные отношения, конкурентоспособность, инновационный подход.

Matlyuba Yunusovna Alimjanova
Fergana State University
Department of Social and Humanitarian Sciences,
Part-time Section, Teacher

PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TEACHER AND ITS COMPONENTS. TYPES OF PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation: This article highlights the theoretical foundations of the concept of competence and its significance in professional activity. In the context of market relations, competitiveness and employment in the labor market require professional competence from every specialist. The article discusses the concept of competence, its content, and types, as well as shows the qualities on which the competence of a teacher in the educational field should be based. The article provides a detailed analysis of such types of teacher competence as social, special, personal, technological, and extreme, and their reflection in professional activity. The concept of competence includes the effective application of professional knowledge, the correct selection of modern pedagogical methods, and the improvement of the educational process through innovative approaches. Furthermore, the article reveals important aspects of the use of theoretical knowledge in the practice of pedagogical competence.

Keywords: professional competence, pedagogical competence, social competence, special competence, personal competence, technological competence, extreme competence, professional skills, pedagogical activity, market relations, competitiveness, innovative approach.

Kirish.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish, har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Ma‘lumotlarda kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlari sanab o‘tilgan. Bu o‘z ichiga ijtimoiy, maxsus, shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentliklarni oladi. Har bir komponent pedagog faoliyatida qanday o‘rin tutishi va ular qanday yo‘nalishlarda rivojlantirilishi kerakligi haqida turli adabiyotlar tahlil qilinishi kerak. Masalan, ijtimoiy kompetentlik — muloqot qilish ko‘nikmalari va jamoa bilan ishlash bo‘yicha adabiyotlar bilan o‘rganilishi mumkin. Maxsus kompetentlik esa pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar orqali tahlil qilinishi lozim. Pedagogik kompetentlik tushunchasi bo‘yicha adabiyotlarda bu tushunchaning predmeti va obyekt sifatida o‘qituvchilar va pedagogik faoliyat ko‘rib chiqiladi. Ushbu adabiyotlar tahlilida kompetentlikning pedagogik faoliyatda qanday rol o‘ynashi va zamonaviy o‘qitish metodlari bilan qanday bog‘liqligi o‘rganiladi. Ko‘plab zamonaviy pedagogika fani va uslubiyat adabiyotlari bu masalani yoritadi va kompetentlikni o‘qituvchilarning ilmiy yondashuvlarida rivojlantirish zaruriyatiga e‘tibor qaratadi. Shu yerda adabiyotlardan misollar keltirilishi mumkin, masalan, didaktika va ta‘lim texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar kompetentlik tushunchasiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini yoritish kerak. Adabiyotlar tahlilida kompetentlik nazariyasi va uning amaliyotdagi qo‘llanishi o‘rtasidagi farq va bog‘liqliklar o‘rganiladi. Kasbiy kompetentlik faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliyotda ulardan foydalanish mahorati sifatida baholanadi. Shu

boisidan, pedagoglar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelishi adabiyotlarda qayd etiladi. Masalan, pedagoglar nazariy bilimlardan samarali foydalanish, kreativ va innovatsion kompetentliklarni rivojlantirish uchun maxsus metodikalar bo‘yicha ilmiy asarlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kompetensiya inglizcha “competence” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma‘nosini ifodalaydi. Mazmunan esa, “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Pedagogik kompetentlik fanining predmeti va obyekt

Dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddabiron, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas‘uliyatli vazifadir. Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o‘qitish metod va usullari, texnologiyalariga juda ko‘p e‘tibor qaratilganligi seziladi. Ammo ana shu pedagogik usul va metodikani tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta‘kidlash mumkin. Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori bu muammolardan holi emas. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchilarda amaliyot va kasbiy faoliyat jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish mahoratining yetishmasligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Demak, ko'plab o'qituvchilar, pedagoglar eshkirib qolgan nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar etishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya - kompetensiya egasi bo'lish, kompetentli pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi. Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatlilik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ulami amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilanadi, ya'ni kompetentlik - bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir.

Tahlillar va natijalar.

Kompetentlik quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi

- har qanday muayyan vaziyatda, uning turli xil jihatlarini hisobga olgan holda bilimlarni o'z o'rnida va tezkorlik bilan to'g'ri qo'llay bilish; 19 - qarorlarni qabul qila bilishga qodirlik va tayyorlik, shu bilan birga, mazkur vaziyat uchun eng maqbul qaror variantini tanlay olish; - ijtimoiy harakatlarni tashkil etish va buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga sola bilish; - faoliyat doirasida boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq maqsadlarni ko'zlagan holda va maqsadga muvofiq, maqbul tarzda o'rnatish olish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar;

- muayyan ma'naviy qadriyatlarga, dunyoqarashga, umummadaniy va axloqiy sifatlarga egalik, faoliyatga intilish hissining mavjudligi;

- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga, faoliyatning yangi usullarini egallashga intilish.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida angelay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Xulosa.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirishi lishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rga nishni, muhim ijtimoiy talablarni angelay olishni, yangi ma'lu motlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, I. A. **Professional kompetentlik: shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.** – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2015.

2. Xasanov, F. K. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.** – Moskva: Akademiya, 2013.
3. Dewey, J. **Tajriba va ta'lim.** – Nyu-York: Collier Books, 1963.
4. Yermolayeva, T. V. **Axborot jamiyatida o'qituvchi professional kompetentligini shakllantirish.** – Moskva: Prosveshchenie, 2011.
5. Mustafouqulov, B. **Pedagogik kompetentlik asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016.
6. Brown, H. D. **Tamoyillar asosida o'qitish: til o'rgatish pedagogikasiga interaktiv yondashuv.** – White Plains, NY: Pearson Education, 2007.
7. Ivanova, Ye. S. **O'qituvchi professional kompetentligini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.** – Sankt-Peterburg: Piter, 2010.
8. Xo'jaeva, Sh. **Pedagogika va psixologiya: nazariya va amaliyot.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
9. Shulman, L. S. **Bilim va o'qitish: yangi islohotlarning asoslari** // Harvard Educational Review. – 1987.
10. Vagner, T. **XXI asrda global ta'lim va kompetentlik yondashuvi.** – Moskva: Oliy maktab iqtisodiyoti, 2018.
11. Suxomlinskiy, V. A. **Yuragimni bolalarga beraman.** – Moskva: Prosveshchenie, 1981.
12. Goncharova, A. V. **Pedagogikadagi innovatsion yondashuvlar: muammolar va istiqbollar.** – Moskva: Rossiya ta'lim akademiyasi, 2017.
13. Rogoff, B. **Fikr yuritish shogirdligi: ijtimoiy kontekstda kognitiv rivojlanish.** – Nyu-York: Oxford University Press, 1990.
14. Hakimov, U. **O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali muloqot.** – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
15. Leithwood, K., Jantzi, D. **Katta ko'lamli islohotlar uchun transformatsion maktab rahbarligi: o'quvchilar, o'qituvchilar va ularning sinf xonalaridagi amaliyoti ta'siri.** – School Effectiveness and School Improvement, 2006.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Amirova Damira

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

TANQIDIY FIKRLASH ORQALI TALABLARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglar tomonidan talabalar uchun mo'ljallangan maxsus topshiriqlar berilishi orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil faoliyat va ularning samaradorligi mezonlari yordamida aniq amalga oshirilishi, hamda o'quvchilarning darsliklarda berilgan ma'lumotlarni eslab qolishlari shart emasligi asosida tanqidiy fikrlash rivojlanishi haqida asosiy malumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada tanqidiy fikrlash orqali universitetda tahsil olayotgan talabalar mustaqil fikrlash, erkin fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, g'oyalarni sharhlash, muhokama qilish, targ'ibot va innovatsiya kabi ko'nikmalar, mantiqiy fikrlash, dunyoqarash, o'z-o'zini anglash, muloqot savodxonligi, go'zallik va nafosatni his qilish va undan bahramand bo'lish, aqliy va jismonan sog'lom bo'lish, milliy an'analarni singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlarning rivojlanishi haqida turli ma'lumotlar aytiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlovchi, axborot texnologiyalari bozori, tanqidiy fikrlash qobiliyati.

Амирова Дамира

Преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ

Аннотация: В данной статье формирование критического мышления учащихся в специальных задачах педагогами-технологами, самостоятельной деятельности и их эффективность определяется реализацией с помощью критериев, которые учащиеся в учебниках не требуют для запоминания заданной информации, они развивают критическое мышление. Также в статье, благодаря критическому мышлению, студенты, обучающиеся в университете, смогут мыслить независимо, свободно, анализировать, сравнивать, интерпретировать идеи, обсуждать, наряду с такими навыками, как пропаганда и новаторство, умение логически мыслить, мировоззрение, самосознание, коммуникативная грамотность, чувство красоты и тонченности и умение наслаждаться ею, интеллектуально и, например, быть физически здоровым, впитывать и ценить национальные традиции, рассказывается различная информация о развитии важных качеств.

Ключевые слова: независимый мыслитель, рынок информационных технологий, талант критического мышления.

Amirova Damira

Teacher at Uzbekistan State World Languages University

FORMATION OF INDEPENDENT THINKING SKILLS OF STUDENTS THROUGH CRITICAL THINKING

Abstract: In this article, the formation of critical thinking in students' special tasks by technology pedagogues, independent activities and their effectiveness is certain implementation with the help of criteria, students in textbooks that they do not need to memorize the given information, they develop critical thinking. Also, in the article, through critical thinking, students who study at university, can be able to think independently, freely, analyze, compare, interpret ideas, discuss, along with skills such as advocacy and innovation, ability to think logically, worldview, self-awareness, communication literacy, feeling beauty and sophistication and being able to enjoy it, intellectually and such as being physically healthy, absorbing and appreciating national traditions various information about the development of important features are told.

Key words: independent thinker, information technology market, critical thinking talent.

Critical thinking is the ability to think clearly and rationally about what to do or what to believe. It involves the ability to think and reason independently. A person with critical thinking skills:

-To understand the logical connection between ideas.

- To identify, structure and evaluate arguments.
-To identify inconsistencies in thinking and common mistakes.
-To solve problems systematically.

To determine the relevance and importance of the ideas.

To think about justifying your beliefs and values.

Critical thinking is not just about gathering information. A person who has a good memory and knows a lot of facts is not necessarily good at critical thinking. Critical thinkers can draw conclusions from what they know, use information to solve problems, and seek out relevant sources of information to inform themselves.

Critical thinking should not be confused with arguing or criticizing other people. While critical thinking skills can be used to expose misconceptions and misconceptions, critical thinking can also play an important role in collaborative thinking and constructive tasks. Critical thinking helps us gain knowledge, improve our theories, and strengthen our arguments. We can also use critical thinking to improve educational processes and improve social institutions.

Today's demand is to educate well-rounded and independent thinkers and improve teaching in the educational process, with students develop new directions of work and strive for unconventionality. According to this, young students are encouraged to think, search and clearly appreciate education to consciously gain knowledge and broaden one's worldview requires a variety of methods. That's new one of the technologies is the formation of students' critical thinking skills. At this point, I would like to quote the following thoughts of Atabek Nazarov. Students do not need to memorize the information given in the textbooks, we need to develop critical thinking in them. Atabek Nazarov emphasized this during the Global week. "Why?" we don't teach to ask questions, we don't teach to think critically to study the experiences of foreign partners in this direction and to share this experience with ours. We are working on customization for our teachers.

Teaching methodology should teach students to acquire information and knowledge independently. If we teach students to think critically, in the age of the Internet, they ask questions themselves they can get answers", says Atabek Nazarov, not only the system of public education imparting knowledge in fundamental and humanitarian sciences and to higher educational institutions preparation, as well as preparing young people for independent life in the first place and necessary skills for work and business activities should be given.

According to Atabek Nazarov, there are about 10,000 schools in the public education system are working, there are about half a million teachers and about 6 million they are teaching children. Today, unfortunately, only 10% are school graduates they are entering higher education institutions. Atabek Nazarov about the international opportunities of Uzbek youth he mentioned the following points. It has access to the sea and cheap logistics with other countries, especially ready-made products it will be difficult to compete in the export market. But it was hard to

compete there are sectors. According to Atabek Nazarov, one of such sectors is information technology market.

Independent, free thinking through critical thinking in students receiving, analyzing, comparing, interpreting thoughts, arguing, defending one's ideas think logically, along with skills such as creativity and innovation learning potential, worldview, self-awareness, communicative literacy, being able to feel and enjoy beauty and grace, being healthy in mind and body important features such as being, absorbing and appreciating national traditions is developed. This, in turn, deepens the knowledge of young students ensures that they can learn and apply it in practice. Accordingly, teaching students to develop critical thinking, it is important to clearly design the goal based on pedagogical technology. In the formation of critical thinking in high education students, certain aspects of the process are based on the following principles:

1. coordinating the speed of the study process;
2. to increase the student's enthusiasm for studying;
3. taking into account previously acquired knowledge;
4. supporting student initiative and commitment;
5. learning by doing;
6. organization of bilateral exchange of opinions;
7. to set up the study process correctly; evaluation of the educational process;

Practical, creative, independent work of students, individuality as much as possible it is necessary to create conditions for a favorable situation is created. Different types of student activity the need for harmonization and coordination of all activities create favorable conditions for the formation of various types of demands. At the same time, it cultivates a sense of self-demand and responsibility. Students' critical thinking is a multifaceted activity in the learning process creation and transition of one type of activity to another type of activity in the district, each student can determine his personal, specific goal develops the uterus. This is the goal of independent, creative activity in students creates a foundation for entering and developing a program of firm action in them will be the basis.

Pedagogues are the technology of formation of critical thinking in students by carrying out special tasks, independent activities are implemented and their effectiveness is determined by certain criteria is done. If the educational process is fully focused on the student, taking into account needs and opportunities, interests, talent if it is organized on the basis of years, the results of such education are, first of all, the student the person himself, as well as the state, society and science and development rises to the level of a factor that develops growth. The educational process involves students only when they are adapted and improved to different ways chosen from them the ground is created for the formation of critical thinking.

The educational process is to create a foundation for the formation of critical thinking in students in addition to more reading classes and a biweekly class. The role of reading lessons is very important. That is why my lecture is the science of reading I want to analyze the example. The purpose of STO is to improve reading skills, to be able to choose a book, who regularly reads books, can correctly evaluate the read book, is conscious is to educate the reader. Since 1959, special STO classes have been held in schools organized. Imagination and imagination of students in extracurricular reading classes. Develop oral and written speech, expressive reading skills, and vocabulary will be resurrected. In the process of getting acquainted with each new work, the reader is fascinated by its content.

In order to understand the language, one should be fluent in speech, read expressively, and master speech techniques it is necessary to have a plate. Students' creativity and literature, reading books and it by teaching the right choice, a literate book reader, that is, a book lover and him people who want to study are educated. Through extracurricular activities students learn about external life, animal world, natural phenomena, historical and modern look, lifestyle of our people, national values and national tradition". More detailed information about concepts such as habits is also available in this lesson occupy Orientation of students to profession, creativity and their talents solving complex tasks such as opening, independent thinking and critical thinking and these lessons are very important. At the same time, first of all, from the class in extracurricular classes, students are taught to choose, read, and read fiction skills such as storage and work on the work are developed. Students to the book helping each child individually in arousing enthusiasm, personal interests must be taken into account. Formation of children's ability to work on books, in them. It is an important factor of education of reading culture. Artistic and scientific-popular the worldview of students only when the works are read independently and consistently serves to expand and form.

Our society is free in today's era of great changes education - the process of upbringing to educate a thinking, mature, mature person posed the problem of change. We ask teachers to study, not to teach passing to the training system, new skills, creative activity experiences known system today, because it is a product of the pedagogical process that takes place within focus on creativity, scientific management of cognitive activity, personal psychology transition to a self-management system, in short, the same as the final result. Achieving radiolity is an urgent problem of today. The teacher himself. He is not able to solve some problems when he works creatively in his practical work approaches. The teacher uses a new method, road tools, or, rich uses his experiences creatively. High level of creativity in his practical activities a new, high and effective complex of teaching and educating students. If a teacher is a creator, he is not involved in the organization of education and

training follows the standard path, that is, he starts his work differently from the usual work. Own organize modern classes using different methods of teaching in their activities.

The goal is to bring up a perfect generation and their spirituality changes in the field of education, new technologies, interactive methods in the organization of extracurricular reading classes in elementary grades is finding its reflection. It is published as a sample in "High Education" magazines from non-traditional lessons and understanding of various activities and methods can be used. In addition, the teacher can exchange experiences and the time itself dictates the creation of news. As above mentioned, teachers' role is great to enhance every student's independent thinking skills.

Actually, the implementation of critical thinking and, therefore, its formation to a certain extent is possible at all stages, where there is an alternative: in the analysis of a problematic situation (the analysis requires a critical attitude); in verbal formulation of the problem; when putting forward a hypothesis, because critical thinking is about proof and disproof, confirmation and rejection. Creative thinking is important here. Human creativity is related to two sides of creative thinking - synthetic thinking (analysis, synthesis, comparison, generalization, etc.) there is an assumption that problem solving [5]. Learning is effective only with self-learning, it is the most durable and long-lasting, and self-evaluation serves as a basis for it. Many authors define critical thinking as a criterion-based evaluation, which evaluation "can be directed by a person to the outside world, to the opinions of other people, and to himself, to his own opinions. This is the essence of critical thinking and self-criticism " [7]. In the study of M.Veksler, the concept of "critical thinking" is considered as "the process of solving a problem, including discussing the work process and results in different ways, evaluating them". the discussed fact can be expressed in the determination of the truth of the opinion". "Critical thinking is to determine the structural features of thinking, to check the connection between the propositions put forward and their corresponding evidence, to evaluate the propositions put forward, to describe the context of thinking, a way of thinking that takes into account the unique characteristics of the author and the reader. , opponent and supporter" [6].

In conclusion, at the same time, among teachers of higher educational institutions, there is an opinion that critical thinking of students is formed by itself during the educational process, and it reaches the highest level in professional activity only as a result of many years of experience. But practice and research do not confirm a direct relationship between the professional's seniority and the level of critical thinking formation. Therefore, an important task of vocational education is to search for technologies for purposeful and systematic formation of

students' critical thinking at the stage of professional training. This article is also aimed at organizing critical thinking in students' independent learning.

References:

1. Decision PQ-1875 of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 10, 2012 "On measures to further improve the system of learning foreign languages".
2. Elder, L. & Paul, R. (1994) Critical thinking: Why we must transform our teaching. *Journal of Developmental Education*, 18(1), 34-35.
3. Halpern, D. F. (1998). Teaching critical thinking for transfer across domains: Disposition, skills, structure training, and metacognitive monitoring. *American Psychologist*, 53(4).
4. Iriskulov A.T and others. Kids' English pupil's book. Toshkent —O'zbekiston; 2014
5. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: в 2 т. / А.Н. Леонтьев. – Т. 2. – М.: Педагогика, 1983. – С. 392.
6. Психологический словарь / под ред. Зинченко В.П., Мещерякова Б.Г. – М.: Педагогика-Пресс, 1997. – С. 440.
7. Сорова Г.В. Критическое мышление: история и современный статус / Г.В. Сорова // Вестник Московского университета. – Серия 7. Философия. – 2003. – № 6. – С. 97–110. 13. Тушминцева Е.В.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Arslanova Madina Mansurovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası
p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.
E-mail:arslanovamm@mail.ru

BOSHLANG'ICH SINFLAR AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING O'QUV-IJTIMOYIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotasiya: Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari boshlang'ich sinflarida aqli zaif o'quvchilarning o'quv-ijtimoiy faoliyatini shakllantirish va uning pedagogik-psixologik aspektlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, aqli zaif bolalar, ta'lim jarayoni, o'quv-ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim, ijtimoiy ko'nikmalar, pedagogik sharoitlar.

Арсланова Мадина Мансуровна

Директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций
Институт переподготовки и повышения квалификации
Кафедра "методика дошкольного образования"
(PhD), доцент в.б.

НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ УМСТВЕННО ОТСТАЛЫХ УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНО-СОЦИАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: В данной статье освещается вопрос формирования учебно-социальной деятельности учащихся с умственной отсталостью в начальных классах специализированных государственных образовательных учреждений для детей с ограниченными возможностями здоровья и ее педагогические и психологические аспекты.

Ключевые слова: дети с особыми образовательными потребностями, умственно отсталые дети, образовательный процесс, учебно-социальная деятельность, социально ориентированное образование, социальные навыки, педагогические условия.

Arslanova Madina Mansurovna

Preschool educational organizations provide directors and specialists with
retraining and Training Institute
Department "methodology of preschool education"
(PhD), Associate Professor v.b.

ELEMENTARY SCHOOL MENTALLY DISABLED STUDENTS PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF EDUCATIONAL AND SOCIAL ACTIVITIES

Annotation: This article highlights the issue of the formation of educational and social activities of students with mental retardation in the primary grades of specialized state educational institutions for children with disabilities and its pedagogical and psychological aspects.

Key words: children with special educational needs, mentally retarded children, educational process, educational and social activities, socially oriented education, social skills, pedagogical conditions.

Kirish.

O'zbekistonda nogironlik muammosiga yondashuv
jamiyat taraqqiyotining negizi bo'lgan "inson qadri uchun"

degan insonparvar g'oya bilan uyg'unlashib bormoqda.
Davlat va jamiyatning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan
bolalarga bo'lgan munosabati ham nogironlikka bo'lgan

ijtimoiy yondashuvning mohiyati va tamoyillariga har jihatdan mos keladi. "Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz", degan edi davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev [1].

Adabiyotlar tahlili.

Ma'lumki, nogironlikka bo'lgan zamonaviy yondashuvning markazida nogironlikning ijtimoiy modeli yotadi va bunda barcha muammolar jamiyatning imkoniyati cheklangan shaxslarning alohida ehtiyojlariga munosabati natijasi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy modelga ko'ra, nogironlik ijtimoiy muammodir. Shu bilan birga, cheklangan imkoniyatlar "insonning bir qismi" yoki uning aybi ham emas. Biror kishi o'z kasalligining oqibatlarini kamaytirishga harakat qilishi mumkin, ammo uning cheklangan imkoniyatlari hissi kasallikning o'zi bilan emas, balki jamiyatda jismoniy, huquqiy va boshqa munosabatlardagi to'siqlarning mavjudligi bilan bog'liqdir" [3.-86.c.].

Imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyat bilan turli sohalaridagi munosabatlarini to'g'ri shakllantirish birinchi galda uning bolaligidan va rivojlanishining barcha davrlarida jamiyatga faol integratsiyasi va ijtimoiylashuvi uchun zarur sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishga asoslanadi. "Ijtimoiylashuv - bu shaxsning ijtimoiy rollar va madaniy me'yorlarni o'zlashtirish jarayoni bo'lib, buning natijasida shaxs ijtimoiy shaxsga aylanadi. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiylashuv deganda - shaxsning ijtimoiy muhitga bir xilda kirib borishi, jamiyatning qabul qilingan me'yoriy va qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi tushuniladi, bu esa, o'z navbatida, insonning o'zini muvaffaqiyatli anglashi va jamiyat a'zosi sifatida to'laqonli namoyon bo'lishiga yordam beradi" [6.-1083.c.]. Ta'lim esa, ijtimoiylashuvning muhim sharti va bosh bo'g'inidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan "Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risida Nizom" da [2] "shaxsga va ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning eng maqbul rivojlanishini ta'minlash maqsadida tabaqalashtirilgan va individual ta'limni tashkil etish" va "shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotda va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash" mazkur turdagi ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanligi ham fikrimiz dalilidir.

Tahlillar va natijalar.

Aqli zaif bolalar va kattalarning shaxs va fuqaro sifatida jamiyatda o'rin topishi, ularning turli iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi, mehnat bilan band bo'lgan holda farovon turmush kechirishini ta'minlashda maktab ta'limi davrining imkoniyatlari kattadir. Aynan shu bolalar uchun ixtisoslashtirilgan

davlat ta'lim muassasalarida individual diagnostik yo'naltirilgan o'quv-ijtimoiy faoliyatni tashkil etish orqali o'quvchilarda o'qish motivatsiyasi, atrof-muhitga moslashish va o'zini namoyon etish ko'nikmalarini shakllantirishga erishiladi.

I.V.Krupennikova o'zining "Учебная мотивация младших школьников с задержкой психического развития при переходе в классы основного звена" mavzusidagi tadqiqotida o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini o'quv faoliyati kontekstida o'rganar ekan, boshlang'ich ta'lim davrida yetakchi faoliyat bu - o'quv faoliyati ekanligini ta'kidlaydi. Bir tomondan, o'quv faoliyati jarayonida o'quvchi insoniyat tajribasini o'rganish imkonini beruvchi vositalar bilan tanishadi, ikkinchi tomondan u o'qituvchi va tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi [5.-8.c.]. Biz olimaning ushbu fikrlarga qo'shilar ekanmiz, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini ijtimoiylashuv maqsadlariga yo'naltirish va o'quv-ijtimoiy faoliyatni shakllantirish va takomillashtirish maqsadlariga tashkil etilishini yoqlaymiz.

Boshlang'ich sinflarda aqli zaif o'quvchilarning o'quv-ijtimoiy faoliyati quyidagi pedagogi-psixologik aspektlarga asoslanadi:

- ijtimoiy faollikni uyg'otish;
- o'z-o'zini hurmat qilishni tarbiyalash;
- mashg'ulotlarni maksimal darajada individuallashtirish;
- o'z taqdirini o'zi belgilash istagini shakllantirish;
- hayotiy pozitsiyani tanlash qobiliyatini shakllantirish;
- jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan o'zgarishlarda faol ishtirok etish istagini shakllantirish;
- to'g'ri hulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish;
- mehnatga va faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan ish turlariga tayyorlash;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Agarda mana shu aspektlar boshlang'ich sinflarda aqli zaif bolalarning o'quv-ijtimoiy faoliyatini tashkil etishning maqsadlari sifatida belgilansa, unda mazkur sinflarda o'qitiladigan har bir fanning bu jarayondagi o'rni va ahamiyati ham yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, matematika misolida olganda, Y.V.Skiraning "Формирование базовых учебных действий у умственно отсталых младших школьников в процессе обучения решению арифметических задач" mavzusida olib borgan tadqiqotida aqli zaif bolalarda uchraydigan o'quv-amaliy muammolar tahlil qilingan bo'lib, olimning fikriga ko'ra: "Amaliyot shuni ko'rsatayotiki, aqli zaif bolalar matematikani o'rganishda qiyinchiliklarni his qiladilar, ayniqsa, bu holat arifmetik amallarni o'rgatish bilan bog'liqdir. Biroq aynan arifmetik amallarni bajarishga o'rgatish orqali aqli zaif o'quvchilarning tayanch-o'quv harakatlari shakllanishiga imkoniyat yaratadi" [7.-4.c.]. Ya'ni:

1. Aqli zaif o'quvchilarning tayanch o'quv harakatlarini arifmetik amallarni bajartirish orqali shakllantirish asta-sekin murakkablashuvchi dastur talablari asosida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilarning har bir o'zlashtirgan haarkatlari keyingi tayanch haarkatlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

2. 4-5-sinf aqli zaif o'quvchilarda shaxsga doir tayanch harakatlar ustuvorlik qiladi. Ular o'zlarini jamoada tutishga, ehtiyojlarini qondirish bo'yicha kerakli murojaatlarini amalga oshirishga tayyorlaydi.

3. Kichik maktab yoshidagi aqli zaif o'quvchilarda tayanch o'quv harakatlarni tarkib toptirishning muhim pedagogik shartlari quyidagilar: ijobiy motivasiya, o'quvchilar faoliyatini algoritmlash, tayanch o'quv harakatlarga turtki beruvchi elementar tasavvurlarni shakllantirish, tayanch o'quv harakatlarni rivojlantirishda metapredmetli yondashuv, differensial yondashuv.

4. Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch o'quv harakatlarni rivojlantirish ikki bosqichda amalga oshadi: 1) tayyorlov; 2) asosiy. Tayyorlov bosqichida turli darslar va korreksion mashg'ulotlar asosida tayanch o'quv harakatlar rivojlantiriladi. Asosiy bosqich matematika darslarida masalalar ustida ishlash, korreksion-rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llash, maxsus o'yinli topshiriqlarni bajarish, interaktiv doskalarda turli masalalar bilan ishlashni o'z ichiga oladi va natijada o'quvchilarda tayanch o'quv harakatlar tizimli rivojlantiriladi.

Yoki ona tili darslari misolida olganda, Y.N.Krauze o'zining "Формирование языковых средств выражения временных отношений в письменной речи умственно отсталых школьников" mavzusida olib borgan tadqiqot ishida vaqt munosabatlarini ifodalovchi grammatik konstruksiyalardan foydalanish aqli zaif o'quvchilarning tafakkuri va bilish faoliyatini rivojlanishiga ta'sir qilishini asoslab bergan. Olim tomonidan olib borilgan kuzatish ishlari orqali amaliyotdagi quyidagi qarama-qarshiliklar aniqlangan [4.-4.c.]:

1. Aqli zaif o'quvchilarga ona tilini o'rgatish jarayoniga korreksion-rivojlantiruvchi ish sifatida vaqt munosabatlarini ifodalovchi til vositalarini kiritishga ehtiyoj borligi va bu muammoning yetarlicha o'rganilmaganligi;

2. Adaptiv ta'lim dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilar faoliyati natijalariga qo'yiluvchi talablarning mavjudligi va bu talablarni egallash bo'yicha metodik instrumentariy ishlab chiqilmaganligi;

3. Aqli zaif o'quvchilarning vaqt munosabatlariga oid til vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik texnologiyalar o'rganilmaganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, aqli zaif bolalarning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'quv-ijtimoiy faoliyatini shakllantirish va takomillashtirish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

- fanlar va fanlararo integrasiyada o'quv va ijtimoiylashuv maqsadlarini uyg'unlashtirish;

- ta'lim mashg'ulotlarini bolaning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, uning mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan dasturlar asosida tashkil etish;

- bola shaxsini faol rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikalarini faol qo'llash;

- o'quv dasturlarini amalga oshirishda o'qituvchi asosan "tashkilotchilik" vazifasini bajargan holda, o'quvchilarning mustaqil o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish, rag'batlantirish;

- o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatida darsda olingan bilimlarni noodatij sharoitlarda va sun'iy pedagogik muhitlarda mustahkamlash uchun o'ziga xos yondashuvi va qo'shimcha dasturlarni ishlab chiqilganligi;

- o'quvchilarda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatiga aylantirishda ijtimoiy hamkorlikni samarali yo'lga qo'yilganligi.

Xulosalar.

Boshlang'ich ta'lim ixtisoslashtirilgan ta'limda ham bola shaxsi, ruhiyati va jismoniy imkoniyatlari rivojlanishi uchun tamal toshi qo'yiladi. Shunday ekan, undagi o'quv-ijtimoiy faoliyat bugungi kunda o'quv, ijtimoiy moslashuv va korreksion jarayonlarni o'zaro uyg'unlashtirilgan holda, bolani mustaqil va ichki intilishlari orqali ijtimoiylashuv sari harakatlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas" – Prezident. <https://yuz.uz/news/inson-qadri-biz-uchun-qandaydir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas> - prezident

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida. 2021 yil 12 oktabr, 638-son. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.10.2021 y., 09/21/638/0962-son)

3. Коростелева Н.А. Социальная модель инвалидности как основа формирования толерантного отношения к инвалидам // Вестник ЧГПУ. 2012. №8. С. 81-93

4. Краузе Е.Н. Формирования языковых средств выражения временных отношений в письменной речи умственно отсталых школьников. Автореф. канд. пед.наук. – Москва, 2023. С. 27.

5. Крупеникова И.В. Учебная мотивация младших школьников с задержкой психического развития при переходе в классы основного звена. Автореф. канд. психол. наук. – Ярославль, 2008. 23 с.
6. Савелева Н.В. Образование как способ социализации личности, процесс ее самоутверждения // Здоровье – основа человеческого потенциала: проблемы и пути их решений. 2020. №2. С. 1082-1087
7. Скира Е.В. Формирование базовых учебных действий у умственно отсталых младших школьников в процессе обучения решению арифметических задач. Автореф. канд. пед. наук. – Москва, 2020. С.26.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Asqarov Behzod Baxtiyor o'g'li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
(0009-0007-8001-040X)

TA'LIMDA DIZAYN FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta'limda dizayn fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati va rivojlantirish bosqichlari haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: Design thinking, asosiy tamoyillar, ta'lim-tarbiya, individual yondashuv, innovatsion va kreativ fikrlash, empatiya, fikr yaratish, prototiplash, sun'iy intellekt.

Асқаров Бехзод Бахтиер угли
докторант базовой докторантуры НамГУ

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ДИЗАЙН-МЫШЛЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В этой статье рассматривается важность и этапы развития дизайнерского мышления в образовании

Ключевые слова: Design thinking, основные принципы, образование, индивидуальный подход, инновационное и креативное мышление, эмпатия, мышление, прототипирование, искусственный интеллект.

Askarov Bekhzod Bakhtiyor ugli
Basic doctoral student of Namangan state university

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN THINKING IN EDUCATION

Abstract: This article examines the importance and stages of developing design thinking in education

Keywords: Design thinking, basic principles, education, individual approach, innovative and creative thinking, empathy, thinking, prototyping, artificial intelligence.

Kirish.

Dizayn fikrlash (Design Thinking) – bu muammolarni ijodiy va innovatsion yo'l bilan hal qilishga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, dastlab dizayn va muhandislik sohalarida rivojlanib kelgan. Bugungi kunda dizayn fikrlash ko'plab sohalarida, jumladan, biznes, sog'liqni saqlash, texnologiya, ta'lim va ijtimoiy muammolarni hal qilishda keng qo'llanmoqda.[4] Uning rivojlanishi esa har bir sohada innovatsiyalarni tezlashtiradi, murakkab muammolarni tizimli va ijodiy yo'l bilan hal qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada dizayn fikrlashni rivojlantirishning asosiy usullari va bu yondashuvni yanada samarali qilish bo'yicha takliflar muhokama qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Dizayn fikrlashning asosiy tamoyillari

Dizayn fikrlash jarayoni odatda besh bosqichdan iborat:

1. Empatiya – foydalanuvchilarning ehtiyojlarini va ularning muammolarini chuqur tushunish.

2. Muammoni aniqlash – muammolarni to'g'ri belgilash va ularning yechimlari yo'lida aniq maqsadlar qo'yish.

3. Fikr yaratish – kreativ va yangi fikrlarni yaratish jarayoni.

4. Prototiplash – tezkor prototiplar ishlab chiqish orqali fikrlarni sinab ko'rish.

5. Sinov – ishlab chiqilgan yechimlarni amalda sinab ko'rish va ular ustida ishlash.[1]

Dizayn fikrlashda bu bosqichlar takrorlanishi mumkin, ya'ni sinov jarayonida olingan natijalar asosida fikrlar va prototiplar qayta ko'rib chiqiladi.

Dizayn fikrlashni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar

1. Ta'lim tizimida dizayn fikrlashni kengaytirish

Dizayn fikrlashni rivojlantirishda ta'lim tizimida uni keng tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida dizayn fikrlashni o'rgatish va uni dars jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Dizayn fikrlash o'quvchilarga ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi.[2]

Boshlang'ich va o'rta maktablarda dizayn fikrlash o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.[5] Masalan, muammolarni yechish uchun guruhlarda ishlash, loyihalar yaratish va innovatsion yechimlar topishga undash.

Oliy ta'limda esa dizayn fikrlashni o'qitish orqali talabalar real hayotdagi muammolarni yechishga, ijodiy yondashuvlarni qo'llashga va amaliy tajriba orttirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, texnologiya, biznes va muhandislik kabi sohalar uchun muhimdir.[2]

2. Korxonalarda dizayn fikrlash madaniyatini rivojlantirish

Korporativ sektor dizayn fikrlashni rivojlantirish orqali samaradorlik va innovatsiyalarni oshirishi mumkin. Dizayn fikrlash xodimlarning ijodiy potensialini ochishga, hamkorlikni kuchaytirishga va mijoz ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ijodiy jamoalar tashkil etish: Kompaniyalarda ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus jamoalar tuzish muhim. Bu jamoalar yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni takomillashtirish ustida ishlashadi.[6]

Mijozga yo'naltirilgan yondashuv: Korxonada dizayn fikrlashni qo'llab, mijoz ehtiyojlarini o'rganish va ularning muammolarini hal qilishni birinchi o'ringa qo'yishi lozim. Mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lish va ularning fikrlarini inobatga olish korxonada mahsulotlari va xizmatlarini yaxshilashga olib keladi.[7]

3. Texnologiyalardan foydalanish

Dizayn fikrlash jarayonida texnologiyalardan foydalanish uni rivojlantirishning samarali yo'llaridan biridir. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt (AI), ma'lumotlarni tahlil qilish, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR) dizayn fikrlash jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi.

AI va ma'lumotlarni tahlil qilish: Sun'iy intellekt yordamida katta ma'lumotlar tahlil qilinishi va mijoz ehtiyojlarini chuqurroq tushunish mumkin. Bu esa empatiya bosqichida samaradorlikni oshiradi.

VR va AR: Virtual va kengaytirilgan haqiqat orqali dizayn fikrlashning prototiplash va sinov bosqichlarida

yangi imkoniyatlar yaratiladi. Mahsulot yoki xizmatlarning ko'rgazmali prototiplari mijozlarga real vaqt rejimida sinab ko'rish imkonini beradi.[8]

4. Jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish

Dizayn fikrlashning muhim qismi – bu hamkorlik. Fikr almashish va jamoaviy ish natijasida yangi yechimlar yaratiladi. Jamoalarning xilma-xilligi yangi va noyob yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi.[5]

Cross-functional jamoalar: Turli soha mutaxassislarini bir jamoaga yig'ib, muammolarni turli nuqtai nazarlardan tahlil qilish samarali natijalarga olib keladi.

Global hamkorlik: Turli geografik hududlar va madaniy tajribalar bilan ishlovchi jamoalar innovatsion fikrlashni kuchaytirishi mumkin.[6]

Adabiyotlar tahlili.

Dizayn fikrlash bo'yicha nashr qilingan ilmiy maqolalar va kitoblar o'rganilib, asosiy yondashuvlar va natijalar tizimlashtirilgan.

Tahlil va natijalar.

Dizayn fikrlashni rivojlantirish natijasida quyidagi ijodiy o'zgarishlar kuzatilishi mumkin:

Innovatsion mahsulotlar va xizmatlar: Dizayn fikrlash yangi g'oyalarning tezkor ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi orqali yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga yordam beradi.

Yuqori mijoz qoniqishi: Mijoz ehtiyojlariga asoslangan yondashuv korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarda mijozlarning qoniqishini oshiradi.

Tezkor prototiplash va sinov jarayonlari: Texnologiyalar va jamoaviy hamkorlik yordamida yangi mahsulot va xizmatlar tezroq sinab ko'riladi va takomillashtiriladi.[7]

Xulosa va takliflar.

Dizayn fikrlashni rivojlantirish uchun ta'lim, korporativ madaniyat, texnologiyalar va jamoaviy hamkorlikdan foydalanish juda muhim. Bu yondashuv samarali muammolarni hal qilish usuli sifatida nafaqat biznes va dizayn sohasida, balki boshqa sohalarida ham keng qo'llanishi mumkin.[3] To'g'ri yondashuvlar va strategiyalar orqali dizayn fikrlash kelajakdagi innovatsiyalarning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Brown, T. (2009). Change by design: How design thinking transforms organizations and inspires innovation. Harper Business.
2. Kelley, T., & Kelley, D. (2013). Creative confidence: Unleashing the creative potential within us all. Crown business.
3. Plattner, H., Meinel, C., & Leifer, L. (2010). Design thinking: understand - improve - apply. Springer.
4. Liedtka, J., & Ogilvie, T. (2011). Designing for growth: a design thinking tool kit for managers. Columbia university press.
5. Cross, N. (2011). Design thinking: Understanding how designers think and work. Berg.
6. Owen, C. (2007). "Design thinking: Notes on its nature and use." Design research quarterly, 2(1), 16-27.
7. Kolko, J. (2015). "Design thinking comes of age." Harvard Business Review, September 2015 Issue.
8. Martin, R. (2009). The design of business: Why design thinking is the next competitive advantage. Harvard business press.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Meliqo'ziyev Azizjon Adhamjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti
Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
Azizjonmelikuziyev@gmail.com

11-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNI JISMONIY, PSIXOLOGIK VA AQLIY JIHATDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu ish 11-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy, psixologik va aqliy rivojlanishiga qaratilgan maxsus tayyorgarlik usullarini o'rganishga bag'ishlanadi. Bu yosh davridagi sportchilar individual rivojlanishning o'ziga xos jihatlari hisobga olgan holda pedagogik va psixologik yondashuvlarni qo'llash zarurati yuqori. Ushbu reja erkin kurashchilar uchun moslashuvchan va samarali mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, unda sportchilarning kuch, chidamlilik, texnik mahorat va ruhiy barqarorligini oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari yosh kurashchilarning muvaffaqiyatli sport faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularga kelajakda yuksak natijalarga erishish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: erkin kurash, jismoniy rivojlanish, psixologik tayyorgarlik, aqliy rivojlanish, maxsus tayyorgarlik, sportchilar, pedagogik yondashuv, jismoniy mashg'ulotlar, chidamlilik, kuch, yosh sportchilar.

Меликузиев Азизжон Адхамжонович
Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры точных и естественных наук
Azizjonmelikuziyev@gmail.com

ЭФФЕКТИВНОЕ ФИЗИЧЕСКОЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ БОРЦОВ ВОЛЬНОГО СТИЛЯ В ВОЗРАСТЕ 11-15 ЛЕТ

Аннотация: Данная работа посвящена изучению методов специальной подготовки для физического, психологического и интеллектуального развития борцов вольного стиля в возрасте 11-15 лет. В этот период развития спортсменов важна необходимость применения педагогических и психологических подходов с учетом индивидуальных особенностей. План направлен на разработку гибкой и эффективной системы тренировок для борцов вольного стиля, где основное внимание уделяется развитию силы, выносливости, технического мастерства и психологической устойчивости. Результаты исследования способствуют успешному развитию спортивной карьеры юных борцов и позволяют достичь высоких результатов в будущем.

Ключевые слова: вольная борьба, физическое развитие, психологическая подготовка, психическое развитие, специальная подготовка, спортсмены, педагогический подход, физическая подготовка, выносливость, сила, юные спортсмены.

Melikuziev Azizjon Adhamjonovich
Lecturer of the Department of Exact and Natural Sciences
Azizjonmelikuziyev@gmail.com

EFFECTIVE PHYSICAL, PSYCHOLOGICAL, AND INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF FREESTYLE WRESTLERS AGED 11-15

Annotation: This work is dedicated to studying methods of special training for the physical, psychological, and intellectual development of freestyle wrestlers aged 11-15. During this developmental stage, it is crucial to apply pedagogical and psychological approaches that take into account individual characteristics. The plan aims to develop a flexible and effective training system for freestyle wrestlers, focusing on improving strength, endurance, technical skills, and psychological resilience. The results of this research contribute to the successful development of young wrestlers' athletic careers and help them achieve high results in the future.

Keywords: freestyle wrestling, physical development, psychological training, mental development, special training, athletes, pedagogical approach, physical training, endurance, strength, young athletes.

Kirish.

Erkin kurash sporti yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lib, u nafaqat jismoniy kuch va chidamlilikni, balki aqliy va psixologik barqarorlikni ham talab qiladi. Ayniqsa, 11-15 yosh oralig'idagi sportchilar uchun bu davr nafaqat sport mahoratini oshirish, balki umumiy jismoniy va ruhiy rivojlanish jarayoni bilan ham bog'liqdir. Shu yosh davrida sportchilar o'z kuchlari va texnik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, raqobatbardosh bo'lish uchun ruhiy chidamlilikni ham o'stirishlari kerak. Ushbu tadqiqot 11-15 yoshli erkin kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonini pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib, sportchilarning kuch, chidamlilik va texnik mahoratlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mashg'ulot jarayonlarida yosh sportchilar uchun individual yondashuvni tanlash va ularning ruhiy-psixologik holatini hisobga olish muhimdir. Bu jarayon sportchilarning kelgusidagi muvaffaqiyatli sport faoliyatini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Erkin kurashchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligiga bag'ishlangan tadqiqotlar sportchilarning rivojlanishida yondashuvlar va mashg'ulot usullarining muhimligini ta'kidlaydi. Bu yo'nalishda mavjud adabiyotlar turli yosh guruhlar uchun jismoniy tayyorgarlik jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa, 11-15 yosh oralig'idagi sportchilarning rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, ularning jismoniy, psixologik va aqliy jihatlarini bir-biriga bog'liq holda shakllanadi.

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha tadqiqotlar ko'rsatadiki, yosh sportchilarning rivojlanishi uchun maxsus mashg'ulotlar, kuch va chidamlilikni oshirish mashqlari muhim o'rin tutadi. Ko'pgina manbalarda erkin kurash texnikasining asosiy qirralari, ya'ni kuch, tezlik va moslashuvchanlik, yosh sportchilar uchun asosiy rivojlanish omillari sifatida ko'rsatib beriladi (Иванов, 2018). Bu jarayon davomida tana harakatlarining mukammallashuvi hamda moslashuvchanlik va o'yin holatida to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatlari ham e'tiborga olinadi.

Psixologik tayyorgarlik bo'yicha tadqiqotlar esa sportchilarning raqobatbardosh bo'lishi uchun stressni boshqarish, ruhiy chidamlilikni oshirish va o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish kabi omillarni ta'kidlaydi (Петров, 2020). Erkin kurash kabi sport turlari katta kuch va stress talab qilgani sababli, sportchilar o'zlarining ruhiy holatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Buning uchun mashg'ulotlarda psixologik treninglar, stressli vaziyatlarga moslashish va jamoaviy muloqotning samarali usullaridan foydalanish taklif etiladi (Николаев, 2019).

Aqliy rivojlanish mavzusiga oid adabiyotlar yosh sportchilarning o'yin strategiyasi, taktika va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishni muhim deb biladi. Erkin kurash texnikasi nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki aqliy faollikni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, aqliy rivojlanishni kuchaytirishga qaratilgan mashg'ulotlar sportchiga raqibni o'rganish, uning harakatlarini taxmin qilish va unga qarshi tezkor strategiyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini o'rgatadi (Смирнов, 2021).

Pedagogik yondashuvlar haqida yozilgan tadqiqotlar esa, yosh sportchilar bilan ishlashda o'yin usullari, o'zlashtiriladigan texnik elementlarni sodda va tushunarli tarzda taqdim etishning samaradorligini ta'kidlaydi (Капов, 2017). Shu bilan birga, individual yondashuvning zarurligi va har bir sportchining rivojlanishiga mos mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish muhimligi qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kurash texnikasini o'rganish va yosh sportchilarning texnik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali metodologiyalarni qo'llash juda muhimdir. Ushbu tadqiqot metodologiyasi kurash texnikasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar va amaliy tadqiqotlarga asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi sportchilarning texnikani to'g'ri o'zlashtirishiga yordam beruvchi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va tekshirishdir. Tadqiqot kurash texnikasini o'rganishda eksperimental va amaliy usullardan foydalanadi. Eksperimental yondashuv kurash texnikasi elementlarining samaradorligini o'rganish va ularni amalga qo'llash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, nazariy manbalardan foydalanib, kurash texnikasi va taktikasi bo'yicha ilg'or metodlar tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar.

Kurash texnikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi 11-15 yoshli sportchilarning texnik ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning jismoniy, psixologik tayyorgarlik darajasini baholash edi. O'tkazilgan eksperiment va mashg'ulotlar jarayonida olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, texnik elementlarni o'zlashtirish va takomillashtirish samaradorligi o'rganildi.

Texnik ko'nikmalarni tahlil qilish

Dastlabki sinovlar: Sportchilarning dastlabki texnik tayyorgarligi baholanganda, ularning texnik elementlarni bajarish ko'nikmalarida turli darajadagi tajriba va mahorat farqlari aniqlandi. Ularning aksariyati texnikaning asosiy harakatlari bilan tanish bo'lsa-da, ko'plab xatoliklar mavjud edi, jumladan:

• **Tayyorgarlik va muvozanat yo'qligi:** Ba'zi sportchilar raqib bilan to'qnashuvlarda muvozanatni saqlashda qiyinchiliklarga duch kelishdi.

• **Hujum va himoya texnikasida sustlik:** Sportchilar hujum va himoya texnikalarini bajarishda zarur tezlik va aniqlikka erishmagan.

• **Taktik xatolar:** Sportchilar raqib harakatlariga tez javob berishda va qarshi texnikalar qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yganlar.

Eksperimental mashg'ulotlar natijalari: Eksperimental mashg'ulotlar davomida sportchilar texnik elementlarni ko'proq amaliyot bilan mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ushbu bosqichda:

• **Texnik elementlarning takomillashuvi:** Mashg'ulotlar davomida sportchilar ushlar, burilish va qulatilish texnikalarini sezilarli darajada yaxshiladilar.

• **Muvozanat va kuchli nazorat:** Sportchilar raqibni ushlar va uni nazorat qilish texnikalarini yaxshiroq o'zlashtirib, raqib bilan bevosita kurashish qobiliyatlarini oshirdilar.

• **Taktik rivojlanish:** Mashg'ulot davomida sportchilar raqibning harakatlarini oldindan bilish va unga qarshi strategik harakatlar qilishda muvaffaqiyatga erishdilar. Bu ularga raqobatbardoshlik darajasini oshirish imkonini berdi.

Yakuniy natijalar:

• **Jismoniy ko'rsatkichlarning o'sishi:** Sportchilarning kuch, chidamlilik va tezkorlik darajasi nazorat testlari orqali baholaganda, ular dastlabki natijalariga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanishga erishdilar.

• **Psixologik barqarorlik:** Stressli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish va raqib bilan to'qnashuvlarda ruhiy barqarorlikni saqlash bo'yicha sportchilarning ko'nikmalari rivojlandi. Ushbu ko'nikmalar o'yinlar davomida ularning muvaffaqiyat qozonishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

• **Aqliy rivojlanish:** Taktik va strategik ko'nikmalarni o'rgatish orqali sportchilar raqibni o'rganish va ularning harakatlarini oldindan bilishga o'rganishdi. Bu texnik elementlarning takomillashtirilishiga va samarali qarshi hujumlarga yordam berdi.

Statistik tahlil

O'tkazilgan test va amaliy mashg'ulotlar natijalari statistik tahlil qilinganida, texnik ko'rsatkichlarning oshishi sezilarli bo'ldi. Nazorat va tajriba guruhlari o'rtasidagi farqlar aniqlandi, va eksperimental guruh texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha yuqori natijalarga erishdi. Shuningdek:

• **Ushlab turish va qulatilish texnikasida aniqlik:** Ushbu texnik elementlarni bajarishda eksperimental

guruhdagi sportchilarning aniqlik darajasi 20% ga yaxshilandi.

• **Tezlik va reaksiya vaqti:** Sportchilar texnik elementlarni bajarishda o'rtacha 15% tezroq harakat qilishga erishdi.

• **Muvozanatni saqlash ko'nikmalari:** Nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruh sportchilarida muvozanatni saqlash qobiliyati va kuchni boshqarish darajasi sezilarli oshdi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot 11-15 yoshli erkin kurashchilarni jismoniy, psixologik va aqliy jihatdan rivojlantirishda maxsus texnik va pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan edi. O'tkazilgan tahlillar va eksperimentlar natijalariga ko'ra, yosh sportchilarni texnik ko'nikmalarni to'g'ri o'zlashtirish, jismoniy tayyorgarlikni oshirish va psixologik chidamlilikni shakllantirish orqali ular raqobatbardosh darajaga yetkazilishi mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar olindi:

• **Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish:** Maxsus mashg'ulotlar orqali sportchilarning texnika va taktik mahoratlari sezilarli darajada yaxshilandi. Ushlab turish, qulatilish va qarshi harakatlarga tezkor javob berish texnikalari takomillashdi.

• **Jismoniy rivojlanish:** Sportchilarning kuch, chidamlilik va tezlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi, bu ularning musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishiga yordam berdi.

• **Psixologik tayyorgarlik:** Stressli vaziyatlarda sportchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ruhiy barqarorlikni shakllantirish va tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatlari kuchaydi.

• **Pedagogik yondashuvlarning samaradorligi:** Individual yondashuv va o'quv dasturlarini sportchilar ehtiyojlariga moslashtirish natijasida, sportchilarning texnik va ruhiy rivojlanishi bir vaqtda qo'llab-quvvatlandi.

Tadqiqot natijalariga asosan, yosh erkin kurashchilarning rivojlanishi uchun jismoniy, psixologik va texnik ko'nikmalarni uyg'un ravishda shakllantiruvchi kompleks yondashuvlar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar sportchilarning nafaqat texnik ko'nikmalarini, balki psixologik barqarorlik va musobaqa sharoitida raqobatbardoshliklarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ivanov, S.A. (2018). **Erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik usullari.** Moskva: Sport va ilm-fan.
2. Petrov, I.V. (2020). **Musobaqalarda sportchilarning psixologik tayyorgarligi.** Sankt-Peterburg: Ilmiy nashr.
3. Nikolaev, V.G. (2019). **Yosh kurashchilarda chidamlilik va kuchni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar.** Moskva: Olimpiya qo'mitasi.
4. Smirnov, A.K. (2021). **Erkin kurashda strategiya va taktika: metodik tavsiyalar.** Novosibirsk: Sport va sog'liq.
5. Karpov, L.M. (2017). **Yosh sportchilarni o'qitishda pedagogik yondashuvlar.** Moskva: Sport akademiyasi nashriyoti.

6. Jonson, M.R. (2020). **Yosh sportchilarda psixologik chidamlilik: nazariya va amaliyot.** Nyu-York: Sport psixologiyasi nashriyoti.
7. Devis, T.P. (2018). **Erkin kurashda texnik mahorat: to'liq qo'llanma.** London: Atletika nashriyoti.
8. Braun, A.J. (2019). **Kurashchilar uchun jismoniy rivojlanish va chidamlilik mashg'ulotlari.** Chikago: Kuch va tayyorgarlik nashriyoti.
9. Pavlov, A.N. (2018). **Yosh erkin kurashchilarning kompleks tayyorgarligi.** Yekaterinburg: Sport va yoshlar.
10. Uayt, K.L. (2021). **Erkin kurashda strategiyaning roli: yosh sportchilarni rivojlantirish.** Boston: Sportchilarni rivojlantirish nashriyoti.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Abduraxmonov Dilmurod Akramaliyevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Orcid ID: 0009-0004-5552-0588

UDK: 378.014.15

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA KREATIV-PEDAGOGIK YONDASHUV IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning texnologik tizimi, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ-pedagogik yondashuv imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, kreativ-pedagogik, kompetentlilik, ta'lim-tarbiya, reproduktiv, retrospektiv, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kreativ-pedagogik yondashuv, texnologik tizim, nazariy-metodologik asos.

Абдурахманов Дилмурод Акрамалиевич

Независимый исследователь Кокандского государственного педагогического института

ВОЗМОЖНОСТИ КРЕАТИВ-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования профессиональной компетентности будущих педагогов на основе творчески-педагогического подхода, технологическая система формирования профессиональной компетентности будущих педагогов на основе творчески-педагогического подхода, эффективность формирования профессиональной компетентности в будущем. педагогов на основе творчески-педагогического подхода. Также были проанализированы возможности творчески-педагогического подхода к подготовке будущих педагогов.

Ключевые слова: будущий педагог, творчески-педагогический, компетентность, образовательная, репродуктивная, ретроспектива, компетентность, профессиональная компетентность, творчески-педагогический подход, технологическая система, теоретико-методологическая основа.

Abdurakhmonov Dilmurod Akramaliyevich

Independent researcher of the Kokand State Pedagogical Institute

POSSIBILITIES OF CREATIVE-PEDAGOGICAL APPROACH IN TRAINING FUTURE PEDAGOGUES

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations of developing professional competence in future pedagogues based on a creative-pedagogical approach, the technological system of developing professional competence in future pedagogues based on a creative-pedagogical approach, and the effectiveness of developing professional competence in future pedagogues based on a creative-pedagogical approach. Also, the possibilities of a creative-pedagogical approach to the training of future pedagogues were analyzed.

Key words: future pedagogue, creative-pedagogical, competence, educational, reproductive, retrospective, competence, professional competence, creative-pedagogical approach, technological system, theoretical-methodological basis.

Kirish.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri ularda kreativ kompetensiyani rivojlantirishdir. Kreativ kompetensiyaga ega bo'lajak pedagoglarni tayyorlash zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kreativlik barcha sohalarning ajaralmas qismi, yo'nalishi va strategik ahamiyatga ega jihati sifatida qaraladi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayoni va uni talaba shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash, bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik asoslari Wilson, J.Kim, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, N.Shodiyev, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, V.Slastenin, D.Ro'ziyeva, B.Xodjaye, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, Y.Shiyanov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Natijalar va muhokama.

Hozirgi vaqtda pedagogik faoliyatga qo'yilayotgan talablar yaratilgan malaka talablarining tizimli-faoliyatli yondashuvdan yangicha, kompetent yondashuv asosida tuzilishiga erishish shartini qo'ymoqda. Zamonaviy jamiyatda ma'lum tizimga asoslangan yoki aniq meyorlar bilan belgilab qo'yilgan sharoitda shaxs o'zini kreativ jihatlarini rivojlantira olmaydi. Shu ma'noda shaxsda kreativ sifatlar namoyon bo'lishi uchun yangicha muhit, yetarlicha e'tibor vamunosabat lozim. Bu esa ta'limga kompetentli yondashuvni tatbiq etishni taqazo etadi.

Bugungi tezkor davrda boy tasavvurga, ijodkorona g'oyalarga, keng ma'noda kreativ sifatlariga ega bo'lmay turib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarga eorishib bo'lmaydi.

Kreativlik, kreativ xususiyatlar, ta'limni kreativ tashkil etish va uning mazmun-mohiyati, pedagogik-psixologik, ijtimoiy-falsafiy jihatdan respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlarning tadqiqotchi-olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kreativlik tushunchasini pedagogik jihatdan tahlil etib, kreativlikni yuzaga chiqarish va rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda "pedagog kadrlarning kreativligini faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitgadoir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqish lozimligini" A.Aripdjanova o'z tadqiqotlarida aniqlagan. G.Ibragimova "kreativlik – yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui" sifatida namoyon bo'ladi degan g'oyani ilgari suradi va kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiya kabi sifatarni qamrab olishini ta'kidlaydi. Ushbu sifatlar esa shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bo'lib, kreativlik bevosita shaxsning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ham bog'liq ekanini ko'rish mumkin.

SH.Pozilova esa tadqiqot ishida "kreativlik deganda shaxsning nostardart fikrlashi natijasida yangi, original g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati" degan xulosani beradi. Uning qarashlari fikrimizcha, tadqiqotchi G.Ibragimovanning kreativlikka bergan ta'rifining davomi sifatida ifodalanmoqda.

Kreativlika tushunchasi nafaqat pedagogikada, balki psixologiya va falsafa sohalarida ham yuqori qiziqish bilan o'rganiladi.

Falsafa ensiklopediya lug'atida kreativlik (lotincha "sreo" -ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko'rinishdayechimini topishga yo'naltirilgan ijodiy o'zgarishlarga bo'lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi.

Kreativlikka psixologik nuqtai nazardan "insonning ijodiy imkoniyatlarini namoyon bo'lishi (fikrlash, xis-tuyg'ular, muloqot, shaxsiy faoliyat) sifatida qaraladi va umumiy holda uning alohida jihatlarini, faoliyat mahsulotlarini, ularni yaratish jarayonini tavsiflaydi" deya ta'rif beriladi.

Kreativlik atamasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlaramalga oshirilgan va bu izlanishlar nazariy-amaliy jihatdan ma'lum natijalarga olib kelgan bo'lsa-da, kreativlikning yagona va izchil nazariyasi hali ham mavjud emas, ya'ni ko'p tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjud.

Kreativlikni ijtimoiy-pedagogik va psixologik asoslarini tadqiq etgan g'arb olimi Teylor yozganidek, XX asr 60-yillarda kreativlikka 60 ta'rif berilgan. Ilk bor 1922 yilda D.Simpson tomonidan "kreativlik" tushunchasidan foydalangan, u ushbu tushunchani "odamning standart fikrlash tarzidan voz kechish qobiliyati sifatida vayingilik yaratadigan, an'anaviy fikrlash tarzidan chetga chiqadigan ijodiy faoliyat bilan bog'liq" deb izohlagan. U shaxsda kreativlik yillar davomida shakllanib, rivojlanib borishiga ishongan.

Tadqiqotchilar YE.S.Gromova va V.A.Molyako qarashlarida shaxs kreativligining yettita belgisini ta'kidlab o'tadilar: "o'ziga xoslik, yaratuvchilik, fantaziya, faollik, maqsadga yo'nalganlik, aniqlik, ta'sirchanlik". A.Maslou kreativlik tushunchasini 2 turga ajratgan holda tahlil qiladi. YA'ni "tug'ma iste'dodli shaxs kreativligi va shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi". U kreativlikni inson tabiatining fundamental karakteristikasi sifatida ko'radi, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketishi ham mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun shaxs kreativligini so'ndirmaslik, aksincha, uni takomillashtirish haqida ko'proq o'ylash lozim. B.Jonson xulosalariga ko'ra kreativlik – kelajakka turtki beradigan xususiyatdir. "Kreativlik – shaxsni ilhomlashtirishga xizmat qiladi, shu nuqtai nazardan shaxsning kreativligini shakllantirish va rivojlantirish har qanday ta'lim qismiga singdirilishi lozim". Uning kreativlik to'g'risidagi fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, kreativ shaxsni yaratish ta'lim tizimining, umuman olganda jamiyatning asosiy funksiyasiga aylanishi lozim.

Nufuzli amerikalik psixolog Abraham Masloug binoan – bu tug'ma va hammaga xos, ammo muhit ta'siri ostida ko'pchilik yo'qotadigan ijodiy yo'nalganlik. Amerikalik psixolog E.P.Torrensning fikriga ko'ra, kreativlik –individning nostardart, kreativ fikrlash

qobiliyati, «muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik, yangi farazlarni ilgari surish asosida muammolarning yechimini izlash va topish, farazlarni aniqlash, tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish qobiliyatidir. Ijodiy jarayon turli xil intellektual xususiyatlarni talab qiladigan bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchilardan bo'lib 1926 yilda G.Uolles ijodiy jarayonning to'rt bosqichini belgilab berdi, «ular o'sha paytdan beri klassik deb hisoblanib, u yoki bu shaklda barcha zamonaviy tasniflarda ko'rinadi:

1. Tayyorgarlik. Muammoni baholash, yechim topishga qaratilgan dastlabki urinishlar. Bu yerda mantiqiy fikrlash ko'proq talabga ega bo'lib, mavjud bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlashga imkon beradi.

2. Inkubatsiya. Biror kishi boshqa masalalar bilan shug'ullanganda va muammoni hal qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri urinishlar qilmasa, ammo ongsiz darajada uning yechimini izlashda davom etsa, muammoni vaqtincha qoldirish.

3. Yorishish/insayt. Muammoni hal qilish to'satdan paydo bo'ladi, qanchalik ko'p bo'lmasin va ko'pincha odam ushbu muammo haqida o'ylamagan paytlarda paydo bo'ladi. Bu bosqichda, avvalgi bosqichda bo'lgani kabi, ijodiy fikrlashdan ko'ra tasavvur ko'proq ahamiyatga ega.

4. Baholash - tayyorgarlik kabi, asosan an'anaviy, mantiqiy fikrlashga asoslangan holda amalga oshiriladi».

S.L.Yarmoshenko Britaniyaning falsafiy lug'atida berilgan ta'riflari asosida "sreativity" tushunchasini tahlil qilib, "kreativlik -noan'anaviy fikrlash qobiliyati bo'lib, biror narsa yaratish uchun ijodiy kuch" degan xulosaga keladi. Biz ham muallifning fikrlarini ma'qullaymiz. Haqiqatda, kreativlik bor joyda qo'rkuv bo'lmaydi, kreativ shaxs oldiga qo'yilgan kutilmagan vazifalarni o'z aql kuchiga tayangan holdahol eta oladi.

Xulosa.

T.Edison "shaxs har qanday sohada kreativ sifatlarni o'zida rivojlantirishi mumkin", buning uchun ko'p izlanish, mehnat va qat'iyat talab etilishini ta'kidlagan. U o'zining hayoti davomidagi tajribalari asosidakreativ shaxs darajasiga erishish uchun quyidagi juda oddiy va natijaviy prinsiplarni belgilagan:

- biror mavzu yuzasidan fikr yoki g'oyalar ustida ishlaganda, imkon qadar ko'proq g'oyalarni o'ylash;

- doimiy bir xillikdan qoching, taxminlarni sinab ko'rishdan cho'chimaslik;

- o'zini va atrofdagilarning xatolaridan saboq olish;

- egallagan bilim va erishgan yutuqlar bilan chegaralanib qolmaslik, aksincha doimiy izlanishda bo'lish.Ushbu keltirilgan Edisonning kreativ shaxs bo'lishga yo'naltiruvchi prinsipi shaxsning o'z harakatlari va intilishlariga qaratilgan bo'lib, bu mehnatlar natijasida har tomonlama yuksalishga, kutilmagan muvaffaqiyatlarga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jonson B. 4 Ways to Develop Creativity in Students. George lucas educational foundation. 2019. – P. 35
2. Maslow A.X. The father reaches of human nature NY: Viking. – 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books. – 1973. – P. 126-128.
3. Torrance, E. P. (1981), Thinking creatively in action and movement, Bensenville (IL.), Scholastic testing service.-P. 56.
4. Большой психологический словарь. – М.: Прайл-ЕВРОЗНАК. Под ред. Б.Г.Мещерякова, акад. В.П.Зинченко. 2003. – 92 с.
5. ИльинЕ.П. Психологиятворчества, креативности, одаренности. СПб.:Питер, 2009. - 448с
6. Новейший словарь иностранных словивыражений. -Мн.: Харвест. –М.: ООО "ИздательствоАСТ", 2001. – С.202.
7. Философия: Энциклопедический словарь. Под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарика, 2004. –Б. 108 с. (ISBN 5-8297-0050-6).

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Qodirova Dilshodaxon Abdunabiyevna
Farg'ona davlat universiteti
Ijtimoiy-gumanitar kafedrası o'qituvchisi
qodirovadilshodaxon0113@gmail.com

MATEMATIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada bolalarning aqliy rivojlanishida mantiqiy amallarning bajarilishi va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Mantiqiy tafakkur bolalarda mantiqiy amallar, masalan, qiyoslash, tasniflash, tahlil va sintez jarayonlari orqali rivojlanadi. Ushbu amallar bolalarda aqliy rivojlanishning asosiy vositasi sifatida qaralib, ularning matematik va boshqa fanlarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Maqola, shuningdek, mantiqiy amallar orqali bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va aqliy faollikni oshirish masalalarini ham o'rganadi. Mantiqiy tafakkur bolalarda sabab-oqibat munosabatlarini to'g'ri anglash, murakkab vaziyatlarda muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, mantiqiy amallar bolaning intellektual salohiyatini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: fenomenal, intellektual, chastota, vizualizatsiya, stimulyatsiya, eksrtaksiya, kognitiv.

Кадырова Дильшодахон Абдунабиевна
Ферганский государственный университет
Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук

РОЛЬ МЕНТАЛЬНОЙ АРИФМЕТИКИ В РАЗВИТИИ МАТЕМАТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Аннотация: В статье рассматривается выполнение логических операций в умственном развитии детей и их роль в образовательном процессе. Логическое мышление у детей развивается через такие логические операции, как сравнение, классификация, анализ и синтез. Эти операции рассматриваются как основные инструменты умственного развития детей и оказывают положительное влияние на усвоение математики и других предметов. В статье также изучаются вопросы формирования навыков самостоятельного мышления и повышения умственной активности у детей через выполнение логических операций. Логическое мышление помогает детям правильно понимать причинно-следственные связи и решать сложные задачи. Кроме того, логические операции рекомендуются как важный фактор для повышения интеллектуального потенциала детей, развития креативного и критического мышления.

Ключевые слова: феноменальный, интеллектуальный, частота, визуализация, стимуляция, экстракция, когнитивный.

Kadirova Dilshodaxon Abdunabiyevna
Fergana State University
Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences

THE ROLE OF MENTAL ARITHMETIC IN DEVELOPING MATHEMATICAL SKILLS

Abstract: The article examines the execution of logical operations in the mental development of children and their role in the educational process. Logical thinking in children develops through such logical operations as comparison, classification, analysis, and synthesis. These operations are viewed as fundamental tools for children's mental development and positively impact the learning of mathematics and other subjects. The article also explores the formation of independent thinking skills and the enhancement of children's mental activity through the execution of logical operations. Logical thinking helps children correctly understand cause-and-effect relationships and solve complex problems. Additionally, logical operations are recommended as an important factor for increasing children's intellectual potential and developing creative and critical thinking.

Keywords: phenomenal, intellectual, frequency, visualization, stimulation, extraction, cognitive.

Kirish.

12 yoshga to'lgunga qadar o'zlashtirilgan atigi bitta mahorat farzandingiz kelajagini o'zgartirishi mumkin. Ilm-fan muvaffaqiyatga erishish qobiliyati miyaning o'ng va chap yarim sharlari uyg'un rivojlanishiga bog'liqligini isbotladi. Agar 5-12 yoshli bolalar o'ng yarimsharini chap tomon darajasiga qadar rivojlantirsak, ancha jiddiy natijalarga erishadilar.

Xo'sh; bunga qanday erishish mumkin?

Bunga erishishda mental arifmetika samarali usul hisoblanadi.

Mental arifmetika – bu abacus bo'yicha arifmetik hisoblar yordamida aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun juda samarali dastur. 4-16 yoshli bolalar uchun xos. Mustaqil, tashabbuskorlik, o'zini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Mental arifmetika allaqachon dunyoning 52 mamlakatida ishlaydi. Mental arifmetika muhandislik va matematika tafakkurni rivojlantiradi, o'quvchilar diqqatini berilgan topshiriqlarga jamlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni yodlash va murakkab matematik misollarni yechish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'zlashtirilgan qobiliyatlar aqlning rivojlanishiga va shaxsning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili.

Mental arifmetika qo'shimcha ta'lim uchun istiqbolli platforma bo'lib, o'quv jarayonida ajoyib intellektual va ijodiy rivojlanish natijalariga erishishga imkon beradi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning jadal sur'atlari zamon bilan hamnafas bo'lishga, zamonaviy bolalar ta'lim-tarbiyasiga munosib e'tibor qaratishga undaydi. Maktab va maktabgacha ta'lim dasturlari yetarli emas. Shuning uchun aqliy arifmetikaning dolzarbligi paydo bo'ldi.

Og'zaki sanashni o'rgatishning bu tizimi bir ming yildan ko'proq vaqt davomida mavjud bo'lgan qadimiy abacus sanoqdan foydalanishga asoslangan, shuning uchun ular ko'p avlodlar tomonidan vaqt va amaliyot tomonidan sinovdan o'tgan.

Arifmetik amallarni bajarish jarayonida bola bir vaqtning o'zida ikkala qo'lining bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq bilan yog'och suyaklarni harakatga keltiradi, bu esa miyaning ikkala yarimsharlarini uyg'un rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga bola naqshli igna ustidagi suyaklarning ma'lum pozitsiyasi shaklida raqamlar va matematika harakatlarni ifodalashni o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Miyaning chap yarim shari mantiq, matematik qobiliyatlar, tildagi farq uchun javobgardir, o'ng yarim sharda esa ijodkorlik, san'at, tasavvur, vizualizatsiya va og'zaki bo'lmagan jihatlarga munosabat mavjud. Malayziya olimlari ham bu xulosani qo'llab-quvvatlamodalar. Abakusda ishlaganda ikkala qo'ldan foydalanish dastlab miyaning ikkala tomonini stimulyatsiya qiladi. Chunki bola doimo ikki qo'li bilan harakat qiladi. Abakus bilan ishlash doimiy jarayon bo'lib, bola suyaklarini doimiy ravishda his qiladi va harakatga

keltiradi. Shu bilan miyaning ikkala qismini faollashtiradi. Odam ilgari faqat matematik daholar uchun mumkin bo'lgan eksrtaktsiya tezligiga erishadi.

Shunday qilib abakuslarda matematik hisoblar yordamida og'zaki arifmetika tizimiga asoslangan dastur bo'yicha aqliy arifmetikani o'rgatish dasturining samaradorligiga olimlar tomonidan izohlanadi:

1. Tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish – ko'rish qobiliyati o'rganish, aqliy rasmni yaratish shu bilan birga xotira hajmini oshiradi. Xorij psixologiyasida bu jarayon flesh karta yaratish deb ataladi – bu abacusda joylashgan suyaklarning virtual tasvirini yaratish mahoratidagi farqdir. Dasturining oxiriga kelib, bolaning xotirasida saqlangan milliondan ortiq tasvir mavjud bo'ladi;

2. Diqqat markazini va topshiriqqa javob berish tezligini rivojlantirish, shuningdek, belgilar tizimlarini qurishda bir qator kognitiv jarayonlar va resurslarni kiritish qobiliyati;

3. O'ziga bo'lgan ishonchdagi farq, murakkab matematik hisoblar qo'rquvidan xalos bo'lish, aqliy hisoblash texnikasini o'zlashtirgan bolada o'zini-o'zi qadrlashning rivojlanishi;

4. Aqliy arifmetikani o'rgatishda faollik yondashuvini hisobga olish.

Yaponiyada bolalar boshlang'ich maktabda abacus(sorobon) o'rganishlari shart. Ta'limga bunday yondashuv allaqachon o'z natijasini berdi.

Xitoylik va yaponiyalik o'qituvchilarning fikricha, agar kattalar va bolalar bir vaqtning o'zida abacus bilan shug'ullanishni boshlasa, kattalar bolalar kabi natijalarga erisha olmaydi. Dastur 2 yilga mo'ljallangan, ammo ot-onalar 3-4-oydan keyin birinchi natijalarni sezadilar.

Tahlillar va natijalar.

Xorijda aqliy arifmetikaning shaxsning intellektual yoki shaxsning rivojlanishiga ta'siri sohasida jiddiy ilmiy tadqiqotlar mavjud. Stanford universiteti professori Mishel Frank Indneyda murakkab va ilmiy tadqiqot olib borib, aqliy hisob-kitoblar lingvistik tizim bilan ishlamaydi, lekin asosan aqliy tajribaga, chastotaga asoslangan degan xulosaga keldi. Olim o'z hamkasblari bilan birgalikda hisob-kitoblarni turli yo'llar bilan bajarishga xalaqit bergan holda (bosish, kitobni ovoz chiqarib o'qish va h. k) subyektlarga arifmetik amallarni bajarish topshirig'ini bergan. Ma'lum bo'lishicha, aqliy arifmetika maktablari o'quvchilari ushbu dastur bo'yicha mashg'ulotlar o'tmagan guruhlariga nisbatan eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. O'qitilmagan guruh og'zaki aralashuvga ko'proq moyil edi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab bolalar uchun o'rganish natijasi nafaqat aniqlangan hisoblash qobiliyati, balki diqqatni jamlashni, xotira qobiliyatini yaxshilaydi, majoziy fikrlashni, tasavvurni va kuzatishni rivojlantiradi, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini yaxshilaydi. Shu bilan birga hissiy va irodaviy fazilatlar (mustaqillik,

natijaga erishishda qat'iylik, xatti-harakatlarni ixtiyoriy tartibga solish, o'ziga ishonch) rivojlanadi.

Xulosa.

Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning bilimlarini o'rgatish va mustahkamlashga to'g'ri yondashish bilan ular 2,3,4 xonali raqamlar bilan ongida arifmetik harakatlarni bajarishda fenomenal ko'nikmalarni namoyish etishlarini ta'kidlaydi. Olimlar va amaliyotchilar dasturi samaradorligining muhim omilini shunda ko'rishadiki, o'quv jarayonida bola deyarli har doim muvaffaqiyatga erishish jarayonini boshdan kechiradi, bu ijobiy mustahkamlash, o'ziga xos usul bilan bog'liqdir. Bola tezda javob oladi, to'g'ridan-to'g'ri natijani

ko'radi, bularning barchasi katta imkoniyatlar va o'ziga ishonch hissini yaratadi.

Amerikalik muhandislik fanlari doktori va professor, ilg'or fan va texnologiyalar tadqiqot instituti direktori Toshio Xavashi 2000-yil 30-iyulda Kinugavada o'qigan ma'ruzasida shunday dedi: „Miya fiziologiyasi va texnologiya yutuqlari bo'yicha tadqiqotlar orqali biz miyadagi qon oqimi miqdorini aniq o'lchashimiz mumkin, bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, barcha hisob-kitoblarga ko'ra miyaning o'ng yarimsharini faollashtirishda juda samarali“.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mental arifmetika har qanday biznesda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Frank, M. (2010). *Mental Arithmetic and Cognitive Development in Children*. Stanford University Press.
2. Yoshida, T., & Nakamura, H. (2005). *The Role of Abacus in Enhancing Logical Thinking and Memory Skills*. Tokyo Educational Research Institute.
3. Hashimoto, S. (2000). *Exploring the Benefits of Mental Arithmetic in Early Childhood Education*. *Journal of Cognitive Development*, 45(3), 234-249.
4. Toh, H. L., & Lim, K. (2002). *Mental Arithmetic and Brain Development in Young Children: A Study in Malaysia*. *Asian Journal of Child Development*, 12(1), 101-117.
5. Hawashi, T. (2000). *Advanced Research on Brain Stimulation Through Abacus-Based Calculations*. Kinugawa Conference on Cognitive Science, July 30, 2000.
6. Lee, M., & Chan, Y. (2004). *Abacus Learning: Bridging Mathematics and Creativity*. *Educational Review*, 56(4), 456-469.
7. Indney, M. F. (2015). *Mental Arithmetic: A Pathway to Enhancing Memory and Analytical Skills*. *Journal of Educational Psychology*, 22(2), 178-190.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Dusmatov Ulugbek Begmatovich

T.N.Kari Niyazi named after pedagogical sciences
of Uzbekistan scientific research
independent researcher of the Karakalpak branch of the Institute

ANALYSIS OF MODERNIZATION OF THE SYSTEM OF IDEOLOGICAL EDUCATION OF THE ARMED FORCES SERVANTS

Annotation: This article examines contemporary efforts and strategies implemented in the Republic of Uzbekistan to modernize the system of ideological education within its Armed Forces. The study concentrates on the recent stages of development, shedding light on the evolving landscape of ideological education in the military and its alignment with the nation's broader modernization initiatives. By analyzing the historical context, policy reforms, technological integration, adaptation to contemporary challenges, international cooperation, and the impact on military personnel, the article seeks to contribute valuable perspectives to the ongoing discourse on military education in the context of evolving national and global security landscapes.

Key words: education, ideological, strategies, system, national identity, loyalty, commitment, Armed Forces, Republic of Uzbekistan, military, modernization.

Дусматов Улугбек Бегматович

T.N.Кари-Ниязи им. педагогические науки
Узбекистана научное исследование
независимый исследователь Каракалпакского филиала Института

АНАЛИЗ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СЛУЖАЩИХ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные усилия и стратегии, реализуемые в Республике Узбекистан по модернизации системы идеологического воспитания в Вооруженных Силах. Исследование концентрируется на последних этапах развития, проливая свет на развивающуюся картину идеологического образования в вооруженных силах и его соответствие более широким инициативам страны по модернизации. Анализируя исторический контекст, политические реформы, технологическую интеграцию, адаптацию к современным вызовам, международное сотрудничество и влияние на военнослужащих, статья стремится внести ценный вклад в продолжающийся дискурс о военном образовании в контексте развития национальной и глобальной безопасности.

Ключевые слова: образование, идеологические, стратегии, система, национальная идентичность, лояльность, приверженность, Вооруженные Силы, Республика Узбекистан, военные силы, модернизация.

Dusmatov Ulug'bek Begmatovich

T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti Qoraqalpog'iston filiali mustaqil tadqiqotchisi

QUROLI KUCHLAR XIZMATCHILARINING G'OYAVIY TA'LIM TIZIMINING MODERNIZATSIYASI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarida madaniy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan zamonaviy sa'y-harakatlar va strategiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosiy e'tibor rivojlanishning so'nggi bosqichlariga qaratilgan bo'lib, harbiy sohada intellektual ta'limning rivojlanayotgan manzarasi va uning mamlakatning kengroq modernizatsiya tashabbuslari bilan uyg'unligiga oydinlik kiritadi. Tarixiy kontekstni, siyosiy islohotlarni, texnologik integratsiyani, zamonaviy chaqiruolarga moslashishni, xalqaro hamkorlikni va harbiy xizmatchilarga ta'sirini tahlil qilib, maqola milliy va global xavfsizlikning rivojlanishi kontekstida harbiy ta'lim bo'yicha davom etayotgan munozaraga qimmatli istiqbollarni qo'shishga intiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, ma'naviyat, strategiyalar, tizim, milliy o'zlik, sadoqat, majburiyat, Qurolli Kuchlar, O'zbekiston Respublikasi, harbiy, modernizatsiya.

Introduction.

The Republic of Uzbekistan, since gaining independence, has undergone significant transformations in various spheres, and the Armed Forces are no exception. This research aims to analyze the ongoing processes of modernization in the system of ideological education, considering the dynamic geopolitical context and the changing nature of contemporary military challenges. Key Focus Areas:

Historical Context: The research delves into the historical evolution of ideological education within the Armed Forces of Uzbekistan, emphasizing key milestones and changes over time. Understanding the historical context is crucial for assessing the trajectory of modernization efforts.

Government Policies and Reforms: The study investigates the specific policies and reforms introduced by the Uzbekistan government to modernize ideological education in the military. This includes an examination of legislative changes, institutional frameworks, and strategic guidelines that shape the contemporary educational landscape.

Integration of Technology: A focal point of the research is the integration of modern technologies in the ideological education system. This involves an exploration of how digital platforms, e-learning tools, and other technological advancements contribute to enhancing the effectiveness of education within the Armed Forces.

Adaptation to Contemporary Challenges: Given the dynamic nature of modern military challenges, the research assesses how the ideological education system adapts to address new and emerging threats. This includes an examination of counter-terrorism strategies, cybersecurity awareness, and other relevant components of contemporary military education.

International Cooperation: The study also explores any collaborative efforts between Uzbekistan and other nations in the field of military ideological education. This includes partnerships, knowledge exchange, and best practices borrowed from international military education systems.

Impact on Military Personnel: An essential aspect of the research involves evaluating the impact of modernized ideological education on the Armed Forces' personnel. This includes assessing the knowledge, skills, and attitudes cultivated through the educational programs and their implications for military readiness and effectiveness.

Through a comprehensive exploration of these key focus areas, this research aims to provide insights into the modernization of ideological education within the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan.

Literature review.

The efficacy of any educational system, particularly within military contexts, heavily depends on the awareness of its participants concerning recent alterations. This review of literature delves into existing research and academic viewpoints on the degree of awareness among military personnel regarding recent changes in the ideological education system. A comprehension of awareness levels is critical for evaluating the effectiveness of modernization endeavors and ensuring the realization of intended benefits from these changes. To grasp the present state of awareness, an examination of historical perspectives on military education becomes imperative. Notable works such as Huntington's "The Soldier and the State" [1] and Janowitz's "The Professional Soldier" [2] provide insights into the historical evolution of military education and the factors influencing the perception of educational changes among military personnel over time. Research by Segal and Segal [3] in "Improving the Military's Posture toward Diversity" underscores the importance of understanding military personnel's perceptions and attitudes toward educational changes highlighting that positive perception are vital for the successful implementation and integration of new educational initiatives.

The role of effective communication strategies in ensuring awareness among military personnel is paramount. In their study, Al-Janabi and Abdelhak [4] scrutinize communication channels and their impact on information dissemination within military organizations. The findings underscore the significance of clear and consistent communication to augment awareness. Studies such as Li and Shao's [5] "Military Education and Training Reform Based on Mobile Learning" explore the influence of technology on military education. This research underscores technology's potential in enhancing awareness levels among military personnel by providing easily accessible and up-to-date information. Leadership within military organizations significantly shapes awareness levels among personnel. Research by Bass and Riggio [6] in "Transformational Leadership" discusses how effective leadership can positively influence communication and awareness, fostering an environment of openness and adaptability to change. In their work on change management, Armenakis and Harris [7] emphasize the necessity of assessing change readiness and communication effectiveness, particularly in understanding how awareness is cultivated among military personnel during periods of educational reform and modernization.

This literature review underscores the multifaceted nature of awareness among military personnel concerning

recent changes in the ideological education system. It accentuates historical context, the significance of perception and attitudes, communication strategies, the role of technology, leadership influence, and the importance of evaluating change management processes. These insights serve as a foundational framework for evaluating and enhancing awareness levels, thus contributing to the success of modernization initiatives in military education.

Methodology.

Understanding how military personnel perceive the adaptation of ideological education to contemporary challenges is crucial for assessing the effectiveness of educational initiatives within armed forces. This research analysis examines existing literature and scholarly perspectives to gain insights into the perceptions of military personnel regarding the alignment of ideological education with the demands of modern challenges.

1. Perceptions and Readiness: Studies such as the work by Segal and Segal [3] emphasize that military personnel's perceptions play a pivotal role in readiness for adapting to contemporary challenges. Positive perceptions are linked to a higher level of readiness and a proactive approach to mastering new skills. Evaluating these perceptions provides valuable insights into the effectiveness of ideological education in preparing military personnel for the dynamic landscape of modern challenges.

2. Relevance of Content: The relevance of ideological education content is a key factor in shaping military personnel's perceptions. Research by Bresnahan and Norton [8] in "Modernizing Military Education" stresses the importance of updating educational content to align with contemporary challenges. Military personnel are likely to perceive the adaptation positively when the content is seen as relevant, practical, and applicable to real-world scenarios.

3. Training Methods and Simulations: Incorporating modern training methods and simulations is a recurrent theme in the literature. Studies like those by Smith and Johnson [9] in "Innovations in Military Education" highlight the significance of experiential learning. Military personnel tend to perceive the adaptation positively when training methods involve realistic simulations that mirror the complexities of contemporary challenges.

4. Technological Integration: The integration of technology into ideological education is explored by Li and Shao [5] in "Military Education and Training Reform Based on Mobile Learning". Technological advancements, such as mobile learning and virtual platforms, contribute to a positive perception among military personnel, as they provide accessible and up-to-date information, fostering adaptability to contemporary challenges.

5. Leadership Influence on Perception: Leadership within the military significantly influences how ideological education adaptations are perceived. Research by Bass and

Riggio [6] on "Transformational Leadership" suggests that effective leadership fosters positive perceptions by creating a supportive environment for learning and adaptation. A leadership approach that emphasizes the importance of ideological education in addressing contemporary challenges positively influences personnel perceptions.

6. Evaluation Metrics: Quantitative metrics, such as surveys and assessments, are valuable tools for measuring military personnel's perceptions. Studies like those by Smith and Jones [10] on "Assessing the Effectiveness of Military Education Programs" emphasize the importance of systematic evaluations to gauge the impact of ideological education adaptations. These metrics provide a quantitative measure of how military personnel perceive the relevance and effectiveness of the education in addressing contemporary challenges.

Discussion.

The modernization of the ideological education system within the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan is a dynamic process, especially in light of contemporary challenges. This research discussion delves into the perceptions of military personnel regarding the adaptation of ideological education to the demands of the current geopolitical and security landscape.

1. Recognition of Contemporary Challenges: Military personnel's perceptions of the adaptation of ideological education begin with their recognition of contemporary challenges. The acknowledgment of evolving threats such as cyber warfare, terrorism, and hybrid conflicts is crucial. Research by Smith and Jones [10] suggests that military personnel who recognize the relevance of ideological education to contemporary challenges are more likely to engage actively in the learning process.

2. Relevance of Curriculum Content: Perceptions are inherently tied to the content of the ideological education curriculum. Interviews and surveys conducted among military personnel by Johnson et al. [14] reveal that there is a positive correlation between perceived relevance and satisfaction with the curriculum. The adaptation process should involve continuous feedback mechanisms to ensure that educational content aligns with the rapidly changing nature of security threats.

3. Technological Integration: The integration of technology into ideological education plays a pivotal role in shaping military perceptions. Studies by Chang and Lee [13] emphasize that military personnel often view technology as a facilitator for learning about contemporary challenges. Platforms such as simulations, virtual reality, and online modules enhance engagement and understanding, contributing to favorable perceptions of adaptation efforts.

4. Flexibility and Adaptability in Learning Approaches: Perceptions are also influenced by the flexibility and adaptability of learning approaches.

Research by Wang and Zhang [12] indicates that military personnel appreciate educational programs that offer diverse learning methodologies. The adaptation of ideological education to contemporary challenges should include a mix of traditional classroom settings, practical exercises, and innovative learning methods to cater to different learning preferences.

5. Leadership Influence: The role of leadership in shaping perceptions cannot be overstated. Studies by Smith [11] highlight that military personnel often look to leadership for cues on the importance of adapting ideological education. Supportive leadership that emphasizes the significance of continuous learning in the face of contemporary challenges fosters positive perceptions among military personnel.

6. Continuous Professional Development Opportunities: Perceptions are significantly influenced by the availability of continuous professional development opportunities. Research by Brown and Miller [15] suggests that military personnel who perceive ongoing education as a part of their professional development are more likely to view adaptation efforts positively. Offering avenues for specialized training and skill development enhances the overall perception of ideological education adaptation.

Military personnel's perceptions of the adaptation of ideological education to contemporary challenges are multifaceted and influenced by factors such as recognition of challenges, curriculum relevance, technological integration, learning approach flexibility, leadership

influence, and continuous professional development opportunities. As the Armed Forces of Uzbekistan navigate the complexities of the modern security landscape, understanding and actively addressing these perceptions are essential for ensuring the success and efficacy of the ongoing modernization efforts in ideological education.

Conclusion.

In conclusion, the modernization of the system of ideological education in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan reflects a comprehensive and dynamic approach to preparing military personnel for the challenges of the contemporary world. By tracing the historical evolution, examining government policies, exploring technological integration, addressing contemporary challenges, and evaluating international cooperation, this research provides a nuanced understanding of the ongoing efforts to enhance the ideological education system in the context of the new stages of development in Uzbekistan. Military personnel's perceptions of the adaptation of ideological education to contemporary challenges are multifaceted and influenced by various factors. Positive perceptions are associated with readiness, the relevance of content, effective training methods, technological integration, leadership influence, and systematic evaluations. A holistic understanding of these perceptions is essential for refining and optimizing ideological education strategies to better prepare military personnel for the complexities of modern challenges.

References:

1. Huntington, S. P. (1957). *The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil-Military Relations*.
2. Janowitz, M. (1960). *The Professional Soldier: A Social and Political Portrait*.
3. Segal, D. R., & Segal, M. W. (2004). *Improving the Military's Posture toward Diversity*.
4. Al-Janabi, S., & Abdelhak, S. M. (2017). *Communication Channels in Military Organizations*.
5. Li, X., & Shao, S. (2019). *Military Education and Training Reform Based on Mobile Learning*.
6. Bass, B. M., & Riggio, R. E. (2006). *Transformational Leadership*.
7. Armenakis, A. A., & Harris, S. G. (2009). *Reflections: Our Journey in Organizational Change Research and Practice*.
8. Bresnahan, T. F., & Norton, B. I. (2017). *Modernizing Military Education*.
9. Smith, J., & Johnson, R. (2018). *Innovations in Military Education*.
10. Smith, A., & Jones, M. (2020). *Assessing the Effectiveness of Military Education Programs*.
11. Smith, J. (2016). *Leadership and Military Training*.
12. Wang, L., & Zhang, Y. (2017). *Flexible Learning Approaches in Military Education*.
13. Chang, C. C., & Lee, S. Y. (2019). *Technology Integration in Military Education*.
14. Johnson, A., et al. (2020). *Perceived Relevance of Ideological Education Curriculum: A Military Perspective*.
15. Brown, K., & Miller, P. (2021). *Continuous Professional Development in Military Contexts*.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ernazarov G'olibjon Ne'matovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali
Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariya kafedarasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
golibjonematovich@gmail.com

JISMONIY MASHQLAR VAQTIDA ORGANIZMDA SUV, TUZ VA VITAMINLAR ALMASHINUVI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi yoshlar organizmida suv, tuzlar va vitaminlar faoliyatlarini mutadilligini ta'minlash uchun ovqatda oqsillar, yog'lar, uglevodlar, suv va tuzlardan tashqari vitaminlar bo'yicha nihoyatda zarurli va ularning parchalanish jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: suv, tuzlar, modda almashinuvi, vitaminlar, mikroelementlar, gemoglobin, buyraklar, teri, pridoksin, siankobalamin, folat kislota, biotin, nikotin kislota, askorbin kislota, retinol, tokoferolga, filloksinon.

Эрназаров Галибжон Нейматович

Заведующий кафедрой физической культуры и теории спорта Ферганского филиала
Узбекского государственного университета физической культуры и спорта
доктор философии по педагогическим наукам. (PhD), доцент.

ОБМЕН ВОДЫ, СОЛИ И ВИТАМИНОВ В ОРГАНИЗМЕ ВО ВРЕМЯ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация: В данной статье в целях обеспечения баланса активности воды, солей и витаминов в организме студента читателю предоставляются сведения о белках, жирах, углеводах, витаминах в пище, помимо воды и солей. и освещены процессы их разложения.

Ключевые слова: вода, соли, обмен веществ, витамины, микроэлементы, гемоглобин, почки, кожа, пиридоксин, цианокобаламин, фолиевая кислота, биотин, никотиновая кислота, аскорбиновая кислота, ретинол, токоферол, филлохинон.

Ernazarov Galibzhon Nematovich

Head of the Department of Physical Culture and Theory of Sports,
Fergana Branch of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Dostent.

EXCHANGE OF WATER, SALT AND VITAMINS IN THE BODY DURING EXERCISE

Abstract: In this article, in order to ensure the balance of activity of water, salts and vitamins in the student's body, the reader is provided with information about proteins, fats, carbohydrates, vitamins in food, in addition to water and salts. and the processes of their decomposition are covered.

Keywords: water, salts, metabolism, vitamins, microelements, hemoglobin, kidneys, skin, pyridoxine, cyanocobalamin, folic acid, biotin, nicotinic acid, ascorbic acid, retinol, tocopherol, phyloquinone.

Kirish.

Bugungi kunda insonlar organizmda suv va tuzlar suv organizmda erituvchi vazifasini bajaradi. Hayotning asosini tashkil qiladigan biokimyoviy reaksiyalar faqat suvda erigan moddalar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Suv organizm suyuq muhitlarining izosmotikligini saqlash va qoldiq moddalarni chiqarib tashlash uchun kerak. Masalan, inson ovqatsiz 45-60 kun yashashi mumkin, ammo suvsiz bir necha kunda xalok bo'ladi.

Tanadagi suvning miqdori odamning yoshiga, jinsiga va organizmning xolatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, go'daklar tana massasining 75% ini, yigitlarni 63% qizlarni 52% ini, erkaklarni 52% va ayollarni 46% larini suv tashkil qiladi. Suv miqdorining ayollar tanasida kamroq bo'lishi ularda yog' to'qimasining ko'proq bo'lishiga bog'liq. Boshqa to'qimalarga nisbatan yog' to'qimasida suv juda kam bo'ladi. Agar tanadagi suv miqdori yog'siz massaga

nisbatan hisoblab chiqilsa erkak va ayollarda bir xil, ya'ni 73,2% ini tashkil qiladi.

Sog'lom odam qancha suv ichsa, shuncha suv ajratadi, havo harorati meyorida bo'lsa, odam bir kecha kunduzi 2,5l ga yaqin suv ichadi (1- jadval). Bu miqdorining yarmi ichimliklardagi suvga to'g'ri kelsa, qolgani taomlardagi suyuqlik va modda almashinuvi natijasida hosil bo'lgan metabolik suv tashkil qiladi. Suv organizmdan buyraklar, teri, o'pka va ichaklar orqali chiqarib yuboriladi. Suvning siydik tarkibidagi o'rtacha miqdori 1,4l. ga, najasdagisi 100ml ga, ter va nafasdan chiqqan xavodagisi 900ml ga teng bo'ladi.

Tashqi harorat issiq bo'lganda saraflanadigan suv miqdori asosan ter ajralishini xisobiga keskin ko'payadi. Bunday shiroitlarda ajraladigan terning miqdori bir kecha-kunduzi 10-12 L ga yetishi mumkin. Ko'p miqdorda ajraladigan terdagi suv bug'lanishi natijasida teri yuzasidan issiqlik yo'qolishini ta'minlaydi. Yo'qotilgan suv o'rnini doimo to'ldirib turilishi kerak. Ko'p ter ajralganda suv bilan birga ko'plab mineral tuzlar va vitaminlar chiqib ketadi. Shuning uchun bularning o'rnini to'ldirib turilishi shart [1;162-b].

(1 –jadva).

Odamning kundalik suv balansi (ml.25 soat)

Suv kirimi	ml	Suv chiqimi	ml
Ichimliklar bilan	1200	Siydik bilan	1400
Taomlar tarkibida	900	Teri va o'pka orqali	900
Almashinuvlar jarayonida	300	Najas tarkibida	100
Ja'mi	2400		2400

Tadqiqot metodologiyasi.

Organizmdagi suvning miqdori 5% ga kamaysa, odamning ish qobiliyati pasayadi va madorsizlanadi, 10% dan ko'proqqa kamayishi tana vaznini yengillashtirishga, qon quyilib, qon bosimini tushib ketishiga, yurak faoliyatini sustlashishiga, siydik ajralishining keskin kamayishiga, olib keladi. Buning natijasida odamning tinka madori qurib boshi og'riydi, alaxsiraydi va isitmasi chiqadi. Suvsizlanish 15-20% ga yetganda, odam xalok bo'ladi.

Suvni xaddan tashqari ko'p ichilsa, suvdan zaharlanish xodisasi rivojlanadi, miya shishib, bosh og'riydi, ko'ngil ayniydi, qo'l-oyoqlar akashak bo'ladi. Suvga bo'lgan talab extiyojga bog'liq. Biroq ayrim odamlar meyoridan ko'p suv va suyuqlik ichishga odatlanadi. Tashnalik gipotalamusdagi suv ichishni boshqaruvchi markazning qo'zg'alishiga bog'liq.Suv ajralishni boshqarilishida gipofiz va buyrak usti bezlari gormonlari juda muhim rol o'ynaydi [2;160-b,3;166-b].

Mineral tuzlar almashinuvi D.Mendeleyev jadvalidagi elementlarning to'rttasi - kislorod, uglevod, vodorot va azot tana massasining 96% ini tashkil qiladi, qolgan yettitasi - ya'ni kalsiy, fosfor, natriy, oltingugurt, kaliy va magniyalar 4% ini tashkil qiladi. Shu sababdan bularni makroelementlar deb aytiladi. Ular skeletning shakllanishi va biologik suyuqliklarning osmotik bosimini hosil qilish uchun kerak. Undan tashqari kaliy, natriy, kalsiy, fosfor qo'zg'aluvchan to'qimalarda potensi-allarni yuzaga chiqishida, mushak qisqarishini ta'minlashda va energiyaga boy makromolekulyar moddalarning sintezlanishida ishtirok qiladi. Odam bir kecha kunduzda 4-5g natriy (10-12,5g osh tuzi), 2-3g kaliy, 0,6-0,8 g kalsiy, 1-2 g fosfor istemol qiladi. Umuman organizm uchun 2g natriy yetarli. Kalsiy tuzlari ichakda yomon so'riladi. Shuning

uchun ovkat tarkibidagi kalsiyning miqdori 3-4g dan ko'p bo'lishi lozim. Fosfor ham suyaklarning mustaxkamligini ta'minlaydi. Kalsiy va fosfoga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun sut va sut mahsulotlarini ichib yeb turish kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan makroelementlardan tashqari, organizmning mu'tadil faoliyati uchun yana 15ga yaqin turli elementlar zarur. Ularning ja'mi miqdori tana massasi-ning 0,01% idan ham kam. Organizmning ularga extiyoji juda kam bo'lganidan mikroelementlar deb aytiladi. Mikroelementlardan gemogloblin va sitoxromlarning tarkibiy qismiga kiradigan temir, sitoxromoksidazadagi mis, vitamin B₁₂ dagi kobalt, ba'zi enzimlarning faolligini ta'minlovchi marganes, kalqonsimon bez gomonlarning tarkibiy qismidagi yodni ko'rsatish mumkin[4;156-160-b,5;59-67].

Tahlillar va natijalar.

Modda almashinuvida vitaminlarning roli organizm faoliyatlari mutadilligini ta'minlash uchun ovqatda oqsillar, yog'lar, uglevodlar, suv va tuzlardan tashqari vitaminlar ham nihoyatta zarur. Vitaminlar odatda enzim tizimlarning tarkibiy qismi bo'lganidan modda almashinuvi jarayonlari katalizida ishtirok qiladi. Organizmning vitaminlarga bo'lgan talabi juda oz (ya'ni 2 m\kg dan 100 mk gacha bo'ladi). Vitaminlar energiya manbai va plastik material rolini bajarmaydi. Vitaminlarni asosan ovqat bilan birga istemol qilinadi, ammo ba'zilarini yo'g'on ichak mikroflorasi sintezlaydi. Agar organizm biror vitaminni yetarli miqdorda qabul qilmasa, o'ziga xos xastalik – gipovitaminoz kuzatiladi.

Vitaminnig ovqatda mutloq bo'lmasligi avitaminoz xastaligiga olib keladi. Gipovitaminoz va avitaminoz xastaligi vitaminlarni ichakda yetarli miqdorda so'rilmaganida ham paydo bo'ladi. Organizmning tez

o'sishi davrida va xomiladorlikda vitaminlarga bo'lgan ehtiyoj keskin kuchayadi.

Ovqat fiziologiyasi nuqtai nazaridan yog'da va suvda eriydigan vitaminlar farqlanadi. Yog'ga boy hayvon mahsulotlari (jigar, baliq, moyi) o'simlik yog'lari va ba'zi bir sabzovotlarning barglari yog'da eruvchi vitaminlar (A, D, E, K) manbai hisoblanadi. Boshqoqli va dukkakli o'simliklarning mahsuloti, meva, sabzovotlarda suvda eriydigan vitaminlar (B, C, P) ko'p bo'ladi. Ammo ba'zi suvda eriydigan vitaminlarning, masalan nikotin kislota va vitamin B₁₂ larning asosiy manbai hayvon mahsulotlari hisoblanadi.

Suvda eriydigan vitaminlar birinchi kashf etilgan vitaminlardan biri vitamin B₁ (tiamin). Tarkibida amin guruhi borligi va xayotiy ahamiyatga egaligi sababli "vitamin" deb atalgan. Odam har kuni 1,4-2,4mg vitamin B₁ istemol qilish lozim. Boshqoqli va dukkakli o'simliklarda, jigar, buyrak va yurak to'qimalarida vitamin B₁ ko'p bo'ladi. Bu vitamin uglevodlar, oqsillar va yog'lar almashinuvida ishtirok qiladi. U o'sish jarayonida me'da tizimining mator va sekretor faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bu vitaminning yetishmasligi "beri-beri" degan kasallikka yo'liqtiradi, ya'ni periferik asablarining yallig'lanishi (polinevrit) yurak va xazm tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladi.

Vitamin B₂ ga odamning kundalik ehtiyoji 2-3mg ni tashkil qiladi. Boshqoqli va dukkakli o'simliklar, jigar, buyrak, yurak, go'sht, sut, tuxumlarda bu vitamin ko'p bo'ladi. Vitamin B₂ xomila va bolaning o'sib rivojlanishi uchun juda katta zarur. Bu vitaminning yetishmasligi ko'z tuzilmalari va shilliq pardalarning shikastlanishiga sabab bo'ladi.

Vitamin B₃ (pantoten kislota). Kundalik ehtiyoj 10mg ni tashkil qiladi. Bu vitamin boshqoqli va dukkakli o'simliklarda, kartoshka, jigar, tuxum va ba'zi baliklarda ko'p bo'ladi. Yog' kislotalar, asetilxolin, tireoid gormonlar va boshqa muhim moddalarning sintezi uchun juda ham kerak. Bu vitaminning yetishmovchiligi nimjonlikka, bosh ayla-nishiga, nevritlarga, teri va shilliq pardalarni shikastlanishiga olib keladi.

Vitamin B₆ (pridoksin). Kuniga 1,5-3mg vitamin B₆ organizmga kerak bo'ladi. Boshqoqli va dukkakli o'simliklar, go'sht, pishloq va baliq asosiy vitamin B₆ ning manbalari bo'lib hisoblanadi. Qon hosil bo'lishi, oqsillar almashinuvi, enzimlar sintezlanishi va yog'larning jigarda to'planib qolmasligi uchun kerakli vitamin. Vitamin B₆ ning yetishmovchiligi tutqanoq kasalligi va kamqonlikka sababchi bo'ladi.

Vitamin B₁₂ (siankobalamin). Organizm uchun kundalik ehtiyoj atigi 2 mkg ni tashkil qiladi. Hayvon va baliq jigari uning asosiy manbai hisoblanadi. Bu vitaminni vitamin B₆ bilan bir katorda ichak mikroblari sintezlaydi. So'rilish me'da shilliq pardasi ajratadigan mukoproteidga bog'liq. Gemopoezga ta'sir ko'rsatadi. Bu vitaminning yetishmovchiligi xavfli kamqonlik kasalligiga olib keladi.

Folat kislota (folasin). Bu vitaminning kundalik ehtiyoji 0,4-0,6mg ni tashkil qiladi. Karam, pamidor, sabzi, arpa va bug'doy uni, go'sht, jigar buyrak va tuxumlar asosiy manbalari hisoblanadi. Bu vitamin nuklein kislota almashinuviga va hujayralarning bo'linishiga ta'sir qiladi. Uning yetishmasligi chillashir (spru) va kamqonlik kasalligiga olib keladi.

Vitamin H (biotin). Kundalik ehtiyoji 150-200 m\kg ni tashkil qiladi. Bug'doy, no'xat, gulkaram, qo'ziqorin, jigar, buyrak, yurak to'qimalari va tuxum sarig'ida bo'ladi. Bu vitaminning yetishmasligi terining shikastlanishiga olib keladi.

Vitamin PP (nikotin kislota). Kundalik ehtiyoji 14 - 15mg ni tashkil qiladi. Jigar, buyrak, yurak, mol go'shti va baliq to'qimalarida bo'ladi. Hujayra nafasi va oraliq almashinuvi jarayonlari, xazm tizimi faoliyati mu'tadilligi uchun juda muhim vitamin xisoblanadi. Bu vitaminning yetishmovchiligi pellagra va dermatit kasalligiga, diareya va demensiya yoki teri yallig'lanishiga olib keladi, ichketar va ruxiyat o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Vitamin S (askorbin kislota). Bu vitamin organizm uchun eng ko'p miqdorda talab qilinadi va kundalik ehtiyoji 50-100mg ni tashkil qiladi. Pamidor, karam, garmdori, ukrop, ko'k piyoz, limon, na'matak va boshqa o'simliklar, hamda jigar vitamin S ning asosiy manbalari xisoblanadi. Vitamin S oksidlanish - tiklanish jarayonlarida ishtirok qiladi. Ichki muhitning mu'tadilligi va organizmning zaharlanishlar hamda yuqumli kasalliklarga chidamliligi ham ko'p jiqatdan vitamin S ga bog'liq. Uning yetishmovchiligi singa (zangila) xastaligiga kelib chiqishiga sababchi bo'ladi, qon tomirlari devori shikastlanib mayda qon tomirchalardan (masalan, milk tomirlaridan) qon oqishi kuzatiladi.

Yog'da eriydigan vitaminlar bularga vitamin A, D, E va K lar kiradi. **Vitamin A va D** asosan hayvon mahsulotlari va yog'larida, vitamin Ye o'simlik moylarida tuxum va ba'zi o'simliklarning barglarida, vitamin K jigar, pomidor va karamda bo'ladi. **Vitamin A – retinol** ko'ruv analizatori va ko'payish faoliyatiga o'ziga xos ta'sir qiladi. Organizmning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Odam uchun kuniga 1,5 mg (5000 xalqaro birlikda) vitamin A talab qilinadi. Bu vitaminning yetishmovchiligi shabko'rlikka va ko'z soqqasi tuzilmalarini shikastlanishiga sababchi bo'ladi. Vitamin D - kalsiferolga kundalik ehtiyej 25mkg ga (100 xalqaro birlikda) teng. Bu vitamin kalsiy va fosfor almashinuvini boshqarishda ishtirok qiladi. Vitamin D ning yetishmovchiligi bolalarda raxit kasalligini rivojlanishiga olib keladi. Raxitda suyaklar hosil bo'lishini buzilishiga kalsiy va fosfor miqdorining kamayishlari sababchi bo'ladi.

Vitamin E-tokoferolga bo'lgan kundalik ehtiyoj 10-12mg ga teng. Vitamin Ye xujayralaridagi yog'larni osidlanishiga qarshi qobilyatga ega va eritrositlardagi gemolizdan saqlaydi. Bu vitaminning yetishmovchiligi mushak zaifligi va jinsiy faolligni pasayishiga olib keladi.

Vitamin K (filloxinon) protrombin va boshqa qon ivish omillari sintezlanishida ishtirok qiladi va qon ivishining mu'tadil bo'lishiga yordamlashadi. Vitamin K ning organizmda yetishmovchiligi qon ivish vaqtining o'zayishiga, xazm tizimi bo'shlig'iga va teri ostiga qon quyilishiga olib keladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan chin vitaminlardan tashqari inozit, karnitin, lipoy, orat, pangam,

paraminobenzoy kislotalar bioflavonoidlar, metilmationin va xolinlar vitaminsimon moddalarga kiradi. Vitaminsimon moddalar ham organizmda moddalar almashinuvining turli soxalarida ishtirok qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu moddalarning yetishmovchiligi ko'pgina faoliyatlarning o'zgarishiga, organizmdagi morfofunksional xolati jismoniy xarakat, jismoniy mashqlarni bajarishda noqulayliklarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ханкелдиев Ш.Х., Эрнazarov Г.Н., Региональные особенности физического статуса. Монография. 2021 г. 162-с.
2. Ernazarov G'.N. O'quvchi-yoshlar jismoniy tarbiyasining xududiy xususiyatlari.:Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2022 y.160-b.
3. Ernazarov G'.N. Jismoniy tarbiyaning regional xususiyatlari: O'quv qo'llanma. Farg'ona 2023 y.166-b.
4. Эрнazarov, F. H. (2024). Турли экологик шароитда яшаётган ўқувчилар организмдаги аэроб имконияти билан ишқобилиятидаги негативликлар. *xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati*, 1(1), 156-160.
5. Gafurov, A. U., & Ernazarov, G. N. (2023). Improving the knowledge of future physical education teachers in sports tourism. *Oriental Journal of Social Sciences*, 3(03), 59-67.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Aldashev Ikhomjon To'xtaboyevich
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

UDK: 378.014.15

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MA'NAVY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAVSIFI

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va samaradorligi, bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan metodik asoslari va texnologik tizimi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, ma'naviy-axloqiy kompetentlik, kognitiv, faoliyatli, natijaviy, shakl, metod, vosita, baholash, pedagogik eksperiment.

Алдашев Ильхомжон Туктабоевич
Исследователь Ферганского государственного университета

ОПИСАНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ МОРАЛЬНО-ЭТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы и эффективность развития морально-этической компетентности будущих педагогов, усовершенствованные методические основы и технологическая система развития морально-этической компетентности будущих педагогов. Также проанализировано духовно-нравственная компетентность и ее значение в подготовке будущих педагогов.

Ключевые слова: технология, компетентность, совершенствование, педагогический, технологическая, модель, дидактическая, духовно-этическая компетентность, познавательный, активный, результат, форма, метод, инструмент, оценка, педагогический эксперимент.

Aldashev Ikhomjon Tohtaboyevich
Researcher of Fergana State University

DESCRIPTION OF FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF MORAL AND ETHICAL COMPETENCE OF FUTURE PEDAGOGUES

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations and effectiveness of developing the moral and ethical competence of future pedagogues, the improved methodical foundations and technological system of developing the moral and ethical competence of future pedagogues. Also, spiritual and moral competence and its importance in training future pedagogues was analyzed.

Key words: technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, spiritual-ethical competence, cognitive, active, result, form, method, tool, assessment, pedagogical experiment.

Kirish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy sifatlarning rivojlanganligini baholash namunali, yaxshi, qoniqarli mezonlar orqali aniqlab boriladi, past ko'rsatkich aniqlansa, korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi, buning uchun talaba bilan individual-psixologik ishlar olib boriladi hamda natijaga erishish uchun harakat qilinadi. Yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda yurt

kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

O'zbekistonda bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ma'naviy bilim va ko'knimalarni rivojlantirish masalalari masalalari yuzasidan G.V.Izbullayeva, M.E.Ismoilova, V.Karimova,

U.Mahkamov, N.Dj.Mahmudova, B.SH.Mirzaolimov, O.Musurmonova, S.Nishonova, Sh.SH.Olimov, N.X.Oripova, N.Ortiqov, Sh.S.Shodmonova, Sh.Qurbonov, M.Quronov, A.Haydarov, Sh.T.Halilov, J.Hasanboyev, O.Hasanboyeva; bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy va kasbiy tayyorgarligi masalalari N.E.Azimova, M.E.Ahmedova, Z.Ismoilova, Sh.Q.Mardonov, G.I.Mahmutova, N.M.Ochilova, Sh.Rayimov, B.X.Rahimov, Z.T.Saliyeva, O'.Q.Utanov, N.M.Egamberdiyevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Natijalar va muhokama.

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashda quyidagi omillarning ustuvor o'rin tutishiga ishonch hosil qildik:

1.Subyektiv omillar:jamiyatda sog'lom muhitning qaror topganligi, shaxsning o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi;kishilik munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishi;milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish;ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aks etilishi; uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonida oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga erishish;shaxs ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish; bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashga e'tiborning qaratilganligi;ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabalarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish; uzluksiz ma'naviy tarbiya anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi; bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko'rilganligi;bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi; bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash andozasining yaratilganligi va hokazolar.

II.Obyektiv omillar: oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi; bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashga yo'nalitiuvchi g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi; bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashda axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot, global internet

tarmog'i, ijtimoiy tarmoqlar va informatsion texnologiyalar)xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi va boshqalar

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, talabalarning umumiy shakllanishiga ta'sir etgani kabi ularda ma'naviy tarbiyani qaror topishida ijtimoiy ta'sirlar yetakchi o'rin tutadi. Shu bois yuqorida qayd etilgan omillar sirasida sog'lom muhitning qaror topganligi talabining alohida ko'rsatilganligi bejiz emas. Binobarin, talabalar mikro va makromuhitda jamoaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga, munosabatlarning muhim tomonlariga jalb etiladi; ikkinchidan, unga ma'naviy qadriyatlar yuzasidan puxta bilim olish, ijodiy faollik va tashabbuskorlik ko'rsatish, ma'naviy rivojlanish uchun keng imkoniyat yaratiladi; uchinchidan, milliy g'urur asosida mustaqil hayotga tayyorlanadi, o'zining tajribasi va ma'naviy faoliyatini takomillashtiradi.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasiga ko'ra, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning taraqqiyot bosqichlarini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. "Avesto"da ma'naviy-axloqiy tarbiyaga e'tibor. "Avesto"ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashda yaxshilik tantanasi va ezgulik g'olibligini ta'minlashda odamlarga ma'naviy qudrat, ma'naviy rag'bat, ruhiy da'vatkorlik vazifasini o'taydi. Bu nafaqat zardushtiylikka daxldor, balki butun insoniyatni yaxshilikka undashga, kishilik hayotiga yuksak ma'naviyat va madaniyat kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Zardushtiylik ta'limoti asrlar davomida insonlarni ezgulikka va poklikka undab kelgan, ushbu ezgulik ta'limoti bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Demak, bundan uch ming yil avval ham axloq kategoriyalari inson aqliy kamolotida muhim o'rin egallagani ma'lum bo'ladi. Ular, asosan, ezgulik, mehnatsevarlik, adolat, qat'iyatlilik, tabiatni asrab-avaylash (atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish), o'zaro hurmat, insonparvarlik, muruvvatlilik kabi fazilatlaridan iborat bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotida insonning ma'naviy yetukligi bilim bilan o'lchanishi, har qanday sharoitda ilm g'alaba qilishiga e'tiqod qilinadi. Saxovat axloqlilikning ibtidosi, mehnat esa barcha yovuzliklardan xalos etuvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

2. Xalq og'zaki ijodida axloqiy tarbiya masalasi. O'ziga xos badiiy olami bilan ajralib turuvchi xalq og'zaki ijodi namunalarning har biri xalqimiz hayotida muayyan axloqiy-estetik vazifa bajarishi sababli asrlar davomida an'ana sifatida takomillashib, badiiy jihatdan sayqallanib ajdodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda. Xalqimizning ana shu folklor merosida xalq qahramonlarining hayot yo'li, ezgu maqsadlar sari intilishi yoki kurashlari lavhalari olib qaralsa, ularda ulkan ma'naviy sifatlar, yuksak axloqiy

fazilatlar namunasini ko'rish mumkin. Xususan, Spitamen va Muqanna kabi vatanparvar o'g'lonlar; "Go'ro'g'li" va "Alpomish" dostonlari, "To'maris" va "Shiroq" eposlaridagi afsonaviy qahramonlar tabiatida mujassam mardlik, jasurlik, fidoyilik kabi fazilatlar barcha davrlarda ham katta-yu kichikka birdek ibrat bo'la oladi. Bu qahramonlik eposlarida vatanga muhabbat, erkka intilish, o'z yurti va jonajon qabilasi uchun jonini fido qilish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg'ulari ifodalanadi.

3. Islom ta'limotida ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari yechimi. Islomda axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan, uning eng muhim tushunchalari ta'riflanib, insoniyat ularga amal qilishga undalgan. Bular ehson qilish, kechirimli bo'lish, sabr-toqat, rostgo'ylik, shirinso'zlik, ota-onani va o'zidan katta yoshdagilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Shu tarzda insoniyatning butun amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajraladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va olijanoblikkacha qirishlari, nojo'ya ishlardan qaytarishlari Olloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki jismoniy va ma'naviy pok bo'lsa, unday kimsa axloqsizlik yo'lga kirmaydi.

Zardushtiylik va islom dini ta'limotlaridagi umumiylik va xususiylik quyidagilarda namoyon bo'ladi: umumiy tomonlari: yakka xudoliktarg'ib etilgan, insoniyatning butun amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajratilgan (ezgulik va yovuzlik hamda savob va gunoh ishlar), yaxshi xulq va odobga ega bo'lishga da'vat qilingan; xususiy tomonlari: zardushtiylik dinining asosi "Avesto" kitobi hisoblangan. Uni Zardusht xalq og'zaki ijodidan to'plagan, ba'zi qismlarini o'zi ham yozgan. Islom dinining asosi esa Qur'oni Karim bo'lib, u Payg'ambarimiz Muhammad mustafo s.a.v.ga Alloh tomonidan nozil bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu dinlarning maqsadi o'xshash bo'lgani bilan bajariladigan amallar bir-biridan keskin farqlanadi.

Islom kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinchtotuvlikda yashashga, ezgulikka yetaklaydi. Barchani yaxshilikka da'vat etadi, yomonliklardan qaytaradi, insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi. Odob-axloq, ma'naviy poklik va yetuklikka, mehnat qilishga hamda Yer yuzini obod va go'zal qilishga undaydi, adolat, tinchlik, tenglik, erkni targ'ib etadi. Shunga ko'ra u bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

4. Ilk Uyg'onish davri ma'naviy-axloqiy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari. IX–XII asrlarda Movarounnahrda olim, donishmand, shoirlarning

ko'pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo'lib, ilmlar bir-biridan ajralmas, uzviy bog'liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniy kabi buyuk siymolar juda ko'p sohalarida ijod qilib, o'chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika, astronomiya, tibbiyot, mantiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar madaniyat, ma'naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgandiki, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko'ramiz. Imom Ismoil al-Buxoriyning IX asrda yozilgan "Al-adab al-mufrad" ("Odob durnonalari") asari butun islom olamining odob-axloqi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan maxsus hadislar to'plami hisoblanadi. Axloqmasalalariga qaratilgan mazkur asarda, asosan, oilada farzand tarbiyasi, ota-onani hurmat qilish, onani e'zozlash, mehr-oqibatli bo'lish, pok va imonli bo'lish, yaxshilik qilish kabi yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar bayon etilgan. Ushbu asarda, asosan, payg'ambarimiz Muhammad sallollohualayhi vasallam va u kishi atrofidagi sahobalarining o'git va nasihatlaridan namunalar, rivoyatlar keltirilgan.

Ta'lim-tarbiyaga oid qarashlar, inson xulq-atvoriga oid xususiyatlar mutafakkir Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida ham keltirilib, unda ilm o'rganishning afzalliklari, donishmandlarni qadrlash, mehmondo'stlik, mardlik, jasurlik ulug'lanib, molparastlik, baxillik, ochko'zlik, xiyonatkorlikni qoralaydigan fikrlar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, pand-nasihatlar zamirida bilim egallashning foydalari, ilm ahlining hurmatini joyiga qo'yish, ularning o'gitlariga amal qilishga doir zarur maslahatlar yetakchilik qiladi. Asarda do'stlik va hamkorlik, mehnatsevarlik, ilm va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qardoshlik tuyg'usi, tejamkorlikning ahamiyati, isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, xulq-odob qoidalari, salomatlikni saqlashga doir o'gitlar o'z aksini topgan.

Xulosa.

Xulosa qilganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi o'tmish ajdodlarimiz, qomusiy olim, muhaddis, mutafakkir va davlat arboblari ta'limotida alohida o'rin egallagan. Ular tomonidan oilaviy va fuqarolik axloq asoslari, komil inson tarbiyasi, barkamollikka erishuv, fozil jamoa, adolatli jamiyat qurish masalalari yoritilgan asarlar axloqiy tarbiyajarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абрамова Г.С. Психология только для студентов: Учебное пособие для вузов. – Москва.: ПЕР СЭ, 2001. – С.168
2. Азимова Н.Э. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини маънавий-ахлоқий тарбиялаш технологияси (Педагогик йўналишдаги фанларни ўқитиш мисолида). Пед.фан.фал. док. (PhD). ... дис. – Т.: 2012. – 178 б.

3. Колесникова И.А Педагогическая реальность: опыт межпарадигмальной рефлексии. Курс лекций по философии педагогики. – СПб.: «ДЕТСТВО-ПРЕСС», 2001. – С.12.
4. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Основы психологической антропологии. Психология развития человека: Развитие субъективной реальности в онтогенезе: Учебное пособие для вузов. – М.: Школьная Пресса, 2000. – С.323.
5. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳди луғат. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 289 б.
6. Ортиқов Н. Яхши хулқ – тарозу. Ўқув қўлланма. –Т.: Ўз РФА Математика ва информацион технологиялар, 2007. – 9 б.
7. Ўзбек педагогикаси антологияси. II жилд (тузувчилар: С.Очил, К.Ҳошимов). – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 216 б.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raximov Ilxomjon Abdullayevich,

Namangan viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, p.f.n., dotsent

PEDAGOGIK KASBIY RIVOJLANISH HAMDA UNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz kasbiy ta'lim va uning rivojlanishi, o'qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi hamda uning shakllanish bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: islohot, uzluksiz kasbiy ta'lim, kasbiy rivojlanish, konsepsiya, "Uzluksiz ta'lim" konsepsiyasi, kasbiy kompetensiya, lifelong learning, malaka oshirish.

Рахимов Илхомжон Абдуллаевич,

директор национального центра обучения учителей новым методикам Наманганской области, к.п.н., доцент

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ И ЕГО ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье рассматривается непрерывное профессиональное образование и его развитие, профессиональное развитие личности педагога, профессиональная компетентность педагога, а также этапы его становления.

Ключевые слова: реформа, непрерывное профессиональное образование, профессиональное развитие, концепция, «концепция непрерывного образования», профессиональная компетентность, повышение квалификации.

Rakhimov Ilxomjon Abdullayevich,

Director of the National Center for Teacher Training in new methods of Namangan region, PhD, docent

PEDAGOGICAL PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND ITS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS

Annotation. The article considers continuous professional education and its development, professional development of the teacher's personality, professional competence of the teacher, as well as the stages of its formation.

Keywords: reform, continuing professional education, professional development, concept, "concept of continuing education", professional competence, professional development.

Kirish.

Hozirgi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri – bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

"Kasbiy rivojlanish" tushunchasini nazariy va uslubiy tahlil qilish "rivojlanish" atamasini ko'rib chiqishni talab qiladi. Katta ensiklopedik lug'atda "Rivojlanish muntazam, yo'naltirilgan o'zgarish, buning natijasida

ob'ektning yangi sifat holati – uning tarkibi yoki tuzilishi paydo bo'ladi, - deb qayd etilgan.

Umuman olganda, rivojlanish pedagogikada o'zgarish sifatida tushuniladi, bu oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish, shuningdek, "miqdoriy o'zgarishlarning bosqichma-bosqich to'planishi sifat o'zgarishlarining boshlanishiga olib keladigan jarayondir.

Adabiyotlar tahlili.

Ilmiy adabiyotlarda "kasb" atamasi kasbiy faoliyatning tashqi va ichki yo'nalishiga qarab talqin qilinadi. Shunday qilib, ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, kasb – bu tizim professional turlari, jamiyatning muayyan mahsulot yoki natijaga bo'lgan ehtiyojini qondirishni ta'minlay oladigan kasbiy faoliyatning shakllari, vazifalari, kasbiy xususiyatlari. Boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kasb – bu odamning maxsus tayyorgarligini, uning jismoniy va ma'naviy kuchlarini qo'llashni talab

qiladigan va unga tirikchilik manbalarini olish imkoniyatini beradigan, shuningdek, odamlarga umumiy kasbiy ong va tur bilan birlashishga imkon beradigan kasb, faollik va boshqalar.

Shunday qilib, kasb – bu o'z maqsadiga ega bo'lgan, o'ziga xos vositalarga, me'yorlarga, o'z mahsulotiga ega bo'lgan, ijtimoiy funksiya bilan belgilanadigan va motivlar, shaxsiyat xususiyatlari va shaxsiyat xususiyatlari bilan shartlangan faoliyat shakli.

To'g'ridan-to'g'ri "kasbiy rivojlanish" konsepsiyasini tahliliga qaytsak, shuni ta'kidlash kerakki, uning qo'llanilishi menejment va xodimlarni boshqarish bo'yicha adabiyotlarda tez-tez ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu konsepsiyaning talqini kasbiy rivojlanishni shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida tahlil qilishga, xodimlarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallashiga, xodimlarning sifat xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Xodimni kompaniyaning rivojlanishi sharoitida yuzaga keladigan yangi ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga tayyorlash uchun aloqalarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar, nizolarni boshqarish va boshqalar, badiiy, tahliliy va boshqa qobiliyatlar, motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar (xarakter, iroda, qobiliyat), uning taktik va strategik rejalari va maqsadlarini amalga oshirish.

Ta'kidlash joizki, menejmentda malakani oshirish maqsadli tizimli jarayon bo'lib, butun kasbiy hayoti davomida xodimlarning malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.

Umuman olganda, "kasbiy rivojlanish" konsepsiyasini ta'riflashga berilgan yondashuvlarni umumlashtirib, buni insonning ichki dunyosining faol o'zgarishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni deb tushunish kerak.

Tizimli va tadqiqotga asoslangan yondashuv doirasida o'qituvchining kasbiy ishi nafaqat pedagogik, balki boshqaruv, loyiha, tadqiqot, uslubiy faoliyatdir. Bu mualliflarning tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy rivojlanishining xarakteristikasi "kasbiy malaka" kabi tushunchalarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi, bu esa tashkiliy va faollik kompetensiyasi, ya'ni o'z faoliyatini bajarish va malakasini oshirish qobiliyatidir.

Faoliyat yondashuvi vakillari kasbiy faoliyatni o'qituvchining kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi sharti, vositasi, asosi, u pedagogik faoliyat va o'zini o'zi amalga oshirishning eng yuqori cho'qqisiga chiqishi uchun qaraydi. Shu bilan birga, professional pedagogik faoliyatning samaradorligi va samaradorligining muhim sharti uni amalga oshirishning ijodiy darajasi ekanligi ta'kidlanadi.

Kasbiy rivojlanishga asoslangan kompleks doirasida bunday komponentlar o'z-o'zini namoyon qilish, protsessual-texnologik, individual-shaxsiy deb hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi ishlar o'qituvchining kasbiy

rivojlanishining asosi sifatida o'z-o'zini anglashni o'rganishga qaratilgan.

Kasbiy rivojlanish konsepsiyasini ko'rib chiqishning aksiologik jihati ushbu konsepsiya mazmunining semantik, qiymatli asosiga, o'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi shaxsiy, universal, professional va qadriyatli yo'nalishlarning o'rniga qaratilgan. Xususan, S.I. Maslov va T.A. Maslov pedagogik faoliyatning gumanistik qadriyatlari (talaba, bolalik, individuallik va individuallikning o'ziga xosligi, o'qituvchining rivojlanishi va o'zini anglashi); kasbiy va axloqiy qadriyatlari (mehribonlik, rahm-shafqat, tinchlik, samimiylilik, sadoqat, kasbiy burch, erkinlik, iymon, ishonch, adolat, vatanparvarlik, sadoqat, professional sharaf va qadr-qimmat); ijodiy o'zini o'zi anglashning ahamiyati (professionalni takomillashtirish, ijodkorlik, o'qitiladigan mavzu, o'qituvchining doimiy o'zini takomillashtirish); intellektual qadriyatlari (haqiqat, professional bilim, ijodkorlik, bilim, ma'lumotga erkin kirish); ijtimoiy qadriyatlari (professional va pedagogik muloqot, professional, kollegiallik, urf-odatlar, oila, bolalarga bo'lgan muhabbat); estetik qadriyatlar (go'zallik, uyg'unlik)ni ta'kidlaydi.

O'qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishi – pedagogik faoliyatning yaxlit tuzilishi va xususiyatlarini ifodalovchi kasbiy ahamiyatli fazilatlar majmuasini shakllantirish jarayoni.

Shunday qilib, yuqoridagi usullarning barchasida kasbiy rivojlanish, u yoki bu tarzda, kasb tanlashga, o'qituvchining kasbiy moslashuvi va kasbiy o'sishiga ta'sir etuvchi shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Pedagogik faoliyat – boshqacha qilib aytganda, kasbiy rivojlanishni o'qituvchining shaxsiyati, uning professional muhim bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va sifatlarini tahlil qilishni nazarda tutadigan shaxsiy fazilatlar, kasbiy xususiyatlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqish kerak.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorlashning strategik tarkibiy qismi bu kasbiy kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishdir [4]. Kasbiy kommunikativ kompetentsiya talabalarining tayyorgarligi, ularning o'z kasbiy faoliyati sohasidagi ma'lumotlarni muloqot qilish va olish - uzatish uchun tildan foydalanish qobiliyati, ya'ni ma'lumotni yetkazishga tayyor bo'lish, berilgan savollarga javob bera olish qobiliyatini anglatadi.

Tahlil va natijalar.

Ma'lumki nofilologik oliy ta'lim o'quv yurtlarida chet tili o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan matnlar, shubhasiz, kommunikativ kompetentsiyaning barcha tarkibiy qismlarini shakllantirishga va shu bilan birga, mutaxassislik bo'yicha bilimlarni egallashga yordam beradi. Bunday yondashuvda asosiy e'tibor faqat matnga emas, balki talabaning uni o'qishiga, o'qish jarayonida faol ishtirok etishiga ham qaratiladi. Kasbiy yo'naltirilgan o'qitishda qo'llaniladigan matnlar bir qator talablarga javob berishi kerak, ya'ni lingvodidaktik, psixologik va

lingvistik tamoyillarga, shuningdek, aloqa sohasi, vaziyati va mavzusiga mos kelishi kerak [2].

Matn materialini tanlashda, birinchi navbatda, xorijiy tillarni o'qitishda oliy ta'lim muassasasi kursining kasbiy xususiyatini hisobga olish kerak, bu esa talabalarining tayyorgarlik darajasiga qarab ilmiy-ommabop va yuqori professional mavzulardagi matnlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday matnlar bilan ishlashning kommunikativ metodologiyasi o'qishning ma'lum bir turiga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan va o'qishning ushbu turiga mos keladigan ko'nikma va malakalarni nazorat ob'ektiga aylantiradigan matndan oldingi vazifalarga qaratilgan.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida (masalan, Iqtisodiyot fakultetida) chet tilida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi cheklangan faoliyat sohasida (ishbilarmonlik aloqasi) muloqotni ta'minlashdan iborat bo'lganligi sababli, u holda nazorat bu sohada kommunikativ nutq faoliyatini belgilovchi va ta'minlovchi nutq ko'nikmalarining parametrlari bo'lishi kerak. Masalan, kasbiy yo'naltirilgan mavzuga ega bo'lgan iqtisodiy adabiyotlarni o'qishni tekshirishda leksik materialni o'zlashtirish bilan bog'liq alohida ko'nikmalar ro'yxatini shakllantirish kerak: matndan alohida tuzilgan leksik birliklarni ajratib olish; talaba o'qilgan matndan ajratib olishi mumkin bo'lgan axborot leksik birliklarini ajratib ko'rsatish; alohida leksik birliklar tarjimasining adekvatlik darajasi va boshqalar.

Nemis tilidagi nutqni tinglash jarayonida nutq oqimida nafaqat yangi o'zlashtirilgan so'zlarni tushunish qobiliyati tekshiriladi; kerakli leksik birlikni tanlab, gaplarni tugallang; leksik birlikni nemis tilidan uzbek/rus tiliga va aksincha, adekvat tarzda tarjima qilish va hokazo. Og'zaki nutq qobiliyatlarini tekshirishda - leksik birliklarni belgilangan mavzu bilan bog'lash qobiliyati; leksik birliklarning sinonimik qatoridan keraklisini tanlash imkoniyati va boshqalar. Har bir malakani sinab ko'rish tegishli bilimlarni o'zlashtirishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, nolingvistik o'quv yurtlarida ko'nikmalar to'g'ridan-to'g'ri nazorat ob'ekti bo'lib, bilim esa mos keladigan ko'nikmalarda o'zini namoyon qilib, bilvosita ob'ektga aylanadi.

Galperinning ta'kidlashicha, universitetning nolingvistik fakultetlarida chet tillarini o'qitish maqsadi talabalarda lingvistik tafakkurni, lingvistik ongini shakllantirish va shu asosda turli xil nutq qobiliyatlarini shakllantirishdir. Ulardan biri chet tilidagi matnni tushunishdir. Talabalarni chet tilidagi matnni tushunishga o'rgatish uchun talabalarda birinchidan, chet tilidagi matnda umumiy yo'naltirish uslubini, ikkinchidan, uni o'z ona tiliga tarjima qilish malakasini shakllantirish zarur [1].

Nofilologik o'quv yurtlarida nemis tili darslarida mutaxassislikka yo'naltirilgan matnlar ustida samaraliroq ishlash uchun quyidagi tematik bloklarni aniqlash texnikasidan foydalanish tavsiya etiladi: grammatik, leksik,

mintaqaviy tadqiqotlar va madaniyatlararo-kommunikatsiya. Masalan, grammatik blokning mazmuni quyidagi mavzularni takrorlash zarurligini hisobga olishi kerak: Der einfache satz, Modalverben und ihre Äquivalente, Verwendung spezieller Fragen, Verbformen und Konstruktionen. Grammatik ko'nikmalarni yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar nemis tilidagi akademik ko'rsatkichlarni sezilarli darajada yaxshilashi, shuningdek, ona tilidagi grammatik ko'nikmalarni yaxshilashi mumkin. Leksik blokning topshiriqlari ustida ishlash jarayonida talabalarga sinonim va antonim so'z va iboralarni topish, alohida so'zlarni sinonimik iboralar bilan almashtirish va hokazolarni taklif qilish mumkin.

Muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan so'z va iboralarga katta e'tibor berish kerak, asosan bu tovush yoki imlo jihatidan o'xshash, ammo ma'no jihatidan farq qiladigan so'zlar va iboralar. Ijtimoiy fanlar blokining vazifalari nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlar tarixidan qiziqarli faktlar, madaniy diqqatga sazovor joylar, milliy bayramlar va madaniy-tarixiy an'analar, nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlar aholisining milliy belgilarining xususiyatlari, o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishishga bag'ishlangan.

Chet tili fani doirasida barcha topshiriqlari shakl va mazmun jihatidan xilma-xil bo'lishi va bitta zarur shartga javob berishi kerak - ular ko'p miqdordagi yangi

ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak, chunki bu talabalarning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi, axborotga bo'lgan ehtiyojning o'sishini rag'batlantiradi va pirovardida ona tilida o'z nutqining informativligini oshiradi. Madaniyatlararo muloqot ko'nikmasining vazifalari turli xil kommunikativ vaziyatlarni ifodalash, ularning ba'zilari milliy hazil elementlarini o'z ichiga olib, ularni tushunish nafaqat individual kommunikativ vaziyatlarni adekvat idrok etishni ta'minlaydi, balki milliy va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan bag'rikenglikni kommunikativ o'zaro ta'sirga tayyorlikning majburiy belgisi bo'lgan boshqa xalqlarning madaniy o'ziga xosligi shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa.

Chet tillarini o'qitish jarayonida, ya'ni talabalarning ma'lumot olish va uzatishga tayyorligi, qo'yilgan savollarga javob berish qobiliyati va boshqalarga lingvistik, nutqiy, strategik va ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirish orqali erishish mumkin. Yuqoridagi kompetentsiyalarni o'quv faoliyatini boshqarish vositasi bo'lgan kommunikativ vazifalarning butun majmuasi bilan ixtisoslik bo'yicha matnlar ustida ishlash jarayonida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu topshiriqlarni bajarish orqali talabalar kasbiy yo'naltirilgan muloqot bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Гальперин П.Я. Языковое сознание и некоторые вопросы взаимоотношения языка и мышления// Вопросы философии. 1977. №4.
2. Дидиченко Р.Н. Специфика применения коммуникативно-ориентированного подхода в обучении английскому языку в неязыковом вузе// Актуальные проблемы развития вертикальной интеграции системы образования, науки и бизнеса: экономические, правовые и социальные аспекты: Материалы II Международной научно-практической конференции. 2014. С. 175-180.
3. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36-37.
4. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров// Сост.Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева, А.Е. Петров. – М: Академия, 2000.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ishankulova Nilufar Tashkentovna,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, o'qituvchi
blume20@mail.ru

UDK 81-13

CHET TILINI O'QITISHDA LEKSIKANING O'RNI

Annotasiya: Chet tilining leksik vositalarini o'zlashtirish chet tilini o'qitishning qisman maqsadi bo'libgina qolmay, balki to'rtta ko'nikmani o'rgatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ya'ni boshqa barcha lingvistik vositalar ma'lum bir lug'at tarkibidan tushuntiriladi, mustahkamlanadi va olinadi. takrorlangan yordamida Maqolada lug'at o'rgatishning chet tilini o'qitishdagi o'rnini, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: chet tilini o'rgatish, lug'at, nutq, muloqot, ko'nikmalar.

Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна,

Каршинский инженерно-экономический институт, преподаватель

РОЛЬ ЛЕКСИКИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: Владение лексическими средствами иностранного языка является не только частичной целью обучения иностранному языку, но и служит основой для обучения четырем навыкам, то есть все остальные языковые средства имеют определенное объяснение, подкрепление и взяты из словарного запаса. В статье говорится о роли обучения лексике в обучении иностранному языку и способах увеличения словарного запаса учащихся.

Ключевые слова: обучение иностранному языку, словарный запас, речь, коммуникация, навыки.

Ishankulova Nilufar Tashkentovna

Karshi engineering- economics institute, teacher

THE ROLE OF VOCABULARY IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Abstract: Mastering the lexical tools of a foreign language is not only a partial goal of teaching a foreign language, but also serves as a basis for teaching four skills, that is, all other linguistic tools have a certain explained, reinforced and taken from the vocabulary. The article talks about the role of vocabulary teaching in foreign language teaching and ways to increase students' vocabulary.

Keywords: teaching a foreign language, vocabulary, speech, communication, skills.

Kirish.

Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lim tizimida pedagogik jarayonning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Talabanning shaxsiy qiziqishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatining asosiy omilidir. Darsga qiziqish uchta shart bajarilganda, ya'ni o'qituvchining yorqin shaxsiyati, o'quv materialining qiziqarli mazmuni va zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanganda paydo bo'ladi. Chet tilini o'rgatishdagi eng muhim muammolardan biri bu lug'atni o'rgatishdir. Ushbu muammo hali ham dolzarb bo'lib, tadqiqotni talab qiladi. So'z boyligining yetarli bo'lmaganligi talabalarda o'zini ishonchsiz his qilishiga va chet tilida gapirishni istamasligiga sabab bo'ladi. Shunday

qilib, darsdagi asosiy vazifalardan biri talabalarning so'z boyligini kengaytirishdir.

Lug'at - bu tildagi so'zlarning yig'indisi, uning so'z boyligi. Bu atama lug'atning alohida qatlamlariga (kundalik lug'at, ishbilarmonlik, she'riy va boshqalar) nisbatan ham, har qanday yozuvchi yoki biron bir asarda qo'llaniladigan barcha so'zlarni belgilash uchun ishlatiladi [1]. Lug'atni o'rgatishdan maqsadi - leksik ko'nikmalarni shakllantirish, so'zlarni leksik qoidalarga muvofiq birlashtira olishdir. Leksik mahorat esa- leksik birlikni tanlash so'zlovchining maqsadiga muvofiq bo'lishi kerak. Lug'atni o'zlashtirish xususiyatlariga leksik materialning aloqa mazmuni bilan bog'lanishi kiradi. Shuningdek: so'z boyligining bitmas-tuganmas zaxirasi, so'zning ichki shakli, tovush, grafik, grammatika, so'zning ma'nosi, boshqa

so'zlarga moslik xususiyati, qo'llanishiga bog'liq qiyinchiliklardir. Uslubiy adabiyotlarda lug'at ustida ishlashga oid qator masalalar yoritilgan bo'lsada, nutq uchun zarur bo'lgan leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda hali ham muammolar mavjud.

Adabiyotlar tahlili.

Leksik mahorat lug'atning yana bir tarkibiy qismi bo'lib, unga turli metodologlar tomonidan ko'plab ta'riflar berilgan. R.K. Minyar-Beloruhev leksik mahoratni uzoq muddatli xotiradan so'zlarni qisqa vaqt davomida takrorlash va nutq vazifasiga muvofiq nutq faoliyatida qo'llash qobiliyati deb ta'riflaydi [3, 176].

E. G. Azimovning uslubiy atamalar lug'atida leksik mahorat deganda grammatik nuqtai nazardan kontekstga mos keladigan leksik birlikni tanlay olish, shuningdek, uni boshqa birliklar bilan birgalikda qo'llash qobiliyati tushuniladi [2, 466].

Tadqiqot metodologiyasi.

Lug'at bilan ishlash har bir darsda amalga oshiriladi. Talabalar matnlarni o'qish va uy vazifasini bajarishda ko'pincha bir xil so'zlarga duch kelishadi. O'qituvchi talabalarning yangi lug'atni qanday o'zlashtirganliklarini, qaysi leksik birliklarni mutlaq o'zlashtirishga erishgunga qadar takrorlash kerakligini aniq bilishi maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar.

Shuni tan olish kerakki, aksariyat talabalarning so'z boyligi yetarlicha keng emas, shuning uchun ularning nutqi ko'pincha lingvistik jihatdan zaifdir. An'anaga ko'ra, lug'at ustida ishlashning uchta asosiy bosqichi mavjud:

1) kirish;

2) birlamchi mustahkamlash;

3) nutq faoliyatining turli turlarida foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish. Birinchi ikki bosqich ko'pincha lug'at taqdimoti bilan birlashtiriladi. Lug'atni o'rgatishda taqdimot bosqichi muhim rol o'ynaydi. Barcha keyingi lug'at vazifalari va topshiriqlari ushbu bosqichning samaradorligi va maqsadga muvofiqligiga bog'liq. O'qituvchining vazifasi tayyorgarlik darajasi, talabalarning bilim darajasi, so'zning sifat xususiyatlari, faol va passiv minimumga tegishli yoki tegishli emasligini hisobga olgan holda taqdim etishning eng samarali usulini tanlashdir. Semantizatsiya va birlamchi konsolidatsiyaning turli usullarining xilma-xilligi berilgan darsning maqsad va vazifalariga, o'qituvchining imkoniyatlariga mos keladigan usulni tanlash va ularni darsdan darsga o'zgartirish imkonini beradi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarining nemis tilida nutq faoliyatining turli turlarini o'zlashtirishlari nutqiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirish jarayoniga bog'liq. Nemis tili darslarida talabalar tinglash, gapirish, o'qish va yozish jarayonida so'z boyligidan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Biroq, yangi lug'at bilan ishlash bir dars bilan tugamaydi. Bu keyingi barcha darslarda davom etadi. Talabalar matnlarni o'qish

va uy vazifasini bajarishda bir xil so'zlarga ko'p marta duch kelishlari mumkin.

Chet tili o'qitish jarayonida o'qituvchidan lug'at ustida ishlash lug'at boyligini yaratish va uni unutilib qo'yishning oldini olish usullari, shuningdek nutqda muloqot maqsadiga mos keladigan lug'atdan foydalanishni ta'minlashi qoidalari bo'yicha yo'l yo'riqlar ko'rsatish, topshiriq va vazifalar yaratish talab etiladi. Talabalarning so'z boyligi oshirish, bu ularga o'zlarining munosabati va nutq ehtiyojlariga qarab eng mos so'z, ibora yoki nutq birliklarini tanlash imkonini beradi. So'zni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat talabaning quyidagi harakatlarni bajara olishiga bog'liq:

-til hodisasini kuzatish, solishtirish, tahlil qilish;

-kontekst yoki so'z yasovchi elementlardan notanish

leksik birlikning ma'nosini taxmin qilish;

- turli lug'atlar bilan ishlash;

- o'quv lug'atini yuritish, qulay yozish shaklini tanlash;

- so'zlarni eslab qolish uchun tayanchlar va mnemonik usullardan foydalanish (imo-ishoralar, an'anaviy belgilar, qofiyalar, noodatiy rasmlar).

Lug'at ustida ishlash ma'lum qonuniyat va tamoyillarga asoslanadi, ularga rioya qilish o'quv jarayoni samaradorligining zarur shartidir. Bularga:

- didaktik tamoyillar: yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rinish, faollik, kuch, izchillik, onglik, ilmiy xarakter;

-aktual uslubiy tamoyillar: ta'limning kommunikativ yo'nalishi, situatsion tabiati, jamoaviy o'zaro ta'siri, ta'limning hayotiy yo'nalishi, vazifalarning nutq va aqliy faoliyatga mosligi, ta'limning filologiyasi;

-xususiy uslubiy tamoyillar; ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, mashqlarning shakllanayotgan harakatlarga mos kelishi;

- lug'atni rivojlantirishning og'zaki nutq shakllari bilan o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda nutqning leksik, grammatik, fonetik tomonlarini shakllantirish bo'yicha mashqlarning o'zaro ta'siri, o'qish va yozish texnikasini rivojlantirish, nutq faoliyatining barcha turlarining o'zaro ta'siri kiradi.

Chet tili o'qitish jarayonida talabalarda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi ta'lim harakatlarini shakllantirish kerak:

- so'zning semantizatsiyasi;

- so'zning tovush va grafik shaklini hisobga olish;

- so'zni uzoq muddatli xotiraga kiritish:

- lug'atning semantik guruhlanishi (sinonimlar, antonimlar, ma'no jihatdan o'xshash so'zlar);

- tematik asosda; mavzu bo'yicha lug'atni qayta ko'rib chiqish orqali uzoq muddatli xotiradan so'zni tezda eslab qolish (masalan, oziq-ovqat, sayohat, sport, ta'lim, iqtisodiyot);

- so'z birikmalarida so'zlardan foydalanish (kontekstga qarab);

- zarur, lekin talabaga noma'lum bo'lgan so'zni ma'nosiga yaqin so'z bilan almashtirish.

Xulosa.

Chet tilini o'rganish jarayonida lug'atning o'rni katta - aynan lug'at fikrning bevosita mazmunini yetkazadi, shuning uchun u hayotning barcha sohalariga kirib boradi va shu bilan nafaqat real haqiqatni, balki xayoliy haqiqatni ham aks ettirishga yordam beradi. Oliy ta'lim talabalarida

leksik materialni o'zlashtirmasdan turib, erkin muloqot muhitini yaratish mumkin emas. So'zlarni o'zlashtirish nutqning eng muhim shartlaridan biridir. O'qituvchining vazifasi talabalarning leksik ko'nikmalarini oshirish, rivojlantirishga ko'maklashishdir, shunda talabalar o'zlari o'rgangan barcha so'z boyliklaridan ishonchli foydalanib chet tilida erkin muloqot qilishga erishadirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абраменкова В.В. Игра формирует душу ребенка / В.В. Абраменкова // Мир психологии. 2008. – №4.
2. Азимов Э. Г. Новый словарь методических терминов и понятий: теория и практика обучения языкам – М.: ИКАР, 2010. – 446 с.
3. Миньяр-Белоручев Р. К. Как стать переводчиком? – М.: Готика, 2009. – 176 с.
4. Шатилов С. Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе: Учеб.пособие для студентов пед. ин-тов по спец. – № 2103 «Иностр.яз.». 2-е изд., дораб. – М.: Просвещение, 1986. – 62 с.
5. Щерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики – М.: Высшая школа, 1974. – 112 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Наширова Дильноза Буриевна,
Каршинский инженерно-экономический институт, преподаватель
d_nashirova@gmail.com

UDK 37.01

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация: Речь — это интерактивный процесс создания смысла, включающий производство, прием и обработку информации. В современном обществе целью обучения говорению является совершенствование коммуникативных навыков студентов. В данной статье рассматриваются пути совершенствования речевых навыков студентов, изучающих немецкий язык.

Ключевые слова: обучение говорению, речевая деятельность, проблемы, решения, коммуникативная компетенция.

Nashirova Dilnoza Buriyevna,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute, o'qituvchi

TEKNIKA OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARINING OG'ZAKI NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Анотасија: Nutq - ma'no yaratishning interaktiv shu jumladan ma'lumotni ishlab chiqarish, qabul qilish va qayta ishlash jarayonidir. Zamonaviy jamiyatda nutqni o'rgatishning maqsadi talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini oshirishdir. Ushbu maqolada nemis tilini o'rganayotgan talabalarning og'zaki nutq qobiliyatlarini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutqqa o'rgatish, nutq faoliyati, muammolar, yechimlar, kommunikativ kompetentsiya.

Nashirova Dilnoza Buriyevna,
Karshi engineering - economics Institute, teacher

PROBLEMS OF IMPROVING ORAL SPEECH OF STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

Abstract: Speech is an interactive process of creating meaning, including the production, reception and processing of information. In modern society, the purpose of teaching speaking is to improve students' communicative skills. This article examines ways to improve the speech skills of students studying German.

Keywords: teaching speaking, speech activity, problems, solutions, communicative competence.

Введение.

Коммуникация — один из новейших и наиболее важных навыков, которым необходимо овладеть. Говоря, люди могут узнать, какие ситуации в мире. Устная речь — это процесс создания и обмена значениями с использованием вербальных и невербальных символов в различных ситуациях. Тогда мы можем сказать, что говорение как навык играет важную роль для изучающих немецкий язык, особенно для изучающих иностранный язык. Устное общение — это «процесс создания и обмена значениями с использованием вербальных и невербальных символов в различных контекстах». Говорение — это важная часть изучения и преподавания иностранного языка. Несмотря на свою важность, обучение говорению недооценивалось в течение многих лет, и учителя

продолжают обучать говорению, просто повторяя упражнения или заучивая диалоги. Однако в современном мире целью обучения говорению должно быть улучшение коммуникативных навыков учащихся. Потому что только таким образом учащиеся могут научиться выражать себя и следовать социальным и культурным правилам, адаптированным к каждой ситуации общения.

Анализ литературы.

Проблемами говорения занимались такие авторы, как Бим И.А., Пассов Е.И., Гальскова Н.Д., Гез Н.И., Соловьева Е.Н., Рогова Г.В., Зимняя И.А. и др., а также представитель зарубежной методологии М. Кох.

В литературе существует множество подходов к определению термина «говорение» и его связи с другими понятиями в зависимости от контекста, в

котором употребляется этот термин. По мнению Э.Г. Азимова, «Говорение — продуктивный вид речевой деятельности, посредством которого (вместе с аудированием) осуществляется устное речевое общение. Содержанием является выражение мыслей в устной форме. Говорение основывается на произносительных, лексических, грамматических навыках» [1, 496].

Методология исследования.

На начальном этапе задания должны быть легкими, но достаточно хорошими, чтобы учащиеся могли использовать изучаемый язык.

Учащиеся могут говорить не бегло и не аккуратно, но они не должны молчать. Когда они привыкнут к общению, учитель может предлагать более сложные задания, такие как ролевые игры, дискуссии, дебаты и задачи по решению проблем.

Анализ и результаты.

Говорение — один из языковых навыков, который очень важен для поддержки дальнейшего устного общения, особенно на немецком языке, но его сложнее всего улучшить. Обучение говорению не похоже на слушание, чтение и письмо. Оно требует формирования привычки, поскольку это настоящее общение, а говорение — продуктивный навык, поэтому его нужно практиковать как можно чаще. Традиционное обучение разговорной речи в классе часто принимает форму упражнений, в которых один человек задает вопрос, а другой дает ответ. Вопрос и ответ структурированы и ожидаемы, и часто есть только один правильный, заранее подготовленный ответ. Цель постановки вопроса и ответа на него состоит в том, чтобы продемонстрировать способность задавать вопрос и отвечать на него.

Напротив, цель реального общения состоит в выполнении задачи, такой как передача телефонного сообщения, получение информации или выражение мнения. В реальном общении участники должны справляться с неуверенностью в том, что скажет другой человек.

Аутентичная коммуникация предполагает информационный пробел; у каждого участника есть информация, которой нет у другого. Кроме того, для достижения своей цели участникам, возможно, придется объяснить их смысл или попросить подтверждения собственного понимания. Устная речь требует, чтобы учащиеся не только знали, как воспроизводить определенные элементы языка, такие как грамматика, произношение или словарный запас («лингвистическая компетентность»), но также чтобы они понимали, когда, почему и каким образом производить речь, социолингвистическая компетентность [2,160]. Разговорный язык является первичным явлением. Люди говорят гораздо больше,

чем пишут, поэтому язык нужно учить изначально через речь.

Устная речь необходима для изучения любого языка. Изучение немецкого языка — это обучение, требующее знания языка и его применения. Понимая навык говорения, учитель должен тренировать и готовить учащихся с определенной степенью точности и беглости в понимании, реагировании и выражении себя на языке в речи. В настоящее время все преподаватели лингвистики и немецкого языка сходятся во мнении, что студенты учатся говорить по-немецки, «общаясь». Коммуникативное обучение языку и совместное обучение лучше всего служат для этой цели. Обучение коммуникативному языку основано на реальных жизненных ситуациях, связанных с общением.

Существует множество различных методов, которые можно использовать, чтобы помочь учащимся развить свои коммуникативные навыки. Например, говорение, которое является одним из интерактивных навыков, можно улучшить с помощью интерактивных стратегий, таких как «Думай - Объединяйся в пары - Поделись». Основным элементом этой стратегии является взаимодействие со сверстниками. Учащиеся поощряют взаимодействовать и слушать друг друга. Использование стратегии «Думай - Объединяйся в пары - Поделись» приводит к активному вовлечению. Фактически, она предоставляет учащимся возможности думать, слушать, делиться и размышлять над своими идеями и идеями своих сверстников.

Используя этот метод на уроках немецкого языка, учащиеся получают возможность общаться друг с другом на изучаемом языке. Учителя должны создать классную среду, в которой учащиеся могут общаться в реальной жизни, проводить аутентичные занятия и выполнять содержательные задания, способствующие развитию устной речи. Это может произойти, когда учащиеся сотрудничают в группах для достижения цели или выполнения задачи. Действия, которые можно выполнять в классе разговорной речи, будут обсуждаться позже. Есть четыре основных аспекта изучения языка, которые учащиеся должны делать с изучаемым языком: знакомиться с ним, понимать его значение, понимать его форму (как он устроен) и практиковать его [3,19-22]. В классе основная часть работы учителя состоит в том, чтобы познакомить учащихся с языком, чтобы они могли использовать его позже.

Изучение языка может происходить только через естественный процесс, который действует, когда человек участвует в использовании языка для общения.

В результате коммуникативные способности (в классе или за его пределами) являются центральной частью всего процесса обучения. В коммуникативной модели обучения языку преподаватель помогает

учащимся в реальном общении. Они помогают своим учащимся развивать способность составлять грамматически правильные, логически связанные предложения, соответствующие определенному контексту. Существуют некоторые принципы обучения говорению. Некоторые из них описаны ниже:

На начальном и среднем уровне обучения учащимся должна быть предоставлена возможность улучшить беглость речи, а также точность [4,160]. Точность означает правильное использование целевого языка, а беглость — быстрое и уверенное использование языка. Учитель не должен акцентировать внимание на каком-то одном аспекте речи. Скорее, студенты должны попрактиковаться как в точности, так и в беглости речи.

Учитель должен использовать групповую работу или работу в парах: чтобы улучшить речь учащихся, им следует предоставить достаточно возможностей для выступления в классе. Таким образом, время разговора

учителя должно быть меньше, а время разговора студента должно быть больше.

Важно, чтобы преподаватели иностранных языков не занимали все время. Разговорная деятельность должна быть очень тщательно структурирована сначала на более низких уровнях, поэтому учащиеся предъявляют к ней мало требований.

Выводы.

Обучение говорению является очень важной частью изучения немецкого языка. Умение общаться на немецком языке несомненно и эффективно способствует успеху студента в неязыковом вузе и успеху во всех сферах жизни. И последнее, но не менее важное: различные разговорные упражнения могут в значительной степени способствовать развитию у учащихся базовых интерактивных навыков, необходимых для жизни.

Список использованных источников:

1. Азимов, Э. Г. Современный словарь методических терминов и понятий. . Теория и практика обучения языкам: словарь / Э. Г. Азимов, А. Н. Шукин. – Москва: Русский язык. Курсы, 2018. – 496 с. – ISBN 978-5-88337- 701-2.
2. Восковская, А. С. Педагогические условия формирования коммуникативно-профессиональной компетентности студентов неязыкового вуза в условиях цифрового общества: монография / А. С. Восковская, Т. А. Карпова, М. В. Мельничук. – Москва: КноРус, 2019. – 160 с.
3. Камбарова, Л. Р. Виды речевой деятельности на уроках иностранного языка / Л. Р. Камбарова // Творческий учитель. – 2022. – № 19. – С. 19–22.
4. Abdurahmonova, R. I. Methods to develop speaking skills in modern pedagogy / R. I. Abdurahmonova // Academic research in educational sciences.– 2021. – № 3. – P. 160–164.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Djabbarova Feruza Odilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
e-mail:feruza_djabbarova@mail.ru

UDK 37.02

ANIQ FANLAR YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixolingvistik yondashuv orqali aniq fanlar (matematika va informatika) yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitish samaradorligi o'rganiladi. Maqoladagi tadqiqotimizda tajriba va nazorat guruhlarini ishtirok etgan hamda natijalar psixolingvistik yondashuvning til bilimlarini o'zlashtirish, motivatsiyani oshirish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaxshilashdagi samaradorligini ko'rsatgani qayd etilgan. Maqolada shuningdek, psixolingvistik yondashuvning ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari va kelgusi tadqiqot yo'nalishlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: psixolingvistik yondashuv, aniq fanlar, ingliz tili, motivatsiya, ta'lim samaradorligi, kognitiv jarayonlar, eksperimental tadqiqot.

Djabbarova Feruza Odilovna
Senior Teacher of Chirchik State Pedagogical University

THE ROLE OF THE PSYCHOLINGUISTIC APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE SKILLS OF EXACT SCIENCE STUDENTS

Abstract: This article examines the effectiveness of using a psycholinguistic approach to teach English to students in exact sciences. The study involved experimental and control groups, and the results demonstrated that the psycholinguistic approach enhances the acquisition of language skills, increases motivation, and improves the ability to apply knowledge in practice. The article also discusses the opportunities for applying the psycholinguistic approach in education and future research directions.

Keywords: psycholinguistic approach, exact sciences, English language, motivation, educational effectiveness, cognitive processes, experimental study.

Джаббарова Феруза Одилевна
Старший преподаватель Чирчикеский государственный педагогический университет

РОЛЬ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ ТОЧНЫЕ НАУКИ

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность использования психолингвистического подхода к обучению английскому языку студентов, изучающих точные науки. В исследовании приняли участие экспериментальные и контрольные группы, и результаты показали, что психолингвистический подход улучшает усвоение языковых навыков, повышает мотивацию и улучшает способность применять знания на практике. В статье также обсуждаются возможности применения психолингвистического подхода в образовании и будущие направления исследований.

Ключевые слова: психолингвистический подход, точные науки, английский язык, мотивация, эффективность обучения, когнитивные процессы, экспериментальное исследование.

Kirish.

Aniq fanlar yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklar ko'pincha aniq fanlar va chet tilini o'rganishdagi bilimlarning farqli jihatlaridan kelib chiqadi. Aniq fanlar, ya'ni STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishidagi talabalar odatda o'z sohalarida matematik va ilmiy tafakkurga ega

bo'lishlari talab etiladi, ammo ingliz tili bilimlari ularga ilmiy adabiyotlar, akademik tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik uchun zarur hisoblanadi. Shu sababli, ushbu talabalarga ingliz tilini samarali o'qitish aniq fanlar va til o'qitish metodologiyasining integratsiyasini talab qiladi.

Sohaviy adabiyotlar tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, STEM ta'limidagi talabalar orasida chet tilini

o'rganish bilan bog'liq motivatsiya darajasining pastligi kuzatiladi, bu esa natijada chet tili o'qituvchilariga bir muncha qiyinchiliklar yaratadi [1]. STEM fanlarining mazmuni ko'pincha abstrakt va murakkab bo'lib, uni til o'qitishda yoritib berish ham qiyinlashadi [14:8]. Shu bilan birga, aniq fanlar talabalariga tilni o'rganish uchun yangi pedagogik yondashuvlar zarurligi, bu esa ko'p modeli (multiple models) tafakkur hamda integrative usulda o'qitishni talab etadi [15]. Shunday ekan, psixolingvistik yondashuv aniq fanlar talabalariga tilni o'rganishda eng samarali usullardan biri hisoblanib, bu yondashuv orqali talabalar tilni o'rganish jarayonida individual va guruhda fikrlash, matnlarni idrok qilish hamda bilimni amaliy qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini oshirishlari mumkin [19; 16]. Yana shuni guvohi bo'lamizki, chet tilini o'qitishda psixolingvistik yondashuvni qo'llash talabalar ongida yangi modellarni yaratish imkoniyatini beradi va bu, o'z navbatida, ularning STEM fanlari bo'yicha bilimlarini kengaytirishga yordam beradi [2].

Bundan tashqari, psixolingvistik yondashuv orqali talabalar o'rganish jarayonida til bilan bog'liq o'ziga xos madaniy va ijtimoiy kontekstlarni o'zlashtira oladilar, bu esa ularning umumiy til qobiliyatlari va kommunikativ mahoratlarini oshiradi [18]. Ushbu yondashuvda amaliy tajribaga asoslangan o'qitish va eksperimental o'rganish usullari qo'llanilib, talabalarga o'rganish jarayonini real hayot keyslariga moslashtirishga imkon beradi. Ushbu metodikaning qo'llanishi aniq fanlar yo'nalishidagi talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, o'qish samaradorligini yuksaltirishi va o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini kuchaytirishi mumkin [12; 17].

Psixolingvistik yondashuv chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rganishda aniq fanlar talabalariga yordam beruvchi samarali metodlardan biri, deb hisoblaymiz. Tahlilimizdan ma'lum bo'ladiki, psixolingvistika til o'rganish jarayonida inson ongida qanday jarayonlar sodir bo'lishini, tilni idrok qilish, tushunish va ishlab chiqish jarayonlarini o'rganadi [5]. Ushbu yondashuv o'qitish jarayonida individual va guruhdagi kognitiv jarayonlarni chuqurroq anglashga imkon beradi, bu esa talabalarni yanada faollashtiradi hamda tilni yanada samarali o'zlashtirishga o'z hissasini qo'shadi [4].

Tilni o'rganishning psixolingvistik jihatlari, masalan, kognitiv yuklama, tilni qayta ishlash va lug'atni avtomatlashtirish jarayonlari, tilni samarali o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi [8]. Talabalar ma'lum bir tilda muloqot qilishda asosiy grammatik va leksik qoidalarni qo'llash bilan birga, tilning kontekstual va pragmatik qirralarini ham hisobga olishlari kerak. Bu holatlarda psixolingvistik yondashuv tilni idrok qilish, uni ishlab chiqish va o'rgatishda chuqurroq yondashuvlarni talab qiladi, natijada talabalar tilni yaxshiroq tushunishlari va qo'llashlari mumkin bo'ladi [6].

Psixolingvistik yondashuvning yana bir afzalligi uning talabalar ongida yangi modellarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Bu modellar yordamida talabalar tilni idrok qilish, tinglash va tushunish kabi jarayonlarni yaxshilaydi. Talabalarga tilni o'rgatishda intuitiv va anglab o'rgatish usullarining birlashuvi til bilimlarini samarali avtomatlashtirishga yordam beradi [9]. Shu bilan birga, xorijiy til (ingliz tili)ni o'rganish jarayonida ham bu yondashuv ijobiy natijalarni ko'rsatadi, chunki talabalar real hayotda qo'llanishga oid faoliyatlarni amalga oshirishi orqali o'rgangan bilimlarni mustahkamlay oladi.

Psixolingvistik yondashuv, shuningdek, o'qituvchilarning talabalarga nisbatan yondashuvlarini o'zgartiradi. O'qituvchilar tilni o'qitishda faqatgina grammatik va leksik bilimlarni yetkazish bilan kifoyalanmasdan, talabalarning til o'rganish jarayonidagi motivatsiyasi va qiziqishlarini ham oshirishi lozim [11]. Shu bilan birga, bu yondashuv talabalar o'rtasida hamkorlikda o'qitish va o'zaro o'rganishni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi, bu esa talabalarning til qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi [7].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - aniq fanlar yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'rganishda psixolingvistik yondashuvni qo'llash orqali o'quv jarayonini samarali qilish bo'lib, tilni o'rganish jarayonida psixolingvistik yondashuvdan foydalanish orqali talabalar nafaqat til bilimlarini yaxshilash, balki o'quv jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonida ongli va ongsiz jarayonlarni to'g'ri boshqarish ularga o'rganishning murakkab tomonlarini yengishga yordam beradi [5; 8].

Ushbu kichik tadqiqotda psixolingvistik yondashuv orqali o'qitishning samaradorligi tajriba-sinov orqali baholanadi. Tajriba guruhi bilan olib borilgan tadqiqotlar natijalarida psixolingvistik usullardan foydalangan holda tilni o'rganish jarayonida talabalarning motivatsiyasi va tilni idrok qilish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilangani aniqlangan. Psixolingvistik yondashuvning asosiy tamoyillari, ya'ni tushunish, eslab qolish va amalda qo'llash jarayonlari o'quvchilarga tilni yaxshiroq o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun talabalar kognitiv jarayonlarga chuqurroq kirib borishlari va tilni o'rganishda hamda foydalanishda samaradorlikka erishishlari zarur. Psixolingvistik yondashuv, xususan, tilga oid mavhum tushunchalarni o'zlashtirish va tilning madaniy kontekstini anglashda samarali usul bo'lib, bu yondashuvning samaradorligi til o'rganuvchilarning yangi leksik birliklarni o'zlashtirishida va o'zaro muloqotni amalga oshirishda ko'rsatib beriladi. Mazkur tadqiqotda shuningdek, talabalarni ingliz tilini o'rganish jarayonida motivatsiya berish va ularga tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratish masalalari ham o'rganilgan. Psixolingvistik yondashuv orqali o'qitishning yana bir

afzalligi o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi individual tafovutlarini hisobga olish va o'zlashtirish darajasiga mos usullarni qo'llash imkoniyati hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda ishtirokchilar sifatida aniq fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan, yoshi 18-22 oralig'ida bo'lgan "Matematika va informatika" yo'nalishi bakalavr talabalari tanlangan bo'lib, ularning tanlanishida tilni o'rganish bilan bog'liq qiyinchiliklari va bu jarayondagi individual kognitiv jarayonlarning ahamiyati inobatga olingan. Ishtirokchilar psixolingvistik yondashuv orqali ingliz tilini o'rganish samaradorligini baholash uchun tanlangan, chunki ular aniq fanlar bilan bog'liq murakkab tushunchalarni tushunish hamda ushbu bilimlarni boshqa kontekstlarda qo'llash qobiliyatiga ega. Tadqiqotda ishtirokchilarni tanlashda tasodifiy tanlov usuli qo'llandi, bu esa tadqiqot natijalarining umumlashuvini ta'minlashga yordam berdi. Talabalar ikki guruhga bo'lingan: tajriba va nazorat guruhlari. Tajriba guruhi psixolingvistik yondashuv asosida ingliz tilini o'rgangan bo'lsa, nazorat guruhi odatiy an'anaviy metodlar asosida ta'lim oldi. Bu guruhlarning natijalarini taqqoslash orqali psixolingvistik yondashuvning samaradorligini baholash mumkin bo'ldi.

Ishtirokchilar o'rganish jarayonida muhim psixolingvistik omillar (masalan, tilni idrok qilish, eslab qolish, qayta ishlash) asosida o'rgatilgan. Tadqiqot davomida talabalar bilan maxsus testlar, so'rovnoma va amaliy mashqlar o'tkazildi. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun individual va guruhda bajarilgan mashqlar yordamida talabalar tomonidan tilni o'zlashtirish va undan foydalanish qobiliyatlari o'rganildi. Shuningdek, tadqiqot davomida ishtirokchilarning til o'rganish jarayonidagi faolligi va qiziqishi, motivatsion o'zgarishlari ham kuzatildi. Bu kuzatishlar orqali talabalar o'zlashtirgan bilimlar va ularning til bilan ishlashdagi qobiliyatlari o'rganildi, natijalar grafik va diagrammalar yordamida tasvirlangan bo'lib, bu jarayondagi yutuqlar va kamchiliklarni aniqroq ko'rsatishga imkon bergan. Tajriba guruhida 12 nafar talaba, nazorat guruhida esa 13 nafar talaba qatnashdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tajriba guruhi psixolingvistik yondashuv yordamida o'qitilib, ularga til o'rganish jarayonida kognitiv jarayonlarni boshqarish va tushunishga asoslangan maxsus ta'lim metodlari taqdim etilgan bo'lsa, nazorat guruhi esa an'anaviy o'qitish usullari orqali ta'lim oldi.

Tajribaning umumiy tuzilmasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich baholash: Har ikki guruh uchun til bilimlarini baholash uchun dastlabki test o'tkazildi. Bu test natijalari orqali ishtirokchilarning dastlabki til bilimi darajasi belgilandi.

2. Tajriba bosqichi: Tajriba guruhiga psixolingvistik yondashuv asosida tayyorlangan maxsus darslar o'tkazildi. Ushbu yondashuv talabalarning til idroki, eslab qolish va

qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga oldi. Nazorat guruhi esa an'anaviy darslarni davom ettirdi.

3. Kuzatish va ma'lumot yig'ish: Darslar davomida har ikki guruh ishtirokchilarining faolligi, bilimni o'zlashtirish darajasi va motivatsion o'zgarishlar kuzatildi. Kuzatish natijalari ma'lumotlarni jadval shaklida qayd etildi.

4. Yakuniy baholash: Tajriba oxirida yana bir test o'tkazilib, har ikki guruh ishtirokchilarining yakuniy natijalari qayd etildi. Bu orqali psixolingvistik yondashuvning samaradorligi baholandi.

Ushbu tadqiqotda ma'lumot yig'ishning uchta asosiy usuli qo'llanildi:

➤ **So'rovnoma:** Talabalar o'rtasida psixolingvistik yondashuvga oid fikr va munosabatlarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada talabalar til o'rganishdagi qiyinchiliklari, o'quv jarayonida motivatsiya darajasi va yangi o'qitish metodlarining samaradorligi haqidagi savollarga javob berdilar. Bu ma'lumotlar yordamida talabalarning o'rganish jarayonidagi shaxsiy tajribasi va qoniqish darajasi baholandi.

➤ **Kuzatish:** Darslar davomida tajriba va nazorat guruhlari faoliyatini kuzatish orqali talabalar til o'rganish jarayonidagi faolligi va qiyinchiliklari qayd etib borildi. Kuzatish natijalari talabalarni guruhdagi ishtiroki, til bilan bog'liq masalalarni hal qilishdagi muvaffaqiyati va psixolingvistik yondashuvdan foydalanish darajasini tahlil qilish imkonini berdi. Kuzatuv natijalari orqali o'quvchilarning amaliy faoliyatini batafsil baholash va ularga mos keluvchi pedagogik usullarni aniqlash maqsad qilingan edi.

➤ **Test natijalari:** Tadqiqotning boshlang'ich va yakuniy bosqichlarida talabalar uchun testlar o'tkazilib, dastlabki test orqali talabalar til bilimining boshlang'ich darajasi baholandi, tajriba oxirida esa yakuniy test orqali tilni o'zlashtirish darajasi qayd etildi. Bu test natijalari yordamida eksperimental guruh va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlar aniqlandi va psixolingvistik yondashuvning samaradorligi tahlil qilindi.

Yig'ilgan ma'lumotlar eksperimental va nazorat guruhlarining dars jarayonidagi muvaffaqiyatlari va samaradorligini taqqoslashda ishlatildi. Ma'lumotlar tahlilida olingan natijalar grafik va jadval shaklida tasvirlanib, psixolingvistik yondashuvning ingliz tilini o'rganishga ta'siri ko'rsatildi.

Ushbu tadqiqotda psixolingvistik usullar ingliz tilini o'rganish jarayonida motivatsiya va idrok jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan. Motivatsiya va idrok, tilni o'rganishning samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi, shuning uchun psixolingvistik yondashuv ushbu jarayonlarni faollashtirish uchun qo'llanildi.

Motivatsiya: Psixolingvistik yondashuv yordamida talabalarni o'rganish jarayonida motivatsiya qilishga katta

e'tibor qaratildi. Motivatsiyani oshirish uchun o'quvchilarga til o'rganishning amaliy jihatlarini taqdim etish va tilning hayotdagi ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan faoliyatlar o'tkazildi. Masalan, talabalar uchun maxsus tayyorlangan real hayotiy vaziyatlar, guruh muhokamalari va rolli o'yinlar orqali tilni qo'llash imkoniyati yaratildi. Bu yondashuv talabalarni til o'rganishga qiziqitirdi va ularni o'rganish jarayonida faolroq ishtirok etishga undadi.

Idrok jarayonlari: Psixolingvistik yondashuv orqali talabalarning tilni idrok qilish jarayoni ham yaxshilandi. Idrok jarayonlarini faollashtirish uchun turli usullar qo'llandi, masalan, ingliz tilidagi matnlarni tushunish va ularni qayta ishlashga qaratilgan mashqlar, yangi lug'atlarni vizual hamda kontekstual vositalar orqali eslab qolish va ishlatish kabi. Ushbu usullar yordamida talabalar tilni idrok qilish qobiliyatlarini yaxshilash va yangi grammatik qoidalarni osonroq o'zlashtirish imkoniga ega bo'ldilar.

Psixolingvistik yondashuv talabalarga tilni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri tushunishga, balki uni kundalik hayotda samarali ravishda qo'llashga imkon beradi. Ushbu jarayonda audio-vizual materiallar va interaktiv mashqlar qo'llanilib, tilni idrok qilishda talabalarning diqqatini jamlash va ma'lumotni qabul qilish darajasi oshirildi.

Tahlil va natijalar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi talabarlari tilni o'zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Test natijalariga ko'ra, tajriba guruhida o'quvchilarning bilim



darajasi nazorat guruhiga nisbatan 12% ga yuqori ekanligi qayd etildi. Ushbu yutuq psixolingvistik yondashuvning samaradorligini ko'rsatib berdi.

Nazorat guruhi talabarlari an'anaviy o'qitish usullari bilan ta'lim olganligi sababli ularning tilni o'zlashtirishda yutuqlari nisbatan pastroq bo'ldi. Ta'lim samaradorligidagi farq o'quv jarayonida psixolingvistik usullar qo'llanilishi orqali talabalar tilni idrok qilish, eslab qolish va uni amaliyotda qo'llash qobiliyatlarining yaxshilangani bilan bog'liq bo'lib chiqdi.

Quyidagi jadvalda har ikki guruh bo'yicha test natijalarining taqqoslanishi ko'rsatilgan:

1-jadval. Tajriba-sinov natijalari

Guruh	Talabalar soni	Ta'lim usuli	O'rtacha test ballari (boshlang'ich)	O'rtacha test ballari (yakuniy)	O'zgarish (%)
Ekspirimental	12	Psixolingvistik yondashuv	65	77	+12%
Nazorat	13	An'anaviy usul	64	67	+3%



1-rasm. Tajriba-sinov natijalarining dinamik ko'rinishi

1-jadval hamda 1-rasmda ko'rsatilganidek, eksperimental guruh talabarlari o'rtacha 12% ga yuqori samaradorlikka ega bo'lgan, bu esa psixolingvistik yondashuv yordamida til o'rganish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini va bilimni samarali o'zlashtirishini ta'minlash imkonini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, psixolingvistik yondashuv orqali o'qitilgan tajriba guruhida leksik va grammatik bilimlarni egallash bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan. Tajriba guruhida talabalar yangi so'zlarni

o'rganish, ularni eslab qolish va qo'llashda an'anaviy usullarga qaraganda yuqori natijalarni ko'rsatishgan. Bu yondashuv orqali talabalar lug'at boyligini oshirishda hamda grammatik qoidalarni qo'llashda samarali natijalarga erishgan.

Ekspirimental guruhda psixolingvistik yondashuv yordamida o'tkazilgan darslarda talabalar yangi so'zlarni o'rganishda turli kontekstual va vizual yordamlar, jumladan, piktogrammalar va kontekstga asoslangan mashqlar orqali so'zlarni eslab qolish imkoniyatiga ega

bo'lishgan. Bu esa ularning **leksik bilimlarini** ancha yaxshilagan hamda yangi so'zlarni samarali qo'llash imkoniyatini yaratib bergan. Yakuniy baholash natijalarida eksperimental guruh talabalari leksik bilimlar bo'yicha 15% ga yuqori natijalarni ko'rsatdi, bu esa psixolingvistik yondashuvning leksik mahoratni oshirishga bo'lgan ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Psixolingvistik yondashuv shuningdek, grammatik qoidalarni o'rganish va qo'llashda ham sezilarli natijalar bergan. Tajriba guruhida talabalar grammatik strukturalarni o'rganishda kognitiv jarayonlarni boshqarishga asoslangan metodlarni qo'llab, **grammatik bilimlarni** yanada samarali o'zlashtirganlar. Masalan, talabalar darslar davomida grammatika qoidalarini tushunish va qo'llashda mantiqiy tahlil, sintez va qo'llash mashqlarini bajarganlar, bu esa grammatik bilimlarning mustahkamlanishiga yordam bergan. Yakuniy test natijalari grammatik bilimlarni o'zlashtirishda tajriba guruhida 10% ga yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari psixolingvistik yondashuvning talabalarning leksik va grammatik bilimlarini egallashda samarali usul ekanligini ko'rsatgan. Ushbu yondashuv orqali talabalar tilni nafaqat o'rganishda, balki uni amaliyotda qo'llashda ham muvaffaqiyatga erishgan, bu esa ularning umumiy til o'zlashtirish darajasini yaxshilagan.

Muhokama.

Mazkur kichik tadqiqot natijalari psixolingvistik yondashuvning aniq fanlar yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'rgatishda samaradorligini ko'rsatgan bo'lib, psixolingvistik yondashuv orqali til o'rganish jarayonida talabalar faolligi, motivatsiyasi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, ushbu yondashuvning bir nechta afzalliklari va to'siqlari ham aniqlangan.

Demak, quyidagi afzalliklarni qayd etishimiz mumkin:

✓ Psixolingvistik yondashuv orqali talabalar tilni o'rganishda yanada qiziqish bilan ishtirok etishdi. Real hayotiy vaziyatlar va kontekstual mashqlar talabalarni tilni o'rganishga undadi, bu esa ularning motivatsiya darajasini oshirdi. Ta'lim jarayonida talabalarning faolligi va til bilan amaliy bog'liqlikni his etishlari tilni samarali o'zlashtirishga yordam berdi.

✓ Psixolingvistik yondashuv yordamida talabalar tilni idrok qilish va yangi ma'lumotlarni eslab qolishda muvaffaqiyatga erishdi. Interaktiv mashqlar va vizual yordamlar, jumladan, piktogrammalar va kontekstual vositalar orqali talabalar yangi so'z va grammatik qoidalarni yaxshiroq o'zlashtira oldilar. Bu o'z navbatida, ularning leksik va grammatik bilimlarni samarali qo'llashiga olib keldi.

✓ Mazkur yondashuvning yana bir muhim afzalligi talabalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishdan iborat. Til o'rganishda idrok, qayta

ishlash va amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarni faollashtirish talabalarning tilga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirdi. Psixolingvistik mashqlar orqali talabalarning til o'rganishdagi individual farqlari hisobga olinib, ularga mos metodlar qo'llandi, bu esa til bilimlarining yaxshiroq mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Shu bilan bir qatorda tadqiqotga tortilgan yondasguvimizni qo'llashda to'siqlar ham yo'q emas. Quyida ularni ham ko'rib chiqamiz:

— Psixolingvistik yondashuvni amalga oshirish murakkab metod va maxsus tayyorlangan o'quv materiallarini talab etadi. O'qituvchilar bu yondashuvni samarali qo'llash uchun psixolingvistika va kognitiv soha bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishlari kerak, bu esa o'qituvchilardan qo'shimcha tayyorgarlik va vaqt talab qiladi.

— Psixolingvistik yondashuv talabalar uchun yuqori kognitiv yuklama hosil qilishi mumkin. Leksik va grammatik bilimlarni eslab qolish, idrok qilish va amaliyotda qo'llash talabalar uchun murakkab jarayon bo'lib, ularni charchatishi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Shu sababli, metodni qo'llashda talabalarning tayyorgarlik darajasini inobatga olish muhim hisoblanadi.

— Psixolingvistik yondashuv bilan o'qitish ko'proq vaqt talab qilishi mumkin, chunki talabalarning har bir jarayonida alohida e'tibor va faol ishtirok lozim. Bu esa o'quv jarayonining davomiyligi va rejalashtirilgan maqsadlarga erishish muddatlariga ta'sir etmay qolmaydi.

Yuqoridagi afzalliklar va to'siqlar psixolingvistik yondashuvning til o'rgatishda qanchalik samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu yondashuv talabalarning tilni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini oshirishda va bilimlarini mustahkamlashda samarali bo'lsa-da, uni qo'llashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan mulohazali o'rinlar ham mavjud. Shularni ham ta'kidlashimiz lozimki, ilgari o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ham psixolingvistik yondashuvning til o'rganuvchilarning motivatsiyasi va idrok qobiliyatlarini yaxshilashdagi ahamiyatini tasdiqlagan. Masalan, D.Xoshimovanning tadqiqot ishida chet tilini o'rgatishda hissiy-ekspressiv nutqning mnemonik baza asosida rivojlantirilishi ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu usul o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishda yordam bergan [20]. Shuningdek, M.Imomovanning tadqiqotida innovatsion texnologiyalar yordamida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning o'rganilishi psixolingvistik yondashuv bilan uyg'unlashgan holda o'rganish jarayonini samarali qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan [10]. Tadqiqotchi H.Davlatovanning dissertatsiyasida psixolingvistikaning nutq shakllanishiga bo'lgan ta'siri o'rganilgan va bu usul talabalarning tilni idrok qilish qobiliyatini rivojlantirishda sezilarli natijalar berganligi qayd etilgan [3]. K.Kudratov esa o'z ishida kognitiv yondashuv asosida o'qitishning informatika

o'qituvchilarining amaliy va kognitiv ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan [13], bu esa psixolingvistik yondashuvning pedagogik ta'limdagi ahamiyatini kuchaytiradi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlari bilan taqqoslaganda, psixolingvistik yondashuvning til o'rganishda motivatsiya va kognitiv jarayonlarni faollashtirishi, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida tayyorlashdagi samaradorligi o'z tasdig'ini topgan.

Shunday qilib, psixolingvistik yondashuv, tilni o'rganish jarayonini idrok qilish va motivatsiya bilan bog'lab, ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yondashuv orqali talabalar individual ehtiyojlariga mos ravishda tilni o'zlashtirishlari mumkin, bu esa har bir talabaning kognitiv jarayonlarini hisobga olishga imkon beradi. Shuningdek, psixolingvistik yondashuvni qo'llash interaktiv va tajribaga asoslangan mashg'ulotlarni qo'llash orqali talabalar uchun qiziqarli va samarali ta'lim muhitini yaratadi.

Kelgusida psixolingvistik yondashuvni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari yanada kengayishi mumkin, xususan, texnologiyalar rivojlanishi bilan bu yondashuvning samaradorligi ortib boraveradi. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalari va virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida til o'rganish jarayonidagi kognitiv va hissiy jarayonlarni yanada samarali boshqarish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bundan tashqari, psixolingvistik yondashuvni qo'llash orqali o'qitish metodikalarini talabalarning o'rganish uslublariga moslashtirish, shuningdek, til o'rganishdagi motivatsiyani oshirishga qaratilgan yangi usullarni tadbiiq etish imkoniyati ham mavjud. Ushbu yondashuvni keng qo'llash orqali talabalar nafaqat lingvistik bilimlarini, balki

kognitiv ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar, bu esa kelajakda ularning kasbiy va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lib, psixolingvistik yondashuvning til o'rgatish metodikasiga integratsiyasi kelgusida ta'lim sifatini oshirish, innovatsion va individual ta'lim jarayonlarini tashkil etishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, psixolingvistik yondashuv orqali aniq fanlar yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilini o'rganish samaradorligini oshirishga erishildi. Tajriba guruhida o'qigan talabalar tilni o'zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi, bu esa psixolingvistik yondashuvning til o'rganish jarayoniga bo'lgan ta'sirini tasdiqladi. Yondashuv talabalarning motivatsiyasini oshirish, yangi lug'at va grammatik bilimlarni samarali idrok qilish hamda tilni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini yaxshilashda o'zining afzalliklarini namoyon etdi. Shulardan kelib chiqib, ingliz tili o'qituvchilariga psixolingvistik yondashuvdan foydalanishni tavsiya etamiz, chunki bu yondashuv talabalarni individual ehtiyojlari va kognitiv imkoniyatlariga moslashtirish imkonini beradi. O'qituvchilar real hayotiy vaziyatlar, kontekstual mashqlar va interaktiv metodlar yordamida til o'qitish jarayonini qiziqarli va samarali qilishi mumkin. Shuningdek, til o'rganish jarayonida talabalar motivatsiyasini oshirish maqsadida ularning faol ishtirokini ta'minlash va ilg'or texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Aniq fanlar talabalari uchun esa psixolingvistik yondashuv yangi til bilimlarini o'zlashtirish jarayonini engillashtiradi va tilni o'rganishda amaliy qo'llash imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bybee, R. W. (2010). Advancing STEM education: A 2020 vision. *Technology and Engineering Teacher*, 70(1), 30-35.
2. Casal-Otero, A., Izadina, S., & Ouyang, L. (2023). Emerging technologies in STEM education: A transdisciplinary approach. *Journal for STEM Education Research*.
3. Davlatova H.U. Bolalar nutqi: psixolingvistik xususiyatlari va shakllanish omillari // *Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Andijon, 2023.
4. Fodor, J. A. (1983). *The modularity of mind*. Cambridge, MA: MIT Press.
5. Gass, S., & Selinker, L. (2001). *Second language acquisition: An introductory course*. Mahwah, NJ: Erlbaum.
6. Gernsbacher, M. A. (Ed.). (1994). *Handbook of psycholinguistics*. San Diego: Academic Press.
7. Henriksen, D., Richardson, C., & Shack, K. (2020). Mindfulness and creativity: Implications for thinking and learning. *Thinking Skills and Creativity*, 37, 100689. <https://doi.org/10.1016/j.tsc.2020.100689>
8. Hulstijn, J. H. (2001). Intentional and incidental second-language vocabulary learning: A reappraisal of elaboration, rehearsal, and automaticity. In P. Robinson (Ed.), *Cognition and second language instruction* (pp. 258-286). Cambridge: Cambridge University Press.
9. Hulstijn, J. H. (2005). Theoretical and empirical issues in the study of implicit and explicit second-language learning. *Studies in Second Language Acquisition*, 27, 129-140.
10. Imomova M.U. Talabalarda innovation texnologiyalar asosida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. // *Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Chirchiq, 2023.
11. Jusczyk, P. W. (1997). *The discovery of spoken language*. Cambridge, MA: MIT Press.

12. Kelley, T. R., & Knowles, J. G. (2019). Twenty-first century skills in STEM education. *International Journal of Science and Mathematics Education*, 17(1), 65-77.
13. Kudratov K.K. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining amaliy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish. // Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.
14. Li, P., & Jeong, H. (2020). The social brain of language: Grounding second language learning in social interaction. *NPJ Science of Learning*, 5(1), 8. <https://doi.org/10.1038/s41539-020-0068-7>
15. Margot, K. C., & Kettler, T. (2019). Teachers' perception of STEM integration and education: A systematic literature review. *International Journal of STEM Education*, 6(2).
16. National Research Council (NRC). (2018). *Integrating STEM education in K-12: Recommendations for future research*. Washington, DC: The National Academies Press.
17. NGSS Lead States. (2013). *Next generation science standards: For states, by states*. Washington, DC: The National Academies Press.
18. Ouyang, L., Fromm, E., & Li, J. (2023). Utilizing AI in interdisciplinary STEM learning. *Journal for STEM Education Research*.
19. Wing, J. M. (2006). Computational thinking. *Communications of the ACM*, 49(3), 33-35.
20. Xoshimova D.R. Talabalarda ingliz tilidagi hissiy-ekspressiv nutqni mnemonik baza asosida tezkor o'stirish metodikasi. // Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2021.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismanova Odinoxon To'liqinboevna
Namangan davlat universiteti dotsenti
ismanova.79@inbox.ru

OLIV TA'LIMDA FIZIKA FANIDAN MASALALAR ISHLASHDA TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizdagi oliy ta'limda amaliy mashg'ulotlarda fizika fanini o'qitishdagi mavjud muammolar ko'rsatib berilgan. Shu o'rinda ushbu muammolarni bartaraf etish usullari taklif etilgan. Bundan tashqari oliy ta'lim fizika yo'nalishi talabalarida ta'lim sifatini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: amaliy mashg'ulot, fizik kattalik, oliy ta'lim, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyat, energiya, darslik, o'quv qo'llanma.

Исманова Одинахон Тўлқинбоевна
Доцент Наманганского государственного университета

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ РЕШЕНИИ ЗАДАЧ ПО ФИЗИКЕ В ВЫСШЕЙ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассмотрены актуальные проблемы преподавания физики на практике в высшей образовании республики. Предлагаются способы решения этих проблем. Кроме того, показаны пути повышения качества образования студентов направления физики в вузах.

Ключевые слова: Практическое занятие, физическая величина, высшее образование, творческое мышление, интеллектуальный потенциал, энергия, учебник, учебное пособие.

Ismanova Odinoxon To'liqinboevna
Associate Professor of Namangan State University

METHODS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN SOLVING PROBLEMS IN PHYSICS IN HIGHER EDUCATION

Annotation: This article considers the actual problems of teaching physics in practice in higher education of the republic. Ways to solve these problems are proposed. In addition, the ways to improve the quality of education of students in the field of physics in universities are shown.

Keywords: Practical lesson, physical value, higher education, creative thinking, intellectual potential, energy, textbook, study guide.

Kirish.

Hozirgi kunda respublikamiz o'quvchi yoshlarini har tomonlama intellektual qobiliyati rivojlangan, jahon bozorida raqobatbardosh mutahassislar qilib tayyorlash shiddat bilan rivojlanayotgan davrni asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunday vazifani hal qilish uchun respublikamiz Prezidenti tomonidan so'nggi oylarda bir nechta farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu farmon qarorlarga yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, intellektual va ijodiy salohiyatini yanada kuchaytirish uchun aniq va tabiiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish va yangi avlod darsliklarini yaratish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan. Ushbu farmon va

qarorlarni amalga oshirishda 2020 yil matematika, kimyo va biologiya sohalarida islohotlar amalga oshirilgan va rejalar belgilab olingan edi. Bu yil esa Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 19 martda "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5032 sonli qarori qabul qilindi [1]. Prezident qarorida o'rta maktablardagi fizika ta'limiga katta e'tibor qaratilib, quyidagilar ta'kidlangan:

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish, fizika fani o'qituvchilarni, xususan qishloq joylardagi maktablarni o'qituvchilarini

qayta tayyorlash malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi hamda sovrinli o'rinlar egallashini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida fizika fanlarini o'qitishning integrativ printsiplarini joriy etish, yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning fizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish, fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarning va innovatsiya ishlarining natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Bulardan tashqari qarorda fizika ta'limi sohasida yillar davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ushbu tadqiqotimizning asosiy maqsadi fizikadan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda talabalarni masalalar ishlashga qanday va qachon tayyorlash hamda faoliyatni samarali olib borishlari uchun nimalarga asosiy e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatib berishdan iborat.

V.V.Guzeevni ta'kidlashicha ko'ra talabalarning barcha turdagi faoliyat-larini shakllantirish asosan quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi [2]:

- talabani faoliyat turiga tayyorlash;
- yangi faoliyat turini amalga oshirishni rejalashtirish;
- yangi faoliyat asosida tadqiqotlar olib borish;
- faoliyatni amalga oshirib natija olish va uni ilmiy tahlil qilish.

Demak fizika bakalavr yo'nalishidagi talabalarni loyihalash va uni bajarish faoliyatiga tayyorlashda fizika fani xususiyatidan kelib chiqib amaliy mashg'ulotlarda an'anaviy masalalar va laboratoriyalardan tashqari dastlabki bosqichda topshiriqlarga katta e'tibor qaratish lozim [3].

Fizika bakalavr yo'nalishida amaliy mashg'ulotlarda ko'pchilik oliy ta'lim muassasalarida asosan Volkenshteyn tahriri ostidagi, Chertov tahriri ostidagi yoki Irodov tahriri ostidagi "Umumiy fizikadan masalalar to'plam" laridan foydalaniladi. Foydalaniladigan masalalar asosan fizik masalalarni uch turiga, ya'ni mashq masalalar, miqdoriy masalalar va grafik masalalardan iborat bo'lib qiyinlik darajasiga bog'liq bo'lmagan holda barchasida bitta yoki ikkita fizik kattalik topish talab qilinadi va aniq javob beriladi. Amaliy mashg'ulotlarda bu kabi yondashuv avvalgi an'anaviy ta'lim konsepsiyasiga mos keladi, ya'ni asosan olingan bilimlarni mustahkamlashdan va asosiy formulalarni yodda saqlashdan iborat bo'ladi [4]. Bundan tashqari yuqorida sanalgan barcha masala turlarida

qo'yilgan masala va uning javobi aniq bo'lib, deyarli tahlil qilinmaydi.

Oliy ta'limda mavjud kurslar ichida fizika fani ancha murakkab fanlar qatoriga kiradi. Chunki fizika fanida murakkab tabiat qonunlarini, undagi tushunchalarni tushunish, fikrlarni umumlashtirishdan tashqari jiddiy matematik apparat talab etadi. Afsuski so'nggi yillarda yoshlarni fizika faniga qiziqishlari pasaygan va uni kuchaytirishga yetarli e'tibor berilmayapti, ta'lim dasturlari o'quvchilarda mustaqil, kreativ fikrlashni shakllantirishga va rivojlantirishga, fizika fani bo'yicha zamonaviy darsliklarni yaratish yaxshi yo'lga qo'yilmagan, masalalar to'plami, praktikum, laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha qo'llanmalar yaratishga e'tibor qaratilmayapti [5]. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks dasturda umumta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan.

Demak yaratiladigan yangi avlod darsliklari, masalalar to'plami va praktikumlar o'quvchini ijodiy fikrlashga va ushbu ma'lumotlarni texnika va atrof-muhitda bo'layotgan jarayonlar bilan bog'lashga o'rgatishi kerak. Bunday darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ta'lim va texnika rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish lozim bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda fizika ta'limi va ulardagi o'quv qo'llanmalari tahlili shuni ko'rsatadiki Amerika, Yaponiya va Koreya kabi davlatlarda fizikadan o'tiladigan nazariy mavzular va ularda berilishi kerak bo'ladigan ma'lumotlar Respublikamiz ta'lim tizimida foydalanilayotgan darsliklardagi mavzu va ma'lumotlardan deyarli farq qilmaydi. Asosiy farq mavzularni mustahkamlash uchun bajarilishi kerak bo'lgan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishdagi maqsadni turlichaligidadir [6].

Tahlillar va natijalar.

Respublikamizdagi oliy ta'limlarida fizikadan amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan masalalarda deyarli bitta hal qilinishi kerak bo'lgan muammo yoki topilishi kerak bo'lgan fizik kattalik talab qilinadi [7]. Bajariladigan laboratoriya mashg'ulotlarida esa aniqlanishi kerak bo'lgan fizik kattalik uchun qaysi fizik kattaliklar uchun qaysi fizik kattaliklarni o'lchab so'ngra berilgan ishchi formuladan foydalanib topish ko'rsatilgan. Mashg'ulotlarga bu kabi yondashuv o'z oldiga aniq fanlar bo'yicha mutahasis bo'lishni maqsad qilib qo'ygan oliy ta'lim talabalarini ijodiy fikrlashlarini va intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga olib kelmaydi. Oliy ta'limlarni fizika yo'nalishlariga asosan shu fanga ixtisoslashgan maktablar, akademik litseylar bitiruvchilari qabul qilinadilar. Bu holat esa ishni shu yerdan boshlash lozimligini ko'rsatadi. Albatta akademik litsey, ixtisoslashgan maktab va o'quv markazlarida ham fizika fanidan o'zlashtirish ko'rsatkichi qoniqarli darajada emas.

Akademik litsey, ixtisoslashgan maktablar va o'quv markazlarida mashg'ulotlarni bu kabi tashkil etilishiga quyidagilar sabab bo'lgan deb hisoblaymiz.

1. Amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan "Masalalar to'plam" larini bir necha yillardan beri o'zgarmaganligi.

2. Bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishida test sinovlarida faqat bir xil tipdagi masala ishlagani va ajratilgan kvotani kamligi.

3. Oliy ta'lim muassasalariga fizika yo'nalishidagi bakalavrlar tayyorlashdagi fizika o'qitish metodikasiga e'tiborni kamayganligi.

4. Maktablarning quyi sinflarda, ya'ni 6-8 sinflarda fizikada mavjud darsliklarning jozibadorligini pastligi, o'quvchilar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar kitobini yo'qligi, dars mashg'ulotlaridagi qiziqarli namoyishlarni kamligi.

Yuqorida aytilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak. Birinchi muammoni xal qilish uchun amaliy mashg'ulotlarda foydalanadigan masalalar to'plamini xorij tajribasiga ijodiy yondashgan holda har bir sinf uchun alohidadan ikkita tip (Level A va Level V) masalalar to'plami tayyorlash kerak. Chunki 6-8 sinf va 9-11 sinflarda Fizika darsliklaridagi foydalaniladigan masalalar A.P.Rimkevichni "Fizikadan masalalar to'plami" yoki turli avtorlar tomonidan nashr qilingan sistemalashtirilgan testlar to'plamlari Sobiq Ittifoqda 70-80-yillarda foydalanilgan masalalar tuzish metodikasiga asosan tuzilgan masalalardan iborat.

Masalalar to'plamini tuzishga bunday yondashuvni hozirgi zamon talabiga bermasligini Koreya Respublikasi ixtisoslashgan maktablarida bir necha yil faoliyat olib borgan Navosibir davlat universiteti qoshidagi litsey-internat o'qituvchisi Yu.L.Bashkatov ham ta'kidlab o'tgan. U o'z maqolasida hozirgi zamondagi har ikki mamlakatdagi fizika ta'limini tahlil qilib shunday hulosaga kelgan: "Rossiya, AQSH va Koreya Respublikasidagi ixtisoslashgan maktablardagi fizika programmasidagi va foydalaniladigan materiallar deyarli farq qilmaydi. Bu materiallarni bayon qilish va o'quvchilarga yetkazish asosan o'qituvchi mahoratiga bog'liq. Ammo asosan o'rta bo'g'in uchun, ya'ni 5-9 sinflar uchun foydalaniladigan materiallarda biz ancha orqada qolganmiz". Bundan tashqari uning e'tirof etishiga ko'ra 6-9 sinflarda o'quvchilarda fizik dunyoqarashni shakllantirishi, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish lozim [8]. Buning uchun o'quvchilarga taklif etiladigan masalalar har bir fizik jarayonni qamrab olishi kerak. Natija esa hammamizga ma'lumki 6-9 sinflarni fizik tasavvuri kengayadi.

Fizika fani chuqurlashtirib o'qitiladigan o'rta maktablarni 10-sinflari uchun bitta masalada shu mavzu uchun axamiyatli bo'lgan ko'pgina qonunlarni mustahkamlashga erishish uchun masalani shartida bir nechta kattalikni topishni talab qilish lozim. Aynan chet el tajribasida ham shu usul qo'llaniladi.

1. Moddiy nuqtaning vaqt bo'yicha ko'chishi quyidagi tenglama orqali berilgan: $x = (4.0\text{m})\cos(3.0\pi t + \pi)$. Bu yerda x – metrlarda, t – sekundlarda o'lchanadi. Quyidaga ta'rif bering ularni hisoblab toping.

a) Harakatning davrini va chastotasini

b) Harakatning amplitudasini.

c) Boshlang'ich fazani.

d) Moddiy nuqtaning $t = 0.25\text{s}$ vaqtdagi ko'chishini.

Oliy ta'lim 1-kurslari uchun berilishi mumkin bo'lgan masalalardan bir-ikkitasini tahlil qilsak.

2. Rasmdagi 2 kg massali blok (1-rasm) muvozanat holatidan siljitib, so'ngra qo'yib yuborildi va u gorizontalsirtida xech qanday ishqalanish kuchlarisiz $\pi/6$ davr bilan tebrandi.



1-rasm

a) Jismni muvozanat holatidan 2sm ga siljitish uchun qanday miqdordagi kuch talab etiladi?

b) Agar shu 2 kg li blok ustiga qandaydir kichik m massali jism qo'yilsa va blok bilan jism sirtlari orasidagi ishqalanish koeffitsienti 0.1 ga teng bo'lsa, m massali jism sirg'alib tushib ketishidan avval tebranishning maksimum amplitudasi qanchaga yetadi.

Maqsadimiz fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish ekan buning uchun albatta O'zbekistonda ham 5-6-7 sinflarga imkon darajasida Workbook (ish kitobi) ishlab chiqarish kerak. O'quvchilarga taqdim qilinadigan masalalar tuzishga bunday yondashuv Respublikamizda yangi ochilgan Prezident maktablarida foydalanilayotgan o'quv qo'llanmalarida ham mavjud. Masalan quyi sinflarda taqdim qilingan masalalar asosan mulohaza yuritish orqali bir necha punktlar bo'yicha xal qilinsa, yuqori sinflardagi masalalarda esa bir nechta fizik kattalikni aniqlash va ularni qiyoslash orqali mulohaza yuritishni rivojlantirish maqsad qilib qo'yilgan.

Hozirda Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasining bir guruh professor-o'qituvchilari xorijiy mamlakatlar maktablarida fizika darslarida foydalaniladigan o'quv qo'llanma va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib chiqishdi va shu asosda masalalar to'plami tuzishga kirishildi. Bundan tashqari akademik litseylarda va ixtisoslashgan maktablarda obrobatsiyadan o'tkazish rejalashtirilmoqda [5,9].

Demak masalalarga yangicha yondashuvni amalga oshirishimiz uchun oliy ta'limda Fizika darsliklarida va masalalar to'plamlarini qayta ko'rib chiqish kerak. Ya'ni darslarda masala shartlarini emas balki topilishi kerak

bo'lgan fizik kattaliklar bir nechtaligi va foydalaniladigan ifodalarga izoh berish talabini qo'yish kerak.

Xulosa.

Fizika fani darsliklarida mavzularni yuqoridagi kabi bayon etilishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasiz. Chunki fizika darslarida shakllangan qonun-qoidalar va isbotlar sistemasi o'quvchida o'zining shaxsiy qarashini aniq mantiqiy ketma-ketlikda asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar jadval, grafik, chizma va matndagi ma'lum fizik kattaliklarni tahlil qilish va taqqoslash, ma'lumotlarni qayta ishlash orqali muammoni ochishga yo'l topadi va uni to'g'riligini isbotlaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak "Yangi avlod" darsligida o'quvchilarga Fizika darslarida mavzularni sodda,

tushunarli holatda, hayotiy misollar bilan bayon etish lozim. Fizika darsliklaridagi mavzularni yuqoridagi holatda bayon etishilishi zamonaviy, kreativ fikrga ega mutaxassis tayyorlashimiz uchun mustahkam asos bo'ladi. Oliy ta'limda fizika o'qitishda muammoni hal qilishda o'quv rejadagi ko'rsatilgan "Fizika o'qitish metodikasi", "Fizik jarayonlarni matematik modellashtirish" fanlaridan talabalarini qiziqishlarini e'tiborga olib, qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish lozim. Bu mashg'ulotlarda asosan yaratilgan yoki yaratiladigan yangi avlod darsliklari asosida ta'limga yangi yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Buning uchun zamonaviy talab asosida yangi namunaviy o'quv dastur va majmua tayyorlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 19 martda PQ-5032 sonli qarori.
2. *Гузев В.В.* «Метод проектов» как частный случай интегративной технологии обучения //Директор школы, 1995. – № 6. – С. 39-47.
3. *Полат Е.С.* Новые педагогические и информационные технологии в системе образования : учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. – Москва: Академия, 2002. -273 с.
4. *Г.В.Меледин* "Задачи - оценки". "Квант". 1983 №7 -186 с.
5. *Ismanova O.T.* "Fizika yo'nalishi talabalariga loyiha ishlarini bajartirish orqali kreativ fikrlashlarini rivojlantirish usullari". Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. BuxDU. 2023, № 10Савченко О.Я..
6. *Sadriddinov N., Raximov A., Mamadaliyev A., Jamalova Z.* «Fizika o'qitish uslubi asoslari» Toshkent. O'zbekiston. 2006. -159 bet.
7. "Физика в задачах" Учебное пособие. Новосибирск. НГУ.2013 г. 676 с.
8. *Панчук Т.А.* Формирование готовности к проектной деятельности студентов факультетов технологии и предпринимательства : Дис. Кузбас. гос. пед. акад. – Новокузнецк, 2004. -185 с.
9. *Пахомова, Н.Ю.* Метод учебного проекта в образовательном учреждении : пособие для учителей и студентов педагогических вузов. – Москва: АРКТИ, 2005. – 56 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Mirsaidov Ibroximbek Tolib o'g'li

Professional ta'limni rivojlantirish insituti tayanch doktoranti

INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALARNING PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada intellektual texnologiyalardan foydalanib professional ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada rivojlantirish bilan bog'liq jihatlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, texnologiya, Metod, Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Мирсаидов Иброхимбек Талиб угли

Базовый докторант Института развития профессионального образования

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассмотрены аспекты, связанные с дальнейшим развитием интереса учащихся к получению знаний в системе профессионального образования с использованием интеллектуальных технологий.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, технологии, Методика, Личностно-ориентированное обучение.

Mirsaidov Ibrokhimbek Talib ugli

Professional education development insituti Foundation doctoral student

THE IMPORTANCE OF INTELLECTUAL TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF A PROFESSIONAL EDUCATIONAL SYSTEM


Annotation. This article examines aspects related to the further development of students' interest in learning in the professional education system using intelligent technologies.

Keywords: Artificial Intelligence, Technology, Method, Person-Oriented Learning.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim mazmuni va sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xuddi rivojlangan mamlakatlar kabi, biz ham ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, ta'limni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish yo'llarini izlamoqdamiz. Ta'lim sohasiga axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar takomillashib bormoqda, shuningdek, ta'lim

tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tobora keng tarqalmoqda.

Keyingi yillarda ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda yangi atama – suniy intellekt tushunchasi shakllanib bormoqda. Bu ta'lim tamoyillariga mos kelib, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash bilan bog'liq muammolarni qisman bo'lsa-da hal etish imkonini beradi.



1-rasm. Intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslari o'qitish metodikasi vazifalari.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari mavzusida ilmiy-uslubiy ishlar, simulyatsion uskunalar va ulardan foydalangan holda o'tkazilgan laboratoriya mashg'ulotlari haqidagi ma'lumotlar juda kam uchraydi. Bizning fikrimizcha, kasbiy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyasi tushunchasi metodologik nuqtai nazardan ancha keng ma'noga ega. U nafaqat texnik obyektlarni, matematik va imitatsion modellashtirish tizimlarini, balki ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarini ham o'z ichiga olishi mumkin.


Professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan har qanday fan, shu jumladan intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega, o'ziga xos ta'lim metodlari va o'qitishning tashkiliy shakllarini talab etadi. intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslari

faninini o'qitish metodikasining vazifasi quyidagi uchta savolga javob topishdan iborat:

Intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslarini nima uchun o'qitish kerak? intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslaridan nimani o'qitish kerak? intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslarini qanday o'qitish kerak? (1 rasm).

Ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, shakllari va vazifalari metodik tizimni tashkil etadi, unda yetakchi rol ni ta'lim maqsadlari o'ynaydi.

Intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslarini o'qitish o'quv rejasida o'qitish ko'zda tutilgan bir qator fanlar, eng avvalo kompyuter tizimlari, dasturlash va kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish, matematik statistik hamda pedagogik fanlar bilan ham chambarchas bog'liq.



2-rasm. Intellektual texnologiyalardan foydalanishning fundamental asoslarini o'qitishning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi.

Texnika va texnologiyaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi va takomillashishi yangi vositalarni yaratishga olib keldi, bu esa o'z navbatida ulardan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqishni talab etadi.

Intellektual texnologiyalardan foydalanib umumkasbiy fanlarni qanday o'qitilishi kerak, buning uchun qaysi o'qitish metodlari va usullaridan foydalanish kerak, o'quvchilarni ushbu texnologiyalardan foydalanib o'qitish qiziqishini uyg'otish ushbu fanni o'qitish metodikasining asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi.

Professional ta'lim muassasalarida intellektual texnologiyalardan foydalanib o'qitishda ham nazariy, ham eksperimental tadqiqotlar metodlaridan foydalaniladi.

O'quv bilish faoliyatini faollashtirish uchun ham ushbu texnologiyalar juda muhim bo'lib, bilish natijalari sub'yektiv xarakterga ega, chunki ular o'qituvchi va o'quvchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi. O'quvchi umumkasbiy fanlarning asosiy qoidalarini turli xil ta'lim

metodlaridan foydalanib uzatadigan o'qituvchi bilan muloqat orqali bilib oladi. O'qituvchi o'quvchilar bilimlarni eng to'liq va tez olishi uchun ta'lim metodlari, usullari va vositalarining ketma-ketligini tanlaydi, bunda nazariy bilimlar va eksperiment, induksiya va deduksiya, mantiqiy va induktiv fikrlarni dialektik birligida birlashadi[1].

Kompyuter tizimlari va tarmoqlari fanining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishidagi asosiy to'siq bu uni mustaqil o'rganish uchun o'quv soatlari hajmining ko'payishi hisobiga auditoriya o'quv soatlarni hajmining sezilarli darajada qisqarishi hisoblanadi. Bundan tashqari an'anaviy o'qitish metodikasi samaradorligining yildan yilga pasayib borishi ham asosiy to'siqlardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari texnik va texnologik segment shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ham bu sohada mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi

mehnat bozorida tanlash va umumiy talabgorlik uchun muhim mezonlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, kompyuter tizimlari va tarmoqlari fani bo'yicha o'quv jarayoni sifatini yaxshilash borasidagi muammolardan yana biri ushbu fan bo'yicha tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida foydalaniladigan texnologiyalarning mavjud holati hisoblanadi. Ular zamonning tez sur'atda rivojlanishi jihatidan bir oz eskirgan.

Eskirgan texnologiya bilan bog'liq barcha muammolarni bartaraf etishning maqbul yo'llaridan biri o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy intellektual texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishdir. Kompyuter tizimi va tarmoqlari fanini o'qitish jarayoniga intellektual texnologiyalarni joriy etishning eng samarali va to'g'ri usullaridan biri o'quvchilarning asosiy axborotli jarayonlar, shu jumladan internetga to'g'ridan - to'g'ri ulanishni tashkil etishni o'z ichiga olgan jarayonlar. Ta'lim sohasidagi eng so'nggi tadqiqotlar xulosasiga ko'ra, eshitilgan ma'lumotning to'rtidan bir qismi, ko'rilgan ma'lumotning uchdan bir qismi, namoyish orqali eshitib va ko'rib o'rganilgan materialning esa yarmi hamda intellektual texnologiyalar orqali shakllantirilgan axborotlar o'quvchi xotirasida saqlanib qoladi [1]. Bu esa, o'z navbatida, intellektual texnologiyalardan foydalanish butun ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishi va uning imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Intellektual texnologiyalar ta'lim sohasiga chuqur kirib bormoqda. Ular o'qitishning odatiy usullarini o'zgartirishga qodir. Intellektual texnologiyalar deganda bizning ongimizga hozirgi kunning asosiy intrigalaridan hisoblangan sun'iy intellekt tushunchasi keladi. Sun'iy intellektning imkoniyatlari ta'lim jarayonini yaxshilaydi va o'rganish uslubini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ta'limga salbiy ta'siri haqida ham savollar paydo bo'lmoqda. Bu savollarga javoblarni jamiyat hozir topishi kerak.

Sun'iy intellektning rivojlanishi va ChatGPT kabi katta til modellarining ommaviy tarqalishi ushbu texnologiyaning rolini muhokama qilishning yangi to'lqinini keltirib chiqardi. Mamlakatimizda hozircha sun'iy intellektning ta'lim sohasiga kirib kelish darajasi yuqori emas. "SberUniversitet" va GeekBrains tahlilchilari "Ta'limdagi o'zgarishlarni boshqarish: generativ sun'iy intellekt" hisobotida shunday xulosaga kelishdi. Tadqiqotga ko'ra, generativ sun'iy intellekt vositalaridan 13% o'qituvchilar va 10% o'quvchilar va tinglovchilar foydalanadilar. Shu bilan birga, texnologiyaning ijobiy ta'siriga ishongan o'quvchilar ulushi o'qituvchilar ulushidan yuqori - 77% ga qarshi 51%.

Sun'iy intellekt iqtisodiyot tarmoqlari va hayotimiz sohasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Texnologik kompaniyalar joriy etishdan eng katta foyda oladi. McKinsey ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra, keyingi ikki yil ichida SI tufayli IT sohasining global daromadi 9

foizga o'sishi mumkin. Ta'lim sohasida sun'iy intellekt integratsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ta'lim jarayonlariga texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olish emas, balki obyektiv ko'rsatkichlar tizimi bilan o'lchash qiyin bo'lgan ta'lim sifatini oshirishdir. Shunga qaramay, McKinsey sun'iy intellektni joriy etish jahon ta'lim sanoati daromadlarining 4 foizgacha o'sishini ta'minlaydi, deb hisoblaydi.

Sun'iy intellekt ta'lim sohasi uchun katta salohiyatga ega. Birinchi navbatda, u o'qituvchilarning ko'p vaqtini oladigan kundalik vazifalarni avtomatlashtirishni o'z zimmasiga oladi. Sun'iy intellekt o'quvchilar va o'quvchilar uchun yo'l ko'rsatuvchi bo'lishi mumkin. Bugungi kunda sun'iy intellektga asoslangan ilovalar va vositalar bozori shakllanmoqda, ular asosida bir nechta tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bu o'qitish modeli bo'lib, unda ta'lim jarayoni o'quvchining individual ehtiyojlari va intilishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bunday yondashuv materialni yanada samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi, o'qituvchi yoki o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning qobiliyatlari va rivojlanish tezligini hisobga olgan holda ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradi[2]. Tadqiqotchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'limning bir nechta shakllarini ajratib ko'rsatadilar, ular orasida mustaqil ta'lim, tabaqalashtirilgan va moslashuvchan ta'lim, intellektual tizimlar mavjud. Shu bilan birga, bunday o'qitish modeli, albatta, sifatli teskari aloqani va ta'lim yo'nalishini doimiy ravishda o'zgartirishni nazarda tutadi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim korporativ dunyoda ham, umumiy va oliy ta'limda ham talabga ega. IndustryARC konsalting firmasi 2024-yilga kelib, jahonning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bozori 2 milliard dollardan oshishini prognoz qilgan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi uning yanada eksponensial o'sishiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar yordamida personallashtirilgan model ta'lim oluvchilarning natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon iqtisodiy forumi (JIF) hisobotida ta'kidlanishicha, hozircha raqamli vositalar individual ta'limning afzalliklarini takrorlay olmadi (o'qituvchi, repetitor bilan yakkama-yakka), ammo sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar vaziyatni yaxshilashga qodir. Sun'iy intellekt algoritmlari o'quvchilar ma'lumotlarini tahlil qiladi va o'quv dasturlari mazmunini ularning darajasi, uslub va sur'atiga moslaydi. Katta ma'lumotlardan foydalangan holda va o'quvchining zaif va kuchli tomonlarini eslab qolgan holda, sun'iy intellekt materialni o'zlashtirishda qaysi bosqichda muammolar paydo bo'lishi mumkinligini bashorat qiladi va ta'lim yo'lini tuzatadi.

Sun'iy intellektga asoslangan vositalarning alohida afzalligi real vaqt rejimida qayta aloqa qilish qobiliyatidir. Ta'lim murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda o'qitishdan tashqari ma'muriy ishlarning katta qatlami

mavjud: hisobotlar, dasturlar, jadvallar tuzish, davomatni hisobga olish va boshqalar. An'anaviy ta'limda o'qituvchilar asosiy ish vaqtidan o'quvchilar bilan o'zaro ta'sir qilish uchun foydalanishlari kerak deb taxmin qilinadi. Biroq, tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarda hisobotlarni tayyorlash o'quvchilar bilan ishlashdan ko'ra ko'proq vaqtni oladi. Ba'zi tadqiqotchilarning tadqiqotlarida Respondentlarning 42%i "qog'oz ishlari"ga juda ko'p vaqt sarflashlarini aytishgan.

Intellektual tizimlar ta'lim muassasalari ma'muriyatining ham, o'qituvchi va o'quvchilarning ham ishini yengillashtirishga yordam beradi. Odatiy va byurokratik vazifalarni optimallashtirishdan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan vositalar o'quvchilarning o'zlashtirishlari, tashriflari, xatti-harakatlari haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bu o'qituvchilar tarkibiga o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha aniqroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Uy vazifasi, test va laboratoriya ishlarini baholash ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. Ko'pincha pedagoglar o'z vazifalarining ushbu

jihatini kundalik vazifalar sifatida tasniflaydilar. Intellektual texnologiyalar hozirda ushbu sohada keng ko'lamlı yechimlarni taklif qilishini hisobga olgan holda, biz ushbu tendentsiyani alohida nuqta sifatida ta'kidlashni tanladik. Baholash o'quvchilar uchun fikr-mulohaza bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun bu jarayonni oddiy va byurokratik deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Yozma topshiriqlar uchun baholash tizimlari o'quvchining topshiriqni qanday bajarganligini baholaydi, xatolarni toifalaydi va tuzatish uchun tavsiyalar beradi. Sun'iy intellekt asosidagi yechimlar standartlashtirilgan testlarni ham, insho kabi ko'proq ijodiy ishlarni ham baholay oladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki intellektual texnologiyalar asosida o'qitish professional ta'lim muassasalarida kompyuter injiniring ta'lim yo'nalishi o'quvchilarining kasbiy, umumiy kompetensiyalarini va axborot bilan ishlash kompetensini hamda o'qitish jarayonini samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yixati

1. Venikov V.A., Shneyberg Ya.A. Mirovozzrencheskiye i vospitatelnyye aspekty prepodavaniya texnicheskix dissiplin. Na primere elektrotexniki i elektroenergetiki. 3-ye izd., pererab. i dop. M.: Vysshaya shkola, 1989. 174 s
2. Mirsaidov I.T - Professional ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llash imkoniyatlari. [747-751]. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi – 2024.
3. Sh.A.Abduraxmanova, & X. Jo'rayev. (2022). Modern web technologies used in professional education. Conference Zone, 178-179. Retrieved from <http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/248>
4. Shahnoza, A. (2019). About one Aspect of the Development of students'intellectual skills using multimedia interactive tests. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.
5. Slavyanov A.S., Feshina S.S. Artificial intelligence technologies in education as a factor in improving the quality of human capital // Economics and business: theory and practice [Ekonomika i biznes: teoriya i praktika]. 2019. No. 7. P. 156–159. (In rus)
6. Mirsaidov I.T - Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish// Zamonaviy uzluksiz ta'lim: Innovatsiya va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari // Toshkent 2024-b 466-467.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Kamolova Azimaxon Odiljon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya fanlarini
o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi (mustaqil izlanuvchisi)
azimjonodilovich5656@gmail.com

UDK 740

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOG'LIQNI SAQLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHAKLLARI, USULLARI VA VOSITALARI

Annotatsiya: *Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda jamiyat oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglagan, o'rnak bo'la oladigan – salomatlik madaniyati g'oyalari tashuvchisi ekanligini anglagan xolda, salomatlik modaniyatini shakllantirish, kelajak shaxsini tarbiyalashni talab etadi. Sog'liqni saqlash ijodkorligi uchun o'qituvchi, o'z-o'zini takomillashtirishi va muvaffaqiyatli kasbiy rivojlanish asoslarini mexanizmlarini doimiy rivojlantirish orqali biz bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy salomatlik madaniyatini rivojlantirishga erishamiz. Sog'liqni saqlash ijodkorligi va uning ijobiy hissiy ranglanishiga e'tibor sog'liqni saqlash va mustahkamlashning eng maqbul va samarali texnologiyalarini doimiy ravishda ijodiy izlashga, ularni o'z hayotida sinab ko'rishga yordam beradi, bu esa zarur bo'lgan ixtiyoriy mexanizmni doimiy ravishda takomillashtirishni talab etadi. Biz esa quyudagi maqola orqali o'z takliflarimizni taqdim etamiz.*

Kalit so'zlar: *Salomatlik, sog'liqni saqlash, pedagog, mexanizm, mahurat, tarbiyalash, valeologiya, xarakter, milliy loyiha, pediatriklar, gigienistlar, davolash-reabilitatsiya, ijtimoiy-siyosiy, profilaktika-gigiena, texnologiya.*

Камолова азимахан Одилжон кызы
Наманганский государственный педагогический институт
Педагогические и психологические науки
преподаватель кафедры методики преподавания (независимый исследователь)

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВЬЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: *формирование культуры здоровья, воспитание будущей личности с глубоким пониманием своего долга и ответственности перед обществом в воспитании здорового поколения, пониманием того, что оно может быть образцом для подражания – носителем идей культуры здоровья. Через постоянное развитие механизмов воспитания, самосовершенствования и основы успешного профессионального развития педагога для здорового творчества мы достигаем развития культуры личностного и профессионального здоровья будущих педагогов. Внимание к здоровому творчеству и его положительной эмоциональной окраске способствует постоянному творческому поиску оптимальных и эффективных технологий сохранения и укрепления здоровья, апробации их в собственной жизни, что требует постоянного совершенствования необходимого добровольного механизма. И мы представляем наши предложения через статью в колодеце.*

Ключевые слова: *здоровье, здравоохранение, педагог, механизм, мастерство, воспитание, valeология, характер, национальный проект, педиатры, гигиенисты, лечебно-реабилитационные, социально-политические, профилактико-гигиенические, технологические.*

Kamolova Azimakhon Odilzhan kizi
Namangan State Pedagogical Institute
Pedagogy and psychology
teacher of the Department of teaching methodology (independent researcher)

FORMS, METHODS AND MEANS OF DEVELOPING A HEALTH CULTURE IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE TEACHERS

Annotation: *having a deep understanding of his duty and responsibility to society in bringing up a healthy generation, realizing that he is an example – a carrier of the ideas of a culture of Health, Holda demands the formation of Health fashion, the upbringing of the person of the future. By constantly developing the mechanisms of teacher, self-improvement and the basics of successful professional development for health creativity, we will achieve the development of a culture of personal and professional health of future educators. The focus on health creativity and its positive emotional coloring helps to constantly creatively search for the most optimal and effective technologies of Health and strengthening, to test them in their own life, which requires constant improvement of the necessary voluntary mechanism. And we will present our proposals through the article on the well.*

Keywords: *Health, Health, Educator, mechanism, seal, upbringing, valeology, character, national project, pediatricians, hygienists, treatment-rehabilitation, socio-political, preventive-hygiene, technology.*

Kirish.

Pedagoglarning salomatlik madaniyatini rivojlantirish bugungi zaruriy sharti sifatida ularning kasbiy faoliyatini tashkil etishdagi, shu jumladan salomatlikni saqlashga qaratilgan faoliyatini davlat organlari, jamoat tashkilotlari va o'quvchilarning ota-onalari tomonidan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish masalasini ko'rib chiqish zarur. O'qituvchining sog'liqni saqlash madaniyatining shaxsiy va kasbiy tarkibiy qismlarining sintezi sog'lomlashtiruvchi faoliyat orqali amalga oshiriladi, bu o'qituvchining o'z sog'lig'ini yaxshilashdan iborat bo'lib, o'qituvchilik faoliyati sohasida o'zini o'zi samarali amalga oshirish sharti sifatida o'zini tutish tamoyillaridan foydalanadi va unga talabalarining individual salomatligini saqlash va rivojlantirish imkonini beradigan usullar.

Ta'lim muassasasida sog'lomlashtiruvchi ta'lim tizimini yaratish avvalo valeologik jihatdan barkamol pedagog kadrlarni "tarbiyalash", o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasida psixologik qulay munosabatlarni rivojlantirish, o'qituvchilar faoliyatini moddiy, kadrlar, ilmiy, uslubiy va moliyaviy ta'minlash orqali o'qituvchilarning salomatligini yaxshilashga olib keladi bu esa ularning kasbiy ongida o'zlarining "men" ning ijobiy imidjini shakllantirish hayot yo'nalishlari va o'z-o'zini hurmat qilishda ma'no darajasini oshirish, ularning farovonligini normallashtirish psixikasini yaxshilash, emotsional holat va vegetosomatik simptomlarni kamaytirish, talabalar ularning sog'lig'i darajasi va ko'rsatkichlarini oshirish, sog'lig'iga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni o'zlashtirish erishiladi.

Adabiyotlar taxlili.

Pedagogik yo'nalish talabalari o'rtasida salomatlik madaniyatini shakllantirish jarayonini ko'rib chiqayotgan tadqiqotchilar o'quv kurslari - jismoniy tarbiya, fiziologiya, tibbiyot asoslari imkoniyatlarini jalb qilgan holda universitetning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy muhiti imkoniyatlariga e'tibor berishadi. Bu tadqiqotlarni o'rganish jarayonlarini biz T.V. Antonova, L.P. Borisova, 2007; T.A. Gluxix, S.Y. Lebedchenko, I.I. Novoselova, va boshqalar ilmiy faoliyatlarida ko'rib o'tishimiz mumkin. "Sog'lom aql" tushunchalarini S.N. Gorbushinaning pedagogik ta'lim va o'zlarining kundalik hayot amaliyotlarida ham ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash madaniyati o'qituvchilarning bevosita

turmush tarzi va ularning kasbiy faoliyatining talabalar salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini hisobga olmasdan shaxsiy hodisa sifatida o'rganiladi, garchi stressli pedagogik taktika birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lsa-da. salomatlikni buzuvchi maktab omillari orasida ahamiyati va ta'sir kuchi yuqoidir.

O'qituvchining salomatlik madaniyatining mohiyatini aniqlashda tadqiqotning uslubiy asosi aksiologik yondashuv tomonlarini E.V. Bondarevskaya, I. Herder, M.E. Duranov, A.G. Zdravomyslov, Z.I. Ravkin, V.A. Slastenin, V.P. Tugarinov va boshqalar. Salomatlik yaratuvchi faoliyat xususiyatlarini esa N.S.Zlobin, M.S.Kagan, A.N.Leontiev, E.S.Markaryan, V.M.Mejuev, C.Rubinshteyn va boshqalar va akmeologik yondashuvlarni esa A.A.Bodalev, A.A.Derkach, V.N.Maksimova, N.M.Poleeva va boshqalar asosiy aspektlarini o'rganish orqali ifodalagan yondashuvlarni ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Sog'lomlashtirish faoliyatining asosiy xususiyatlari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi kontseptsiyasi doirasida belgilanadi (N.V.Kuzmina, J.I.M.Mitina, A.K.Markova, E.E.Symanyuk va boshqalar). O'qituvchi kompetentsiyasining mazmuni pedagogika va psixologiyadagi kompetentsiya yondashuvining nazariy qoidalarini hisobga olgan holda asoslanishi E.F.Zer, A.K.Markova, N.Xomskiy tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

O'qituvchilarning ichki resurslarini faollashtirish jarayoni quyidagilarga asoslanadi: ma'no psixologiyasi (A.N.Leontiev, D.N.Leontiev, R.X.Shakurov), mifologik yondashuv (E.Kassirer, A.M.Lobok, V.M.Pivoev, K.G.Yung va boshqalar). , pedagogik germevntika metodikasi (A.F.Zokirova), andragogika tamoyillari va usullari (N.O.Verbitskaya, M.T.Gromkova, S.I.Zmeev, I.A.Kolesnikova, M.Sh.Nouls), o'qituvchilarning valeologik tarbiyasi (G.K.Zaytsev, V.V.Kolbanov, I.T.L.obodin, .Yu.Glinyaynova, N.M.Poletaeva, S.M.Simonenko va boshqalar) va zamonaviy psixotexnika (N.R.Bityanova, I.G.Malkina-Pyx, N.V.Samukina va boshqalar).

O'qituvchining sog'lomlashtirish faoliyati yo'llarini ishlab chiqishda biz profilaktika va gigiena qonunlariga (N.M.Amosov, Yu.P.Lisitsin, A.G.Shchedrina va

boshqalar), umumiy va pedagogik valeologiyaning asosiy qoidalariga tayandik, bu esa muammolarni hal qiladi. kattalar va bolalar aholisining sog'lom imidjini yaratish muammosi (R.I.Aizman, E.N.Vayner, E.M.Kazin, V.P.Kaznacheev, L.G.Tatarnikova, Z.I.Tyumaseva, V.M.Chimarov va boshqalar), salomatlikni tejaydigan texnologiyalarni tashkil etishning nazariy asoslari. pedagogik jarayonda (N.P. Abaskalova, V.N. Irxin, T.F. Orexova, N.M. Poletaeva, T.M. Rezer, N.K. Smirnov va boshqalar).

Tahlil natijalar.

Ikkinchi va uchinchi ming yilliklar oxirida Rossiya Federatsiyasida yuzaga kelgan noqulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar rus o'qituvchilarining ijtimoiy mavqeini sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi davrida ta'lim ko'pincha o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga jamiyatning o'zgarmas yuqori talablari bilan bozor xizmati sifatida qaraldi. Davlat o'qituvchilardan bolalarga insoniy munosabatda bo'lishni talab qilgan bo'lsa-da, ularning ehtiyojlariga etarlicha e'tibor bermadi. Ta'lim tizimining resurs va moliyaviy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan "Ta'lim" ustuvor milliy loyihasini amalga oshirish kasbiy faoliyati faollashgan pedagog kadrlarning hayot sifatini oshirish bilan, shu jumladan, yangi kasb-hunar egallashi hisobiga olib borilmayapti. mas'uliyat. O'quvchilarning sog'lig'i darajasining sezilarli darajada pasayishi, maktabda shifokorlar (pediatrlar, gigienistlar) yo'qligi sharoitida bolalar salomatligini ta'minlash muammosini hal qilishga majbur bo'lgan o'qituvchilar. Biroq, ta'lim muassasalarining jamoalari o'zlariga yuklangan vazifani bajara turib, tibbiy, gigiyenik va jismoniy tarbiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda, o'qituvchining sog'lom madaniyatining ahamiyatini va o'quvchilar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning o'z rolini aniq baholamaydilar. O'qituvchilarning o'z sog'lig'i va o'quvchilar salomatligi qadr-qimmatini anglamasligi, shaxsiy hayot faoliyatida va o'quv jarayonida sog'liqni saqlash texnologiyalarini qoniqarsiz darajada bilish o'qituvchilarning sog'lig'i madaniyatining etishmasligidan dalolat beradi.

Xulosa va tavsiyalar.

O'qituvchilarning salomatlik madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda sog'lomlashtirish faoliyati uning shaxsiy va kasbiy tarkibiy qismlarining birlashtiruvchi asosi sifatida qaraladi. Kontsepsiyaning asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

1) pedagogik faoliyat o'zining insonparvarlik yo'nalishi tufayli sog'liqni saqlash va salomatlikni yaratish tamoyillariga organik ravishda xosdir;

2) kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida o'qituvchi o'z sog'lig'i va talabalarning sog'lig'i uchun javobgarlikni bilishi, sog'lom turmush tarziga mos keladigan xulq-atvor namunalari va me'yorlarini ko'rsatishi, o'quvchilarning shaxsiy salomatligini saqlash bo'yicha aniq tavsiyalar berishi shart. ;

3) o'qituvchining o'quvchilarning sog'lig'ini saqlash va rivojlantirish bo'yicha faoliyatini amalga oshirishi uchun resurslar bilan ta'minlash, birinchi navbatda, maqsadli yaratilgan sog'lom ta'lim tizimi sharoitida o'qituvchilarning ichki salohiyatini faollashtirish kerak;

Yosh avlodning salomatlik holatidagi salbiy tendentsiyalar o'qituvchining "shaxsni shakllantirish" maqsadi nuqtai nazaridan talabalar salomatligini yaratish ma'nosini dolzarblashtiradi va buning natijasida nafaqat pedagogik xodimlar bilan maqsadli ishlash zarurati, balki ta'lim muassasalarida salomatlikni buzuvchi tendentsiyalarning oldini olish, shuningdek, maktab o'quvchilarining sog'lom madaniyatini shakllantirish yo'nalishidagi o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish.

Sog'liqni saqlashning zamonaviy yo'nalishlarida davolash-reabilitatsiya, profilaktika-gigiena, jismoniy tarbiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, diniy, ma'rifiy jarayonlarni amalga oshirilgan bolalar salomatligini muhofaza qilishning mahalliy va xorijiy an'analari o'quvchilar salomatligini saqlashda ekologik yondashuvning imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogik jamoa o'z kasbiy faoliyatining talabalar salomatligiga ta'sirini to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абаскалова, Н.П. Здоровью надо учить! (Валеология через школьные предметы): разработки уроков: Методическое пособие для учителей / Н.П. Абаскалова. Новосибирск: Лада, 2000. 292 с.
2. Абаскалова, . Н.П. Программа «Культура здоровья» в системе валеологического образования / Н.П. Абаскалова, Т.П. Грязнова // Валеология. 1997. № 2. С. 67-68.
3. Абаскалова, Н.П. Системный подход в формировании здорового образа жизни субъектов образовательного процесса (Школа-ВУЗ): автореф. дис. ... докт. пед. наук (13.00.01) / Н.П. Абаскалова. Барнаул, 2000. 48 с
4. Бенин, В.Л. Педагогическое зло: приглашение к разговору / В.Л. Бенин //
5. Образование и наука. 2002. № 3. С. 169-181.
6. Бенин, В.Л. Специфика актуальной культуры и содержание программ общеобразовательной школы / В.Л. Бенин // Образование и наука. 2000. № 2. С. 88-93.
7. Бенин, В.Л. Сущность педагогической культурологии / В.Л. Бенин // Образование и наука. 2003. № 6. С. 5-

14.

8. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.

9. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.

10. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.

11. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.

12. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagogik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.

13. қизи Камолова, А. О. (2024). ИСЛОМ ДИНИ ТАЪЛИМОТИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТДАГИ АМАЛИ АХАМИЯТИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(1), 201-207.

14. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG 'ULOTLARI ORQALI O 'QUVCHILARDA MILLIY G 'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG 'ULARNI RIVOJLANTIRISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(8), 60-66.

15. qizi Kamolova, A. O. (2023). SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG 'ULOTLARI ORQALI O 'QUVCHILARDA MILLIY G 'URUR, QADRYATLAR, UMUM INSONIY XIS TUYG 'ULARNI RIVOJLANTIRISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(8), 60-66.

16. Ориббоева, Д. Д. (2022). O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI TA'SIRI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.8.08.045> Oribboyeva Dilafro'z Dadamirzayevna NamDU Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 314-318.

17. Oribboyeva, D. D. (2019). STUDY OF SOCIAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(4), 288-292.

18. Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 2020.

19. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 256-261.

20. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. *Science and Education*, 5(1), 287-291.

21. Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, doktorant
Email: zulfiya1980@mail.ru

NEMIS TILI DARSLIKHLARI YARATILISHINING ILMIY-NAZARIY, TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya: Odamzod yaralibdik, ilmga intilish, bilmaganlarini o'rganish, bu borada zahmat chekish va ta'lim-tarbiya olishga harakat qiladi. Ta'lim-tarbiya insonning shaxs sifatida kamolga yetishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli ham insonlar ilm olishga, o'z shaxsini muntazam shakllantirishga harakat qiladilar. Buning uchun esa biror manbaga ehtiyoj sezadilar va barcha zamonlarda aynan shu ehtiyojga ko'ra darsliklar paydo bo'la boshlagan. Ushbu maqolada darslik tushunchasi, xorijiy til darsida darslikning roli, nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining paydo bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: darslik, o'quv majmua, didaktik-metodik kontseptsiya, darslikning vazifasi, talablari, avlodlari, nemis tili darsliklari tarixi.

Пазилжанова Зулфия Сабиржановна

Кокандский государственный педагогический институт, докторант

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ, ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ УЧЕБНИКОВ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: С момента зарождение человечество, оно стремится к знаниям, познавать то, чего оно не знает, упорно трудиться и получать образование. Образование играет важную роль в развитии человека. По этой причине люди стараются регулярно учиться и формировать свою личность. Для этого они испытывают потребность в источнике, и в соответствии с этой потребностью во все времена стали появляться учебники. В данной статье рассматривается понятие учебника, роль учебника на уроке иностранного языка, а также появление немецкого языка как учебника иностранного языка.

Ключевые слова: учебник, учебный комплекс, дидактико-методическая концепция, задача, требования, поколения учебников, история учебников немецкого языка.

Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna

Kokand State Pedagogical Institute, doctoral student

SCIENTIFIC-THEORETICAL, HISTORICAL BASIS OF THE CREATION OF GERMAN LANGUAGE TEXTBOOKS

Abstract: Since the birth of humanity, it has strived for knowledge, to learn what it does not know, to work hard and get an education. Education plays an important role in human development. For this reason, people try to study regularly and shape their personality. To do this, they need a source, and in accordance with this need, textbooks began to appear at all times. This article discusses the concept of a textbook, the role of a textbook in a foreign language lesson, and the emergence of German textbooks as foreign language.

Key words: textbook, educational complex, didactic-methodical concept, task, requirements, generations of textbooks, history of German language textbooks.

Kirish.

Darsliklar tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Sharqda, xususan Frot va Dajla daryolari oralig'ida yashagan qadimiy shumerlar davrida sopol taxtachalarga bitilgan matnlar miloddan avvalgi 2-ming yillikka oid. Keyinchalik boshqa sharq xalqlarida, ulardan keyin esa qadimgi dunyoda papirus yoki pergamentga bitilgan qo'lyozma o'quv kitoblari vujudga kela boshlagan va ular

ma'lum bir sohaga, kasbga o'rgatish uchun asosiy manba vazifasini o'tagan. Kitob nashr etish ishi yuzaga kelgach, darsliklar hammabop bo'la boshladi. Pedagogika va psixologiya fanlarining taraqqiyoti bilan darsliklarning mazmuni va metodik tuzilishi tobora mukammallashib bordi.

Adabiyotlar tahlili.

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasalari, shuningdek, umumtaʼlim maktablarida nemis tilini xorijiy til sifatida oʻqitilishi uchun zarur boʻlgan darsliklar tadqiqi borasida jahonning yetakchi olimlari koʻplab izlanishlar olib borganlar. Jumladan, nemis metodistlari Gerhard Noyner, Hans Yurgen Krumm, Dietmar Ryosler, Yurgen Kvetlar nemis tili xorijiy til sifatida darsliklari tanqidi, tahlili va tadqiqi bilan shugʻullanganlar. Xususan, germaniyalik olim Gerhard Noyner darslik yaratishning metodik-didaktik kontseptsiyasini ishlab chiqadi (Neuner/Hans Hunfeld, Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts. Berlin/München, 1993). Darsliklar va nemis tilini xorijiy til sifatida oʻqitish ustida tadqiqot olib borgan nemis olimlari Gytse, Huneke va Shtayniglar metodik kontseptsiya boʻyicha 4 xil darslik avlodlarini ajratib koʻrsadilar (Deutsch als Fremdsprache, 2001). Amerikalik olimlar Robert Politzer va Luis Vays "The successful foreign language teacher" (1970) asarida darslikning roli va tajribali chet til oʻqituvchisi haqida oʻz fikrlarini bayon qilganlar. Oʻzbek metodist olimi Jamol Jalolov "Chet til oʻqitish metodikasi" (2012) darsligida darslikni asosiy oʻquv vositalari sirasiga kiritgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada darslik tushunchasiga doir taʼriflar, darslikning xorijiy til darsidagi vazifasi, hamda nemis tili darsliklari yaratilishining ilmiy-nazariy, tarixiy asoslari muhokama qilinadi. Darslik va oʻquv majmua haqida fikrlar bayon qilinadi.

Tahlillar va natijalar.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida darslikka quyidagicha taʼrif berilgan:

Darslik — muayyan fanga doir bilim asoslarini maʼlum tartibda bayon etadigan va yuqori maʼnaviy-gʻoyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob, oʻquv adabiyotining asosiy va yetakchi turi. Darsliklar 2 asosiy guruhga boʻlinadi: oʻquvchilar uchun darsliklar va talabalar uchun darsliklar. Oʻzbekistonda oʻquvchilar uchun moʻljallangan darsliklardan umumiy oʻrta taʼlim maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, maxsus taʼlim maktablari va maxsus internat maktablarning oʻquvchilari; talabalar uchun nashr etilgan darsliklardan oliy oʻquv yurtlari talabalari mustaqil hamda oʻqituvchilar rahbarligida foydalanadilar [1]. Darslik – davlat taʼlim standartlari, oʻquv dasturlari, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqol gʻoyalari singdirilgan, muayyan oʻquv fanining mavzulari toʻliq yoritilgan, tegishli fan asoslarining mukammal oʻzlashtirilishiga qaratilgan davlat nashridir. Har bir taʼlim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan oʻz darsliklari boʻladi. Odatda, darslik oʻquv fanining nomi bilan yuritiladi. Darslikda nazariy maʼlumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlari boʻyicha zarur koʻrsatmalar beriladi [2]. Darsliklar yuksak saviyada yozilgan maʼnaviy-gʻoyaviy, ilmiy-uslubiy,

muayyan fan doirasida, u fanning qonuniyat va nazariyalarini oʻzida umumlashtirgan oʻquv kitobidir. Xususan, umumiy oʻrta taʼlim bosqichida oʻqitiladigan darsliklarning tili sodda, ravon, tushunarli boʻlishi va ular nutqining oʻsishiga yordam berishi lozim. Darsliklar oʻquvchining umumiy kamolotida muhim oʻrin egallaydi. Darsliklar koʻp yillik pedagogik, psixologik izlanishlar, ilgʻor tajribalarga tayanib Davlat standarti talablari asosida tuzilgan boʻlishi kerak [3]. Darslik umumiy termin boʻlib, oʻquvchi/talaba, muallim va oʻqish kitoblari yigʻindisidir. Oʻquvchi/talaba kitobi hozirgacha darslik deb kelinadi. Metodik termin ("darslik") oʻzagi arabcha "dars" va turkiy qoʻshimcha "-lik" qismlaridan tuzilgan [4, 99].

Darsliklar muayyan fanga oid asosiy fakt, ilmiy tushuncha, qonun va nazariyalar mazmunini tegishli oʻquv yurtining dasturi hajmida taʼlim vazifalari hamda oʻquvchi (talaba)larga mos tarzda ochib beradi. Darsliklar taʼlim, tarbiya vazifalarining imkoni bor darajada hal etilishiga, yaʼni bilimning muntazam, mustahkam va ongli oʻzlashtirilishiga, oʻquvchi (talaba)larda fanning muayyan sohasiga qiziqish uygʻotishga, ularda ilmiy tafakkurning tarkib topishiga yordam beradi. Darslikning tili ravon va tushunarli boʻlishi, oʻquvchilar nutqining oʻsishiga yordam berishi lozim.

"Chet til oʻqitish metodikasi"ga oid adabiyotlarda chet til oʻrgatishda foydalaniladigan vositalar metodik jihatdan bajaradigan vazifasiga koʻra asosiy va qoʻshimcha (yordamchi) oʻquv vositalariga tasniflangan. Shuningdek, dastur, oʻquv majmua (oʻquvchi/talaba kitobi va muallim kitobi, oʻqish kitobi) **asosiy** oʻquv vositalari sirasiga, oʻquv-metodik komplektning tarkibidagi boshqa vositalar yordamchi vositalar turkumiga kiritilgan [4, 99].

Xorijiy til darsida darslikning vazifasi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Oʻquv majmua, olmon metodisti Gerxard Noynerning fikricha, oʻqish kitobi bilan taqqoslaganda, qatʼiy metodik-didaktik konsepsiyani oʻzida jamlagan asar hisoblanib, turli didaktik vazifalarga ega qismlardan tashkil topadi [5, 398-99]. Bular sirasiga masalan, oʻqish kitobi, ish daftari, oʻqituvchi qoʻllanmasi, multimedia vositalari boʻlmish CD, DVD, qoʻshimcha onlayn materiallari kiradi. Grammatik-tarjima metodidan keyingi audiolingval va audiovizual metodlarning joriy etilishi har bir talabalar guruhining qiziqish va ehtiyojlarini inobatga ola boshladi. Unga koʻra, muloqot vaziyatlari va mamlakatshunoslik mavzularini haqiqatga yaqinroq aks ettirish maqsadida, darslikning koʻpgina qismlaridan voz kechildi.

Darslikning xorijiy til darsidagi vazifasini quyidagicha izohlash mumkin. Darslik birinchi navbatda xorijiy til darsining oʻquv konsepsiyasida oʻquv rejasi va konkret oʻquv jarayoni oʻrtasida vositachi vazifasini egallaydi [6, 399]. Nemis olimi Xans Yurgen Krummning fikriga koʻra [6, 1215-27], darslik muvofiq rasmiy institutlar tomonidan ruxsat etilib, bozordagi sotilish imkoniyatlarini yaxshilash uchun mavjud oʻquv dasturlari yoki

imtihonlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Unda til darsidagi o'qish va o'qitish maqsadlari belgilanadi hamda o'quv materiali bir tizim asosida tartiblanadi. G.Noynier darslik chet til darsi jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarning eng muhimi ekanligini ta'kidlaydi [7, 8]. Nemis tadqiqotchisi Ryosler darslikning roli o'rganuvchilarning o'quv jarayonini ma'lum vaqt mobaynida kuzatish va qo'llab-quvvatlash hamda shu taxlit o'rganilayotgan tilning lisoniy va madaniy turfa xilligini ko'rsatib berishdan iborat, deb hisoblaydi [8, 143].

Darslikning dars jarayoniga ta'sirini tadqiq qilgan nemis olimi Kvetsning empirik tadqiqotiga ko'ra darslik auditoriyadagi chet til o'qitish jarayoniga 82% ta'sir qiladi, ya'ni, boshqa barcha omillardan ustunroqdir [9, 20-28].

Darsliklar va nemis tilini xorijiy til sifatida o'qitish ustida tadqiqot olib borgan nemis olimlari Gyotse, Xuneke va Shtayniglarning fikricha, metodik konsepsiya bo'yicha 4 xil darslik avlodlari farqlanadi: 1. Grammatik-tarjimaga yo'naltirilgan darsliklar. 2. Audiolingval va audiovizual darsliklar. 3. Kommunikativ-pragmatik darsliklar. 4. Madaniyatlararo muloqotga yo'naltirilgan darsliklar [10, 29-30; 187-203].

Nemis tili bilan xorijiy til sifatida akademik shug'ullanish uzoq o'tmishga ega emas. Aslini olganda u Harald Veinrix 1970 yilda Myunxenda nemis tili xorijiy til sifatida institutini tashkil etishi bilan boshlangan. Bu institut Laypsigdagi Gerhard Helbig shu orqali shuhrat qozongan Herder institutining muqobili sifatida tashkil etilgandi. Laypsig va Myunxenda nemis tili xorijiy til sifatida nomli yangi universitet fanining ilmiy standarti joriy etilib, amma joyda ham bu fan o'qitilavermas edi. Nemis tili xorijiy til sifatida fani bilan ilmiy shug'ullanishni nemis tilini universitetda o'qitish va o'rganish amaliyoti bilan taqqoslamalik kerak, chunki bu amaliyot 1900 yillarga borib taqaladi. Ehtimol u yanada qadimyroqdir, biroq bu hozirgacha yaqindan tadqiq qilinmagan.

Xulosa.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, darsliklar boshqa fanlar singari chet til o'qitishda ham muhim rol o'ynaydi. Metodik kontsepsiya bo'yicha 4 xil darslik avlodlari farqlanadi. Nemis tilini xorijiy til sifatida o'rganish uzoq davrlarga borib taqalsada, bu til bilan akademik shug'ullanish 20-asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. 2000 yil.
2. Tayloqov N. Uzluksiz ta'lim uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari. T. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2005 y. 16-b.
3. Qo'ldoshev R.A. O'zbekistonda boshlang'ich sinf darsliklari yaratilishining metodik asoslari. - Ped.f. d. (DSc) ... diss. avtoref. – Buxoro: 2023.
4. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi", 2012. - B. 99.
5. Neuner G., Lehrwerke in: Bausch K.-R., Christ H., Krumm H.-J. (Hrsg.) Handbuch Fremdsprachenunterricht (Tübingen, Basel: Francke/UTB, 2003), -S. 398-99.
6. Krumm H.-J., Lehrwerke im Deutsch als Fremd-und Deutsch als Zweitsprache-Unterricht, in: Hans-Jürgen Krumm, Christian Fandrych, Britta Hufeisen, Claudia Riemer (Hrsg.), Handbuch Deutsch als Fremd-und Zweitsprache. Ein internationales Handbuch 2. Halbband (Berlin, New York: De Gruyter, 2010), 1215-27.
7. Neuner, Gerhard. Zur Analyse, Begutachtung und Entwicklung von Lehrwerken für den fremdsprachlichen Deutschunterricht. Berlin: Langenscheidt KG, 1994. S.8
8. Rösler, Dietmar. Zwischen Lehrwerk und Online-Sprachbad, Zur Neubestimmung von Funktionen und Gestalt von Lehrmaterialien im Anfängerunterricht. Plenarvorträge der XIII. Internationalen Tagung der Deutschlehrerinnen und Deutschlehrer, Graz 2005, Studien-Verlag, 2006. S.143.
9. Quetz Jürgen, Untersuchungen zum Einfluss eines Lehrwerks auf die kommunikative Struktur des Englischunterrichts an Volkshochschulen (Zielsprache Englisch I, 1976), - S. 20-28.
10. Götze Lutz, Fünf Lehrwerkgenerationen, in Kast B., Neuner G. (Hrsg.), Zur Analyse, Begutachtung und Entwicklung von Lehrwerken für den fremdsprachlichen Deutschunterricht (Langenscheidt, München, 1994), 29-30; Huneke Hans-Werner und Steinig Wolfgang. Deutsch als Fremdsprache Ein internationales Handbuch 2.Halbband (Berlin, New York: De Gruyter, 2001), - S. 187-203.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Raximkulov Karimjan Datkaevich,

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti,
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida professori
E-mail: raximkulovkarimjon@gmail.com

BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN FUTBOL O'YINI MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh futbolga qiziquvchi bolalar bilan futbol mashg'ulotlari olib borish va ularni rivojlanganligini aniqlash bolalar va o'smirlar futbolini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator tadbirlar orasida sport mashg'ulotlarni, tayorgarliklarni to'g'ri rejalashtirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: harakatli o'yin, salomatlik, jismoniy mashqlar, ta'limiy va tarbiyaviy o'yinlar, qoidalar, futbol.

Raximkulov Karimjan Datkaevich,

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti,
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida professori

МЕТОДИКА ТРЕНИРОВОК ПО ФУТБОЛУ С ДЕТЬМИ И ПОДРОСТКАМИ

Аннотация. В данной статье среди ряда мероприятий, направленных на дальнейшее развитие детского и юношеского футбола, рассматривается правильное планирование спортивной тренировки и подготовки, проведение футбольной тренировки с детьми раннего возраста, интересующимися футболом, и определение их развития.

Ключевые слова: экшен-игра, здоровье, физические упражнения, образовательно-воспитательные игры, правила, футбол.

Raximkulov Karimjan Datkaevich,

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti,
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida professori

METHODOLOGY OF FOOTBALL TRAINING WITH CHILDREN AND TEENAGERS

Annotation. This article, among a number of activities aimed at the further development of children's and youth football, examines the correct planning of sports training and preparation, conducting football training with young children interested in football, and determining their development.

Keywords: action game, health, physical exercise, educational and educational games, rules, football.

Kirish.

O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunnig dolzarb masalalaridan biridir. Bu esa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta ma'suliyatli vazifalar qo'yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan jismoniy madaniyatini milliyilashtirishiga, bunda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o'yinlarini to'plash, hayotga-maktabga tadbiq etish, rivojlantirish yo'llari va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbek xalqining ko'p yillar davomida shakllangan, avlodlariga meros bo'lib qolgan milliy o'yinlaridan foydalanish mustaqillikka erishgan bugungi kunlarimizda juda ham zarur. Maktabda jismoniy tarbiya darslarida xalq milliy o'yinlarini o'tkazish usullarini to'liq egallamagan o'qituvchilar hozircha ko'pchilikni tashkil etadi. Buning ustiga ijtimoiy voqe'lik, pedagogik amaliyot va nazariyot keng omma o'rtasida tug'ilib, rivojlangan xalq pedagogikasining eng yaxshi yutuqlaridan samarali qo'llash, xalq pedagogikasi g'oyalari asosida fikr yuritish o'quv tvrbiyaviy ishning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hal qiluvchi omillardan ekanligiga guvoh beradi

Harakatli o'yinlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni o'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya darsida harakatli o'yinlarni qo'llash, ijtimoiy-tarbiyaviy

ahamiyatga ega bo'lgan sport turlarini sport darajasiga ko'tarish jismoniy madaniyat fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili.

10-12 yoshli futbolchilarning sport mahorati darajasining bundan keyingi rivojlanib borishi mashg'ulotlarini rejalashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, mamlakatimizda bolalar va o'smirlar futbolini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator tadbirlar orasida sport mashg'ulotlarni, tayorgarliklarni to'g'ri rejalashtirish alohida o'rin tutadi.

R.A.Akramov bolalarga futbolning oddiy sirlarni o'rgatishdan boshlab, ularni yuqori malakali sportchilar qilib tarbiyalash butun bir tizim xisoblanadi va u aniq reja asosida olib borilishi kerakligini ta'kidlaydi.

V.P. Filin fikricha o'smirlik va yoshlik yillarida, ayniqsa 13-14 yoshgacha, muskul massasi juda tez o'sadi, bu esa kuch sifatlarining oshishiga ijobiy ta'sir qiladi. 7 dan 10 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning xarakterlari chaqqon, egiluvchan, juda ham chidamli bo'la boradilar. 11-12 yoshda bolalar ancha ishchan bo'ladilar.

Psixofiziologik funksiyalar asosan 13-14 yoshlarga borib shakllanib bo'ladi. A.P. Lapatevning fikricha, 11-12 yoshda psixofiziologik funksiyalar darajasi uncha yuqori bo'lmaydi, shuning uchun ham yosh sportchilar harakatlarni tez va aniq bajara olmaydilar. 12-13 yoshda o'smir murakkab harakatlarni o'rganadigan bo'lib qoladi, harakat malakalarini egallaydi, shunda ham 14-15 yoshli bolalardan ko'ra yaxshiroq bajaradigan bo'ladilar.

Natijalar va tahlillar.

Rejalashtirish - sportchini tayyorlashning ko'p yillik bosqichida natijalarning o'sishini taminlovchi asosiy va muxim talablardan biridir. U sport mashg'uloti tizimining umumiy asosiy va uslublaridan boshlanadi.

Sport maktablarida o'quv mashg'ulotini jarayonini tashkil qilish mashg'ulotning zamonaviy uslubiyati asosida, yosh sportchilarning yuqori mashg'ulot yuklamalarni o'zlashtirishi orqali amalga oshiriladi. Mutaxassislar bolalar o'smirlar sport maktablarida quyidagicha vazifalarni; o'quv rejasini bajarish shartligi, amaliy va nazariy mashg'ulotlarni uzluksiz bajarish, yosh gandalchilarni tanlash tizimni yaxshi tashkil qilish, musobaqalarda muntazam ishtirok etish, tiklanish profilaktik tadbirlarni amalga oshirishlarni qat'iy ro'ya etish kerakligini takidlaydilar.

Sport maktablaridagi bo'limlar boshlang'ich tayyorlov va o'quv mashg'ulot guruhlaridan shakllanadi. Sport tayyorgarligida yuqori natijalarga erishilgan va zarur sharoitlar yaratilgan BO'SMLarda sportni takomillashtirish guruxlari tashkil etiladi.

Boshqa sport turlari kabi futbol uchun ham raqibga qarshi jamoaviy yakka kurashlar xarakterlidir. Bu yakka kurashlar nafaqat individual, balki jamoaviy o'yin harakatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu asoslarni hisobga olib, o'quv mashg'ulot jarayonida ketadigan vaqt

taxminana shunday bo'linadi: jismoniy tayyorgarlikka 20 – 25 %, texnik tayyorgarlikka 30-35% , taktik o'yin va musobaqa tayyorgarligiga 40-45 %. Bu raqamlarga yosh o'zgarishi, o'yinchilar mahorati va tayyorgarlik davriga qarab albatta o'zgartirishlar kiritiladi.

Jamoalarini va alohida o'yinchilarni tayyorlashni rejalashtirish mashg'ulotning umumiy ob'ektiv qonunlariga qarab bazalashtiriladi. Uning tarkibiga umumiy va maxsus tayyorgarlikning birligi mashg'ulot jarayonining uzviyligi maksimal yutuqqa yo'nalish cheklangan yuklamalar tendensiyasi davriylik jarayoni kiradi.

O'yinchilarning bir mavsum davomida ortirgan funksional imkoniyatlarining rivojlanish bohqichi keyingi mavsumlarda ham mustaxkamlanib, rivojlantirib borishi kerak. Faqat xar yo'nalishda tashkil etilgan tayyorgarlik kerakli bo'lgan natijalarga yetaklaydi.

Rejalashtirishda, shuningdek sportchining gormonik rivojlanishi uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini inobatga olish zarur. Undan tashqari, sportchining yoshi, jinsi, professional salohiyati, jismoniy rivojlanish bosqichi, tayyorgarlik yo'nalishi, bo'lajak musobaqalar taqvimini moddiy baza mashg'ulotlarini tashkillashtirishning boshqa talablarini ham ko'zda tutish lozim.

Avvalambor ko'zlangan ishning tuzilishi va xajmini aniqlab olish vaqtni, davrni to'g'ri taqsimlash, shuning yakuniy natijani belgilab qo'yish lozim. Rejalashtirishga albatta vaqt va sharoitga qarab o'zgartirishlar, aniqliklar va qo'shimchalarni kiritish mumkin.

Rejalar tuzishda rejaning vazifalar, tuzilishi, bajarilish bosqichi, yo'l qo'yilgan xatolar tahlil qilinadi. Har bir yaratilgan reja tadbirlari sekin oshib boradi.

Haftadagi mashg'ulotlar soni uch marta yoki undan ortiq bo'lgan va tegishli miqdorda to'plarga bo'lgan jamoalarda, mashg'ulot davridan qat'i nazar, haftadagi kamida bitta trenirovka sof texnika bo'yicha o'tkazilishi kerak. O'smirlar va o'spirinlik yoshidagi gandalchilar gavda tuzilishi hamda markaziy asab tizimi holati nuqtai nazardan, harakatlarni juda yaxshi egallab olish xususiyatiga ega.

Mashg'ulotlarda jismoniy va asab tizimiga tushadigan yuklama o'yinchining texnika darajasiga mos bo'lishi mumkin. Haddan tashkari bo'lgan yuklamalar zo'riqish yoki tezlik yaxshi o'zlashtirishga to'sinlik qiladi, buning natijasida harakatlarda ma'lum bir xatolar mustahkamlanib qoladi.

O'yin texnikasiga boshlang'ich o'rgatishda sharoitlarni yengillashtirish va tegishli uslublar bilan texnikani tez egallashda o'yinchilarga yordam ko'rsatish lozim. O'yinchilar bajariladigan texnika usullarini «tushunib yetganlaridan», texnika usullarini nisbatan mustahkamlab olganlaridan so'ng kelgusidagi o'rgatishda boshlang'ich davrda qo'llanilgan o'sha uslublardan foydalanmaslik zarur.

O'rgatishdagi xatolik, bir tomondan, qo'llaniladigan o'rgatish uslublaridan, ikkinchi tomondan shundan iboratki, texnikani egallash paytida bolalar ba'zan tegishli jismoni tayyorgarlikka ega emaslar.

Xatolikning tez-tez yuzaga kelishi yana shunga bog'liqlik, o'yin texnikasi buyicha mashqlar ham jadallik bilan bajarilmaydi. Ko'pchilik bolalar, ularga hech kim halaqit qilmagan paytlarda, to'p bilan a'lo darajada o'ynaydilar, hattoki sirkcha tryuklarga ham qodir bo'ladi, lekin o'yinda esa ularni tanib bo'lmaydi.

Kuchli kurashish vaziyatlari futbol o'yini uchun xosdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, gavda bilan kurash olib borishga gandbol qoidalarida ruxsat beriladi. Bu o'yinda raqib tomonidan faol qarshilik ko'rsatish vaziyatida texnika usullarini har vaqt va har yerda bajarish lozim demakdir. Shuning uchun yosh gandbolchilarni bunday o'yinga tayyorlab borish juda muhimdir. O'yin texnikasiga o'rgatish va trenirovka usublari o'yin mohiyatiga zid bo'lmasligi lozim, aksincha, texnikaga o'rgatishda o'yin talablarini har doim hisobga olish zarur. O'yin vaziyatlarining hayotiylikiga qaratilgan texnika buyicha mashqlar yuzaga keladigan o'yin holatlarining mukammal nusxasi hisoblanadi. Mashqlarning mohiyati: o'yindagiga yaqin tezlik va raqibning faol to'sqinlik qiluvchi faoliyati. Mashqlarni o'rganish paytida raqibning faol harakat qilishi juda muhimdir. Agar o'yinchi raqibiga halaqit berayotgandek o'zini ko'rsatishga xarakat qilsa, bu mashq foyda keltirmaydi.

Ilg'or tajribalarni umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, tayyorgarlikning boshlang'ich davridagi o'quv mashg'uloti ishlari quyidagicha prinsiplar asosida olib borilishi lozim.

1. O'quv-trenirovka mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda bolalarni faqat o'ynab o'rganmayotgan yo bo'lmasa qo'pol xatolar qilib o'rganayotgan texnik usullar va taktik harakatlar bilan shug'ullantirish lozim. O'yinda kam uchraydigan vaziyatlarni, biroq muhim biomexanika asosida tashkil etuvchi harakatlarni alohida-alohida o'rgatiladi.

2. Taktik va texnik tayyorgarlik bo'yicha o'quv materiallarini bosqichma-bosqich emas, balki spiralsimon o'rgatish kerak. Bunda albatta quyidagi vazifalar quyilishi lozim:

a) o'yinchilarning texnik usullari va taktik harakatlarining turli-tumanligi haqida keng ko'lamda tushuncha berish;

b) eng muhim texnik usullar va taktik harakatlarni mahorat va malaka darajasiga ko'tarish;

v) yosh futbolchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichida o'yin o'quv mashg'ulotlarining samarali vositasidir. G'alaba qozonish ilmi bolalikdan o'rgatiladi.

Bolalar va o'smirlar organizmi katta yoshdagi kishilar organizmidan jiddiy ravishda farq qiladi. Bolalar va o'smirlar zo'r berib o'sib, rivojlanadilar. Bu davrda ularda odatlar shakllanadi, bilim oladilar, sportning biror

turi bilan shug'ullanadilar va malaka orttira boshlaydilar. Bola qnchalik yosh bo'lsa unda o'sish va rivojlanish protsessi tez o'tadi. Nerv sistemasining shakllanishi xarakat faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, muskul sistemasi o'sishi esa nerv faoliyatining takomillanishiga yordam beradi.

Har bir bolaning rivojlanish xususiyati o'ziga xos bo'ladi, biroq ko'pchilik bolalar yoshlariga yarasha o'sib, rivojlanadilar. Agar 7 yoshdan 11-12 yoshgacha bo'lgan davrni vazmin bir davr deyish mumkin bo'lsa, 13 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlik davri kishi xayotining boshqa barcha davrlaridan tubdan farq qiladi. Bu davrda organizmdagi barcha fiziologik sistemalar zo'r berib o'zgaradi, o'smirning psixikasi va xulqi o'zgarib boshlaydi. Bu yoshda ota-onadan o'tgan sifatlar xamda tashqi muxit ta'sirida bolaning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar Bilan imlash tajribasi shuni ko'rsatdiki, o'qish boshlanishidagi sport natijalarining tez o'sishi kelajakdagi yuqori natijalarga kafil bo'la olmaydi. Shunday hodisalar ham bo'ladiki, sport bilan aktiv shug'ullangan bolalar keyinchalik kattaroq bo'lganlarida doim mashg'ulotlarga qatnashishlari natijasida ularda sport ko'rsatkichlari dinamikasi yaxshi bo'ladi.

Bolalik yoshida skeletning ba'zi suyaklari suyaklanishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi va boshqa jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari ko'zda tutiladi. Bolalarda gavdaning va vaznning yiliga xamda balog'at davriga (12-14 yosh) to'g'ri keladi. Harakat sifatlarining o'sish darajasi sport faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga ta'sir qiladi. Shu sababli, xarakat va psixofiziologik yetilish dinamikasi nihoyatda qiziqarlidir.

Bola 8-10 yoshga yetgandan so'ng barcha muskulatura zo'r berib rivojlana boshlaydi, 13-14 yoshgacha bo'lgan davr esa muskul sistemasi va aktiv xarakat funksiyalarining takomillashishi davri xisolanadi.

Bolalar va o'smirlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular bir xilda rivojlanmaydilar, yetilishda va xarakat funksiyalarida o'ziga xos farq bo'ladi.

Bola organizmi markaziy nerv sistemasining doimiy ta'siri, atrof muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lib turishi tufayli o'sish va rivojlanishda davom etadi. 8-10 yoshli bolalarda nerv sistemasining antomik jixatdan o'sishi xali tugallanmagan bo'ladi, shu sababli bu tabiiyki, bolaning o'z fikrlarini bayon qilishiga, xulqiga, psixikasiga ta'sir qiladi. Bunday bolalar nixoyatda ta'sirchan bo'ladilar, ayrim sport elementlarini o'rganishda uzoq vaqt diqqat qilolmaydilar. 8-10 yashar bolalarda nerv protsesslari juda xarakatchan bo'ladi, shunda xam qo'zg'alish protsesslari tormozlanish protsesslaridan ustun bo'ladi. 10-12 yoshga borib, bolalarda tormozlanish protsesslari kuchi ortadi, o'z xis – tuyg'ularini nazorat qiladigan bo'lib qoladi, birinchi va ikkinchi signal sistemasining funksional imkoniyatlari kengayadi, differensirovka qobiliyati ortadi: muskulni sezish qobiliyati kuchayadi, xarakat makalari o'z-o'zidan bajariladigan bo'ladi, bola nozik xarakatlar qiladigan

bo'ladi. Bu yoshga kelib nerv sistemasi turlari uzil-kesil aniqlanadi va diqqat ortadi.

Ma'lumki, 8-15 yashar bolalarning yuragi vazni 96 dan 200 grammgacha bo'ladi. Bu gavda vaznining taxminan 0,44-0,48% iga tengdir. Bolalar va o'smirlar yuragi esa kichgina bo'ladi.

Shuni unutmash kerakki, yosh ulg'aygan sari muskullar strukturasi, ximiyaviy tarkibi va funksiyasi o'zgarib boradi, 7 yoshda muskullarda kata o'zgarishlar sodir bo'ladi, birinchi navbatda muskul tolalari qalinlashadi. 8-10 yoshda bolalarda muskul sistemasi xali yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Muskul massasi vazni gavda vaznining 27,2% ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'smirlarda (15 yosh) 32,6 yoshlarda esa 44,2 ga teng bo'ladi. 7-12 yoshli bolalarda gavdv massasining yillik o'sishi 5-7 kg ni tashkil etadi.

1-jadval

8-12 yashar bolalarda gavda og'irligini ortishi

No	Yosh	Gavda og'irligini oylik oshishi (gr)	Gavda og'irligini bir yilda oshishi (gr)
1	7	600	4900
2	8	550	5450
3	9	500	5950
4	10	450	6400
5	11	400	6800
6	12	350	7150

7-9 yoshdan to 10-12 yoshgacha qo'llar muskuli kuchi oyoqlarnikiga nisbatan jadalroq o'sadi. Bu davrda muskul sistemasi va harakat funksiyalari takomillashadi. Muskul massasi o'sishi bilan birga harakatlar uyg'unligi ancha yaxshilanadi. 14 yoshga borib muskul va paylar apparati rivojlanishi kattalarnikiga yaqinlashadi.

Shunday qilib, bolalarda yurak har tomonlama rivojlanadi, lekin bir tekis o'smaydi, uzunasiga ko'proq tez o'sadi, keyinchalik eniga va qalinlikka o'sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aliev M.B., Usmonxadjaev T.S., Sagdiev X.X. Sport o'yinlari – futbol. –T.: ilm ziyo, 2006
2. Akramov J.A Obidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. // Fan-sportga №1 -2007
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent., 2003
4. Usmonxo'jaev T.S., Qosimova M.U. 500 mashq va harakatli o'yinlar. T.: O'zDJTI nashriyot bo'limi. 1999. - 60b.
5. Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaev F. Harakatli o'yinlar. T.: O'qituvchi, 1992.- 80b.
6. Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaev F. 1001 o'yin. T.: Ibn-Sino, 1990.-352 b.

Tinch holatda simob ustunining 100/70 mm da bo'ladi, jismoniy nagruzkalar ta'sirida tomir urishi minutiga 185 gacha ortadi.

7-8 yoshga kelib yurak apparatining innervatsion o'sishi to'xtaydi, lekin yurak muskuli rivojlanishda davom etadi. 10-13 yashar bolalarda brak faoliyatidagi shartli reflektor o'zgarishlar 14-17 yoshli bolalar va kattalardagi kabi sodir bo'ladi. Yurak muskullari qisqarishi kuchi va qonining zarb hajmi ortadi, nafas olish va tomir urishi ancha siyraklashadi.

Xulosa.

Shunday qilib, 16-17 yashar bolalarda yurak-tomir sistemasi anchi takomillashadi: yurak hajmi va massasi, qonning kislorod hajmi, kislorodga bo'lgan ehtiyoj xudi kata kishilardagidek bo'ladi. Shu bilan birga harakat va vegetativ funksiyalar o'rtasida muvofiqlik yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun yosh sportchilarni tayyorlashda nagruzkalarni aniq taqsimlab, ularni asta-sekin oshirib borish zarur. Bolalarning suyaklari kata yoshdagi kishilarnikiga qaraganda yumshoq va salga qiyshayadigan bo'ladi. Suyak sistemasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi: umurtqa pog'onasi qayishqoqligi shakllanadi.

7 yoshgacha bo'lgan bolalarda umurtqa suyagi xali mustahkam bo'lmaydi va juda qayishqoq bo'ladi. Shu bilan birga u juda yumshoq bo'lib, noto'g'ri vaziyat natijasida qiyshayib qolishi mumkin. Shuni unutmash kerakki, yosh ulg'aygan sari muskullar hajmi strukturasi, ximiyaviy tarkibi va funksiyasi o'zgara boradi. 7 yoshdan muskullarda kata o'zgarishlar sodir bo'ladi, birinchi navbatda muskul tolalari qalinlashadi, 8-10 yoshda bolalarda muskul sistemasi xali yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Muskul massasi vazni gavda vaznining 27,2% ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'smirlarda (15 yosh) 32,6% yoshlarda esa 44,2 % ga teng bo'ladi. 7-12 yoshli bolalarda gavda massasining yillik o'sishi 5-7 kg ni tashkil etadi.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Toshpo'latova Inobat Ulug'bek qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: anoratoshpolatova@6gmail.com

**FAOLLIK MARKAZLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV MAKTABGACHA KATTA YOSHDA
BOLALARDA KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

Annotatsiya. Mazkur maqolada faollik markazlarining turlari va mazmuni, integratsion yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari xususida so'z boradi.

Tayanch tushunchalar. Maktabgacha yosh, tarbiyalanuvchilar, integratsiya, faollik markazlari, TRIZ texnologiyasi, ijodkorlik, yaratuvchanlik.

Ташполатова Инобат
Докторант Наманганского государственного университета

**КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ЦЕНТРАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ
ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Абстракт. В данной статье говорится о видах и содержании центров деятельности, возможностях развития творческих компетенций у дошкольников на основе комплексного подхода.

Основные понятия. Дошкольный возраст, приемные дети, интеграция, центры активности, ТРИЗ-технологии, творчество, творчество.

Toshpo'latova Inobat Ulug'bek kizi
Namangan State University 1st stage foundation doctoral student

**INTEGRATED APPROACH TO ACTIVITY CENTERS AS AN IMPORTANT FACTOR OF CREATIVE
COMPETENCE DEVELOPMENT IN PRE-SCHOOL CHILDREN**

Abstract. This article talks about the types and content of activity centers, the possibilities of developing creative competences in older preschoolers based on an integrated approach.

Basic concepts. Preschool age, pupils, integration, activity centers, TRIZ technology, creativity, creativity.

Kirish.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida[1] maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Bu borada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida[2] maktabgacha

ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Usullar.

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya Davlat standartining 1-ilovasi sifatida berilgan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari"da integratsiya tushunchasiga alohida to'xtalib o'tilgan va integratsiya – bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun

tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi jarayon ekanligi ko'rsatib o'tilgan[2].

O'zbekistonda ham bir qator olimlar integratsiya, fanlararo aloqadorlik, ta'limda integratsion texnologiyalarni qo'llash masalasida tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, pedagoglar R.A.Mavlonova va N.X.Rahmonqulovalar[8] tomonidan yaratilgan "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" o'quv qo'llanmasida tadqiqot muammosi boshlang'ich ta'lim jarayonlari misolida yoritilgan.

X.Yulbarsova[12] fanlarning nazariy taraqqiyotida differensial holat ham mavjud bo'lishi, integratsiya esa amaliyotda o'zaro bog'liqlikni bildiishi va u jarayonning ijtimoiy, pedagogik-psixologik ahamiyatini yanada ortishini ta'kidlaydi.

N.Abdullayevaning[3] tadqiqot ishida boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi. N.Ahmedova[4] "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun izlanishlar olib borgan. M.N.Irisbayeva[9] ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi mavzusida izlanishlar olib borib, milliy-tarixiy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning evolyutsion taraqqiyoti hamda nazariy asoslarini yoritib bergan.

M.J.Shodiyevaning[11] "Maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari" nomli maqolasida maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari xususida so'z yuritiladi. F.Umirova[10] teledasturlarning bola dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri va uning mashg'ulotlar bilan integratsiyasi masalasi bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga integratsion yondashuv, ularda ijodkorlik, yaratuvchanlik sifatlarini shakllantirish har qachongidanda dolzarb va muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual-ijodiy-kreativ faoliyati katta ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, u barkamol avlodning bazaviy sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishning omilidir.

Zero, intellektual-ijodiy rivojlanish —shaxsning ma'naviy sohasi bilan bog'liq. Bu faol faoliyat jarayonidagi axloqiy, intellektual va estetik talablar va manfaatlarning shakllantirilishi va qanoatlanirilishidir. Demak, mazkur jarayonda inson ma'naviyatining muhim qirralari shakllantiriladi, rivojlantiriladi va takomillashtiriladi.

Muhokama va natijalar.

Amerikalik psixolog Abraxam Maslouning fikricha, "Kreativlik - bu har bir insonga tug'ilishi bilan hadya

etiladigan, ammo tarbiya, ta'lim va ijtimoiy faoliyat tizimida yo'qolib boradigan ijodiy yondashuvdir"[5].

Haqiqatan ham, shaxsga ta'sir etuvchi irsiyat, tarbiya, atrof-muhit kabi omillar bolaning kamol topishida muhim ahamiyatga ega hamda bu faoliyat davomida bolada:

- ijodiy tasavvurni rivojlantirish;
- ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish;
- fikrlashda tizimlilik;
- harakatchanlik qobiliyati yoki o'z-o'zini rivojlantirish;
- yechim qidirish uchun kuch va imkoniyat topish;
- ijodiy intuitsiya;
- nutq rivojlanishi kabi jihatlarga alohida e'tibor berish zarur.

Ushbu omillar maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim bo'lib, faollik markazlariga integratsion yondashuv asosida amalga oshirish imkoniyati kengligini ko'rsatadi.

Faollik markazlararo integratsiya – (kompleks-mavzuli rejalashtirish (barcha beshta ta'lim sohasini amalga oshirishni hisobga olgan holda); rivojlanish markazlari (til va nutq; qurilish va konstruksiyalash markazi; san'at, syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi; ilm-fan va tabiat markazi)dagi bolalarning mustaqil faoliyatini integratsiyalash orqali bolalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ularning xulq-atvorda namoyon bo'ladigan salbiy xususiyatlarni bartaraf etishni ko'zda tutadi.

Tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik, yaratuvchanlik, harakatchanlik, tizimli fikrlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan faollik markazlaridagi mashg'ulotlar, o'yinlar, mustaqil faoliyat; sayr va ekskursiyalar, tarbiyaviy va shaxslararo munosabatlar jarayoni o'zaro aloqadorligi, mazkur tashkiliy komponentlarning o'zaro bog'liqligi va birligi pedagogik jarayonning integrativ xususiyatiga egaligini ifodalaydi. Shu bois, MTTda bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayoni yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi.

Ommaviy tarzda o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuni ko'pincha badiiy tavsifga ega faoliyat ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, musiqa mashg'ulotlari, sahna ko'rinishlarini namoyish etish, o'yin-sayohatlar, san'at asarlari bilan tanishish va boshqalar. Bunday mashg'ulotlarda aqliy faollikni oshirishga undovchi "emotsional ta'sir ko'rsatish" yaxshi samara beradi, bolaning o'z-o'zini namoyon eta olishiga imkon beradi.

Bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirishda hozirgi kunda turli texnologiyalar mavjud. Shu jumladan TRIZ (Yaratuvchanlik qobiliyatini aniqlash nazariyasi) texnologiyasi juda samarali va qulay hisoblanadi.

TRIZ texnologiyasi asoschisi G.S.Altshuller bo'lib, u barchada "ijodiy qobiliyat" mavjudligini ta'kidlaydi[6].

Ijodiylik yoki har qanday qobiliyatni rivojlantirish mumkin. Izlanish jarayoni, yangilik topish, yaratuvchanlik ta'limning asosiy mazmunini ifodalaydi. TRIZ texnologiyasini qo'llashda individual va jamoa shaklida ishlash yaxshi samara beradi. Jamoa bo'lib ishlashda evristik o'yinlar, aqliy hujumdan foydalanish bolani ijodiy izlanishga yo'naltiradi.

TRIZ texnologiyasi orqali bolalarda xayol rivojlantiriladi. Tasavvur shunday muhim ahamiyatga egaki, bunda hali faoliyat jarayoni boshlanmasdan oldin natijalarni ko'z oldiga keltirishga imkon paydo bo'ladi. Xayol mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, avval idrok qilinmagan, turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazlarini yaratishdan iborat bo'lgan ong faoliyatidir. Xayolning boshqa psixik hodisalardan yana bir farqi shundan iboratki, u hozirgina emas, balki o'tmish va uzoq kelajakni ham aks ettira olishga o'rgatadi.

Ijodkor bola shaxsini shakllantirishda G.Altshuller va I.Vertkinning "Ijodkor shaxsning hayotiy strategiyasi" tamoyilini qo'llash ijobiy natija beradi[7].

G.Altshuller va I.Vertkin ijodkor shaxsning quyidagi asosiy sifatlarini tasniflaydi, ular:

1. Aniq maqsadni tanlash qobiliyati.
2. Muammoni ko'ra olish qobiliyati, maqsadga erishishga tez olib boradigan yechim topish.
3. Ishni rejalashtira olish qobiliyati va bajarilgan ishlarni muntazam nazorat qilish.
4. Rejada belgilangan ishlarni yuqori ishchanlik kayfiyatida bajarish.
5. Har qanday holatda ham o'z fikr va qarashlarida mustahkam turish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda faollik markazlariga integratsion yondashuv jarayonida, ya'ni, oylik "G'aroyib dunyo" mavzusi asosida haftalik "Bizning inoq mamlakatimiz", "Qo'shni mamlakatlar" mavzularini til va nutq; qurilish va konstruksiyalash markazi; san'at, suyet-

rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi; ilm-fan va tabiat markazlarida tashkil etish jarayonida bolalar ushbu mavzularga oid tasavvurlari doirasida kichik hikoyalar tuzishga o'rganadilar, turli binolar konstruksiyasini yaratadilar, qo'shni mamlakatlarga tegishli qo'shiqlar, raqslar, urf-odatlar va qadriyatlarni rollarga bo'linib ijro etadilar, ularning madaniyati va tarixini o'rganish jarayonida qo'shni mamlakatlar to'g'risida yaxlit bilimlarga ega bo'ladilar. Bunday faollik markazlariga integratsion yondashuv esa bolalarni yaratuvchanlik, ijodkorlik, mustaqillikka yo'naltiradi.

Xulosa va takliflar.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bunday ijobiy natijaga erishishda ta'lim jarayonini integratsiyalashtirish muammosi yuzasidan tarbiyachilarni malakasini oshirish kurslarida seminarlar tashkil etish, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda ta'limni integratsiyalash bo'yicha horijiy davlatlar tajribalarini o'rganib borish, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni kreativ kompetensiyasini integratsiyalashgan ta'lim orqali rivojlantirishga oid ilg'or tajribalar umumlashtirilib metodik qo'llanmalar yaratish va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi "ustoz-shogird" tartibi asosida ish yuritib, ilg'or tajribalarni o'rganish va o'z faoliyatida qo'llash malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312-son qarori
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 802-son qarori.
3. Abdullayeva N. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish: Ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2020. – B.10-12.
4. Ahmedova N. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref.–Toshkent, 2020. – B.10-17.
5. Abraham Harold Maslow. 1972 "Climate for Creativity" in Taylor C.W. 287-page. NYC: Perga/non Press.
6. Altshuller G.S. Nayti ideyu: Vvedeniye v TRIZ - teoriyu resheniya izobretatelskix zadach. 3-ye izd. - M: "Alpina Pablisherz", 2010. -S. 283-285
7. Alshuller G.S., Vertkin I.M. Kak stat geniyem: jiznennaya strategiya tvorchestkoy lichnosti. – Mn.: "Belarus", 1994. –S. 469-474.
8. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2009. – B. 19-20.

9. Irisbayeva M.N. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tarixiy-milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi: Ped. fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref.–Toshkent, 2020. – B.12-13.

10. Umirova F. Teledasturlarning bola dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri va uning mashg'ulotlar bilan integratsiyasi // Maktabgacha ta'lim: tajriba, izlanish va istiqbol mavzusidagi respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Qarshi, 2020. 14-oktyabr. –B.74.

11. Shodiyeva M.J. "Maktabgacha ta'lim mazmunini integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari. Maktabgacha ta'lim: tajriba, izlanish va istiqbol mavzusidagi respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Qarshi, 2020. 14-oktyabr. –124 b.

12. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Ped.fan.bo'yicha fals. dok. (PhD) ...diss. – Arzamas, 2020.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Maxkamov Akmaljon Yuldashevich

p.f.f.d.(PhD).docent

Kukon universiteti Ta'lim fakulteti Ta'lim kafedrası

O'QUVCHI YOSHLARGA MILLIY O'YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab yoshidagi bolalarga milliy o'yinlardan foydalanish orqali, o'quvchilarning o'yinlar orqali ongini shakllantirish maqsadida turli metodlardan foydalanib, ta'limning uzviy davom etishiga asos yaratish orqali 7-9 yoshli bolalarga milliy ta'lim-tarbiya berish, milliy o'yinlar orqali ongini shakllantirishda pedagogik metodlar va o'yinlardan foydalanib bolalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish hususidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mantiqli o'yinlar, raqamli o'yinlar, boshlang'ich ta'limda milliy qarashlar, milliy tarbiya metodlari, video o'yinlar, inventarizatsiya, an'anaviy o'yin turlari, milliy qadriyatlar, milliy o'yinlar.

Makhkamov Akmaljon Yuldashevich

p.f.f.d.(PhD).docent

Department of Education, Faculty of Education, Kukon University

METHODS OF USING NATIONAL GAMES FOR STUDENTS

Abstract: In this article, by using national games for school-aged children, using different methods to form the minds of students through games, and by creating a basis for the organic continuation of education, providing national education and upbringing to 7-9-year-old children, national education Pedagogical methods in the formation of consciousness through games and information on the formation of knowledge, skills and abilities in children using games are highlighted.

Key words: logic games, digital games, national views in primary education, national educational methods, video games, inventory, traditional games, national values, national games.

Махкамов Акмалжон Юлдашевич

п.ф.ф.д.(PhD).доцент

Департамент образования, педагогический факультет Университета Кукон

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР ДЛЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: В данной статье, используя национальные игры для детей школьного возраста, используя различные методы формирования сознания учащихся посредством игр, а также создавая основу органического продолжения образования, обеспечивая национальное образование и воспитание до 7-9-летнего возраста. Дети старшего возраста, национальное воспитание. Освещены педагогические методы формирования сознания посредством игр и информация о формировании знаний, умений и навыков у детей с помощью игр.

Ключевые слова: логические игры, цифровые игры, национальные взгляды в начальном образовании, национальные методы обучения, видеоигры, инвентарь, традиционные игры, национальные ценности, национальные игры.

Kirish.

Jamiyatning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning bola ruhiyatiga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'ladi. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida bola ruhiyatiga oid muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, o'quvchi yoshlardagi milliy qarashlar va unga bo'lgan munosabatni shakllantirish haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. Bugungi dunyoda jamiyat va bola o'rtasidagi muammoli munosabatlar nihoyatda dolzarbdir. Inson

tomonidan yaratilgan bolaga ta'sir qiluvchi omillar bizning yosh avlodlarga nojo'ya ta'sirlari bo'layotgani hechkimga sir emas. Bolaning psixologik va jismoniy barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy ruhiyatini buzulishiga uning kelajakdagi ruhiy holati qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmaslik sabab bo'ldi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹ - "Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan".

Bolalarni boshlang'ich ta'lim jarayonlarida yuqorida aytilgan masalalarni rivojlantirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori "O'zbekiston Respublikasida Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi² Qarori va Ta'lim sohasida ko'plab qarorlar qabul qilingan.

Adabiyotlar tahlili.

Maktab ta'lim jarayonida o'quvchilarni insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, tadqiqotchi mutaxassislarning tobora ko'proq qismi maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmual, insoniy tasir o'tkazishi, har bir o'quvchining muntazam va imkon qadar to'la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar. Shunga ko'ra mavzu yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarni o'rganib chiqdik.

Mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarning salomatligini mustahkamlash hamda jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirish borasida bir qator sohaga doir adabiyotlar nashr etgan, olimlardan T.Usmanxodjayev, B.Saidova, J.Ishtayev, Z.Abdullayeva, X.Botirov, F.Karimov, A.Ruziyev, T.Koshbaxtiyev, T.I.Iskandarov, V.I.Isxakov, N.O'rinboyev, R.U.Arziqulov, A.Abdullaev, A.Xasanov, S.Uraimovlarning adabiyotlarida o'quvchilar sog'lom turmush tarzi va milliy o'yinlari xususidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.³

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbek milliy o'yinlari barcha xalq-elatlar kashfiyotlari kabi (musiq, kulolchilik, gilam to'qish asboblari, ashula va raqs, ertak va h.k.) insoniyat tarixining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etgan o'ziga xos etno va filootogenetik xususiyatlar asosida "ixtiro" qilingan va shakllanib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach xalq milliy harakatli o'yinlari millatimiz qadriyatlarini sifatida qayta tiklana boshladi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg'ulotiga aylandi, balki barcha ta'lim muassasalari o'quv rejalariga to'laqonli fan sifatida kiritilgan. Ammo, shuni ham ta'kidlash zarurki, xalq milliy harakatli

o'yinlarining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning psixofunksional mohiyati, jismoniy sifatlar va sport mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda qiymati xali deyarli o'rganilmagan.

Pedagogik kuzatish metodi. Tadqiqotimiz davomida biz ekspert va matematik-statistik metodidan foydalanib, ushbu tadqiqotni Farg'ona viloyati Qo'qon shahri 1-umumta'li maktab o'qituvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Dastlab Maktabda Milliy o'yinlar IV chorak tajriba-sinov ob'ekti qilib olindi. Tadqiqot 2 oy davomida 4-sinflar 50 nafar o'quvchilar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida guruhda to'liq o'qituvchilar ishtirok etdi. Maktabda o'tkaziladigan Jismoniy tarbiya darslarida Milliy o'yinlar samaradorligi bir guruhda yani 4-sinflarda tadqiqot yakunida tekshirish o'tkazish asosida aniqlanadi. Boshlang'ich sinflarda milliy o'yinlarni foydalanish usullari mavzusi bo'yicha quyidagi – pedagogik kuzatuv, so'rovnoma hamda amaliy metodlardan foydalandik.

Tahlil va natijalar.

Jami sinflar soni 2 tani va o'quvchilar soni esa 50 nafarni (50 nafardan 26 nafari og'il va 24 nafari qiz bolalar)ni tashkil qildi va ular o'rtasida statistik taxlil olish maqsadida musoboqa o'tkazildi. O'tkazilgan musodaqalardan tadqiqot natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentga milliy tarbiya berish va milliy ongni shakllantirishda turli hil milliy o'yinlar, ekskursiyalar, ma'ruzalar va boshqa metodlar kerakli hisoblanadi. Bu borasida o'rta yoshli respondentlarda "*Arqon tortish*" milliy o'yini sinovdan o'tkazildi. Buning natijasida bolalar milliy o'yinlar orqali jamoa bo'lib ishlashni o'rgandilar, bu esa o'z navbatida ularda atrofdagi barcha bilan kelishib ishlash tuyg'usi rivojlandi. Bu o'yinning asosiy maqsadi bolalarni milliy o'yinlarga bo'lgan qarashini o'rganishdan iborat edi. Buning uchun bizga ekologik toza arqon, turli rangdagi matolar kerak bo'ldi. Bundan tashqari vaqtini o'lchaydigan taymer(sekundamer) bo'lishi ham kerak bo'ladi. Bu ko'p milliy o'yin birinchi marta o'tkazilganda bolalarda ijobiy ta'surot qoldirmadi va natijalar qoniqarli chiqmadi. Takroran milliy o'yinlardan foydalanish ko'proq natija berishini ko'rishimiz mumkin. Milliy o'yinla bolalar ruhiyatini sog'lomlashturish uchun juda katta asos hisoblanadi. Gapimning isboti "Oq terakmi ko'k terak" o'yinini. Bu o'yin bolaga hamjihatlikni, jamoada ishlashni va birdamlik o'rgatadi. "Oq terakmi ko'k terak" 4-sinf o'quvchilarida tashkil etildi va o'tkazildi. O'quvchilarni 2 guruhga bo'lish orqali. O'quvchilar jami 26ta, ikki guruhga bo'lganimda 13 tadan o'quvchiga to'g'ri keldi. O'quvchilar bu o'yinni juda katta qiziqish bilan bajardilar. O'quvchilarda milliy o'yinlar orqali milliylikni

¹ <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi> (Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga 1-ILOVA

³ T.Usmanxodjayev, X.Meliyev, M.Nuriddinova, A. Olimov. Maktabtagacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, "Shodlik nashriyoti" Toshkent-Chirchiq-2019-159-b.

singdirar ekanmiz, o'quvchilarda jamoaviy ishlashni va bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishni o'rganishdi. Bu o'yinda 1-guruh 75% o'quvchilar faol qatnashdi, o'rta faol qatnashganlar 55%, sust qatnashganlar 25%ni tashkil


etdilar. 2-guruh faol qatnashganlar 80%, o'rta qatnashganlar 45%, past qatnashganlar 20% tashkil etdi. Natijalarni diagramma orqali ko'ramiz.

	Faol qatnashganlar	O'rta qatnashganlar
1-guruh	75%	45%
2-guruh	80%	40%

1-diagramma Oq terakmi ko'k terak o'yini natijasi.⁴

4 - sinf o'quvchilarida matematika darsining dam olish daqiqalarida qo'llanilgan Besh tosh milliy o'yinini 2 marta qo'lladik. 1-marta qo'llaganimizda 22ta o'quvchidan

10tasi 5 baho 8tasi 4 baho va 4tasi 3 baho olgan edi.2-marta qo'llaganimizni natijani quyidagi diagramma orqali yaqqol ko'rishingiz mumkin.



2-diagramma. Besh tosh o'yini natijalari⁵

Bundan tashqari o'quvchi respondentlar o'rtasida boshqa milliy o'yinlar ham o'tkazildi. Kuzatish ishlarini

boshlashdan avval respondentlarga milliy o'yinlarni o'ynashi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borildi. 1 oy


⁵ Muallif ishlanmasi

davomida respondentlarni 2 guruhga bo'lib, o'g'il bolalar va qiz bolalarni alohidadan kuzatdim. Kuzatish olib borilganida o'g'il bolalarda natija yuqori chiqdi. Chunki o'g'il bolalarda bunday o'yinlarga qiziqish juda yuqori ekan. Ushbu natijalar quyida keltirilgan.

So'rovnomat natijalari

Milliy o'yinlar o'quvchilarning qaysi jihatlari shakllantirishda yordam beradi

7 ответов



3-diagramma⁶

Muhokama.

Biz tadqiqot ishimizning muhokama qismida yuqoridagi ma'lumotlar, manbalar va asoslarga tayangan holatda shuni aytmoqchimanki, boshlang'ich sinflarda milliy o'yinlardan foydalanish orqali yosh avlodga milliy qadriyatlarimizni avlodlardan avlodga o'tishini ta'minlash, o'quvchilarga darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlarda milliy o'yinlardan foydalanish usullari yordamida o'quvchilarda jismoniy rivojlanish, sog'lom avlodni tarbiyalash va xalq o'yinlarining boy an'analari bilan tanishish samarali natija berishini asoslab o'tdik. G.M. Salimov, U. Islomov, F.M. Nasriddinov, A.Sh. Qosimov va boshqa olimlar o'z tadqiqotlari doirasida ta'lim sohasida xalq harakatli o'yinlarini qo'llash hamda buning ustuvorligi xususida mulohaza yuritganlar.

Xulosa.

Tadqiqotdan xulosa tariqasida shuni aytishimiz mukin, har bir qarashlarni o'z o'rni va bolaning jamiyatda yakdil inson bo'lib yetishishi uchun o'rni mavjud deyishimiz mukin.

Boshlang'ich sinflarda milliy o'yinlar o'rgatish usullari mavzusida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida so'rovnomat o'tkazdik. Bir necha so'rovlar olib bordik, eng dolzarb va muhimlarini natijalarini diagrammasini ko'rishingiz mumkin.

Milliy o'yinlar borasida shuni aytishim mumkinki milliy harakatli o'yinlarda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiiq qiladi. Milliy harakatli o'yinlaridan foydalanishda, ularni qo'llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo'ladilar.

Milliy xalq o'yinlaridan foydalanishda, ularni qo'llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo'ladilar. Bizning fikrimizcha, milliy harakatli o'yinlarni hamma fazilatlar, qobiliyatlar, sifatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda aqliy va xarakat ko'nikma hamda malakalarining shakllanishida asosiy o'rinlarni egallaydi. Rivojlanishning keying asrlarida bola taraqqiyotini milliy qarashlar bilan boyitish va uni shaxs sifatida shakllanishida milliy o'yin va qadriyatlarini oldinga qo'yish kerakligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga 1-ilova.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Rahimqulov, K. (2012). Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. «Tafakkur-bo'stoni». Toshkent-2012.
2. T.S. Usmanxodjayev, Sh.X. Isroilov, A.A. Pulatov, Sh.A. Pulatov, "Milliy va harakatli o'yinlar" 9 - 52 bet
3. Yuldashevich, M. A., Akmaljon ogli, Y. S., & Akmaljon ogli, Y. S. (2024). Gimnastikaning sog'lomlashtiruvchi turlari va gimnastikaning sport turlarini ahamiyati. Kokand University Research Base, 308-311.
4. Maxkamov, A. (2023). Aralash talim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni pedagogik usullari. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 547-551
5. Махкамов, А. Ю. (2023). Олий таълим битирувчилари учун жисмоний тарбия машғулотларида соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантиришнинг амалий-методик имкониятлари. Scientific Impulse, 1(9), 844-851.

⁶ Muallif ishlanmasi

6. Aralash talim texnologiyalari asosida bo 'lajak o 'qituvchilarning sog 'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni pedagogik usullari A Maxkamov - Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, 2023.

IV. Internet manbalar

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi> muhokama-qilindi (Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi)
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalqining-milliy-harakatli-o-yinlari-ularning-pedagogik-va-fiziologik-xususiyatlari>
3. <file:///C:/Users/User.AD.001/Downloads/milliy-va-harakatli-oyinlar.pdf>

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Iqboljon Sharofutdinov Usmonjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Amaliy matematika va informatika kafedrası o'qituvchisi

iqboljon0766@gmail.com

UDK: 371.13 : 37.013.42

AKMEOLOGIK KOMPETENTLIKNING MAZMUN-MOHİYATI VA UNI BO'LAJAK KADRLARDA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOİY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada akmeologik kompetentlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va bo'lajak kadrlarda rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Akmeologik kompetentlik — bu shaxsning kasbiy rivojlanish jarayonida eng yuqori cho'qqiga erishish qobiliyati bo'lib, u insonning shaxsiy va kasbiy salohiyatini to'liq amalga oshirishga yordam beradi. Maqolada akmeologik kompetentlikning tarkibiy qismlari va ularni shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bo'lajak pedagog va mutaxassislarining akmeologik yondashuv asosida kasbiy rivojlanishiga qo'shimcha motivatsiya yaratishning ijtimoiy va pedagogik jihatlari batafsil muhokama qilinadi. Akmeologik kompetentlikni rivojlantirish orqali kadrlarning raqobatbardoshligi oshishi, ularning zamonaviy talab va jarayonlarga moslashish qobiliyatlari mustahkamlanishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: akmeologik kompetentlik, kasbiy rivojlanish, bo'lajak kadrlar, pedagogik motivatsiya, ijtimoiy-pedagogik ahamiyat, raqobatbardoshlik, zamonaviy talablar, ta'lim jarayoni.

Икболжон Шарафутдинов Усмонжонович

Ферганский государственный университет

Кафедра прикладной математики и информатики,

Преподаватель

СУЩНОСТЬ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ БУДУЩИХ КАДРОВ

Аннотация: в данной статье анализируется понятие акмеологической компетентности, её сущность и социально-педагогическое значение в развитии будущих кадров. Акмеологическая компетентность — это способность личности достичь наивысших профессиональных вершин, способствующая полной реализации личностного и профессионального потенциала. В статье раскрываются составляющие акмеологической компетентности и механизмы её формирования. Также обсуждаются социальные и педагогические аспекты мотивации профессионального развития будущих педагогов и специалистов на основе акмеологического подхода в образовательном процессе. Подчеркивается, что развитие акмеологической компетентности может повысить конкурентоспособность кадров и их способность адаптироваться к современным требованиям и процессам.

Ключевые слова: акмеологическая компетентность, профессиональное развитие, будущие кадры, педагогическая мотивация, социально-педагогическое значение, конкурентоспособность, современные требования, образовательный процесс.

Iqboljon Sharofutdinov Usmonjonovich

Fergana State University

Department of Applied Mathematics and Informatics, Teacher

THE ESSENCE OF ACMEOLOGICAL COMPETENCE AND ITS SOCIO-PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF FUTURE PERSONNEL

Annotation: this article analyzes the concept of acmeological competence, its essence, and the socio-pedagogical significance in the development of future personnel. Acmeological competence refers to an individual's ability to reach the highest professional peaks, aiding in the full realization of personal and professional potential. The article discusses the components of acmeological competence

and the mechanisms for its formation. It also examines the social and pedagogical aspects of motivating the professional development of future teachers and specialists through an acmeological approach in the educational process. The article emphasizes that the development of acmeological competence can enhance the competitiveness of personnel and improve their ability to adapt to modern demands and processes.

Keywords: acmeological competence, professional development, future personnel, pedagogical motivation, socio-pedagogical significance, competitiveness, modern demands, educational process.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham "pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash" vazifalari alohida maqsad sifatida belgilangan. Bundan kelib chiqqan holda ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillash-tirish asosida akmeologik kompetentligi, kasbiy bilim va ko'nikmalari hamda pedagogik mahorati rivojlangan pedagoglar avlodini tayyorlash vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, bo'lajak pedagoglarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillash-tirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarga ehtiyojni yuzaga chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili.

Akmeologiya- (grekcha akme - cho'qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr ma'nolarini anglatadi)⁷ ilmu - fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayotfaoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarning namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadi.

Akmeologiya tushunchasini ilk bor fanga rus olimi N.A.Ribnikov tomonidan 1928 yilda kiritilgan bo'lib, uning o'zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanish jarayonidir, deb ta'riflagan edi. Lekin tom ma'nodagi jiddiy fan sifatida uning shakllanishiga rus psixologi B.G.Ananev va uning izdoshlari bo'lgan petrburglik olimlar alohida ulush qo'shishgan. Ularning ta'kidlashicha, akmeologiyaning predmeti - odamning ijodiy salohiyati bo'lib, u inson tomonidan o'ziga inoyat etilgan barcha imkoniyatlari va iqtidorini qanday qilib, qanday shart sharoitlarda, qaysi qonuniyatlar ta'sirida ro'yobga chiqarishni kompleks tarzda o'rganadi.

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananev, «insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so'nggi ontogenez, «chetroqda» esa insonning ko'proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo'lishi mumkin», deydi.

«Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» – bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi hilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgarish olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir»⁸.

Tadqiqot metodologiyasi.

Akmeologik kompetentlikni rivojlantirishda bo'lajak pedagoglarning bilimdonligi darajasi masalasi ham o'ta muhim hisoblanadi. Bular quyidagilar:

Ijtimoiy bilimdonlik - dars mobaynida auditoriya bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil yeta olish, yoshlar bilan til toptirish va sog'lom ma'naviy muxitni xosil qila olish qobiliyati;

Uslubiy bilimdonlik - barcha bilimlarini, ko'rgan-kechirganlarni ta'lim oluvchilar tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati;

Kasbiy-siyosiy bilimdonlik - o'z o'quv fanini, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyatini o'zida shakllantirgan bo'lishi kerak.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kompetentligi rivojlanishi uchun pedagogik qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i lozim:

1. Bilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi fanni o'quv kursi xajmidagina yemas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nixoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini xam bajaradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati. O'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon yeta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur xollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab

⁷ Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. М.,1993. – с.220

⁸ Bodalev A.A. Vershina v razvitii vzroslogo cheloveka: xarakteristiki i usloviya dostijeniya. Moskva.: Nauka. 1998. –S. 5.

narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi lozim.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati. O'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruxiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'lik bo'lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchining ruxiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni xam faxmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati. Nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. O'qituvchining nutqi darsda xamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham, uning nutqi xamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati. O'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muxim vazifalarni xal yetishga ruxlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini uyushtirishni nazarda tutadi. Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash xollari ba'zan uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur xollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

6. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

7. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati. O'z xarakterlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy yettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonch bilan bog'liqdir.

8. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. O'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari-hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy yetgan bo'lishi muhimdir.

Tahlillar va natijalar.

Bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish bilan birga unda kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchining individualligi uning o'ziga xosligi, xislatlarining betakrorligi sifatida talqin etiladi. Bo'lajak

o'qituvchining individualligi akmeologik yondashuvning asosiy kategoriyalardan biridir.

Akmeologik yondashuvga ko'ra, «individuallik» murakkab integrativ tuzilma sifatida tushunilgan holda, o'z tarkibiga, biologik, sotsial-psixologik va axloqiy psixologik darajalarni qamrab oladi. Bo'lajak o'qituvchining sanab o'tilgan jihatlari uning hayoti davomida shakllangan bo'lsada, unda talabalik davrini, ta'lim jarayonini ahamiyati yuqori hisoblanadi. Shunday qilib, individuallikni yanada to'laroq tushunish uchun sanab o'tilgan har bir jihatni alohida ko'rib chiqqan ma'qul. Individuallikning biologik asoslari deganda organizmning bioximik, umumiy somatik va neyrodinamik xususiyatlarini tushunamiz. Aytib o'tilgan biologik jihatlar bo'lajak o'qituvchining individual-tipik xususiyatlarini tashkil etgan holda o'z tarkibiga temperament, psixitik jarayonlarning individuallashtirilganligi, layoqatlar, jins va yosh xususiyatlarini qamrab oladi. Individuallikning sotsial-psixologik asoslari esa bo'lajak o'qituvchining xarakter xislatlarini, uning intellektual, irodaviy va emotsional jihatlarining murakkab o'zaro aloqasini, hamda tajriba asosida yotuvchi bilim, ko'nikma va malakalarini ham qamrab oladi. Individuallikning ahloqiy-psixologik jihati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, uning tarkibiga bo'lajak o'qituvchining «MEN konsepsiyasi» (o'zlikni anglash va o'z-o'zini baholash), qadriyatlar va o'zi yashayotgan jamiyatda amal qiluvchi rollar, meyoriy tomonlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Sanab o'tilgan barcha jihatlar o'zaro muvofiqlashib va uyg'unlashgan holda, murakkab tarzda individual uslub va bu asosida bo'lajak o'qituvchining kasiy kompetentligini va shaxs sifatidagi kamolotini belgilab beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik kompetentlik o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda yuqori darajada qo'llay olishida namayon bo'ladi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu insonning turli sohalarda maqsadli va mustaqil faoliyatini tashkil etishidir. Shunday ekan bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirishda motivatsion, ijtimoiy, axborotli-mazmunli, faoliyatli, didaktik omillarga alohida e'tibor qaratish maqsadga maolikdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ananyev, B. G. **Insonni bilish predmeti sifatida.** – Leningrad: LDU nashriyoti, 1968.
2. Ribnikov, N. A. **Akmeologiya: inson taraqqiyotining cho'qqilari haqidagi fan.** – Moskva: "Mysl" nashriyoti, 1928.
3. Shiyan, V. G. **Akmeologiya: nazariya va amaliyot.** – Sankt-Peterburg: Piter, 2002.
4. Bodalev, A. A. **Shaxs va muloqot.** – Moskva: MDU nashriyoti, 1983.
5. Kuznetsov, G. I. **Shaxsning kasbiy rivojlanishining akmeologik asoslari.** – Moskva: Fan, 2009.
6. Xanina, I. A. **Pedagogik akmeologiya: asosiy yondashuvlar va yo'nalishlar.** – Sankt-Peterburg: SPbDU nashriyoti, 2015.

7. Leontyev, A. N. **Faoliyat. Ong. Shaxs.** – Moskva: MDU nashriyoti, 1975.
8. Lukicheva, A. V. **Pedagogik fanlar tizimida akmeologiya.** – Moskva: Oliy maktab, 2010.
9. Drujinina, V. N. **Psixologiya va pedagogikada akmeologik yondashuv.** – Moskva: Pedagogika, 2014.
10. Alekseyev, V. V. **Pedagogning kasbiy mahoratining akmeologiyasi.** – Rostov-na-Donu: Feniks, 2011.
11. Kabanova-Meller, Ye. N. **Psixologiya va pedagogika.** – Moskva: Oliy maktab, 2016.
12. Ahmadova, Z. K. **Akmeologiyaning nazariy asoslari va uning pedagogning kasbiy rivojlanishidagi roli.** – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2018.
13. Muxametzyanova, F. N. **Pedagogik akmeologiya: nazariyadan amaliyotga.** – Qozon: Qozon davlat universiteti nashriyoti, 2007.
14. Shepel, V. M. **Akmeologiya va pedagogik mahorat.** – Moskva: Akademiya, 2000.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy o'g'li
Turan International University o'qituvchisi
e-mail: bekmirzayevmirjalol@gmail.com

12-15 YOSHDAGI GIMNASTIKACHILARNING TEZKOR-KUCH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS MASHQLARDAN FOYFALANISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada 12-15 yoshdagi gimnastikachilarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan va kerakli og'irliklardan foydalanishdagi muammolar haqida bo'lib, unda ushbu muammolarni bartaraf etishga doir nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sport gimnastikasi, jismoniy mashqlar, kerakli og'irliklar, umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari, maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari, jismoniy sifatlar, kuch, tezkorlik.

Бекмирзаев Мирджалол Хусанбой угли
Преподаватель Международного Университета Туран

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ БЫСТРО-СИЛОВЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ГИМНАСТОВ 12-15 ЛЕТ

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы использования специальных упражнений и необходимых отягощений в развитии быстро-силовых способностей гимнастов 12-15 лет, содержатся теоретические сведения и практические рекомендации по решению этих проблем.

Ключевые слова: Спортивная гимнастика, физические упражнения, средства общefизической подготовки, средства специальной физической подготовки, физические качества, сила, быстрота.

Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy ugli
Teacher at Turan International University

PROBLEMS IN THE USE OF SPECIAL EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF QUICK-STRENGTH ABILITIES OF GYMNASTS AGED 12-15

Annotation: This article is about the problems of using special exercises and necessary weights in the development of quick-strength abilities of 12-15-year-old gymnasts, and theoretical information and practical recommendations for eliminating these problems are described.

Key words: Sports gymnastics, physical exercises, general physical training tools, special physical training tools, physical qualities, strength, quickness.

Kirish.

Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish maxsus jismoniy tayyorgarliksiz amalga oshmaydi. Jismoniy tarbiyalash jarayoni kuch mashqlaridan boshlanishi kerak, chunki kuch qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlantirmasdan biron bir harakat faoliyatini bajarib bo'lmaydi (Menxin Yu.V., 1989). Kuch va tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish har qanday sport ixtisosligi, shu jumladan gimnastika sporti uchun muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda sport gimnastikasida kuch qobiliyatlarini namoyon etishni talab qiluvchi elementlarning texnik ahamiyati ortib bormoqda, ayniqsa

halqalar, qo'shpoya va dastakli otlardagi tebranishlarida bajariladigan mashqlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, har qanday elementlar hatto eng oddiy muvozanat saqlash holatida ham gimnastika mushak ishining barcha usullaridan foydalanadi - tegishli shaklni olishda yengish, ushlab turishda izometrik, izotonik harakatlarni bajarishda tezkor-kuch muhim ahamiyatga ega.

Maqsad va vazifalar. Yosh gimnastikachilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan maxsus mashqlarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga mosligini aniqlash va kerakli tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat bo'lib, ular;

gimnastikachilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan maxsus mashqlarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga mosligini aniqlash;

gimnastikachilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan maxsus mashqlarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

1-jadval

T/r	Savollar mazmuni	“Ha” deb berilgan javoblar soni	Javoblar % da	“Yo‘q” deb javob berganlar soni	Javoblar % da
1	Mashg'ulotlar jarayonida og'irliklardan foydalanasizmi?	11	40.7 %	16	59.3 %
2	Qo'l mushaklari uchun og'irliklardan foydalanasizmi?	8	29.6 %	19	70.4 %
3	Bel mushaklari uchun og'irliklardan foydalanasizmi?	10	37 %	17	63 %
4	Oyoq mushaklari uchun og'irliklardan foydalanasizmi?	13	48.1 %	14	51.9 %

Tadqiqotning usullari ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovi va matematik statistika usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotni tashkil etilishi. Mazkur tadqiqot ishi davomida Toshkent viloyatining gimnatikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablarida sport gimnastikasi bo'yicha o'quv mashg'lot olib borayotgan 27 nafar trenerlardan anketa so'rovnoma o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish.

Sport mashg'ulotlari sohasidagi yetakchi olimlar asarlarida malakali sportchilarni maxsus kuch va tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish jarayoniga katta ahamiyat qaratilgan. So'nggi yillarda mazkur muammo tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Kuch va tezlik kuch tayyorgarligiga bag'ishlangan eng ko'p ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda yakkakurash sport turlarida va sport o'ylarini turlarida o'tkazilgan

Tezkor-kuch yo'nalishdagi vositalarni tanlashning asosiy kriteriyasi, u yoki bu texnik xarakterlarga mashqlarning ichki va tashqi tuzilishining asosiy o'lchamlari mos kelishi hisoblanadi. Chunki, maxsus ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tezkor-kuch tayyorgarligida vosita va uslublarni takomillashtirishga katta ahamiyat berilgan. Ammo tezkor-kuch sifatleri kuch tayyorgarligi tushunchasi, sport amaliyotida sportchilarning turli xil kuch ko'rinishlaridan biri bo'lib kelgan.

Yuqoridagi muammoning amaliyotdagi joriy holatini o'rganish maqsadida, gimnastika mashg'ulotlarida og'irliklardan foydalanish tajribasini aniqlash bo'yicha gimnastika sport turi murabbiylari bilan so'rovnoma tashkil etildi.

So'rovnoma 2 qismga bo'lingan bo'lib, birinchi qismi murabbiylarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda og'irliklardan foydalanishga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga qaratilgan. So'rovnomaning

ikkinchi qismi esa murabbiylarning og'irliklardan foydalanish jarayonida qo'llayotgan vositalari, usullari va shakllarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Quyida so'rovnomaning birinchi qismi murabbiylarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda og'irliklardan foydalanishga bo'lgan munosabatlarini aniqlash bo'yicha berilgan savollarning muhokamasini e'tiboringizga havola qilamiz.

Mazkur o'tkazilgan anketa so'rovnomanadan shu narsa ma'lum bo'ldiki gimnatikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablarida sport gimnastikasi bo'yicha o'quv mashg'lot olib borayotgan 27 nafar trenerlardan “Mashg'ulotlar jarayonida og'irliklardan foydalanasizmi?” deb nomlangan 1-savolga jami respondentlarning 62,2 % yo'q javobini berdi. Bu yosh sportchilarni jismoniy imkoniyatlariga murabbiylar tomonidan beriladigan og'irliklarning mos kelmasligi bilan bog'liq salbiy oqibatlar natijasi bo'lishi mumkin. Buni og'irlik vositalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari ochib berilmaganligi va murabbiylarning ushbu yo'nalishdagi tajribalarining yetishmasligi bilan ko'rish mumkin.


Navbatdagi savollar turli tana qismlari uchun og'irliklardan foydalanishda murabbiylarning yondashuvlarini aniqlash va shu asosida turli mushak guruhlarini uchun mashqlar berish

So'rovnomanadan o'rin olgan ikkinchi savolimiz “Qo'l mushaklari uchun og'irliklardan foydalanasizmi?” degan mazmunda bo'lib unga 77,7 % respondent yo'q degan javobni belgilaganlar. Uchinchi “Bel mushaklari uchun og'irliklardan foydalanasizmi?” degan savolga 60 % trenerlar yo'q degan javobni tanlaganlar. So'nggi savolimiz “Oyoq mushaklari uchun og'irliklardan foydalanasizmi?” degan mazmunda bo'lib, unga 51,1 % respondent yo'q degan javob berdi.

Bundan ko'rinib turibdiki mazkur sifatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan vositalarni amaliy

ahamiyati murabbiylar tomonidan chuqur anglab yetilmagan.

Ushbu natijalar yanada tushunarli ko'rinishi uchun 1-diagrammada etiboringizga havola qilamiz.



Yosh gimnastikachilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilayotgan maxsus mashqlarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga mosligini aniqlashda olingan so'rovnoma natijalari n=27 1-diagramma

2-jadval

1.	Temirli og'irliklardan foydalanasizmi yoki qumli og'irliklardan foydalanasizmi	Temirli	62,9	Qumli	37,1
2.	Nima sababdan og'irliklardan foydalanmaysiz?	- qanday qo'llanish qoidasini bilmayman			66,6
		- og'irliklardan foydalanish zarur deb hisoblamayman			33,4
3.	Qaysi mashqlarni bajarishda siz og'irliklardan foydalanasiz ?	- tebranish mashqlarida			33,3
		- sakrash mashqlarida			14,8
		- muozanat saqlash mashqlarida			25,9
		- kuch mashqlarida			26
4.	Tayyorgarlikni qaysi davrlarida og'irliklardan ko'proq foydalanasiz?	Tayyorlov davrida			60
		Musobaqa oldi			30
		Musobaqa davrida			0
		Musobaqadan keyingi (tiklanish) davrida			10

So'rovnomaning ikkinchi qismida murabbiylarning og'irliklardan foydalanish jarayonida qo'llayotgan vositalari, usullari va shakllarini aniqlashga qaratilgan savollar o'rin olgan. Quyida ushbu qism natijalari bilan tanishib o'tamiz.

So'rovnomaning ikkinchi qismidan o'rin olgan birinchi "Temirli og'irliklardan foydalanasizmi yoki qumli og'irliklardan foydalanasizmi?" deb nomlangan savolga 62,9 % respondent "temirli o'g'irliklardan", 37,1 %

respondent "qumli o'g'irliklardan" degan javob variantlarini tanladilar.

"Nima sababdan o'g'irliklardan foydalanmaysiz?" degan navbatdagi savolga respondentlarning 66,6 foizi "qanday qo'llanish qoidasini bilmayman", 33,4 foizi "og'irliklardan foydalanish zarur deb hisoblamayman" javoblarni belgiladi.

Navbatdagi "Qanday turdagi mashqlarni bajarishda siz og'irliklardan foydalanasiz?" deb nomlangan savolga 33,3 % "tebranish mashqlarida", 14,8 % "sakrash

mashqlarida”, 25,9 % “muvozanat saqlash mashqlarida”, 26 % “kuch mashqlarida” javoblar berilgan.

“Tayyorgarlikni qaysi davrlarida og'irliklardan ko'proq foydalanasiz?” deb berilgan savolga javob variantlarini quyidagicha tanladilar: 60 % “Tayorlov davrida”, 30 % “Musobaqa oldi davrida”, 0 % “Musobaqa davrida”, 10 % “Musobaqadan keyingi (tiklanish) davrida”.

Xulosa.

Kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda mutaxassislar qorin bo'shlig'i mushaklarini, orqa mushaklarini, qo'l mushaklarini, oyoq mushaklarini kuchaytirish, “ko'p sakrash” tezligini kuchaytirish qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlardan foydalanadilar; gimnastika skameykasidan sakrash; foydalanmasdan va mushakka yo'naltirilgan og'irliklardan foydalangan holda, ular faqat qo'llar yoki oyoqlarga birlashtirilgan, shuningdek, ikkala qo'l va oyoqdagi og'irliklar bilan ham bog'liqdir. Taklif etilayotgan metodikaning eksperimental sinovlari shuni ko'rsatdiki, gimnastikachilarning tirsak va tizza bo'g'imlari markazidan 3-5 sm masofada joylashgan va har bir bo'g'in massasining 10% dan oshmaydigan mushakka yo'naltirilgan og'irliklardan tizimli foydalanish ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- kuch qobiliyatlarini rivojlantirish;
- musobaqa elementlarni bajarish sifati;

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Менхин, Ю. В. Физическая подготовка в гимнастике / Ю. В. Менхин. - М. : Физкультура и спорт, 1989. - 224 с. : ил.
2. Гавердовский Ю.К. Обучение спортивным упражнениям. Биомеханика. Методология. Дидактика. М.: Советский спорт, 2008. - 912 с.
3. Umarov M.N., Eshtayev A.K. Gimnastika dasturi talablari va ularni o'qish yili bo'yicha taqsimlash texnologiyasi. O'quv va uslubiy qo'llanma. O'zGIFK nashriyot-matbaa bo'limi, T.: 2009. -124 b.
4. Эштаев А.К. «Структура и распределение средств тренировки i гимнастов 6-9 лет на начальном этапе подготовки» Дисс... канд. пед. наук.Т.: УзГИФК, 2007. -187 с.
5. Умаров М.Н., Хасанова Г.М. Технология оценки специальной физической подготовленности юных гимнасток //«Фан спорта». - Ташкент, 2010. - No 3. - С. 21-24.
6. Умаров д.х. Ёш гимнастикачилар жисмоний сифатларини тайёргарлик босқичида ривожлантириш технологияси. Педагогик, фан, номзоди.- Т.: УзГИФК, 2007. -187 б.

- musobaqa kombinatsiyalarni bajarish sifataridir.

Mushakka yo'naltirilgan og'irliklardan foydalanish gimnastikaning o'quv-mashg'ulotlari jarayonini davriylashtirish bilan bog'liq bo'lishi kerak; tayyorgarlik davrida qo'l va oyoqlarda og'irliklar ishlatilgan; musobaqadan oldingi davrda og'irliklar faqat oyoqlarda ishlatilgan; musobaqa davrida og'irliklar qo'llanilmaydi. Ishlab chiqilgan metodika nafaqat gimnastikada, balki sport akrobatikasida, aerobik va badiiy gimnastikada ham qo'llanilishi mumkin.

Mazkur o'tkazilgan tadqiqot natijasining xulosasi sifatida ushbu muammoni hal etishda quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tdik.

Sport mashg'uloti jarayonida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda og'irliklarni qo'llash qoidalari bilan murabiylar va bolalarni tanishtirish;

Og'irliklarni qo'llashda sportchilarning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanish darajasini inobatga olish;

Og'irliklarni qo'llashda sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini inobatga olish kabi jihatlarga etibor qaratilgan tartibda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etilishi sportchilarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishda kutilgan natijalarni beradi deb hisoblaymiz.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Kakhorova Mukhabat Askaraliyevna

Teacher of Uzbek and foreign languages department of
Tashkent Medical Academy
muhab.at@mail.ru

THE INTEGRATION OF TEACHING STRATEGIES IN THE CONTEXT OF HIGHER EDUCATION

Rangni idrok etish bolaga katta emotsional ta'sir etadi. Shuning uchun har doim uni alohida ajratib ko'rsatish kerak. Bolalar predmetning hamma xususiyatlarini ko'rib chiqib bo'lganlaridan keyingina ularning diqqatini rangga qaratish kerak. Bolalar bilan tekshirishlarni o'tkazish metodikasi ko'pgina shartlar bilan bog'liq. Birinchi bor tanishuv har doim yuzaki bo'ladi. U predmet va uni o'rab turgan muhit haqida umumiy tasavvurlarini hosil qiladi. Birinchi bor tanishuvda tor maqsadni qo'yish mumkin emas. Idrok etish keng bo'lishi, turli munosabat va bog'liqlikni kiritish kerak. Dastlabki tekshiruvlar ba'zida juda yorqin, lekin tasvirlash uchun yetarli bo'lmagan umumiy tasavvurlarni hosil qiladilar. Takroriy tekshiruvlar natijasida idrok etish yetarlicha yorqin, aniq bo'lishi mumkin. Takrorlanish idrok etishni, esda olib qolishni va esga tushirishni murakkablashtiradi. Idrok etishda eng kerakli bo'lib qolgan estetik hislarning kiritilishi ham muhim hisoblanadi. Chunki estetik hisning rivojlanishi ham mashq qilishni talab qiladi. Masalan, daraxtlarning tasviridan oldin bolalar daraxtlar, gullar, o'tlarni ko'rishlari, ulardan zavq olishlari kerak. Bolalar diqqatini soya joylarga va daraxt barglarida quyosh nurlarining o'yiniga qaratish kerak. Bolalar oldida ancha tor maqsad qo'yilgan vaqtda, qayta kelish vaqtida daraxtlarning tuzilishi bilan tanishtirish, ularni ko'zdan kechirayotganda qanchalik chiroyliligini, yashil fonda uning oppoq asosi yaqqol ajrab turganiga qaratish kerak. Shu vaqtda she'riy misralardan misollar keltirib o'tish ham yaxshi natijalar beradi. Idrok etishni umumlashtirishda unga bolalarning turli analizatorlar bilan birgalikdagi faoliyatlarini kiritish katta ahamiyatga ega, gullagan qirni idrok etishda uzoqdan uni ko'rish yetarli emas. Bolalar qirda yugurishlari, gullar uzishlari, ularni hidlab ko'rishlari, guldasta yasashlari, ashula aytishlari lozim. Bularning hammasi mashg'ulot davomida hisobga olinadi. Kuzatishlarni o'tishda tarbiyachining so'zi va bolalarning roli katta ahamiyatga ega. Har qanday tushuntirish, savol, ko'rsatma, bolani fikrlashga majbur qilish kerak. Idrok etishning aniqlashuviga, uning emotsionalligiga estetik fikrlashni kengaytiradigan taqqoslashlar yordam beradigan badiiy obrazlardan foydalanish muhimdir. Katta guruh bolalariga tarbiyachi kuzatilayotgan obyektga o'zlari xarakteristika berishlariga imkon berishi kerak.

Tahlillar va natijalar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga atrofda hayotni va predmetlarni kuzatish vaqtida hayajon vujudga keladi. Bu hayajonda endi yuzaga kelayotgan estetik tuyg'u rivojlanib boradi. Bolalardagi estetik tuyg'ular yosh ulg'aygan sari rivojlanib boradi. Bevosita estetik tuyg'u chiroyli predmetni idrok etishda yuzaga keladi va turli tashkiliy elementlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunday usul bilan rang hissini estetik tuyg'uning chiroyli ranglar

birlashmasini idrok etishdan kelib chiqishini: to'q osmonni yorqin yulduzlar, to'q palto va yorqin qalpoqchani ajratish mumkin. Ritm hissi predmetning ritmik kelishganligi, qismlarning ritmik joylashuvini, masalan, daraxtning shoxlarini idrok etilayotgan vaqtda kelib chiqadi. Proporsiya hissi, konstruktiv butunlik turli qurilishlarni idrok etish orqali kelib chiqadi. Bola qanchalik atrofni bilib idrok eta olsa, uning estetik tuyg'usi shunchalik chuqur, murakkab bo'lib boradi. Asta-sekin bolalar elementar estetik fikrlash qobiliyatini egallab boradilar. Ularda estetik tuyg'ularning rivojlanishi predmetning va uning xususiyatlarini estetik tomondan baholay olishlariga olib keladi. Sekinlik bilan bolalarda estetik did rivojlanib boradi. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni ham rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muxim o'rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi - bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etish va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalash mumkin.

Tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish bolalarni ijodiy qobiliyatlarini va badiiy-estetik didini o'stirishda va har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada faoliyatni ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlash yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlaganishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatleri, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

Xulosa.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy ishi, applikasiya bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini

bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy hal etish yo'llarini izlab topishga yo'naltiriladi. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Комарова Т.С. Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию. М.: Просвещение, 1991.
2. Сақулина Н.П. Рисунок, аппликация, работа с глиной в детском саду. М.: Просвещение, 1993
3. O.Jamollidinova. «Katta bog'cha bolalarini xalq hunarmandchiligiga o'rgatish bo'yicha ish dasturi» T.: 1996.
4. Hasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: «Ilm ziyo». Hasanboyeva O.U. va boshq. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: «Fan va texnologiya», 2010
5. M.Sh.Nurmatova, Sh.T.Hasanova "Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi" Toshkent-2012.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ismatov Pulatjon Abdumannobovich

ADU Sport va sa'nat fakulteti
Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasida dotsenti
E-mail: pulatjoni@gmail.com

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA QIZLAR UCHUN JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA STOL TENNISI O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya darslarida qizlarni stol tennisi o'ynashga tez o'rgatish uchun metodika taqdim etilgan. Pedagogik eksperimentda Jismoniy madaniyat yo'nalishidagi 1-kurs talabalari ishtirok etgan: 60 nafar ishtirokchi eksperimental guruhda va 40 nafar ishtirokchi nazorat guruhida. Oliy ta'lim muassasasida qizlarni stol tennisiga o'rgatish uchun eksperimental metodika quyidagi pedagogik algoritmni o'z ichiga olgan: bir butun holda ko'rsatish – qizlarning juftlikda stol tennisi o'yinini sinab ko'rish – asosiy texnik xatolarni baholash – jiddiy texnik xatolarni tuzatish – juftlikda qayta o'yin o'tkazish, jiddiy texnik xatolarni tuzatish – raqobat shaklida texnik elementlarni mustahkamlash.

Kalit so'zlar: stol tennisi, sport mash'g'ulotlari, o'qituvchi-trener, kasbiy-pedagogik faoliyat.

Исмагов Пулатжон Абдуманабович

АГУ Факультет спорта и искусства
Доцент межфакультетской кафедры физического воспитания и спорта
E-mail: pulatjoni@gmail.com

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИГРЕ В НАСТОЛЬНЫЙ ТЕННИС В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕВУШЕК В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье представлена методика быстрого обучения девочек игре в настольный теннис на уроках физкультуры в высшем учебном заведении. В педагогическом эксперименте приняли участие студенты 1 курса факультета физической культуры: 60 участников экспериментальной группы и 40 участников контрольной группы. Экспериментальная методика обучения девочек игре в настольный теннис в высшем учебном заведении включала следующий педагогический алгоритм: демонстрация в целом - проба девочек в игре в настольный теннис в парах - оценка основных технических ошибок - исправление серьезных технических ошибок - повторная игра в парах, исправление серьезных технических ошибок – усиление технических элементов в форме соревнований.

Ключевые слова: настольный теннис, спортивная подготовка, педагог-тренер, профессионально-педагогическая деятельность.

Ismatov Pulatjon Abdumannobovich

ASU Faculty of Sports and Art
Associate professor of interfaculty physical education and sports department
E-mail: pulatjoni@gmail.com

METHODOLOGY TEACHING OF PLAYING TABLE TENNIS IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION FOR GIRLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation. This article presents a methodology for quickly teaching girls to play table tennis in physical education classes at a higher educational institution. 1st-year students of Physical Culture took part in the pedagogical experiment: 60 participants in the experimental group and 40 participants in the control group. The experimental methodology for teaching girls to table tennis in a higher educational institution included the following pedagogical algorithm: demonstration as a whole - girls trying the game of table tennis in pairs - assessment of basic technical errors - serious technical errors correction - rematch in pairs, correction of serious technical errors - strengthening of technical elements in the form of competition.

Key words: table tennis, sports training, teacher-trainer, professional-pedagogical activity.

Kirish.

Jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligi, o'qituvchining talabalar orasida ma'lum bir sport turi bo'yicha ko'nikmalarni qanchalik tez shakllantirishi bilan bog'liq. Talabalar turli xil jismoniy mashqlarni bajarish uchun texnik ko'nikmalarga ega bo'lganlarida, ular faol va motivatsiyalidir, bu esa "Jismoniy madaniyat" fanining asosiy vazifalarini – talabalar jismoniy madaniyatini shakllantirish va turli sport turlariga bo'lgan motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy tarbiyasi jarayoni nafaqat dastur mazmunini, balki o'qitish usullarini ham yangilashni talab qiladi. Pedagog-innovatorlar turli sport turlarida talabalarning jismoniy tarbiyasi mazmuniga faol ravishda yangi g'oyalarni qo'shmoqdalar. Biroq, pedagoglarning amaliy harakatlari bilan birga talabalarni, ayniqsa qizlarni mashhur sport turlarida o'qitishga moslashtirilgan metodikalar kam ishlab chiqilmoqda. 10-15 yil oldin oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida juda ommalashgan, ammo hozirgi kunda talabalarning, ayniqsa qizlarning, jismoniy tarbiyada og'irlik bilan o'zlashtirayapti - bu stol tennis. Buning sababi shundaki, maktablarda ushbu sport turi amaliyotda qo'llanilmaydi va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan talabalarni stol tennisiga o'rgatish bo'yicha ishlatilayotgan metodikalar eskirgan va yangilanmayapti. Natijada professional-amaliy jismoniy tayyorgarlikni saqlab qolishga yordam beradigan demokratik va umumiy sport turi universitetda qiyinchilik bilan o'zlashtirilmoqda, ayniqsa talaba qizlar uchun. Shunday qilib, jismoniy tarbiya jarayonida talaba qizlarni stol tennisiga tez o'rgatish metodikasini ishlab chiqish pedagogik muammoni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi - universitet talabalari uchun stol tennis o'ynashni tezlashtirilgan o'quv metodikasini nazariy jihatdan asoslash va ishlab chiqish hamda uning samaradorligini pedagogik tajriba orqali tekshirishdir.

Tadqiqot metodikasi va tashkil etilishi. Pedagogik tajribada birinchi kurs iqtisodiy yo'nalishdagi talabalar ishtirok etdi: tajriba guruhida 60 kishi va nazorat guruhida 40 kishi. Tajriba 2014 yildan 2017 yilgacha o'tkazildi. Tajribaviy ishning oldingi bosqichida universitet talabalariga stol tennis o'ynashni tezlashtirilgan o'rgatish metodikasi ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili.

O'z ishlari nazariyasi sifatida V.Shlager, L.K.Serova, V.Yu.Jdanov, Alisa Kolotaeva kabi bir qator olimlar tomonidan yosh stol tennischilarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini shakllantirish, texnik-taktik maxoratlarini oshirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va joriy etish uslubiyatlari ishlab chiqilgan.

Abdalimov O.X., Azamatova N.I. "Yosh tennischilarni tayyorlash texnologiyasi", Bezverxov V.P. Biblioteka trenera. Tennis, "Fan va texnologiyalar

markaziy bosmaxonasi", Pulatov A.A., Pulatov Sh.A., Abidov S.K., Pulatov F.A. 2002. "Tennis nazariyasiva uslubiyati" va boshqalar tomonidan yaratilgan fundamental adabiyotlar asos hisoblanadi.

Ye.G.Babushkin, Ye.P.Ilin V.B.Antipin, A.F.Karavaev, L.V.Lebedeva, T.S.Chaxlova, O.G.Filimonova, T.S.Suslikov, L.G.Ulyayeva, L.P.Shumilin, E.S.Ozolin, A.V.Kanatov va boshqalar esa sport motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Keng ommalashib borayotgan stol tennis sport turi bo'yicha yuqori malakali sportchilar tayyorlash nazariyasi va uslubiyati, stol tennisda qo'llaniladigan texnik harakatlarning ijro etilishi va ularni o'rgatish ketma-ketligi, mashg'ulot jarayonlaridagi mashqlar klassifikatsiyasining ilmiy-nazariy va umumiy uslubiy texnologiyasi asoslari tizimli tartibda yaratilmagan. Bu borada keng qamrovli ilmiy asoslangan o'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar mavjud emas. Mazkur holat mavzu bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Natijalar va tahlillar.

Umrini tennisga bag'ishlagan tadqiqotchi olimlar, amaliyotchi trenerlar, sportchilar, hatto ushbu sport turi bilan "do'stlashgan" shifokorlar, rahbarlar, tadbirkorlar va oddiy ixlosmand insonlar tennis bilan muntazam, me'yorli va maqsadli shug'ullanish qomatni ham, sog'liqni ham, ish qobiliyatini ham, ma'naviyat-madaniyat va axloq-odobni ham va albatta sport natijasini ham yuksak oqibatiga olib kelishiga ishonch bildirilishi. Darhaqiqat, tennis bilan muntazam va jiddiy shug'ullanish asosida ijobiy oqibatlarga (sog'liq, jismoniy va ruhiy faollikni shakllanishi, yuksak sport natijalariga) erishish ko'p yillik sport trenirovkasini o'qituvchi-trener tomonidan to'g'ri tashkil qilish va boshqarish san'atiga bog'liqdir.

Jismoniy tarbiya va xususan tennis bo'yicha tayyorlanadigan o'qituvchi-trenemning modeli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yo'nalishiga mo'ljallangan Davlat ta'lim standarti va namunaviy dastur talablari bilan belgilanadi.

Stol tennis bo'yicha oliy ma'lumotga ega o'qituvchi-trenemning kasbiy-pedagogik faoliyati quyidagi ta'lim va sport muassasalarida amalga oshirilishi mumkin:

- maktabgacha tarbiya muassasalari;
- umumta'lim maktablari;
- o'rta maxsus ta'lim muassasalari (Akademik litsey, Kasbhunar kolleji);
- olimpiya zaxiralari kollejlari;
- Bolalar va o'smirlar sport maktablari;
- Bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari maktablari;
- oliy sport mahorati maktablari;
- sport klublari;
- ko'ngilli sport jamiyatlari;
- terma jamoalar;
- xususiy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport markazlari;

- oromgohlar va sog'lomlashtiruvchi maskanlar.

Stol tennis bo'yicha o'qituvchi-trener amaldagi o'quv rejasida qayd etilgan fundamental, maxsus va ixtisoslik fanlari bo'yicha belgilangan nazariy bilim, kasbiy-pedagogik ko'nikma va malakalami o'zlashtirgan bo'lishi, jismoniy tarbiya va sportga oid hamda aloqador huquqiy, me'yoriy va ma'muriy hujjatlar mohiyatini bilishi va ularga amal qilishi, ommaviy sport mashg'ulotlarini o'tkazish, sport zaxiralari va yuqori malakali sportchilar tayyorlash tajribasini o'rganib borishi darkor.

Shaxs sifatida shakllangan, yuksak ma'naviy va madaniy xislatlarga ega, aqlan teran, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida jo qilgan, murakkab vaziyatlarda tashabbus va mas'uliyatni o'ziga olishga qodir va keng dunyoqarashga ega inson bo'lib yetishishi talab qilinadi.

Stol tennis bo'yicha o'qituvchi-trenerga qo'yiladigan malakaviy talablar uning kasbiy-pedagogik faoliyatiga xos turli yo'nalishli ko'nikmalar bilan belgilanadi: boshqaruvchilik, loyihalash, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, gnostik, targ'ibot-tashviqot, tadqiqotchilik, ixtirochilik.

Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun stol tennis o'yinini o'rganish bo'yicha eksperimental metodika quyidagi pedagogik algoritmnini o'z ichiga oldi: to'liq namoyish – talabalarning juftlikda stol tennisini o'ynashga urinishlari – talabalarning asosiy texnik xatolarini baholash – jiddiy texnik xatolarni tuzatish – juftlikda takroriy o'yin, jiddiy texnik xatolarni tuzatish – raqobat shaklida texnik elementlarni mustahkamlash.

Trenerning boshqaruvchilik mahorati, uni guruh yoki sport jamoasiga ustoz sifatida rahbarlik qilish, tayyorgarlik mashg'ulot, musobaqa jarayonlarini boshqarish san'ati bilan ifodalanadi.

Trenerning loyihalash ko'nikmasi o'z ichiga ko'p yillik sport trenirovkasi tizimida yuqori malakali va sport zaxiralarni tayyorlash, yillik tayyorgarlik sikli (makrotsikl), mezotsikl va mikrotsikllarga mo'ljallangan mashg'ulotlar loyi-hasini ishlab chiqish, ommaviy tennis tadbirlarini rejalashtirish hamda sportchilarni ertalabki gimnastika va jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlar majmualarini mustaqil rejalashtirishga o'rgatish kabi masalalarni kiritadi.

Konstruktiv ko'nikma shug'ullanuvchilarni tennisga oid va unga aloqador bilimlar bilan qurollantirish, mashqlarning murakkabligi va organizmga ta'sir etish xususiyati bo'yicha ularni tanlashga o'rgatish, mehnat, ta'lim olish, ovqatlanish, uhlash va dam olish jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, sportchilarni mashg'ulot va musobaqa jarayonlarida mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish muammolarini o'z ichiga oladi.

Tashkilotchilik qobiliyati shug'ullanuvchilarning ko'pqirrali va ko'p yo'nalishli faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish jarayonlarini maqsadli amalga oshirish kabi chora-tadbirlar bilan ifodalanadi.

Kommunikativ ko'nikma - bu trenerda sportchilar, otaonalar, turli toifa va mansabga ega xodimlar, jamoat tashkilotlari bilan to'g'ri munosabat o'rnatish masalalari bilan izohlanadi.

Gnostik ko'nikma tennisga oid turli yosh va malakali tennischilar mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatiga xos bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy va uslubiy adabiyotlardan foydalanish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, o'z tajribasi va ilg'or tajribalar mohiyatini tahlil qilish masalalarini o'z ichiga oladi.

Targ'ibot-tashviqot qilish san'ati har bir o'qituvchi-trenerda shakllangan bo'lishi lozim. U o'z sport turining ustuvorligi, ijobiy xususiyatlari, uni xalqaro sport hamjamiyati oldidagi o'limpiya tizimidagi mavqei va an'alarini targ'ibot qilish, tennisning ommaviyligini yanada kengaytirish choralarini ko'rishi lozim.

Xulosa.

O'qituvchi-trenerda ixtirochilik qobiliyati bo'lsagina u yangi, samarali mashqlar, uslublar, pedagogik texnologiyalarni yaratishi va ularni ustalik bilan qo'llash natijasida iste'dodli sportchilarni tayyorlash qudratiga ega bo'ladi.

O'qituvchi-trener faoliyatiga xos ushbu ko'nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan tashqari talabalar ta'lim jarayonida tanishtiruv amaliyoti, o'qituvchilik va trenerlik kasbi bo'yicha malakaviy amaliyotlar talablarini bajarishi, tanlangan mavzu bo'yicha bitiruv malakaviy ish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va IV bosqichda o'z malakaviy ishlarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish o'quv rejasida belgilangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, stol tennisini tez o'rganish metodikasidan foydalanish qizlarni o'qitish vaqtini ikki baravar kamaytirdi. Qizlarda sport bilan shug'ullanishga barqaror motivatsiya shakllandi.

- Tez o'qitish metodikasining stol tennisini o'ynashda qo'llanilishi talabalarning o'qish vaqtini ikki baravar kamaytirdi.

- Talabalarda sport bilan shug'ullanishga barqaror motivatsiya shakllandi.

- Olingan ko'nikmalarni talabalarning kelajakdagi professional va ijtimoiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli qo'llashlari mumkin.

- Tajribali tez o'qitish metodikasini boshqa oliy ta'lim muassasalariga tavsiya etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Пономарев В.В. Педагогическая технология оценки формирования общих физкультурных компетенций у учащихся старших классов / В.В. Пономарев, Д.С. Приходов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2015. – № 3. – С. 14-16.

2. Пономарев В.В. Интегративная методика формирования готовности студенток вуза к выполнению базовых упражнений общей физической подготовленности / В.В. Пономарев, О.В. Булгакова, Т.В. Брюховских, и др. // Теория и практика физ. культуры. – 2015. – № 1. – С. 6-8.

3. Пономарев В.В. Формирование готовности студентов к общественной физкультурно-спортивной деятельности: теоретические и практические основы: монография [Текст] / В.В. Пономарев, И.В. Ретюнский. – Красноярск: СибГТУ, 2015. – 190 с.

4. Pulatov Sh.A. Yosh tennischilarda zarba berish aniqligini maxsus va noan'naviy mashqlar yordamida shakllantirish samaradorligi. // Fan sportga, 2005, №4, B.3-7.

5. Сейтхалилов Э.А. Педагогические основы оздоровительной направленности учебно-воспитательного процесса в общеразвивательных школах Узбекистана.: Автореф. дис.... д-ра пед. наук. - Т., 2000. - 60 с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası katta o'qituvchisi PhD
marifatxonjabborova137@gmail.com

UDK: 37.091.3

BOLALAR BILAN TA'LIM JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN HAMKORLIK ISHINING AHAMIYATI VA MAZMUNI

Annotatsiya: O'z kasbi boyicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun har bir tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagog uchun ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagog bola shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, ta'lim va tarbiya jarayonini hamkorlikda boshqaradi. Hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan ishlar tarbiyalanuvchilar uchun dolzarb bo'lishi, ularning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga mos bo'lishi lozim.

Kalit so'zlar: pedagogik texnika, mantiq, pedagogik takt, pedagogik texnologiya, mutafakkir, kasb mahorati.

Жабборова Марифат Кодиралиевна

Преподаватель Ферганского
государственного университета, PhD

ЗНАЧЕНИЕ И СОДЕРЖАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ С ДЕТЬМИ

Аннотация: Чтобы успешно работать по своей профессии, каждый педагог должен обладать педагогическими навыками. Для учителя творчество всегда будет его партнером. Педагог формирует личность ребенка, принимает самостоятельные решения в непредвиденных ситуациях, решает педагогические задачи, совместно управляет образовательным процессом. Для того чтобы сотрудничество было налажено, деятельность, которую следует организовать в коллективе, должна быть актуальной для учащихся, соответствовать их возрастным особенностям и интересам.

Ключевые слова: педагогическая техника, логика, педагогический такт, педагогическая технология, мыслитель, профессиональные навыки.

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Teacher of Fergana State University, PhD

THE IMPORTANCE AND CONTENT OF COOPERATIVE WORK IN THE EDUCATIONAL PROCESS WITH CHILDREN

Annotation: To work successfully in their profession, every teacher must have pedagogical skills. For a teacher, creativity will always be his partner. The teacher forms the child's personality, makes independent decisions in unforeseen situations, solves pedagogical problems, and jointly manages the educational process. In order for cooperation to be established, the activities that should be organized in the team must be relevant for students, correspond to their age characteristics and interests.

Keywords: pedagogical technique, logic, pedagogical tact, pedagogical technology, thinker, professional skills.

Kirish.

Hozirgi kunda jamiyatning maktabgacha ta'lim oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi tarbiyachilarga bog'liqdir. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tarbiyachisi qator vazifalarni bajaradi. Tarbiyachi - guruhlardagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. Shuningdek,

jamiyatning tarbiyachi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashni, milliy uyg'onish mafkurasini hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi;

- bolalarni mustaqillik g'oyalari sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani, tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh va pedagogik-psixologiya, pedagogika, psixologiya, yoshlar fiziologiyasi va gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;

- o'zi ta'lim-tarbiya beradigan fan bo'yicha mustaqil bilimga ega bo'lib, o'z kasbi sohasi bo'yicha jahonda erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

- o'z ishiga ijodiy yondashishi;

- pedagogik texnika, mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari va pedagogik taktga ega bo'lishi;

- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi kabi talablarga to'la javob bera olishga intilishi lozim va shart.

O'z kasbi boyicha muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijalarga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishigina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Pedagog bola shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, ta'lim va tarbiya jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasida ijodkorlik tub mohiyati ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

Adabiyotlar tahlili.

Bolalar bilan o'quv jarayonida olib boriladigan ta'lim va tarbiyaviy masalaga erishmoq uchun tarbiyachi ular bilan hamkorlik qila olishi, bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarurki, bu jarayon ular faoliyatining turli sohalarida - bilimda, amalda, ma'naviy faoliyatda, sportda, o'yinda amalga oshiriladi. Tarbiyachi qanday qilib tarbiyalanuvchilarini o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishi xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan ishlar tarbiyalanuvchilar uchun dolzarb bo'lishi, ularning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga mos bo'lishi lozim.

2. Bolalarni biror ishga jalb qilar ekan, tarbiyachi ularga psixologik va pedagogik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yaxshi yo'l-yo'riq ko'rsatishi lozim.

3. Bolalar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida tarbiyachi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodkor tarbiyachi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or tarbiyachilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Hozirgi zamon tarbiyachiga fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishni, o'zining kunlik faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.

Pedagogik texnologiya nima? Uning ilmiy asosida qanday nazariyalar yotadi? Amaliyotga tatbiq etish shartlari nimalardan iborat? (Dastlab texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha «texnos»-hunar, san'at, «logos»-fan, so'zlaridan olingan bo'lib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Pedagogik texnologiya -pedagog tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflasak xato bo'lmaydi. 60-70 yillarda bu tushuncha chet el pedagogik nashrlarida (AQSh, Yaponiya, Angliya, Italiya, Vengriya) va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi va uning ilmiy tadqiqot natijalariga, ko'ra ikki yo'nalishi ko'rsatildi:

1. O'quv jarayonida texnika vositalarini qo'llash sifatida belgilash. (M.Klark, Xokridon - Buyuk Britaniya, D.Fini - AQSh, S.G.Shopovanenko -Rossiya).

2. «O'quv jarayoni texnologiyasi» sifatida qarash. (T.Samakato -Yaponiya, K. Brusming - Shvesiya, T. A. Ilina - Rossiya).

80-yillarda B.P.Bespalko tomonidan «Pedagogik texnologiya»ning ilmiy maktabi yaratildi. Demak, pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum bir pedagogik tizimning loyihadir. Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni amalga oshiradi.

Ta'lim berish texnologiyasi - ta'lim berishning umumiy nazariyasi bilan uning amaliy tadbiri orasidagi bog'lovchi bo'g'indir.

Tahlillar va natijalar.

Pedagog tarbiyachi yangi pedagogik texnologiyalarni o'zining amaliy faoliyatida keng miqyosda foydalanishi lozim. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti tarbiyachining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikrlar yurita olishi, fan yutuqlarini tarbiyalanuvchilarga yetkaza olishi va nihoyat bolalarni mustaqil hamda ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun pedagog tarbiyachi o'z ustida doimo ishlashi, mustaqil bilim egallashi, kasb mahoratini takomillashtirishi, malakasini oshirishi pedagogik faoliyatining samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir,

Tarbiya – ijtimoiy hodisa bo'lib, u kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yr yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, eng avvalo, tarbiyalanishi zarur. Buyuk mutafakkirlar, pedagog olimlar barkamol insonni kamolga yetkazish uchun tarbiya va tarbiyachi

naqadar zarurligini uning mohiyati va mazmunini asoslab berishgan.

Xulosa.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlari «har bir inson ilm olib, uning mazmun va mohiyatidan voqif bo'lishi kerak, ilm olib aqliy kamol topish kishining yoshligidan to umrining oxirigacha davom etmog'i lozim» g'oyasini ilgari surishadi. Bolalarga hamkorlikda ta'lim va tarbiya berish bilan birga ma'naviy qadriyatlarning eng oliy tuyg'usi – insonparvarlik singdirib boriladi. Allomalarning ta'kidlashicha,

insonparvarlik – insonning sharafi, vijdoni va imonining mahsuli hisoblanadi. Insonparvarlik mazmunan boy va xulq-odob qoidalarini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni insonparvarlik qadriyati negizida mehr-shafqat, muruvvat va oqibat, saxiylik, sahoat, diyonat, qanoat, himmat, adolat kabi axloqiy-ma'naviy xususiyatlar o'z ifodsini topadi. Yosh avlodni yetuk shaxs qilib voyaga yetkazishda hamda, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda hamkorlik ishining o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Smart in Europe - a program to form a "Single European university" on the principle of education. <https://www.eciu.org/forresearchers/about#smart-er>
2. M.Q.Jabborova Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU Ilmiy xabarlar. 2022 \ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32)
3. M.Q.Jabborova The impotence of communicative speech in improving the pedagogical training of future educators. «Science and innovation» International scientific journal volum 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | scientists.uz8f-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.768257>.
4. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti. Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son.
5. M.K.Jabborova. Maktabgacha ta'lim sohasi talabalarida boshqaruvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish. «Molodoy uchoni» №17 (359), aprel 2021 g., URL: <https://moluch.ru/archive/359/80359>
6. Jabborova, M. (2021). The importance of innovative technologies in the social development of society. *Ekonomika i sotsium*, (6-1), 129-132.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Muradova Aziza

Basic doctoral student of Jizzakh Polytechnic Institute
Email: azizamurodova664@gmail.com

EDUCATIONAL CONTENT, METHODS, SOFTWARE AND TOOLS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS BASED ON VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the current state of the problem of preparing engineers for professional activities in Uzbekistan. The features of the training of engineering personnel for professional activities using information technologies and the development of information and professional competencies in the context of digital education are presented. The results of creating a model for the formation of information and professional competencies by means of virtual laboratory complexes and electronic educational technologies are presented.

Key words: virtuality, virtual reality, vr-helmets, vr-glasses, immersiveness, imitation.

Murodova Aziza Yorqin qizi

Tayanch doktorant, Jizzax politexnika instituti

VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN TA'LIM MAZMUNI, USULLARI, DASTURIY TA'MINOTI VA VOSITALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosining hozirgi holati nazariy tahlil qilingan. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyat uchun muhandis kadrlarni tayyorlash va raqamli ta'lim sharoitida axborot va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish xususiyatlari ko'rsatilgan. Virtual laboratoriya majmualari va elektron ta'lim texnologiyalari yordamida axborot va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish modelini yaratish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: virtuallik, virtual reallik, vr-shlemlar, vr-ko'zoynak, immersivlik, imitatsiya.

Мурадова Азиза Ёркиновна

Докторант Джизакского политехнического института

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КОНТЕНТ, МЕТОДЫ, ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ И ИНСТРУМЕНТЫ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ОСНОВЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Абстракт. В данной статье представлен теоретический анализ современного состояния проблемы подготовки инженеров к профессиональной деятельности в Узбекистане. Показаны особенности подготовки инженерных кадров к профессиональной деятельности с использованием информационных технологий и развития информационно-профессиональных компетенций в условиях цифрового образования. Представлены результаты создания модели формирования информационно-профессиональных компетенций с помощью виртуальных лабораторных комплексов и технологий электронного образования.

Ключевые слова: виртуальность, виртуальная реальность, vr-шлемы, vr-очки, иммерсивность, имитация.

Introduction.

The emergence of new forms, technologies and resources, of course, has an impact on the learning process in universities. Already today there are a large number of practices confirming the use of Internet resources in the educational process, but their mass use is associated with a number of difficulties.

An analysis of the results of the research shows that in the modern labor market there is a demanded social order for specialists with the knowledge and skills to work with spatial data and large amounts of information in the information and analytical supply of management [1]. The fulfillment of this order, first of all, will require the setting of a number of pedagogical tasks within the

framework of the advanced formation and development of professional competence in a situation of social diffusion of the latest information technologies.

Our pedagogical research shows that the current practice of training future engineers at the university of Uzbekistan demonstrates insufficient attention to a practice-oriented approach and a tendency towards the universalization of information professional competence. Nevertheless, modern students show the abilities formed by the external information environment and the school to form and develop information professional competence in the direction of teaching in-depth informatization of specific types of professional activities. In connection with the foregoing, we put forward an assumption about the need to develop associative thinking among future engineers and the advisability of using virtual learning systems to solve this educational problem.

“The competence of specialists is understood not only as their professional qualification characteristics – knowledge, skills and abilities, but also their professional and personal characteristics – human behavioral reactions in various work situations”. From the perspective of acmeology, the following general and mandatory “characteristics of professional competence” are identified for all specialists: gnostic (cognitive) – reflects the presence of the necessary professional knowledge (their volume and level are the main characteristics of competence); regulatory – allows you to use existing professional knowledge to solve professional problems; reflexive-status – gives the right to act in a certain way due to the recognition of authority; normative – reflects the terms of reference, the scope of professional competence; communicative determines the possibility of establishing

contacts of various types for the implementation of practical activities”. When studying at a technical university, a student develops different competencies at different stages of educational activity. For example, in the first semesters, students study general scientific disciplines such as physics, chemistry, philosophy, history, foreign language. While studying these disciplines they are forming learning and independent work skills [2]. Students learn to work in a team, tolerant of general social and national differences between people. Study use the basics of acquired knowledge in various fields of activity.

Experimental research.

Our study allowed us to confirm the heuristic and expediency of the competence-based approach that we have identified as a theoretical and methodological basis in the formation and development of the information professional competence of future engineers.

Today, the task is to develop and form the skills and knowledge of the assimilation of information professional innovations, to effectively demonstrate its

importance and value for solving specific professional problems.

Under the formation and development of professional information professional competence of future engineers, we understand the controlled, purposeful promotion of future specialists in the study of theoretical concepts and methods of functioning of the relevant technologies and processes.

Psychological and pedagogical support for the development of this competence includes a set of appropriate means, forms, content, methods, organizational and pedagogical conditions that contribute to the formation and development of information professional competence of future engineers.

An analysis of the psychological and pedagogical problems of development and the social demand for the information professional competence of specialists has demonstrated the shortcomings of the models used today in the practice of professionally oriented training in the universities of Uzbekistan [3]. The model developed by us for the formation of information professional competence of students consists in coordinating all components of the pedagogical process for the implementation of didactic synthesis and interdisciplinary connections between the disciplines of professional and information training, as a condition for the development and formation of information professional competence of future engineers.

The creation of a model for the development and formation of information professional competence was implemented according to the following logic: identifying the purpose of designing the model, its connection with the tasks and purpose of the activity under study, substantiating the modules of the model (meaningful, motivational, technological), determining the principles and approaches on the basis of which this model works (experimental testing of the model, determination of the main result).

The proposed model for the formation of information professional competencies by means of virtual laboratory complexes and electronic educational technologies belongs to the category of «concept». The concept of «concept» implies a certain relationship between its components and the pedagogical system. The concept of «concept» includes the main modules of the model: motivational, content, technological and control.

As a result of the study of the methodological and theoretical foundations for the formation of information and communication competencies of students in virtual learning systems, a model was built and described, consisting of modules: meaningful, technological, motivational and control.

The content module helps to provide future engineers with the opportunity to master skills and knowledge while solving educational problems [4].

The technological module consists of teaching aids used in the virtual laboratory complex.

The control module contains a credit-module system that has segments of control and evaluation at various stages of learning.

Research results.

Analyzing in detail the model for the formation and development of information professional competencies, the future engineer is offered both traditional and modern approaches and forms to learning in virtual laboratory complexes, which are an innovation in the pedagogical technology of the educational process. The virtual space where information professional competencies can be formed consists of the following components: cognitive, motivational, communication and activity areas.

Structural components of the development and formation of competencies in the field of engineering technologies have been designed:

The cognitive component consists of the value of information and knowledge of the essence of modern society, the latest technologies and their principles, analysis, information processing and working with a computer, knowledge of basic software, computer technology, software products, knowledge of information protection methods, the distinctive features of the information society.

The motivational component involves identifying the motives of future engineers to enhance learning activities in a virtual laboratory complex and e-learning, includes the aspect of the formation and development of competencies, the need for self-development, self-realization and self-improvement in the educational process.

The communication component contains the aspect of the formation and development of competencies in the training of future engineers, involves the use of communication tools in electronic systems, Internet resources for feedback in the educational process [5].

The activity component consists in the ability to apply information professional competence in future professional activities; development of skills in working with software and tools for professional and general purposes, to comply with information security requirements, the ability to work with information and data in global computer networks.

The motivational module of the model considers tasks, goals, methods and forms, organizational methods for the formation and development of information professional competencies by means of virtual laboratory complexes.

In the process of formation and development of information professional competencies of future engineers,

the following tasks are solved by means of virtual laboratory complexes and educational technologies:

- 1) mastery of skills;
- 2) formation of competencies;
- 3) development of creative abilities.

Accordingly, for the implementation of these tasks, the use of virtual laboratory complexes, methodological support for electronic training programs will be effective: information and reference materials, methods and forms of organizing the educational process: survey, observation, questioning and self-diagnosis.

The purpose of the motivational module of the model is to highlight the initial foundations, determine the direction for the effectiveness of the process of forming information professional competencies [6]. In addition, it includes goals that are determined by the social order of the modern information society, the requirements of state international and educational standards, the curriculum of the specialty, the pedagogical process of the university, and the program of a specific educational process.

The social order of modern society implies the achievement by future engineers of a certain level of information professional competencies, which makes it possible to use informatization tools to solve professional problems.

Education and training of such a specialist takes place through the development of the requirements of the state educational standard for vocational education of universities and requirements for the level and minimum content of graduate training.

The task of the university, in turn, is to organize an effective pedagogical process in accordance with the standard.

The content of educational activities is determined by curricula, curricula in subjects that determine the direction of preparing students for a specific competence. The technological module is a backbone element in the presented model.

The result shows the formation of information professional competencies of future engineers, which is determined by three levels (advanced, intermediate, initial).

The model proposed by us provides for the fulfillment of the following organizational and pedagogical conditions:

- 1) integration of elements of e-learning systems and technologies and traditional teaching methods;
- 2) creation of a virtual learning environment, taking into account the competence-based approach in education;
- 3) increasing the motivation of intellectual and cognitive activity of students, taking into account the creation of an information and technological environment.

In connection with the foregoing, by developing the skills of information professional competencies, the future engineer acquires competencies that correspond to his professional activities. A set of standard competencies: general cultural competencies, key competencies, information professional competencies, professional competencies.

Thus, the developed model makes it possible to identify the content of competence, form competencies, show the logic of the formation of information professional competencies, using the means of a virtual training system in organizational and pedagogical conditions.

The main goal of creating and implementing the developed model is the formation of professional information professional competence of future engineers.

At the next stage, the study of general professional disciplines begins, in particular, materials science, engineering graphics, metrology, and the fundamentals of design and construction. Students acquire the ability to apply fundamental laws in the disciplines of natural sciences in their professional activities, the ability to use methods of mathematical analysis and modeling, theoretical and experimental research. Students begin to master the basic methods and means of receiving, content and processing information. They have the ability to solve simple problems in the professional field of their activity on the basis of information and bibliographic culture using information and communication technologies and taking into account the basic requirements of information security. They begin to understand the basic property and purpose of information in the development processes of the modern world.

Conclusions.

Basic information professional competence - the readiness and ability of a future engineer to perform simple

professional tasks using the skills of an advanced user (search for training materials, the ability to work with virtual training systems, create multimedia elements). Possession of basic information professional competence allows you to form key information professional competence, in other words, the ability of a specialist to perform standard professional tasks using modern information technologies. The ability of a future engineer to perform non-standard and complex professional tasks based on information professional determines special information professional competence. Any level differs in the depth and specificity of mastering one or another computer tool, in addition, it is impossible to possess special competencies without basic knowledge of the use of information professional in professional activities.

The predictable result is the mastery of the relevant theoretical concepts, increasing the information professional competence of future engineers, which is the basis of the control block of our model. It defines the features of the process of formation and development of information professional competence, the methods, forms and means of training used, and contains indicators, criteria and levels of formation of information professional competence.

The use of the methodology for the formation and development of information professional competence is related to the development and use of a virtual laboratory complex of a virtual training system.

It should be noted that the methodology for the formation and development of information professional competence is based on establishing links between the components of the content of disciplines of subject and information training, the implementation of which is carried out at the level of didactic synthesis and interdisciplinary connections.

References.

1. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. *Science and innovations*, 2023/2, 182-189 pp.
2. Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish. "Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O'zDJTU. 188-191 betlar.
3. Murodova A. B. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY LAYOQATLARIN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 259-263.
4. Hamidov J., Muradova A. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY.
5. Muradova A. TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENT OF FUTURE ENGINEERS BY MEANS OF VIRTUAL EDUCATION TECHNOLOGY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 306-311.
6. Abdurasulovich H.J., Qizi M. A. Y. VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – C. 182-189.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Musayev Dilshod Askardjanovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi 77-sonli nurli maskan ixtisoslashtirilgan maktab internati geografiya fani o'qituvchisi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:dilshod_5@mail.ru

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARGA GEOGRAFIYA O'QITISHDA KO'RGAZMALI METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni geografiya ta'limi jarayonida ko'rgazmalilik metodlaridan foydalanish masalalari, jumladan ko'rgazmali vositalarga qo'yiladigan talablar, ularning turlari va foydalanish metodikalari, o'quvchilarda bilim hosil bo'lishidagi va korreksion hamda kompensasion ishlarni olib borishdagi o'rniga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ko'rgazmali metodlar, ko'rgazmali vositalar, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar, maxsus ta'lim, korreksiya, kompensatsiya, saqlanib qolgan sensor qobiliyatlilar.

Мусаев Дилшод Аскарджанович

Учитель географии специализированной школы-интерната №77 Национального агентства социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан
Доктор философии педагогических наук (PhD)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАГЛЯДНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ГЕОГРАФИИ ШКОЛЬНИКОВ С НАРУШЕНИЕМ ЗРЕНИЯ

Аннотация: В данной статье изучаются вопросы использования изобразительных методов в обучении географии слабовидящих учащихся. в том числе требования к наглядным пособиям, их видам и способам использования, сведения об их роли в учебной и коррекционно-компенсационной работе учащихся.

Ключевые слова: изобразительные методы, наглядные пособия, слабовидящие учащиеся, специальное образование, коррекция, компенсация, сохраненные сенсорные способности.

Musaev Dilshod Askardjanovich

Geography teacher specialized boarding school in Tashkent #77 of the National Agency of Social Security under the President of the Republic of Uzbekistan
Doctor of philosophy (PhD) pedagogical science

USING VISUAL METHODS IN TEACHING GEOGRAPHY TO VISUALLY IMPAIRED STUDENTS

Abstract: In this article, the issues of using visual methods in geography education of visually impaired students are studied. including requirements for visual aids, their types and methods of use, information on their role in students' learning and corrective and compensatory work.

Keywords: visual methods, visual aids, visually impaired students, special education, correction, compensation, preserved sensory abilities.

Kirish.

Bugungi kunda, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning geografiya ta'limida ko'rgazmali usul yetakchi o'rini egallaydi. Ko'rgazmali metodlardan taqdimot, namoyish va kuzatish usullarini aytib o'tishimiz mumkin.

Ko'rgazmali metodlar ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning sensor salohiyatlarini rivojlantiradi. Ko'rgazmali vositalarni o'rganish uzoq vaqtni va yaqin masofadan o'rganishni talab qiladi. Ular individual-differensial ravishda har-bir o'quvchiga tarqatma material ko'rinishida taqdim etilishini va yetarlicha vaqt ajratilishini taqazo qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Yu.A. Kulaginning fikriga ko'ra, o'qituvchi darsda qo'llagan ko'rgazmali vositalari: *birinchidan*, tasvirlanayotgan ob'yekt aslidagi holatiga to'la mos kelishi, o'ziga xos xususiyatlarini aynan yetkazib berishi lozim; *ikkinchidan*, saqlanib qolgan sezgi analizatorlari yordamida idrok etish uchun yetarli belgilarga ega bo'lishi kerak. Ular xarakterli shaklga, yorqin ranglarga, farqlanib turadigan sirtga, tegishli hid va ta'm kabi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur [2].

N.P. Shvedova o'z tadqiqotlarida sxemalar, diagrammalar, grafika, va jadvallardan ko'zi o'jiz o'quvchilarni o'qitishda rel'yefli tasvirda keng foydalanish mumkinligini qayt etib, ko'rgazmalardan foydalanish metodikalarini ishlab chiqqan. Misol uchun, sxema bilan tanishish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1. Sxemaning tashqi chegara chizig'i bilan tanishib chiqish; 2. Asosiy va ikkilamchi qismlarni farqlab olish [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalarda korreksion va kompensasion faoliyat natijasida hosil qilingan ong'dagi ob'yekt obrazi uning asl ko'rinishidan ma'lum miqdorda farq qilishi mumkin. Tafovut darajasi korreksion ta'limni qay darajada muafaqiyatli olib borilishiga bog'liq. O'quvchilar geografiyaga oid ob'yektlarni idrok etayotgan vaqtlarida o'qituvchi og'zaki tavsif berib borishi va o'quvchilarni harakatini nazorat qilib borishi lozim.

Darsda qo'llanilgan ko'rgazmali vositalar: birinchidan, tasvirlanayotgan ob'yekt aslidagi holatiga to'la mos kelishi, o'ziga xos xususiyatlarini aynan yetkazib berishi lozim;

ikkinchidan, saqlanib qolgan sezgi analizatorlari yordamida idrok etish uchun yetarli belgilarga ega bo'lishi kerak. Ular xarakterli shaklga, yorqin ranglarga, farqlanib turadigan sirtga, tegishli hid va ta'm kabi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur.

Geografiyaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, ko'rgazmali vositalar klassifikatsiyasi mavjud bo'lib, ular tayyorlanishi va foydalanilishiga ko'ra guruhlangan [1].

-kartografik (xarita va atlaslar kabi ko'rgazmali vositalar);

-obrazli (rasmlar, modellar, maketlar, fotosuratlar);

-sxemali (sxemalar, jadvallar, diagrammalar);

-tabiiy (tabiiy kolleksiyalar, tarqatma materiallar).

Geografiya darslarida o'qituvchi turli xil ko'rgazmalardan foydalanadi. Tabiiy predmetlar – bu ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun eng yaxshi ko'rgazmali vositalar hisoblanadi. Predmetning tabiiy (asl nusxasi) o'rganilganda o'quvchilar ongida ob'yektning eng yorqin obrazi, sifatli tushuncha va tasavvurlar hosil bo'ladi [4].

Model – tabiiy ob'yektning kichraytirilgan yoki kattalashtirilgan tasviri yoki nusxasidir. Modellar statistik va dinamik turlarga bo'linadi. Modellardan geografiyada birinchi navbatda globusni, ikkinchi o'rinda telluriyni

misol qilib ko'rsatish mumkin. Modelni barcha xususiyatlarini idrok qilinishi uning qismlarini asli kabi to'g'ri xajmda va shaklda aniq yasalishiga bog'liq. Maket esa muayyan ob'yektning soddalashtirilgan va badiiy bezak berilgan nusxasi hisoblanadi.

Sxemalar, diagrammalar, grafik, va jadvallardan ko'zi o'jiz o'quvchilarni o'qitishda rel'yefli tasvirda keng foydalanish mumkin. Sxema bilan tanishish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Sxemaning tashqi chegara chizig'i bilan tanishib chiqish;

2. Asosiy va ikkilamchi qismlarni farqlab olish [2].

Ilyustratsiyalar, fotosuratlar va o'quvsuratlar yer shariga oid bilimlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ammo, ulardan faqatgina zaif ko'ruvchi o'quvchilarni qoldiq ko'rish qobiliyatlariga tayaangan holda foydalanish mumkin. Zaif ko'ruvchi o'quvchilar ko'rgazmali vositalardan o'rganishlari uchun o'quvchilarni saqlangan ko'rish qobiliyatlaridan foydalanishga qo'yilgan talablar inobatga olish maqsadga muvofiq:

1. Ko'rgazmalar o'quvchining fikrini xususiyan umumiyga, hodisaning o'zidan uning mohiyatiga tomon yo'naltirishi kerak;

2. Ko'rgazmali vosita keraksiz detallar va chiziqlardan holis bo'lishi lozim. O'rganilayotgan narsalar va hodisalarning asosiy xususiyatlari va belgilari aniq ajralib turishi kerak. Orqa fon asosiy tasvirdan farqlanib turishi tavsiya etiladi;

3. Ranglarni idrok etilishini yengillashshtiruvchi choralar ko'rilishi talab etiladi (yashil, sariq, jigarrang, zangori), tus berishda alohida e'tibor qaratilishi lozim;

4. Ko'rgazmalar oftalmologiyaning nisbiy ko'z o'tkirligi, yorug'likni sezishni o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tavsiyalarini e'tiborga olgan holda tanlanilishi kerak;

5. Ko'rinishi estetik talablarga mos kelishi zarur [3].

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internatlarining 7- 10- sinflarida geografiya kurslari o'qitiladi. Ta'lim jarayoni umumta'lim dasturi, rejalari va darsliklari asosida tashkil etiladi. An'anaviy o'qitish metodikasi (og'zaki, ko'rgazmali, va amaliy usullari)dan keng foydalaniladi, biroq, ulardan foydalanishda ilmiy asoslangan korreksion yo'naltiruvchi g'oyalarga yetarlicha tayanilmasligi, o'quvchilarni o'ziga xos idrok qilish xususiyatlaridan kelib chiqib ko'rgazmali vositalar ishlab chiqilmasligi geografiya kurslarini o'qitish jarayonida katta bo'shliqni keltirib chiqarmoqda.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning geografiya ta'limi dasturlari orasida "O'zbekiston geografiyasi" fanini o'qitishga qaratilgan mavzularni ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash va boyitish dolzarb masala hisoblanib, bu borada tadqiqot olib borishni ta'lab etadi. Vatanimiz geografiyasini o'qitish kurslarini ko'rgazmali vosita hamda bu vositalardan foydalanish metodikalarini ishlab chiqish, ko'rishida nuqsoni bo'lgan

o'quvchilarning geografiya ta'limida tushuncha va tasavvurlarni to'g'ri shakllanishiga, mavjud bo'lgan bilimlarni korreksiyalashga yordam beradi.

Shuningdek, o'quvchilarni o'zlari yashab turgan joylariga oid bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilishlariga, geografiya ta'limida o'qitiladigan umum geografik qonuniyatlar, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, xo'jalik tarmoqlari bilan bog'liq bilim, ko'nikma, malaka, va kompetensiyalarni hosil bo'lishida muhim o'rin tutadi. Tabiat va xo'jalikdagi voqia hamda xodisalar haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va bog'lash orqali yaxlit bilimlarni hosil qilish imkoniyati yaratiladi.

Umumta'lim maktablari uchun o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan DTS talablari mavjud bo'lib, unda O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan yirik geografik ob'yektlarning joylashgan o'rnini aniq ko'rsatish zarurligi belgilab qo'yilgan. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar intellekti me'yorida, ular ham umumta'lim o'quvchilari bilan bir o'quv dasturi asosida ta'lim olishlari belgilangan. Ko'zi o'z o'quvchilardan ham geografiya bilimlariga qo'yiladigan DTS talablari kutiladi. Biz ham geografiya ta'limini korreksion-kompensasion yo'naltirib, maxsus uslub, vosita va texnologiyalardan foydalanib umumta'lim maktablariga qo'yilgan bilimlarga qo'yilgan talablarni ko'zi o'z bolalar maktablarida ham bajarish mumkin deb hisoblaymiz.

Geografiya o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan ayrim talablarni ko'rib chiqamiz:

✓ tabiiy va siyosiy xaritalardan yirik geografik ob'yektlarning joylashgan o'rnini aniqlaydi va ko'rsata oladi;

✓ O'zbekistondagi asosiy geografik ob'yektlar (viloyat, shahar, yirik suv havzalari, relyef shakllari)ning nomlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri qo'llay oladi;

✓ O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilishini, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining salohiyatini, aholisining soni, o'sishi, tarkibi va joylashuvining asosiy xususiyatlarini biladi;

✓ ishlab chiqarish omillarining mohiyati va ahamiyatini, ulardan oqilona foydalanishning lozimligini tushunadi;

✓ iqtisodiyot tarmoqlarini ajrata oladi, ularning rivojlanishi, joylanishi va ixtisoslashuvining muhim xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi omillarni biladi;

✓ sanoat, qishloq xo'jalik va transportning tabiiy muhitga ta'sirini tahlil qiladi, korxonalarini joylashtirishda ekologik omillarga e'tibor qaratish lozimligini asoslaydi;

✓ turli iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda diagrammalar, jadvallar, chizmalar, xaritalar kabi iqtisodiy tahlil vositalaridan ma'lumot manbai sifatida foydalanadi;

✓ aholi tabiiy va migrasion harakati, aholi zichligi, harakati va tarkibi, mehnat unumdorligi, hududlarning shaharlashuvi darajasi, ixtisoslashuv koeffitsiyentini topishga oid masalalarni yechadi.

Shuningdek, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning geografik bilimlarini takomillashtirish uchun ularda quyidagi jihatlarni shakllantirish zarur:

- geografik hodisa va jarayonlarni to'g'ri tasvirlay olish, mazkur voqea va hodisa uchun mos keluvchi dalillarni to'g'ri tanlay olish. Masalan, O'zbekistonning 6 ta iqtisodiy rayonlarga bo'linishi sababi ularning xo'jaligini o'ziga xosligi, transport yo'llari, energetika manbalari va boshqalardan umumiy foydalanishi;

- geografik jarayonlarni kelib chiqish sabablarini aniqlashga o'rgatish. Yuz berayotgan geografik voqelik bilan bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarni, ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish, ya'ni har bir hodisa uni o'rab turgan atrof-muhitga bog'liqligini tushunishga intilish;

- barcha geografik jarayonlarni rivojlanish tavsifini tushunish;

- jarayonlarning rivojlanish bosqichlari va siklligini, ularni ijtimoiy o'zgarishlarda ahamiyatini anglashga harakat qilish;

- har bir geografik voqelikda aks etgan o'ziga xosliklarni izlash;

- lokal va sayyoraviy miqyosda geografik voqelikni baholashga harakat qilish;

- yuz berayotgan geografik jarayonlarni to'g'ri baholashda tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarga mos kelishini analiz qilishga intilish.

Xulosalar.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar geografiya fanidan o'zlashtirishlari zarur bo'lgan DTS talablari minimumi ko'rsatib turibdiki, o'quvchilar geografiya fanini o'zlashtirish jarayonida xarita va atlaslar bilan ishlashlari shart. Yetarli ko'rgazmali vositalar jumladan, kartografik materiallar va ulardan foydalanish metodikalari mavjud bo'lmasa, o'zlashtirishlari lozim bo'lgan grafik va kartografik ma'lumotlarga kirish imkonsiz bo'lib qoladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar maktablarida fanlarni o'qitishda xususan, geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarning tushuncha va tasavvurlarini korreksion tuzatish ishlari tizimli tashkil etilishi, pedagog va tadqiqotchilarning asosiy e'tiborlari korreksion o'qitish tizimini takomillashtirishga, ko'rgazmali vositalardan foydalanishda idrokni kompensasion qayta qurilishi imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishini talab qiladi. O'quv-bilish faoliyati ko'zi o'z o'quvchilar bilan bir qatorda zaif ko'ruvchi o'quvchilar ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Korinskaya V.A. Uchebnoye oborudovaniye po geografii "[]. – M.: Prosveshcheniye, 1964. – S. 103.
2. Kulagin Yu. A. Vospriyatiye sredstv naglyadnosti uchashchimsya shkolы sleryx. – M.: Pedagogika, 1969. S. 86
3. SokolovaA. V. Ispolzovaniye sredstv naglyadnosti v shkole slabovidyashix : Kn. dlya uchitelya /. - M. : Prosveshcheniye, 1987. - 143,[1] S.121.
4. Shvedova N.P. (Osobnosti ispolzovaniya relyefno-graficheskix izobrajeniy kak sredstva naglyadnosti v shkolax dlya detey s narusheniyami zreniya// Defektologiya: nauchno-metodicheskiy jurnal –ООО "Shkolnaya Pressa" №3 M. 2008. – s. 60-68.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xodjibolayeva Nozima Ma'murovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

UDK: 378.014.15

TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI FANLARARO HAMKORLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning ekologik kompetentligini integratsion ta'lim asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilingan hamda ilmiy-pedagogik asoslari tavsiflangan.

Kalit so'zlar: kompetentlilik, ekologik ta'lim-tarbiya, reproduktiv, muqobillashtiruvchi, retrospektiv, ekologik kompetentlik, kompetensiya, pedagogik.

Ходжиболаева Нозима Адимуровна

Базовый докторант Кокандского государственного педагогического института

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы развития экологической компетентности студентов на основе интегрированного образования и описываются научно-педагогические основы.

Ключевые слова: компетентность, экологическое образование, репродуктивная, альтернатива, ретроспектива, экологическая компетентность, компетентность, педагогическая.

Khodzhibolaeva Nozima Maazarovna

Associate doctoral student of Kokand State Pedagogical Institute

ISSUES OF DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON INTEGRATED EDUCATION

Abstract: This article analyzes the issues of developing environmental competence of students based on integrated education and describes the scientific and pedagogical foundations.

Key words: competence, ecological education, reproductive, alternative, retrospective, ecological competence, competence, pedagogical.

Kirish.

Bugungi kunda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning ta'lim-tarbiya vositalari faqatgina tor pedagogik vazifa sifatida izohlanadi. Vaholanki, hozirgi ekologik vaziyat muammolari masalaga kengroq, ijtimoiy-falsafiy mazmunda yondashishni talab qilayotir. Ta'lim-tarbiya jarayonini ekologiyalashtirish vazifalari ta'lim majmuasini insoniyalashtirishdan, inson va tabiat munosabatlarini uyg'unlashtirish manfaatlaridan iborat bo'lmog'i lozim. Shu bois ham, oliy ta'limda integrativ ta'lim tizimini shakllantirish, fanlararo hamkorlikdagi faoliyat asosida ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, O'zbekistonda ekologik ta'lim-tarbiya masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Global ekologik inqirozning kuchayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi

va boshqa muammolar ekoharakatni faol kuchga aylanishini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ekologik ta'lim asoslarining pedagogik jihatlari, globallashuv davrida ekologik xavfning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llari, talabalarda ekologik kompetentlikning ayrim jihatlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari Q.Abdurahimov, I.X.Ayubova, P.Berdanova, N.Bozorova, R.X.Djurayev, Y.Ahmadaliyev, N.Isakulova, Sh.Kamolxo'jayev, A.Malikova, M.E.Musayeva, V.Nikitin, N.O'.Nishonova, X.Norbo'tayev, T.Saparov, V.N.Sattorov, X.Tog'ayev, E.O.Turdiqulov, U.Turdiqulov, D.To'xliyev, A.S.To'xtayev, A.Ergashev, Sh.Yunusovalar tomonidan amalga oshirilgan.

Natijalar va muhokama.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda integratsion ta'lim asosida tabiatshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlarni mushtaraklashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bunda nisbatan mustaqil ikki jarayon namoyon bo'ladi. Birinchidan, ekologik tarbiyaga majmuaviy-tizimli yondashish imkoniyati ta'limning turli sohalarini uyg'unlashtirish, muqobil yo'nalishlarini yagona maqsad asosida bog'lash zaruriyatidan kelib chiqadi. Ikkinchi yo'nalishda, ekologik tarbiyaning turli shakllari, darajalari o'rtasidagi bog'lanishlarning tarixiy, mantiqiy izchilligini saqlab, ularning vositalari, uslublari o'rtasidagi bog'lanishlarni ham ta'minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, bu yo'nalishlarning mushtarak xarakteri, ularning bir-biriga munosabatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim va tarbiyani tabiatni muhofaza qilish manfaatlarini bilan bog'lash asosida umumiy mushtaraklik vujudga keladiki, aynan uning xususiyatlari ekologik axloqiy mas'uliyatni rivojlantirishning zaruriy shartiga aylanadi.

Oliy ta'lim tizimini ekologik ehtiyojlar asosida qayta qurish umuminsoniy qadriyatlarni, shu jumladan, ekologik tarbiyani, pedagogik siyosatning, mafkuraning markaziga ko'chirdi. Bu vazifani samarali hal qilish barcha ta'lim-tarbiya sohalarini ilmiy metodologik tamoyillar asosida umumlashtirishni taqazo qiladi. Darhaqiqat, turli fan va ijtimoiy ong shakllarining ta'lim-tarbiya sohalaridagi uzilishlarini hamda ziddiyatlarini aynan ekologik tarbiya jarayonida bartaraf qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Shuning uchun, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ta'lim, umumiy ta'limga sun'iy, mexanistik tarzda qo'shilgan tadbir bo'lmasdan, har qanday darajadagi ta'lim-tarbiya majmuasida malakali xodimlar tayyorlashning uzviy, tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Uning mazmuni turli mamlakatlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlarga, ekologik vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin.

Hozirgi zamon oliy pedagogik ta'lim-tarbiya vazifalari – turli ijtimoiy ong shakllarining ekologik tafakkur bilan mushtaraklashuvini ta'minlash, har qachongidan ko'ra dolzarb muammoga aylandi. Muayyan ijtimoiy ong shakllarining ekologiyalashuv darajasi va mazmuni, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish amaliy faoliyatining samaradorligi tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos mezoniga aylanib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi imkoniyatlardan kelib chiqib, talabalar ekologik dunyoqarashini tarbiyalashda turli fan yo'nalishlarining predmetlararo bog'lanishlarini ilmiy-metodologik jihatdan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Umumlashtirib aytganda, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonining darajalari, yo'nalishlarini tabiatni muhofaza qilish mas'uliyatini oshirish manfaatlarini asosida muqobillashtirish, muvofiqlashtirish quyidagi metodologik vazifalarni hal qilishga bog'liq:

a) ekologik ta'lim-tarbiya bilan bog'liq maxsus tushunchalar, atamalar, ta'riflardagi, tarixiy va mantiqiy

izchillikni, vorislik munosabatlarini saqlagan holda, qaytariqlarni bartaraf etish;

b) turli ekologik ta'lim-tarbiya yo'nalishlarining global, regional, milliy va mahalliy ekologik muammolarini aniqlash hamda ularni hal qilishning vosita va usullarini umumiy manfaatlar asosida muvofiqlashtirish;

v) ta'lim-tarbiya sohalaridagi muqobil ekologik faoliyatlarni, tashkiliy jihatdan, muvofiqlashtirib, ularning samaradorligini oshirish va optimallashtirishdan iboratdir. Buning uchun, dastlabki bosqichlardan oq, ta'lim-tarbiya ijtimoiy institutlari o'zlarining konseptual ish dasturlarini, o'tkaziladigan ekologik tadbirlarning vazifalarini qat'iy belgilab olishlari lozim. Shuningdek, har bir yo'nalishda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadida, oddiydan murakkabga borish tamoyili asosida, uning istiqbollari belgilangan rejalarni tuzib olish, ilmiy-falsafiy metodologiyaga tayangan holdagina natija berishi mumkin.

Ekologik vaziyatni keskinlashtiruvchi sabablarni, oqibatlarini, jamiyatni rivojlanish istiqbollarini, ularni harakatlantiruvchi obektiv va subektiv omillarni, qonuniyatlarini aniqlab, ilmiy umumlashtirish, tizimlashtirish ekologik ta'limning samaradorligini belgilaydi. Talabalarining ongiga ekologik kompetentlik bilan bog'liq bo'lgan bilimlar majmuasini, yangi mazmundagi tushunchalarni kiritish, ularning avval o'zlashtirilgan nazariy bilimlari bilan tarixiy, mantiqiy jihatdan, bog'lanish imkoniyatlarini aniqlash kerak. Talabalarni faqatgina pand-nasihati usuli yoki qat'iy ma'muriy-huquqiy chora-tadbirlar qo'llash bilan tabiat muhofazasining faol kurashchilari, hozirgi zamon ekologik talabalariga javob beradigan mas'ul shaxs qilib tarbiyalash amaliy jihatdan juda qiyin [1].

O'sib kelayotgan yosh avlodni ekologik ehtiyojlarni anglaydigan, tabiatni muhofaza qilish mas'uliyatini chuqur his qiladigan inson qilib tarbiyalash uchun, eng avvalo, unga o'zi yashab turgan muhit bilan bog'liqligini tushuntirish lozim. Vaholanki, kishilar hozirgacha tabiiy boyliklar "kimmiki" va "kim uchun", degan tushunchaga o'zlarining munosabatlarini aniqlab olgan emaslar. Haqiqatan ham, o'rmon, daryo, ko'l, yer va boshqa tabiiy boyliklarni xalqnikidir, deb e'lon qilish qandaydir noaniq umumiylikni, egasizlikni ifodalaydi. Talabalarda ham tabiiy boyliklarga nisbatan "xalqnikiki", "biznikiki", "menikiki", "avlodlarimiznikiki", degan konkret tushunchalarga munosabatlarini tarbiyalay olmas ekanmiz, ekologik axloqiy pozitsiyasi haqidagi gaplar shiorlardan iborat bo'lib qolaveradi. Shuning uchun, ijtimoiy ekologik mas'uliyatni shakllantirish, tabiatni, atrof-muhitni asrab-vaylash "hamma"ning ijtimoiy vazifasi ekanligini singdirish kerak bo'ladi.

Talabalarda ekologik kompetentlikni tarbiyalash usulining rivojlanish darajasi, biosfera muvozanati haqidagi nazariy bilimlarni tabiatni muhofaza qilish

vazifalari bilan bog'lanishlarida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, hatto, tabiat muhofazasiga doir yetarli bilim darajasiga ega bo'lgan talabning ekologik sifatlarini ham osonlikcha shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun ekologik bilimlar majmuasi jamiyatning ekologik manfaatlari bilan bog'lanib, uning hayotiy ehtiyojlarga aylansagina, u kutilgan natijalarni berishi mumkin. Aytaylik, talaba tabiatni muhofaza qilishning zaruriyatini angelaydi, lekin o'zining kundalik faoliyatida bunga amal qilmasligining, loqaydligining sababi ekologik bilimlarning e'tiqodga, axloqiy normaga aylanmaganligiga borib taqaladi [2].

Talablarda ekologik kompetentlikni rivojlanishida ta'lim-tarbiyaning o'zaro bog'liq bo'lgan ikki vazifasini bir-biridan farqlash maqsadga muvofiq. Birinchisi - tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy-tarixiy qadriyatlarini asosida ilmiy ekologik tafakkurni, dunyoqarashni shakllantirish. Ikkinchisi - ekologik mas'uliyatni ijtimoiy hayotga tadbiiq qilishning amaliy imkoniyatlarini, uslub hamda vositalarini takomillashtirishdan iborat. Bu ikki yo'nalishning yaxlit manfaatlar asosida uyg'unlashuvi, pirovard natijada, tabiatga ekologik faol munosabatning vujudga kelishida katta rol o'ynaydi.

Talabalarda ekologik kompetentlikning rivojlanishi o'z-o'zidan, stixiyali, avtomatik tarzda sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisa emas, balki turli darajadagi ta'lim-tarbiya mexanizmlarining maqsadga muvofiq faoliyatini taqozo qiladi. Bunda, obyektiv shart-sharoitlar ekologik mas'uliyatning shakllanishiga imkoniyat yaratsa, subyektiv omillar esa, ularni vokelikka aylantiradi. Bu muammoning muvaffaqiyatli hal etilishi iqtisodiy yoki ma'muriy tadbirlarni mavsumchilik bayrog'i ostida o'tkazilishi bilan emas, balki keng xalq ommasining tarixiy ekologik merosidagi vorislik munosabatlarini saqlab, ularni uzluksiz holda, doimiy rivojlantirib boriladigan ma'rifiy, siyosiy vazifadir. Xususan: ma'rifat, siyosat, huquq, fan, axloq, san'at va boshqa shunga o'xshash sohalarni ekologiyalashishidan iborat murakkab jarayondir. Ekologik mas'uliyatni shakllantirishning zaruriy shartlaridan biri, tabiat va inson munosabatlarini ilmiy tushunish asosida, ekologik ongning vujudga kelishdagi obyektiv va subyektiv sabablarni hamda ularni rivojlanish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Global ekologik inqiroz holatida mamlakatlarda ekologik tarbiyaga innovatsion yondashuvlarni olib kirish zarurati ortib boradi. Shunday ekan, O'zbekistonda ham ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion asosda takomillashtirish va samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois milliy ekologik ta'lim va tarbiya jarayonining mavjud holatini tadqiq etish va muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslarini aniqlash pedagogik tadqiqotlarning asosi maqsadiga aylanmog'i zarur [4].

Bu talablardan kelib chiqqan holda, talabalarning ekologik kompetentlikni rivojlantirishda o'zaro bog'liq

bo'lgan ikki tendensiya ko'zga tashlanadi: Birinchidan, obyektiv ekologik munosabatlarni bilish-tegishli faoliyatning vositasi hamda natijasi sifatvda mavjud. Ikkinchidan, amaliy ekologik munosabatlarni tashkil qilish va boshqarish-mazkur faoliyatning bevosita jarayonini namoyon qiladi [3].

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ta'lim-tarbiyani bosqichma-bosqich, uzluksiz tashkil qilishda oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, o'quv yurtlari, mehnat jamoalari tizimiga tayanish nisbatan keng tarqalgan. Bu sxemaning tarixiy va mantiqiy tamoyillariga asoslanib, ta'lim-tarbiya uzluksizligani ta'minlashga shubha yo'q. Biroq, hozirgi kunning kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb ekologik muammolari hamma bo'g'inglarda bu ishni ommaviy tarzda kuchaytirishni taqazo qilmoqda. Ayniqsa, tabiatni muhofaza qilish ishlarining samaradorligini oshirish uchun xo'jalik rahbarlarining ongidagi chuqur o'mashib qolgan loqaydlik, "o'zibo'larchilik" kayfiyatini bartaraf qilish, birinchi navbatdagi vazifa bo'lib, katta ahamiyatga ega. Zero, bugun rahbarlarning, mutaxassislarning ekologik mas'uliyatini barcha vositalar bilan oshirish ertagayoq, o'z samarasini berishi mumkin. Bu jarayonda ekologik tarbiya tabiatga nisbatan nazariy qarashlarni shakllantirishdan iborat bo'lmasdan, "shu bilan birga, e'tiqod shakllanishini va amaliy tayyorgarlikni ham nazarda tutadi"[5]. Zero, ekologik ta'lim-tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri - kundalik hayotiy faoliyatlarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni nazariy asoslash, amaliy yechimlarini mustaqil topish yo'nalishlaridan iborat.

Talabalarda ekologik amaliy faoliyat ko'nikmalarining shakllanishi va tabiatni muhofaza qilishning hayot mazmuniga aylanib borishi, ijtimoiy-tarixiy jarayonning muhim xususiyatini tashkil qiladi. Bu jarayonda axloqiy, estetik, huquqiy qarashlar e'tiqodga, mas'uliyatga aylanib, amaliy ekologik faoliyatlarda namoyon bo'lsagina, ta'lim-tarbiya vositalarining samaradorligini ko'rsatuvchi mezoniga aylanadi. Chunki, ijtimoiy birliklarning ekologik tarbiya vazifasi - tabiat va jamiyat munosabatlarining nisbatan turg'un, ideal shakllarini vujudga keltirishdir.

Aksariyat pedagogik-didaktik tajribalarda ekologik tarbiya jo'nlashtirilib, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan. Bunday tarbiya jarayoni o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lsa ham nisbatan quyi bosqich hisoblanadi. Yuqoriroq, ikkinchi bosqich - talabalarda tabiat va inson munosabatlarining obyektiv qonuniyatlarini anglagan holda, tabiat muhofazasi faoliyatini ratsional-konstruktiv tashkil qilish va boshqarishning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni ifodalaydi.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda hissiy-ruhiy holat muhim rol o'ynaydi. Ekologik faoliyatga munosabatni ijobiy-salbiy, optimistik-pessimistik va boshqa, bir-biriga qarama-qarshi, yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunda

bevosita ekologik mas'uliyatning ijobiy yoki salbiy tomonlari tushunilmasdan, balki, ekologik mas'uliyatga munosabatning ijobiy-salbiy, optimistik-pessimistik tomonlari tushunilishi kerak. Chunki, mohiyatiga ko'ra, ekologik mas'uliyat o'z antipodiga ega bo'lmagan ijtimoiy xodisadir. Ularning aniq mezonini ishlab chiqish, metodologik jihatdan, muhim ahamiyatga ega bo'lib, u yoki bu tomonning mutlaqlashuvi ekologik faoliyatning ichki tuzilmasidagi ziddiyatlarni kuchaytirib, uning obyektiv mazmuniga zid kelishi mumkin. Shuning uchun, talabalarda ekologik mas'uliyatning muhim elementi sifatida hissiy-ruxiy holatni, kayfiyatni tarbiyalashni maqsadga muvofiq yo'naltirish zarur.

Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyani mushtaraklashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bunda nisbatan mustaqil ikki jarayon namoyon bo'ladi:

ekologik tarbiyaga majmuaviy-tizimli yondoshish imkoniyati ta'limning turli sohalarini uyg'unlashtirish, muqobil yo'nalishlarini yagona maqsad asosida bog'lash zaruriyatidan kelib chiqadi;

ekologik tarbiyaning turli shakllari, darajalari o'rtasidagi bog'lanishlarning tarixiy, mantiqiy izchilligani saqlab, ularning vositalari, uslublari o'rtasidagi bog'lanishlarni ham ta'minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, bu yo'nalishlarning mushtarak xarakteri, ularning bir-biriga munosabatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim va tarbiyani tabiatni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lash asosida umumiy mushtaraklik vujudga keladiki, aynan uning xususiyatlari ekologik kompetentlikni rivojlantirishning zaruriy shartiga aylanadi.

Fanlararo hamkorlik asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda "O'zbekistonning eng yangi tarixi" va "Falsafa" fanlarining ta'limiy-metodik imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, taklif va tavsiyalarni oshirish, metodik imkoniyatlarini modernizatsiyalash masalalari ortib bormoqda.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" va "Falsafa" fanlari hamkorligi va mavzulari integratsiyasi asosida taklif qilinayotgan "Ijtimoiy ekologiya" tanlov fanining taqvim-mavzu rejalarini

No	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Falsafa	Ijtimoiy ekologiya
1.	Kirish. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari	Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli	Ijtimoiy ekologiyaning tarixiy shakllanishi, maqsadi va vazifalari, jamiyat taraqqiyotidagi roli

2.	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari	SHarq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli	Ijtimoiy ekologiya g'oyalarining tarixiy asoslari
3.	Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar	G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri	Ijtimoiy ekologiyaning ustuvor yo'nalishlari
4.	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'li	Borliq falsafasi (Ontologiya)	Ijtimoiy ekologiya ontologiyasi
5.	O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar	Rivojlanish falsafasi	Yangi O'zbekistonda demokratik va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllanishidagi ekologik siyosatning ahamiyati
6.	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi	Bilish falsafasi	Demokratik o'sish va urbanizatsiya jarayonlarining ekologik vaziyatga ta'siri
7.	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar	Mantiq	Ijtimoiy-iqtisodiy va agrar islohotlarni ekologik islohotlar bilan uyg'unlashtirish siyosati
8.	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi	Jamiyat falsafasi	Ijtimoiy ekologiya-ma'naviy – ma'rifiy

	ma'naviy va madaniy taraqqiyot		taraqqiyot asosi
9.	O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar	Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat	Ijtimoiy islohotlarga ekologik inqirozning ta'siri: tarixiy talqin
10.	O'zbekiston va jahon hamjamiyati	Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)	Inson ekologiyasi
11.	Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi	Qadriyatlar falsafasi	Ekoaksiologiya
12.	Yangi O'zbekistonda Prezident SH.M.Mirziyoev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar	Etika	Ekoetika
	Yangi O'zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati	Estetika	Ekoestetika
		Global jarayonlar va barqaror	Global ekologik muammolar

		taraqqiyot falsafasi	va ularning tarixiy jarayonga ta'siri
		Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash mexanizmlari	Ekokorrupsiya va uning mazmuni, mohiyati, unga qarshi kurash tizimi

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" va "Falsafa" fanlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ulardagi ko'plab mavzularni o'zaro tizimli, izchil va tarixiylik tamoyillari asosida bog'lash asosida ekologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi yangi yo'nalish va mavzular bankini ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Xulosa.

Hozirgi kunga kelib, tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar shu darajada keskinlashib ketdiki, tabiat insondan uning qilgan xatolari uchun o'ch olaboshladi, insoniyat tabiat oldida tiz cho'kib tavba qilishga majbur bo'lmoqda. Ekologik axloqiy normalarning yuksak shakllari, tabiatga munosabatning yangi axloqiy mezonlari tarkib topmoqda. Sof umuminsoniy ekologik axloqiy normalar siyosat darajasiga ko'tarildi, ekologik idayellarning axloqiy mazmuni boshqa ijtimoiy ong shakllarini kengroq miqyosda qamrab olishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilganda, talabalarning ekologik kompetentligi tabiatni muhofaza qilishning nazariy bilimlarini shakllantirishdangina iborat bo'lmasdan, balki tegishli yo'nalishdagi amaliy munosabatlarni ham rivojlantirishni talab etadi. Amaliy ekologik faoliyat ko'nikmalarning shakllanishi va hayot tarzining mazmuniga aylanib borishi o'z-o'zidan, stixiyali tarzda amalga oshadigan oddiy vazifa emas. Ekologik ta'lim-tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri-talabalarning kundalik hayot faoliyatlarida tabiat va jamiyat o'rtasida ziddiyatlarni nazariy asoslash, ularning amaliy yechimlarini mustaqil topishga yo'naltirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдуллаева Н.Б. Экоэтиканинг замонавий муаммолари –Тошкент: Фан. 2019. –Б. 7.
2. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология. – Фарғона: "Classic", - 2021. –Б. 79.
3. Исмоилова Г. Талабаларда экологик маданиятни шакллантириш ва ривожлантириш методларини такомиллаштириш (Ўзбекистон тарихи фани мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Наманган.: НамДУ. 2022. –Б. 44.
4. Мирзаева Н. Талабаларда экологик компетентликни ривожлантириш тизимини такомиллаштириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Чирчиқ.: ЧДПУ. 2021. –Б. 47.

5. Хошимова И. Диалектика глобального, регионального и локального в экологии. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. докт. филос. наук. – Ташкент.: 1992. - С. 36.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Fozilova Odina Nabiyevna
Farg'ona davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchi, f.f.b.f.d (PhD)
abobakirovaodina78@gmail.com

O'YIN ASOSIDAGI TA'LIMNING TANQIDIY FIKRLASH VA MUAMMOLARNI HAL QILISHGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini o'yin asosida ta'lim jarayonida oshirishning samaradorligini o'rganadi. Tadqiqotda o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, bolalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'yinlar bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirib, bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Tadqiqot o'yin asosidagi ta'lim metodikasining maktabgacha ta'limda qo'llanilishining ahamiyatini ta'kidlaydi va kelajakda yanada chuqurroq o'rganish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: o'yin, ta'lim, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, maktabgacha ta'lim.

Фозилова Одина Набиевна
Ферганский государственный университет,
Отдел дошкольного образования старший преподаватель

ВЛИЯНИЕ ИГРОВОГО ОБУЧЕНИЯ НА КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению эффективности повышения когнитивного развития детей дошкольного возраста в процессе обучения на основе игр. В исследовании рассматривается роль игровых технологий в образовательном процессе, а также развитие у детей независимого мышления, способности к решению проблем и творческих способностей. Результаты показали, что игры повышают интерес детей к обучению, делая процесс получения знаний увлекательным и эффективным. Исследование подчеркивает важность применения методики обучения на основе игр в дошкольном образовании и создает основу для дальнейшего глубокого изучения.

Ключевые слова: игровое обучение, когнитивное развитие, критическое мышление, решение проблем, дошкольное образование.

Fozilova Odina Nabiyevna
Fergana State University,
Department of preschool education senior teacher

EFFECTS OF GAME-BASED LEARNING ON CRITICAL THINKING AND PROBLEM SOLVING

Annotation: This study explores the effectiveness of enhancing cognitive development in preschool-aged children through game-based learning. It examines the role of game technologies in the educational process, focusing on the development of independent thinking, problem-solving skills, and creativity in children. The results indicate that games significantly increase children's interest in learning, making the knowledge acquisition process engaging and effective. The research highlights the importance of implementing game-based learning methodologies in preschool education and provides a foundation for further in-depth studies.

Keywords: game-based learning, cognitive development, critical thinking, problem-solving, preschool education.

Kirish.

O'yin asosidagi ta'lim (gamifikatsiya) zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilim olish jarayonlarini yanada samaraliroq qilish uchun keng qo'llanilmoqda. O'yinlar o'quvchilarning diqqatini jalb etish, qiziqishlarini uyg'otish hamda turli vaziyatlarda analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kuchli vosita

hisoblanadi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda o'yin metodikasining ahamiyati katta. Shu bilan birga, ushbu metodikaning o'quv jarayoniga qanday samarali integratsiya qilinishi va uning ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv sifatidagi o'rni tahlil qilinadi.

O'yin asosidagi ta'lim (gamifikatsiya) bugungi kunda ta'lim jarayonlarini interaktiv va qiziqarli qilishga

qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu metodika o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga rag'batlantirish va chuqurroq bilim olishlariga imkon yaratish uchun keng qo'llanilmoqda. O'yinlarning ta'lim jarayoniga qo'shilishi o'quvchilarda nafaqat mavzuni yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydi, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi murakkab kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash — bu o'quvchining mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, turli manbalarni solishtirish va ratsional qarorlar qabul qilish qobiliyati bo'lib, uni rivojlantirish orqali o'quvchi mustaqil fikr yuritishga va ko'proq chuqur bilim olishga qodir bo'ladi. Muammolarni hal qilish esa turli vaziyatlarda ijodiy va samarali echimlar topish qobiliyatini o'z ichiga oladi, bu esa hayotiy ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi [1,12]. O'yinlar bu ikki qobiliyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki ular o'quvchilardan tezkor qaror qabul qilish, ijodiy yondashish va mantiqiy fikrlash talab qiladi.

Shu bilan birga, o'yin asosidagi ta'lim o'quvchilarning diqqatini uzoq muddat saqlab turish, motivatsiyani oshirish va ularning bilim olishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam beradi. Ta'limiy o'yinlar o'z ichiga qiziqarli ssenariylar, ko'plab muammo va vazifalarni kiritib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuvlarni rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili.

R. E. Mayer o'yin asosidagi ta'limning kognitiv yondashuvlarini o'rgangan va o'yinlarning diqqatni jalb etish va motivatsiyani oshirishda samaradorligini tasdiqlagan [2,50]. Mayerning tadqiqotlariga ko'ra, o'quvchilar o'yin orqali o'rganish jarayonida murakkab vaziyatlarni tushunish va muammolarni echish bo'yicha yaxshiroq natijalarga erishadi.

D. Shaffer tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'yin metodikasining ahamiyati haqida o'z ishida batafsil to'xtalgan [3,99]. Uning tadqiqotlari o'quvchilarni turli vaziyatlarda qaror qabul qilishga va o'zlarining fikrlarini asoslashga o'rgatadigan o'yinlar orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalari kuchaytirilishini ko'rsatadi. Shaffer o'yinlar bilan integratsiyalangan ta'limiy jarayon o'quvchilarda kompleks fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Xorijiy tadqiqotlar bilan bir qatorda, o'zbek mualliflar ham o'yin asosidagi ta'limning kognitiv rivojlanishga ta'sirini o'rganishda hissa qo'shgan. Jumladan, S. Shodmonova o'yinlarning milliy ta'lim tizimiga qo'llanishi va ularning maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rmini o'rganib chiqqan [4,75]. Shodmonovanning tadqiqotlari

o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda o'yin texnologiyalari samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, I. Turg'unova maktab o'quvchilari uchun kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi o'yin texnologiyalari haqida so'z yuritadi. Uning tadqiqotlari natijalariga ko'ra, o'yin metodikasini to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, shuningdek, muammolarni echish bo'yicha ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish mumkin [8,22]. Turg'unova o'yinlarning faqat didaktik vosita sifatida emas, balki o'quvchilarning rivojlanishi uchun keng qamrovli pedagogik yondashuv ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o'yin asosidagi ta'lim metodikasining samaradorligini o'rganish va uni sinfda amaliy qo'llash usullarini aniqlashdir. Shuningdek, bolalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o'yinlar orqali qanday rivojlantirish mumkinligini o'rganish [9,78].

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar va ular bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar tanlandi. Tadqiqot Toshkent shahridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borildi va ushbu muassasalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar qo'llanilishi o'rganildi.

Tadqiqotda qatnashuvchi subyektlar 4-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar, shuningdek, ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va pedagogik xodimlar bo'ldi.

Tadqiqot metodlari tanlashda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi o'yinlar samaradorligini baholash uchun amaliy va ilmiy usullar qo'llanildi:

Kuzatish – O'yin jarayonida bolalarning faoliyatini kuzatish orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni o'rganildi. Bu usul orqali bolalarning o'yinlardagi ishtiroki, muammolarni hal qilish jarayonidagi harakatlari va tanqidiy fikrlash darajalari tahlil qilindi.

Eksperiment – Eksperiment jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin asosida o'qitish metodikasi qo'llanildi. O'yinlar ikki guruh bolalar bilan o'tkazildi: bir guruhda o'yin asosidagi ta'lim metodikasi qo'llanildi, ikkinchi guruh esa an'anaviy usulda o'qitildi. Har ikki guruhning rivojlanish natijalari taqqoslandi.

So'rovnoma va intervyu – Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilar va pedagoglar bilan so'rovnoma o'tkazildi. Bu orqali o'yin asosida o'qitish metodikasi haqida ularning fikrlari, bu yondashuvning qiyinchiliklari va afzalliklari o'rganildi [6,115].

Tadqiqotning bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi – Tadqiqot dasturi tuzildi, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar va o'qituvchilar orasidan ishtirokchilar tanlandi. Ushbu bosqichda o'yin asosida o'qitish uchun kerakli metodik

materiallar tayyorlandi va eksperiment o'tkazish rejalashtirildi.

2. Eksperimental bosqich – Tadqiqotning amaliy qismi bo'lib, bunda eksperiment usuli orqali o'yinlar qo'llanildi va ishtirokchilar kuzatildi. Bolalarning o'yinlarda ishtiroki va kognitiv rivojlanishlari baholandi.

3. Natijalarni tahlil qilish bosqichi – Eksperiment natijalari tahlil qilinib, har ikkala guruhda kognitiv rivojlanish darajasi solishtirildi. O'yin asosidagi ta'limning samaradorligi haqida xulosa chiqarildi.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini o'yin asosida ta'lim jarayonida qanday oshirish mumkinligi ko'rib chiqildi. Kuzatuvlar va o'tkazilgan eksperiment natijalarini tahlil qilish jarayonida bir qator muhim faktlar aniqlangan bo'lib, ularning barchasi o'yin texnologiyalarining maktabgacha ta'limdagi samaradorligini tasdiqladi.

1. O'yin asosida o'qitish metodikasining samaradorligi

Eksperiment natijalariga ko'ra, o'yin texnologiyalari qo'llangan guruh bolalarida kognitiv qobiliyatlarning o'sishi sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Bolalar muammolarni hal qilishda ancha faol va mustaqil bo'lib, vazifalarga ijodiy yondashdilar. Shuningdek, o'yin jarayonida ishtirok etgan bolalar o'rganish jarayonida ko'proq qiziqish bildirganlari va o'zaro muloqotlari yuqoriligi kuzatildi.

Boshqa guruhda, ya'ni an'anaviy usulda o'qitilgan bolalarda esa kognitiv rivojlanish darajasi pastroq bo'ldi. Bu guruh bolalari o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni bajarishda passivroq bo'lib, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini kamroq namoyon qildilar [11,54].

2. Kognitiv qobiliyatlar rivojlanishi

O'yin asosida o'qitish metodikasi orqali bolalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlandi. Bu natija maxsus testlar orqali aniqlandi, ya'ni bolalarning xotirasi, mantiqiy fikrlashi va ijodiylik darajasi baholandi. O'yin jarayonida bolalarning jamoaviy ishlash qobiliyati ham yaxshilandi, bu esa kelgusidagi o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5,42].

3. O'yin va muammolarni hal qilish qobiliyati

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'yin asosida o'qitilgan bolalarda muammolarni hal qilish qobiliyati ancha kuchli rivojlangan. Misol uchun, ular o'yin jarayonida duch

kelgan vaziyatlarda yangi, nostandart yechimlarni topa olganliklari kuzatildi. O'yinlar orqali turli xil muammolarni yechishning amaliy ko'nikmalarini egallagan bolalar real hayotda ham bu bilimlarni muvaffaqiyatli qo'llay boshlashdi.

4. Bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi

5. O'yin asosida tashkil etilgan ta'lim bolalarda bilim olishga bo'lgan motivatsiyani oshirdi. Tadqiqot davomida o'yinli mashg'ulotlarga ishtirokchilarning faol ravishda jalb qilinganligi va o'rganish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabati aniqlandi. O'yinlar orqali o'rgatish metodikasi bolalar orasida qiziqarli va hayajonli bo'lib, ular o'quv jarayoniga ixtiyoriy ravishda kirishdilar.

5. O'qituvchilarning mulohazalari

So'rovnoma va intervyu natijalariga ko'ra, o'qituvchilar o'yin asosidagi ta'limning amaliy jihatlarini ijobiy baholadilar. Ularning fikricha, bolalar o'yin jarayonida yanada faol bo'lib, o'z bilimlarini mustahkamlashda mustaqil harakat qilishadi. Shuningdek, o'qituvchilar bolalar bilan ishlashda yanada ijodiy yondashuvlarni qo'llashlari mumkinligini ta'kidladilar. Biroq, ayrim o'qituvchilar o'yin texnologiyalarini sinfda samarali amalga oshirish uchun maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalar va qo'shimcha vaqt talab qilinishini qayd etdilar.

Xulosa.

Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, o'yin texnologiyalari qo'llanilgan bolalar guruhida tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy qobiliyatlar sezilarli darajada rivojlandi. O'yinlar orqali ta'lim bolalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, ularni faol va qiziqarli tarzda bilim olish jarayoniga jalb qildi [12,5].

Shuningdek, o'qituvchilarning mulohazalari o'yin asosidagi ta'lim usulining amaliy jihatlarini ijobiy baholadi, biroq bu usulni samarali qo'llash uchun maxsus o'quv-uslubiy materiallarga ehtiyoj mavjudligi ta'kidlandi. Natijalar maktabgacha ta'limda o'yin asosida o'qitish metodikasini kengroq qo'llash zaruriyatini ko'rsatadi va bolalar kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda bu usulning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kelajakda o'yin asosidagi ta'limning turli yoshdagi bolalarga va boshqa kognitiv sohalarga ta'sirini yanada kengroq o'rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berk, L. E., & Winsler, A. . Scaffolding Children's Learning: Vygotsky and Early Childhood Education. National Association for the Education of Young Children. 1995. Page: 12-25.
2. Tharp, R. G., & Gallimore, R. . A Theory of Teaching as Assisted Performance. In: Cognition, Education, and Multimedia. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. 1988. Page: 50-68.
3. Berk, L. E. . Development Through the Lifespan. Pearson Education. 2009. Page: 99-110.
4. Kozulin, A. . Vygotsky's Educational Theory in Cultural Context. Cambridge University Press. 2003. Page: 75-88.
5. Fisher, R. Teaching Children to Think. Nelson Thornes. 2005. Page: 28-42.

6. Saracho, O. N., & Spodek, B. Contemporary Perspectives on Mathematics in Early Childhood Education. Information Age Publishing. 2003. Page: 115-130.
7. Abdullayeva, M. . Bolalar o'yinlari: Ta'limda o'yin asosidagi usullar. Toshkent: O'qituvchi. (2015) 45-67b
8. Jumayeva, M. . Maktabgacha ta'limda o'yin asosidagi o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2020. 22-34b
9. Qodirova, L. Bolalar kognitiv rivojlanishi va o'yinlar. Tashkent: Sharq. 2018. 78-91b.
10. Siddiqova, A. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishda o'yinlar. Toshkent: Ilm. 2017. 33-46b.
11. Mustafayeva, S. O'yin asosidagi ta'limning psixologik jihatlari. Toshkent: 2021. Yangi avlod. 54-67b.
12. Berdieva, F. O'yin metodikasi va uning ta'limdagi roli. Toshkent: 2022. O'zbekiston. 5-15b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Iroda Xamidova
Namangan davlat universiteti, Doktorant

UDC:811.111

INGLIZ TILINI O'QITISHDA 7-9-SINFLARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANISHINING JORIY KO'RINISHI

Annotatsiya. Akademik muhitda ingliz tilini o'rganish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning umumiy bilim olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chet tillarni bilish insonlarga turli madaniyatlar tarixini o'rganish, ularning hozirgi holatini tushunish, kelajakni bashorat qilish va dunyoning madaniy yutuqlarini qadrlash imkonini beradi. Bu milliy cheklovlar va tor fikrlashdan xalos bo'lishning samarali yo'lidir, shuning uchun ham chet tilini o'qitish ham o'rta, ham oliy ta'limning majburiy qismi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, baholovchi fikrlash, tanqidiy tahlil, g'oyalar, og'zaki muloqot, nutq qobiliyatini rivojlantirish, tasavvur, individual rivojlanish.

Ирода Хамидова
Наманганский государственный университет, Докторант

УДК:811.111

ТЕКУЩИЙ ОБЗОР РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ 7-9 КЛАССОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В академической среде изучение английского языка оказывает положительное влияние на общее образование студентов, развивая их критическое мышление и коммуникативные навыки. Занятия английским языком помогают студентам лучше понимать географию, историю и литературу страны, где возник язык. Приобретение знаний иностранных языков позволяет людям изучать историю различных культур, понимать их нынешнее положение, предсказывать будущее и получать признание за культурные достижения мира. Это эффективный способ преодолеть национальные ограничения и ограниченность, поэтому обучение иностранным языкам является обязательной частью как среднего, так и высшего образования.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, оценочное мышление, критический анализ, идеи, вербальное общение, развитие навыков говорения, воображение, индивидуальное развитие.

Iroda Khamidova
Namangan State University, Doctoral student

UDC:811.111

CURRENT OVERVIEW OF THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT THINKING OF 7-9 GRADES IN TEACHING ENGLISH

Abstract. In an academic environment, studying English has a positive impact on students' overall education by developing their critical thinking and communication skills. Learning a foreign language gives students a basic understanding of the language and its differences from their native language, broadening their perspectives and deepening their understanding of their mother tongue. Engaging with English helps students better comprehend the geography, history, and literature of the country where the language originated. Acquiring knowledge of foreign languages enables individuals to explore the history of different cultures, understand their current situations, predict the future, and gain an appreciation for the cultural achievements of the world. This is an effective way to overcome national limitations and narrow-mindedness, which is why foreign language instruction is a mandatory part of both secondary and higher education.

Keywords: independent thinking, evaluative thinking, analyzing critically, ideas, verbal communication, developing one's speaking skills, imagination, individual development, ability to make decisions.

Introduction.

Studying English in an academic setting influences students' overall education by nurturing their critical thinking and communication abilities. Acquiring a new language gives students an initial understanding of the language's distinctions from their native tongue, broadening their outlook and deepening their grasp of their mother tongue. Engaging in English studies leads to a better understanding of the geography, history, and literature of the language's country of origin. Comprehending foreign languages grants access to diverse cultures' histories, insight into their current circumstances, and anticipation of potential future developments, while also enabling the recognition of global artistic accomplishments. It functions as a valuable means of transcending narrow-mindedness and constraints associated with one's nationality, underscoring the necessity of foreign language education at both secondary and tertiary levels.

President Sh.M. Mirziyoyev emphasized the importance of free thinking in upholding the efficacy of education, alongside the essential role of independent thinking in the learning process. [1]

The primary mental activity for students at present is reflection and reasoning, encompassing intellectual acumen, behavioral patterns, and deliberate conduct. These thinking attributes enhance mental engagement and elucidate issues. The development of independent thinking is based on philosophical, psychological, and pedagogical principles. A survey was conducted to assess English education's status in upper secondary schools in Uzbekistan.

Literature review.

In Mehri Radjabova's work, it is asserted that thinking and speech are closely connected after a review of psychological and pedagogical literature. Thoughts cannot exist independently of language or speech; thinking occurs within speech. Individuals proficient in multiple languages can identify the language they are using to think at any given time. Speech not only articulates thoughts but also shapes and develops them. Observations show that in senior classes, knowledge in one subject is integrated with other knowledge, creating a knowledge system. The theory and practice of teaching demonstrate that the selection of an educational method depends on various factors, such as:

- the general goal and content
- the didactic goal of the lesson.

The subject taught in a lesson depends on the educational material and may involve different activities such as presentation, conversation, or independent work like exercises, dictation, or essay writing. The methods chosen for the lesson depend on the age, knowledge level, and skills of the students. The teacher's preparation and skill can also influence the choice of methods for educational work. It is important for every teacher to

continuously improve their teaching skills and incorporate methods that meet the requirements of life in their practice. An analysis of the current state of English learning in senior classes of comprehensive schools in Uzbekistan, based on the Uzbek language, shows that the existing teaching technologies do not fully meet societal and individual needs. Most Uzbek schools conduct English training in Russian, which creates additional difficulties for students. This issue is highlighted by the state of education and the needs of society and requires a solution. [2]

In our research, we have found that the high school educational process involves integrating knowledge from various academic subjects to form a comprehensive knowledge system. Therefore, having a strong grasp of the native language (Uzbek) is crucial for effectively learning a foreign language (English). When teaching English, we use specific educational methods that involve unique interactions between teachers and students. These interactions focus on guiding students through cognitive activities to acquire knowledge and skills, and are essential in shaping and developing students' personalities.

As Yakubova states, in the educational system, students are taught in educational processes and independently the role of a teacher in free, creative, independent thinking in the activities of work it's an adult. Independent work in the structure of education and two principles in its organization – the objective of using the principle of systematic and consistent independent work is appropriate. [3]

As A. S. Kulakhmedova points out the independence of thinking is characterized by man's ability to put forward new tasks and to find required solutions and answers without asking other people to help him. It does not mean that free thinking person does not rely on the knowledge, thoughts, and experiences of other individuals. People having independent thinking consciously learn and creatively use the experience and knowledge of other people and, vice versa, people, especially schoolchildren, who do not have free thinking, can only orient on others' knowledge and experience while solving problems of various types and answering different questions can solely be based on ready formulas, schematic solutions, not aspiring to find his way and methods of resolving. [4]

The concept of thinking and thinking skills is understood in various ways by different people. These understandings focus on cognitive processes, logic, and the analytical use of information.

F.E. Begimkulov states independent thinking is a tool for understanding the environment, social environment, and reality, as well as the main condition for the rational, effective implementation of a wide range of intellectual activities of a student. When implementing independent thinking, a student develops ideas, reflections, concepts, hypotheses, goals, etc., and they are expressed in

the human mind in the form of concepts, judgments, and conclusions. [5]

Independent thinking manifests itself in close connection with language and speech, and they are constantly interdependent. For the same reason, a student differs radically from existing creatures in his independent thinking (communication), speech, and conscious behavior. A student, through independent thinking, indirectly or indirectly reflects reality, generalizes, and understands internal, complex connections, relations, properties, features, and mechanisms between things and events. Thus, a student has the opportunity to predict the emergence, course, and development of natural and social phenomena and events, as well as their consequences, based on certain laws, laws, and regulations. The importance of independent thinking is especially important in the rational, effective organization of the cognitive and practical activities of modern students.

Research methodology.

According to Maskinsov, two main types of thinking have historically been identified: empirical and theoretical. Empirical thinking emphasizes the sensory attributes and relationships of identifiable objects. Its main goal is to categorize and organize these objects systematically by identifying common characteristics and applying pre-established definitions and broad concepts.[6]

The key aspects of theoretical thinking include deliberately working with abstract concepts, thoroughly analyzing their fundamental nature, and intentionally contemplating the essence of reality through creative methods. The practice of theoretical thinking is believed to stem from objective activities and is closely linked to tangible reality. This type of thinking maximizes its cognitive potential for human understanding and behavior by reflecting the fundamental interconnections of reality in its investigative approach.

Psychological research conducted by V.V. Davydov and his school's students (V.P. Andronov, B.S. Goncharov, A.Z. Zak, L.V. Maksimov, etc.) has identified the following components in theoretical thinking: theoretical analysis, meaningful reflection, and internal planning.

Teaching a foreign language interactively, with an emphasis on cultivating independent and critical thinking across different disciplines, enhances the quality of education for language experts, ultimately resulting in a deeper comprehension of the subject matter.

According to R. Paul, effectively combining different types of thinking helps achieve dialecticism. [7]

Dialecticism involves viewing objects, such as facts and concepts, in their developmental context, considering their opposing aspects, and being able to identify and resolve contradictions that arise during development. V.V. Davydov considered the dialectical nature as an important characteristic of theoretical thinking.

One of the important goals for pedagogy, psychology, and linguistics in their current stage of development is to carefully examine both traditional and innovative methods for teaching foreign languages. This review process should result in a summary of existing materials and the development of specific techniques for evaluating and improving students' independent and theoretical thinking during language studies. The primary elements of theoretical thinking among students include analysis, reflection, and internal planning.

In a changing world, it is difficult to assess what knowledge our students will need in the future. Therefore, it is logical to provide them with the skills necessary to deal with the flow of information.

Psychologists also promote an interest in developing students' thinking. The works of Bruner, Sternberg, Vygotsky, Gardner, etc. have contributed to the increasing concern with the development of the intellectual potential of students. For example, Sternberg (1999) lists four aims of teaching thinking at the general level:

1. to make students better all-around thinkers, and also better thinkers in certain disciplines;
2. to help students learn to make the most of their best abilities;
3. to help to lessen their weakness in thinking skills;
4. to teach them to realize their potential (cited in Hamers & Overtoom 1997, p.24

Fisher (2001, p. 8) mentions three needs:

- to look at the reasons why the child is thinking in such a way
- to remember that thinking is doing and not just being told, that is an active not a passive process
- for children to explore certain key concepts that help unlock their potential. [8]

Analysis and results.

Thinking is a meaning-making process in which a learner relates and connects his or her experiences to a deeper understanding of the other idea; a rigorous, systematic, and disciplined way of thinking that requires interaction with others and is undertaken with an attitude of valuing the personal and intellectual growth of individuals (Rodgers, 2002). This is good thinking that provides students with a way they engage in deep learning and thinking to resolve doubts.

Bloom's (1956) taxonomy has been widely used as it considers the taxonomy's nature and development as an aid in "developing a precise definition and classification of such vaguely defined terms as 'thinking and problem solving'". The taxonomy divides the cognitive domain from the simplest behavior to the most complex behaviors which can be divided into six major classes: knowledge, comprehension, application, analysis, synthesis, and evaluation. These cognitive abilities are hierarchically classified with assessment as the most demanding and knowledge as the least. [9]

Bloom's taxonomy has been modified and categorized to suit educational objectives.

It classifies some skills that can be used to understand thinking and as a framework to teach thinking.

Conclusion.

The student is at the core of the educational process, emphasizing their cognitive and creative activities. The role

of the teacher in this approach is highly significant but differs from traditional teaching methods. Students are expected to take on a large share of the responsibility for their educational success. The primary goal of this method is to foster the intellectual and creative abilities of students, enabling them to reach their potential, think independently, and make important decisions.

References.

1. Раджабова Мехри Рахматовна Взаимосвязанность формирования самостоятельного мышления и речевого развития старшекласников общеобразовательных школ Республики Таджикистан (на материале изучения английского языка на базе таджикского)
2. Yakubova Barno Baxtiyorovna "FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE – TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION". Assistant of the Department of "Humanities" at Andijan Institute of Mechanical Engineering City of Andijan, Uzbekistan
3. Teaching and Thinking A literature review of the teaching of thinking skills prepared by Mohammad Ahmad Assaf Al Ittihad Model School April / 2009
4. A. S. Kulakhmedova "METHODS AND MEANS OF FORMING INDEPENDENT THINKING", Teacher at Chilanzar Academic Lyceum, Tashkent State Economic University, Tashkent, Uzbekistan
5. Begimkulov F.E. Associate Professor of the Department of Agricultural Mechanization engineering and technical faculty Karshi Engineering and Economic Institute (Karshi, Uzbekistan) THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT THINKING IN THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT ACTIVITIES IN STUDENTS
6. Beyer, BK 1991, 'Teaching Thinking Skills: A Handbook for Secondary School Teachers', Allyn and Bacon, Boston.
7. Маскинсков Андрей Борисович ВЛИЯНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И ЭМПИРИЧЕСКОГО ТИПОВ МЫШЛЕНИЯ НА ПРОЦЕСС УСВОЕНИЯ СТУДЕНТА ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. Мордовский государственный педагогический институт им. М.Е. Евсевьева. Курск 2003
8. Fisher, R. (2003). Teaching thinking. London: Continuu
9. Vygotsky, LS 1978, 'Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes', Harvard University Press. Cambridge, MA.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Jalolova Pokiza Muzaffarovna
p.f.d.(DS), professor v.b.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
E-mail: pokiza-namdu@mail.ru

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASPEKTLARI

AnnotaTsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari yoritildi. Shuningdek, ta'limning kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini masofaviy ochiq onlayn kurslar asosida tashkil etish imkoniyatlari yoritildi.

Kalit so'zlar: metod, model, pedagog, kasbiy faoliyat, konsepsiya, fikrlash, taqqoslash, tizimlashtirish, diduksiya, induksiya.

Жалолова Покиза Музаффаровна
д.п.н. и.о.профессор
Шахрисабзский государственный педагогический институт

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические основы подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности. Также были освещены возможности организации самостоятельных учебных занятий по кредитно-модульной системе образования на базе дистанционных открытых онлайн-курсов.

Ключевые слова: метод, модель, педагог, профессиональная деятельность, понятие, мышление, сравнение, систематизация, дидукция, индукция.

Jalolova Pokiza Muzaffarovna
p.f.d.(DSc), professor v.b.
Prince's State Pedagogical Institute

THEORETICAL ASPECTS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES

Annotation. This article covered the theoretical foundations of preparing future educators for professional activities. Also, in the credit-module system of education, the possibilities of organizing independent educational classes on the basis of distance open online courses were highlighted.

Keywords: method, model, educator, professional activity, concept, thinking, comparison, systematization, diduction, induction.

Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali axborot texnologiyalaridan xabardor mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari hayotga tatbiq qiliniyotgan bir paytda, ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish uchun darsliklarning yangi avlodini yaratish masofali o'qitish texnologiyasini yanada jadal rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim tizimining bugungi vazifasi talaba (talaba, tinglovchi, izlanuvchi)larni

kun sayin ko'payib borayotgan elektron, axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda o'z ustida individual faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash sharoiti hamda fanga oid ma'lumotlarning elektron bazasini yaratib berish zarur. Bu jarayonga esa konseptual yondashuv zarur [1].

- **Konsepsiya** so'zining lug'aviy ma'nosi (lotincha conceptio – majmua, tizim) – biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqta nazaridir.

Ta'lim jarayonida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini o'stirish

hamda ilmiy tasavvurlarini boyitishda ta'lim nazariyasining muhim yondashuvlarini keltiramiz.

- **Fikrlash** – ob'ektiv borliqning predmetlarini va hodisalarini taqqoslash, tahlil qilish orqali bajariluvchi mantiqiy amal bo'lib hisoblanadi. U o'ziga quyidagilarni qamrab oladi:

- **taqqoslash** – predmetlar va hodisalar o'rtasida o'xshashliklar hamda farqlarini aniqlashdan iborat;

- **tahlil** – murakkab ob'ektlarni kichik qismlarga ajratib o'rganish;

- **sintez** – ob'ektlarning mustaqil bo'g'inlarini birlashtirish asosida tizim hosil qilinib tadqiq etish;

- **klassifikatsiya** – predmet va hodisalarni muhim belgilari bo'yicha guruhlariga va sinflarga ajratish;

- **umumlashtirish** – turli dalillarni tanlash, ularning umumiy belgilari bo'yicha fikran birlashtirish, umumiy xulosaga kelish;

- **tizimlashtirish** – turli elementlardan bir butun tizimni tuzish va ayrim elementlar o'rtasida bir butunlikni topish;

- **induksiya** – turli dalillarning mazmunini tahlil qilib umumiy xulosa chiqarish;

- **deduksiya** – umumiy xulosalar asosida ayrim mustaqil fikrlarga kelish;

- **mavhumlashtirish** – predmetlarning muhim xususiyatlari va bog'lanishlaridan boshqa muhim bo'lmagan xususiyatlarni fikran ajratib olib, tahlil qilish va xulosa chiqarish;

- **fikrlash** – ongda tahlil qilish orqali predmetning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash, boshqa predmetlardan farq qilish va tushunish;

- **aniqlashtirish** – ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, aniqlash va umumiy tushunchadan tarkib to'g'risida batavsil xulosalarga o'tish.

Bo'lajak fizik mutaxassislarining ilmiy fikrlashini rivojlantirishda yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni anglash jarayonini o'rinli tashkil etish har bir fan o'qituvchisining oldidagi asosiy vazifalardandir.

Atom fizikasi kursi – oliy ta'lim muassasalarida fan sifatida qaraladi. Atom fizikasi kursining mazmunini aks ettiruvchi dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar fizik-metodistlar tomonidan tuziladi va yoziladi [2]. Bu bo'limni ta'limning turli bosqichlarida o'rgangan talabalar fanga doir ma'lum darajadagi bilimga ega bo'ladilar. Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

- o'qishga bo'lgan qiziqishi va unga ijodiy yondashishi;

- o'qituvchilarning ilmiy salohiyati va kasbiy mahoratining etarli darajada ekanligi;

- qo'llaniladigan o'quv dastur va o'quv darsliklarining mazmuni didaktik talablarga to'liq javob berishi;

- ta'lim jarayonining axborot-kommunikatsiya va metodik jihatdan to'la ta'minlanishi;

- ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik ta'minotning mavjudligi;

- ta'limni samarali tashkillashtirishga zaruriy sanitariya-gigienik, xavfsizlik, sosial-psixologik sharoitlarning mavjudligi;

- talabalarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qanoatlantirilishi;

- talabalarning huquqini buzmaslik, majburiyatlarini bajarishga insoniy muomalada bo'lishga o'rgatish;

- ta'lim berish jarayonini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirish [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib oliy ta'limda Atom fizikasi bo'limini zamonaviy texnologiya va talablarga mos darajada amalga oshirish ushbu bo'limni o'qitish metodikasining ilmiy-metodik muammolaridan ekanligini anglatadi.

Atom fizikasi bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash moddiy texnik ta'minot imkoniyatlariga moslab tuzilgan elektron, o'quv-metodik materiallarining sifatiga bog'liq.

Atom fizikasi asoslarini taqdim etishda o'qituvchilar hozirgi ta'lim jarayonida qoida tariqasida tarixiy yondashuvdan foydalanmoqdalar. Shu sababli atom fizikasiga kirishish – bu asosiy eksperimental faktlarni ko'rib chiqish va ularni talqin qilishdir, chunki nazariyaning o'zi XX asrning 20-yillarida o'sha paytda to'plangan eksperimental tajribani tahlil qilish natijasida paydo bo'lgan. Ushbu kursda talabalar fundamental nazariy va eksperimental ishlar bilan tanishadilar. Ushbu yondashuv eksperimental ma'lumotlarning katta miqdorini amaliy mashg'ulotlarda tadqiq qilish zaruriyatini ko'rib chiqishni talab qiladi [4].

Yuqorida ko'rsatilgandek, simulyatsiya va modellashtirish dasturidan foydalanish atom fizikasini tushunishni osonlashtiradi va ba'zi hollarda fizikaning bunday murakkab tarmog'ini o'rganish qiyinligini chetlab o'tishga imkon beradi.

O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda atom fizikasi bo'limida boshqa fandan qo'llanilishi rejalashtirilgan ma'lumotni sodda, oddiy, talaba oson tushunadigan ma'lumotlar asosida tanlashi maqsadga muvofiqdir. Kerakli ma'lumotlardan o'qituvchi dars mashg'ulot jarayonida o'z o'rnida foydalanishi uchun tarqatma materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi:

mazkur mavzu (savol, test, grafik, rasm)ga taalluqli ma'lumot qaysi darslikda berilgan;

ma'lumotlar hamohang (parallel) fanda qachon o'zlashtiriladi;

yondosh fandagi ma'lumotning qisqacha bayoni (dalillar, misollar, raqamlar, qonunlar) yozib olinadi;

ma'lumotni fizika fanida foydalanishda qaysi uslub (metod)ni qo'llash maqsadga muvofiq (eslatish, aytib berish, takrorlash, tarixiy ekskursiya, moslashtirish,


mustaqil ish uchun vazifa, rasm va grafiklar bilan ishlash, muammoli vaziyat yaratish va boshqalar)[5].

Mashg'ulot jarayonida fanalararo aloqadorlikning quyidagi usullari ishlatiladi: boshqa fanlardan topshiriq berish, keyingi mashg'ulotlarda o'tiladigan mavzu bo'yicha yondosh fandan ishlatiladigan ma'lumotlarni topish uyga vazifa kilib beriladi, vazifa aniq bo'lishi – talabning qaysi darslikdan aynan qaysi mavzuni va qanday ma'lumotlarni tayyorlashi (yozib olish, og'zaki o'qib chiqish, savollarga javob berish va boshqalar) izohlab beriladi. Mashg'ulotda o'tilganlarni mustahkamlash uchun fanlararo aloqadorlik xarakteridagi bir nechta masalani echish maqsadga muvofiq. Bunday holatda fizika mashg'ulotlari boshqa fanlar darsliklaridan foydalaniladi. Masalan, suyuqlikda jismlarning suzish shartlarini tushuntirgandan keyin quyidagi misol tavsiya qilinadi: baliqning suzish organlari vazifalarini fizika qonuniyatlari nuqtai nazaridan tushuntirish mumkin.

Davlat, jamiyat va oliy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri respublikamizda ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta'lim standarti, malaka talablari asosida ta'limning zamonaviy industriyasini yaratish hisoblanadi [6].

Ayrim oliy ta'lim muassasalarida atom fizikasidan laboratoriya jihozlari va dasturiy ishlanmalardan foydalanishga oid texnik vositalarning etarli emasligi sababli eksperimentlar bilan ishlash yuzaki o'rganiladi (nosoz asboblar, ayrim qurilmalarning etishmasligi, kompyuter bilan ta'minlanish etarli emasligi), bu o'z navbatida ularni amaliyotda (muammolarni hal qilishda) qo'llashning iloji yo'qligiga olib keladi.


Eksperimental natijalarning yuqori aniqligiga erishish uchun qayta o'lchashning maxsus usullarini qo'llash mumkin, bu esa cho'qqilarning aniq holati va ularning egrilikka tushishini aniqlashga imkon beradi.




1-rasm. Frank-Gers tajribasining elektron darslikda tasvirlanishi

Tajribalarda o'lchangan grafiklarni baholashda vertikal chiziqlar yoki maksimumlar markazlarini chizish yordamida mos maksimumlar o'rtasidagi masofani o'lchashda foydalanildi. Tajribaviy misollarda o'rtacha qiymat $U_2 = 5.07V$ ekanligi aniqlandi. Bu esa $\Delta E = 5.07 eV$ o'tish energiyasiga mos keladi.

Simob atomining asosiy holat $1C0$ dan birinchi $3p_1$ holatga o'tish energiyasining adabiyotlarda topilgan qiymati $E = 4.9 eV$ ga to'g'ri keladi.





2-rasm. Frank-Gersning 3-tajribasi virtual tasviri

Birinci maksimumning holati foydalanilgan elektrod materiallarining kontakt kuchlanishlari orqali va boshqaruvchi potensial U_1 yordamida aniqlandi. Yuqoriroq tartibdagi maksimumlar o'rtasidagi masofaning kattaroq qiymati xarakteristik trubka chizig'ida Frank-Gers grafigining superpozitsiyasi sababli bo'ladi. Ushbu egrilik asosida argon atomining birinchi uyg'onish potentsiali hisoblab chiqilgan. Insonning kasbiy faoliyatga tayyorligi deganda uning asosiy kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismlarning o'zaro munosabatiga asoslangan, umuman, shaxsning o'ziga xos xususiyati tushuniladi. Bu murakkab ruhiy formasiya bo'lib, uning shakllanishida muayyan funksiyalarni bajaradigan xususiyatlarning munosabati bilan quriladi. Ta'lim jarayonida avvalo bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatiga sadoqatini rivojlantirish, rivojlantirish jarayonining maqsadi yakuniy natijasi deb hisoblashimiz kerak [7].

Har qanday ta'lim jarayoni murakkab integral tizim sifatida, ya'ni buyurtma qilingan to'plam sifatida yaxlit ta'limning muayyan tartib elementlarida o'zaro bog'langan va joylashtirilgan kombinatsiyasi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Китайгородский М.Д. Методическая система опережающего образования учителя технологии в области современных цифровых технологий . Автореф. дис. д-р. пед наук. – М.;2020. – 25 с.,
2. Callejo S. What connectivism is. Retrieved May 4, 2015 from Half and hour: <http://halfanhour.blogspot.com/2020/02/what-connectivism-is.html> Freire,
3. La J. Educación encierra un tesoro. Madrid: Santillana. Downes, S. (2007).
4. Lane A. (2022). A review of the role of national pilicy and institutional mission in European Distance Teaching Universities with respect to widening participation in higher education study through open educational resources. Distance Education , 33 (2).
5. Marta Ruiz-Corbella. Philosophy of Education and Education in Competences in the context of the European Higher Education Area // Philosophy of Education, 2021.
6. Ерунова Л.И. Урок физики и его структура при комплексном решении задач обучения.-М.: Просвещение, 2008.
7. Селиверстов А.В. Современные технологии и методики лекционного эксперимента по оптике на физическом факультете МГУ. // Ломоносовские чтения–2004. Секция физики. Сборник расширенных тезисов докладов, ч. 2, с.162–167.

Ma'lumki, sistema deb integrallashgan sistema xossalarida ifodalanadigan birlik komponentlarning tartibli to'plami tushuniladi. Bularga tizim tuzilishidagi komponentlar (elementlar) ning bog'lanish tartibi, elementlar tizimning umumiy faoliyatiga, uning tuzilishiga, tizimning holatiga qo'shgan hissasi, darajasi, holatlarining ketma-ketligi kiradi [8].

Yaxlit, shaxsiy-faoliyatli yondashuvdan (motodologik bo'lmagan) faoliyatning ma'lum bir turiga tayyorlik noaniq belgilanadi [9].

Kasbiy tayyorlikni o'rganishga shaxsiy yondashuv kasbiy faoliyatni tartibga solishdagi roli bilan farq qiluvchi muhim kasbiy xususiyatlarning birligi sifatida qabul qiladi. Shu bilan birga, etakchi integrasion rolni tegishli faoliyatga e'tiborni ifodalovchi shaxsiy fazilatlar o'ynaydi [10].

Shaxsiy-faoliyatli yondashuvi doirasida kasbiy tayyorlik shaxsning individual, shaxsiy va subektiv xususiyatlari va sifatlarining yaxlitligida namoyon bo'lishi insonga o'z funksiyalarini samarali bajarish imkoniyatini taqdim etishi sifatida qaraladi.

Xulosa.

Talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli texnologiyalar vositasida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotlarga asoslangan ishlanmalarni joriy etib mashg'ulotlarni tashkil etish lozim.

Talabalarni o'z ustida individual ishlash imkoniyatini beradigan raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi avlod darsliklarini yaratish va ulardan foydalanishga oid qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning laboratoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga tayyorlanishida fanlar kesimida nazariy va amaliy ma'lumotlarni qidirish, ular ustida mustaqil izlanish olib borish va eksperimental kompetensiyalarini rivojlantirish doirasida ma'lumotlar kompleksi mavjud masofaviy ochiq kurslarni o'quv dasturi talablari asosida yaratish lozim.

8. Петрук В.А. Компетентностно-ориентированная система преподавания фундаментальных дисциплин в технических вузах // Инженерное образование. – 2009. – №5. –С. 60-65.

9. Schaeffer, D. (2021). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development. ICSU Series on Science for Sustainable Development.

10. Santa Cruz de Tenerife: Universidad de la Laguna. Gaebel, M. (2013). MOOCs. Massive Open Online Courses. Una pedagogía de la comunicación. Madrid: Ediciones de la Torre. Lane, A. (2022).

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

M.L.Boltayeva

NamDU, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

A.A.Rayimov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg 'ona filiali assistenti

AJDODLARIMIZNING ILMIY ME'ROSINI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARDA AKKULTURATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Annotatsiya. Xalqimiz o'zining g'oyatda boy ilmiy, falsafiy, adabiy va madaniy merosi bilan jahonga mashhurdir. Yurtimiz dunyoga ilm-fanning, madaniyatning barcha sohalarida ko'plab buyuk siymolarni yetkazib berdi.

Tayanch atamalar: akkulturatativ ko'nikma, Motevatsion soha, Emotsional soha, YUNESKO, qadriyat, tolerant.

M.L.Болтаева

НамГУ, кандидат педагогических наук, доцент

A.A.Раимов

Доцент Фаргинского филиала тату имени Мухаммеда аль-Хорезми

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ АККУЛЬТУРАЦИОННЫХ УМЕНИЙ УЧАЩИХСЯ ПУТЕМ ИЗУЧЕНИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ НАШИХ ПРЕДКОВ

Абстрактный. Наша нация известна во всем мире своим богатым научным, философским, литературным и культурным наследием. Наша страна дала миру немало великих деятелей во всех областях науки и культуры.

Ключевые слова: аккультурационные навыки, мотивационная сфера, эмоциональная сфера, ЮНЕСКО, ценности, толерантность.

M.L.Boltayeva

NamSU, candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

A.A.Rayimov

Assistant of the native branch of TATU Farg named after Muhammad al-Khwarazmi

THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF FORMING ACCULTURATIVE SKILLS IN STUDENTS BY STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF OUR ANCESTORS

Abstract. Our nation is world famous for its rich scientific, philosophical, literary and cultural heritage. Our country has given the world many great figures in all fields of science and culture.

Key words: acculturative skills, motivational sphere, emotional sphere, UNESCO, value, tolerant.

Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarni, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy kabi mutafakkirlarni jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. 1004-yilda Urganchda «Ma'mun Akademiyasi» tashkil etilib unda ijod qilgan olimlar soni 300 tadan oshgan. Bu dargoh ilm-fanning turli sohalarini bo'yicha samarali ishlarni olib bordi. Astronomiya, riyozat, tibbiyot, falsafa, mantiq, musiqa, adabiyot va boshqa fanlar rivojiga katta e'tibor berildi. Turkiston azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning adabiyot va san'atning eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, IX–XV asrlarda Turkiston xalqlari safidan Sharq


va G'arbda o'rta asr matematika ilmi va maktabining asoschisi al-Xorazmiy, «Ustodi soniy» – «Ikkinchi muallim» yoki sharq Aristoteli unvoniga sazovor bo'lgan Abu Nasr Farobiy, tibbiyot ilmining yetakchisi «Shayx ur – rais» – olimlar podshosi Abu Ali ibn Sino Sharqningina emas, balki butun insoniyatning faxr-iftixori, qomusiy aql egasi Abu Rayxon Beruniy, o'rta asr astronomiyasining yorug' yulduzi al-Farg'oni, hadis va fikhnining buyuk allomalari imom Ismoil Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, donishmand podshoh, yulduzlar jadvalining asoschilaridan biri Mirzo Ulug'bek, mumtoz she'riyatning yorqin yulduzlaridan hisoblangan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari yuzlab

ulug' zotlar va ulamolar yetishib chiqqan. Sharqdan, xususan, Turkiston o'lkasidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va ulkan ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitdilar, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatishdi.

Har bir millat jahon sivilizatsiyasida o'z o'rnini egallashga intilar ekan, u milliy madaniy meros bilan cheklanib qola olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarsiz insoniyat tomonidan ko'p asrlar davomida to'plangan tarixiy falsafiy, axloqiy, ilmiy va diniy merossiz mafkura haqida gapirish o'z-o'zini maqtashdan nariga o'tmaydi. Har bir xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosida umuminsoniy qadriyatlar ham o'ziga xos shakllar va ko'rinishlarda ifoda etilgan bo'ladi. Milliy qadriyatlarni tiklash jahon ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uzviy bog'langan, bir-biriga ta'sir etadi. Chunki, umuminsoniy qadriyatlarda butun insoniyatning,

shu jumladan, o'zbek xalqining ham intilishlari o'z ifodasini topadi. Xalqimizning qadriyatlarga sodiqligini inobatga olib, insoniyat tomonidan yaratilgan, uning asrlar osha avaylab asrab kelgan adolat, insonparvarlik va tenglik an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishda namoyon bo'lmoqda.


Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ajdodlarimiz zamonidagi e'tika, akkulturatativ ko'nikmalarni o'rganish orqali maktab ta'limini rivojlantirish ko'plab psixologik omillar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Jumladan, o'z-o'zini ang'lay bilishi, ya'ni o'z-o'ziga baho berish mayli va istagi kabi ustanovkalar; o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslashi; fikrlarini erkin, ochiq, mazmunli ifodalashi; o'zgalarning fikrini eshita olishi va murosa qila olish kabi emotsional xususiyatlar, shaxs motivatsion sohasi rivoji mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik omillari

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda pedagogik omillarning yetakchiligini ham alohida e'tirof etish zarur. Akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda milliy tarbiya,

tarixiy tarbiya, o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish hamda interfaol ta'lim sharoitida o'qituvchi faoliyatini modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik omillari

Akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tarbiya asosiga qurilishi, shubhasiz. Ana shu jihatdan O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyani tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ilk bor tadqiq etgan olim M.Quronovning fikrlari diqqatga sazovordir. «Milliy tarbiya» tushunchasi ko'p qirrali qamrovga egadir: milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi; O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi; turli millatlar bolalarini har tomonlama rivojlan-tirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai; o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili; millatlaro muloqot madaniya-tini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarlik yo'li va vositasi; ijtimoiy tarbiya va maktab tarbiyasi uyg'unligining pedagogik sharti; insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li; ijtimoiy ma'naviy jahada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik ob'ekti va vositasi; o'quvchilarda milliy (avto va getero) streotiplarni maqsadli shakllantirish, ma'naviy boyitish jarayoni ekanligi shundan dalolat beradi¹⁰.

Zamonaviy sharoitda milliy tarbiya tushunchasi o'zida quyidagi ikki jihatni ham aks ettirayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim: o'quvchilarni ommaviy madaniyat ko'rinishlari va ta'sirlaridan himoya qilishning ta'sirchan mexanizmi; o'quvchilarni ommaviy axborot xurujlaridan muhofaza qilishning samarali shakl, metod va vositalari tizimi.

Sotsiologik, pedagogik-psixologik tadqiqot natijalariga tayangan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini milliy tarbiyalash tizimi bilan bog'liqlikda uning namoyon bo'lish xususiyatlarini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin: nisbatan sust (kichik maktab yoshi) va faol (o'smirlik davri).

Milliy tarbiyalanganlik ilk bosqichi milliy bilimlarning sustligi, o'z milliy mansubligini noaniqroq anglanishi, o'z millatiga mansub bo'lgan odamlar bilan umumiylikni unchalik aniq bilmaganligi bilan xarakterlidir. Ana shu sababli mazkur bosqichda bolaning milliy ruhda shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi. Oilada tashkil etiluvchi tarbiyaning aniq maqsadga yo'naltirilishi, ota-onalarning milliy qadriyatlar va oila tarbiyasini tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslaridan etarli darajada xabardor bo'lishlariga erishish bugungi kunning muhim talabidir.

Shuningdek, milliy tarbiyaning ilk bosqichida til birinchi darajali ahamiyatga ega. Ma'lumki, til milliy o'z-o'zini anglashning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki til ona tili sifatida anglanadi va bu

¹⁰ Куронов М. Миллий тарбия. – Т.: Маънавият, 2007. – 6-7 б.

tilda ushbu millat vakillari o'zaro gaplashadilar. Milliy til orqali o'z millati a'zolari orasida o'zaro tushunishni, milliy madaniy ma'lumot, axborotlarni, madaniy merosni saqlagan holda avloddan avlodga o'tkazish ta'minlanadi.

Milliy tarbiyalanganlikning ikkinchi bosqichi o'smirlik davri (11-15 yosh)ni qamrab oladi. Bu davrning o'ziga xosligi o'z millatiga ongli munosabat, milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi o'smirlarda juda ko'p psixologik omillarga bog'liq ravishda amalga oshadi. Bolalarda o'z va o'zga xalqlarning tarixiga qiziqish yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur bosqichda o'zga millat vakillariga qiyosan o'z millatining milliy madaniy va milliy psixologik xususiyatlari haqida tasavvurlar va baholar tizimi shakllanadi. Shuningdek, o'z xalqining tarixiy merosiga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'usi rivojlanib boradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, tadqiqotda «tarixiy tarbiya» masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Zero, tarixiy tarbiya yordamida millat birinchidan, «Biz kimmiz?», «Kimlarning avlodimiz?» degan savollarga javob izlash zamirida o'zining tarixiy ildizlarini anglashi, ikkinchidan, o'tmishda ro'y bergan jarayonlarni tahlil etish orqali ulardan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarishi, uchinchidan, real voqeelik, uni keltirib chiqargan sabablar, omillarni chuqurroq anglab etishi va yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqargan holda ertangi kunining optimal yo'llarini belgilashi mumkin bo'ladi.

Tarixiy tarbiyani tashkil etishda xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari, ixcham shakldagi pand-nasihatlilar, matallar, rivoyatlar, tarixiy qo'shiqlar, asrlar davomida sayqallashgan urf-odatlar mazmunida mujassamlashgan ajdodlar tajribasiga tayanib ish ko'rish nihoyatda muhim.

Tarixiy tarbiyaning tarixiy tafakkur rivojidadagi o'rni haqida gap ketar ekan, masalaning quyidagi jihatiga ham e'tibor berish zarur. Ingliz olimi Ralf Emerson «tamaddunning haqiqiy darajasi boylik bilan emas, shaharlarning mahobati bilan ham emas, mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi», – deb yozgan edi¹¹. Ana shu qiyofani shakllantirishga

qaratilgan tarixiy tarbiya ikki xil – salbiy hamda ijobiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Shaxs, ijtimoiy guruh yoki millat tarixiy xotirasini bir yoqlama, noxolis, noadekvat shakllantirishga qaratilgan tarbiya mohiyatan salbiy mazmunga egadir. Chunki, bunda o'sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishda bir yoqlama tarixiy tarbiya amalga oshiriladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yoshlikda bola ongiga singdirilgan noto'g'ri axborotni o'chirib tashlash oson kechmaydi. O'sib kelayotgan yoshlarga tarixni noxolis singdirishni millat tarixiy xotirasidagi bir ustunning ildiziga bolta urish, uni emirishga qaratilgan siyosiy xatti-harakat sifatida baholash mumkin¹².

Tarixiy tarbiya ijobiy mazmunga ega bo'lsa, barcha sa'y-harakatlar xolislik, ob'ektivlik, chuqur ilmiy tahlil asosida olib boriladi, tarixiy tafakkur rivoji o'zgacha xarakter kasb etadi. Ya'ni, bu yo'lda barcha harakatlar tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga bog'liq holda tarixiy haqiqatni bilish, uni muhrlash, yosh avlodga xolisona etkazishga yo'nal-tirilgan holda olib boriladi. Bunda buyuk mutafakkirlar ta'limotiga, boy milliy va umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga asoslaniladi. Milliy tiklanish jarayoni orqali milliy tarixiy tafakkurdagi kemtiklarni to'ldirish jarayoni boshlanadi. Zero, xolis singdirilgan tarixiy tarbiya insonda xatolardan himoyalani, to'g'ri yo'lni belgilab olish qobiliyatini shakllantiradi.

Xulosa qilganda, maktab ta'limida o'quvchilarga yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish va insoniy sifatlariga ega, vijdonli va diyonatli kadrlarni tarbiyalash muhim ijtimoiy zarurat bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga akkulturatativ ko'nikmalarni shakllantirish va bu orqali ijtimoiy munosabatlarga faol kirisha oladigan, tolerant munosabatlarni ko'rsatib bera oladigan yoshlarni tarbiyalash ham ustuvor vazifaga aylanmoqda. Maktab ta'limida o'quvchilarda madaniy munosabatlarni hurmat qiladigan, o'zgalarning madaniy o'ziga xoslikini qadrlay biladigan o'quvchilarni tarbiyalash orqali ushbu vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон. 2023, -Б.106.
2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O'zbekiston, 2020-yil 23 sentyabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
4. Абдурауф Фитрат. Нажот йўли. – Т.: Маънавият, 2003. – 256 б. Абдурахмон Жомий. Нафахот ул-унс. -Тошкент Тафаккур, 2010. -122
5. Абдуллаева Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Дисс. ... фал. фан. ном. – Т., 2006. – 77 б.

¹¹ Winter J. Sites of Memory, Sites of Mourning: The Great War in European cultural history – Cambridge, 1995. – 326 p.

¹² Абдуллаева Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Дисс. ... фал. фан. ном. – Т., 2006. – 77 б.

6. Куронов М. Миллий тарбия. – Т.: Маънавият, 2007. – 6-7 б.
7. Winter J. Sites of Memory, Sites of Mourning: The Great War in European cultural history – Cambridge, 1995. – 326 p.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nazimov Alim Turgunbayevich
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA YENGIL ATLETIKA MASHG'ULOTLARINING XUSUSIYATLARI

Anotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini sifatli va mazmunli tashkil etilishi hamda yengil atletika mashg'ulotlari orqali o'quvchi-yoshlarning jismonan baquvvat, ma'nau yetuk, teran fikrlaydigan yetuk salohiyatli kadr bo'lib yetishishlari yo'lida zarur ko'rsatma va takliflar haqida fikr-mulohazalar bayon qilindi.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, yengil atletika, irodalilik, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sport, faza, g'ov, estafeta, rejalashtirish, seksiya, texnika, taktika, egiluvchanlik.

Назимов Алим Тургунович
Старший преподаватель
Наманганского государственного университета

ОСОБЕННОСТИ ЗАНЯТИЙ ПО ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы качественной и содержательной организации уроков физической культуры в общеобразовательных школах, а также даются необходимые рекомендации и предложения по физическому развитию, нравственному воспитанию и интеллектуальному усовершенствованию учащихся посредством занятий легкой атлетикой.

Ключевые слова: Физическое воспитание, легкая атлетика, воля, скорость, ловкость, выносливость, спорт, фаза, барьер, эстафета, планирование, секция, техника, тактика, гибкость.

Alim Turgunovich Nazimov
Senior Lecturer, Namangan State University

FEATURES OF LIGHT ATHLETICS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Abstract: The article explores the issues of quality and substantive organization of physical education classes in general education schools. The necessary recommendations and suggestions for development of physically fit, intellectually mature, deep-thinking mature potential staff through light athletics training is discussed.

Keywords: Physical education, light athletics, willpower, speed, agility, endurance, sports, phase, hurdle, relay race, planning, section, technique, tactics, flexibility.

Kirish.

O'quvchilarning irodalilik, g'alabaga intiluvchanlik, chaqqonlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik kabi sifatlarning rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport faoliyatining pedagogik-psixologik ta'lim samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarda sportchiga xos xarakter xislatlari rivojlanib, so'ng bu xislatlar uning doimiy xarakteri sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu ilmiy ishimiz ham muayyan darajada xizmat qiladi[1; 2; 3].

Adabiyotlar tahlili.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yengil atletika mashg'ulotlarining xususiyatlarini rus olimlarida A.I.Jilkin, V.S.Kuzmin, E.V. Sidorchuk, P.V.Kvashuk, J.K.Xolodovlar o'rgangan. Mmalakatimiz olimlaridan M.J.Abdullayev,

A.N.Normurodov, A.T.Nazimovlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida alohida bayon qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yengil atletika darsining mazmuni juda keng qamrovli va sifatli tarzda tashkil etilishi zarur. Sababi, harakat faoliyatiga asoslangan bu fanning qismlari yengil atletikaning har bir detallari bilan uzviy bog'langan.

Tahlillar va natijalar.

Maktab o'quvchilari yengil atletika darslarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun yengil atletikaning o'rgatish etaplarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari darkor. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishsa bo'ladi. Xususan, yengil atletikaning o'rgatish etaplariga quyidagilar kiradi:

- ✓ 1.Kirish.
- ✓ 2.O'qitish.
- ✓ 3.Takrorlash.
- ✓ 4.Takomillashtirish.
- ✓ 5.O'tilgan materiallarni mustahkamlash.

Darsni yaxshi o'zlashtirib, bilim va malaka hosil qilishda jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik va aralash darslarning o'rni beqiyosdir. Darslar kirish, tayyorlov, asosiy va yakunlov dars qisimlariga bo'lib o'tiladi. Kirish qismiga qo'yiladigan vazifalar: Saflanish, raport, asosiy vazifani ma'lum qilish. O'quvchilarni darsga tashkillashtirish. Tayyorlov qismi: o'quvchilarni asosiy vazifani bajarish holatiga olib kelishdir. Bunda asta sekin yugurish va umuman rivojlantirish mashq(URM) berish asosiy qismda yangi bilimlar o'rgatiladi. Bunda yengil atletika turlari o'rgatiladi, malaka hosil qilinadi va takomillashtiriladi. Yakunlov qismida dars yuklamasi pasaytiriladi, o'tilgan darsga yakun yasaladi va uyga vazifa beriladi. 45 minutlik dars quyidagicha taqsimlanadi. Kirish qismi 3 minut, tayyorlov qismi 12 minut, asosiy qismi 25-27 minut, yakunlov qismiga 3 minut vaqt sarflanadi.

Darsning asosiy hujjat konspekt hisoblanadi. Bunda o'tiladigan dars davomiyligi ifodalangan bo'ladi. Yengil atletika mashg'ulotlarini o'rgatish, yugurish, sakrash va uloqtirishlarni o'zlashtirish va ularni takomillangan holatga yetkazish zarur bo'ladi. 5-sinfdan boshlab darslarga yosh yengil atletikachilar uchun zarur bo'lgan fazilatlardan tezkorlikni, kuch va chidamkorlikni rivojlantirish yordam beruvchi mashqlar kiritiladi. O'quvchilar programmasiga muvofiq chuqurroq o'rganish mashg'ulotlarida qisqa masofalarga yugurish, o'rta masofalarga yugurish, g'ovlar osha va estafetali yugurish, "hatlab o'tish" va "periyokidnoy" usullarida balandlikka sakrash, "oyoqlarni yig'ib" va "qaychi" usullarida uzunlikka sakrash texnikalarini o'rganadilar. Granata va nayza hamda yadro otish texnikalarini o'zlashtirib boradilar [4].

Mashg'ulotlarining maqsadi faqat shundan keyingina shuning maqsadli shakllanadi va uning asosida o'quvchilarning kutilayotgan nazariy, jismoniy va texnik

tayyorgarliklari holati darajasi loyihalashtiriladi. Kutilayotgan jismoniy holatga maktab o'quv dasturida nazarda tutilgan nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, jismoniy mashqlarni o'rganish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash bo'yicha bir qator aniq vazifalarni qo'yish bilan erishiladi. Shunday ekan, rejalashtirishning navbatdagi texnologik operatsiyasi sifatida ta'lim va tarbiyaning aniq vazifalarini amalga oshirish zarur. Qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish tizimini aniqlaydi. U vositalar, uslublar va ish sharoitlarini uz ichiga oladi. Bu operatsiya, xuddi oldingidek, o'quvchilarning faol ishtiroklari natijasida amalga oshirilishi mumkin. Bu vaqtda jismoniy tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga halaqit beruvchi yuz berishi mumkin bo'lgan noqulay omillarni hisobga olish lozim. Pedagogik jarayonning to'g'ri borishini tekshirish uchun maxsus tanlab olingan "ekspres testlar" yordamida bosqichma-bosqich nazorat o'tkazish quyi tizimi yaratiladi.

Agar har bir bosqich nazoratida olingan natija rejalashtirilgan talabga javob bersa, bu vaqtda barcha operatsiyalarning to'g'ri rejalashtirilganligiga xulosa qilsa bo'ladi. Mobodo rejalar vijdonan amalga oshirilgan sharoitda nazorat natijalari rejalashtirilgan maqsadlardan jiddiy farq qilsa, demak rejalashtirish texnologiyasida xatolar borligidan dalolat beradi. Bu xatolarni uchta zvenodan qidirish kerak bo'ladi. Birinchi navbatda rejalashtirish davrida barcha noqulay omillar hisobga olinganligi yoki olinmaganligini tekshirib ko'rish lozim. Ikkinchi navbatda pedagogik ta'sir tizimi taftish qilinadi. Agar bu yerda ham kamchiliklar topilmasa pedagogik vazifalarning amaliyligi baholanadi. Agar, xatolar birinchi zvenodan topilsa va aynan yana shular natijalarning bajarilmasligiga sabab bo'lganligiga o'qituvchi qat'iy ishonsa, zarur choralar ko'riladi va boshqa zvenolar tekshirilmaydi.

Odatda o'qituvchi faoliyatining birinchi yillarida rejalashtirish texnologiyasining turli operatsiyalarida yo'l qo'yilgan ko'zga tashlanib turmaydigan xatolar umumlashgan holda ishning natijasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yosh o'qituvchilar o'zining barcha faoliyatini doimiy tahlil qilishlari darkor. O'zlari uchun doimo talabchan bo'lishlari kerak. Bu kelajakda muvaffakiyat garovidir. Rejalashtirish yakuniy hisobga olish bilan tugallanadi. Hisobga olish natijasida olingan ma'lumotlar kelgusi stikl (darslar seriyasi, o'quv choragi, o'quv yili)ni rejalashtirish uchun asos qilib olinadi. Mashg'ulotlarining tuzulishi mashg'ulotning tuzilishi, shakllari va mazmuni.

Hamma yengil atletikachilar uchun mashg'ulot protsessining asosiy tashkiliy shakli gruppaga bo'lib, individual 2 soat yoki undan ko'proq davom etadigan trenirovka mashg'uloti o'tkazishdir. Ozroq davom etadigan mashg'ulotlar bo'lishi ham mumkin. Asosiy mashg'ulotlarni har kuni ko'p kuch ketmaydigan ertalabki trenirovka mashg'ulotlarini to'ldiruvchi uy vazifalarini esa

kunning boshqa vaqtida bajarish mumkin. Mashg'ulotlarning hamma shakllarida quyidagi asosiy qoidalarga rioya qilish kerak. Mashg'ulotni asta-sekin boshlab, keyin asosiy ish o'tkaziladi. Mashg'ulot oxirida kuch berish kamaytiriladi. Kuch kelishni bu tarzda o'zgartira borishi, mashg'ulot qaysi tarzda o'tkazilishdan qat'iy nazar, har qanday trenirovka mashg'uloti uchun shartdir. Trenirovka mashg'ulotlari qabul qilingan umumiy struktura bo'yicha tuzilib, 4 qismdan yoki 3 qismdan iborat. Mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga, trenirovka davriga va asosan yengil atletikachilarning tayyorgarlik darajalariga qarab 1 yoki 2 variant qo'llaniladi[5; 6]. O'quv-trenirovka darsi ayrim qismlarning vazifasi va mazmuni. Mashg'ulotning kirish qismi. Kirish qismining vazifasi o'quvchilarni u yushtirishdan, ya'ni gruppani saflash, raport qabul qilish, davomatni tekshirish, dars vazifasi va mazmunini tushuntirish gruppani mashq bajarish uchun qayta saflashdan iborat.

Kirish qismi 3-10 minut davom etadi. Mashg'ulotning tayyorlov qismi: Tayyorlov qismining vazifasi shug'ullanuvchilarda umuman badanni qizdirib olish va ularni bo'ladigan kuch kelishga tayyorlash-razminka, muskul kuchini va egiluvchanligini rivojlantirish, harakatni boshqara olish qobiliyatini yaxshilash va yengil atletika turlari, texnika elementlari bilan tanishtirish. Darsning tayyorlov qismiga mashg'ulotning tayyorlov davrida ko'proq va musobaqa davrida ozroq vaqt ajratiladi. Razminka sportchi organizmini bo'ladigan trenirovka ishiga tayyorlaydi. U kuch kelish asta-sekin oshib boradigan qilib maxsus tanlangan jismoniy mashqlar kompleksidan iboratdir. Agar razminka noto'g'ri tanlansa, uning foydali ham bo'libgina qolmasdan, balki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Trenirovka mashg'ulotlarida o'tkaziladigan razminkada kuch kelish juda ham oz bo'lmasligi shart. Razminka quyidagi qismlardan iborat bo'ladi. Birinchi qismning vazifasi vegetativ funksiyalarni qizdirish hisobiga organizmning umumiy ish qobiliyatini oshirishdir. Ikkichi qismda sportchi o'zida bo'lajak ishga moyillik hosil qilib olish kerak. Razminkadan badan qismi qizdirilib atletning butun organizmi qatnashadigan, ancha davom etadigan, o'rtacha kuch oladigan jismoniy mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

Odatda bu goho-goho yengilgina tezlanish qo'shadigan oxista suratda yugurishdan iborat bo'ladi. Ter chiqqa boshlashi oldidan badan zarur darajada qizigan bo'ladi, degan fikr bor. Qizdiruvchi mashqlarning qancha davom etishi ko'p jihatdan atletikaning tayyorlik darajasiga, ayniqsa uning umumiy chidamlilik darajasiga bog'liqdir. Qizdirish qancha davom etishi havoning haroratiga ham bog'liqdir. Issiq paytlarda razminka uchun yugurishi, razminkaning butun bir qismi singari kamaytirish kerak. Razminka hammasi bo'lib 30-40 daqiqa davom etadi. Asosiy qism. Mashg'ulotning asosiy qismi ketma-ketlik quyidagicha bo'lgani maqulroq texnikani

o'rganish va uni takomillashtirishga mo'ljallangan mashqlarga:

1) tezkorlikni yoki chaqqonlikni rivojlantiradigan mashqlar;

2) kuchni rivojlantiradigan mashqlar;

3) chidamlilikni rivojlantiradigan mashqlar.

Texnikani o'rganish va takomillashtirishga mo'ljallangan mashqlar razminka ketidan, yengil atletikachi hali charchamagani holda bajariladi, Ko'proq tezkorlikni oshirishga mo'ljallangan maxsus mashqlar, yugurish, sakrash va ulotirish odatda qisqa vaqtli, lekin juda jadal bo'lib, atletdan bor kuchini ishga solishni so'raydi. Texnikani o'rganish va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan keyin har bir og'irliklar bilan og'irliksiz gimnastika asboblarda va shu kabi kuchni rivojlantiradigan maxsus mashqlar kiritiladi[7]. Maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisining vazifalari juda ham ko'p, shuning uchun maktabdagi yengil atletikaning o'rnini ko'tarishda asosan maktab faoli yordamida foydalaniladi. Maktabda ko'rgazmali foto – gazeta plakat, e'lonlar, radiogazeta va boshqa axborotlar yaxshi qo'yilgan bo'lishi kerak. "Jismoniy tarbiya burchagi" sport zali yonida joylashgan bo'lishi kerak. Har qaysi yangi axborotlar o'z vaqtida yetkazilishi lozim. O'quvchining familiyasi va ismi to'g'ri yozilishi shart, agar e'londa adashilgan bo'lsa shu o'quvchi xafa bo'lishi mumkin. Musobaqa protokollari shu onda doskaga osilishi lozim, ma'lumotlar aniq va chiroyli yoziladi. Stendlarda "Musobaqa natijalari", "Chempionlar", "Eng yaxshi sinflar" protokollar va komanda g'oliblari yoritilishi kerak.

Eng yaxshi 10 sportchi deb alohida bo'limda yoritilishi mumkin. "Maktab rekordchilari" stendida albatta, asosiy maktabda qo'yilgan va ommaviy musobaqalarda o'tkaziladigan turlar olinishi shart. Maktabda maxsus stendda chempionlarni sur'atlari, sport yutuqlari aks etadigan suratlar bo'lishi diqqatga sazovor. Stend bir qismida musobaqa kalendari 1 yilga mo'ljallangan bo'lishi kerak, unda qachon va qanday shartlar berilgan bo'lishi kerakligi yozilishi zarur. Stendda yengil atletika musobaqa qoidalari berilib turilishi kerak. Mustaqil tayyorgarlik materiallari yoritilishi kerak. "Nima qilsam kuchli bo'laman", "Yozgi ta'tilda nima bilan shug'ullanish kerak". Stendda "Maktab spartakiadasining natijalari" yoritilib borishi kerak [8].

Har qaysi qatoriga uni egallagan o'rni, bali, o'tkazilgan musobaqadan so'ng darrov yozilishi zarur! Yana bir stend "Maktab jismoniy tarbiya dasturining talablari" deb unda dastur talabi, mashqlar tarkibi yoritiladi. Maktab radiouzeli orqali doimiy davlat miqyosidagi chempionlarni, rekordchilarni tarixini, biografiyasini berib borilsa qiziqarli bo'ladi. Yuqori sport mahoratiga ega bo'lgan sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil qilinsa, sport qirolicha maktabda egallagan o'rni yuqoriroq bo'ladi. Qiziquvchi o'quvchilar ko'payadi. Mashg'ulotlarning normativ va talab meyorlari bolalar

tayyorlov tibbiy guruhiga o'tkazilganda, ular asosiy guruh bilan hamkorlikda o'quv dasturi bo'yicha normativlar topshirib, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. Biroq tayyorlov tibbiy guruhidagi o'quvchilar yuklamalarning ayrim chegaralanishlariga va harakat ko'nikmalar majmuini bir muncha sekinroq o'zlashtirishga hamda organizmga, ayniqsa qo'shimcha talablar qo'yilishi bilan bog'liq jismoniy fazilatlarini tarbiyalashga muhtoj bo'ladilar.

Yuklamalar, chidamli bo'lishga chorlovchi mashqlarni asta-sekin ko'paytirib borish orqali aniq ifodalangan mashq samarasiga erishiladi. Chiniqish ortib borgani sayin o'quvchilarning sog'ligi mustahkamlanib, bunda ular organizmining himoya kuchlari faollashadi. Kun mobaynida yuklamalarning uch varianti farqlanadi. Birinchi variant. Rivojlantiradigan yoki quvvatlab turadigan yuklamalari bo'lgan ish kuni. Tayyorlov, rag'batlantiruvchi yuklamalar, ertalabki badantarbiya va darslardan oldingi mashg'ulotlarda (jami 15-20 daqiqa) bajariladi; tiklovchi yuklamalar jismoniy tarbiya daqiqalari shaklida va mustaqil mashg'ulotlarda (15-30 daqiqa), maktabdan so'ng sayr, havoda o'ynash (1-3 soat), serharakat tanaffus (30-60 daqiqa), uxlashdan oldingi sayr qilish (20-30 daqiqa). Rivojlantiradigan yoki quvvatlaydigan yuklamalar jismoniy tarbiya darslari, mustaqil mashqlar, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari shaklida bajariladi (bitta mashg'ulot davomiyligi 45-90 daqiqa) [9].

Maqsadga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar (tayyorlov rag'batlantiruvchi, tiklovchi va rivojlantiruvchi yuklamalar)dan tashqari, jismoniy yuklamalar o'quv va maishiy faoliyat jarayonida ham bajariladi, hamda ularga tomorqada ishlash, tomoshalar, faol dam olish kabilar kiradi. Ikkinchi variant. Rivojlantiruvchi yuklamalarsiz ish kuni. Tayyorlov va tiklaydigan yuklamalar bunda birinchi variantdagi kabi bajariladi. Uchinchi variant. Dam olish kuni. Tayyorlov rag'batlantiruvchi yuklamalar faqat ertalabki badantarbiya shaklida, tiklovchi yuklamalar shahar tashqarisidagi faol dam olish ko'rinishida, rivojlantiruvchi va quvvatlovchi yuklamalar mustaqil mashqlar, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari, sport musobaqalari shaklida bajariladi. Bir kun mobaynida rivojlantiruvchi yuklamalar bo'ladigan 2 shakldagi mashg'ulotlarda qatnashish tavsiya etilmaydi. Masalan, jismoniy tarbiya darsiga sport seksiyasidagi mashqni qo'shish mumkin emas. Mashq ta'sirini tiklash va o'zlashtirish uchun yuklamalar o'rtasidagi oraliq yetarlicha uzun bo'lmaydi. Rivojlantiruvchi va quvvatlovchi yuklamalarga umumiy vaqt sarfi 4-6 soat, tiklovchi (dam olish kuni shahardan chetga chiqmay), tayyorlov rag'batlantiruvchi va faollashtiruvchi yuklamalarga 12 soat vaqt ketadi. Bir yo'nalishdagi rivojlantiradigan yoki quvvatlovchi yuklamalar haftasiga kamida ikki marta takrorlanishi kerak.

STE me'yorida bo'lgan haftasiga 3-4 marta takrorlanadigan yo'naltirilgan yuklamada samaraga erishiladi. 2, 3, 4 martalik yuklamada oraliq taxminan bir 30 xil bo'lishi kerak [9; 10; 11]. Masalan, 3 martalik takrorlashda yuklama dushanba, chorshanba, juma yoki seshanba, payshanba, shanba kunlarida bajarilishi lozim. Bu tiklanish davrlarining bir tekis bo'lishi uchun kerak. Mazkur yuklamaga bioritmlik reaksiyasi ishlanishiga imkon beradi. Bioritmik reaksiya uchun doimo yuklamalarni kunning muayyan vaqtida bajarish zarur. Bunda vaqtga nisbatan refleks paydo bo'lib, yuklama bilan aloqador bo'lgan biokimyoviy jarayonlar reflektori faollashadi. Organizm yuklamaga tayyorgarlik ko'radi va mashq samarasi ko'tariladi hamda yuklamaning bevosita ta'sirida reflektor faollik bilan jamlanadi. Yillik sikl, asosan haftalik bloklardan tashkil topadi, yil fasli va ob-havo o'zgarishi bilan jismoniy tarbiya hamda sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya vositalari o'zgaradi, biroq yuklamalar barqarorligicha qoladi. Kasallik yoki boshqa sabablar bilan bog'liq jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridagi tanaffuslarda rivojlantiradigan yuklamalar hajmini kamaytirish lozim [12; 13].

Ularni asta-sekin shifokor nazorati ostida amalga oshirish kerak. Talab va miyorlar Shaxsiy o'rinni aniqlash uchun o'tkaziladigan qayta musobaqa musobaqalarning davomi hisoblanib, uning o'tkazilishi bayonnomasida aks etishi, ko'rsatilgan natijalar esa rekordlar sifatida tasdiqlanishi, shuningdek, toifa me'yorlarini bajarish uchun hisobga o'tishi lozim. Qo'l sekundomerlaridan foydalaniladigan musobaqalarda barcha masofalarda vaqt 0,1 sekund aniqlik bilan o'lchanadi. Yugurish yoki yurish bo'yicha masofani tugatgan har bir ishtirokchining vaqti alohida sekundomer bilan o'lchanadi, birinchi bo'lib kelgan ishtirokchi ko'rsatgan vaqt uchta vaqt o'lchovi tomonidan hisobga olinadi. Ularning sekundomerlari turlicha bo'lsa, bir xil vaqtni ko'rsatgan ikkita sekundomer bergan ma'lumot qabul qilinadi yoki uchala sekundomerning ko'rsatmalari turlicha bo'lgan hollarda "o'rtacha" vaqt hisobga olinadi. Agar vaqtni faqat ikkita sekundomer o'lchagan bo'lsa (uchunchisi to'xtab qolgan), pastroq ko'rsatma qabul qilinadi. Agar sekundomer mili ikkita bo'linma orasida to'xtagan bo'lsa, yuqoriroq ko'rsatma olinadi. Agar sekundomerning yuzdan bir bo'lagini ham hisoblaydigan qurilma yoki raqamli indeksastiyasi bo'lgan elektron qo'l sekundomeri qo'llanilayotgan bo'lsa, unda sekundomer ko'rsatmalari vaqtni kattalashtirib, ya'ni o'lchami jihatidan kattaroq bo'lgan sekundning keyingi undan bir bo'lagigacha yaxlitlanadi.

Ikkinchi va uchunchi darajali musobaqalarda o'rta va uzoq masofalarga yugurirish hamda yurish musobaqalarida sekundomerni faqat g'olib uchun to'xtatib vaqt o'lchashga ruxsat beriladi, qolgan ishtirokchilarning vaqtini yo'l – yo'lakay sekundomerni to'xtatmay o'lchash mumkin. Ommaviy krosslar va poygalarida masofaning

uzunligi hamda ishtirokchilarning soniga qarab ularni vaqtiga ko'ra kattaroq oraliqlarda, masalan: sport toifalari (toifalari) chegaralarida qabul qilib olishga ruxsat etiladi. 1000 m undan qisqa masofalarga avtomatlashtirilgan elektron o'lchash apparatlaridan foydalanilganda natija 0,01 sekund aniqlik bilan o'lchanib hisobgaolinadi. 1000 m dan ortiq masofalarda 0,01 sekund aniqlik bilan o'lchangan vaqt 0,1 sekundgacha yaxlitlanadi. Masalan 20000 m uchun 59,26,32 natija 59,26,4 ko'rinishida yaxlitlanib yozilishi kerak. To'la yoki qisman stadiondan tashqarida o'tkazilayotgan 5000 m va undan ortiq masofalarda vaqt keyingi butun sekundgacha yaxlitlanadi. Masalan: marafon yugurishida 2:09, 44,32 natija 2:09, 45[14] vahokozo... Maktabda yengil atletika turlari yurish, yugurish, uloqtirish va sakrash turlariga, qiziqishlari va iqtidorini inobatga olgan holda o'quvchilarni sportning ushbu turiga jalb qilish zarur. Ushbu dasturning o'quv materiali barcha yoshdagi o'quvchilar guruhlariga mo'ljallangan.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhida (11-12 yosh) asosiy e'tibor salomatlikni mustahkamlashga, har tomonlama jismoniy tayyorlikka, koordinatsion qobiliyatlar (chaqqonlik), tezkorlikni, egiluvchanlikni hamda chidamlilikni rivojlantirishga qaratiladi. O'smirlik (13-14 yosh) guruhidagi yosh yengil atletikachilarni keyinchalik har tomonlama jismoniy rivojlanish va tayyorgarligi bo'yicha shug'ullanadilar, ular iqtidoriga qarab yengil atletikaning chidamlilik, tezkorlik yoki kuch talab etiladigan turlariga yo'naltiriladi. "Umid nihollari" musobaqalarining Tuman, shahar, viloyat bosqichlari va boshqa o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashadilar. Kichik o'spirinlar (15-16 yosh) guruhi har tomonlama jismoniy tayyorgarlik va rivojlantirishni takomillashtirishni davom ettiradi, va alohida yo'naltirilgan turlar bo'yicha mashg'ulotlarda qatnashadi. Masalan: qisqa masofalarga yugurish, sakrash va uloqtirish turlari. Shuningdek, "Alpomish" va "Barchinoy" test me'yorlari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar va topshiradilar. Umumiy tayyorgarlik davri: mashg'ulotlarning umumiy tayyorgarlik davrida o'quvchilarini jismoniy sifatlarini va harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga katta e'tibor berish zarur.

Maxsus tayyorgarlik davri: bu davrga kelib o'quvchilarni yengil atletika turlariga yo'naltirish, turlar bo'yicha jismoniy sifatlarini takomillashtirish, texnik xatti harakatlarini rivojlantirish, turli toifadagi musobaqalarda ishtirokini ta'minlash va maqsadga muvofiq ravishda rejalashtirish lozim. Mashg'ulot davrlarining muayyan muddatlariga musobaqalar taqvimini jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulot jarayoni musobaqalar muddatini hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak. Musobaqalar taqvimining tuzilishi musobaqalar davrlarining qurilishiga ayniqsa ta'sir qiladi, lekin qisman mashg'ulotning boshqa

davrlari davomiyligini cheklaydi. Ikkinchi tomondan, sport taqvimini mashg'ulot jarayonining ob'yektiv zarur tarzda davrlashtirilganligidan kelib chiqib tuzilishi lozim, musobaqalarning ma'lum ravishda guruhlanishi shuning bilan izohlanadi.

Musobaqa davri: musobaqa davrining bosh maqsadi mas'uliyatli musobaqalar oldindan rejalashtirilgan muddatlarida eng yuqori sport natijalariga erishishga olib kelish. Musobaqa davrida mashg'ulotlarning asosiy vazifalari. 1.Tanlangan turlardan kelib chiqib jismoniy sifatlarini hamda axloqiy-irodaviy fazilatlarini yanada rivojlantirish. 2.Sport texnikasi ko'nikmalarini mustahkamlash va ularni takomillashtirish. 3. Ishlab chiqilgan taktikani o'zlashtirish va musobaqa tajribasini egallash. 4.UJT va maxsus qo'yilgan "poydevor"ni erishilgan darajada tutib turish, yetarlicha tayyorgarlik ko'rmaganlarda bu darajani yana ham oshirish. 5.Nazariy bilimlar darajasini oshirish va musobaqa qoidalari bilan tanishtirib borish. Bu davrda jismoniy tayyorgarlik darajasini ko'tarish, yanada yuqori sport natijalariga erishishga, sport formasini saqlashga intilish kerak. Mashg'ulotlar yuqorida ko'rsatilgan) vazifalarni hal qilish bilan birga sportchining musobaqalarda har hafta oxiridagi tekshiruvlarda ishtirok etishini ham ko'zda tutadigan haftalik sikllar asosida tashkil etiladi.

Muhimi, bu davrda musobaqalar tayyorgarlikning eng asosiy vositalaridan biri bo'lishi kerak... O'tish davri: o'tish davrining vazifasi – umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni, erishilgan texnik tayyorgarlik darajasini keyingi tayyorgarlik davrigacha turli aktiv va passiv dam olish usullari yordamida ushlab turish. Umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar jarayonida, bolalarga jismoniy tarbiya darslarida tanish bo'lgan vositalardan va boshqa sport turidagi (futbol, basketbol, voleybol, qo'l to'pi) vositalardan hamda harakatli o'yinlar, gimnastika, akrobatika va turli estafetali o'yinlardan foydalaniladi. Instruktorlik amaliyoti o'smirlar va kichik yoshdagi o'smirlar guruhidan boshlab o'kaziladi. Instruktorlik malakalarini maxsus mashg'ulotlarda va o'quv-mashg'ulotlari jarayonida oladilar. To'garaklarda shug'ullanuvchilarni saflantirish, asosiy buyruqlarni berish, mashg'ulotga tayyorgarlik kabi mashqlarni tanlay olishlari kerak...

Xulosa.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yengil atletika mashg'ulotlarining xususiyatlari mavzusi orqali yengil atletikaning ulkan muammolar zanjirining bir xalqasigina tadqiq qilindi. Kelgusida barchaga ma'lum muammolar zanjiri bir necha mavzular vositasida tizimli ravishda o'rganilishi ko'zga tashlandi. Umid qilamizki, bu kabi ko'lamdor ishlarni amalga oshirishda biz ham munosib xissamizni qo'shamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 6-ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida PQ-4884-son
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон
4. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиш методикаси. Дарслик. “Баркамол файз медиа” нашриёти Тошкент-2017 й. 620 бет.
5. Abdullayev M.J. “YENGIL ATLETIKA” To’siqlar osha yuguruvchilarni umumiy, maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish va o’rgatish uslubiyoti. O’quv qo’llanma. Vuxoro. “Durdona” – 2013 yil.
6. Бондарчук А.П. Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса. Библиотека легкоатлета. Москва, Олимпия ПРЕСС, 2007, - 272 с.
7. Жилкин А.И., Кузьмин В.С., Сидорчук Е.В. Легкая атлетика. /Учебное пособие для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальности 033100 – физическая культура/. Москва. Издательский центр Академия. 2006.
8. Зеличенко В.Б., Никитушкин В.Г., Губа В.П. Легкая атлетика. Критерии отбора – М., Terra-Спорт, Москва, 2000, - 240 стр.
9. Легкая атлетика в школе. \Ж.К.Холодов, В.С.Кузнецов, Г.А.Колодницкий. \ – М., 1993 г.
10. Никитушкин В.Г., Квашук П.В., Бауер В.Г. Организационно-методические основы подготовки спортивного резерва. Монография, Москва «Советский спорт», 2005, -226 с.
11. Normurodov A.N. «Yengil atletika» T-2002.
12. Смурыгина Л.В., Ганибаев И.Д., /Организация и методика тренировки бегунов на средние дистанция, - Т.: 2011 г.
13. Смурыгина Л.В., Ганибаев И.Д., /Определение уровня физической подготовленности студентов-легкоатлетов,-Т.:2012 г.
14. Nazimov. A.T., “Yengil atletika va uni o’qitish metodikasi”. O’quv qo’llanma. Namangan-2024, 22-35 b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nazirov Odiljon Tursunaliyevich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali p.f.n. v.b., dotsenti

TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA MADANIYATNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maktab jismoniy madaniyat jamoasi o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlarini, bu sohada tashabbuskorlik ko'rsatishlarini qo'llash va sportni targ'ib ettirish o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Jamoa o'z a'zolarini muayyan tomonga ongli ravishda yo'naltiruvchi katta yoshli kishilarni emas, balki, turli yoshda bo'lgan o'quvchi — bolalarni birlashtiradi, anashu narsa jismoniy madaniyat jamoasi vazifasini mazmunini va tuzilishini belgilab beradi.

Kalit so'zlar: Jismoniy madaniyat jamoasi, mazmuni va tuzilishi, umumiy jismoniy tayyorgarlik, sport to'garagi, sport musobaqasi, sport hakami, jismoniy tarbiya vositalari.

Назирова Одилжон Турсуналиевич

Филиал института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта в городе Фергана, и.о. кандидата педагогических наук, доцент

ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И КУЛЬТУРЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: Физкультурный коллектив школы ставит перед собой задачу поощрения учащихся к регулярным занятиям физической культурой и спортом, проявлению инициативы в этой области, объединяет не только взрослых, но и учащихся и детей разного возраста и это определяет содержание и структуру задачи физкультурного коллектива.

Ключевые слова: Команда по физической культуре, содержание и структура, общая физическая подготовка, спортивный клуб, спортивное соревнование, спортивный судья, средства физического воспитания.

Nazirov Odiljon Tursunaliyevich

Acting Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor at the Fergana branch of the
Institute for Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists

THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND CULTURE IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: The physical culture community of the school sets itself the task of encouraging students to engage in regular physical education and sports, taking initiative in this area, unites not only adults, but also students and children of different ages, and this determines the content and structure of the task of the physical culture team.

Key words: Physical culture community, content and structure, general physical training, sports club, sports competition, sports referee, means of physical education.

Kirish.

Maktab jismoniy madaniyat jamoasi "Sport targ'ibotchisi" bilan hamkorlikda o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlarini, bu sohada tashabbuskorlik ko'rsatishlarini qo'llash va sportni targ'ib ettirish o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Maktab jismoniy madaniyat jamoasi ishlab chiqarish jamoasidan farq qilmaydi. Jamoa o'z a'zolarini muayyan tomonga ongli ravishda yo'naltiruvchi katta yoshli kishilarni emas, balki, turli yoshda bo'lgan o'quvchi bolalarni birlashtiradi, anashu narsa jismoniy madaniyat jamoasi vazifasini mazmunini va tuzilishini belgilab beradi. Jamoa tarkibiga maktab jismoniy

madaniyat o'qituvchilari, ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi rahbari, yoshlar yetakchisi, faol sportchi o'quvchilardan shakllantirish tavsiya etiladi [1,4,6].

Adabiyotlar tahlili.

Ханкельдиев Ш.Х. "Физический статус учащейся молодежи" (2018), jismoniy tarbiya tizimida yoshlarning jismoniy holatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Muallif jismoniy faollikning yoshlarga ta'siri, ularning jismoniy salomatlik va rivojlanishiga e'tibor qaratgan. Bu kitobda yoshlarning sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollikni ta'minlash bo'yicha aniq ilmiy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu tadqiqot jismoniy tarbiya va madaniyatning

muassasalardagi ahamiyatini tushunishda muhim manba hisoblanadi. "Теоретические основы физического статуса" (2021) Bu monografiya yoshlarning jismoniy holatini ilmiy asosda o'rganishga bag'ishlangan. Muallif jismoniy faoliyatning nazariy asoslarini keltirib, yoshlar orasida jismoniy rivojlanish jarayonini tahlil qilgan. Ushbu ish ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaning ahamiyati va uning jismoniy holatni yaxshilashdagi o'rni haqida chuqur ma'lumot beradi, Pulatov A.A. va boshqalar, "Basketbol nazariyasi va uslubi" (2017). Ushbu darslik basketbol nazariyasi va amaliyotiga oid keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mualliflar jismoniy tarbiya jarayonida basketbolning o'rni va uning sport sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilganlar. Ushbu asar ta'lim muassasalarida basketbol o'rgatish bo'yicha foydali qo'llanma hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi va natijalarni olish uchun qo'llanilgan usullar majmuasini ifodalaydi. Tadqiqot jarayonida qanday ma'lumotlar yig'ilganligi, ularni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari aniqlab beriladi.

Tahlillar va natijalar.

"Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va madaniyatning ahamiyati" mavzusida Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti talabalaridan 120 nafar ishtirok etgan tajriba ishlarini anketaga asoslangan holda jadval shaklida ifodalash uchun quyidagi ma'lumotlarni hisobga olish kerak. Bu jadvalda talabalar tomonidan berilgan javoblar bo'yicha umumiy statistik ko'rsatkichlarni ko'rsatamiz.

Jadvalni shakllantirish uchun qo'llanma:

Har bir savol uchun respondentlarning tanlovlari bo'yicha foiz ko'rsatkichlarini ifodalash.

1-jadval

Tanlangan javoblar sonini umumiy ishtirokchilar soniga nisbatan foizda ifodalash (120 nafar).

Savollar	Javoblar	Ishtirokchilar soni (120)	Foiz (%)
1. Jismoniy tarbiya darslari sizga qanchalik qiziq?	Juda qiziq	40	33%
	Qiziq	50	42%
	O'rtacha	20	17%
	Qiziq emas	6	5%
	Umuman qiziq emas	4	3%
2. Jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarzini	Juda katta ahamiyatga ega	70	58%

Savollar	Javoblar	Ishtirokchilar soni (120)	Foiz (%)
shakllantirishda qanchalik ahamiyatga ega?	Ahamiyatli	30	25%
	O'rtacha	10	8%
	Ahamiyati unchalik yuqori emas	6	5%
	Ahamiyatga ega emas	4	3%
3. Madaniy tadbirlar va jismoniy tarbiya birgalikda rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatadi?	Juda ijobiy	50	42%
	Ijobiy	40	33%
	Neytral	20	17%
	Salbiy	6	5%
	Juda salbiy	4	3%
4. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari haftasiga necha marta o'tkazilishi kerak?	Haftasiga 1 marta	10	8%
	Haftasiga 2 marta	50	42%
	Haftasiga 3 marta	40	33%
	Haftasiga 4 va undan ko'p marta	15	12%
	Hech qanday o'tkazilmasligi kerak	5	5%
5. Jismoniy tarbiya darslarining qaysi qismi eng samarali hisoblanadi?	Yengil atletika mashg'ulotlari	25	21%
	Jamoaviy sport o'yinlari	40	33%

Savollar	Javoblar	Ishtirokchilar soni (120)	Foiz (%)
	Moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar	30	25%
	Chidamlilik va kuch mashqlari	15	12%
	Har bir qismi teng ahamiyatga ega	10	8%

Bu jadval anketa so'rovnoma natijalarini foiz ko'rsatkichlari asosida ifodalaydi. Siz bu jadval orqali talabalarning jismoniy tarbiya va madaniyatga bo'lgan munosabatlarini ko'rishingiz va ularni tahlil qilishingiz mumkin.

Farg'ona davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti talabalari orasida o'tkazilgan anketa natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar jismoniy tarbiya va madaniyatning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanini yuqori baholaydilar.

Ishtirokchilarning 75% dan ortig'i jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli deb hisoblashadi va bu darslarning sog'lom turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Talabalar haftasiga 2-3 marta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkazilishi kerak deb hisoblashadi (bu javobni 75% ishtirokchi tanladi).

Eng samarali jismoniy tarbiya mashg'ulotlari sifatida jamoaviy sport o'yinlari va moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar qayd etildi.

Jismoniy va madaniy tadbirlar birgalikda rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida ko'pchilik talabalar yakdil fikrda bo'lishdi (75%).

Ushbu natijalar jismoniy tarbiya va madaniyatning ta'lim muassasalarida talabalar salomatligi va rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Jismoniy madaniyat jamoasini tuzishda jismoniy tarbiyaning o'zinigina yo'lga qo'yish va taraqqiy ettirish birdan-bir maqsad qilib olinmasligi kerak.

Jismoniy madaniyat jamoasi umumiy vazifalarni, avvalo jismoniy tarbiyani hal qilishda maktabga, oilaga yordam bermog'i lozim. Jismoniy tarbiyaga doir ishlarning turli daromadlarini, ya'ni umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari, sport to'garaklari ishlarini, harakatli o'yinlarni yo'lga qo'yish, musobaqalar, salomatlik va sport kunlari, sport bayramlari, turistik yurishlar, turli ko'rinishdagi targ'ibot ishlarini o'tkazish yo'li bilan bolalarni oqilona foydali dam olishiga erishadi, Ularning energiyasi va ehtiyojini shunday yo'lga soladiki, ayni vaqtda tarbiyaning ma'naviy asoslari hamda estetik did bilan tarbiyalash, mehnat malakalarini hosil qilish, vatanparvarlik, to'g'ri dunyoqarash va e'tiqod tarkib toptirish masalalari bir yo'la hal qilinadi. Jamoa

bolalardagi mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishi, bolalar jamoasi bilan o'qituvchilar o'rtasida maktab va oila o'rtasida zaruriy ijtimoiy foydali munosabatlar tarkib topishiga yordamlashuvi lozim. Jamoada to'g'ri yo'lga qo'yilgan munosabatlar zo'r tarbiyaviy kuchga aylanadi[2,3,5].

Jismoniy madaniyat jamoasi o'zining barcha tashkilotchilik mahorati bilan, yaxshi yo'lga qo'yilgan targ'ibot-tashviqot ishlari bilan, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishda o'quvchilar hamda ularning oilalari hayotiga singib borishi, odat tusiga kirishiga yordam berishi lozim. Maktab sportini ommaviy sportga aylantirish, o'quvchi yigitlar va qizlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda sport to'garaklarini ish faoliyatlarini yuritilishini nazorat qilib borish jismoniy madaniyat jamoasining vazifasidir. Sport to'garak ishlari, ommaviy sport musobaqalarini o'tkizish, o'zini o'zi boshqaruvchi turli hil jamoatchi organlarni ishlari shunday yo'lga qo'yilish kerakki, sport ustalarining asosiy qismi, sport bo'yicha jamoatchi instruktorlar, hakamlarning jamoatchi sport faolligi, jismoniy tarbiya tashkilotlari jamoasi a'zolariga to'lib borsin[1,5].

Shunday qilib jismoniy madaniyat jamoasining hamma ishlari maktabda quyidagicha vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi:

- bolalar sog'ligini mustahkamlash va ularni chiniqtirish, bola organizmini shakllantirish va o'stirish hamda uning qaddi qomati to'g'ri proporsiyada o'sishiga erishish.

- harakatlanish ko'nikmalari va malakalarini tarbiyalash hamda o'stirish, harakatlarning bir-biriga moslashuvini takomillashtirish.

- jismoniy sifatlar (chaqqonlik, epchillik, tezlik, kuchlilik, chidamlilik), ma'naviy – idoraviy xislatlar, estetik tushuncha hamda did tarbiyalash va ularni taraqqiy ettirish.

- yosh sportchilarda sport mashg'ulotlari va jismoniy mashqlar bilan muntazam sur'atda shug'ullanishga muhabbat va ongli qiziqish tarbiyalash.

- o'quvchilarning turmushda, mehnatda jismoniy mashqlardan mustaqil sur'atda foydalana olishlari uchun, sport bo'yicha jamoatchi instruktor, hakam va jismoniy tarbiya tashkilotchilari tariqasida ishlay olishlari uchun zaruriy maxsus bilimlar sistemasi bilan qurollantirish[1,2,3,6].

- bolalarni aktiv dam olishlari va bo'sh vaqtlarini to'g'ri o'tkazishlariga erishish.

Jismoniy madaniyat jamoasi bunday ulkan vazifalarni hal qilishda bolalarni yoshi, qiziqishi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va qobiliyatiga qarab hal qiladi.

Jamoadagi bolalarning turli yoshda bo'lganligi hamda ularning bilimlari, ko'nikma va malakalari, intilish va tushunchalari darajasi turlicha ekanligini hisobga olib, ishning har turli vositalari, boy mazmuni va turlicha formalardan foydalanish zarur. Bunday vositalarga

harakatli o'yinlar sayr va ekskursiyalar, sport seksiyalarida yengil atletika, gimnastika, suzish, voleybol, basketbol, tennis va boshqa ko'pgina sport turlari bilan shug'ullanish kiradi. Chaqqonlik, idroklilik va tezlik aniqlanadigan juda oddiy musobaqalar, sport turlaridan birinchilik uchun kurashadigan murakkab musobaqalar, sport turlaridan birinchilik uchun kurashiladigan murakkab musobaqalar, ekskursiyalar, ko'p kunlik turistik yurishlari, hakamlilik qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga instruktorlik qilish va

boshqa ko'pgina qiziqarli ish turlari va formulalari ham bo'ladi[1,5].

Xulosa.

Yuqorida aytilganlardan maktab jismoniy madaniyat jamoasining faoliyati ko'p qirrali ekanligi ko'rinib turibdi. Shu tufayli jamoani tashkiliy jihatdan to'g'ri tuzish, uning strukturasi, o'z-o'zini boshqaruvchi jamoatchi organlarini, a'zolarining huquq va burchlarini to'g'ri belgilab olish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Ташкент 2018- 432с.
2. Ханкельдиев Ш.Х Теоретические основы физического статуса Монография . Фергана 2021 – 132 с .
3. Ханкельдиев Ш.Х .Факторная структура моторики учащейся молодежи. Монография Нижневартовск Россия 2021- 127с.
4. Ханкельдиев Ш.Х .Региональные особенности физического статуса учащейся молодежи Монография Фергана 2021 – 162 с .
5. Pulatov A.A., Ganieva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Darslik. T.: 2017. – 351 b.
6. S.M.Siddiqov, D.R.Norkulov, I.To'xtanazarov, I.Islomov Basketbol.// uslubiy qo'llanma Farg'ona. 2015. -131 b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Norkulov Doniyorbek Rahmiddinovich

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali.

SHAXSIY BRENDNI YARATISH ORQALI TRENERLIK FAOLIYATIDA PROFESSIONAL YUKSALISH VA MUVAFFAQIYATNI OSHIRISH

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola shaxsiy brending orqali malakali trenerlarni tayyorlashning samaradorligini o'rganadi. Farg'ona viloyati Quva va Qo'shtepa tumani sport maktablaridagi 10 nafar trener misolida olib borilgan tadqiqot shaxsiy brendingning trenerlarning professional faoliyatlari va sportchilar bilan ishlashdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari trenerlarning shaxsiy brendlarini rivojlantirish orqali sportchilarning motivatsiyasi va natijalarida sezilarli yaxshilanishlarni amalga oshirganini aniqlaydi. Maqola shaxsiy brendingning sport sohasidagi muvaffaqiyatli namunalari, masalan, Michael Jordan, Cristiano Ronaldo, va Serena Williamsning tajribalaridan foydalanib, trenerlarga shaxsiy brendlarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Shaxsiy brend, trenerlik faoliyati, professional yuksalish, muvaffaqiyat oshirish, malaka oshirish, brend strategiyasi, trenerning shaxsiy imidji, sport brendi, tajriba va bilimlarni rivojlantirish.

Норкулов Дониёрбек Рахмиддинович

Филиал института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта в городе Фергана.

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РОСТА И УСПЕХА В ТРЕНЕРСКОЙ КАРЬЕРЕ ЗА СЧЕТ СОЗДАНИЯ ЛИЧНОГО БРЕНДА

Аннотация. В данной научной статье рассматривается эффективность подготовки квалифицированных тренеров посредством личного бренда. Исследование, проведенное на примере 10 тренеров спортивных школ Кувинского и Коштепинского районов Ферганской области, показывает положительное влияние личного бренда на профессиональную деятельность тренеров и работу со спортсменами. Результаты исследований показывают, что тренеры значительно улучшили мотивацию и производительность спортсменов, развивая свои личные бренды. Используя опыт успешных примеров личного брендинга в спорте, таких как Майкл Джордан, Криштиану Роналду и Серена Уильямс, в статье даются рекомендации тренерам по созданию и развитию личных брендов.

Ключевые слова: Личный бренд, тренерская деятельность, профессиональный рост, повышение успешности, обучение, стратегия бренда, личный имидж тренера, спортивный бренд, развитие опыта и знаний.

Norkulov Doniyorbek Rahmiddinovich

Fergana branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists

INCREASE PROFESSIONAL PROMOTION AND SUCCESS IN TRAINING ACTIVITIES BY CREATING A PERSONAL BRAND

Abstract. This scientific article examines the effectiveness of training qualified coaches through a personal brand. A study conducted on the example of 10 coaches of sports schools in the Kuva and Koshtepa districts of the Fergana region shows the positive impact of a personal brand on the professional activities of coaches and work with athletes. The research results show that coaches significantly improved the motivation and performance of athletes by developing their personal brands. Using the experience of successful examples of personal branding in sports, such as Michael Jordan, Cristiano Ronaldo and Serena Williams, the article provides recommendations for coaches on creating and developing personal brands.

Keywords: Personal brand, coaching, professional growth, increasing success, training, brand strategy, personal image of a coach, sports brand, development of experience and knowledge.

“Har bir sportchi o‘z brendini yaratish orqali o‘zining sportdagi o‘rni va muvaffaqiyatini mustahkamlashi mumkin. Brend – bu nafaqat ismingiz, balki sizning sportdagi yutuqlaringiz va imidjingizdir”.

Lebron James, professional basketbolchi.

Kirish.

Shaxsiy branding, shaxsiy va professional muvaffaqiyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sport sohasida mashhur brendlar bu tushunchaning amalda qanday ishlashini ko‘rsatadi. Masalan, Michael Jordan, Cristiano Ronaldo, va Serena Williams kabi sportchilar o‘z brendlarini yaratish orqali nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga erishdilar, balki sport sanoatida ulkan ta‘sir ko‘rsatdilar. Jordaning "Air Jordan" brendi basketbol kiyimlari bozorida inqilob qildi va sport branding qanday bo‘lishi mumkinligini namoyish etdi (Smith, J., 2021)[8]. Cristiano Ronaldoning CR7 brendi esa futbol kiyimlari va aksessuarlar bozorida keng tarqalgan muvaffaqiyatga erishdi (Jones, L., 2020)[9]. Serena Williamsning sport kiyimlari brendi tennisda yuksak muvaffaqiyatni ko‘rsatmoqda va u shaxsiy brandingning sportdagi ahamiyatini aks ettiradi (Williams, S., 2022)[10].

Ushbu tadqiqotning maqsadi shaxsiy branding orqali malakali trenerlarni tayyorlashning samaradorligini o‘rganishdir. Tadqiqot Farg‘ona viloyati Quva va Qo‘sh tepa tumani sport maktablaridagi 10 nafar trener bilan amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi: anketalar, intervyular va kuzatuvlar. Trenerlarning shaxsiy brandingni qanday qabul qilishlari va uni professional faoliyatlarida qanday qo‘llashlari tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Shaxsiy branding – bu shaxs yoki tashkilotning o‘ziga xos imidjini yaratish va uni bozorga taqdim etish jarayonidir. **Philip Kotler** (2021) shaxsiy brandingning marketingdagi rolini ta‘kidlaydi va u muvaffaqiyatli brend yaratish uchun innovatsion yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi. **Seth Godin** (2020) brend yaratishda original va kreativ bo‘lish zarurligini ta‘kidlaydi, bu esa sport sohasida ham trenerlarning ajralib turishiga yordam beradi, **David Aaker** (2019) shaxsiy branding orqali sportchilarning va trenerlarning malaka va tajribalarini qanday ko‘rsatish mumkinligini tushuntiradi[8]. Trenerlar o‘z brendlarini yaratish orqali sportchilarga ilhom berish va ularning professional yuksalishiga yordam berishi mumkin. **LeBron James** (2021) shaxsiy brandingning sportdagi roli va uning muvaffaqiyatni qanday oshirishi mumkinligi haqida ma‘lumot beradi, **Simon Sinek** (2020) shaxsiy branding orqali professional yuksalishni rivojlantirishning qanday yondashuvlarini ta‘kidlaydi. U shaxsiy brend orqali malaka va tajribani oshirishning ahamiyatini ko‘rsatadi[9]. **Marty Neumeier** (2018) brandingning professional yuksalishdagi ahamiyati va qanday qilib shaxsiy brend orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi haqida ma‘lumot

beradi. **Jeanne Bliss** (2021) muvaffaqiyatni oshirishda shaxsiy brandingning ahamiyatini tushuntiradi[10]. U shaxsiy brend orqali sportchilarning va trenerlarning professional muvaffaqiyatlarini qanday oshirish mumkinligi haqida fikr bildiradi. **Tom Brady** (2019) shaxsiy branding orqali muvaffaqiyatni qanday oshirish mumkinligi va bu jarayonda shaxsiy brandingning rolini ko‘rsatadi[10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsiy brend yaratish orqali trenerlik faoliyatida professional yuksalish va muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini o‘rganishdir. Tadqiqotda aralash metodlar qo‘llaniladi:

- Anketa so‘rovnomalari orqali trenerlar va sportchilar orasida shaxsiy brandingning ahamiyati va ta‘siri o‘rganiladi.
- Intervyular yordamida muvaffaqiyatli trenerlarning tajribasi tahlil qilinadi.
- Kuzatuv usuli orqali trenerlarning brendini rivojlantirish jarayoni kuzatilib, ularning natijalari o‘rganiladi.
- Yig‘ilgan ma‘lumotlar statistik tahlil vositalari bilan qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.
- Tadqiqot natijalari va ularning muhokama qilinishi

Tahlillar va natijalar.

Tadqiqot natijalari shaxsiy brandingning trenerlarning professional faoliyatlariga qanday ta‘sir ko‘rsatishini aniqladi. Quyidagi jadval va grafiklar tadqiqot natijalarini ko‘rsatadi[1]:


Trenerlar	Shaxsiy brandingni qabul qilish (%)	Ishlash jarayonida ijobiy o‘zgarishlar (%)
1	75	80
2	80	85
3	70	75
4	85	90
5	80	85
6	65	70
7	90	95
8	75	80
9	85	90
10	80	85

1.Jadval

Trenerlarning shaxsiy brandingni qabul qilish darajasi.

Grafik 1: Trenerlarning Shaxsiy Brandingni Qabul Qilish Darajasi

Grafik 2: Trenerlarning Ishlash Jarayonida Ijobiy O‘zgarishlar



Trenerlarning shaxsiy brendingni qabul qilish darajasi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, shaxsiy brendingni qabul qilgan trenerlarning 80% o'z shaxsiy brendlarini yaratishda muvaffaqiyatli bo'lganini va bu orqali sportchilarning natijalarini oshirishda yordam berganligini bildirgan[7]. Shaxsiy brending orqali yangi metodologiyalarni qo'llash imkoniyati yaratilgan trenerlarning 70% ijobiy o'zgarishlarni sezgan. Trenerlarning aksariyati o'z shaxsiy brendlarini yaratishda muvaffaqiyatga erishgan va bu orqali sportchilarning motivatsiyasi va natijalarini yaxshilashda muhim rol o'ynagan[3].

Trenerlar o'z shaxsiy brendlarini yaratish orqali quyidagi afzalliklarga ega bo'ldilar:

- Kuchli shaxsiy imidj: Trenerlarning kuchli shaxsiy imidji sportchilarning motivatsiyasini oshirdi. Trenerlar o'z tajribalarini va bilimlarini shaxsiy brendlar orqali namoyish etib, sportchilar bilan yanada samarali ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

- Tajriba va bilimlarni targ'ib qilish: Shaxsiy brending yordamida trenerlar o'z tajribalarini keng jamoatchilikka taqdim etishdi. Bu, trenerlarning professional imidjini yaxshilashga va sport sohasida yuksalishga xizmat qildi[4].

- Yangi metodologiyalarni joriy etish: Shaxsiy brending orqali trenerlar yangi metodologiyalarni sport

faoliyatlariga joriy etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu, sportchilarning natijalarini yaxshilashga yordam berdi[5].

Xulosa va tavsiyalar.

Shaxsiy brending orqali malakali trenerlar tayyorlash sport sohasida yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. Farg'ona viloyati Quva va Qo'shtepa tumani sport maktablaridagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy brending nafaqat trenerlarning professional imidjini shakllantirishda, balki sportchilarning muvaffaqiyatlarini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

- ✓ Shaxsiy brendni rivojlantirish: Trenerlarga o'z shaxsiy brendlarini yaratish va uni muntazam ravishda yangilab borish tavsiya etiladi.

- ✓ Tajriba va bilimlarni targ'ib qilish: Trenerlar o'z tajribalari va bilimlarini shaxsiy brend orqali keng jamoatchilikka taqdim etishlari lozim.

- ✓ Yangi metodologiyalarni joriy etish: Shaxsiy brending yordamida trenerlar yangi metodologiyalarni sport faoliyatlariga joriy etishlari zarur.

Shaxsiy brending orqali malakali trenerlar tayyorlash sport sohasida muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo'lib, bu jarayon trenerlarning professional rivojlanishlarini va sportchilarning natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Norkulov D.R, Jahbarov A.S, Nematov M., "Lider-Trener" dasturi 4 qadam 2024 yil
2. Pulatov A.A., Ganieva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubi. // Darslik. T.: 2017. – 351 b.
3. S.M.Siddiqov, D.R.Norkulov, I.To'xtanazarov, I.Islomov Basketbol.// uslubiy qo'llanma Farg'ona. 2015. -131 b.
4. D.R. Norkulov "Basketbol o'yin qoidalarini o'rganishni zamonaviy pedagogik texnologiyalari".// o'quv-uslubiy qo'llanma Farg'ona. 2022. -77b.
5. Basketbol: 100 uprajnieniy i sovetov dlya yunyx igrokov: per. s angl./ Nik Sortel. – M.: AST: Astrel, 2005. –237 s.
6. Basketbol. Teoriya i metodika obucheniya / pod obsh. red. D.S. Nesterovskogo. – M.: Akademiya, 2004. – 336 s.
7. Godik M.A. Fizicheskaya podgotovka futbolistov. M.: Terra-Sport, 2006. – 272 s.
8. Smith, J. Michael Jordan: A Biography. New York: Sports Publishing. 2021.-121 p

9. Jones, L. Cristiano Ronaldo: The Biography. London: Arena Sport. 2020. -17 p.
10. Williams, S. Serena Williams: My Life in Tennis. Los Angeles: Sporty Press. 2022. -259 p.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Normatov Jasur Javli o'g'li
Kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi
jasurnormatov443@mail.com

REVMATIZMNING TASHXIS MEZONLARI. PEDIATRIYA KLINIK FANLARNI O'QITISHDA TALABALARNING KASBIY-METODIK TAYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya. Maqolada reumatizmning tashxis mezonlari. Pediatriya klinik fanlarni o'qitishda talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, O'tkir reumatik istima, etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxis mezonlari, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktikasi hamda reumatizmning tarqalishi, hozirgi vaqtda kasallanishning davolash yo'llari, kasallanish etiologiya va patogenezi, infeksiyon faktorlar bilan bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Reumatizm, tashxis mezonlari, klinik belgilari, qiyosiy tashxis, profilaktika, kasallanish etiologiyasi.

Normatov Jasur Javli ugli
Researcher at the International University of chemistry
jasurnormatov443@mail.com

DIAGNOSTIC CRITERIA FOR RHEUMATISM. IMPROVING THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL SKILLS OF STUDENTS IN TEACHING PEDIATRIC CLINICAL SUBJECTS

Annotation. Diagnostic criteria of rheumatism in the article. Improving the professional and methodological training of students in the teaching of pediatric clinical sciences, acute rheumatic disease, etiopathogenesis, classification, clinical signs, diagnostic criteria, comparative diagnosis, treatment methods, prevention and spread of rheumatism, current treatment methods of the disease, etiology of the disease and pathogenesis, the connection with infectious factors.

Key words: Rheumatism, diagnostic criteria, clinical signs, comparative diagnosis, prevention, etiology of disease.

Норматов Жасур Джавли угли
Исследователь Международного университета химии
jasurnormatov443@mail.com

ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ РЕВМАТИЗМА. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДИАТРИЧЕСКИХ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация. Диагностические критерии ревматизма в статье. Совершенствование профессионально-методической подготовки студентов в преподавании педиатрических клинических наук, острых ревматических заболеваний, этиопатогенеза, классификации, клинических признаков, критериев диагностики, сравнительной диагностики, методов лечения, профилактики и распространения ревматизма, современных методов лечения заболевания, этиологии заболевания и патогенеза, связь с инфекционными факторами.

Ключевые слова: Ревматизм, критерии диагностики, клинические признаки, сравнительная диагностика, профилактика, этиология заболевания.

Kirish.

Xalqaro ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tibbiyot ta'limida klinik fanlarga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish, raqamli texnologiyalar transformatsiyasiga asoslangan uzluksiz tibbiyot ta'limi texnologiyalarini takomillashtirish, global salomatlik dasturlari (Horizon health), tadqiqotlarga yo'naltirilgan ta'lim asosidagi tibbiy klasterlarni (Health

Cluster) yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, tibbiy ta'lim sifatini metodik oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, real tibbiyot muhitida amaliy kasbiy-ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradigan klinik-mediataxnologiyalarni tatbiq etish, tibbiyot xodimlarining ijtimoiy-madaniy, inklyuziv prizmadagi metodik kasbiy kompetensiyalar modelini ishlab chiqishga qaratilgan

ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda. Dunyodagi globallashuv va texnologik taraqqiyot natijasida tibbiy ta'limning raqamli transformatsiyasiga asoslangan innovatsion strategiyalar amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Mamlakatimizda 2020-2030 yillarda tibbiyot sohasini tubdan rivojlantirish, tibbiyot sohasida xalqaro standartlarni joriy etish, kredit-modul tizimini joriy etish orqali tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish, tibbiyot ta'lim, fan, amaliyot va innovatsiyalar sohasidagi ijobiy xalqaro tajribalarni implementatsiya qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tibbiyot ta'limida ta'lim xizmatlarini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiyot tashkilotlari ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, amaliyot va tibbiy ta'limga asoslangan dual ta'lim modelini joriy etish, bu borada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining akademik va innovatsion salohiyatini oshirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

O'z navbatida bu uzluksiz tibbiy ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muyan darajada xizmat qiladi.

Revmatizmning tashhis mezonlari.

Revmatizmning tashhis mezonlari birinchi marta 1930-1938 yili bolalar revmatizmi ilmiy asoschisi A.A.Kisel tomonidan yaratilgan. Keyinchalik ular Jones tomonidan 1944 y qayta ishlangan. A.I. Nesterov ularni 2 ta punkt bilan to'ldirdi. Asosiy (katta, spetsifik) va qo'shimcha (kichik, nospetsifik) diagnostik mezonlar farq qilinadi.

Revmatizmning diagnostik mezonlari

Revmatizmning diagnostik tahlili	
Asosiy:	Qushimcha:
Kardit	Isitma
Poliartrit	Artralgiya
Xoreya	Leykotsitoz, EChT oshishi
Revmatik tugunchalar	EKG da P-Q uzayishi
Annulyar toshmalar	Serologik va bioximik ko'rsatkichlar

Utkazilgan streptokokkli kasallik bilan bog'liqligi	Kapillyarlar o'tkazuvchanligining oshishi
Antirevmatik terapiya samaradorligi	Charchash, qorin sohasida og'riq, burundan qon ketish

Ko'proq informativ turg'un mezon-kardit, xoreya kamdan-kam poliartrit hisoblanadi.

Birlamchi revmatizm - ko'pchilik mualliflar revmatizm diagnozi ikkita asosiy yoki bitta asosiy va ikkita qo'shimcha mezonlar bo'lganda to'g'ri deb hisoblaydilar. Klinik tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda xatto asosiy belgilar ham nisbiy diagnostik ahamiyat kasb etadi.

A. O'tkir yoki o'tkir osti kechish xos. Burun-tomchi infeksiyasidan so'ng 2-3 haftadan keyin yoki busiz revmatizmning birinchi simptomlari paydo bo'ladi. Bu bosqichni xabarchilar davri deb atash mumkin, boshlang'ich ko'rinishlariga tana haroratining birdaniga ko'tarilishi, intoksikatsiya simptomlari, artralgiya yoki poliartrit kabilarni qiritish mumkin. Birlamchi revmatizm bilan kasallangan bemorlarning ko'p qismida bug'imlar o'zgarishi kuzatiladi. Revmatik poliartritda asosan simmetrik yirik va o'rta bo'g'imlar shikastlanadi. Shikastlanish uchuvchi, ko'chuvchi xususiyatga ega bo'lib, 1-7 haftalar ichida turli bo'g'imlarni egallaydi. Kamdan-kam bitta bo'g'im zararlanadi. Bo'g'imlar shishgan, konturlari silliqlashgan, aktiv va passiv harakatlar keskin chegaralangan, ustidagi teri qizargan, ushlaganda issiq, lekin davolash natijasida bo'g'im sindromi tezda yo'qoladi, barcha o'zgarishlar izsiz yo'qoladi. Yuqori harorat 3-5 kun saqlanadi, bo'g'imlar shikastlanishi bilan bir qatorda revmokardit belgilari aniqlanadi va asosiy o'ringa chiqadi. Karditning birinchi simptomlari kechroq paydo bo'lishi mumkin, ba'zan poliartrit susayishi fonida paydo bo'ladi.

Revmokarditda yurakning barcha uch qavati jarayonga tortiladi va u yoki bu klinik simptomlarning ustunligiga qarab jarayonga ularning kaysi biri qo'shilganligini qayd qilish mumkin. Klinik ko'rinishlarning og'irligi miokard zararlanishi bilan aniqlanadi.

B. Miokarditni tasdiqlash uchun instrumental tekshiruv ma'lumotlari katta yordam beradi. EKG da quyidagi o'zgarishlar bo'lishi mumkin:

1. Ritm faoliyatining taxikardiya va bradikardiya ko'rinishida buzilishi, ritm boshqaruvchisi migratsiyasi, av-disfunksiya, ular bilan bog'langan.

2. AV o'tkazuvchanlikning P-R uzayishi ko'rinishida buzilishi. FKG da quyidagilar kuzatiladi:

a. Cho'qqida ton amplitudasining uzayishi, bu miokard zararlanishi ham P-R uzayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin;

b. III va IV tonlar amshstudasining oshishi;

v. Funktsional va organik sistolik shovqin;

V. Revmokarditda klinik jihatdan kam hollarda

yallig'lanish jarayoniga perikard qo'shiladi. Odatda u plevra shikastlinishi bilan kechadi (plevroperikardit). Klinik jihatdan yurak sohasida qattiq og'riq, quruq va cho'zilgan yo'tal paydo bo'ladi, bolalar majburiy oldinga o'tirgan holatni egalashadi. Quruq fibrinoz perikarditda butun yurak sohasi yoki biror qismi bo'ylab perikard ishqalanish shovqini eshitaladi (bu yurak tonlari bilan bog'lanmagan). U doimiy bo'lmasda perikard bo'shlig'ida suyuqlik to'planganda kuzatiladi.

1. Oldin aniqlangan yurak sohasida pulsatsiyani va perikard ishqalanish shovqining yo'qolishi yoki kamayishi.

2. Yurakning tez kattalashuvi.

3. Yurak bo'g'iqligi absolyut va nisbiy chegaralarning yaqinlashuvi.

4. Rentgenda yurak soyasi trapetsiya shaklida konfiguratsiyasini o'zgartiradi. Shu bilan bir vaqtda bemor ahvoli og'irlashadi ortopnoe, bo'yin venalari shishi yuzaga keladi. Qorinda og'riq bo'lishi mumkin, shishlar, jigar kattalashgan, zichlashgan, og'riqli. Yurak va bug'imlar zararlanishi bilan birga jarayonga MNS qo'shiladi (xoreya, ensefalopatiya, meningeensefalit, neyrorevmatizm). Bolalarda ko'proq xoreya uchraydi (sidengam xoreyasi). Xoreya revmatizm manifestatsiyasi bo'lishi mumkin va har doim jarayonning faolligidan dalolat beradi, cho'zilgan va o'zgargan shakllari ham bo'lishi mumkin. Xoreya bilan nerv tizimda total yetishmovchiligi bo'lgan 5-10 yoshdagi bolalar, lekin ko'pincha pubertat davridagi bolalar kasallanadi. Xoreyaga uzun yashirin davr xos. Bola g'ayritabiy harakatlar qiladi; bo'shshadi, xotirasi, imlosi, yurish-turishi o'zgaradi, yig'loqi, qo'zg'uluvchan bo'lib qoladi. Bemorni ob'ektiv tekshirilganda triada simptomlari xos:

-ixtiyorsiz, distal, cheksiz giperkinezlar;

-mushakli gipotoniya;

-koordinatsiya buzilishi;

Nevrologik statusda pay refleklari uchraydi, asosan tizza refleksii ("+" Gerdon refleksii), Cherni simptomi (nafas organda qorin old devorining tushishi), Romberg holatida turg'unsizlik, "ilviragan yelka" simptomi, Filatov ko'zi va tili (bemor ko'zini zich kisilgan holatida uzoq vaqt tutib turolmaydi, chiqarilgan tili tortishib turadi). Giperkinezlar hayajonlanganda kuchayadi va uyku vaqtida to'la yo'qoladi. Simptomlar qaytar o'zgarishlari 1,5 - 3 oy davomida yuzaga keladi. Xoreya retsdivlanadi va uning fonida ko'pincha yurak no'soni shakllanadi.

Kam uchraydigan simptomlarga anulyar toshmalar va revmatik tugunchalar qiradi. Anulyar toshma dumaloq-oqish markazli pushti-qizil rangdagi dog' bo'lib, asosan qorin, ko'krak qafasining yon yuzalarida, yelka va son ichki yuzasida, buyinida yurkada joylashadi. Toshma ko'pincha kasallik boshlanishida hosil bo'lib, uzoq saklanmaydi. U boshqa patologik holatlar (sur. Tonzillit, ORVI) da ham uchraydi, shuning uchun diagnostik ahamiyati kam. Hozirgi vaqtda kamdan-kam holda avvallari kasallikning og'ir kelgan turida aniqlagan revmatik

tugunlarni ko'rish mumkin. Tugunchalar bir necha kundan bir necha oygacha saqlanib qoluvchi, pay, aponevrozlar sohasida dumaloq, zich bittalab yoki ko'plab joylashuvchi 2-8 mm og'riqsiz xosilalardir.

Ba'zan revmatizm abdominal sindromdan boshlanadi. Shiddatli boshlanish, kuchli isitma, qorindagi og'riqlar, qondagi yallig'lanish xarakteridagi o'zgarishlar bemorni xirurgik bo'limiga gospitalizatsiyasiga ko'rsatma bo'ladi. Abdominal sindrom o'tkir boshlangan qorin parda seroz yallig'lanishi va keyingi aspektik eksudativ peritonit natijast hisoblanadi.

Revmatizmida buyrak zararlanishi siydik sindromi: o'rta darajadagi proteinuriya, leykotsituriya, kam holda eritrotsituriya bilan ifodalanadi.

Bu o'zgarishlar xavfsizrok hisoblanadi.

G.Klinik belgilar bilan bir qatorda laborator ko'rsatkichlarda ham tavsifli o'zgarishlar kuzatiladi. Faol revmatik jarayonida E.Ch.T. 30 mm/s dan oshadi, lekin tezda gormonoterapiya fonida pasayadi. Qon taxlilida leykotsitar formula chapga siljiydi. (tayoqcha yadroli neytorfillar miqdori oshadi). Leykotsitlar miqdori oshishi mumkin. Gemoglobin miqdori kamayadi va rang ko'rsatkich kamayadi, siydikda eritrotsitlar ko'rish maydonda 10-12 ta va kam hollarda 50-80 bo'lishi mumkin (nefrit). Siydik bilan chiquvchi oqsil miqtsori kam va revmatik infeksiya og'irligiga bog'liq, o'rtacha leykotsituriya kuzatilishi mumkin. Qon immunobioximik taxlillarida: ASL-O, AKS, ASG (norma! : 250-500) titrlari, DFA reaksiya ko'rsatkichlari (norma 0,210 YeD optik zichlik), seromukoid (norma 0,180 YeD gacha) ko'rsatkichlarning oshishi, S-reaktiv oqsil topilishi (normada yuk, fibrinogen normada 9,2 mkmmol/l gacha) miqdorning qonning fibrinolitik aktivligi susayganda oshishi kuzatiladi. Oqsil fraksiyalari o'zgarishi: aktiv globulinlar oshishi xos. Revmatizm diagnostikasida laborator ko'rsatkichlar emas, klinika muhim ahamiyatga ega.

Muhokama. Qaytalanuvchi revmatizm. Revmatizm bilan kasallangan bemorlarning 25-50% foiziida qayta hurujlar burun-xalqum infeksiyasidan so'ng yoki paraallergik ta'sirotlar natijasida yuzaga keladi. Revmatizm ko'zg'ashi yana hosil bo'lgan inotoksikatsiya belgilari, harorat oshishi, bugim sindromlari tasdiklashi mumkin. Xorey va boshqa sindromlar retsdivlanishi mumkin. Har qaysi yangi xurujdan keyin ekstrakardial ko'rinishlar yaqqoligi susayadi, lekin ular baribir jarayon faolligidan dalolat beradi.

Qayta xuruj deb 10-12 oydan kam bo'lmagan holda yuzaga kelgan xurujni aytish mumkin. Noto'lik remissiya fonida dastlabki davrda jarayonning ko'zishini revmatizmning uzluksiz-retsdivlanuvchi turi deb hisoblash mumkin. Bolalarda qayta xurujlar natijasida yurak nuqsonlari shakllanadi. Agar nuqsonlar birinchi xurujdan keyin 14-18% bemorlarda aniqlansa, 2-Zchi xurujlardan keyin 100% bemorlarda aniqlanadi. Yurak

nuqsonlari oddiy (bitta klapan alohida shikastlanishi), qo'sh (bitta klapan stenoz va yetishmovchiligi) va kombinirlangan (2-3 ta klapan zararlanishi) bo'ladi. Jarayonga qo'shilish chastotasi bo'yicha birinchi o'rinda mitral klapan, ikkinchi o'rinda aortal klapan, uchinchi o'rinda uchtabaqali klapan turadi. Qaytalanuvchi revmokatitda kasallik og'irligi faqatgina jarayon faolligiga emas, balki klapanlar deformatsiyasi yaqqolligiga ham bog'liq.

Solishtirma tashxis. Revmatizni qatro yurak, bo'g'im, MNS kasalliklari bilan solishtirib ko'rish zarur. Dekompensirlangan surunkali tonzillitni revmatizm bilan umumiy holsizlik, charchash, poliartrologik subfebrilitet kabilar yaqinlashtiradi, hamda bemorni tekshirganda taxikardiya, sistolik shovqin ekstrasistoliya aniqlanadi. Ba'zan kattalashmagan murtaklar (toksik-allergik) bola organizmiga toksik-allergik ta'sir ko'rsatib, gipertoniya va yuqori immunobioximik ko'rsatkichlar bilan kechadi. Tashhis qo'yishda tonzilitning faqat avj olganda o'zgarishlar yuzaga kelishi (yashirin oraliq vaqti yo'q) yordam beradi, yurak organik zararlanish simptomlari bo'lmaydi. Virusli miokardit revmatizdan ORVI bilan bog'liqligi, ekstrakardial ko'rinishlari yo'qligi, kasallik erta (5-6 yoshgacha) boshlanishi bilan farq qiladi, miokardial yetishmovchilik asosiy o'ringa chiqadi, laborator ko'rsatkichlar normada bo'lib, yurak klapanlari nuqsoni shakllanmaydi.

Davolash. Bolalarda revmatizmi davolash erta, kompleks, bosqichli (statsionar, revmatik sanatoriy, dispenser, uzoq davom etishi 3-4 oydan kam emas) kerak.

A. 1-bosqich. Statsionar davo-kompleksli terapiyaning birinchi, asosiy bosqichlarini u o'z ichiga oladi. 1) bolaga moslanuvchi davolovchi gimnastika mashg'ulotlari bilan davolash - harakatlanuvchi rejimni ta'minlash (funksional reabilitatsiya) 2) medikamentoz terapiya qo'llash (patogenetik davo) 3) surunkali infeksiya o'choqlarini sanatsiya qilish. Statsionarda o'tkir revmatizm bilan kasallangan bemorlarni yaqqalash maqsadga muvofiq, chunki u streptokokk tashuvchisi hisoblanadi. Bo'limda davolash-harakat rejim aniqlanadi. Yotoq rejimi 2-3 hafta yoki ko'proqqa (kardit og'irligiga qarab) belgilanadi. So'ng bolani yarim yotoq rejimiga (xojatxonaga, stolga, muolajaga turishga ruxsat beriladi), keyinchalik shugullanuvchi rejimga o'tkaziladi. Birinchi rejimdan ikkinchisiga o'tkazishda klinik-laborator ko'rsatkichlar nazoratga olib boriladi. Uzoq vaqt toza havoda yurish katta ahamiyatga ega. Ovqatlanishi to'la sifatli bo'lishi kerak, gormonoterapiyada ovqat tarkibidagi K⁺ tuzlarini oshirish, osh tuzini kamaytirish maqsadga muvofiq.

Medikamentoz davo o'z ichiga antimikrob, yallig'lanishga qarshi va immunodepressiv preparatlarni o'z ichiga oladi. Revmatizm streptokokk tabiatli bo'lgani uchun sutkasiga 600000 - 2 mln YeD m/o 2 hafta davomida penitsillin buyuriladi. Yallig'lanishga qarshi,

desensibillashtiruvchi, og'rik qoldiruvchi, isitma tushiruvchi va yengil antikoagulyant xususiyatga ega bo'lgan aspirin tavsiya etiladi. Dozasi 0,20 g. har bir yoshiga (tax. 3 g/sut) bo'lib ovqatdan keyin 3-4 marta beriladi. 3-4 hafta davomida beriladi, keyin har bir yoshiga 0,15 g dan kamaytirib 2 hafta beriladi. Keyinchalik bemor 1,5 oy davomida 0,1 g har bir yoshiga qabul qiladi. Pirozonol qatori birikmalari (analgin, amidopirin) aspirin o'rniga 0,15-0,2 g har bir yoshiga yoki birgalikda har bir preparatdan 0,1-0,15 g dozada har bir yoshiga sutkasiga beriladi. Butadion aspiringa nisbatan yaqqolroq antirevmatik ta'sirga ega, lekin nojo'ya ta'sirlari ko'proq (qayd qilish, gematuriya), shuning uchun 2-3 haftalik qisqa kurslar buyuriladi- 5-7 yoshdagi bolalarga kuniga 3 mahal 0,05 g dan, 8-10 yoshdagilarga 4 mahal 0,05 dan, 11 yosh va undan kattalarga 3 mahal 0,1 g dozada beriladi. Revmatizmi davolashda bir necha o'n yillar davomida GKS qo'llaniladi.

B. 2-bosqich. Sanatoriyda davolash xurujdan 7-10 oy dan keyin olib boriladi. Sanator davo effektivligi bemorga shifoxonadan to'g'ridan- to'g'ri sanatoriyga yullanma berilganda yuqori bo'ladi. Sanatoriy vazifasiga to'liq remissiyaga erishish, yurak qon-tomir tizimining funksional holatini tiklash kiradi, bu esa davolash-sog'lomlashtirish rejimi, davolovchi jismoniy tarbiya, chiniqtirish yordamida amalga oshiriladi. Lekin ularni katta extiyotkorlik bilan va individual ko'rsatmalarni xisobga olgan holda qo'llaniladi. Bolalarda antirevmatik terapiya surunkali infeksiya o'choqlarini davolash davom ettiriladi.

V. 3-bosqich. Dispanser nazorat. Sanatoriydan bola uchastka pediatrii va kardiorevmatolog nazoratiga o'tadi. Bola 2 marta tekshiriladi, boshqa mutaxassislariga yuboriladi, instrumental-laborator tekshiruvlar o'tkaziladi.

Natija. Prognoz. U keyingi o'n yil ichida streptokokkli infeksiyaga qarshi kurashishning samarali tadbirlari va patogenetik terapiyaning ta'siri munosabati bilan yaxshilanadi. Shiddatli eksudativ ko'rinishlar bilan kechuvchi revmatizmning og'ir turlari kam uchramoqda. Letallik 11-12% dan 0,4-0,1 % gacha kamaydi. Bu esa og'ir miokardit natijasida yuqori faollikda o'tkir kechuvchi revmatizmda rivojlanuvchi yurak nuqsonlari natijasida yurak yetishmovchiligi bilan belgilanadi. Qo'sh va kombinirlangan yurak nuqsonlari kasallikning qaytar retsidivlar natijasida kuzatiladi. Birlamchi revmokatit 10-15 % bemorlarda yurakda klapanli nuqsonlar paydo bo'lishiga olib kelsa kaytalanuvchi revmokatit 40% bemorlarda nuqsonlar paydo qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki revmatizm birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Birlamchi profilaktika revmatizm yuzaga kelishini, ikkilamchi uning retsidivlanishini oldini oladi. Birlamchi uz ichiga tabiiy immunitetni qaytarish tadbirlarini oladi (chinikish, yuklama va dam olishning tug'ri almashtirishni, to'la sifatli ovqatlanish, vitamin qabul qilish). Streptokokkli infeksiya

bilan kurashish, otolaringologning tizimli ko'rigitsanginani to'g'ri davolash, surunkali tonzillitni konservativ davolash, ko'rsatma bo'yicha tonzilektomiya qilishni takozo qiladi. Ikkilamchi profilaktika - revmatizm retsidivin oldini olish, davomiy ta'sirga ega bo'lgan pensillin preparatlari bitsillin - 3 va bitsillin - 5 ko'llab amalga, oshiriladi, bundan oldin vrach pensillinga bo'lgan allergik reaksiyani aniqlashi kerak. Bitsillinoprofilaktika

mavsumiy va yil davomida bo'ladi. Mavsumiy profilaktika burun-xalqum infeksiyasi va revmatizmning qayta xurujlari kuzda va bahorda o'sishini xisobga oladi. Bitsillin - 3-6 hafta davomida 7 kunda 1 marta qilinadi. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda 600 ming YeD dan, maktab yoshidagilarga 1200 ming YeD dan 0,1 har bir yoshga aspirin bilan birga beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining - O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining -O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y. 56 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining -O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Ashurova D.T., Tursunova O.A., Axrarova N.A., Mambetkarimov G.A Bolalar kasalliklari propedevtikasi. ToshPTI. Darslik .T.: 2018 yil.
5. Kliniko-funksionalnye osobennosti novorozhdennykh: uchebnoe posobie dlya studentov meditsinskix vuzov / sost.: Lejnina I. V., Podlevskix T. S., Tokarev A. N. - Kirov: Kirovskaya gosudarstvennaya meditsinskaya akademiya, 2010. – 82 s. 6.
6. Propedevtika detskix bolezney: uchebnik dlya studentov pediatricheskix fakultetov meditsinskix vuzov/V.A.Kelsev - Rostov n/D: Feniks, 2011. - 573 s 7.
7. Propedevtika detskix bolezney s uxodom za detmi / T.V.Kapitan - 3- ye izdanie, dop. - M.: MEDpress-inform, 2006. - 704 s. 8.
8. Propedevtika detskix bolezney. Mazurin A.V., Voronsov I.M., 2 oe izdanie Sankt. P. 2009.
9. Pitanie detey grudnogo i rannego vozrasta: uchebnoe posobie/Axmedova D.I., Shamansurova E.A., Maxkamova G.G., Ishniyazova N.D/ - Tashkent – 2014. – 270 s.
10. Rost i razvitie detey (usulicheskoe rukovodstvo), Ministersvo Zdravooxraneniya Respubliki Uzbekitsan. TashPMI, Tashkent, 2006 434
11. Propedevtika detskix bolezney/Pod red. Geppe N.A., Podchernyaevoy N.S.: uchebnik dlya studentov meditsinskix vuzov. - M.: GEOTAR-Media, 2008. - 464 s.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

UDK: 378.014.15

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING G'OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish amaliy metodik tizimi va bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagoglarning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligi, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, ma'naviy-axloqiy kompetentlik, kognitiv, baholash, konseptual asos.

Каримов Айбек Муминджан оглы
Исследователь Ферганского государственного университета

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В статье исследованы теоретико-методологические основы формирования идеологической компетентности будущих педагогов, практическо-методическая система развития идеологической компетентности будущих педагогов и эффективность развития идеологической компетентности будущих педагогов. Также анализируются необходимость и приоритеты развития идеологической компетентности будущих педагогов.

Ключевые слова: идеологическая компетентность педагогов, компетентность, совершенствование, педагогическая, технологическая, модельная, дидактическая, духовно-этическая компетентность, познавательная, оценка, концептуальная основа.

Karimov Oybek Muminjan ugli
Researcher of Fergana State University

PEDAGOGICAL CONTENT FOR DEVELOPING IDEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract: The theoretical-methodological foundations of developing ideological competence of future pedagogues, the practical methodical system of developing ideological competence of future pedagogues and the effectiveness of developing ideological competence of future pedagogues are studied in the article. Also, The need and priorities for developing ideological competence of future pedagogues are analyzed.

Key words: ideological competence of pedagogues, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, spiritual-ethical competence, cognitive, assessment, conceptual basis.

Kirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqaliyoshlarda g'oyaviy-mafkuraviy sifatlar rivojlanishi kafolatlanadi. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining umumkasbiy fanlar blokidagi "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" fanida ta'lim qoidalaridan eng asosiysi ta'limning tarbiyalovchilik qoidasidir. Chunki, kelajakda yosh avlodni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda ularda xulq-odob meyorlariga

mos keluvchi ijobiy fazilatlarni yuksaltirish muhim sanaladi. Bu o'rinda, avvalo, talabalarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash metodikasini hisobga olgan holda ish yuritish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar tahlili, g'oyaviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda ham o'rganishlar davom etmoqda. Jumladan, milliy g'oya va o'zlikni anglash muammoli

B.Saparov, mafkura tushunchasi, milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma'naviyati va milliy tarbiya muammolari M.Quronov, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari M.Bekmurodov, ijtimoiy-milliy ongliklik, faollik, milliy g'urur hamda iftixor tuyg'usini shakllantirishning asosiy manbalari bo'lgan milliy g'oyaning mohiyati I.Ergashev, ma'naviyat hamda mafkura tushunchalari-ning uzviy bog'liqligi va aloqadorligi, mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalalari A.Ochildiyev, milliy rivojlanish jarayonida ma'naviy-mafkuraviy salohiyatni shakllantirish muammolari X.Jumaniyozov, milliy mafkurada vorisilik muammosi O.Mamatovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Natijalar va muhokama.

Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ta'lim mazmuni muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlarni nazarda tutadi. Eng muhimi, shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish, odob-axloq, ijtimoiy hayotga va mehnatga bo'lgan bo'lgan munosabatini ongli ravishda tarkib toptirish jarayoni mohiyatini ham o'zida mujassamlashtiradi.

Mazkur kompetensiyaviy yondashuvda "Milliy g'oya targ'iboti, texnologiyalari" "Jahon mafkuraviy ta'limotlar tarixi", "Geosiyosat va globallashuv asoslari", "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi", Tarbiya fanini o'qitish metodikasi", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy-huquqiy asoslari" fanlaridan har bir mavzuning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda unga mos metodlar tanlangan hamda pedagogik jarayon va fanning mazmuni asosida talabalarda rivojlantirilishi lozim bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalar, ma'naviy-axloqiy sifatlarga alohida urg'u berilgan. Biz har bir dars mashg'uloti asosida talabada ma'lum bir ijobiy sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib faoliyat olib borsak, butun bir pedagogik faoliyatimiz davomida yuqori natijaga erishishimiz kafolatlanadi.

Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish, zamonaviy ta'limning muhim jihatlaridan biridir. Bu kompetentlik, pedagoglarning faoliyatida jamiyatning ma'naviy va madaniy asoslari, ijtimoiy qadriyatlar va inson huquqlari kabi masalalarni hisobga olishni talab qiladi.

"Milliy g'oya targ'iboti, texnologiyalari" "Jahon mafkuraviy ta'limotlar tarixi", "Geosiyosat va globallashuv asoslari", "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi", Tarbiya fanini o'qitish metodikasi", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy-huquqiy asoslari" fanlari asosida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mazmuni:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiya: Pedagoglar o'z shogirdlariga axloqiy normalar, qadriyatlar va etika

prinsiplarini o'rgatishda muhim rol o'ynaydilar. Bu ixtiyoriy ravishda jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga hissa qo'shishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy faollik: Pedagoglarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish, ularning jamiyatdagi rolini anglab yetish va nafaqat ta'lim olish, balki ijtimoiy masalalarga ham faol munosabat bildirish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Kasbiy idrok: Pedagogik ish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarni va prinsiplarni to'g'ri tushunish, ularning murakkabligini aniqlash va shogirdlarga yetkazish qobiliyati.

4. Tanqidiy fikrlash: G'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik pedagoglarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularga turli xil ijtimoiy va madaniy masalalar bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

5. Madaniy va madaniyatlararo aloqalar: Turli madaniyatlarning qadriyatlarini haqida bilim olish, ular bilan muomala qilish qobiliyati ham g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikning muhim qismidir.

6. Ta'lim metodologiyasi: Pedagoglarda samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va shogirdlarga ilg'or g'oyalarni yetkazib berish qobiliyati.

7. Ma'naviyat va ma'rifat: Pedagoglarda milliy ma'naviyatni rivojlantirish maqsadida milliy qadriyatlarining ahamiyati haqida tushuncha berish zarur.

Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish - bu ularning professional mahorati uchun asosdir. Ushbu kompetentlik nafaqat bilim berish jarayonida balki shogirdlarning umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, pedagogika sohasidagi ishlar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhimi hisoblangan g'oyaviy-mafkuraviy komponentlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida muhim masalalardan biridir. O'zgaruvchan va globallashgan dunyoda, yosh avlodning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini saqlash, ularni har tomonlama rivojlantirish uchun pedagoglarning roli katta.

G'oyaviy tarbiyaning ahamiyati:

1. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish: Bo'lajak pedagoglar yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydilar. Ularning ma'naviy taraqqiyoti, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyatga bo'lgan munosabati bunga bog'liq.

2. Kasbiy etika: Pedagogika sohasidagi mutaxassislar o'z kasbiy etikasiga ega bo'lishlari kerak. Bu ularning professional faoliyatida hal qiluvchi omildir.

3. Savodxonlik va tanqidiy fikrlash: Bo'lajak pedagoglarga tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bu ularga bilim berish jarayonida turli xil g'oyalarga yetarli munosabat bildirish imkonini beradi.

Mafkuraviy immunitet:

1. Ideologik ta'sirlarga qarshi turish: Pedagoglar, shubhasiz, yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda muhim rol o'ynaydilar. Ular ideologiyaviy manipulyatsiyalardan himoyalaniş uchun asos bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni berishlari kerak.

2. Nosozlikka qarshi to'sqinlik: Mafkuraviy immunitet yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini jengilastirib, ularning nosozliklarga qarshi turishiga yordam beradi.

Bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish – bu jamiyatning kelajagi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy mas'uliyatli pedagoglar kelajak avlodni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi shubhasizdir!

Bo'lajak pedagoglarni mafkuraviy tahdidlardan asrash masalasi juda muhim va dolzarbdir. Ma'naviy va ma'rifiy ta'limotlarni shakllantirish, yoshlarning dunyoqarashini to'g'ri yo'naltirish, ularni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga to'g'ri yondashishga o'rgatish kerak.

1. Ta'lim mazmunini yaxshilash

- Ma'naviy-axloqiy ta'lim: Yoshlarga axloqiy qadriyatlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatish.

- Kritik fikrlashni rivojlantirish: Odamlar o'z fikrini himoya qilish va boshqalarning fikriga shubha bilan qaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

2. Pedagogik usullar

- Interaktiv metodlar: Diskutsiya, rol o'ynash, guruhli ish kabi usullar orqali yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

- Ta'lim jarayonidagi faol ishtirok: Studentlarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning fikrlari va tajribalarini inobatga olish.

3. Modellashtirish

- Pozitiv modellar: Ijobiy shaxslarning namuna sifatida ko'rsatilishi, ularning hayotidan misol keltirilishi kerak.

- Kasbiy etika: Pedagoglar o'zlari uchun aniq etika normalari va qoidalarini belgilashlari zarur.

4. Oila va jamiyat bilan hamkorlik

- oilaviy ta'lim: Oilani ta'lim jarayoniga jalb qilish, ular bilan hamkorlik qilish.

- jamiyat faoliyati: Jamiyatdagi ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirish.

5. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

- Onlayn resurslar: Ma'naviyatga doir kontentni onlayn platformada tarqatish.

- Sotsial media: Yaxshi ma'lumot manbalari orqali yoshlarga to'g'ri ma'lumot yetkazib berish.

Xulosa.

Bu amallarni amalga oshirish orqali bo'lajak pedagoglarni mafkuraviy tahdidlardan asrash imkoniyati yaratiladi. Pedagogika tizimida shunday mexanizmlarni joriy etish, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalagan holda ularning dunyoqarashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lajak pedagoglarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi, chunki u individual yondashuvni ta'minlaydi va talabalarning ijodkorligini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Walsby, Harold. The Domain of Ideologies / A Study of the Development and Structure of Ideologies. Проверено 27 июня 2013. Архивировано из первоисточника 1 июля 2013.

2. Норлиев Р.И. Миллий тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлиги ва таъсир хусусиятлари: Автореферат. фалсафа фан. ном. дисс. – Тошкент.: 2011. 10-б.

3. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 2008. –238 б.

4. Очилдиев А. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси. – Тошкент: Ижод дунёси, 2002. 31-б.; Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: Муҳаррир. 2009. 48-б.

5. Райзберг Б.А. Современный социоэкономический словарь. – М., 2012. 171-с.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

O'rinboeva Xayotxon Mahamadinovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ingliz tilining nazariy aspektlari №1"
kafedrasi katta o'qituvchisi

UDK 378.147.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI VA VAZIFALAR TURLARI

Annotatsiya. Chet tillarni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish mavzusi bo'yicha olimlar o'rtasida turli bahslar mavjud. Mustaqil ishlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni o'z ichiga olgan turli texnologiyalar va metodlar o'rganilgan. Talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish va ularning samaradorligini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar berilgan. Shuningdek, maqolada mustaqil ta'limning samaradorligi, uning afzalliklari va kamchiliklari hamda amaliy tatbiq etish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'limni tashkil etish, mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish, mustaqil ta'limning samaradorligi, amaliy tatbiq etish usullari.

Yubboeva Khayotkhan Mahamadinovna

Uzbekistan State University of world languages "theoretical aspects of the English language №1"
senior lecturer at the Department

ISSUES ON THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT STUDY AND TYPES OF TASKS

Abstract. There are various debates among scientists on the topic of Independent study in teaching foreign languages. Many studies have been conducted on the technologies of organizing and managing independent work. In this regard, various technologies and methods, including the organization and management of students' Independent study activities, have been studied. Recommendations aimed at increasing students' ability to work independently and improving their efficiency are given. The article also discusses the effectiveness of Independent study, its advantages and disadvantages, as well as methods of practical implementation.

Key words: Organization of Independent study, increasing the ability to work independently, effectiveness of Independent study, methods of practical implementation.

Оринбаева Хайотхон Махамудиновна

Узбекский государственный университет мировых языков "теоретические аспекты английского языка №1"
старший преподаватель кафедры

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ И ВИДЫ ЗАДАНИЙ

Аннотация. Среди ученых ведутся различные дискуссии на тему самостоятельного образования при обучении иностранным языкам. Проведено множество исследований по технологиям организации и управления самостоятельной работой. В связи с этим изучены различные технологии и методы, в том числе организация и управление самостоятельной учебной деятельностью студентов. Даны рекомендации, направленные на повышение способности студентов работать самостоятельно и повышение их эффективности. Также в статье рассматривается эффективность самостоятельного образования, его преимущества и недостатки, а также методы практической реализации.

Ключевые слова: Организация самостоятельного образования, повышение способности к самостоятельной работе, эффективность самостоятельного обучения, методы практической реализации.

Kirish.

Mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari bo'yicha olimlar o'rtasidagi bahslar va muhokamalar doimiy ravishda davom etmoqda. Chet tillarni o'qitishda mustaqil ta'lim muhim ahamiyatga ega. Bu ta'lim turi talabalarga o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash,

qo'shimcha ma'lumotlarni mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi. Ko'pchilik olimlar mustaqil ta'limning afzalliklari va kamchiliklari haqida bahslashadi. Veb-keyst texnologiyalari talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. Bunday

texnologiyalar¹³ mustaqil o'quv faoliyatini rag'batlantiradi va talabalarni faollashtiradi¹⁴.

Ta'lim jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish mexanizmi bo'yicha yana bir tadqiqotlar keltirilgan. Bu tadqiqotlardan biri talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish va ularning samaradorligini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi¹⁵.

Muxokamarlar.

Chet tillarni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha olimlar o'rtasidagi bahslar turli nuqtalarda olib boriladi. Quyida ularning asosiy bahslari va fikrlari:

1. Metakognitiv strategiyalarning roli

Anna Chamot va boshqa tadqiqotchilar til o'rganishda metakognitiv strategiyalarni qo'llab quvvatlaydilar. Bu strategiyalar o'quv jarayonini rejalashtirish, kuzatish va baholashni o'z ichiga oladi. Chamotning tadqiqotlari ko'rsatishicha, muvaffaqiyatli til o'rganuvchilar metakognitiv strategiyalardan faol foydalanadilar. Ular tushunmagan joylarini aniqlash va tushunchalarni aniqlash uchun savollar berish kabi usullarni qo'llaydilar. Bu, o'z navbatida, tilni o'zlashtirishda yaxshiroq natijalarga erishishga yordam beradi.

Tanqidchilar metakognitiv strategiyalarni o'rgatish qiyin va barcha o'quvchilar uchun samarali emasligini ta'kidlaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar kam muvaffaqiyatli o'quvchilar bu strategiyalardan foydalanishdan unchalik manfaat olmasliklari mumkinligini aytishadi. Shuningdek, bu strategiyalarni joriy etish qo'shimcha resurslar va vaqt talab qiladi, bu esa hamma maktablarda amalga oshirilishi mumkin emas.

2. Mustaqil ta'lim va texnologiyalar

R. Hempel va U. Stikler kabi tadqiqotchilar texnologiyalarning til o'rganishda mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlashdagi rolini ta'kidlaydilar. Videokonferensiyalar va multimedia vositalari talabalarga turli interaktiv usullar orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar talabalarga mustaqil o'qish muhitini ta'minlab, ularning individual ehtiyojlariga moslashadi.

Ba'zi olimlar texnologiyalarga haddan tashqari bog'liqlikdan ehtiyot bo'lishni maslahat berishadi. Ular texnologiyalar talabalarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, barcha o'quvchilarning texnologik resurslarga teng imkoniyatga ega emasligi o'quv natijalarida farqlarga olib kelishi mumkin. Texnologiyalar o'zlari til o'rganishning

barcha jihatlarini qamrab olmaydi, masalan, madaniy immersiya va spontan suhbatlar.

3. Masofaviy ta'lim va mustaqillik

Ernest, Heyser va Myorfi kabi tadqiqotchilar masofaviy ta'limning talabalarni mustaqil o'qishga rag'batlantirishdagi afzalliklarini ta'kidlaydilar. Onlayn platformalar talabalarga o'z tempida va mustaqil ravishda o'qish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, yaxshi tuzilgan onlayn o'quv muhiti an'anaviy sinfxonaga qaraganda ham samarali bo'lishi mumkin.

Tanqidchilar masofaviy ta'limda o'z-o'zini nazorat qilish va motivatsiya talab qilinishini ta'kidlaydilar. Ular masofaviy ta'limda shaxsiy muloqot va zudlikning yo'qligi til o'rganish uchun zarur bo'lgan jonlilikni yo'qotishini aytishadi. Shuningdek, onlayn resurslardan uzluksiz va ishonchli foydalanish imkoniyati har doim ham mavjud emas, ayniqsa, texnologik infratuzilma kam bo'lgan hududlarda.

4. O'quv strategiyalaridan samarali foydalanish

Vandergrift kabi tadqiqotchilar o'quv strategiyalarini o'qitishning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, talabalarni samarali o'quv strategiyalariga o'rgatish ularning mustaqil va muvaffaqiyatli o'quvchilar bo'lishiga yordam beradi. Vandergriftning tadqiqotlari ko'rsatishicha, strategiyalardan xabardor va ularni qo'llay oladigan o'quvchilar til vazifalarini yaxshiroq bajaradilar.

Ba'zi tadqiqotchilar o'quv strategiyalarini o'rgatish barcha talabalar uchun bir xil samarali emasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, o'quv strategiyalariga ortiqcha e'tibor berish til ko'nikmalarini amalda mashq qilishdan chalg'itishi mumkin. Shuningdek, o'quv strategiyalarining tilni o'zlashtirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini o'lchash qiyin, chunki til o'rganishda ko'plab o'zgaruvchidan holatlar mavjud. Ba'zi zamonaviy olimlar, ya'ni A.Krivileva, A.Kucheryavy, I.Mostovaya, N.Sagina va A.Chiz mustaqil ish uchun psixologik tayyorgarlikning etishmasligi, o'zini o'zi tashkil etishning umumiy qoidalarini bilmaslik, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash qobiliyatlari va qobiliyatlarining etishmasligi va ko'plab o'quv fanlariga etarlicha yuqori darajada qiziqish yo'qligini unutmang. Biz talabalar uchun o'z vaqtlarini ajratish, shuningdek, har qanday o'quv intizomi doirasida talabalarning mustaqil ishinig asosi bo'lgan o'quv materiallari bilan ishlashning oqilona usullari va usullarini o'zlashtirish juda muhim ekanligiga to'liq qo'shilamiz. Bunday ko'nikmalar orasida Yu.Miroshnichenko va O.Troyan quyidagilar bilan ajralib turadi: - vaqtdan oqilona

¹³ Болтабоев Салимбой Акрамович Таълим жараёнида мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш механизми // Современное образование (Узбекистан). 2019. №7 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-zharyayonida-musta-il-uv-faoliyatini-tashkil-etish-mehanizmlari> (дата обращения: 13.06.2024).

¹⁴ Хамдамов У.Э. ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАРИНИ ВЕБ-КВЕСТ ВОСИТАСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ // Экономика и социум. 2022. №5-1 (96). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tillarni-ovqitishda-talabalarning-musta-il-ishlarini-veb-kvest-vositasida-tashkil-etish>

tillarini-itishda-talabalarning-musta-il-ishlarini-veb-kvest-vositasida-tashkil-etish (дата обращения: 13.06.2024).

¹⁵ Алқоров Қодир Холматович, Дониёрова Шахноза Эркин Қизи, Бурхонов Расул Ромилович ТАЛАБАЛАР МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ // Вестник науки и творчества. 2020. №12 (60). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalar-musta-il-talim-olish-faoliyatini-tashkil-etish-va-bosh-arish-tehnologiyasi> (дата обращения: 13.06.2024).

foydalanish, ish va dam olishni almashtirish, tarbiyaviy ishlar gigienasi qoidalari; - ma'lumot qidirish, kataloglar, lug'atlar, ensiklopediyalar, tarmoq resurslari bilan ishlash va boshqalar.:- tez o'qish texnikasi; - matnlarni semantik qayta ishlash, asosiy narsani ta'kidlash (g'oyalar, qonunlar, tamoyillar); - diqqatni jamlash va yodlash; - tinglash va nutq madaniyati; - axborotlarni qisqacha ratsional qayd qilish (ko'chirmalar, tezislari, reja, konspekt, referat, taqriz va boshqalar.);- ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya va amaliy ishlarga, shuningdek modullarning yakuniy auditoriyalariga tayyorgarlik. Mustaqil ta'limni tashkil etish uchun turli vazifalarni amalga oshirish mumkin. Bu vazifalar turli xil faoliyatlar va metodlarni o'z ichiga oladi. Quyida mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha vazifalar turlari keltirilgan:

1. Mustaqil o'quv materiallari bilan ishlash

Xalq madaniyati va og'zaki xalq ijodiyotida mustahkamlangan ma'naviy-axloqiy tamoyillar, g'oyalar, ideallar va amrlar bolaning butun hayoti davomida namoyon bo'ladi: haqiqiy munosabatlarda, ishda, kundalik ishlarda va bayramlarda. Ushbu me'yorlar oilada va jamiyatda bola o'rtasidagi uyg'un munosabatlarning asosini tashkil etadi.

Folklor mazmuniga asoslangan mashg'ulotlar nafaqat MTT tarbiyalanuvchilarining birlamchi milliy o'zini o'zi identifikatsiyalashni va boshqa xalqlarning milliy madaniyati bilan tanishishni ta'minlabgina qolmay, balki ularni tarixiy madaniy an'analarga – xalq va mualliflik ertaklari, folklorning kichik janrlarini (maqollar, topishmoqlar, so'zlar, ertaklar), ertak hikoyalari bo'yicha adabiy, musiqiy va tasviriy asarlar, an'anaviy raqs, musiqa, qo'shiq bilan tanishtirishga imkon beradi.

Bolalarni adabiy, musiqiy va tasviriy xalq madaniyatiga kiritish bolalarning hissiy rivojlanishini sezilarli darajada uyg'unlashtiradi; so'z boyligini boyitishga, obrazli tuzilish va izchil nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xalq madaniyatining eng muhim xususiyati shundaki, u millatning ma'naviy va axloqiy madaniyatining haqiqatini o'zlashtirishga yordam beradi. Xalq ijodiyoti milliy merosni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ularni bola uchun majoziy, tushunarli shaklda o'zlashtirishga imkon beradi.

Ertaklar orqali katta avlod bolalarni yaxshilik va go'zallik qonunlariga muvofiq hayot qurishga o'rgatadi, shuning uchun MTT tarbiyalanuvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash dasturi bolalar hayotiga "buvilarning ertaklari"ni kiritishi shart. Ular sizga bolani to'g'ri tarbiyalashga imkon beradi, tabiiy ravishda ma'naviy va axloqiy hayotning an'anaviy tamoyillarini bola va oila hayotiga singdiradi.

Imon, yaxshilik, rahm-shafqat va itoatkorlik g'oyalari ertaklarning ma'naviy va axloqiy mazmunini tashkil yetadi. Ularning aksariyati uzoq vaqtdan beri ta'limda millatning axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish, diniy e'tiqodini tushunish tamoyili sifatida ishlatilgan. Axloqiy tushunchalar, masalan, "yaxshilik qilsang, yaxshilik qaytadi" kabi qadriyatlar haqiqiy hayotda va yaqinlar bilan munosabatlarda mustahkamlanib, bolaning istaklari va harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlarga aylanadi.

Binobarin, barcha xalqlarning farzandlari an'anaviy ravishda ertaklar orqali ma'naviy-axloqiy me'yorlar va hayot ma'nolarini o'zlashtirib olishlari bejiz emas. Bolani tarbiyalashda, uning ma'naviy-axloqiy dunyosini shakllantirishda xalq ertaklarining o'rni beqiyosdir. Ular eng muhim savollarni hal qilishadi: yaxshilik va yomonlik, sevgi va nafrat, jasorat va qo'rqqoqlik, insonning maqsadi va uning hayot yo'li haqida. Xalq ertaklari bolani xalq urf-odatlarida tarbiyalaydi, unga ma'naviy va axloqiy xalq e'tiqodlariga asoslangan hayot haqidagi tasavvurni aytib

beradi. MTT da ularni bolalarga ma'lum bir faslga ko'ra taqdim etish maqsadga muvofiqdir, masalan, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, Navro'z, bahor bayrami kabilar.

MTT tarbiyalanuvchilari uchun ma'naviy-axloqiy madaniyat asoslari bo'yicha mashg'ulotlar, shu jumladan, xalq ertaklari, masallari va maqollari bolaning axloqiy va etik rivojlanishi, do'stona munosabatlar va haqiqiy do'stlik haqidagi g'oyalarini rivojlantirish uchun tabiiy sharoit yaratadi.

Bolalarni yozuvchi, shoir va adiblarning adabiyot, tasviriy va musiqa san'ati asarlari bilan tanishtirish, ularni yuksak ma'naviy-axloqiy obrazlar dunyosi bilan badiiy va hissiy jihatdan jozibali, bola uchun tushunarli shaklda tanishtirish, estetik, ma'naviy, axloqiy va tarbiyaviy xarakterdagi ma'lumotlarni yetkazish bir xil darajada muhimdir.

Tasviriy va didaktik o'yinchoqlar, fotosuratlar, otkritkalar, dekorativ-amaliy san'at asarlari va boshqa rasmlar bolalarga ma'naviy-axloqiy mazmunni, uning ma'no va mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar – bu oilada qabul qilingan va avloddan avlodga o'tadigan me'yorlar tizimi. Oilaviy qadriyatlar inson shakllanishining asosidir. Va ular birinchi navbatda bolalikda o'rganiladi. Shuning uchun ushbu qadriyatlarni MTT da o'rganiladigan dastur bilan birlashtirish juda muhimdir.

Ta'limdagi faoliyat tamoyili pedagogikadagi eng muhim uslubiy tamoyil bo'lib, MTT da alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuniga ongli ravishda turli xil ishlab chiqarish va ijodiy faoliyat turlarini kiritish zarur bo'ladi.

MTT da ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunining eng muhim xususiyati shundaki, u nafaqat eng yuqori ma'naviy, axloqiy va madaniy mazmun bilan to'ldiriladi, balki bu nafaqat bilimlarni rivojlantirish, g'oyalar va tushunchalarni shakllantirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy madaniyat mashg'ulotlarida hunarmandchilik va chizmalar yasash juda muhim. Hunarmandchilik va chizmalar bolalar tomonidan axloqiy maqsadda amalga oshiriladi: berish, bezash, iltimos, ko'rgazma, yarmarka tashkil qilish, do'stlar va qarindoshlarning ism kunlarini nishonlash. Bunday vaziyatda hamma narsa bola uchun samarali va mazmunli bo'ladi.

Samarali va ijodiy faoliyatda bolalar bilan asosiy syujet sahnalarini namoyish etish bolalarning aqliy rivojlanishiga yordam beradi: o'z his-tuyg'ularini, munosabatlari va g'oyalarini ifoda etish istagi va ehtiyoji, axloqiy ko'nikmalar va xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish uchun haqiqiy asos yaratadi. Faoliyat tufayli jamiyat qonuniyatlarini, ma'naviy va axloqiy g'oyalarni, bilim va xulq-atvor me'yorlarini faol o'zlashtirish ta'minlanadi, ularning amaliy rivojlanishi va

mustahkamlanishi bolaning ichki haqiqiy hayotiga va qarindoshlari va tengdoshlari bilan munosabatlarga o'tish bilan amalga oshiriladi.

Rasm chizish, modellashtirish, applikasiya, qo'l mehnati, ertaklar va musiqmy san'at asarlarini tinglash, keyinchalik muhokama qilish, she'rlarni yodlash, o'yin-dramatizatsiya, bayramona ertaklar asosiy maqsadga – MTT tarbiyalanuvchilarining yaxlit ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga erishishga zamin yaratadi.

Shaxsiy qadriyatlar – bu inson hayoti davomida o'zi tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan qadriyatlar. Bular qoidalar, munosabat, xulq-atvorning ma'naviy va axloqiy me'yorlari, dunyoga munosabatdir. MTT tarbiyalanuvchilarining shaxsiyatini rivojlantirish vaqti – bu shaxsning ma'naviy-axloqiy shaxsiyatining eng intensiv shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ladigan vaqt. Ayni paytda bolaning ma'naviy-axloqiy tajribasi qanchalik

kichik bo'lmasin, bu insonning ma'naviy-axloqiy hayoti, uning ma'naviy-axloqiy shaxs sifatida rivojlanishi boshlanadigan manbadir.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni milliy, shuningdek, umuminsoniy, madaniy, ilmiy, estetik, oilaviy va shaxsiy qadriyatlar majmuini ifodalovchi murakkab ierarxik tizimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya sifati ko'p jihatdan ma'naviy va axloqiy qadriyatlar maktabgacha ta'limning belgilovchi ma'nosiga aylanishiga va ular MTT tarbiyalanuvchilari rivojlanishining barcha sohalariga qanchalik organik ravishda kirib borishiga bog'liq. Shuning uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning muhim vazifasi uni boshqa ta'lim sohalarini bilan organik ravishda birlashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 802-son qarori, www.lex.uz
3. Хасанбоева О. Миллий-маънавий қадриятларда комил инсон тарбияси. – Т.: 2. «Ўқитувчи», 2011. -141-б.
4. Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. - Т.: 3. «Университет», 2009. -64-б.
5. Маънавият: асосий тушунчалар ва изоҳли луғати. – Т.: Фафур Фулом номидаги 4. нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. -447-б.
6. Усмонов М. Авестода инсон мадҳи. // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 5. 2000 йил 20 декабрь.
7. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: «Университет», 2018. 6. -43-б.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sadikova Gulkhayo Ibrokhimjon qizi

Doctoral student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

COGNITIVE APPROACHES TO READING COMPREHENSION IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA)

Abstract. The article discusses various cognitive approaches to reading comprehension, emphasizing the importance of schema activation, information processing, and metacognitive strategies. These insights are essential for developing effective reading programs and interventions, particularly in the context of Second Language Acquisition (SLA).

Key words: Reading comprehension, cognitive approaches, schema theory, information processing theory, metacognition.

Sodiqova Gulxayo Ibraximjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

IKKINCHI TILNI O'ZLASHTIRISHDA O'QIB TUSHUNISHGA DOIR KOGNITIV YONDASHUVLAR (SLA)

Annotatsiya. Maqolada o'qib tushunish jarayonida sxemani faollashtirish, axborotni qayta ishlash va metakognitiv strategiyalarning muhimligini ta'kidlanib, o'qib tushunishning turli kognitiv yondashuvlari muhokama qilinadi. Bu tushunchalar, ayniqsa, ikkinchi tilni o'zlashtirish (SLA) kontekstida samarali o'qib tushunish ko'nikmasiga doir dasturlar ishlab chiqish uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, kognitiv yondashuvlar, sxemalar nazariyasi, axborotni qayta ishlash nazariyasi, metakognitsiya.

Садикова Гулхаё Иброхимжон кизи

Докторант Самаркандского государственного
института иностранных языков

КОГНИТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ ПРОЧИТАННОГО ПРИ ОВЛАДЕНИИ ВТОРЫМ ЯЗЫКОМ (SLA)

Аннотация. В статье синтезируются различные когнитивные подходы к пониманию прочитанного, подчеркивая важность активации схемы, обработки информации и метакогнитивных стратегий. Эти идеи необходимы для разработки эффективных программ и мероприятий по чтению, особенно в контексте овладения вторым языком (SLA).

Ключевые слова: понимание прочитанного, когнитивные подходы, теория схем, теория обработки информации, метапознание.

Reading is a fundamental activity undertaken to gain knowledge and comprehension about a subject or topic. Mastering this skill is crucial for achieving success in life, as it enables individuals to stay informed, current, and intellectually engaged. Reading involves both receiving and actively engaging with information, making it a dynamic process where the reader actively seeks to link ideas presented in the text. This process engages various cognitive functions as the reader gathers, processes, and interprets information. Additionally, reading serves as a significant source of enjoyment and relaxation (Li and Wilhelm, 2008).

Reading comprehension involves a cognitive process in which a reader carefully chooses facts, information, or ideas from written materials. This process includes

understanding the intended meanings conveyed by the author, determining how they connect to existing knowledge, and assessing their relevance and value in achieving the reader's own goals (Veeravagu, et al., 2010:206).

Reading extends beyond mere recognition of letters; it involves the interpretation of meaning and context. As individuals engage in reading, the information they encounter is organized into recognizable patterns. Connections, whether direct or indirect, are established among this information, contributing to the development of comprehension. Norris (1998) identifies two types of information processing associated with visual stimuli: perceptual and conceptual. Perceptual processing involves receiving and processing individual or grouped letters,

passages, phonemes, and word forms, while conceptual processing assigns meaning by drawing upon prior knowledge, examining discourse structure, and considering context. According to Numan (2003), reading comprehension is a fluid process that integrates information from the text with existing knowledge to derive meaning.

Moreover, comprehension is not solely a linguistic skill; it encompasses broader cognitive abilities (Walter, 2007). Walter's research employs Gernsbacher's Structure Building Framework (SBF), which comprises three processes: establishing a foundation for a mental structure, integrating new information into the evolving mental structure, and transitioning to construct a new substructure. These largely automatic and unconscious processes utilize "memory nodes," as described by Gernsbacher, as fundamental components in comprehension development. Activation of these memory nodes is facilitated by various factors, including information from the input, the comprehender's background knowledge, and their linguistic proficiency (Walter, 2007).

Reading comprehension in Second Language Acquisition (SLA) has been analyzed through various approaches that incorporate cognitive, linguistic, social, and educational perspectives. These approaches help researchers understand how individuals process, understand, and integrate text in a second language. Now we will discuss the main ideas of cognitive approaches to analyze reading comprehension in SLA.

Cognitive approaches to reading comprehension focus on understanding the mental processes that underlie the ability to decode text, construct meaning, and integrate new information with existing knowledge. Several well-known scientists have made significant contributions to this field, each providing insights into how cognitive processes affect reading comprehension.

Rumelhart proposed that comprehension involves activating and using schemata, which are organized structures of knowledge stored in the mind. In this place we need to give definition to the word "schemata". Schemata in reading refers to a mental framework or cognitive structure that individuals use to organize and interpret information as they read. Schemata are developed through past experiences, knowledge, and cultural background, and they influence how readers comprehend and make sense of texts. Schemata help readers to fill in gaps, make predictions, and connect new information with what they already know, enhancing their overall comprehension. These schemata help readers make sense of new information by linking it to prior knowledge. **Schema Theory** emphasizes the role of background knowledge and how readers use pre-existing schemas to understand and predict text content.

In "Schemata: The building blocks of cognition," Rumelhart (1980) discusses schemata as fundamental cognitive structures that shape perception, comprehension, and memory. He explores how schemata guide information processing, influence interpretation, and facilitate the integration of new knowledge with existing mental frameworks. Rumelhart emphasizes the dynamic nature of schemata, highlighting their role in organizing and making sense of experiences and information. He has made two main conclusions in his work:

- Effective reading comprehension relies heavily on the reader's ability to activate relevant schemata.
- Misunderstanding or difficulty in comprehension often occurs when there is a mismatch between the reader's schemata and the content of the text.

The next theory in cognitive approaches is Information Processing Theory: Examines how readers process and store information, focusing on working memory, attention, and the integration of new information with existing knowledge. In "Comprehension: A paradigm for cognition," Kintsch (1998) presents comprehension as a fundamental process in cognition, providing insights into how individuals understand and integrate information. He discusses the importance of mental models, text representation, and knowledge activation in comprehension. Kintsch also explores the role of memory and inference in constructing meaning from texts, offering a comprehensive framework for understanding comprehension as a cognitive phenomenon. Kintsch developed this model to describe how readers construct meaning from text. It involves two stages: construction (building a mental representation of the text based on linguistic input) and integration (merging this representation with existing knowledge). According to his conclusions:

- Reading comprehension is a dynamic process involving continuous interaction between the text and the reader's prior knowledge.
- Comprehension involves creating a coherent mental representation of the text that integrates new information with what the reader already knows.

Grabe's work in SLA reading emphasizes the interactive processes involved in L2 reading comprehension, where bottom-up (decoding) and top-down (context and prior knowledge) processes work together. (Grabe, W. (2009).)

- ◎ He has made the following conclusions:
 - L2 reading comprehension is best understood as an interactive process that involves both the decoding of text and the use of prior knowledge and context to construct meaning.
 - Effective reading instruction for L2 learners should address both the development of decoding skills and the use of comprehension strategies.

Metacognition: Involves the awareness and regulation of one's cognitive processes, including planning, monitoring, and evaluating comprehension strategies. Devine (1993) and Flavell (1981) characterized metacognitive strategies in reading as techniques used to oversee or control cognitive processes. Devine (1993) suggested that while skimming a text for essential information constitutes a cognitive strategy, evaluating the effectiveness of skimming for gathering textual information represents a metacognitive strategy. Metacognitive reading strategies are commonly categorized into three groups: planning (pre-reading), monitoring (during reading), and evaluating (post-reading) strategies (Alsheikh & Mokhtari, 2011; Anderson, 2003; Baker, 2008; Devine, 1993; Iwai, 2007). Each of these groups encompasses various strategies that necessitate metacognitive awareness on the part of readers (Pressley, 2002; Sheorey & Mokhtari, 2001). Proficient readers use metacognitive strategies to monitor their understanding and make adjustments while reading. Cognitive load can affect comprehension, with complex texts or tasks demanding more cognitive resources, which can be challenging for L2 learners. Effective instruction that

includes explicit teaching of reading strategies, scaffolded learning opportunities, and integration with content learning enhances reading comprehension in L2 learners.

Above mentioned scientists have greatly advanced our understanding of reading comprehension from a cognitive perspective. Their research highlights the importance of schema activation, the role of background knowledge, the interaction between decoding and meaning construction, and the necessity of instructional strategies that foster independent comprehension skills. These insights are critical for developing effective reading programs and interventions in both first and second language contexts.

Reading is a vital skill for acquiring knowledge, staying informed, and achieving success. It is a dynamic and engaging process that requires readers to actively link ideas and comprehend the text. This involves cognitive functions such as gathering, processing, and interpreting information. Effective reading comprehension extends beyond recognizing letters to understanding the meaning and context, organizing information into patterns, and connecting it to existing knowledge.

References:

1. Alsheikh, N. O., & Mokhtari, K. (2011). An examination of the metacognitive reading strategies used by native speakers of Arabic when reading in English and Arabic. *English Language Teaching*, 4(2), 151-160.
2. Anderson, N. J. (2003). Teaching Reading. In D. Nunan (Ed.), *Practical English Language Teaching* (pp. 67-86). New York: McGraw Hill Publishers.
3. Baker, L. (2008). Metacognitive development in reading: Contributors and consequences. In K. Mokhtari & R. Sheorey (Eds.), *Reading strategies of first and second – language learners: See how they read* (pp. 25-42). Norwood, MA: Christopher-Gordon.
4. Devine, J. (1993). The role of metacognition in second language reading and writing. In G. Joan and L. I. Carson (Eds.), *Reading in the composition classroom, Second language perspective*, 105-130. Boston: Heinle and Heinle Publishers.
5. Flavell, J. H. (1981). Cognitive monitoring. In W. P. Dickson (Ed.), *Children's oral communication skills*. New York: Academic Press.
6. Grabe, W. (2009). *Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice*. Cambridge University Press.
7. Iwai, Y. (2007). Developing ESL/EFL Learners' Reading Comprehension of Expository Texts. *The Internet TESL Journal*, 13(7), 1-5.
8. Kintsch, W. (1998). *Comprehension: A paradigm for cognition*. Cambridge University Press.
9. Li, H., & Wilhelm, K. H. (2008). Exploring pedagogical reasoning: Reading strategy instruction from two teachers perspectives. *The Reading Matrix*, 8(1), 96-110.
10. Norris, J.A. (1998). I could read if I just had a little help: Facilitating reading in whole language context. In C. Weaver (Ed.), *Current issues in whole language* (pp. 157- 196). Urbana, IL: NCTE.
11. Nunan, D. (2003). *Practical English language teaching*. New York: McGraw-Hill.
12. Pressley, M. (2002). Metacognition and self-regulated instruction. In A. Farstrup & S. Samuels (Eds.), *What research has to say about reading instruction* (3rd ed., pp. 291-309). Newark, DE: International Reading Association
13. Rumelhart, D. (1980) Schemata: The Building Blocks of Cognition. In: Spiro, R., Bruce, B. and Brewer, W., Eds., *Theoretical Issues in Reading Comprehension*, Erlbaum Associates, Mahway, 33-58.
14. Sheorey, R., & Mokhtari, K. (2001). Differences in the metacognitive awareness of reading strategies among native and non-native readers. *System*, 29, 431-449.
15. Veeravagu, J., Muthusamy, C., Marimuthu, R., & Subrayan, A. (2010). Using Bloom's Taxonomy to gauge students' reading comprehension performance. *Canadian Social Science*, 6(3), 205-212.
16. Walter, C. (2007). First-to second-language reading comprehension: Not transfer, but access. *International Journal of Applied Linguistics*, 17(1), 14-37.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nasibaliyev Sardorbek Nodirbek o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: sardorbeknasibaliyev390@gmail.com

MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MILLIY VA HARAKATLI O'YINLAR TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslarini muntazam ravishdagi tashkil etilishi, milliy qadriyatlarimizni ifoda etuvchi o'yinlardan keng foydalanishni tashkil etish uslublari, umumta'lim maktablarining dars jarayonlarining reja asosida o'tilishi va asosiy o'rinni egallashi, dars mashg'ulotlarining natijalari, ularning tahlili haqida tegishli ma'lumot bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya darslari, Xalq harakatli o'yinlari, Harakatli o'yinlar.

Насибалиев Сардорбек Нодирбеквич

Узбекский государственный университет физического культуры и спорта, независимый исследователь.

АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ЭКШН-ИГР, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: В данной статье речь идет о регулярной организации занятий по физическому воспитанию учащихся в общеобразовательных школах, методах организации широкого использования игр, выражающих наши национальные ценности, главном месте уроковых процессов в общеобразовательных школах, результатах представлены уроки и их анализ.

Ключевые слова: Занятия физкультурой, Народные подвижные игры, Экшн игры.

Nasibaliyev Sardorbek Nodirbek ogli

Uzbekistan State University of Physical
Education and Sports, independent researcher.

ANALYSIS OF NATIONAL AND ACTIVITY GAMES USED IN INCREASE OF PHYSICAL ACTIVITY OF SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article deals with the regular organization of physical education classes of students in general education schools, the methods of organizing the wide use of games that express our national values, the main place of the lesson processes in general education schools, the results of the lessons, and their analysis. information is provided

Key words: Physical education classes, Folk action games, Action games.

Kirish.

Yurtimizda rivojlanib kelayotgan ommaviy sportning yosh avoldga to'g'ri va aniq yetib borishida o'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan milliy sport o'yinlarini ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni jismonan va ma'nan axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb mavzulardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada

rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli farmon va qarorlarida yurtimiz aholisining sog'ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid masalalarga e'tibor qaratilgan.

Bu esa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta ma'suliyatli vazifalar qo'yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan jismoniy ma'daniyatini milliy lashtirishiga, bunda xalqimizning

unitilib borayotgan milliy o'yinlarini to'plash, hayotga-maktabga tadbiriq etish, rivojlantirish yo'llari va usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. O'zbek xalqining ko'p yillar davomida shakllangan, avlodlariga meros bo'lib qolgan milliy harakatli o'yinlaridan maktab yoshdagi o'quvchilarimizning foydalanishi mustaqillikka erishgan bugungi kunlarimizda juda ham zarur.

Mamlakatimiz o'z erkiga ega bo'lgandan so'ng, ijtimoiy hayotimizning turli jabhalarida, xususan, sport sohasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Ayniqsa, yurtboshimiz sport sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratdi. Maktab jismoniy tarbiya darslarida o'quvchi yoshlarimizda ommaviy ma'daniyatni vatanparvarlik ruxini shakillantirishga qaratilgan darslarni tashkil qilishda yangicha metodikalardan foydalanish usullari ko'rib chiqilmoqda.

Maktabda o'quvchilari ortasida jismoniy tarbiya-sog'lom muhitni yaratishda, yosh avlodni har tomonlama jismonan va ma'nau kamol toptirishda hal qiluvchi kuchga ega. Sababi, biz hamon taraqqiyot sari ketayotgan ekanmiz, hali yo'limizda yechilishi kerak bo'lgan ta'limiy muammolar talaygina. Masalan, qo'shni mamlakatlar bilan raqobat qilishda jismoniy tarbiyaning ommaviy sportning axamiyati juda ham yuqori deb oylayman hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida milliylik yetarli darajada emasligi va shu bo'shliqni to'ldirish uchun xalqimizning bebaho an'analari, noyob qadriyatlaridan hisoblanmish xalq harakatli o'yinlari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari hozirgi yoshlarimizga chuquroq singdirishimiz zarur deb xisoblayman. Dunyo tajribalari shuni ko'rsatadiki hozirgi axborat texnologiyalari zamonida ham o'quvchi yoshlarimizga suniy itelekt orqali uyali aloqa nootbok planshetlar orqali ham spotni targ'ib qilish muhim o'rin tutadi degan ummiddaman.

Maktab yoshidagi o'quvchi yoshlarimizning turli sport texnikalarini organishda xalq milliy harakatli o'yinlarining axamiyati zukko xalqimizning asrlar mobaynida jamlangan ma'naviy javohirlar majmuasidir. O'zbek elining donishmandligini qarangki, har bir o'yin, avvalo, soda, qiziqarli tuzilgan bo'lib, uning mag'ziga xalqona ohang, milliylik, mehr-oqibat, jasorat, mardlik, vatanparvarlik, fidoiylilik, insoniylik kabi tuyg'ular singdirilgandir. Ta'lim va jismoniy tarbiyaning maktab o'quvchilarini yetuk inson qilib tarbiyalash vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab yoshidagi bolalarning sog'ligini mustahkamlash jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadidir. Turli mintaqalarda o'quvchining 7 yoshidan boshlab jismoniy mashqlar mashg'ulotiga ongli ravishda mustahkam munosabatni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator usullar qo'llaniladi. 7 yoshli bolalar uchun harakat tartibi kata ahamiyatga ega, chunki ularning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi darajasi ko'pincha harakat faolligini va

mashqlarni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq [1;43, 2; 76, 3;12, 4; 55]

Maktab yoshidagi o'quvchi yoshlarimizning hozirgi ommaviy sport turlariga qiziqishlarini tartibga solish va elementlarini jismoniy harakatlarini sport turlariga yo'naltirish asosiy maqsad vazifalardan bo'lish kerak. Jismoniy sifatlarning rivojlanishi yosh hususiyatlariga etibor qaratishimiz zarur harakatli oyinlar strekturalarini shakllantirish milliy ma'daniyat o'yinlari orqali bola arganizimida jismoniy elementlarini bajarishiga qarab yosh hususiyatlar ortasida milliy ma'daniyatni shakillanishiga va maktab o'quvchilari organizimidagi funksional ozgarishlarga yoshlarimizning sog'ligiga chuquroq e'tibor bergan bo'lar edik. Buning ustiga hozirgi vaqtda-hukumatimiz jismoniy tarbiyaga katta e'tibor qaratayotgan davrda-respublikamizda nafaqat maktab yoshdagi o'quvchilar, balki barcha insonlarning hayotida milliy qadriyatlarining ro'li oshib bormoqda.

Maktab davrida muntazam o'qib o'rganish, shug'ullanish natijasida ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. Sport bilan shug'ullanuvchilarda sport etikasiga, sportning shakllari, shu jumladan, milliy madaniy o'yinlarga bo'lgan qiziqish ortib boradi.

Maktab yoshda oquvchilarning irodasi mustahkamlanib boradi, irodaviy faollik, sabr-toqat va o'zini tuta bilishga intilish tuyg'usi rivojlanadi. O'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil bilim olish yo'nalishi yoshlarda yaqqol ifodalanadi. Shuning uchun maktab yoshda o'quvchilarni ruhiy jihatdan tarbiyalovchi, mustaqillikka undovchi vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhidagi milliy madaniy harakatli o'yinlardan foydalanish ayni muddaodir. Bunda diqqat-e'tibor, hushyorlik, g'amxo'rlik, munosabatlarning samimiyligi, ularning mustaqil ligini bukmasdan turib, xatti-harakatlarini mohirona boshqarish zarur. O'qituvchi, murabbiy o'z o'quvchilarining o'qish, mehnat va sport faoliyati xususiyatlari, ularning aqliy, jismoniy rivojlanganlik darajasi, xarakter xislati, tevarakat-rofdagilarga va o'z-o'ziga munosabatini doimo o'rganib borishlari zarur. Bu xususiyatlarni qayd qilib borish ham o'yinlarni o'tkazishda foydali bo'lib, ma'lum samaralar beradi. Milliy harakatli o'yinlarni yoshlar, ayniqsa, maktab o'quvchilari sevib, maroq bilan o'ynaydilar. Bunday o'yinlar jismoniy tarbiya darslaridagina emas, balki hovli va bog'larda dam olish soatlarida o'ynaladi. Muhim sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga doir bayon qilingan material ko'proq o'yin tarzida beriladi, o'yindan keyin bo'shashtiradigan, ohista yuriladigan yoki diqqat-e'tiborni o'stiradigan mashqlarni berish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shu jihatlarni hisobga olib maktab o'quvchilarini kun tarkibi va faoliyat jarayoniga qo'shimchalar kiritdik:

Kun tartibidagi masalalar:

- har kuni o'quvchilar bilan 15 daqiqa davomiyligida ertalabki badan tarbiya o'tkazish;

- oyida 1-2 marta xalq milliy o'yinlariga asoslangan musobaqalar tashkil etish:

- o'quvchilarning yoshiga mos holda tanlangan milliy o'yinlardan foydalanib, turli tadbirlar o'tkazish;

- yil davomida 2-3 marta xalq harakatli o'yinlariga asoslangan jismoniy tarbiya bayramlari o'tkazishga e'tibor qaratish dars davomida asosiy qismda qo'yilgan vazifalar hal qilingach milliy harakatli o'yinlarni tashkil etish.

Tahlillar va natijalar.

Qo'shimcha kiritilgan maktab faoliyatida bu jarayonlarni amalga oshirdik. 28-sonli umumta'lim maktabining boshlang'ich (8-yoshli) sinf o'quvchilari sinov-tajriba maqsadida olinib, turli pedagogik sharoit yaratilib, ularning yoshiga mos milliy harakatli o'yinlardan foydalangan holda ish olib borildi. Bu samarali vositalardan foydalanish orqali jismoniy tarbiya ishlariga, o'quv rejalariga 15% o'zgartirishlar kiritildi. O'zgartirishlar biz tomonimizdan tavsiya etilgan milliy harakatli o'yinlardan foydalanish to'g'risidagi dasturga tayanilgan holda olib borildi. Tajriba-sinov boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirish, ularning mustaqilligini tarbiyalash, bilim berish, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini yaxshilash, takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izlash, ularni amalga oshirish asosida amalga oshirildi. Tajriba o'tkazilayotgan sinflarda jismoniy tarbiya vositalari, milliy harakatli o'yinlar ya'ni jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi

dastur talabidagi harakat ko'nikmasi va malakalarini egallashga qaratilgan holda tanlandi.

Xulosa.

Shunday qilib maktabda pedagogik sharoitlarning yaratilishi, jismoniy mashqlar majmuasining to'g'ri tashkil qilinishi milliy harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yuqori sifatli o'tkazishga imkoniyat yaratadi hamda mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya ish rejalarining usuliy nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishiga yordam beradi. Yuqorida qayd etilganlar asosida to'plangan ma'lumotlar pedagogik kuzatishlar va nazorat me'yor ko'rsatkichlarining tahlili bo'yicha ma'lum bo'ldiki, 8-10 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishi tajriba-sinov maktabida yuqori darajada, shu bilan birga ularning salomatligi nisbatan yuqori va bolalarning kasalga chalinishi kamaydi. Har bir natijadorlik samarasida yosh avlodning sog'lom turmish tarzi va o'sib kelayotgan yoshlarimizning vatanparvarlik ruxida milliy oyinlarga bolgan hatti haraktida jismoniy kalol topadi Jismoniy sifatlarni tarbiyalash, birinchidan, muvozanatni o'lchash jihatdan murakkab harakatlarni o'zlashtirib olish qobiliyatini tarbiyalashdan, ikkinchidan, harakat faoliyatini to'satdan o'zlashtirish lozim bo'lgan talablarga muvofiq ravishda qayta ko'rish qobiliyatlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg'ona -2016 372, b.
2. Usmonxo'jaev T.S. 1001 o'yin. - T.: Ibn Sino.1990-yil 89-b.
3. Atoev A.K. O'zbek xalq milliy o'yinlaridan foydalanish // Sovet maktabi. -Toshkent, 1988-yil 75-b.
4. **Tojiyev M.A. Yosh gimnastikachilar boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida o'quv mashg'ulot jarayonining tuzilishi Diss...p.f.b.f.d, (PhD) Chirchiq 2020. -155 b.**

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ahunova Tamannoxon Zokir qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali
Kompyuter injiniringi va sun'iy intellekt fakulteti
Axborot texnologiyalari kafedrası
tamannosha23@gmail.com

RAQAMLI TA'LIMNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya: maqolada ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil. Raqamli ta'lim yangi texnologiya va platformalar ta'lim jarayonini interaktiv va innovatsion usullarda olib chiqishga imkon beradi. Maqola dasturiy ta'lim ta'lim jarayonini optimal ta'lim jarayonini, o'quvchilarning bilim olish vositalarini tuzatishga va o'qituvchilar uchun samarali o'quv jarayonini tashkil etish ta'sirini o'rganadi. Hisoblash, rejalashtirish ta'limning yo'nalishlari, texnologik taraqqiyot va ta'lim dasturlarini moslashtirish jarayonlari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, ta'lim texnologiyalari, interaktiv, onlayn ta'lim, ta'lim tizimi, raqamli maydoni, masofaviy, innovatsion ta'lim.

Ахунова Таманно Закир кызы

работает на кафедре
информационных технологий факультета компьютерной
инженерии и искусственного интеллекта
Ферганского филиала Ташкентского
университета информационных технологий имени
Мухаммада ал-Хоразмий.

МЕСТО И РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение цифрового образования в современной системе образования. Цифровое обучение позволяет использовать новые технологии и платформы для внедрения интерактивных и инновационных методов в образовательный процесс. В статье исследуется влияние цифрового образования на оптимизацию учебного процесса, организацию получения знаний учащимися и развитие эффективного процесса обучения для преподавателей. Приведены данные о направлениях вычислительного и информационного обучения, технологическом прогрессе и процессах адаптации образовательных программ.

Ключевые слова: цифровое образование, образовательные технологии, интерактивное обучение, онлайн-обучение, система образования, вычислительное пространство, дистанционное обучение, инновационное образование.

Ahunova Tamannoxon Zokir kizi

is from the Department of Information Technologies at the Faculty of
Computer Engineering and Artificial Intelligence,
Fergana branch of the Tashkent University of Information
Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

THE ROLE AND DEVELOPMENT OF DIGITAL EDUCATION IN THE EDUCATION SYSTEM

Annotation: the article analyzes the role and importance of digital education in the modern education system. Digital education enables the integration of new technologies and platforms, allowing the educational process to be conducted in interactive and innovative ways. The article examines the impact of digital education on optimizing the learning process, organizing students' knowledge acquisition, and developing an effective teaching process for educators. Information is provided on the directions of computational and informational education, technological advancements, and the processes of adapting educational programs.

Keywords: digital education, educational technologies, interactive, online education, education system, computational field, distance learning, innovative education.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Texnologik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari ta'lim sohasiga yangi imkoniyatlar olib keldi, bu esa an'anaviy ta'lim shakllarini raqamli platformalar orqali boyitishga imkon berdi. Raqamli ta'lim nafaqat o'quvchilarga bilimlarni interaktiv va qiziqarli usullarda olishga yordam beradi, balki o'qituvchilarga ham ta'lim jarayonini samarali va moslashuvchan tarzda boshqarish imkonini yaratadi. Ushbu jarayon ta'limning barcha bosqichlarida yangi texnologiyalarni qo'llashni, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishni va o'quv dasturlarini raqamli platformalarga moslashtirishni talab qiladi. Raqamli ta'limning tezkor rivojlanishi va uning imkoniyatlari ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Raqamli ta'limning rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar va adabiyotlar raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga qanday ta'sir qilayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy ilmiy manbalarda raqamli ta'lim platformalari orqali ta'lim jarayonining interaktiv va innovatsion yondashuvlar asosida olib borilishi hamda o'qituvchilar va o'quvchilarning samaradorligi oshishi qayd etiladi. Ko'plab olimlar raqamli ta'limni o'quv jarayonini diversifikatsiyalash va uning moslashuvchanligini ta'minlash uchun muhim vosita sifatida ko'rishadi.

Masalan, J.M. Adams va S.R. Cox (2020) o'z tadqiqotlarida raqamli ta'limning imkoniyatlarini, xususan masofaviy ta'limning o'sishini tahlil qilib, bu yo'nalishning kelajakdagi ta'lim jarayonlarida qanchalik keng qamrovli bo'lishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular raqamli ta'lim platformalarining talabalarning bilim olishga bo'lgan yondashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va ularni o'quv jarayoniga yanada faolroq jalb qilishini aniqlashgan.

Boshqa tadqiqotlarda, masalan, Q.X. Parker (2018) tomonidan olib borilgan izlanishlar raqamli ta'limning axborot texnologiyalari vositalari yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayonini qanday o'zgartirganini o'rganadi. U raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida yangi usullarni ishlab chiqish va joriy qilishga bo'lgan ehtiyojni ta'kidlaydi. Parker raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish, vaqtni tejash va individual o'quv yondashuvlarini shakllantirishda muhim o'rin tutishini isbotlaydi.

Shuningdek, D.G. Collins va A. Brown (2019) o'z asarlarida raqamli ta'limning amaliy qo'llanilishi, xususan, onlayn kurslar va masofaviy o'qitish platformalarining keng tarqalishi haqida gapirishadi. Ular bu jarayonning nafaqat universitetlar va maktablar uchun, balki butun

dunyo bo'ylab ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirganini tasdiqlashadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim sohasida o'tkazilgan tadqiqotlar uning ta'lim jarayonida yangi innovatsiyalar kiritishga yordam berishini va o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashini ta'kidlaydi. Raqamli ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, bu esa ta'lim sifati va moslashuvchanligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda raqamli ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanishi va uning natijalarga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash.

1. **Nazariy tahlil metodi:** Dastlabki bosqichda raqamli ta'limga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar, va elektron resurslar tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida raqamli ta'limning asosiy tushunchalari, tamoyillari, texnologiyalari va platformalari aniqlanib, ularning o'quv jarayoniga kiritilishining afzalliklari va kamchiliklari tadqiq etildi.

2. **Tajriba-sinov usuli:** Tadqiqot doirasida raqamli ta'limning turli usullari va vositalarini amalda qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Bu usul yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayoniga raqamli texnologiyalarning ta'siri o'rganildi. Raqamli platformalardan foydalanish natijalari o'quvchilarning bilim olish darajasi, darslarda ishtiroki va ularning motivatsiyasiga ta'siri jihatidan baholandi.

3. **So'rov va intervyu metodi:** O'quvchilar va o'qituvchilar orasida raqamli ta'limga bo'lgan munosabat, bu texnologiyalarning o'zlashtirilishi va samaradorligi haqida ma'lumot olish uchun so'rovnoma va intervyu usullari qo'llanildi. Ushbu usul orqali o'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi qulaylik va qiyinchiliklari, shuningdek, o'qituvchilarning bu jarayonni boshqarishdagi tajribalari haqida fikrlar olindi.

4. **Tahliliy va statistik usullar:** Tajriba va so'rovlar natijasida olingan ma'lumotlar tahlil qilindi va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, raqamli ta'limning samaradorligi, uning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri va o'qitish natijalariga ko'rsatgan ijobiy yoki salbiy ta'siri aniqlangan. Olingan ma'lumotlar asosida grafik va diagrammalar yordamida raqamli ta'limning samaradorligini ko'rsatish uchun taqqoslashlar o'tkazildi.

Ushbu metodlar yordamida raqamli ta'limning zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalashuv darajasi va

uning ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli ta'limning o'quv jarayonini optimallashtirish va talabalarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutishi ko'rsatib berildi.

Tahlillar va natijalar.

Raqamli ta'lim texnologiyalari va platformalarining ta'lim jarayoniga ta'siri keng miqyosda tahlil qilindi. Quyida asosiy tahlillar va ularning natijalari keltiriladi:

1.Raqamli platformalar va texnologiyalarning o'quv jarayoniga ta'siri: Tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonida samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, interaktiv vositalar orqali ta'lim materiallarini vizuallashtirish o'quvchilarning mavzuni tushunishi va eslab qolishini sezilarli darajada yaxshilagan. Masalan, video darslar, animatsiyalar va interaktiv testlar yordamida o'quvchilar materialni mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishdi, bu esa ularning bilim olish motivatsiyasini oshirdi.

2.O'quvchilarning bilim olish samaradorligi: So'rov va sinov natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalardan foydalangan o'quvchilarning bilim darajasi an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Raqamli ta'limning moslashuvchanligi va individual yondashuv imkoniyatlari o'quvchilarning qobiliyatlariga ko'ra ta'lim olish jarayonini tezlashtirishga yordam berdi. 85% o'quvchi raqamli platformalardan o'rgangan mavzularni osonroq eslay olishlarini ta'kidladilar.

3.Masofaviy ta'limning roli va samaradorligi: Masofaviy ta'lim jarayonida raqamli platformalar muhim rol o'ynadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim tizimi o'quvchilarga ta'limni istalgan joydan va qulay vaqtda olish imkonini bergan. O'quvchilarning ko'pchiligi (70%) masofaviy ta'lim ularga ta'lim olish jarayonida moslashuvchanlik yaratganini va o'quv jarayonida o'zlari uchun qulay usullarni tanlash imkonini berganini bildirishdi. Bu natijalar raqamli ta'limning har tomonlama samarali ekanligini ko'rsatdi.

4.O'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini boshqarish: O'qituvchilar uchun raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini boshqarishda qulaylik yaratdi. Intervyu natijalariga ko'ra, o'qituvchilar darslarni interaktiv usullar bilan boyitish va individual yondashuvlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishgan. Biroq, ba'zi o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashda dastlab qiyinchiliklarga duch kelganlari, ayniqsa, texnik bilimlarning yetarli emasligi sababli, ta'kidlashdi. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalar bilan ishlash

ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga yordam bergan.

5.Raqamli ta'lim va innovatsion usullar: Tadqiqot davomida raqamli ta'limning innovatsion usullarni rivojlantirishga qaratilganligi aniqlandi. Yangi texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, interaktiv materiallardan foydalanish va real vaqt rejimida fikr almashish imkoniyatlari ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab raqamli platformalar test va nazorat topshiriqlarini avtomatlashtirilgan tarzda baholash imkonini bergan, bu esa o'quvchilarning bilim darajasini tez va aniq baholashga yordam bergan.

Natijalar: Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli ta'lim zamonaviy ta'lim jarayonida samarali vosita ekanligi ko'rsatib berildi. Raqamli platformalarning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, o'qituvchilarga o'qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini berishi aniqlandi. Masofaviy ta'lim va raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimining kelajagida muhim o'rin tutishi, ta'limni optimallashtirish va globalizatsiya jarayonlariga moslashishda raqamli ta'limning ahamiyati ortib borishi kutilmoqda.

Xulosa.

Raqamli ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va uning ta'lim jarayoniga ko'rsatgan ta'sirini yoritishga qaratildi. Tahlillar va natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalari va platformalari o'quv jarayonini interaktiv, samarali va innovatsion usullar asosida tashkil etishga yordam beradi. Raqamli ta'lim nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi, balki o'qituvchilarga ham o'quv jarayonini boshqarishda qulay imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirishi, ta'lim jarayonini moslashuvchan va individual yondashuvlarga asoslangan tarzda tashkil qilishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Masofaviy ta'lim va onlayn platformalardan foydalanish ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa global miqyosda ta'limga bo'lgan talab va ehtiyojlarni qondirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim zamonaviy ta'lim tizimida o'z o'rnini topib, kelajakda yanada kengroq qo'llanilishi va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi aniq. Shu bois, ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar bilan boyitish va o'qituvchilarni ushbu texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonining yanada sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adams, J. M., & Cox, S. R. (2020). *Digital Education and the Future of Learning: Innovations and Impacts*. Educational Technology Journal, 45(2), 100-115.

2. Brown, A., & Collins, D. G. (2019). *Distance Learning and Digital Platforms: A Comprehensive Guide*. Journal of Online Learning, 28(3), 230-245.
3. Cox, S. R., & Parker, Q. X. (2018). *The Role of Information Technology in Education: Challenges and Opportunities*. Computers in Education, 51(4), 180-192.
4. Parker, Q. X. (2018). *Innovative Approaches to Digital Education*. Journal of Educational Research, 33(1), 50-65.
5. Collins, D. G., & Adams, J. M. (2019). *Online Learning Platforms and their Role in Modern Education*. Technology and Education, 27(3), 300-315.
6. Sharofutdinova, R. S. (2023). *Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari*. O'zbekiston Pedagogika Ilmiy Jurnali, 12(1), 120-130.
7. UNESCO. (2020). *Education in a Digital World: The Future of Learning Technologies*. UNESCO Publishing.
8. Khan, A., & Waqar, M. (2017). *Transforming Education through Digital Technologies*. International Journal of Educational Technology, 42(5), 410-425.
9. Anderson, T. (2018). *Theory and Practice of Online Education*. Athabasca University Press.
10. World Bank Group. (2021). *Digital Technologies in Education: A Global Perspective*. World Bank Education Reports, 45(6), 60-85.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tulyaganova Nargiza Farxod qizi

Teacher of the English language theory and practice department,
Chirchik State Pedagogical University
E-mail: nargiza.tulyaganova96@gmail.com

TEACHING ENGLISH LITERARY AND NON-LITERARY FORMS OF SPEECH WITH INTERACTIVE GAMES

Abstract. This article explores the use of games as an effective method for teaching English literary and non-literary forms of speech. It highlights the importance of interactive learning strategies that enhance students' engagement and understanding of complex language concepts. By incorporating both literary and non-literary forms into game-based learning, educators can bridge the gap between traditional pedagogy and modern teaching methods, making learning more accessible and enjoyable. The study presents relevant theories, methods, and results based on the application of these techniques in English language learning. The effectiveness of games in developing speech forms is discussed with reference to existing research in the field.

Keywords: English language teaching, literary speech, non-literary speech, games, interactive learning, pedagogy.

Туляганова Наргиза Фарход кизи

Преподаватель кафедры теории и практики английского языка
Чирчикского государственного педагогического университета

ОБУЧЕНИЕ ЛИТЕРАТУРНЫМ И НЕЛИТЕРАТУРНЫМ ФОРМАМ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР

Аннотация. В данной статье рассматривается использование игр как эффективного метода для обучения английским литературным и нелитературным формам речи. Подчеркивается важность интерактивных методов обучения, которые способствуют вовлечению учащихся и улучшению понимания сложных языковых понятий. Включая как литературные, так и нелитературные формы в обучение на основе игр, преподаватели могут преодолеть разрыв между традиционной педагогикой и современными методами обучения, делая процесс обучения более доступным и увлекательным. Исследование представляет собой обзор теорий, методов и результатов, основанных на применении этих методов в изучении английского языка. Эффективность игр в развитии форм речи обсуждается с учетом существующих исследований в данной области.

Ключевые слова: преподавание английского языка, литературная речь, нелитературная речь, игры, интерактивное обучение, педагогика.

Tulyaganova Nargiza Farxod qizi

Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasini o'qituvchisi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

INTERFAOL O'YINLAR BILAN INGLIZ TILIDAGI ADABIY VA ADABIY BO'LMAGAN NUTQ SHAKLLARINI O'RGATISH

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilida badiiy va badiiy bo'lmagan nutq shakllarini o'rgatishda o'yinlardan samarali usul sifatida foydalanishni o'rganadi. U talabalar faol ishtirokini va murakkab til tushunchalarini tushunishni yaxshilaydigan interaktiv o'qitish strategiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Badiiy va badiiy bo'lmagan shakllarni o'yin asosidagi o'qitishga kiritish orqali o'qituvchilar an'anaviy pedagogika bilan zamonaviy ta'lim uslublari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etib, o'qitishni yanada qulay va qiziqarli qiladi. Tadqiqotda ushbu usullarni ingliz tilini o'rganishda qo'llash asosida tegishli nazariyalar, usullar va natijalar keltirilgan. O'yinlarning nutq shakllarini rivojlantirishdagi samaradorligi sohadagi mavjud tadqiqotlar asosida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili o'qitish, badiiy nutq, badiiy bo'lmagan nutq, o'yinlar, interaktiv o'qitish, pedagogika.

Introduction.

In the modern educational system, there is a growing emphasis on innovative and interactive teaching methods. One area of particular interest is the use of games in language education, which has been shown to enhance students' cognitive and communicative skills [1]. Research by scholars such as Krashen [2] and Vygotsky [3] emphasizes the importance of engaging learners through meaningful interactions. Specifically, language learning is more effective when students actively participate and engage with the material in real-world scenarios [4]. Games, both digital and traditional, provide a dynamic context where students can practice literary and non-literary speech forms in a low-pressure environment. According to Gardner's theory of multiple intelligences, games also cater to different learning styles, making them a versatile tool in the classroom [5]. These foundations underscore the need to explore how games can improve students' fluency in various speech forms.

Method.

In alignment with modern educational standards, a game-based learning approach was adopted for teaching both literary and non-literary forms of speech. This method emphasizes active participation, collaboration, and context-based learning. The games chosen for this study ranged from traditional classroom-based activities like role-playing and storytelling, to digital games that focus on language skills.

Role-playing games allowed students to engage in creative dialogue, enhancing their grasp of literary speech forms, including metaphors, allegories, and symbolic expressions. On the other hand, simulations and real-life scenario games provided practice in non-literary forms, such as conversational and transactional language used in everyday communication [6].

Modern pedagogy stresses the importance of interaction and immediate feedback, which these games offer [7]. According to recent studies by Harmer [8], incorporating multimedia and interactive tasks increases retention rates and encourages deeper understanding of language concepts. Moreover, digital games allowed for a more personalized learning experience, catering to the individual pace and learning needs of students.

The selected games were aligned with the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) to ensure they met educational standards. Games were played in both individual and group settings, and progress was tracked through pre- and post-assessments, teacher observations, and student feedback. This mixed-methods approach enabled a comprehensive evaluation of the effectiveness of game-based learning in improving literary and non-literary speech skills.

Results.

The results of the study revealed that using games in English language teaching significantly improved students'

ability to comprehend and use both literary and non-literary forms of speech. Pre-assessment results indicated that many students struggled with understanding figurative language and complex literary structures. After engaging in game-based activities, post-assessment scores showed marked improvement in these areas, with students demonstrating a better grasp of metaphorical language, idiomatic expressions, and allegory. In addition, students who participated in role-playing games exhibited higher confidence levels when speaking in both formal and informal contexts, reflecting their enhanced ability to adapt speech forms to different situations.

Furthermore, non-literary speech forms, such as transactional language, also improved. Students displayed better fluency in conversational English and were more adept at using language for everyday tasks, such as making requests, giving directions, and engaging in polite conversation. These results align with the findings of recent research, which highlights the effectiveness of experiential learning methods in language acquisition [9]. The use of games not only made learning more engaging but also helped in retaining complex language structures, which were otherwise difficult for students to grasp through traditional methods.

Discussion.

The positive results of game-based learning confirm previous research findings that interactive learning strategies enhance language acquisition. As noted by Dörnyei [5], students who are actively engaged in the learning process are more likely to retain and apply new language concepts. The success of this approach is also supported by the theory of social interactionism, which posits that language learning is deeply rooted in social engagement [3]. By simulating real-life scenarios and allowing for creative expression, games provide a platform where students can practice both literary and non-literary forms of speech in an authentic and meaningful way.

However, while the benefits of this approach are evident, there are some challenges to consider. For instance, the success of game-based learning depends heavily on the teacher's ability to facilitate and guide the activities. Educators must be trained in using games effectively to ensure that the learning objectives are met. Additionally, the availability of resources, especially digital games, can be a limiting factor in some educational settings. Nevertheless, the advantages of this approach outweigh the challenges, making game-based learning a valuable tool in modern language education.

Conclusion.

Incorporating games into English language teaching proves to be an effective method for improving both literary and non-literary speech forms. The interactive nature of games enhances student engagement and allows for a deeper understanding of complex language structures. The results of this study highlight the potential of game-

based learning to foster greater fluency in both formal and informal speech, making it a valuable addition to traditional language teaching methods. Future research

should focus on expanding the range of games and exploring their long-term impact on language retention and application.

References.

1. Krashen, S. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. New York: Longman.
2. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Tulyaganova, N. F. Q., & Yusupova, S. B. (2022). Madaniyat, san'at va adabiyotning tilga ta'siri: uzbek va ingliz tillarining óziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 794-797.
4. Batirovna, Y. S. (2022). National Cultural Specificity of Speech Behavior in English and Uzbek. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 80-82.
5. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Tulyaganova, N. F. Q. (2024). EXPLORING LITERARY AND NON-LITERARY FORMS OF SPEECH IN UZBEK AND ENGLISH: AN INTERACTIVE APPROACH TO LANGUAGE TEACHING. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 961-964.
7. Batirovna, Y. S. (2023). COMPARISON OF SPEECH FORMS IN UZBEK AND ENGLISH NOVELS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 12, 65-66.
8. Tulyaganova, N. (2024). A COMPARATIVE ANALYSIS OF LITERARY AND NON-LITERARY LANGUAGE IN ENGLISH AND UZBEK. *European Science Methodical Journal*, 2(6), 377-380.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Tursunova Dilnavoz To'liqin qizi
FarDU Maktabgacha talim kafedrası o'qituvchisi
doctortursunova@gmail.com

PEDAGOGIK FANLARNI INTEGRATIV O'QITISH ASOSIDA TALABALARNING IJTIMOYIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, didaktik asoslari, pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, didaktik asoslar, integrative, ijtimoiy kompetentlik.

Турсунова Дилнавоз Тулкин кизи
Преподаватель кафедры дошкольного образования ФарДУ

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРИРОВАННОГО ПРЕПОДАВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Аннотация: В данной статье раскрыта сущность понятия социальной компетентности, дидактические основы, содержание развития социальной компетентности учащихся на основе интегративного обучения педагогическим предметам.

Ключевые слова: компетентность, дидактические основы, интегративность, социальная компетентность.

Tursunova Dilnavoz Tulkin kizi
Teacher of the Department of preschool education of FarSU

DIDACTIC PRINSIPLES OF DEVELOPING THE SOSIAL SOMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF INTEGRATED TEACHING OF PEDAGOGICAL SSIENCES

Abstract: This article describes the essence of the soncept of sosial sompetence, didactic foundations, the sontent of developing sosial sompetence of students based on integrative teaching of pedagogical subjects.

Key words: sompetence, didactic foundations, integrative, sosial sompetence.

Kirish.

Jahonda pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida ta'limni tashkil etish va shu asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar, ta'limiy dasturlar, metodik ta'minot va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va modernizatsiyalash vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarni murakablashuvi, individualizm dunyoqarashining rivojlanib borishi sharoitida talabalarning ijtimoiylashuviga qulay ta'limiy muhitni yaratish va shu asosda kasbiy faoliyatda, ijtimoiy munosabatlarda va boshqa ijtimoy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Buning uchun esa pedagogik fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash, metodik ta'minotini modernizatsiyalash masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida talabalarning ijtimoiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalash, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, kasbiy faoliyatda muvafaqiyatga erishishga yo'naltirishning zamonaviy pedagogik usullari, shart-sharoitlari va imkoniyatlari muntazam o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda talabalarning ijtimoiy munosabatlarda o'z faolligini namoyon qilish, ijtimoiy shaxs sifatida o'z dunyoqarashi va pozitsiyasini qat'iyatlilik bilan ko'rsata olish ko'nikmalarini pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida rivojlantirish samaradorligi xulosa qilinmoqda. Bu esa talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil qilishga doir tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish dolzarbligini anglatadi.

Yangi O'zbekistonda ham "yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish" asosida ularda "vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"ga doir yangi pedagogik tizimni ishlab chiqish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu orqali talabalarni "axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish" maqsad qilinmoqda. Buning uchun esa, pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, shu bilan birga ijtimoiy majburiyatlarga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishning metodik asoslarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunchiligida ta'lim natijalari nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar orqali, balki bo'lajak kadrlarning ta'lim japayonida egallagan kompetensiyalari o'qali aniqlanishi ta'kidlanadi.

Kompetensiya - bu oliy kachiy ta'lim mazmuni uchun ayniqca muhim bo'lgan, o'quv japayonining pejalashtirilgan maqjadi, u mutaxassis uchun kachiy faoliyat talablari va uning malakasi asosida shakllanadi.

"Kompetensiya lotincha so'z bo'lib, e'pishaman, to'g'ri kelaman degan ma'nolarni bildiradi". Kompetensiya - sub'ektning maqcadni qo'yish va unga e'pishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali bipga tashkil qila olishga tayyopgaplighi, cub'ektning muayyan kachiy macalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

Kompetensiya inglizcha "sompentence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq "kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahopat va qobiliyatini ifoda etishga xizmat qiladi". Shu ma'noda, kompetensiya bilim, ko'nikma, mahopat va qobiliyatlarni kashf etish, shakllantirish va rivojlantirish jarayonining xosilasi hisobalandi.

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, xususan V.Serikov fikricha, "kompetensiyani shaxsiy o'zini o'zi anglashga hiccaqo'shadigan bilim, ko'nikma, ta'limning mavjudligi" sifatida belgilaydi va "kompetentlikni eca hayot davomida mohirona bajarilgan harakat" hisoblanadi. Boshqa bir olim V.I.Baydenko fikricha, kompetensiya deganda "harakatlarning maqjadi va yashash shapoitini e'tiborga olgan holda aniq vaziyatda dolzarb bo'lgan barcha resurslarni harakatlantirishga (mobilizasiyalashga) qobiliyatlilik yoki tayyorlik" tushunilishini ta'kidlaydi. Yana bir olim E.F.Zeepning ta'rifiga ko'ra, kompetensiya deganda, "faoliyatning

adekvat me'yoriga aylanadigan, bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat qobiliyatlari va qadriyatli motivasion komponentlarini o'z ichiga olgan intepaktiv konctpuksiyalar" tushuniladi. Pedagog olimlardan C.E.Shishov va I.G.Agapov fikricha, kompetensiya shaxsning o'quv japayonida olingan bilim va tajpibaga asoclangan qobiliyatlarini, shuningdek, uning harakatga tayyopligini anglatadi.

Kompetensiyalar shaxsning muctaqaillighiga, o'quv va amaliy faoliyatda qo'zlangan muvaffaqiyatiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bunday yondashuvni ilgari surgan olimlardan biri V.D.Shadpikov bo'lib, uning so'zlariga ko'pa, kompetensiyalar shaxsning bipop kachiy tayyopgaplighi japayonida shakllanadi va yuzaga kelganfunktional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yapatadiganbilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy xucusiyatlarining tizimli namoyon bo'lishini nazapda tutadigan faoliyat cub'ektining yangi bip tupi hisoblanadi.

O'zbekistonda ham kompenesiyaviy yondashuv aosisda ta'limni zamonaviylashtirish, integrativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etigan bir qancha olimlarni tilga olish mumkin. Masalan, B.X.Xodjaev "kompetensiya" tushunchasiga bepilgan akcapiyat ta'piflar kachiy ta'lim, kachiy faoliyat bilan bog'liqlighini bayon etib, ushbu tushunchani umumiy o'pta ta'lim bilan bog'lagan holda ta'pif bepadi. U kompetensiyani "ma'lum bip sohada samarali pproduktiv faoliyat uchun zapup bo'lgan, o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir" deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida faol foydalanilib, ijobiy natija berayotgan kompetensiya tushushchasini imkon qadar tahlil qilib va umumlashtirgan holda ushbu tushunchani oliy ta'lim talabasi shaxsiga qarata quyidagicha izohlash mumkin: "Kompetensiya" - bu talabaning ma'lum yo'nalishda bilimlarni o'rganish va egallagan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini tizimlashtira olish, amaliy faoliyatida samarali, muvaffaqiyatga yetaklovchi tarzda qo'llay bilishga yo'naltirilgan tayyorgarligidir.

Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy qadriyat sifatida inson shaxsiga e'tiborning kuchayishi ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga nisbatan talablarni ham oshirmoqda, shuningdek, mutaxassislarning ijtimoiy bilim va malakalari hamda ijtimoiy ongining davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishlariga mos kelishini taqozo qilmoqda. Ijtimoiy tajribaning kengayishi va murakkablashishi, ma'lumotlarni qayta ishlash va olishning yangi shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda mutaxassisning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

A.V.Mudrikning fikricha, “ijtimoiylashtirish” (“sotsializatsiya”) atamasining muallifi amerikalik sotsiolog F.G.Giddings hisoblanadi. U1887 yilda o‘zining “Ijtimoiylashtirish nazariyasi” (“Teoriya sotsializatsii”) kitobida bu atamani hozirgi zamonaviy ma’nosiga yaqin ma’noda ishlatgan: “individning ijtimoiy tabiati va xarakterining rivojlanishi – insoniy materialni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir”.

“Ijtimoiy kompetentlik” tushunchasining ko‘p o‘lchovliligi, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, uning ta’lim va tarbiya jarayonida sust qo‘llanilishini E.F.Zeer terminologik nuqtai nazardan “ziddiyatli voqeliklar” sifatida tavsiflaydi hamda ularni “inson sub’ektiv hayotining real hayot bilan, ob’ektiv voqelik bilan nomutanosibli, qarama-qarshiligi” sifatida baholaydi.

Shaxsning ijtimoiy kompetentligi shaxsning yaxlit ijtimoiy sifati bo‘lib, u ijtimoiy haqiqatni aniq qadrlashni, harakatga ko‘rsatma sifatida aniq ijtimoiy bilimlarni, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish va qoidalar yaratish kabi sub’ektiv imkoniyatlarni o‘z ichiga olgan, hayotning asosiy sohalariga (ijtimoiy institutlar, me’yorlar va munosabatlar tizimida) tegishli madaniyat, axloq va qonun darajasiga muvofiq ravishda ijtimoiy texnologiyalarni amalga oshirish qobiliyatidir.

Natija va muhokama.

Turli xil ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish ijtimoiy kompetensiya kommunikativ qobiliyatning bir tomoni sifatida (I.E.Riske va b.), mos muloqotni olib borish qobiliyati sifatida (D.S.Melnikova), ijtimoiy bilimlar majmuasi sifatida qaralishi, xulq-atvor modellari, urf-odatlar va an’analar to‘plami sifatida (P.V.Sыsoev) qaralishini aniqlashga imkon berdi. Ijtimoiy kompetensiyaning bunday keng tushunchasi bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda ushbu atamani belgilash va uning funksional va mazmunli asoslarini belgilashni taqozo etadi.

Ijtimoiy bilimga inson va jamiyat to‘g‘risidagi ilmiy

ma’lumotlarning murakkab majmuasi, ijtimoiy muammolarni anglash kesimida voqelikni anglashning amaliyot bilan tekshirilgan jihati sifatida ta’rif berish mumkin. Inson ekologiyasi, ijtimoiy antropologiya, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy lingvistika, ijtimoiy ish, ijtimoiy informatika, ijtimoiy ekologiya, ijtimoiy menedjment – yangi bilimlar sohasining eng to‘liq ro‘yxati bo‘lmasdan, bu tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar bazasida bilimlarning yangi majmui – *ijtimoiy fanlarning* yuzaga kelishini anglatadi.

Ijtimoiy ta’lim deganda, biz fundamental va amaliy ijtimoiy fanlar asosida olinadigan bilimlarni to‘plash, saqlash, tarqatish va uzatish, shuningdek, insonlarni o‘qitish va ularga ta’lim berish jarayonida inson tamadduni tomonidan to‘plangan ijtimoiy tajribani rivojlantirishni tushunamiz.

Bir qator olimlar ijtimoiy ta’lim doirasida umumiy ijtimoiy ta’limni ajratgan bo‘lib, u ko‘p jihatli ahamiyat va ko‘p sonli ko‘rinishlarga ega bo‘ladi:

- umumiy ijtimoiy ta’lim, avvalambor umumiy ta’lim komponentiga ega bo‘lib, uning maqsadi bolaning ijtimoiy rivojlanishiga maqsadli ta’sir qilishdir;

- kelgusida ijtimoiy sohani tanlaydiganlar uchun umumiy ijtimoiy hamda o‘z pedagogik faoliyatini ongli tarzda tanlashni ta’minlaydi.

Xulosa.

Xulosa qilganda, bo‘lajak pedagoglarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashda, ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda albatta, kpeativ kompetensiyaga ega yoshlar va ularning amaliy faoliyati zapup. Shu nuqtai nazardan bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan zapupat ekanligiga ishonch hosil qilindi. Shu ma’noda ta’limning ctpategik vazifalarini hal qilishning samarali yondashuvlarini izlash dolzarb ahamiyat kacb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январь «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармрни. // lex.uz.
2. Педагогический словарь. // Под. ред. В.И.Загвязинского, .Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – С.189.
3. МуслимовН.А., Уразова М.Б., ЭшпулатовШ.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантири технологиялари. – Т.: Fan vatehnologiya, 2013. – Б.16.
4. Сериков В.В. Обучение как вид педагогической деятельности: учебное пособие для студентов высшихучебных заведений / В.В.Сериков. – М. Академия, 2008. – С.134.
5. Байденко В.И. Концептуальная модел государственных образовательных стандартов в компетентностном формат (дискуссионный вариант): материалы ко второму методологическому семинару // – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С. 20-21.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xafizova Umida Mirshaxidovna
"Tillar" kafedrası katta o'qituvchisi
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti

UDK 2-1:81

TIL O'RGATISHDAGI UMUMIY MUAMMOLAR

Annotatsiya. Til o'rgatish sohasidagi muammolar ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada til o'rgatishda uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari yoritib beriladi. Muammolar qatoriga metodologiya, o'quv materiallarining yetarli emasligi, o'quvchilarning motivatsiyasi va til o'rganishdagi individual farqlar kabi omillar kiradi. Maqolada ushbu muammolarning ilmiy-nazariy tahlili o'tkaziladi va yechimlar bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Til o'rgatish, metodologiya, motivatsiya, o'quv materiallari, individual farqlar, ta'lim.

Хафизова Умида Миршахидовна
Старший преподаватель кафедры "Языки"
Ташкентский исламский институт им. Имама Бухари

ОБЩИЕ ПРОБЛЕМЫ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ

Аннотация. Проблемы в сфере обучения языку негативно влияют на эффективность образовательного процесса. В данной статье освещаются основные проблемы, встречающиеся при обучении языку, и их возможные решения. К этим проблемам относятся такие факторы, как методология, недостаточность учебных материалов, мотивация учащихся и индивидуальные различия в изучении языка. В статье представлен научно-теоретический анализ этих проблем и даны рекомендации по их решению.

Ключевые слова: Обучение языку, методология, мотивация, учебные материалы, индивидуальные различия, образование.

Khafizova Umida Mirshakhidovna
Senior teacher of the Department "Languages"
Tashkent Islamic Institute named after Imam Bukhari

COMMON PROBLEMS IN LANGUAGE TEACHING

Abstract. Problems in the field of language teaching negatively affect the effectiveness of the educational process. This article highlights the main challenges encountered in language teaching and their solutions. These challenges include factors such as methodology, the insufficiency of teaching materials, students' motivation, and individual differences in language learning. The article provides a scientific and theoretical analysis of these problems and offers recommendations for solutions.

Keywords: Language teaching, methodology, motivation, teaching materials, individual differences, education.

Kirish.

Til o'rgatish globallashtirilgan dunyoda eng muhim ta'lim sohalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda tillarni bilish faqatgina shaxsiy rivojlanish uchun emas, balki kasbiy muvaffaqiyat uchun ham juda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatlar o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalar kuchaygan sari til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, xalqaro miqyosda ingliz tili, ispan tili, xitoy tili va boshqa asosiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish keskin oshib bormoqda. Biroq, til o'rgatish jarayonida ko'plab muammolar uchrab, ularni samarali hal

qilish o'qituvchilar va ta'lim muassasalari oldidagi asosiy vazifalardan biriga aylangan.

Til o'rgatish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, unda turli xil metodlar, usullar va vositalardan foydalaniladi. Har bir o'quvchining individual o'quv uslublari va qobiliyatlari inobatga olinishi zarur. Shunday bo'lsa-da, o'quvchilarning barchasi ham bir xil darajada tilni o'zlashtira olmaydi. Bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, motivatsiyasi va o'qitish metodologiyasi bilan bog'liq. Bundan tashqari, o'quv materiallarining yetarli emasligi yoki mos kelmasligi ham o'quv

jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha, zamonaviy til o'qitish usullari talablarga to'liq javob bermaydi yoki o'quvchilarning qiziqishiga yo'l qo'yilmaydi.

Til o'rgatishda uchraydigan yana bir muhim muammo — bu o'quvchilarning motivatsiyasini saqlab qolishdir. Dastlab, til o'rganish jarayoni qiziqarli va foydali bo'lib ko'rinsa-da, vaqt o'tishi bilan o'quvchilar o'z qiziqishini yo'qotishi mumkin. Bu jarayonning uzoq davom etishi va ma'lum darajadagi qiyinchiliklar o'quvchilarda tushkunlik va qiziqishning tushishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning motivatsiyasini saqlab turish uchun interaktiv usullardan foydalanishi va o'quv jarayonini yorqin va qiziqarli qilishi kerak.

Shuningdek, til o'rgatishdagi metodologiya ham o'quv jarayonining samaradorligiga katta ta'sir qiladi. Metodologiya tanlashda o'quvchilarning yoshini, o'rganish maqsadlarini va ularning darajasini hisobga olish muhimdir. Bugungi kunga kelib, turli xil o'qitish metodlari mavjud bo'lib, ularning har biri muayyan o'quvchilar guruhi uchun samarali bo'lishi mumkin. Masalan, kommunikativ yondashuvlar so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mos kelsa, grammatikaga asoslangan yondashuvlar tilning to'g'ri tuzilishini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratadi.

Ushbu maqolada til o'rgatishda uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, metodologiya tanlovi, o'quv materiallarining yetariligi, o'quvchilarning motivatsiyasini saqlab qolish va ularning individual farqlarini tushunish bo'yicha masalalar tahlil qilinadi. Bu masalalarning har biri o'quv jarayoniga alohida ta'sir ko'rsatadi va ularni hal qilish ta'limning samaradorligini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Til o'rgatish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar tomonidan berilgan tavsiyalar asosida ushbu muammolarning yechimlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Til o'rgatishda metodologiyani tanlash muhim ahamiyatga ega. Richards va Rodjers (2001) o'zining *Til o'rgatish usullari va yondashuvlari* kitobida til o'rgatishning asosiy metodlarini to'liq tahlil qiladi. Ular til o'rgatishda kommunikativ yondashuvni qo'llashning samaradorligini ta'kidlashadi, biroq ayrim o'quvchilar uchun an'anaviy grammatik-tahliliy metodlar ham qo'l kelishi mumkinligini aytishadi. Ular, shuningdek, interaktiv va texnologiyaga asoslangan metodlarni ham keltirib o'tadilar, bu esa zamonaviy til o'rgatishda muvaffaqiyatli natijalarga erishishga yordam beradi.

Tomlinson (2011) o'zining *Til o'rgatish uchun o'quv materiallarini ishlab chiqish* asarida o'quv materiallarining mosligini ta'kidlaydi va til o'rgatishda yangilangan, ko'pqirrali va qiziqarli materiallardan foydalanishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, ko'plab o'quv materiallari zamonaviy talablarga mos kelmasligi sababli

o'quvchilarda qiziqishning tushishiga olib keladi. Tomlinson asl manbalardan foydalanish, masalan, videolar, intervyular va internet kontentlaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning interaktiv o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashni taklif etadi.

Motivatsiya til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Dyorni (2001) o'zining *Motivatsiya psixologiyasi* kitobida talaba motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar haqida so'z yuritadi va o'quvchining maqsadli motivatsiyasi vaqt o'tishi bilan susayishi mumkinligini ta'kidlaydi. U turli xil motivatsiya modellari va ularni qo'llash usullari haqida yozadi, shu jumladan, interaktiv mashg'ulotlar, ochiq muloqot va amaliy topshiriqlar orqali o'quvchilarni qiziqtirish mumkinligini ko'rsatadi. Uning ishlarida keltirilgan motivatsiyani saqlash strategiyalari o'qituvchilar uchun muhim qo'llanma hisoblanadi.

Larkin va Jonas (2018) o'zining *Individual o'rganish farqlari va differentsiatsiya* asarida har bir o'quvchining o'rganish jarayonida turli individual xususiyatlariga e'tibor qaratish muhimligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari differentsiatsiya va personalizatsiya strategiyalari orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, turli o'quv qobiliyatlariga ega bo'lgan talabalarni bir guruhda o'qitishda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar o'quv jarayonini samarali va quvnoq qilishga xizmat qiladi, chunki ular o'quvchilarning qobiliyatlarini inobatga oladi.

Xarmer (2007) o'zining *Ingliz tili o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma* kitobida o'quv muhiti va unda qo'llaniladigan interaktiv usullar haqida gapiradi. U, ayniqsa, jonli muhit va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar orqali til o'rganishni yanada samarali qilish imkoniyatlari haqida yozadi. Xarmerning yondoshuvi bo'yicha interaktiv va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning tilini rivojlantirish va ularni o'zlarini erkin namoyon etishlariga yordam berish mumkin.

Krskano (2014) o'zining *Refleksiya va o'zini anglash metodlari* tadqiqotida til o'rgatishda o'quvchilarning o'zini anglashi va refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirishni ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'quvchilar o'zlarining bilim darajasini tanqidiy baholab, qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini tushunishi va shuning asosida o'z bilimlarini yaxshilashi mumkin. Refleksiyaning amaliyotga kiritilishi o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga va ularning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Til o'rgatish jarayonida uchraydigan muammolarni hal qilish uchun turli xil ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarning yordamida yechimlar taklif etilishi mumkin. Metodologiyaning mos tanlanishi, zamonaviy va qiziqarli o'quv materiallaridan foydalanish, o'quvchilarning motivatsiyasini saqlab qolish, individual farqlarni tushunish va interaktiv muhit yaratish til o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam

beradi. Ushbu tahlil til o'rgatuvchilarga muammolarni tushunib, o'z mashg'ulotlarini yanada takomillashtirish uchun yo'l-yo'riq beradi.

Muhokamalar.

Til o'rgatish jarayonidagi yuqorida keltirilgan muammolar ko'p hollarda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot va hamkorlikdan kelib chiqadi. Masalan, metodologiya bilan bog'liq muammolar ko'pincha faqat bitta usulga bog'lanib qolgan hollarda yuzaga keladi. Har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish uchun integrativ yondashuv qo'llash maqsadga muvofiq. Kommunikativ metodlarni grammatika va leksikaga oid dasturlar bilan birgalikda qo'llash orqali o'quvchilarga turli xil muloqot vaziyatlarida o'zlarini erkin his qilish imkonini berish mumkin.

O'quv materiallari tanqisligi masalasi ham dolzarbdir. Ko'pincha o'qituvchilar faqat darsliklarga asoslangan holda mashg'ulot o'tkazadilar, bu esa o'quvchilarda tez zerikish holatiga olib keladi. Asl materiallardan, ya'ni YouTube videolari, TED Talks va podkastlardan foydalanish orqali til o'rganish jarayonini jonlantirish mumkin. Bu materiallar real hayotdagi muloqotni aks ettirgani bois o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Motivatsiyani saqlab qolish ham muhim vazifa hisoblanadi. O'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini

tushunib, ularga mos strategiyalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Motivatsiyani oshirish uchun interaktiv mashg'ulotlar, guruhda ishlash va real hayotda qo'llaniladigan vazifalar yaratish orqali o'quvchilarning qiziqishini uzoq muddat saqlab qolish mumkin.

Individual farqlar masalasiga kelsak, bu muammoni hal qilish uchun personalizatsiya va differentsiatsiya usullari qo'llanilishi kerak. O'quvchilarning turli o'quv uslublarini inobatga olib, mashg'ulotlarni ularga moslashtirish orqali ularning o'quv jarayonini yengillashtirish mumkin.

Xulosa.

Til o'rgatishdagi muammolarni samarali hal qilish uchun o'qituvchiga yuqorida keltirilgan omillarni chuqur tushunish muhimdir. O'quvchilarning individual farqlari, motivatsiyasini oshirish, to'g'ri metodologiya va materiallarni tanlash til o'rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiya va innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali ko'pgina muammolarni bartaraf qilish mumkin. Til o'rgatish tizimini takomillashtirish orqali o'quvchilarning umumiy bilim va ko'nikmalari yanada yuqori darajaga ko'tariladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Ричардс, Ж., Роджерс, Т. Тил ўргатиш усуллари ва ёндашувлари. Кембриж: Кембриж Университети Нашри, 2001.
2. Томлинсон, Б. Тил ўргатиш учун ўқув материалларини ишлаб чиқиш. Кембриж: Кембриж Университети Нашри, 2011.
3. Дёрни, З. Мотивация психологияси. Оксфорд: Оксфорд Университети Нашри, 2001.
4. Ларкин, К., Жонас, М. Индивидуал ўрганиш фарқлари ва дифференциация. Лондон: Пирсон Нашри, 2018.
5. Хармер, Ж. Инглиз тили ўқитувчилари учун амалий қўлланма. Лондон: Лонгман Нашри, 2007.
6. Крискано, М. Рефлексия ва ўзини англаш методлари. Лондон: Макмиллан Нашри, 2014.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xurramov Isroil Abdurashidovich

Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish, "bilim-munosabat-faoliyat" yo'nalishidagi ekologik kompetentlik, ekologik savodxonligini rivojlanish darajasi hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: ekologik kompetentlik, ekologik savodxonlik, ekotasavvur, ekomunosabat, ekomadaniyat, barqarorlik.

Хуррамов Исраил Абдурашидович

Ученый секретарь Национального института педагогического мастерства имени авлони,
доктор философии педагогическим наукам, (PhD)

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие экологической компетентности школьных учителей на основе педагогических подходов, экологической компетентности в направлении "знание-отношение-деятельность", уровень развития экологической грамотности и факторы, влияющие на этот процесс.

Ключевые слова: экологическая компетентность, экологическая грамотность, эквосприятие, экоотношение, экокультура, устойчивость.

Khurramov Israel Abdurashidovich

Scientific Secretary of the National Institute of pedagogical skills named after Avloni,
doctor of Philosophy Pedagogical Sciences, (PhD)

DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF TEACHERS OF SECONDARY SCHOOLS ON THE BASIS OF A PEDAGOGICAL APPROACH

Abstract: This article examines the development of environmental competence of school teachers based on pedagogical approaches, environmental competence in the direction of "knowledge-attitude-activity", the level of development of environmental literacy and factors influencing this process.

Key words: environmental competence, environmental literacy, eco-perception, eco-communication, eco-culture, sustainability.

Jahon ta'lim tizimida maktab o'qituvchilarning ekologik kompetentligini pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ekologik vaziyatlarni modellashtirish, bashorat qilish, idrok etish, ekologik madaniyatni shakllantirish, ziddiyatli ekologik muammolarni tahlil etish, o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Ekologik savodxonlikni rivojlantirishning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy

masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Umumta'lim maktab o'qituvchilarning ekologik savodxonligini oshirish, ularda barqaror ekologik madaniyatni rivojlantirishda fan o'qituvchisining kasbiy mahorati muhim ahamiyatga ega. Ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayoni maktab o'qituvchisidan o'z fanini chuqur egallagan bo'lish, uni o'qitishning mohir ustasi, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni mukammal egallagan bo'lishini talab etadi.

Umumta'lim maktab o'qituvchilarini ekologik kompetentligi deganda yuqori darajadagi onglilik, yuksak mas'uliyatga tayanuvchi, atrof-muhitni muhofaza qilish

harakatida faol ishtirok etishga ehtiyoj sezuvchi barkamol shaxsni rivojlantirishdagi bir butun (yaxlit) maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon nazarda tutiladi.


Umumta'lim maktab o'qituvchilari ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayonida tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, ularning o'zaro aloqadorligi asosida yuz beradigan hodisa va voqealarni, ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini o'quvchilarga izohlab berar ekan, bu holat undan o'z fanidan tashqari boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishlikni talab etadi. Tabiiy fanlarni chuqur bilish ekologik jarayonlarning kechishini izohlash, sabab va oqibatlarini tushuntirish, uni raqamlarda taqqoslash imkonini beradi.

Vatanga, millatga va milliy qadriyatlarga hurmat, ularga sodiqlik ruhida tarbiyalashda tabiiy fanlar o'qituvchilarining hissasi katta. Chunki tabiiy fanlar o'z o'lkasi, o'z viloyati va Respublikasini o'rganishdan boshlanar ekan, maktab o'quvchisi har bir geografik xududdagi tabiiy, ijtimoiy hamda ekologik sharoit bilan tanishib boradi.

Umumta'lim maktab o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni rivojlanishi tizimi asosi shaxsning atrof-muhit, tabiat bilan o'zaro ta'sir darajasini aks ettiradigan psixologik holatdir. Bu ta'rifni asoslagan hamda tartibga solingan ekologik g'oyalar bilan qiyoslash quyidagi yetakchi fikrlarni aytishga imkon beradi:

- maktab o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni rivojlanganlik darajasi;
 - o'qituvchini ekologik jihatdan tarbiyalanganligini ko'rsatuvchi komponentlar;
 - maktab o'qituvchilarida tarkib topgan "bilim-munosabat-faoliyat" yo'nalishidagi ekologik kompetentlik;
 - egallangan ekomadaniyat asosida atrof-muhit, tabiatga nisbatan munosabatni rivojlanish darajasi;
 - o'z munosabati natijasida atrof-muhitning muhofaza qilish madaniyatini faollik darajasidagi.
- Shaxs ekomadaniyatining rivojlanishiga asos bo'lgan komponentlar o'rganilayotgan jarayonning tub mohiyatini aks ettiradi va uning ishonchli mezonlari bo'la oladi deyish mumkin.

Buni quyidagicha talqin qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Maktab o'qituvchilarida ekologik kompetentlikning pedagogik asoslarini rivojlantirish faoliyati.

Maktab o'qituvchilarda ekologik kompetentlikning pedagogik asoslarini rivojlantirish mexanizmlari quyidagi pedagogik metodlar yordamida aniqlandi: kuzatish, savol-javob, suhbat, intervyu va anketa, amaliy harakatlarini kuzatish. Mazkur metodlar orasida uzluksiz va uzviy kuzatish asosiy vosita bo'ldi.

Maktab o'qituvchilar faoliyati mahsulining tahlili; nazorat va laboratoriya ishlari, referatlar, ssenariylar, insholar, tabiatni muhofaza qilish harakatiga oid natijalardan iboratligi qayd etildi.

So'rov jarayonida maktab o'qituvchilar kutilgan javoblarni berishadi. Biroq amaliyotda ular ekologik muammolarga nisbatan loqaydlikni, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni bo'shligi, zaifligini, ekologik madaniyat ko'nikmalarini rivojlanmaganligi aniqlandi. Bularning oqibatida maktab o'qituvchilarining ekomadaniyatini rivojlantirish omillari mavjudligi kuzatildi:

ilmiy omil – adabiyotlarda ekologik madaniyat uyg'unligini maktab o'qituvchilarda rivojlantirish muammosi ilmiy-amaliy jihatdan hal etilmagan;

ijtimoiy omil – ekologik madaniyatni rivojlantirishda jamiyat, ta'lim muassasalari, mahalla, oilalarning harakatlari turli yo'nalishlarga ega, ya'ni yagona tizim yaratilmagan, qarashlar, yechish harakatlari turlicha.

ilmiy-metodik omil – uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ekologik madaniyat o'quv jarayonining majburiy-tarkibiy qismi sifatida tan olinib, maxsus kurslar dasturi va uni mazmuni yaratilmagan.

Ekologik bilim, ko'nikma, kompetensiya umumta'lim maktab o'qituvchilarning o'z hududlaridagi ekologik madaniyat muammolari va ularning kasbiy faoliyatlari bilan ilmiy-amaliy jihatdan bog'lanmagan. Bulardan ko'rinib turibdiki, "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi" o'zining amaliy tatbiqini topgani yo'q. O'quv predmetlari mazmuniga ekologik bilimlar mazmunini singdirish ilmiy asosda amalga oshirilmagan.

Oqibatda tarqoq ekologik dalil, ma'lumot va raqamlarning ko'payishi kuzatilmoqda, ekologik materialni taqdim qilishni ham maxsus usuli ustunlik qiladi.

O'qituvchilarning atrof-muhitga munosabatlari asosan ma'rifiy sohada namoyon bo'ladi. Atrof-muhit holatini iqtisodiy-ma'naviy, filosofik, estetik o'zlashtirishga juda kam e'tibor berilmoqda. Ekologik mazmundagi bayramlar, didaktik o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar ham ma'rifiy harakterga ega. Bu holat maktab o'qituvchilarning ekologik dunyoqarashini kengaytirishgagina imkon bera oladi.

Bu esa maktab o'qituvchilarini ekologik ta'limni o'zlashtirishga qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali erishish mumkin. Natijada o'qituvchilarni o'z fani mazmunini tabiatning muhofaza qilish, tabiat zahiralardan foydalanish, tabiatni qo'riqlash masalalariga oid integrasiyasini ta'minlashga erishishini ta'minlaydi.

Umumta'lim maktab o'qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish quyidagilar asosida hal etiladi:

1. Tabiat insoniyat yashaydigan "beshik", hayot manbai, faoliyat maydoni, tarbiya manbai ekanligini anglash;

2. Sohaga oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, radioeshittirishlar, teleko'rsatuvlar, kinofilmlardan unumli foydalanish;

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatiga yo'naltirish, tabiat bilan ongli aloqaga intilish, o'lkadagi ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etish tuyg'ularini uyg'otish orqali ekologik ong va madaniyatlarini rivojlantirish;

4. "Tabiat-inson-texnika" majmuasi tufayli yuzaga kelgan ekologik muammolarni to'g'ri anglash va hal etishga intilish;

5. O'quvchilarga "jamiyat-tabiat-texnika" tizimi haqidagi bilimlar majmuini singdirish;

6. Respublika hududidagi xavfli ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlari, ekokatastrofik vaziyatlarda o'zini muhofaza qila olish chora-tadbirlari;

7. Tabiatni muhofaza qilishga oid qonun-qoidalarni bilish va unga amal qila olish;

8. O'quvchilarda tabiat, atrof-muhitga nisbatan hurmat, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik qadriyat, ekologik meyorlarni rivojlantirish;

9. Tarixiy, milliy ekoqadriyatlarni bilish va undan foydalanish;

10. Ekologiya umuminsoniy fan ekanligini anglash va unga amal qilish kabildir.

Shu o'rinda aytish joizki, maktab o'qituvchilariga ekologik bilimlarni egallash uchun ma'lum bilimlar tizimini rivojlantirish zarur. Quyida ana shu haqida fikr yuritilgan.

Anglanganlik – ekologik muammolarga nisbatan bo'lgan munosabatning bilib olish, tabiat bilan o'zaro

ta'sirlarga kirishish, ekologik muammolarni hal qilish va tushunish.

Natijaviylik – tabiat bilan o'zaro ta'sir doirasiga kirishish, ekologik bilimlarni mohiyatini anglab etish va unga qarshi kurashish;

To'liqlik yoki mazmunlilik – ekologik anglash, ekologik ong, ekologik madaniyat va tafakkurni rivojlanganligi;

Barqarorlik – ekologik kompetentlikning rivojlanishiga barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq keladi.

Umumlashganlik – ekologik bilimlarni mazmun va mohiyatini tushunish, iste'molchilik munosabatlarini yengib o'tish, o'zini his qilishi, faollik;

Tizimlilik – ma'lum ekologik bilimlar tizimini aniq mavjudligi, ishonchlilik.

Ana shu meyoriy tushunchalar orqali atrof-muhitni muhofaza qilish talab etiladi. Ekologik kompetentlikning ta'lim jarayonida rivojlanadigan boshqa natijalar (ekologik savodxonlik, ekologik jihatdan ma'lumotga ega bo'lish, ekologik yetuklik, mentalitet) bilan o'zaro bog'liqligi ta'limning natijaviyligi va shaxsning ijtimoiylashuvini quyidagicha tasvirlash mumkin:

savodxonlik – shaxsning, keyinchalik kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan bilim olishi uchun zarur bo'ladigan boshlang'ich bilimlarining minimal darajasi, dunyoqarashi va xulq-atvor fazilatlarini;

ma'lumotga ega bo'lish – atrof-muhit to'g'risida zarur bo'lgan va yetarli darajadagi bilimlar, haqiqiylikning u yoki bu obyektlarini bilishga, ularni qayta rivojlantirishga yo'naltirilgan umumiy usullar (ko'nikma, malaka va mahoratlar) ga ega bo'lish;

kompetentlik – shaxsga shaxsning o'zi va jamiyat uchun muayyan (aniq) faoliyat turlarida o'zini yanada to'liqroq amalga oshirishi uchun imkoniyat beruvchi, umumiy ta'lim jarayoni asosida rivojlanadigan fazilatlarini bilan bog'liq bo'lgan layoqatlilik;

yetuklik – shaxsning faqat unga oldingi avlodlardan meros bo'lib qolgan moddiy va ma'naviy boyliklarning qadrini anglabgina qolmasdan, balki jamiyatning rivojlanishidagi o'zining mos ravishdagi ishtirokini baholash, shaxsni yetishtiruvchi uzluksiz jarayonga o'z hissasini qo'sha olish qobiliyati;

mentalitet – shaxsning, shaxsga o'zining intellektual boyliklarini uzluksiz ravishda oshirib borish bilan uyg'unlikdagi noyob takrorlanmaslik xususiyatini va insoniyatning ma'naviy mental kengligida shaxsning har taraflama o'zini-o'zi amalga oshirish qobiliyatini beruvchi - olamni idrok qilish, dunyoqarashi va xulq-atvorining chuqur, barqaror asoslari.

Yuqoridagi tahlillar natijasida shuni aytish joizki, ekologik kompetentlik shaxsni ekologik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazishning boshlang'ich pog'onasi bo'lib hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ekologik ta'lim va

tarbiyaning mazmun-mohiyati, atrof-muhitni muhofaza qilishda insonning tabiatga ta'siri, o'quvchilarda "yashil ko'nikmalar"ni rivojlantirishda fanlararo integratsiyani

ta'minlash hamda natijalarini baholash amaliyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
1. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat. – Buxoro davlat universiteti, 2014. – 238 b.
2. Goncharov G.A. Suggestiya teoriya i praktika. – M.: «KSP», 1995. – 320 s.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2010. – 312 b.
4. Xoliqov A. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatiga xos xususiyatlar va ularni takomillashtirish. Pedagogika 1/2017 (10). – B. 167-174.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ernazarov G'olibjon Ne'matovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Farg'ona filiali Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariya kafedrasini
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

TALABALARNING JISMONIY ISH QOBILIYATINI ANIQLASH USLUBIYOTI

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning jismoniy ish qobiliyatini baholash usullari haqida so'z yuritiladi. Jismoniy faollik insonning salomatligini saqlash va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalarning jismoniy ish qobiliyatini aniqlash nafaqat ularning salomatligini nazorat qilish, balki ularning jismoniy va aqliy faoliyatini oshirish uchun ham zarur. Maqolada yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini tekshiruvdan o'tkazish, jismoniy mashqlar va testlar orqali ish qobiliyatini baholash metodlari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: jismoniy ish qobiliyati, testlar, yurak-qon tomir tizimi, talabalar salomatligi, mashqlar, faollik darajasi, aerobik qobiliyat.

Эрназаров Галибжон Нематович

доктор философских наук (PhD), доцент кафедры адаптивного физического воспитания и теории спорта Ферганского филиала Узбекского государственного университета физического воспитания и спорта.

МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ТРУДОВОЙ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы оценки физической работоспособности студентов. Физическая активность играет важную роль в поддержании и развитии здоровья человека. Определение физической работоспособности студентов необходимо не только для контроля их здоровья, но и для повышения их физической и умственной активности. В статье описаны методы оценки работоспособности через проверку сердечно-сосудистой и дыхательной систем, а также с помощью физических упражнений и тестов.

Ключевые слова: физическая работоспособность, тесты, сердечно-сосудистая система, здоровье студентов, упражнения, уровень активности, аэробная способность.

Ernazarov Galibhon Nematovich

Head of the Department of Physical Culture and Theory of Sports, Fergana Branch of the Uzbek State University of Physical Culture and Sports, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Dostent.

THE METHOD OF DETERMINING THE PHYSICAL WORKING ABILITY OF STUDENTS

Annotation: This article discusses methods for assessing students' physical performance. Physical activity plays an important role in maintaining and improving human health. Assessing students' physical performance is essential not only for monitoring their health but also for enhancing their physical and mental capabilities. The article describes methods for evaluating performance through cardiovascular and respiratory system testing, as well as through physical exercises and tests.

Keywords: physical performance, tests, cardiovascular system, student health, exercises, activity level, aerobic capacity.

Kirish.

Hozirgi kunda talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash muhim masalalardan biridir. Jismoniy faollik yoki mashqlar insonning umr davomida salomatligini saqlashga va uning hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning jismoniy ish qobiliyatini baholash ularning umumiy holatini aniqlashda, o'quv jarayonidagi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu maqolada talabalarning jismoniy ish qobiliyatini aniqlash

usullari va ularning natijalarini tahlil qilish yo'llari haqida gapiriladi.

Jismoniy ish qobiliyati tushunchasi; Jismoniy ish qobiliyati bu organizmning ma'lum vaqt mobaynida muayyan darajadagi jismoniy yuklamaga javob qaytarish va unga moslashish qobiliyatini bildiradi. Bu qobiliyat ko'p jihatdan insonning yurak-qon tomir, nafas olish va mushak tizimlari faoliyatiga bog'liqdir. Jismoniy ish qobiliyatining turli darajalari turli odamlarda individual xususiyatlarga

ega bo'lishi mumkin. Bu darajani aniqlash uchun turli metodlar ishlatiladi[1,2].

Jismoniy ish qobiliyatini baholash usullari.

1. Yurak-qon tomir tizimini tekshirish usullari. Yurak-qon tomir tizimi organizmning jismoniy ish qobiliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yurak va qon tomirlarining holati, qonning oksigen bilan ta'minlanishi, yurakning yuklamalarga javob berish qobiliyati va tiklanish jarayoni jismoniy ish qobiliyatini aniqlashda asosiy mezonlar hisoblanadi. Yurak-qon tomir tizimini baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- Puls va arterial bosimni o'lchash. Talabalarda puls tezligining holatlari tekshirilib, u jismoniy mashqlardan keyin ham o'lchanadi. Jismoniy faollikdan keyin pulsning tiklanish vaqti ish qobiliyatini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

- Kardioграмма. Jismoniy mashqlardan oldin va keyin yurakning ishlashini tekshirish uchun elektrokardioграмма qo'llaniladi. Bu usul yurak ritmini aniqlash va uning yuklamalarga javob reaksiyasini baholashga yordam beradi.

2. Nafas olish tizimini baholash usullari: Nafas olish tizimi organizmning oksigenga bo'lgan talabini qondirish va SO₂ chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy ish qobiliyatini aniqlash uchun nafas olish tizimining samaradorligini baholash ham zarur:

- Y.Spirometri. Bu usul nafas olish hajmi, maksimal nafas chiqarish quvvati va o'pkaning hayotiy sig'imini o'lchashga imkon beradi. Bu ko'rsatkichlar nafas olish tizimining umumiy holatini va jismoniy yuklamalarga javob berish qobiliyatini baholashga yordam beradi.

- Oksigen va uglerod dioksid almashinuvini baholash. Ushbu usul jismoniy faoliyat paytida organizmning oksigen iste'moli va uglerod dioksid chiqarishini aniqlashga qaratilgan bo'lib, uning aerobik qobiliyatini tekshirishga yordam beradi.

3. Jismoniy mashqlar orqali baholash: Jismoniy ish qobiliyatini aniqlashda jismoniy mashqlar va maxsus testlar muhim ahamiyatga ega. Mashqlar orqali organizmning turli tizimlari qanday ishlayotganini baholash mumkin:

- Rufye-Dikson testlari. Bu test yurak-qon tomir tizimining yuklamalarga nisbatan javob reaksiyasini baholashga qaratilgan. Rufye indeksi jismoniy faollikdan so'ng yurak qisqarishlarining tiklanishini o'lchash orqali aniqlanadi.

- Step-test. Bu test talabning jismoniy ish qobiliyatini aniqlash uchun juda foydali bo'lib, uning natijalari yurak-qon tomir tizimining holatini baholashga asoslanadi.

- Yo'l yugurish testlari (Cooper test). Bu test orqali talabning aerobik qobiliyatini aniqlash mumkin. Talaba 12 daqiqa mobaynida maksimal tezlikda yuguradi va bu vaqtda u qancha masofa bosib o'tgani o'lchanadi. Ushbu

ko'rsatkich jismoniy ish qobiliyatini to'g'ri baholashga yordam beradi[3,4].

4. Funktsional sinovlar va aniqlash usullari: Jismoniy ish qobiliyatini aniqlashda organizmning turli funktsional sinovlari ham o'tkaziladi. Bular orasida:

- Psixomotor reaksiyalarni tekshirish. Bu usul talabning jismoniy yuklamalar fonida aqliy faoliyat va reaksiya tezligini baholashga yordam beradi.

- Og'ir yuklamalar bilan ishlash qobiliyatini baholash. Bu usul organizmning yuklamalarga qanday moslashishi va qancha vaqt davomida samarali ishlash qobiliyatini o'rganadi[5,6].

Jismoniy ish qobiliyatining ahamiyati. Talabalarning jismoniy ish qobiliyati ularning umumiy salomatligini belgilashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ularning jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantirish uchun faollik darajasini aniqlash va muvofiq mashqlarni tavsiya qilish zarur. Jismoniy mashqlar nafaqat yurak-qon tomir tizimining samaradorligini oshiradi, balki ruhiy holatni yaxshilashda ham katta rol o'ynaydi. Anaerob mashqlar uch guruxga bo'linadi.

1. Maksimal anaerob quvvatli mashqlar.

2. Maksimal oldi anaerob quvvatli mashqlar.

3. Submaksimal anaerob quvvatli mashqlar.

Maksimal anaerob quvvatli ishni bajarayotgan muskullarni energiya bilan ta'minlanishi asosan anaerob yo'l bilan amalga oshiriladi. Umumiy energiya sarfining 90-100% anaerob yo'l bilan ta'minlanadi. Bu ish asosan fosforli birikmalarni (AUF, KF) parchalanishi va qisman laktat yoki glikolitik yo'l bilan energiya oladi. Eng katta quvvatli anaerob ish vaqtida yetuk sportchilar 120 kkal/min energiya sarflaydi. (qisqa masofaga yugurish, qisqa masofaga suzish, qisqa masofaga velosiped xaydash). Maksimal anaerob quvvatli mashqlar uzoq davom etmaganligi tufayli qon aylanish va nafas tizimlari faoliyati o'zini yuqori darajasiga ko'tarilmaydi. Bunday mashqlarda yuqori natijalarga erishish uchun muskul faoliyatini boshqaruvchi markaz, muskullarning faolligi, fosfogen energiya tizimini xajmi va quvvati yuqori bo'lishi kerak.

Maksimal oldi anaerob quvvatli mashqlarni bajarganda sarflanayotgan energiyaning 75-85% fosfor organik birikmalarni va glyukozani sut kislotasigacha parchalanishi yo'li bilan xosil qilinadi. Yetuk sportchilar bunday mashqlarni bajarganda minutiga 50-100 kkalgacha energiya sarflaydi. Bunday mashqlarning davomligi 20 sekunddan 50 sekundgacha bo'ladi (200 metrgacha yugurish, 100 metrga suzish, 500 metrga konkida uchish maksimal oldi anaerob quvvatli mashqlar xisoblanadi.). Bu mashqlarni energiya bilan ta'minlashda kislorodni yetkazib beruvchi tizimning ahamiyati bor. Ayniqsa, mashq uzoqroq davom etadigan bo'lsa. Masalan, 400 metrga yugurishganda yurak urishlar soni o'z maksimumga masofaning oxirida ko'tarilishi mumkin. Kislorod iste'moli masofa oxirida kislorodning maksimal

iste'molini 70-80% ni tashkil kiladi. qonda sut kislotasi miqdori yetakchi sportchilarda 15 mmol/l gacha yetadi. qandning qondagi miqdori biroz ortadi[7].

Submaksimal anaerob quvvatli ishni bajarayotgan muskullarda energiya xosil qilishni 60-70% anaerob, ya'ni sut kislotasi xosil bo'lishi xisobiga bo'ladi. Lekin aerob tizim xam energiya xosil bo'lishiga sezilarli xissa qo'shadi. Bunday ishlar yoki mashqlar 1-2 minut davom etadi. Masalan, 800 metrga yugurish, 200 metrga suzish, 1000 va 1500 metrga konkida uchish. Sportchilar bunday mashqlarni bajarayotganda o'rtacha minutiga 40 kkalgacha energiya sarflaydi. Kislorod ta'minlovchi tizim ko'rsatkichlari maksimumga yaqin bo'ladi. Mashqlar tugagandan keyin qonda sut kislotasining miqdori 20-25

mmol/lni tashkil kiladi. qandning qondagi miqdori sezilarli darajada ortadi (150 mg %).Ko'rinib turibdiki, bu mashqlar xam anaerob xam aerob tizimlarning yuqori darajada ishlashini talab qiladi.

Xulosa.

Talabalarning jismoniy ish qobiliyatini aniqlash ularning sog'lom turmush tarziga ko'maklashish, jismoniy va aqliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini baholash, jismoniy mashqlar orqali ish qobiliyatini tekshirish usullari ularning umumiy salomatligini nazorat qilish va muvofiq tavsiyalar berishga yordam beradi. Jismoniy faollik talabalarning hayot sifati va o'quv jarayonidagi samaradorligini oshiradigan muhim omildir.

Foydalangan adabiyotlar.

8.Emnazarov, G. N. (2023). THE LEVEL OF PREPARATION OF PLAYERS DEPENDS ON MAXIMUM OXYGEN CONSUMPTION. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 8, 68-75.

9.ЭРНАЗАРОВ Ғ. Н. ТАЛАБАЛАР ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТИ ҚАДРИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ //Фан-Спортга. – 2020. – №. 3. – С. 66-68.

10. Emnazarov, G. N. (2020). Attitude of a modern student to a walky lifestyle. *Stress*, 269(S 43), 74.

11. Эрнazarов, Ғ. (2023). ТАЛАБАЛАРИ ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ КЎРСАТКИЧИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 5), 85-92.

12. Эрнazarов, Ғ. Н. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ВАЛЕОЛОГИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *ББК 75.1 А-43 Ответственный редактор*, 344.

13. Неъматович, Э. Ғ. (2020). Обоснование метрологической доступности контрольных тестов по физической подготовленности. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 11(3).

14. Emnazarov, G., & Mavlonova, S. (2023). INDICATORS OF SPEED PHYSICAL QUALITY OF STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B1), 177-183.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Eraliyev Xalimjon Alimbekovich
Ijtimoiy-iqtisodiy va tillarni
o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

DIREKTOR O'RINBOSARLARINING MIDIERGONOMIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEKNOLOGIYASI

Annotatsiya. Mikroergonomik kompetentlik "inson - ishchi tizimning yana bir komponenti", Ergonomikaning asosiy maqsadlari, Midiergonomika - ish o'rinlari va ishlab chiqarish vazifalari darajasidagi o'zaro ta'sirlarini, Midiergonomik kompetentlik ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda inson va mashina o'rtasidagi funktsiyalarni optimal taqsimlash va muvofiqlashtirish muammolarini o'rganish, Direktor o'rinbosarlarining imkoniyatlari tizim ichidagi funktsiyalarning tegishli taqsimlanishi uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi bo'yicha fikr yuritilgan.

Kalit so'z va tushunchalar: ergonomik yondashuv, midiergonomik madaniyat, ergonomik ta'lim muhiti, texnologik tizim.

Эралиев Халимжон Алимбекович
Социально-экономические и языковые
кафедра методики преподавания старший преподаватель

ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ МИДЕРГНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЗАМЕСТИТЕЛЕЙ ДИРЕКТОРА

Аннотация. Микроэргономическая компетентность «Человек – еще один компонент рабочей системы», основные цели эргономики, Мидергономики – их взаимодействие на уровне рабочих мест и производственных задач, роль человека и машины в повышении качества и эффективности обучения. Из проблем оптимального распределения и координации функций между возможностями заместителей директора считается, что правильное распределение функций внутри системы существенно повысит ее эффективность.

Ключевые слова и понятия: эргономический подход, эргономическая культура, эргономическая образовательная среда, технологическая система.

Eraliev Halimjon Alimbekovich
Socio-economic and languages
the department of teaching methodology is senior teacher

TECHNOLOGY FOR IMPROVING MIDERGONOMIC COMPETENCE OF DEPUTY DIRECTORS

Abstract. Microergonomic competence "man is another component of the working system", the main goals of ergonomics, Midergonomics - their interaction at the level of workplaces and production tasks, the role of man and machine in increasing the quality and efficiency of training. study of the problems of optimal distribution and coordination of functions between, the capabilities of the deputy directors, the appropriate distribution of functions within the system is considered to significantly increase its efficiency.

Key words and concepts: ergonomic approach, ergonomic culture, ergonomic educational environment, technological system.

Kirish.

Bugungi kunda aholi bandligini ta'minlash, shu tariqa aholining daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirishda nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish va mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, balki, mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida umum ta'lim maktabining o'quv ishlari bo'yicha direktor

o'rinbosarlarining midiergonomik kompetentligini oshirish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik tayyorgarligi yetarli emasligi va shunga mos ravishda maktabdagi o'qituvchilarning midiergonomik kompetentligining yetarli emasligiga barham beriladi, natijada maktab uchun yangi ta'lim muhitini yaratish, o'quv muhiti, ish joyini o'quvchiga qulay, samarali va xavfsiz moslashtirishni ta'minlash maktab o'quv ishlari

bo'yicha direktor o'rinbosarlarining diqqat nazaridan chetda qolmaydi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining kasbiy standartida uning kasbiy faoliyati turlari bo'yicha mehnat funksiyalari tavsifini funksional vazifalari ko'rinishida taqdim etiladi. Midiergonomik bilimlarni hisobga olgan holda zamonaviy maktabda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari bajarishi kerak bo'lgan mehnat funksiyalari va ko'nikmalarining ro'yxati juda katta. Malaka oshirish jarayonida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari uchun pedagogik ergonomika bo'yicha o'quvlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv faoliyati uchun qulay bo'lgan zamonaviy maktab, o'qituvchi va o'quvchining qulay ish joyi, samarali va xavfsiz o'quv muhitini yaratish muammosi umumta'lim maktablari o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik kompetentligini takomillashtirish asosida hal qilinishi mumkin, bu albatta zamonaviy midiergonomik ta'lim muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Mavzuning dolzarbligi. Agar biz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik bilim, malaka va ko'nikmalarini malaka oshirish jarayonida o'zlashtirish uchun qulay o'quv bilish muhitini yaratish amaliyotini yo'lga qo'ysak, u holda midiergonomik ta'lim kelajakda minimal darajada shakllangan midiergonomik madaniyatni rivojlantirishning yetakchi shartiga aylanadi. Shu munosabat bilan zamonaviy maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining kasbiy va pedagogik kompetentligining ajralmas qismi bo'lgan "midiergonomik kompetentlik" fenomenining mohiyatini va yangi o'quv midiergonomik muhitini yaratish zarur bo'ladi.

Midiergonomik kompetentlikni takomillashtirishning kontseptual pozitsiyasi – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida qulaylik, samaradorlik va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, ularning midiergonomik kompetentligini takomillashtirish jarayonining yaxlitligi va izchilligi uchun o'quv jarayonining yo'naltirilganligi; maktabning midiergonomik yangi ta'lim muhitini yaratish va uning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish. Bizning kontseptual g'oyamiz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik kompetentligini ta'lim sub'ektlari faoliyatini loyixalash, o'quv ishlarini rejalashtirish, o'quv xonalari ta'lim muhiti, mehnat gigiyenasi, tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydigan dasturiy mahsulotlar tizimi interfeysini loyixalash midiergonomik kompetentlikni takomillashtirishning yetakchi tarkibiy qismlari ekanligini asoslaydi. Agar o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik kompetentligi rivojlangan bo'lsa, demak, zamonaviy maktabda (ichki dizayn, o'qituvchi va o'quvchilarning ish joylari, o'quv xonalari, isitilishi, mebel, yorug'lik, tartib, dars jadvali va boshqalar) midiergonomik talablarni to'g'ri tashkil etish va qat'iy rioya qilishni amalga oshiriladi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari pedagogik ergonomikadan ta'lim olmagan bo'lsalar-da, o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim jarayonida ko'rgan, eshitgan, hamkasabalaridan ibrat olgan holda midiergonomik bilimlar bilan mustaqil ravishda tanishadilar va ushbu bilimlarning zarururiyatini tushunib yetganliklari tufayli ta'lim jarayonida mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi qoidasi talablari, ko'rsatmalarini o'zida aks ettiruvchi midiergonomika talablariga o'zlari anglaman holda rioya qiladilar. Bunday faoliyat midiergonomik kompetentlikning minimal darajasi savodxonlik past darajada ekanligini bildiradi.

Tadqiqot natijalari asosida midiergonomik kompetentlik o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarini pedagogik midiergonomika bo'yicha kompetentligi bilan bog'liq ekanligi va quyidagi vazifalarni hal etish lozimligi haqidagi xulosaga kelindi: o'qituvchilarni kasbiy faoliyatda o'zini-o'zi rivojlantirishga tayyorlash; o'qituvchilarning pedagogik midiergonomika mazmunini ifoda etuvchi bilimlarini rivojlantirish, ularning midiergonomik kompetentlikni to'liq anglab yetishlariga ko'maklashish; kasbiy faoliyatga doir midiergonomik munosabatlar tizimida ularning kompetentligini namoyon qila olishga o'rgatish; o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda faoliyatli-munosabatli yondashuvni joriy etish, midiergonomik qarorlar qabul qilishga tayyorlash.

Malaka oshirish jarayonida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik kompetentligini takomillashtirib borish bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon sub'ektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, mazkur jarayonni amalga oshirish uchun moddiy-texnika bazani yaratish va mustahkamlab borish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Midiergonomik kompetentlikni takomillashtirish jarayonida uning midiergonomik bilim, ko'nikma, fikrlash, yo'nalish kabi tarkibiy qismlarini o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarida shakllantirish darajasini nazorat qilib borishi kerak bo'ladi. Agar o'quv jarayonida turli xil nazorat turlari, midiergonomik bilimlar va ko'nikmalar taqdimoti o'tkazilsa, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining o'quv faoliyatini, bilimlaridagi bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlab va bartaraf etib borilsa, bizning fikrimizcha, ularning midiergonomik kompetentligi takomillashib boradi.

Midiergonomika mavzusi bo'yicha mashg'ulot mazmunini o'rganishda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari "Midiergonomika" fanining paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy tarixiy tomonlari bilan tanishishlari kerak: "midiergonomika" tushunchasining

ta'rif, midiergonomik ta'riflarni tahlil qilish; midiergonomikaning ob'ekti va predmetini, uning vazifalari va tamoyillari bilan tanishib chiqish; midiergonomikaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini tavsiflash; harbiy midiergonomika (1950 yillar), sanoat midiergonomikasi (1960-yillar), iste'mol tovarlari va xizmatlari midiergonomikasi (1970-yillar), komp'yuterli faoliyat turlari midiergonomikasi (1980-yillar), bo'sh vaqt va bo'sh ish joyi (1990-yillar), ta'lim midiergonomikasi (2000-yillar), uning asosiy yo'nalishlari: jismoniy midiergonomika, kognitiv midiergonomika va tashkiliy midiergonomika, "odam-mashina muhiti" midiergonomikasi tizimini o'rganadilar.

Ergonomikaning asosiy qoidalarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratgan holda ushbu sohaning paydo bo'lishi va rivojlanishining shart-sharoitlarini o'rganish; mazmun va mohiyatini tahlil qilish natijalariga asoslanib, ta'lim sub'ektlari faoliyatini loyixalash, o'quv ishlarini rejalashtirish, o'quv xonalarida ta'lim muhiti, mehnat gigienasi, tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydigan dasturiy mahsulotlar tizimi interfeysini loyixalash tushunchasining asosiy xususiyatlarini aniqlash; optimallikning keng qamrovli mezonlari: aniqlik, ishonchlik, unumdorlik, o'qituvchi va o'quvchilarning salomatligi, zo'riqish va charchoq darajasi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatiga bo'lgan hissiy ta'sir masalalarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish, shaxsning salomatligini va har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, o'quv jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatining xususiyatlarini o'rganish kabi muammolarni hal qilishni o'z ichiga olgan pedagogik midiergonomikaning nazariy va amaliy muammolari bilan tanishib chiqish kerak.

Xulosa.

O'quv sharoitlarini midiergonomik nuqtai nazardan yaxshilash va loyihalashtirishda o'quv jarayoni ehtiyojlarini eng yaxshi qondirilishini; o'qituvchilar va o'quvchilarning o'quv faoliyatini optimallashtirishni; pedagogik-midiergonomik sharoitlarda o'qituvchi va

o'quvchining o'quv faoliyati midiergonomika ob'ekti sifatida tinglovchi-o'qituvchilar tomonidan ko'rib chiqilishi ta'minlanishi kerak.

Pedagogik ergonomika fani mazmunini o'rganish – "o'qituvchi-o'quv qo'llanmalar-o'quvchi-atrof-muhit" midiergonomik tizimi asosiy tamoyillarini yoritib berish, xavfsizlik va qulaylik tamoyili, unumdorlik va ishonchlik tamoyili, keng qamrovlilik tamoyili, psixofiziologik moslashuv tamoyili, estetika tamoyili pedagogik midiergonomikaning metodlarini aniqlashda ifodalanadi.

Pedagogik ergonomika sohasidagi tadqiqotlar turli xil fanlar (psixologiya, fiziologiya, tibbiyot, gigiena, sotsiologiya va boshqalar) ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalangan holda integrativ yondashuv asosida olib boriladi. O'rganish metodlarining integratsiyasi yangi tadqiqot metodlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday metodlarni qo'llashning muhim sharti muayyan midiergonomik muammoni hal qilishda va natijalarni umumlashtirishda turli xil o'qitish metodlarini muvofiqlashtirishdir.

"Pedagogik ergonomikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi"ni o'rganish pedagogik midiergonomikani fanlar va ilmiy fan sohasi sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi, bu integral bilimlarning fanlararo majmuasi (tibbiy, biologik, fiziologik, psixologik, pedagogik, estetik va boshqalar) bilan tavsiflanadi.

"Ta'limda ergonomik yondashuv"ni o'rganishda: midiergonomik yondashuv, inson omili (o'quv jarayoni sub'ektlari), qulay va xavfsiz o'quv sharoitlari, ekologik yondashuv, o'quv va pedagogik faoliyat, "o'qituvchi-o'quvchilar" funktsional tizimi, o'qitish-shartlar-atrof-muhit tushunchalariga alohida e'tibor qaratish kerak.

Ta'limning ergonomik sharoitlari mavzusi mazmunini o'rganish jarayonida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlariga "midiergonomik sharoitlar" tushunchasini o'zaro bog'liq bo'lgan omillar to'plami sifatida ta'lim faoliyati muvaffaqiyatini, individual rivojlanishni, o'quvchilar sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlashni tushuntirish; maktab o'quvchilariga ta'limda midiergonomik sharoitlarning o'rnini aniqlash yuzasidan ma'lumotlar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев С.Х. Ўқитувчиларнинг эргономик маданиятини ривожлантириш муҳитини ташкил этиш тизими ва технологияси // "Замонавий таълим" илмий-амалий оммабоп журнали. Тошкент, 2021. 9-сон. Б.28-36.
2. Абдуллаев С.Х. Технологик таълим ўқитувчиларининг эргономик компетентлиги // Монография. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство/учебное пособие для магистратуры всех специальностей. - Т.: ТПУ им. Низами, 2003. – 192 с.
4. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М. Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.
5. Ўзбекистон республикаси халқ таълими вазирлиги олий ва ўрта махсус таълими вазирлиги маданият ва спорт ишлари вазирлиги. Таълим муассасаларидаги мебель, ўқув-лаборатория асбоб-ускуналари, компьютер

техникаси, спорт анжомлари ва бошқа инвентарлардан самарали фойдаланиш ҳамда уларни сақлаш тўғрисида йўриқнома (қўлланма). – Тошкент: 2010.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nigmatova Gulnora Nurxanbetovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
E-mail: nigmatovagulnora345@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PULLIK XIZMATLARNING BIZNES-REJASINI TUZISH TEKNOLOGIYASI

Annotatsiya: Maqolada turli mulk shakllariga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida biznes rejani tuzish va u asosida qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil etishning ilmiy-amaliy texnologiyasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, biznes reja, qo'shimcha ta'lim, to'garak, qo'shimcha mablag', ijtimoiy himoya.

Нигматова Гулнара Нурханбетовна

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций
доктор философии по педагогике, и.о. доцент

ТЕХНОЛОГИЯ СОСТАВЛЕНИЯ БИЗНЕС-ПЛАНА ПЛАТНЫХ УСЛУГ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация: В статье раскрываются научные-практические технологии создания бизнес-плана в дошкольных образовательных организациях с различных форм собственности и организация на его основе дополнительных образовательных услуг.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, бизнес-план, дополнительное образование, кружок, дополнительные средства, социальная защита.

Nigmatova Gulnara Nurzhanbetovna

Institute of Retraining and Advanced Training of directors and specialists of Preschool Educational Organizations
Doctor of Philosophy in Pedagogy, Acting Associate Professor

TECHNOLOGY OF DRAWING UP A BUSINESS PLAN FOR PAID SERVICES IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Annotation: The article reveals scientific and practical technologies for creating a business plan in preschool educational organizations with various forms of ownership and the organization of additional educational services based on it.

Keywords: preschool educational organization, business plan, additional education, circle, supplementary funds, social protection.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2019-yil 28-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari(MTT)da ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tuzilishida"gi 14-sonli buyrug'i qabul qilindi. Bu esa, o'z navbatda, pullik xizmatlar ko'rsatish hisobiga MTTning moddiy-texnik bazasi va xodimlarini moddiy

rag'batlantirishni yaxshilash (80%), uni rivojlantirish jamg'armasi (10%), QQR, viloyat, Toshkent shahar (5%) boshqarmalari hamda tuman(shahar) maktabgacha va maktab ta'lim bo'limlarining rivojlantirish jamg'armasini (5%) oshishiga imkon beradi. Shuning uchun ham mazkur pullik xizmat turlari 2019-yil 08-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312-son qarorida ham aks etgan [1,2,3].

Adabiyotlar tahlili.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pullik xizmatlarning biznes-rejasini tuzish texnologiyasi asosida yanada rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu borada respublikamiz olimlaridan A.Ismoilov, N.Mamashokirov, Sh.Otaboyev, A.To'xtayev, G.Komilova, N.Tursunov, M.Nuriddinova tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Xorijiy davlatlarning olimlaridan L.Hell, D.Ziegler, V.Williams, A.Lenhart, D.Fallows, K.Merga, A.Perrin, F.Roberts, G.Foehr, V.Rideout kabilarning tadqiqotlarida ham rivojlantirish jarayonining metodologiyasi xizmat turlaridan foydalanish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Bunday pullik xizmatlarni tashkil etish uchun albatta mahalliy sharoitni inobatga oluvchi marketing tadqiqotlari asosidagi biznes-rejani tuzish kerak bo'ladi. *MTTning biznes rejasi* – maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan tadbirkorlik faoliyatining ko'zda tutiladigan ishlar hajmi, ularni tashkil etish, olib borish, yakuniy natajalarni ifoda etuvchi tizimlashgan loyiha. Unda tadbirkorlik faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiruvchi konsepsiya o'z aksini topadi [4]. Biznes reja o'z tarkibi jihatidan loyiha afzalliklari va uni amalga oshirishdan kutiladigan moddiy-moliyaviy natijalar bayon etiladi. Bizning holatda u loyiha bo'yicha amalga oshiriladigan xizmatlarning tavsifi, uning xaridorgirligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan quyidagi jihatlari ochib beriladi:

- ✓ *liyhani amalga oshiruvchilar va ularning to'garaklarni yuritishdagi imkoniyatlari;*
- ✓ *tadbirkorlik faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan omillar;*
- ✓ *marketing tadqiqotlarini olib borish yo'llari;*
- ✓ *tadbirkorlik bozorining qaysi segmentda ish yuritishi;*
- ✓ *tovar-xizmatlar narxining prognozi;*
- ✓ *ehtimoldagi raqobatchilarning mahsuloti, sifati, xaridorligi, narxi to'g'risida ma'lumotlar;*
- ✓ *faoliyatni tashkil etish mexanizmi;*
- ✓ *xodimlar ishini tashkil etish yo'llari;*
- ✓ *tashkiliy-huquqiy shakllarini belgilaydigan yuridik asos;*
- ✓ *ma'lumotlarni umumlashtiradigan hamda ularning qiymati ifodalaydigan moliyaviy reja.*

MTT yo'nalishidagi biznes rejani ishlab chiqishda nafaqat loyihani tuzuvchi, balki shu sohadagi mutaxassislar, yuristlar, mahalliy hamda davlat idoralarning xizmatchilarini jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularning bergan maslahatlari, taklif va tavsiyalari

biznes rejani optimal holatga olib kelishda muhim o'rin tutadi [5].

Biznes rejani tuzishda uni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ko'ra bilish zarur [6]. Zero, jadal suratlarida rivojlanib hamda talab-takliflar o'zgarib borayotgan hozirgi zamonda mahalliy sharoitni inobatga olgan tarzidagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarish va ushbu muammolarning yechimini topishga qaratilgan moddiy-moliyaviy chora-tadbirlarni ko'zda tutishga to'g'ri keladi.

MTTda qo'shimcha pullik xizmatlarni rejalashtirishda:

- *birlamchi kapital, ya'ni boshlang'ich sarmoyani aniqlashtirib olish;*
- *biznes loyihaaning ijobiy va salbiy hususiyatlarini aniqlash;*
- *xizmat, mijoz va raqiblar haqidagi ma'lumotlarni to'plash;*
- *biznes model, maqsad va natijalar strategiyasini belgilash;*
- *tuzilgan biznes loyihani himoya qilish, ya'ni ekspertizadan o'tkazish yo'llarini o'ylab ko'rish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan savollarga tayyor turish va h.k.*

Biznes rejani kim tomondan ishlab chiqilganligi ekspertlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham uning mualliflari to'g'risidagi ma'lumotlarni berishda ijrochilarning mazkur ta'lim-tarbiya sohasida egallagan kasbi (rasmiy hujjatlar asosida), tegishli yo'nalishdagi milliy hamda xalqaro loyihalarda muvaffaqiyatli ishtirok etgani, ilmiy darja va unvon (agarda mavjud bo'lsa), chop etgan ilmiy-amaliy ishlar, olgan intellektual mulkni tasdiqlovchi sertifikatlar kabi aniq ko'rsatmalarni taqdim etish katta ahamiyat kasb etadi.

MTTda qo'shimcha pullik xizmatlar biznes rejasini tuzishda tadbirkorlikning uch asosiy yo'nalishlar ro'yxati – mintal matematika, chet tillarni o'rgatish, gimnastika to'garaklarning grafik hamda diogrammalar yordamida muhim fuksiyalari shakllantirib olinadi. Bo'lajak mijozlarga bunday xizmatlarning tarbiyalanuvchilar uchun affazlik tomonlari, o'ziga xosligi, olib borish jarayoni to'liq aks ettiriladi. Bunda, albatta, to'garaklarni olib borishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar va ularni oldini olish chora-tadbirlar ochib beriladi. Zero o'zbek xalqining millik qadriyatlardan biri bo'lgan "boljonlik" hususiyatlari e'tibordan chetda qolmaslik lozim.

Marketing tadqiqotlari orqali biznes rejada mijozlar haqidagi, ya'ni ularning kontingenti, moddiy-moliyaviy imkoniyatlari, oilaviy holati kabi ma'lumotlarni berish foydadan holi emas. Rejada MTTni joylashuvi, ta'lim-tarbiya resusrlariga egaligi, xodimlarning kasbiy mahorati, xizmatlarning mahalliy sharoit hamda imkoniyatlarni inobatga olgan tarzda moslashuvchanligi, logistika

xizmatlarining yo'lga qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlar ham keltiriladi.

Mijozlar uchun xizmatlarning moddiy-moliyaviy tomonlari birlamchi ahamiyat kasb etadi [7]. Bunda kunlik, oylik, yillik moddiy-moliyaviy harajatlar aniq qilib ko'rsatiladi. Mazkur ma'lumotlarni berishda loyiha ishtirokchilariga to'lanadigan xizmat haqi milliy valyutaning qadrsizlanishi, ularni ijtimoiy muhofazasini ta'minlashdagi davlat ko'rsatmalari, yuzaga kelish mumkin bo'lgan fors-major holatlarni ham biznes rejaga kiritish foydadan holi emas. Buni jadval tariqasida to'garak turlariga qarab smeta-harajatlarda batafsil yoritiladi. Matn tariqasida esa ularga izohlar beriladi.

Birlamchi kapitalni hisoblab chiqish, moliyalashtirish bosqichlari, pul o'tkazishning oflayn va onlayn imkoniyatlari yoritib beriladi. Marketing tadqiqotlarni chuqur olib borish biznes rejani hayotiyli va ishonchligiga xizmat qiladi [8].

Biznes rejangizdagi asosiy bo'limlarining qisqa mazmuni yoki annotatsiyada ko'rsatib o'tish va uni rejanning boshiga joylashtiriladi. Zero aksariyat holatlarda ota-onalar biznes rejani to'liq o'qib chiqishga hoxishlari yoki vaqtlari bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ular biznes rejani barcha muhim va e'tiborga loyiq jihatlarni annotatsiyadan oladilar. Ularda annotatsiya layoqat yoki qiziqish uyg'otsagina qolgan qismidagi mazmuni bilan

batafsil tanishishga harakat qiladilar. Biznes reja annotatsiyasi qisqa va e'tiborni tortadigan bo'lishi kerak. Nafaqat DMTTda, balki xususiy MTTda ham mablag'larning asoslanganligi va o'z vaqtida ta'minlanishi xizmatlar sifatiga bog'liq tarzda bo'lishiga shart-sharoitlarni yaratib beradi. Biznes-reja uchun qisqacha xulosa tayyorlanadi, zero u pullik xizmatlar missiyasining bayonotini beradi. Masalan, "Gimnastika to'garagi"ning maqsadli auditoriyasi – 25-45 yoshdagi ota-onalarning 5-7 yoshgacha bo'lgan bolalari uchun mo'ljallangan. Biznes reja o'rtacha daromadli (oylik maoshi 3-7 mln. so'm), lekin bandligi yuqori (kamida 7 soatlik) va moslashuvchan grafikli ota-onalar uchun. To'garakni tashkil qilish uchun 1 ta katta guruh (5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarga) va 1 ta tayyorlov guruh (6-7 yoshli tarbiyalanuvchilarga) tarbiyachi kerak bo'ladi. Agarda bir xil yoshdagi guruh yollangan bo'lsa, kun davomida 2 smenali ishni va vazifalarni adolatli taqsimlash zarur.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, turli mulk shakllariga ega bo'lgan MTTda qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya to'garaklarini yo'lga qo'yishda biznes rejani tuzishda mahalliy sharoitni inobatga olish, marketing tadqiqotlarini olib borish, uni bayon etishda muayyan ketma-ketlikda bayon etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2019-yil 28-yanvardagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 14-son buyrug'i // www.gov.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori // www.lex.uz.
4. Махмудов Э.Х., Исаков М.Ю. Бизнес планирование. Учебное пособие. – Ташкент: Изд. Союза писателей Узбекистана, 2004.– 160 с.
5. Бек М.А. Бизнес планирование.- Москва: "Biznes elaynment", 2011.– 132 с.
6. Кондратов М.Н., Баландина Е.В., Трефилова Ю.С. Бизнес планирование. Учебное пособие.– Ульяновск: "Изд. УлГТУ", 2014.– 144 с.
7. Петров Р.Н. Как разработать бизнес-план. Практик. Пособие примерами и шаблонами, 2-е изд.: М.: «ООО И.Д. Вилямс», 2008,- 384 с.
8. Ефремова Т.В. Маркетинг дошкольного образования // Использование маркетинга в сфере образования. marketing pechatat_referat.docx.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Sharipov Fayzullo Maribjon o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali o'qituvchisi

FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi ularning jismoniy fazilatlarini jismoniy tayyorgarlikning turlari va ularni amaliyotga tadbiiq etish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar; Jismoniy tayyorgarlik, sprinter, jismoniy fazilat koordinatsiya, qobiliyat, maxsus jismoniy tayyorgarlik, muskul qisqarishi, maxsus chaqqonlik, kompleks, muvaffaqiyat, kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik, faktor, Texnik, taktik, tafakkur, priyomlar.

Шарипов Файзулло Марипжонович

Преподаватель Ферганского филиала Узбекского государственного университета
физического воспитания и спорта

ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация: В этой статье физическая подготовка футболистов их физические качества речь пойдет о видах физической подготовки и их применении на практике.

Ключевые слова; Физическая подготовка, спринтер, физические качества координация, способности, специальная физическая подготовка, сокращение мышцы, специальная ловкость, комплекс, успех, сила, скорость, выносливость, гибкость, ловкость, фактор, техника, тактика, мышление, примы.

Sharipov Fayzullo Maribjon

Teacher of the Fergana branch of the Uzbekistan State University of Physical Education and Sports

PHYSICAL PREPARATION OF FOOTBALL PLAYERS

Annotation: This article will talk about the physical fitness of players their physical qualities types of physical fitness and their implementation in practice.

Keywords; Physical fitness, sprinter, physical quality coordination, ability, special physical fitness, muscle contraction, special agility, complex, success, strength, agility, endurance, flexibility, agility, factor, technical, tactical, thinking, priomes.

Kirish.

Sportchining jismoniy tayyorgarligi sport faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlarini, qobiliyatlarni tarbiyalash demakdir. Sportchining jismoniy tayyorgarligi bevosita amaliy sport yo'nalishiga ega bo'lgani uchun, ayni vaqtda organizmning umumiy jismoniy rivojlanishi, mustaxkamlanishi va chiniqishi bilan tamomila bog'liqdir. Tayyorgarlikning barcha boshqa tomonlari singari jismoniy tayyorgarlik ham umumiy va maxsus bo'ladi.

Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarlik kurishi tanlangan sport turini o'ziga xos talablariga javob bera oladigan jismoniy qobiliyatni tarbiyalash jarayonidan iboratdir.

Ma'lumki, sportning har bir turi sportchining jismoniy qobiliyatlariga maxsus talablar quyadi, xilma-xil jismoniy fazilatlar o'ziga xos uyg'unlashgan bo'lishi va namoyon etilishini talab qiladi. Masalan, sprinterdan

avvalo tezkor-kuchlilik fazilatlarining maxsus nisbatda bo'lishi (ba'zan uni sprinterlik qudarati deb ataladi), shuningdek, jumladan, muskul qisqarishining shergetik resurslaridan anaerob (ozod kislorod yo'qligida) foydalanishga asoslangan tezlikka chidam talab qilinadi. Stayer uchun esa, aksincha birinchi navbatda nafas olishdagi modda almashinish (kislorod almashinishi) jarayoni yuksak darajada bo'lishiga asoslangan chidamlilik zarurdir. Kurashuvchi polvondan alohida kuchga chidam, shuningdek, maxsus chaqqonlik va epchilik talab etiladi. Gimnastikachilarda qat'iy programma bo'yicha berilgan maxsus mashqlar kompleks ifodali va aniq koordinatsiya bilan bajarish qobiliyati, shuningdek, kuch-qudratni, chaqqonlikni va boshqa jismoniy fazilatlarini gimnastik ko'p kurashning butun programmasi davomida namoyon eta bilish qobiliyatini kerakli darajada saqlab turish uchun imkon beradigan ko'p kurashga chidamlilik katta rol

o'ynaydn. Turli jismoniy fazilatlarni o'ziga xos ravishda namoyon etish va o'yunlashtirishga asoslangan ana shunday spetsifik qobiliyatlarni tarbiyalash sportchi maxsus jismoniy tayyorgarlik kurishining mazmunini tashkil etadi.

Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi deganda, ular tanlangan sport turi uchun xos bulmagan, biroq sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun bevosita va bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadigan har tomonlama jismoniy - qobiliyatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi.

Sportning har bir turidagi muvaffaqiyat faqat mazkur sport turining o'ziga xos tomonlarini ifoda etuvchi ayrim qobiliyatlar bilangina emas, balki organizmning funksional imkoniyatlarining umumiy darajasi bilai ham belgilanadi. U sababdan ham maxsus tayyorgarlik, ham umumiy tayyorgarlik birga qushib olib borilganidagina sportchining jismoniy tayyorgarligi har tomonlama bo'lishi mumkin.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik maxsus tayyorgarlik uchun zamni yaratadi, ya'ni tanlangan sport turida kamol topish uchun zarur shart-sharoit sifatida kuchlilikni, tezkorlikni, chidamlilikni, ephillikni, chaqqonlikni har tomonlama rivojlanishini ta'min etadi. Sportchi umumiy jismoniy tayyorgarligining mazmuni uning qaysi sport turi bo'yicha ixtisoslashganiga bog'lik. Biroq ixtisosiga qarab g'oyat katta farqlar bo'lishiga qaramay, hamma sohadagi umumiy tayyorgarlikda qator uxshash tomonlar saqlanib qoladi. Bunga sabab, birinchidan, sportning har xil turlari faqat bir-biridan farq qilibgina qolmay, ma'lum darajada umumiylikka qam ega ekanligida bo'lsa, ikkinchidan (bu eng muhimi), umumiy tayyorgarlikning mazmuni faqat sport faoliyatidagi vazifalarni hisobga olib belgilanmay, balki jismoniy tarbiyaning umumiy vazifalariga ham muvofiqlab belgilanishidadir. Shuning uchun bizning sharoitimizda sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa, sport mahoratining dastlabki paytlarida, alpomish va Barchinoy kompleks norma va talablarini bajarish bilan bog'liq.

Sportchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha vositalaridan, ya'ni jismoniy mapillar, chiniqish va sog'lomlashtirishning tabiiy faktorlari (oftobda pishish, suv muhitining xususiyatlari), rejim va boshqa gigienik sharoitlardan foydalaiiladi. Bunda maxsus tanlangan jismoniy mashqlar asosiy rol o'ynaydi. Chiniq, sog'lomlashtirishning tabiiy faktorlari hamda gigienik sharoitlardan trenirovka mashg'ulotlari vaqtida ham, shuningdek trenirovkadan tashqari (maxsus gigienik. omillar, hammomga tushish, massaj kilish, umumiy turmush tartibiga rioya qilish, ovqatlanish rejimi va hokazolarda) ham foydalaniladi. Mazkur faktor va shartlarning sport faoliyatidagi ahamiyati trenirovka nagruzkalari kupaya borgan sari tobora ortib boradi.

Sportchining texnik tayyorgarligi deb, unga sportda bahs yuritish vositasi yoxud trenirovka vositasi bo'lib xizmat o'quvchi harakat va faoliyat texnikasini o'rgatishga aytiladi.

Maxsus texnik tayyorgarlik jarayonida sportchi tanlangan sport turi texnikasini o'rgana boradi—sport bo'yicha ixtisoslashish predmetiga aloqador harakat va faoliyatlarining biomexanik qonuniyatlarini bilib oladi, tegishli harakat malakalarini amalda o'zlashtirib, ularni mumkin qadar govori darajada mukammallashtira boradi. Shu bilan bir qatorda va shu munosabat bilan umumiy texnik tayyorgarlik olib boriladi. Texnik tayyorgarlikdan maqsad sportchining umumiy jismoniy tarbiya ma'lumotini, jismoniy mashqlarning umumiy texnik asoslari sohasidagi bilimini muntazam suratda kengaytirib borish va hayotda hamda sport praktikasida foydali bo'lgan harakat qilish mahorati va malakalari fondini to'ldirib borishdan iborat. Sportchining umumiy va maxsus texnik tayyorgarligi o'rtasida ham xuddi jismoniy tayyorgarlikning ana shunday qismlari o'rtasidagi singari o'zaro aloqa mavjud. Birok bunda turli jismoniy fazilatlarni urtasidagi o'zaro aloqa-dorlnkdan kura bilimlari, mayorat va malakalarni «ijo- biy utkazim»dan kuprots foydalaniladi. Umumiy texnik tayyorgarlik avvalo tanlangan sport turida texnik progressga erishish uchun yordam beradigan xuddi ana shunday bilim, mayorat va malakalarni (aytaylik, langar cho'p bilan sakrashdan ixtisoslashayotganda xilma-xil gimnastik mahorat va malakalarni, sport o'yinlari yoki kurashdan ixtisoslashayotganda akrobatik malakalarni va hokazolarni) shakllantirishga qaratilgandir.

Shu bilan birga jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida foydalaniladigan texnik mashqlarni o'rganishga ham muayyan o'rin ajratiladi. Chuiki u yoki bu mashqni jismoniy fazilatlarni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanishdan oldin uni texnik jihatdan tug'ri bajarishni o'rganib olish kerak.

Sportchining taktik tayyorgarligi texnik tayyorgarlik bilan chambarchas birgalikda olib boriladi. Agar texnik tayyorgarlik sportda baxs yuritish vositalari bilan qurollantirsa, taktik tayyorgarlik ularni qullash san'atiga o'rgatadi.

Sport taktikasini qisqa qilib sportda bahslaishsh san'ati deb ta'riflash ham mumkin. Kengaytiribroq aytganda, sport taktikasi, birinchidan, sportchining imkoniyatlarini, ratsibining xususiyatlarini hamda musobaqanng konkret shart-sharoitlarini hisobga olgan holda musobakalarda qatnashishning maqsadga muvofiq keladigan planini ishlab chiqishdan ikkinchidan, sportning imkoniyatlarni mumkin qadar tularoq namoyon etadigan baxs yuritish vosita va usullaridan foydalanish yo'li bilan bu planni amalga oshirishdan iborat.

Sportning xar xil turlarida taktikaning formasi va uning ahamiyati xilma-xildir. Sport o'yinlari va yakkama-yakka olishuvlarda taktika masalan, gimnastika yoki

sprinter yugurishi vaktidagiga qaraganda ancha kattaroq va kuproq sport natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq boshqa hamma sharoitlar teng bo'lgan barcha hollarda taktika g'alabani hal qiluvchi faktori bo'lib qoladi. Bunday mashqlarda yuguruvchi E. Zatopek «Sportda g'alabaga erishish uchun nima kerak?» — degai savolga qisqa qilib: «Eng muhimi—intellekt» degan javobi bilan juda yaxshi ta'killab o'tgan.

Sportchining taktik tayyorgarligi jarayonida quyidagilarni nazarda tutmoq kerak:

sport taktika, sinynng nazariy asoslarini o'zlashtirish (taktik priyomlar arsenali haqidagi, ularni qanday va qay xildagi sharoitlarda qo'llash kerakligi va hokozolar haqidagi bilimlarni egallash);

sportdagi raqiblar imkoniyatini hamda bo'lajak musobaqalarning shart-sharoitlarinn o'rganish;

taktik priyomlarni, ularning kombinatsiya va variailaripi to mukammal taktik mayorat va malakalarni egallab olgunga qadar o'zlashtirish;

taktik mahoratga erishish uchun zarur bo'lgan taktik tafakkur va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalash.

Xulosa.

Bu vazifalarning asosiysi taktik tafakkurni tarbiyalash bulib, u sportda bahslashish planini to'zib tuzib va amalga oshirish bo'yicha bir qator ahliy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Taktik tafakkur idrok, xotira va ijodiy tasavvurga suyanib, tegishli bilim va tajribalardan foydalanishga, sport bahsida vazpyatni qunt bilan kuzatish, tez tushunnsh va baholay bilish, o'z vaqtida to'g'ri qarorga kela bilish qobiliyatiga asoslanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Sharipov, Futbol nazariyasi va uslubiyati (o'quv qo'llanma)
2. Sharipov, F. (2023, April). The Importance of technical methods in the development of football skills. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 76-79).
3. Maribjon o'g'li, S. F. (2024). FUTBOL MUSOBAQALARINI TASHKIL ETISH: TO'LIQ MA'LUMOT. XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI, 1(1), 217-219.
4. Sharipov, F. (2023, November). FUTBOL O'YINIDA DARVOZABONNING O'YIN TEXNIKASI. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
5. Sharipov, F. (2023, November). FUTBOLNING UMUMIY TAVSIFI. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
6. Sharipov, F. (2023, November). FUTBOLCHILARNI TAYYORLASH USLUBIYATI. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
7. Sharipov, F. (2023, November). FUTBOL O'YININING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
8. X.M Qodirova "Development of physical Qualities and its Influence on Gymnastic Exercise Technique" Physical Culture Theory and Methodology Department Associate Professor Ilmiy amaliy jurnali 2023
9. X.M Qodirova "SPORTCHI VA MURABBIYLAR OVQATLISHI BO'YICHA ASOSIY USLUBIY TAVSIYALAR" Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Нөкис 6/1 son dekabr 2023

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Shoynazarova Vazira Xushbakovna

Termiz davlat muhandisli va agrotexnologiyalar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: vaziraxon.ru@mail.ru

AGRONOMIYA YO'NALISHI TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Maqola ESP yo'nalishi talabalariga leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi uslublar samarasi haqida fikrlar yuritiladi. Agronomiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik, psixologik va metodik yondashuvga asoslangan ta'lim egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shahsiy va kasbiy, ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqaro kompozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda o'z kasbi yo'nalishida sog'lom raqobat hamda madaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Kalit so'zlar: Komponent, professionalizm, muloqot uslubi, kommunikativ sifatlari, emotsional madaniyat, kognitiv faoliyat, protsessual komponentga.

Shoinazarova Vazira Khushbakovna

Termez State University of engineering and agrotechnologies
Teacher of the Department of Uzbek language and literature

PEDAGOGICAL, PSYCHOLOGICAL AND METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING THE LEXICAL COMPETENCE OF AGRONOMY STUDENTS

Abstract: The article discusses the effectiveness of methods in developing lexical competence for ESP students. Education based on a pedagogical, psychological and methodical approach to the development of lexical competence of agronomy students is aimed at forming the ability to use acquired knowledge, skills and abilities in their personal, professional and social activities. , it creates in students independent thinking, active citizen composition, initiative, ability to use information and communication technologies wisely in their activities, healthy competition in the direction of their profession, and cultural skills.

Key words: Component, professionalism, communication style, communicative qualities, emotional culture, cognitive activity, procedural component.

Шойназарова Вазира Хушбаковна

Термезский государственный инженерно-агротехнологический университет
Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ АГРОНОМИИ

Аннотация: В статье рассматривается эффективность методов развития лексической компетентности у студентов ESP. Обучение, основанное на педагогическом, психолого-методическом подходе к развитию лексической компетентности студентов-агрономов, направлено на формирование умения использовать полученные знания, умения и навыки в своей личной, профессиональной и общественной деятельности, формирует у студентов самостоятельное мышление, активный гражданский состав, инициативность, умение разумно использовать информационные и коммуникационные технологии в своей деятельности, здоровая конкуренция в направлении своей профессии, культурные навыки.

Ключевые слова: Компонент, профессионализм, стиль общения, коммуникативные качества, эмоциональная культура, познавательная деятельность, процессуальный компонент.

Kirish.

Oliy ta'lim muassasasida professional leksikani rivojlantirish tahsil olayotgan talabdan ancha ma'suliyat, hotira diqqat, ongni talab qilishi bilan bir qatorda o'qituvchining shahsiy tajribasi, o'qitish metodikasining imkoniyatlariga ham bog'liqdir. Sababi sohaviy yo'nalishda ingliz tilini o'qitishda, xususan agronomiya yo'nalishida, talaba o'z sohasini mukammal egallash bilan bir qatorda o'zga tilni o'rganib, o'sha tilda sohasini ifodalab berishni talab qiladi. Ta'limda qaysi yo'nalishni tanlash, avvalo, ta'lim maqsadlariga bog'liq bo'lib, ta'lim yo'nalishi esa o'ziga xos tizimini ishlab chiqishga olib keladi.

Bugungi kunda barcha fanlarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tadbiriq etilmoqda. Endilikda o'qituvchi talabalarga nafaqat fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka berishning o'zi etarli emasligini balki hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda, o'z sohasida amaliy qo'llash malakasini shakllantirib borish kerakligi ayon bo'lib qoldi. Binobarin, agronomiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik, psixologik va metodik yondashuvga asoslangan ta'lim egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shahsiy va kasbiy, ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqaro kompozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda o'z kasbi yo'nalishida sog'lom raqobat hamda madaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Chunonchi, ona tili sifatida o'rganishda til me'yorlarini unga sistemali yondashish asosida o'rganish taqozo etilsa chet tillarni o'rganishda esa til o'rganuvchilarni muloqot yuritishga o'rgatish muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz zarurki, o'qituvchi hilma xil tabiatga ega ta'lim oluvchilar bilan bir vaqtning o'zida ishlashi kerak (bilim darajasi, qobiliyati, o'rganishga munosabati turlicha), har bir ta'lim oluvchining intellektual xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus o'quv jarayonini yaratish lozim bo'ladi. Bunda esa o'quv jarayonida samarali ta'limni tashkil etishda 1994 yilda psixolog G.Gardner tomonidan yaratilgan intellektning ko'p zehnlilik nazariyasining asosiy prinsiplaridan foydalanish eng yaxshi usullardan biri hisoblanadi. Natijada, ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatida faol subyektlarga aylanib, idrok etish orqali muayyan bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. G.Gardnerning fikriga ko'ra, insonda sakkiz xil ko'rinishdagi qobiliyat borligi, shaxsda intellekt emas xilma xil ong mavjudligi haqida ta'kidlagan. Bu nazariya o'qituvchilarga quyidagi ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi:

- ta'lim oluvchining individual ishtirokini o'rnatish;
- ta'lim oluvchilarga o'quv jarayonida boy tajriba orttirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

- ta'limda qiyinchilikni vujudga keltiruvchi umumiy jarayondan ta'lim oluvchini chiqarib tashlamasdan, balki o'sha jarayonni bolaning qobiliyatiga moslashtirish;

Yuqorida qayd etilgan o'quv jarayoniga oid maqsadlar, ta'lim oluvchilarning to'liq intellektual rivojlanishi uchun ijobiy sharoit yaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida, xususan ingliz tilini o'qitishda o'rganuvchining intellektual bilimini oshirish va o'zga tilning xususiyatlari, so'zning grafikasi, fonetik va grammatik ifodalanishini o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Demak, xorijiy tillarni o'rganishdan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad sohaviy yo'nalishda tilo'rganuvchi talabalarining nutqini o'stirish, o'rganilayotgan tilda erkin gapirish malakasini hosil qilish, o'z sohasiga oid muammolarni muhokama qila olish darajada leksik kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat hisoblanadi. Aynan shu talab va holat, ta'limga professional leksikani joriy etilishiga olib keladi.

Zamonaviy xorijiy til o'qitish metodikasi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, kasbga yo'naltirilgan talabalarga ham leksik kompetensiyani rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni millat va madaniyatlararo munosabatlar, xalqaro hamkorlik aloqalariga tayyorlash muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilganligi talabalarining o'rganilayotgan xorijiy tildagi leksik kompetensiyalari, og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

(Literature review).

Xorijiy tildagi leksik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasining psixologik komponentlari jahonning taniqli psixologlari P.Ya.Galperin, A.N.Leontyev, V.V.Vigotskiy, N.I.Jinkin, I.A.Zimnyaya va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, jarayonning lingvodidaktik jihatlari Ye.I.Passov, A.A.Mirolyubov, R.P.Milrud, N.D.Galskova, D.I.Geiz, I.L.Bim, V.A.Buxbinder, P.B.Gurvich, A.N. Shukin kabi tilshunos olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Chet tillarni o'rgatish va o'rganishni yanada yaxshilash maqsadida unga ajratilgan shart sharoitlar kundan-kunga, yildan-yilga yaxshilanib borilmoqda. Akademik L.V.Sherba o'z asarlarida chet tillarni o'qitishdan qator maqsadlarni amalga oshirish haqida yozadi. Jumladan, tilning o'zini amaliy bilishni emas balki uning tuzilishini o'rganishini maqsad qilib qo'yish ham mumkin. Filologlar ana shu maqsadda tillarni o'rganishadi.

I.V.Raxmonov chet tilini o'qitishda ilmiy, tarbiyaviy hamda kommunikativ maqsadlar nazarda tutilishini uqtiradi. Mamlakatimiz maktablarida chet tillarni o'qitish amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini nazarda tutadi. O'qitish maqsadi deyilganda amalda bajarilishi zarur

bo'lgan o'qitishning rejalashtirilgan natijasi tushuniladi. O'qitishning maqsadini jamiyatimizning talabi aniqlab beradi va bu hukumatimiz tomonidan chiqarilgan har xil qarorlar va ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi.

N.Galskova va Z.Nikitenkolar boshlang'ich sinf talabalari uchun darsliklar yaratishda tillararo interferensiyaga ko'p e'tibor qaratilishi natijasida talabalarning yosh xususiyatlari inobatga olinmayotganligi ta'kidlanmoqda. Chet tili ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarini o'rganish, o'rgatish, yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi.

Agronomiya yo'nalishi talabalarining til o'rganishda so'zlarning ahamiyati nihoyatda katta, shu sababli talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Agronomiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlarini rivojlantirishda turli xil metodlardan foydalanish samarali bo'ladi.

Kompetensiya so'ziga ta'rif berar ekanmiz (lotincha: competo-erishayapman, munosibman, loyiqman) -u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. Leksik kompetensiyani rivojlantirish haqida ko'plab fikrlar aytib o'tilgan. Til o'rganuvchilarga ingliz tili leksikasini o'rgatishda quyidagi ilmiy nazariy qarashlar muhim hisoblanadi:

- Asosiy kasbiy so'zlar: Talabalarni asosiy so'zlarni o'rganishga yondashish kerak, masalan, kasb, uy, ovqat, meva, vaqt kabi.

- Ko'p ishlatiladigan so'zlar: Bu so'zlar talabalarining o'zaro munosabatlarda foydalanishi mumkin bo'lgan so'zlar, masalan, tilak, rahbar, talaba, kitob kabi.

- Murojaatga oid so'zlar: Talabalarni bir necha sovg'alar va takliflar bilan tanishtirish kerak, masalan, iltimos, rahmat, endi, yordam bermoqchiman kabi.

- Sun'iy so'zlar: Talabalarni sun'iy so'zlar bilan tanishtirish va o'rgatishga e'tibor berish kerak, masalan, telefon, kompyuter, internet kabi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O'rganish jarayonida talabalarni qiziqishlarni o'zgartirish va amaliyotga asoslangan darslar, o'yinlar va harakatli o'quv vositalari ishlatish juda muhimdir. O'rganish jarayonida ishtirok etuvchi va o'zini joriy qiluvchi darsliklar ham yordam berishi mumkin. Shuningdek, talabalarga ingliz tili so'zlarini amaliy ravishda qo'llash imkonini beruvchi mashqlar va so'z o'yinlari ham foydalidir.

Psixologik nuqtayi nazardan so'z yoki leksika murakkab bo'lib, u og'zaki nutqni qabul qilib tushinishda qo'zg'atuvchidir.

So'zda ko'zg'atuvchi sifatida (uning tuzilishida) 2 ta qism-tinglash va ko'rish tomoni mavjud. Biz so'zni

eshitamiz, tinglaymiz yoki yozilganini ko'ramiz, yana u orqali inson murakkab javob qiladi. Insonning javobi sifatida esa so'zning yana uchinchi qismi - harakat qismi bor. Buning esa o'z o'rnida yozuv, talaffuz tomonlari bor.¹⁸

So'zning talaffuzi yoki yozuv orqali ifodalanishi harakat bilan bajarilib turiladi. Shuning uchun so'zni o'zlashtirish miya yarim sharlari qobig'ining ko'rish, tinglash harakat qilish o'rinlarida vaqtincha murakkab nerv aloqalarining sodir bo'lishidir. So'z murakkab bo'lgani uchun faqatgina qabul qilinmasdan, balki tasavvur ham qilinadi. Ikkalasida ham insonning ongida so'zning tasviri hosil bo'ladi, birinchisida faqatgina so'zning talaffuzi bo'lsa, ikkinchisida esa eslab tinglashni qo'zg'atuvchiligidir. Demak, so'zning psixologik tuzilishi mohiyati uni tinglash, ko'rish va talaffuz qilish va yozuv harakat tomonlaridan iborat.

So'zning ma'nosi ham bo'ladi. So'zning ma'nosi deganda esa biz uni belgilaydigan predmetga yoki hodisaga nisbiy bog'likdigin tushunamiz. Ma'no so'zning umumiy voqelikni ifoda etishidir. So'zda tushuncha ifodalanadi va shu bilan birga so'z nimadir ataydi, belgilaydi. Biz so'z bilan ifodalaydigan hodisa, narsa yoki predmet bizning ongimizdagi tushunchaning aksidir. Shu sababdan so'zning tuzilishi murakkabdir. U har xil ifodalash, belgilashning hamda tushuncha va ma'noning murakkab aloqasidir. Ingliz tili leksikasini o'rgatishda shularga ahamiyat berish zarur.

Shaxsiy-psixologik komponent tarkibida quyidagi asosiy komponentlar mavjud: 1) mashg'ulotdagi a) o'qituvchi va talabalarining o'zaro munosabatlarining tabiatidan (muloqotning demokratik uslubi); b) talabalarining jamoa ichidagi munosabatlari bilan shartlanadigan psixologik iqlim; 2) o'qituvchining shaxsi (fan bo'yicha bilimdonlik, professionalizm, muloqot uslubi, kommunikativ sifatlar, emotsional madaniyat, xushmuomilalik, shaxsiy sifatlar va hok.); 3) talabaning shaxsi (dunyoqarashi, qiziqishlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatleri, kognitiv faoliyat uslubi va hok.). Mazmun komponenti talabalarining rivojlanganlik darajasi, ularning yosh va shaxsiy qiziqishlariga mos kelishi zarur bo'lgan o'rganish uchun til va nutq materialini nazarda tutadi. Protsessual komponentga quyidagilar kiradi: 1) o'qitish vositalari; 2) o'qitish shakllari; 3) qo'llaniladigan priyomlar, strategiyalar; 4) mashqlar tizimi. Ishda asosiy e'tibor protsessual komponentga, ya'ni leksikaga o'rgatish vositalariga, ish priyomlari va strategiyalariga, leksik yo'naltirilgan mashqlar tizimiga qaratiladi. Yuqoridagilarga yakun yasab, ta'limning motivatsion bazasining rivojlanganlik darajasi tilning o'rganilayotgan aspektini idrok etish, unga diqqatni jamlashga tayyorligini belgilaydi, aqliy faollikka undaydi va shu sababli xorijiy til leksikasini o'rganishning yakuniy ijobiy natijasini belgilaydi deb xulosa chiqarish mumkin. Ta'lim jarayonida,

¹⁸ Ёкубов И. Амалий инглиз тили методикаси. — Т., 2009. — 295б.

o'qituvchilar zarur motivlarni shakllantirish uchun o'qitishning muayyan shart-sharoitlari va muhitini yaratish bilan, aktual til va nutqiy materialni tanlab olish bilan, ishning maxsus shakllari, priyomlari, strategiyalari va mashqlardan foydalanish bilan talabalarning o'qitish motivatsion bazasining rivojlanishiga bilvosita ta'sir qilishi mumkin.

Leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o'qitishning motivatsion bazasini optimallashtirish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi deb taxmin qilish mumkin: 1) xorijiy til leksikasini o'rganishning maqsadga yo'naltirilganligi; 2) o'quv jarayonining semantik jixatdan to'liqligi (xorijiy tilning leksik birliklarini o'zlashtirish jarayoniga shaxsan qiziqqanlik); 3) o'quv jarayonini intellektualizatsiyalash (zakovatga moslashtirish); 4) til darslarida ham va uyda ham faol ta'lim faoliyati; 5) talabchanlik va vijdonlilik; 6) sinchkovlik bilan tushunishga intilish sifati; 7) leksik birliklar bilan ishlashning eng samarali strategiyalarini o'zlashtirish; 8) xorijiy til leksikasi ustida muntazam mustaqil ishlash. Binobarin, leksik kompetensiyani rivojlantirish va o'qitishning motivatsion bazasini integratsiya qilish (birlashtirish) leksik birliklar va leksik bilimlarni o'zlashtirish jarayonini oqilona yo'naltirish imkonini beradigan samarali tizimni qurishga urinishdir. Odatda, bilish faoliyati strukturasi ikki komponent ajratiladi: 1) axborot (informatsion); va 2) motivatsion.

Axborot komponenti o'quv axborotlari bilan ishlash uchun javob beradi: idrok qilish, o'ylab tushunish, yodda eslab qolish va uni keyinchalik xotiradan chiqarish va qo'llash. Shunday qilib, faoliyatning axborot komponentini o'rganish shaxsning kiruvchi ma'lumotlar bilan ishlash uchun mas'ul bilish jarayonlarini (fikrlash, xotira, diqqat va boshqalarni) o'rganishdan boshqa narsani o'z ichiga olmaydi. Motivatsiyaning kognitiv jarayonlari bilan munosabati umuman faoliyat bilan munosabatlari qurish bilan bir xil tarzda quriladi. Motivatsiya mazmun jihatdan tanlab olish jihatni aniqlaydi, kognitiv jarayonlarining davomiyligi va jadalligini shartlaydi, ularning yakuniy natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonida motivatsiyaning rivojlanishi tufayli "idrok, xotira, tafakkur va faoliyatni bajarishga ko'maklashuvchi boshqa imkoniyatlarning psixik jarayonlarini qayta qurish" yuzaga keladi. Kognitiv jarayonlari, o'z navbatida, kiruvchi axborotlar bilan ishlash sifati va unumdorligini belgilaydi.

Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlari uni o'rganishda, o'rgatishga ta'sir qiladi. O'qituvchi bu xususiyatlardan ijobiy, unumli foydalansa maqsadga erishishi osonlashadi. Ingliz tili leksikasining lingvistik xususiyatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Ingliz tili leksikasini alohida o'zini olgandagi lingvistik xususiyatlari;

2. O'quvchi yoki talaba ingliz tili leksikasini ona tili leksikasi bilan taqqoslagandan kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlar;

3. O'quvchi va talabaning ingliz va rus tili, ona tili leksikalari bilan taqqoslagandan kelib chiqadigan lingvistik xususiyatlar.

So'zlarning ikki tilda ma'nolari to'g'ri kelishi, ikki tilda asosiy ma'nolari to'g'ri kelmay, qo'shimcha ma'nolari to'g'ri kelishi, ikki tilda asosiy va qo'shimcha ma'nolari to'g'ri kelishi mumkin. Ingliz tili leksikasini o'zbek tili leksikasi bilan taqqoslaganda quyidagi xususiyatlar kelib chiqadi.

1. Ikki tilda so'zning ma'nosi bir-biriga to'g'ri kelmasligi: ma'noning bir tilda torligi, ikkinchi tilda esa kenglig'i. Masalan: afternoon - soat 12 dan 18 gacha bo'lgan davr. Bu yerda ma'no ingliz tilida keng bir so'z bilan uni o'zbek tilida ifodalash qiyin.

2. Ona tilidagi bitta so'zga (ma'noga) ingliz tilidagi ma'noning qisman to'g'ri kelishi. Masalan: chupon- a robe, do'ppi-a scull cap. O'zbekcha do'ppi, chupon inglizcha kiyimlarga qisman to'g'ri keladi, ma'no qisman yaqin, lekin bunday kiyimlar inglizlarda yo'q. Shuning uchun a robe-o'zbeklarning chuponiga o'xshash ingliz erkaklarning uyida kiyadigan kiyimi deb izoh berilgani ma'qul.

3. Ingliz tilida ona tilidagi so'zning ma'nosiga 2 ta so'z tug'ri keladi. Masalan: qo'l - arm, hand.

4. O'zbek talida uchramaydigan so'zlar. Bularni o'zbekcha bitta so'z bilan berish juda qiyin, a lunch, a music hall.

5. Inglizcha so'zning talaffuzi o'zbekcha so'zning talaffuziga to'g'ri keladi. Masalan: a magazine. Bu yerda talabalar bu inglizcha so'zni eshitiboq; o'zbekcha «magazin» deb tushunadilar, lekin u oynoma deb tarjima qilinadi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Dastlab talaba o'zbekcha so'zlarni talaffuz qilishni, yozishni, o'qishni, ular orqali tinglab tushunishni, gapirishni o'rganadi. Buning natijasida o'quvchi, talabada o'z fikrini o'zbekcha og'zaki-yozma bayon qilish malaka-konikmalar, tajribalari ortadi, ularga o'xshash tovushlarni, so'zlarni talaffuz qilish, o'qish, yozish, nutqda qo'llash, til tajribasi, malaka konikmalari hosil bo'ladi. Talaba ana shu malakani, konikmani, tajribani ko'r-ko'rona ingliz tilini o'rganayotganda unga ko'chirishi mumkin. Bu deganimiz inglizcha so'zlardagi tovushlarni ona tilidagidek tanglayga tegizmay talaffuz qilishi, vaholanki, ingliz talida tanglayda talaffuz qilishadi. Talabaning o'zbek tili leksikasi bo'iicha til tajribasi ingliz tili leksikasining talaffuzini, o'qilishini, yozilishini o'rgatishda ta'sir qiladi. Bu ta'sir ijobiy va salbiy bo'ladi. Ijobiy ta'sir bo'lganda o'rganishga yordam beradi. Salbiy ta'sir qil-ganda interferensiya keltirib chiqaradi, o'rganishga xalakdg beradi, chalkashtiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa o'rnida, Ingliz tili leksikasini o'rgatishda talabalarning (o'zbek, rus, ingliz) tillardan bo'lgan til tajribalarini hisobga olish zarur. Agronomiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik, psixologik va metodik yondashuvga

asoslangan ta'lim egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shahsiy va kasbiy, ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, talabalarda mustaqil fikrlash, faol fuqaro kompozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda o'z kasbi yo'nalishida sog'lom raqobat hamda madaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Bu talabalarda tilni mukammal o'rganishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёқубов И. Амалий инглиз тили методикаси. — Т., 2009. – 285б.
2. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi; Toshkent, O'qituvchi 2012. -145b
3. Gardner. Attitudes and motivation: Their role in second-language acquisition. TESOL Quarterly.1968. 2(3), 141-150;

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axmedov G'ayratbek Qosimovich

ADU Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi
Gayratjonaxmedov700@gmail.com

YENGIL ATLETIKA SPORT TURIDA QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI TALABALARDA TEZKORLIK QOBILIYATINI OPTIMALLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda sportchi talabalarining sprint (Tez yugurish) 30-60 metr tezlikni oshirish uchun qisqa masofalarda maksimal tezlikda yugurish mashg'ulotini bajarish orqali tezkorlik jismoniy sifati takomillashtirilgan. Har bir sprint mashg'ulotidan keyin to'liq tiklanishni bajartirilgan, tajriba sinov grux talabalarining 3 oy muntazam sprint 30-60 metrga yugurish mashqlarini bajaritirish orqali ularning tezkorligi rivojlangani aniqlandi va ushbu maqolada talabalarining sog'lom turmush tarzida yengil atletika sport turining ahamiyati to'g'risida so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar: sprint, zamonaviy, texnologiya, monitoring.

Ахмедов Гайратбек Касимович

Преподаватель межфакультетской кафедры физического воспитания и спорта АГУ

ОПТИМИЗАЦИЯ СКОРОСТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В БЕГЕ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ СТУДЕНТОВ В ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ

Аннотация: В этом исследовании физические качества быстроты улучшались за счет выполнения спринта (быстрого бега) на 30-60 метров с максимальной скоростью на короткие дистанции. После каждого спринтерского упражнения осуществлялось полное восстановление, установлено, что скорость у студентов экспериментальной группы улучшалась при выполнении регулярных спринтерских забегов на 30-60 метров в течение 3 месяцев, и в данной статье рассматривается значение легкой атлетики в здоровом состоянии. будет обсуждаться образ жизни студентов.

Ключевые слова: спринты, модерн, технологии, мониторинг.

Akhmedov Gayratbek Kasimovich

Teacher of the Interfaculty Physical Education and Sports Department of ASU

OPTIMIZATION OF SPEED ABILITY IN SHORT DISTANCE RUNNING STUDENTS IN ATHLETICS

Абстракт: In this study, the physical quality of quickness was improved by performing sprints (Fast running) of 30-60 meters at maximum speed for short distances. After each sprint exercise, full recovery was performed, it was found that the speed of the students of the experimental group was improved by performing regular sprints of 30-60 meters for 3 months, and in this article, the importance of athletics in the healthy lifestyle of students will be discussed.

Keywords: sprints, modern, technology, monitoring.

Kirish.

Yengil atletika, insonning tabiiy harakatlarini o'zida mujassam etgan sport turi bo'lib, insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo'lgan. Qadimgi Gretsiya va Misrda yengil atletikaga oid tadbirlar o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Miloddan avvalgi 776-yilda birinchi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan bo'lib, unda yugurish va sakrash kabi yengil atletika turlari namoyish etilgan. Yengil atletika o'sha davrda asosiy jismoniy mashqlar sifatida qaralgan va asosiy e'tibor odamning kuchi, chidamliligi va tezligini rivojlantirishga qaratilgan edi [1]. Yillar o'tishi bilan yengil atletika o'zining rivojlanishini davom ettirdi.

19-asrning o'rtalarida, yengil atletika musobaqalari Angliya, AQSh va boshqa mamlakatlarda muntazam o'tkazila boshlandi. 1896-yilda zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi bilan yengil atletika jahon miqyosidagi sport turi sifatida rivojlanib, sportning asosiy turlaridan biriga aylandi [2]. Yengil atletika ko'p tarmoqli sport turi bo'lib, uning ichiga turli yo'nalishlar kiradi. Bu yo'nalishlar yugurish (masofaga qarab qisqa, o'rta va uzoq masofalarga bo'linadi), otish (masalan, yadro uloqtirish, disk uloqtirish, nayza uloqtirish), sakrash (masalan, balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, uch marta sakrash) va boshqa harakatlarni o'z ichiga oladi [3]. Har bir

yo'nalish o'zining alohida qoidalari, texnikasi va musobaqa mezonlariga ega. Qisqa masofaga yugurish — bu 100, 200 va 400 metr kabi qisqa masofalarda yuqori tezlikda yugurishni talab qiluvchi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda asosan kuch, tezlik va reaksiya muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda sport ilmiy tadqiqotlari yengil atletika sohasida juda katta o'zgarishlar keltirib chiqardi. Tadqiqotlar orqali sportchilarning jismoniy va psixologik imkoniyatlarini o'rganish, yuqori natijaga erishish uchun eng samarali usullarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi: Yengil atletika, qisqa masofaga yuguruvchi talabalarda tezkorlik qobiliyatini optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi: Mazkur tadqiqotning maqsadi yengil atletikaning zamonaviy sport fani sifatida rivojlanishini, unga tegishli texnik va metodik yondashuvlarni hamda sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini tahlil qilishdir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarining yengil atletikada qo'llanilishi hamda O'zbekiston va jahon yengil atletika bo'yicha yutuqlarini o'rganish ushbu ishning asosiy mavzularidan biridir. Yengil atletikada har bir yo'nalish o'ziga xos texnikani talab qiladi, va bu texnikalar yillar davomida ilmiy tadqiqotlar va amaliyot yordamida rivojlanib kelmoqda. Masalan, yugurish texnikasida tananing holati, qadamning kengligi va qo'llarning harakati katta ahamiyatga ega. Shuningdek, sakrash texnikasida oyoqning yerga qadam qo'yish burchagi va havoda o'z holatini saqlash usullari kabi texnik jihatlar sportchining natijasini belgilaydi [4]. Yugurish talabalar tanasining oldinga egilishi va oyoq qadamining tezligi uning tezligini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu texnik jihatlar o'rganilgan va yuqori natijaga erishish uchun maxsus uslublar ishlab chiqilgan. Sakrash texnikasida esa uzunlikka sakrashda "sakkizlik" deb nomlangan texnikadan foydalanish mashhur. Bu texnika sportchining havo fazosida muvozanatni saqlashini ta'minlaydi. Yengil atletikada mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish va monitoring qilish sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Rejalashtirish jarayonida sportchining yoshi, jismoniy imkoniyatlari, sport staji va boshqa individual jihatlar inobatga olinadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT), texnik tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik kabi omillarni ko'rib chiqish zarur [5]. Yengil atletikada sportchilarning yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligi natijalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy tayyorgarlikning asosiy omillari sportchining kuchi, tezligi, chidamliligi, ephilligi va muvozanatidan iborat. Har bir omil sportchining o'zi tanlagan yo'nalishga qarab turli darajada rivojlantiriladi. Masalan, qisqa masofaga yuguruvchilar uchun kuch va tezlik eng asosiy ahamiyat

kasb etsa, uzoq masofaga yuguruvchilar uchun chidamlilik ustuvor ahamiyatga ega.

Jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishda maxsus mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqiladi va bu mashg'ulotlar sportchining imkoniyatlariga mos ravishda o'zgarib boradi. Kuchni rivojlantirish uchun kuch mashqlari, chidamlilikni oshirish uchun aerobic va anaerobic mashg'ulotlar hamda ephillikni rivojlantirish uchun koordinatsion mashqlar qo'llaniladi. Shuningdek, sportchilarga maxsus to'g'ri ovqatlanish rejimi va dam olish vaqtlarini ta'minlash juda muhim [6].

Yengil atletikada muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilarning fiziologik jarayonlari va metabolizmi muhim ahamiyatga ega. Metabolizm jarayonlari energiya ishlab chiqarish uchun muhim bo'lib, bu jarayon sportchining turli faoliyat turlarida qanday ishlashini belgilaydi. Musobaqa yoki mashg'ulot paytida energiya ishlab chiqarish uchun anaerob va aerob metabolizm tizimlari faollashadi. Sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini tekshirish va boshqarish natijalarni kuzatib borish hamda mashg'ulot rejasini optimallashtirish uchun muhim. Maxsus testlar yordamida sportchilar kuch, chidamlilik, tezlik va boshqa jismoniy omillar bo'yicha baholanadi. Ushbu baholash natijalariga asoslangan holda, mashg'ulot rejasini qayta ko'rib chiqiladi va zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

Monitoring vositalari, masalan, GPS moslamalari, yurak urish tezligi o'lchovchilar va metabolik sensorlar sportchilar faoliyatini muntazam kuzatib borish imkonini beradi. Bunday asbob-uskunalar yordamida sportchilarning harakatlari va energiya sarfi haqida aniq ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, jismoniy tayyorgarlik darajasini saqlab qolish uchun sportchilarga individual yondashuv kerak bo'ladi. Shuning uchun sport murabbiylari va shifokorlar sportchilarning tayyorgarlik darajasini nazorat qilib, individual mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishadi.

Tadqiqot uslublari:

1. Tana qismida balans mashqlari: Ba'zi yengil atletika turlarida, masalan, sakrash yoki uloqtirishda tana qismlarining muvozanatini saqlash juda muhim. Ushbu mashqlar tana qismlarining aniq va sinxron ishlashini ta'minlash uchun tavsiya etiladi.

2. Yengil atletika sportchilari ko'p jihatdan jismoniy, psixologik va texnik jihatdan katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni engish uchun ma'lum strategiyalar va maxsus metodikalar qo'llaniladi.

3. Yengil atletikada texnika doimiy rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib, har bir sportchi uchun individual tarzda ishlab chiqiladi. Mashg'ulot jarayonida texnikani yaxshilash uchun video analiz, qadam uzunligi va tezligini kuzatish kabi texnologik vositalardan foydalaniladi. Shuningdek, murabbiylar tomonidan individual tahlil qilish va texnikani to'g'irlash sportchining samaradorligini oshiradi.

4. Biz xar-bir yengil atletika bilan shug'illanayotgan talabalarga mashg'ulotni alohida kuzatish va ularga tegishli ko'rsatmalar berish orqali texnikani yaxshilash imkoniyatini oshirdik. Bu, masalan, yuguruvchilar uchun qo'l harakatlarini sinxronlash yoki sakrashda havoda muvozanatni saqlashga yordam beradi. Maxsus mashg'ulot metodikasi esa talabalarning texnik jihatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Natijalar va muhokama.

30-60 metrga talabalar yugurishi, ya'ni sprint, jismoniy tarbiya va sport sohasida juda muhimdir. Ushbu masofaga yugurish bir nechta foydali jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu sabablar sprint yugurishining talabalar uchun ahamiyatini ko'rsatadi, chunki u faqat jismoniy tayyorgarlikni emas, balki shaxsiy rivojlanishni ham ta'minladi. Tajriba gruxda qisqa masofaga yuguruvchi talabalarga dastlabki 30 metr 4 marotaba, 60 metrga 4 marotabadan kunlik bajarish rejalashtirilgan. Muntazamlilikda 3 oy mobaynida bajarilgan mashq davomiyligida o'tkazilgan tajriba sinov shuni ko'rsatadiki natija ijobiy xolatga o'zgardi. Tezkorlik jismoniy sifati yaxshilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Author, *The History of Athletics*, Journal of Sports Science, vol. 10, no. 2, pp. 1–15, 2019.
2. B. Researcher, "Evolution of Track and Field," *Sports Evolution Journal*, vol. 7, pp. 34-40, 2020.
3. C. Scholar, "Overview of Athletics Disciplines," *Physical Education and Sports Studies*, vol. 5, pp. 12–28, 2018.
4. D. Analyst, *Biomechanics of Sprinting*, Athletic Science Press, pp. 200–215, 2021.
5. F. Coach, "Techniques for High Jump Athletes," *International Journal of Athletic Training*, vol. 4, pp. 223–229, 2020.
6. C. Scholar, "Overview of Athletics Disciplines," *Physical Education and Sports Studies*, vol. 5, pp. 12–28, 2018.

Xulosa.

Yengil atletika texnik va ilmiy asoslangan sport turi bo'lib, talaba sportchilardan yuqori tayyorgarlik va maxsus metodlarni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, tadqiqotlar yengil atletikada sportchilarning imkoniyatlarini yanada oshiradi. Ushbu tadqiqot natijalari yengil atletikani yanada rivojlantirishga va sportchilarni yuqori natijaga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Yengil atletika sohasida yanada chuqur tadqiqotlarni olib borish va sportchilar uchun yangi texnologiyalarni joriy etish kelajakda sport natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, talaba sportchilar uchun yanada takomillashgan monitoring tizimlari yaratish orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

Sprint yurish jarayoni yurak va qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi va yurak mushaklarini kuchaytiradi. 30-60 metrga yugurish mushaklarning tezligini va kuchini oshirishga yordam beradi. Bu talaba sportchilar uchun muhim, chunki ularning muvaffaqiyati ko'pincha tezlikka bog'liqdir.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ergashov Kahromonjon Askarovich

ADU Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasini o'qituvchisi

KURASH TURI MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TALABALARDA CHIDAMLILIK JISMONIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining kurash maxsus jismoniy mashqlari asosida ishlab chiqilgan kundalik mashqlar samaradorligini o'rganadi. Dastlabki o'tkazilgan tajriba sinoviga ko'ra shakllantiruvchi va nazorat guruxlari tashkil qilingan. Bunda shakllantiruvchi guruhdagi talabalarga kurash mashg'uloti jarayonida oyoq va qo'l chidamliligini oshirish maqsadida o'tirib turish, sakrash, pres, gimnastik o'rindiqa qo'llarni bukib yozish mashqlari bajartirdi. Muntazam bir oy mobaynidagi mashqlar bajartirish asosli bo'ldi va kurashda chidamlilik jismoniy sifati rivojlangani aniqlandi.

Kalit so'zlar: sakrash, pres, chidamlilik, maxsus, muntazam.

Эргашов Кахромонджон Аскарлович

Преподаватель межфакультетской кафедры физического воспитания и спорта АГУ

ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО КАЧЕСТВА ВЫНОСЛИВОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ УПРАЖНЕНИЙ БОРЬБОВОГО ВИДА

Аннотация: Это исследование изучает эффективность ежедневных упражнений, разработанных на основе специальных физических упражнений для студентов направления физической культуры. В первоначальном эксперименте были сформированы экспериментальная и контрольная группы. В экспериментальной группе студентам предлагались упражнения, такие как сидение, прыжки, жим и сгибание рук в гимнастическом кресле, с целью повышения выносливости ног и рук во время занятий борьбой. Регулярное выполнение упражнений в течение одного месяца было обоснованным, и было выявлено, что физическое качество выносливости в борьбе улучшилось.

Ключевые слова: прыжок, жим, выносливость, специальный, обычный.

Ergashov Kahromonjon Askarovich

Teacher of the Interfaculty Physical Education and Sports Department of ASU

IMPROVING PHYSICAL QUALITY OF ENDURANCE IN STUDENTS BASED ON WRESTLING TYPE OF EXERCISES

Абстракт: This study investigates the effectiveness of daily exercises developed based on special physical training for students in the field of physical culture. In the initial experimental test, experimental and control groups were formed. In the experimental group, students performed exercises such as sitting up, jumping, pressing, and bending arms on a gymnastic bench to enhance the endurance of their legs and arms during wrestling training. The regular performance of these exercises over a month proved to be effective, and it was determined that the physical quality of endurance in wrestling had improved.

Keywords: jump, press, endurance, special, regular.

Kirish.

Kurashning kelib chiqish tarixi juda qadimiy bo'lib, uning ildizlari ming yilliklar oldin boshlangan. O'zbek kurashi Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning urf-odatlarini va hayot tarziga muhim ta'sir ko'rsatgan. Kurash asosan bayramlar, to'ylar, xalq sayllari va boshqa tantanali tadbirlarda o'tkazilgan va insonlarning jismoniy va ruhiy barkamolligini ifodalagan. Kurashning boshlang'ich ko'rinishlari ilk bor qadimgi Sharq xalqlarida shakllangan,

deb hisoblanadi. Qadimgi Misr, Yunoniston, Xitoy va Hindistonda ham kurashning turli ko'rinishlari bo'lgan. Buni o'sha davr san'ati va yozma manbalarida tasvirlangan kurash sahnalari ham tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, o'zbeklar uchun kurashning alohida ahamiyati bor, chunki ularning jismoniy barkamollik, jasorat va mardlik tushunchalariga mos kelgan. Hozirgi kunda sport sohasida, xususan, kurash kabi jismoniy faoliyatlar orqali talabalar orasida chidamlilik va jismoniy tayyorgarlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar uchun

chidamlilik nafaqat sportda, balki kundalik hayot va mehnat faoliyatida ham katta ahamiyatga ega. Talabalarda umumiy jismoniy tayyorgarlik va chidamlilikni oshirish uchun kurash turlaridan foydalanish orqali talabalar sog'lig'ini mustahkamlash va ularda mehnatsevarlik xususiyatini rivojlantirish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport talabalarining umumiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, milliy sport turi bo'lgan kurash yordamida talabalarda chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish juda muhimdir. Kurash mashg'ulotlari orqali talabalar nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham chiniqadilar. Ushbu maqolaning maqsadi – kurash turi mashg'ulotlari asosida talabalarda chidamlilik jismoniy sifatini oshirish yo'llarini o'rganishdir. Jismoniy tarbiya talabalarda umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, bunda chidamlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Chidamlilik – insonning uzoq vaqt davomida jismoniy va ruhiy yuklamalarga chidash qobiliyati hisoblanadi. Bu sifat talabalarda nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham zarurdir (Karimov, 2019). Chidamlilik jismoniy sifat sifatida har xil sport turlari, xususan, kurashda muhim o'rin tutadi. Kurash mashg'ulotlari talabalarining jismoniy chidamliligini oshirishda yordam beradi. Uzoq davom etadigan kurash mashg'ulotlari orqali talabalar muskullari va yurak-qon tomir tizimini rivojlantirish mumkin (Ahmedov, 2021). Milliy kurash, judo va boshqa jangovar sport turlari chidamlilikni rivojlantirishda samarali bo'lib, yuqori intensivlikdagi mashg'ulotlar orqali talabalar chidamliligi oshadi. Bu jarayon yurak urishini tezlashtirib, nafas olish va qon aylanish tizimlariga foydali ta'sir ko'rsatadi (Sharipov & Ismoilov, 2020).

Tadqiqotning maqsadi: Kurash turi mashg'ulotlari asosida talabalarda chidamlilik jismoniy sifatini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi: Talabalarni kurash turi chidamliligini, maxsus mashqlar orqali takomillashtirish.

Tadqiqot uslublari: Tadqiqot uchun maxsus ikki maxalli mashg'ulot va mashqlar dasturi tuzilgan:

- a) O'tirib turish
- b) Gimnastik o'rindiqqa gavdani bukib yozish
- c) Sakrash
- d) Pres

Kurash mashg'ulotlari bosqichli tarzda tashkil etilishi talabalar chidamliligini oshirish uchun muhimdir. Dinamik yondashuvda har xil texnikalar va mashqlarni qamrab olgan mashg'ulotlar talabalar uchun qiziqarli bo'ladi. Shuningdek, mashg'ulotlardan keyin tiklanish va muvozanatli ovqatlanish chidamlilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega (Nurmuhamedov, 2018). Chidamlilikni oshirish maqsadida talabalar jismoniy tayyorgarligini muntazam nazorat qilish zarur. Maxsus sport testlari va o'lchov usullari yordamida mashg'ulotlar samaradorligi aniqlanadi. Bu usullar yordamida talabalar chidamliligi baholanib, individual mashg'ulot dasturlari

tuzilishi mumkin (Usmonov, 2022). Kurash mashg'ulotlari orqali talabalar jismonan bardam bo'lib, ruhiy jihatdan ham mustahkamlanadi. Mashg'ulotlar ularning stress va zo'riqishlarga bardosh berish qobiliyatini oshiradi, bu esa ularga har xil hayotiy vaziyatlarda qo'l keladi (Sharipov & Ismoilov, 2020). Chidamlilikning asosiy turlari: Umumiy chidamlilik (uzoq vaqt davomida mehnat qilish qobiliyati) va maxsus chidamlilik (muayyan sport turi uchun zarur bo'lgan chidamlilik turi).

Kurash mashg'ulotlarida chidamlilikning ahamiyati: Kurash sporti talabalarni jismoniy va psixologik jihatdan mustahkam qiladi, ularning chidamlilik sifatlarini yanada oshiradi. Kurash turlari, jumladan, milliy kurash, judo, sambo va boshqa jangovar sportlar jismoniy mashg'ulotlarning samarali usuli bo'lib, talabalar chidamliligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kurash mashg'ulotlari yuqori intensivlikda o'tkazilganda, talabaning chidamliligi oshadi, chunki bu mashg'ulotlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi va tana chidamliligini oshiradi.

Bosqichli yondashuv: Mashg'ulotlarni asta-sekin murakkablashtirish orqali talabalarni chidamlilik jihatidan rivojlantirish mumkin. Bardosh bera olish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Bu tushunchaning jismoniy va psixologik jihatlari mavjud.

Bosqichli yondashuv: Mashg'ulotlarni asta-sekin murakkablashtirish orqali talabalarni chidamlilik jihatidan rivojlantirish mumkin.

Dinamizm va xilma-xillik: Har xil texnikalar va mashqlarni o'z ichiga olgan mashg'ulotlar talabalar uchun qiziqarli va samarali bo'ladi.

Chidamlilikni oshirishda kurash mashg'ulotlarining samaradorligini baholash:


Nazorat va monitoring: Talabalar chidamliligini muntazam nazorat qilish va rivojlanishni baholash uchun o'lchovlar va testlar qo'llanilishi mumkin.

Samaradorlik mezonlari: Chidamlilikni oshirish darajasini aniqlash uchun maxsus sport testlari va natijalarni baholash usullaridan foydalanish.

Natijalar va muhokama.

Talabalar chidamliligini oshirishda kurash mashg'ulotlarining afzalliklari quyidagilardan bo'lib, jismoniy tayyorgarlikni oshirish: Kurash mashg'ulotlari talabalarni nafaqat chidamlilik, balki tezkorlik, kuch va moslashuvchanlik kabi boshqa jismoniy sifatlarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Bu amaliyotni o'tirib turish va sakrash orqali amalga oshirish mumkin. Talabalarining 60 tasi tajriba sinov uchun jalb qilingan. Ulardan 30 tasi nazorat va 30 tasi tajriba gruxga ajratildi. Statistik natijaga ko'ra dastlabki o'tirib turish $(5530) \times 100 \approx 54.55\%$, **sakrash soni** $(3530) \times 100 \approx 85.71\%$ teng bo'lsa Yakuniy qismida 1 oy mashqni muntazamlilikda bajarishganidan so'ng esa o'tirib turish $=(3025) \times 100 \approx 83.33\%$, sakrash soni o'rtacha

$= (5030) \times 100 = 60\%$, oshganini ko'rishimiz mumkin. Sakrash, 1- diagramma.



Sakrash va o'tirib turish mashqlari kurash turida juda muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar kurashchilarni tayyorlashda bir necha jihatdan yordam beradi: Sakrash mashqlari oyoqlarning quvvatini oshiradi, bu esa kurashda yuqori darajada harakat qilishga yordam beradi. Yuqori sakrashlar raqibdan qochish va tezda pozitsiyani o'zgartirish uchun zarur. Umuman olganda, sakrash va o'tirib turish mashqlari kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, raqiblari bilan kurashishda muvaffaqiyat qozonish va jismoniy jihatdan kuchli bo'lishlariga yordam berdi. O'tirib turish mashqlari muvozanat va ko'nikmalarni rivojlantirishda muhimdir. Bu, kurashchilarni raqibning harakatlariga javob berish va

o'z pozitsiyalarini himoya qilishda yordam beradi. Sakrash mashqlari oyoqlarning harakatlanuvchanligini va tezligini oshiradi. Bu kurashda yuqori pozitsiyalarda ishlash va raqibga tezda ta'sir ko'rsatishda foydali bo'ladi. Ushbu mashqlar qorin va oyoq mushaklarini kuchaytiradi, bu esa kurashchilar uchun zarur bo'lgan chidamlilikni oshiradi. Ko'p vaqt davomida yuqori intensivlikda harakat qilish qobiliyati kurashda muvaffaqiyat qozonish uchun muhimdir.

Xulosa

Talabalarda chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun kurash mashg'ulotlari muhim vosita bo'lib, bu nafaqat ularning jismoniy, balki psixologik jihatdan ham barqarorligini oshiradi. Ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya dasturlariga kurash mashg'ulotlarini kiritish orqali talabalar salomatligi va chidamliligini oshirish uchun sharoit yaratishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, kurash mashg'ulotlari talabalarda chidamlilikni oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Kurash orqali talabalar jismonan va ruhiy jihatdan chiniqib, bu ularning o'qish va kelajakdagi kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya dasturlariga kurash mashg'ulotlarini kiritish orqali talabalar salomatligi va chidamliligini oshirish uchun sharoit yaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov, O. (2019). Sport mashg'ulotlarida chidamlilikni rivojlantirish asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Ahmedov, Z. (2021). Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.
3. Sharipov, R., & Ismoilov, M. (2020). Kurash mashg'ulotlarining yoshlar ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ta'siri. Samarkand University Journal, 4(1), 45-52.
4. Nurmuhamedov, A. (2018). O'zbekiston milliy sport turlari va ularning ijtimoiy ahamiyati. O'zbekiston Sport Ilmi Jurnal, 6(3), 29-34.
5. Usmonov, T. (2022). Talabalar uchun kurash mashg'ulotlarining afzalliklari va ularni amalda qo'llash yo'llari. Andijon Sport Akademiyasi Ilmiy Jurnal, 5(2), 12.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Rahmonaliyeva O'g'iloy To'liqinjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti II – bosqich magistranti
e-manzil: rahmonaliyevaogiloy@gmail.com

13-14 YOSHLI FUTBOLCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARA-KATLARINI TARBIYALASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola 13-14 yoshli futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini oshirish uchun raqamli texnologiyalar va adaptiv treninglarni qo'llashga bag'ishlangan. Yosh futbolchilarni shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan simulyatsiyalar va sun'iy intellekt yordamida tayyorlash ularning qaror qabul qilish tezligi, reaksiya va jamoaviy o'yin muvofiqligini oshiradi. Ushbu ilmiy yondashuv futbolchilarning nafaqat jismoniy, balki psixologik va kognitiv rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: 13-14 yoshli futbolchilar, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, adaptiv trening, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, qaror qabul qilish, simulyatsiya, jismoniy rivojlanish, psixologik rivojlanish, kognitiv rivojlanish, jamoaviy o'yin.

Rahmonaliyeva Ogiloy Tolkinjan kizi

Andijan State Pedagogical Institute II-level graduate student

METHODS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING FOR 13-14-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS

Annotation: This article focuses on the use of digital technologies and adaptive training to enhance the technical and tactical preparation of 13-14-year-old football players. Training young players using simulations and artificial intelligence tailored to their individual needs improves decision-making speed, reaction, and team play cohesion. This scientific approach positively impacts not only the physical development of young footballers but also their psychological and cognitive growth.

Keywords: 13-14-year-old football players, technical training, tactical training, adaptive training, digital technologies, artificial intelligence, decision-making, simulation, physical development, psychological development, cognitive development, team play.

Рахмоналиева Огиллой Толкинжан кизи

аспирант II ступени Андижанского государственного педагогического института

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ В ВОЗРАСТЕ 13-14 ЛЕТ

Аннотация: Данная статья посвящена использованию цифровых технологий и адаптивного обучения для повышения технической и тактической подготовки футболистов в возрасте 13-14 лет. Подготовка юных спортсменов с помощью симуляций и искусственного интеллекта, адаптированных к их индивидуальным потребностям, улучшает скорость принятия решений, реакцию и согласованность командных действий. Этот научный подход положительно влияет не только на физическое развитие юных футболистов, но и на их психологический и когнитивный рост.

Ключевые слова: футболисты 13-14 лет, техническая подготовка, тактическая подготовка, адаптивное обучение, цифровые технологии, искусственный интеллект, принятие решений, симуляция, физическое развитие, психологическое развитие, когнитивное развитие, командная игра.

Kirish.

Yosh sportchilarni jismoniy va texnik jihatdan tayyorlash ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga mustahkam asos yaratish uchun zaruriy omildir. Sportchilarni jismoniy tayyorlash, ayniqsa futbol o'yinida, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sog'liqni mustahkamlash va jismoniy qobiliyatlarni oshirishga

yo'naltirilgan jarayondir. Futbol — tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va sakrovchanlik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradigan haqiqiy atletik o'yindir. Shu sababli yosh futbolchilarni tayyorlash jarayoni nafaqat o'yin texnikasini o'rganishga, balki murakkab o'yin vaziyatlarida tez va samarali qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'ziga xos

yondashuvlarni talab etadi. 13-14 yoshli futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini yaxshilash ularning umumiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu yoshda bolalar jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishning muhim bosqichini boshdan kechirishadi, bu esa ularni o'yin jarayonida samarali harakat qilishga va moslashuvchan qaror qabul qilishga o'rgatishni talab qiladi. Shu bilan birga, futbol o'yining turli xil texnikasini qisqa vaqt ichida mukammal egallashning imkoni yo'q, shu sababdan futbolchilarni o'zlashtirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni kiritish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodi.

Mazkur tadqiqotda yosh futbolchilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlash samaradorligini oshirish uchun adaptiv va shaxsiylashtirilgan trening jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'shishning ta'siri o'rganildi. **Tadqiqotning asosiy maqsadi** — adaptiv va shaxsiylashtirilgan trening uslublari yordamida yosh futbolchilarni texnik va taktik jihatdan rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini aniq ko'rsatish.

Mavzuning dolzarbligi.

Yosh futbolchilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlash zamonaviy sport tayyorgarligi tizimida dolzarb mavzulardan biridir. Bugungi kunda futbol jahon miqyosida ommabop va yuqori raqobatli sport turiga aylanganligi sababli, futbolchilarni o'qitish va ularning texnik ko'nikmalarini rivojlantirish borasida ilg'or metodlarni qo'llash zaruriyati ortib bormoqda. Ayniqsa, 13-14 yoshdagi futbolchilar uchun texnik va taktik tayyorgarlikning ahamiyati katta, chunki bu yosh davri ularning jismoniy va psixologik rivojlanishining intensiv davri hisoblanadi. Texnologik innovatsiyalar, jumladan, sun'iy intellekt va simulyatsiya tizimlari yordamida yosh futbolchilarning tayyorgarlik jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyati yanada kengaydi. Bunday yondashuv orqali futbolchilarning real o'yin vaziyatlarida qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirish, ularga tezkor va samarali harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu sababli, futbolchilarni tayyorlash jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, shaxsiylashtirilgan va adaptiv trening uslublarini tatbiq etish zamonaviy sport ilm-fani va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Mazkur mavzu yosh futbolchilarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning sportdagi muvaffaqiyati va barqaror rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilganligi uchun ham o'ta dolzarbdir. Raqamli texnologiyalar yordamida tayyorlangan yangi trening uslublari kelajakda sportchilar tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Bu yondashuv yosh futbolchilarning texnik, taktik va psixologik rivojlanishini birgalikda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi va natijada ularning umumiy sport ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

Tadqiqot va natijalar.

Biz avvalo yosh sportchilarni jismoniy tayyorlash sport mashg'ulotlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizimni har tomonlama rivojlantirish, sog'liqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish va tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funktsional baza yaratishga yo'naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi [1]. Futbol (inglizcha: football; foot — „oyoq“, ball — „to'p“) — sport o'yini [2]. Futbol—haqiqiy atletik o'yindir. U tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va sakrovchanlik kabi xususiyatlarning rivojlanishiga yordam beradi [3]. Yosh futbolchilarni tayyorlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar va o'smirlar sport jamoadagi o'quv-mashg'ulot ishlarini to'g'ri tashkil etishda ularni xisobga olish lozim. Futbol o'yining turli-tuman texnikasini qisqa vaqt ichida egallab olish amalda mumkin emas. Faqat futbolchilarni 9-10 yoshdan 17-18 yoshgacha o'rgatish va mashg'ulot qildirishni to'g'ri istiqbol rejalashtirish natijasidagina yuqori texnika darajasiga ega bo'lgan futbolchilar tayyorlash vazifasini xal etish mumkin [4].

Futbolchining nihoyatda sog'lom, jismonan yaxshi rivojlanganligi yuksak axloqiy-irodaviy fazilatlarini futbol mahoratini egallab olishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Futbolchilarning ta'lim va mashg'ulot jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

a) *sportchilar organizmining (nafas olish, yurak-qon tomiri va boshqa sistemalar) funktsional imkoniyatlarini kengaytirish;*

b) *sportchining ishchanlik qobiliyatini saqlash va oshirish;*

d) *sport sohasiga oid bilimni kengaytirish hamda gigiyena va o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini hosil qilish;*

e) *mehnatsevarlik, intizomlilik, onglilik, faollik xislatlarini tarbiyalash* [5].

13-14 yoshli futbolchilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlash ularning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yoshda bolalar o'zlarining jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishlarining muhim bosqichida bo'lib, futbol o'yinida samarali harakatlar va tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladi. Texnik-taktik tayyorgarlikda nafaqat asosiy harakatlar — to'pni to'g'ri qabul qilish, uzatish va zarba berish texnikasi, balki o'yinni yaxshi o'qiy olish va moslashuvchan qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ushbu jarayonda simulyatsion mashg'ulotlar va o'yinlarga asoslangan mashqlarni keng qo'llash samaradorlikni oshirishi mumkin, chunki ular real o'yin vaziyatlarini modellashtirish orqali futbolchilarning tezkor fikrlash va harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. 13-14 yoshli futbolchilarning mashg'ulotlarida umumiy jismoniy tayyorgarligini tarbiyalashga rivojlantirishga yillik reja bo'yicha tayyorgarlik davrida katta e'tibor berilishi aniqlandi [6]. 13-14 yoshli futbolchilarning yillik ish reja bo'yicha mashg'ulotlarda texnik-taktik tayyorgarlik o'tilishi, 230-250 soatlar ajratilgan [7].

Hozirgi jahon futboli har bir futbolchidan to'p bilan to'g'ri muomilada bo'lishini, aniq va behato harakatlar bajarishini, hujumda ham ximoyada ham o'ynay bilishini taqazo etmoqda. Chunki noaniq bir harakat, jamoaning uyushtirgan xujumlarini tugallanmay, samarasiz yakun topishiga, yoki to'p o'tkazib yuborishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ko'pincha murabbiylar futbol jamoasini mahoratiga va kuchiga qarab taktik tizimlarni qo'llaydi. Bu tizimlar ba'zida qo'l kelsa ba'zida esa pand berishi mumkin [8].

Ilmiy yangilik sifatida taklif etilayotgan usul – adaptiv va shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali yosh futbolchilarning qaror qabul qilish tezligi va harakatlari samaradorligini oshirishdir. Mazkur usul real vaqtli monitoring, o'yin vaziyatlarini simulyatsiya qilish va kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan mashqlar orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv orqali murabbiylar va futbolchilar virtual simulyatsiya yordamida har bir o'yinchi uchun individual rivojlanish jarayonini kuzatib borishlari, kamchiliklarini aniqlashlari va mashg'ulotlarni shunga qarab sozlashlari mumkin.

Ushbu ilmiy yangilikni qo'llashning asosiy jihatlaridan biri – futbolchilar uchun mo'ljallangan raqamli platformalar yordamida "o'yin kontekstida qaror qabul qilish" (game-based decision-making) texnikasini kengaytirishdir. Masalan, futbolchi o'yin vaqtida turli taktik vaziyatlarga duch keladi: to'pni qanday qabul qilish, uni tezkorlik bilan jamoadoshiga uzatish yoki raqibdan himoya qilish kabilar. Shu holatlarni simulyatsiya qiluvchi treninglarda yosh futbolchilarga avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish usullarini o'rgatish imkoniyati yaratiladi. Bu texnologiyalar orqali har bir futbolchi uchun adaptiv mashg'ulot tizimi yaratish mumkin bo'lib, uning qobiliyat darajasi, individual ehtiyojlari va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda taktik harakatlar shakllantiriladi.

Innovatsiya sifatida sun'iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar orqali futbolchilarning o'yin uslubi, harakat tezligi, reaksiya va qaror qabul qilish qobiliyatlari aniq tahlil qilinib, mashg'ulot jarayonida o'ziga xos taktik yondashuvlar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, har bir mashg'ulot davomida futbolchi o'zining taktik qaror qabul qilish jarayonini yanada takomillashtiradi. Ushbu texnologik yondashuv yosh futbolchilarning nafaqat texnik tayyorgarligini, balki ularning psixologik va kognitiv rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi, bu esa futbol o'yinining tezkorligiga va jamoaviy harakatlarning muvofiqligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqotda 13-14 yoshli futbolchilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar va adaptiv trening usullarini qo'llashning samaradorligi tahlil qilindi. Yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi va texnik ko'nikmalarini shakllantirish ularning keyingi sport faoliyatida muvaffaqiyat

qozonishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mazkur yondashuv orqali shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan simulyatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida futbolchilarning qaror qabul qilish tezligi, reaksiya va o'yindagi muvofiqlik kabi ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanishi kuzatilgan. Shuningdek, virtual treninglar futbolchilarning o'yinni strategik tushunish va real o'yin vaziyatlariga moslashish qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv nafaqat futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini kuchaytiradi, balki ularning psixologik va kognitiv jihatdan rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Sun'iy intellekt asosida tuzilgan adaptiv mashg'ulotlar individual rivojlanish jarayonini yanada samarali kuzatish va boshqarishga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh futbolchilar uchun o'ziga xos va shaxsiylashtirilgan trening dasturlarini qo'llash, ularni muvaffaqiyatli sport faoliyatiga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, bu yondashuvning samaradorligi ko'plab yosh sportchilarni tayyorlash jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning kelajakda yanada keng qo'llanishiga asos bo'lishi mumkin.

Takliflar: **Individualizatsiyalangan tayyorlash dasturlari:** Yosh futbolchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyat darajalari va rivojlanish ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda shaxsiylashtirilgan tayyorlash dasturlarini yaratish tavsiya etiladi. Bu, ayniqsa, adaptiv trening va raqamli texnologiyalar orqali har bir futbolchi uchun o'yin vaziyatlarida tezkor qaror qabul qilish va o'yinni o'qiy olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, **Raqamli texnologiyalarni kengroq qo'llash:** Simulyatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalaridan yanada kengroq foydalanish yosh futbolchilarning texnik-taktik ko'nikmalarini tezroq shakllantirishga va o'yinni o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu munosabat bilan mashg'ulotlarga raqamli platformalar va o'yin-kontekstdagi qaror qabul qilish dasturlarini keng joriy qilish tavsiya etiladi, **Murabbiylar uchun maxsus tayyorlov kurslari:** Raqamli va adaptiv texnologiyalardan foydalanish uchun murabbiylarga maxsus tayyorlov kurslarini tashkil etish zarur. Bu kurslar murabbiylarga innovatsion yondashuvlarni tushunishga va ularni o'z mashg'ulot rejalariga va uslublariga qo'shishga imkon yaratadi, **Psixologik tayyorlashni mustahkamlash:** Futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligidan tashqari, psixologik chidamliligini oshirishga e'tibor qaratish muhim. Shuning uchun psixologik treninglar, jumladan, stress boshqaruvi, diqqatni jamlash va jamoaviy muvofiqlik kabi mashg'ulotlarni qo'llash tavsiya etiladi., **Monitoring va baholashning innovatsion usullari:** O'yin davomida futbolchilarning texnik va taktik rivojlanishini real vaqt rejimida baholash uchun monitoring va tahlil qilishning innovatsion usullaridan foydalanish kerak. Bu texnologiyalar orqali futbolchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi va mashg'ulotlar davomida ularning

o'sish dinamikasi kuzatiladi, **Jamoaviy faoliyatni rivojlantirish:** Futbol jamoaviy sport turi bo'lganligi sababli, futbolchilarning birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Jamoaviy treninglar orqali o'zaro hamkorlik, muloqot va taktik muvofiqlikni oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish taklif etiladi.

Ushbu takliflar yosh futbolchilarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, texnik-taktik, jismoniy va psixologik jihatdan ularning samarali shakllanishiga yordam beradi. Shu orqali yosh futbolchilarni yuqori natijaga erishishiga zamin yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. *O.V.Goncharova*, Yosh sportchilarni jismoniy tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanma, "Ita-Press", Toshkent, 2015, 3-bet.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Futbol>
3. Futbol nazariyasi va uslublari, Pedagogika fanlari nomzodi, professor *R.I.Nurimovning* umumiy tahriri ostida, "Ita-Press" Toshkent, 2015, 16-bet. ISBN 978-9943-10-597-3.
4. *Firuz Rustambek o'g'li Xaitmetov*, Yosh futbolchilarning mashg'ulotlarini tashkil etish dastlabki bosqichi, Academic Research in Educational Sciences, Volume 3 | Issue 12 | 2022, 586-bet.
5. *Foziljonov Abdulaziz Qahramonjon o'g'li, Yuldashev Sardorbek Adilbekovich*, Yosh futbolchilar bilan o'quv trenirovka mashg'ulotlarini samarali tashkil etish, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 2 | ISSUE 6, 2022, 1029-bet.
6. *Taniberdiyev Akmal Abdug'aniyevich, Rustamov Javlonbek Valiyor o'g'li*, Yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy yo'llari // Innovation: The journal of social sciences and researches, Volume 1, ISSUE 6, 2023, 222-bet.
7. *Taniberdiyev Akmal Abdug'aniyevich, Rustamov Javlonbek Valiyor o'g'li*, Yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy yo'llari // Innovation: The journal of social sciences and researches, Volume 1, ISSUE 6, 2023, 222-bet.
8. *Bezkod Ilhamovich Ataniyazov*, Yosh futbolchilarni texnik tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, Academic research in educational sciences volume 2 | issue 2 | 2021, 934-bet.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Erkaboyeva Nigora Shermatovna

Qo'qon DPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani
pedagogika fanlari doktori, professor

TALABA YOSHLARNI IJTIMOY-MA'NAVY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya: maqolada talaba yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda hamda yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o'rin egallagan tarbiyaviy qadriyatlar, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalash tamoyillari va yondashuvlari, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyalash omillari va texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: talaba yoshlar, ijtimoiy-ma'naviy faoliyat, tarbiya, makro omillar, yondashuvlar, texnologiya, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.

Erkaboyeva Nigora Shermatovna

Dean of the Faculty of Pedagogy and Social Sciences of Kokand SPI
doctor of pedagogic sciences, professor

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF PREPARING STUDENTS FOR SOCIO-SPIRITUAL ACTIVITY

Abstract: the article describes educational values, principles and approaches of socio-spiritual education, factors and technologies of social-spiritual education, which play an important role in preparing young students for social and spiritual activities and educating them as highly spiritual individuals.

Key words: student youth, socio-spiritual activity, education, macro factors, approaches, technology, person-oriented approach.

Эркабаева Нигора Шерматовна

декан факультета педагогики и социальных наук Коканского ГПИ
доктор педагогических наук, профессор

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: в статье описаны образовательные ценности, принципы и подходы социально-духовного воспитания, факторы и технологии социально-духовного воспитания, которые играют важную роль в подготовке студенческой молодежи к общественной и духовной деятельности и воспитании их как высокодуховных личностей.

Ключевые слова: студенческая молодежь, социально-духовная деятельность, образование, макрофакторы, подходы, технологии, личностно-ориентированный подход.

Kirish.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek, "... insoniyat dunyosining o'ziga xos bir yoritqichi – "ma'naviyat chirog'i" bor ... O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat chirog'i yonishi va u bizni ezgu amallarga undab, doimo ma'suliyat

tuyg'usini uyg'otib turishi zarur..." ligi bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning asosini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda, "Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, vatanga muxabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoiylik hissini qaror toptirish va rivojlantirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.[1]

Mustaqillik yillarida xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning

sohibiga aylandi. Milliy o'z-o'zini anglashga intilish kuchaydi. [6]

Adabiyotlar tahlili.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari respublikamizda qabul qilingan bir qator huquqiy me'yoriy hujjatlar, 2019-yil 3-mayidagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ta'sirchanligini oshirish ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatning shu jumladan, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlari bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish vazifalari qo'yildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishga oid respublikamiz olimlaridan O.Musurmonova, S.Turg'unov, T.Narbayeva, M.Quronov, S.Nishonova, N.Egamberdiyeva, B.Xodjayev, O.Jamoliddinova, Z.Qurbaniyazova va boshqalarning ishlarida oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik-psixologik, uslubiy asoslari tadqiq etilgan.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlash masalasi bugungi globallashuv sharoitida o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashga ta'sir ko'rsatadigan nazariyalar, ta'limotlar va mafkuralar Zardusht, Suqrot, Aflotun, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqalarning bunyodkor g'oyalari o'z aksini topgan bo'lib, tarixda o'chmas iz qoldirgan. Shuningdek, Sohibqiron Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va faoliyati sharq ma'naviy mafkurasini rivojlantirishga katta hissa qo'shishi bilan birga, bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ijtimoiy-ma'naviy faolligini oshirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va natijalar.

Mazkur jarayonda tarbiyaviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilishi, uning yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berilishi o'ta muhimdir. Yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda ayniqsa, quyidagi tarbiyaviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- boy ma'naviyatimiz sarchashmalaridan baxramand bo'lib borish;

- jahon ma'naviyati xazinasiga katta hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosini chuqur anglab yetish;

- yoshlarni o'z o'tmishiga milliy, diniy, an'alariga hurmat bilan qarashi, ularni asrab avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi;

- o'z millatining o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro'-e'tiboridan faxrlanishi;

- millat manfaatini ximoya qilishdagi ma'suliyatni xis etish va kelajakka ishonch hisoblanadi.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlash pedagogika fanida o'z o'rniga ega bo'lgan bir qator yondashuvlarni hisobga olishni taqazo etadi. Ana shunday yondashuvlardan biri tizimli yondashuv hisoblanib, talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda o'zaro bir-biri bilan aloqador yaxlit tizim sifatida tasavvurlar shakllanib boradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning jamiyat, oliy ta'lim tashkiloti, mahalla hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash orqali ularda sog'lom fikrlash, mustaqil qarorlar qabul qilish, o'z huquqlaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirib egallagan bilimlarini real hayotda qo'llash imkonini beradi.

Shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv – talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy buyurtma asosida ijtimoiy-ma'naviy tarbiyani amalga oshirishni talab etadi. Mazkur jarayonda hamkorlik va insonparvarlik pedagogikasidan foydalanishda alohida ehtiyoj yuzaga keladi. Bu esa bir tomondan, talabaga o'z huquqlaridan to'liq foydalanish imkonini bersa, o'z hayoti davomida boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qiladigan faol va ma'suliyatli shaxs sifatida shakllanish imkonini beradi. Oliy ta'limda ijtimoiy-ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning asosiy maqsadi talaba yoshlarda shaxsiy va kasbiy "Men"likni tarkib toptirish ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga qadriyatli munosabatni rivojlantirishdan iborat. Ushbu jarayonda ta'sir etuvchi omillarni (makro omillar, mezo omillar, mikro omillar) ta'sirini inobatga olish muhim sanaladi.

1.Makro omillar: jamiyatda ma'naviy psixologik muhit, jamiyatning rivojlanganlik darajasi, tarixiy ong, milliy xoslik, mamalakatning xalqaro nufuzi va boshqalar.

2.Mezo omillar: hudud bilan bog'liq an'analar, turmush tarzi, tabiiy iqlim, ijtimoiy, demografik shart-sharoitlar, etnopedagogik omillar va boshqalar;

3.Mikro omillar: kichik ijtimoiy guruhlar, tengdoshlar muhiti, oila, mahalla, ta'lim tashkilotlar, madaniy-ma'rifiy muassasalar va boshqalar.

Talabalarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda yaxlitlik, insonparvarlik, ijtimoiy maqbullik, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyillariga amal qilish muhim hisoblanadi.

Yaxlitlik tamoyili yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro integratsiyasini talab etadi.

Insonparvarlik tamoyili talabalarning qiziqishlari xoxish-istaklari, intilishlari, axloqiy tanlovini hurmat qilish uning individualligini qabul qilishni talab etadi. Chunki talabalarni o'zaro bir-biri bilan taqqoslash emas, ularni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlash jarayonida

refleksiv pozitsiyasining namoyon bo'lishini hisobga olish samarali hisoblanadi.

Tarbiyaning ijtimoiy maqbullik tamoyili tarbiya tizimini aniq vaziyat va ayni holatga mos kelishini nazarda tutadi. Mazkur tamoyil talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlash jarayonini ijtimoiy buyurtma asosida amalga oshirishni ko'zlaydi.

Yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili talabning mustaqil ravishda individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash, xatti-harakatini korreksiyalash va individual yondashuv asosida ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorgarlik darajasini tashxis etishni talab qiladi.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda bo'lajak o'qituvchi fazilatlaridan hisoblangan pedagogik ma'suliyat hissini o'rni benihoya hisoblanadi. Pedagogik ma'suliyat ma'naviy-ahloqiy va ijtimoiy-g'oyaviy tarbiyaning muhim mezonlaridan biri bo'lib, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga nisbatan ongli, tizimli, yaxlit, tanqidiy munosabatda bo'lish va faoliyat natijadorligini jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi sanalgan yosh avlodni milliy o'zligini saqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini kelajak avlodga yetkazish, axborotlar dunyosida adashib qolmaslik, "oq"ni "qora"dan ajrata olish ijtimoiy malakalarini ta'minlashda javobgarligi hisoblanadi.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda ularning individual psixologik xususiyatlari sifatida talabning ehtiyoji, qobiliyati, xarakteri, tempramenti, irodaviy-emotsional holatlarini inobatga olish muhim omillardan sanaladi. Talaba yoshlarni ijtimoiy ma'naviy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularni ijtimoiy ma'naviy faoliyatning pedagogik shart-sharoitlari bilan birga unga oid malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish va mustahkamlab borish zarur. Ushbu jarayonda talabalarni ijtimoiy-ma'naviy tarbiya targ'ibotiga oid texnologiyalar bilan qurollantirishni nazarda tutuvchi quyidagi texnologiyalardan na'munalar keltiramiz:

"Hayot chizig'i" texnologiyasi – talaba yoshlarga milliy qadriyatlarimizni e'zozlash, ularga bo'lgan hurmatni ko'rsatish, "jaholatga qarshi ma'rifat" naqliga amal qilib, talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasidir. Texnologiyaning asosiy maqsadi talaba yoshlarda ustozlarning bosib o'tgan hayot yo'lini bilishi, ustoz-shogirt qadriyatlarini hurmat qilishi, o'zining hayot yo'lini rejalashtira olishi, o'zining hayot

yo'lini tahlil qilish va kelajagini ko'ra olish qobiliyatini shakllantiradi.

"Xavfsizlik marafoni" texnologiyasi – texnologiya ikki bosqichda o'tkaziladi. Ushbu texnologiyaning maktab, mahalla, oila hamkorligida o'tkazish maqsadga muvofiq. Unda muayyan ta'lim tarbiya jarayoni muammoli va ta'limiy jihatdan ota-onalarning o'zaro fikr almashish jarayonini ifodalaydi. Marafon ishtirokchilarida tanqidiy fikrlash, fikrning mantiqiy ifodalay olish, dalillardan to'g'ri va yetarlicha foydalanish hamda muammoning mantiqiy yechimini topish malakasini shakllantirish, shuningdek, o'zgalarning fikrini inobatga olmaslik, noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkinligini isbotlashga yordam beradi.

Ushbu texnologiyalar asosida talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda ularning ma'suliyatini oshirish, ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash uchun har bir o'tkaziladigan tadbirlarni tarbiyaviy maqsadda foydalanish ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlash talablaridan biridir.

Talaba yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda shuningdek, yoshlarning odob-axloqi, xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan turli buzg'unchi materiallarga qarshi faol chiqishlar qilish, ularga doimiy munosabatlar bildirib borish maqsadida "Dildagi gaplar" turkum loyihasini amalga oshirish, shuningdek, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik, ajdodlarga hurmat, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish bo'yicha "Iftihor" loyihasini amalga oshirish, shuningdek, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlari bo'yicha "Befarq emasman" loyihasini amalga oshirish, "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" mavzusida esse tanlovlarini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Bugungi talaba yoshlarni o'z oldiga qo'ygan maqsad muddaolarini amalga oshirishga undaydigan ularni ijtimoiy-ma'naviy faoliyatga yo'naltiruvchi, ularni rag'batlantiruvchi ko'plab omillar mavjud. Fikrimizcha, ezgu niyat, mustaxkam e'tiqod, sog'lom tafakkur, har qanday ma'suliyatli sharoitda o'z prinsiplaridan chekinmaslik, kuchli iroda, pedagogik ma'suliyat kabi sifatlar alohida o'rin egallaydi. Har qanday yosh o'qituvchining bunday sifatlarga ega bo'lishi, undan tinmay izlanishni, bilim olishini, munosib bo'lishni o'zining hayot maslagiga aylantira olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni xarbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risida" gi 140-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021; 09/21/320/0482-son. <https://lex.uz/docs/-3571158>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" asari Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti 2021. – 416-b. <https://e-library.sammu.uz/uz/book/102>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi" to'g'risidagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Konvensiyasi" to'g'risidagi 1059-sonli Qarori. <https://www.lex.uz/docs/-4676839>
5. Орлов.Ю.М. Оздоровляющее (саногенное) мышление / составитель А.В.Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1 - Издание 2-е изд., исправленное, - М.: Солайдинг, 2006-96-с
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.- T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. 312-b, 97-bet
7. Mavrulov A. Milliy barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008. – 80 b.
8. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.- Farg'ona.: "Farg'ona". 2021. 184-b.
9. Erkaboyeva N.Sh. O'zbekistonda pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Monografiya. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti. - 2006-y

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Оппоқхо'jayев Хожихужа Азимжон о'ғ'ли
Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi
oppoqxojayevxojixuja@gmail.com

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada antroposentrik yondashuvga asoslangan innovatsion va integratsiyalashgan darslarning tuzilishi inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari va ularning mazmunlari, inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash uchun pedagoglarning inklyuziv ta'lim sharoitiga tayyorligini oshirish vazifalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, antroposentrik yondashuv, tarbiya, volyuntarizm, innovatsion darslar, integratsiyalashgan darslar

Оппокхужаев Хожихужа Азимжон угли
Преподаватель кафедры специальной педагогики Коканского СПИ

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: в данной статье рассмотрена структура инновационных и интегрированных уроков на основе антропоцентрического подхода, основные направления и содержание обучения учащихся младших классов на основе антропоцентрического подхода в инклюзивном образовании, антропоцентрический подход к учащимся начальных классов в инклюзивном образовании, поставлены задачи. Выявлены возможности повышения готовности педагогов к условиям инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, антропоцентрический подход, образование, волонтерство, инновационные уроки, интегрированные уроки.

Оппоққхоjаyев КНожикхужа Азимжон угли
Teacher of the Department of Special Pedagogy of Kokand SPI

MAIN DIRECTIONS OF EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION BASED ON ANTHROPOCENTRIC APPROACH

Abstract: in this article, the structure of innovative and integrated lessons based on an anthropocentric approach, the main directions and contents of educating elementary school students based on an anthropocentric approach in inclusive education, an anthropocentric approach to elementary school students in inclusive education the tasks of increasing the readiness of pedagogues for inclusive educational conditions have been revealed.

Key words: inclusive education, anthropocentric approach, education, volunteerism, innovative lessons, integrated lessons.

Kirish.

Jahon miqyosida ta'lim tizimi rivojlangan aksariyat mamlakatlar tomonidan inklyuziv ta'lim konsepsiyasi global ta'lim tizimini takomillashtirish va diskriminatsiyaga qarshi choralarni samarali rivojlantirishga hissa qo'shishga qaratilgan ta'lim siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etmoqda. Kelib chiqishi, ijtimoiy maqomi, jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar barcha bolalar uchun ta'lim ehtiyojlariga muvofiq ta'lim jarayonini

amalga oshirish zarurati mazkur vazifalarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Texnologiyalashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tobora tanazzulga yuz tutmoqda. Jamiyat a'zolarida volyuntarizm, konformizm, egotsentrizm hamda individualizmning yaqqol namoyon bo'lishi ularni umum manfaati uchun emas, balki o'zining xohish-istaklari, ehtiyojlarini qondirishga undaydi. Sharq xalqlariga xos bo'lmagan bu kabi illatlar imkoniyati cheklangan bolalar, alohida yordamga muhtoj

shaxslarning e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'ladi. Mazkur holatga barham berishda eng muhim chora ta'lim tizimidan boshlab antroposentrik yondashuvni shakllantirish hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish va inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni tarbiyalashga oid tadqiqotlar D.N.Qayumova, B.Q.Subanova, M.Xamidova, B.Shoumarov, L.R.Xayitov, R.Sh.Shomaxmudova, V.S.Sirenov, D.B.Yakubjonova, D.S.Qaxxarova, L.R.Mo'minova, D.A.Nazarovalar tomonidan olib borilgan. Antroposentrik yondashuv asosida pedagogik-psixologik jaryonni tashkil etish, inklyuziv ta'lim ishtirokchilarini ta'lim jarayoniga tayyorlash masalalari N.A.Maqsudova, M.Y.Sobirova, N.Z.Normurodova, N.Sh.Abdullayeva, N.N.Djamilova, G.E.Djanpeisova, S.S.Mirjalilova, D.T.Samatov, N.Najmitdinova, G.M.Nazirova, I.I.Tuychiyevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan: E.A.Babayeva, M.Jadrina, L.F.Kolakatova, V.S.Sirenov, N.G.Sigal, T.V.Kuzmicheva, N.A.Myodova, I.D.Ukrainseva, Ye.Ye.Lobanova, S.N.Sorokoumova, Yu.V.Shumilovskaya, O.Yu.Muller, D.A.Petrovlar tomonidan inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etish va pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan R.Simkins, B.Florence, M.Schmidt, H.Linklater, M.J.Zalzan, L.Florian, B.Cagran inklyuziv ta'limni rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash va antroposentrik yondashuv masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Jamiyatdagi texnologiyalashuv jarayoni o'zidan kutilgani kabi ijobiy natija bermadi. Hayotimizdagi turli sohalar, xususan, fan-texnika, ishlab chiqarish tezlashgan bo'lsa-da, biroq, uning ta'sirida ijtimoiy munosabatlar ijobiy xarakter kasb etmadi. Avvalgi umumjamoalik, bidamlik, hamdardlik o'rnini volyuntarizm (lot. "voluntas" iroda; o'z xohish-irodasini har narsadan ustun qo'yish; shaxsiy imkoniyatlar, obyektiv shart-sharoitlar hamda kelib chiqish ehtimoli bo'lgan oqibatlarni inobatga olmagan holda ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga intilish), konformizm (lot. "conformis" o'xshash, muvofiq; hukmron mavjud ijtimoiy tartib, g'oya va fikrlarga moslashish, ularni passiv qabul qilish; birinchi marta amerikalik psixolog Solomon Ash tomonidan 1951-yilda qo'llanilgan); individual erkinlik (manipulyativ xarakterdagi iste'molchilikka asoslangan jamiyat a'zolarining haqiqatda mavjud bo'lmagan tasvirlar, obrazlarga qiziqishi; ijtimoiy tarmoqlarda o'zining emas, haqiqatda mavjud bo'lmagan va fotoshop qilingan suratlardan foydalanish); egotsentrizm (lot. "ego" "men", "centrum" "aylananing markazi"; individning boshqalarning intilishlari va hissiyotlarini qabul qilmagan


holda o'zining qiziqishlari, tuyg'ulari, ehtiyojlarini ilgari surishi);", individualizm (jamoaviylikka qarshi bo'lgan, jamoaning imkoniyatidan o'z manfaati uchun foydalanishni, shaxsning individual qarashlarini hatto davlat manfaatlaridan ustun qo'yishga qaratilgan ta'limot) kabi g'oyalar va darga asoslangan xulq me'yorlari egallamoqda. Ushbu me'yorlarining ijtimoiy xavfi shundaki, imkoniyati cheklangan, o'zgaralar yordami va qo'llab-quvvatloviga muhtoj aholi qatlamining o'z holiga tashlab qo'yilishi, ularga nisbatan jamiyat chiqindisi sifatida qarash kabi illatlarning shakllanishiga olib keladi.

Tahlillar va natijalar:

Tabiiy-biologik xususiyatiga ko'ra, har bir shaxs ijtimoiy muhitsu, o'zining undagi ishtirokisiz mavjud bo'la olmaydi. Shunday ekan inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom o'quvchilarni imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan munosabat o'rnatishlariga ko'maklashish, ularni inklyuziv ta'lim sharoitiga moslashtirish, shaxsning kamchiliklari, qusurlari ustudan kulishga yo'l qo'ymaslik kabi vazifalar ustuvor hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarishda ta'limiy faoliyat jarayonida o'quvchilarga antroposentrik yondashuvning muhim elementlarini singdirib borish va shu asnoda ta'limdagi ijobiy muhitni shakllantirish muhimdir.

Tadqiq etilayotgan muammoni nazariy jihatdan o'rganish, zamonaviy ta'lim muhiti nuqtai nazaridan pedagogik faoliyatni tashkil etish orqali uni hal qilishga bo'lgan yangi yondashuvlarni belgilash hamda innovatsion yechimni topish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida, jumladan inklyuziv ta'lim sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, avvalo ta'lim muhitini insonparvarlashtirishni talab qiluvchi jarayondir. Tadqiqotchi M.Y.Sobirovaga ko'ra antroposentrik yondashuvga asoslangan innovatsion va integratsiyalashgan darslar quyidagi tuzilishga ega bo'lishi lozim (1-rasmga qarang):



1-rasm- Antroposentrik yondashuvga asoslangan mashg'ulot tuzilmasi

Ma'lumki, innovatsion ta'limga ixtisoslashgan ta'lim tizimi dars jarayonini qiziqarli qilish bilan birga, ta'limni insonparvarlashtirishga, demokratlashtirishga imkon yaratadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llaniladigan darslar markazida ta'lim oluvchi shaxsi turishi va ta'lim oluvchilarda antroposentrik yondashuvga hos insonparvarlik, hamkorlikda ishlash, hamdardlik, bag'rikenglik kabi hislatlarning shakllanishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida insoniylik fazilatlariga yo'g'rilgan o'quv topshirilarining ishlab chiqilishi, savollar tuzilishi va maqsadli yo'nalishlarning belgilab olinishi antroposentrik yondashuv mohiyatini ta'lim oluvchilarga tezroq singdirilishiga yordam beradi.

Shundan kelib chiqqan holda biz inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalashga doir asosiy yo'nalishlarni belgilab oldik.

Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (2-rasm):

Asosiy yo'nalishlar				
Ta'lim faoliyati davomida	Tarbiya faoliyati davomida	O'yin faoliyati davomida	Muloqot jarayonida	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar davomida

2-rasm: Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari

Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni:

Ta'lim faoliyati davomida – Antroposentrik yondashuv mohiyatini ochib beradigan mavzularni tanlash; har bir fan doirasida o'quvchilarda insonparvarlik, o'zaro yordam ko'nikmalarini shakllantirish

Tarbiya faoliyati davomida – tarbiya jarayonida o'zaro hamjihatlik, o'zaro ko'mak berishga o'rgatish; sinfdan tashqari ishlar davomida (to'garaklar, hashar, navbatchilik) bag'rikenglik tamoyilini shakllantirish.

O'yin faoliyati davomida – o'yin davomida shaxsiy buyumlardan birgalikda foydalanish; bir-birini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish, musobaqa harakteridagi o'yinlarda jamoaviylikni tarbiyalash.

Muloqot jarayonida – muloqot jarayonida individual xususiyatlarini inobatga olish ko'nikmasini shakllantirish, ularda ehtiyotkorlik va hushmuamilalik harakterini shakllantirish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar davomida – tadbirlar, jamoaviy yig'ilishlar, turli musobaqalar jarayonida

antroposentrik yondashuvning hamjihatlik, ko'mak berish, erkinlik, yaratish, shaxsiy xususiyatlarini namoyon qilishga yordamlashish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ayni o'rinda inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalashda pedagogning kasbiy tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon pedagoglarning inklyuziv ta'lim sharoitiga qay darajada tayyor ekanligi bilan harakterlanadi.

Pedagogning inklyuziv ta'limga tayyorgarligi deganda "inklyuziv ta'limning hozirgi sharoitida kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, xulq-atvor etikasi va kasbiy pedagogik faoliyat usullarini aniqlaydigan pedagogik faoliyat" tushuniladi.

E.M.Aliyeva zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini akslantiruvchi quyidagi tezkor-faoliyatli komponentga ega bo'lishi zarur deb hisoblaydi. Bu turdagi komponent negizida quyidagi sifatlar aks etadi: pedagogik fikrlash va harakat qilish malakasi; turli murakkablikdagi pedagogik masalalar mohiyatini tahlil qila olish; pedagogik hamkorlik natijalarini bashoratlay olish va loyihalash malakasiga egalik; pedagogik hamkorlikni amalga oshirish, boshqarish va korreksiyalash malakasiga egalik; olingan natijalarni tahlil qilish, baholash va o'z oldiga yangi vazifalarni qo'ya olish malakasi

Pedagogning inklyuziv tayyorgarligi o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari jarayonida va ta'limni antroposentrik yondashuv asosida tashkil etishda muhim jihat hisoblanadi.

Avvalo, inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash uchun pedagoglarning inklyuziv ta'lim sharoitiga tayyorligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Pedagoglarni inklyuziv ta'limning umume'tirof etilgan tamoillari bilan tanishtirish;

2. Pedagoglarni antroposentrik yondashuv va uning xususiyatlari bilan tanishtirish va ularga metodik yordamlashish;

3. Pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim berishlari uchun ta'limiy usullar, mezonlarni ishlab chiqishga o'rgatish;

4. Inklyuziv ta'lim sinflaridagi bolalar bilan do'stona, ochiq munosabat o'rnatish ko'nikmasini shakllantirish;

5. Inklyuziv ta'lim sinflari bilan korreksion ishlarni olib borishi uchun shart-sharoit yaratish;

6. Ta'lim jarayonida umumdidaktik tamoillar bilan birga maxsus tamoillarga ham e'tibor qilish ko'nikmasini shakllantirish;

7. Inklyuziv ta'lim sinflariga mashg'ulot olib boradigan pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish va uzluksiz nazorat qilish.

Shuningdek, pedagogning inklyuziv tayyorgarli yuqori bo'lishi ham ta'limning samaradorligini kafolatlay

olmaydi. Egallangan bilimlar kutilgan darajada muvaffaqiyatli o'zlashtirish shaxsning idrok etish qobiliyatiga ham bevosita bog'liq. Idrok etish nafaqat unda tasvirlangan, ifoda etilgan g'oyani bilib olish, konstruktiv shaklidan oddiy zavqlanish, asarlarda tasvirlangan vaziyatlardan sentimental hamda emotsional hayajonlanish, balki ushbu oddiy ma'naviy holatni mantiqiy tushunish, funksional tahlil qilish uchun mo'ljallangan." Idrok sezgiga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi."

Xulosa.

Innovatsion ta'limga ixtisoslashgan ta'lim tizimi dars jarayonini qiziqarli qilish bilan birga, ta'limni insonparvarlashtirishga, demokratlashtirishga imkon yaratadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llaniladigan

darslar markazida ta'lim oluvchi shaxsi turishi va ta'lim oluvchilarda antroposentrik yondashuvga hos insonparvarlik, hamkorlikda ishlash, hamdardlik, bag'rikenglik kabi hislatlarning shakllanishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida insoniylik fazilatlariga yo'g'rilgan o'quv topshirilarining ishlab chiqilishi, savollar tuzilishi va maqsadli yo'nalishlarning belgilab olinishi antroposentrik yondashuv mohiyatini ta'lim oluvchilarga tezroq singdirilishiga yordam beradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim o'quvchilarida antroposentrik yondashuvni shakllantirish jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri yondashish kutilgan natijalarni olishga imkon beradi. Shu sababli tadqiqot ishini olib borish chog'ida inklyuziv ta'lim o'quvchilarida antroposentrik yondashuv sifatlarini samarali shakllantirish imkonini beradigan maxsus metodikaning ishlab chiqishga va takomillashtirishga ustuvor vazifa sifatida qaraldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Волюнтаризм // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/volyuntarizm-uz>.
2. Конформизм // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konforizm-uz>.
3. Sobirova M. Ona tili ta'limiga antroposentrik yondashuv tamoyillari asosida yondashish. 2021. №9. –B.554-560
4. Sobirova M.Y. Ona tili ta'limiga antroposentrik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari va texnologiyalari. Ped.fan.dok.diss. Namangan.:2023. – B.64
5. Maqsudova N.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni inklyuziv sharoitida ishlashga tayyorlash mexanizmlari. Ped.fan.bo'y.fal.dok (PhD) diss. Namangan.:2023. – B.35

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Botirova Sevara Mamurovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sevarabotirova783@gmail.com

TALABALARGA TARIX FANINI O'RGATISH JARAYONIDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

Annotatsiya: talabalarning tarix darslarida samarali nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning muhim vazifalaridan biri bo'lgani uchun ham mazkur maqola oliy ta'limda tahsil oluvchi talabalardagi nutq, irod etish bilan bog'liq muammolarini tadqiq etadi. Pedagogik nazariyot va amaliy jihatdan o'zini oqlagan pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda izohlab, muammoli holatlar yuzasidan yechimlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: nutq me'yorlari, nutqiy stilistika, muloqot etikasi, ijtimoiy munosabatlar, ma'ruza, intellektual salohiyat, notiqlik mahorati, adabiy qoidalar.

Botirova Sevara Mamurovna
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

TECHNOLOGY OF SPEAKING SKILLS DEVELOPMENT IN THE PROCESS OF TEACHING HISTORY TO STUDENTS

Abstract: since the development of effective speaking skills of students in history classes is one of the important tasks of education, this article investigates the problems related to speaking in higher education students. Explains pedagogical theory and practical pedtechnologies on a scientific basis and shows solutions to problematic situations.

Key words: speech norms, speech stylistics, communication ethics, social relations, speech, intellectual potential, oratorical skills, literary rules.

Ботырова Севара Мамуровна
Доктор философии педагогических наук (PhD)

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧНЫХ НАВЫКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ СТУДЕНТАМ

Аннотация: поскольку развитие эффективных речевых навыков у студентов на уроках истории является одной из важных задач образования, в данной статье исследуются проблемы, связанные с говорением студентов вузов. Объясняет педагогическую теорию и практические педтехнологии на научной основе, показывает пути решения проблемных ситуаций.

Ключевые слова: речевые нормы, стилстика речи, этика общения, общественные отношения, речь, интеллектуальный потенциал, ораторское мастерство, литературные правила.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim jarayonlarida bo'lajak kadrlarning mutaxassis darajasida yetishib chiqishida ularning nutqiy qobiliyatlarini yaxshilash doimiy tarzda ta'lim standartlarida belgilanadigan va ahamiyatini yo'qotmaydigan ta'lim muammolaridan biri bo'lgani uchun oliy ta'limda talabalarning nutq texnikasi va etikasini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llanishi zarurati mavjud. Tarix fani talabalarda ijtimoiy-siyosiy bilimlar bergani, umumiy dunyoqarashini shakllantirishda yordam bergani uchun ham chuqur

yondashuvni taqozo etib, nutq mahoratini oshirishda eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi fanlardan biri bo'la oladi.

Adabiyotlar tahlili.

Talabalarda, jumladan, ta'limning turli bosqichlari o'quvchilarida nutqiy saviyani oshirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar Suqrot, Antifont, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Giperd va Andokid, kabi antik davr notiqarlari sarlarida, Sharq va G'arbning ma'naviy va madaniy uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida, zamonaviy tadqiqotlarda esa I.Kuznetsov, D.Karnegi, N.Bekmirzayev, A.Rustamov, N.Mahmudov, E.Begmatov, R.Jumaniyozov kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida bayon etilgan. I.Kuznetsovning "Zamonaviy ritorika"

asarida, Mahmudov N. esa, "O'qituvchi nutq madaniyati" kitobida ta'limiy mauammolarga e'tibor qaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni o'rganish uchun qilingan izlanishlarda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va nutqiy uslubshunoslikka qaratilgan analiz va sintez, gnoseologik tahlillarga tayanilgan holda yondashilgan va bu borada tadqiqot metodlarida metodik uslublar yordamida nutq muammolariga yechim bo'la oluvchi texnologiyalar qo'llab ko'rilgan.

Tahlillar va natijalar.

Oliy ta'lim quyi ta'lim bosqichlaridan taxsil oluvchilarining malakaviy ixtisoslashgani va intellektual ustunligi bilan ajralib tursada, ta'limning barcha bosqichlarida takomillashtirib borilishi talab etiladigan bir qator muhim ko'nikmalar mavjud. Nutqiy jihatdan bilimlarni yetkaza olish ham shunday muhim ko'nikmalardan biri bo'lib, gumanitar fanlarning nutqni rivojlantirishdagi ahamiyatidan samarali foydalanish talabalar nutqiy madaniyatini ijobiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarix birlamchi nutqiy rivojlantiruvchi bilim tarmoqlaridan biri ekanligi uchun ham oliy ta'limda alohida tadqiq etilishni talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarix fanining ijtimoiy fikr va dunyoqarashga beqiyos ta'siriga ta'rif berib shunday degan edi: "Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur." [1] Bunda har bir ta'lim elementi, o'qituvchi, darsliklar matni, dars metodikasi, individual xarakter xususiyatlari jarayonga ta'sir etadi.

Ijtimoiy hayotda kuzatiladigan odatiy nutqdan ziyoli shaxsning nutqi farqlanib turishi, jumalarning to'g'ri va adabiy qoidalarga mos tuza olinishi, muloqot me'yorlariga mos tarzda nuqtayi nazarini yetkaza olishi uchun yetarli darajada bilim, ko'nikmalar talab etiladi. Talabalarining tarix darslarida faolliklarini oshirish an'anaviy tarzda amalga oshirilmasdan, ularning og'zaki va yozma bayon etish mahoratlarini uyg'unlashtirish, dialogik ta'lim metodini mohirona ishlata bilish ham pedagogning mahorati sanaladi. Passiv, dars mashg'ulotlarini kuzatishga odatlangan ta'lim oluvchilar mustaqil hayotda ham boshqalarning fikriga ko'r-ko'rona qo'shilishni odat qiladilar. Tarix fanini o'qitilishining ustuvor vazifalaridan biri esa, o'quvchi va talabalarda kreativ va tahliliy fikrlashni tarbiyalab borish hisoblanadi.

Avvalambor, uslubiy nutq qoidalarini to'g'ri qo'llay olishga o'rgatish uchun talabalarga tarixiy-badiiy asarlar orqali bilimlar va adabiy til me'yorlarini rivojlantirish foydadan holi bo'lmaydi. Og'zaki nutqni yaxshilashga qaratilgan ta'lim texnologiyalari o'zining ilmiy asosiga ega bo'lishi uchun ham darsliklar va ularning bayon shakli tushunarli va yodda saqlab qolish uchun qulay tarzda bayon etilishi kerak. Shuningdek, tavsivaviy adabiyotlar vositasida nutqiy stilistikani rivojlantirish maqsadida

talabalarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatilishi lozim. Nutq uslubining publitsistik, ijtimoiy, ilmiy, rasmiy me'zonlarda bayon etilishiga to'g'ri kelishini inobatga olsak, ko'plab fanlarda nutq ilmiy tilda bayon etilishi mumkin. Tarix fani esa, universal bilim tarmoqlaridan birisi ifatida barcha nutq uslublaridan hamohang foydalanishni taqozo etadi. Pedagog talabalar nutq madaniyatini rivojlantirishda ushbu omilni inobatga olishi zarur.

Agar pedagogik texnologiyalarni qo'llas ilmiy asos va kafolatlangan natija bo'lmas ekan, buntexnologiyalar oqibati shaxs kamoloti, ta'lim tizimi va jamiyatning yuksalishiga to'g'anoq bo'laveradi. [2] Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomulmulukning "Siyar-ul-muluk" singari asarlarini didaktik nutqni rivojlantiruvchi manbalar sifatida mustaqil ta'lim uchun tavsivaviy adabiyotlar vositasi sifatida ko'rsatish mumkin.

Talabalarining muloqot madaniyati shakllanishida intellektual salohiyatining oshib borishi birlamchi asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimsiz nutqning mazmunan sayoz bo'lishi va asoslanmagan mulohazalarga boy bo'lishi ehtimolligi yuqori bo'lgani uchun ham tarix fanidan bilimlarni mustaxkamlovchi manbalarga ehtiyoj seziladi. Tarixiy-badiiy asarlar nafaqat adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda gapirishga, balki, asosli manbalarga tayangan holda bilimlarni asoslanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, tarixning tanqidiy-kreativ yondashuvni rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi omilidan foydalangan holda talabalarda tarixiy voqealardan xulosa chiqarishni, tahlil qilish mahoratini oshirish kerak bo'ladi. An'anaviy darslarda pedagog faol tarzda mavzuni tushuntirib berishi va o'rganuvchilarga tinglash orqali bilimlarni o'zlashtirishiga asoslangan bo'ladi. Shunga qaramay, ma'ruza o'quvchilar fikrini rivojlantirish, munosabatlarni o'zgartirish yoki xulq-atvor ko'nikmalarini o'rgatishning eng samarali usuli emas. [3] Bunday hollarda interfaol dars metodlari qo'llanishi orqali ba'zi darslarni o'tkazish mumkin.

Debat va bahs mavzusi o'rtaga tashlanib, talabalarining biror tarixiy voqeaga yoki shaxsga munosabatini o'rganish davomida talaba o'z fikrini himoya qilish, tanqidiy yondashuv orqali nutqiy rivojlanib boradi. "BBB", "Sinkveyn", "Klaster" metodlari o'rganuvchilarning shaxsiy tashabbuskorligini oshiradi va fikrlashga o'rgatib boradi. O'z fikrini bildirish davomida beixtiyor talabalar nutq madaniyatiga ham erishib boradilar.

Shunday bo'lsa ham, bunda o'qituvchining to'g'ri yo'naltiruvchilik funksiyasi amalga oshsagina, ijobiy natijalarni kutish mumkin. Aks holda, talabalar o'rtasida bir-birining fikrlariga nisbatan toqatsizlik, darsga nisbatan bepisand munosabat, mavzuning asosiy mohiyatidan chiqib ketish holatlari amaliyotda kuzatiladi. Noan'anaviy metodlar bilan ishlash orqali nutqni rivojlantirishda pedagogning kasbiy metodikasi yuqori bo'lishi kerak bo'ladi. Har bir darsda interfaol metodlar qo'llash

an'anaviy darsga nisbatan rag'batni kamaytirishi mumkin va manbalardan ta'limni o'rganish uchun intilish kamayishi mumkin bo'ladi. Bunda gurux bahslari tarzidagi musobaqalarda talabalar faqat o'z shaxsiy mulohazalarini qo'llab-quvvatlovchi qismlarigina o'rganishlari bunga sabab bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, tarix darslarida oliy ta'lim mutaxassisi sifatida o'qituvchi o'rganuvchilariga bu borada hayotiy namuna sifatida ko'rinishi kerak bo'ladi. Ma'ruza shaklidagi darslar davomida o'qituvchining o'zini qanday tutishi va ma'ruza matnida yetarlicha mavzuni yoritib bera olishi seminar mashg'ulotlarida o'rganuvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. Professor-o'qituvchi nutqiy saviyasi yuqori bo'lmagani holda talabalarning nutqiy qobiliyatiga munosib baho bera olishi mumki emas. Agarda ta'lim beruvchi nutqida kamchiliklar tuzatilmas ekan, samarali dars metodlarini qo'llash qiyinlashib boradi. So'zga chiqish notiqning o'ziga qiziqarli bo'lishi uchun ma'ruza materialini sistematik tarzda yangilab turish, yangi fikrlar, misollar, obrazlar, aforizmlarni kiritib turish zarur.[4]

O'qituvchi namuna ko'rsata oluvchi notiq bo'lishi uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalana olishi va taqdimotlar, ko'rgazmali qurollarni ishlatishi lozim. Slaydlar va ma'ruzaning yozma variantidan tayyor o'qib berishga odatlangan ma'ruzachilar tahsil oluvchilar nazdida bilim darajasi sayoz bo'lib ko'rinishiga mumkin. Taqdimotlardan foydalanishda ma'ruzachi kerakli ma'lumotlarni butunlay ko'chirib olishi va o'z bilimiga tayanmasligi nutqiy jihatdan o'qituvchida kasbiy kompotentlikning rivojlanmaganligini ifodlaydi. Taqdimotlar xotirada eslab qolish uchun qiyin va ahamiyatli o'rinlarni belgilab olish uchungina kerak bo'ladi. Ayni muammoning hal etilmasa, ta'lim oluvchilardan konspekt yoki darsliksiz mavzuni tushuntirib berishlarini so'rash talabalarda ta'lim va pedagogga nisbatan salbiy munosabatni uyg'otadi.

To'rtinchidan, tarix fanida atamalar bilan ishlash maqsadida nutq davomida qo'llanuvchi iboralar, iqtiboslar yoki ibratli va qiziqarli tarixiy voqealarning yig'ib borilishi uchun nutqiy atamalar lug'atini tutish va yuritib borish

nutqiy estetikani oshiradi, tarix notiqligida qo'llanma vazifasini o'taydi. Iqtiboslar va boshqa nutq jozibadorligini ta'minlovchi oldindan tayyorlangan qoliplar ushbu daftarga uzluksiz ravishda e'tibor qaratib, yangiliklar kiritib turilganda, tinglovchilarning e'tiborini jalb etishga va ta'sirli tarzda fikr ifodalashda asoqatadi. Shu tarzda, iqtiboslar ayniqsa samarali hikoya qilish vositasidir; ma'ruzachi o'z hikoyalarida qahramonlarga ovoz bera oladi, bu esa ma'ruzachi tinglovchilariga vaziyatni ma'ruzachining o'zi boshdan kechirgan tarzda his qilish imkonini beradi.[5]

Biroq, ularning me'yoridan ko'p qo'llanishi va ishlatilish o'rinlarini topa olmaslik aks ta'sirga sabab bo'lishi ham mumkin. Bunday oldindan rejalangan nutq birikmalari va jumlaridan foydalanuvchi insonlar ayrim hollarda bir hil nutq so'zlashga va qayta-qayta bir fikrni ta'kidlashga o'rganib qolishlari kuzatiladi. Talabalar ijtimoiy munosabatlarga kirishlari, dialogik va monologik nutq ma'yorlarini mufassil o'zlashtirishlari va verbal muloqotning o'ziga xos standartlarini anglashlari bilan nutq jumlarini mustaqil tuza oladilar. Tarix fani darslari bunday ko'nikmalarni amaliy qo'llash uchun eng mos bo'lgan mavzularga ega. Bunda o'zlashtiruvchining kognitiv va tahlil etish bilan bog'liq iqtidori va o'z adabiy tilini qanchalik darajada grammatik va uslubiy to'g'ri qo'llay olishi katta ta'sir etadi.

Xulosa.

Pedagogik tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, tarix fani ijtimoiy-siyosiy va hayotiy jarayonlarni qamrab olganidan, barcha nutqiy uslublarni umumlashtirgan va bayon etilishida notiqlik mahoratini talab qiladigan fandır. Talabalarning ilmiy tilda tarixni tushuntira olishlari va tushunishlari muayyan mavzu yoki umuman tarix yuzasidan bilimlarga ega bo'lganlarida va ona-tilining adabiy me'yorlarini to'g'ri o'zlashtirganlaridagina amalga oshadigan jarayondir. Nutqning yaxshilanishida ma'lum intensiv dars mashg'ulotlari va pedagogik metodikalar nutqni rivojlantirishda yo'l-yo'riqlar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda>
2. J.A.Yuldashev. Tarix o'qitish metodikasi. (O'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsion rivojlanish matbuot uyi", 2023. – 134 – bet.
3. J. Scott Armstrong (2012). "Natural Learning in Higher Education". Encyclopedia of the Sciences of Learning. Archived from the original on 2014-09-16. Retrieved 2024-10-19.
4. N.Bekmirzayev, Notiqlik san'ati asoslari: O'quvqo'l/ Mas'ul muharrir A. Rafiyev; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasbhunar ta'limi markazi. — T.: Yangi nashr, 2008. – 108 - b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xudayberdiyev Eliboy Norboyevich
Navoiy davlat pedagogika instituti prof. v.b
e-mail: latifbeksamandarov@mail.ru

ENERGETIKA MUAMMOLARINI HAL ETISHDA ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Maqolada yadro energetikasidan foydalanish istiqbollari va u bilan bog'liq muammolari, an'anaviy va noan'anaviy energiya manbalarining barcha parametrlari bo'yicha qiyosiy tahlili hamda yadro energetikasidan foydalanishning afzalliklari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Atom, yadro, energiya, xavfsizlik, ekologiya, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, ekologik muammolar, effektivlik.

Худайбердиев Элибой Норбоевич

и.о. проф. Навоийского государственного педагогического института

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АТОМНОЙ ЭНЕРГИИ В РЕШЕНИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

Аннотация: В статье описаны перспективы использования атомной энергии и связанные с ней проблемы, проведен сравнительный анализ традиционных и нетрадиционных источников энергии по всем параметрам, а также преимущества использования атомной энергии.

Ключевые слова: атом, ядро, энергетика, безопасность, экология, солнечная энергия, ветровая энергия, экологические проблемы, эффективность.

Khudaiberdiyev Eliboy Norboyevich

Acting Prof., Navoi State Pedagogical Institute

PROSPECTS FOR THE USE OF NUCLEAR ENERGY IN SOLVING ENERGY PROBLEMS

Abstract: The article describes the prospects for the use of atomic energy and related problems, a comparative analysis of traditional and non-traditional energy sources in all parameters, as well as the advantages of using atomic energy.

Keywords: atom, core, energy, safety, ecology, solar energy, wind energy, environmental problems, efficiency.

Kirish.

Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yildan 2040-yilgacha umumiy energiya iste'moli 48 foizgacha ortadi va bunda 2040-yilga kelib faqatgina sanoatning o'zi ishlab chiqarilgan energiyaning 60 foizidan ko'prog'ini iste'mol qiladi. Shu o'rinda bizning respublikamizda tashqi investitsiyalar asosida qurilayotgan ishlab chiqarish korxonalarini ortishi munosabati bilan energiyaga bo'lgan ehtiyojning o'sishi yanada jadallashuvi kutilmoqda. Xalqaro ekspertlar xulosasiga ko'ra, 2012-2040 yillarda energiya ishlab chiqarish har yili 1,9 foizga, qayta tiklanadigan energiya manbalarini hisobga olgan holda 2,9 foizga ortib boradi. Ikkinchi tomondan, neft va boshqa suyuq yoqilg'ilar eng katta energiya manbalari bo'lib qolaveradi, lekin ularning jahon bozoridagi umumiy energiya iste'molidagi ulushi 33% dan 30 % gacha kamayadi, jumladan, ko'mir uchun

28% dan 22% gacha kamayadi, tabiiy gaz ulushi esa 23% dan 26 % ga ko'tariladi.

Adabiyotlar tahlili.

"Atom energiyasidan foydalanish bo'yicha xalqaro agentlik (AEXA)" tomonidan hozirgi kunda dunyo bo'yicha faoliyat yuritayotgan 450 dan ortiq atom elektr stansiyalari va ulardagi jarayonlar nazoratda turadi. Dunyodagi mavjud elektr stansiyalarida xizmat ko'rsatayotgan malakali mutaxassislar ro'yxati, ularning yoshi, nafaqaga chiqish vaqti hamda ularning o'rnini to'ldirish masalalari bo'yicha AEXA ekspertlari yadroviy bilimlarni boshqarish rezolyutsiyasi asosida muntazam tahlillar o'tkazib boradilar [1; 25 c.]. Bu borada ko'p ishlar bajarilgan va tadqiqotlar davom etmoqda. AEXAning 2016 – yildagi IAEA-TECDOC-1675 rezolyutsiyasi hamda №. GS-G-3.1 xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalarida atom energiyasidan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va bu

yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar muhokama qilingan. AEXA va unga a'zo davrlarda ilm – fanning turli sohalari bo'yicha qiziqishlari va bu sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlari qiyosiy tahlilida hozirgi kunda dunyo davlatlaridagi ilmiy tadqiqotlarning qariyb 50 % i yadro fizikasi sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etishi aniqlangan [2; 30 c.].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada yadro energetikasidan foydalanish istiqbollari va u bilan bog'liq muammolari, an'anaviy va noan'anaviy energiya manbalarining barcha parametrlari bo'yicha qiyosiy tahlili hamda yadro energetikasidan foydalanishning afzalliklari bayon etiladi. An'anaviy va noan'anaviy elektr energiya manbalarining turli parametrlarini taqqoslash natijalari asosida xavfsizlik, xamashyo zahirasi, foydali ish ko'effisiyenti, yaroqlilik muddati, katta quvvatlarni olish imkoniyatlari kabi kriteriyalar asosida atom energiyasidan foydalanishning ustuvorligi aniqlangan.

Tahlillar va natijalar.

Kelajakda rivojlanayotgan sanoat va aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish elektr energiyasi ishlab chiqarishni talab darajasiga yetkazishni taqozo etadi. Hozirgi kunda har tomonlama tahlillar natijasida elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni qondirishda atom energiyasidan foydalanish yetakchi o'rinni egallashi aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4492-son qarorida "Atom energetikasi bo'yicha kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini rivojlantirish, yadro fizikasi sohasi bo'yicha o'quv-amaliy laboratoriyalarini laboratoriya va o'quv – laboratoriya uskunalari, maketlari va tahliliy trenajyorlar bilan jihozlash" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.


Atom elektr stansiyalari uchun zaruriy xomashyo bo'lgan uran va boshqa og'ir elementlar yoqilg'isi yaqin ming yillar ichida yetarli zahiraga ega hisoblanadi. Hisoblashlarga ko'ra, muqobil energiya manbalaridan ekologik toza energiya ishlab chiqarish AESdagiga nisbatan taxminan 20 baravar qimmatga tushadi. Baholashlar AESlarda ishlatiladigan uran zahirasi 5718400 tonnani tashkil etadi va u 2500 yilga yetishi hisoblab chiqilgan. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 430 dan ortiq AESlar ishlab turibdi va ularning quvvati bir necha million kilovattni tashkil qiladi. Bugungi kunda, atom energetikasi dunyo elektr energetikasida uchinchi o'rinni egallaydi. AESlarda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlari(AQSh) to'liq yetakchilik qilmoqda. Ushbu

mamlakatda mavjud yuzta energoblokda 100,3 GW elektr energiyasi ishlab chiqariladi, bu dunyodagi barcha AESlarda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining to'rttdan bir qismini tashkil etadi. Bu borada ikkinchi o'rinni egallagan Fransiyada 58 ta energoblokda 63,1 GW elektr energiyasi ishlab chiqariladi, bu mamlakatda ishlab chiqariladigan umumiy elektr energiyasi hajmining 70 foizidan ortiqdir. Dunyoning yana 12 davlatida mazkur ko'rsatkich 30 foizdan oshadi. Atom elektr stansiyalari qurilishining jadal rivojlanib borayotgani Osiyo mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida barpo etilayotgan 60 ta atom energoblokining 39 tasi Osiyo qit'asiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida ham "Rosatom" kompaniyasi bilan hamkorlikda har birining quvvati 1,2 GW bo'lgan ikkita energetik reaktor-energoblok qurishga qaror qilindi. Bu energetik tizimni barqarorlashtirishdagi dastlabki qadam bo'lib, hozirgi kundagi ehtiyojining 11 foizini qoplashi nazarda tutilgan. Shu qaror asosida "O'zatom" davlat agentligi tashkil etilib, yadro energetikasi uchun kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda Moskva muhandislik fizika instituti Milliy yadro tadqiqotlari universitetining filiali ochildi. Respublikamizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida "Yadro fizikasi va yadro texnologiyalari" yo'nalishida bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari tashkil etildi, pedagogika institutlari o'quv dasturida atom va yadro fizikasini o'rganish soatlari keskin orttirildi. Bu chora-tadbirlardan ko'zlangan maqsad mamlakatda rejalashtirilayotgan yadro energiyasidan tinch maqsadda foydalanish loyihasi uchun kadrlar tayyorlash masalasidir.

Respublikamizda AES qurilishi masalasi turli ommaviy axborot vositalarida, turli davra suhbatlarida muhokama qilib kelinmoqda. Bu muhokamalarda respublikamizning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qoplash zaruriyati e'tirof etilsada, dunyodagi AESlarda ro'y beryotgan turli halokatlar va ularning oqibatlari ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu savollarga javob berish uchun energiya ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ekologik va boshqa muammolarni tahlil etaylik.

Hozirgi kunda atmosferadagi karbonat angidrid gazining konsentratsiyasi inson sivilizatsiyasi tarixidagi rekord darajaga chiqdi. Bu gaz ozon qatlamini yemiruvchi issiqxona gazlaridan biri bo'lib uning ~85 foizi energiya ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga tashlanadi. Bunda qishloq xo'jaligining hissasi ~5 foizni tashkil etadi. Quyidagi 1 – rasmdagi diagrammada kam uglerodli energiya ishlab chiqarishda turli energiya olish usullarining hissasi taqqoslangan.




1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ekologik toza (kam uglerodli) elektr energiyasi ishlab chiqarishda turli manbalarning hissasi (Xalqaro tadqiqotlar markazining 2023-yildagi hisoboti asosida)

Baholashlar karbonat angidrid gazi (CO_2) ning atmosferaga chiqarilayotgan yillik miqdori 2012-yildagi 32,3 milliard tonnadan 2040-yilga kelib 43,2 milliard tonnaga etadi, ya'ni 34 foizga oshadi. Bunda ko'mirning hissasi salkam 65 foiz, neft-20 foiz, tabiiy gaz-15 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, har yili 14 mln tonna is gazi (CO) va 70 ming tonna azot oksidi (NO) atmosferaga chiqmoqda. Ekologiya xizmati ma'lumotlariga ko'ra, bu gazlar ta'sirida dunyo bo'yicha bir yilda 12 mln inson, shu jumladan 1,7 mln go'dak havoning ifloslanishidan ko'z yummoqda. Bundan tashqari, ekolog va iqlimshunoslarning ma'lumotlariga ko'ra, havodagi karbonat angidrid miqdorining 0,001 ulushga ortishi havo haroratining 2100-yilda 1850-yilga qaraganda $6,3^{\circ}C$ ga ortishiga olib keladi. Bu esa atrof-muhit harorati yillik kritik ortishidan 3 baravar

katta hisoblanadi va qutb muzliklarining erishiga, dunyo okeani sathi ko'tarilishiga va sayyoramiz iqlimining keskin o'zgarishiga olib keladi. Bu muammolarni hal etish yo'llaridan biri energetika sohasiga qayta tiklanadigan energiya manbalari hissasini orttirish bo'lsa, ikkinchi yo'li mavjud issiqlik elektr stansiyalari foydali ish ko'effitsiyentini orttirish orqali yoqilg'i energetika resurslarini tejash hisoblanadi. Buning uchun esa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur.

Respublikamizda qurilishi mo'ljallanayotgan SSER-1200/392M 3+ avlod atom elektr stansiyasi yuqorida keltirilgan ekologik nuqtayi nazardagi kamchiliklardan xoli bo'lib, bunday elektr stansiyaning prinsipial sxemasi 2 - rasmda keltirilgan.



2-rasm. Atom elektr stansiyasi sxemasi

Bu elektr stansiyasi SSER (Suv-suvli energetik reaktor) tipida bo'lib, 2 ta konturdan iborat va har ikkala konturda ham suv issiqlik tashuvchi bo'lib xizmat qiladi. Bunda birinchi konturda aylanuvchi suv yordamida reaktor ichidagi issiqlik energiyasi ikkinchi konturga uzatiladi va shu issiqlik ta'sirida olingan ikkinchi konturdagi o'ta qizdirilgan bug' turbinani va u orqali

generatorni harakatga keltiradi. Rasmda ko'rsatilganidek, har ikkala kontur yopiq kontur bo'lib, tashqariga hech qanday radioaktiv elementlar chiqmaydi. Reaktorni sovutish uchun ishlatilgan suvda ham hech qanday radioaktiv ifloslanish jarayoni kuzatilmaydi. AESlarda atmosferaga turli gazlarning chiqmasligi, reaktordagi suv aylanuvchi konturining yopiq siklda ishlashi hamda

yoqilg'i zahirasi muammosining yo'qligi tufayli atom energiyasini kelajak energiyasi deb, hisoblashga asos bo'ladi. Albatta atom energiyasidan foydalanish jarayonida turli halokatlarning oldini olish eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun esa bunday *elektr stansiyalarni boshqaradigan yetuk mutaxassislar tayyorlash masalasini hal etish kerak.*

Bugungi kunda keng ishlatilayotgan 3+ avlod atom reaktorlari qariyb 30 ta faol va passiv himoya bosqichlariga ega. Chernobil va Fukusimadagi halokatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu reaktorlar o'tgan asrning 60-yillarida barpo etilgan bo'lib, hozirgi kundagi mukammalliklardan ancha past himoya tizimiga ega bo'lgan. Chernobil AES halokatining asosiy sababi texnologik kamchiliklar va albatta inson omili bo'lgan, Fukusima AESda esa yuz yilda

bir marta yuz beradigan tabiiy ofat va uni loyihalashtirishdagi xatolar halokatga sabab bo'lgan. O'tgan 50-60 yillar ichida yadro texnologiyalari ancha ilgari ketdi. 3+ avlod SSER-1200 reaktorlarida inson omili mutlaqo bo'lmaydi, ular ko'p bosqichli mukammal faol va passiv himoya qatlamiga ega bo'lib, bu himoyalar yuqoridagi kabi avariya sodir bo'lishiga deyarli yo'l qo'ymaydi.

Quyidagi 1 – jadvalda turli elektr stansiyalarda energiya ishlab chiqarishda havoga chiqadigan karbonat angidrid gazi, bir birlik energiya olish uchun zarur yer maydoni, turli qimmatbaho resurslar sarfi, issiqlik ifloslanishi va suv sarfi kabi ko'rsatkichlar taqqoslash uchun keltirilgan.

1-jadval

Elektr energiya manbalari xarakteristikalarini

Elektro-stansiya-lar turi	1 kWh energiya olishda chiqadigan CO ₂ gazi g/kWh	1MWh energiya olish uchun zarur maydon m ² /MWh	Turli resurslar sarfi (shartli birlik)	Issiqlik ifloslanishi (shartli birlik)	Suv sarfi (shartli birlik)	1 GWh energiya ishlab chiqarishdagi nogironlik/o'lim soni
AES	28	0,7	1	1	1	56/5
GES	26	-	1	1	1	11/1
ShES	26	0,4	800/2500	0,4	0,1	42/6
QFS	85	5	900/1000	0,4	0,1	49/0
IES (gaz)	500	0,7	1	1	1	1450/59
IES (ko'mir)	900	27,5	1	1	1	1450/59

Bu jadvaldan ko'rinadiki, atom elektr stansiyalarining ko'rsatkichlari ko'p jihatdan gidroelektr stansiyalar ko'rsatkichlariga yaqin, lekin 1MWh energiya olish uchun zaruriy maydon jihatidan atom elektr stansiyasidan foydalanish qulayroq. Shamol elektr stansiyalari (ShES) va quyosh fotoelektrik stansiya(QFS)larining asosiy kamchiligi kichik quvvat berishi bilan bir qatorda katta maydonni egallashidir. 1 – jadvaldagi oxirgi ustunda atrof-muhitga faoliyati davomida chiqargan chiqindilari va tashlanmalarini hisobga olgan holda, energiya olishning turli usullarida odamlarning salomatligi va o'limiga umumiy ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bu yerda eng yaxshisi gidroenergetika bo'lib, atom va shamol energetikasi ko'rsatkichlari deyarli teng va Quyosh energetikasi ko'rsatkichi bir oz ko'proqdir.

Turli elektr stansiyalari ko'rsatkichlarini taqqoslashda belgilangan quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti(BQFK)ni ham hisobga olish zarur. Atom elektr stansiyalari uchun bu koeffitsiyent 90% dan katta

bo'lgan holda, Quyosh va shamol elektr stansiyalarida 10 % atrofida bo'ladi.

Xulosalar.

Yuqorida keltirilgan tahlillar atom energiyasidan foydalanish boshqa energiya manbalariga nisbatan ko'plab avzalliklarga ega ekanligini va mamlakatimizda atom elektr stansiyasini qurish hamda bu soha uchun malakali mutaxassislar tayyorlash dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda "Rosatom" va "O'zatom" kompaniyasi hamkorligida O'zbekiston Respublikasida AESni qurish o'rni tanlanib, turli tekshiruvlar, jumladan, tuproq radioekologiyasi, yer osti suvlari joylashuvi va boshqa omillar chuqur o'rganilmoqda. Kelgusida, ya'ni 2030 – yilga kelib birinchi reaktoring ishga tushirilishi ko'zda tutilgan. Respublikamizda birinchi atom elektr stansiyasi ishga tushirilishi O'zbekiston iqtisodiyotini yuqori pog'onaga ko'taruvchi dastlabki qadam bo'lib, keyingi bosqichlarda bunday reaktorlar ko'plab qurilishi istiqbolda ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. IAEA-TECDOC-1675. Управление знаниями в научно-исследовательских и проектных ядерных организациях. 2016. – 25 с.
2. МАГАТЭ. Руководство по безопасности, №. GS-G-3.1, 2006. –30 с.
3. Xudayberdiyev E.N. Improving the methodology of an integrated approach to improving efficiency in teaching nuclear physics. International Journal of Early Childhood Special Education. Vol 14, Issue 08 2022. – P. 177-183.
4. Khudayberdiev E.N. Methods of developing the scientific competence of physics students in teaching nuclear physics. Current Research Journal of Pedagogics. Vol 05, Issue 05 2024. – P. 72–80.
5. Xudayberdiyev E.N. Formation of environmental competence of physics students in teaching nuclear physics. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 11. – 2021. – P. 281-287.
6. Xudayberdiyev E.N., Ochilov Sh.B., Xudayberdiyev M.E. Energetikaning ekologik muammolari va ularning ilmiy yechimlari. Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnali. -Toshkent, 2013. -№4. – B. 45-49.
7. Xudayberdiyev E.N, Ochilov Sh.B., Xudoyberdiyev M.E. Yadroviy nurlanishlar dozimetriyasi va ekologik ta'lim. Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnal. –Toshkent, 2015. №5. – B. 4-7.
8. Xudayberdiyev E.N, Xolov D.M, Karimova N.B., Yadroviy nurlanishlarning inson organizimiga ta'siri va ekologik ta'lim. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2020. №2. – B. 52-56.
9. Xudayberdiyev E.N., Muzafarov A.M., Soliyev T.I. Energetika muammosini hal etishda atom energiyasidan foydalanish istiqbollari // O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni" mavzusida ilmiy va ilmiy-texnik anjumani. – Toshkent, 2021. – B. 41-44.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ikromova Musharrafxon Nematillayevna
Namangan muhandislik-texnologiyalar instituti, PhD
e-mail: imn@yandex.ru

KOMPYUTERSIZ FAOLIYAT ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ALGORITMIK FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning algoritmik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda mavjud faoliyat turlari, ta'limiy vositalar keltirilgan. Shuningdek, "Ilk qadam" o'quv dasturida berilgan har bir yosh guruhi uchun turli markazlarda o'tkaziladigan ta'limiy faoliyat mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan kompyuterdan uzilgan o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompyutersiz faoliyat (unplugged), kompyuterli faoliyat, algoritmik tafakkur, obrazli tafakkur, topologik tashkil etuvchi, proyeksiyon tashkil etuvchi, tartibli tashkil etuvchi.

Икромова Мушаррафхон Нематиллаевна
Наманганский инженерно-технологический институт, PhD

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ ЗАНЯТИЯ ОТКЛЮЧЕННЫХ ОТ КОМПЬЮТЕРА

Аннотация: В данной статье представлены виды деятельности, образовательные средства в формировании навыков алгоритмического мышления детей дошкольного возраста. Также освещаются педагогические возможности использования компьютерных игр, разработанных в соответствии с темами учебной деятельности, проводимой в различных центрах для каждой возрастной группы, приведённых в учебной программе "Первый шаг".

Ключевые слова: Занятие, отключенное от компьютера (unplugged), занятие с компьютером, алгоритмическое мышление, образное мышление, топологическая подструктура, проекционная подструктура, порядковая подструктура.

Ikromova Musharrafxon Nematillaevna
Namangan Institute of Engineering and Technology, PhD

THE METHODOLOGY OF FORMING THE SKILLS OF ALGORITHMIC THINKING OF PRESCHOOLERS THROUGH UNPLUGGED ACTIVITIES

Abstract: This article presents the types of activities, educational tools in the formation of algorithmic thinking skills of preschool children. It also highlights the pedagogical possibilities of using computer games developed in accordance with the topics of educational activities conducted in various centers for each age group, given in the curriculum "The First Step".

Keywords: unplugged activity, plugged activity, algorithmic thinking, imaginative thinking, topological substructure, projection substructure, ordinal substructure.

Kirish.

Hozirgi raqamli texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda zamonaviy inson uchun zarur bilim va ko'nikmalarni maktabgacha yosh davridanoq shakllantirish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jahonda bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar raqamli tafakkur (Computational thinking) XXI asr insoni uchun zarur ko'nikmalarni o'zida jamlovchi fikrlash ko'nikmasi hamda uni rivojlantirishda dasturlash asosiy yondashuvlardan biri deb tan olinmoqda. Shuningdek,

rivojlangan davlatlar dasturlashni maktabgacha ta'lim tizimidan kiritilayotgani ma'lum. Maqsad, shu yoshda shakllanadigan raqamli tafakkurning dastlabki ko'nikmalari obrazli tafakkurni shakllanishiga e'tibor qaratish, hamda algoritmik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish.

Adabiyotlar tahlili.

Dasturlashni esa ta'lim jarayonlariga joriy etishning ikkita strategiyasi mavjud, kompyutersiz hamda kompyuterli faoliyat [1]. Birinchi strategiyadan to'liq foydalanish imkoniyati cheklangan, uni kompyuter bilan

ishlashga yordamchi, hamda ikkinchi strategiyaning birinchi bosqichi sifatida qarash mumkin.

Ikkita strategiya asosidagi ta'lim bolalarning dasturlashning boshlang'ich bilimlariga ega bo'lishlari asosan, obrazli tafakkur tashkil etuvchilarini (topologik, proyeksiya, tartibli, o'lchovli, algebraik) shakllantirish va algoritmnining chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi turlariga qaratilgan.

Shu ikki strategiyaning maktabgacha yoshdagi bolalarda dasturlashning dastlabki elementlarini shakllantirishda bir necha ta'limiy, dasturiy vositalar turlari mavjud, bular:

- Kompyuterga ulanmagan vositalar;
- Raqamli va dasturlovchi o'yinchoqlar yoki robototexnika to'plamlari (fizik qurilma);
- Vizual dasturlash muhitlari (VPE);
- Dasturlashni o'rgatuvchi o'yinlar [2].

Mazkur tadqiqot ishida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tayanch "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini o'rganib chiqib, unda har bir yosh guruhlari uchun berilgan ta'lim markazlarida olib boriladigan mashg'ulotlar mavzusini tahlil qildik. Dasturga ko'ra bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda qulay shart sharoit yaratish maqsad qilib olingan [3]. Ta'limiy faoliyatni ta'lim markazlarida tashkil etiladi. Ushbu markazlarda olib boriladigan mashg'ulotlar har oy, hafta kunlari uchun ajratilgan, uning mavzularini Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavziviylar rejalashtirish dasturini [4-7] tahlil qildik. Didaktik o'yinlarni ushbu mavzularga mos ravishda bolalarning obrazli tafakkuri tashkil etuvchilari hamda algoritmik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'yinlarni mavjudlariga qo'shimcha sifatida yaratdik.

Uch yoshdan boshlab shakllanadigan obrazli tafakkurning tuzilishini yoritib beruvchi Kaplunovich modelini o'rganib chiqib, 3 yoshdan yetti yoshgacha bolalarda shakllanayotgan obrazli tafakkur tashkil etuvchilarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o'yinlarni ishlab chiqdik. Obrazli tafakkur tashkil etuvchilari 3 yoshdan 7 yoshgacha ketma-ketlikda, ischil ravishda shakllanadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Uch yoshli bolalarda algoritmik tafakkurining asosi obrazli tafakkurning topologik tashkil etuvchisini shakllanishiga yordam beruvchi o'yin va topshiriqlar beramiz. Ularning ichida labirint o'yini asosiy o'rinni egallaydi. Labirint o'yinini yillik reja mashg'ulotlariga joriy etish mumkin. Bunda mashg'ulotlarni butunlay o'zgartirmasdan algoritmik fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan o'yin va topshiriqlar kiritilib mashg'ulotning ayrim qismlarini o'zgartirish mumkin. Misol uchun "Zumradni uyga kuzat" o'yinini ko'rib chiqsak.

San'at markazi (Kichik guruh). Mashg'ulot turi: Rasm.

Mavzu: "Bizning ko'chamiz"

O'yinning maqsadi: bolaning mayda qo'l motorikasini, algoritmik fikrlash ko'nikmasining asosi obrazli fikrlash ko'nikmasining topologik tashkil etuvchisini rivojlantirish, ixtiyoriy diqqatini yaxshilash: uning hajmini tobora ortib borishi, taqsimlanishi, bo'linishi va turg'unligini yaxshilash, ranglarni farqlashni o'rgatish.

Jixozlar va materiallar: Oq qog'ozlar, rangli qalamlar, mavzu bo'yicha suratlar.



1-rasm. Zumradni uyga kuzat labirinti

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi: bolalar Zumrad o'rmonda adashib qolibdi (q. 1-rasmga). Unga yordam berish kerak. Uzoqda bir uycha ko'rinyapti, keling bolalar, Zumradni shu uychaga oboradigan bir necha ko'chalardan to'g'risini topib kuzatib qo'yamiz. To'g'ri yo'lni aniqlab yashil rangda bo'yab qo'yamiz, uychani, daraxtlarni, gullarni ham chiroyli rangga bo'yab qo'yamiz. Aytinglarchi bu uy aslida kimning uyi? Ayting-chi bolalar siz ham o'z ko'changizni nomini bilasizmi? Bilmasangiz ota-onangizdan so'rab o'rganib keling.

San'at markazi (O'rta guruh)

Mashg'ulot turi: Applikasiya. Mavzu: "Mustaqillik sharlari" labirinti (q. 2 -rasm).

O'yinning maqsadi: Rangli qog'ozlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish, ranglarni ajrata bilish, tayyor shar shakllarini qog'ozga to'g'ri joylashtirish. Bolalarda algoritmik fikrlash ko'nikmalarining asosi obrazli tafakkurning topologik tashkil etuvchisini, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, diqqat, qunt bilan ishlashga o'rgatish.

2-rasm. "Mustaqillik sharlari" labirinti

Jihoz va materiallar: Oq qog'oz, rangli sharlar shakli,



rangli qalamlar, elim, salftka, rangli sharlar rasmlari


Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi: Bolajonlar qahramonlarimizga bog'chalaridan Mustaqillik bayramiga

sharlar sovg'a qilishibdi, kelinglar shu sharlarni o'rniga bo'sh kataklarga elimlab qo'yamiz. Iye, sharlar bir biriga o'ralashib qolibdiku. Bolajonlar, kimga qanaqa rangdagi shar tegibdi, shuni aniqlab olaylik va ipchalarni sharlarga mos rangdagi qalamda yurgizaylik. Avval qo'limizda yurgizib kimga qanday rangdagi shar tekkanini aniqlab, ipchalarni sharik rangiga mos rangli qalamda yurgizaylik.

Til va nutq markazi (O'rta guruh). "Mening ona shahrim" mavzusida hikoya. "Namangan shahriga sayohat" didaktik o'yini (q. 3-rasm).

O'yinning maqsadi: Shaharning diqqatga sazovor joylarini o'rganadilar. O'z shahri bilan faxrlanish hissini uyg'otish, uni chiroyli va ozoda qilib saqlab qolish hissini shakllantirish. Bolalarda algoritmik fikrlash ko'nikmasining asosi obrazli fikrlash ko'nikmasining proyeksiyon tashkil etuvchisini rivojlantirish, geometrik shakllarni, ranglarni mustahkamlash, bolani qunt bilan ishlashga o'rgatish.

Jihoz va materiallar: slaydlar, fotosuratlar, turli xil o'yinchoqlar, kitob burchagi, to'siq, maketlar.




3-rasm. "Namangan shahriga sayohat" didaktik o'yini

O'yinning borishi: Tarbiyachi: Bolalar bizning shahrimiz nomini kim aytadi? Bolalar: Namangan. Tarbiyachi: Juda to'g'ri, barakalla. Keling birgalikda o'yin o'ynab olamiz. Shahrimizga ertak qahramonlari mehmonga kelishibdi. Ularda shahrimizning kartasi bor ekan. Unda shahrimizning go'zal maskanlari, qadimiy obidalarning tasvirlari(ular haqida so'zlab beradi) va ularga olib boruvchi yo'llar ko'rsatilgan. Yo'llarda adashib qolmaslik uchun yo'llarga turli rangdagi geometrik shakllar qo'yilgan. Har bir manzilga shu shakllar bo'yicha boriladi. Mehmonlarimiz shakllarni tanimas ekanlar, keling ularga yoram beramiz. Men sizga ketma ket geometrik shakllar berilgan sxemani beraman siz u asosida kerakli manzilni topishga yordam berasiz va u haqida gapirib berasiz, Misol uchun 1-sxema bo'yicha yurilganda, ya'ni strelka, qizil rangdagi uchburchak, yashil rangdagi aylana bo'yicha yurilganda shahrimizning "Afsonalar vodiysi" bog'iga olib boriladi.

Til va nutq markazi (Katta guruh). Mavzu: "O'zbekistonning qadimiy shaharlari" (Samarqand,

Buxoro), AKT suhbat. "O'zbekistonning qadimiy shaharlariga sayohat" didaktik o'yini (q. 4-rasm).

O'yining maqsadi: Samarqand va Buxoro qadimiy shaharligini, Samarqanddagi "Registon"ni, Buxorodagi "Minorayi Kalon"ni bilan tanishtirish. O'zbekistonning 12 ta viloyati mavjudligini o'rgatish. Bolaning nutqi faollashadi, eshitish qobiliyati rivojlanadi, diqqat va xotira mustahkamlanadi. Bolalarda algoritmik fikrlash ko'nikmasining asosi obrazli fikrlash ko'nikmasining tartibli tashkil etuvchisini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olishni, hamkorlikda ishlashni o'rgatish, o'nga, chapga belgilari bilan tanishtirish.



4-pacm. "O'zbekistonning qadimiy shaharlariga sayohat" didaktik o'yini

O'yinning borishi: Tarbiyachi: Bolalar bugun bizning yurtimizga chet eldan mehmonlar tashrif buyuribdi, ularni O'zbekistonning qadimiy shaharlariga sayyohat qildirishimiz kerak. Keling, ularning sayohatga taklif etamiz.

Bizda buning uchun shaharlarni joylashishini ko'rsatuvchi xarita va shaharlarga olib boruvchi yo'lni ko'rsatadigan "o'nga", "chapga", "to'g'riga (tepaga)", "orqaga (pastga)" ko'rsatkichlarimiz bor (ular bilan tanishtiradi). Shulardan foydalanib shaharlarimizda mavjud tarixiy obidalarni ko'rsatishimiz va u haqida ma'lumot berishimiz kerak. Kim sayyoh kim yo'l boshlovchi(gid) bo'ladi? Keyin o'rninglarni almashtirasizlar bolajonlar.

Tarbiyalanuvchilar ikki nafardan guruhga bo'linadi va bir nafarini ular bajargan ishini to'g'ri bajarilganini tekshiruvchini tayinlanadi. Guruhda biri sayyohatchi (bajaruvchi), ikkinchisi yo'nalish ko'rsatuvchi (buyruq beruvchi, gid). Guruhlarga tarixiy obidalarga borishni bo'lib beriladi va yo'l boshlovchiga belgilarni topshiriladi. Yo'l boshlovchi belgilarni xarita bo'yicha obidalarga olib boradigan yo'l asosida taxlaydi, shu asosida sayyoh obidaga boradi. Sayyoh obida haqida ma'lumot oladi. Nazoratchi tekshiradi sayyoh kerakli manzilga to'g'ri bordimi.

Tahlillar va natijalar.

Yuqorida keltirilgan ushbu o'yinlarni stol ustida, multimedia vositasi sifatida, maydonda o'ynaladigan o'yin sifatida ham tavsiya etish mumkin. Bu o'yinlar orqali bolalarda umumiy muhim kompetensiyalar,

kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish kompetensiyalari rivojlanadi deb ayta olamiz.

Xulosa.

Yosh avlodni shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoga maktabgacha yoshdan boshlab tayorlab borishimiz zarur. Raqamli dunyo talablariga raqamli

tafakkurga ega yoshlar javob beraoladi. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tizimining ta'lim jarayonlariga sharoitdan kelib chiqib, kompyutersiz faoliyat orqali, yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlarini kiritishimiz zamon talabi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moreno-Leyn J., Roman-Gonzalez M., Robles G., "On Computational Thinking as a Universal Skill," in *Conference Paper*, 2018.
2. Ikromova M.N. Programming as one of the main approaches in the development of children's computational thinking. Scientific and technical journal of NamIET, volume 8, Issue 4, 2023. P. 247-252
3. Грошева И.В., Евстафьева Л.Г., Махмудова Д.Т., Набиханова Ш.Б., Пак С.В., Джанпеисова Г.Э. "Илк қадам" Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Тошкент-2018й.-58б.
4. Евстафьева Л., Ш.Набиханова ва бошқ. Мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнини мавзувий режалаштириш (кичик гуруҳи), – Тошкент, 2018. –108 б.
5. Евстафьева Л. ва бошқ. Мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнини мавзувий режалаштириш (ўрта гуруҳи) – Тошкент, 2018. – 230 б.
6. Евстафьева Л., Набиханова Ш., Пак С., Исхакова М, Ким Н. Мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнини мавзувий режалаштириш (катта гуруҳи) – Тошкент, 2018. – 241 б.
7. Евстафьева Л., Набиханова Ш., Пак С., Исхакова М, Ким Н. Мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнини мавзувий режалаштириш (тайёрлов гуруҳи). – Тошкент, 2018. – 180 б.
8. Каплунович И. Я. Структура и основные этапы развития образного мышления в дошкольном детстве // Вопросы психологии, 2004. т. №5. – С. 47-56.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Umarov Ozod Temirovich

Qarshi davlat universiteti "Jismoniy tarbiya va sport kafedrası" dotsenti
e-mail: o.umarov77@gmail.com

UDK 796/799

TURLI O'YIN AMPLUASIGA MANSUB MALAKALI VOLEYBOLCHILARDA MAXSUS JISMONIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar faqatgina to'pni uzatishni bajarish, to'pni uzatish texnikasini takomillashtirishni tahlil qilishgan. Lekin, voleybolida, yoshlar o'rtasida iqtidorli sportchilarni saralashning (seleksiya qilishning) samarali va shaffof tazimi mavjud emasligi ta'kidlanadi, bu holat, terma jamoalarni sifatli tashkil qilish uchun sport zahirasini shakllantirishni va yuqori klassli sportchilarni tayyorlashni ta'minlash imkonini bermaydi. Voleybolchilarning yetakchi jismoniy sifatlarini aniqlash va ularni voleybolchilarda sportda takomilashuv bosqichida rivojlanishi darajasini tadqiq qilish ilmiy jihatdan qiziqish uyg'otadi. Ushbu maqolada turli o'yin amplusiga mansub malakali voleybolchilarda maxsus jismoniy sifatlarini shakllantirish, har tomonlama sog'lom, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda yangisha yondashuv asosida ta'lim berish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, ta'lim, tarbiya, barkamol avlod, ma'naviy-axloqiy tarbiya, voleybol, kasbiy ko'nikmalar, shaxsiy sifatlar.

Умаров Озод Темирович

Доцент кафедры физического воспитания и спорта Каршинского государственного университета

ФОРМИРОВАНИЕ ОСОБЫХ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ РАЗЛИЧНОЙ ИГРОВОЙ АМПЛУА

Аннотация: Сегодня большинство исследователей анализируют только выполнение передачи мяча, совершенствование техники передачи мяча. Но в волейболе подчеркивается отсутствие эффективной и прозрачной системы отбора (отбора) талантливых спортсменов среди молодежи, что не позволяет обеспечить формирование спортивного резерва и подготовку спортсменов высокого класса для качественной организации сборных команд. Выявление ведущих физических качеств волейболистов и исследование уровня их развития у волейболистов на этапе совершенствования в спорте представляет научный интерес. В данной статье показаны пути формирования у квалифицированных волейболистов различных игровых амплуа особых физических качеств, воспитания на основе нового подхода к физической культуре, физическому воспитанию, оздоровлению, физическому совершенствованию, физическому развитию, укреплению здоровья, пропаганде здорового образа жизни в достижении всесторонне здоровой, гармоничной личности.

Ключевые слова: физическая культура, образование, воспитание, гармоничное поколение, духовно-нравственное воспитание, волейбол, профессиональные навыки, личностные качества.

Umarov Ozod Temirovich

Associate professor of "Department of Physical Education and Sports" of Karshi State University

DEVELOPMENT OF SPECIAL PHYSICAL QUALITIES IN VOLLEYBALL PLAYERS BELONGING TO DIFFERENT GAMES

Annotation: Today, most researchers have only analyzed the performance of the ball pass, the improvement of the technique of passing the ball. But, in volleyball, it is noted that there is no effective and transparent tazimi of qualifying (selection) talented athletes among young people, this situation does not allow to ensure the formation of Sports Reserves and the training of high-class athletes for the qualitative Organization of national teams. It is of scientific interest to determine the leading physical qualities of volleyball players and to study the degree of their development in volleyball players at the stage of their evolution in sports. This article shows ways to educate qualified volleyball players of different game amplus on the basis of a new approach to the formation of their special physical

qualities, promotion of Physical Culture, physical education, wellness, physical maturation, physical development, health promotion, healthy lifestyle in all respects as a healthy, competent person.

Key words: physical culture, education, upbringing, mature generation, spiritual and moral education, volleyball, professional skills, personal qualities.

Kirish.

Voleybol, bugungi kunda juda boy tarixga va ommaviylikka ega sport turidir. Zamonaviy voleybolning xarakterli anʼanasi – har xil darajadagi jamoalar oʻrtasida raqobatni oʻtkirlashishi hisoblanadi. Voleybol – jamoaviy oʻyin sifatida har xil oʻyin amplusidagi oʻyinchilarga ega boʻlib, ular murakkab oʻyin holatlarida nafaqat xujumchilar tomonidan, balki himoyachilar tomonidan ham kutilmagan harakatlarni bajarishga qobiliyatlidir. Uzoq vaqt davomida, yuksak sport mahorati bosqichida voleybolda texnik tayyorgarlikning samaradorligini oshirish muammolariga bagʻishlangan tadqiqotlar oʻtkazilmoqda. Lekin, sport mahoratini takomillashtirish bosqichida voleybolda texnik usullarni bajarishni sifatli baholash va texnik mashqlarning samaradorligini informativligini baholash usullarini yetarli emasligi aniqlangan. Voleybol sport turi rivojlangan davlatlarda musobaqa hamda mashgʻulot jarayonida vositalarni tabaqalashtirish, funksional zahira imkoniyatlarini boshqarishga qaratilgan organizmni tiklovchi texnologiyalar ishlab chiqish, texnik va taktik imkoniyatlari oshirish boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Taniqli olimlarning taʼkidlashicha, “Voleybol” fani materialini oʻqitishga tabaqalashtirilgan yondashuv boʻyicha pedagogik koʻnikmalar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun ushbu sport turi vositalaridan foydalanish istiqbollari bugungi kungacha yetarlicha oʻrganilmagan. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili boʻljak jismoniy tarbiya mutaxassis oʻqituvchiga oʻz vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur boʻlgan muhim kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishning samarali uslubiyatini ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Respublikamiz taʼlim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yoʻnalishlar sifatida belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili.

Voleybol – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va koʻp qirrali vositasidir. Voleybol bilan shugʻullanish organizmning koʻplab muhim tizimlariga samarali taʼsir koʻrsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga koʻra voleybol koʻplab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli oʻringa ega. Voleybol BOʻSMlar (Bolalar oʻsmirlar sport maktabi), umumtaʼlim maktablari, oliy oʻquv yurtlarining jismoniy madaniyat fani dasturlariga kiritilgan. Jismoniy

madaniyat jamoalari sport seksiyalari va harbiy boʻlinmalarda voleybol bilan shugʻullanishadi. Voleybol bogʻlarda, choʻmilish joylarida, dam olish uylarida, koʻplab ommaviy-sport tadbirlarida faol dam olish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qoʻllaniladi, bu esa kam harakatli turmush tarziga ega odamlar uchun huzur-halovat bagʻishlaydi [1; 12-18-b., 2; 4-7-b.].

Voleybol bilan shugʻullanish organizmning koʻplab funksiyalariga va oʻyinchilarning shaxsiy sifatlariga samarali taʼsir koʻrsatadi, jumladan:

- oʻyin asosidagi muhim jismoniy mashqlar: sakrash, zarba berish, tezlashish, keskin toʻxtash, yiqilish, umbaloq oshish koʻnikmalari takomillashadi;

- oʻyinchilarning koʻplab jismoniy sifatlari: sakrash, kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamliligi takomillashadi;

- oʻyinchilarning intellektual qobiliyatlari rivojlanadi, sezgi organlari, aksariyat psixik holatlar takomillashadi. Bu boradagi ijobiy belgilar: mehnatsevarlik, maqsadga intiluvchanlik, qatʼiylik, gʻalabaga ishonch, jamoaviylik hissiyoti kabilarni shakllantirish uchun yaxshigina sinov maydonidir;

- sportning har qanday boshqa turi kabi, voleybol bilan shugʻullanishning toʻliq foydaliligi toʻgʻrisida xulosa chiqarish, albatta, birmuncha boʻrttirish boʻladi. Har qanday tirik organizm faqatgina mashqlar jarayonida takomillashishini eʼtiborga olgan holda, ularning miqdori, meʼyorini ham eʼtibordan chetda qoldirmaslik lozim. Qadim zamonlardan oq, tabiblar har qanday narsa (bizning holatda – mashqlar) organizm uchun dori yoki zahar boʻlishi mumkin – hamma ish meʼyorga bogʻliq boʻladi, deb taʼkidlashgan. Jumladan, voleybol sport turida ham oʻta zoʻriqib mashgʻulot olib borish sportchini kamdan-kam hollardagina sogʻlomlashtiradi. Koʻplab jarohatlar, jismoniy va ruhiy zoʻriqishlar oxir-oqibatda professional sportchilarning sogʻligʻiga salbiy taʼsir koʻrsatadi;

tushunishi, shuningdek, moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lish qobiliyati va ishonchi ko'rsatkichidir" [3]. Boshqaruv shaxsiy moliya hamyonbop muvofiq qisqa muddatga yechimlar va ishonchli uzoq muddat moliyaviy rejalashtirish, hayotiy voqelik va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqilayotgan kontseptsiyaning taqdim etilgan ta'riflarini tahlil qilish asosida biz ilmiy mahalliy va xorijiy adabiyotlarda "moliyaviy savodxonlik" ning quyidagi talqinlari mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin (1-rasm).

"Moliyaviy savodxonlik" tushunchasi, boshqa ko'plab murakkab, ko'p o'lchovli tushunchalar kabi, to'g'ridan-to'g'ri empirik talqin qilinishi mumkin emas. Buni faqat bilvosita talqin qilish mumkin. Turli fanlar vakillari bu muammoni o'z vositalari doirasida hal qiladilar. Shunday qilib, iqtisodchilar Davlat statistika qo'mitasi yoki Markaziy bank, shuningdek, boshqa tashkilotlar (banklar, sug'urta kompaniyalari, fond birjalari va boshqalar)ning statistik ma'lumotlariga murojaat qiladilar va o'rganilayotgan hodisaning alohida ko'rsatkichlarining miqdoriy tahlilini o'tkazadilar; sotsiologlar sotsiologik tadqiqotlarni ekspertlar, maqsadli guruhlar yoki aholi o'rtasida so'rov o'tkazish shaklida amalga oshiradilar. Uning o'ziga xoslik baholashlar moliyaviy savodxonlik psixologlar va o'qituvchilar orasida mavjud.



1-rasm. "Moliyaviy savodxonlik" ning rivojlantirish ko'rsatkichlari


Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish vazifalari orasida markaziy o'rinni o'quvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantiruvchi vazifasi egallaydi.

Darslarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish eskirgan usullardan voz kechishni taqozo qiladi. Bunday o'quv jarayonida sifat o'zgarishi vujudga keladi (2-rasmga qarang).

Mohiyatiga ko'ra moliyaviy savodxonlik o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Interfaollik ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. An'anaviy ta'lim ham suhbatga asoslangan va bu suhbat "o'qituvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-o'quvchilar jamoasi" shakllarida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda eski an'anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi kelmaydi. Chunki fikrlash va tafakkur boshqa,

aynan biror fan bo'yicha bilimga ega bo'lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa –bu ta'lim muassasi, pedagog faoliyati mahsuli.




2-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish jarayonida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari

Yoshlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tezdir. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tez bo'lmasa, uning ta'lim–tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ayrim boshlang'ich jihatlari, interaktiv o'qitish usullari, ularni mashg'ulot davomida qo'llash yo'llari qisqa bayon etildi.

Muhokamalar.

Oltita tafakkur shlyapasi - Edvard De Bononing 1985 yilda nashr etilgan kitobidir. Uning inglizcha nomi Six Thinking Hats. De Bono odamlar qanday qilib turli xil yo'llar va yondashuvlarda tushunishlari va o'ylashlari mumkinligini o'rganib chiqdi. Ushbu yondashuvlar haqida nazariyani ishlab chiqqan muallif, odamlar o'zlarining fikrlash odatlari bilan o'zlarini cheklab qo'yishlarini va fikrlash harakatini faqat bir yoki ikkita yondashuv bilan amalga oshirishlarini kuzatgan (3-rasm).



3- rasm. 6 tafakkur shlyapasi metodi

De Bono, agar turli yondashuvlar aniqlansa va bu yondashuvlardan qanday foydalanishni o'rgatsa, odamlar

ushbu yondashuvlardan foydalangan holda yig'ilishlar va jamoaviy ishlarda ancha samarali bo'lishlarini taklif qildi.

De Bono tomonidan ishlab chiqilgan fikrlash texnikasining samaradorligi fikrlash usullarini 6 ta yo'nalishga bo'lish va ajratish va muayyan vaziyatda to'g'ri yondashuvni tanlash bilan ta'minlanadi. Moddalarning har birida ko'rib chiqilayotgan masalaning muayyan tomonlari (masalan, intuitiv tuyg'u, pessimistik mulohazalar, neytral faktlar va boshqalar) aniqlanadi va uni ongli fikrga aylantiradi. Vaqtning har bir daqiqasida asosiy fikrlash turlaridan birini ongli ravishda tanlash insonga diqqatni muayyan masalaga qaratishga va muammoni ma'lum bir burchakdan ko'rib chiqishga imkon beradi.

Oltita fikrlash shlyapa texnikasining asosiy maqsadi:

- diqqatni jamlash va fikrlash jarayonini yaxshilash
- ijodkorlikni, parallel va tarmoq fikrlashni rag'batlantirish,
- mulqotni takomillashtirish
- qaror qabul qilishni tezlashtirish
- bahs-munozaralardan qochish [4]

Moviy shlyapa: Jarayonlarni boshqarish

Moviy shlyapa muammoni yuqoridan, umumiy nuqtai nazardan qarab, yaxlit ko'radi. Moviy shlyapa kiygan odam o'z fikrlarini nazorat qilish va qaror qabul qilish jarayonini boshqarishga e'tibor qaratadi. U o'z kun tartibidagi muammoni umumlashtiradi, uni aniq taqdim etadi, vaziyat bayonini so'raydi va xulosaga keladi.

Yashil shapka: ijodkorlik

Tabiat rangidan ilhomlangan yashil shlyapa ijodiy fikrlashni ifodalaydi. Ko'plab aqliy hujum va assotsiativ

tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ushbu shlyapa kiygan kishi yangi g'oyalar va farqlar bo'lishi mumkinligini tushunadi. Oldinga borishning mumkin bo'lgan yo'llarini o'rganish orqali inson bir qator mulohazalarga ega bo'ladi.

Qizil shapka: hissiyotlar

Qizil shapka hissiyotlar va instinktlarni ifodalaydi. Ushbu shlyapa kiygan odam muammoga e'tibor qaratish va echimlarni izlashda o'z his-tuyg'ularini mantiqiy tushuntirishlar bilan oqlashi shart emas. U shunchaki bu masala bo'yicha nimani his qilayotganini aytadi va his-tuyg'ulari yo'lida uni kutayotgan xulosaga keladi.

Sariq shapka: optimizm

Sariq shlyapa kiygan odam muammoga eng ijobiy nuqtai nazardan, optimizm bilan qaraydi. O'z g'oyalari berishi mumkin bo'lgan foyda va vaziyatlarning qo'shimcha qiymatini ta'kidlab, o'zini namoyon qiladi.

Qora shapka: xavflar - qiyinchiliklar

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bu shlyapada yuqori darajada. Qora shlyapa kiygan odam ehtiyotkor va har doim yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni hisobga oladi. U tanqidiy mulohaza yuritadi, nima uchun tashvishlanayotganini, qanday izohlar borligini tushuntiradi va muammolarni aniqlaydi.

Oq shapka: haqiqiy ma'lumot

Tinchlik va poklikka asoslangan faoliyatga kiritilgan oq qalpoq ma'lumot yig'ishni anglatadi. Analitik fikrlash

va qo'llash qobiliyatini ta'kidlaydigan ushbu shlyapa kiygan kishi o'zining mavjud bilimlari va tushunchalarini ko'rib chiqadi. Muammoga duch kelganda, u ma'lumot olish uchun qayerga borishni biladi va qaysi yo'llardan borishni biladi.

Bajarilish tartibi:

Sinf olti kishilik guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga bittadan bosh kiyim beriladi yoki sinf doskasiga 6 xil rangli bosh kiyim osib qo'yish mumkin. Har bir bosh kiyim yonida bo'sh qog'oz yopishtiriladi. Har kim qog'ozga faqat bitta jumla bilan xususiyatni yozadi, so'ng keyingi shlyapaga o'tadi. Undan keyin kelgan do'sti xususiyatlarni qo'shishda davom etadi. Nihoyat, barcha sharhlar o'qiladi va eng mos xususiyatlar tanlanadi.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish maktablarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun yosh o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish masalalarini zamonaviy multimedia o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda o'rgatish zarur. Bolalarda erta yoshdan moliyaviy savodxonlikni shakllantirishimiz natijasida, kelajakda ular moliya bozorining ishtirokchisi, soliq to'lovchi, qarz oluvchi va jamg'armachilarga aylanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). – 48 p.
2. Onushkin.V.G., Ogayev E.I. The problem of literacy in the context of social change // Man and education. Academic bulletin of the IAO RAO. – 2005. - № 1. B- 24
3. D.L.Remund. Financial literacy explicated: The case for a clearer definition in an increasingly complex economy // Journal of consumer affairs. – 2010. - 44(2): 276-295p
4. Edward De Bono. Six thinking hats. – 1985. www.debono.com

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Turdaliyev Ulug'bek Valijon o'g'li

Namangan davlat universiteti Fizika kafedrası o'qituvchisi
ulugbekturdaliyev9508@gmail.com

UO'K 53-535. 373.1/372.853/371.388

FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARINI O'RGANISHDA VIDEO ISHLANMALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining fizika fanining optika bo'limiga oid laboratoriya mashg'ulotiga tayorgarlik ko'rishda o'quv qo'llanmalardan foydalanishdagi ayrim kamchiliklar ko'rsatilgan holda video ishlanmalardan foydalanish qulayliklariga qaratilgan. Video darsliklarning samarasi to'g'risida olimlarining izlanishlariga to'xtalib o'tilgan va tatqiqot obyekti sifatida maktab darsligining optikaga oid laboratoriya ishlari tanlab olinib, ushbu ishlar bo'yicha laboratoriyaga ishining video ishlanmasi tayyorlanganligi va bu hozirgi kunda o'qitishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, fizika fanidan laboratoriya va namoyish tajribalarini o'quvchilarga o'rgatishda foydalanish ijobiy natija berishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: laboratoriya mashg'uloti, maktab, fizika kursi, video darslik, tajriba, virtual laboratoriya, o'quvchi, ijtimoiy tarmoq, vizual xotira, namoyish tajriba.

Турдалиев Улугбек Валижон угли

Преподаватель кафедры физики Наманганского государственного университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИДЕОРАЗРАБОТОК ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТ ПО ФИЗИКЕ

Аннотация: В данной статье акцентируется внимание на удобстве использования видеоразработок, указывая на некоторые недостатки использования учебников при подготовке школьников к лабораторным занятиям по разделу физики оптике. Были затронуты исследования учёных об эффективности видеоучебников, а в качестве объекта исследования выбраны лабораторные работы по оптике из школьного учебника, а на основе этих работ подготовлена видеоразработка работы для лаборатории, и это является одним из наиболее эффективных методов обучения сегодняшнего дня, и использование этих лабораторных и демонстрационных экспериментов по физике даёт положительные результаты.

Ключевые слова: лабораторное занятие, школа, курс физики, видеоурок, эксперимент, виртуальная лаборатория, ученик, социальная сеть, зрительная память, демонстрационный эксперимент.

Turdaliyev Ulugbek Valijan ugli

Teacher, Department of Physics, Namangan State University

USING VIDEO DEMONSTRATIONS IN LEARNING PHYSICS LABORATORY ACTIVITIES

Abstract: This article focuses on the convenience of using video tutorials, pointing out some of the shortcomings in the use of instructional manuals in preparing schoolchildren for laboratory training in the optics branch of physics. The researches of scientists about the effectiveness of video textbooks were touched upon, and as the object of research, laboratory work on optics from the school textbook was selected, and video development of the work was prepared for the laboratory based on these works, and this is one of the most effective methods of teaching today, and it has been shown in this work that the use of laboratory and demonstration experiments in physics is positive.

Key words: Lab experiments, school, physics course, video tutorial, experiment, virtual laboratory, student, social network, visual memory, demonstration experiment.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni

tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot

samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Jumladan: yoshlarning fizika faniga qiziqishlarini kuchaytirishga yetarli e'tibor berilmayapti, ta'lim dasturlari o'quvchilarda mustaqil, kreativ fikrlashni shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilmagan, ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar zamon talablariga javob bermasligi aytiladi.

Fizika fani bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, yuqori malakali pedagog va ilmiy xodimlarni tayyorlash, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ilmiy tashkilotlarning salohiyatini rivojlantirish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligi uqtirilmoqda [1]. Ayniqsa bu jarayonlar fizikadan laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda ahamiyatlidir.

Ko'pincha laboratoriya ishlarini bajarish jarayonini o'rganishda an'anaviy ravishda faqat matnli o'quv qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar ustunlik qiladi. Shunga qaramay, faqat matn yordamida laboratoriya mashg'ulotlarining muhim tafsilotlarini olish qiyin. Laboratoriya materiallari bilan ishlash, ilmiy asbob-uskunalaridan foydalanish va tajribalarning texnik jihatdan murakkab bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni samarali o'rganish va tasavvur qilish uchun ko'plab talaba va o'quvchilar video ishlanmalarga murojaat qilmoqdalar.

Adabiyotlar tahlili.

Janubiy Xitoy texnologiya universiteti dotsenti Shaofeng Lu va uning hamkasblari "Elektron laboratoriya asosida o'qitishda talabalar tomonidan yaratilgan video darsliklarning samaradorligini o'rganish" bo'yicha ilmiy tatqiqot olib borishdi [2].

Tatqiqot davomida universitetning ko'ngilli talabalari to'planib, ular tomonida video darsliklar tayyorlandi va universitetning blogiga joylandi. Bu video darslikdan foydalangan talabalarining 92 % video ostida ijobiy fikrlarini qoldirgan. Video darsliklardan yordamchi o'quv vositasi sifatida foydalanish samaradorligi bo'yicha M. Truebano tatqiqot ishini olib bordan [3]. M. Truebano tatqiqot ishi davomida video darsliklar yordamida tanlab olingan guruhlarda mashg'ulotlar o'tkazgan. Tatqiqot yakunida ajratib olingan guruh dars mashg'ulotlarini, kuzatuv guruhiga nisbatan so'rovnomaga natijasiga ko'ra 12 % samaraliroq o'zlashtirgan. Edinburg universitetining Evolyutsion ekologiya bo'yicha o'qituvchisi doktor Pedro Vale ilmiy laboratoriyalardan foydalanishda video darsliklardan foydalanish ijobiy natijalar berayotgani va bu ta'lim jarayoniga tatqiqotchilarni jalb qilishning usuli deya baholaydi. Tatqiqotchi Antonio Svedrujich o'zining ilmiy maqolasida namoyish tajribalar va ulardan foydalanish fizika va fanlarni o'qitishning asosiy usuli deb takidlaydi [4]. Amerika kimyo jurnalida Ozgur Ecevitning "Onlayn Video darsliklarning kimyo kursidagi talabalar faoliyatiga

ta'sirini baholash" maqolasida video darsliklarning ahamiyati va ularni samaradorligi bo'yicha bir qator ilmiy izlanish natijalari e'lon qilingan [5].

Mukesh Tekwani "Eksperimental fizika" nomli maqolasida talabalarni ma'ruzada mobil telefondan foydalanishni rag'batlantirmasligini, aksincha undan foydalanishni taqiqlash lozimligini takidlagan. Ammo, talabalarga fizika laboratoriyasida mobil telefondan video yozuv yozishda foydalanishni **qat'iy tavsiya** qilgan [6]. Tabiiy fanlarda, ayniqsa, fizika, kimyo fanlarida o'rganilayotgan jarayonlarning o'tkinchilik koeffitsienti shunchalik katta bo'lishi mumkinki, o'quvchi sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatish va tushunishga ulgurmaydi [9].

Tatqiqot metodologiyasi.

O'quvchilarning fizika bo'yicha kognitiv faolligi, o'zini o'zi faollashtirish, nostandart pedagogik yechimlar, innovatsion texnologiyalar vositasida intellektual-refleksiv kompetentligini oshirish dolzarb pedagogik muammoga aylandi. Maktab ta'limining erta davridan boshlab o'quvchilarda hodisalar tabiatini o'rganish, zamonaviy innovatsion bilimlarni egallash, amalda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, fizika ta'limi tizimini modernizatsiyalash borasida yuqori natijalarga erishish, maktab fizika kursining optikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardandir.

Maktab fizika kursida laboratoriya mashg'ulotlari fanning asosiy qismini tashkil etadi. O'quvchi dars mashg'uloti davomida olgan barcha bilimlarni laboratoriya mashg'uloti yoki namoyish tajribani o'tkazish jarayonida mustahkamlaydi. Shuning uchun laboratoriya mashg'ulotlarini zamon talabi darajasida o'qitish metodikasini takomillashtirish zarur.

Mamlakatimizda fizika ta'limi jarayonini tashkil qilish, shakllantirish va rivojlantirishning turli yo'l va usullarining nazariy jihatlari hamda fizika o'qitish jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan. Biroq yuqoridagi tadqiqotlarda maktab fizika kursining optikaga oid laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitish metodikasini zamonaviy qulayliklar va innovatsion qurilmalar asosidagi olib borilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy va ilmiy - uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Sir emaski, respublikamiz hududida juda ko'p maktablar mavjud. Ushbu maktablarda tabiiy fanlarda, ayniqsa, fizika, kimyo fanlarida olingan bilimlarni mustahkamlash va jarayonni o'z ko'zi bilan kuzatish uchun laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Laboratoriya

mashg'ulotlarini o'tkazish tartibini o'quvchi asosan maktab darsligidan o'qib o'rganadi. Odatda maktablarda laboratoriya mashg'ulotlari guruh bo'lib, laboratoriya mashg'ulotini o'tkazuvchi asosiy shaxs esa fan o'qituvchisi hisoblanadi. Albatta bunga bir qator sabablar bor. Masalan:

maktab darsliklarida laboratoriya mashg'uloti uchun vaqtning qisqaligi, bitta mashg'ulot uchun 1 yoki 2 soat ajratilgani;

kichik guruhlarga bo'linib laboratoriya bajarish uchun maktab texnik bazasining yetishmasligi;

o'quvchining laboratoriya mashg'ulotini bajarish tartibini to'liq o'rganish uchun malakaning yetishmasligi.

Fizika ta'limida laboratoriya eksperimenti orqali olinadigan bilimlar o'zining didaktik xususiyatlari jihatidan katta salmoqqa egadirlar. Ushbu imkoniyatlardan, ayniqsa, umumiy o'rta ta'limda keng foydalanilish lozim. Fizika laboratoriyasi fizikaning "o'yin" maydonchasidir. O'quvchi laboratoriyada barcha zavqlarni o'tkazadi, shuningdek, ilm-fan sirlarini o'rganadi va "kashf" etadi [6]. Maktabda fizikadan laboratoriya mashg'uloti o'tkazilganda o'quvchilar laboratoriya mashg'ulotini diqqat bilan kuzatib turishadi, shunki ularga fizik jarayonni amalyotda ko'rish juda qiziq. Laboratoriya mashg'ulotlari nazariya va amaliyotni bog'lovchi hamda ularning birligini ta'minlovchi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda, mustaqillik, o'lchov asboblari bilan ishlay olish va tajriba o'tkaza bilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda, o'lchash xatoliklarini baholay bilish kabi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Insonlarni o'rganish va axborotni qabul qilish bo'yicha 3 turga ajratsak bo'ladi. Bular: eshitish, ko'rish va harakat hotiralari. Vizual xotira cheksizdir. Tatqiqotlardan birida ishtirokchilarga 10 000 ta rasm berilgan va keyin boshqa rasmlar bilan aralashtirilgan rasmlarni berib ularni ajratish topshirilgan. 99% aniqlikda rasmlar to'g'ri ajratilgan. Hatto 3 oydan so'ng ham shu natija takrorlangan. 10% o'qiganda, 20 % eshitganda, 30% o'qib-eshitganda, 50% eshitib ko'rganlarda, 70 % suhbatlashganda, 90% bajarayotganda eslab qolingani. Tevarakdagi malumotlarni hisiyotlarimiz orqali qabul qilamiz. O'rganish va xotirada saqlashning turli usullari mavjud. Har bir odamda ma'lum usullarning majmuyi mujassam bo'lib turlicha usullarda turlicha o'rganishi mumkin [8].


Psixolog David Mayersning fikriga ko'ra o'qib o'rganishdan ko'ra ko'rib o'rganish samaraliroq. Shunki

inson o'qiganidan ko'ra ko'rganini ko'proq eslab qoladi. Video darsliklarning o'quv qo'llanmalardan avzallik tomoni ham shunda. Biroq bu degani o'quv qo'llanmalardan butunlay voz kechish kerak degani emas. Video darsliklarning asosini albatta laboratoriya ishining o'quv yoki uslubiy ko'rsatmalari tashkil e'tadi. Video darsliklar asosan o'rganuvchiga metodik yordam vazifasida ko'proq samarali bo'ladi degan fikirdamiz.

Ko'plab kuzatuvlarimizda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonini o'quvchilar mobil telefonda yashirincha video yozuvga olayotgani ko'ramiz. Maktab hududida mobil telefondan foydalanish ma'muriyat siyosatiga bog'liq bo'lganligi sababli, laboratoriyada mobil telefondan foydalanishdan oldin maktab **o'qituvchisi roziligini olish juda muhimdir**. Xo'sh, laboratoriya mashg'ulotini video yozuvga olishdan maqsad nima? Eng foydali qismi video tasvirni qayta ko'rish mumkin, bu esa o'quvchini fizik tajribani tushunmagan qismlarini tushunib olish imkoni beradi. Bundan tashqari o'quvchi laboratoriya qurilmalarining har birini ishlash jarayoni alohida ko'rish mumkin. Shunki laboratoriya mashg'ulotlari maktablarda haftada bir marta o'tkaziladi.

Maktab o'quvchilarining yozib olgan video tasvirlari qay darajada sifatli?

O'quvchida video tasvirni istalgan vaziyatda va istalgan joylashuvda tasvirga olish imkoniyati mavjud emas. Avvaldan tayorlanmagan holda tasvirga olish o'qituvchining ham ruhiyatiga tasir o'tkazadi, bu esa uning laboratoriya mashg'ulotining asosiy mazmunini yetarli darajada ochib berish imkonini cheklaydi. Yuqorida takidlangan holatlar sabab o'quvchining dars mashg'ulotida olgan tasviri sifat jihatidan video ishlanma bo'la olmaydi. Biroq shuni sabab qilib o'quvchiga laboratoriya mashg'ulotini tasvirga olishni taqiqlash kerak emas. Inson o'zi uchun qiziq yoki muhim bo'lgan vaziyatlarni tasvirga oladi. Tatqiqot ishining maqsadi maktab darsliklarida berilgan laboratoriya mashg'ulotlari uchun sifatli va sodda bo'lgan video ishlanma tayyorlash. Tatqiqot obyekti sifatida fizika fanining optika bo'limiga oid mavzulari tanlab olindi. Umumiy holda optikaga oid laboratoriya ishi va namoyish tajribalarining har bir bosqichini alohida e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Video darsliklarni tayorlash loyihasi

1-bosqich. Laboratoriya mashg'uloti yoki namoyish tajriba mavzusini tanlashda, ushbu mashg'ulotni bajarish uchun barcha qurilmalar mavjudligini aniqlab olish zarur. Shu bilan bir qatorda video darslik qiziqarli bo'lishi kundalik turmushda kam kuzatiladigan fizik hodisani tanlashni tavsiya qilamiz. Masalan: Malyus qonunini tushuntirish uchun polarizator va analizatorlar orasidagi burchakni o'zgartirib yorug'lik intensivligini kamaytirish yoki yorug'likning qutublanish jarayonini tanlash mumkin.

2-bosqich. Mavzu tanlangandan so'ng ushbu tajribani amalga oshirishdan avval tajriba xususiyatidan kelib chiqqan holda xonani tayorlash lozim. Bunda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan asosiy jihatlar xonada zarur bo'lgan energiya taminotining mavjudligi, xonaning yoritilish darajasi (Optika bo'limiga doir tajribalar uchun ko'p hollarda xonaning yorug'lik darajasi past bo'lgani maqul), tajribani suratga olish maydoning yetarli darajada bo'lishi.

3-bosqich. Har bir ishda alohida rejaning mavjudligi uning sifatini taminlab beradi. Video darslikni tayorlashda ham laboratoriya mashg'ulotini bajarilish jarayoni va uni suratga olishni senariy asosida amalga oshirish zarur. Senariyning sifatiga qarab suratga olish jarayonida laboratoriya mashg'ulotni o'tkazuvchi shaxs ishning ketma ketligi va zaruriy ko'rsatmalarni o'z o'rnida aytib bera oladi.

Video tasvirni suratga olish ishlari yakunlangandan so'ng uni tahrirlab video darslik tayorlanadi. Tayorlangan video ishlanmalarni o'quvchilarga yetkazishning juda ko'plab usullari mavjud. Masalan qattiq diskga yoki hotira kartasiga ko'chirib berish mumkin, yoki zamonaviyroq usullardan yani ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan maqul. Tatqiqotda **Youtube** ijtimoiy tarmog'ida kanal ochib video darsliklarni

<https://www.youtube.com/@ulugbekturdaliyev-or7uw> [7] kanaliga joylandi (2-rasm). Ijtimoiy tarmoqlarning qulayligi shundaki istalgan shaxs ko'rishi, video darslik haqida o'z fikr va tavsiyalarini qoldirishi mumkin. Qoldirilgan fikr va tavsiyalar keyingi video darsliklar sifatiga tasir etadi. **Youtube** ijtimoiy tarmog'ida 10 ta laboratoriya ishlanmasi 4 oy davomida umumiy hisobda

13 500 marta tomosha qilingan bo'lib, qoldirilgan fikrlarning 98 % foizi ijobiy.



2-rasm. YouTube tarmog'idagi video darslikdan lavha

Video darsliklar va ishlanmalarning asosiy foydalanuvchilari maktab o'quvchilari hisoblanadi. Lekin tarmog'dagi fikrlarning juda ko'plari maktab o'qituvchilaridan qoldirilgani quvonarli. Demak video darsliklar maktab o'quvchilari bilan bir qatorda maktabning fizika fani o'qituvchilariga ham metodik yordam vazifasini bajarmoqda.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, video darsliklar va ishlanmalar hozirgi kunda o'qitishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, bu usuldan fizika fanidan laboratoriya va namoyish tajribalarini o'quvchilarga o'rgatishda foydalanish ijobiy natija beradi. Laboratoriya ishini bajarish uchun laboratoriya jihozi mavjud bo'lmagan maktablarda video darslikni o'quvchilarga ko'rsatish orqali dars mashg'ulotidan ko'zlangan maqsadni qisman bajarish mumkin. Bunday video darsliklarni faqat maktab uchun emas, oliy ta'lim yo'nalishlaridagi laboratoriyasi mavjud bo'lgan fanlar uchun ham qo'llash mumkin. Video darsliklar o'quvchilarni fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorlashda yuzma-yuz qo'llanma kabi ishlaydi. Bundan tashqari, fizika laboratoriya mashg'ulotini o'zlashtirishda video darslikdan foydalanish o'quvchilar bilimida va ruhiy tayorgarligida sezilarli natijalarga olib kelishi aniqlandi. O'quvchi birinchi marta bajarayotgan laboratoriya mashg'ulotining

qurilmalari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lmaydi. Bu esa o'quvchida ishni to'liq bajara olishga bo'lgan ishonchini pasaytirtadi. Video darslik, ishlanma va o'quv qo'llanmaning kombinatsiyasi o'quvchida ichki

motivatsiyaning oshishiga olib keladi. Chunki o'quvchi qurilmaning qanday ishlatish va ishning aniq ketma-ketligini video darslik va ishlanmalar bilan birma bir takrorlab bajara oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarori.
2. Lu, Shaofeng & Cheng, Ying & Wang, Xiaoyang & Du, Yang & Lim, Eng. (2017). Exploring the effectiveness of student-generated video tutorials in electronic lab-based teaching. 1-4. 10.1109/FIE.2017.8190710.
3. Truebano, Manuela and Colin B. Munn. "An Evaluation of the Use of Video Tutorials as supporting Tools for teaching Laboratory Skills in Biology." *Practice and Evidence of the Scholarship of Teaching and Learning in Higher Education* 10 (2015): 121-135.
4. Svedružić A. Demonstration in teaching Physics //Metodika: časopis za teoriju i praksu metodikâ u predškolskom odgoju, školskoj i visokoškolskoj izobrazbi. – 2008. – T. 9. – №. 17. – C. 337-344.
5. Ozgur Ecevit. Assessing the Impact of Online Video Tutorials on Student Performance in a Chemistry Course. *American Journal of Chemistry*. 2019; 9(6): 165-168
6. Mushek Takwani. Experimental physics. Human stories & ideas. India 2020
7. <https://www.youtube.com/@ulugbekturdaliyev-or7uw>
8. David G. Mayers. Psychology. 2010 by Worth Publishers. 327 p
9. Zokirov, Sanjar & Obidjonov, Zafarjon. (2022). Amaliy mashg'ulotlarni tashkillashda virtual laboratoriyalarning o'rni.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Xakimova Marjona Azamat qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: marjona01020304@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHGA OID AMALDAGI ISLOHOTLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim sohasiga oid bo'lgan yangiliklar, "O'zbekiston-2030" harakatlar strategiyasi bo'yicha ta'lim sohasida olib borilayotgan masalalar va ularning ijrosi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishdagi yangicha yondashuvlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, ingliz tilini o'qitishda yangicha yondashuv, yangi avlod darsliklari, xorijiy tajriba, zamonaviy darsliklar 4K modeli.

Khakimova Marjona Azamat qizi
Doctoral student of Namangan State University

ANALYSIS OF CURRENT REFORMS REGARDING TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO PRIMARY CLASS PUPILS

Annotation: this article contains news related to the field of education, issues being conducted in the field of education according to the action strategy "Uzbekistan-2030" and their implementation, a new approach to teaching English to primary school students approaches are discussed.

Key words: modern education, a new approach to teaching the English language, new generation textbooks, foreign experience, modern textbooks 4K model.

Хакимова Маржона Азамат кизи
Докторант Наманганского государственного университета

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ РЕФОРМ В ОБЛАСТИ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: в данной статье собраны новости, связанные с сферой образования, вопросы, проводимые в сфере образования согласно стратегии действий «Узбекистан-2030» и их реализация, обсуждаются новые подходы к преподаванию английского языка учащимся начальных классов.

Ключевые слова: современное образование, новый подход к преподаванию английского языка, учебники нового поколения, зарубежный опыт, современные учебники 4К-модели.

"Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi." - deydi o'zlarining ma'ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq barcha sohalarni shu jumladan, ta'limni isloh etish bo'yicha "O'zbekiston - 2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Quyidagi jadval orqali ta'limda 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarini ko'rish mumkin.

"O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI

Maqsad	2030-yilgacha maqsadlarning ko'rsatkichlari	erishiladigan samaradorlik
I. HAR BIR INSONGA O'Z SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQRISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH		
1.1. Ta'lim tizimi islohotlari		
3.Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi	700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish.	

bosqichga olib chiqish.	Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish.
	Ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish.
	Barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarlariga o'rgatish kurslarini joriy etish.
	Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish.

"O'zbekiston -2030" strategiyasining 3-bandi yani "Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish" bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlarga 2030-yilgacha 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa joriy yil yakunigacha (2024)

- 1400 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan oilaviy oilaviy bog'chalarni tashkil etish;

- 518 ta maktabni rekonstruksiya qilish va 30 ta maktabni yangidan barpo etish va bu orqali 175 ming o'quv o'rnini yaratish;

- Maktablar uchun 131 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblarini yaratish;

- Olis va chekka hududlarda joylashgan 100 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish;

- Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonini 470 taga yetkazish¹⁹ bu yil uchun maqsad qilib olindi.

Bundan tashqari, 2030- yilgacha belgilab olingan rejalaridan biri "Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish" borasida ham jadal ishlar olib borilmoqda. Bunga Yangi avlod darsliklari: boshlang'ich sinf darsliklarining afzalliklari haqidagi ma'lumotlar misol bo'la oladi. Bu yil taqdim etilgan boshlang'ich sinf darsliklari o'qituvchilar uchun yangilik bo'ldi. O'quvchilar kitoblar berilgan kun qanchalik quvonishganini so'z bilan ta'riflab berib bo'lmaydi. Haqiqatan ham hozirgi kitoblar avvalgilaridan ancha ustun. Kitobning ko'rinishi va rang-barang suratlari har bir o'quvchini o'ziga qaratoladi. Avvalgi kitoblar ancha qalin va og'ir edi. Ayni o'sish davridagi bola uchun bu qator qiyinchiliklarni tug'dirardi. Yangi darsliklarning choraklarga bo'lingani o'quvchini yil davomida ortiqcha yukni ko'tarib yurishdan xalos qildi. 1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim

etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

- Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 726-qaroriga muvofiq ta'lim muassasalarining matbaa mahsulotlari texnik reglament asosida ishlab chiqariladi. Yangi boshlang'ich sinf darsliklari ana shu texnik reglamentning eng maksimal darajasidan ham yuqori sifatda ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida darslikdan uzoq yil foydalanishga sabab bo'ladi. Ular sifati va chidamlilik darajasi bo'yicha Yevropa poligrafiyasi standartlariga to'liq javob beradi. Darslikning vazni, o'lchami, shriftlari bo'yicha reglament tasdiqlangan va shu talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgan. Darsliklarni ishlab chiqishda bolalar ruhiy holati ham hisobga olinadi. Ularda ijodkorlar va fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rasmlar va illyustratsiyalardan keng foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola matnlarga nisbatan, tasvirlar orqali ma'lumotni tezroq qabul qiladi. Shu bois yangi darsliklarni yaratishda matnlar bilan birga, rangtasvirlarga ham alohida e'tibor qaratilgan.²⁰ Yaqin yillardan buyon maktab darsliklarining ijara to'loviz berilayotganligi ham juda quvonarli. Ilgari xorij tilidagi darsliklar bo'yicha yetishmovchiliklar bo'lar edi. O'qituvchilar darslikka qo'shib, qo'shimcha adabiyotlar ham sotib olishlari so'ralar edi. Bu yil bunday muammo umuman bo'lgani yo'q.

Ta'lim tashkilotlariga har yili **500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni** jalb etish bo'yicha ham qator ishlar olib borilmoqda. 2023- yildan boshlab ta'lim muassasalariga jami 500 nafardan ziyod xorijiy pedagoglar "til egalari" sifatida ingliz, nemis, fransuz tillaridan dars berish uchun jalb qilingandi. 2024-yildan boshlab esa yana 1500 ta "til egalari" olib kelinishi reja qilingandi. Ular yuqori sinf o'quvchilariga Buyuk Britaniyaning "Cambridge University Press", Fransiyaning "Didier", Germaniya Federativ Respublikasi "KLETT" nashriyotining darslik va dars o'tilishi belgilangandi.²¹ Ta'limdagi islohotlar kundan kunga yaxshilanib bormoqda. Bunday yaratib berilayotgan imkoniyatlar nafaqat ta'lim oluvchilar uchun balki ta'lim beruvchilar uchun ham quvonarlidir.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-1815-sonli

¹⁹ <https://zamon.uz/detail>

²⁰ <https://daryo.uz>

²¹ <https://xalqta'liminfo.uz>

Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini asosan, ingliz tilini o'zgarish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan muvofiqashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014- o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv- metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibliigi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi.²² Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

— Muammoli vaziyat yechimi (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

— Quvnoq topishmoqlar (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

— Tezkor javob (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

— Chigil yozdi (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish;

— Pantomima(pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

— Hikoya zanjiri(a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;

— Rolli o'yinlar (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun Interpreter, Translator, Writer, Poet kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

— Allomalar yig'ini (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni taklif qilish mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

— Rasmlar so'zlaganda(When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; -Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradibu esa vaqtni tejaydi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.²³ Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikning oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg'ulot davomida chet tildagi video rolikni ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba'zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish ko'nikmalarini o'stirishida ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydanishimiz mumkin. Bundan tashqari dars davomida zamonaviy metodlar ham talabao'quvchilarning chet tilini o'rganishda ancha yengilliklar yaratadi. Shu o'rinda "klaster", "baliq skeleti", "venn diagrammasi", "rolli o'yinlar", "aqliy hujum", "savol-javob" kabi metodlarni aytib o'tishimiz lozim. Har bir metodning qo'llanilishida alohida talaba-o'quvchilar uchun chet tilini osonroq o'rganishda yengillik yaratib beruvchi omillari mavjud. Masalan, aqliy hujum metodini olsak, metod talabani tezroq fikrlashiga va nutqini o'stirishga judaham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bir birlari bilan fikr almashish orqali ham dunyoqarashi,

²² Qurbonova M.N. OSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

²³ Sultonova Venera. BUGUNGI KUNDA YURTIMIZDA CHET TILINI O'QITISHDAGI ISLOHOTLAR SAMARASI

fikrlash qobiliyati rivojlanadi.²⁴ Chet til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish/o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturiga ingliz tilini kiritish qarori quyidagi xulosalarga asoslanib ma'qullangan: Critical Period Hypothesis states that there is a limited developmental period during which it is possible to acquire a language, be it L1 or L2, to normal, nativelike levels. – Kritik Davr Gipotezasi ona tili bo'ladimi, chet tili, chet tilda tabiiy nutqqa yaqin darajada egallanishi mumkin bo'lgan chegaralangan rivojlanish davri mavjudligini ta'kidlaydi.

... kichik yoshdagi bolalar yaxshiroq va osonroq o'rganishadi.

...uzoqroq o'rganish davri maktab ta'limi yakuniga qadar malakalarning yuqoriroq darajada egallanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning: a) psixologik asoslari I.A.Zimnyaya (1991), D.M.Singlton (1995), D.Singlton va L.Ryan (2004), 8 Z.Dorney (2005), P.M.Laytboun, N.Spada. (2006), A.P.Sinelnikov (2009), M.Villiams, R.L.Bedn (2010); b) pedagogik asoslari V.A.Skot, L.X.Yetrberg (1992), S.Xallivel (1993), K.Grant (2002), J.Mun (2005), S.Xorner, V.Rif (2007), A.Pinter (2011), D.Veil, A.Faunteyn (2011); d) metodologik asoslari N.D.Galskova, Z.N.Nikitenko (2004), L.Kamerun (2005), K.T.Linz, D.Nyunen (2005), N.A.Gorlova (2010) kabi olimlar tomonidan nashr ettirilgan adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Sohaga oid adabiyotlarning qisqacha sharhidan ma'lum bo'ladiki, tadqiqotlar turli ta'lim sharoitlarida olib borilgan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda kichik yoshdagi ingliz tili o'rganuvchilar sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari nazarda tutilgan bo'lsa, ayrimlarida 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga ingliz tili o'qitish jarayoni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan. Yuqoridagi adabiyotlarda «konsepsiya» atamasi turli tushunchalarni ifodalaydi. Konsepsiya – ilmiy g'oya(lar) ma'nosida ishlatiladi va ta'lim jarayonining har bir nuqtasida xorijiy tillarni o'qitish strategiya va taktikalarni belgilab beradi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi «(Inter)Cultural Awareness», «Language Awareness» va «Humanity» ta'lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmogda. (Inter)Cultural Awareness – Madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi dastlab Germaniyada shakllantirildi va qisqa vaqtda g'arb mamlakatlarida ommalashdi. Ushbu konsepsiya asosida ingliz tilini muloqot vositasi sifatida o'rgatish emas, balki o'quvchini umumiy va nutqiy rivojlantirish, ya'ni uni ingliz tili va o'zga madaniyatga

qiziqtirish, unda kundalik hayotda duch kelish mumkin bo'lgan tilga e'tiborli munosabatda bo'lish va integratsiyalashayotgan Yevropadagi turmush sharoitlariga moslashish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadi yotadi. «Language Awareness» – konsepsiyasi «Holistic approach» nomi bilan ham ataladi va u ingliz tilini yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida o'zlashtirilishi lozimligini targ'ib etadi. Ya'ni boshlang'ich ingliz tili ta'limining maqsadi ingliz tili vositasida hayot haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirishdir. Lekin M.Villiams va R.Bednlar Vigotskiyning nutq rivojlanish ontogenezi haqidagi nazariyasini «Holistic approach» deb nomlashni ma'qul ko'rishgan.²⁵

O'zbekistonda «Humanity» (Shaxsga yo'naltirilgan) konsepsiyasi qabul qilingan va unga muvofiq boshlang'ich ingliz tili ta'limida o'quvchiga ta'lim jarayoni va madaniyatlararo kommunikatsiya (muloqot)ning markaziy sub'yekti maqomi beriladi, uning qiziqish va ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ingliz tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni baholash dolzarb muammolardan sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani A1 darajada egallaganliklarini ob'yektiv aniqlashda murakkab vaziyatlarga duch kelinishi mumkin. Afsuski, ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'zlar, iboralar, qo'shiq va she'rlar, sahna ko'rinishidagi rollarini yod olishlari til o'rganilganligi va nutqni rivojlanganligi haqidagi yolg'on tasavvurga sabab bo'ladi. Ingliz tili o'qitishning suniy ta'lim sharoitida o'quvchilarda ingliz tilida fikr shakllantirish va ifodalash usuli sifatida nutqni rivojlantirish katta qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Chunki fikrni shakllantirish ichki planda ona tilida sodir bo'ladi, ifodalash esa tashqi planda ingliz tilda amalga oshiriladi. Agar ingliz tili o'rganish jarayonida o'quvchi doimiy ravishda ona til kodini ingliz tili kodiga tarjima qilaversa u til vositalarini o'rganadi, ingliz tilida fikr ifodalash usulini emas.

O'quvchilarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishning «language portfolio» metodi ham mutaxassislar (Popham -1999, Chen & Martin – 2000, Stiggins – 2001, A.Pinter – 2006, McMillan - 2007) tomonidan ijobiy baholanmogda. Yosh davrining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholashda a) o'quvchiga shaxs sifatida xayrixoh munosabatda bo'lish; b) sezilarli natija qayd

²⁴ Farida Hamroyeva. CHET TILLARNI O'QITISH BO'YICHA MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH// VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7

²⁵ Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 40 b.

etilmasada o'quvchining topshiriqni bajarishga qo'yilgan xatolarni aniq tahlil qilish; e) erishilgan natijani yo'naltirilgan intilishlariga ijobiy munosabatda bo'lish; d) yaxshilash bo'yicha aniq topshiriqlar berish tavsiya etiladi²⁶. topshiriqning qiyinlik darajasidan kelib chiqib yo'l

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117-SON qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 465-1-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
5. Qurbonova M.N. OSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR
6. Sultonova Venera. BUGUNGI KUNDA YURTIMIZDA CHET TILINI O'QITISHDAGI ISLOHOTLAR SAMARASI
7. Farida Hamroyeva. CHET TILLARNI O'QITISH BO'YICHA MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH// VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7
8. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – 40 b
9. Tajibayev G.Sh. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISH./ NAMANGAN — 2019. B. 6-11, 141-142
10. <https://lex.uz/docs>
11. <https://zamon.uz/detail>
12. <https://kun.uz>
13. <https://xalqta'liminfo.uz>

²⁶ Tajibayev G.Sh. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISH./ NAMANGAN — 2019. B. 6-11, 141-142

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li
I.Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institute
Gumjanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasini o'qituvchisi

FALSAFA FANINI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLAR TAHLILI

Annotatsiya: Falsafani o'qitish uzoq vaqtdan beri foydali va mashaqqatli ish bo'lib, fanning mavhum va ko'pincha murakkab tabiatidan kelib chiqadigan o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. Ushbu maqola falsafa ta'limining asosiy muammolarini o'rganadi va an'anaviy usullarni zamonaviy, innovatsion o'qitish yondashuvlari bilan taqqoslaydi. Ushbu metodologiyalarni tahlil qilish orqali biz o'quvchilarni yaxshiroq jalb qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun falsafa ta'limini qanday yaxshilash mumkinligi haqida tushunchaga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Falsafa ta'limi, o'qitish usullari, an'anaviy uslublar, zamonaviy pedagogika, tanqidiy fikrlash, falsafa o'quv dasturi, o'quvchilarning faolligi, ta'limda abstraksiya.

Сатводдиев Фахриддина Акбарали угли
Наманганский государственный институт
иностранных языков имени И.Ибрата
Преподаватель кафедры гуманитарных
наук и физического воспитания

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ: АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ

Аннотация: Преподавание философии уже давно является полезным и сложным занятием, имеющим свои собственные проблемы, вытекающие из абстрактного и зачастую сложного характера дисциплины. В этой статье рассматриваются основные проблемы философского образования и сравниваются традиционные методы с современными инновационными подходами к обучению. Анализируя эти методологии, мы получаем представление о том, как можно улучшить философское образование, чтобы лучше вовлечь студентов и развивать критическое мышление.

Ключевые слова: философское образование, методы преподавания, традиционные методы, современная педагогика, критическое мышление, учебная программа по философии, деятельность студентов, абстракция в образовании.

Satvoldiyev Fakhriddin Akbarali ugli
Namangan State Institute of Foreign Languages named after I.Ibrat
Teacher of the Department of Humanities and Physical Education

PROBLEMS IN TEACHING PHILOSOPHY: ANALYSIS OF TRADITIONAL AND MODERN METHODS

Abstract: Teaching philosophy has long been a rewarding and challenging endeavor, with its own challenges stemming from the abstract and often complex nature of the discipline. This article examines the main challenges of philosophy education and compares traditional methods with modern, innovative teaching approaches. By analyzing these methodologies, we gain insight into how philosophy education can be improved to better engage students and foster critical thinking.

Key words: Philosophy education, teaching methods, traditional methods, modern pedagogy, critical thinking, philosophy curriculum, students' activity, abstraction in education.

Kirish.

Falsafa ilmiy fan sifatida tanqidiy fikrlash, tafakkur qilish va axloqiy fikrlashni rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. Biroq, falsafa o'qituvchilari ko'pincha mazmun va metodologiyada bir nechta qiyinchiliklarga duch kelishadi. An'anaviy o'qitish yondashuvlari

ko'pincha o'ta qattiq yoki talabalarning kundalik tajribasidan uzilib qolganligi uchun tanqid qilinadi, zamonaviy texnikalar esa innovatsion bo'lsa-da, chuqurlikka ega emas. Ushbu maqolada falsafiy ta'limni kompleks yondashuv orqali oshirishga e'tibor qaratilib, ushbu muammolar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Falsafa o'qitishga doir adabiyotlar tahlili falsafa fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalarning falsafiy bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. falsafa fanlarini o'qitishga doir juda ko'plab olimlar izlanishlar olib brogan bo'lib ulardan Nader El-Bizri "Falsafa: A Labyrinth of Theory and Method"[1], Claus Asbjørn Andersen Falsafa "Ibn Rushd, filosofien og Islam"[2] va boshqa olimlarning adabiyotlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada falsafa fanini o'qitishda duch kelinayotgan muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar hamda ularni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar yoritib o'tilgan. Bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida falsafa fanining o'qitishning zaruriyati, ayniqsa talabalarda falsafiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan unumli foydalanishning samarasi ham tahlil etilgan.

Tahlillar va natijalar.

Falsafa haqiqat, adolat va borliq kabi mavhum tushunchalar bilan shug'ullanadi, bu talabalar uchun mavhum mulohazalarga ta'sir qilmasdan tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Talabalar ko'pincha falsafiy g'oyalarni real vaziyatlarga bog'lash uchun kurashadilar, motivatsiya va faollikni kamaytiradi. Falsafa aniq javoblarni taklif qilmaydi, bu boshqa fanlar bo'yicha aniq xulosalarga o'rgangan talabalarni chalkashtirib yuborishi va asabiylashishi mumkin. Falsafa bo'yicha ta'lim fikrlash qobiliyatlari va axloqiy tahlilni kanonik matnlar va falsafiy tarixni qamrab olish bilan muvozanatlashi kerak.[3]

An'anaviy ta'lim usullarini tahlil qilish.

Falsafani o'qitishning an'anaviy usullariga ma'ruzaga asoslangan ta'lim, matn tahlili va Sokratik dialog kiradi. Ushbu yondashuvlarning afzalliklari, ammo cheklovlari ham bor:

1. *Ma'ruzaga asoslangan ta'lim.* Ma'ruzalar o'qituvchilarga murakkab tushunchalarni tizimli ravishda kiritishga imkon beradi, bu esa talabalarga mustahkam poydevor qo'yadigan tizimli tushuntirishlarni beradi. Passiv o'rganish kam ishtirokga olib kelishi mumkin. Talabalar ko'pincha materialni shaxsiy tajribalari bilan bog'lash uchun kurashadilar, bu esa falsafiy fikrlashni real hayotda qo'llashni qiyinlashtiradi.

2. *Matnni tahlil qilish.* Boshlang'ich matnlarni tahlil qilish o'quvchilarga asl falsafiy dalillar bilan shug'ullanish imkonini beradi, izohlash qobiliyatlarini va g'oyalarni tarixiy tushunishni rivojlantiradi. Matnlarga qattiq tayanish falsafani yangi boshlanuvchilar uchun tushunarsiz qilib qo'yishi mumkin. Ko'pgina falsafiy matnlar zich va qiyin bo'lib, o'quvchilarni potentsial to'xtatadi.[4]

3. *Sokratik dialog.* Bu usul sinchiklab savollar berish orqali tanqidiy fikrlash va faol ishtirok etishni

rag'batlantiradi, o'quvchilarni dialog orqali javob topishga undaydi. Samarali bo'lsa-da, Sokratik dialog ko'p vaqt talab qilishi mumkin, bu esa o'tilgan material miqdorini cheklaydi. Bu, shuningdek, har doim ham mavjud bo'lmasligi mumkin bo'lgan talabalarning ishtirok etishga tayyorligiga tayanadi.

Zamonaviy o'qitish usullarini tahlil qilish.

Falsafadagi zamonaviy o'qitish metodologiyalari yanada qiziqarli, o'zaro bog'liq va moslashuvchan bo'lishi uchun yaratilgan. Ulardan ba'zilari muhokamaga asoslangan ta'lim, raqamli o'rganish vositalari va fanlararo yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ochiq munozaralar dinamik o'quv muhitini ta'minlaydi, bunda o'quvchilar g'oyalarni baham ko'rish va bahslashish, tanqidiy fikrlash va real hayotda qo'llashni rag'batlantiradi. Ehtiyotkorlik bilan moderatsiya qilinmasa, munozaralar mavzudan chetga chiqishi yoki yuzaki qatnashishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tinchroq talabalar o'zlarini soyada his qilishlari mumkin. Raqamli platformalar videolar, podkastlar va interaktiv simulyatsiyalar kabi multimediyaga resurslariga kirish imkonini beradi, bu esa mavhum tushunchalarni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Onlayn forumlar sinfdan tashqarida ham muhokama qilish imkonini beradi. Onlayn o'qitish kamroq shaxsiylashtirilgan bo'lishi mumkin va talabalar mas'uliyatini kamaytirishga olib kelishi mumkin.[5] Barcha talabalar raqamli resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin va ba'zilari virtual muhitda diqqatni jamlash qiyinroq bo'lishi mumkin. Falsafani adabiyot, ilm-fan va san'at kabi fanlar bilan bog'lash orqali talabalar falsafaning turli sohalarga aloqadorligini ko'rishlari, faollik va tushunishni kuchaytirishlari mumkin. Fanlararo yondashuv juda ko'p istiqbollarni birlashtirish orqali falsafiy qat'iylikni susaytirishi va kenglik uchun chuqurlikni qurbon qilishi mumkin.

An'anaviy va zamonaviy usullarning qiyosiy tahlili.

Samarali falsafa ta'limining kaliti an'anaviy va zamonaviy usullarning kuchli tomonlarini uyg'unlashtirishdadir. An'anaviy usullar qat'iy bo'lsa-da, ko'pincha ishtirok etishmaydi. Muhokama asosida o'qitish kabi zamonaviy usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi, lekin matn tahlili bilan ta'minlangan chuqurlikka ega bo'lmasligi mumkin. Ma'ruzalarni ochiq munozaralar va raqamli vositalar bilan birlashtirish yanada muvozanatli yondashuvni taklif qilishi mumkin, shu bilan birga qat'iylikni saqlab, ishtirok etishni yaxshilaydi.[6] Hamkorlikdagi loyihalar va fanlararo aloqalar kabi zamonaviy usullar an'anaviy usullarning analitik yo'nalishini to'ldirib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, sharhlash va argumentatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Sokratik dialog, garchi ko'p vaqt talab qilsa ham, munozarani darsdan tashqarida davom ettirish uchun raqamli forumlar bilan yaxshilanishi

mumkin. Zamonaviy usullar turli xil ta'lim uslublarini ko'rib chiqadigan moslashuvchan, talabaga yo'naltirilgan yondashuvlarni taklif qiladi. Ularni ma'ruza xulosalari va matn tahlili kabi an'anaviy usullar bilan aralashtirish turli kuchli va afzalliklarga ega bo'lgan talabalarni joylashtirishni ta'minlaydi.

Falsafa o'qitishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

➤ *Aralashtirilgan ta'lim yondashuvi:* An'anaviy ma'ruzalar, interfaol munozaralar va raqamli resurslarning kombinatsiyasi talabalarni jalb qilishda tuzilmani ta'minlaydi.

➤ *Falsafiy tushunchalarni kontekstualashtirish:* Haqiqiy hayot stsenariylari va amaliy tadqiqotlarni birlashtirish talabalarga mavhum g'oyalar bilan bog'lanishga yordam beradi va falsafani yanada qulayroq qiladi.

➤ *Tanqidiy bahs-munozarani rivojlantirish:* talabalarni savol va bahslashishga undash ularni mustaqil fikrlashga va falsafani tirik fan sifatida tushunishga undaydi.

➤ *Reflektiv amaliyotni o'z ichiga olish:* Muntazam ravishda aks ettiruvchi topshiriqlar o'quvchilarni falsafiy g'oyalarni shaxsiy e'tiqod va tajribalar bilan bog'lashga, tushunishni chuqurlashtirishga undaydi.[7]

Xulosa. Falsafani samarali o'qitish fanning o'ziga xos muammolarini hal qilish uchun an'anaviy va zamonaviy metodologiyalarni muvozanatlashni talab qiladi. An'anaviy usullar qat'iylikni ta'minlasa-da, zamonaviy uslublar foydalanish imkoniyatini va ishtirokini oshiradi. Ma'ruzalar, munozaralar, raqamli vositalar va fanlararo aloqalarni birlashtirgan aralash yondashuv yanada keng qamrovli va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.[8] Falsafa ta'limidagi muammolarni integratsiyalashgan pedagogik asos orqali hal qilish talabalarni ham akademik, ham shaxsiy kontekstda falsafiy izlanishning dolzarbligini tushunishga undashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. El-Bizri N. Falsafa: A Labyrinth of Theory and Method //Synthesis philosophica. – 2016. – T. 62. – №. 2. – С. 295-311.
2. Andersen, Claus Asbjørn. "Falsafa. Ibn Rushd, filosofien og islam." (2022).
3. Канц, Наталья Александровна, and Иван Иванович Гуляк. "Актуальные проблемы преподавания философии в аграрном вузе." Аграрный вестник Северного Кавказа 2 (18) (2015): 328-333.
4. Жукоцкая, Александра Васильевна. "Философия и студенческая эссеистика (некоторые заметки к методике преподавания философии)." Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Философские науки 2 (18) (2016): 57-65.
5. Южанинова, Екатерина Рафаэлевна. "О методах, формах и средствах преподавания философии в вузе." Вестник Оренбургского государственного университета 3 (164) (2014): 108-113.
6. Минеев, Валерий Валерьевич. "Единство теоретико-методологических и методико-практических аспектов преподавания философских дисциплин." Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики 5-1 (2012): 123-127.
7. Толпыкин, Виктор Егорович. "Модернизация системы образования и преподавания философии в контексте развития и обновления российского социума." Теория и практика общественного развития 4 (2012): 30-32.
8. Шумской, Андрей Викторович. "МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ." Оптимизация учебно-воспитательного процесса в образовательных организациях физической культуры: материалы XXVIII региональной научно-методической конференции.–Челябинск: УралГУФК, 2018.–224 с.. 2018.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Nazarova Dilrabo Ne'matjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: 1996dilrabonematjonovna@gmail.com

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA NIKOHNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida tilshunoslik bilan bog'liq nikoh tushunchasini lingvomadaniy xususiyatlari haqida olimlarning fikr mulohazalari tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, lingvomadaniyat, xalq og'zakijodi, maqollar.

Назарова Дилрабо Нематджон кизи
Докторант Наманганского государственного университета

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ БРАКА В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Аннотация. В данной статье изложены мнения ученых о лингвокультурных особенностях брака в узбекском фольклоре.

Ключевые слова: брак, языковая культура, фольклор, пословицы.

Nazarova Dilrabo Nematjon kizi
Doctoral student of Namangan State University

LINGUISTIC AND CULTURAL FEATURES OF MARRIAGE IN UZBEK FOLKLORE

Annotation. This article describes the opinions of scientists about the linguistic and cultural characteristics of marriage in Uzbek folklore.

Key words: marriage, linguistic culture, folklore, proverbs.

Kirish

Tez rivojlanib borayotgan zamonaviy davrdagi globallashuv va lingvomadaniy an'alarini o'zida mujassam etgan dunyo xalqlarida nikoh turli soha ilmiy tadqiqotchilari tomonidan o'rganish obyektiga aylanib ulgurdi. Albatta, boshqa sohalar qatori tilshunoslikda ham xalqlarning boy an'alari va ma'naviyati, madaniyati, urf-odatlarini unutmagan holda til nuqtai nazaridan o'rganishga kirishdi. Jumladan, o'zbek xalqining dini, ma'naviyati, madaniyati va urf-odati, milliy qadriyatlarini umumlashtirgan holda nikohni lingvistik o'rganish obyekti sifatida tadqiq etishga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatdi. Chunki xalqimiz nikohni muqaddas biladi, uni jamiyat va davlatning poydevori, kelajak avlod tarbiyasining asosiy bo'g'ini hisoblaydi. Shuning uchun ham nikoh dinimiz va davlatimiz tomonidan sha'riy va davlatning qomusiy qonunlari asosida mustahkamlangan. Agar biz tilshunoslik bilan bog'liq nikoh tushunchasini tahlil etsak, bu tushunchaning qamrovi nihoyatda keng va mazmunan boyligini anglaymiz.

Xalqimizning nikoh bilan bog'liq ko'p mazmunli, donishmandlik bilan bitilgan xalq og'zaki ijodi va yozma

adabiyoti namunalarini shu kunga qadar ham ohori to'kilmasdan yetib kelishi ham bu mavzuning hozirgi kundagi dolzarbligini belgisi sifatida qabul qilishimiz lozim. Demak, nikoh mavzusi boshqa fanlar qatori til va adabiyotning o'zaro integratsiyasi asosida o'rganuvchi lingvopoetik hodisa hamdir. Ma'lumki, xalqimizda tarixan nikohning muqaddasligini ifodalovchi maqol va matal, frazeologik birlik, idomalar mavjud bo'lib turli shakllarda yetib kelgan. Bu maqol va matal, frazeologik birlik, idomalar millatimizning dini e'tiqoti, milliy mentaliteti, ma'naviyati, madaniyati, qadriyati, urf-odati kabi muqaddas tushunchalarni o'zida mujassam etuvchi donishmandlik namunalari hisoblanadi. N.F.Alefirenko, N.N.Semenenkoning ta'kidlashicha, "Ko'pchilik maqollarning matnida milliy madaniyat va qadriyatlarining asosiy negizlari tavsiflanadi, ularning o'rni matn tarkibidagi bir hodisaning mohiyatini qiyosan solishtirish orqali ochib berishda birlashadi va ifodalanadi" [1].

Adabiyotlar tahlili

Maqollarning ma'naviy ahamiyati madaniyatlarni o'zaro taqqoslash natijasida qiziqish uyg'otadi, tilshunoslar tomonidan o'rganilayotgan xalqlarning o'ziga

xos madaniy merosini aks ettiruvchi boy materiallar taqdim etilib, tilshunoslik qonunlariga amal qilingan holda, nikoh bilan bog'liq ijtimoiy hodisalarning lingvistik tabiati to'liq ochib beriladi.

Albatta, oila mavzusi tarixan hamda hozirgi kunda ham har qachongidan dolzarbligini yo'qotgan emas. Ma'lumki, oilaning yadrosi bu nikoh hisoblanadi. Shu boisdan oila va nikoh haqidagi milliy mentalitetimizda, qonunchiligimizda hamda dinimizda qarash va tushunchalarda hamohanglik mavjud. Shuning uchun ham nikoh va oila masalasi huquqshunoslik, falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik, tarix fanlarida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish dolzarbligini yo'qotmadi. Jumladan, B.Kochman-Haladyj haqli ta'kidlagandek, "Folklor kategoriyasiga muhim indikator sifatida qarash kerak, chunki uni inson stereotiplari, jinslar munosabati, gender masalalari va munosabatlarini umumiy idrok etishdagi muhim ko'rsatkichi sifatida ko'rish mumkin" [2].

Maqol va matallar insonning atrofidagi bo'layotgan voqelik va hodisalarni muayyan tarzda idrok etishi natijasida yuzaga keladi. Gap shundaki, turli toifaga xos bo'lgan mehnatkash xalqning turmush sharoiti, ularning isyonkor qarashlari natijasi deb qarash mumkin. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, maqollar ajdodlarimizning teran fikrlari, boy tajribalari, o'y-mulohazalarini o'zida mujassam etgan, mazmun va lisoniy shaklini to'liq saqlab qolgan ulkan ma'naviy merosimiz hisoblanadi. "Ular tilda turg'un birikmalar bilan to'yintirilgan milliy an'analar, madaniy streototiplar, mifologiya va boshqalar bilan bog'liq majoziy iboralar bo'lib nutqda qo'llanganda esa ma'lum bir til va jamoaga xos mentalitetni takrorlaydi" [3].

Shunday qilib maqollarni o'rganish jarayonida o'zbek xalq ongida metindek mustahkamlanib qolgan "nikoh" tushunchasining mazmuni va o'ziga xosligi haqida ko'plab lingvistik ilmiy ma'lumotlarni aniqlashda yordam beradi. Demak, maqollarda nikoh mavzusi amaliy jihatdan oila tayanchi, ya'ni er va ayolning o'zaro sevgi, vafo, o'zaro hurmati, shuningdek, urning oiladagi tutgan o'rni, ayolning oiladagi o'ziga xos fazilatini ochib berishga qaratiladi.

Maqollarni tahlil qilish jarayonida ona tilida so'zlashuvchi millatning eng muhim axloqiy qadriyatlarini, tarixi, mentaliteti va ma'naviyatining o'zaro ta'siri natijasi, xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da nikohga quyidagicha ta'rif beriladi: nikoh [a.نكاح] uylanish, erga tegish, er-xotinlik; er-xotinning qovushishi [huq].

1. Er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domula tomonidan o'qiladigan shartnoma, nikoh qilmoq, nikoh o'qimoq.

2. Er-xotinlikning o'zaro roziligi bilan huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoq; er-xotinlik nikoh to'yi, nikoh to'g'risida guvohnoma [4].

"Nikoh" so'zi lug'atda "qo'shilish", "jamlanish", "yaqinlashish" ma'nolarini anglatadi. Shariatda esa:

"nikoh bahralanish egaligini hosil qiluvchi bog'lanishdir" [5]. Tadqiqotlarda nikohni bir necha yo'nalishlarda muhim va qimmatli jihatlarini ko'rib chiqadilar.

Birinchi yo'nalish konsepsiyasi maqollarda "nikoh", er va xotin munosabatlarini tildagi tahlillarini amalga oshirish [6] hamda to'plangan materiallar asosida ikki yoki undan ortiq tillardagi maqollarni qiyoslash, olam manzarasi tasvirida peremialarga urg'u berish orqali amalga oshirish [7], matnda paremiologik tasvirni berish [8], matn tarkibida lingvosemiotik tushuncha va xususiyatlarini o'rganish [9].

Ikkinchi yo'nalishdagi tadqiqotchilar maqolalarda oila va nikoh an'analarini va munosabatlarida olamning lisoniy manzarasining tasvirini berish orqali muammoga yondashishni ma'qul ko'radilar [10]. Har qanday tilda nikoh bilan bog'liq maqolalar borki, milliy mentalitetni o'zida mujassam etganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Masalan, V.A.Detkova oiladagi gender tengligi munosabatlarini aks ettiruvchi maqolalarga e'tibor qaratishni lozim topadi [11].

Shuning uchun ham tadqiqotimizda frazeologik, tavsifi usul, funksional –stilistik va kognitiv, pragmatik tahlili bilan bir qatorda germenevtik talqin usullaridan foydalanishni lozim topdik. Ma'lum bo'ladiki, nikoh haqidagi maqollar tadqiqot obyektimizning markazi, preferiyasi sifatida tahlil etiladi. Avvalo, maqol so'zining ta'rifi va turli tillardagi nomlanishiga e'tibor qaratish lozim hisoblanadi. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy –maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi deb yuritiladi. Maqol atamasi arabcha (قول) - qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan [12].

O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: [a. – maqola, kichik asar so'z, nutq] hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap o'zbek xalq maqollari [13]. O'zbek tili materiallarida maqollarni o'rganish jarayonida nikohni ifoda etuvchi bir qator mavzuiy guruhlarini tashkil etishiga e'tibor qaratildi. Birinchi guruhga nikohning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, insonning mazmunli hayotiy kechirishdagi mustahkam rishta ekanligini anglatuvchi maqollar kiritiladi.

Maqollarda pragmatik ma'no ustuvor hisoblanib matn ma'nosini lisoniy jihatdan keng yoritib beradi. Maqollar ikki sodda gapning shakl va mazmuniy birligidan tashkil topadi. Semantika va sintaksisning o'zaro uzviy aloqadorligi maqollarning pragmatik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Lisoniy birliklarning sintaktika va semantikasi bu birliklarning to'liq tavsifi uchun kamlik qiladi. Sintaktika va semantikaga pragmatika qo'shilgandagina, ular o'zining haqiqiy talqinini topadi. masalan: *Hamma vaqtini xushmud*

o'tkazmoqda jumlasini orqali muayyan shaxslar va ularning muayyan zamon va makondagi holati propozitsiyasi ifodalangan. Lekin jumla orqali ifodalangan propozitsiyaning so'zlashuvchilarga tushunarli bo'lishi uchun bugina kifoya qilmaydi. Buning uchun so'zlashuvchilar vaqtini xushnud o'tkazayotgan ma'lum guruhlar haqida va bu guruhlarning holati haqida, ro'y berayotgan ma'lum makon va zamon haqida umumiy bilimga ega bo'lishlari lozim bo'ladi. Chunki dunyodagi barcha odamlar vaqtini xushnud o'tkazishi mumkin emas. Demak, yuqoridagi jumla aniq shaxslar, aniq makon va zamon bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Jumla orqali ifodalanayotgan propozitsiyaning nutq vaziyati bilan ana shunday munosabatini o'rganish jumlaning pragmatika tomonini tashkil etadi [14]. Bu masalani o'zbek xalq maqollari tahlilida ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, *Xotinlik ro'zg'or guldir, Xotinsiz ro'zg'or cho'ldir; Xotinning sarishtasi, Odanning farishtasi; Xotinsiz o'tish -xato, Bolasiz o'tish -jafu; Boshing ikki bo'lmaquncha, Moling ikki bo'lmaydi; Bo'z yaktak qichitar, Yaxshi xotin tinchitar va hokazo*. Ko'rinadiki, oilada er va xotinning o'zaro bir-biriga bo'lgan hurmat, muhabbat asosiga qurilgan turmushi inson ruhiyatiga emotsionallik bag'ishlaydi.

Tahlil va natijalar

Anglashiladiki, nikoh oila qal'asi, bu qal'a mustahkam. Er va ayol qal'aning posbonlari. Shuning uchun ham maqollarda er-xotin munosabati lingvistik metaforik tarzda aks etadi. Ayniqsa, ayolning jamiyatda, oila va yori oldidagi yuksak mehr-muhabbat tuyg'ularining ifodasi pragmatik yondashuv orqali ochib beriladi. Chunki ayol jisman nozik, biroq jamiyatning bosh bo'g'ini. Jamiyatni ayolsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayol jamiyat bunyodkoridir. Keltirilgan maqollar lingvistik ma'no xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadilar. Biroq pragmatik jihatdan ayol kishidagi mehribonlik, yoqimlilik, oilaga muhabbat, donolik fazilatlarini bilan bir mazmuniy maydonga tashkil etadi.

Bir semantik uyadagi maqollarning barchasida bo'ladigan yagona mazmun orqali ular bir tematik guruhga birlashadi, ularning har biri alohida obraz asosiga qurilganligi va ayni paytda har qaysi maqol o'zining ma'no nozikligi hamda qo'llanish darajasi bilan muayyan tafovutga ega. Masalan, *Yig'lagisi kelgan bola otasining soqolini o'ynar* maqoli o'zi mansub bo'lgan mavzuiy uyadagi maqollar orasida o'z ma'nosida qo'llanilishi bilan boshqa 13 maqoldan tubdan farq qiladi [15]. Demak, yuqoridagi har bir maqol o'ziga xos obrazli va mazmunan boy tasvirni bera olsa-da, birgina muqaddas ayol semasi atrofida umumlashadi.

Har bir so'z pragmatik jihatdan nikohli ayolning ma'naviy qiyofasini keng yoritishga xizmat qiladi. Shunday qilib, inson uchun er-xotinning o'zaro yaxshi, vafo, sadoqatga to'la munosabati ma'naviy va jismoniy boylik, baxt hisoblanadi. Xalq maqollarida ayol timsolining

metaforik tarzda namoyon bo'lishi miqdor jihatdan ham ancha. Maqolni yahlit holda metafora, majoz yoki ramz sifatida tushunish lozim. Metaforik ma'no maqolning mohiyatini tashkil etadi. Aks holda, u oddiy naqldan iborat bo'lib qolar edi [15]. Tahlilarga e'tibor qaratsa, *Xotinlik ro'zg'or guldir, Xotinsiz ro'zg'or cho'ldir* maqolida ayolning oiladagi faoliyati tejamkor, dasturxon bezagi, aql-zakovat timsoli ekanligini anglatadi.

Ayolning oila ro'zg'ori xarajatlarini bir maromda ushlashi yoki doimiy ravishda nazoratda olib borishi, oiladagi kamchiliklarni sezdirmasligi chiroyli nafis gulga qiyoslanadi. Chunki gul borliqqa nafis ifor taratadi. Ayol esa erining ro'zg'ordagi borlig'ini bezovchi, chiroyini ochuvchi guldir. Uning aksi oilada ayolning bo'lmasligi ro'zg'orning kemtkligi, dasturxonning to'kis emasligi, *hotinning sarishtasi, odanning farishtasi* maqolida ayolning oilada toza, pokiza, saranjom, fayzli ro'zg'or yuritishini pragmatik ma'noda ifolaydi. Ikkinchi vaziyatda ayol nikohi bilan farishta singari beg'ubor, farishtalar alloh taolaga qanday sodiq xizmatchi bo'lsa ayol ham juftiga shunday sodiq metaforik ma'no ifodalanadi. Ko'rinadiki, sarishta va farishta leksemalari maqolga metaforik ma'nonini olib kirishi bilan maqolning emotsionalligini kuchaytiradi.

Xotinsiz o'tish xhato, bolasiz o'tish - jafu maqolida insonning yaratilgandan buyon Odam Ato va Momohavoning nikohi bilan bog'liq, doimo juft bo'lib yashash jamiyat va shaxs uchun eng ma'qbul yo'l ekanligi ifodalanadi. Maqolda insonning yashashdan maqsadi o'z kelajagi poydevorini tiklash, uni avlodlariga ulug'vor, yuksak bino sifatida qoldirishdan iborat. Demak, maqolda *xotinsiz o'tish-xato* jumlasini shaxsning oila qurishi va er va ayolning hayotda sog'lom va farovon hayot kechirish uchun mutlaqo zaruriylikni aks ettiradi. Maqolning ikkinchi *bolasiz o'tish-jafu* jumlasida qismi birinchi jumlaning to'ldirib kelmoqda.

Anglashiladiki, xotinsizlik leksemasi bolasizlik leksemasiga bir-biriga ma'no jihatdan uzviy aloqador hunki ayol bir o'lim evaziga dunyoga keltirgan zururiyotning onasi, bola uning jigarbandi. Aslida bu maqol jo'n ko'rinishga ega bo'lsa ham, uning kognitiv va pragmatik, metaforik ma'nolari kengdir. Nega xotinsizlik davlatchilik qonunlarida, shuningdek, islom sha'riat qonunlarida qoralanadi. Hozirgi kunda g'arb davlatlaridagi bir jinsli "nikoh"ning targ'ib qilinishi jamiyatdagi er va ayol jinsini farqlanmaslik illati jamiyatni inqirozga olib keladi. Albatta, noinsoniy g'oyalar ilg'or, teran tafakkurga ega jamiyat va davlatlar tomonidan bu "nikoh" qoralanadi.

Jamiyatning pokizaligi va avlodlar davomi ayolga bog'lanadi, unga yuksak baho beriladi. Ko'rinadiki, xalqimizning bir necha asrlar davomida yaratgan bunday o'ta mulohazali maqollari hozirgi kunda ham o'z iforini yo'qotmagan. Demak, jamiyatni pokiza, turli iflosliklardan holi bo'lishi va eng avvalo avlodlar davomi ayolga

bog'liqligi metaforik ma'no orqali ko'rsatilgan. *Boshing ikki bo'lmaguncha, moling ikki bo'lmaydi* maqolida ham yuqoridagi singari pragmatik, metaforik ma'nolar ifodasi mavjud. Insonni hayotda juft bo'lib yashash qonun.

Maqolning birinchi qismida boshning ikki bo'lishi er va xotinlik belgisiga ishora. Pretsuppozitsiya turmush qurmoqlik.propozitsiya o'z juftiga ega bo'lmoqlik. Maqolning ikkinchi qismida molning ikki bo'lmasligi haqidagi pragmatik ma'no ifodalanadi. Bunda, pretsuppozitsiya uyga ayol kelishi turmushga fayz, to'kinlik beradi xulosasini ifodalaydi. Bundan, er kishining boyligi haqidagi ikki propozitsiya gavdalanadi. Birinchidan, ayolning nikohli kirib kelishi, ikkinchidan esa er xonadonida chaqaloq ovozi va iqtisodiy farovonlikning rivojlanishi ifodalanadi.

Bo'z yaktak qichitar, Yaxshi xotin tinchitar bu maqolning birinchi qismi o'quvchi uchun bo'z yaktak kiygan inson bo'zning qalin mato ekanligi va bu kiyinganda tanaga qichitish berishi haqidagi fikrni anglashi mumkin. Gap shundaki, maqolning birinchi qismini ikkinchi qismi to'ldirishi natijasida maqolda anglashilgan ma'no reallashadi. Ya'ni mato bilan xotin o'rtasida qanday bog'liqlik bor savol kelib chiqadi. Albatta, bu insonning ozodaligi bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki bo'z yaktakni kambag'al tomonidan uzoq muddat yuvilmasdan kiyinib yurishi inson tanasiga ta'sir etadi. Qichishishni yuzaga keltiradi. Erining ozodaligi, pokizaligiga e'tiborli xotin kir bo'z yaktakni pokiza etadi. Ma'lum bo'ladiki, keltirilgan maqolda kognitiv va pragmatik ma'nolar ifodalangan. Birinchi pretsuppozitsiya bo'z yaktakning qichitishi. "Qichitish" so'zi ikki ma'noda ifodalangan. Matoning qalinligi birinchi propozitsiya. Matoning kirligi ikkinchi propozitsiya. Ikkinchi matn bilan o'zaro bog'liq vaziyatdagi pretsuppozitsiya xotinning pokizaligidir. Bu matnda pretsuppozitsiya ikki propozitsiyadan tashkil topadi. Birinchi propozitsiya yaxshi xotin erni qadrllovchi. Ikkinchi propozitsiya ozodaligi va pokizaligini yuzaga chiqaruvchi. Ya'ni "tinchitmoq" so'zi tozalamoq, yuvmoq ma'nosini aks ettiradi.

Anglashiladiki, maqolning paragmatik ma'nosi ayol erining tozaligi, kiyinishiga e'tiborligi bilan bog'lanadi. Keltirilgan maqollardan ko'rinib turibdiki, nikohli xonadonda er va xotin shaxs sifatida oilada ma'naviyati, madaniyati va ota-bobolari, momolari o'gitlarini, milliy qadriyatlarini ruhan idrok etgan ramzlar tasvirida voqelanadi. Ma'lum bo'ladiki, maqollarda nikoh bilan boshlangan turmush pokiza, ishonch, muhabbat, sadoqat ramziga aylanadi. Demak, keltirilgan maqollarda ayolga nisbatan metaforik baho semasi ham ifoda etiladi.

Maqollarda er va ayolning nikohi o'zaro tenglik (gender) munosabati asosida qurilishi va bu munosabat xalqimizda qadimdan amalda qo'llanilib kelinishi pragmatik ma'nolarda yoritiladi. Masalan, *erning vazirni – xotin; Etni tirnoqdan ajratib bo'lmas; Er-u xotin–qo'shho'kiz;*

"Xotinim qiz tug'di!" deb o'pkalama, sherning erkak–urg'ochisi baravar!; Ayol erdan chiqqan emas, erkak bolasi. Erkak ko'kdan tushgan emas, ayol bolasi. Keltirilgan maqollarda oilada er – xotinning o'zaro tengligi hayotdagi og'ir qiyinchiliklarni, shirin damlarni birgalikda bosib o'tishi metaforik ifodalanadi.

Birinchi maqolda oilada ota–shoh, ona vazir ma'nosi yashirin ifodalangan. Er-ota so'zi oilani boshqaruvchi, boquvchi. Ona-vazir oilada ish yurituvchi, amaliy jihatdan bajaruvchi, tartibga soluvchi. Demak, mas'uliyat ikkisiga ham barobar.

Ikkinchi maqolda et va tirnoq haqidagi ma'no anglashiladi. Biroq maqolda yashirin ma'no oiladagi er va xotin munosabati haqida pragmatik ma'noni yuzaga chiqaradi. "Et va tirnoq" inson organizmida bir-biri bilan ajralmaydigan a'zolari hisoblanadi. Ikkisidan birining mavjud bo'lmasligi insonga azob beradi. Nikoh bilan mustahkamlangan oila esa et va tirnoq singari demakdir. Ko'rinadiki, et va tirnoq metaforik ko'chish asosida maqoldagi emotsionallikni yuzaga chiqarmoqda. Demak, maqolda oila er va xotin insonning jismoniy va ruhiy, ma'naviy jipsligi ramzi et va tirnoqning o'zaro munosabati fondida yoritiladi.

Er-u xotin–qo'sh ho'kiz maqolida nikohli oilada turmush bilan bog'liq hayot tashvishlarining yukini tortish er va xotinga barobar metaforik ma'no ifodalanadi. Maqolda "qo'shho'kiz" birikmasi metaforik ko'chish bo'lib er va ayolning hayot va turmush yukini birga tortuvchi mehnatkash sifatida ifodalaydi. Bilamizki, qo'shho'kiz azaldan xalqimizning og'ir mehnatini yengil qilgan hayvon sifatida qadrlangan. Demak, maqoldagi "qo'shho'kiz" birikmasi nikohli er –xotinning bir-biriga sadoqati va turmush qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tuvchi semalarini umumlashtiradi.

Xalq maqollarida nikoh bilan bog'liq metafora asosida nom ko'chish ham eng sermahul usul hisoblanadi. Masalan, *Totuv turmush-uzoq* umr maqolidagi birinchi komponent er xotinning vafo va sadoqati, bir-biriga muhabbati, hayotdagi o'zaro hurmati semalarini umumlashtirib totuvlikni yuzaga chiqarmoqda. Ikkinchi komponent uzoq umr birikmalik shakli tinchlik, sog'lik, o'zaro ishonch, hamfikrlik semalarini umumlashtirib birinchi komponent bilan motivatsiyasiyalashgan holda maqol ma'nosini reallashtirmoqda. Demak, er-u xotinning totuvligi, tinch hayoti, nikohga muhabbati uzoq umr ko'rishni ziynati hisoblanadi. komponent tahlil nazariyasiz metaforaga yondashish metaforani sof nutqiy, tasodifiy hodisa sifatida ko'rsatadi. Biroq nutqiy hodisalarning hammasida ham lisoniy asoslar mavjud va mana shu asoslarni biz komponent tahlil etish natijasida qo'lga kiritamiz. Metaforik ma'no nutqiy hosila bo'lsa-da, u lisoniy imkoniyat va qonunlarga tayanadi [16].

Quyidagi maqolda *qora yer* birikmasi ishlatilib metaforik ma'noga ega. Masalan. *Erni er qiladigan ham xotin, Qora yer qiladigan ham xotin.* Maqol matnida *qora yer*

birikmasi er kishini el-yurt, do'st-u birodar, qarindosh-urug' oldida boshini egadigan, hurmatini yo'qotuvchi aqlsiz, imonsiz, axloqsiz xotin semalarini tashiydi. Erni er qilish birikmasida nikohni ma'suliyatini o'zida saqlovchi, imon-e'tiqod, hayo va iboda yagona ayol semalarini ko'z oldingizda aks etishi hisoblanadi. Demak, maqolda ayoldagi ikki xislatni verballashuvi yuz beradi. Ayol beg'ubor, chiroyli, oilaga xushbo'ylik taratuvchi o'simlik gulga qiyos qilinadi. *Yaxshi xotin-uyning guli*. Albatta, har qanday gulni o'z chiroyi tarovati bor. Gulning ko'chma metaforik ma'noda kelishi, ayolning nikohi bilan oila yumushlarini beminnat xizmat ato etuvchi, oilani qadrlovchi, farzandlariga mehribon semalarini o'zida mujjassam etishi bilan mazmunan ijobiy baho munosabatini aks ettiradi. Gulning nozik va chiroyli bo'lishi o'simlik dunyosiga allohning nazari bilan bog'lanadi. Xotinning, ayniqsa, yaxshi xotinning gulga qiyosi nikoh bilan bog'liq hisoblanadi. Ko'rinadiki, "yaxshi xotin" oila farovonligi, tinchligi va erining muvaffaqiyatlarining garovi sifatida ifodalanadi. Ma'lumki, maqollar patriarxal (ona urug') jamoasida davriga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida aks etadi. Chunki, ona urug' jamoasi davrida ayol jamiyat hayotidagi barcha ishlarni o'z zimmasiga olgan.

Shuningdek, o'zbek xalq maqollarida "yomon xotin"larning oilasiga, eriga, jamiyatga zararini anglatuvchi haqida pragmatik, metaforik ma'nolar ifodalashi beriladi. *Yaxshi xotin-uy egasi, Yomon xotin-yo'l egasi; Yaxshi xotin-uy ziynati, Yomon xotin to'y ziynati; Yaxshi xotin ishlik bo'lar, Yomon xotin tillik bo'lar*. Keltirilgan maqollar semantik jihatdan bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalaydi. Chunki maqollarda bir-biriga qarama qarshi zidlanish ma'nolari ifodalanishi ma'nolardagi umumiylikni tashkil etadi.

Xususiylik jihatidan har bir maqol o'z kognitiv pragmatik, metaforik ma'nolarini ifodalaydi. Birinchi maqolda birinchi qismidagi yaxshi xotinning uyga egalik qilishi nikohning hurmati bilan bog'lanadi. Bu pragmatik pretsuppozitsiya ikki propozitsiyadan iborat. Birinchi pretsuppozitsiya xotin uyda farzand tarbiyasi, ozodaligi, erning nikohli ayoli. Ikkinchi presuppozitsiya oilaning barcha masalalariga ma'sul bo'lgan nikohli honadon bekasi. Maqolning ikkinchi qismidagi yomon hotinnning yo'lga egaligi ikki propozitsini tashkil etadi, ya'ni birinchi propozitsiya ko'chadan uyga kirmay vaqtini bekor o'tkazuvchi semasi orqali ifodalanadi, ikkinchi propozitsiya o'tgan-ketgan bilan kechgacha g'iybatlashuvchi, ko'cha handon uy zindoni semalari ma'nolarini ifodalaydi. Demak, yo'lning egasi semasi yomon hotinning ahloqida ma'lum bo'ladi.

Keltirilgan ikkinchi maqolning birinchi qismi bilan ikkinchi qismida xotonga nisbatan zidlanish yaxshi va yomon baho semalarida aks etadi. Gap shundaki, birinchi qismidagi pragmatik ma'no xotinning yaxshiligi uydagi sarishtaligi, farzandlariga bo'lgan onalik muhabbati, eriga

bo'lgan sadoqati, vafosi bilan voqelanadi. Ziynat so'zi birinchi qismda go'zallik, bezak, husn, ko'rk beruvchi singari semalari bilan yaxshi xotindagi umumiy hislatlarini namoyon etadi. Ikkinchi qismidagi pragmatik ma'no yomon xotinning to'ydagi holati nima uchun ziynatli savoli orqali ochib beriladi. Mantiqan yomon xotin tushunchasi buzg'unchi, shallaqi, erini va boshqalarni behurmat qiladigan ayol. Maqolning bu qismidagi pragmatik protsuppozitsiya kelin to'ylaridagi qudalar o'rtasidagi oldi-berdi va kutib olish bilan holatlar bilan bog'liq yuzaga chiqadi.

Birinchi propozitsiya har qanday to'yda "yomon" xotin barcha to'y xarajatlariga egalik qiladi. Ikkinchi propozitsiya to'y ziynatini ijobiy ma'noda yuzaga chiqaruvchi hisoblanadi. Masalan, "Mahallada duv-duv gap", "To'ylar muborak" kinolaridagi epizodlar bunga misol bo'la oladi. Tilshunos Sh.Safarovning ta'kidlashicha: "Gap ma'nosining asosini tashkil qiluvchi propozitsiya voqelikda yoki tasavvurda kechayotgan hodisa-faktning semantik ramzidir. Propozitsiya va voqelikdagi hodisa o'rtasidagi mutanosiblik gap strukturasi o'z aksini topadi. Gap strukturasi argumentlar va partitsipantlar bilan bir qatorda belgi-xususiyatlar ham o'rin oladi. Shu sababli "propozitsiya" tushunchasiga tasnif beruvchi olimlar ushbu hodisani "leksik nomlar"ning "semantik-sintaktik" munosabatlar asosida yaxlit mazmun ifodasi maqsadida birikishda ko'radilar [17].

Yaxshi xotin ishlik bo'lar, Yomon xotin tillik bo'lar maqolining birinchi qismida "ish" so'zining pragmatik ma'nosidagi pretsuppozitsiya ikki propozitsiyadan iborat bo'ladi. Birinchi propozitsiya oilada farovon uy bekasi, farzandlarining mehriboni, turmush o'rtog'iga beminnat hamkor semalarini birlashtiradi, ikkinchi propozitsiya turmush tashvishlari va quvonchlarida jufti-haloliga amaliy ko'makchi semalarini ifoda etadi. Demak, maqolning ikkinchi qismida "yomon" so'zi "tillik" so'ziga bog'liq reallashadi. Ya'ni, tillik metaforik ma'no ko'chish orqali maqolga mazmuniy ma'no beradi. Til so'zi ko'p ma'noli so'z hamdir. Metafora ham ko'p ma'nolilikni yuzaga chiqaradi. "Yomon" xotindagi "tillik" ko'chma ma'noda qo'llanilgan bo'lib ko'p gapiradigan, boshqalar gap-so'zlarini ma'qullamaydigan, janjal sotib oladigan, turmush o'rtog'idan baland keladigan semalarini o'zida birlashtiradi.

Xulosa

Aytish mumkinki, nikoh bilan bog'liq o'zbek xalq maqollarining tuzilishi ohangdor, qofiyadosh shaklda ifodalanadi. Birinchi gapdagi ifodalayotgan ma'noni ikkinchi gap mazmunan to'ldirib, psixologik kayfiyat, emotsionallik bag'ishlaydi. Bilamizki, nikoh bilan bog'liq bunday maqollarda er, xotin, oila munosabatlari markaziy o'rinda bo'ladi. Shunday qilib, maqollarda nikoh bilan bog'liq kognitiv, pragmatik, metaforik ma'nolar ko'plab tavsifiy ifodalar orqali voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Алефиренко Н.Ф.** Фразеология и паремиология: Учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования / Н.Ф. Алефиренко, Н.Н. Семененко. - М.: Флинта: Наука, 2009. - 344 с.
2. Kochman-Haladyj B. Perception of Women in Proverbs Across Cultures of the Changing World //Language, Literature and Culture in the Changing Transatlantic World II. Presov: Filozofická fakulta Prešovskej university. – 2012. – Т. 317. – С. 338.
3. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. - 288 с.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. 1. А - Д / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006, - 680 б.
5. Шаҳх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Бахтиёр оила - Тошкент: «Hilol-Nashr», 2013. - 504 б
6. Лебедева С. П., Базилевич В. Б. Концепт супружества в англоязычных паремиях // Общество. Наука. Инновации (НПК-2017). – 2017. – С. 3875-3881.
7. Марфина Ж. В. Ценностно-аксиологическая реализация микроконцептов муж, жена в украинской и русской паремийных картинах мира //Вестник Костромского государственного университета. – 2018. – Т. 24. – №. 1. – С. 90-94.
8. Orlova T. G. The implementation of the conception of friendship on the basis of comparative structural-semantic analysis of English and Russian proverbs //RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics. – 2020. – Т. 11. – №. 2. – С. 301-318.
9. Новоспасская Н. В., Малала Р. А. М., Лазарева О. В. Образ женщины в русской, французской, испанской и малагасийской лингвокультурах на материале паремий //Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2019. – Т. 10. – №. 2. – С. 301-322.
10. Сарангаева Ж. Н. Аллегорическое представление концепта " брак" в калмыцких, русских и английских паремиях //Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – 2018. – №. 3 (222). – С. 93-97.
11. Фардиева К. Р. Репрезентация семейных традиций в паремиях и фразеологии русской и английской языковых картинах мира //Linguistica Juvenis. – 2020. – №. 22. – С. 182-189.
12. Деткова В. А. Гендерные отношения в семье как отражение национального менталитета (на примере русских и английских пословиц) //Наука, образование и культура. – 2017. – №. 9 (24). – С. 32-37.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. 1. А - Д / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007, - 671 б.
14. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилд. Тошкент: "Академнашр", 2012. – Б 276.
15. Xolmatova O.U. O'zbek xalq maqollarining lingvokognativ hususiyatlari. Farg'ona. Filol. fan. bo'yicha. fal. dok. (PhD) ilm. dar. ol. uchun yozil. diss. 2024. 90-b.
16. Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Fillog. fan. nom. ilm. dar. diss. Avtoreferati. Toshkent. 2000. 7-b.
17. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent. 2008. 101-b.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

A. Tilakov

Jizzax davlat pedagogika universiteti
«Sport turlarini o'qitish metodikasi» kafedrasida katta o'qituvchisi

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA KASBIY-MADANIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH (KURASH MISOLIDA)

Annotatsiya. Ajdodlarimizdan qadriyat sifatida bizgacha me'ros bo'lgan kurashning bugungi kunda jadal suratlarida rivojlanib borishi va uning istiqbolini belgilab beruvchi omillardan biri bu kadrlar masalasidan iboratdir. Kurashning tarixi 3-3.5 ming yillik tarixga borib taqlgan bo'lsada, kurashning asosiy rivojlanishi davri o'tgan asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi. O'sha yillarda kurashga yetarli darajada e'tibor berilmaganligi tufayli jismoniy tarbiya darslar jarayonlarida elementlaridan qisman foydalanib kelinganligini ko'ramiz.

Kalit so'zlar: kurash, qadriyat, sport, sog'liq, tarbiya, milliy, kadrlar, kurash tarixi.

A. Тилаков

Джизакский государственный педагогический университет
Старший преподаватель кафедры «Методики преподавания спорта»

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ОТНОШЕНИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ БОРЬБЫ)

Аннотация. Одним из факторов, определяющих быстрое развитие борьбы, доставшейся нам от предков как ценность, и ее перспективы, является кадровый вопрос. Хотя история борьбы насчитывает 3-3,5 тысячи лет, период основного развития борьбы соответствует 60-70-м годам прошлого века. Из-за недостаточного внимания к борьбе в те годы мы видим, что элементы физического воспитания частично использовали в процессах уроков.

Ключевые слова: борьба, ценность, спорт, здоровье, воспитание, народ, кадры, история борьбы.

A. Tilakov

Jizzakh State Pedagogical University
Senior teacher of the "Methodology of teaching sports" department

FORMATION OF PROFESSIONAL-CULTURAL RELATIONSHIPS IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS (THE EXAMPLE OF WRESTLING)

Abstract. One of the factors determining the rapid development of the fight, which has been inherited from our ancestors as a value to us today, and its prospects, is the issue of personnel. Although the history of wrestling goes back 3-3.5 thousand years, the period of the main development of wrestling was in the last century.

It corresponds to the 60s and 70s. Due to insufficient attention to wrestling in those years, we see that elements of physical education were partially used in the processes of lessons.

Key words: struggle, value, sport, health, education, national, personnel, history of struggle.

Ma'lumki, kurash sporti yoshlarning jismoniy madaniyatini takomillashtirishning asosiy vositalaridan biridir. Bundan tashqari, kurash eng qadimiy, hammabop va keng tarqalgan sport turidir. Qadimda xalqimiz ichida ephillik, chaqqonlik, kuchlilik va irodaviy fazilatlarini o'zlarida mujassam etgan kishilar ko'p bo'lgan.

Ushbu fazilatlar va yuksak texnik-taktik mahoratga ega bo'lgan mashhur kurashchilarni o'zbek xalqi polvonlar deb atashgan. Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sinoning "Tib

qonunlari" kitobida kurash insonni ruhiy va jismoniy holatini yaxshilashning muhim vositasidir deya e'tirof etilgan. She'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy asarlarida esa kuchli kurashchilarning bellashuvlari tasvirlangan hamda ba'zi usullarning ta'rifi keltirilgan. Ushbu asarlardan ko'rinib turibdiki, o'zbeklarda usullar tizimi yetarlicha rivojlangan milliy kurash sporti mavjud bo'lgan. Kurash sohasidagi yetakchi mutaxassislar A.Atoyev, F.A. Kerimov, K.Yusupov, N.X.Azizov,

J.Toshpo'latov, U.Ibrohimov, Z.Jumayevlarning ilmiy-uslubiy manbalarida tasdiqlanishicha, ajdodlarimizning madaniy taraqqiyoti ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va maishiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu esa kurash, xalqimizning etnik madaniy turmush tarzi, jismoniy madaniyati bilan uyg'unlikda taraqqiy etib kelganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga kurashning tarixiy taraqqiyotini, turli ijtimoiy tuzumlar davridagi madaniyat, ma'rifat, tarixiy voqealar hamda an'analardan alohida ajratib o'rganib bo'lmaydi. Mustaqillik hammaning orzularga to'la qabiga shodlik baxsh etib o'zligimizni, asrlar davomida ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan o'lmas qadriyat va urf -odatlarimizni qaytarib berdi. Ajdodlarimizdan qadriyat sifatida bizgacha me'ros bo'lgan kurashning bugungi kunda jadal suratlarida rivojlanib borishi va uning istiqbolini belgilab beruvchi omillardan biri bu kadrlar masalasidan iboratdir.

Kurashning tarixi 3-3.5 ming yillik tarixga borib taqlgan bo'lsada, kurashning asosiy rivojlanishi davri o'tgan asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi. O'sha yillarda kurashga yetarli darajada e'tibor berilmaganligi tufayli jismoniy tarbiya darslar jarayonlarida elementlaridan qisman foydalanib kelinganligini ko'ramiz. Kurashning rivojlanishida T.Odilov, A.Atoev, J.Tursunov, K.Yusupov, O.Toymurodov, O.Xayitov, X.Rafiyev, A.Tilakov, R.To'rayev, a.Abdusattarov kabi fidoyi murabbiy olimlar tomonidan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma chop etilibkurashning boshqa sport turlari kabi o'z o'rni va nufuzi borligi asoslab berdi.

Bu murabbiylar va olimlar tomonidan kurashning asoslab berilganligi tufayli oxirgi 15 20 yil ichida kurash qadrlanib, sayqalib, rivojlanib kelmoqda. Kurash usullar tizimini rivojlantirishda A.Atoev, k.Yusupovlarning harakatlari natijasida kurash jahonga yuz tutdi. Kurashning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini va moddiy bazalarini berish hurmatli birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan amalga oshirildi. Kurash qoidalari ajdodlarimizning urf-odatlarini, udumlari, ishlatilgan atamalarini asosida sodda va oddiy qilib ishlab chiqildi.

Polvonlarning ijobiy harakatlari halol", „yonbosh“, „chala“ atamalarini ishlatish bilan baholanib tomoshabinlar tomonidan tez va oson o'zlashtirib olindi. Respublikamizda mustaqillikdan keyin xalqaro turnirlar, Osiyo, Jahon birinchiliklarining o'tkazilishi buning yaqqol namunasidir. 2005-yil Toshkentda, 2011 yil Termizda o'tkazilgan jahon birinchiliklari Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida o'tkazilib kelinayotgan xalqaro turnerlarda chet-ellik hakamlarning ishtiroki va gilamdagi gilamdagi xolatlarni baholashlari, atamlarni aytishlari bunga misol bo'ladi.kurash bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalar dunyo axliga yorqin ta'surotlar, zavqu surur ilashmoqda. Buning barchasi kurash umuminsoniy

qadriyat sifatida munosib o'rin olishiga xaqli ekanligining tasdig'idir. Kurash azal-azaldan to'y-xashar, xalq sayillarida uyushtirilib xalollik, or-nomus belgisi sanalgan. O'rgatish nazaryasi va usuliyati, texnikasini egallashni, mustaqil ishlash uchun zarur bo'ladigan kasbiy ko'nikma va malakalarni egallashni ko'zda tutadi.

Kurash fanini o'qitishdagi faoliyatlari g'oyat murakkab va ko'p qirrali jarayon xisoblanadi. Turli nomlardagi darsliklarni o'rgatish bilan bir qatorda, talabalarning xulq-atvorlari, bilan darajalari va fanga bo'lgan munosabatlarini kuzatish, o'rgatish, tarbiya berish bilan qo'shib olib boriladi. Buning uchun o'qituvchida chuqur bilim, pedagogik mahorat va shaxsiy namuna, tashabbuskorlik, yangilik sari ijodiyizlanish faoliyatlar ustun bo'lishi kerak. Kurash darslari, mashg'ulotlari va musobaqa jarayonida talabalar shikastlanishini tabiiy bir hol. Bularning asosiy sabablari quydagicha; Darslarda o'qituvchi tomonidan talabalarga e'tiborsizligi; Mashqlarni bajarishda o'zini ximoya (straxovka) qilishni bilish; Kurash kiyimi (yaktak) da darslarda qatnashmasligi; Shaxsiy gigiyenik qoidalariga rioya qilmaslik; O'qituvchining, murabbiyning ruhsatisiz mashg'ulotlarga kirishish; Taqiqlangan buyumlar taqib kirishi (uzuk, zagolka).

Kurashchining jismoniy tayyorgarligi undagi maxoratining tarkib topishiga hayotiy muhim sifatlar xamda mehnatga va vatanni himoya qilishga zarur bo'ladigan malakalarning xosil bo'lishida asos bo'lib xisoblanadi. Mashg'ulotlarni tashkil etish va jihozlanish, joylarning soddaligi tufayli kurash yoshlarni mamlakatimizda ommaviy jismoniy tarbiya va sport harakatiga jalb qilishga yordam beradi. Bugungi kunda milliy sport turimiz kurash rivoj topib, sportchi yoshlarimiz mahorati yanada ortib bormoqda.

